O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY - AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-YIL 17-18-APREL

KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR
A.TEMUR KO‘CHASI 27

2026
WWW.KATDPI.UZ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI”

mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI

Kattaqo‘rgo‘n sh. 17-18 aprel, 2026-yil

“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi: materiallar to‘plami. Kattaqo‘rg‘on, 17-18-aprel, 2026-yil.

Ushbu respublika ilmiy-amaliy anjumani Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instiutida 2026-yil, 17-18 aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘i ijrosi va Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti rektorining 2026-yil 6-fevraldagi **“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish muammolari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risidagi 31-ij sonli buyrug‘i asosida tashkil etilgan.

Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish bo‘yicha xulosa va takliflar tayyorlashga asoslangan hamda xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy tekshirish va sohadagi ilmiy markazlarning yetakchi mutahassislari, olimlari, professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchi, magistr va iqtidorli talabalari, shuningdek, ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining mutahassislari tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.

Muharrirlar: Sh.Urakov, F.Sirojiddinov. M.Turayev, T.Eshquvvatov, Sh.Daliyev, Z.Shukurov, J.Quchqorov, N.Ro’zieva, S.Igamov.

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutining 2026-yil 30-apreldagi 9-son Kengash qarori bilan tasdiqlangan.

KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITA TARKIBI:

Sh.R.Urakov	- Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti rektori, rais
F.Sirojiddinov	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
Sh.Mustafayev	- Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, a’zo
S.Elmonov	- O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo
M.Turayev	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
A.Saidov	- Pedagogika fakulteti, a’zo
S.Rajabov	- Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani, a’zo
G‘.Pirnazarov	- Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti, a’zo
J.O‘tayev	- RTT markazi boshlig‘i

KONFERENSIYA DASTURIY QO‘MITA TARKIBI:

F.Sirojiddinov	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais
M.Turayev	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais o‘rinbosari
M.Qudratov	- Xalqaro bo‘lim boshlig‘i, a’zo
T.Eshquvvatov	- Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, a’zo
Sh.Daliyev	- Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi mudiri, a’zo
Z.Shukurov	- Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, a’zo
J.Quchqorov	- O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, a’zo
N.Ro’zieva	- Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, a’zo
S.Igamov	- Amaliy fanlar va sport kafedrasi, a’zo
Q.Sharipov	- Rektorat kotib ish yurituvchisi, kotib

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning, sanoatning, umuman olganda hayotimizning deyarli barcha sohalarida foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmoni asosida. raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan:

Jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining yuqori sifat darajasida tezkor ravishda, yagona standartlar asosida ko‘rsatilishi;

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda, fuqarolarning davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga oid axborotlar bilan uzluksiz ta’minlanishi;

Davlat hokimiyatining ichki strukturalarida, hukumat organlarining turli bo‘g‘inlarida, tashkilot va muassasalarda idoralararo ichki munosabatlarda samaradorlikni ortishiga erishilmoqda.

Umuman olganda bugungi kunda iqtisodiyot, sanoat va texnikaning barcha yo‘nalishlari rivojlanayotganligini barobarida, ilm-fan sohasida ham raqamli texnologiyalar qo‘llanishi sohaning keyingi yangi yutuqlarini o‘zida joriy etish orqali yanada takomillashib, mukammallashib borishi tabiiy. Bugungi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filialida o‘tkazilayotgan ushbu “**Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy** konferensiyasi ham ta’lim sohasidagi muammolar hamda yutuqlarini muhokama qilish va xulosalar chiqarish uchun muhim hisoblanadi.

Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi
Alimova Gavxar Zayirovna

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING DARS MASHG’ULOTLARIDAGI FAOLIYATINI BAHOLASH DASTURINI ISHLAB CHIQISH: METODOLOGIK YONDASHUV VA MADANIY MOSLASHTIRISH MASALALARI

Sh.Urakov
Pedagogika fanlari doktori, Dsc.
M.Faxriddinov
Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning dars mashg’ulotlaridagi faoliyatini baholash dasturini ishlab chiqishning metodologik asoslari tahlil qilingan. So‘nggi yillarda talabalar tomonidan o‘qituvchini baholash (Student Evaluations of Teaching – SET) tizimlarining ishonchliligi, asosligi va madaniy kontekstga mosligi bo‘yicha xalqaro miqyosda jiddiy munozaralar davom etmoqda. Tadqiqotlar an’anaviy baholash vositalarining demografik omillarga bog‘liq tarafkashliklar, talabalar qoniqishiga haddan tashqari e’tibor qaratish va o‘qitish samaradorligini to‘liq aks ettirmaslik kabi kamchiliklarini aniqlagan. Maqola *Tailand, Ekvador, AQSh, Indoneziya* va boshqa mamlakatlarda olib borilgan ilg‘or tadqiqotlarni tizimlashtirgan holda, baholash vositalarini madaniy moslashtirishning yetti bosqichli jarayonini, psixometrik tekshiruv usullarini va amaliy qo‘llash mexanizmlarini yoritadi. Shuningdek, Sharq va G‘arb universitetlaridagi baholash yondashuvlarining qiyosiy tahlili orqali O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan baholash dasturini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi faoliyatini baholash, talabalar tomonidan baholash, madaniy moslashtirish, asosatsiya, SET vositalari, oliy ta’lim, psixometrik xususiyatlar, IMRAD, baholash dasturi, S-IMPACT, SEEQ.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyati va kurslarning talabalar uchun foydaliligini baholash tizimlari so‘nggi o‘n yilliklarda akademik muhitning ajralmas qismiga aylangan. Talabalar tomonidan o‘qituvchini baholash (Student Evaluations of Teaching – SET) natijalari nafaqat o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, balki ularni lavozimga ko‘tarish, doimiy ishga qabul qilish va moddiy rag‘batlantirish kabi muhim qarorlar qabul qilishda ham asosiy mezonlardan biri sifatida qo‘llaniladi[5]. Biroq, so‘nggi tadqiqotlar an’anaviy SET tizimlarining jiddiy kamchiliklarini ochib bermoqda.

Nebraska-Omaha universiteti olimlari Christopher Moore va Tracie Reding tomonidan Milliy Fan Jamg‘armasi (NSF) tomonidan moliyalashtirilgan loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mavjud baholash modellari demografik, fan sohasi va shaxsiy xususiyatlarga oid tarafkashliklarga ega [2]. Ushbu tizimlar ko‘pincha talabalarning real o‘rganish natijalaridan ko‘ra, ularning qoniqish darajasiga e’tibor qaratadi va ishonchlilik darajasi norealligi bu borada shubha uyg’otadi[2][5]. Xitoylik tadqiqotchilar Ding Yan, Wang Ying va Chen Kan tomonidan 24 ta dunyoning mashhur universitetlarini qamrab olgan tadqiqotda yana bir muhim jihat – baholash yondashuvlaridagi madaniy va mintaqaviy farqlar aniqlangan. Unga ko‘ra, Yevropa universitetlari “rivojlantiruvchi baholash” (development model) modeliga moyil bo‘lsa, Osiyo-Tinch okeani (Asia-Pacific) universitetlarida “yakunlovchi baholash” (attainment model) ustunlik qiladi.

Mazkur muammolar oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyati va kurslarning foydaliligini baholashning yangi, ilmiy asoslangan va madaniy jihatdan moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun xalqaro tajribani mahalliy kontekstga moslashtirgan holda tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oliy ta’limda o‘qituvchilar faoliyati va kurslarning talabalar uchun foydaliligini baholash dasturini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro tajribani tizimlashtirish,

metodologik yondashuvlarni tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda 2019-2025 yillar oralig‘ida nashr etilgan xalqaro ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari o’rganilgan. Manbalarni tanlashda ularning Scopus, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanganligi, metodologik jihatdan mustahkamligi va amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.

Tahlil qilingan manbalar geografik jihatdan Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya), Janubi-Sharqiy Osiyo (Indoneziya, Tailand, Malayziya), Yaqin Sharq (Turkiya, Iordaniya), Yevropa (Ispaniya, Niderlandiya) va Amerika (AQSh, Meksika, Kanada) mintaqalarini qamrab oladi. Bu esa baholash tizimlariga oid turli madaniy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini bergan.

Natijalar. Baholash vositalarini madaniy moslashtirish metodologiyasi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baholash vositalarini bir madaniy kontekstdan ikkinchisiga o‘tkazishda ularning psixometrik xususiyatlarini qayta tekshirish va moslashtirish zarur. Tailandning Mahidol Universiteti olimlari Chanisra S., Sanguantrakul T.R. va Puranitee P. tomonidan ishlab chiqilgan yetti bosqichli madaniy moslashtirish jarayoni eng mukammal metodologik qo‘llanma sifatida e’tirof etilgan[3]. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan:

1. **Adabiyotlar tahlili** –ilmiy maqolalardan va o‘qituvchi dars mashg’ulot faoliyatidagi xususiyatlarini aniqlash.
2. **Fokus-guruhlar** – 45 nafar talaba ishtirokida 6 ta fokus-guruh o‘tkazib, 252 ta ta’rif yig‘ish.
3. **Delfi usuli** – 35 nafar ekspert ishtirokida ikki raundli so‘rovnoma orqali 23 ta muhim xususiyatni saralash.
4. **Mazmun asosligi indeksi (CVI)** – har bir band uchun CVI >0,8 qiymatini ta’minlash.
5. **Kognitiv intervyular** – talabalar tomonidan savollarning to‘g‘ri tushunilishini tekshirish.
6. **Pilot testlash** – kichik namunada dastlabki sinov.
7. **Eksplorator faktorli tahlil (EFA)** va ishonchlilikni tekshirish.

Ushbu metodologiya asosida ishlab chiqilgan baholash shakli ikki faktorli tuzilmaga ega bo‘lib (Klinik fasilitator – 14 band va Kasbiy identiklikni qo‘llab-quvvatlash – 6 band), Kronbax $\alpha = 0,976$ kabi yuqori ishonchlilik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan[3].

Monash Universitetining Malayziyadagi tadqiqot markazi tomonidan olib borilgan “Teskari sinf” (flipped classroom) tajribasini o‘lchash vositalarini madaniy moslashtirish bo‘yicha tadqiqotda esa vositalarni yangi kontekstga moslashtirish nima uchun muhimligi asoslab berilgan. Turli mamlakatlar va madaniyatlardagi talabalar javoblarining xilma-xilligi baholash vositalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilishini imkonsiz qiladi [6].

Xalqaro miqyosda qo‘llanilayotgan asosiy baholash vositalari tahlili.

Tahlil qilingan manbalar asosida oliy ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan va psixometrik jihatdan mustahkam bo‘lgan baholash vositalari quyidagilardir:

SEEQ (Student Evaluation of Educational Quality) – Maryland Universiteti tomonidan ishlab chiqilgan ushbu vosita 9 ta o‘lchov va 34 ta savoldan iborat[5]. O‘lchovlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘rganish va qiymat (learning and value) - talabaning kursdan olgan bilimlari, foydaliligi va qiziqish darajasi,
- o‘qituvchining shijoati (instructor enthusiasm) - o‘qituvchining darsni qiziqarli va energiyali olib borishi,
- tashkiliy aniqlik va ravshanlik (organization, clarity) - darsning tuzilishi, tushuntirishlarning aniq va tizimli bo‘lishi,

- guruhning o‘zaro ta’siri (group interaction) - talabalarni muhokama va savol-javoblarga jalb qilish darajasi,
- individual muloqot va aloqadorlik (individual rapport) - o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlashi va munosabati,
- mazmun qamrovi kengligi (breadth of coverage) - fan materialining keng va turli nuqtai nazarlarda yoritilishi,
- baholash va imtihonlar (examinations and grading) - baholashning adolatliligi va test yoki imtihonlarning mosligi,
- topshiriqlar va o‘quv materiallari (assignments and readings) - uy vazifalari, o‘qish materiallari va ularning samaradorligi,
- yuklama va murakkablik darajasi (workload and difficulty) - kursning qanchalik og‘ir yoki yengil ekanligi.

Bularning barchasini baholashda 5 balli Likert shkalasidan foydalaniladi.

S-IMPACT va F-IMPACT vositalari – Nebraska-Omaha Universitetida ishlab chiqilgan ushbu vositalar Concerns-Based Adoption Model (CBAM) o‘zgarishlar nazariyasiga asoslangan[2]. S-IMPACT talabalar baholashi uchun, F-IMPACT esa o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi uchun mo‘ljallangan. Ikkala vosita ham sinf kuzatuvlari (COPUS – Classroom Observation Protocol for Undergraduate STEM) bilan assosatsiya qilingan. 14 ta kursda (N=691) o‘tkazilgan sinovlar vositalarning ishonchliligi va asosligini tasdiqlagan.

SPOT (Student Perceptions of Teaching) – G‘arbiy Virjiniya Universitetida ishlab chiqilgan vosita ochiq savollarga alohida e’tibor qaratadi. Talabalar roziligi protokoli bilan birga qo‘llaniladigan ochiq savollar “o‘qishim uchun foydali” konsepsiyasiga asoslangan[5] .

EEDDocente (Teacher Performance Evaluation Scale) – Meksikaning Quyi Kaliforniya Avtonom Universitetida ishlab chiqilgan vosita 1,422 nafar talaba ishtirokida sinovdan o‘tkazilgan. Ikki faktorli model 68% farqlanishni tushuntiradi va vosita turli guruhlar (yosh, jins) bo‘yicha o‘lchov o‘zgarmasligi (invariance) isbotlangan[4].

Sharq va G‘arb yondashuvlarining qiyosiy tahlili.

Ding Yan va hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqot Sharq va G‘arb universitetlaridagi baholash yondashuvlarining fundamental farqlarini aniqlagan. Yevropa universitetlarida “rivojlantiruvchi baholash” modeli ustunlik qiladi, ya’ni baholash natijalari birinchi navbatda o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Sharqiy Osiyo universitetlarida esa “yakunlovchi baholash” modeli keng tarqalgan bo‘lib, bu yerda baholash ko‘proq o‘qituvchi faoliyatining yakuniy natijalarini qayd etish va hisobot berishga qaratilgan.

André va boshqalar (2020) tomonidan 6 mamlakatda (Ispaniya, Turkiya, Janubiy Afrika, Janubiy Koreya, Indoneziya, Niderlandiya) o‘tkazilgan tadqiqot esa o‘qituvchilik amaliyoti talabalar tomonidan baholanishida madaniy va kontekstual farqlar muhim rol o‘ynashini isbotlagan[4]. O‘lchov invariantligi (measurement invariance) tahlili turli mamlakatlardagi talabalar bir xil savollarga turlicha yondashishlarini ko‘rsatgan.

Baholash vositalarining psixometrik xususiyatlarini tekshirish usullari

Zamonaviy tadqiqotlarda baholash vositalarining psixometrik xususiyatlarini tekshirishda quyidagi usullar qo‘llanilmoqda:

Mazmuniy muvofiqlik ko’rsatkichi (“CVI” - Content Validity Index**)** – har bir bandning mazmun jihatdan baholanayotgan konstruktga mosligini ekspertlar tomonidan baholash. Tailand tadqiqotida CVI >0,8 qiymati talab qilingan[3]. **“CVI”** – test yoki savollarning mazmun jihatdan qanchalik to‘g‘ri va mos ekanligini baholovchi ko‘rsatkich. Ilmiy ishlar va dissertatsiyalarda ko‘p ishlatiladi.

Eksplorator faktorli tahlil (EFA) – vosita bandlarining omil tuzilmasini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Aniel M.K. tomonidan Filippinda olib borilgan tadqiqotda asosiy komponentlar usuli va varimaks aylanishi bilan EFA qo‘llanilib, 37 banddan 12 bandgacha qisqartirilgan shkala ishlab chiqilgan[9].

Konfirmator faktorli tahlil (CFA) – aniqlangan omil tuzilmasining nazariy modelga mosligini tekshiradi. Boukari va boshqalar (2025) tomonidan arab tilidagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun moslashtirilgan Engaged Teachers Scale (A-ETS) tadqiqotida CFA ikkinchi tartibli modelda ajoyib moslik ko‘rsatkichlarini qayd etgan: χ^2=90,91, df=101, CFI=0,98, RMSEA=0,045[6].

Ishonchlilik tahlili – Kronbax alfa (α) koeffitsienti orqali ichki muvofiqlikni baholash. Arab tilidagi TEACH (Teachers‘ Evaluation of Aural/Oral Performance of Children) so‘rovnomasining psixometrik baholashida Kronbax α = 0,96 (umumiy), 0,94 (eshitish funksiyasi) va 0,95 (tinglash qulayligi) kabi yuqori ko‘rsatkichlar olingan [3].

Test–qayta test ishonchliligi – vositaning vaqt oralig‘ida barqarorligini intraklas korrelyatsiya koeffitsienti (ICC) orqali baholash. Yuqoridagi tadqiqotda ICC qiymatlari 0,985, 0,971 va 0,991 ni tashkil etgan[3].

Amaliy qo‘llash mexanizmlari va savollar tuzilmasi

Tahlil qilingan manbalarda baholash vositalarining amaliy qo‘llanishi bo‘yicha quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

Ochiq savollar protokollari – G‘arbiy Virjiniya Universiteti tajribasida ochiq savollardan oldin talabalarga maxsus yo‘riqnoma beriladi: “Iltimos, konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim eting... xushmuomalalik, sezgirlik, inklyuzivlik va o‘zaro hurmat muhitida ochiq ifodalash qadrlanishini esda tuting”[5]. Ochiq savollar sifatli ma’lumot olish uchun quyidagicha shakllantiriladi:

- “Iltimos, o‘qishingizni yaxshilash uchun ushbu kursni qanday o‘zgartirish mumkinligi haqida konstruktiv takliflar bering.”
- “Iltimos, kursda sizning o‘qishingiz uchun foydali bo‘lgan va davom ettirilishi kerak bo‘lgan narsalarga misollar keltiring.”

“Chunki” formulasi – Alabama Universitetining Huntsvilledagi tadqiqot guruhi tomonidan ishlab chiqilgan 10 ta asosiy savol “chunki” (because) formulasi asosida tuzilgan. Masalan: “Kurs yaxshi tashkil etilgani **tufayli**, muvaffaqiyatli bo‘lish uchun nima qilishim kerakligini tushuna oldim” kabilar [8].

Ahamiyat–Faoliyat Tahlili (Importance-Performance Analysis – IPA) – Ispaniyaning Balear orollari Universitetida qo‘llanilayotgan ushbu yondashuv o‘qituvchilarga talabalar uchun qaysi omillar muhimligi va o‘zlarining shu omillar bo‘yicha qanchalik yaxshi ishlayotganligini vizual tarzda ko‘rish imkonini beradi [8].

Muhokama. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyati va kurslarning talabalar uchun foydaliligini baholash dasturini ishlab chiqish murakkab va ko‘p qirrali vazifa hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohada bir nechta muhim tendensiyalar va muammolar mavjud.

Birinchidan, an’anaviy SET tizimlarining kamchiliklari xalqaro miqyosda tan olinmoqda va ularni bartaraf etishga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Moore va Reding tomonidan taqdim etilgan S-IMPACT va F-IMPACT vositalari bu borada muhim qadam bo‘lib, ular o‘qituvchi faoliyatini nafaqat talabalar nuqtai nazaridan, balki o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi va mustaqil kuzatuvlar orqali ham kompleks baholash imkonini beradi [2]. Bu yondashuv baholashning ishonchliligi va obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, baholash vositalarini madaniy moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Beaton va boshqalar (2000) tomonidan taklif qilingan xalqaro moslashtirish yo‘riqnomasi bugungi kunda turli mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda[3][9]. Tailand, Indoneziya, Malayziya va arab davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar vositalarni madaniy moslashtirish nafaqat lingvistik tarjima, balki kontseptual va kontekstual moslashtirishni ham talab qilishini ko‘rsatadi[3][6][9].

Uchinchidan, Sharq va G‘arb yondashuvlari o‘rtasidagi farq baholash tizimlarini ishlab chiqishda madaniy omillarni hisobga olish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xitoy tadqiqotida aniqlanganidek, Yevropa universitetlari “rivojlantiruvchi baholash” modeliga moyil bo‘lsa, Osiyo

universitetlarida “yakunlovchi baholash” modeli ustunlik qiladi[4]. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun qaysi model maqbulroq ekanligini aniqlash alohida tadqiqot talab qiladi.

To‘rtinchidan, baholash vositalarining psixometrik xususiyatlarini tekshirishda zamonaviy statistik usullardan foydalanish zarur. Eksplorator va konfirmator faktorli tahlillar, mazmun asosligi indeksi, Kronbax alfa va test–qayta test ishonchliligi kabi usullar vositaning ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi[3][6][9].

Beshinchidan, baholash natijalaridan foydalanish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Washington va Lee Universiteti tadqiqotchilari ta’kidlaganidek, SET vositalari o‘qitish samaradorligini baholashning yagona vositasi sifatida emas, balki kompleks tizimning bir qismi sifatida qo‘llanilishi kerak[5]. Baholash natijalari o‘qituvchilarni jazolash vositasi emas, balki ularning professional rivojlanishiga xizmat qiladigan mexanizm bo‘lishi lozim[7].

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarnnig dars mashg’ulotlaridagi faoliyatini baholash dasturini ishlab chiqish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak:

1. **Metodologik asoslanganlik** – Tailand tadqiqotida qo‘llanilgan yetti bosqichli madaniy moslashtirish jarayoni O‘zbekiston sharoiti uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Adabiyotlar tahlili, fokus-guruhlar, Delfi usuli, mazmun asosligi indeksi, kognitiv intervyular, pilot testlash va faktorli tahlil bosqichlarini o‘z ichiga olgan ushbu jarayon vositaning yuqori sifatini kafolatlaydi.
2. **Mavjud vositalardan foydalanish** – Noldan yangi vosita yaratish o‘rniga, xalqaro miqyosda tan olingan va psixometrik jihatdan mustahkam bo‘lgan SEEQ, SPOT, S-IMPACT kabi vositalarni mahalliy kontekstga moslashtirish samaraliroq yondashuv hisoblanadi.
3. **Madaniy moslashtirish** – Monash Universiteti tavsiyalariga asosan, vositalarni faqat lingvistik tarjima qilish emas, balki ularni mahalliy talabalarning ta’lim tajribalari, madaniy qadriyatlari va kutishlariga moslashtirish zarur. Kognitiv intervyular bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.
4. **Kompleks yondashuv** – Nebraska universiteti tajribasiga asosan, talabalar baholashi (S-IMPACT) bilan birga o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi (F-IMPACT) va sinf kuzatuvlarini (COPUS) uyg‘unlashtirgan kompleks tizim yaratish maqsadga muvofiq.
5. **Miqdoriy va sifatli usullar uyg‘unligi** – G‘arbiy Virjiniya Universiteti modeliga asosan, Likert shkalasidagi miqdoriy baholar bilan birga ochiq savollar orqali sifatli ma’lumotlar yig‘ish tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.
6. **Psixometrik tekshiruv** – Ishlab chiqilgan vosita mazmun asosligi indeksi (CVI), eksplorator faktorli tahlil (EFA), konfirmator faktorli tahlil (CFA) va Kronbax alfa ishonchlilik koeffitsienti orqali sinchiklab tekshirilishi lozim.
7. **Jarayonni hujjatlashtirish** – Vositaning ishlab chiqilishi va madaniy moslashtirilishi jarayoni batafsil hujjatlashtirilishi kerak, chunki bu ilmiy tadqiqotning asosiy hissasi hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan baholash dasturini ishlab chiqishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish, shuningdek, mahalliy kontekstning o‘ziga xos xususiyatlarini (ta’lim an’analari, talaba-o‘qituvchi munosabatlari, baholash madaniyati, talabalarning qoniqishi va boshqalar) chuqur tahlil qilish zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar aynan shu yo‘nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asadullayeva, M. A. qizi. (2024). Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholash mexanizmlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3 SPECIAL), 35–38.
2. Moore, C., & Reding, T. (2025). Using instructor insights to generate scalable metrics [Konferensiya materiali]. *ASCN Transforming Institutions Conference*, Nebraska–Omaha Universiteti, AQSh.
3. Boukari, S., Guelmami, N., Chalghaf, N., Ceylan, H. İ., Stefanica, V., Mekni, R., Dhahbi, W., & Dergaa, I. (2025). Cross-cultural adaptation and psychometric evaluation of the

Engaged Teachers Scale among Arabic-speaking physical education teachers. *Frontiers in Education,*.

4. Chanisra, S., Sanguantrakul, T. R., & Puranitee, P. (2025). Tailandda madaniy jihatdan moslashtirilgan klinik o‘qituvchini baholash shaklini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish. *Korean Journal of Medical Education*, 37(2), 145-162. [Scopus]

5. Woodzicka, J. A., Greer, L., Murdock, K. K., Johnson, D. R., Locy, T., & Goldsmith, A. H. (2025). One piece of the puzzle: Developing an empirically informed open-ended student evaluation of teaching. *Frontiers in Education*.

6. Sai, B., Mohamed, M., & Dergaa, I. (2025). “O‘qituvchilar stress anketasi”ni arab tilida transkultural sinovdan o‘tkazish. *Frontiers in Education*,

7. Yuldashev, F. I. (2025). Oliy ta’lim sohasida raqobatbardoshlik darajasini oshirishda integrallashgan indikatorlar yaxlit tizimini rivojlantirishning istiqbollari. *Raqamli Iqtisodiyot*, 7(7), 440–451.

8. Vera-Leon, X. E., Rios-Lopes, T. D., & Kaizaluisa-Barros, N. F. (2025). Oliy ta’limda pedagogik faoliyatni yaxshilashda o‘qituvchilarni baholash vositalarining samaradorligini o‘lchashning yangi usuli. *Neutrosophic Sets and Systems*, 58, 112-128. [Scopus]

9. Lutfatulatifah, Indreswari, H., Eva, N., Hotifah, Y., & De Guzman, D. D. (2025). Cross-cultural adaptation and psychometric evaluation of the Interpersonal Reactivity Index (IRI) for Indonesian pre-service early childhood teachers. *TPM – Testing, Psychometrics, Methodology in Applied Psychology*, 32(2).

10. Wagiran, W., & boshq. (2024). Oliy ta’limda o‘qitish jarayonini baholash vositasini ishlab chiqish. *Indonesian Journal of Educational Research and Technology*, 4(1), 23-38.

11. Aniel, M. K. (2025). Kollej o‘qituvchilarini baholashda talabalar idroki: vositani ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish. *PhilArchive*.

12. Marshik, T., Driscoll, A., Remsburg, A., Yu, A., Dutta, N., & Klein, J. (2023). New frontiers in student evaluations of teaching: University efforts to design and test a new instrument for student feedback. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 48(8), 1164–1177.

13. University of Maryland, Baltimore County. (2026). *Student Evaluation of Educational Quality (SEEQ)* [Institutsional manba]. UMBC Teaching Center.

14. West Virginia University. (2025). *WVU SPOT: Student Perceptions of Teaching – Instructor‘s guide* [Institutsional manba]. WVU Office of Assessment.

15. University of Alabama in Huntsville. (2025). *Blue/Explorance Student Instruction Evaluation (SIE) implementation guide* [Institutsional manba]. UAH Academic Affairs.

16. Monash University Malaysia. (2021). “Aylantirilgan sinf” tajribasini o‘lchash vositalarini madaniy moslashtirish va sinovdan o‘tkazish. *Currents in Pharmacy Teaching and Learning*, 13(5), 521-534.

17. Beaton, D. E., Bombardier, C., Guillemin, F., & Ferraz, M. B. (2000). Guidelines for the process of cross-cultural adaptation of self-report measures. *Spine*, 25(24), 3186–3191.

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР ТАЪЛИМИДА ФАОЛ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕСТЕТИК РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Ахунов Умидбек Рузибаевич
Андижон давлат педагогика институти профессори
G-mail: uaxunov430@gmail.com ORCID: 0009-0002-1849-0885

Аннотация. Мазкур мақолада ижтимоий-гуманитар фанлар таълимида фаол ўқитиш методларидан фойдаланиш орқали талабаларнинг кинестетик ривожланишини таъминлашнинг методик асослари ёритилган. Замонавий таълим шароитида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда фақат назарий билимлар эмас, балки амалий

ҳаракат, тажриба ва фаол иштирокка асосланган таълим технологияларининг аҳамияти ортиб бормоқда.

Калит сўзлар: ижтимоий-гуманитар фанлар, фаол ўқитиш методлари, кинестетик ривожланиш, касбий тайёргарлик, интерактив таълим.

Ҳозирги кунда таълим тизими олдида турган асосий вазифалардан бири – талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида уларнинг интеллектуал, ижтимоий ва психомотор ривожланишини уйғун ҳолда таъминлашдан иборат. Айниқса, ижтимоий-гуманитар фанлар таълимида талабаларнинг фаол иштирокини таъминлайдиган, ҳаракат ва тажрибага асосланган ўқитиш методларини жорий этиш орқали кинестетик ривожланишни қўллаб-қувватлаш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Кинестетик ривожланишнинг таълимдаги ўрни: Кинестетик ривожланиш талабаларнинг ҳаракат орқали билиш, амалиётда тажриба орттириш, касбий фаолиятга хос ҳаракатларни ўзлаштириш қобилияти билан боғлиқ. Ижтимоий-гуманитар фанлар доирасида бу кўникмалар мулоқот, жамоавий иш, муаммоли вазиятларни ҳал этиш ва ижтимоий фаоллик орқали намоён бўлади.

Фаол ўқитиш методларининг педагогик имкониятлари: Фаол ўқитиш методлари таълим жараёнида талабани пассив тингловчидан фаол иштирокчига айлантиради. Ролли ўйинлар орқали ижтимоий муносабатлар моделлаштирилади, кейс-стади методи орқали амалий муаммолар таҳлил қилинади, лойиҳа асосида ўқитиш эса мустақил фаолият ва жамоавий ҳаракатни ривожлантиради. Бу усуллар талабаларнинг кинестетик фаоллигини ошириб, касбий вазиятларга тайёрлайди.

Ижтимоий-гуманитар фанлар мазмунига фаол методларни интеграциялаш: Ижтимоий-гуманитар фанлар таълимида фаол методларни тизимли қўллаш орқали талабаларнинг назарий билимлари амалиёт билан боғланади. Муаммоли таълим, тренинг машғулотлари ва симуляция усуллари орқали талабаларда касбий ҳаракатлар, ижтимоий компетенциялар ва кинестетик кўникмалар шакллантирилади.

Хулоса қилиб айтганда, ижтимоий-гуманитар фанлар таълимида фаол ўқитиш методларини қўллаш талабаларнинг кинестетик ривожланишини таъминлашда муҳим педагогик аҳамиятга эга. Бундай методлар таълим жараёнида талабаларни фақат билим олувчи эмас, балки фаол иштирокчи сифатида шакллантиришга хизмат қилади. Фаол ўқитиш методлари орқали талабаларнинг ҳаракатга асосланган билиш фаолияти, ижтимоий муносабатларда иштирок этиш кўникмалари ва амалий тажриба орттириш имкониятлари кенгаяди.

Шунингдек, фаол ўқитиш методлари талабаларнинг мустақил фикрлаши, ижодий ёндашуви ва ўқув жараёнига бўлган мотивациясини оширади. Кинестетик ривожланишни қўллаб-қувватлаш орқали таълим жараёнида шахснинг жисмоний, интеллектуал ва ижтимоий ривожланиши уйғун тарзда таъминланади. Шу боис, ижтимоий-гуманитар фанлар таълимида фаол ўқитиш методларини тизимли ва мақсадли равишда жорий этиш методик жиҳатдан асосланган, амалий аҳамиятга эга ҳамда замонавий таълим тизими учун долзарб вазифа ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Абдуллаев А. **Касбий таълим педагогикаси.** – Тошкент: Фан, 2021.
2. Каримов И. **Таълим жараёнида инновацион ёндашувлар.** – Тошкент, 2020.
3. Сластёнин В.А. **Педагогика.** – Москва: Академия, 2019.
4. Кларин М.В. **Инновацион таълим технологиялари.** – Москва: Педагогика, 2018.
5. Беспалько В.П. **Слагаемые педагогической технологии.** – Москва: Педагогика, 2017.
6. Давыдов В.В. **Теория развивающего обучения.** – Москва: Интелер, 2016.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING SAMARALI MULOQOT QILISH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Pedagogika va o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori v.b.
Irisova Aziza Orif qizi, *magistr*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik muloqotning mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy usullari, xususan, interfaol metodlar, treninglar, amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, bo‘lajak pedagog, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты формирования компетенции эффективного общения у будущих педагогов. Проанализированы сущность педагогического общения, его структурные компоненты и значение в образовательном процессе. В статье раскрывается роль современных методов развития коммуникативной компетенции у будущих учителей, в частности, интерактивных методов, тренингов, практических занятий и инновационных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *Педагогическое общение, коммуникативная компетентность, будущий педагог, интерактивные методы, педагогические технологии, профессиональное развитие.*

Annotation: *This article highlights the theoretical and practical aspects of developing effective communication competence in future educators. The essence of pedagogical communication, its structural components, and its significance in the educational process are analyzed. The article explores the role of modern methods in developing communicative competence in future teachers, specifically focusing on interactive methods, training sessions, practical exercises, and innovative pedagogical technologies.*

Key words: *communication, communicative competence, future educator, interactive methods, pedagogical technologies, professional development.*

Kirish: Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jarayonda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ayniqsa ularning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat jarayonida muloqot muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ta’lim samaradorligini bevosita belgilaydi. Shuningdek, pedagogning nutq madaniyati, tinglash qobiliyati, fikrni aniq va ravon ifoda eta olish ko‘nikmalari uning kasbiy mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu boisdan bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalanish zarur. Ayniqsa, ta’lim jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undovchi usullar ularning muloqot kompetentligini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirish usullarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularni amaliyotga joriy etish hamda bu jarayonni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik muloqot faqatgina axborot almashinuvi jarayoni bo‘lib qolmay, balki ta’lim oluvchining shaxs sifatida rivojlanishiga ta’sir etuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining emotsional barqarorligi, empatiya qobiliyati, tinglay olish madaniyati hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal eta bilishi alohida ahamiyatga ega. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash jarayonida muloqot kompetentligini shakllantirishga tizimli yondashuv zarur.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda innovatsion yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlar, trening texnologiyalari va reflektiv faoliyat usullaridan foydalanish samarali natijalarni bermoqda. Bu usullar talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin ifodalash hamda samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, pedagogik muloqot kompetentligini shakllantirish jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud. Mazkur masalani har tomonlama o‘rganish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga puxta tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik muloqot ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi. Samarali muloqot orqali nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, uning ijtimoiylashuviga ko‘maklashish ham amalga oshiriladi.

Pedagogik muloqot kompetentligining mazmuni bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Avvalo, bu pedagogning nutq madaniyati, ya’ni fikrni aniq, ravon va tushunarli ifoda eta olish qobiliyatidir. Shu bilan birga, tinglay olish madaniyati ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim oluvchining fikrini hurmat qilish va uni to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, pedagogning emotsional barqarorligi, empatiya qobiliyati va nizoli vaziyatlarni boshqarish ko‘nikmalari ham samarali muloqotni ta’minlovchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Bo‘lajak pedagoglarda muloqot kompetentligini shakllantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Dastlab nazariy bilimlar berilib, pedagogik muloqotning mohiyati, shakllari va usullari tushuntiriladi. Keyingi bosqichda esa amaliy mashg‘ulotlar orqali olingan bilimlar mustahkamlanadi. Bu jarayonda rol o‘ynash mashqlari, treninglar, muammoli vaziyatlar va guruhli muhokamalar samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, bahs-munozara, “aqliy hujum”, klaster usuli, keys-stadi va boshqa metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning erkin fikr bildirish, o‘z nuqtai nazarini asoslash hamda boshqalar bilan samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, pedagogik amaliyot jarayoni ham bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim tajriba maydoni hisoblanadi. Amaliyot davomida talabalar real ta’lim muhitida muloqot olib borishni, turli pedagogik vaziyatlarga moslashishni va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish pedagoglarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhimdir. Bu jarayonda psixologik va pedagogik fanlardan olinadigan bilimlar asosida turli muloqot strategiyalari, interaktiv metodlar va rolli o‘yinlar qo‘llaniladi. Shu orqali talaba pedagoglar turli vaziyatlarda samarali fikr almashish, bahslashish va ijobiy muloqot muhitini yaratish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Ikkinchidan, interaktiv va faol o‘qitish usullari kompetentlik shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, diskussiya, loyihaviy faoliyat, simulatsion treninglar va guruh ishlari talaba pedagoglarga turli kommunikativ vaziyatlarni amalda boshdan kechirish imkonini beradi. Bu metodlar muloqot jarayonida tinglash, tushunish va izchil ifodalash qobiliyatlarini mustahkamlaydi hamda emotsional intellektni rivojlantiradi.

Uchinchidan, reflektiv faoliyat va pedagogik kuzatuvlar o‘quv jarayonida doimiy o‘z-o‘zini tahlil qilishni rag‘batlantiradi. Talaba pedagoglar o‘z muloqot uslublarini baholab, xatolarni aniqlash va tuzatish orqali professional malakalarini chuqurlashtiradilar. Shu bilan birga, mentorlik va tajribali pedagoglar bilan muhokama o‘tkazish natijasida real ish sharoitida muvaffaqiyatli muloqot strategiyalarini egallashadi.

To‘rtinchidan, informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni integratsiya qilish zamonaviy pedagogik muhitda muloqot kompetentligini shakllantirishning yangi yo‘nalishlarini ochadi. Masofaviy o‘quv platformalari, virtual seminarlar va onlayn treninglar orqali talaba pedagoglar kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilishi va turli auditoriyalarda samarali muloqot ko‘nikmalarini sinab ko‘rishi mumkin.

Shuningdek, reflektiv faoliyat, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayoni ham muloqot kompetentligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni takomillashtirish ustida ishlashi zarur. Bu esa uning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, innovatsion metodlar va reflektiv faoliyat uyg‘unligi ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa: Bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligi – bu nafaqat o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish, balki o‘quvchilar bilan samarali aloqada bo‘lish, ularning individual va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy kasbiy qobiliyatdir. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagoglarning kommunikativ malakasi o‘quv jarayonining sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, muloqot kompetentligini shakllantirish bir qator metod va yondashuvlarni talab qiladi.

Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarning samarali muloqot qilish kompetentligini shakllantirish integrativ, tizimli va amaliy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon bo‘lib, u shaxsiy, psixologik va kasbiy rivojlanishning birlashgan natijasidir. Bu kompetentlikning shakllanishi pedagogning professional identitetini mustahkamlash, o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta’lim dasturlarida samarali muloqot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni tizimli joriy etish zaruriyati dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akmal Yusufovich, A., Zarnigor Farxodjon qizi, S. (2025). Bo‘lajak pedagoglarni kommunikativ kompetentligini rivojlantirish asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash masalalari.

2.Yo‘ldosheva, M. S. (2026). Konflikt vaziyatlarda pedagoglarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish usullari.

3.Narzullayeva, D. O., & Normurodova, M. A. (2025). Pedagogik muloqot va kommunikativ mahorat.

4.Atavullayeva, M. Q. (2023). Communicative competence as a factor of teacher’s professional competency.

5.Ro‘zimatova, M. X. (2026). Pedagogik muloqotning pedagog kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.

6.Jo‘rayeva, M. A. (2025). Pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligi.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

Eshquvvatov To’lqinjon Eshquvvatovich, *dotsent.*
t.eshquvvatov@mail.ru Tel: (91)5310721

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalarida konfliktologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda empirik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotda konfliktologik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, uning pedagogik jarayondagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida konfliktlarni boshqarish muammolari tahlil qilinadi.

Empirik tadqiqot natijalari asosida konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilib, uning samaradorligi statistik jihatdan asoslab beriladi.

Kirish

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi.

Bunday sharoitda konfliktlar inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim muhitida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot, baholash jarayoni va akademik raqobat konfliktlarni yuzaga keltiradi.Konfliktologik kompetensiya pedagogning professional kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, mazkur muammo zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda konfliktlar inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim muhitida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot, baholash jarayoni va akademik raqobat konfliktlarni yuzaga keltiradi.Konfliktologik kompetensiya pedagogning professional kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Shu bois, mazkur muammo zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi.Bunday sharoitda konfliktlar inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim muhitida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot, baholash jarayoni va akademik raqobat konfliktlarni yuzaga keltiradi. Konfliktologik kompetensiya pedagogning professional kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Shu bois, mazkur muammo zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida dolzarb hisoblanadi.

Nazariy asoslar

Konfliktologik kompetensiya shaxsning konfliktlarni anglash, baholash va konstruktiv hal etish qobiliyatidir.U quyidagi komponentlardan iborat: kognitiv, kommunikativ, emotsional, aksiologik va pragmatik komponentlar.

Kognitiv komponent konflikt haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ komponent samarali muloqotni ta’minlaydi.

Emotsional komponent shaxsning o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini aks ettiradi.

Aksiologik komponent insoniy qadriyatlar bilan bog‘liq.

Pragmatik komponent esa amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Konfliktologik kompetensiya shaxsning konfliktlarni anglash, baholash va konstruktiv hal etish qobiliyatidir.

U quyidagi komponentlardan iborat: kognitiv, kommunikativ, emotsional, aksiologik va pragmatik komponentlar.

Kognitiv komponent konflikt haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ komponent samarali muloqotni ta’minlaydi.

Emotsional komponent shaxsning o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini aks ettiradi.

Aksiologik komponent insoniy qadriyatlar bilan bog‘liq.

Pragmatik komponent esa amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Konfliktologik kompetensiya shaxsning konfliktlarni anglash, baholash va konstruktiv hal etish qobiliyatidir.

U quyidagi komponentlardan iborat: kognitiv, kommunikativ, emotsional, aksiologik va pragmatik komponentlar.

Kognitiv komponent konflikt haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ komponent samarali muloqotni ta’minlaydi.

Emotsional komponent shaxsning o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini aks ettiradi.

Aksiologik komponent insoniy qadriyatlar bilan bog‘liq.

Pragmatik komponent esa amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi

Konfliktologiya fanining rivojiga xorijiy olimlar katta hissa qo‘shgan.

Kurt Levin konflikt dinamikasini o‘rgangan.

Morton Deutsch hamkorlik va raqobat nazariyasini ishlab chiqqan.

Thomas-Kilmann modeli konfliktni hal etish strategiyalarini tushuntiradi.

Mahalliy olimlar tomonidan pedagogik konfliktlar va muloqot madaniyati masalalari o‘rganilgan.

Konfliktologiya fanining rivojiga xorijiy olimlar katta hissa qo‘shgan.

Kurt Levin konflikt dinamikasini o‘rgangan.

Morton Deutsch hamkorlik va raqobat nazariyasini ishlab chiqqan.

Thomas-Kilmann modeli konfliktni hal etish strategiyalarini tushuntiradi.

Mahalliy olimlar tomonidan pedagogik konfliktlar va muloqot madaniyati masalalari o‘rganilgan.

Konfliktologiya fanining rivojiga xorijiy olimlar katta hissa qo‘shgan.

Kurt Levin konflikt dinamikasini o‘rgangan.

Morton Deutsch hamkorlik va raqobat nazariyasini ishlab chiqqan.

Thomas-Kilmann modeli konfliktni hal etish strategiyalarini tushuntiradi.

Mahalliy olimlar tomonidan pedagogik konfliktlar va muloqot madaniyati masalalari o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Nazariy asoslar

Konfliktologik kompetensiyaning tuzilmasi

Ilmiy tahlillar asosida konfliktologik kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Komponent	**Mazmuni**
Kognitiv	Konflikt mohiyati, turlari va qonuniyatlarini bilish
Kommunikativ	Muloqot olib borish, tinglash va tushuntirish
Emotsional	Stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish
Aksiologik	Bag‘rikenglik, empatiya, hurmat
Pragmatik	Amaliy yechimlar ishlab chiqish

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot maqsadi

Oliy ta’lim muassasalarida konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirish darajasini aniqlash va uni takomillashtirish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari

- konfliktologik kompetensiya darajasini aniqlash;
- uning tarkibiy komponentlarini baholash;
- rivojlantiruvchi dastur samaradorligini tekshirish.

Tadqiqot obyekti

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari va talabalari.

Tadqiqot predmeti

Konfliktologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodlar qo‘llanildi:

- Kenneth Thomas modeli asosida konfliktni hal etish uslublari diagnostikasi
- Vladimir Stolin metodikasi (o‘z-o‘ziga munosabat)
- James Amirkhan coping strategiyalari testi
- Sotsiologik so‘rovnoma (mualliflik anketa)

Tadqiqot jarayoni

Tadqiqot 3 bosqichda olib borildi:

1-bosqich: Diagnostik

- Respondentlar soni: **n = 120**
- Guruhlar:

Tajribasi 5 yilgacha — 60 nafar

Tajribasi 5 yildan ortiq — 60 nafar

2-bosqich: Eksperimental

Trening dasturi (8 hafta):

Konfliktologiya asoslari

Emotsional intellekt

Mediatsiya texnikalari

“Win-win” strategiyalari

3-bosqich: Nazorat (monitoring)

- Qayta diagnostika o‘tkazildi
- Natijalar taqqoslandi

Tadqiqot natijalari

1. Dastlabki natijalar

- Respondentlarning 65% konfliktni **noto‘g‘ri boshqaradi**
- 52% — emotsional boshqaruv past
- 48% — konstruktiv muloqot yetarli emas

2. Eksperimentdan keyingi natijalar

- Konfliktni konstruktiv hal qilish darajasi: **+30%**
- Emotsional barqarorlik: **+25%**
- Kommunikativ kompetensiya: **+28%**

3. Statistik tahlil

t-test natijalari ($p \leq 0.05$) shuni ko‘rsatdiki:

- natijalar **ishonchli va sezilarli farqga ega**

Konfliktologik kompetensiyani rivojlantirish modeli

Model tuzilmasi:
1.Maqsadli blok- konfliktologik kompetensiyani shakllantirish
2. Nazariy-metodologik blok- tizimli, faoliyat va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv
3. Diagnostik blok- testlar, anketa
4. Rivojlantiruvchi blok-trening, seminar, amaliy mashg‘ulot
5. Monitoring blok- baholash, tahlil
6. Natijaviy blok- kompetensiya darajasi oshishi

Muhokama

Tadqiqot natijalari konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirishda trening metodlarining samaradorligini ko‘rsatdi.

Mediatsiya va interaktiv metodlar ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi.

Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi.

Tadqiqot natijalari konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirishda trening metodlarining samaradorligini ko‘rsatdi.

Mediatsiya va interaktiv metodlar ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi.

Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi.

Tadqiqot natijalari konfliktologik kompetensiyalarni rivojlantirishda trening metodlarining samaradorligini ko‘rsatdi.

Mediatsiya va interaktiv metodlar ayniqsa samarali ekanligi aniqlandi.

Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar aniqlandi:

- konfliktologik kompetensiya rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan tizimli jarayon;
- trening asosida uni sezilarli oshirish mumkin;
- oliy ta’limda maxsus metodika zarur.

Tavsiyalar

1. Konfliktologiya fanini majburiy kurs sifatida joriy etish
2. Professor-o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish
3. Mediatsiya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish
4. Raqamli konfliktlarni boshqarish tizimini yaratish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deutsch M. *The Resolution of Conflict*
2. Fisher R., Ury W. *Getting to Yes*
3. Thomas K. Conflict Mode Instrument
4. Antsupov A., Shipilov A. Konfliktologiya
5. Grishina N. Psixologiya konflikta

ONLAYN TA’LIM MUHITIDA TALABALARNI FAOL VA INTERFAOL O’QUV JARAYONIGA JALB ETISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI.

Jamalova G.M.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Pedagogika va o‘qitish metodikasi” dotsenti,

Alimova Lobar Alimovna

Iqtisodiyot va Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etish usullarini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar yoritilgan. Tadqiqotda raqamli vositalar, interfaol platformalar, hamkorlikda o‘qitish usullari hamda qayta aloqa mexanizmlarining talabalarning motivatsiyasi, mustaqilligi va o‘quv faolligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Natijalar zamonaviy yondashuvlarning masofaviy ta’lim sifatini yaxshilashdagi samaradorligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar:*onlayn ta’lim, interfaol o‘qitish, faol o‘qish, pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, motivatsiya, masofaviy ta’lim, talabalar faolligi.*

Kirish. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida onlayn ta’limning keng joriy etilishi talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish masalasini dolzarb pedagogik muammoga aylantirdi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn muhitda talabalar faolligi va o‘quv jarayonidagi ishtiroki ta’lim samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, interfaol texnologiyalar, gamifikatsiya, muammoli topshiriqlar, jamoaviy muhokamalar hamda tezkor qayta

aloqa vositalari talabalar motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.Ilmiy tadqiqotlarda onlayn ta’limda o‘qituvchi ishtiroki, ijtimoiy muloqot va hamkorlikka asoslangan faol metodlar talabalar chuqur o‘zlashtirishi hamda mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Ayniqsa, sinxron va asinxron interaktiv mashg‘ulotlar, kichik guruhlarda ishlash, forum va chatlar orqali fikr almashish talabalar o‘rtasida akademik faollikni kuchaytiradi. Ilmiy manbalarda onlayn ta’limda interfaollikni ta’minlash uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, adaptiv topshiriqlar, gamifikatsiya elementlari, jamoaviy muammoli vazifalar hamda real vaqt rejimidagi muloqot vositalaridan foydalanish samarali mexanizm sifatida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, so‘nggi tadqiqotlar onlayn platformalarda o‘quv kontentini multimodal shaklda — video, infografika, forum va interaktiv testlar orqali taqdim etish talabalar diqqatini uzoqroq ushlab turishi va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatmoqda. Hozirgi ta’lim tizimida onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Zamonaviy talabalar ko‘pincha mustaqil ishlashga, o‘zini rivojlantirishga va turli interaktiv vositalardan foydalangan holda bilim olishga qiziqadi. Shu sababli, pedagogik jarayonda innovatsion metodlar, interaktiv platformalar va gamifikatsiya texnologiyalari talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilishning samarali vositalari sifatida qaraladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etish usullarining samaradorligini aniqlash uchun sistematik adabiyotlar tahlili va sifatli tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotda talabalarning onlayn muhitda ishtiroki va pedagogik texnologiyalardan foydalanish tajribalari o‘rganildi. Tahlil jarayonida interfaol texnologiyalar, muammoli vazifalar, jamoaviy mashg‘ulotlar va tezkor qayta aloqa vositalarining talabalarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va o‘quv faolligiga ta’siri aniqlangan.Tadqiqotda talabalarning faol jalb etilishi multidimensional kontseptsiya asosida o‘rganildi: kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlar integratsiyalangan holda tahlil qilindi. Nazariy tahlil orqali onlayn ta’limda interaktiv metodlar, gamifikatsiya va muammoli vazifalar orqali talabalarni jalb qilish yondashuvlari o‘rganildi. Kuzatuv va test metodlari yordamida talabalar faoliyati, o‘quv jarayonida ishtirok darajasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari tahlil qilindi.Pedagogik yondashuv sifatida virtual laboratoriyalar, debatlar, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlash metodlari asos qilib olindi. Ushbu metodlar talabalarning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini faollashtiradi.

Tadqiqot natijalari. onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etishning pedagogik texnologiyalari samaradorligini ko‘rsatdi. Bir qator ilmiy izlanishlarda raqamli vositalar, interfaol mashqlar, guruhlarda o‘zaro hamkorlik va tezkor qayta aloqa mexanizmlari talabalarning o‘quv faolligini sezilarli darajada oshirayotganligi aniqlangan. Analiz natijasiga ko‘ra, talabalar o‘rtasida ijtimoiy o‘zaro aloqalarni rag‘batlantiruvchi metodlar, masalan, onlayn forumlar, kichik jamoaviy muhokamalar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv materialining chuqurroq o‘zlashtirilishiga xizmat qildi.Shuningdek, tadqiqotlarda onlayn ta’lim kontentining multimodal tuzilishi — video, diagramma, animatsiya va interaktiv testlar orqali taqdim etilishi — talabalarning e’tiborini uzoq vaqt ushlab turish va o‘rganilayotgan mavzuga yuqori darajada jalb bo‘lishini ta’minlaganligi qayd etildi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari va akademik natijalarini yaxshilashga yordam berdi.O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlarida ham interfaol metodologiyalarning joriy etilishi jarayonida talabalar motivatsiyasining oshgani, o‘quv jarayoniga ijobiy munosabatning mustahkamlanganligi va umumiy ta’lim samaradorligining ko‘tarilgani kuzatilgan. Xususan, raqamli savodxonlikni oshirish, o‘qituvchi–talaba va talaba–talaba o‘rtasidagi doimiy kommunikatsiyani ta’minlash pedagogik texnologiyalarning ta’sirini kuchaytiradigan asosiy omillar sifatida aniqlangan.Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni rejalashtirish jarayonida talabalarning individual o‘quv ehtiyojlarini hisobga olish, interfaollik vositalarini maqsadli tarzda qo‘llash va samarali qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish uzoq muddatli ta’lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, onlayn ta’lim

muhitida interaktiv metodlar, gamifikatsiya va muammoli vazifalarni tizimli qo‘llash talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, debatlar va guruhli ishlash talabalarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, onlayn ta’lim tizimlarida talabalar faolligi va interfaolligi ta’lim samaradorligining muhim indikatorlaridir. Adabiyot tahlili shuni ochib berdi: talabalarni o‘quv jarayoniga jalb etuvchi pedagogik texnologiyalar faqat texnik vositalar bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy faolligini uyg‘otuvchi kompleks yondashuv sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar pedagogik jarayonni individual va guruhli ishlash imkoniyatlari bilan boyitadi, talabalar orasida ijtimoiy kompetentsiyalarni mustahkamlaydi .Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni tizimli qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini oshirish va talabalarni ilmiy-amaliy faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi . Ilmiy manbalarni tahlil qilganda, interfaollik darajasini oshiruvchi texnologik vositalarning mazmuniy tuzilishi juda muhim ekanligi ma’lum bo‘ldi. O‘quv kontenti yagona matn ko‘rinishida bo‘lsa, talabalar diqqatini uzoq saqlay olmaydi; aksincha, multimodal tarkib, masalan, vizual va audio elementlar, animatsiyalar va interaktiv testlar kombinatsiyasi talabalarning ma’lumotni chuqur anglashiga yordam beradi. Bu o‘zgarish talabalarning tashqi rag‘batdan ichki motivatsiyaga o‘tishini ham rag‘batlantiradi — bu esa ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.Shuningdek, vaziyatli tahlil shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’limda talabalar o‘rtasidagi muloqot faolligi individual o‘quv natijalari bilan bevosita bog‘liq. Guruhlarda hamkorlik, o‘qituvchi bilan real vaqt rejimidagi muloqot, sinxron va asinxron muhokamalar orqali ta’lim jarayonida ijtimoiy mavjudlik sezilarli darajada oshadi. Natijada talabalar o‘zlarini qaror qabul qiluvchi va o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, bu esa akademik yutuqlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda kontekstga mos yondashuv zarur. Ya’ni har bir kurs yoki predmet uchun interfaollik strategiyasini alohida rejalashtirish talabalar ehtiyojlariga yaxshiroq javob beradi. Masalan, mashqlar va vazifalar murakkabligi talabaning oldingi bilim darajasiga mos bo‘lishi shart. Bu esa individual o‘rganish yo‘nalishlarini yaratish, adaptiv topshiriqlarni joriy etish va qayta aloqa mexanizmlarini dinamik boshqarish orqali amalga oshiriladi.Umuman olganda, tahlil natijalari pedagogik texnologiyalar yordamida onlayn ta’limni rejalashtirish, o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish va baholash tizimini yaxshilash orqali talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilishi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatadi.

Xulosalar. Onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, bilim olish sifatini sezilarli darajada yaxshilash va ta’limning individual xususiyatlariga moslashtirilgan tizimni yaratish nuqtai nazaridan muhim strategik vazifa hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar, jumladan muammoga yo‘naltirilgan vazifalar, kollaborativ guruh ishlari, virtual forum va chat platformalari orqali fikr almashish, talabalarni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, talabalar o‘rtasida mustaqil fikrlash, analitik va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradigan topshiriqlar ularning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Adaptiv o‘quv resurslari va modul tizimi o‘quvchilarning individual ritm va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Bu yondashuv har bir talabaga shaxsiylashtirilgan ta’limni taqdim etadi, ularning o‘z o‘quv yo‘nalishi bo‘yicha rivojlanishini rag‘batlantiradi va o‘quv jarayonida yuqori darajada interfaollikni ta’minlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, onlayn ta’lim muhitida talabalarni faol va interfaol o‘quv jarayoniga jalb etish pedagogik texnologiyalar orqali samarali amalga oshiriladi. Interaktiv metodlar, muammoli vazifalar, debat va gamifikatsiya elementlari talabalarni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, gamifikatsiya elementlari, o‘yinlashtirilgan vazifalar va raqamli mukofot tizimlari talabalar motivatsiyasini oshirish va o‘quv jarayoniga qiziqishni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodlar interfaol

o‘quv faoliyatini rag‘batlantirib, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashgan va innovatsion tarzda qo‘llash onlayn ta’lim jarayonini faqat interfaol va qiziqarli qilmay, balki o‘quv jarayonini tizimli, ilmiy asoslangan va natijaviy bo‘lishini ta’minlaydi.Xulosa qilib aytganda, talabalarni onlayn ta’lim jarayonida faol va interfaol ishtirok etishga jalb etish pedagogik texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liq. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, texnologik vositalar bilan uyg‘unlashgan interfaol metodlar va shaxsiylashtirilgan o‘quv resurslari, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonining sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim standartlariga mos keladigan samarali ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, pedagogik texnologiyalarni optimallashtirish va tizimli qo‘llash onlayn ta’limni nafaqat samarali, balki ilmiy asoslangan, barqaror va raqobatbardosh tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi.

2.Karimova N.M. Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar. – Samarqand: Innovatsiya.

3.Quchqorova D.Sh. Pedagogika fanida qo‘llaniladigan interaktiv metodikalar. – Chirchiq.

4.Xalilova F.B. Pedagogik jarayonlarda interaktiv metodlarni qo‘llash va uning bo‘lajak tarbiyachilarga ta’siri. – Toshkent.

5.Jumayev B.B. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. – Andijon: Ma’rifat.

6.Meliyev X.A., Jamoldinova O., Riskulova K. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. – Toshkent.

7.Meliyev X.A., Qilichova M.X. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent.

O‘QUVCHILARNING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNING O‘RNI

Boqiyev G`ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Pedagogika va o„qitish metodikasi” kafedrasi professori v.b.
Issayeva Shohida Choriyevna, *magistr*

Annotatsiya. *Mazkur tezisda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativlik tushunchasining mazmuni, uni shakllantirish omillari hamda ta’lim jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kreativlik, ijodiy tafakkur, individual yondashuv, pedagogik texnologiya, innovatsiya.*

Kirish Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, global raqobatning kuchayishi hamda yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda o‘quvchilardan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va kreativ yechimlar topish qobiliyati talab etilmoqda. Shu bois, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi va uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishini ta’minlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – bu o‘quvchining individual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon

bo‘lib, unda o‘quvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi rolini bajaradi.Mazkur yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi: o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish; mustaqil fikrlashni rivojlantirish; ta’lim jarayonida faollikni oshirish; refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish.

Kreativ salohiyat tushunchasi va uning ahamiyati. Kreativlik – bu shaxsning yangi va original g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. Kreativ salohiyat esa ushbu qobiliyatning rivojlanish darajasini ifodalaydi.Bugungi kunda kreativlik barcha sohalarda, ayniqsa ta’lim jarayonida muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kreativlikni rivojlantirishdagi o‘rni. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: Birinchidan, o‘quvchilarning individual qobiliyatlari aniqlanadi va rivojlantiriladi. Bu esa ijodiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mustaqil fikrlash rag‘batlantiriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etish orqali yangi g‘oyalar yaratishga o‘rganadilar. Uchinchidan, muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning tahliliy va kreativ tafakkuri rivojlanadi. To‘rtinchidan, ichki motivatsiya oshadi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi.

Kreativlikni rivojlantirishda samarali pedagogik metodlar.Quyidagi metodlar kreativlikni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Interfaol metodlar (“aqliy hujum”, “klaster”, “bahs-munozara”),loyihaviy ta’lim; muammoli ta’lim; rol o‘ynash usullari. Mazkur metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishda ayrim muammolar mavjud: o‘qituvchilarning zamonaviy metodlardan yetarli foydalanmasligi; an’anaviy yondashuvning ustunligi; ta’lim dasturlarining moslashuvchan emasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta’limni individuallashtirish zarur hisoblanadi.

Chet el tadqiqotchilari qarashlari. Bundan tashqari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kreativlikni rivojlantirish masalasi xorijiy pedagogika va psixologiyada ham keng o‘rganilgan. Xususan, Carl Rogers ta’limni shaxs rivojiga yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, samarali ta’lim muhiti o‘quvchining erkinligi, mustaqilligi va ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Rogersning “Freedom to Learn” asarida ta’kidlanishicha, “o‘quvchi o‘zi faol ishtirok etgan ta’lim jarayonida chuqur va barqaror bilimga ega bo‘ladi”. Bu yondashuv o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, Abraham Maslow o‘zining nazariyasida shaxsning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi (self-actualization) kreativlik bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, agar ta’lim jarayonida o‘quvchining asosiy ehtiyojlari qondirilsa, u holda uning ijodiy salohiyati tabiiy ravishda rivojlanadi.

Kreativlikni ilmiy jihatdan tadqiq etgan olimlardan yana biri J. P. Guilford hisoblanadi. U kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lab, insonning birmuammo yuzasidan turli xil yechimlar topa olish qobiliyatini kreativlikning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv ta’limda o‘quvchilarga erkin fikrlash imkonini berish zarurligini asoslaydi.

Bundan tashqari, E. Paul Torrance kreativlikni o‘lchash va rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlari bilan mashhur. Uning fikricha, kreativlik – bu muammolarni sezish, farazlar ilgari surish va ularni sinab ko‘rish jarayonidir. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan testlar hozirgi kunda ham kreativ tafakkurni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. U o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini ochib berish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida kreativlikni rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib, bu jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni keng joriy etish zarur. Shaxsga

yo‘naltirilgan ta’lim asosida tashkil etilgan dars jarayonlari o‘quvchilarda faollik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida ularning nafaqat ta’limdagi muvaffaqiyatini, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatini ham belgilab beradi. Shuningdek, kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va individual yondashuvlardan samarali foydalanishi zarur. Natijada zamonaviy, raqobatbardosh va ijodkor shaxsni shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3.Boychayeva Sh. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari. – Toshkent, 2025.

4.Namozova S. A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: zamonaviy pedagogik yondashuv**.** – 2025.

5.Hojiyeva M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi. – 2025.

6. To‘xtasinova N. E. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asosi. – 2025.

7. Toshmatova B. B. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. – 2025.

8. Tog‘ayev K. X. Tasviriy san’atni o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi. – 2025.

9.Carl Rogers Rogers, C. R. (1969). *Freedom to Learn*. Columbus, OH: CharlesMerrill Publishing Company.Abraham Maslow Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York: Harper & Row. J.Guilford Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.

TALABA VA O‘QITUVCHI O‘RTASIDAGI INTERAKTIV HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “professori v.b.
Muxamadiyeva Dilnoza Baxtiyor qizi
Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati, ularning o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi o‘rni hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, hamkorlik muhitini yaratish va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ko‘rib chiqiladi. Maqolada interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limning natijadorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so‘zlar: *interaktiv ta’lim, hamkorlik, pedagogik texnologiyalar, talaba faolligi, o‘qituvchi roli, muloqot, innovatsion metodlar, ta’lim samaradorligi*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan global jarayonlar, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda jamiyat ehtiyojlarining o‘zgarishi ta’sirida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.An’anaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi asosiy bilim manbai sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda u ko‘proq yo‘naltiruvchi va hamkor rolini bajaradi. Talaba esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi. Bu jarayonda interaktiv metodlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi, fikr almashish va hamkorlikda ishlash

imkonini yaratadi. Interaktiv hamkorlikni samarali tashkil etish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga hamda talabalarda kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan muhitni yaratadi. Shu bois, ushbu maqolada talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etishning asosiy jihatlari va uni amaliyotda qo‘llash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etish jarayoni kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg‘unligiga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar tahlili tashkil etdi. Interaktiv ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va talaba faolligini oshirishga doir ilmiy adabiyotlar o‘rganilib, mavzuga oid mavjud qarashlar umumlashtirildi va tizimlashtirildi. Amaliy qismda esa kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Xususan, dars jarayonlarida interaktiv metodlarning qo‘llanilishi kuzatilib, ularning talaba faolligi va o‘zlashtirish darajasiga ta’siri tahlil qilindi. So‘rovnoma va suhbatlar orqali talabalar hamda o‘qituvchilarning interaktiv hamkorlikka bo‘lgan munosabati, mavjud muammolar va ehtiyojlar aniqlab olindi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy usullar bilan olib borilgan mashg‘ulotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar sifat va miqdoriy jihatdan qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi. Mazkur metodologiya talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikning samaradorligini aniqlash, uning ta’lim jarayonidagi o‘rnini asoslash hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar qo‘llanilgan darslarda talabalar faolligi ortib, ularning o‘quv jarayoniga qiziqishi kuchaydi. Talabalar darslarda faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini erkin bayon etish va muhokamalarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati interaktiv darslarni an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq deb baholadi. Ular bunday yondashuv bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidladilar. O‘qituvchilar esa interaktiv hamkorlik orqali talabalar bilan yaqinroq muloqot o‘rnatish, ularning individual xususiyatlarini yaxshiroq anglash imkoniga ega bo‘lishganini qayd etdilar. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan metodlar samarali natijalar berdi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, barcha o‘qituvchilarning interaktiv metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmalari yetarli emasligi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashdagi qiyinchiliklar va o‘quv jarayonini to‘liq interaktiv shaklga o‘tkazishdagi tashkiliy muammolar kuzatildi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari interaktiv hamkorlikni ta’lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini, bu yondashuv talabalar bilimini oshirish, ularning faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi.

Tahlillar: Tadqiqot natijalari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlik ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, interaktiv metodlar qo‘llanilganda talabalarning darsga jalb etilishi ortib, passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanish jarayoni tezlashadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Tahlillar davomida aniqlanishicha, interaktiv yondashuv talabalarda nafaqat bilim, balki kommunikativ, ijtimoiy va analitik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Guruhda ishlash, fikr almashish va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish orqali talabalar mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy

faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchining roli ham sezilarli darajada o‘zgarishi kuzatildi. Interaktiv hamkorlik sharoitida o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa dars jarayonini yanada samarali va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Biroq tahlillar ayrim kamchiliklarni ham yuzaga chiqardi. Jumladan, interaktiv metodlarni qo‘llashda vaqt resurslarining yetarli emasligi, guruhlar bilan ishlashdagi tashkiliy qiyinchiliklar hamda ayrim talabalar tomonidan passivlikning saqlanib qolishi kuzatildi. Bundan tashqari, barcha o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi ham muhim muammolardan biri sifatida qayd etildi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar interaktiv hamkorlikni ta’lim jarayonida qo‘llashning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, metodik ta’minotni kuchaytirish va ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish zarurligi asoslab berildi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni tashkil etish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Interaktiv yondashuv asosida olib borilgan darslar talabalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv metodlar ta’lim jarayonida samarali muloqot va hamkorlik muhitini yaratadi. Ayrim mavjud muammolarni bartaraf etish orqali interaktiv yondashuvning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni rivojlantirish ta’lim tizimini takomillashtirishning muhim omillaridan biri bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. *Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

3.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Fan, 2017.

4. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar.* – T.: TDPU, 2019.

5. Slavin R.E. *Educational Psychology: Theory and Practice.* – N.York: Pearson Education, 2018.

6. Hattie J. *Visible Learning: Feedback.* – London: Routledge, 2019.

7. OECD. *The Future of Education and Skills 2030.* – Paris, 2018.

8. UNESCO. *Global Education Monitoring Report.* – Paris, 2020.

9. Darling-Hammond L., et al. *Implications for Educational Practice of the Science of Learning and Development.* – Washington, 2020.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MA’NAVIY-AXLOQIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK JAMOANING SHAXSIY NAMUNASI

Z.T.Nazarova

KDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

Annatotsiya: *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda pedagogik jamoaning shaxsiy namunasi, bo‘lajak o‘qituvchining o‘z kasbiga munosabati, pedagogik missiyani anglashi, o‘zini jamiyat oldida mas’ul shaxs sifatida his etishi haqidagi fikrlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy-axloqiy identitet, pedagogik jamoa, axloqiy pozitsiya, ijtimoiy-pedagogik omillar, individual yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ijtimoiy mas’uliyat.*

Pedagogik jamoaning shaxsiy namunasi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z ustozlarining kasbiy odobi, axloqiy pozitsiyasi, talabalarga munosabati, jamiyatdagi faolligi orqali ma’naviy mezonlarni o‘zlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, pedagog shaxsining axloqiy nufuzi uning ta’limiy ta’siridan ko‘ra ko‘proq tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim muassasasidagi har bir o‘qituvchi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ma’naviy-axloqiy identitet modeli vazifasini bajaradi.

Talabalar jamoasi ham ijtimoiy-pedagogik omil sifatida alohida o‘rin tutadi. Jamoadagi o‘zaro munosabatlar, hamkorlik, raqobat, o‘zaro yordam va mas’uliyat hissi bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi. Masalan, jamoada faol, ijtimoiy mas’uliyatli talabalarning mavjudligi boshqalarni ham ijobiy faoliyatga undaydi, bu esa umumiy ma’naviy muhitni yuksaltiradi. Aksincha, befarqlik, individualizm ustuvor bo‘lgan muhitda axloqiy identitet shakllanishi sust kechadi.

Ijtimoiy-pedagogik omillarning uchinchi guruhi mikroijtimoiy omillar bo‘lib, ular shaxsning yaqin ijtimoiy muhiti oila, do‘stlar, shaxsiy tajriba va individual psixologik xususiyatlar bilan bog‘liq. Oilada berilgan tarbiya, bolalikdan shakllangan axloqiy qadriyatlar bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy identiteti uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ota-onaning mehnatga munosabati, halollik, mas’uliyat, boshqalarga hurmat kabi fazilatlarni amalda namoyon etishi bolada barqaror axloqiy mezonlarni shakllantiradi. Keyinchalik bu mezonlar kasbiy faoliyatda ham o‘z ifodasini topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy hayotiy tajribasi, o‘z-o‘zini anglash darajasi, refleksiya qobiliyati ham muhim mikroomil hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy identitet faqat tashqi ta’sirlar natijasi emas, balki shaxsning ichki faoliyati, o‘z qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilishi va ularga sodiq qolishi orqali shakllanadi. Shu ma’noda, bo‘lajak o‘qituvchining o‘z kasbiga munosabati, pedagogik missiyani anglashi, o‘zini jamiyat oldida mas’ul shaxs sifatida his etishi uning identitetini mustahkamlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda ta’lim jarayonining mazmuni va metodlari ham ijtimoiy-pedagogik omil sifatida qaraladi. Agar o‘quv fanlari faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolsa, axloqiy tarbiya ikkinchi darajaga tushib qoladi. Shuning uchun ta’lim mazmunida axloqiy muammolar, pedagogik vaziyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, kasbiy etika masalalarini yoritish muhim. Amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish bo‘lajak o‘qituvchini real axloqiy tanlovlar oldiga qo‘yadi va uning identitetini faol ravishda shakllantiradi.

Ayniqsa, loyiha faoliyatiga asoslangan ta’lim texnologiyalari ijtimoiy-pedagogik omillar ta’sirini kuchaytirish imkonini beradi. Loyiha jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi jamoada ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, ijtimoiy muammolarni hal etish orqali o‘z axloqiy pozitsiyasini amalda sinab ko‘radi. Bu esa ma’naviy-axloqiy identitetni faqat nazariy tushuncha emas, balki shaxsiy tajriba sifatida qaror toptirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirish ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik omillar ta’sirida amalga oshadi. Makro, mezo va mikro darajadagi omillarning o‘zaro uyg‘unligi, ta’lim muassasasida maqsadli tashkil etilgan ma’naviy muhit hamda shaxsning ichki faolligi ushbu jarayonning samaradorligini belgilaydi. Ana shu omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarda barqaror, ongli va ijtimoiy mas’uliyatli ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy-pedagogik omillarning samarali ta’siri, avvalo, ta’lim jarayonining maqsadli ravishda ma’naviy-axloqiy yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirish tasodifiy yoki o‘z-o‘zidan kechadigan jarayon emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va uzluksiz pedagogik ta’sir natijasidir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy muhit bilan ta’lim-tarbiya jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Agar ta’lim muassasasidagi ma’naviy talablar jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lsa, bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy pozitsiyasida barqarorlik shakllanadi.

Ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ijtimoiy-pedagogik omil sifatida alohida ahamiyatga ega. Turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ma’ruzalar, davra suhbatlari, ijtimoiy loyihalar bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy tafakkurini boyitadi, ularda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantiradi. Masalan, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar o‘zlarini faqat ta’lim oluvchi emas, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida anglay boshlaydilar. Bu jarayonda ularda “men kimman?”, “men jamiyatga qanday foyda keltiryapman?” degan refleksiv savollar yuzaga keladi va aynan shu savollarga javob topish ma’naviy-axloqiy identitetning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida axloqiy mazmunga ega pedagogik vaziyatlardan foydalanish ham samarali ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida talabalar turli axloqiy tanlovlar oldida qoladilar: o‘quvchiga nisbatan adolatli munosabat, mas’uliyatni his qilish, kasbiy etika qoidalariga rioya etish kabi holatlar ularning ichki axloqiy pozitsiyasini namoyon qiladi. Bu vaziyatlar orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘z axloqiy qiyofasini qayta-qayta baholaydi, o‘z qadriyatlarini amalda sinovdan o‘tkazadi. Natijada ma’naviy-axloqiy identitet faqat nazariy tushuncha emas, balki shaxsiy hayotiy tajribaga aylanadi.

Shu o‘rinda ta’lim jarayonida refleksiyani tashkil etishning ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. Refleksiya — shaxsning o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va qadriyatlarini ongli tahlil qilishi jarayoni bo‘lib, u ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, axloqiy qarorlarining sabab va oqibatlarini anglash imkoni berilganda, ularda ongli axloqiy pozitsiya shakllanadi. Bu esa ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarga nisbatan ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar tizimida ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari ham muhim o‘rin tutadi. Talabalar kengashlari, yoshlar tashkilotlari, ko‘ngilli guruhlar faoliyati bo‘lajak o‘qituvchilarda liderlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va jamoa oldida javobgarlik hissini shakllantiradi. Bu faoliyat jarayonida talabalar axloqiy me’yorlarga rioya qilish, jamoat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi qadriyatlarni amalda o‘zlashtiradilar. Natijada ma’naviy-axloqiy identitet ijtimoiy faollik bilan uyg‘un holda rivojlanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot makoni ham ijtimoiy-pedagogik omil sifatida qaraladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli ta’lim platformalari bo‘lajak o‘qituvchilarning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar bu makonda ma’naviy mazmunli kontent ustuvor bo‘lsa, u axloqiy identitetni mustahkamlaydi. Aksincha, salbiy axborot oqimi, axloqiy me’yorlarga zid g‘oyalar shaxsda qadriyatlar qarama-qarshiligini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot madaniyatini, tanqidiy fikrlashni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot makonida o‘zini tutish madaniyati, pedagogning raqamli muhitdagi axloqiy qiyofasi ham uning identitetining bir qismiga aylanmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchi internetdagi faoliyatida ham kasbiy etika, mas’uliyat va madaniyat tamoyillariga amal qilgan holda o‘zini jamiyat oldidagi ma’naviy namuna sifatida namoyon etishi lozim. Bu holat zamonaviy pedagogik tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik omillarning yana bir muhim jihati — ta’lim jarayonida individual yondashuvni ta’minlashdir. Har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining ijtimoiy tajribasi, tarbiyasi, dunyoqarashi bilan ta’lim muassasasiga kirib keladi. Shu bois, ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda universal usullar bilan bir qatorda individual xususiyatlarni hisobga olish muhim. Individual suhbatlar, maslahatlar, shaxsiy rivojlanish rejalari bo‘lajak o‘qituvchining ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida ijtimoiy-pedagogik omillarning maqsadli integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-axloqiy identitetni barqaror, tizimli va uzluksiz ravishda shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda ta’lim muassasasi faqat bilim beruvchi institut emas, balki

ma’naviy ijtimoiylashuv makoni sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ana shu makonda bo‘lajak o‘qituvchi o‘zini kasbiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan anglaydi, jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his qila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 7-noyabr, №238 (8018).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 09/20/824/1689.

3. Mamatqulov S. Ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha xorijiy tajriba// O‘zbekistonda oliy ta’lim. Ilmiy, o‘quv-uslubiy va tahliliy jurnal. 2023.№3, ISSN 2181-3051. – B. 39-49

GLOBALLASHISH JARAYONI, OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Mukaddas Norkabulovna Babakulova
KDPI, v.b.dotsenti, mukaddasbabakulova4@gmail.com
Ruxshona Raimovna Radjabova *SamDAQU PhD tayanch doktoranti*
r.rushana.r.@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu maqolada millatning betakrorligi, har bir millat o'ziga xosligi bilan qadrli ekanligi, hamda globallashish jarayonining inson ongiga ta'siri, uning salbiy oqibatlari, insonning faqatgina shaxsiy manfaatini qimoya qilishiga undashi, globallashish va ommaviy madaniyat ta'sirida insonlar o'rtasidagi qadr-kimmat, mexr-okibat, iymon-e'tikod, milliylik kabi tushunchalarning kamayib borishiga nisbatan chora-tadbirlar haqidagi masalalar yoritilgan.*

Kalit so’zlar. Millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi,genofond, globallashish, ommaviy madaniyat, milliylik, qadriyatlar.

Kirish. Har bir millat - o'zini tashkil qilgan kishilar uchun avvalo tabiiy-tarixiy birlik sifatida qadrlidir, u olamdagi boshqa turli-tuman xalq, elat va millatlarga o'xshamaydigan o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, har qanday millat tarixiy taraqqiyot va rivojlanish jarayonida yangilanib, o'zgarib boradigan rang-barang qatlamlar uyg'unligini ifodalaydigan ijtimoiy birlik hamdir.

Millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o'zgarib borishi bilan bog'liq eng asosiy qadriyati - uning genofondidir.

Genofond - faqat irsiyat orqali o'tadigan tabiiy o'ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilar, ijtimoiy xususiyatlar, milliy rang-baranglik va o'zgaruvchanlikni ham o'zida ifodalaydi. Aynan biror xalq, millat, elatni yo'qotish uchun qilingan tajovuz - "genotsid" deb atalishi bejiz emas. Millat genofondi -uni eng asosiy tarixiy, milliy qadriyatlaridan biridir.

Hammamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Texnika, elektronika va shunga o'xshash murakkab texnologiyalarning yaratilishi inson va uning bevosita kundalik xayotidagi muammolarning ko'payib borishi va millat genofondiga tajovuzi bilan xarakterlanadi. Tan olish kerakki, bu texnika va texnologiyalar inson xayotidagi murakkabliklarni ancha yengillashtirib, bebaxo vaqtini tejashga sabab bo'lmokda. Hozirgi jadallashish jarayoni, tezkorlik davri bir so'z bilan aytganda globallashish insoniyatga, yoshlarning xulq-atvorigao'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi.

Metodologiya. Bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz, avvalambor bizda, globallashishning o'zi nima? Uning qanaqa oqibatlari bor? U kanday yuzaga keladi, uning oldini olish mumkinmi? Uning inson psixikasi va xulqiga ta'siri kanday? Degan qator savollar tug'ilish tabiiy. Globallashish, GLOBAL – lotinchadan olingan bo'lib, umumiy, borliqni qamrab oluvchi, barchaga taallukli degan ma'noni anglatadi. Shundan kelib

chikadigan bo'lsak, globallashish jarayoni nafakat bizning shahrimiz yoki mamlakatimizda, balki butun dunyo, jahon mamlakatlarida kechayotgan xodisadir.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin jahonda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shilgan ekanmiz, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan, yaratilayotgan kashfiyotlardan, eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib turishimiz lozim. Bu yangiliklardan tezkorlik bilan xabar topishimiz globallashish natijasidadir. Demak, bizning mamlakatimizda ham bu jarayon – globallashish jarayoni kechmokda.

Globallashish jarayoni turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi. OAV, televideniye, radio, global tarmok bo'lmish internet, gazeta, jurnallar, uyali aloqa vositalari, insonning ijtimoiy hayotda qulaylikka intilishi, o'zining mustaqilliligiga intilishi, o'zligini namoyon etishi va bunda turli xil yo'nalishlardan foydalanishi kabi xodisalarda globallashish jarayonini sababchi qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Globallashish jarayonining bir turi bo'lmish ommaviy madaniyat real hayotga kaysi bir jixatlari bilan o'xshash, ammo ayni paytda undan bir muncha uzoq bo'lgan hayot manzarasini yaratadi. Qarashlar va qadriyatlar tizimini, xulq modelini yaratishga xizmat qiladi. Ommaviy madaniyat o'zining mana shu xususiyatlari bilan insonning idealga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intiladi.

Globallashuv jarayonlari va ommaviy madaniyat ekspaniyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar, ijtimoiy mavjudot xisoblangan insonda muayyan o'zgarishlar keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma'naviy-axlokiy tayanchlardan mahrum etiladi, jamiyat inkirozga uchraydi.

Tahlillar. Tan olish kerakki, globallashish jarayoni inson uchun, uni jamiyatdagi o'z o'rnini egallashi uchun bir muncha qulayliklar yaratdi. Lekin shuni xam unutmaslik kerakki, bu jarayon ta'sirida ko'plab salbiy oqibatlar yuzaga kelmokda.

Insoniyatning mustaqillikka erishishi, xayotdagi o'z urnini egallashi, o'z mulkiga erishishi va uni ximoya qila olishi maktovga loyik, lekin bu mustaqillik yoki xayotdagi o'rni nima evaziga qo'lga kiritilishi e'tibordan chetda kolmokda, bu ikkinchi darajaga tushib kolmokda.

Globallashish jarayoni birinchi navbatda inson ongiga ta'sir qiladi. Globallashishning salbiy oqibatlari insonning faqatgina shaxsiy manfaatini qimoya qilishiga undaydi. Globallashish natijasida insonlar o'rtasidagi qadr-kimmat, mexr-okibat, iymon-e'tikod, milliylik kabi tushunchalar yo'qolib bormokda. Masalan, o'zbek xalkiga xos farzandga bo'lgan instinkt darajasiga ko'tarilgan mehr g'arbona dunyokarash tufayli ota-onalarda, ayniksa onalarda ko'proq o'zini o'ylash, «o'z xayotini» yo'lga qo'yish, «o'z hayoti» bilan yashash holatlariga olib kelmokda. Bu esa o'z navbatida yoshlar tomonidan g'arbga taqlid qilish, ya'ni ularning kiyinishida, so'zlashuvlarida, eng achinarlisi ularning ma'naviyati va tarbiyasidagi illat katta yoshdagilarga nisbatan hurmatsizlik, hayotning ma'nosini faqat qimmatbaho kiyim-u, qimmat uyali telefon, avtomashinali bo'lish, kunini bar-u, diskotekalarda o'tkazishdan iborat deb bilishlarida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, men globallashish jarayonini yo salbiy, yo ijobiy jarayon sifatida baholamayman. Har bir kashfiyotning, yangilikning xam salbiy, xam ijobiy tomonlari bo'lgani singari globallashish jarayonining xam ikki xil xislati mavjud. Bu ikki xil xislatlarning ijobiysini kengaytirib, salbiy okibatlarini oldini olishimiz darkor. Buning uchun birinchi navbatda biz yoshlar ham o'z tengdoshlarimizning hayotda o'z o'rnini topishi uchun, kelajakka bo'lgan intilishi yo'qolmasligi uchun, oldiga qo'ygan maqsadi to'g'ri va bu maksadga erishishda to'g'ri yo'l tanlashlari uchun ularni to'g'ri yo'naltirishimiz, ularning xulq-atvoriga nisbatan befarq va loqayd bo'lmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. –T.: “Fan va texnologiyalar”nashriyoti, 2012.
2. Asqarova O'. Milliy g'urur tarbiyasi: (Mehribonlik uylari misolida). – T.: O'qituvchi, 2003.

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASPEKTLARI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi v/b dotsenti. PhD

E-mail: xalbayevagulnoza42@mail.ru

Annotatsiya. *Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, yangicha psixologik usul va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida bolalarni maktabga tayyorlashni tashkil etish muhim masalalardan ekanligini amaliyot ko‘rsatadi. Bu borada ta’lim va maktabga tayyorlashni uzviyligini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, bolalarni maktabga innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Maktabga tayyorgarlik muammosi keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *bola, maktabga tayyorlash, intellekt, innovatsiya, innovatsion ong, innovatsion tafakkur, innovatsion g‘oyalar, kretivlik, deviant xulq, o‘quv motivlari*

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, yangicha psixologik usul va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida bolalarni maktabga tayyorlashni tashkil etish muhim masalalardan ekanligini amaliyot ko‘rsatadi. Bu borada ta’lim va maktabga tayyorlashni uzviyligini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, bolalarni maktabga innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarligini takomillashtirish davlat ciyocatining eng muhim uctuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangan bo‘lib, zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual g‘oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to‘laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-son, 2021 yil 1 apreldagi «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘RQ-0270-son, 2021 yil 28 avgustdagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 0832-sonli Qarorlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», Farmonlari, hamda

boshqa meyoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamiz olimlaridan bolalarning shakllanishi hamda ularning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik xususiyatlari muammosi G.B.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, N.S.Safayev, E.G‘.G‘oziyevlar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan G.M.Andreyeva, D.B.Elkonin, B.K.Lisina, L.S.Obuxova, C.B.Malanova, A.A.Orlov, A.N.Leontov, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy bolalarning yosh psixologiyasi va ularni shaxs kamolotidagi roli va ahamiyatini tadqiq etilganlar.

Xorij olimlari M.Bingham, J.Edmondson, J.R.Nuttin, Y.Peng, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, M.Rokeach, C.R.Rogers, G.Hofstede va boshqa olimlar bolalarni maktabga tayyorlashning turli psixologik jihatlarini o‘rganganlar.

SH.T.Kubayeva o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion-psixologik mexanizmlarni tafakkurga asoslangan yangicha g‘oyalar, konsepsiyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi “innovatsion tafakkur” deb belgilashga asos bor deb ta’kidlaydi. Bizningcha innovatsion tafakkurni ilmiy jihatdan tahlil qilishda bir tomonloma yondashish to‘g‘ri bo‘lmagan bo‘lar edi. Chunonchi tafakkur subyektini yosh xususiyatlari va etnopsixologik xususiyatlarning o‘rnini ham unutmaslik lozim, chunki innovatsion-psixologik mexanizmlar asosida obrazlar, ramzlar, xulosalar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o‘zaro integratsiyasi mavjud bo‘lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo‘lishida ijtimoiy identifikatsiya asosiy rolni bajaradi.

J.Baerni tadqiqotlarida, amaliyotda innovatsion-psixologik mexanizmni asosini kreativlik tashkil qilishi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Albatta innovatsion-psixologik mexanizmlarni joriy ta’minlashda bu psixologik xususiyatni e’tibordan qochirmaslik lozim bo‘ladi. I.Abdullayeva va uning shogirdlari rivojlanayotgan jamiyatda iqtisodiy va innovatsion tafakkurning uyg‘unligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rgangan. Uning fikricha, innovatsion-psixologik mexanizmlar albatta ijtimoiy normalar asosida boshqarilib turilishi lozim. Bunda innovatsion-psixologik mexanizmlar munosabatlarni tartibga soladi hamda ularni mazmundorligini (samarali, samarasiz) ta’minlaydi. Bizningcha muallif masalani ko‘proq falsafiy-umumiy tomonlarini yoritib, uning xususiy jihatlarini o‘rni va ahamiyatini nazaridan qochirgan.

A.Saitqosimov innovatsion ong, tafakkur, kretivlik, liderlik kabi psixologik xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etgan hamda jamiyatda innovatsiyalarni joriy etishni tartibga solish, amaliy natijalarini esa davlat siyosatiga muvofiqlashtirish uchun «Innovatsion tadqiqot markazlarini tashkil etish lozimligini» ko‘rsatib o‘tgan. Tadqiqotchining fikricha, ta’lim tizimida klaster tizimini joriy etish, oliygohlar qoshida maktablar, bog‘chalar, texnopark kabilarni tashkil etib, ishlab chiqilgan mahsulotlarni miqyosini kengaytirish uchun tijoratlashtirish lozim.

S.R.Yagolkovskiy o‘z izlanishlarini innovatsiya psixologiyasini o‘rganishga bag‘ishlagan. Olimning ta’kidlashicha, har qanday innovatsiya bevosita biron-bir faoliyat sohasiga taalluqli bo‘ladi. Ayni paytda innovatsiya muallifi o‘z g‘oyasini amaliyotda qo‘llanilishining samara berishini anglashi kerak. Buning uchun esa kasbiy motivatsiya hamda psixologik ustanovkalar to‘g‘ri shakklangan bo‘lishi kerak va psixologlar bu masalaga e’tibor qaratishlari talab etiladi.

Innovatsiyalar, insonni psixologik tahlilining mahsuli sanalib, o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Innovatsiyalar ilmiy izlanishlar hamda alohida ilg‘or tajribalarning natijasi ko‘rinishida boshqarishni, tatbiq etishni taqozo etadi. Bu tushuncha XIX asrda ilmiy muloqotga kiritilgan bo‘lib, XXI asrning boshlarida innovatika tushunchasi zamirida texnika sohasidagi yangiliklarni moddiy ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishda qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ijtimoiy munosabatlar nazariyasini yetakchi vakili R.Mertonning ta’kidlashicha, maktabga tayyorlashning innovatsion g‘oyalarni, deviant xulqning namunasi sanaladi (8(. Bunda muallif ta’lim berishning institutsional (bazaning zamirida vujudga keladigan) asoslarini ishlab chiqishda mavjud bulgan meyor va mezonlarni (aniq

harakatlar ketma-ketligi, aloqadorlik va boshqalarni) inkor etib, ulardan voz kechib, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan munosabat bildirgan

G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning ta'kidlashicha, innovatsiya bu shaxsda ifodalangan ijodiy (kreativ) salohiyatni maqsadli namoyon qilish hisoblanib, uning faoliyat sifatidagi o'ziga xosligi shaxsning ma'lum tipini belgilab beradi. Agarda, bolani maktabga tayyorlash tizimida innovatsiyalarning qo'llashni e'tiborga olsak, bola shaxs tipologiyasini sohaviy kurinishda klassifikatsiyasini amalga oshirish mumkin buladi. G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning fikrini S.Knowles Malcolm, F.HoltonElwood, A.SwansonRichardlar ham davom ettirib, bugungi kunda shunday bolalarni maktabga tayyorlash zarurki, ular har qanday holatda ham o'zlarining bilimlarini amaliyotda nafaqat qo'llab, balki uni rivojlantira olishga ham erishsinlar, degan fikrni ta'kidlaydilar.

K.Rodjersning fikricha, agarda insonga genetik layoqati uchun shart-sharoit yaratib berilsa, u takomillashishga erishadi. Bu esa, o'z navbatida bolaning kelajakda ham shaxsiy ham kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin ekan.

Bolani maktabga innovatsion tayyorlash jarayoni bolalarni psixologik jihatdan tayyorgarligini oshirib, ularni maktabga tayyorlash jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy tasavvurlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashning asosiy komponentlari quyidagilarda aks etadi:

- ijtimoiy tasavvurlarni o'zgarishi natijasida o'zi va o'z qiziqishlariga bo'lgan munosabatning o'zgarishi;
- yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqni oshishi;
- orzu va istaklarni yuqori darajaga ko'tarilishi.
- Bolalarni maktabga tayyorlashni aniqlashda ularga darajaviy yondoshib amaliyot davomida psixologik jarayon sifatida inobatga olinishi lozim bo'lgan vazifalar:
- ta'lim jarayonida bolaning innovatsion faoliyatga tayyorlash davomida o'zgarishlarni belgilab olish;
- maktabga tayyorlash uchun optimal uslublarni aniqlab olish;
- ilmiy-psixologik modellashtirish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish.

Ushbu vazifalarni yechish o'z o'rnida bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash uchun muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bolani maktabga psixologik tayyorlashda albatta uning motiv va ehtiyojlarini ham nazardan qochirmaslik lozim. J.Piaje bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrini absolyut egotsentrizm davri deb ataydi. Bunga qarama-qarshi fikrni L.S.Vigotskiy, hatto go'dakning elementar ehtiyojlarini qondirilishi ota-onaning ishtirokisiz amalga oshmaydi, shuning uchun bola "maksimal darajada ijtimoiy mavjudod" deb hisoblaydi.

L.S.Vigotskiy qarashlariga qo'shilgan M.I.Lisina bolaning psixik rivojlanishining birlamchi faktori sifatida muloqotga ehtiyojniva L.I. Bojovich – ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojni e'tirof etadi. M.I.Lisina bo'yicha muloqot uchta asosiy ehtiyojlarni qamrab oladi:

1. Ta'surotlarga ehtiyoj- bilish motivlari
2. Faol faoliyatga ehtiyoj- ishbilarmon motivlar
3. Tan olinish va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj- shaxsiymotivlar

Bizning fikrimizga ko'ra ham, bolaning maktabga psixologik tayyorlashda ushbu muloqot motivi birinchi darajali ahamiyatga ega, sababi, bola birinchi kunidanoq boshlab uni bilim olish va faoliyatining markaziy obyekti hisoblangan kattalar bilan muloqot jarayonida uyg'unlashadi. Undan tashqari ularga taqlid namunasi va bilim va ko'nikmalarni baholovchi ekspert tariqasida qaray boshlaydi.

A.Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida muloqotga bo'lgan ehtiyoj konsepsiyasini oldinga suradi. Maslou fikricha, insontu g'ilganda faqatgina fiziologik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ma'lum muddatdan so'ng esa bola ijtimoiy bog'liqlikning birinchi

belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon etadi. Yana ma’lum muddatdan so‘ng, bola ota-ona muhabbati va g‘amho‘rligini his etgandan, qondirilgandan so‘ng, unda avtonomlikka, mustaqillikka, qandaydir maqsad, maqtovga nisbatan muvaffaqiyatga erishishga intilish aniqlanadi. Demak, bolani maktabga psixologik tayyorlashda ushbu ehtiyojlarning qay darajada qondirilganligi keyingi ijtimoiy adaptatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekan.

Bolani maktabga psixologik tayyorlashda ulardagi psixik jaryonlarning ham shz shrni va ta’siri borligini e’tibordan iochirmaslik lozim. Bolaga ko‘rsatilayotgan psixologik ta’sirni bir xilda namoyon bo‘lish yoki bo‘lmasligi, ya’ni ekstravertlar va introvertlarda L.S.Sapojnikova (1973) o‘rgangan bo‘lib, tadqiqot natijalariga asoslanib, u muloqotga intilish va ekstra-introvertlilik o‘rtasida aniq statistik ahamiyatli bog‘liqliknitopmagan. Natijalarga ko‘ra, bolalarning muloqotga intilishlari ularning ehtiyoj, da’vogarlik, mayllarining kuchi va darajasiga bog‘liq bo‘lib chiqdi. Da’vogarlikning adekvat darajasini namoyon etuvchi bolalarda o‘zgalarga intilish meyorida namoyon bo‘ladi, noadekvat intilishlar darajasiga ega bolalarda esa yo yuqori, yo past darajada namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Xulosa qilib aytganda, maktabga psixologik tayyorlikning muhim tarkibiy kismi maktabga o‘qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo hakida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo‘lishidir. Bilimlarning bu zahirasi o‘qituvchi o‘z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos xisoblanadi. Bolani maktabga psixologik tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir.

Bilimlar sifatining ko‘rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to‘liqligi; o‘zlariga tushunarli o‘quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo‘llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya’ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o‘rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish kobiliyatidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar
2. Kubayeva Sh.T. O‘yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.
3. Baer J. Domain specificity and the limits of creativity theory // Journal of Creative Behavior, 2012. – 46 (1). – pp. 16-29.
4. Abdullaeva I.G‘. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 48 b.
5. Яголковский С.Р. Психология инноваций: подходы, модели, процессы. – М.: Высшая школа экономики, 2011. – 272 с.
6. Организация инновационной деятельности в университетах ass: сб. информ.-аналит. материалов. – Н. Новгород: Изд-во ННГУ, 2011. – 96 с.
7. Халперн Д. Психология критического мышления. - СПб., 2000.
8. Герасимов Г.И., Илюхина Л.В. Инновации в образовании: сущность и социальные механизмы. – Ростов н/Д., 1999. - 136 с.
9. Knowles Malcolm S., Holton Elwood F., Swanson Richard A. The AdultLearner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development(Managing Cultural Differences) 5 th ed, Houston, TX: Gulf Publishing Company, 1998.
10. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека: Пер.с англ. / Общ. ред. и предисл. Исениной Е. И. – М.: Издательская группа « Прогресс» , «Универс» , 1994. – 480 с.

11. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. –Москва: Международная педагогическая академия, 1994. – 680с.
12. Маслоу А. Мотивация и личность / пер. А.М. Татлыбаевой. - СПб.:Евразия, 1999. - 478 с.
13. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.

TALABA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY YODGORLIKLAR RANGLARINING RAMZIY MA’NOLARI VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Shavqiyev Elyor Raxmonberdiyevich
Kattaqo‘rg‘on davlat instituti “Amaliy fanlar va sport” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya:*Ushbu maqolada talaba yoshlarni vatanpabvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklar o’rni masalalariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda O'zbek xalqining asrlar osha foydalanib, o'rganilib kelayotgan milliy madaniyati ananalari, me'moriy obidalarining ranglarini o’rganish. Ularning yaratilishi, timsollari, mazmuni mohiyati, shuningdek rangshunoslikdagi ifodasi sifatida bayon etilgan, hamda Bibixonim jome masjidi to’g’risida tahliliy fikirlar bildirilgan.*

Kalit so’zlar: *naqsh, tasviriy va amaliy san’at, gumbaz, baraban, peshdoq, minora, feruzasimon koshin, handasaviy, ravoq, muqarnaslar, xoshiya.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy-madaniy merosni tiklash va uni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Tarixiy yodgorliklar nafaqat moddiy boylik, balki ma’naviy va tarbiyaviy resurs sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

- **Tarixiy-tahliliy metod** – me’moriy obidalarning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish;
- **San’atshunoslik tahlili** – naqsh, rang va bezak elementlarini tahlil qilish;
- **Pedagogik kuzatuv** – talabalar bilan o‘quv jarayonidagi faoliyatni o‘rganish;
- **Taqqoslash metodi** – ranglarning ramziy ma’nolarini turli manbalar asosida solishtirish.

Tadqiqot ob’ekti sifatida Bibixonim jome masjidi tanlab olindi.

Ma’lumki, Resublikamiz Mustaqqilikka erishgandan keyin madaniy meroslami, ya’ni tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash ishlariga katta e’tibor berila boshlandi. Ana shu maqsadda respublikamizda xarobaga aylangan juda ko’p tarixiy yodgorliklar qayta ta’mirlana boshlandi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda qilinayotgan ishlar ancha ko’zga yaqqol tashlanib qoldi. Tarixiy yodgorliklar to’g’risida beriladigan bilimlarda nafaqat tarixga nazar tashlanadi, balki o’sha davrga mos bo’lgan me’morchilik san’atiga ham e’tibor beriladi va ayrim narsalar o’rganiladi. Respublikamizda turli xil tarixiy yodgorliklarni mavjudligi xalqimizning miliy iftixori, g’ururi bo’lib kelmoqda shu bilan birga yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta axamiyatga ega bo’lmoqda. Ayniqsa tasviriy va amaliy san’at yo’nalishlarida bilim olayotgan yoshlarni etuk mutaxassis qilib tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Ushbu maqolada biz talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklarning roli to’g’risida to’xtalib. o’tamiz.

Ma’lumki bizning inistitutda san’atshunoslik fakul’teti mavjud bo’lib, unda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi va amaliy san’at yo’nalishi bo’yicha talabalar bilim olmoqda. Ana shu talabalarga ham mutaxasislik bo’yicha bilim berishda, ham ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy yodgorliklardan misol sifatida Bibixonim, Jome’ masjidini olib qaraymiz. Bu maqsadda quydagi malumotlarni talaba yoshlarga birinchi o’rinda yetkazishimiz kerak.

O’rta Osiyo me’morchilik san’atining yuksak namunasi, mahobatli me’moriy inshoot Samarqand sahrida joylashgan Bibixonim Jome’ masjidi 1399-1404 yillarda buyuk sarkarda Amir Temurning Hindistonni zabt etishi sharafiga qurdirgan.

Xalq orasida bu inshoot Amir Temurning katta xotini Bibixonim (Saroy- mulkxonim) nomi bilan mashhur. Bibixonim Jome’ masjidi Markaziy Osiyoda eng yirik inshootlardan hisoblanadi. Bu masjid qurila boshlagan vaqtlarda O’rta Osiyo me’morchiligida ulkan, mahobatli binolar qurish odat bo’la boshlagan edi. Bibixonim masjidi o’sha davrda ham, hozirda ham xalqimizning milly g’ururi bo’lib hisoblanadi. Bu o’rinda Amur Temurning “Agar bizning kuch - qudratimizga ishonmasang, biz qurgan imoratlarimizga boq” degan so’zini keltirsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Xuddi shuningdek Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sidan Bibixonim masjidining quydagi ta’rifmi keltirsak uning qanchalik ahamiyati borligini ko’ramiz, “Agar osmon uning tasviri bo’lmaganda, gumbaz yakkayu yagona bo’lur edi, agar Somon yo’li unga juda bo’lmaganda, o’rnini arilar egallar edi.” Bibixonim jome masjidi to’g’risida Abu Toxir Xo’ja “Samariya” asarida shunday yozadi; “Amir Temur hindistonni olgandan keyin oltin, inju va qimmatli toshlarni to’qsonbitta fllga ortib keltirdi. 1399 melodiy yilida kuchli va tezkor ustalarni dunyo tevaragidan yig’ib kelib ishni boshladi. Va shunday bir masjidi jome’ bino qildiki, sathining sof ishlanishi hushyor dillardan ham munavvarroq va baland qo’ng’iralari boy muqarnasidan bezaklari, feruzasimon koshinlari lojuvard, osmonrang, oftobro’y jiloli zarnigor naqishlari bilan go’zal charx gumbazlariga barobar, baland ovozalik darvozasi “kimki bu yer (xonai ka’ba) ga kirdi, omonlik topdi” oyatlarning kaliti bilan ochiladi. Har bir yuksak tog’lari falak peshtog’da qad ko’tardi”. Bibixonim Jome’ masjidining umumiy sathi 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo’lgan va hozir bu minoralar qayta tiklandi. Jome’ masjidi zilzilalar ta’sirida asta-sekin yemirilib vayron bo’lgan, faqat shimoliy-g’arbiy minoralarining pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Bibixonim jome’ masjidi poydevori xarsang toshdan, devorlari pishiq g’ishtdan ishlangan (qalinligi 4,4-5 m). Jome’ masjidining asosiy binosini olib qarasak u Amir Temur zamonasining me’moriy uslublari haqida tasavvur beradi.

Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko’p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli handasaviy sakkiz qirrali qismi shakllar yig’indisi (kubsimon prizma, xonaning ustiga tushgan baraban va gumbaz)dan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo’lib, tomonlari 14,6 metrga teng. Uning ustiga xona devorlari bo’ylab o’tuvchi rovoqlardan iborat sakkiz qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosiga baraban tutashtirilgan. Baraban sirtiga qur’on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardozlangan gumbaz berkitilgan. Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi rang-barang koshinlar bilan qoplangan, sopol g’ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g’ishtlar tik terilgan. Asosy naqsh shakillari tiniq, lojuvard g’ishtchalardan terilib, ulaminig oralig’i zangori g’ishtchalar, oq toshlar bilan to’ldirilgan. Oddiy handasaviy shakllar va pechak kabi tirmashib ketgan yozuvlar bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi. Jome’ masjidning ichki qismini pardozlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo’rtma gul qog’oz (pap’e mashe) dan keng foydalanilgan.

Masjidning ko’p qirralari yulduzlar, uch qavatli xatlar o’yilgan lavhalar jajji muqarnaslar bilan oro berilgan, xoshiyalar oq toshdan o’yilgan. Vayrona xolatda bo’lsa ham, me’moriy shakllarining serhashamligi, bezaklarning nafisligi bilan kishi diqqatini jalb qiladi. Undagi rang - barang naqshlar o’sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tarixiy obidalar, yodgorliklar, ularning o’ziga xos me’moriy san’atidan dastlabki ma’lumotlarni bergandan kiyin, o’sha joylarga sayohat (ekskursiya) tashkil etilsa, qo’yilgan maqsadga erishish oson bo’ladi. Chunki talabalar fikrlari, tushunchalari va bilimlari asosli bo’ladi va ularda qat’iy xulosalarni tug’diradi.

Shunday qilib, tajribalarga asoslanib xulosa qilsak, talabalarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda xalqimizning bizga qoldirgan tarixiy yodgorliklar va obidalarning ro’li juda katta ekan.

Shunday ma’rifatli xalqimizning asirlar osha o’rganib, foydalanib kelayotgan an’analarini talabalarga singdirish bizning burchimizdir. Agar tasviriy va amaliy san’atni o’qitish jarayonida tarixiy yodgorliklar va obidalarning ranglarni va ramziy manolari xossalarini talabalarga o’rgatib borsak undan keyin o’quvchilarga bu an’ana etkaziladi. Yurtimizda bunyod etilgan me’moriy obidalar tarixini, ranglarini talaba yoshlar ongiga sigdirishda rangshunoslik fanida ramziylik nihoyatda kerak ekanligi hamda uni chuqur bilib olish lozimligi bugungi kunda ham muhimdir. Mashg’ulotlar davomida aynan shu jihatlarni o’rganish orqali tarixiy, madaniy va milliy merosimizni o’rganib olinishga zamin yaratiladi. Hozirgi davr tasviriy va amaliy san’atini o’qitish jarayoniga ranglarning o’ziga xos xususiyatlari, ramziy ma’nolarini chuqurroq o’rganish ham asosiy maqsad qilib qo’yilsa to’g’ri bo’ladi. Shunda vatanimiz, jamiyatimiz uchun ranglarning xususiyatini ham puxta o’rgangan barkamol kadrlar shakillanadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarixiy obidalardagi ranglar chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular talabalarning estetik va ma’naviy tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amir Temur davrida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi me’moriy yodgorligi rang va bezak uyg‘unligining mukammal namunasi hisoblanadi.

Asosiy aniqlangan jihatlar:

- Ranglar orqali diniy, falsafiy va estetik g‘oyalar ifodalangan;
- Talabalar ranglarning ma’nosini o‘rganish orqali tarixiy tafakkurni chuqurroq anglaydi.

Tahlillar. Bibixonim masjididagi ranglar quyidagi ramziy ma’nolarni ifodalaydi:

- **Feruza rang** – osmon, poklik va ruhiy yuksaklik timsoli
- **Lojuvard rang** – abadiylik va cheksizlik ramzi
- **Oq rang** – poklik va ilohiy nur ifodasi
- **Zarhal rang** – ulug‘vorlik va saltanat belgisi

Mazkur ranglar talabalarda:

- estetik didni rivojlantiradi,
- milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otadi,
- vatanparvarlik hissini kuchaytiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy obidalarga ekskursiya tashkil etish, vizual materiallardan foydalanish va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qitish samaradorligi oshadi.

Xulosalar. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tarixiy yodgorliklar talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.
2. Me’moriy obidalardagi ranglar chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular ma’naviy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi.
3. Rangshunoslikni tarixiy yodgorliklar bilan bog‘lab o‘qitish talabalarning bilim va tafakkurini rivojlantiradi.
4. Amaliy va vizual metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. O’ralov A.S. Me’moriy shakillarni uyg’unlashtirish va bezash.-Samarqand.:, “Sam DAQI,”-2013.

2. Ahmedov M.Q. Me’moriy meros.-T.:, “fan va texnologiya”, 2011.

3. Bulatov S. Rangshunoslik. -T. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti. 2009. -160 b.

4. M. Nabiyev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995

5. EgamovX. Bo’yoqlar bilan ishlash. –T. O’qituvchi. 1981. -56 b.

6. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati.–T.Mehnat. 1991. -386 b.

7. Shavqiyev. E. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. (Metodik qo’llanma) -T. Tafakkur bo’stoni. 2012.-14 b.

FONETIKAGA DOIR O‘QUV MATERIALLARINI INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
E-mail: dganiyeva084@gmail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetika fanini o‘qitishda interfaol metodlarning o‘rni, ularni qo‘llash asosida o‘quv jarayonini takomillashtirishning metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, nutqiy mashqlar tizimi, audio va videomateriallardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos interfaol usullarni tanlash masalalari tahlil qilinadi. Maqolada fonetik materiallarni o‘qitishda muvofiqlashtirish, faollashtirish, integratsiya, baholash va refleksiya tamoyillarining amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fonetika, interfaol usullar, o‘qitish metodikasi, nutqiy mashqlar, ta’lim texnologiyalari, tamoyillar, talaffuz malakalari

Til ta’limida fonetika bo‘limi o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuz, nutqiy eshitish va lug‘at boyligini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, fonetika “inson nutqini ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasi”dir [1]. Zamonaviy ta’lim jarayonida fonetikaga doir o‘quv materiallarini interfaol usullar asosida o‘qitish tizimini takomillashtirish dolzarb metodik muammolardan biridir. Chunki an’anaviy yondashuv ko‘pincha o‘quvchilarning fonetik tizimni idrok etish faolligini ta’minlashda cheklangan imkoniyatlarga ega. O‘zbek tilshunosligida fonetika masalalari G‘. Abdurahmonov, A. G‘ulomov, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, A. Nurmonov kabi olimlarning fundamental tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan [7]. Ushbu olimlarning ilmiy merosi bugungi kunda fonetika o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fonetika o‘qitishda interfaol usullarning nazariy asoslari sundan iboratki, interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. B. Yuldosheva o‘z tadqiqotida “mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va yangicha yondashishga yordam berishi”ni alohida ta’kidlaydi [1].

Fonetika darslarida quyidagi interfaol usullardan samarali foydalanish mumkin:

1. Audioyozuvlar orqali tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini namoyish etish;
2. Video darslar va interfaol doskalar yordamida tovushlarning artikulyatsion sxemalarini ko‘rsatish;
3. Fonetik tahlil dasturlari vositasida tovushlarni grafik va akustik tahlil qilish;
4. “Venn diagrammasi” va “Klaster” kabi interfaol metodlar orqali tovushlarni tasniflash [1];
5. Guruhli ishlar, juftlikda ishlash, “davra suhbati” kabi shakllar orqali talaffuz malakalarini mustahkamlash.

Mazkur vositalar o‘quvchilarning tovush tizimini idrok etishini osonlashtiradi, shuningdek, darsning samaradorligini oshiradi.

Fonetika o‘qitishning asosiy tamoyillari fonetik materiallarni interfaol usullar asosida o‘qitishda quyidagi tamoyillarga amal qilish metodik jihatdan muhim:

Muvofiqlashtirish tamoyili - qo‘llanilayotgan interfaol metod o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, sinf darajasiga va mavzu mazmuniga mos bo‘lishi kerak. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, “5-sinfda fonetika bo‘limining o‘tilishi bolalarning boshlang‘ich o‘rta sinfdan boshlab fonetika bo‘limini yaxshi va mukammal o‘rganib olishlari”ni nazarda tutadi [4]. 5-sinfda qo‘llaniladigan o‘yinlar va 10-sinfda qo‘llaniladigan metodlar mazmunan farqlanadi.

Faollashtirish tamoyili - metodlar barcha o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Guruhiy ishlar, juftlikda ishlash, “davra suhbati” kabi tashkil etish shakllari mazkur tamoyilni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiya tamoyili - interfaol metodlarni fonetika bo‘limining boshqa til bo‘limlari (grammatika, leksikologiya) bilan bog‘liq holda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Tovushlarni o‘rganish jarayonida ularning so‘z yasalishi va grammatik shakllardagi rolini ko‘rsatish o‘quvchilar bilimini mustahkamlaydi.

Baholash va refleksiya tamoyili - interfaol darslarda o‘quvchilar faoliyatini baholash hamda ularning o‘z faoliyatini tahlil qilishi (refleksiya) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglashlariga imkon yaratadi.

Fonetik mashqlarni bosqichli tashkil etish metodikasi

Zamonaviy metodistlardan A. Ergashev tomonidan olib borilgan tadqiqotda fonetik mashqlarni bosqichli tashkil etishning samaradorligi amaliy jihatdan asoslangan. Uch bosqichli model quyidagilarni o‘z ichiga oladi [3]:

1-bosqich — *idrok etish (perception).* Ushbu bosqichda o‘quvchilarning fonemik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tinglash va farqlash mashqlari qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “o‘quvchilar bu bosqichda tovushlarni passiv idrok etishdan faol farqlashga o‘tadilar” [3].

2-bosqich — *nazorat ostidagi talaffuz (controlled production).* Bu bosqichda takrorlash, artikulyatsion mashqlar va talaffuzni modellashtirish orqali o‘quvchilar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

3-bosqich — *kontekstual qo‘llash (contextual application).* Talaffuz maqsadlari hikoya qilish, dialog, qo‘shiq aytish kabi kommunikativ vazifalar orqali integratsiyalashtiriladi. Ergashevning ta’kidlashicha, “kontekstual qo‘llash bosqichi o‘quvchilarning ravon nutqi, ishonchi va talaffuzdagi o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi” [3].

O‘zbek olimlarining fonetika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy qarashlari

O‘zbek tilshunosligi va metodikasi sohasida fonetika o‘qitish masalalari bir qator olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. B. Mengliyev o‘zining “O‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari” nomli tadqiqotida o‘zbek tilining fonema va allofonlar qurilishi, singarmonizm va uning bahsli jihatlari, fonologik qoidalarni raqamli muhitga tatbiq qilish masalalarini o‘rgangan. Olim “tilni raqamli qayta ishlash (ASR, TTS, mashina tarjimasi) hamda lingvistik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan fonemik ‘xarita’ni yaratish” zarurligini ta’kidlaydi [2]. G.Do‘stmurodov esa o‘z maqolasida “ona tili o‘qituvchilarining nutqi bilan bog‘liq muammolar”ni tahlil qilib, “talaffuzda qiyinchilik tug‘diradigan tovushlarning aniq tavsifi va ularni bartaraf etishga doir bosqichli mashqlar tizimi”ni ishlab chiqqan. Olimning fikricha, “nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorlik, ovozni yo‘lga qo‘yish, aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to‘g‘ri nafas olish bo‘yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo‘lish mumkin” [10]. B.Yuldosheva interfaol metodlarni qo‘llash samaradorligini tahlil qilib, “Venn diagrammasi” va “Klaster” kabi metodlardan foydalanish orqali tovushlarni tizimli o‘rganish imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan [1]. E.Muxtorova o‘z tadqiqotida “Xalqaro fonetik alifbo (IPA), so‘z urg‘u naqshlari, morfemalar, qo‘shimchalar kabi tushunchalarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarning fonologik va morfologik xabardorligini oshirish” metodikasini ishlab chiqqan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “fonologik va morfologik xabardorlikni oshirish o‘quvchilarning tushunish va nutq qobiliyatlarini yaxshilaydi” [8]. N.Baxridinova esa fonetik hodisalar, urg‘u va bo‘g‘inni milliy qadriyatlar asosida o‘rgatish metodikasini ishlab chiqib, “O‘qituvchi va o‘quvchi suhbati”, “Bobo so‘zlari”, “Milliy libos” kabi milliy qadriyatlarga asoslangan metodlarni taklif etgan [5].

Metodik tavsiyalar

Fonetika darslarida interfaol usullardan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik tavsiyalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. Darsning har bir bosqichida texnologiya vositalaridan (audio, video, fonetik dasturlar) maqsadli foydalanish;
2. O‘quvchilarning faolligini ta’minlash uchun guruhli va juftlik ishlarini loyihalash;
3. Har bir dars yakunida refleksiya o‘tkazish orqali o‘quvchilarning o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;
4. Fonetik materiallarni boshqa til bo‘limlari bilan integratsiyalashgan holda taqdim etish;
5. Fonetik mashqlarni idrok etish, nazorat ostidagi talaffuz va kontekstual qo‘llash bosqichlariga ajratgan holda tashkil etish [3];
6. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, 5-sinfda o‘yin elementlaridan, 10-sinfda esa tahliliy topshiriqlardan keng foydalanish.

Fonetikaga doir o‘quv materiallarini interfaol usullardan foydalangan holda o‘qitish tizimini takomillashtirish o‘quvchilarning til o‘rganishdagi faolligini oshirish, ularning talaffuz malakalarini mustahkamlash va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonlik olimlaridan Mengliyev B., Do‘stmurodov G., Yuldosheva B., Muxtorova E., Baxridinova N. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar fonetika o‘qitishda interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiya vositalari va interfaol metodlarni tizimli ravishda joriy etish, fonetik mashqlarni bosqichli tashkil etish, shuningdek, yuqorida keltirilgan tamoyillarga asoslanish fonetika o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldosheva, B. (2023). Fonetika bo‘limini o‘qitishning zamonaviy usullari. *Modern Science and Research*, 2(12), 1131–1133.
2. Mengliyev, B. (2025). O‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari. *Navoiy universiteti ilmiy konferensiyalari*.
3. Ergashev, A. (2023). Staged Implementation Of Phonetic Exercises In Primary EFL Classrooms. *International Journal of Pedagogics*, 5(06), 356–359.
4. Yuldosheva, B. (2023). Fonetika bo‘limini o‘qitishning zamonaviy usullari. *Modern Science and Research*, 2(12), 1131–1133.
5. Baxridinova, N. (2025). Fonetik o‘zgarishlar, urg‘u va bo‘g‘inni milliy qadriyatlar asosida o‘rgatish. *Zenodo*, 434–439.
6. Abdurahmonov, G., G‘ulomov, A., Rahmatullayev, Sh. (2019). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (2017). *O‘zbek tilining nazariy asoslari*. Toshkent: Fan.
8. Muxtorova, E. (2025). Enhancing Phonological and Morphological Awareness Among Intermediate-Level Uzbek EFL Learners. *Zamonaviy Fan Va Tadqiqotlar*, 4(5), 837–840.
9. Do‘stmurodov, G. (2025). Ona tili o‘qituvchilarining nutqi bilan bog‘liq muammolar va unga doir yechimlar. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 3(6).

SPORT BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNING JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ashurov Baxrom Ilxomovich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika inistituti
baxromashurov1982@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada milliy harakatli o‘yinlarning nafaqat jismoniy rivojlanish, balki sportchilarning psixologik va axloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Refleksiv yondashuv asosida ushbu o‘yinlarning pedagogik, metodik va amaliy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot asoslari keltirilgan. Maqolada sport mashg‘ulotlarida milliy o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan hamda ularni jismoniy tarbiya dasturlariga tatbiq etish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: jismoniy madaniyat, milliy harakatli o‘yinlar, sport tarbiyasi, jismoniy rivojlanish, refleksiv yondashuv, jismoniy tarbiya, sport metodikasi, chaqqonlik, chidamlilik, epchillik, jamoaviy ishlash, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, axloqiy-irodaviy sifatlar.*

Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sport bilan muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, jismoniy madaniyatni rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizga xos an’anaviy o‘yinlar nafaqat jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi, balki shaxsning ijtimoiy moslashuviga, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga va milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi ularning dinamikasi, qiziqarli va raqobatbardosh xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarning harakat faolligini oshirish, chidamlilik, epchillik, muvozanat va tezkorlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning madaniy merosga hurmatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida insonning jismoniy mukammallikka intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, milliy harakatli o‘yinlar asosida asosiy harakat qobiliyatlarini baholash, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash va jismoniy mashqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ushbu o‘yinlar epchillik, chaqqonlik va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berib, sportchilar harakat faolligini oshirish bilan birga, jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish shaxsiy jismoniy takomillashuvga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishning samarali vositasi sifatida soha mutaxassislari oldida turgan asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Sport bilan muntazam shug‘ullanish jarayonida jismoniy madaniyatni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar turlicha namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, milliy harakatli o‘yinlar bu jarayonda samarali vosita bo‘lib, ular sportchilarning dunyoqarashini rivojlantirish, jamoaviy hamkorlikni shakllantirish va tashqi ta’sirlarga moslashish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu o‘yinlar orqali shaxsiy munosabatlar rivojlanib, qat’iyatlilik, fidoyilik va musobaqalashuv ruhini tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Xususan, o‘smirlik davrida qat’iyatlilik yetishmovchiligi, o‘ziga ortiqcha ishonch yoki shaxsiy ustunlikka intilish kabi xususiyatlar yaqqol seziladi. Milliy harakatli o‘yinlar esa bu kabi psixologik holatlarni muvozanatga keltirishga yordam berib, sportchilarda jamoaviylik hissini shakllantirish va o‘zaro hurmat muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois sport tarbiyasida har bir yosh toifasining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy harakatli o‘yinlarni qo‘llash jismoniy madaniyatni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Jahon tajribasida sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish sportchilarning jismoniy va psixologik rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilish, samarali metodikalarni ishlab chiqish va jismoniy tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Milliy o‘yinlar nafaqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga, balki ularning axloqiy-irodaviy xislatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu o‘yinlar jarayonida qatnashuvchilar iroda, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirib, sog‘ligini mustahkamlash, ish qobiliyatini va aqliy faolligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, milliy harakatli o‘yinlar orqali jasurlik, halollik, qat’iylik, mustaqillik kabi axloqiy xulq me’yorlari shakllanib, o‘yin ishtirokchilarining ijtimoiy faolligi ham oshadi.

Bu esa, refleksiv yondashuv asosida milliy o‘yinlar orqali sport bilan shug‘ullanuvchilarni axloq-odob va irodaviy xususiyatlarini tarbiyalash, ularda sportga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, hayotiy zarur harakat malaka va bilimlarini shakllantirish, shuningdek, ularni turlicha sharoitda tatbiq qilish zaruratini belgilaydi. Shu sababli, milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish jismoniy madaniyatni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Mamlakatimizda sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ishlarning samaradorligini oshirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish jismoniy tarbiya va sport malakalarini rivojlantirishga pedagogik hamda psixologik jihatdan samarali yondashish imkonini beradi. Chunki milliy o‘yinlar nafaqat sportchilarni jismoniy tayyorgarlik jihatidan rivojlantiradi, balki ularning irodaviy, axloqiy va ruhiy barqarorligini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois, soha mutaxassislari oldida bu boradagi ilg‘or metodlarni tatbiq etish, milliy harakatli o‘yinlar elementlarini sport mashg‘ulotlariga integratsiya qilish va sportchilarni har tomonlama kamol toptirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Milliy o‘yinlar asosida olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantiradi, balki ularning jamoaviy harakat qilish, strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarini ham shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, sport mashg‘ulotlarida milliy harakatli o‘yinlardan samarali foydalanish jismoniy madaniyatni shakllantirish va sportchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Natijalari sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmonida jismoniy barkamol avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. [1;]

Jismoniy salomatlikning asosiy mezoni sifatida shaxsning sog‘lomligi darajasi olinadi. Sog‘lomlik, salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi. Bu esa, refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarning sport va jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida jismoniy madaniyatini oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini tubdan isloh qilish muhimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-sonli Farmonida belgilangan vazifalar refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishning komponentlarini, mazmunini, ijtimoiy-pedagogik negizlarini, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni amalga oshirishda huquqiy asos bo‘ladi.[2;]

Belgilab olgan vazifalarni amalga oshirishda

- sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati katta bo‘lib, ular nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshirish, balki shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyatning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon maqsadli, tashkiliy-mazmunli, funksional hamda diagnostik-natijaviy komponentlarni o‘z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, milliy harakatli o‘yinlarni sport mashg‘ulotlariga integratsiya qilish retrospektiv davriylik va salomatlikni saqlash talablariga mos kelishi, sport bilan shug‘ullanuvchilarning har tomonlama jismoniy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashi zarur;

- milliy harakatli o‘yinlar orqali sportchilar o‘zlarining tezkorlik, epchillik va muvozanatni saqlash qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan birga, ular jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, bunday o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarning motivatsion va shaxsiy-axloqiy jihatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, an’anaviy jismoniy mashqlarning milliy o‘yinlar bilan uyg‘unligi pedagogik yondashuvning samaradorligini oshirib, sportchilarni qiziqtirish, ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish va jismoniy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi;

- sport mashg‘ulotlarida milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish nafaqat jismoniy tarbiyani rivojlantirish, balki sport bilan shug‘ullanuvchilarning axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol

topishiga ham yordam beradi. Ushbu jarayonni refleksiv yondashuv asosida tashkil etish esa sportchilar uchun samarali pedagogik ta’sir vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

- milliy harakatli o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib, ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayon refleksiv yondashuv asosida tashkil etilganda, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining ta’sirchanligi yanada ortadi. Milliy harakatli o‘yinlar sport mashg‘ulotlari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda, sportchilar nafaqat jismoniy sifatlarini, balki ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini ham rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar;

- refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishning integrallashgan metodik tizimi bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har biri muayyan pedagogik va psixologik yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu tizim milliy harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali reproduktiv, ijodiy-izlanishli va novatorlik bosqichlarini qamrab olib, sportchilarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Milliy o‘yinlarning turli bosqichlarda qo‘llanishi sportchilarning harakat koordinatsiyasini, chaqqonligini va jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi;

- milliy harakatli o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ularning ijtimoiy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayon refleksiv yondashuv asosida tashkil etilganda, sport mashg‘ulotlarining samaradorligi ortib, sportchilar o‘z jismoniy va ruhiy holatini anglash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda uni mustahkamlashga intilishadi. Shu bois, milliy harakatli o‘yinlarning jismoniy madaniyatni shakllantirishdagi ijtimoiy-pedagogik negizlari inson salomatligini saqlash va jamiyat talablariga moslashish jarayoniga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir;

- sport mashg‘ulotlari jarayonida milliy harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali sportchilar sog‘lom hayotiy pozitsiyani rivojlantirish, o‘z-o‘zini odatlantirish hamda jismoniy faollik orqali ijtimoiy muhitga moslashish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Ushbu yondashuv nafaqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Milliy o‘yinlarning tarbiyaviy va ta’limiy jihatdan boyligi sportchilarga jismoniy madaniyatni nafaqat o‘z ehtiyojlari uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi yo‘lida ham qo‘llash imkonini beradi;

- refleksiv yondashuv asosida shakllantirilgan sport mashg‘ulotlari jarayonida

reproduktivlik tamoyili ta’minlanib, sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini tizimli va barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Bu esa, milliy harakatli o‘yinlar orqali jismoniy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, sportchilarning jismoniy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, milliy harakatli o‘yinlarning sport mashg‘ulotlari bilan uyg‘unlashuvi, sportchilarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Milliy harakatli o‘yinlar sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki sportchilarda intizom, o‘zini boshqara olish va muayyan vaziyatlarda muvofiq qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy harakatli o‘yinlarda qatnashish jarayonida ishtirokchilar o‘zaro hamkorlik qilish, o‘yinning shartlariga rioya etish, taktika va strategiyani ongli ravishda qo‘llash, shuningdek, jamoaviy manfaatlarni hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Bu jarayon sportchilarni ongli qaror qabul qilishga, mas’uliyat hissini oshirishga va sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlashga yo‘naltiradi. Xususan, jismoniy tarbiya darslari, sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish sportchi-o‘quvchilardan nafaqat o‘qituvchi yoki murabbiyning ko‘rsatmalarini bajarishni, balki mustaqil qaror qabul qilishni, tashabbuskorlikni namoyon etishni va intizomli bo‘lishni talab qiladi.

Milliy harakatli o‘yinlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ishtirokchilardan vaziyatni tez anglash, harakatlarni muvofiqlashtirish, jamoa bilan hamkorlik qilish va tezkor strategik qarorlar qabul qilishni talab etadi. Bu esa, sportchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda nafaqat individual rivojlanish, balki jamoaviy ishlash, liderlik qobiliyatlarini shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatlarini ham yaratadi. Shu sababli, milliy harakatli o‘yinlarning sport tarbiyasidagi o‘rni muhim bo‘lib, ular sportchilarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Sport bilan shug‘ullanuvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantirish jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishida yangi bosqich bo‘lib, u jamiyat hayotida jismoniy faollik madaniyatini yanada keng yoyishga xizmat qiladi. Bu jarayon sportchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini oshirish va zarur sharoitlarni yaratishga ko‘maklashadi.

Refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash asosida jismoniy madaniyatni shakllantirishning asosiy shakli dars va darsdan tashqari sport mashg‘ulotlaridir.

Mazmunan qiziqarli, chuqur o‘ylangan holda emotsional, ko‘tarinki ruhda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar sportchi-o‘quvchilar ongida chuqur iz qoldiradi, ularning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, avvalo biz refleksiya so‘ziga to‘xtalib o‘tamiz.

“Refleksiya” - so‘zi (lot. reflexio – ortga qaytish, aks etish) ya‘ni, o‘quvchilarning egallayotgan bilimlarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyatning alohida bir shakli sifatida qaraladi.

“Refleksiya” - kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida bir shakli, shuningdek, tafakkur yohud insonning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil hodisalar va tushunchalarni qamrab oluvchi tushuncha hamdir.

“Refleksiv yondashuv” - o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zining shaxsiy harakatlari va ruhiy holati haqida o‘ylash.

“Jismoniy madaniyat” – umumiy madaniyatning bir qismi, jamiyatning, xalqning jismoniy jihatdan kamolotga yetkazishda maxsus vositalarni yaratish va undan foydalanish ishida erishgan yutuqlari yig‘indisidan iboratligi yoritib berildi.

O‘smirlik yoshidagi psixik rivojlanishining asosiy xislatlaridan biri dunyoqarashning shakllanishidir, shuningdek, turli bilim sohalari va faoliyatning har xil turlarida ijodning rivojlanishi ham ajralib turadi.

O‘smirlik davri hayotning xilma-xil jihatlariga bo‘lgan hissiy va emotsional munosabatlaming boyligi va rang-barangligi bilan ham xarakterlidir. [3, 44]

Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi taassurotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. [4, 260]

“Refleksiya” - bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go‘yo bir daqiqaga to‘xtatib, uzib qo‘yadi va insonni xayolan uning sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqida falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi.

Insonning ijodiy muammolarni hal etishda ro‘y beradigan fikrlashidagi refleksiyani o‘rganib, olimlar uni fikrlovchi subyektning o‘z – o‘zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko‘rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta’rif berib baholaydilar. [5, 233]

Milliy harakatli o‘yinlardan sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda foydalanish an’anaviy yondashuvlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ushbu o‘yinlar nafaqat jismoniy rivojlanish va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, balki sportchilarni sog‘lomlashtirishga ham yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning harakat faolligini oshirishga, chidamlilik, epchillik va muvozanatni rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, refleksiv yondashuv asosida sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ilgari ishlab chiqilgan tizimning nomukammalligi shundaki, uning asosiy maqsadi ko‘proq ta’limiy va tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, sog‘lomlashtiruvchi omillar yetarlicha e’tiborga olinmagan. Ayniqsa, mashqlarga differentsial yondashuvning yo‘qligi, individual jismoniy imkoniyatlarni inobatga olmagan holda umumiy metodlar qo‘llanilishi sportchilarning samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Ushbu o‘yinlarda sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarlik darajasi inobatga olinib, ularning harakat faoliyatiga differensial yondashuv qo‘llanadi. Shuningdek, bu jarayonda sport bilan shug‘ullanuvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishi, balki ijtimoiy, axloqiy va ruhiy tayyorgarligi ham shakllanadi. Shu sababli, milliy harakatli o‘yinlarning sport tarbiyasidagi o‘rni katta bo‘lib, u sportchilarni har tomonlama kamol toptirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy harakatli o‘yinlardan sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda foydalanish samaradorligi ko‘plab uslubiy izlanishlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi. Refleksiv yondashuv asosida sportchilar jismoniy madaniyatini shakllantirishning metodik ta’minoti ishlab chiqilib, bu jarayonning pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirildi. Ularning jismoniy tarbiya jarayonida milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish natijasida epchillik, chaqqonlik, chidamlilik, jamoaviy ishlash va yetakchilik kabi fazilatlari shakllanishi hamda ijtimoiy va ruhiy rivojlanishlariga xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan jismoniy faoliyatning modernizatsiyalashgan shakllari ishlab chiqilib, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ilgari surildi. Milliy harakatli o‘yinlarning mazmuni sportchilarni nafaqat jismoniy, balki axloqiy va ruhiy jihatdan rivojlantirishga ham xizmat qilishi tufayli, bu uslubiyat jismoniy madaniyatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Shu bois, sport tarbiyasi jarayonida milliy o‘yinlardan keng foydalanish orqali sportchilarning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin.

Milliy harakatli o‘yinlardan sport bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda foydalanish nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki shaxsning

raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Jismoniy faoliyat koʻrsatmalari va jismoniy madaniyatni shakllantirishga oid tavsiyalarni qabul qilish jarayonida sportchilar oʻz bilim, malaka va

koʻnikmalarini rivojlantirib, jamiyatda munosib oʻrin egallashga intilish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Shaxsning raqobatbardoshliligini tavsiflovchi sifatlarning ruhiy-pedagogik tahlili asosida sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda bir nechta asosiy tizim ishlab chiqildi. Milliy harakatli oʻyinlar orqali sportchilarda quyidagi fazilatlarni rivojlantirishga erishish mumkin:

- Maqsadning aniqligi – oʻyin davomida sportchilar oʻz strategiyalarini rejalashtirib, aniq natijalarga erishishga intiladilar.
- Ishchanlik – jismoniy mashgʻulotlar va milliy oʻyinlar sportchilarda muntazam harakat qilish va mehnatsevarlik koʻnikmalarini shakllantiradi.
- Ishga ijodiy yondashuv – milliy oʻyinlarning dinamikasi sportchilarning muammolarni ijodiy hal qilish, turli harakatlarni oʻzlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- Tavakkal qilishga qodirlik – oʻyin sharoitlarida qaror qabul qilish, yangi taktika va usullarni sinash sportchilarning jasurligi va tavakkal qilish qobiliyatini oshiradi.
- Mustaqillik – milliy harakatli oʻyinlar orqali sportchilar mustaqil fikrlash, muammolarni oʻzlari hal qilishga oʻrganadilar.
- Stressga bardoshlilik – doimiy raqobat va jismoniy faoliyat sportchilarda stressga chidamlilik, bosim ostida samarali harakat qilish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, milliy harakatli oʻyinlar nafaqat sportchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash, balki ularning ruhiy va psixologik barqarorligini mustahkamlash orqali ularni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Bularning barchasi shaxsning jismoniy madaniyat darajasining rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan uning sogʻlom turmush tarzini kechirishiga bogʻliq.

Mazkur muammo boʻyicha sport bilan shugʻullanuvchilarning irodasi va xarakterini oʻstirishning muhim vositasi sifatida har kungi ertalabki jismoniy mashqlarning ahamiyati yuqori ekanligini koʻrsatmoqda.

Jismoniy mashqlarni muntazam bajarish sportchi-oʻquvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Tanlangan muammoning yechimini topishga yoʻnaltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini chuqur anglash, asosiy tushunchalar mohiyatini toʻgʻri talqin qilish va mashgʻulotlar yoʻnalishini aniq belgilash imkonini beradi.

Sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda milliy harakatli oʻyinlardan foydalanish nafaqat ularning jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi, balki shaxsiy, axloqiy va psixologik jihatdan kamol topishiga ham xizmat qiladi. Milliy oʻyinlarning dinamikasi sportchilarda chidamlilik, epchillik, tezkorlik, jamoaviy ishlash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu oʻyinlar sportchilarni stressga chidamlilik, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va raqobatbardoshlilik kabi muhim fazilatlar bilan boyitadi.

Milliy harakatli oʻyinlar refleksiv yondashuv asosida sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida qoʻllanilishi mumkin. Ular sportchilarning nafaqat jismoniy tayyorgarligini, balki axloqiy-irodaviy sifatlarini ham rivojlantirib, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Takliflar esa quyidagicha:

1. Milliy harakatli oʻyinlarni sport mashgʻulotlariga integratsiya qilish – sport mashgʻulotlarining samaradorligini oshirish uchun milliy harakatli oʻyinlardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.

2. Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlari dasturlariga milliy oʻyinlarni kiritish – sport maktablari va umumta’lim muassasalarida milliy oʻyinlarni jismoniy tarbiya dasturlariga qoʻshish

lozim.

3. Murabbiy va pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish – milliy harakatli o‘yinlardan samarali foydalanish bo‘yicha trener va o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va tarqatish zarur.

4. Milliy o‘yinlar asosida sport musobaqalarini tashkil etish – sportchilar o‘rtasida milliy harakatli o‘yinlar asosida musobaqalar o‘tkazish orqali ularning qiziqishini oshirish mumkin.

5. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarni kengaytirish – milliy o‘yinlarning sportchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini chuqur o‘rganish va bu borada ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

6. Sportchilarni milliy an’analar asosida tarbiyalash – milliy o‘yinlarni targ‘ib qilish orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarni hurmat qilish, an’anaviy sport turlariga qiziqish uyg‘otish zarur.

Ushbu takliflarni amalga oshirish sportchilarni har tomonlama rivojlantirishga, ularning jismoniy madaniyatini shakllantirishga va milliy sport an’analarini keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida. 04.09.2015 yildagi O’RQ-394-son Qonuni. Toshkent sh., 05.09.2015. lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son “Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g'risida”gi qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risi”da PF-60-sonli Farmoni. Lex.uz.

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘lanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, -160 b.

6. Jabborov X.X., Avezov O.R., Jumayev N.Z. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro.: “Durdona nashriyoti”, 2014, -325-bet.

7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2010, -312 bet.

BOLADA XOTIRA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI BILAN BOG‘LIQ TADQIQOTLARDAN OLINGAN AYRIM XULOSALAR

Kalkonova Lutfiya Yusufovna,

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu tezisda xotiraning shakllanishi va rivojlanishiga doir nazariy ma’lumotlar, maktabgacha yoshdagi bola xotirasining rivojlanishidagi muhim xulosalar taqdim etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ota-onalar va tarbiyachilar uchun tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xotira, ong, idrok, ixtiyoriy xotira, ixtiyorsiz xotira, assotsiativ psixologiya, tadqiqot.*

Xotiraning ilk ko‘rinishlari go‘daklik davridanoq ko‘zga tashlana boshlaydi. Xotira dastavval biror-bir predmet, voqelikni tanib olish shaklida, keyinchalik esa ayni damda yo‘q shaxslar va narsalar haqidagi elementar tasavvurlar tarzida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ixtiyorsizligi hamda yaqqol-obrazli xarakterga ega bo‘lishi bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira shakllanishining psixologik xususiyatlarini o‘rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarimiz natijalari asosida qator xulosalarni oldik. Jumladan, maktabgacha yosh davridagi bolaning psixik taraqqiyoti bir tekis kechmaydi. Shu jumladan, bola xotirasining taraqqiyoti ham notekis qonuniyatga bo‘ysunadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi boshqa yosh davrlariga nisbatan ixtiyorsiz, yaqqol-obrazli ko‘rinishga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola xotirasi rivojlanishiga biologik, kognitiv, ijtimoiy, emotsional omillar ta’sir etishi nazariy tahlillar asosida aniqlandi.

Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda mnemik faoliyatning mahsuldorligi materialning anglanganlik darajasiga bog‘liqligiga ko‘ra tayyorlov guruhida katta guruh tarbiyalanuvchilariga nisbatan ko‘rish xotirasida ustunlik, eshitish xotirasida bunday differensial farqlar mavjud emasligi aniqlandi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda faoliyat va muloqot jarayonida bola tomonidan tajribaning egallanishi natijasida xotiraning shakllanganligi hamda boshqa kognitiv jarayonlarning rivojlanganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligi asoslandi.

Yana bir muhim jihatlardan biri, oilaviy munosabatlarning farzandlar psixikasiga ta’siriga ko‘ra, Spirmen korrelyatsiya koeffitsenti asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda qulay oilaviy sharoit va eshitish xotirasi hamda o‘zidan qoniqmaslik bilan ko‘rish xotirasi orasida manfiy, adovat shkalasi va ko‘rish xotirasi orasida musbat aloqadorlik aniqlangani ushbu yo‘nalishda yana bir muhim yangilik bo‘ldi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda o‘yin yetakchi faoliyat ekanligiga asoslangan holda o‘yinterapiyasi, biblioterapiya, ertakterapiya kabi psixotexnologiyalar vositasida maqsadga yo‘naltirilgan esda olib qolish va esga tushirishni shakllantirishga qaratilgan mnemotexnika mashg‘ulotlari samarali ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlarini o‘rganishga doir olib borilgan nazariy va empirik ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etamiz.

Bola yodlayotgan material unga tushunarli ekanligiga ishonch hosil qiling. Materialni yodlatishda vaqtni tog‘ri taqsimlang, kichik qismini yodlatib, farzandingizni biroz dam oldiring, chunki materialning kichik qismlari nafaqat tezroq, balki uzoq vaqt esda qoladi. Ikkinchi kuni boladan o‘rganilgan materialni takrorlashni so‘rang.

Yodlashda boladan uni baland ovozda aytishini so‘rang. Bolani u o‘rganayotgan ma'lumotlarga qiziqtiring, chunki o‘rganish uchun yuqori motivatsiya xotiraga juda ijobiy ta'sir qiladi.

Agar bolada charchoqning aniq belgilari bo‘lsa, tanaffus qilish zarur. Turli o‘yin mashg‘ulotlarida xotirani shakllantirish maqsadga muvofiq. Sevimli she’rlarni bola bilan yodlash zarur. Bola bilan o‘tgan voqealar haqida suhbatlashish hamda o‘qilganlarning mazmunini qayta aytib berish istagini uyg‘otish lozim.

Bundan tashqari, bolada o‘z taassurotlari bilan bo‘lishish istagini uyg‘otish maqsadga muvofiq.

O‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarga ham ayrim tavsiyalarni keltirib o‘tamiz. Jumladan, bolalarga yangi materialni tushuntirishda va eski materialni takrorlashda og‘zaki tushuntirishni tabiatni yoki o‘rganilayotgan predmetni namoyish qilish bilan birlashtirish kerak. Muhokama qilinayotgan hodisalar va narsalarning tasviri. Buning uchun chizmalar, rasmlar va obektlarning namunalaridan (ayniqsa, ko‘rish xotirasi yaxshi rivojlangan bolalar uchun) foydalanish maqsadga muvofiq.

Eshitish xotirasi yomon rivojlangan bolalar bilan individual ishlash kerak: nafaqat eshitishga, balki boshqa sezgilarga ham tayanish lozim (ko‘rish, hidlash, teginish). Esda olib qolishni yaxshilash uchun bolalarda mazmunli yodlash va eslashning quyidagi usullari samaralidir: tahlil qilish, muayyan aloqalar mavjudligini aniqlash; obektlardagi xususiyatlarni, narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirish, ulardagi o‘xshashlik va farqlarni topish;

umumlashtirish, turli obektlarni qandaydir umumiylik bilan bog‘lash xususiyatlari, narsa va hodisalarni umumlashtirish asosida tizimlashtirish lozim.

Maktabgacha yoshdan boshlab, bolalarda xotirani rivojlantirish uchun har bir darsda mashqlar va murakkablashtiruvchi o‘yinlarni kiritish kerak.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyatidir. Aynan o‘yinda qo‘l harakati va aqliy operatsiyalar rivojlanadi. O‘yinda qobiliyatlar, fikrlash, tasavvur, xotira, diqqat shakllanadi. Tarbiyachi o‘yinni mohirona boshqarishi kerak, chunki u bolaning shaxsini shakllantirishning barcha jihatlariga ta'sir qiladi: his-tuyg‘ular, ong, xatti-harakatlar. O‘yinda bola maktabda keyingi ta'lim uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 2-kitob – T.: Noshir, 2002. - 440 b.
2. G‘oziyev E.G‘. Xotira psixologiyasi. -T: Universitet. 1994, 39- b.
3. Сажина Р.Ф. Развитие памяти. - М.: Просвещение, 2015.- 248с
4. Шпиц Р.А. Психоанализ раннего детского возраста. - СПб.: Питер, 2001. - 238 с.
5. Эльконин Д.Б. Психологические основы воспитания и обучения в дошкольном возрасте. - М.: Наука, 1995. - 246 с.

SUN’IY INTELLEKTNING EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Shodmonov Furqat Abdimumin o‘g‘li
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti assistenti
furqateko@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun’iy intellektning ekologik ongni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ekologik ta’lim, monitoring va resurslardan samarali foydalanishdagi o‘rni yoritilib, kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektning real hayotdagi ekologik loyihalarda qanday qo‘llanilayotgani va O‘zbekistonda amalga oshirish mumkin bo‘lgan yechimlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ekologik ong, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, yashil texnologiyalar.*

Ekologik muammolar globallashgan bir davrda insoniyatning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi esa ekologik ongni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ilgari surish imkonini bermoqda. SI texnologiyalaridan foydalanish tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavflarni bashorat qilish imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu maqolada sun’iy intellekt yordamida ekologik madaniyatni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Sun’iy intellektning ekologik ongni shakllantirishdagi roli, u ekologik muammolarni hal etishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, quyidagi jihatlar bo‘yicha muhim rol o‘ynaydi: ekologik jarayonlarni avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta’limni ommalashtirish va ekologik xavflarni oldindan aniqlash kabi yo‘nalishlarda samarali ishlaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida sun’iy intellekt ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirib, tabiiy ofatlarning oldini olish va yashil iqtisodiyotga o‘tishda muhim o‘rin tutadi.

Ayrim misollar orqali sun’iy intellektning ekologiyaga ta’siriga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin: Google AI tomonidan o‘rmon kesilishiga qarshi kuzatuv tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari orqali noqonuniy daraxt kesish holatlari aniqlanmoqda; IBM Watson ekologik monitoring tizimlari orqali suv va havo sifati nazorat qilinmoqda; DeepMind tomonidan ishlab chiqilgan algoritmlar elektr energiyasi sarfini kamaytirish orqali sanoat korxonalarida ekologik ta’sirni kamaytirishga yordam bermoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirish mumkin bo‘lgan loyihalarga esa Toshkent va yirik shaharlarning havosini doimiy kuzatib boruvchi sun’iy intellektli monitoring tizimlarini yaratish, chiqindilarni saralash: Maxsus kameralar va AI algoritmlari orqali chiqindilarni avtomatik ravishda saralash imkoniyatini yaratish va qishloq xo‘jaligida aqlli sug‘orish tizimlari: AI yordamida yer namligini kuzatib, suvdan samarali foydalanishni tashkil etish ishlarini takomillashtirishi mumkin. Bundan tashqari, mobil ilova yoki veb-platforma yaratish: Sun’iy intellekt asosida ekologik ta’lim beruvchi ilova ishlab chiqish. Foydalanuvchilar ushbu ilova orqali ekologik xavflar, ifloslanish darajasi va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar oladilar.

Shubhasiz sun’iy intellekt yordamida ekologik monitoring ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish ya’ni havo sifati yoki suv resurslari bo‘yicha AI algoritmlarini qo‘llab, ekologik bashoratlar olishni takomillashtirish mumkin.

Ekologik ongni shakllantirishni boshlang’ich sinfdan boshlash uchun eng maqbul yechimlardan biri o‘quv dasturi ishlab chiqish: Ekologik ongni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli onlayn kurs yoki AI asosida ekologik bilimlarni o‘rgatuvchi chatbot yaratish. Dastur quyidagi modullardan iborat bo‘lishi mumkin: Sun’iy intellekt va ekologiya asoslari; Ekologik monitoring va AI; AI yordamida resurslarni samarali boshqarish; Statistik ma’lumotlar bilan asoslash. Bundan tashqari mobil ilovalar orqali turli xildagi animatsion o’yinlar orqali ham bolalarda ekologik tushunchalarni rivojlantirish mumkin bo’ladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt ekologik ongni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uning yordami bilan ekologik muammolarni tushunish, atrof-muhitni himoya qilish va barqaror yashash tarzini shakllantirish jarayonlari ancha samarali bo‘lib bormoqda.

Sun’iy intellekt atrof-muhit fanlarini tubdan o‘zgartirayotgan yangi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Masalan sun’iy entellekt algoritmlari tabiatni tiklash uchun eng samarali usullarni tavsiya qiluvchi sun’iy biologik modellarni yaratmoqda. AI o‘rmonlarning tabiiy regeneratsiya jarayonini modellashtirib, eng samarali daraxt ekish usullarini tavsiya qilmoqda. Bundan tashqari sun’iy intellekt yordamida butun ekotizimlarning raqamli nusxalari yaratilmoqda va bu orqali tabiiy muhitining kelajakdagi o‘zgarishlarini taxmin qilish va ularga mos choralar ko‘rish mumkin.

Sun’iy intellekt ijtimoiy ekologik ongni shakllantirishda ham o’z ta’sirini o’tkazmoqda. U faqat ilmiy-texnik rivojlanish uchun emas, balki jamiyat ongini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. AI orqali ekologik targ‘ibot:

Sun’iy intellekt ijtimoiy tarmoqlarda ekologik mavzular bo‘yicha targ‘ibot materiallarini yaratishda qo‘llanmoqda; AI algoritmlari odamlarning ekologik qarashlarini o‘rganib, ularga mos ravishda ma’lumot berish strategiyalarini shakllantirishi mumkin; Sun’iy intellekt aqlli shaharlar konsepsiyasini takomillashtirib, ekologik jihatdan qulay urbanizatsiya usullarini ishlab chiqmoqda.

Sun’iy intellekt ekologik ongni shakllantirishda inqilobiy imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Kelajakda nafaqat monitoring va resurslarni boshqarish, balki ijtimoiy va siyosiy ekologik qarorlarni optimallashtirish, yangi yashil texnologiyalarni rivojlantirish va raqamli ekologik fanlarni shakllantirish yo‘nalishlarida ham asosiy o‘rin egallaydi.

Xulosa. Sun’iy intellekt ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatda ekologik ongni shakllantirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. U ekologik ongni shakllantirish va atrof-muhitni himoya qilish yo‘lida muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt ta’lim, monitoring, chiqindilarni boshqarish va ekologik ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish kabi jarayonlarni yanada samarali qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va kelajak avlodlar uchun barqaror hayot tarzini shakllantirishga erishish mumkin. Ayniqsa, sun’iy intellekt yordamida aniq ekologik strategiyalar ishlab chiqish, mahalliy va xalqaro miqyosdagi ekologik muammolarga innovatsion yechimlar topish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nishanov M.N. O‘qituvchilar malakasini oshirish ishlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1988. – 96 b.
2. Smith J. Artificial Intelligence in Environmental Science. – New York: Springer, 2020. – 240 p.
3. Miller T. Sustainable Development and AI. – London: Routledge, 2019. – 320 p.
4. Jones P. AI for a Greener Future. – Cambridge: MIT Press, 2021. – 290 p.
5. Brown L. Smart Cities and AI. – Washington: Urban Books, 2022. – 180 p.
6. European Environment Agency (EEA). The Role of Artificial Intelligence in Climate Action and Sustainability. – 2023.
7. International Energy Agency (IEA). AI and Big Data in Energy Efficiency. – 2022.
8. NASA Earth Science. Artificial Intelligence for Earth Observation and Environmental Monitoring. – 2021.
9. Benedict K. et al. Machine Learning for Climate Change and Environmental Risk Management. – Springer, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. Atrof-muhit holati va ekologik o‘zgarishlar statistikasi. – 2023.

SPORTCHILAR VA MURABBIYLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QONUNCHILIK YANGILIKLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY SAMARADORLIGI

Abdullayev Navro‘z Alisher o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
assistent-o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni ilmiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot qonunning jismoniy tarbiyani ommalashtirish, sport ta’limi sifatini oshirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, sportchilar, murabbiylar va sport agentlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy mexanizmlarini yoritishga yo‘naltirilgan. Maqolada qonunning yangi tahrirdagi kontseptual yangiliklari, xususan asosiy tushunchalar instituti, sport ta’limi va pedagogik faoliyatning alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlanishi, terma jamoalar va seleksiya jarayonlarining normativ tartibga solinishi, shuningdek xalqaro hamkorlik va antidoping mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu orqali maqolada sport boshqaruvi va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, sport subyektlarining vakolatlarini aniqlashtirish hamda sohaning professional va institutsional rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport huquqi, normativ-huquqiy tartibga solish, sport siyosati, sport boshqaruvi, sport infratuzilmasi, sport ta’limi, ommaviy sport, para sport, antidoping siyosati.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki milliy salomatlik, ijtimoiy barqarorlik va sport infratuzilmasini takomillashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu munosabat bilan, sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish va amaliyotda yuzaga keladigan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish zaruriyati oshib bormoqda. Qonunlar orqali jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tizimli tashkil etish, sport subyektlari faoliyatini normativ asosda tartibga solish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlashning o‘rni beqiyosdir. Yaqinda Senat yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun bilan sohada davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, sport vazirligi, Milliy olimpiya va paralimpiya qo‘mitalari kabi asosiy subyektlarning vakolatlari aniq belgilab berildi. Qonun jismoniy tarbiya va

sport federatsiyalari, klublari va ligalarining huquqiy maqomi, ularni reyestrga kiritish va chiqarish tartibi, murabbiylar, sport hakamlari va sport agentlarining huquq va majburiyatlari kabi masalalarni tartibga soladi. Shu bilan birga, sportda dopingning oldini olish, musobaqa natijalariga noqonuniy ta‘sir ko‘rsatishga qarshi kurashish va aholini ommaviy sportga jalb qilish bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilab beradi[1].

Mazkur Qonunning qabul qilinishi nafaqat sohada amaliyotda mavjud bo‘lgan noaniqliklar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etishga, balki vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini aniq belgilash orqali jismoniy tarbiya va sportni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, yangi Qonun sport infratuzilmasini mustahkamlash, sportchilarning va murabbiylarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda jismoniy tarbiya va sportni davlat tomonidan barqaror qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning normativ-huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish hamda uning sohada davlat siyosatini amalga oshirishdagi strategik ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, Qonunning normativ mexanizmlari, jumladan sport federatsiyalari, klublar va ligalarning huquqiy maqomi, murabbiylar, hakamlar Jismoniy tarbiya va sportning tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik asoslari va sport agentlarining vakolat hamda majburiyatlarini tartibga soluvchi institutlar ilmiy asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tadqiqotning vazifalaridan biri sport faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash, doping va sport natijalariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatishga qarshi kurashish tizimlarini, shuningdek, aholini ommaviy sportga jalb qilish bo‘yicha davlat siyosatining mexanizmlarini tahlil qilishdir. Bu orqali Qonunning ijtimoiy-huquqiy funksiyasi, ya’ni sport subyektlari faoliyatini normativ tartibga solish, sport infratuzilmasini mustahkamlash va sportchilarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishdagi rolini ilmiy jihatdan baholash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, tadqiqotning maqsadi mavjud qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish orqali jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali shakllantirishga hissa qo‘shishdir. Shu yo‘nalishda, tadqiqot Qonunning institutsional mexanizmlari, normativ bazasi va ijtimoiy-huquqiy ta’siri nuqtai nazaridan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Tashkil qilish usullari: jismoniy tarbiya va sport sohasida munosabatlarni samarali tartibga solish uchun tashkil etish usullari institutsional va normativ mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda sport subyektlarini – sport federatsiyalari, klublar, ligalar, terma jamoalar, murabbiylar va sport agentlarini – tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat tartibi aniq normativ asosda belgilangan [2]. Shu bilan birga, qonun sport ta’limi muassasalarini va pedagogik faoliyatni alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlash orqali professional kadrlar tayyorlash va ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini taklif qiladi. Sport infratuzilmasini tashkil etish jarayoni davlat va jamoat subyektlari hamkorligiga tayangan holda amalga oshiriladi, bunda moliyalashtirish, resurslarni taqsimlash, sport ob’yektlarini reyestrga kiritish va ulardan foydalanish tartibi qonun bilan normativ asosda belgilangan. Shuningdek, terma jamoalarni shakllantirish va seleksiya jarayonlarini tizimli tashkil etish mexanizmi ham qonunda alohida modda sifatida mustahkamlangan, bu esa sportning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, xalqaro sport hamkorligi, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish, doping va musobaqa natijalariga noqonuniy ta’sirga qarshi kurashish kabi yo‘nalishlar ham normativ tartibga solinib, ularning tashkil etilishi orqali sport tizimi institutsional jihatdan mukammallashadi. Shu yo‘l bilan, yangi tahrirdagi qonun jismoniy tarbiya va sportni tizimli, professional va barqaror rivojlantiriladigan institut sifatida tashkil etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini yaratadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Senati tomonidan ma’qullangan yangi tahrirdagi

“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasini tizimli ravishda rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda sport ta’limi sifatini oshirishga qaratilgan kompleks huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Qonunning asosiy yo‘nalishlari jismoniy tarbiyani ommalashtirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, professional va havaskor sportchilar hamda trenerlarni ijtimoiy himoya qilish kabi muhim vazifalarni qamrab oladi. Tadqiqot jarayonida qonun normalarining amaliyotga tatbiq etilishi holatini tahlil qilish maqsadida Navoiy viloyati misolida o‘rganildi. Tahlil natijalari mazkur qonun ijrosi doirasida hududlarda muayyan ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilganini ko‘rsatdi. Jumladan, sport ta’lim muassasalarida olimpiya sport turlari bilan qariyb 12 ming nafar, paralimpiya sport turlari bilan 225 nafar, milliy sport turlari bilan qariyb 2 ming nafar hamda noolimpiya sport turlari bilan 2 680 nafar, jami 17 ming nafarga yaqin sportchilar shug‘ullanayotgani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlardan 4 363 nafarini qizlar tashkil etishi gender tengligini ta’minlash borasida ijobiy tendensiya shakllanayotganini ko‘rsatadi[3]. Sport sohasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasi ham tadqiqot natijalarida muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 2023 yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun mahalliy budjetdan 2 mlrd 840 mln so‘m, respublika budjetidan esa 1 mlrd 876 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. Milliy sport turlarini rivojlantirish uchun esa ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasi asosida 570 mln so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Bu holat davlat tomonidan sport sohasiga investitsiyalar izchil ravishda ortib borayotganini tasdiqlaydi. Jismoniy tarbiyani aholi orasida ommalashtirish borasida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar ham tadqiqot natijalarining muhim qismi hisoblanadi. “Har bir islohot mahalladan boshlanishi kerak” tamoyili asosida 35 ta mahallada 39 ta sport maydonchalari qurilib foydalanishga topshirilgan. Shu bilan birga, sport maktablariga 39 turdagi 2,6 mlrd so‘mlik 2 252 ta sport jihozlari yetkazib berilgan. 2023 yil davomida 5 127 ta ommaviy sport tadbirlari tashkil etilgan bo‘lib, ularda 378 129 nafar aholi ishtirok etgan. Ularning 126 344 nafarini ayollar tashkil etishi jamiyatda sport madaniyati kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ishtirokchilarning qariyb 200 ming nafarini yoshlar tashkil etishi qonunning yoshlar siyosati bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari para sportni rivojlantirish Jismoniy tarbiya va sportning tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik asoslari borasida ham ijobiy siljishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Viloyatda nogironligi bo‘lgan 4 584 nafar shaxs o‘rtasida sportga qiziqish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida 1 283 nafar shaxs sport bilan shug‘ullanish istagini bildirgan. Natijada para sport bo‘yicha 6 ta seksiya tashkil etilib, ularga 225 nafar yosh jalb etilgan hamda ular bilan 28 nafar trener mashg‘ulot olib borayotgani ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari amaliyotda qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi[4]. Shu bilan birga, tadqiqot davomida qonun ijrosi jarayonida muayyan muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, Sog‘liqni saqlash vazirligiga aholining jismoniy rivojlanish holatini tahlil qilish va sog‘lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish vakolati berilgan bo‘lsa-da, mazkur vazifalar to‘liq amalga oshirilmagan. Shuningdek, davlat organlarida “sport targ‘ibotchisi” lavozimini joriy etish bo‘yicha Prezident farmoni talablari aksariyat tashkilotlarda moliyaviy resurslar yetishmasligi sababli bajarilmayotgani kuzatildi. Qonun talablariga muvofiq mahalliy hokimliklar tomonidan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim bo‘lsa-da, ayrim hududlarda bunday dasturlar qabul qilinmagan. Sport maktablaridagi faoliyat samaradorligi, trenerlar faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Para sport bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning yetishmasligi ham sohadagi muhim muammolardan biri sifatida qayd etildi. Infratuzilma bilan bog‘liq muammolar ham tadqiqot natijalarida muhim o‘rin egalladi. Masalan, viloyatdagi 374 ta umumta’lim maktabidan 100 tasida sport zallari mavjud emasligi, ayrim professional ta’lim muassasalarida sport jihozlari yetishmasligi hamda sport zallarining avariya holatida ekani jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sport musobaqalariga qatnashish bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlarini oldindan moliyalashtirish tizimining mavjud emasligi natijasida 2024 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 3,3 mlrd so‘m qarzdorlik

yuzaga kelgani aniqlandi. Qonun loyihasida sport sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi huquqiy normalar ham belgilangan. Xususan, sport turlarini tan olish va ularning reestrini yuritish tartibini takomillashtirish, sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta'sir ko‘rsatish va korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish nazarda tutilgan. Shuningdek, Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo‘mitalarining huquqiy maqomi, surdlimpiya, maxsus olimpiada va ko‘zi ojizlar sporti harakatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, antidoping siyosatiga oid normalarni mustahkamlash milliy sport tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari yangi tahrirdagi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini institutsional jihatdan modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatdi. Biroq uning samaradorligi qonun normalarini amaliyotga to‘liq joriy etish, moliyaviy resurslarni kuchaytirish, ilmiy tahlillarni kengaytirish va infratuzilmani takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Qonun aholini, ayniqsa yoshlarni jismoniy faollikka jalb etish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sport ta'limi sifatini oshirish hamda professional va havaskor sportni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks normativ-huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Qonunning mazmunan kengaytirilishi, yangi tushunchalar va huquqiy mexanizmlar bilan boyitilishi sport sohasida institutsional va tizimli boshqaruvni ta'minlash imkonini bermoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan statistik ma'lumotlar hududlarda sport infratuzilmasi va ommaviy sport tadbirlari soni oshib borayotganini ko‘rsatsa-da, Qonun ijrosida muayyan muammolar mavjudligini ham tasdiqladi. Xususan, hududiy dasturlarni ishlab chiqishdagi sustkashlik, sog‘liqni saqlash tizimi bilan sport sohasi o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, sport infratuzilmasidagi nomutanosibliklar hamda moliyaviy mexanizmlarning to‘liq ishlamasligi Qonun samaradorligini cheklab kelmoqda. Shu bois, mazkur muammolarni bartaraf etish Qonun normalarining amaliy ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi aniq takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Avvalo, mahalliy hokimliklar tomonidan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash majburiyati kuchaytirilishi, ushbu dasturlar ijrosini monitoring qilish va baholashning aniq mezonlari belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Sport vazirligi o‘rtasida aholi jismoniy rivojlanish holatini muntazam ilmiy tahlil qilish bo‘yicha yagona axborot va tahlil tizimini joriy etish zarur.

Uchinchidan, sport ta'lim muassasalarida trenerlar, tibbiyot xodimlari va mutaxassislarning malakasini oshirish xarajatlarini davlat budjeti yoki maqsadli jamg‘armalar hisobidan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, sport musobaqalariga qatnashish bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlarini oldindan moliyalashtirish tizimini joriy etish orqali sportchilar va ularning oilalari zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish zarur.

Beshinchidan, umumta'lim va professional ta'lim muassasalarida sport infratuzilmasini rivojlantirish Jismoniy tarbiya va sportning tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik asoslari bo‘yicha alohida davlat dasturini ishlab chiqish, sport zallari mavjud bo‘lmagan maktablarda bosqichma-bosqich zamonaviy sport inshootlarini barpo etish talab etiladi.

Oltinchidan, para sport, surdlimpiya, maxsus olimpiada va ko‘zi ojizlar sporti yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ilmiy-metodik bazani kuchaytirish, ushbu sohalarda malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish zarur.

Yettinchidan, Qonun normalarini keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari o‘rtasida uzviy

hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, huquqiy targ‘ibotning zamonaviy va innovatsion shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, sport sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatishning oldini olish bo‘yicha nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom jamiyat barpo etish, sport salohiyatini oshirish va xalqaro sport makoniga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim strategik hujjat hisoblanadi. Uning samaradorligi esa qonun normalarining izchil ijrosi, ilmiy yondashuv asosida takomillashtirilishi va amaliyot bilan uzviy uyg‘unlashuviga bevosita bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O‘RQ394.

2. “Xalq so‘zi” gazeta. 05.02.2026 sanadagi son.

3. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun muhokamasiga doir ellik oltinchi yalpi majlis materiallari // Senat.uz rasmiy sayti.

4. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri tahlili // Olympic.uz axborotnomasi.

SOBIR O‘NAR NASRIDA BADIIY PORTRET KONSEPSIYASI VA UNI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA O‘RGATISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

. ***Raxmataliyev Sherzod***

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika institute, assistenti.

ANNOTATSIYA: *Ushbu keng qamrovli maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining iste'dodli vakili Sobir O‘nar asarlaridagi badiiy portret konsepsiyasi va uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda adibning qahramon ruhiyatini tashqi qiyofa, xatti-harakat va lirik detallar orqali ochib berilgan. Maqola davomida portret turlari, psixologizm va badiiy detallar boshlang‘ich ta’limning "O‘qish savodxonligi" darslari bilan uzviy bog‘liq holda, metodik jihatdan dalillangan. Shuningdek, adib asarlari asosida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va estetik didini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy portret, Sobir O‘nar, boshlang‘ich ta’lim, badiiy detal, milliy xarakter, psixologik tahlil, obrazli tafakkur, metodika, estetik tarbiya, "Bibisora", "Chashma", lirik tasvir, badiiy idrok.*

Badiiy asar mazmunining kitobxon ongiga chuqur yetib borishi va unda estetik zavq uyg‘otishi ko‘p jihatdan personajlar qiyofasining qanchalik jonli va mahorat bilan chizilganiga bevosita bog‘liqdir. Adabiyotshunoslik fanida portret shunchaki qahramonning tashqi tavsifi yoki fiziologik ko‘rinishi emas, balki uning ijtimoiy kelib chiqishi, o‘y-fikrlari, ruhiy iztiroblari va xarakterini ochib beruvchi eng dinamik badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Sobir O‘nar o‘zbek nasrida portret yaratishning o‘ziga xos realistik maktabini yaratgan adiblardan biri bo‘lib, uning ijodida inson qiyofasi milliy kolorit, qishloq hayoti manzaralari va chuqur psixologizm bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda biz adibning portret yaratish mahoratini o‘rganish bilan birga, ushbu murakkab badiiy elementlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishning nazariy-metodik asoslarini tizimli ravishda ishlab chiqishni maqsad qildik. Zero, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda matnni idrok etish, so‘z ortidagi ma’noni chaqish va qahramon qiyofasini vizuallashtirish ko‘nikmasini shakllantirish ularning kelajakdagi ma’naviy kamoloti hamda tanqidiy tafakkuri uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Ushbu yoshdagi o‘quvchilar dunyoni tasvirlar orqali qabul qilishga moyil bo‘lganliklari sababli,

Sobir O‘nar asarlaridagi aniq va yorqin portretlar ularda qahramon haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy ishni tayyorlash va mavzuni keng qamrovli yoritish jarayonida qiyosiy-tarixiy tahlil, deskriptiv (tavsifiy) tahlil, komponent tahlil va metodik modellashtirish kabi ilmiy usullardan unumli foydalanildi. Sobir O‘nar ijodi, xususan, uning "Bibisora", "Chashma", "Ov" kabi qissa va hikoyalari adabiyotshunoslikning zamonaviy metodologik tamoyillari asosida o‘rganildi va olingan ilmiy natijalar boshlang‘ich ta’lim darsliklaridagi metodik talablar, o‘quvchilarning yosh fiziologik hamda psixologik xususiyatlari bilan qiyoslandi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida adib asarlaridagi portret yaratish vositalari — kiyim-kechak, yuz ifodasi, nutq va xatti-harakatlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil markaziga qo‘yildi. Shuningdek, o‘quvchilarning badiiy matnni o‘qish davomida qahramon qiyofasini qanday tasavvur qilishlarini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuvlar va matn tahlili darslari tahlil qilindi. Bu jarayonda asosiy e’tibor adibning individual uslubiga — qisqa so‘z bilan keng ma’no berish mahoratiga qaratildi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sobir O‘nar portret yaratishda asosan lokonizm (ixchamlik) va badiiy detalga tayanish tamoyilini mahorat bilan ilgari suradi.

Adib qahramonni boshdan-oyoq, zerikarli va uzoq ta’riflamaydi; aksincha, u o‘quvchi e’tiborini personajning xarakterini "ochib beruvchi" birgina zarbdor detalga — masalan, qahramonning kiftining bir oz qisilib turishi, nigohidagi ichki ma’yuslik yoki mehnatdan qadoq bo‘lgan qo‘llarining titrashiga urg‘u beradi. Ushbu betakror uslub boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatini jamlash va ularda matn ichidagi mayda detallarni tahlil qilish ko‘nikmasini o‘stirish uchun eng samarali pedagogik qurol hisoblanadi. O‘quvchilar matndagi mana shunday kichik, ammo ma’nodor belgilar orqali qahramonning ijtimoiy qatlami, uning ruhiy dunyosidagi o‘zgarishlar va hatto uning taqdirini anglashni o‘rganadilar. Bu jarayon bolalarda shunchaki o‘qishni emas, balki "mulohaza yuritib o‘qish"ni shakllantiradi, bu esa ularning hissiy intellektini sezilarli darajada rivojlantiradi. Sobir O‘nar qahramonlari, asosan, qishloq hayotining oddiy, samimiy va mehnatkash odamlari bo‘lganligi sababli, ularning portretlaridagi milliy ruh — kiyinish madaniyati, andisha, yuzdagi nur kabi unsurlar o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini ham kuchaytiradi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga o‘rgatiladigan fanlar bir-biri bilan uzviy aloqadorligi, o‘zaro bir-birini to‘ldirishi kabi xususiyatlari bilan yuqori sinflarda o‘zlashtiriladigan fanlardan farqlanib turadi. Bu bejizga emas, chunki boshlang‘ich ta’limda asosiy e’tibor ona tili, o‘qish va matematik savodxonlikka qaratilgan ekan, bu jarayonda olinadigan bilimlarning uzviyligi o‘quvchida bir-biriga bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Hatto ana shunday uyg‘unlashuv jarayoni bir fanning turli bo‘lim va mavzularini o‘rganish jarayonida ham kuzatiladi. Fikrimizcha, “Ona tili” fanidan o‘rganiladigan o‘quv materiallarini qiyosiy o‘rganish, umumiy jihatlarga ega bo‘lgan mavzularni bir-biriga bog‘lab o‘rgatish tajribasi bilimlarni o‘rganishdagi o‘ziga xos murakkablikni osonlashtirishga ko‘maklashadi. O‘quvchida muayyan mavzu bo‘yicha to‘plangan nazariy bilimlar yangi tushunchalarni o‘zlashtirishiga tayanch vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarish, yozish ko‘nikmasini shakllantirish, bog‘lanishli nutq va gap tuzish ko‘nikmasini o‘stirish, lug‘at boyligini muntazam oshirib borish, grammatik tushunchalarni o‘rgatish va amaliy faoliyatida qo‘llay olish singari alohida-alohida vazifalar borki, ular o‘zaro uzviylikni talab qiladi, ularning barchasi boshlang‘ich sinf ona tili darslarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalashi bilan birga o‘qituvchilar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi. Birinchidan, bu ta’lim bosqichi o‘quvchiga bilim olishning dastlabki poydevorini qo‘yib bersa, ikkinchidan ta’limning keyingi bosqichlarida fanlarni o‘zlashtirish jarayonini har tomonlama osonlashtiradi. Kuzatishlarimizdan ma’lumki, boshlang‘ich sinfda yaxshi bilim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda ham a’lo baholar olib, ijobiy natijalarga erishgan. Bu natijalar uchun avvalo boshlang‘ich sinflarda tamal toshi qo‘yilganini e’tirof etishimiz kerak. Demak, o‘qituvchi ta’lim berish jarayonini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilgan, dars uchun tanlangan pedagogik texnologiyalar yaxshi samara bergan degan xulosaga kelish mumkin.

Zamonaviy ta’lim olish va ta’lim berish jarayoni bugungi kunda chuqur tahlil qilinayotgani, islohatlarning natijalari qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘layotgani o‘qituvchilarimiz e’tiborida. Muhimi, bu jarayonda ta’lim oluvchi ham, ta’lim beruvchi ham izlanishda. Hatto, bir mavzuni bir necha ta’lim texnologiyalariga asoslanib o‘tish, ularning ichidan eng ma’qullarini tanlash, muhokama qilish va amaliy faoliyatda joriy etish , nazarimizda, zamonaviy ta’limning o‘ziga xos belgilari bo‘lsa kerak. Biz ham ushbu

maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsligidagi “So‘z tarkibi” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarimizni bayon qilishni ma’qul ko‘rdik. Mavzuning murakkabligi maktab ona tili ta’limining barcha bosqichlarida e’tirof etilgan . Shu jihatning o‘zi ham boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ta’limning yo‘nalishi, mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashish zarurligini taqozo etadi. Umuman olganda, mavzuning ilmiy jihatlari tilshunos olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan. Bu o‘rinda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” [1], “O‘zbek tilining morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari” [2], “Ozbek tili grammatikasi” [3] kitoblarida mavzuning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilganligini esga olishimiz mumkin. Bu ilmiy manbalarda bayon qilingan fikrlar uslubiy jihatdan ancha murakkabligi, ilmiyligi bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos emas. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mavzuni sodda qilib tushuntirishga mo‘ljallangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ehtiyoj bor. Mavzuni o‘rgatish usullari, ya’ni metodikasi bayoni taqdim etilgan ilmiy adabiyotlar kam .

METODOLOGIYA. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining bo‘lim va mavzulari, xususan, so‘z tarkibi mavzusining o‘rgatilishi masalasiga alohida e’tibor qaratilayotganida o‘ziga xos mantiq bor. Gap shundaki, bu mavzu orqali o‘quvchilar faqat so‘zning tarkibiy qismlari bilan tanishibgina qolmay, o‘zlari ham mustaqil ravishda so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratishni o‘rganadilar. Agar yuqori sinf “Ona tili” darslarida o‘quvchilarning hali ham so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga to‘g‘ri ajrata olmayotgani, malakasi yetishmayotgani hisobga olinsa, boshlang‘ich ta’limda bu mavzuni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonini soddalashtirish, o‘rgatish usullariga qo‘shimchalar kiritish kerakligi ma’lum bo‘ladi. Biz ham ta’lim jarayonining ishtirokchisi sifatida “Mavzular integratsiyasi” usulini qo‘llash orqali o‘quvchilar bilimini oshirish mumkinligini ta’kidlamoqchimiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarni qabul qilish imkoniyatlari o‘ziga xosligini hisobga olib, qo‘shimchalar qo‘shilgan bir xil o‘zakli so‘zlarni ma’noli qismlarga bo‘lish mashqini bo‘g‘in ajratish amaliyotiga bog‘lab tushuntirish ham o‘rganuvchiga, ham o‘rgatuvchiga yengillik bo‘ladi. Masalan**, ish+chi, ish+chan, ish+la** kabi. “ Bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nolaridagi umumiylik, - deb ta’kidlaydi D. Shabbazova, - umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi, qo‘shimchalar esa so‘zning ma’nosiga o‘ziga xos ma’no qo‘shadi, ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil o‘zakli so‘zlar ustida bunday ishlash usuli o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini so‘zning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi”[4.114]. Biz bu fikrni ma’qullagan holda “So‘z tarkibi “ mavzusini o‘rgatishda o‘quvchilarda ilgari shakllantirilgan fonetik tushunchalardan, avvalo bo‘g‘in ajratish bo‘yicha qilingan amaliy ishlardan foydalanish mumkinligini qo‘shimcha qilmoqchimiz. Kuzatishlarimizdan ayon bo‘ldiki, ko‘pchilik o‘quvchilar so‘zlarni ma’noli qismlarga ajratish amaliyotini bo‘g‘inga ajratish sifatida tushunishar ekan. Savol-javoblarda ular , gul+ **gul+zor, gul+li, gul+ni,gul+ga** singari misollarni ham keltirishdi. Haqiqatan ham keltirilgan misollarning bo‘g‘inga va ma’noli qismlarga ajratilish holati bir xil . Ana shu ma’lumotni kengaytirish imkoni bor o‘qituvchida. O‘qituvchi bir xil qoliplar orqali o‘quvchida ikki grammatik tushunchani shakllantirayapti, soddaroq qilib aytganda o‘quvchida mavjud bo‘lgan bilimdan, tushunchadan unumli foydalanish orqali ularning shuuriga so‘zlarni ma’noli qismlarga ajratishda avvalo asos, so‘ngra qo‘shimchalar ajratiladi degan bilimni singdirayapti. So‘zlarni bo‘g‘inga ajratishda esa, asosni topishga zaruriyat bo‘lmaydi. Masalan, **gulim,qo‘lim, bog‘im,sochim** singari so‘zlarda bo‘g‘in va ma’noli qismlar miqdori teng bo‘lgan holda ajratilishida farq bor: **gu+lim, qo‘+lim, bo+g‘im, so+chim** (bo‘g‘in ajratish),**gul+im, qo‘l+im, bog‘+im, soch+im** (ma’noli qismga ajratish). To‘g‘ri, so‘zda har doim ham bo‘g‘inlar va ma’noli qismlar miqdori teng bo‘lavermaydi, ba’zan asos va qo‘shimchalarning o‘zi bir bo‘g‘indan iborat bo‘lishi mumkin. Demoqchimizki, tarkibi murakkabroq bo‘lgan so‘zlarni yuqori sinflarda tahlil

qilish imkoni bor, boshlang‘ich sinflarda esa nisbatan sodda, bolalar tez tushunishiga yordami tegadigan so‘zlar vositasida dastlabki bilimlarni shakllantirish muhim.

TADQIQOT NATIJALARI. So‘zlarni bo‘g‘inlarga va ma’noli qismlarga ajratish bo‘yicha bilimlarni shakllantirish jarayoni uzviy holda o‘rgatilishi amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Bugungi ta’limda sinovdan o‘tkazilmagan har qanday metodik tavsiya va usullarning samaradorligiga ishonchsizlik, shubha bilan qarash kuzatiladigan holatdir. Shunung uchun ham amaliy ishlar natijasida dalillangan xulosalar ishonarli bo‘lish bilan birga o‘quvchilarda muayyan bilimlarni oson o‘zlashtirish sari tashlangan qadam ham bo‘ladi. Mashg‘ulotlar davomida bajarilgan har bir amaliy harakat o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlarni kengaytirishga, to‘ldirishga, boyitishga yo‘naltirilishi kerak.. Biz ham shu tamoyilga tayanib, “ So‘z tarkibi” mavzusini Samarqand shahridagi 49- maktabning boshlang‘ich sinflarida o‘rgatilish jarayoni bilan tanishdik, tajribali o‘qituvchilarning darslarini kuzatdik, uslubiy jihatdan ham o‘quvchilarga, ham o‘qituvchilarga ma’qul bo‘ladigan metodik usul va tavsiyalarni havola qildik. 3- sinf o‘quvchilarga amaliyotchi talaba Oltinova Bahora “So‘z tarkibi” mavzusini tushuntirganda o‘quvchilarning bo‘g‘in ajratish yuzasidan olgan bilimlariga tayangan holda so‘zlarni tarkibiy qismlarga bo‘lish jarayonini o‘rgatdi, ikki grammatik tushunchani bir mavzuda birlashtirdi, umumiy va xususiy jihatlariga e’tibor qaratdi, o‘quvchilarning oson o‘zlashtirishini ta’minladi. Sinfdagi 25 nafar o‘quvchining faol ishtiroki mashg‘ulotda kuzatuvchi bo‘lib qatnashgan maktab o‘qituvchilarini ham quvontirdi. Maktab o‘qituvchilari ham o‘z mashg‘ulotlarida “Mavzular integratsiyasi “ usulidan foydalanib dars o‘tishga qiziqish bildirishdi. Kuzatuvchi - amaliyotchi talabalarning e’tirof etishlaricha, maktabning bir necha boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mashg‘ulotda bu usulni qo‘llagan.

TAHLILLAR. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqlaridan birida “Maktabda metodika o‘zgarmasa, ta’limda o‘zgarish bo‘lmaydi” (5. 3] degan fikr ilgari surilgan edi. Haqiqatan ham, o‘qituvchining dars o‘tishi uchun tayyor metodika yo‘q, u dars jarayonida to‘plangan tajriba, kuzatishlar, metodik adabiyot va uslubiy tavsiyalar bilan tanishish, ularga tanqidiy va tahliliy yondashish asosida shakllanadi. Qisqasi, har bir o‘qituvchi o‘z metodikasi ustida ishlashi, har bir mavzuni qay yo‘sinda tushuntirish samaradorligi ustida bosh qotirishi, o‘z ish uslubini yangiliklar bilan boyitib borishi kerak. Yuqorida biz tavsiya etgan “**Mavzular integratsiyasi**” usulini ham metodikani boyitish yo‘lidagi bir urinish, harakat deb qabul qilinishini istardik. Uni mazmunan yanada boyitish, mukammallashtirish o‘qituvchilarning amaliy faoliyatiga bog‘liq.

XULOSALAR

Maqolada boshlang‘ich sinflarda so‘z tarkibini o‘rgatish yuzasidan fikrlar bildirildi. Har bir mavzu ta’lim bosqichi talabidan kelib chiqilgan holda o‘rgatuvchidan o‘ziga xos yondashishni, mahorat bilan metodik usullarni joriy etishni taqozo etadi. O‘qituvchilar juda yaxshi bilishadi har bir mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatishda o‘ziga xos qiyinchiliklar mavjudligini. Shuning o‘zi ham o‘qituvchidan bu murakkablikni yengillashtirish ustida bosh qotirishni, o‘rgatish uslubini takomillashtirishni, boyitib borishni, qilingan qaysi amaliy harakat natijador bo‘lsa, uni dadillik bilan jarayonga olib kirishni , shuningdek, tashabbuskorlik, jur’at, kreativlik kabi sifatlarni kuchaytirishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Morfologiya). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005

2. A. Hojiyev. O‘zbek tilining morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. Toshkent: Fan, 2010.

3. O‘zbek tili grammatikasi, 1-qism, Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.

4. D.Shabbazova. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023.

5. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2020-yil 10-son.

TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Karimov Abduboqi Aliqulovich *TDIU Samarqand filiali. PhD, dotsent.*
Shukurov Vasliddin Sobirjon o‘g‘li, *Assistent* Karimovabduboqi0@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Qolaversa sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish, intellektual tutor tizimlari, generativ vositalar va ta’lim analitikasi imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *sun’iy intellekt, didaktik imkoniyatlar, adaptiv o‘qitish, intellektual tutor tizimi, generativ sun’iy intellekt, raqamli pedagogika.*

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimi mazmunan ham, shaklan ham sezilarli o‘zgarib bormoqda. Endilikda ta’lim faqat auditoriya bilan cheklanadigan jarayon emas, balki insonning butun hayoti davomida davom etadigan uzluksiz faoliyatga aylanmoqda. Bunday sharoitda ta’limni moslashuvchan, shaxsiy va samarali tashkil etish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. Aynan shu nuqtada sun’iy intellekt vositalari yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellektning ta’limdagi asosiy yo‘nalishlari sifatida adaptiv o‘qitish, intellektual tutorlik, avtomatlashtirilgan baholash, profiling va bashorat qilish, shuningdek generativ vositalar alohida ko‘rsatiladi.

Bu vositalar, ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimi uchun muhimdir. Chunki bunday tizimda tinglovchilarning yoshi, tayyorgarligi, tajribasi va maqsadi turlicha bo‘ladi. Natijada bir xil metod va bir xil material hamma uchun birday samarali bo‘lavermaydi.

Sun’iy intellekt ana shu farqlarni hisobga olib, o‘quv mazmunini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Adaptiv tizimlar o‘quvchining oldingi natijalari, xatolari va faoliyatiga qarab unga mos topshiriq yoki tavsiya bera oladi.

Shu bilan birga, bu texnologiyalarni ta’limga joriy etishda xavf va cheklovlarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ilmiy tadqiqotlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik xatolik, akademik halollik va pedagogik nazoratning susayishi kabi muammolar ko‘p qayd etiladi [1].

Ayniqsa generativ vositalar keng tarqalgan hozirgi davrda “o‘rganishga yordam berish” va “mustaqil fikrlash o‘rnini bosish” o‘rtasidagi farqni to‘g‘ri belgilash muhim bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar asosida sun’iy intellekt vositalarining uzluksiz ta’lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari o‘rganildi va xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt vositalari uzluksiz ta’lim tizimida bir nechta muhim didaktik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Birinchidan, ular ta’limni shaxsiylashtirishga xizmat qiladi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi ko‘pincha barcha tinglovchilar uchun bir xil material va topshiriqdan foydalanadi. Lekin o‘quvchilarning tayyorgarligi va o‘zlashtirish sur’ati bir xil bo‘lmagani sababli bunday yondashuv har doim ham yuqori natija bermaydi. Adaptiv o‘qitish tizimlari esa o‘quvchining faoliyatini tahlil qilib, unga mos material, mashq yoki tavsiya bera oladi [2].

Ikkinchidan, sun’iy intellekt tezkor teskari aloqa berish imkonini yaratadi. O‘quvchi yangi mavzuni o‘zlashtirish jarayonida xatoni qachon va qanday tushuntirish bilan olishi katta ahamiyatga ega. Odatda auditoriyada o‘qituvchi har bir talabaga bir vaqtning o‘zida individual izoh bera olmaydi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar esa foydalanuvchi javobini tez tekshirishi, xatoni ko‘rsatishi, qo‘shimcha misol keltirishi yoki izohni soddalashtirishi mumkin [3].

Uchinchidan, intellektual tutor tizimlari individual qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tizimlar o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, unga real vaqt rejimida yordam ko‘rsatishi mumkin [3].

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt baholash jarayonida ham yordam beradi. Testlarni tekshirish, ayrim yozma javoblarni saralash, natijalarni tahlil qilish va xatolarni guruhlarga ajratishda AI vositalaridan foydalanish o‘qituvchining vaqtini tejaydi [4].

Beshinchidan, sun’iy intellekt ta’lim analitikasini kuchaytiradi. O‘quvchilarning qaysi mavzularda ko‘proq qiynalayotgani, qaysi bosqichlarda to‘xtab qolgani yoki qaysi topshiriqlar murakkab bo‘layotgani tizim orqali aniqlanishi mumkin. Bu o‘qituvchiga kurs mazmunini qayta ko‘rib chiqish, qo‘shimcha material tayyorlash va ayrim tinglovchilarga individual yordam ko‘rsatish imkonini beradi [4].

Yana bir muhim yo‘nalish generativ sun’iy intellekt vositalari bilan bog‘liq. Bunday tizimlar matn yozish, savollarga javob berish, reja tuzish, misol yaratish, tarjima qilish yoki kod yozish kabi vazifalarni bajarishi mumkin.

O‘quvchi uchun bu vositalar mustaqil o‘rganishda yordamchi bo‘lishi mumkin. Masalan, murakkab mavzuni soddaroq tilda tushuntirib berish, qo‘shimcha misollar topish yoki savol-javob qilish imkoniyati tug‘iladi. Lekin bunday vositalardan noto‘g‘ri foydalanish o‘quvchining tayyor javobga o‘rganib qolishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Tahlillar. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, uzluksiz ta’lim tizimida sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari asosan uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi – ta’lim mazmunini o‘rganuvchiga moslashtirish. Bu ayniqsa turli yosh va turli tayyorgarlik darajasidagi tinglovchilar bilan ishlashda muhimdir. Shaxsiylashtirilgan ta’lim bo‘yicha tadqiqotlarda adaptiv yondashuv o‘quv natijalari va jalb etilganlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan [5].

Ikkinchisi – ta’lim jarayonida vaqt va resursni tejash. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida material tayyorlaydi, baholaydi, savollarga javob beradi va monitoring olib boradi. Sun’iy intellektning ayrim funksiyalari takroriy ishlarni kamaytirib, o‘qituvchining metodik va tahliliy faoliyatiga ko‘proq vaqt ajratishiga yordam beradi [6].

Uchinchisi – mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash. Malaka oshirish, qayta tayyorlash yoki uzoq muddatli kasbiy rivojlanishda tinglovchi ko‘pincha mustaqil ishlaydi. Sun’iy intellekt vositalari tushunmagan joyni izohlash, qo‘shimcha mashq berish, xatoni ko‘rsatish yoki mavzuni soddalashtirib tushuntirish orqali bu jarayonni yengillashtiradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt yordamchi bo‘lishi kerak, lekin o‘quvchining fikrlash o‘rnini bosmasligi lozim. Ilmiy adabiyotlarda inson markazli yondashuv alohida ta’kidlanadi.

Agar o‘quvchi sun’iy intellektga haddan tashqari tayansa, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari sustlashishi mumkin. Ayniqsa generativ vositalar tayyor matn yoki tayyor yechim berayotgan vaziyatlarda bu xavf kuchayadi.

Akademik halollik ham muhim masalalardan biridir. Sun’iy intellekt yordamida tayyor matn yaratish yoki topshiriqni avtomatik bajarish imkoniyati yangi nazorat usullarini talab qiladi. Bunday holatda faqat yakuniy natijani emas, balki o‘quvchining ishlash jarayonini ham baholash kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatolik, adolat va shaffoflik masalalari ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Xulosa

Shunday qilib, sun’iy intellekt vositalarining haqiqiy didaktik qiymati ularning o‘zida emas, balki ulardan foydalanish madaniyatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muhitda ular ta’limni kuchaytiradi, noto‘g‘ri tashkil etilgan sharoitda esa yuzaki o‘rganish va qaramlikni kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli sun’iy intellekt vositalarini uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etish jarayonida asosiy e’tibor texnologiya borligiga emas, u qanday didaktik vazifani bajarayotganiga qaratilishi kerak. Texnologiya o‘qituvchini siqib chiqaruvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita bo‘lishi kerak. Faqat shundagina sun’iy intellekt ta’limda haqiqiy samaradorlik, moslashuvchanlik va sifat omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. A systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – Where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2019, Vol. 16, Article 39.
2. Gligorea, I., Cioca, M., Oancea, R., Gorski, A.-T., Gorski, H., & Tudorache, P. Adaptive Learning Using Artificial Intelligence in e-Learning: A Literature Review. Education Sciences, 2023, Vol. 13, No. 12, Article 1216.
3. Villegas-Ch, W., et al. Adaptive intelligent tutoring systems for STEM education: analysis of the learning impact and effectiveness of personalized feedback. Smart Learning Environments, 2025.
4. Bond, M., Khosravi, H., De Laat, M., Bergdahl, N., Negrea, V., Oxley, E., Pham, P., Chong, S. W., & Siemens, G. A meta systematic review of artificial intelligence in higher education: a call for increased ethics, collaboration, and rigour. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2024, Vol. 21, Article 4.
5. du Plooy, E., Casteleijn, D., & Franzsen, D. Personalized adaptive learning in higher education: A scoping review of key characteristics and impact on academic performance and engagement. Heliyon, 2024, Vol. 10, No. 21, Article e39630.
6. Mustafa, M. Y., & Watson, S. A systematic review of literature reviews on artificial intelligence in education (AIED): a roadmap to a future research agenda. Smart Learning Environments, 2024.

BO‘LAJAK PEDAGOGNI SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA YO‘NALTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Mamajonov Baxramjon Bahodirjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi v.b.dotsenti
bahromjonmamajonov93@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va metodologik yondashuvlari keng yoritilgan. Maqolada sog‘lom turmush tarzi tushunchasi shaxsning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy salomatligini muvozanatda saqlovchi hayot falsafasi sifatida talqin etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar sog‘lom turmush madaniyatini nafaqat o‘z hayotida, balki kasbiy faoliyatida ham shakllantiruvchi yetakchi shaxs sifatida ko‘riladi. Shu bois, ularni sog‘lom turmushga yo‘naltirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi lozim. Maqolada raqamli ta’lim, interaktiv o‘qitish metodlari, gamifikatsiya, trening texnologiyalari, sog‘lom hayot monitoringi uchun mobil ilovalar kabi innovatsion yondashuvlarning afzalliklari tahlil qilingan.*

Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush kompetensiyasini shakllantirishning bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari va diagnostika usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalar sog‘lom hayot madaniyatini 45–50% ga oshirishga xizmat qilishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, bo‘lajak pedagog, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta’lim, interaktiv metodlar, raqamli sog‘lom ta’lim, motivatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.*

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi — nafaqat bilim berish, balki sog‘lom, barkamol va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, **bo‘lajak pedagoglarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish** masalasi hozirgi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik yo‘nalishga aylangan. Chunki o‘qituvchi shaxsining salomatligi, hayotga bo‘lgan ijobiy munosabati va jismoniy faolligi uning kasbiy faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bo‘lajak pedagogning o‘z hayotida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishi — kelgusida u ta’sir ko‘rsatadigan o‘quvchilar, jamoa va ijtimoiy muhitga sog‘lom hayot falsafasini singdirishning asosiy garovidir. Shu bois, oliy ta’lim tizimida bu jarayonni **zamonaviy pedagogik texnologiyalar** asosida tashkil etish bugungi kun talabidir.

Dunyo miqyosida (UNESCO, WHO) olib borilayotgan ta’lim islohotlarida ham sog‘lom turmushni o‘rgatish “Life skills education” (hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’limi) doirasida ko‘rilmoqda. Bu esa o‘qituvchilarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham sog‘lom hayot madaniyatiga tayyorlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

1. Sog‘lom turmush tarzining pedagogik mohiyati

Sog‘lom turmush tarzi — bu shaxsning jismoniy, aqliy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan uyg‘un rivojlanishini ta’minlovchi kompleks hayot faoliyati tizimidir.

Bo‘lajak pedagoglar uchun bu tushuncha kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismidir. Chunki o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘z hayoti bilan o‘rnak bo‘luvchi shaxsdir.

Shunday ekan, pedagogik oliygohlarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish jarayoni maqsadli, tizimli va metodik yondashuvga tayanishi lozim.

Bu jarayon nafaqat jismoniy mashg‘ulotlar, balki psixologik barqarorlik, stressni boshqarish, to‘g‘ri ovqatlanish, vaqtni boshqarish, axloqiy qadriyatlarni singdirish kabi jihatlarni ham qamrab oladi. Sog‘lom turmush tarzi — bu insonning jismoniy, aqliy, ma’naviy va ijtimoiy hayot faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi tizim bo‘lib, u hayotning barcha sohalarida muvozanatni ta’minlaydi. Pedagog shaxs uchun bu nafaqat individual qadriyat, balki kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy namunadir.

Bo‘lajak pedagoglarning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan tayyorgarligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- **bilim komponenti** – sog‘lom hayot nazariyasi, salomatlik psixologiyasi, gigiyena, ovqatlanish, dam olish madaniyati haqida ilmiy bilimlar;
- **ko‘nikma komponenti** – sog‘lom hayot odatlarini amalda qo‘llash (sport mashqlari, stressni boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash);
- **motivatsion komponent** – sog‘lom turmushni ongli ehtiyoj sifatida qabul qilish;
- **refleksiv komponent** – o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Ushbu komponentlar o‘zaro uyg‘unlashgandagina bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush kompetensiyasi shakllanadi.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati

An’anaviy ta’lim jarayonida talaba ko‘pincha passiv tinglovchi rolida bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa uni faol sub’ektga aylantiradi. Quyidagi yondashuvlar sog‘lom turmush kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi:

- **Interaktiv metodlar**: “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Case-study”, “Rol o‘yinlari” orqali sog‘lom hayot mavzulari faol muhokama qilinadi.
- **Gamifikatsiya**: o‘yin texnologiyalari orqali sog‘lom odatlarni rag‘batlantirish. Masalan, talaba o‘zining kunlik jismoniy faolligi uchun ball oladi.
- **Raqamli texnologiyalar**: mobil ilovalar, onlayn treninglar, sog‘lom turmush monitoring tizimlari (masalan, HealthyEdu ilovasi) orqali jarayon raqamlashtiriladi.
- **Trening texnologiyalari**: “Coaching” va “Mentoring” asosida sog‘lom hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash.
- **Refleksiv ta’lim**: talabalar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilib, sog‘lom odatlar shakllanish jarayonini kuzatadi.

2.1. Interaktiv texnologiyalar

Interaktiv metodlar sog‘lom turmush tarzi haqida faqat ma’lumot berish emas, balki talabalarni faol o‘ylashga, munozara qilishga va qaror qabul qilishga undaydi. Masalan:

- “Aqliy hujum” metodida talabalar sog‘lom hayotga zid bo‘lgan odatlarni sanab o‘tadi va ularning salbiy ta’sirini baholaydi;
- “Klaster” metodida sog‘lom hayot elementlari (ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy muvozanat) vizual tarzda tizimlashtiriladi;
- “Debat” usulida sog‘lom turmush bilan bog‘liq dolzarb ijtimoiy masalalar muhokama qilinadi.

Bu usullar sog‘lom turmushni o‘rgatish jarayonini **faol, demokratik va shaxsga yo‘naltirilgan** shaklga keltiradi.

2.2. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish texnologiyasi)

Gamifikatsiya — ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali talabalarni sog‘lom hayot faoliyatiga rag‘batlantirishdir. Masalan, talabalarga sog‘lom odatlar uchun ball beriladi: har kuni 7000 qadam yurish, 2 litr suv ichish, 8 soat uyqu qilish, jismoniy mashq bajarish uchun. Har hafta talaba o‘z reytingini ko‘radi va sog‘lom odatlar asosida raqobat muhitida rivojlanadi. Bu yondashuv sog‘lom turmushni majburiyat emas, balki **motivatsion jarayon** sifatida qabul qilishga yordam beradi.

2.3. Trening texnologiyalari

“Coaching” va “Mentoring” asosidagi treninglar talabalarda sog‘lom turmush ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Trening jarayonida:

- stressni boshqarish, vaqtni taqsimlash, ijobiy fikrlash;
- sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;
- guruhiy muhokamalar orqali tajriba almashiladi.

Trening asosidagi o‘qitishning afzalligi — u shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradi, o‘zini anglash va o‘zini baholashni rivojlantiradi.

2.4. Raqamli ta’lim texnologiyalari

Raqamli texnologiyalar sog‘lom turmush tarbiyasini **doimiy monitoring** asosida tashkil etish imkonini beradi. Masalan, “HealthyEdu” mobil ilovasi orqali talaba sog‘lomlik ko‘rsatkichlarini (uyqu, suv iste’moli, mashq, ovqatlanish) kiritadi, dastur ularni tahlil qiladi va pedagogga hisobot yuboradi.
Bu jarayon:

- talabaning sog‘lom turmush madaniyatini raqamli shaklda rivojlantiradi;
- o‘qituvchiga har bir talabaning individual sog‘lomlik xaritasini kuzatish imkonini beradi;
- sog‘lom hayot monitoringini ilmiy asosda olib borishga sharoit yaratadi.

Raqamli texnologiyalar sog‘lom turmushni o‘rgatishda **interaktivlik, moslashuvchanlik va tahliliy yondashuv** imkoniyatini beradi.

3. Bo‘lajak pedagoglarda sog‘lom turmush kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari

Pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, sog‘lom turmush kompetensiyasini shakllantirish uch asosiy bosqichda kechadi:

1. **Axborot-motivatsion bosqich** – talabalarni sog‘lom hayot mazmuni va ahamiyati bilan tanishtirish, motivatsiyani kuchaytirish.
2.**Amaliy-integratsion bosqich** – nazariy bilimlarni hayotiy amaliyot bilan bog‘lash (sport, mashg‘ulotlar, treninglar).
3.**Refleksiv-baholash bosqichi** – o‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash, o‘zini boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Bu bosqichlarda **AKT vositalari**, **multimedia ta’lim dasturlari** va **onlayn diagnostika tizimlari** samarali qo‘llaniladi.

4. Ijtimoiy-psixologik asoslar

Sog‘lom turmush tarzi faqat jismoniy yoki fiziologik holat emas, balki shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan uyg‘unligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli:

- talabalarda **stressni boshqarish** ko‘nikmalari;
- **ijtimoiy moslashuv**;
- **sog‘lom muloqot**;
- **emotsional intellekt**ni rivojlantirish zarur.

Psixologik treninglar, “team-building” mashg‘ulotlari, ijtimoiy loyiha faoliyatlari bu jarayonni yanada boyitadi.

5. Sog‘lom turmush tarzi ta’lim jarayonining komponenti sifatida

Bugungi pedagogik konsepsiyalar — *kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan* va *tizimli* yondashuvlar — sog‘lom turmushni ta’lim mazmunining bir qismi sifatida ko‘radi.

Demak, har bir fan (pedagogika, psixologiya, tarbiya nazariyasi, jismoniy madaniyat) o‘z mazmunida sog‘lom hayot tamoyillarini integratsiya qilishi lozim.

Masalan:

- “Pedagogika” fanida — sog‘lom ta’lim muhiti;
- “Psixologiya”da — stressni boshqarish va motivatsiya;
- “Jismoniy madaniyat”da — jismoniy faollik va dam olish madaniyati;
- “Axloq” fanida — salomatlik qadriyati yoritilishi kerak.

Bunday integratsion yondashuv sog‘lom turmush madaniyatini tizimli va barqaror shakllantiradi.

Xulosa

Bo‘lajak pedagoglarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish — zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Sog‘lom turmush tarzi nafaqat shaxsning jismoniy va ruhiy holatini mustahkamlaydi, balki uning kasbiy faoliyatida barqarorlik, ijobiy motivatsiya va yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Pedagog shaxsining sog‘lom hayot falsafasiga amal qilishi — kelajak avlod tarbiyasida sog‘lom qadriyatlarni singdirishning asosiy omilidir.

Shu bois, pedagogik ta’lim jarayonida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash sog‘lom turmushni o‘rgatishda yuqori samaradorlik beradi. Xususan, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, trening va raqamli ta’lim vositalari talabalarning faolligini oshiradi, ularning sog‘lom hayot haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va sog‘lom hayotga bo‘lgan shaxsiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Sog‘lom turmush kompetensiyasini shakllantirishda motivatsion yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va refleksiv tahlil muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan monitoring tizimlari talabalarning sog‘lomlik ko‘rsatkichlarini baholash, rivojlanish dinamikasini kuzatish va shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa sog‘lom turmushni o‘rgatish jarayonini individualizatsiya qilish va optimallashtirishga xizmat qiladi.

Sog‘lom turmushni o‘rgatishning zamonaviy modeli — bu **pedagogik, psixologik, texnologik va ijtimoiy komponentlar uyg‘unligiga asoslangan tizim**dir. Bunday yondashuv natijasida bo‘lajak pedagoglarda nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki sog‘lom hayot falsafasiga asoslangan barqaror qadriyatlar shakllanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish:

- ta’lim sifatini oshiradi;
- sog‘lom, ijtimoiy faol, raqamli kompetensiyaga ega shaxsni shakllantiradi;
- pedagogik ta’lim mazmunini insonparvarlik va innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi;
- sog‘lom jamiyat barpo etishda pedagoglarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Kelgusida bu yo‘nalishda **raqamli ta’lim muhitini yanada takomillashtirish, sun’iy intellekt asosida sog‘lom turmush monitoring tizimlarini yaratish** hamda **pedagogik**

texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish istiqbollari dolzarb vazifa sifatida belgilanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Hasanov R. “Pedagogik innovatsiyalar va sog‘lom turmush tarzi.” – Toshkent, 2021.
3. Yusupova D., Mamajonov B. “Oliy ta’limda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar roli.” – Andijon, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom avlod” konsepsiyasi, 2022-yil.
5. WHO. “Global standards for health-promoting schools.” Geneva, 2023.
6. UNESCO Report. “Digital health education and wellbeing of youth.” Paris, 2023.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, professor v.b.
Mamatova Mexribonu Ulug‘bek qizi, *magistr*

Annotatsiya. *Ushbu tezis umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va yondashuvlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Intellektual salohiyat — tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda muammolarni hal etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi kompleks tushuncha ekanligi ko‘rsatildi .Tadqiqot shuni tasdiqladiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual faoliyatini faol rag‘batlantiradi va ularning mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi .*

Kalit so‘zlar: intellektual salohiyat, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, innovatsion yondashuv, umumta’lim maktabi, interaktiv metodlar.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu jihatdan, umumta’lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbek pedagog olimlarining tadqiqotlarida intellektual salohiyat shaxsning bilimlarni egallash, ularni tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarining yaxlit tizimi sifatida talqin etiladi .Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol subyekt sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar — interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish hamda raqamli ta’lim vositalari — o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, an’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantira olmaydi, aksincha zamonaviy pedagogik yondashuvlar ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini kengaytiradi .Bu esa ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zaruratini kuchaytiradi.Shuningdek, intellektual salohiyatni rivojlantirishda ta’lim muhitining psixologik-pedagogik sharoitlari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydigan, ularda qiziqish va motivatsiyani oshiradigan interaktiv muhit yaratish zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biridir. Bu borada o‘zbek olimlari olib borgan tadqiqotlar ham innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi .Shu sababli,

umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kun pedagogik tadqiqotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash uchun nazariy tahlil, qiyosiy o‘rganish va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi.Tadqiqot konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanib olib borildi, chunki bilim o‘quvchi tomonidan faol kognitiv jarayonda shakllanadi .Shuningdek, interaktiv, muammoli va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari pedagogik jihatdan tahlil qilindi.O‘zbek pedagog olimlari tadqiqotlarida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini faollashtiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi .

Tadqiqot Natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, umumta’lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda kompleks va tizimli ijobiy samara beradi. Tahlillar jarayonida aniqlanishicha, pedagogik jarayonning faol tashkil etilishi o‘quvchilarning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning mustaqil bilim olish jarayonini kuchaytiradi.Birinchidan, interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi, ularni fikrlashga, savol berishga va muhokamada ishtirok etishga undaydi. Bu esa bilimni passiv qabul qilishdan faol kognitiv jarayonga o‘tishni ta’minlaydi .Natijada o‘quvchilarda tahliliy fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.Ikkinchidan, muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) texnologiyasi o‘quvchilarda murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va ularni mustaqil hal etish kompetensiyalarini shakllantiradi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bunday yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini oshirib, ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi .Uchinchidan, loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy kompetensiyalarni ham shakllantiradi, ya’ni ular o‘z bilimlarini real mahsulot yoki loyiha shaklida ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar .To‘rtinchidan, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonini individuallashtirishga imkon beradi. Bu esa har bir o‘quvchining o‘zlashtirish tezligi va darajasiga mos ravishda ta’lim olishiga sharoit yaratadi. Natijada o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish motivatsiyasi oshadi hamda o‘quv samaradorligi yuqori darajaga ko‘tariladi .Shuningdek, o‘zbek pedagog olimlari tadqiqotlari ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini faollashtirib, o‘quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga yordam beradi.Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning fikrlash sifati, ijodiy yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi .

Tahlillar: Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda faqat metodik vosita emas, balki ta’lim jarayonining strategik komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar jarayonida interaktiv, muammoli va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol faoliyat jarayonida konstruksiya qilinadi .Shu sababli, interaktiv metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.Shuningdek, tahlillar natijasida muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarda analitik fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishi aniqlandi. Bu yondashuv o‘quvchini real hayotiy muammolarni tahlil qilishga yo‘naltiradi va uning intellektual mustaqilligini kuchaytiradi .Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasini tahlil qilish natijasida esa o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va

amaliy natija yaratish ko‘nikmalari rivojlanishi kuzatildi. Bu esa ta’lim jarayonining kompetensiyaviy yo‘naltirilganligini ta’minlaydi .

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, umumta’lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim va samarali omil hisoblanadi. Interaktiv, muammoli va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirib, ularning mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvini shakllantiradi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv metodlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini kuchaytiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi .Muammoli ta’lim esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va murakkab vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi .Loyiha asosida o‘qitish esa ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va amaliy natija yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi .Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini individuallashtirib, har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos ta’lim olishiga sharoit yaratadi, bu esa mustaqil o‘rganish samaradorligini oshiradi .O‘zbek olimlarining tadqiqotlari ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tizimli joriy etish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning fikrlash sifati, ijodiy yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi .Shu sababli, ta’lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida qolmoqda.Raqamli ta’lim muhitini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini individuallashtiradi va har bir o‘quvchining o‘zlashtirish tezligiga mos ta’lim olish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. O‘zbek pedagog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini ham sezilarli oshirishini tasdiqlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar: intellektual salohiyatni rivojlantirishga doir maqolalar to‘plami.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim samaradorligi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar (O‘zbekiston ilmiy jurnallari).

3 .Interaktiv ta’lim metodlari va ularning o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar.

4.Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid ilmiy maqolalar.

5. Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi va kompetensiyaviy yondashuvga doir tadqiqotlar.

TALABALARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Djumayeva Afize Rustamovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Talabalar bilimini baholash bo‘limi, Bosh mutaxassisi

Annotatsiya.*Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli platformalarning o‘rni, pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy innovatsion yondashuvlar, AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi hamda ta’lim jarayonini raqamlashtirishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar.*tayanch kompetensiya, raqamli platforma, pedagogik mexanizm, AKT, innovatsion ta’lim, masofaviy ta’lim, interaktiv metodlar*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talabalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni asosida 2030 yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, unda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ta’lim sifatini oshirish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori da ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Yana O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son Qarori (“Raqamli O‘zbekiston – 2030”) doirasida ta’lim sohasini raqamlashtirish, elektron platformalarni keng joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni da raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali kadrlar salohiyatini oshirish vazifasi ilgari surilgan. Yuqoridagi hujjatlardan kelib chiqib, talabalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda raqamli platformalardan foydalanish va pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Tayanch kompetensiyalar mazmuni

Tayanch kompetensiyalar — bu shaxsning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalardir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kommunikativ kompetensiya
- axborot kompetensiyasi
- muammoli vaziyatlarni hal qilish
- ijtimoiy faoliyat
- o‘z-o‘zini rivojlantirish

Mazkur kompetensiyalar talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi.

2. Raqamli platformalarning ahamiyati

Raqamli platformalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular orqali:

- mustaqil ta’lim rivojlanadi
- interaktivlik oshadi
- masofaviy ta’lim amalga oshadi
- baholash tizimi soddalashadi

Talabalar raqamli muhitda ishlash orqali axborotni izlash, qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish

3.1 Interaktiv metodlar

Case-study, muammoli ta’lim, loyiha metodi talabani faol subyektga aylantiradi.

3.2 Blended learning

An’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligi samaradorlikni oshiradi.

3.3 Individual yondashuv

Har bir talabaning qobiliyati inobatga olinadi.

3.4 Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish

Talabalar axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlashni o‘rganadi.

4. Rivojlantirish mexanizmi

Jarayon quyidagi bosqichларда амалга оширилади:

1. diagnostika
2. rejalashtirish
3. amalga oshirish

4. monitoring
5. refleksiya

Bu mexanizm ta’lim samaradorligini oshiradi.

5. Innovatsion yondashuvlar

- gamifikatsiya
- sun’iy intellekt
- adaptiv ta’lim
- VR/AR texnologiyalar

Bu usullar talabalar faolligini oshiradi.

Xulosa Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bevosita raqamli texnologiyalar va platformalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Global raqamlashtirish sharoitida an’anaviy ta’lim usullari yetarli samara bermasligi, balki ularni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish zarurati yuzaga kelayotgani aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom va boshqalar) ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish, axborot bilan ishlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu platformalar orqali ta’limning interaktivligi, shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot davomida talabalarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlari sifatida interfaol metodlar, aralash ta’lim (blended learning), individual ta’lim trayektoriyalari va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Xususan, case-study, loyiha usuli, muammoli ta’lim kabi metodlar talabalarni faol subyekt sifatida shakllantirib, ularning amaliy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, jumladan, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim tizimlari va virtual muhitlarni joriy etish talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga xizmat qiladi.Normativ-huquqiy asoslar tahlili esa O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar dolzarbligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda tayanch kompetensiyalarni raqamli platformalar orqali rivojlantirish samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim mazmunini yangilash, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etish va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirish
- milliy raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish
- pedagog kadrlarning AKT kompetensiyalarini oshirish
- talabalarning mustaqil ta’lim olish muhitini kengaytirish
- raqamli ta’lim samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilganda, ta’lim sifati sezilarli darajada oshishi va raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son Qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
6. Muslimov N.A.. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Tolipov O‘.Q.. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

PEDAGOGIK KOMPITENTLIK SIFATLARINI OSHIRISH UCHUN BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori v.b.
Bozorova Iroda Ergash qizi, *magistr*

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi, kommunikativ qobiliyati hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko‘nikmalari muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida kompetentlik yondashuvi asosida interfaol metodlar, refleksiv faoliyat, amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik modellashtirish texnologiyalarining samaradorligi yoritib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda uzluksiz ta’lim, mustaqil ta’lim faoliyati va tajriba almashish jarayonlarining ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar*. pedagogik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, metodik tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, refleksiya.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishini, balki pedagogik kompetentlikning barcha jihatlarini mukammal egallashini talab qiladi. Pedagogik kompetentlik – bu o‘qituvchining kasbiy bilim, metodik mahorat, kommunikativ qobiliyat, kreativ va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan majmua sifatida qaraladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, o‘z faoliyatini tahlil qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati ham pedagogik kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalar va o‘qituvchilarni tayyorlash tizimlari tezkor o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, mikroo‘qitish, refleksiv faoliyat va pedagogik modellashtirish usullari bo‘yicha yangi yondashuvlar paydo bo‘lgan. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va ularni 21-asr talablari darajasida tayyorlash uchun ilmiy asoslangan, tizimli va samarali texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida kompetentlik yondashuvi asosida interfaol metodlar, refleksiv faoliyat, amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik modellashtirish texnologiyalarining ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda uzluksiz ta’lim, mustaqil o‘qish va tajriba almashish jarayonlarining roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik kompetentlikni tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida uzluksiz ta’lim tizimi, mustaqil o‘qish faoliyati, amaliy tajriba almashish, mentorlik va refleksiya jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu omillar pedagogik fikrlashni shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish hamda kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi o‘z ichiga interfaol, innovatsion va refleksiv yondashuvlarni birlashtirgan yaxlit tizim sifatida qaraladi. Avvalo, pedagogik

kompetentlikni shakllantirishda kompetentlik yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchi faqat bilim egasi emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay oladigan, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan va o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilib boradigan shaxs sifatida shakllantiriladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyasi asosiy o‘ringa chiqadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri interfaol ta’lim metodlaridir. Bu metodlar talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va kreativ yechimlar topishga undaydi. Jumladan, “aqliy hujum”, “klaster”, “case study”, “rol o‘yinlari” kabi metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mikroo‘qitish texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Mikroo‘qitish jarayonida talaba kichik dars fragmentini o‘tkazadi, bu jarayon videotasvirga olinadi va keyinchalik tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali talabaning nutq madaniyati, darsni tashkil etish mahorati va pedagogik muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu esa real pedagogik faoliyatga yaqin tajriba yaratadi.

Refleksiv faoliyat ham pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy komponentlaridan biridir. Talaba o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish ustida ishlash orqali kasbiy o‘sishga erishadi. Refleksiya jarayoni mentor, o‘qituvchi yoki guruh a’zolari bilan muhokama shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy pedagogik kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Elektron ta’lim platformalari, onlayn resurslar, interaktiv dasturlar va sun’iy intellekt vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetentligini oshiradi. Bu esa ularni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashishiga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish texnologiyasi ham samarali usullardan biridir. Bu usul orqali real pedagogik jarayonlar sun’iy ravishda yaratiladi va talabalar turli pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Ushbu pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uzluksiz ta’lim, mustaqil o‘qish faoliyati, amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion texnologiyalar uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim tizimi talablariga mos mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oluvchi hamda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab kasbiy faoliyat egasi sifatida shakllanishi zarur.Tadqiqot jarayonida pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlar, mikroo‘qitish, refleksiv faoliyat, pedagogik modellashtirish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligi asoslandi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, uzluksiz ta’lim, mustaqil o‘qish faoliyati va tajriba almashish jarayonlari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim omil ekanligi aniqlandi. Bu omillar ularning pedagogik fikrlashini shakllantiradi, ijodiy yondashuvini rivojlantiradi va kasbiy mahoratini oshiradi.Umuman olganda, pedagogik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli va innovatsion texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim talablari darajasida tayyorlashga xizmat qiladi hamda ularning raqobatbardosh, malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akmal Yusufovich, A., & Zarnigor Farxodjon qizi, S. (2025). Bo‘lajak pedagoglarni kommunikativ kompetentligini rivojlantirish asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash masalalari.

2.Yo‘ldosheva, M. S. (2026). Konflikt vaziyatlarda pedagoglarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish usullari.

3.Narzullayeva, D. O., & Normurodova, M. A. (2025). Pedagogik muloqot va kommunikativ mahorat.

4.Atavullayeva, M. Q. (2023). Communicative competence as a factor of teacher’s professional competency.

5.Ro‘zimatova, M. X. (2026). Pedagogik muloqotning pedagog kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.

6.Jo‘rayeva, M. A. (2025). Pedagogik empatiya va kommunikativ kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligi.

O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professor v.b.
Suyarova Gulzoda Dustqobil qizi. *magistr*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniq, tezkor va obyektiv tashxis etish muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi. An’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha subyektiv yondashuvga asoslangan bo‘lib, Bugungi kunda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi tashxis jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli baholash tizimlari o‘quv jarayonini doimiy monitoring qilish, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z bilimini tahlil qiluvchi subyekt sifatida qarashni talab etadi. Shu bois, tashxis jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda pedagogik adabiyotlarda ta’limni raqamlashtirish jarayoni diagnostika tizimini tubdan o‘zgartirayotgani alohida ta’kidlanmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoni doimiy monitoring qilinadi va har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasi aniq kuzatiladi. Bu esa an’anaviy “yakuniy baholash” modelidan farqli ravishda, uzluksiz (formativ) baholash tizimini shakllantiradi.Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli tashxis vositalari o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, ularning o‘z-o‘zini baholash va refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jihat kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ham sezilarli darajada o‘zgartiradi. O‘qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini tahlil qiluvchi, boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa pedagogik jarayonda qaror qabul qilish sifatini oshiradi.Bundan tashqari, raqamli baholash tizimlari ta’limda adolat va shaffoflik tamoyillarini kuchaytiradi, chunki natijalar inson omilidan xoli ravishda avtomatik tarzda qayta ishlanadi. Bu esa subyektiv baholash ehtimolini kamaytiradi va diagnostika jarayonining ishonchliligini oshiradi .Shu bilan birga, tashxis jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va differensial ta’limni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Bu esa inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.Umuman olganda, mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim tizimida sifatli natijaga erishish uchun faqat o‘qitish metodlarini emas, balki tashxis va baholash tizimini ham innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish zarur.

METODOLOGIYA .Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi: nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va eksperimental yondashuv.

- Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi:
- Nazorat guruhi – an’anaviy baholash tizimi asosida;

- Tajriba guruhi – raqamli va interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashxis qilindi.

Eksperiment jarayonida Google Forms, Kahoot, Moodle LMS, Quizizz va adaptiv testlash platformalari qo‘llanildi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish va tezkor natija olish imkonini berdi.Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, raqamli baholash tizimlari pedagogik tashxisning aniqligini oshiradi va o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiradi .

NATIJALAR . Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tashxis jarayoni an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq hisoblanadi.

- Tajriba guruhida quyidagi natijalar qayd etildi:
- o‘quvchilarning faolligi 30–40% ga oshdi;
- baholash jarayonining aniqligi yuqori bo‘ldi;
- individual yondashuv kuchaydi;
- natijalarni tahlil qilish va qayta ishlash tezlashdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish an’anaviy baholash tizimiga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental guruhda olingan ma’lumotlar diagnostika jarayonining aniqligi, tezkorligi va individual yondashuv darajasi oshganini tasdiqladi.Eng muhim natijalardan biri shundaki, raqamli baholash vositalari (onlayn testlar, LMS platformalar, interaktiv viktorinalar) orqali o‘quvchilarning bilim darajasi real vaqt rejimida avtomatik tahlil qilindi. Bu esa o‘qituvchiga faqat yakuniy natijani emas, balki jarayon davomida o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ham kuzatish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy diagnostika vositalari o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z natijalarini tizim orqali ko‘rib borishi natijasida xatolarini mustaqil aniqlash va ularni tuzatish bo‘yicha ongli yondashuvni shakllantirdilar .Shuningdek, tajriba guruhida o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va faollik darajasi oshgani kuzatildi. Gamifikatsiya elementlari (ball to‘plash, reyting, tezkor natija olish) o‘quvchilarda raqobatbardoshlik hissini kuchaytirib, dars jarayoniga qiziqishni oshirdi. Bu esa ayniqsa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning ham faol ishtirokini ta’minladi.Yana bir muhim natija sifatida, adaptiv testlash tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasiga mos savollar berish orqali individual farqlarni hisobga olgan holda baholashni amalga oshirdi. Bu yondashuv o‘quvchilarning psixologik bosim ostida emas, balki qulay sharoitda bilimini namoyon etishiga imkon yaratdi .Shuningdek, adaptiv testlar o‘quvchilarning real bilim darajasini aniqroq ko‘rsatishi va differensial yondashuvni ta’minlashi aniqlandi.

TAHLIL. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tashxis jarayonini faqat texnik jihatdan emas, balki metodologik jihatdan ham takomillashtiradi.Raqamli baholash tizimlari o‘qituvchiga o‘quvchi faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan modelga yaqinlashtiradi.Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, interfaol va raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Shu bilan birga, pedagogik diagnostikada texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytiradi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi . Tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tashxis jarayoni nafaqat baholash vositasi, balki ta’lim jarayonini boshqarishning muhim didaktik mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv an’anaviy “yakuniy baholash” modelidan farqli ravishda, o‘quv jarayonini uzluksiz monitoring qilish va rivojlantiruvchi diagnostika tamoyiliga asoslanadi.Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, raqamli baholash tizimlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berib, o‘qituvchiga tezkor pedagogik qaror qabul qilish sharoitini aratadi. Shu nuqtai nazardan, tashxis jarayoni faqat natijani aniqlash emas, balki o‘quv

jarayoniga “feedback” (teskari aloqa) beruvchi mexanizmga aylanadi.Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilgan diagnostika jarayonida o‘quvchilarning metakognitiv faoliyati sezilarli darajada faollashadi. Ya’ni ular o‘z bilim darajasini baholash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish strategiyalarini ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ta’lim modelining shakllanishiga olib keladi .Bundan tashqari, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan tashxis jarayoni o‘quvchilarda raqobatbardoshlik va motivatsiyani kuchaytiradi. Masalan, gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, reyting, tezkor natija) o‘quvchilarning dars jarayoniga qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu holat ayniqsa boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida samarali natija beradi.Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy tashxis texnologiyalari inklyuziv ta’lim muhitini yaratish imkonini kengaytiradi. Adaptiv testlar har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashib, teng ta’lim sharoitini ta’minlaydi. Bu esa ta’limda adolat va differensial yondashuv tamoyillarini mustahkamlaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini tubdan takomillashtiruvchi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli va interfaol diagnostika vositalari an’anaviy baholash tizimiga nisbatan ancha obyektiv, tezkor va individual yondashuvni ta’minlaydi.Eng muhim xulosalardan biri shundaki, zamonaviy texnologiyalar tashxis jarayonini faqat “natijani aniqlash vositasi” sifatida emas, balki o‘quv jarayonini rivojlantiruvchi teskari aloqa (feedback) mexanizmi sifatida ham shakllantiradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z bilim darajasini doimiy tahlil qilib borishiga va o‘z-o‘zini rivojlantirishiga imkon yaratadi.Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli tashxis tizimlari o‘quvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi, ya’ni ular o‘z o‘quv jarayonini rejalashtirish, xatolarini aniqlash va mustaqil tuzatish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim modelining asosiy talablaridan biridir .Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchi faoliyatining mazmunini ham o‘zgartiradi. O‘qituvchi endi faqat baholovchi emas, balki diagnostik tahlilchi va ta’lim jarayonini boshqaruvchi moderator sifatida faoliyat yuritadi. Bu holat pedagogik jarayonda inson omili va texnologiya uyg‘unligini ta’minlaydi.Yana bir muhim xulosa shuki, adaptiv va gamifikatsiyalashgan baholash tizimlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning ta’lim jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlaydi. Bu esa ayniqsa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning ham rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar tashxis jarayonining aniqligini oshiradi;
- o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi;
- ta’lim jarayonini doimiy monitoring qilish imkonini beradi;
- o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini rivojlantiradi;
- o‘qituvchining pedagogik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu sababli, ta’lim muassasalarida zamonaviy raqamli baholash tizimlari, adaptiv testlash va interfaol diagnostika metodlarini keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2023.
2. Ishmuhammedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2023.

4. Yuldashev M.H. Pedagogik diagnostika va baholash texnologiyalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2024.
5. Xodjayev B.X. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
6. Saydahmedov N.S. Pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
7. Karimova D.A. Raqamli ta’lim muhitida baholash va tashxis metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA JADIDCHILIK HARAKATINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Begimqulov Zarif Axmadovch
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, (PhD), dotsent.
Email: zarifbegimqulov77@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun jadidlar merosini pedagogik texnologiyalar orqali tahlil qilish, tarixiy tajriba va ta’lim-tarbiyaviy qarashlarni darslarga integratsiya qilish, pedagogik merosdan foydalanish hamda jadidchilik harakatini o‘rgatishda yangicha yondashuvlar, interfaol usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidlar, ma’rifatparvarlik, modulli texnologiyalar, raqamli resurslar, videodars, raqamli darslik, innovatsiya.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasida: “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”, – deb alohida ta’kidlagan edi.

Jadidlar dastlab madaniy sohada faoliyat yuritib, xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy fan-texnikani o‘zlashtirish g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning asosiy maqsadi millatni taraqqiyot sari yetaklash, xalqni ma’rifatli qilish, turkiy tillarni rivojlantirish, adabiyot va dunyoviy fanlarni ommalashtirish, shuningdek, ayollar va erkaklar tengligini ta’minlash edi. Mazkur harakatning yetakchi namoyandalari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ziyolilar xalqni o‘qitish va tarbiyalash orqali jamiyatni yangilashga intildilar.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Jadidchilik namoyandalari yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Ular o‘zining ta’lim faoliyatida yosh avlodga zamonaviy ilm o‘rgatish, eski ta’lim tizimining noxush tomonlarini bartaraf etishni maqsad qilishdi.

Jadidlar harakati, nafaqat ta’limda, balki ijtimoiy hayotda ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Ular, ta’limni isloh qilish orqali, yoshlarni ilm-fan, madaniyat va siyosat sohalarida yangi qarashlarga olib chiqdilar. Bu jarayon, o‘sha davrning siyosiy tizimi, diniy tuzilmalari va ijtimoiy qatlamlarida keng tarqalgan an’anaviy qoidalar bilan kurashish va shu bilan birga, yangi ma’naviy, ilmiy va madaniy asoslarni yaratish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida muammolarni yuzaga keltirdi.

Metodologiya. Bugungi kunda ta’lim tizimi modernizasiya qilinayotgan bir sharoitda, ilmiy axborot hajmini kundan-kunga jadal su’ratlar bilan oshib borishi hozirgi jamiyatning asosiy xususiyati bo‘lib, bu holat ta’lim tizimida, xususan maktab va oliy ta’limda o‘quv dasturlarini tez-

tez yangilab turish, o‘quvchi va talabalarda mustaqil bilim olish va axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimiga innovatsion pedagogik, modulli texnologiyalar va zamonaviy ta’lim vositalarini (raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar) qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi va talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratishdek davrning dolzarb talabini qo‘ymoqda. Bu o‘z navbatida, ta’lim jarayonini oldindan loyihalashtira oladigan, zamonaviy texnologik bilimlar tizimiga ega, kreativ va pedagogik faoliyat natijalarini bashorat qila oladigan, ijodkor, AKT, raqamli vositalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanib, individual ta’lim muhitini yaratadigan, zamonaviy pedagog kadrlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish nafaqat tariximizni o‘rganish, balki o‘quvchi va talabalarda milliy g‘ururni shakllantirishda, ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihat o‘quv jarayonida yangilanishni ta’minlaydi, yosh avlodni tarbiyalashda muhim jihatlarni taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish, dars va mashg‘ulotlar jarayoniga interfaol metodlarni qo‘llash, mavzularni yangi manbalar bilan boyitish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqqot natijalari. Ta’lim muassasalarida jadidchilik harakatini o‘rgatish nafaqat tarixiy fakt, balki bugungi zamonaviy ta’lim tizimi uchun tarixiy tajriba sifatida o‘quvchi va talabalarda milliy uyg‘onish va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish samaradorligini oshirish jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interfaol metodlar, raqamli resurslar) bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Darsliklarga arxiv materiallari, tarbiyaviy ahamiyatga ega drama va publitsistik asarlarni kiritish orqali yoshlarda milliy g‘urur va mustaqil fikrlash shakllantiriladi.

Manbalarda uzluksiz ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar qayd etilgan:

- Innovatsion yondashuv: Jadidlar (I.Gasprinskiy, M.Behbudiy, A.Avloniy) pedagogik qarashlarini “usuli jadid” maktablari tajribasi asosida interfaol metodlar bilan o‘qitish.
- Integratsiyalashgan dasturlar: Tarix, adabiyot va tarbiya fanlarini jadidlar merosi orqali bog‘lab o‘rgatish, ularning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini amaliyotga tatbiq etish.
- Badiiy va publitsistik tahlil: Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud kabi jadidlar asarlarini shunchaki o‘qish emas, balki ularning g‘oyaviy-estetik mohiyatini chuqur tahlil qilish.
- Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar: O‘quvchi va talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini oshirishda jadidlar ma’rifatparvarligi asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni jadallashtirish.
- Pedagog kadrlar tayyorlash: Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida jadidlar pedagogikasi bo‘yicha maxsus kurslar va seminar-treninglar tashkil etish.

Tahlillar. Bugungi kunda audio formatlar juda tez ommalashayotgani bois, jadid adabiyotiga bag‘ishlangan maxsus podkastlar tashkil etish, unda mutaxassislar, adabiyotshunoslar, tarixchilar ishtirokida suhbatlar o‘tkazish, jadidlarning asarlari tahlili, tarixiy manbalarning sharhi, ularning ma’rifiy qarashlari haqida eshittirishlar tayyorlash manfaatlidir. Bu format nafaqat qulay, balki har qanday vaqtda — yo‘lda, uyda, mashg‘ulot paytida tinglash imkonini beradi. Audiokontent jadid merosini ko‘proq auditoriyaga, hatto kitob o‘qishga vaqt topa olmaydigan insonlarga ham yetkazish imkonini yaratadi.

Shuningdek, jadid adabiy merosini o‘rgatishda raqamli darsliklar yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday darsliklar interfaol matnlar, animatsiyalar, qo‘shimcha multimedia materiallari, videodarslar, izohli lug‘atlar, xaritalar va testlar bilan boyitiladi. Bu esa o‘quvchilarning materialni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Raqamli darsliklar orqali jadid adabiyotining murakkab tarixiy, ma’rifiy va g‘oyaviy qatlamlarini vizual vositalar

yordamida tushuntirish osonlashadi. Bundan tashqari, elektron darsliklar o‘qituvchi uchun darsni samarali tashkil qilish, o‘quvchilar uchun esa materialni istalgan joyda mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bu kabi raqamli yondashuvlar jadid merosini zamon talablari asosida targ‘ib qilishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, yosh avlodning milliy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Bugungi kunda jadidlar merosini raqamli darsliklar orqali o‘rgatish – yosh avlodga tarixiy xotira va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini innovatsion texnologiyalar (AI, VR, interaktiv kontent) yordamida yetkazishning samarali usuli hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar jadidlar ma’rifatparvarlik g‘oyalarini zamonaviy ta’limga integratsiya qilishda, resurslarga tezkor kirish va ma’lumotlarni tushunishni osonlashtiradi. Bu esa yosh avlodga jadidchilik g‘oyalarini innovatsion va jozibador shaklda yetkazish uchun g‘oyat muhimdir.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun o‘quv jarayoniga quyidagi yo‘nalishlarni joriy qilish lozim, deb hisoblaymiz:

- tegishli fan dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish;
- ta‘limning barcha bosqichlarida jadidchilik harakatini o‘qitish tizimini yaratish, uning ilmiy metodik ta‘minotini rivojlantirish;
- ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishda tegishli ta’lim turlari orasida uzviylikni ta’minlash;
- ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;
- talim tizimida elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va raqamli ta’lim muhitini yaratish orqali ta’lim mazmunini boyitish.

Xulosa. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimiz ta’lim tizimida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unligini ta’minlab, ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon ta’lim muassasalarida jadidchilik harakatini o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga modulli texnologiyalar va zamonaviy ta’lim vositalarini, fan va ishlab chiqarishning innovatsion klaster usullarini keng tatbiq etish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quvchi va talabalarda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, til, axloq-odob va madaniy merosni asrab-avaylash orqali vatanparvarlikni shakllantirish, o‘tmish tajribasidan saboq chiqarish, mustaqil fikrlash va milliy qadriyatlarga hurmatni yuksaltirib, global axborot makonida o‘z o‘rnini topa oladigan barkamol shaxsni voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitilishi nafaqat o‘quvchi va talabalarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash imkonini yaratadi, balki bugungi kun ma’naviy yuksalishining asosini tushunishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov N. Jadidlar merosini o‘rganish, anglash – ildizi baquvvat daraxtga aylanish imkonidir. https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir

2. Begimqulov Z. Ta’lim tizimida jadidchilik harakatini o‘qitishning dolzarb vazifalari. “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya to‘plami – Buxoro-2026, B. 111-115.

3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. T.: Universitet, 2006.

4. Narxodjayeva X., Jumanazarova A. Jadid adabiyotini raqamli platformalar orqali o‘qitishning innovatsion modellari. “Jadidlar adabiy merosini o‘rganish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami, Qarshi-2025, B.365-368.

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARI SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA TAYYORLASH JARAYONINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamajonov Baxramjon Bahodirjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi v.b.dotsenti
bahromjonmamajonov93@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishi talabalarini sog‘lom turmush tarziga tayyorlashning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari keng tahlil etilgan. Sog‘lom turmush tarzi shaxsning jismoniy, ma’naviy, aqliy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda pedagogika yo‘nalishidagi talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari, bu jarayonning mazmuni, metodlari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, talabalarning sog‘lom turmushga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ta’lim muhiti va o‘qituvchining shaxsiy namunasi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va tizimli yondashuv asosidagi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishning amaliy yo‘llari taklif etiladi. Natijada talabalarning sog‘lom hayotga nisbatan ongli munosabati, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va kasbiy yetuklik darajasi ortishi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, pedagogika yo‘nalishi, oliy ta’lim, talaba shaxsi, pedagogik mexanizm, innovatsion texnologiya, motivatsiya, kasbiy kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.*

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi — nafaqat bilimli, balki jismonan va ma’nan sog‘lom, barkamol, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish nafaqat sog‘liqni saqlash sohasi, balki pedagogik jarayonning ham ajralmas qismiga aylanmoqda.

Pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar — bu kelajakdagi tarbiyachilar, o‘qituvchilar, pedagoglar. Ularning shaxsiy hayotida sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, o‘z navbatida, o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Shu bois oliy ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini boshqaruvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyatga aylanmoqda.

1. Sog‘lom turmush tarzining pedagogik mohiyati

Sog‘lom turmush tarzi inson hayot faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi kompleks tushuncha bo‘lib, u jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, psixologik muvozanat, gigiyenik madaniyat, ekologik xabardorlik, zararli odatlardan holilik kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzi — bu shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik qadriyatdir.

Shaxsda sog‘lom turmushga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish, o‘z sog‘lig‘ini qadrlash, uni himoya qilish va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otish o‘qituvchining muhim pedagogik vazifasidir.

Oliy ta’limda sog‘lom turmush tarzi g‘oyasini ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish talabalarda:

- hayotiy pozitsiyani shakllantirish;
- stressni boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- sog‘lom psixologik muhitni yaratish;
- ijtimoiy faollikni oshirish kabi natijalarni beradi.

2. Talabalarda sog‘lom turmush tarziga tayyorlikning pedagogik asoslari

Pedagogika yo‘nalishidagi talabalarda sog‘lom turmush tarziga tayyorlik quyidagi komponentlar orqali shakllanadi: motivatsion, kognitiv, amaliy va ijtimoiy-kommunikativ

komponentlar. Bu komponentlar orqali talabalarda sog‘lom hayotga nisbatan ijobiy munosabat, amaliy ko‘nikma va ijtimoiy faollik rivojlanadi.

Pedagogika yo‘nalishidagi talabalarda sog‘lom turmush tarziga tayyorlik quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

1. **Motivatsion komponent** — talabaning sog‘lom turmushni o‘z hayotiy qadriyati sifatida qabul qilishi. Bu bosqichda o‘qituvchilar tomonidan sog‘lom hayotning ijobiy jihatlari, sog‘lom shaxsning ijtimoiy nufuzi, sog‘lom jism va ruh uyg‘unligi haqidagi ma’lumotlar targ‘ib qilinadi.
2. **Kognitiv komponent** — sog‘lom turmushning mazmuni, tamoyillari va psixofiziologik asoslari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish. Bu jarayonda maxsus kurslar, ma’ruzalar, seminarlar, treninglar tashkil etilishi lozim.
3. **Amaliy komponent** — talabalarning o‘z hayot faoliyatida sog‘lom odatlarni joriy etish ko‘nikmalarini shakllantirish. Masalan, sog‘lom ovqatlanish rejimi, muntazam jismoniy mashg‘ulotlar, sport musobaqalarida ishtirok, vaqtni to‘g‘ri boshqarish, salbiy odatlardan voz kechish.
4. **Ijtimoiy-kommunikativ komponent** — sog‘lom turmush qadriyatlarini boshqalar bilan baham ko‘ra olish, jamiyatda bu g‘oyani targ‘ib etish qobiliyati. Bu talabalarda liderlik, ijtimoiy faollik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

3. Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishning amaliy yo‘nalishlari

Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda takomillashtirilishi maqsadga muvofiq: ta’lim mazmunini boyitish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘qituvchi shaxsining namunasi va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda takomillashtirilishi maqsadga muvofiq:

a) Ta’lim mazmunini boyitish

O‘quv dasturlariga “Sog‘lom hayot falsafasi”, “Pedagogning psixologik barqarorligi”, “Stressni boshqarish madaniyati” kabi modullarni kiritish zarur. Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning sog‘lom odatlarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimini joriy etish lozim.

b) Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish

Sog‘lom turmush tarzini o‘rgatishda **klaster**, **“aql xaritasi”**, **“case-study”**, **“debat”**, **“portfolio”** kabi usullar orqali talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Bunday interfaol metodlar sog‘lom turmush g‘oyasini nazariy emas, balki amaliy qadriyat sifatida anglash imkonini beradi.

c) Ta’lim muhitida sog‘lom ijtimoiy psixologik muhit yaratish

Universitet miqyosida sog‘lom turmushni qo‘llab-quvvatlovchi klub, sport jamiyatlari, “Sog‘lom talaba” dasturlari tashkil etilishi talabalar o‘rtasida raqobatbardosh, ijobiy muhitni yaratadi.

d) O‘qituvchi shaxsining namunasi

O‘qituvchining sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, o‘z shaxsiy namunasi orqali talabalarni ruhlantirishi eng kuchli tarbiyaviy vositadir. Talaba o‘qituvchining xulq-atvori, nutqi, intizomi va hayotiy qarashlaridan o‘rnak oladi.

e) Monitoring va diagnostika tizimini joriy etish

Talabalarning sog‘lom turmush tarziga tayyorgarlik darajasini baholash uchun maxsus **diagnostik mezonlar** (motivatsion, kognitiv, amaliy va ijtimoiy) ishlab chiqish zarur. Bu jarayon o‘z navbatida pedagogik faoliyatni samarali boshqarish imkonini beradi.

4. Natijalar tahlili

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni integratsiya qilish talabalarda ijobiy motivatsiya uyg‘otadi. Innovatsion metodlar orqali o‘qitilgan talabalar o‘z

hayotida sog‘lom odatlarni tezroq shakllantiradi. Sog‘lom ijtimoiy muhitda tahsil olayotgan talabalarning stressga chidamliligi va kommunikativ faolligi oshadi.

Xulosa

Sog‘lom turmush tarzi talaba shaxsini jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatdan barkamol etib shakllantiruvchi, uning hayot sifati va kasbiy samaradorligini oshiruvchi pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismidir.

Pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun sog‘lom turmush tarziga tayyorlik nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki kasbiy majburiyatdir.

Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish orqali sog‘lom muhit yaratish, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, interfaol texnologiyalarni qo‘llash va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Shunday qilib, sog‘lom turmush tarziga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik yo‘nalishlaridan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-pedagogik xulosalarga kelish mumkin:

1. **Sog‘lom turmush tarzi** — bu talaba shaxsini jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatdan barkamol etib shakllantiruvchi, uning hayot sifati va kasbiy samaradorligini oshiruvchi pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismidir.
2. **Pedagogika yo‘nalishi talabalari** uchun sog‘lom turmush tarziga tayyorlik nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki kasbiy majburiyatdir. Chunki kelajak pedagog sog‘lom jamiyatni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi.
3. **Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish** — bu o‘qituvchi faoliyatining metodik, psixologik va tashkiliy jihatdan yangilanishini taqozo etadi. Bu jarayon o‘z ichiga sog‘lom muhit yaratish, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, interfaol texnologiyalarni qo‘llash va monitoring tizimini joriy etishni oladi.
4. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish samaradorligi **shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv**, **innovatsion metodlar**, **sog‘lom psixologik muhit** va **motivatsion rag‘batlantirish** kabi omillar uyg‘unligiga bog‘liq.
5. Oliy ta’lim muassasalari rahbariyati, o‘qituvchilari va talabalar o‘rtasida hamkorlik kuchaysa, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barqaror natija beradi.

Shunday qilib, pedagogika yo‘nalishi talabalarini sog‘lom turmush tarziga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish – bu zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonni tizimli amalga oshirish orqali biz sog‘lom, irodali, ma’naviy barkamol va kasbiy yetuk pedagoglarni tayyorlashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – sog‘lom va ma’naviy barkamol avlod mamlakati. — Toshkent, 2023.
3. Abdullayeva D. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari. — Toshkent: TDPU, 2021.
4. Xalikov R., Xolmurodov S. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. World Health Organization. Global strategy on diet, physical activity and health. — Geneva, 2019.
6. Jalolova N. Yoshlarning sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. — “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, №4, 2022.

PEDAGOGIK MULOQOTDA IJTIMOIY INTELLEKTNING O‘RNI VA UNING TARKIBIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Amrilloyeva Mavjuda A’lamjonovna
Samarqand davlat pedagogika instituti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijtimoiy intellekt tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, uning tarkibiy tuzilishi va rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy intellektning kognitiv, affektiv va xulq-atvoriy komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda yoritilib, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar asoslab beriladi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning interfaol va reflektiv mexanizmlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy intellekt, E.Torndayk, komponent, shaxsiy, kognitiv, affektiv, rivojlanish tarixi, omillar, XX asr boshlari.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy olimlar ijtimoiy intellektni kognitiv va affektiv sohalar, kommunikativ-shaxsiy salohiyat, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy faollik, kognitiv, emotsional va xulq-atvor mezonlari, shuningdek, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy xotira, ijtimoiy idrok va sezgirlik o‘zaro chambarchas bog'liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali psixologik tuzilma sifatida tan oladilar.

Ijtimoiy intellekt – bu o‘zaro aloqalar, g‘alaba qilish, tahlil qilish va bir-biriga fikrlarini o‘rgatish uchun insonlar o‘rtasidagi aqlli muvofiqlik va ma’rifatni anglatadi. Bu insonlar orasidagi ko‘p o‘rinda samarali munosabatlarni o‘rganish, rivojlanishi va o‘rgatishni talab qiladi. Ijtimoiy intellekt samaradorlik, shuningdek, insonlarni birbiridan xursand qilish, qo‘llab-quvvatlash va birlashtirish uchun muhimdir. Ijtimoiy intellekt, ya’ni insonlarni ijtimoiy mohiyatlar bilan muloqot qilish va ulardan foydalanish imkoniyatini ifodalovchi ma’no bo‘lib, birorta jamoada muomala qilish, mohiyatlar va ommaviy qoidalar bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishni bildiradi. Ijtimoiy intellekt insonlarga ularning jamiyatda qanday muomala qilishi, o‘zgarib kelishi va o‘z o‘rnini olishi haqida tushunchalarni beradi. Ijtimoiy intellektning rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi yagona hayotning muammolarini tushuntiradi va jamiyatdagi o‘zlarining o‘rnini o‘rganishlarini oshiradi. Bu esa insonlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘rganish va ulardan foydalanishga imkon beradi.

Intellekt so‘zi lotincha “intellects” so‘zidan olingan bo‘lib, bilish, tushunish, idrok qilish degan ma’nolarni anglatadi. Intellekt—insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qisho‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati. Intellektning tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash va boshqa psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug‘ma iste’dod, miyya imkoniyatlari, jo‘shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog‘liq. Intellektning saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi. Intellektga va qobiliyatga bevosita tashqi muhit va undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta’sir etadi.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi birinchi marta 1920-yilda E.Torndayk tomonidan fanga kiritilgan. U mazkur tushunchani “shaxslararo munosabatlarda ongli, o‘ylab, oqilona harakatlar bilan muloqotda bo‘lish” deb tushuntirgan. E.Torndayk ijtimoiy ongni odamlar bilan muloqotning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan o‘ziga xos kognitiv qobiliyat deb hisoblagan. Ijtimoiy aqlning asosiy vazifasi muloqot jarayonidagi xattiharakatlarni oldindan his eta olishdir. Ijtimoiy intellekt umumiy intellektning bir turi hisoblanadi. Ijtimoiy intellektning yuzaga kelishida umumiy intellektning barcha elementlari bevosita ishtirok etadi. Ijtimoiy intellekt tushunchasiga oid qarashlar tarixiy asosga ega bo‘lib, eng qadimgi yozma manbalardanoq bunga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi - “Avesto”da ijtimoiy intellektning mohiyatini ochib beruvchi qator ma’lumotlarga guvoh bo‘lish mumkin. Pedagog olima S.Nishonova o‘zining “Komil inson tarbiyasi” monografik asarida eng qadim zamonlardan boshlab insonni shakllantirishning mezoni sifatida: aqliy yetuklik—sog‘lom fikr, yuqori iste’dod,

salohiyat; ma’naviy-axloqiy yuksaklik; jismoniy yetuklik—badan tarbiyasi, dilbarlik tarbiyasi; nafosat tarbiyasiga ajdodlarimiz alohida ahamiyat qaratganligini ta’kidlab, “Avesto”da—inson mehnati tufayli barcha yomon hislat, yomonlik va yovuzliklardan qutulish mumkinligi asosiy g‘oya sifatida ilgari surilganligi aytib o‘tilgan.“Ijtimoiy intellekt” tushunchasi ilk bor amerikalik psixolog Edward Thorndike tomonidan XX asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilgan. U ijtimoiy intellektni insonning boshqalarni tushunish va ular bilan oqilona munosabat o‘rnatish qobiliyati sifatida ta’riflagan. Keyinchalik Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p qirrali intellekt nazariyasida ijtimoiy intellekt ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqilgan:

- ✓ interpersonallik (boshqalarni tushunish),
- ✓ intrapersonallik (o‘zini anglash).

Ijtimoiy intellekt — bu shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishi, insonlararo munosabatlarni tushunishi va boshqarishi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar majmuasidir.

Ijtimoiy intellektning tarkibiy-funksional xususiyatlari tahlili bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy intellekti bir-biri bilan bog'liq bo‘lgan quyidagi tarkibiy qismlarni (komponentlarni) o‘z ichiga oladi: **kognitiv, shaxsiy, affektiv va xulq-atvor.**

Kognitiv komponent — bo‘lajak o‘qituvchi ijtimoiy intellektining o‘zagidir. U talabaning o‘zi, o‘zining “Men”i, jamiyat va kasbiy muhitdagi xulq-atvor, muloqot va o‘zaro ta'sir me'yorlari va qoidalari haqidagi bilimlarini, shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasini o‘z ichiga oladi. Kognitiv komponent idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur bilan chambarchas bog'liq bo‘lib, ular orqali talaba boshqa odamlar bilan muloqot va o‘zaro ta'sirning individual tajribasini to‘playdi, o‘zaro aloqaning ijtimoiy texnikalarini o‘zlashtiradi. U insonni shaxsiy xohish va ehtiyojlariga, emotsiya va his-tuyg'ulariga, xulq-atvori va faoliyatiga, ijtimoiy va kasbiy sohadagi muloqot qoidalariga yo‘naltiradi; shu bilan birga, o‘z “Men”ining to‘liq manzarasini yaratadi va o‘zini, o‘z harakatlarini, xulq-atvorini hamda faoliyatini tanqidiy baholashni ta'minlaydi.

Shaxsiy komponent bo‘lajak o‘qituvchining muloqotda va ijtimoiy o‘zaro ta'sirda, xususan, ta'lim jarayoni sub'ektlari bilan munosabatda namoyon bo‘ladigan individual-shaxsiy xususiyatlarini nazarda tutadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘zini xayolan boshqaning o‘rniga qo‘ya olish qobiliyati, hamdardlik (empatiya), refleksiv, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari. Shaxsiy komponent asosida bo‘lajak o‘qituvchining notuqlik san'ati, ochiqlik va psixologik kontaktga kirishuvchanlik kabi integral kommunikativ xususiyatlari shakllanadi.

Affektiv komponent boshqa odamlar bilan muloqot jarayonini pedagog xodim uchun ko‘proq yoki kamroq jozibali qiladigan emotsiya va his-tuyg'ular qorishmasini ifodalaydi. Affektiv komponent insonning muloqot jarayoni mohiyatiga hissiy kirib borishi bilan bog'liq. Hissiy bilishning asosida birlamchi bilish jarayonlari — sezgi va idrok yotadi.

Xulq-atvor komponenti pedagogik muloqot va o‘zaro ta'sir jarayonidagi xulq-atvor reaktsiyalari majmuasidan, shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvidan, muloqot jarayonidagi moslanuvchanlikdan (egiluvchanlikdan) va impulsivlikni nazorat qilishdan tashkil topadi

Ijtimoiy intellektning rivojlanishi

Ijtimoiy intellekt tabiiy ravishda rivojlanadi, biroq quyidagi omillar uni kuchaytiradi:

- ✓ ijtimoiy faoliyat (jamoa bilan ishlash);
- ✓ muloqot madaniyatini o‘rganish;
- ✓ empatiya mashqlari;
- ✓ nizoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- ✓ ta’lim-tarbiya jarayonida rolli o‘yinlar;
- ✓ tarixiy-ma’rifiy meros bilan tanishish.

Ijtimoiy intellektning rivojlanish tarixi. Ijtimoiy intellekt tushunchasi rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan o‘tgan:

1. Boshlang‘ich davr (XX asr boshlarida). Bu davrda ijtimoiy intellekt alohida tushuncha sifatida ajratib ko‘rsatildi (Thorndike ishlari).

1. Psixometrik yondashuv davri. Joy Paul Guilford ijtimoiy intellektni umumiy intellekt tarkibiy qismi sifatida o‘rgandi va uning o‘lchov usullarini ishlab chiqdi.

1. Ko‘p intellekt nazariyasi davri. Gardner ijtimoiy intellektni mustaqil intellekt turi sifatida rivojlantirdi.

1. Zamonaviy yondashuvlar

Hozirgi davrda ijtimoiy intellekt:

- ✓ emosional intellekt bilan bog‘liq holda o‘rganiladi
- ✓ ta’lim tizimida muhim kompetensiya sifatida qaraladi
- ✓ liderlik va kasbiy muvaffaqiyat omili sifatida tadqiq etiladi

Bu yo‘nalishda Daniel Golemanning ishlari ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, u ijtimoiy va emosional ko‘nikmalarni bir butun tizim sifatida izohlagan.

Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ekt-sub’ekt munosabatlariga asoslanadi, bu esa o‘qituvchidan nafaqat akademik bilimlarni, balki yuksak darajadagi ijtimoiy moslashuvchanlikni talab etadi. Bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy intellekti ularning kasbiy mahorati va kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lib, muloqot jarayonida axborot almashishdan tashqari, o‘quvchilarning hissiy holatini tushunish va ta’lim muhitini boshqarish imkonini beradi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida ijtimoiy intellektning tarkibiy tuzilishi pedagogik muloqot kontekstida o‘rganildi. O‘qituvchi faoliyatida ushbu fenomen shunchaki “odamlar bilan til topishish” emas, balki kognitiv tahlil, affektiv yaqinlik va xulq-atvoriy moslashuvchanlikning murakkab sintezidir. Ijtimoiy intellektning har bir komponenti o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi “psixologik ko‘prik”ni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagogik muloqotda ijtimoiy intellektning o‘rni va uning tarkibiy-funksional xususiyatlarini tizimli ravishda quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Pedagogik muloqotda ijtimoiy intellektning tarkibiy-funksional tavsifi

Komponent nomi	Tarkibiy elementlari	Pedagogik muloqotdagi funksiyasi	Amaliy namoyon bo‘lishi
Kognitiv	Ijtimoiy bilimlar, ijtimoiy xotira, ijtimoiy idrok, pedagogik kuzatuvchanlik.	O‘quvchi shaxsini va muloqot vaziyatini to‘g‘ri anglash.	O‘quvchilarning yuz ifodasi, imo-ishoralari va so‘zlaridan ularning ruhiy holatini aniq o‘qiy olish.
Affektiv	Empatiya, emotsional barqarorlik, liriklik, o‘zaro yaqinlikni his qilish.	Muloqotda ijobiy emotsional muhit yaratish va hissiy aloqa o‘rnatish.	O‘quvchining ichki kechinmalariga hamdard bo‘lish, dars jarayonida samimiy va ishonchli muhitni ta’minlash.
Xulq-atvoriy	Kommunikativ ko‘nikmalar, moslashuvchanlik, nizo boshqaruvi, yetakchilik.	Muloqot jarayonini boshqarish va xatti-harakatlarni vaziyatga qarab o‘zgartirish.	Murakkab pedagogik vaziyatlarda (masalan, nizolarda) vazminlikni saqlash va konstruktiv yechim topish.
Refleksiv	O‘z-o‘zini anglash, o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar, “Men”konsepsiyasi.	Pedagogning o‘z muloqot uslubini tahlil qilishi va xatolarini tuzatishi.	Darsdan so‘ng o‘zining nutqi, o‘quvchilar bilan munosabati va ta’sir

			kuchini xolisona baholash.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak pedagogning ijtimoiy intellekti shunchaki muloqot qilish qobiliyati emas, balki kognitiv tahlil, hissiy yaqinlik va xulq-atvorni boshqarishning yaxlit tizimidir. Ayniqsa, kognitiv komponent pedagogik muloqotning asosi bo‘lib, o‘qituvchiga ta’lim oluvchilarning ichki dunyosini 'modellashtirish' imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy intellekt shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, insonlar bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatishi va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qila olishini ta’minlovchi muhim psixologik omildir. U nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy intellektning mohiyati va tuzilishini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligiga asoslanadi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi shaxsning empatiya, kommunikativlik va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshiradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Najmiddinova S.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy inyellektni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. — T.: “Istiqlol”, 2003.
3. Thorndike E.L. Intelligence and its uses. Harper's Magazine, 1920.
4. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books, 2006.
5. Goleman D. Social Intelligence: The New Science of Human Relationships. Bantam, 2006.

AXLOQIY ME’YORIY XULQ - ATVORNING SHAKLLANISHIGA TA’LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
KDPI Pedagogika fakulteti, PhD.
Rahmonova Zohira Shavkat qizi, *3-kurs talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonining axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirishdagi o‘rni va ta’siri tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida beriladigan bilimlar, qoidalar va talablar orqali shaxsning axloqiy ongi va xulq-atvor me’yorlari qanday rivojlanishini yoritadi. Maqolada ta’limning nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy funksiyasi ham asosiy omil sifatida qaraladi. O‘quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning axloqiy me’yorlarni singdirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, o‘qituvchi shaxsining namuna sifatidagi roli va jamoaviy munosabatlarning axloqiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiyani kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, axloqiy-meyoriy xulq-atvor, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy tarbiya modeli, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, qadriyatlar, uzluksiz ma’naviy tarbiya, axloqiy ong, xulq-atvor me’yorlari.*

Bugungi globallashuv va axborot makonining jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va xulq-atvor me’yorlariga turli xil tahdidlar orth bormoqda. Aynan shu omillar ta’lim jarayonida axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi[1]da inson kapitalini rivojlantirish va sifatli ta’limni ta’minlash muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori[2]da esa barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-

[1] 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

[2] 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori

axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori [1]bilan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi tasdiqlangan bo‘lib, unda yoshlarni mustaqil hayotga keng dunyoqarashli, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadi qo‘yilgan. Eng muhimi, 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori[2]da “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi” tasdiqlandi hamda barcha ta’lim tashkilotlarida yagona milliy tarbiyaning yaxlit tizimi yaratilishi belgilandi. Mazkur qarorlar ta’lim jarayonining nafaqat bilim berish, balki axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirishdagi beqiyos rolini tasdiqlaydi va mazkur mavzuning ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki imsonning ichki dunyosini tartibga soluvchi va unda axloqiy-me’yoriy xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy psixologik maydondir. Ushbu jarayonning psixologik ta’sirini quyidagi muhim jihatlarda ko‘rish mumkin:

Ijtimoiy modellashtirish (Namuna olish):

Psixologik nuqtai nazardan, o‘quvchi uchun o‘qituvchi — axloqiy me’yorlarning tirik namunasidir. Nazariyalarga ko‘ra, bolalar ko‘rsatmalardan ko‘ra ko‘proq kuzatilgan xulq-atvorni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchining adolati, mas’uliyati va muloqot madaniyati o‘quvchida “qanday bo‘lish kerak” degan ichki modelni yaratadi.

Qadriyatlarning ichki qabul qilinishi (Interiorizatsiya):

Ta’lim jarayonida tashqi intizomiy talablar (masalan, darsga kechikmaslik, rostgo‘ylik) vaqt o‘tishi bilan o‘quvchining ichki ishonchiga aylanadi. Bu psixologik “interiorizatsiya” jarayoni bo‘lib, unda bola me’yorlarni shunchaki qo‘rqinchdan emas, balki o‘zining shaxsiy tamoyili sifatida bajara boshlaydi.

Jamoaviy ta’sir va ijtimoiy nazorat:

Maktab yoki universitet muhiti — bu kichik jamiyat. Bu yerda o‘quvchi tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lib, "nima mumkin-u, nima mumkin emas" degan chegaralarni o‘rganadi. Jamoaning ijobiy fikri yoki tanbehi shaxsda axloqiy immunitetni shakllantiradi.

Empatiya va hissiylikni rivojlantirish:

Adabiyot, tarix va gumanitar fanlar orqali o‘quvchi turli personajlarning holatiga kiradi. Bu uning psixikasida empatiya (boshqalarni tushunish) hissini uyg‘otadi. Empatiya esa har qanday axloqiy xulq-atvorning poydevoridir — boshqaga ozor bermaslik aynan shu his orqali nazorat qilinadi.

O‘z-o‘zini anglash va baholash:

Ta’lim jarayonida beriladigan baholar va fikr-mulohazalar o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashiga ta’sir qiladi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan psixologik muhitda bola o‘zining ijobiy xulqi orqali hurmat qozonishini tushunib yetadi va bu xulqni mustahkamlaydi. Ta’lim jarayoni axloqiy me’yorlarni shunchaki “qoida” sifatida emas, balki insonning hayotiy ehtiyojiga aylantiruvchi kuchli psixologik vositadir.

Bolalarda axloqiy-me’yoriy xulq-atvorning shakllantirishga ta’lim jarayonining psixologik ta’siri va o’rni yanada o’shirish uchun ko’plab tavsiya va usullar ishlab chiqilgan. Bunday usul va tavsiyalar bolalarning axloqiy-me’yoriy xulq-atvorning shakllanishida o’zining ijobiy tasirini ko’rsatadi. Quyida ishlab chiqilgan usullardan bir necjtsini ko’rib chiqamiz:

Shaxsiy namuna (Modeling): O'qituvchining roli: O'quvchilar o'qituvchini hayotiy namuna sifatida qabul qiladi. O'qituvchining o'z me'yorlariga sadoqatli bo'lishi, axloqiy tutqini, o'z so'ziga va'da berishi talabalar uchun kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik: Vygotskiyning ZPD (Yaqin rivojlanish zonasi): Axloqiy xulq-atvor jamoa bilan o'rganiladi. Kichik guruhlarda vazifalar bajarish o'zaro yordam va

[1] 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori

[2] 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori

mas'uliyatni rivojlantiradi. Amaliy tavsiya: “Maslahat kengashi” usuli - o'quvchilar o'zlarining axloqiy muammolarini guruhdagi hamkasblari bilan muhokama qiladi.

Emotsional intellektni rivojlantirish: Boshqalarning kayfiyatini anglash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish axloqiy xulq-atvorning poydevoridir. Amaliy tavsiya: “Rolli o'yinlar” va “vaziyatli tahlil” - o'quvchilar boshqalar holatiga qo'yiladi va ularning his-tuyg'ularini tushunadi.

Ichki motivatsiyani shakllantirish: Avtonomiya, kompetentlik va bog'liqlik ehtiyojlari qondirilganda, ichki axloqiy motivatsiya shakllanadi. Amaliy tavsiya: O'quvchilarga tanlash huquqi bering (masalan, “Qaysi loyiha ustida ishlaysiz?”), ularning fikrini tinglang.

Tasdiqlash va qayta tiklash: Axloqiy xatti-harakatlar uchun darhol va aniq tasdiqlash xulq-atvorni mustahkamlaydi. Amaliy tavsiya: “Bugun sen Sinovga yordam berding, bu juda mehribonlik” - konkret xulq-atvorni maqtang, shaxsni emas.

Axloqiy muhit yaratish: Guruh madaniyati: Hurmat, xavfsizlik va ishonch muhitida axloqiy qadriyatlar osonroq singdiriladi. Amaliy tavsiya: “Bizning qoidalarimiz” - o'quvchilar o'zlari qoidalarni ishlab chiqishadi va ularga rioya qilishadi.

Refleksiya va o'z-o'zini tahlil: O'z xatti-harakatlarini tahlil qilish axloqiy o'sishga olib keladi. Amaliy tavsiya: “Kundalik axloqiy daftarcha” - o'quvchilar kunning axloqiy voqealarini yozib, o'zlarini baholaydi.

Ta'lim jarayonida axloqiy-me'yoriy xulq-atvorni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, uning psixologik ta’siri shaxsning butun hayotiga uzluksiz ta'sir ko‘rsatadi. O'qituvchi shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga axloqiy me'yorlarni amaliy ko‘rinishda namoyish etishi, shuningdek, o'z so'ziga sadoqat, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlarni kundalik o'zaro munosabatlarda namoyon etishi zarurdir. Yosh xususiyatlariga moslashgan yondashuv, har bir yosh davrida tegishli psixologik usullarni qo'llashni taqozo etadi. Ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik muhiti orqali o'quvchilar bir-biridan axloqiy tajriba olib, o'zaro yordam va mas'uliyat hissi shakllanadi. Emotsional intellektni, xususan, empatiya va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy qarorlar qabul qilishda psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ijobiy tasdiqlash va qayta tiklash mexanizmlari orqali axloqiy xatti-harakatlar mustahkamlanib, takroriy amaliyotga aylanadi. Axloqiy muhit yaratish, sinf ichida hurmat, ishonch va xavfsizlik muhitini ta'minlash esa axloqiy qadriyatlarning singishiga zamin yaratadi. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish jarayonlari o'quvchilarning axloqiy o'sishini ichki nazoratga olib keladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonining psixologik ta’sirini oshirish kompleks yondashuvni, ya'ni kognitiv, emotsional va xatti-harakatiy komponentlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi va natijada barqaror axloqiy shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi.
2. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
3. 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori.
4. 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori.
5. Kolberg, L. (1984). Axloqiy rivojlanish psixologiyasi: Axloqiy bosqichlarning tabiati va haqqoniyligi. San-Fransisko: Harper & Row.
6. Bandura, A. (1977). Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi. Nyu-York: Prentice Hall.
7. Deci, E. L., va Ryan, R. M. (2000). "Maqsadlarning 'nima' va 'nimaga' jihatlari: Inson ehtiyojlari va xulq-atvorning o‘zini aniqlashi." Psixologik tadqiqotlar , 11(4), 227-268.
8. Vigotskiy, L. S. (1978). Jamiyatdagi ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Kembrij, Massachusets: Garvard universiteti nashriyoti.
9. Goulman, D. (1995). Emotsional intellekt: Nima uchun u IQ dan muhimroq. Nyu-York: Bantam Books.
10. LEX.UZ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

XORAZM JADIDLARINING PEDAGOGIK MEROSI ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARNING MA’NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Bekchanova Ozoda Otajonovna
UrDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Markur maqolada jadidlarning ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati, o‘qitish tizimi, asarlari, shu davrning dolzarb masalalari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy ma’naviy o‘zgarishlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim -tarbiya, ilm, ma’rifat, kitob, jadid, yurt, vatan.*

Har bir tasavvur va tushuncha ayni vaqtda voqelik hodisalarning u yoki bu jihatlarini aks ettiradi, binobarin, inson ular orqali olamni biladi, so‘ngra ularni boshqa kishilarga yetkazmoq uchun til shakllariga kiritadi. Shubha yo‘qki, atrofimizni tabiat hodisalari, predmetlari, inson tomonidan yaratilgan jism va buyumlar qurshab olgan. Bu olam o‘zining nihoyatda xilma-xil shakllari, ranglari, jarayonlari, makoni munosabatlari bilan inson hissiyotiga ta’sir etib turadi, sezgilarida aks etadi. Moddiy olamning alohida olingan ushbu narsalari, ularning o‘zaro munosabatlari inson ongi tomonidan bilib olishga da’vat etiladi, tafakkurimizda so‘z va til hodisalarini yuzaga keltiradi. Yana shunday olam ham mavjudki, bu inson ruhi, insonning ma’naviy olami, tarixning katta yutug‘i sifatida olib qaraladigan insoniyatning ma’naviy hayotidir. **Shu o‘rinda ma’naviyat tushunchasi ta’rif berib o‘tsak.** {Pedagogika ensiklopediyasida} **Ma’naviyat(arabcha-axloqiy,holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar, insoniyatning, diniy, axloqiy va boshqa tasavvurlar, tushunchalar majmui).** Ma’naviyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi bo‘lib, uning alohida sohasini tashkil etish bilan birga moddiy hayot singari obyektiv reallikka ham egadir.

Inson shaxsining asosiy dunyoqarashining shakllanishi yosh maktab davriga to‘g‘ri kelib, ular axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy muhit va atrofidagi asosida qarashlar paydo bo‘la boshlaydi. Shu sababli yosh avlod tarbiyalovchi ustoz bu kabi tushunchalarni o‘zida jamlagan bo‘lishi lozim. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari o‘zida nafaqat kasbiy bilim ko‘nikmalarni, undan tashqari ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni jamlagan bo‘lishi lozim.

Tatqiqot davomida yurtimizda yetishib chiqqan jadidlar faoliyati va asarlaridan foydalanib talabalarda ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirish kengayib borayotgan axborot makonida g‘oya va qarashlarni ongli ravishda saralash imkonini beradi.

Jadidshunos olim Begali Qosimov tomonidan “jadidchilik” atamasiga “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari serqirra so‘zdir deb ta’riflaganlar.

Jadidchilik harakatini adolat nuqtai-nazaridan xolisona o‘rganish ishi 1985-yildan keyin yo‘lga qo‘yildi. Jadidchilikning vujudga kelishidagi obyektiv shart-sharoitlari, bu harakatning ijtimoiy-siyosiy mohiyati yirik adabiyotshunos olimlar B.Qosimov, Sh Turdiyeva, S.Qosimov hamda pedagog olimlardan J.Yo‘ldoshev, va S.Hasanov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Olimlarning fikriga qaraganda bu harakat dastlab ma’rifiy xarakterdagi vujudga kelganligini alohida ta’kidlash lozim. 1908-yil 20-martda chop etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi” jadidchilik harakati to‘g‘risida shunday yozadi. “Usuli jadid nadur?” “Usuli jadid” yangi usul demakdir. Yangi usul deganda, usuli e’tiqod va ibodatda yangilik degani emas, balki so‘nggi zamonlarda xalqning faqirligi sababli bir ahvolda kelib qolgan maktab va madrasalarimizning kerak idorasi va kerak ta’lim tadris kayfiyatlarini isloh etishdan iboratdir.

Jadidchilik harakatini vujudga kelishi Ismoilbek Gaspirinskiy nomi bilan bog‘lash darkor. Rossiya musulmonlari dunyosidagi bu ijtimoiy ma’naviy harakatda Ismoil Gaspirinskiy xizmati beqiyosdir. U musulmonlar orasida yangi hodisa bo‘lgan “usuli jadid”ga asos soldi. “Tarjimon” ro‘znomasi chop etish bilan turkiy tildagi matbuotchilikni boshlab berdi. “Usuli jadid”ning

dovrug'i tez orada Rossiyaning musulmon o'lkalariga Turkiston, Xiva va Buxoroga xonliklariga keng tarqaldi. Jadidchilik harakati dastlab maktab-maorifdan boshlanib, keyinchalik u matbuotga, teatrga va asta-sekinlik bilan siyosat sohalarga ham tadbiq etila boshlandi. XIX asr oxirlarida boshqa hududlarda bo'lgani kabi Xiva xonligida dastlabki ta'lim sohasidagi jadidchilik harakati boshlandi. **Xorazm jadidlarini faoliyatini Feruzxon, Asfandiyorxon va bosh vazir Islomxo'ja, Mamat Mahramlarning tashabbuslari va mablag'lari asosida tashkil etilgan va qisqa paytda o'z natijasini bergan jadid maktablari jamiyatdagi jarayonlarning taraqqiy qilishiga harakatlanuvchi kuchga aylangan**

Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold tomonidan "buyuk ma'rifatparvar" deb ta'rif berilgan Muhammad Rahimxon Feruz madaniy sohada, adabiy sohada ham o'zining yuksak ma'naviyat egasi ekanligini namoyon qilgan. Uning 47-yillik hukmronlik davrida mamlakat juda tinch hayot kechirgan. Xorazm hukmdorligida ichida eng sahovatli va muruvvatlisi edi. Tarixning har bir davri o'zining silsilasiga va kechirmalariga egadir. Davrlar osha o'zaro mushtaraklik saqlanib qolgan bo'lsa ham, har bir davrning ajratilib turadigan , boshqa davrlardan farqli, ajralib turadigan qaytarilmas jihatlari bo'ladi. Aynan Xorazmda Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) hukmronlik davrida ma'rifat takomillashib, uzluksiz odat-an'analarni, milliy qadriyatlarni hurmat qiluvchi hukmron sifatida maydonga chiqdi. Bu haqida Bayonniyning "Mav'izatnoma" asarida keltirib o'tilgan. Ustozi Ogahiy shogirdi Feruz hukmron bo'lganini qutlab unga bag'ishlab qasida bitadi. Unda xalqni ma'rifat orqali boshqarish lozimligi, undan oldin boshqargan hukmdorlarning yutuqlari va xatolari, saltanatni boshqarish yo'lida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar, davlatni adolat bilan boshqarish lozimligi haqida pand-nasihatlarga izchil amal qilishga da'vat etadi.

U ilm-ma'rifatni qo'llab quvvatlaganligi sababli o'sha davrda juda ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqan. Adibning asarlarini o'rganar ekanmiz adibni musiqashunois, bastakor, musiqa sirlarini yaxshi biladigan olimdir. Muhammad Rahimxon Feruz o'z davrining nihoyatda qeshqadam ziyolisi bo'lib Xorazm maqomlarini asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish maqsadida Komil Xorazmiy va uning o'g'li bilan birga katta ishlarni amalga oshiradi. Feruz musiqa sohasida ta'lim olgan san'atkorlarga shahodatnomasi aynan o'zi kelib topshirgan. Feruz devonxonasida faoliyat yuritgan tarixnafis Muhammad Yusufbek Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy" salnomasida yozishicha: "Xon hazratlari haftada ikki kun juma va dushanba oqshomlarida ulamolar bilan suhbat qilub, kitobxonlik aturar edilar". Adib kitobxonlik qilish davomida olimlar fikrlarini tinglar, kitobdagi ma'lumotlardan xabardor bo'lar, fikr almashar, ijodiy ahlidan ma'naviy ozuqa olar edilar.

Xorazm vohasida bunday ma'rifatni qo'llab-quvvatlagan hukmdor avlodlari sifatida biz ham unga munosib avlod sifatida zamonamiz ilmlarini o'rganishimiz lozim. Yangi O'zbekitonni 3-Rennesansni barpo qilishda ta'lim tizimida tub islohatlar qilib dunyo malakatlariga namuna bo'lishimiz darkor. Bu faqat so'zda emas amalda qo'llash va harakatni hozirdan boshlash lozim. Shuni unutmaslik lozim zamon o'zgarar, yurt o'rgarar ammo barcha zamonlarda ham ilmli olish, bilimli bo'lish qadrlanaveradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "We will build our great future together with our brave and noble people." — Tashkent, 2017. - 189.
2. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. — Tashkent: Ga'fur G'ulom, 1994. - 104 p.
3. Dalimov U. Pedagogy of National Awakening. — Tashkent: NOSHIR, 2012.
- 384 pp.
4. Ro'zimova F. The Spiritual and Educational Jadidist Movements of the "Young Khiva" in the Late 19th–Early 20th Century. — Urganch, 2017. - 128 p.

JISMONIY MASHQLAR YORDAMIDA VEGETATIV ASAB TIZIMINI MUVOZANATLASHTIRISH METODIKASI

Bekzodova Soliha Bekzodovna
Samarqand davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jismoniy mashqlar yordamida vegetativ asab tizimi (simpatik va parasimpatik bolimlar) faoliyatini muvozanatlashtirishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan. Maqolada harakat faoliyatining yurak-qon tomir tizimi,nafas olish va psixoemotsional holatga ta`siri tahlil qilinadi.Vegetativ (avtonom)asab tizimi inson tanasidagi ichki organlar, qon tomirlar va bezlarning faoliyatini (nafas olish,ovqat hazm qilish, qon aylanish) avtomatik tarzda,irodadan tashqari boshqaradi. U simpatik (faollashtiruvchi) va parasimpatik(tinchlantiruvchi) qismlarga bo`linib organizmning gomeostazini ta`minlaydi va tashqi muhit o`zgarishlariga moslashishni (stress yoki dam olish holati) tartibga soladi.Maqola natijalari sog`lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so`zlar:*** *vegetativ asab tizimi,simpatik va parasimpatik tizim, jismoniy mashqlar, ichki funksional holat, sog`lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, metodika .*

Hozirgi zamon jamiyatida o`quvchilar va yoshlar orasida jismoniy faollikning kamayishi, harakatsiz turmush tarzi, ruhiy zo`riqish va stress holatlarining ko`payishi vegetativ asab tizimini organizmning ichki muhitini boshqaruvchi muhim tizim bo`lib,yurak-qon tomir, nafas olish,moddalar almashinuvi va psixoemotsional holatni muvofiqlashtiradi.Ushbu tizim inson ichki organizmini, faoliyatining muvozanatini,salomatligining muhim ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi.Mazkur maqolaning maqsadi-jismoniy mashqlar yordamida vegetativ asab asab tizimini muvozanatlashtirishning nazariy va metodik asoslarini yoritish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vegetativ asab tizimining nazariy asoslari

Vegetativ asab tizimi inson organizmining ixtiyorsiz boshqariladigan funksiyalarini nazorat qiluvchi tizim bo`lib, u simpatik va parasimpatik bo`limlardan iborat bo`ladi.Simpatik bo`lim organizmni faoliyatga tayyorlaydi, yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimni oshiradi va energiya sarfini kuchaytiradi. Parasimpatik bo`lim esa dam olish,tiklanish va energiya zaxirasini to`plash jarayonlarini boshqaradi.Ushbu ikki bo`lim o`rtasidagi muvozanat organizmning funksional holatini belgilaydi. Vegetativ muvozanatning buzilishi tez charchash, diqqatning pasayishi, uyqusizlik, yurak urishining beqarorligi kabi salbiy holatlarga olib keladi. Hozirda ayniqsa, o`quvchilar orasida vegetativ disbalans holatlari ko`p uchramoqda. Anatomik o`ziga xosligi: Somatik asab tizimidan farqli o`laroq, vegetativ nervlar markaziy qismdan chiqib, periferiyadagi gangliylarda (vegetativ tugunlarda) to`xtaydi va keyin ishchi a`zolarga tarqaladi. Bu tizimning asosiy vazifasi gomeostazni saqlash va metabolizmni boshqarishdir.

Jismoniy mashqlarning asab tizimiga ta`siri

Jismoniy mashqlar bajarilishi jarayonida organizmda murakkab neyrofiziologik o`zgarishlar yuz beradi. Jismoniy harakat faoliyati yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini faollashtirib, vegetativ reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Mashqlar intensivligi va davomiyligiga qarab simpatik va parasimpatik ta`sir ustunlik qiladi. O`rtacha intensivlikdagi mashqlar parasimpatik tizim faolligini kuchaytirib, organizmni tinchlantiradi va tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Nafas mashqlari, cho`zilish va ritmik mashqlar vegetativ muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqori intensivlikdagi mashqlar esa simpatik tizimni faollashtiradi, biroq ular to`g`ri dozalanmasa, vegetativ zo`riqishga olib kelishi mumkin. Jismoniy mashqlar psixoemotsional holatga ijobiy ta`sir ko`rsatib, stress gormonlari miqdorini kamaytiradi va umumiy funksional holatni yaxshilaydi. Bu esa vegetativ asab tizimi faoliyatining barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Vegetativ asab tizimini muvozanatlash metodikasi

Vegetativ asab tizimini muvozanatlashtirish metodikasi quyidagicha tamoyillarga asoslanadi:bosqichma-bosqichlik, individuallashtirish, yuklamaning me`yoriyligi va mashqlar xilma-xilligi kabilar kiradi.

Mashg`ulotlar quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1.Kirish bosqichi-yengil harakatlar va nafas mashqlari orqali organizmni tayyorlash.

2.Asosiy bosqich-vegetativ muvozanatni ta`minlovchi maxsus mashqlarni bajarish.

3.Yakuniy bosqich-bo`shashtiruvchi va tiklovchi mashqlar orqali parasimpatik faollikni kuchaytirish.

Metodika vositalari sifatida:

1.Nafas mashqlari (chuqur va ritmik nafas olish)

2.Statik mashqlar (muvozanat va tana barqarorligini ta`minlovchi mashqlar)

3.Sekin ritmik harakatlar

4.Koordinatsion mashqlar tavsiya etiladi.

Metodika muntazam qo`llanganda vegetativ asab tizimi faoliyatining barqarorlashuvi, yurak urish chastotasining me`yorlashuvi va umumiy holatning yaxshilanishi kuzatiladi.

Metodikaning asosiy yo'nalishlari

1. «Adashgan asab» stimulyatsiyasi

Adashgan (Vagus) asabi parasimpatik tizimning asosiy magistrali hisoblanadi. Uni faollashtirish uchun:

- Diafragmal nafas mashqlari:

Nafas olayotganda qorinni shishirish chiqarayotganda ichkariga tortish. Bu usul yurak urish tezligini pasaytiradi va arterial bosimni me'yorlashtiradi.

- Gidro-muolajalar bilan uyg'unlik:

Mashqdan so'ng yuzni sovuq suv bilan yuvish yoki kontrast dush ''vagus'' tonusini oshiradi.

2. Siklik aerob yuklamalar

Past va o'rta intensivlikdagi aerobik mashqlar (yurak urishi 120-140 zarba/daq) VAT adaptatsiyasini oshiradi:

- **Dozalangan yurish:** Kuniga 5000-7000 qadamdan boshlab, asta-sekin masofani oshirish.
- **Suzish:** Suvning gidrostatik bosimi periferik tomirlarni massaj qiladi va simpatik tizimning ortiqcha qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi.

3. Neyromushak relaksatsiyasi

Mushaklardagi surunkali taranglik miyaga doimiy «xavotir» signallarini yuboradi.

- **Statik cho'zilish:** Mushaklarni 15-30 soniya davomida cho'zilgan holatda ushlab turish kortizol (stress gormoni) darajasini kamaytiradi.
- **Progressiv relaksatsiya:** Mushaklarni maksimal darajada qisish va so'ngra keskin bo'shashtirish orqali markaziy asab tizimi tinchlantiriladi.

4. Metodik tavsiyalar va cheklovlar

1. **Puls nazorati:** Mashq paytida puls maksimal darajaning 60-70% idan oshmasligi kerak.

2. **Vaqt tanlash:** Simpatik tonusi baland (hayajonli) insonlarga kechki payt tinchlantiruvchi mashqlar, parasimpatik tonusi baland (sust) insonlarga ertalabki faol mashqlar tavsiya etiladi.

3. **To'xtatish signallari:** Bosh aylanishi, ko'z oldi qorong'ulashishi yoki ko'ngil aynishi kuzatilsa, mashq darhol to'xtatilishi va nafas mashqiga o'tilishi lozim.

5. Metodik xulosalar (Ekspert maslahati)

***Individual yondashuv:** Agar inson **vagatonik** (sust, bosimi past) bo'lsa, mashqlar jadalligini biroz oshirish; agar **simpatikotonik** (hayajonli, bosimi baland) bo'lsa, mashqlarni ko'proq sekin va sokin bajarishi kerak.

*** Monitoring:** Mashqdan oldin va keyin pulsni o'lchash majburiy. Agar mashqdan keyin puls 5-10 daqiqa ichida asliga qaytmasa, yuklama noto'g'ri tanlangan .

Xulosa qilib aytganda, jismoniy mashqlar vegetativ asab tizimini muvozanatlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Ilmiy asoslangan metodika orqali jismoniy tarbiya mashg`ulotlarini tashkil etish o`quvchilarning funksional holatini yaxshilash, stressni kamaytirish va sog`lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodikani ta`lim jarayoniga joriy etish jismoniy tarbiya darslarining sog`lomlashtiruvchi ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitib, amaliyotda qo`llash uchun muhim tavsiyalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo`yicha o`quv qo`llanmalar

2.Psixofiziologiya va neyrofiziologiya asoslari. T., 2021

3.Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi-Toshkent 2020

4.Qodirov B.R Yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi-Toshkent 2018

5.Makarova G.A Sport tibbiyoti., Rossiya 2021

6. Qurbonov Sh. va boshqalar. Sport fiziologiyasi. Darslik,Toshkent,2018-240b

7.Magrupov J. Valeologiya asoslari.-Toshkent ,2015 (Sog'lom turmush tarzi va vegetativ muvozanat).

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMDA XALQARO TAJRIBALAR

Boqiyev G'ulomjon Ochilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti v.b.professori

***Sobirova Gulira'no Sobir qizi** magistr*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada zamonaviy boshlang'ich tizimida ilg'or tajribalar, ularning o'ziga xos jihatlari hamda ularni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, innovatsion yondashuv, xalqaro tajribalar, milliy ta'lim tizimi, kompetensiya, PISA, PIRLS, TIMSS.*

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning fundamental bilimlari, dunyoqarashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ta'lim sifati nafaqat ichki baholash, balki xalqaro baholash dasturi orqali ham aniqlanmoqda. Bu esa davlatlar o'rtasida ta'lim sifati bo'yicha sog'lom raqobatni yuzaga keltirmoqda.

So'ngi yillarda dunyo ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularning amaliy ko'nikmalari, mustaqil fikrlash qobiliyati va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarning shakllanishga olib keldi. Bu jarayonda rivojlangan davlatlar tajribasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar va samarali baholash tizimlari alohida ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining keying rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli bu bosqichda ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimida ilg‘or tajribalar va xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS)muhim ahamiyat kasb etadi va ta’lim sifatini oshirishda muhim metodoligik asos bo‘lib xizmat qiladi.

PISA(Programme for International sstudennt Assessment) bu xalqaro baholash dasturi bo‘lib, u 15 yoshli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. Ushbu dastur OECD tomonidan tashkil etiladi. PISA har 3 yilda bir marta o‘tkaziladi va unda dunyoning ko‘plab davlatlari ishtirok etadi. PISA an’anaviy testlardan farqli ravishda faqat bilimni emas, balki bilimni hayotda qo‘llay olish qobiliyatini ham tekshiradi. Savollar hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va taqqoslash imkoniyatlari baholanadi. Bunda o‘quvchidan tayyor javob emas, balki fikrlash talab qilinadi. PISA natijalari asosida davlatning ta’lim tiziming samaradorligi, o‘quvchilarning real bilim darajasi, kuchli va zaif tomonlari aniqladi va kelgusida bu kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Davlatlar o‘z ta’lim tizimini boshqa davlatlar bilan solishtira oladi. Bugungi kunda O‘zbekiston ham PISA dasturida ishtirok etib kelmoqda. Bu orqali milliy ta’lim tizimimiz xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda, o‘quvchilarning bilim darajasi tahlil qilinmoqda va yangi metodlar joriy etilmoqda.

PIRLS – boshlang‘ich sinf(odatda 4-sinf) o‘quvchilaring o‘qish savodxonligini baholovchi xalqaron dastur hisoblanadi. Ushbi tadqiqot IEA tomonidan tashkil etiladi. PIRLS har 5 yilda o‘tkaziladi. PIRLS o‘quvchilarning matnni tushunish qobiliyati, asosiy g‘oyani ajratish, xulosa chiqarish, matn ustida fikr yuritish ko‘nikmalarini aniqlaydi. PIRLS aynan bosshlang‘ich ta’lim o‘quvchilaring ta’lim sifatini ko‘rsatadi. Bunda faqat tez o‘qish emas, balki anglab o‘qish muhim. PIRLS natijalari orqali o‘quvchilarning o‘qish darajasi aniqlanadi, darsliklar va metodlar takomillashtiriladi va boshlang‘ich ta‘lim sifati oshiriladi.

TIMSS- 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini baholovchi xalqaro dasturddddir. Bu dastur ham IEA tomonidan o‘tkaziladi. TIMSS ham har 4 yilda bir marta o‘tkaziladi. TIMSS o‘quvchilarning matematik bilimlarini, ilmiy tushunchalarini, masalalar yechish qobiliyatini, bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishini baholaydi.

Qisqa taqqoslash

Dastur	**Yoshi**	**Yo‘nalish**
PISA	15yosh	Hayotiy savodxonlik
PIRLS	4-sinf	O‘qish va savodxonlik
TIMSS	4 va 8- sinf	Matematika + fan

Xalqaro tajriba dasturlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ta’lim tizimini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish bugungi kunda global ta’lim makonida ustuvor yo‘nalishlardan biiri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, avvalo, ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish hamda ularni milliy ta;lim tizimi sharoitlariga mos holda joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, rivojlangan davlatlar ta;lim tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan metodlar va kompetensiyaviy ta’lim modeli muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda xalqaro baholash dasturlari- PISA, PIRLS, TIMSS alohida o‘rin tutadi. Ushbu dasturlar orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligi, fanlar bo‘yicha bilim darajasi, o‘qish kompetensiyasi, shuningdek, pedagoglarning kasbiy faoliyati va ta’lim jarayonining tashkiliy jihatlari kompleks jihatdan baholanadi. Natijada ta’lim tiziming kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro tajribalar va baholash tizimlarini uyg‘un holda joriy etish, ularni milliy ta’lim tiziming ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlari bilan integratsiyalash, boshlang‘ich taa’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv orqali zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lgan, global raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan barkamol shaxsni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bokiyev G.O. The structure of the extensive curriculum is the basis of the effectiveness of the education. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: -Great Britain, 2019, №12. –P. 102-106 (13.00.01. №2).
2. Bokiyev G. O. // Factors Providing Interconnectivity between Higher Education Stages and Qualification Upgrading Courses Integration as Pedagogical Phenomenom. Eastern European Scientific Journal. - GermaniY. 2019, №1. –P. 154-159. (13.00.01.№1)
3. Bokiyev G. O. Factors ensuring continuity between higher education levels and continuing education courses // The American Journal of Social Science and Education Innovations: - USA , December, 2020. –P. 115-121.
4. G. Yeldasheva, G.Karimova -Ta'lim -tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2018 yil.
5. Mamatmurodova M. Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish orqali o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish. 116-118. www.uzresearchers.com.
6. Gulrukh Hasanova . 2021.The effect of mimics ad vision in teacher -student communication. International scientific and current research conferences. 61-64.

"KUCHLI MA'NAVIYAT" PARADIGMASINING TARIXIY PEDAGOGIK NEGIZLARIGA BIR NAZAR

Ismoilov Yoqubjon Quchqarboevich
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *XXI asrda yoshlar ma'naviyati, yoshlar ruhiyati masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Global axborot oqimlari, ommaviy madaniyat ta'siri, virtual muhitdagi "qahramon" obrazlari voqeiy hayotdagi milliy qahramonlar, polvonlar, sarkardalar siymosini yoshlar ongida so'ndirib qo'yish xavfini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy qadriyatlarimiz tizimida alohida o'rin tutuvchi kuchli ma'naviyatni zamonaviy yoshlar tarbiyasi modeliga aylantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifaga aylandi. Maqolada talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda "Kuchli ma'naviyat" konsepsiyasining o'rni va pedagogik kasbiy ma'naviyat kontekstida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kuchli ma'naviyat, talaba yoshlar, milliy qadriyatlar, kasbiy ma'naviyat, vatanparvarlik, futuvvat, belbog' timsoli, ma'naviy "vaksina", ma'naviy-axloqiy tarbiya modeli, javonmardlik.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya masalalariga sohaviy va kasbiy darajada yondashish tendensiyasi kuchaydi. 2021-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanining joriy etilishi, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda har bir kasb egasining tarixiy an'analarni, milliy merosni, ma'naviy timsollarni bilishi zarurligi qayd etilgani shundan dalolat beradi. Bu holat bo'lajak pedagog mutaxassislardan nafaqat o'qitish metodikalarini, balki milliy g'oya va qadriyatlarni tashuvchi ma'naviy lider bo'lishni taqozo etmoqda.

2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "millat fidoyilari", "yangi asr jadidlari" g'oyasi pedagog, murabbiy, o'qituvchilarga ham bevosita daxldor. Davlat rahbarining "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari maydonga chiqqan" degan ta'kidlari pedagog yoshlar obrazini jamiyatda ma'naviy qalqon sifatida ko'rishni talab qiladi. Shu ma'noda yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish dolzarb tarbiyaviy zaruratga aylandi.

O'zbek milliy tarbiya tarixida polvonlar obrazi doimo jismoniy va ma'naviy kamolot uyg'unligining ramzi bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniyning javonmard (futuvvat) haqidagi qarashlari, "Alpomish" dostonidagi Barchin qo'ygan shartlar, Pahlavon Mahmud haqidagi rivoyatlar, kurash va belbog' an'analari polvon ma'naviyatini mardlik, saxovat, so'zda turish, or-

nomus va Vatanga sadoqat bilan qorishtrib qo‘ygan. Belbog‘ning oddiy sport jihozi emas, balki burch, ont, mas’uliyat ramzi sifatida talqin qilinishi ham sportchi yoshlar tarbiyasida katta pedagogik resursga ega.

Buyuk alloma, mutafakkir Abu Rayhon Beruniy barkamol shaxs, inson obrazini ifodalashda oliyjanob odam va javonmard singari tushunchalarni qo‘llagan. Mutafakkir ushbu tushunchalarni: “Oliyjanob odam o‘zining joni va o‘zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o‘ziga tegishli mulkni boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og‘ir ishini o‘z yelkasiga olib, ular uchun o‘zi mashaqqat tortib, Alloh unga in’om etgan narsalarni muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard (futuvvat) deb ataladi [1]”, deya ta’riflagan.

Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar to‘la tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekistonning janubi, Surxondaryo viloyati) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisining oyog‘idan chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan bir yarim ming yil ilgari ham kurash o‘zbek madaniyatining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi.

Yunon adibi Klavdiy Elian (II–III asr)ning yozishicha, mamlakatimiz hududlarida umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurash tushib tanlashgan. Qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan sinab, aniqlashgan va shartlar orasida kurashga tushish ham bo‘lgan. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni bo‘lmish “Alpomish”dagi Barchin qo‘ygan shartlar xuddi o‘sha qadimdan xalqimiz uchun kuchli ma’naviyat va jismoniy kuch tajassumi bo‘lgan an’anani eslatadi.

Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Vosifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ham kurash va kurashchilar tasvirlanadi. Xalqimiz orasidan Pahlavon Mahmud, Pahlavon Muhammad, Sodiq polvon kabi buyuk kurashchilar yetishib chiqqan. O‘zbek kurashining jahon miqyosida tan olinishi amalda bizning bashariyat tamadduniga qo‘shgan buyuk milliy hissamizni ko‘rsatib turadi.

O‘zbek polvonlari kurash yoki ko‘pkarilarga turli masofalarni bosib borishgan. O‘shanda ularni to‘y egalari, qarindoshlari, qo‘shnilari, hamqishloqlari “qo‘noq”qa chaqirib, mehmon qilishgan. Shu bois xalqimiz “mehmon” so‘zi bilan boshlanadigan juda ko‘p maqollar yaratgan. Jumladan, “Mehmon – aziz, mezbon – laziz”, “Mehmon – atoyi Xudo”, “Mehmon joyi ko‘z ustida”, “Mehmon izzatda, mezbon xizmatda”, “Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan”, “Mehmon kelgan uydan baraka arimas”, “Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan yonar”, “Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush”, “Mehmon kelsa, choptirar, Bor-yo‘g‘ingni toptirar”, “Mehmon ko‘rki – dasturxon”, “Mehmon mezbonga aziz, Mezbon – mehmonga”, “Mehmon oz o‘tirar, ko‘p ko‘rar”, “Mehmon oz o‘tirsa ham, ko‘p sinar”, “Mehmon – otangdan ulug‘”, “Mehmon – uyning ziynati”, “Mehmon o‘z rizqi bilan kelar”, “Mehmonga osh qo‘y, Ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y”, “Mehmonga shirin so‘z ber, Yaxshi bo‘lsa, ko‘z ber”, “Mehmondorchilik – turmush ziynati”, “Mehmonni kamroq kut, quyuq kut”, “Mehmonning ixtiyori mezbonda”, “Mehmonning oldida mushugingga “pisht” dema”, “Mehmonning o‘zi ham mehmon, so‘zi ham mehmon”, “Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, Mehri diling keng bo‘lsin”... Bu maqollarda kuchli ma’naviyat, mardlar ma’naviyati, mehmondo‘stlik, mehr-oqibatlilik, milliy udumlarga sadoqat yaqqol sezilib turadi. Milliy sport o‘yinlarida polvonlar ana shunday izzat va udumlarga mos bo‘lishga harakat qilib, saxovatlar ko‘rsatib kelishgan.

O‘zbek xalqida yigitning belbog‘i ham, qizning ro‘moli ham oddiy mato, aksessuarlar emas. Ular tarbiya vositasi, ya’ni mardlik, or-nomus, hayo, sadoqat, poklikning matoda namoyon bo‘lishi. Shuning uchun ham xalqimizda belbog‘ qadimdan azizlangan. O‘z so‘zida turadigan, aytganidan qaytmaydigan yigitlar “Belida belbog‘i bor” deb maqtalgan. Belbog‘ yigitning ko‘rki, nomusi, ori sanalgan. Xalq to‘qigan doston va ertaklarda ham belbog‘ga nisbatan yuqori baho

beriladi. O‘g‘il bolalar o‘yinlari orasida belbog‘ning vosita sifatida ishlatilishida katta milliy ma’no bor [2].

O‘g‘illarning beliga hali bola yoshidan belbog‘ bog‘lanadi. El orasida “erkak kishining belida belbog‘i bo‘lsin”, degan gap yuradi. Beliga belbog‘ bog‘lashi, polvonlarning belini bog‘lab kurash maydoniga tushishida milliy hikmat, ma’no va mohiyat bor. Jismonan u insonning tanasidagi kuch, g‘ayrat va shijoatni muayyan bir maqsadga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Ma’naviy jihatdan esa belbog‘ qaror, ahd, azm, jazm qilish, lafzida turish singari ma’nolarni ifodalaydi. Bu esa mana shu so‘zning tarkibida burch va ont ma’nolari ham mavjud ekanini bildiradi[3].

O‘zbek xalqining vatanparvar farzandlarining aksariyati ham ma’nan, ham jismonan kuchli shaxslar, qudratli polvonlar bo‘lishgan. Buning misoli tariqasida ulug‘ ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahodir Yalangto‘sh kabi sarkardalarning faoliyatidan misollar keltirish mumkin.

Shu bilan birga, amaldagi tarbiya ishlarida polvonlik an’analarining chuqur ma’naviy mazmuni yetarlicha modellashtirilmagani, sportchi yoshlar uchun namuna bo‘luvchi “polvon ma’naviyati modeli” ishlab chiqilmagani ko‘zga tashlanadi. Ko‘p hollarda mashg‘ulotlar texnik-taktik tayyorgarlikka yo‘naltirilib, polvon obrazining ichki dunyosi-futuvvat, javonmardlik, mehmondo‘stlik, saxovat, himoyachilik, xalqparvarlik kabi qirralari tarbiya jarayoniga tizimli integratsiya qilinmadi. Uzoq yillar mamlakatimizda ma’naviyat, mafkura, g‘oya tushunchalariga umumiy yondashilgan holda, ularning kasbiy, sohaviy xususiyatlarini ochib berish masalalari yangicha yondashuvlarni, o‘z tadqiqotchilarini kutib keldi. Faqat keyingi yillarda yuksak malakali mutaxassislarda sohaviy ma’naviyat, madaniyatni shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning bir misoli tariqasida 2021-yildan boshlab, oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichi rejasiga “Kasbiy ma’naviyat” fani kiritilganini keltirish mumkin. Bu yangi fan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida joriy qilindi.

“Kuchli ma’naviyat” paradigmasi asosida jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishda “Kasbiy ma’naviyat” fanining ahamiyati juda katta. Zero, kasbiy ma’naviyat har bir kasb egasining shu sohaga tegishli tarixiy an’analarini, maqol, risolalarini bilishini taqozo qiladi, qolaversa, inson qanday kasb mutaxassisi bo‘lishidan qat’i nazar ma’naviyatli bo‘lishi shart. U o‘qituvchimi, shifokormi, qisqasi, oliy ma’lumotli har qanday mutaxassis – insonlar bilan muomala qiladi, muloqotda bo‘ladi, insonlar bilan ishlaydi. Demak, “Kasbiy ma’naviyat” deganda qanday kasbda faoliyat ko‘rsatishidan qat’i nazar mutaxassis albatta bilimli, fahm-farosatli, o‘z kasbiga fidoyi, birga ishlayotgan hamkasblariga mehribon, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar, o‘z kasbining fidoyisi, bilimdoni bo‘lishi talab etadi.

2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Prezident Sh.M. Mirziyoyev so‘zlagan ma’ruzasida barcha ziyolilarga XXI asr jadidlari bo‘ling, degan da’vat yangradi. “Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik”, dedi Prezidentimiz. Ushbu yo‘nalishlar oliy ta’lim muassasalari ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni taqozo qilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki azaldan o‘zbek yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy qahramonlar, polvonlar obrazidan foydalanib kelingan. Bu obrazlar, ularni vasf etgan dostonlar, ertaklar o‘sha davr yoshlari uchun Prezidentimiz so‘zlari bilan aytganda “milliy vaksina” vazifasini bajargan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart”ligi mustahkamlab qo‘yildi [4]. Bu esa pedagoglar oldiga o‘zbek ma’naviy va jismoniy madaniyati, tarbiyasi uyg‘unligining tarixiy

an’analarini o‘rganish vazifasini belgilab berdi. Ayni vaqtda, “Har bir individni yoki shaxsni o‘rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o‘rganishni taqozo etadi” [5]. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan yondashish o‘zbek milliy tarbiyasida polvonlar, kurashchilar, chavandozlar ma’naviy va jismoniy qudrat namunasi bo‘lib kelganini ko‘rsatadi.

Shu sababli “kuchli ma’naviyat modeli”ni yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun namuna, ibrat modeli sifatida qarash, uning tarixi-falsafiy manbalarini ochish, tarkibiy komponentlarini (qadriyatlar, fazilatlar, timsollar, ramzlar) asoslash va nafaqat jismoniy madaniyat o‘qituvchilari, murabbiylari ishiga, balki barcha pedagog faoliyatga integratsiya qilish imkoniyatlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Ana shunda yoshlarda Vatanga sadoqat, jamoa va el-yurt oldidagi mas’uliyat, ruhiy barqarorlik va axloqiy barkamollikning kafolatli rivojlantirilishi Prezident Sh. Mirziyoyev asarlaridagi “Kuchli ma’naviyat” paradigmasiga moslanadi va o‘zining yuksak samaralarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.
2. O. Haitov, J. Pulatov. “Umumiy psixologiya” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.
3. “Sport psixologiyasi bo‘yicha sport ta’lim muassasalari psixologlari malakasini oshirish kursi”. Toshkent, 2023. 21–25-bet.
4. Abu Rayhan Beruni. *Mineralogiya: sobraniye svedeniy dlya poznaniya dragotsennostey*. – M.: 1963. – 14 b.
5. M. Quronov. Bolalar o‘yinlari – hayot mashqlari (So‘zboshi). // G. Mardonova. *O‘zbek milliy o‘yinlari* [Matn]: Ommabop-adabiy nashr / G.A. Mardonova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 160 b. 3–4-b.
6. Eshonqulov Z. *Belingda belbog‘ing bormi, Bek?..* Manba: https://uza.uz. Ko‘rish sanasi 2024-yil 9-iyun.

MUSIQA MASHG`ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH

Madaminxo`jayev Usmonxo`ja Umarxo`ja o`g`li
ADPI Maktabgacha ta`lim kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yurutilgan. Shuningdek, bolalar uchun musiqaning nechog'lik zarur ekanligi to'g'risida ma 'lumotlar bayon etilingan.*

Kalit so`zlar: *Musiqa, ajdod, avlod, tarbiya, estetik, demokratik, san'at, botiniy, jamiyat, bola, qalb, ma'naviyat.*

O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yoshlar tarbiyasida musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat, bolani estetik tarbiyalashdek sharafli ishni to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Musiqa - estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "...musiqa san'ati navqiron

avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" - deya ta'kidlaydilar. Demak, musiqa san'ati va ta'lim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan insonning ichki olamini boyitadigan, iymon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli kuch - ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak, deb hisoblagan. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivojida kuchi ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakllanishini ta'minlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

❖ maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otish, boshlang'ich musiqali didni tarbiyalash.

❖ maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqani idrok etishga, uning tinglash qobiliyati, estetik didi, umumiy madaniyatni rivojlantirish.

❖ maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqali qobiliyatni o 'stirish, musiqali didni shakllantirish, badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirish.

❖ musiqa asarlarini idrok etishni tarbiyalash.

❖ musiqa tinglashga, kuylashga, musiqa asboblarini chalishga, musiqali ritmik harakatlarga o 'rgatish metod va usullari.

❖ musiqaviy qobiliyat, musiqaga emotsional munosabat, musiqani tinglay bilish, ritmni his etish malakalarini shakllantirish.

❖ bolalarda musiqa hamda ashula aytish, ritmika, bolalar musiqa asboblarini chalish faoliyatlarida eng oddiy ijrochilik malakalarini shakllantirish.

❖ umumiy musiqa qobiliyati, individual qobiliyatlar, ashulachilik ovozi va harakatlarning ifodaliligini o 'stirish.

Musiqiy tarbiya vazifalari:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o 'stirish.

2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).

3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.

4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o`stirish.

5. Musiqiy didni o 'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).

6. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish (barcha faoliyatlar asosida).

Musiqiy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk bolalik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;

- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go'zallik tushunchasini to 'liqligicha anglashni o 'rgatish;
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go 'zallikni o 'z hayotlariga, o 'z faoliyatlariga olib kirish.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir mashg'ulotning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir. Musiqa san'atining ahamiyati musiqa shunday san'at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb atash mumkin.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri - ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, bolalarning ob'yektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi.

Bolani musiqaviy asarlarni idrok etish tug'risidagi masalaga to'xtaymiz. Idrok san'ati o'zidan keyin psixologik faoliyatni namoyon qiladi, musiqa san'ati asarlarini tushunish masalasi o'zidan o'zi kelib chiqishi mumkin emas. Uni o'rgatish kerak. Musiqa asarlarini idrok etish hissiyotidan boshlanadi. Musiqa asarlarini idrok etish emotsional jonkuyarlikni vujudga keltiradi. Bolaning bu holatida unga tanish mazmun va quvonch-idrok asosida emotsiyalarning paydo bo'lishidir. Bolalarda asarni tushunib qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash zarur. Shunday qilib musiqa idrokini tarbiyalash quyidagicha boradi:

1. Musiqa materialini ajratib olish.
2. Tarbiya va ta'lim metodlarini sistemalashtirish.
3. Ishning turli bosqichlaridan foydalanish.
4. Musiqa asarlarining turli-tuman namunalaridan foydalanish.
5. Musiqa asarining obrazlar soni va formasiga qarab asta-sekin murakkablashib borish.

Estetik va emotsional muhit musiqa olamida bolaga emotsional qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlargagina bog'liq bo'libgina qolmay, balki bola musiqiy rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy hamda psixologik bilimlarga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar. T., TDPU, 2006.
2. Akbarov I. Musiqa lug'ati. T.Oqituvchi 1997 y.
3. Hasanboev J.Yu. Pedagogika nazariyasi. Ma'ruza matni. T. 2002 y.
4. Sharipova G.. Musiqa va uni o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma). Toshkent - 2006.
5. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent - 1997.
6. Ismailov, T. K. (2021). THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE. Экономика и социум, (1-1), 93-95.
7. Kh, I. T. (2021). Musical currents and the formation of Russian classical music. Вестник магистратуры, (5-1 (116)), 7-8.
8. Ismailov, T. X. O. G. L. (2021). Musiqa madaniyati darslarida rus kompozitorlari ijodi orqali o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish. Science and Education, 2(4), 336-340.

AKROBATIK MASHQLAR YORDAMIDA 5–6 YOSHLI BOLALARDA HARAKAT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Qo'shmurodova Jasmin Olimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti,1-bosqich magistranti, djessii05@gmail.com

Annotatsiya:*Mazkur ilmiy tezisda 5–6 yoshli bolalarda harakat kompetensiyalarini shakllantirishda akrobatik mashqlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinib, akrobatik mashqlar orqali ularning koordinatsiya, muvozanat, moslashuvchanlik va tezkorlik kabi sifatlarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek, mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali usullari hamda pedagogik shart-sharoitlari asoslab berildi. Natijalar akrobatik mashqlar bolalarning harakat faoliyatini kompleks rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *akrobatik mashqlar, harakat kompetensiyasi, maktabgacha ta'lim, jismoniy rivojlanish, koordinatsiya, muvozanat, moslashuvchanlik, 5–6 yoshli bolalar, jismoniy tarbiya, pedagogik metodika.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jismoniy rivojlanish va harakat faoliyatini shakllantirish masalasi alohida e'tibor talab etadi. 5–6 yosh davri bolalarda asosiy harakat ko'nikmalari intensiv shakllanadigan bosqich bo'lib, bu davrda to'g'ri tashkil etilgan jismoniy mashg'ulotlar ularning keyingi rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Harakat kompetensiyasi bolaning jismoniy faoliyatni samarali bajarish qobiliyatini ifodalaydi. U nafaqat mushaklar rivoji, balki markaziy asab tizimi, koordinatsiya va psixologik tayyorgarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, akrobatik mashqlar bolalarda harakat kompetensiyalarini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri sifatida qaraladi.

Bolalarning jismoniy rivojlanishi maktabgacha yoshda eng faol bosqichni tashkil qiladi. Ayniqsa, 5–6 yosh davri bolaning asosiy harakat ko'nikmalarini egallashi va harakat kompetensiyasini shakllantirishi bilan ajralib turadi. Harakat kompetensiyasi deganda bolaning turli harakatlarni aniq, xavfsiz va samarali bajarish qobiliyati tushuniladi. Bu nafaqat mushaklarning rivojlanishi, balki koordinatsiya, muvozanat, tezkorlik va psixologik tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, akrobatik mashqlar ushbu yoshdagi bolalar uchun juda muhim vosita hisoblanadi.

Akrobatik mashqlar tananing turli holatlarda harakatlanishini, aylanish va dumalash kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Bu mashqlar bolalarning koordinatsiya va muvozanatni rivojlantiradi, shuningdek, mushaklarning moslashuvchanligini oshiradi. Muntazam shug'ullanish natijasida bolalar o'z tanasini boshqarishda ishonch hosil qiladi, jasorat va qat'iyatlilik kabi psixologik sifatlar shakllanadi. Shuningdek, bunday mashqlar bolalarning diqqat, xotira va harakatni rejalashtirish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

5–6 yoshli bolalar uchun mashqlar xavfsiz va bosqichma-bosqich murakkablashib borishi kerak. Misol uchun, dumalash va aylanish mashqlari vestibulyar apparatni rivojlantiradi, muvozanat mashqlari bir oyoqda turish yoki tor chiziq bo'ylab yurish orqali amalga oshiriladi. Egilish va cho'zilish mashqlari mushaklarning elastikligini oshiradi, sakrash mashqlari esa tezkorlik va kuchni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalar qo'llariga tayanib turish mashqlari orqali mushaklarni mustahkamlaydi va tananing turli qismlarini boshqarishni o'rganadi.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda metodik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Har bir mashq oddiydan murakkabga qarab o'rgatilishi, bolalarning individual imkoniyatlari hisobga olinishi, o'yin uslubida bajarilishi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi zarur. Shu tarzda mashg'ulotlarni olib borish bolalarning harakat kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi.

Pedagogik shart-sharoitlar va samaradorlik omillari

Akrobatik mashqlarning samaradorligi ko'p jihatdan mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi:

Motivatsion muhit yaratish

Bolalarda mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otish uchun ularni rag‘batlantirish, o‘yin elementlarini qo‘llash va muvaffaqiyatlarini e’tirof etish zarur.

Didaktik vositalardan foydalanish

Rangli gilamlar, kichik to‘siqlar, yumshoq jihozlar mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli va xavfsiz qiladi.

Tarbiyachi malakasi

Pedagogning bilim va ko‘nikmalari mashg‘ulot samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. U mashqlarni to‘g‘ri tanlay olishi va bolalarga tushunarli tarzda yetkazishi kerak.

Tizimlilik va muntazamlik

Mashg‘ulotlar haftasiga kamida 2–3 marotaba o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Muntazamlik natijadorlikni oshiradi.

Akrobatik mashqlar nafaqat harakat kompetensiyalarini, balki bolalarning umumiy salomatligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Muntazam bajariladigan mashqlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, mushak va suyak tizimini mustahkamlaydi, to‘g‘ri qomatni shakllantiradi va ortiqcha vaznning oldini oladi. Shu bilan birga, bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar ham rivojlanadi: ular tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi va jamoaviy o‘yinlarda faol ishtirok etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, akrobatik mashqlar bilan shug‘ullanish bolalarda harakat aniqligi va tezkorlikni oshirib, koordinatsiya va muvozanatni sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida akrobatik mashqlarni tizimli joriy etish, pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va mashg‘ulotlarni muntazam olib borish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, akrobatik mashqlar 5–6 yoshdagi bolalarning harakat kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib, ularning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ushbu mashqlarni doimiy ravishda qo‘llash tavsiya etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, akrobatik mashqlar 5–6 yoshli bolalarda harakat kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular bolalarning jismoniy rivojlanishini kompleks tarzda ta’minlab, muvozanat, koordinatsiya, moslashuvchanlik va kuch kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalarida akrobatik mashqlarni tizimli ravishda joriy etish, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2020.
2. Bolalar fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent, 2019.
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
4. Karimov A. Bolalarda harakat faoliyatini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2022.
5. Usmonov B. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivoji. – Toshkent, 2021.
6. Islomov, S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya metodikasi. – Toshkent, 2018.
7. Qodirov, A. Bolalarda koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish usullari. – T., 2019.
8. Rustamova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar sport mashqlari va ularning jismoniy rivojlanishiga ta’siri. – Toshkent, 2020.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA SIFAT MENEJMENTINING INTEGRALLASHGAN PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Sharipova Umeda Tolibjonovna,
Kattaqo‘rg‘on shahar 14-IDUM direktori,saripovaumeda425@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida sifat menejmentining integrallashgan pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, integratsiyalashgan tizimlarning nazariy asoslari va amaliyotga joriy etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar, xususan, Janubiy Afrika Respublikasidagi Integratsiyalashgan Sifat Menejmenti Tizimi (IQMS) va Avstraliyaning Viktoriya shtatidagi FISO 2.0 modeli misolida ta’lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmlari o‘rganilgan. Maqola yakunida umumta’lim maktablarida sifat menejmentini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sifat menejmenti, integrallashgan pedagogik mexanizmlar, ta’lim sifati, tizimli yondashuv, monitoring, integratsiyalashgan dars, fanlararo aloqadorlik.*

Bugungi globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir vaqtda ta’lim tizimida sifat menejmenti masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasi ko‘rsatkichi, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini, o‘qitish metodikasi, resurslarni taqsimlash, ma’muriy samaradorlik va o‘quv natijalarini qamrab oluvchi murakkab jarayondir . Zamonaviy sharoitda ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va integrallashgan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir.

“Inklyuziv” va “integrallashgan” terminlari ko‘pincha bir xil ma’noda qo‘llanilsa-da, falsafada ushbu tushunchalar o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Integratsiyalashgan ta’limda diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib-ketish jarayoni turadi va bolaga muammo sifatida qaraladi [2]. Sifat menejmenti kontekstida integrallashgan yondashuv esa ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini yagona tizim sifatida qarashni taqozo etadi.

Sifat menejmentining nazariy-metodologik asoslari shundan iboratki, zamonaviy pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarining hal etilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tizimli yondashuvda ta’lim muassasasi tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko‘ra obyektni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Ta’lim muassasasini o‘rganishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Ta’lim sifatini boshqarish tizimi bir nechta muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’lim standartlari va me’yoriy hujjatlar – O‘zbekistonda Respublikasi Davlat ta’lim standartlari asosida sifat nazorati tizimi shakllantirilgan;
2. Pedagog kadrlar malakasini oshirish – zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni o‘zlashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash;
3. Raqamli texnologiyalar – aqlli texnologiyalar va masofaviy ta’lim vositalari o‘quv jarayonini samarali va moslashuvchan qiladi;
4. Baholash tizimi – xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlari belgilanadi [4].

Integratsiyalashgan pedagogik mexanizmlarning mohiyatida integratsiya tamoyili ta’lim jarayonini qurishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning atrofdagi dunyoni yaxlit holda idrok etishini ta’minlaydi. Bu yondashuv alohida fanlar nomlari bilan emas, balki atrofdagi dunyodagi tovushlar, ranglar, buyumlar hajmlarining qiziqarli xilma-xilligi bilan tavsiflanadi .

Integratsiyalashgan darslarni qurishda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyatga ega:

- Tematik integratsiya – muayyan mavzu atrofida turli fanlarni birlashtirish;

- Muammoli-tematik integratsiya – muammoli vaziyatlar orqali fanlararo aloqalarni o‘rnatish;
- Keng muammoli integratsiya – kompleks muammolarni yechish orqali tizimli bilimlarni shakllantirish.

Integratsiyalashgan kognitiv vazifalarni hal qilish xususiyatlari integratsiyaning har xil turlariga qarab belgilanadi. Bunday vazifalar o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammolarni kompleks hal qilish va fanlararo aloqalarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi [6].

Xorijiy tajribalar tahlili. Janubiy Afrika Respublikasi tajribasi. Janubiy Afrikada Integratsiyalashgan Sifat Menejmenti Tizimi (IQMS) umummilliy siyosat sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish va ta’lim muassasalarida javobgarlikni kuchaytirish maqsadlarini ko‘zlagan . Ushbu tizim ikki tomonlama vazifani bajaradi: o‘qituvchilarning professionalligini oshirish va ta’lim muassasalarida hisobdorlikni ta’minlash. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, IQMSning samarali joriy etilmaganligi ta’lim sifatini oshirishda qiyinchiliklarga olib kelgan [5]. Dastlab o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizim keyinchalik ish haqini belgilash siyosati bilan bog‘lanib qolgan. Natijada, tizimning dastlabki rivojlantiruvchi maqsadi buzilgan va asosiy e’tibor pedagogik amaliyotdagi mazmunli o‘zgarishlardan ko‘ra ish samaradorligi ko‘rsatkichlariga qaratilgan . Ushbu tajriba sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqishda ularning rivojlantiruvchi funksiyasini saqlab qolish muhimligini ko‘rsatadi.

Avstraliya tajribasi (FISO 2.0 modeli). Viktoriya shtatida joriy etilgan FISO 2.0 (Framework for Improving Student Outcomes) modeli o‘quvchilar natijalarini yaxshilash bo‘yicha dalillarga asoslangan beshta asosiy elementni o‘z ichiga oladi:

1. Liderlik – o‘quvchilarning o‘rganishi va farovonligi uchun ijobiy maktab muhitini shakllantirish. Bu strategik yo‘nalish va resurslarni taqsimlash, hurmat va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.
2. O‘qitish va o‘rganish – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliyotlar va o‘quv dasturlari.
3. Baholash – maktab rahbarlari va o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning o‘zlashtirish o‘sishi va farovonlik qobiliyatlarini baholash uchun dalillar va ma’lumotlardan foydalanish.
4. Jalb etish – o‘quvchilarning o‘rganishi, ishtiroki va maktab hamjamiyatiga tegishlilik hissini qo‘llab-quvvatlaydigan munosabatlar va harakatlar.
5. Qo‘llab-quvvatlash va resurslar – har bir o‘quvchining farovonlik qobiliyatlarini kuchaytirish va eng yuqori darajadagi o‘rganish o‘sishiga erishish imkonini beradigan jarayonlar, mahsulotlar, xizmatlar va hamkorliklar.

FISO 2.0 modeli sifat menejmentiga tizimli yondashuvni aks ettiradi va har bir element o‘quvchilar natijalariga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida qaraladi. Integratsiyalashgan sifat menejmentini takomillashtirish yo‘nalishlari. Umumta’lim maktablarida sifat menejmentining integrallashgan pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Tizimli yondashuvni kuchaytirish. Ta’lim jarayonini boshqarish uchun to‘liq boshqaruv tsiklidan foydalanish zarur: natijalar to‘g‘risida ma’lumot olish, uni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va rivojlanish maqsadlarini shakllantirish, rejalashtirish, rejani amalga oshirish, natijalarni nazorat qilish va tartibga solish .

Fanlararo integratsiyani rivojlantirish. Ta’lim jarayonida fanlararo uzviylikni ta’minlash orqali o‘quvchilarning tizimli bilimlarini shakllantirish. Bu o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini, birgalikda darslarni rejalashtirish va integratsiyalashgan o‘quv materiallarini yaratishni talab qiladi.

Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish. Ichki monitoring jarayonlarini yo‘lga qo‘yish va ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni tizimli tahlil qilish. Baholash tizimida nafaqat yakuniy natijalarni, balki o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasini ham hisobga olish muhim.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshqaruv tizimiga keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, muassasalar faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etish .

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish .

Jamoatchilik ishtirokini kengaytirish. Maktab va oila hamkorligi o‘quvchilarning o‘quv yutuqlariga ijobiy ta’sir qiladi. Jamoatchilik nazorati esa ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi [7].

Umumta’lim maktablarida sifat menejmentining integrallashgan pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Tizimli yondashuvni metodologik asos sifatida qabul qilish – ta’lim muassasasini tashqi va ichki muhit bilan o‘zaro aloqada rivojlanuvchi yaxlit tizim sifatida qarash.
2. Integratsiyalashgan darslarni amaliyotga keng joriy etish – tematik, muammoli-tematik va keng muammoli integratsiya turlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish.
3. Xalqaro tajribalarni moslashtirish – FISO 2.0 kabi dalillarga asoslangan modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish va joriy etish. Shu bilan birga, Janubiy Afrika tajribasidan sifat menejmenti tizimlarini ish haqi siyosati bilan bog'lash xavfini hisobga olish kerak.
4. Raqamli transformatsiyani amalga oshirish – boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron monitoring va baholash tizimlarini yaratish.
5. Pedagog kadrlarning integratsion kompetensiyalarini rivojlantirish – o‘qituvchilarni fanlararo integratsiyalashgan darslarni loyihalash va o‘tkazishga tayyorlash.
6. Baholash tizimini takomillashtirish – nafaqat yakuniy natijalarni, balki o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasini, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini joriy etish [8].

Sifat menejmenti – bu doimiy yangilanish va takomillashtirishni talab qiluvchi dinamik jarayon. Ta’lim sifatini boshqarish samaradorligi siyosat ishlab chiqishdan sinf amaliyotigacha bo‘lgan turli tarkibiy qismlarni tizimli amalga oshirishga bog‘liq. Muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun ta’lim organlari, maktab ma’muriyati, o‘qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikning doimiy hamkorligi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q. (2023). Education Quality Management in Uzbekistan: Theory and Practice. Toshkent: “Education” Publishing House.
2. Alibayeva L. (2022). Ta’lim jarayonini qurishda integratsiya tamoyili tushunchasi. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3(2/S), 159–163.
3. Latifova M.X. (2025). Quality Management of Secondary School Education. Academic Research in Modern Science, 4(10), 5–8.
4. Normurodova B. (2025). Ta’lim jarayonidagi darslarini o‘qitishda integratsiyalashgan darslar samaradorligini oshirish va fanlararo aloqadorlikni ta’minlash. “ACTA NUUz”, 1(1.4.1), 156–157.
5. Sibeko L.E. (2025). Teachers’ Perspectives on the Role of Integrated Quality Management System in Enhancing Quality Teaching and Learning in Selected King Cetshwayo District Secondary Schools, South Africa. International Journal of Educational Development in Africa.

6. Victorian Government. (2024). Framework for Improving Student Outcomes (FISO 2.0): Core elements and dimensions. Education Victoria.
7. “Maktablarda ta’lim sifatini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish” (2024). Fan va ta’lim jurnali.
8. “Ta’lim sifatining menejmenti” (2026). Universalpublishings jurnali.

QOBILIYAT VA PEDAGOGIK QOBILIYATANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI

Tog‘ayeva Oygul
Navoiy innovatsiyalar universiteti 5-kurs talabasi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ta'lim muassasalarining oldiga muhim yangi va ustuvor vazifalarni qo‘ydi. Har tomonlama rivojlanishda oldinda borayotgan jamiyatimiz bugungi kunda ta'lim sohasida milliy modelimizga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa bugungi kunda ta'lim sohasida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o‘rgangan holda emas, balki har tomonlama rivojlangan barkamol inson, muomala madaniyatiga ega bo‘lgan, o‘z ishining mohir ustasi etib tayyorlashga katta e'tibor berishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo‘lajak o‘qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va qobiliyat bilan qurollangan, o‘z fanini sevadigan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

Respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchi shaxsiga uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog`liq kelajagiga alohida e’tibor qaratilayotgan ekan, bu jarayonda har bir o‘quvchidagi o‘quv faolligini namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o‘rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta’lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning faqat bir o’zi bilan qobiliyatni aniqlab bo’lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko’nikmalarini egallashda namoyon bo’lsa ham ular bilim, ko’nikmalarga taalluqli bo’lmaydilar.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo’lishi bilim, malaka, ko’nikmalar bilan aynan bir narsa bo’lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog’liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko’nikmalarning o’zida ko’rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo’ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo’lgan bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo’ladi.

Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi. Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko’nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo’ladigan individual - psixologik xususiyatdir.

Agar shaxsning ma'lum sifatlari yig’indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig’ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo’ladi. Agar boshqa bir odat bo’lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda, qobiliyatlar yo’q deb faraz qilishga asos bo’ladi. Bularni egallash jarayoni cho‘zilib ketadi, pedagogdan ko‘p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig`indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog`liq bo‘ladi. Lekin bilim, ko‘nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o‘zlashtirishdagi layoqati,

mahoratida namoyon bo‘ladi, ular asosida bilim, ko‘nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok etishda, masalan, ranglarni tovlanishidagi nozik farqlarni ajratishda, narsalarni aniq ko‘rishda, absolyut eshitish (musiqani farqlashda), kuzatuvchanlikda, xotirada, fikrlash (tez, mustaqil) jarayonida ixtirochilik va ijodda yaqqol ko‘rinadi. Qobiliyat kishining muayyan faoliyatga bo‘lgan layoqatidir.

Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatiga bo‘lgan layoqatidir. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo‘ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o‘qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi.

Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo‘jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo‘ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma’lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo‘ladi, lekin, shu bilan bir qatorda, ko‘pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo‘ladi.

Demak, layoqat-qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a’zolari va harakatning morfologik hamda funksional xususiyatidir va u qobiliyatning fiziologik asosidir. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste’dodidir. Iste’dod inson qobiliyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta’minlovchi tug`ma tabiiy imkoniyatlar yig`indisidir. Iste’dodning rivojlanishi shaxsning yashash sharoitiga, ijtimoiy ta’lim-tarbiyaga, uni faoliyatdagi faolligiga bog`liqdir.

Kishining «mudrab yotgan» imkoniyatlari faoliyatga kishi faollik ko‘rsatmasa u imkoniyatlarni «uyg`onishi» mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy shart-sharoit, qulay muhit, qulay ta’lim-tarbiyaviy sharoit, o‘qish, o‘z ustida tinmay ishlash zarur bo‘ladi.

Kishining iste’dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o‘sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o‘z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Qobiliyatlar umumiy va mahsus bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug`ullana oladi. Masalan: kuzatuvchanlik, konstruktiv hayol, tez fikrlay olish kabilar ma’lum darajada barcha faoliyat turiga xosdir. Umumiy qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay o‘qiydilar.

Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug`ullanish imkonini beradi. Masalan: musiqa, texnika, matematika, rassomchilik qobiliyatlari maxsus qobiliyatdir. Qobiliyatlar o‘zining sifat va miqdor darajasi bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning sifat xarakteristikasi – shaxsning qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo‘lishini, qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiyatining zaruriy sharti ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan: O‘qituvchi tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlikni his qilish, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak.

Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan xarakterlanadi.

Har bir odamning qobiliyat va iste’dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug`ma layoqati asosida, muhitga bog`liq ravishda olayotgan ta’lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o‘z ustida ishlashi bilan bog`liq holda o‘sib, kamol topib boradi. Inson o‘z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo‘lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o‘tadi va ular instinktlar, tug`ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi.

**Tug`ma layoqat** – tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o‘sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog`i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo‘lgandagina ro‘yobga chiqa oladi.

Tug`ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo‘lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o‘sish natijasi hamdir. Layoqat – kishidagi tug`ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o‘zicha o‘sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg`onib» yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo‘lmog`i lozim. Layoqatni xuddi urug‘ga o‘xshatish mumkin, urug`dan o‘simlik ko‘karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo‘lishi darkor. Kishidagi tug`ma layoqatning o‘sib kamol topishi uchun zarur bo‘lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatlarning o‘sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo‘lmog`i mumkin.

Ta’lim jarayonida kishi maxsus ko‘nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste’dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o‘sib yetiladi. «Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina, – deb yozgan edi A. N. Rimskiy-Korsakov, – mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo‘ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo‘l ochildi».

Har bir shaxsning o‘zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, o‘qish va tarbiya kishining layoqatini uyg`otmog`i va iste’dod hamda qobiliyatlarini o‘stirmog`i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o‘sadi va tarkib topadi.

Xulosa Qobiliyat shaxs rivojining muhim omili bo‘lib, u faqat faoliyat jarayonida shakllanadi. Pedagogik qobiliyat esa o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun ijtimoiy muhit, sifatli ta’lim va shaxsiy intilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishi nazariyasi.
5. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari.
6. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya asoslari.

MONTESSORI METODIKASI VA UNDAGI BOLALAR SENSOMOTORIKASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBALAR TAHLILI.

Ulasheva Mahbuba.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti:

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Montessori pedagogikasi asosida bolalar sensomotorikasini rivojlantirish mexanizmlari va amaliy tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqot Mariya Montessorining ta'lim falsafasi, sensorial materiallar tizimi va bolalarning psixomotorika rivojlanishiga ta'siri masalalarini qamrab oladi. Maqolada zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar asosida Montessori metodikasining samaradorligi baholanib, milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.Bolalarning sensomotorik rivojlanish xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Montessori metodikasi tadqiqoti doirasida sensomotorikani rivojlantirishga juda katta e’tibor berilgan, hamda sensomotorik rivojlanish darajasini diagnostika qilish mezonlari va metodikalari ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Montessori pedagogikasi, sensomotorika, sensorial materiallar, bolalar rivojlanishi, diddaktik materiallar, musiqa, motor koordinatsiya.*

Hozirgi zamon ta'lim tizimida bolalarning yosh davridayoq shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogikada bolaning har tomonlama rivojlanishi muhim ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida sensomotor rivojlanish bolaning bilish jarayonlari, nutq va tafakkur shakllanishining poydevorini tashkil etadi. Shu jihatdan Montessori metodikasi bolani faol subyekt sifatida ko‘rib, uning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi.

Maria Montessori tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodika bolaning mustaqil harakatlari orqali sezgi organlari va mayda motorikasini rivojlantirishni maqsad qiladi. Mazkur maqolada Montessori metodikasida qo‘llaniladigan sensomotor mashg‘ulotlar tajribasi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Pedagogika fani tarixida bir nechta ta'lim metodikalari yaratilgan bo'lsa-da, ularning ichida Mariya Montessori (1870-1952) tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tizim o'zining originalligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Italiyalik vrach, pedagog va psixolog bo'lib, zamonaviy pedagogikaga katta ta'sir ko'rsatgan. U Italiyada tibbiyot sohasida diplom olgan birinchi ayollardan biri edi.

Sensomotorika bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Sensomotorik faoliyat his qilish va harakat qilish jarayonlarining birlashuvidan iborat bo'lib, bolaning atrof-muhitni idrok etishi, predmetlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishi hamda intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Montessori metodikasida sensomotorik rivojlanishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jarayon maxsus ishlab chiqilgan diddaktik materiallar orqali amalga oshiriladi.

MONTESSORI PEDAGOGIKASINING NAZARIY ASOSLARI.

Mariya Montessorining ta'lim falsafasi.

Mariya Montessori birinchi italyan ayol shifokori sifatida bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasida inqilobiy g'oyalarni ilgari surdi. Uning pedagogik tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Bola markazli yondashuv. Montessori ta'limning asosiy sub'ekti sifatida bolaning o'zini ko'rdi. Uning fikricha, har bir bola tabiiy ravishda bilim olishga intiladi va o'z rivojlanish tempiga ega.

Tayyorlangan muhit kontsepsiyasi. Montessori bolalarning mustaqil rivojlanishi uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitini yaratishni taklif qildi. Bu muhit bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda tuziladi.

Sensitiv davrlar nazariyasi. Montessori bolalar rivojlanishida ma'lum ko'nikmalarni o'zlashtirishga eng qulay bo'lgan maxsus davrlar mavjudligini aniqladi. Masalan, 0-6 yosh davri sensorial rivojlanish uchun eng muhim hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

-pedagogik kuzatish;

-taqqoslash va tahlil;

-tajriba-sinov mashg‘ulotlari;

-ilmiy manbalarni o‘rganish va umumlashtirish.

Tajriba maktabgacha ta’lim muassasasining 4–6 yoshli bolalari bilan Montessori muhitida olib borildi. Mashg‘ulotlar maxsus didaktik materiallar asosida tashkil etildi.

Montessori metodikasining nazariy asoslari.

Montessori metodikasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Erkin tanlov prinsipi – bola faoliyat turini mustaqil tanlaydi.

Tayyorlangan muhit – bolaning yosh va rivojlanishiga moslashtirilgan muhit yaratiladi.

O‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli – pedagog kuzatuvchi va maslahatchi vazifasini bajaradi.

Sensor tarbiya ustuvorligi – sezgi organlari orqali bilish rivojlantiriladi.

Bu tamoyillar bolaning psixofiziologik xususiyatlariga mos holda sensomotor rivojlanishni ta’minlaydi.

Sensomotorik rivojlanishning ahamiyati.

J. Piaget, L.S. Vygotskiy va boshqa psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sensomotorik tajriba bolaning intellektual rivojlanishining asosiy poydevori hisoblanadi. Montessori bu fikrlarni amaliy pedagogikaga tatbiq etgan birinchi olimlardan biri bo'ldi.

Sensomotorik rivojlanish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

-Sensorial qabul qilish (ko'rish, eshitish, his qilish, ta'mlash, hidlash);

-Predmetlarni manipulyatsiya qilish ko'nikmalari;

-Katta va mayda motor koordinatsiyasi;

-Ko'z-qo'l koordinatsiyasi;

-Fazoviy orientatsiya qobiliyati;

MONTESSORI SENSORIAL MATERIALLARI TIZIMI.

Materiallarining tasnifi va xususiyatlari.

Montessori 300 dan ortiq sensorial material ishlab chiqdi. Bu materiallar quyidagi tamoyillar asosida yaratilgan:

Izolatsiya xususiyati prinsipi. Har bir material bitta aniq sifatni (rang, shakl, o'lcham, vazn, tekstura) rivojlantirishga qaratilgan. Bu bolaning diqqatini bir narsaga to'plashga yordam beradi.

Xatolarni nazorat qilish prinsipi. Materiallar shunday tuzilganki, bola o'z xatosini mustaqil aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tashqi baholashga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi va o'z-o'zini tuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Estetik qiymat prinsipi. Barcha materiallar tabiiy materiallardan (yog'och, metall, to'qimachilik) yasalgan, ranglar uyg'unlashgan va bolalarni o'ziga jalb qiladi.

Asosiy sensorial materiallar.

-Pushti minora (La Torre Rosa). 10 ta kubdan iborat bo'lib, eng kichigi 1 sm^3, eng kattasi 10 sm^3. Material o’lcham tushunchasini, ko'rish idrokini va motor koordinatsiyasini rivojlantiradi.

-Jigarrang zinapoya (Scala Marrone). Har xil qalinlikdagi 10 ta prizmadan iborat. Qalinlik farqini idrok etish va taqqoslash qobiliyatini shakllantiradi.

-Qizil tayoqchalar (Aste Rosse). Uzunlik farqlarini o'rganish uchun mo'ljallangan. Bolalar tayoqchalarni uzunlik bo'yicha tartiblaydilar va fazoviy munosabatlarni tushunishadi.

-Tovush qutilari (Scatole dei Rumori). Turli tovush intensivligiga ega qutichalar. Eshitish idrokini va tovushlarni differentsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

-Geometrik figuralar shkafi (Cassettiera delle Forme Geometriche). Turli geometrik shakllar bilan tanishish, ko'z-qo'l koordinatsiyasini va vizual diskriminatsiya qobiliyatini rivojlantirish uchun ishlatiladi.

-Rang planshetlari (Tavolette dei Colori). Uchta seriyadan iborat: asosiy ranglar, ranglar spektri va ranglarning turli soyalari. Rang idrokini va sanash qobiliyatini rivojlantiradi.

-Termal qutichalar (Tavolette Termiche). Turli materiallarda issiqlik o'tkazuvchanligini his qilish orqali termal sensitivlikni rivojlantiradi.

1. Mayda motorikani rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar.

Bolalarga turli shakldagi yog‘och bloklarni joyiga qo‘yish, tugmalarni taqish, ipga marjonlar tizish topshiriqlari berildi. Natijada qo‘l barmoqlari harakati aniqligi va koordinatsiyasi sezilarli darajada oshdi.

2. Sensor idrokni rivojlantirish.

Ranglarni ajratish, shakllarni solishtirish, sirt tuzilishini farqlashga qaratilgan materiallar yordamida bolalarning sezgi organlari faoliyati faollashdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda diqqatning barqarorlashuvi va predmetlarni anglash tezligi ortdi.

3. Harakat va muvozanat mashqlari.

4.Maxsus chiziqlar bo‘ylab yurish, predmetlarni ko‘tarib yurish mashqlari orqali muvozanat va umumiy motorika rivojlantirildi. Tajriba yakunida bolalarda ishonchli harakatlanish ko‘nikmalari shakllandi.

Amaliy hayot mashqlari.

Montessori pedagogikasida sensomotorik rivojlanish uchun kundalik hayot faoliyatidan olingan mashqlar muhim ahamiyatga ega:

-Quyish mashqlari (suv, don quyish);

-Tugmachalarni berkitish va ochish;

-Bog'ichlarni bog'lash;

-Bosish, yopish, ochish operatsiyalari;

-Stolni yig'ish va tozalash.

Bu mashqlar nafaqat motor ko'nikmalarini, balki mustaqillik, diqqat, tartib va mas'uliyat hissini ham rivojlantiradi.

MONTESSORI METODIKASINING ILMIY ASOSLARI.

Zamonaviy neyrofiziologik tadqiqotlar.

XXI asrda o'tkazilgan neyrofiziologik tadqiqotlar Montessori g'oyalarining to'g'riligini tasdiqladi. MRT (magnit-rezonans tomografiya) tekshiruvlari shuni ko'rsatadiki:

Sensomotorik korteksning faollashuvi. Bolalar Montessori materiallari bilan ishlashda miyaning sensomotorik zonalari faol ishga tushadi, bu esa neyron aloqalarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Miyaning plastikligi. Erta yoshda (0-6 yosh) miya maksimal plastik xususiyatga ega. Montessori materiallari bu davrda miyaning optimal rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Multimodal ta'lim. Bir vaqtning o'zida bir necha sezgi organlarini faollashtirish (ko'rish, his qilish, harakatlanish) bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Taqqosiy tadqiqotlar:

Lillard va Else-Quest (2006) tomonidan Wisconsin universitetida o'tkazilgan tadqiqot.

Montessori maktablarida o'qigan bolalar o'rtacha 5 yoshda oddiy dastur bo'yicha o'qigan tengdoshlariga nisbatan matematik va o'qish ko'nikmalarida, ijtimoiy muammolarni hal qilishda sezilarli ustunlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Rathunde va Csikszentmihalyi (2005) tadqiqotlari. Montessori o'quvchilari orasida "oqim holati" (flow state) – chuqur diqqat va jalb bo'lish holati – ancha tez-tez kuzatilishini aniqladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida tatbiq etish tajribalari.

MILLIY KONTEKSTDA MOSLASHUV.

O'zbekistonda so'nggi yillarda Montessori pedagogikasiga qiziqish ortib bormoqda. Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda bir qancha xususiy maktab va bolalar bog'chalari Montessori metodikasini qo'llashni boshladi.

Milliy ta'lim tizimiga moslashtirishda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

Madaniy moslik. Materiallar va mashqlar mahalliy madaniyat, an'analar va hayot tarziga moslashtirilishi kerak. Masalan, milliy o'yinlar, naqshlar va amaliy hayot mashqlari qo'shilishi mumkin.

Til xususiyatlari. O'zbek va rus tillarining fonetik xususiyatlariga mos ravishda tovush materiallari tayyorlanishi zarur.

Iqtisodiy imkoniyatlar. Mahalliy materiallardan foydalanib, arzon va sifatli diddaktik vositalar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Amaliy kuzatishlar.

Toshkentdagi bir nechta Montessori bog'chalarida o'tkazilgan kuzatishlar quyidagi natijalarga olib keldi:

Montessori guruhlaridagi bolalar oddiy guruhlarga nisbatan mustaqillik ko'rsatkichlarida 40% yuqori natijaga erishdilar.

Mayda motorika rivojlanishi bo'yicha 35% ustunlik qayd etildi.

Ijtimoiy ko'nikmalar va hamkorlikda ishlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshi rivojlangan.

MUAMMO VA YECHIMLAR.

Asosiy qiyinchiliklar.

1.Pedagoglar tayyorligi. Montessori pedagogikasi maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. O'zbekistonda malakali Montessori pedagoglar yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

2.Materiallarning narxi. Sifatli import Montessori materiallari qimmat turadi, bu esa metodikaning keng tarqalishiga to'sqinlik qiladi.

3.Standartlashtirish muammosi. Montessori yondashuvining individuallashtirilganligi milliy standartlar va nazorat tizimi bilan moslashishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Taklif etiladigan yechimlar.

1.O'quv markazlari tashkil etish. Pedagoglar uchun maxsus Montessori trening dasturlari va sertifikatsiya tizimini joriy etish.

2.Mahalliy ishlab chiqarish. O'zbekistonda Montessori materiallarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, bu esa narxlarni pasaytiradi va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

3.Davlat qo'llab-quvvatlashi. Ilg'or pedagogik metodikalarni qo'llab-quvvatlash uchun grant va subsidiya dasturlarini ishlab chiqish.

4.Gibrid modellar. Milliy ta'lim dasturi bilan Montessori elementlarini uyg'unlashtirgan aralash yondashuvlarni joriy etish.

Montessori mashg‘ulotlari bolalarning sensomotor rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

mustaqil faoliyat orqali o‘rganish motivatsiyasi kuchayadi;

sezgi va harakat uyg‘unligi tafakkur rivojiga xizmat qiladi;

pedagogning nazoratchi emas, yo‘naltiruvchi roli ta’lim samaradorligini oshiradi.

Mazkur natijalar Montessori metodikasining maktabgacha ta’lim tizimida keng joriy etish mumkinligini ko‘rsatadi.

Montessori pedagogikasi bolalar sensomotorikasini rivojlantirishning samarali tizimi hisoblanadi. Uning asosiy kuchi bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanishi, ilmiy jihatdan tasdiqlangan diddaktik materiallar va bolaning faol, mustaqil faoliyatiga yo'naltirilganligidadir.

Zamonaviy neyrofiziologik tadqiqotlar Montessori metodikasining samaradorligini tasdiqlaydi va uning miyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sirini isbotlaydi. Taqqosiy tadqiqotlar Montessori maktablarida o'qigan bolalarning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishda ustunligini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun Montessori metodikasi muhim resurs bo'lishi mumkin. Biroq, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan yondashuv, malakali pedagoglarni tayyorlash, zarur materiallar bilan ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Kelajakda Montessori pedagogikasi va milliy ta'lim tizimini sintez qilgan gibrid modellarni ishlab chiqish, amaliy tadqiqotlarni davom ettirish va ilmiy asoslangan tavsiyalar berish muhim vazifalardir.

Montessori metodikasi bolalarda sensomotor rivojlanishni ta’minlovchi samarali pedagogik tizim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu metodika orqali bolalarning mayda motorikasi, sezgi idroki va mustaqil faoliyati sezilarli darajada rivojlanishini isbotladi. Shuning uchun Montessori metodikasini maktabgacha ta’lim muassasalarida keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi.

2.Xasanboyev J. Pedagogika. Toshkent: Fan nashriyoti.

Salohiddinova D. Maktabgacha ta’lim metodikasi. Toshkent.

3.Montessori M. The Absorbent Mind. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1967. – 298 p.

4.Lillard A.S., Else-Quest N. Evaluating Montessori Education // Science. – 2006. – Vol. 313(5795). – P. 1893-1894.

5.Lillard A.S. Montessori: The Science Behind the Genius. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – 448 p.

6.Standing E.M. Maria Montessori: Her Life and Work. – New York: Plume, 1998. – 352 p.

7.Rathunde K., Csikszentmihalyi M. Middle School Students' Motivation and Quality of Experience: A Comparison of Montessori and Traditional School Environments // American Journal of Education. – 2005. – Vol. 111(3). – P. 341-371.

8.Бабунова Т.М. Дошкольная педагогика. – Москва: Сфера, 2007. – 208 с.

Сумнительный К.Е. Как помочь ребенку построить себя? – Москва:Карапуз, 1999.- 272 с.

9.Исмоилова З.К. Болалар боғчаларида замонавий педагогик технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2015. – 156 б.

10.Хидоятова Д.Р. Мактабгача ёшдаги болаларни тарбиялашда инновацион технологиялар. – Тошкент: Фан, 2018. – 124 б.

11.Diamond A., Lee K. Interventions Shown to Aid Executive Function Development in Children 4 to 12 Years Old // Science. – 2011. – Vol. 333(6045). – P. 959-964.

TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Zulunxo‘jayev Ma’rufjon Ma’murjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi
mjon70967@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali talabalarning jismoniy faolligini rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy raqamli muhitda talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish hamda ta’lim jarayonini interaktivlashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun raqamli vositalar yordamida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning afzalliklari, metodik asoslari va natijadorligi tadqiq etilgan. Maqolada fitnes ilovalar, onlayn mashg‘ulot platformalari, virtual reallik texnologiyalari va geymifikatsiya usullarining ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiya, jismoniy faollik, pedagogika, ta’lim metodikasi, fitnes ilovalar, onlayn ta’lim, innovatsiya, geymifikatsiya.*

XXI asr ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar nafaqat bilim berish usullarini, balki ta’lim muhitini tubdan o‘zgartirib yubordi. Zamonaviy talaba uchun raqamli savodxonlik, axborotni tezkor qabul qilish va qayta ishlash, onlayn muloqotga kirishish kabi ko‘nikmalar odatiy holatga aylandi. Biroq ta’limdagi raqamlashuv jarayoni ko‘p hollarda jismoniy faollikning pasayishi bilan kechmoqda. Bu esa talabalarning sog‘lom turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday sharoitda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jismoniy faollikni rivojlantirish dolzarb vazifaga aylandi. Bu nafaqat sog‘lom hayot tarzini ta’minlash, balki talabalarda faol hayotiy pozitsiyani, intizom, iroda va motivatsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika yo‘nalishida ta’lim oluvchilar kelgusida ta’lim muassasalarida yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar bo‘lgani sababli, ularning shaxsiy jismoniy faolligi va sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish pedagogik faoliyat samaradorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

1. Raqamli texnologiyalarning ta’lim va jismoniy faollikdagi o‘rni

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, individual va samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Ayniqsa, jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vositalar talabalarning mustaqil mashg‘ulotlariga rag‘bat uyg‘otadi.

Bugungi kunda jismoniy faollikni ta’minlashda qo‘llanilayotgan asosiy raqamli vositalar quyidagilardan iborat:

- **Fitnes trekerlar va smart-soatlar** – yurak urishi, kaloriya sarfi, yurish masofasi kabi ko‘rsatkichlarni o‘lchash va tahlil qilish imkonini beradi;
- **Mobil fitnes ilovalar** (*Google Fit, Nike Training Club, Adidas Running, Fitify*) – individual dasturlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish imkoniyatini yaratadi;
- **Onlayn platforma va video mashg‘ulotlar** (*YouTube Fitness, Zoom treninglar, Coursera*) – masofaviy ta’lim sharoitida jismoniy faollikni ta’minlaydi;
- **Virtual reallik (VR) va qo‘shimcha reallik (AR)** – talabalarga harakatlarni to‘g‘ri bajarishni vizual ravishda ko‘rsatish imkonini beradi.

Bunday vositalar nafaqat jismoniy mashg‘ulotlarni individuallashtiradi, balki ta’lim jarayonida motivatsiyani kuchaytiradi va fanlararo integratsiyaga yo‘l ochadi.

2. Pedagogika yo‘nalishi talabalarida raqamli jismoniy faollikni shakllantirishning pedagogik asoslari

Pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun jismoniy faollik nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ular bolalarga sog‘lom turmush tarzini o‘rgatishda shaxsiy namuna ko‘rsatishlari kerak.

Raqamli texnologiyalar asosidagi jismoniy mashg‘ulotlar pedagogika talabalarida quyidagi samaralarni beradi:

- Ta’lim jarayonida **faol ishtirok** va **jamoaviy hamkorlik**ni ta’minlaydi;
- **Sog‘lom raqobat muhiti**ni yaratadi (masalan, onlayn fitnes-chellenjlar);
- **Interaktiv baholash tizimini** shakllantiradi – har bir talaba o‘z natijasini kuzatib, shaxsiy o‘sishni baholaydi;
- **Psixoemotsional barqarorlikni** ta’minlaydi, chunki jismoniy faollik stressni kamaytiradi va diqqatni oshiradi.

3. Raqamli texnologiyalar asosida jismoniy faollikni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari

3.1. Pedagogik asoslar

Raqamli vositalar orqali jismoniy faollikni rivojlantirish ta’limning **faollik va interaktivlik tamoyillari**ga tayanadi.
Bu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar amalga oshiriladi:

- ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan usulini ta’minlash;
- o‘quvchi-talaba faolligini rag‘batlantirish;
- mustaqil izlanish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- ta’lim va sog‘lomlashtirish jarayonlarini integratsiya qilish.

3.2. Psixologik asoslar

Jismoniy faollikni rag‘batlantirishda **motivatsiya**, **emotsional qoniqish** va **raqobat hissi** muhim rol o‘ynaydi.
Geymifikatsiya — ya’ni o‘yin elementlarini joriy etish — talabalarda qiziqishni oshiradi. Masalan, “kaloriya yoqish bo‘yicha haftalik musobaqa” yoki “qadamlar soni bo‘yicha reyting” tizimi orqali talabalar bir-biri bilan raqobatga kirishadi va o‘z natijasini yaxshilashga intiladi.

6. Raqamli muhitda jismoniy faollikni rivojlantirishdagi muammo va yechimlar

Muammolar:

- Barcha talabalarda gadjet yoki internet imkoniyati yo‘qligi;
- Oqilona foydalanish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- Talabalarda mustaqil nazorat ko‘nikmalarining sustligi;
- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi.

Yechimlar:

- Barcha oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanlariga raqamli modullar joriy etish;
- Oqituvchilar uchun “Raqamli fitnes pedagogika” kurslarini tashkil etish;
- Talabalar uchun onlayn motivatsion marafonlar va chellenjlar o‘tkazish;
- Davriy elektron monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

7. Ilmiy va amaliy natijalarning ahamiyati

Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy va amaliy ahamiyatlarga ega:

1. Pedagogika ta’lim yo‘nalishida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha metodik asos ishlab chiqildi.
2. Talabalarda sog‘lom turmush madaniyati va raqamli fitnes savodxonligi shakllandi.
3. Tajriba natijalari raqamli mashg‘ulotlar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samara berganini ko‘rsatdi.
4. Bu usulni ta’lim muassasalarida keng tatbiq etish orqali jismoniy faollikni umummilliy darajada oshirish imkoni paydo bo‘ladi.

Xulosa

Jismoniy faollik insonning sog‘lom hayot tarzi, mehnat qobiliyati va psixoemotsional barqarorligini ta’minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi raqamli jamiyatda talabalarning faol hayot tarzini ta’minlashda an’anaviy uslublar yetarli emas, ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitish va integratsiya qilish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalar vositasida talabalar jismoniy faolligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida nafaqat axborot almashinuvi va bilim berish funksiyasini bajaradi, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun raqamli vositalar orqali jismoniy faollikni rivojlantirish nafaqat ularning sog‘lomligini mustahkamlaydi, balki kelgusida ularning kasbiy faoliyati samaradorligini ham oshiradi.

Raqamli texnologiyalar jismoniy faollikni rivojlantirishda qator afzalliklarni yaratadi:

1. **Interaktiv muhit va individual yondashuv** – har bir talaba o‘z jismoniy imkoniyatlariga mos mashg‘ulot dasturini mustaqil ravishda tuzishi mumkin;
2. **Motivatsiyani oshirish va geymifikatsiya** – raqobat, ball to‘plash va virtual mukofotlar orqali talabalar faolligi kuchayadi;
3. **Nazorat va tahlilning aniqligi** – fitnes trekerlar va mobil ilovalar yordamida natijalarni real vaqtda kuzatish mumkin;
4. **Ijtimoiy faollik va jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish** – onlayn platforma va chellenjlar guruh ichida hamkorlikni oshiradi.

Shu bilan birga, raqamli vositalarni jismoniy tarbiya jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, talabalarda raqamli madaniyatning yetarli emasligi, internet infratuzilmasining barqaror emasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi kamligi kabi omillar bu jarayonni cheklaydi. Shuning uchun, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun tizimli yondashuv va davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy va ilmiy **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Barcha oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanlariga “Raqamli jismoniy faollik” modul fanini joriy etish;
2. Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari uchun “Sifrovaya fizicheskaya pedagogika” mavzusida malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
3. Talabalar uchun doimiy **onlayn fitnes-chellenjlar, marafonlar va interaktiv sport loyihalari**ni yo‘lga qo‘yish;

4. Talabalar jismoniy faolligini baholashda raqamli platformalardagi avtomatik reyting tizimlarini joriy qilish;

5. Talabalar sog‘lom hayot madaniyatini shakllantirishda geymifikatsiya va VR texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar vositasida jismoniy faollikni rivojlantirish ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadigan innovatsion yo‘nalish sifatida baholanadi. Bu metodika nafaqat pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun, balki barcha oliy ta’lim muassasalaridagi yoshlar sog‘lomligi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida raqamli vositalarning uzoq muddatli ta’sirini, talabalarning psixofiziologik holatiga ta’sir darajasini va raqamli muhitdagi jismoniy faollikning pedagogik samaradorligini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shu orqali raqamli ta’lim tizimida jismoniy faollikni rivojlantirish bo‘yicha milliy va xalqaro modelni ishlab chiqish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonov B. “Raqamli ta’lim texnologiyalari”, Toshkent: Fan, 2022.
2. Karimova M. “Innovatsion pedagogika va jismoniy tarbiya”, TDPU, 2023.
3. Tursunov A. “Ta’limda raqamli muhit va interaktiv usullar”, Toshkent, 2024.
4. World Health Organization (2020). *Physical activity and digital tools in education*.
5. UNESCO (2021). *Digital Learning and Physical Education Integration*.
6. OECD (2022). *Digitalization and Well-being among Students*.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ И ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Сальникова Елена Александровна

Международный Университет Туризма и Культурного наследия «Шелковый путь», ст.преп. кафедры Туризма, соискатель, yelena.salnikova@univ-silkroad.uz

Аннотация: *В статье исследуются методические подходы к оценке и обеспечению устойчивого развития рынка туристических услуг Самаркандской области. На основе анализа международных и национальных научных трудов предложен комплексный механизм, включающий экономические, экологические и социально-культурные индикаторы. Особое внимание уделяется цифровизации управления и неформальному образованию туристических кадров через системы дистанционного обучения для повышения качества обслуживания и сохранения исторического наследия.*

Ключевые слова: *устойчивый туризм, Самаркандская область, туристический рынок, оценка устойчивости, методические подходы, цифровизация туризма, неформальное образование.*

Введение. В условиях глобализации и интенсивного расширения международных контактов индустрия туризма становится одним из ключевых драйверов социально-экономического роста. Для Республики Узбекистан, обладающей колоссальным историко-культурным потенциалом, развитие туристического сектора является стратегическим приоритетом. Самаркандская область, будучи исторической жемчужиной Великого шелкового пути, привлекает особое внимание туристов со всего мира. Монументальное наследие эпохи Тимуридов, а также глубокие исторические корни, уходящие в периоды Государства Хорезмшахов и Чагатайского улуса, формируют уникальный туристический продукт [1, с. 14].

Однако стремительный рост туристического потока порождает ряд вызовов, связанных с антропогенной нагрузкой на исторические памятники, экологическим давлением на инфраструктуру и необходимостью обеспечения высокого качества сервиса.

В связи с этим возникает острая необходимость перехода от экстенсивной модели наращивания туристического потока к концепции устойчивого развития. Проблема заключается в недостаточной проработанности комплексных методических подходов, позволяющих адекватно оценивать и регулировать устойчивость регионального туристического рынка с учетом местных социокультурных и образовательных особенностей. Цель данного исследования — разработать и обосновать эффективные методические подходы к оценке и обеспечению устойчивого развития рынка туристических услуг Самаркандской области.

Обзор литературы

Концепция устойчивого туризма получила широкое освещение в трудах ведущих зарубежных ученых. Д. Уивер (D. Weaver) и К. Холл (C.M. Hall) заложили фундаментальные основы понимания устойчивости как баланса между экономическими выгодами и сохранением экосистем [4, p. 55; 5, p. 112]. С. Гёсслинг (S. Gössling) глубоко исследовал влияние туризма на потребление природных ресурсов, в частности водных, что крайне актуально для засушливых регионов Центральной Азии [6, p. 89]. В работах Х. Фонта (X. Font) рассматриваются парадоксы маркетинга устойчивого туризма и необходимость внедрения ESG-критериев в практику управления дестинациями [10, p. 871].

В научном дискурсе стран СНГ значительный вклад в экономику и экологию туризма внесли А.Ю. Александрова и В.С. Боголюбов, адаптировавшие международные методики к условиям переходной экономики [7, с. 210; 8, с. 45].

Особого внимания заслуживают труды узбекских ученых, исследующих национальные и региональные аспекты отрасли. Профессор И.С. Тухлиев разработал теоретические и практические основы формирования национальной модели туризма в Узбекистане [2, с. 88]. Специфика развития территориального туристического рынка Самаркандской области детально проанализирована в докторской диссертации М.Т. Алимовой [1, с. 34]. Б.Ш. Сафаров в своих исследованиях акцентирует внимание на методологических основах инновационного развития рынка национальных туристических услуг, подчеркивая роль информационных технологий [3, с. 102]. Тем не менее, несмотря на обширную теоретическую базу, методики, синтезирующие оценку экологической нагрузки, экономического эффекта и внедрение неформального образования в подготовку кадров для Самаркандского региона, остаются малоизученными.

Основная часть

Обеспечение устойчивого развития рынка туристических услуг требует внедрения многокритериальной системы оценки. В рамках нашего исследования предлагается интегрированный методический подход, базирующийся на трех классических столпах устойчивости (экономическом, экологическом, социально-культурном), усиленный четвертым — инновационно-образовательным компонентом.

Для комплексной количественной оценки устойчивости региональной дестинации предлагается использовать следующий композитный индекс:

$$I_{sus} = \sum_{i=1}^{n} (W_{ec}E_i + W_{soc}S_i + W_{env}V_i + W_{edu}K_i$$

где E_i, S_i, V_i, K_i нормализованные показатели экономической, социальной, экологической и образовательной эффективности соответственно, а W — весовые коэффициенты, определяемые методом экспертных оценок.

Анализ текущего состояния туристического рынка Самаркандской области

В последние годы в Самарканде наблюдается инфраструктурный бум. Открытие международного туристического центра «Silk Road Samarkand» и проведение Генеральной ассамблеи UNWTO в 2023 году [9, p. 12] вывели регион на новый уровень.

Таблица 1. Динамика развития туристического сектора Самаркандской области (2020–2023 гг.)

Год	Количество иностранных туристов (тыс. чел.)	Количество внутренних туристов (тыс. чел.)	Объем оказанных услуг (млрд сум)	Доля цифрового бронирования (%)
2020	145	650	320	18
2021	420	1 100	850	25
2022	1 200	2 500	2 100	45
2023	2 100	3 800	4 500	68

7Данные таблицы свидетельствуют о стремительном восстановлении и росте отрасли. Однако резкое увеличение числа посетителей обостряет проблему рекреационной емкости таких объектов, как ансамбль Регистан, некрополь Шахи-Зинда и городище Афрасиаб.

Социально-культурный и образовательный аспекты устойчивости

Одной из главных угроз устойчивому развитию является дисбаланс между растущей инфраструктурой и качеством человеческого капитала. Проведенный анализ показывает острую нехватку квалифицированных гидов и менеджеров, способных предоставлять услуги на уровне мировых стандартов и глубоко интерпретировать историческое наследие (выходя за рамки стандартных экскурсий и освещая сложные исторические трансформации, включая административное устройство региона в XIX-XX веках и эпоху Чагатайского улуса).

Методическим решением в данном направлении является внедрение **неформального подхода к повышению квалификации** работников отрасли. Традиционные методы обучения с отрывом от производства в условиях высокого туристического сезона неэффективны. Наше исследование предлагает интегрировать цифровые образовательные технологии управления обучением (LMS платформ, таких как Moodle или Google Classroom) в корпоративную среду туристических предприятий [3, с. 145].

Использование дистанционных курсов микрообучения (microlearning) позволяет специалистам совершенствовать навыки без отрыва от работы. Формирование специализированных платформ должно основываться на гендерно-чувствительных и трансформационных практических механизмах, развивая инклюзивное общение и социально-культурную компетенцию. Это напрямую коррелирует с параметром K_i в предложенной нами формуле индекса устойчивости.

Экологический и цифровой компоненты

Методика оценки экологической устойчивости (V_i) должна включать мониторинг потребления пресной воды на одного туриста [6, p. 115] и управление твердыми бытовыми отходами в буферных зонах объектов ЮНЕСКО. Для обеспечения мониторинга необходимо внедрение цифровизации процессов приема и учета туристов, что позволит равномерно распределять туристические потоки по времени и локациям, избегая пиковых перегрузок на конкретные памятники.

Заключение и предложения

Проведенное исследование позволяет сделать вывод, что устойчивое развитие туристического рынка Самаркандской области невозможно обеспечить лишь за счет наращивания физической инфраструктуры. Требуется комплексный методический подход, синхронизирующий экономические цели с экологической безопасностью и непрерывным развитием человеческого капитала.

В качестве конкретных мер предлагается:

1. Внедрить в практику регионального управления туризмом предложенный индекс устойчивости (I_{sus}) для ежегодного мониторинга состояния отрасли на уровне районов и городов области.

2. Инициировать масштабную цифровизацию процессов документооборота и распределения туристических потоков (внедрение систем «Умная дестинация»), что снизит физическую нагрузку на исторические объекты.

3. Разработать и запустить единую региональную LMS-платформу для неформального образования и дистанционного повышения квалификации гидов, менеджеров отелей и сотрудников сферы гостеприимства. Это обеспечит непрерывный рост качества услуг без нарушения рабочих графиков персонала.

4. Расширить экскурсионные программы за счет углубленного освещения менее известных, но значимых исторических периодов Центральной Азии для диверсификации туристического продукта и снижения сезонности.

Реализация данных методических предложений позволит Самаркандской области не только укрепить свои позиции на международном туристическом рынке, но и сохранить свое уникальное наследие для будущих поколений.

Список литературы

1. Алимова, М. Т. Особенности и тенденции развития регионального туристического рынка (на примере Самаркандской области) : автореф. дис. ... доктора экон. наук : 08.00.05 / Алимова Машхура Тоирхановна. – Самарканд : СамИСИ, 2017. – 68 с.

2. Тухлиев, И. С. Туризм: теория и практика : учебник / И. С. Тухлиев, М. Р. Болтабаев. – Ташкент : Наука и техника, 2018. – 400 с.

3. Сафаров, Б. Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари : монография / Б. Ш. Сафаров. – Тошкент : Фан ва технология, 2016. – 184 с.

4. Weaver, D. Sustainable Tourism: Theory and Practice / D. Weaver. – Oxford : Butterworth-Heinemann, 2006. – 240 p.

5. Hall, C. M. Sustainable Tourism: A Geographical Perspective / C. M. Hall. – New York : Longman, 1998. – 315 p.

6. Gössling, S. Tourism and Water: Interactions, Impacts, and Challenges / S. Gössling, D. Scott, C. M. Hall. – Bristol : Channel View Publications, 2015. – 328 p.

7. Александрова, А. Ю. Международный туризм : учебник / А. Ю. Александрова. – Москва : КноРус, 2020. – 460 с.

8. Боголюбов, В. С. Экономика туризма : учебник / В. С. Боголюбов. – Москва : Академия, 2013. – 192 с.

9. UNWTO. International Tourism Highlights, 2023 Edition / World Tourism Organization. – Madrid : UNWTO, 2023. – 40 p.

10. Font, X. Sustainability and marketing in tourism: its contexts, paradoxes, approaches, challenges and potential / X. Font, S. McCabe // Journal of Sustainable Tourism. – 2017. – Vol. 25, № 7. – P. 869-883.

11. Дроздов, А. В. Основы экологического туризма : учебное пособие / А. В. Дроздов. – Москва : Гардарики, 2005. – 271 с.

12. Sharpley, R. Tourism and Sustainable Development: Exploring the Theoretical Divide / R. Sharpley // Journal of Sustainable Tourism. – 2000. – Vol. 8, № 1. – P. 1-19.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Xalmatova Nasiba Bozorboyevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, nasibaholmatova419@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishning innovatsion metodologiyalari hamda ta’lim muassasalarini boshqarishning samarali modellari ko‘rib chiqiladi. Maqolada xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Asosiy e’tibor ta’lim dasturlarini integratsiyalash, pedagogik kadrlarni tayyorlash va maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, xorijiy tajriba, innovatsion metodologiya, ta’lim tizimi, sifatli ta’lim, pedagogik yondashuv, modernizatsiya, rivojlanish modellari.*

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707- sonli qarori (29.12.2016 y.), “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 3276-sonli qarori (15.09.2017y), “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori (09.09.2017 y.), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017 y.), “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017 y.) qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning PQ-528 “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagogik kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim- tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi. Polshada maktabgacha ta’limni bolalar bog‘chasida yoki maktabdagi maxsus sinflarda oladi. “Nolovoy sinf” 6 yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir.

Hamma bog‘chalarda polyak bolalari maktabda o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida o‘rgatib boriladi.

• Haqiqiy maktabga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida bolalar o‘qishni, yozishni va chizishni o‘rganadilar. Jismoniy tayyorgarlikka ko‘p vaqt berilgan. Hamma mashg‘ulotlar o‘yin tarzida olib boriladi.

• Bolalar bog‘chaga 3 yoshdan boshlab boradi.

• Ota- onalar bola tarbiyasini tajribali pedagoglarga ishonishadi hattoki uylari bog‘chadan uzoq bo‘lsa ikki haftalab qolishi mumkin.

Yuqori narxlarda shaxsiy bog‘chalar faoliyat yuritadi hamda ular murakkab dasturlar asosida bolalarni maktabga tayyorlaydi. Xorijiy tildan bir yoki ikkitasi o‘rgatiladi. Oilada

boshlang‘ich ta’lim dasturini o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratiladi. Belgiyada maktabgacha ta’lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o‘zgarib boradi. Maktabgacha ta’lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim ortirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg‘ulotlar o‘yin shaklida olib boriladi.

Maktabgacha ta’lim majburiy ta’lim dasturiga kiritilmagan bo‘lsada, Belgiyada taxminan 90% gacha bo‘lgan bolalar unga qatnashadi. Ko‘p hollarda maktabgacha ta’lim muassasalari boshlang‘ich maktablarga uyg‘unlashgan bo‘ladi. Bolalar 6 yoshga yetganda boshlang‘ich maktabning birinchi sinfiga o‘qishga kiradi. Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg‘u beradi. Masalan, 1 yoshda-o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish, 2 yoshda-amaliy san’at qo‘l mehnatini ko‘rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o‘rgatish, 5 yoshda- liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o‘rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-xanlarga bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada -o‘z ish o‘rnini ajratiladi, ular o‘z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o‘quvchi guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta’lim bosqichida ham qo‘llaniladi. O‘rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko‘nikish uchun har 5 oyda o‘zgartirib turiladi. Yaponiya bog‘chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o‘yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg‘otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang‘ich ta’limga erta qabul qilishga o‘tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog‘chasiga jalb qilish ko‘zda tutilmoqda.

Bolalar bog‘chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir.[9] Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmasin, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi. Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg‘ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo‘lishi mumkin. Xitoyda maktabgacha ta’lim bolalar bog‘chalari va maktabacha ta’lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta’limining maqsadi bolani maktabga o‘qishiga tayyorlashdan iborat bog‘chasi mavjud bo‘lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo‘lingan. Xitoy bolalaridagi qat’iylik va mehnat sevarlik an’anaviy fazilatlarga aylangan.[7]

Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli toifalari mavjud: maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki xususiy bolalar bog’chalari, bolalar markazlari, uy

tarbiyachilari, o‘yin guruhlari. Majburiy ta’lim boshlanishidan oldin Ta’lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga boradilar.

Bolaning maktabgacha tarbiyasi mamlakatga qarab 2,5 yoshdan 6 yoshgacha boshlanadi. Uning davomiyligi majburiy ta’lim boshlangan yoshga bog’liq. Ta’lim tizimining bir qismi sifatida ko‘rilganidek, ma’lum bir yoshga qadar berul hisoblanadi va bolalarning deyarli 98 foizi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga boradi. Ota-onalar ta’lim uchun rul to‘lashga majbur bo‘lgan mamlakatlarda bolalarning davomati rast bo‘ladi va shuning uchun boshlang’ich maktabga borganlarida bolalarning rivojlanish darajasi rast bo‘ladi.

G’arbiy Yevrora mamlakatlarida nogiron bolalar va sog’lom bolalarni ta’lim markazlari, o‘yin guruhlari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari integrasiyalashu-viga jiddiy ye’tibor qaratilmoqda. Buning uchun mutaxassislarni jalb qilish ishlariga katta ye’tibor qaratilgan. Redagoglarning ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi.

Uni tekshirishda kerakli TMni shakllantirish mezonlaridan foydalaniladi. Ushbu mezonlar yuqorida muhokama qilingan va 1-jadvalda ko'rsatilgan ishlab chiqilgan Noan`anaviy ta`lim modelining umumiy strukturaviy va funktsional ko'rinishiga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu mezonlarni ishlab chiqishda biz mashg`ulotdagi ta'lim muhitini tekshirish ko'rsatkichlariga qisman tayandik.

Umuman olganda, bizning modelimiz doirasida Noan`anaviy ta`lim metodla-rini baholash uchun imtihon mezonlari 4 darajani o'z ichiga oladi: 1) umumiy xususiy mezonlarning bir qismi bo'lgan ko'rsatkichlar; 4) ko'rsatkichlarga kiritilgan aniq ko'rsatkichlar. Ushbu ko'r darajali mezonlar

1-jadval

Noan`anaviy ta’limning asosiy funktsiyalari va komronentlari

N	Asosiy funksiyalari	N	Noan’anaviy ta’limning asosiy komronentlari
1	Rivojlantiruvchi	1	Almashinuvchi-o`zgaruvchi
2	Komretensiyali	2	Informativ
3	Moslashuvchi	3	Subyektiv-ijtimoiy

2-jadval

Bolalarning aqliy faolligi va harakat faolligini rivojlantirish uchun maxsus jismoniy mashqlar majmuasi

	Dastur bo‘limlari*	Mashqni bajarish davomiyligi	Me’yori	Dam olish oralig’i	Hafta kunlari
	Buyumlar orasidan 10 metrga «ilonizi» yugurish	7-6 soniya	2 marta	2 daqiqa	Dushanba
	Ikki qo‘l yonda tizzalab yurish (Yestafeta)	jamoaning o‘rtacha ko‘rsatgan natijasiga ko‘ra	1 marta	2-3 daqiqa	
	Oyoq uchida 10 metrga yurish	11-12 soniya	2 marta	2-3 daqiqa	
	Gimnastika devori bo‘ylab tirmashish	15 soniya va undan kam	2 marta	1-1,5 daqiqa	Seshanba

	Gimnastika o‘rindig’ida o‘rta tezlikda yurish	6,5 soniya va undan kam	2-4 marta	30 soniya	
	Gimnastika kortogi bilan yugurish (yestafeta)	jamoaning o‘rtacha ko‘rsatgan natijasiga ko‘ra	1 marta	1,5-2 daqiqa	
	Rangli gimnastika halqasida yugurish	11,5-14,5 soniya	2-3 marta	1,5-2 daqiqa	Chorshanba
	Yemaklash (yestafeta)	jamoaning o‘rtacha ko‘rsatgan natijasiga ko‘ra	1 marta	1,5-2 daqiqa	
	Sakramachoq (skakalka) orqali sakrash, 10 soniya	12-13 marta	2 marta	2-3 daqiqa	
	Gimnastika tayoqchasidan hatlab o‘tish	21,5-24,5 soniya (xar bir oyoq uchun)	2-3 marta	1-1,5 daqiqa	Rayshanba
	Fitbol to‘rini 10 metrga dumalatish	13-14 soniya	1 marta	2-3 daqiqa	

Qiz va o‘g‘il bolalarda jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishiga oid ma’lumotlar qiyosiy tahliliga ko‘ra, o‘g’il bolalar yuqoriroq ko‘rsatkichga yega yekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida barcha yoshdagi qizlarda yegiluvchanlik qobiliyatining rivojlanishi yuqoriroq ko‘rsatkichga yega yekanligi kuzatildi. Bu yesa jismoniy qobiliyatlarning yaxshiroq shakllanganligi hamda o‘g‘il bolalardan ko‘ra qizlarda yegiluvchanlik qobiliyatini rivojlanishining yuqoriroq darajasi bilan belgilanadiUshbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir umumiy mezonga kiritilgan bir xil turdagi xususiy mezonlar to'rlamidan farqli o'laroq, shaxsiy mezonlarga kiritilgan ko'rsatkichlar tarkibi ularning miqdori va mazmuni jihatidan ancha individualdir. Biroq, asosan, bu ko'rsatkichlar TM ning alohida komronentlari bilan bog'liq (o`zgaruvchi-fan, axborot va sub'ekt-ijtimoiy).

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ushbu komrensatsiyali texnologiya-Noan’anaviy jismoniy rivojlanish vositasi sifatida bolalarni jismoniy, aqliy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda qo‘llanildi va amaliyotga joriy qilindi (2-jadval).

Bularning barchasi harakat faolligining rast darajasi va jismoniy qobiliyatlarning zaif rivojlanganligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni jismonan soglom, aqlan yetuk, ma’nan boy, har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlashda hamda sportga bulgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga

2. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2016 yil 29 dekabr PF - 2707 –sonli qaror.

4. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi 2017-yil 09.09 PF–3261-sonli qaror.

5. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017-yil 30-sentabrdagi PF–5198-sonli Farmon.
6. Abdullaev Yo. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T.,2001
7.Isaqulova N.J, Qosimova Z.H. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. T., 2011
8. Mutalipova M.J., Xodjaev B.X. Qièsiy pedagogika.-T: 2015y.
9.Yoldoshev G‘.J. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim T.,1995
10. M.Fayzullaeva. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, T., 2011.
11. T.S.Usmonxujaev, S.T.Islomova, Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya, T., Ilm ziyo- 2006.
12. S.Kobilova, Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan uynaladigan milliy o‘yinlar, Kumkurgon — 2008.

O‘QITUVCHILARDA KASBIY KUYISH (BURNOUT)NING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ANIQLASH METODIKALARI

Pardaboyeva Barno Shuxratovna
KDPI instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya.*Ushbu maqola maktab o’qituvchilarida kasbiy kuyish (burnout) sindromining kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu psixologik zo’riqish jarayonining pedagoglarning kasbiy faoliyatiga ta’siri va ushbu ta’sir natijasida ta’lim jarayonidagi oqibatlari tahlil qilinadi. Maqola so’ngida kasbiy kuyish (burnout) kelib chiqishining asosiy sabablari va aniqlash metodikalari bo’yicha nazariy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *kasbiy kuyish, stress, o’qituvchi, emotsional zo’riqish, ta’lim tizimi, Maslach, MBI metodikasi, Boyko kuyish testi*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyatning muhim bo’g’ini sifatida o’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim va ko’nikmalarni berishdek o’ta mas’uliyatli vazifani o’z zimmasiga olgan. Shu o’rinda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar faoliyati tobora murakkablashmoqda. Bu esa o’qituvchilarda turli psixologik muammolar, xususan kasbiy kuyish (burnout) sindromining kelib chiqishiga sabab bo’lmoqda. Kasbiy kuyish-bu uzoq muddatli stress natijasida kelib chiqadigan jismoniy va aqliy charchoq holatidir. Ushbu muammo faqat o’qituvchining o’zigagina emas balki ta’lim sifati, o’quvchilarning rivojlanish darajasiga ham ta’sir ko’rsatadi.

Asosiy qism. Kasbiy kuyish (burnout) tushunchasi ilk bor 1974-yilda taniqli psixolog olim Hilbert Freudenberger tomonidan kiritilgan. U kasbiy kuyishni o’tkir jismoniy, ruhiy va ruhiy charchoqqa olib keladigan jiddiy va stressli holat deb ta’riflagan. Dunyo olimlari tomonidan ushbu muammoni aniqlashning bir qancha metodlari ishlab chiqilgan. Quyida burnoutni aniqlashda o’qituvchilar uchun eng mos bo’lgan bir nechta metodikalar keltirilgan:

1. Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasi. Christina Maslach burnout muammosini chuqur o’rgandi va 1981-yilda Maslach Burnout inventory (MBI) metodikasiga asos soldi. Ushbu metodika kasbiy kuyish (burnout) darajasini aniqlab beruvchi dunyodagi eng mashhur psixodiagnostik metodikalardan biri hisoblanadi. Metodika asosan insonning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan emotsional holatini baholaydigan asosiy 3 komponentdan iborat:

a. Emotsional charchash – bu holda o‘qituvchida energiya tugaydi, hissiy kuchlanish ortadi, uyqu buziladi, stress kuchayadi.

b. Depersonalizatsiya (Cynicism) - o‘quvchilarga nisbatan sovuqlashish, befarqlik, ularni texnik obyekt sifatida qabul qilish, qo‘pollashish.

c. Professional yutuqlarning pasayishi - o‘z kasbiy yutuqlarini past baholash, “men hech narsaga yaramayman” degan kayfiyatning kuchayishi, motivatsiyaning yo‘qolishi.

Metodika odatda 22 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savolga respondent o'z ichki holatidan kelib chiqib javob beradi. Javoblar Likert shkalasi (1dan 6 gacha) asosida baholanadi. Natijalar 3 komponent bo'yicha alohida tavsiflanadi va uchala ko'rsatkich birgalikda insonda burnout darajasini aniqlab beradi. Metodika asosan o'qituvchilar, shifokorlar, psixologlar va ijtimoiy xodimlarda ko'p qo'llaniladi. Maslach va Leiter birgalikda olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra o'qituvchilar va shifokorlar eng ko'p burnoutga uchraydigan kasb egalari sifatida aniqlangan. O'qituvchilar faoliyati doimiy muloqot, jiddiy kasbiy mas'uliyat va yuqori ijtimoiy talablarga asoslanganligi sababli ushbu sindromga moyillik ularda birmuncha yuqori bo'ladi.

2. Boyko bo'yicha emotsional kuyish testi. 1996-yilda rus olimi Viktor Boyko tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'lib, insonda emotsional kuyish darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ham aynan o'qituvchilar, shifokorlar, psixologlar kabi "insonlar bilan ishlovchi" kasblar uchun juda muhim hisoblanadi. Metodika testlari 3 fazadan iborat:

a. Zo'riqish (tension) fazasi – bu fazada insonda ichki stress va tashvish kuchayadi. Shaxs "tuzoq" (chiqib ketolmaslik) hissiga tushib qoladi.

b. Rezistentlik (Resistance) fazasi – bu fazada inson stressga moslashishga harakat qiladi. Mijoz yoki o'quvchilarga nisbatan sovuqqonlik oshadi.

c. Charchash (Exhaustion) fazasi – bu faza eng og'ir bosqich hisoblanib, psixomatik kasalliklar, xususan, bosh og'rig'i, uyqusizlik kabilar bilan xarakterlanadi.

Boyko testi 84 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savolga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob beriladi. Natijalar har bir faza bo'yicha alohida talqin qilinadi.

3. Copenhagen Burnout Inventory (CBI) metodikasi. Ushbu metodika emotsional kuyish darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan zamonaviy psixologik metodika hisoblanadi. Metodika 2005-yili National Instituti for Occupational Health Denmark tomonidan yaratilgan bo'lib asosiy ilmiy asoslari Kristensen Tage Sondergaard va uning hamkasblari tomonifdan chop etilgan tadqiqotlarda bayon etilgan. Metodika MBIga muqobil sifatida amaliyotda keng qo'llaniladi. Boshqa metodikalardan farqli ravishda CBI burnoutni faqat ish bilan bog'liq emas, balki umumiy charchash va insonlar bilan munosabatdagi zo'riqishlar orqali ham baholaydi. Metodika 3 ta asosiy shkaladan iborat:

a. Shaxsiy burnout (Personal burnout) – umumiy jismoniy va emotsional charchashni o'lchaydi

b. Ish bilan bog'liq burnout (Work-related burnout) – Ish jarayonidagi stress va charchoq darajasini o'lchaydi

c. Mijozlar bilan bog'liq burnout (Client-related burnout) – insonlar bilan ishlashdan keladigan zo'riqish

Metodika testlari odatda 19 ta savoldan iborat bo'lib javoblar Likert shkalasida beriladi. Har bir javob foizlarga aylantirilib har bir shkala bo'yicha o'rtacha ball olinadi

4. Oldenburg Burnout Inventory (OLBI) metodikasi. Ushbu metodika 2003-yilda Evangelia Demerauti va Arnold Bakker tomonidan yaratilgan bo'lib burnoutni faqat emotsional zo'riqish emas, balki ishdan uzoqlashish (disengagement) orqali ham baholaydi. Ayni shu jihati bilan MBIdan farq qiladi.

Metodika tarkibiy jihatdan 2 ta asosiy komponent:

a. Charchash (Exshaustion) – jismoniy, emtsional va kognitiv holdan toyish. Ishdan charchash hissi

b. Uzoqlashish (Disengagement) – ishga nisbatan befarqlik, ishdan "ichki uzoqlashish" holati kabilar bilon ifodalanadi.

Metodika test ko'rinishida bo'lib, savollar soni 16 tadan iborat. Javoblar Likert shkalasida beriladi. Farqli jihati savollarning bir qismi teskari (reverse) shaklda beriladi, bu esa natijalarning ishonchliligini oshiradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan burnout atamasi aynan qo'llanilmagan bo'lsada, unga mazmunan juda yaqin bo'lgan – stress, emotsional zo'riqish va pedagogik muammolar keng

o’rganilgan. Xususan E.G’oziyev psixologik jihatdan insonning emotsional holatlari va ruhiy jarayonlarini keng tadqiq qilgan.

So’nggi yillarda nafaqat O’zbekiston ta’lim tizimi pedagoglarida balki, dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimi pedagoglarida ham kasbiy kuyish (burnout) darajasi yuqorilab bormoqda. Xususan Singapurda 18-25%, Finlandiyada 10-15%, Buyuk Britaniyada 25-40%, AQSHda 40-60%, Germaniyada 30-40%, Yaponiyada 45-55%, Kanadada 64%, O’zbekistonda 74,1% o’qituvchilarda burnout sindromi kuzatilmoqda. Bu holat asosan yuqori ish yuklamasi, ta’lim tizimlarining tez o’zgarishi, moddiy va psixologik bosimlar, o’quvchilar ota-onalar va rahbarlar bilan munosabatlardagi nizolar ta’sirida kelib chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda o’qituvchilarda kasbiy kuyish (burnout) sindromi kelib chiqishi ko’p omilli hodisa bo’lib, uning yuzaga kelishida kasbiy, psixologik, tashkiliy, moddiy va ijtimoiy omillar o’zaro birlashgan holda namoyon bo’ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun Jahon mamlakatlarida onlayn qo‘llab-quvvatlash ilovalari (Calm, Headspace Education. AQSh), “Education Staff Wellbeing Charter” (Buyuk Britaniya), stressni boshqarish bo’yicha majburiy treninglar, “Teacher Well-being Day” (oyiga 1 kun ruhiy tiklanish. Singapur), mentorlik tizimi (Singapur), “Kokoro-no keikaku” ruhiy salomatlik dasturi (Yaponiya), meditatsiya va psixologik treninglar ishlab chiqilgan bo’lib, bularning barchasi pedagoglar faoliyatini qo’llab quvvatlash, moddiy va ma’naviy jihatdan rag’batlantirish, ish yuklamalarini optimallashtirish va psixologik yordam tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Freudenberg H.J. (1974). Staff burn-out. Journal of Social Issues, 30(1)
2. Christina Maslach, Leiter M.P. the truth about burnout: How organizations cause personal stress and what to do about about it. San Francisco: Jossey-Bass, 1997
3. E.G’oziyev . Umumiy psixologiya: Toshkent - 2010
4. Christina Maslach, Leiter M.P. (2016). Understanding the burnout experience. World Psychiatry, 15(2), 103-111.
5. Kristensen Tage Sondergaard, Borritz, M.Villadsen, E.Kristensen, (2005). The Copenhagen Burnout inventory: A new tool for the assessment of burnout. Work&Stress, 19(3), 192-207.
6. Evangelia Demerouti, Arnold Bakker (2003). The Oldenburg Burnout Inventory: A good alternative to measure burnout.

MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O‘YIN FAOLIYATI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Z.Sh.Qarshiyeva
KDPI, PhD
M.G‘.Umurzoqova magistr, umurzoqovamadina73@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin faoliyatining pedagogik ahamiyati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bolalar rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘yin asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi va uning bolalarning intellektual, ijtimoiy hamda ijodiy rivojlanishiga ta’siri yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, o‘yin faoliyati, pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, bolalar rivojlanishi, innovatsion metodlar.*

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning tafakkuri, nutqi, tasavvuri va ijtimoiy ko‘nikmalari faol rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘yin faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiiy faoliyat turi hisoblanib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, yangi bilimlarni egallaydi hamda ijtimoiy tajriba orttiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, o‘yin bolalarning: tafakkurini rivojlantiradi, nutq faoliyatini boyitadi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin orqali bolalarda jamoada ishlash, o‘z fikrini ifodalash hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, rolli o‘yinlar kabi turli xil o‘yinlardan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonini oldindan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Maktabgacha ta’limda quyidagi pedagogik texnologiyalar keng qo‘llaniladi: interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu bosqichda bola shaxsining asosiy sifatlari shakllanadi. Shu boisdan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin faoliyati asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi. Chunki bola o‘yinda erkin harakat qiladi, o‘z fikrini bemalol ifodalaydi va yangi bilimlarni oson o‘zlashtiradi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni o‘yin bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyati kengaymoqda.

Ushbu texnologiyalar yordamida bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Adabiyot tahlillari va metodlar.O‘yin kishilarning mehnat madaniyati paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichida vujudga kelgan. O‘yinlar ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. Ko‘plab mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o‘yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, rivojlanishi va ahamiyatini o‘rganmoqdalar. Shunga ko‘ra o‘yinning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli xil nazariyalar, fikrlar va qarashlar ham mavjud. D.U.Elkonin o‘yin va san’atning kelib chiqishini tatbiq qilib “ Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini hamda boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizliklarni o‘yin sifatida o‘ynash ularga ov jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashga yordam bergan” degan xulosaga keldi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, ovdan oldingi tayyorgarlik sifatidagi o‘yin jarayonida ibtidoiy odamlar o‘ljaga yaqinlashishni so‘ngra uni osongina qo‘lga tushirishni o‘rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan, uning yurish-turishlari, xatti harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o‘rganilgan.

Ana shunday o‘yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o‘rgatishgan. Shu bois o‘yinlar o‘ziga mos maktab vazifasini o‘tab, bir tomondan, ovchilik mahoratini o‘stirishga yordam bergan.Bolalar o‘yinlari asosan ikki vazifani bajaradi: - bolaning ishtiyoqini oshirish, estetik zavq berish va ko‘ngil ochish. - bolaga o‘yin jarayoni orqali ta’lim va tarbiya berish. Bolalar o‘yinlari mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘yinchoqli o‘yinlar. Bu o‘yin asosan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlaridir. (Sodda o‘yinchoqlar, kubik, shiqildoqlar)

2. Voqeaband o‘yinlar. Bolalar voqeaband o‘yinlarda kattalar faoliyatiga taqlid qiladilar. Bola ulg‘aygan sari ularning voqeaband o‘yinlari ham murakkablasha boradi. (“doktor-doktor”, “qo‘shni-qo‘shni”) kabi o‘yinlar kiradi.

3. Harakatli o‘yinlar bolalar sog‘ligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning faolligi va harakatchanligini oshiradi. Bu o‘yinlar sirasiga “oq terakmi-ko‘k terak?”, koptok o‘ynash va boshqalar kiradi.

4. Didaktik o‘yinlar (“ortiqchasini to‘p”, “rangli yo‘l”)

Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish jarayonida, dunyoning yetakchi mamlakatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Singapur va Finlyandiya kabi davlatlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlari va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tajribalari bu boradagi ilmiy fikrlarni yanada boyitadi. Singapur ta’lim tizimi butun dunyoda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishdagi yutuqlari bilan tanilgan. Singapurlik olimlar, ayniqsa, Tan, T. (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, maktabgacha ta’limda texnologiyalarning rolini keng ochib beradi.

Tan, o‘zining “Pedagogik texnologiyalar va bolalar rivojlanishidagi innovatsiyalar” nomli maqolasida, pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta’limda qo‘llashning ijtimoiy va intellektual rivojlanishga ta’sirini o‘rganadi. U o‘qitish jarayonida interfaol metodlar, kompyuter texnologiyalari, o‘yinli yondashuvlar kabi zamonaviy texnologiyalarning bolalar uchun muhim o‘quv resurslari ekanligini ta’kidlaydi.

Singapurda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar bolalarning tasavvurini kengaytirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini oshirishda samarali qo‘llanadi. Tan, pedagogik texnologiyalar nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki bolalarni o‘z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi, deb hisoblaydi. Finlyandiya ta’lim tizimi ham dunyodagi eng ilg‘or tizimlardan biri sifatida tanilgan, ayniqsa, maktabgacha ta’limdagi pedagogik texnologiyalarga bo‘lgan yondashuvi bilan. Kansanen (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, Finlyandiya maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Kansanen, maktabgacha ta’limda texnologiyalarni bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda, ayniqsa, ularning kreativligini oshirishda ishlatish zarurligini ta’kidlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi o‘rganildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning bilish faolligini oshiradi va ularning ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi. An’anaviy usullarga nisbatan o‘yinli yondashuv bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Tajriba davomida didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, harakatli o‘yinlar hamda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Vizual materiallar, multimediali taqdimotlar, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning tafakkurini, ijodiyligini va mustaqil fikrlashini rivojlantirdi.

O‘yin va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi

O‘yin faoliyatini pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Integratsiya natijasida:

- bolalarda o‘rganishga qiziqish ortadi;
- bilimlar mustahkam o‘zlashtiriladi;
- ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Masalan:

- interaktiv o‘yinlar orqali bilim berish;
- rolli o‘yinlarni muammoli vaziyatlar bilan boyitish;
- ertak asosida sahnalashtirilgan o‘yinlar tashkil etish.

O‘yin orqali bolalar jamoada ishlash, hamkorlik qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini egalladilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki: bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishi ortdi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllandi, ijodiy faoliyatga moyillik kuchaydi, ta’lim jarayonida faollik oshdi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan o‘yinlar bolalarning diqqatini jalb etib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi.

Tahlillar natijasida o‘yin faoliyati va pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

XULOSA. Maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yin faoliyati yetakchi pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va bolalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik o‘yinlar va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘yin faoliyatini pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish bolalarda mustaqillik va ijodiylikni shakllantiradi.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi hamda bolalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Poprovskiy E.A. O‘yin faoliyatining pedagogik asoslari. – Moskva, 1989.

2. Tan T. Pedagogical technologies and innovations in child development. – Singapore, 2018.

3. Kansanen P. Early childhood education and pedagogical technologies. – Finland, 2017.

4. Maktabgacha ta’lim jurnali: https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index

5. https://share.google/aDtoTBmiTKqlY9Jy5

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

G.O.Miyliyeva

KDPI 1-bosqich magistranti, miyliyevagavhar14@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning og‘zaki nutqini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, didaktik o‘yinlar, hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda an’anaviy va zamonaviy pedagogik vositalarni integratsiyalashgan holda qo‘llashning afzalliklari asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur yondashuv bolalarning so‘z boyligini oshirish, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq, ta’lim, o‘yin, raqamli texnologiya, integratsiya, nutqiy faollik, motivatsiya.*

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, bolalarning mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ayniqsa, ularning og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bolalarda nutq faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirishda o‘yin va raqamli texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy va samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eng muhim jihat — texnologiyalarni maqsadli va me’yorida qo‘llashdir. Chunki jonli muloqot va o‘yin faoliyati baribir asosiy o‘rinda qoladi.

O‘yin va raqamli texnologiyalar integratsiyasi

Integratsiya - bu turli metod va vositalarni uyg‘unlashtirish jarayonidir. O‘yin va raqamli texnologiyalarni birlashtirish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- nutqiy faollik oshadi
- bolada motivatsiya kuchayadi
- mustaqil fikrlash rivojlanadi

Nutqiy faollik oshadi

Bolalarda nutqiy faollikning oshishi ularning atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishishini anglatadi. Bola o‘z fikrini ifodalashga intiladi, savollar beradi, suhbatda ishtirok etadi va yangi so‘zlarni faol qo‘llay boshlaydi. Ayniqsa, o‘yin jarayonida yoki raqamli texnologiyalar bilan ishlaganda bolalar ko‘proq gapirishga, eshitganlarini takrorlashga va mustaqil ravishda jumlalar tuzishga harakat qiladi. Bu esa ularning lug‘at boyligini kengaytiradi, talaffuzini yaxshilaydi va nutqining ravon bo‘lishiga yordam beradi.

Bolada motivatsiya kuchayadi

Motivatsiya — bu bolani faoliyatga undovchi ichki kuch hisoblanadi. O‘yin elementlari va zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda bolada qiziqish ortadi, u topshiriqlarni bajonidil bajarishga intiladi. Masalan, interaktiv o‘yinlar, rang-barang tasvirlar yoki mukofot tizimi bolani faol qatnashishga undaydi. Natijada bola o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, yangi bilimlarni egallashga ishtiyoq bilan yondashadi va o‘z muvaffaqiyatidan quvonadi.

Mustaqil fikrlash rivojlanadi

Mustaqil fikrlash bolaning o‘z qarorini o‘zi qabul qilishi, muammoga turli nuqtai nazardan yondashishi va yechim topa olishi bilan bog‘liq. O‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali bola fikrlashga majbur bo‘ladi: “Nima uchun?”, “Qanday qilib?” kabi savollarga javob izlaydi. Bu jarayonda u tahlil qiladi, taqqoslaydi va xulosa chiqaradi. Raqamli texnologiyalar ham interaktiv topshiriqlar orqali bolani mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Natijada bola nafaqat bilim oladi, balki hayotiy vaziyatlarda ham mustaqil fikr yurita oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Bola nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishini o‘rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o‘z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma‘lumot olishni o‘rganadi. Maktabgacha yoshdagi og‘zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar bolalarning og‘zaki nutqi va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha uzoq va ko‘p yillar davomida tadqiqot ishlari olib borildi. Bu masala bo‘yicha mashhur olimlar, amaliyotchi-pedagoglar, metodistlardan Y. I. Tixiyeva, N. M. Shelavonov, N. M. Aksarina, N. F. Lasigina, Y. K. Kaverina, G. L. Rozengart-Pupko, G. M. Lyanina, V. A. Petrova, N. S. Kapinskaya, I. A. Panina, S. L. Novoselova, Y. V. Zvorigina, I. M. Kononova, N. N. Palagina, M. I. Popova, Y. I. Radina va boshqalar tadqiqot ishlari olib bordilar.

Chet el pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o’yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o’yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo’lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o’yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U “bolalar o’yinlari ko’p asrlik tarixga ega. Insonning o’zi tomonidan

ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan” - deb ta’kidlaydi.

O‘yin faoliyati bolalar uchun nafaqat qiziqarli mashg‘ulot, balki ta‘lim va tarbiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O‘yinlar bolalarning ichki kechinmalarini aks ettirishga yordam beradi va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bolalar o‘zaro muloqotini asosan o‘yin jarayonida rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. O‘yin faoliyatida quyidagi metodlar birmuncha samarali hisoblanadi:

“Savol-javob” metodi

“Ertakni davom ettir” usuli

“Tasvir asosida hikoya tuzish”

“Rolga kirish” o‘yinlari

Tadqiqot va natijalar: Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyati va raqamli texnologiyalar integratsiyasining samaradorligi o‘rganildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullarga nisbatan o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda nutqiy faollikni sezilarli darajada oshiradi.

Tajriba davomida bolalar bilan interaktiv metodlar asosida ishlash yo‘lga qo‘yildi. Xususan, interaktiv doskada hikoya tuzish, mobil ilovalar orqali so‘z boyligini oshirish, audio va video materiallar asosida qayta hikoya qilish kabi mashg‘ulotlar qo‘llanildi. Ushbu faoliyatlar bolalarning eslab qolish, tushunish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- bolalarning lug‘at boyligi kengayadi;
- gap tuzish va fikrni izchil bayon qilish qobiliyati yaxshilanadi;
- dialogik va monologik nutq rivojlanadi;
- nutqiy faollik va muloqotga kirishish istagi ortadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan didaktik o‘yinlar bolalarda yuqori qiziqish uyg‘otadi. Bu esa ularning mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, vizual va eshitish orqali berilgan materiallar bolalar tomonidan tez va samarali o‘zlashtirildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli vositalar nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki bolalarning mustaqil fikrlashi, e’tiborini jamlashi va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari o‘yin asosida tashkil etilgan, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan ta’lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarda ravon nutqni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda ravon nutqni shakllantirish jarayoni o‘yin faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aynan o‘yin jarayonida ularning nutqiy faolligi, fikrlash qobiliyati va muloqotga kirishish ko‘nikmalari samarali rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni tasdiqlaydiki, yetakchi pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar dialogik va monologik nutqni uyg‘un rivojlantirishga asoslangan bo‘lib, bu bolalarda mustaqil fikr bayon qilishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, didaktik o‘yinlarni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash bolalarning nutqini rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi.

Xususan, interaktiv vositalar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning lug‘at boyligini kengaytiradi hamda nutqni izchil va ravon ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlashini, eslab qolish qobiliyatini va ijtimoiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o‘yin faoliyati va zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg‘unligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ravon nutqni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvni amaliyotda keng qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. -T.: 2019 y., 8-may.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-og-zaki-nutqini-rivojlantirishda-oyin-va-oyinchoqlarning-orn
3. Babayeva.D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” darslik T: 2018 y
4. Ollaberganova.S.H. “Maktabgacha ta’limda nutq va o‘zga tilga o‘rgatish” o‘quv – uslubiy qo‘llanma T: 2017 y
5. Erxonova.N., Ro‘ziyeva.Z. “Tarbiyachi kitobi NUTQ O‘STIRISH” T: 2021 y

MAKTABGACHA TA’LIMDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASINING NAZARIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH

Axmatova Hulkar
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti, magistir

Annotatsiya. *Ushbu maqolam maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning mazmuni, mexanizmlari va pedagogik shartlarini ilmiy asoslaydi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat, pedagogik diagnostika hamda o‘yin faoliyati mahsullarini tahlil qilish usullari uyg‘un qo‘llanadi. Ilmiy yangilik sifatida milliy qadriyatlar integratsiyasining mezonlari, indikatorlari va bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar. *maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, integratsiya, tarbiyaviy muhit, o‘yin, kompetensiya, pedagogik diagnostika*

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng sezgir bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda ijtimoiy tajriba o‘zlashtirilishi, nutq va tafakkur tizimlanishi, emotsional-irodaviy barqarorlik va axloqiy tasavvurlar negizi qo‘yiladi. Shu ma’noda milliy qadriyatlarni integratsiya qilish masalasi faqat mavzuga oid ma’lumotlarni berish bilan chegaralanmaydi, balki bolada ijtimoiy xulq me’yorlarini ichki qabul qilish, o‘ziga va boshqalarga munosabatda madaniy mezonlarni ongli qo‘llash, kundalik faoliyatda tartib, hamkorlik va mas’uliyat kabi sifatlarni tabiiy vaziyatlarda namoyon etishga yo‘naltiriladi. Integratsiya tushunchasi bu yerda alohida “milliy qadriyatlar mashg‘uloti”ni ko‘paytirish emas, aksincha, o‘yin, muloqot, badiiy-estetik faoliyat, elementar mehnat, nutqni rivojlantirish va atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonlariga qadriyat mazmunini tabiiy singdirish orqali tarbiyaviy natijani barqarorlashtirishdir. Maktabgacha ta’lim metodikasi kontekstida bunday yondashuv kompetensiyaviy natijalar bilan hamohang bo‘lib, bolaning bilishi, his qilishi va amalda qo‘llashini bir butun tizimga keltirishni ko‘zlaydi .

Milliy qadriyatlar mazmunini maktabgacha yosh uchun moslashtirishda asosiy metodologik muammo “kattalar dunyosi”dagi murakkab tushunchalarni bolalar tajribasiga mos psixologik shakllarga o‘tkazishdir. Qadriyatlar ko‘pincha abstrakt ko‘rinishda ta’riflanadi, biroq bolalar uchun ular avvalo aniq harakat, obraz va vaziyatlar orqali anglashiladi. Shuning uchun “mehmondo‘stlik”, “kattaga hurmat”, “tozalik”, “mehnatsevarlik”, “hamjihatlik”, “odob” kabi qadriyatlar bevosita kundalik rejim jarayonlari, birgalikdagi o‘yin qoidalari, badiiy matnlar va rol o‘yinlaridagi munosabatlar orqali jonlantirilganda tarbiyaviy samaradorlik ortadi. Psixologik nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshda taqlid va identifikatsiya mexanizmlari kuchli bo‘lib, bola kattalar va tengdoshlar xulqini tez o‘zlashtiradi; shu sababli tarbiyachi shaxsiy namuna, nutq madaniyati va muomala uslubida qadriyatlarni “ko‘rsatib beruvchi” yetakchi omilga aylanadi .

Demak, integratsiya nafaqat mazmunni kiritish, balki tarbiyaviy muhitni qadriyatlar bilan moslashtirishni ham talab qiladi.

Mazkur maqolamda integratsiyani rivojlantirish tushunchasi uch komponentli tizim sifatida talqin qilinadi: mazmuniy komponent (qadriyatlarni yoshga mos obrazlar, hikoyalar, o‘yin syujetlari va amaliy vazifalar orqali berish), faoliyat komponenti (qadriyatlar amalda ko‘rinadigan vaziyatlarni yaratish: hamkorlik o‘yinlari, navbatchilik, miniloyihalar, oilaviy an’analarni aks ettiruvchi ijodiy topshiriqlar), refleksiv-kommunikativ komponent (bola bilan sodda savol-javob, his-tuyg‘ularni nomlash, xulq oqibatini muhokama qilish, “nima uchun shunday qildik” turidagi muloqot). Aynan refleksiv-kommunikativ qism integratsiyani chuqurlashtiradi, chunki bola faqat bajaribgina qolmay, o‘z harakatining ma’nosini tushunishga yaqinlashadi. Zamonaviy maktabgacha pedagogika tadqiqotlari tarbiya jarayonida ijtimoiy-emotsional o‘rganish elementlarini tabiiy faoliyatga qo‘shishning barqaror natija berishini ko‘rsatadi, biroq bu elementlar milliy madaniy kontekstga moslashtirilgandagina autentik tarbiyaviy muhit yuzaga keladi .

Integratsiya samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shartlar orasida, birinchi navbatda, o‘yin muhitining didaktik va axloqiy imkoniyatlarini to‘g‘ri tashkil etish turadi. Rol o‘yinlarida milliy qadriyatlar bevosita munosabatlar orqali “sinovdan o‘tadi”: bola mehmon kutish, navbatni saqlash, yordam so‘rash va yordam berish, bahsni murosaga keltirish kabi ijtimoiy vaziyatlarni model qiladi. Bunda tarbiyachining vazifasi o‘yinni quruq syujetga aylantirmasdan, qadriyat mazmunini yumshoq boshqaruv orqali ochib borish, nizoli vaziyatlarda bolalarni tayyor javobga emas, mos muomala usulini topishga yo‘naltirishdir. Ikkinchi shart badiiy matn va og‘zaki ijod namunalarini tanlash mezonlarining aniqligidir: matnlar yoshga mos, qisqa, obrazli, muomala madaniyatini ko‘rsatadigan va zo‘ravonlikni normallashtirmaydigan bo‘lishi zarur. Uchinchi shart oilaviy hamkorlikdir, chunki maktabgacha yoshda qadriyatlar ko‘proq “uy va bog‘cha”ning yagona talabi orqali mustahkamlanadi. Oila bilan hamkorlik faqat tadbir o‘tkazish emas, balki ota-onaga bolaga mos muloqot usullari, kundalik rejimda kichik mas’uliyat topshirish, rag‘bat va chegarani uyg‘un qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar berishdan iborat bo‘lishi lozim .

Tadqiqot nuqtayi nazaridan integratsiyani “rivojlantirish”ni baholash uchun mezon va indikatorlar tizimi zarur. Maqolamda uch mezon taklif etiladi: kognitiv-me’yoriy mezon (bola ayrim qadriyatga oid sodda tushunchalarni ajrata olishi, odob qoidalarini vaziyatga mos tanishi), emotsional-qadriyat mezoni (hamdardlik, xursand bo‘lish, uyat, afsus kabi hislarni tanishi va boshqarishga intilishi, ijobiy ijtimoiy harakatdan qoniqish olishi), xulq-atvor-amaliy mezon (navbatni saqlashi, salomlashishi, o‘yinchoqlarni bo‘lishishi, kattalar ko‘rsatmasisiz kichik tartib ishlarini bajarishi, tengdosh bilan kelishishi). Indikatorlar bevosita kuzatuv varaqalari, situatsion topshiriqlar va tarbiyachi kundaligi asosida qayd etiladi. Bunday diagnostika yondashuvi bolani “baholash”dan ko‘ra tarbiyaviy jarayonni moslashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi: qaysi qadriyatlarda qiyinchilik ko‘p bo‘lsa, shu yo‘nalishda o‘yin vaziyatlari va muloqot senariylari ko‘paytiriladi.

Integratsiyaning bosqichma-bosqich modeli uch pog‘onada tavsiflanadi. Birinchi pog‘ona tanishtirish va emotsional jalb etish bosqichi bo‘lib, bunda qadriyatlar asosan obraz, ertak, qo‘g‘irchoq teatri, musiqiy harakatlar orqali “yoqimli tajriba” sifatida beriladi; maqsad bolada ijobiy munosabat va qiziqishni uyg‘otishdir. Ikkinchi pog‘ona faol amaliyot bosqichi bo‘lib, qadriyatlar kundalik rejim va o‘yinda barqaror mashq qilinadi: navbatchilik, “yordamchi do‘st” rollari, guruh qoidalarini birgalikda belgilash, mini-loyihalarda hamkorlik. Uchinchi pog‘ona barqarorlashuv va umumlashtirish bosqichi bo‘lib, bola turli vaziyatlarda o‘xshash axloqiy tanlovni mustaqilroq amalga oshira boshlaydi; tarbiyachi esa refleksiv savollar, muhokama va ijobiy mustahkamlash orqali xulqning ma’nosini mustahkamlaydi. Modelning ilmiy jihati shundaki, u qadriyatlarni “mavzu”dan “tajriba”ga, tajribadan “odat”ga o‘tish mantiqini metodik jihatdan tartiblaydi va tarbiyachi faoliyatida izchillikni kuchaytiradi .

Amaliy joriy etish nuqtayi nazaridan integratsiya tarbiyachidan fanlararo emas, faoliyatlararo dizaynni talab qiladi: nutqni rivojlantirishda salomlashish va iltimos qilish nutq konstruktsiyalarini boyitish, tasviriy faoliyatda milliy naqsh elementlarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirish

emas, balki rang uyg‘unligi va tartib tushunchasi bilan bog‘lash, musiqa mashg‘ulotlarida jamoaviy ijro intizomi va bir-birini eshitish ko‘nikmasini qadriyat bilan bog‘lash, jismoniy faollikda halollik va qoidaga rioya etish mezonlarini “o‘yin adolati” sifatida ochish mumkin. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotining predmet-muhitida milliy qadriyatlar “ko‘rgazma” darajasida qolib ketmasligi kerak; muhit bolaning faol harakati uchun xizmat qilganda integratsiya real bo‘ladi: milliy buyumlar maketlari bilan rolli o‘yin, pazandachilikka oid xavfsiz imitasion o‘yinlar, hunarmandchilikni aks ettiruvchi konstruktor va mozaikalar shular jumlasidandir .

Xulosa. Milliy qadriyatlar integratsiyasini rivojlantirish maktabgacha yoshda alohida mavzular majmuasini ko‘paytirish orqali emas, balki o‘yin, muloqot, badiiy-estetik va kundalik rejim faoliyatlariga qadriyat mazmunini tabiiy singdirish orqali samarali amalga oshadi. Taklif etilgan mezonlar va bosqichli model tarbiyachiga jarayonni diagnostika asosida rejalash, tarbiyaviy muhitni moslashtirish va natijani barqarorlashtirish imkonini beradi. Eng muhim natija sifatida bolada qadriyatga oid bilim, emotsional munosabat va amaliy xulqning uyg‘unlashuvi ta’minlanadi, bu esa keyingi ta’lim bosqichlarida ijtimoiy moslashuv va madaniy o‘zini tutishning mustahkam poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. Qodirova F. R. Maktabgacha pedagogika: darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 320 .

2.Aripova, D. [2019]. ,,Maktabgacha yoshdagi bolalarda umuminsoniy qadiryatlarni shakillantirish.’’ Barkamol avlod, 22-23.

3.G’aniyeva, N. ,,Qadiryatlar integiratsiyasining pedagogik asoslari. 2020. Yosh pedagog,77-83.

4. Jo’rayev , S.[2022]. ,,Maktabgacha ta’limda qadiryatlar tarbiya ; muammolar va yechimlar." Zamonaviy ta’lim , 101-108.

5. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. 247 p.

6. Elkonin D. B. Psychology of Play. Moscow: Progress Publishers, 1978. 220 p.

7. Hasanboeva O. U. Maktabgacha ta’lim metodikasi. T.: Fan va texnologiya, 2020. 256 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OG`ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA O`YIN VA ERTAK TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI

Z.Sh.Qarshiyeva

Kattaqo`rg`on davlat pedagogika instituti, PhD

D.B.Murodova, *magistr*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ularning aqliy, ijtimoiy va shaxsiy komolotida muhim o`rin tutadi. Bu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning og`zaki nutqini rivojlantirish takomillashtirish va bolalar nutqidagi kamchiliklar ularni oldini olish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, didaktik o‘yinlar, hamda o`zbek milliy xalq ertaklaridan samarali foydalanish orqali bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda o`yin va ertak texnologiyalarini birlashtirish yanada samarali natija berishi va afzalliklari asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur yondashuv bolalarning so‘z boyligini oshirish, muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, og`zaki nutq, ta’lim, o`yin texnologiyalari, ertak texnologiyalari, integratsiya, nutqiy faollik, maktabgacha ta’lim.*

Kirish. O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi bu O`zbekistonda ta’lim tizimini yangilash kengaytirish va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik hujjatdir. Prezident qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda maktabgacha ta’limni tubdan modernizatsiya qilish, sifatini oshirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan muhim davlat hujjatidir.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda pedagoglar va ota-onalar oldida farzandlarining barkamol shaxs qilib tarbiyalash eng katta ma’sulyatli vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ularning og`zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bolalarda nutq faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi va nutqiy kamchiliklaring nutqida uchrashi ularning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko`rsatishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og`zaki nutqni rivojlantirishda o`yin va ertak texnologiyalari integratsiyasi zamonaviy va samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarning nutqiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yosh davri bola nutqining eng faol shakllanish bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning so`z boyligi kengayadi, grammatik tuzilmalardan foydalanish qobiliyati shakllanadi hamda og‘zaki nutq orqali fikrini ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o`yin va ertak texnologiyalarini integratsiya qilish bolalarning nutqiy rivojlanishida samarali vosita sifatida qaralmoqda.

O‘yin va ertak texnologiyalari integratsiyasi

Integratsiya - bu umumiy ma’noda birlashtirish ya’ni turli metod va vositalarni yagona tizimga keltirish uyg`unlashtirish jarayonidir. O`yin va ertak texnologiyalarni birlashtirish yanada samarali natija beradi. Bunday integratsiya quyidagi shakllarda amalga oshadi.

- Ertak asosida rolli o`yinlar tashkil etish.
- Ertak qahramonlarini sahnalashtirish.
- Interativ o`yinlar orqali ertak mazmunini mustahkamlash.

Maktabgacha ta’lim tizmida bolalaring og`zaki nutqini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Nutq- bu nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiylashuvining asosiy omilidir. Ayniqsa 3-7 yosh oralig`ida bolalarda nutq jadal rivojlanadi va bu davrda berilgan ta’lim-tarbiya keyingi bosqichlar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko`rsatadiki o`yin va ertak texnologiyalarini integratsiyalash bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mustaqil fikrlash rivojlanadi.

Mustaqil fikrlash zamonaviy ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa ularning mustaqil fikrlash qobilyatini shakllantirish dolzarb masalalrdan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlash bolalaning kelajakdadgi o`quv faoliyati, ijtimoiy hayoti va shaxs sifatida shakllanishida muxim omil bo`lib xizmat qiladi. Maktabgacha yosh davrida bolalar atrof-muhitni faol o`rganadi, savollar beradi, tajriba va xulosa qiladi, o`z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Shu bois ushbu davrda ta’lim jarayonini qiziqarli, maroqli, interaktiv va bolaga mos tashkil etish zarur. Bu borada o`yin va ertak texnologiyalari eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlash-bu shaxsning muayyan muammo yoki vaziyatga nisbatan o`z fikrini erkin, asosli va mustaqil ravishda shakllantirish qobilyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash quydagi ko`nikmalar orqali nomoyon boladi.

- savol berish va javob izlash**.**
- turli variantlarni solishtirish.
- muammoni hal qilish yo`llarini topish**.**
- o`z fikrini himoya qilish.

Psixologlarning takidlashicha, aynan o`yin va ijodiy faoliyat jarayonida bolalarning tafakkuri eng faol rivojlanadi. O`yin-maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo’lib, u orqali bola nafaqat hordiq chiqaradi,balki o`rganadi, fikrlaydi va qaror qabul qiladi.

O`yin jarayonida shakllanadigan fikrlash ko`nikmalari

- Tanlash va qaror qabul qilish-bola o`yinda qaysi rolni tanlash, qanday harakat qilish mustaqil hal qiladi.

- Muammoli vaziyatni hal qilish-o`yin davomida yuzaga keladigan muammolarni o`zi hal etishga harakat qiladi.

- Mantiqiy fikrlash-qoidali o'yinlar orqali sabab-oqibatini tushunadi.

- Ijodiy fikrlash-o`yin davomida yangi syujetlar va g`oyalar o`ylab topadi.

Ertak texnologiyalarining mustaqil fikrlashga ta'siri-ertaklar bolalarning tafakkuriga kuchli ta'sir ko`rsatadigan vositadir. Ular orqali bola hayotiy vaziyatlarni ramziy shaklda anglaydi.

Ertak orqali rivojlanadigan fikrlash jarayonlari.

- Tahlil qilish-bola qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi.

- Taqqoslash- yaxshi va yomon xulq-atvorni farqlaydi.

- Taxmin qilish-voqea qanday davom etishini oldindan aytadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, o`yin va ertak texnologiyalarini integratsiyalash maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondoshuv orqali bola nafaqat bilim oladi, balki uni mustaqil ravishda qo`llash,tahlil qilish va yangi g`oyalar yaratishni o`rganadi. Natijada esa, erkin fikrlaydigan, ijodkor va faol shaxs shakllanadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda o`yin faoliyati va ertak texnologiyalari integratsiyasining samaradorligi o'rganildi. Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, an'anaviy usullarga nisbatan o`yin asosida tashkil etilgan mashg`ulotlar bolalarda nutqiy faollikni sezilarli darajada oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

Xususan, mashg`ulotlar davomida bolalarning faol ishtiroki ta'minlanganda ularning lug`at zaxirasi bosqichma-bosqich kengayib borishi kuzatiladi. Bolalar nafaqat yangi so`zlarni balki ularni amaliy nutqda to`g`ri qo`llay olish ko`nikmalari ham shakllanadi.

Ertaklar bilan ishlash jarayonida bolalarda

- Yangi so`z va iboralarni o`zlashtiradi
- Obrazli va ifodali nutqdan foydalanishni o`rganadi
- Gaplarni gramatik jihatdan to`g`ri qo`llashga intiladi.

O`yin faoliyatida esa bu jarayonni yanada mustahkamlaydi.Ayniqsa, rolli o`yinlarda bolalar muloqot jarayonida yangi so`zlarni faol qo`llaydi, dialogik nutqni rivojlantiradi, va vaziyatga mos so`z tanlash ko`nikmasini egallaydi.

Natijalar shuni ko`rsatadik, integratsiyalashgan yondashuv qo`llanilgan guruhlarda:

- Bolalarning lug`at bo`yligi an'anaviy usullarga nisbatan tezroq oshgan;

- Nutqning ravonligi va ifodaliligi yaxshilangan;

- Mustaqil fikrni og`zaki bayon qilish darajasi yuqorilagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og`zaki nutqni rivojlantirishda o`yin va ertak texnologiyalarini integratsiya qilish yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, bu metod bolani majburlamasdan, qiziqarli tarzda ta'lim jarayoniga jalb etadi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og`zaki nutqni rivojlantirishda o`yin va ertak texnologiyalarini integratsiyalash muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot jarayonida o`z tasdig`ini topdi. Ushbu yondashuv bolalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko`rsatadi.

Tahlillar shuni ko`rsatdiki, o`yin faoliyati orqali bolalar erkin muloqotga kirishadi, o`z fikrini mustaqil bayon qiladi hamda turli nutqiy vaziyatlarda to`g`ri qaror qabul qilishni o`rganadi. Ertak texnologiyalari esa bolalarning tasavvurini boyitib, lug`at zahirasini kengaytiradi va nutqning ifodaliligini oshiradi.

Mazkur ikki texnologiyaning uyg`unlashuvi natijasida bolalarda nafaqat nutq rivojlanadi, balki ular voqealarni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi muhim fikrlash ko`nikmalarini ham egallaydi. Ayniqsa, ertaklarni sahnalashtirish va rolli o`yinlar orqali bolalar dialogik nutqni faol qo`llab, o`zaro muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Shuningdek, olib borilgan mashg`ulotlar natijalari bolalarning nutq boyligi, ravonligi va mustaqil fikr bildirish darajasi sezilarli darajada oshganini ko`rsatdi. Bu esa o`yin va ertak texnologiyalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim jarayonida o`yin va ertak texnologiyalaridan tizimli va maqsadli foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlab, ularni erkin fikrlaydigan, nutqi ravon va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni tasdiqlaydiki, yetakchi pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar dialogik va monologik nutqni uyg`un rivojlantirishga asoslangan bo‘lib, bu bolalarda mustaqil fikr bayon qilishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, interaktiv vositalar orqali tashkil etilgan mashg`ulotlar bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning lug`at boyligini kengaytiradi hamda nutqni izchil va ravon ifodalash ko`nikmalarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Qarori. -T.: 2019 y., 8-may.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya o`yin haqida. – M.: Pedagogika, 1978.
3. (O`yin bolaning yetakchi faoliyati sifatida va nutq rivojlanishidagi o`rni haqida
4. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1992.
5. (Rol o`yinlari va nutqiy faollikning bog`liqligi).
6. Ushakova O.S., Strunina E.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi. – M.: Prosveshenie, 2004.
7. (Ertak va o`yinlar orqali nutq rivojlantirishning amaliy usullari).
8. Lebedeva S.A. Ertak terapiyasi: maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish. – SPb.: Rech, 2009.
9. Zaporojets A.V., Markova T.A. O`yin va maktabgacha yoshdagi bolaning psixik rivojlanishi. – M.: Pedagogika, 1984.
10. Babayeva.D.R. “Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi” darslik T: 2018 y
11. Ollaberganova.S.H. “Maktabgacha ta’limda nutq va o`zga tilga o`rgatish” o`quv – uslubiy qo‘llanma T: 2017 y
12. Erxonova.N., Ro‘ziyeva.Z. “Tarbiyachi kitobi Nutq o`stirish” T: 2021y

MAKTABGACHA TA'LIMDA TARBIYAVIY MASHG ‘ULOTLAR JARAYONIDA O’ZBEK XALQ ERTAKLARI ASOSIDA AXLOQIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

F.Mardiyeva

Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Instituti, 1-bosqich magistranti

Email:-farangizmardiyeva 71@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida o’zbek xalq ertaklari asosida bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Ertaklarning bolalar ongiga, hissiy- irodaviy holatiga hamda xulq-atvoriga kompleks tasiri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: tarbiyaviy faoliyat, ma’naviy- axloqiy rivojlanish, pedagogik yondashuv, ijodiy faoliyat, o’zbek xalq ertaklari, zamonaviy yondashuv, shaxs rivoji, tafakkur.*

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk inson sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash zarurligini ta’kidlab kelmoqda. Maktabgacha ta’lim bosqichi esa shaxs shakllanishining eng muhim davrlaridan biri bo’lib, aynan shu davrda bolalarda dastlabki axloqiy tushunchalar shakllanadi. Shu sababli ushbu bosqichda qo’llaniladigan pedagogik vositalarning samaradorligi katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq ertaklari esa o’zining obrazliligi, emotsional ta’sir kuchi va milliy ruh bilan sug’orilganligi sababli axloqiy tarbiya berishda muhim o’rin tutadi.

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyani inson kamolotining asosi sifatida ko’rsa, K.D. Ushinskiy xalq og’zaki ijodini bolalar tarbiyasining eng tabiiy vositasi sifatida e’tirof etadi.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantirish murakkab va ko’p bosqichli jarayon bo’lib, u faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanmaydi, balki bolalarning

- ✓ ongiga;
- ✓ hissiyotiga
- ✓ xulq-atvoriga

bir vaqtning o’zida ta’sir etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o’zbek xalq ertaklari mazkur jarayonni samarali tashkil etish imkonini beruvchi tabiiy pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki ertaklar orqali berilayotgan axloqiy mazmun bolalar tomonidan majburlovsiz, qiziqish bilan qabul qilinadi va asta-sekin ichki e’tiqodga aylanadi.

Axloqiy tushunchalar shakllanishining nazariy asoslari shuni ko’rsatadiki, bola dastlab yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarni obrazlar orqali anglaydi. Shu bois mashg’ulotlar jarayonida ertaklardan foydalanishda ifodali bayon etish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining nutqi, ohangi va hissiy ifodasi orqali ertak mazmuni bolaga chuqurroq yetib boradi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, agar ertak oddiy ohangda o’qib berilsa, bolalar uni tez unitadi, aksincha, ifodali bayon etilganda ular voqealarni uzoq vaqt eslab qoladi va qahramonlarning xatti-harakatlariga nisbatan munosabat bildiradi. Ertakni idrok etgandan so’ng uning mazmunini anglash va ichki xulosaga kelish jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda suhbat va yo’naltiruvchi savollar usuli muhim o’rin tutadi. Tarbiyachi bolalardan qahramonning harakatiga baho berishni so’raganda, bolalar turlicha fikr bildiradi va shu orqali ular o’z qarashlarini asoslashga harakat qiladi. Bu jarayon bolalarda nafaqat fikrlash, balki axloqiy mezonlar asosida baholash ko’nikmasini ham shakllantiradi.

Maktabgacha ta'limda tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida o’zbek xalq ertaklari asosida axloqiy tushunchalarni shakllantirish usullari quyidagilar

- ❖ Ifodali bayon etish usuli

Ertakni ifodali, jonli va hissiy ohangda bayon etish bolalarning diqqatini jalb qiladi va mazmunni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Tarbiyachining ovoz tembri, mimika va imo-ishoralari orqali ertak qahramonlarining xarakteri ochib beriladi. Bu usul bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash ko’nikmasini shakllantiradi.

- ❖ Suhbat va savol- javob usuli

Ertak tinglangandan so’ng bolalar bilan tashkil etiladigan suhbatlar muhim o’rin tutadi. Tarbiyachi tomonidan beriladigan yo’naltiruvchi savollar orqali bolalar qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, ularga baho beradi va mustaqil xulosa chiqarishga o’rganadi. Bu jarayon axloqiy tafakkurni rivojlantiradi.

- ❖ Sahnalashtirish usuli

Ertakni sahnalashtirish bolalarni faollashtiradi. Qahramonlar rolini ijro etish orqali bola ularning his-tuyg’ularini chuqurroq his qiladi va axloqiy mazmunni o’zlashtiradi. Bu usul ayniqsa ijtimoiy xulq va muomala madaniyatini shakllantirishda samaralidir.

❖ Rolli o’yinlar usuli

Rolli o’yinlar bolalarning ijodkorligini rivojlantirib, ularni turli hayotiy vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishga o’rgatadi. Masalan “yaxshi qahramon” va “yomon qahramon” rollarini bajarish orqali bolalar hulq atvor farqlarini amalda anglay boshlaydi.

❖ Taqqoslash va umumlashtirish usuli

Bu usul orqali bolalar turli ertak qahramonlarining xatti- harakatlarini taqqoslaydi va umumiy xulosalar chiqaradi. Natijada ular yaxshilik, halollik, rostgo’ylik kabi tushunchalarni ongli ravishda anglaydi.

❖ Ijodiy faoliyat usuli

Bolalarda ertak asosida rasm chizish, hikoya tuzish yoki yangi yakun o’ylab topish topshiriqlari beriladi. Bu usul ularning tasavvurini kengaytiradi va axloqiy tushunchalarni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishiga yordam beradi.

❖ Namunaviy xulqni ko’rsatish usuli

Tarbiyachi ertak qahramonlari orqali ijobiy xulq namunalarini ko’rsatadi. Bolalar ushbu obrazlarga taqlid qilish orqali o’z xulqini shakllantiradi. Bu usul axloqiy tarbiyada muhim o’rin tutadi.

❖ Refleksiya (yakuniy tahlil) usuli

Mashg’ulot ohirida bolalardan “ertak sizga nima o’rgatdi?” kabi savollar orqali ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bu bosqichda bolalar o’z xulosalarini mustahkamlaydi va o’z xatti-harakatlarini baholashga o’rganadi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek xalq ertaklari maktabgacha ta’lim tizimida axloqiy tushunchalarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular orqali bolalarda nafaqat bilim, balki hissiy munosabat va ijtimoiy xulq shakllanadi. Mazkur jarayonni ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar asosida tashkil etish bolalarning ma’naviy- axloqiy rivojlanishini ta’minlaydi va ularni barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ham mazkur jarayonni yanada samarali tashkil etishga hizmat qiladi. Xususan shaxsga yo’naltirilgan yondashuv bolalarning individual hususiyatlarini hisobga olishni talab etsa faoliyatga asoslangan yondashuv ularning bevosita ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Integrativ yondashuv esa axloqiy tarbiyani boshqa rivojlanish yo’nalishlari bilan uyg’unlashtirish imkonini beradi. Shu asosda tashkil etilgan mashg’ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hizmat qiladi. Umuman olganda ertaklar asosida axloqiy tushunchalarni shakllantirish jarayoni pedagogda yuqori darajadagi kasbiy mahoratni metodik savadhonlikni va ijodkorlikni talab etadi. Chunki bu jarayon oddiy bilim berishdan ko’ra murakkabroq bo’lib bola shaxsning ichki dunyosiga ta’sir etishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Shavkat Mirziyoyev-“Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”(2022)
2. Konstantin Ushinskiy. Inson tarbiyasi haqida tanlangan asarlar.- Moskva, 1988
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.
4. Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” Darslik TDPU 2018 yil.
5. O’zbek xalq ertaklari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISHGA IJOBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Qilicheva Feruza Botirovna

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, magistr

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida (7–10 yosh) o‘qishga (o‘quv faoliyatiga) nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari, pedagogik mexanizmlari, amaliy usullari va zamonaviy yondashuvlari chuqur tahlil qilinadi. Motivatsiyaning ichki va tashqi turlari, Self-Determination Theory asosidagi avtonomiya, kompetentsiya va bog‘lanish ehtiyojlari, didaktik o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, tanlov erkinligi, muvaffaqiyat vaziyati yaratish, hamkorlik, geymifikatsiya va oila-maktab integratsiyasi kabi*

mexanizmlar batafsil ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston va xalqaro tadqiqotlar (EGRA natijalari, o‘zbek olimlarining ishlari, Wigfield-Guthrie modeli) asosida ta’lim samaradorligining katta qismi o‘quv motivlarini to‘g‘ri shakllantirishga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Maqola o‘qituvchilar, metodistlar va bo‘lajak pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar, misollar, diagnostika usullari va istiqbolli yo‘nalishlar bilan boyitilgan bo‘lib, ijobiy motivatsiya orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalari, ijodkorligi, o‘z-o‘zini baholashi va umrbod ta’limga tayyorgarligini ta’minlash yo‘llarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *o‘qish motivatsiyasi, boshlang‘ich sinf, ijobiy motivatsiya, pedagogik mexanizmlar, ichki va tashqi motivlar, Self-Determination Theory, didaktik o‘yinlar, geymifikatsiya, ijodiy topshiriqlar, oila-maktab hamkorligi.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiyati, kognitiv va emotsional rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Aynan 7–10 yoshda o‘quv faoliyatiga nisbatan barqaror munosabat shakllanadi va kelajakdagi o‘qishga bo‘lgan qiziqish yoki befarqlikning asoslari qo‘yiladi. O‘qishga ijobiy motivatsiya — bu o‘quvchi o‘qish jarayonini o‘zi uchun qiziqarli, foydali, yoqimli va ichki istak bilan bog‘liq deb his qilishi, shuningdek, bilim olishni o‘z-o‘zidan rag‘batlantiruvchi faoliyat sifatida qabul qilishi demakdir.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada motivatsiya ta’lim samaradorligining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholanadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonining samaradorligi taxminan 80–92% o‘quv motivlarini to‘g‘ri shakllantirishga bog‘liq. Past motivatsiya o‘quvchilarda sustkashlik, befarqlik, yuzaki bilim olish va hatto o‘qishdan voz kechishga olib keladi. Aksincha, ijobiy motivatsiya mustaqil fikrlash, ijodkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, uzoq muddatli ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, “Raqamli O‘zbekiston-2030” va ta’lim standartlarini yangilash jarayonida boshlang‘ich sinflarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy bolalar ko‘pincha raqamli qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborot oqimi ta’sirida bo‘lib, an’anaviy kitob o‘qishga qiziqishi pasayishi mumkin. Shu bilan birga, UNICEF va milliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitda erta o‘qish tajribasi, oila tomonidan qo‘llab-quvvatlash va maktabda ijobiy muhit o‘quvchilarning natijalarini sezilarli yaxshilaydi. Shu bois, pedagogik mexanizmlarni samarali qo‘llash orqali ijobiy motivatsiyani shakllantirish nafaqat hozirgi ta’lim sifatini oshiradi, balki milliy ta’lim maqsadlariga — barkamol shaxs tarbiyasiga ham xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirishning nazariy asoslarini ochib berish, pedagogik mexanizmlarni tizimli tahlil qilish va o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot vazifalari: motivatsiya turlarini farqlash, asosiy mexanizmlarni aniqlash, amaliy misollar va diagnostika usullarini keltirish hamda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash.

Motivatsiyaning nazariy-psixologik asoslari:

Motivatsiya (lotincha “movere” — harakatga keltirish) — shaxsni muayyan faoliyatga undaydigan ichki va tashqi omillar majmui. Pedagogik-psixologik nazariyalarda u quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

- Ichki (intrinsik) motivatsiya — o‘quv jarayonining o‘zi qiziqarli bo‘lgani uchun paydo bo‘ladi (qiziqish, zavq, o‘sish istagi, Curiosity, Challenge). Bu turdagi motivatsiya barqaror, uzoq muddatli va o‘quvchining mustaqil rivojlanishini ta’minlaydi.
- Tashqi (ekstrinsik) motivatsiya — baho, rag‘bat, maqtov, tan olish yoki jazo orqali hosil bo‘ladi. U qisqa muddatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin, lekin ichki motivatsiyaga o‘tish uchun asos bo‘la oladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ichki motivatsiya o‘qish strategiyalari va matnni chuqur tushunishni yaxshilashda kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. O‘zbek olimlarining ishlarida (Sherova L.H.,

Azimova K.K., Maftuna Q. va boshqalar) o‘quv motivlarining murakkab tuzilmasi ta’kidlanadi: ular ehtiyoj, qiziqish, intilish, hissiyotlar va ijtimoiy omillar shaklida namoyon bo‘ladi.

L.S. Vygotskiy ta’kidlashicha, qiziqish — bola faoliyatining tabiiy harakatlantiruvchi manbai. Ta’lim jarayonini bolaning tabiiy qiziqishlari va yaqin rivojlanish zonasi asosida qurish zarur. Self-Determination Theory (Deci va Ryan) bo‘yicha motivatsiyani kuchaytirish uchun uchta asosiy psixologik ehtiyojni qondirish lozim:

1. Avtonomiya — tanlov erkinligi va o‘z qarorlarini qabul qilish imkoniyati.
2. Kompetentsiya — muvaffaqiyat hissi va o‘z qobiliyatlariga ishonch.
3. Bog‘lanish— ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik va tegishlilik hissi.

Bu ehtiyojlar qondirilganda o‘quvchi ichki motivatsiyaga o‘tadi va o‘qishni “majburiyat” emas, balki “istak” sifatida qabul qiladi. O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqotlar (masalan, boshlang‘ich sinflarda geymifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik orqali motivatsiyani rivojlantirish) ham shu nazariyani tasdiqlaydi.

O‘quv motivatsiyasini shakllantirishning asosiy pedagogik mexanizmlari quyidagilar:

1. Qiziqish mexanizmi (materialni bola yoshi, tajribasi va qiziqishlariga moslashtirish).
2. Muvaffaqiyat mexanizmi (“muvaffaqiyat vaziyati” yaratish va ijobiy kuchaytirish).
3. Hamkorlik mexanizmi (guruhli, juftlik va oilaviy ishlari).
4. Tanlov mexanizmi (faoliyat turini, kitobni yoki usulni tanlash imkoniyati).
5. O‘yin va geymifikatsiya mexanizmi (didaktik o‘yinlar va raqamli elementlar orqali emotsional fon yaratish).
6. Refleksiya mexanizmi (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash).

Pedagogik mexanizmlarning amaliy jihatlari va usullari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy motivatsiyani shakllantirish uchun quyidagi mexanizmlar va usullar samarali ekanligi milliy va xalqaro tajribada tasdiqlangan:

1. Didaktik o‘yinlar va geymifikatsiya Didaktik o‘yinlar bolalarning tabiiy faolligini rag‘batlantiradi va o‘qishni qiziqarli jarayonga aylantiradi. Samarali misollar:

✓ “Concentration” (juft kartalarni topish) — so‘z tanishuv va vizual xotirani rivojlantiradi.

✓ “Go Fish” yoki “So‘zlar zanjiri” — o‘qish tezligi va aniqligini oshiradi.

✓ “Matnni sahnalashtirish”, “Hikoya davomini o‘ylab top” yoki “Silly voices” (hazil tuyg‘usi bilan o‘qish) — ijodkorlik va emotsional ishtirokni kuchaytiradi.

✓ “Diving for Digraphs” yoki “Sight Word Jenga” — harakat va o‘yin elementlarini birlashtirib, diqqatni saqlaydi.

Geymifikatsiya (ballar, darajalar, yutuqlar) orqali o‘quvchilar o‘qishni “o‘yin” sifatida qabul qiladi va motivatsiya sezilarli oshadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar stressni kamaytiradi va ichki motivatsiyani faollashtiradi.

2. Ijodiy topshiriqlar va loyihalar Ijodiy vazifalar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi:

✓ Matn bo‘yicha rasm chizish, hikoya davomini yozish yoki teatr tomoshasi tayyorlash.

✓ “Mening sevimli kitobim” prezentatsiyasi yoki sinf kutubxonasi yaratish loyihasi.

✓ “Reading Calendar” (o‘qish taqvimi) — haftalik mavzular bo‘yicha kitob tanlash va muhokama.

Bu mexanizm avtonomiya va kompetentsiya ehtiyojlarini qondiradi, chunki bola o‘z g‘oyasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbek tadqiqotchilari (Boltayeva Sh. va boshqalar) ijtimoiy pedagogik imkoniyatlarni ta’kidlaydi.

3. Tanlov erkinligi va shaxsiy maqsad qo‘yish O‘quvchiga kitob tanlash, topshiriq turini belgilash yoki o‘z maqsadini qo‘yish huquqini berish muhim. Misollar:

✓ “Bugun qaysi hikoyani o‘qimoqchisan?” yoki “Keyingi darsda nima haqida gaplashamiz?”.

✓ Haftalik “Tanlov kuni” — o‘quvchi o‘zi uchun kitob yoki faoliyat turini tanlaydi.

Bu usul o‘quvchini jarayonning sub’ekti sifatida his qilishiga yordam beradi va Self-Determination Theory asosida avtonomiyani kuchaytiradi.

4. Muvaffaqiyat vaziyatini yaratish va ijobiy baholash O‘qituvchi har bir o‘quvchining kichik muvaffaqiyatlarini sezib, aniq va samimiy maqtov berishi kerak (“Sen bu jumlani juda ifodali o‘qiding!”, “Sening savoling butun sinfni o‘ylantirdi”). Qiyin materialni bosqichma-bosqich murakkablashtirish (“muvaffaqiyat zinapoyasi”) va xatolarini qo‘llab-quvvatlovchi tarzda tahlil qilish o‘quvchida o‘ziga ishonchni oshiradi. Ijobiy kuchaytirish (positive reinforcement) kompetentsiya hissi beradi.

5. Hamkorlik va ijtimoiy mexanizmlar

✓ Guruhli o‘qish, “o‘quvchi-o‘quvchiga” o‘qitish usuli va kitob muhokamasi.

✓ Sinf kutubxonasi yoki “Kitob do‘stlari” klubi tashkil etish.

✓ Oila bilan hamkorlik: oilaviy o‘qish an’anasini tiklash, ota-onalar uchun seminarlar va “Oila o‘qish soati”.

Bolalar bir-birining muvaffaqiyatidan ilhomlanadi va o‘qishni ijtimoiy jarayon sifatida qabul qiladi. Tadqiqotlar oilaviy muhitning o‘qish ko‘nikmalariga kuchli ta’sirini tasdiqlaydi.

6. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar

✓ Multimedia vositalar, interaktiv taxta, AR-ilovalar (kengaytirilgan reallik) va raqamli kitoblar.

✓ Tematik loyihalar va refleksiya usullari (o‘qigan kitob haqida o‘z fikrini yozish, chizish yoki video tayyorlash).

✓ Diagnostika: oddiy anketalar, MRQ so‘rovnomalari yoki kuzatuv jurnallari orqali motivatsiya darajasini muntazam baholash.

O‘zbekistonda geymifikatsiya va kompetentsiyaviy yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar (masalan, 1-sinflarda o‘quv-bilish motivatsiyasini rivojlantirish) ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish — murakkab, lekin tizimli va kompleks yondashuv bilan hal qilinadigan pedagogik vazifadir. Asosiy mexanizmlar qiziqish, muvaffaqiyat, tanlov, hamkorlik, o‘yin va refleksiyaga asoslanishi kerak. O‘qituvchining roli yetakchi bo‘lib, u nafaqat bilim beruvchi, balki motivatsiyani uyg‘otuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va ilhomlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Amaliy tavsiyalar o‘qituvchilar uchun:

✓ Har bir darsda kamida bitta o‘yin yoki ijodiy element qo‘llang.

✓ O‘quvchilarga haftada bir marta kitob tanlash huquqini bering va tanlovni hurmat qiling.

✓ Muvaffaqiyatlarni jamoaviy nishonlang (sinf devor gazetasi, “Eng faol o‘quvchi” nominatsiyasi yoki yutuqlar devori).

✓ Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazing, oilaviy o‘qishni rag‘batlantiring va maslahatlar bering.

✓ Motivatsiya darajasini har chorakda diagnostika qiling va natijalarga qarab usullarni tuzating.

✓ O‘z malakasini oshirish: Self-Determination Theory va zamonaviy geymifikatsiya bo‘yicha treninglarda qatnashing.

Agar o‘qituvchilar yuqoridagi mexanizmlarni tizimli ravishda qo‘llasa, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bu nafaqat hozirgi ta’lim sifatini oshiradi, balki kelajakdagi mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini, kitobsevarlikni va umrbod ta’limga intilishni ham ta’minlaydi. Natijada, barkamol, ijodkor va raqobatbardosh shaxslar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova, G. (2020). *Maktabgacha ta’lim psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
2. Yo‘ldosheva, S. T. (2019). *Bolalar psixologiyasi*. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
3. Vygotsky, L. S. (2002). *Imagination and Creativity in Childhood*. New York: Routledge.
4. Jalolov, H. H., & Mahkamova, D. R. (2021). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Runco, M. A., & Acar, S. (2012). *Divergent thinking as an indicator of creative potential*. Creativity Research Journal, 24(1), 66–75.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASH (KATTA VA TAYYORLOV GRUHI ASOSIDA)

Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika institute, 1-bosqich magistranti
muxlisaqarshiboyeva9@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda, xususan katta va tayyorlov guruhlarida axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari ko’rib chiqilgan. Axloqiy tarbiyaning ahamiyati hamda uni rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan.*

Kalit so’zlar*: axloqiy shakllanish, maktabgacha ta’lim, ijtimoiy muhit, tarbiyaviy ta’sir, pedagogik jarayon, moslashuv.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ko’p jihatdan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo’lib voyaga yetishiga bog’liqdir. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni nafaqat intellektual, balki axloqiy jihatdan ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri-shaxsning asosiy fazilatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalar (5–7 yosh) atrof-muhitni faol o’rganish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va o’z xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishga o’rganish davrida bo’ladi. Shu sababli aynan ushbu bosqichda ularda mehr-oqibat, hurmat, halollik, mas’uliyat kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish, har taraflama barkamol va yetuk qilib tarbiyalash ustuvor vazifamizdir.

Asosiy qism. Axloq - jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan maqulllangan jarayondir. Odob-axloq o’zbek millati hayotining mazmuni hisoblanadi. Qaysi jamiyatda, qaysi davlatda yaxshi xulq qaror topsa, o’sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari boy-badavlat bo’ladi. Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma’nosi, avvalo, ota-onaning o’zi axloqiy tarbiya ko’rgan bo’lishi kerak degani. Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” degan ajoyib maqol bor. Ya’ni ota-ona oilada farzandiga yuksak axloq namunasini ko’rsatmog’i lozimdir.

Axloq tushunchasini Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida juda chiroyli qilib tushuntirib o’tgan. “Insonlarni(ng) yaxshilikg’a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgon kitobni axloq deyilur. Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo’lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg’a tavsif bo’lub «yaxshi xulq», agar tarbiyatsiz o’sub, yomon ishlaydurgan bo’lub ketsa, yomonliqq‘a tavsif bo’lub, «yomon xulq» deb atalur. Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo’ladur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go’zal xulqlarga odatlanub, katta bo’lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo’lub chiqar”.

Darhaqiqat, Avloniy ta’kidlaganidek, inson tabiati ishlov berilmagan javohirga o’xshaydi. Tarbiya esa unga sayqal beruvchi ustozdir. Agar yoshlikdan qalbga ezgulik urug’i ekilmasa, u

yerda o’z-o’zidan yomon illatlar ildiz ota boshlaydi. Yaxshi xulqli insonning har kim qoshida maqbul bo’lishi shunchaki shaxsiy yutuq emas, balki jamiyatning ma’naviy sog’lomligini belgilovchi omildir. Axloqli inson o’z manfaatini hech qachon manfaatiga zid qo’ymaydi, balki o’zining go’zal odobi bilan atrofdagilarga ham namuna bo’ladi. Bu esa jamiyatda o’zaro ishonch va hurmat muhitini qaror toptiradi.

Muallif “nafs tarbiyat topib” deganda, insonning o’z xohish-istaklarini aql va mantiq tarozisiga solishini nazarda tutadi. Nafs jilovlangan joyda adolat, sabr va saxovat kabi fazilatlar bo’y ko’rsatadi. Aksincha, iroda bo’shligi insonni yomon amallar sari yetaklaydi, bu esa nafaqat shaxsning, balki butun boshli millatning kelajagiga rahna solishi mumkin. Avloniy "axloq ulamolari" haqida gapirganda, bugungi kunning tarbiyachilarini ham nazarda tutgan deyish mumkin. Tarbiyachi-bola uchun adolat va axloq mezonidir. Agar tarbiyachi o’z xulqi bilan o’rnak bo’lsa, bola matndagi "yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni" ajrata oladigan, kelajakda jamiyat uchun "maqbul va baxtiyor inson" bo’lib yetishadi.

Demak, yuqoridagi gaplarni izohlab xulosa qiladigan bo’lsak, “axloq” - bu insonning ichki dunyosi va tashqi amallarining uyg’unligi ekanligiga amin bo’lamiz. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun nafaqat bilim, balki o’sha bilimga amal qiladigan "go’zal xulq" birlamchi bo’lishi lozim. Axloqiy tarbiya bolada ijtimoiy hayot uchun muhim bo’lgan xulq me’yorlari, qadriyatlar va odob-axloq qoidalarini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni. Ushbu jarayon tashqi ta’sirlar orqali emas, balki bolaning ichki dunyosida yuz beradigan o’zgarishlar orqali namoyon bo’ladi

Axloqiy sifatlarni shakllantirish, har xil vositalar orqali amalga oshiriladi. avvalo, kattalarning shaxsiy namunasi muhim o’rin tutadi. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ustoz va shogird munosabatlarida ta’lim va tarbiya haqida juda o’tkir va aniq jumlasi bor, "Yaxshi xulq-atvor va go’zal odoblarni o’rgatishda murabbiy xuddi bog’bonga o’xshashi lozim. U har bir niholning tabiatini bilib, unga mos ravishda parvarish beradi. Ushbu jumlaning tahlil qiladigan bo’lsak, “hamma bolani bir xil tayoq bilan haydash"ga qarshi. Bog’bon atirgulga boshqa, mevali daraxtga boshqa qarov berganidek, tarbiyachi ham har bir insonning o’ziga xos xarakterini tushunishi kerak. Nihol bir kunda daraxt bo’lmaganidek, tarbiya ham vaqt talab qiladi. "parvarish" — bu doimiylik demakdir. Bog’bon nafaqat suv beradi, balki begona o’tlarni ham tozalaydi. Forobiy bu bilan tarbiyada ham maqtov (suv), ham xatolarni tuzatish (begona o’tlarni yulish) uyg’un bo’lishi shartligini aytadi. Bundan ko’rinib turiptiki, agar inson ta’lim olib, nazariy bilimga ega bo’lsa-yu, lekin o’sha bilimini amalda (tarbiyada) ishlatmasa, u meva bermaydigan daraxt kabidir. Tarbiyachi va ota-onaning muomala madaniyati, odob-axloqi bolalar uchun bevosita ibrat bo’lib xizmat qiladi. Bola ko’proq ko’rganini takrorlaydi, shu bois amaliy namuna nazariy tushuntirishdan ko’ra samaraliroqdir. Shuningdek, suhbat va tushuntirish metodlari orqali bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantirish mumkin. Oddiy va tushunarli savol-javoblar orqali bolalarga to’g’ri va noto’g’ri xatti-harakatlar haqida tasavvur beriladi. Masalan:

- ✓ do’stga yordam berish,
- ✓ kattalarni hurmat qilish,
- ✓ yolg’on gapirmaslik,
- ✓ mehr-muhabbat,
- ✓ yaxshi muomalada,


Rolli o’yinlar ham axloqiy tarbiyada muhim vositalardan biridir. O’yin jarayonida bolalar turli ijtimoiy rollarni bajarib, hayotiy vaziyatlarni his etadi va o’z xulq-atvorini shakllantiradi. Bu esa ularda

-hamkorlik,

-sabr-toqat

-hurmat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bundan tashqari, badiiy adabiyotlar, ertak, hikoya va she’rlar orqali bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish samarali hisoblanadi. Qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni anglay boshlaydi. Rag’batlantirish usuli ham muhim ahamiyatga ega. Bolaning ijobiy xatti-harakatlarini maqtash va

qo’llab-quvvatlash uning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi hamda yaxshi xulqni mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xarakterli jihatlardan biri - bu ularning taqlidga moyilligidir. Bola ko’proq kattalar faoliyatini kuzatish orqali o’rganadi va ularni takrorlashga harakat qiladi. Shuningdek, bu davrda:



Shu sababli tarbiyaviy ta’sir izchil va ongli tarzda tashkil etilishi zarur.

Axloqiy tarbiya samaradorligi ko’p jihatdan qo’llaniladigan metodlarga bog’liq va quyidagi yondashuvlar amaliyotda yuqori natija beradi:

- situatsion mashqlar - muayyan vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishni o’rgatadi;
- namunaviy xulqni ko’rsatish - bevosita ta’sir mexanizmini yaratadi;
- rag’batlantiruvchi usullar - ijobiy xatti-harakatni mustahkamlaydi;
- muloqot asosidagi yondashuv - bolada mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

Bulardan tashqari, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O’zbekiston gerbi, bayrog’i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg’ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiya vazifalari: axloqiy his-tuyg’ularni shakllantirish, axloqiy tasavvur va xatti-harakatlarni rivojlantirish, ijobiy xulq va munosabatlarni tarbiyalash, salbiy sifatlarni yo’qotish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o’ynaydi. Ayniqsa, katta va tayyorlov guruhlarida bu jarayon yanada mas’uliyatli bo’lib, tarbiyachidan chuqur bilim va to’g’ri yondashuvni talab etadi. Axloqiy tarbiya jarayonida kattalarning shaxsiy namunasi, suhbat va tushuntirishlar, rolli o’yinlar, badiiy adabiyotlar hamda rag’batlantirish usullaridan samarali foydalanish ijobiy natija beradi. Ushbu usullar orqali bolalarda mehr-oqibat, halollik, hurmat va mas’uliyat kabi muhim axloqiy sifatlar shakllanadi. Bolani har tomonlama rivojlantirish haqida “Ilk qadam” davlat o’quv dasturimizda ham alohida to’xtalib o’tilgan. Aynan ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo’limida:

-bolaning jamiyatda o’zini tutishi va his-tuyg’ularini boshqarishi;

-o’z-o’zini anglash ya’ni, ismi, yoshi va oilasi haqida ma'lumotga ega bo’lish;

-muloqot, tengdoshlari va kattalar bilan do’stona munosabatda bo’lish, jamoada ishlash;

-Odob-axloqni ya’ni, "iltimos", "rahmat" kabi so’zlardan foydalanish va axloq qoidalarga rioya qilish kerakligi kabilari haqida aytib o’tilgan. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axloqiy tarbiya tizimli va uzluksiz olib borilishi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi. - Toshkent, 2018.

2. Abdulla Avloniy,“ Turkiy guliston yoxud axloq”,-Zabarjad Media 2023-yil.

3. F.Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M.Azamova, "Maktabgacha pedagogika",- Tafakkur nashriyoti,Toshkent- 2019. 187-bet.
4. Abu Nasr Forobiy, "Fozil odamlar shahri",- Toshkent-2016.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (EKOBILIM LOYIHASI MISOLIDA)

Samariddinova Mahfuza Shuxrat qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika, instituti 1-bosqich magistranti
amariddinovamahfuza@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish asoslari yoritilgan. "Ekobilim" loyihasi samaradorligi tahlil qilinib, interaktiv va o'yin metodlarining ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, maktabgacha ta'lim, innovatsion yondashuv, ekologik tarbiya, Ekobilim loyihasi, Ekojon, o'yin texnologiyalari.*

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, chiqindilar muammosining keskinlashuvi ekologik ong va madaniyatni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois ekologik tarbiyani yosh avlod ongiga erta singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri shaxsning asosiy qadriyatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalarda tabiatga mehr, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabat, ekologik mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlarining samaradorligini belgilaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari, interaktiv metodlar va loyiha asosida o'qitish bolalarda bilimni samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan "Ekobilim" loyihasi maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyani tashkil etishning samarali vositasi sifatida e'tiborga loyiqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini asoslash va "Ekobilim" loyihasi misolida ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Innovatsion yondashuvlar va ularning pedagogik ahamiyati

Innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangicha metod va texnologiyalar majmuasini anglatadi. Bunday yondashuvlar ta'lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amaliy faoliyatga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki bu yosh davrida bolalar bilimni ko'proq ko'rish, eshitish va amaliy harakatlar orqali qabul qiladilar. Shu sababli o'yin texnologiyalari, interaktiv metodlar, vizual vositalar hamda loyiha asosida o'qitish kabi yondashuvlar samarali hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ★ Bolalarning ta'lim jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi;
- ★ Bilimlarni qiziqarli va oson o'zlashtirishga yordam beradi;
- ★ Mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi;
- ★ Nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog'laydi;
- ★ Bolalarda motivatsiya va qiziqishni oshiradi.

Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini ham beradi, ya'ni har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va o'zlashtirish darajasiga mos faoliyat turlarini tashkil etish mumkin bo'ladi.

Innovatsion yondashuvlarning "Ekobilim" loyihasidagi ifodasi

“Ekobilim” loyihasi maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ushbu loyiha ta’lim jarayonini an’anaviy tushuntirish usulidan ko‘ra ko‘proq o‘yin, tasvir, harakat va interaktiv faoliyat asosida tashkil etadi.

Loyihada innovatsion yondashuvlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Birinchidan, o‘yin texnologiyalari orqali bolalar ekologik tushunchalarni tabiiy va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradilar. Masalan, chiqindilarni saralash o‘yini bolalarga ekologik qoidalarni amalda qo‘llashni o‘rgatadi.

Ikkinchidan, vizual va interaktiv vositalar (kartochkalar, rangli belgilar, eko-panel) bolalarning ko‘rish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi hamda mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Uchinchidan, muammoli vaziyatlar orqali bolalar oddiy ekologik muammolarni hal qilishga o‘rgatiladi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, loyihadagi “Ekojon” obrazi innovatsion yondashuvning muhim elementi bo‘lib, u bolalarda qiziqish uyg‘otish va ta’lim jarayonini emotsional jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, “Ekobilim” loyihasi innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim, ko‘nikma va madaniyatni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Ekobilim loyihasining maqsadi va vazifalari

“Ekobilim” loyihasining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish hamda ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishdan iboratdir. Loyiha bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ekologik tarbiyani qiziqarli va amaliy faoliyatlar orqali tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologiya va tabiat haqidagi boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish;
- Bolalarga atrof-muhitni asrash, tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish zarurligini tushuntirish;
- -Chiqindilarni turlarga ajratish (plastik, qog‘oz, organik) bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Ekologik madaniyat elementlarini kundalik hayotga tatbiq etishga o‘rgatish;
- Bolalarda tabiatga nisbatan mehr, g‘amxo‘rlik va mas’uliyat hissini rivojlantirish;
- O‘yin texnologiyalari va interaktiv vositalar orqali ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil etish;
- Bolalarning mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- “Ekojon” obrazi orqali ekologik bilimlarni emotsional va motivatsion shaklda yetkazish;
- Jamoada ishlash, hamkorlik va o‘zaro yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirish.

Shuningdek, loyiha bolalarda ekologik ongni shakllantirish bilan birga, ularning ijodiy faolligini oshirish va ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

“Ekojon” obrazi va uning pedagogik ahamiyati

“Ekojon” — bu “Ekobilim” loyihasi doirasida yaratilgan ekologik mazmundagi motivatsion qahramon bo‘lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini yanada qiziqarli, tushunarli va emotsional jihatdan boyitishga xizmat

qiladi. Ushbu obraz bolalar uchun do‘stona, mehribon va yordamga muhtoj tabiat himoyachisi sifatida tasvirlanadi.

“Ekojon” obrazining asosiy pedagogik vazifasi bolalarni ekologik tarbiya jarayoniga faol jalb etish, ularning diqqatini jamlash va ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha ertak qahramonlari va obrazli tasvirlar orqali bilimlarni tezroq qabul qilganliklari sababli, “Ekojon” ularga ekologik qoidalarni oson va tabiiy shaklda yetkazishda muhim vosita hisoblanadi.

“Ekojon” orqali bolalarga quyidagi ekologik tushunchalar yetkaziladi:

- Tabiatni asrash va unga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish;
- Chiqindilarni to‘g‘ri tashlash va saralash qoidalari;
- Suv, havo va yer resurslarining ahamiyati;
- Tozalik va gigiyena madaniyati;
- Atrof-muhitni ifloslantirmaslik zarurati.

Shuningdek, “Ekojon” obrazidan foydalanish ta’lim jarayonini o‘yin shakliga keltirish imkonini beradi. Masalan, “Ekojon yordamga muhtoj”, “Ekojon topshiriq beradi” kabi o‘yin vaziyatlari orqali bolalar faol ishtirok etadi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rganadi va ekologik qoidalarni amalda qo‘llaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, “Ekojon” obrazi bolalarda motivatsiyani oshirish, ijobiy emotsional muhit yaratish va ta’lim jarayonini jonlantirishda muhim rol o‘ynaydi. U bolalarning ekologik bilimlarni faqat eshitib emas, balki his qilib, tasavvur qilib o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Umuman olganda, “Ekojon” obrazi “Ekobilim” loyihasining markaziy innovatsion elementlaridan biri bo‘lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar (Ekobilim loyihasi doirasida)

“Ekobilim” loyihasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar innovatsion va o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etiladi. Ushbu mashg‘ulotlar bolalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. “Chiqindilarni ajrat” o‘yini

Ushbu mashg‘ulotning maqsadi bolalarda chiqindilarni turlarga ajratish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Bolalarga turli chiqindilar tasvirlangan kartochkalar (plastik, qog‘oz, organik) beriladi va ular mos ravishda rangli qutilarga joylashtiriladi.

Natijada bolalar chiqindilarni farqlashni o‘rganadilar hamda ekologik tozalikning ahamiyatini anglab yetadilar.

2. “Ekojon topshiriq beradi” rolli o‘yini

Bu mashg‘ulotda “Ekojon” obrazi orqali bolalarga turli ekologik vazifalar beriladi. Masalan: “Suvni tejash kerak”, “Axlatni to‘g‘ri tashla”, “Gullarni sug‘or”.

Bolalar ushbu topshiriqlarni bajarish orqali ekologik qoidalarga amal qilishni amalda o‘rganadilar. Bu jarayon ularda mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

3. “Toza muhit yaratamiz” jamoaviy faoliyat

Mashg‘ulot davomida bolalar kichik guruhlarga bo‘linib, “xayoliy park” yoki “bog‘cha hovlisi”ni tozalash va tartibga keltirish vazifasini bajaradilar.

Bu faoliyat bolalarda jamoada ishlash, hamkorlik va bir-biriga yordam berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. “Ekologik belgilarni top” didaktik o‘yini

Bolalarga turli ekologik belgilar (suvni tejash, chiqindini tashlash, tabiatni asrash) ko‘rsatiladi va ular ularning ma’nosini topib aytadilar.

Bu mashg‘ulot bolalarning vizual xotirasini kuchaytiradi hamda ekologik belgilarni tushunishiga yordam beradi.

5. “Tabiatni asraymiz” suhbat-mashg‘uloti

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda tabiatni asrash, daraxtlar, suv va havo haqida suhbat o‘tkazadi. Suhbat davomida bolalarga savollar beriladi va ularning fikrlari tinglanadi.

Bu mashg‘ulot bolalarda ekologik tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Umumiy natija

Ushbu amaliy mashg‘ulotlar “Ekobilim” loyihasi doirasida bolalarning ekologik bilimlarini mustahkamlash, ularni kundalik hayotga tatbiq etish hamda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan faoliyatlar bolalarning qiziqishini oshiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati “Ekobilim” loyihasi misolida yoritildi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tarbiya jarayonini erta yoshdan boshlab tizimli va maqsadli tashkil etish bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Innovatsion yondashuvlar, xususan o‘yin texnologiyalari, interaktiv vositalar va rolli faoliyatlar ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Shu bilan birga, bolalarning faolligi oshadi, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi.

“Ekobilim” loyihasi doirasida qo‘llanilgan metodlar bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish bilan birga, ularning kundalik hayotda ekologik qoidalarga amal qilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Ekojon” obrazi orqali ta’lim jarayonining emotsional va motivatsion jihati kuchaytirilib, bolalarning qiziqishi yanada ortadi.

Umuman olganda, “Ekobilim” loyihasi maktabgacha ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali innovatsion modeli sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvni keng joriy etish kelajak avlodning ekologik ongini rivojlantirishga va tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasalari uchun davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

To‘xtayeva G. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.

Xolmatova D. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.

Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

Saidaxmedov N. Pedagogik mahorat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2017.

GIPERAKTIV BOLALAR RUHIYATIDAGI MUAMMOLARNI O‘RGANISH

Sapayeva Nozima Jalol qizi

KDPI Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi, magistr

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi Bolalar ruhiyatidagi muammolarni o‘rganish psixodiagnostikasi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiyatidagi muammolar diqqat yetishmovchiligi sindromining belgilari, giperaktivlik, xarakter, tajovuzkorlik qo’rquv haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *giperaktivlik, xarakter, tajovuzkorlik qo’rquv, diqqat.*

Hozirgi kunda bolalar ruhiy salomatligini o‘rganish va ularning psixologik muammolarini erta aniqlash jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bola shaxsining to‘g‘ri

rivojlanishi nafaqat oilaviy muhitga, balki ta’lim tizimi, ijtimoiy muhit va psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasiga ham bog‘liqdir. Shu sababli bolalarda uchraydigan ruhiy qiyinchiliklar, xulq-atvor buzilishlari va hissiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar psixologiyasida uchraydigan muammolar turli omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Oiladagi muhit, tarbiya uslubi, tengdoshlar bilan munosabatlar, maktabdagi talablar va boshqa ijtimoiy omillar bola ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar bu muammolar o‘z vaqtida aniqlanmasa, ular bolaning shaxsiy rivojlanishiga, o‘qish faoliyatiga hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir qilishi mumkin.Shu nuqtai nazardan, psixodiagnostika bolalar ruhiyatidagi muammolarni aniqlashda muhim ilmiy-amaliy usul hisoblanadi. Psixodiagnostika yordamida bolaning psixik rivojlanish darajasi, hissiy holati, xulq-atvori va individual xususiyatlari o‘rganiladi. Turli psixologik testlar, kuzatish, suhbat va boshqa diagnostik metodlar orqali bolaning ruhiy holati haqida aniq ma’lumotlar olinadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bolalarda uchraydigan ruhiy muammolarni erta aniqlash ularning kelajakdagi sog‘lom psixologik rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Shu sababli bolalar psixodiagnostikasi nafaqat psixologlar, balki pedagoglar va ota-onalar uchun ham muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi (DYGS) bolalar orasida tez-tez uchraydigan nevrologik hamda xulq-atvor buzilishlaridan biridir. Ushbu holat bola deyarli har qanday faoliyatda e’tiborsizlik va yuqori darajadagi chalg‘uvchanlik, ortiqcha faollik, impulsiv harakatlar, shuningdek, ijtimoiy muloqotdagi muammolar bilan tavsiflanadi. Sindrom odatda maktabgacha yoki maktab yoshida namoyon bo‘lib, ko‘pincha o‘g‘il bolalarda uchraydi. Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi bor bolalar bilan ishlashda maxsus yondashuvlar hamda individual strategiyalarni qo‘llash muhimdir. Chunki bu bolalarda diqqatni jamlash, vazifalarni oxirigacha bajarish yoki belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Dunyo bo‘ylab bolalarning 3–5 foizida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik holati aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, 25–30 nafar boladan iborat har bir sinfda kamida bittasida ushbu holat uchrashi mumkin.

Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromining asosiy belgilari - diqqatni jamlay olmaslik, haddan tashqari harakatchanlik va sabrsizlikdir. Ushbu belgilar tashxisni aniqlashda asosiy mezon sifatida olinadi.

Giperaktivlik va sabrsizlik (impulsivlik) 9 ta asosiy belgi orqali namoyon bo‘ladi. Bu belgilar, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagicha ko‘rinadi:

- bola doimo harakatda bo‘ladi, bir joyda tura olmaydi;
- tinch va xotirjam o‘yinlarda ishtirok eta olmaydi;
- tengdoshlaridan xatti-harakatlari bilan ajralib turadi;
- savollarga ikkilanmasdan, shoshilinch javob beradi;
- o‘z navbatini kutishga qiynaladi;
- atrofidagi odamlarga halaqit beradi;
- atrofdagilarning har qanday faoliyatiga aralashadi.

Giperaktivlik muayyan yosh dinamikasiga ega bo‘lib, u yosh o‘tishi bilan kamayadi, biroq impulsivlik belgilari saqlanib qoladi.

Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik buzilishining kelib chiqishini 4 turga ajratish mumkin:

- genetik (irsiy moyillik);
- biologik, (homiladorlik vaqtida miyaning organik shikastlanishi, tug‘ilish jarayonidagi shikastlanish hisobiga);
- ijtimoiy-psixologik (oilada ota-onalarning alkogolga ruju qo‘yishi, yashash sharoitining noto‘g‘riligi);
- atrof-muhitdagi tashqi omillar ta’siri.

Ota-onalar farzandi tufayli boshqalarga shubha ostida qaraydi. Diqqat yetishmasligi giperaktivlik sindromi bor bolaning ota-onalarida ishonchsizlik, umidsizlik, uyat, aybdorlik, adolatsizlik, g‘azablanish hissi paydo bo‘ladi. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi tushunchasi atrofida juda ko‘p tushunmovchiliklar mavjud. Bu tushunmovchiliklar bolalardagi uch xil qiyinchilik -e’tiborsizlik, giperaktivlik va impulsivlik birga uchrashi kerak degan noto‘g‘ri qarashdan kelib chiqadi.

Ammo diqqatni jamlay olmaslik bilan namoyon bo‘luvchi ko‘rinishi ham mavjud bo‘lib, bu guruhdagi bolalar osongina chalg‘ishadi va doimiy e’tibor talab qiladigan narsalar, masalan, uy vazifasiga diqqat qaratishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bizning fikrimizcha, bu odamlar sindrom haqida ko‘pincha anglamaydigan jihatlardan biridir, chunki bola jim o‘tiribdi, gapirsam takrorlayapdi degan fikrda bo‘lishadi, ya’ni beparvo bo‘lishadi.

1. Beparvolik, ko‘pincha detallarga e’tibor bera olmaydi, beparvolik tufayli topshiriqlarga, bajariladigan ishlarda va boshqa faoliyatda xatolarga yo‘l qo‘yadi, masalan, detallarni o‘tkazib yuboradi, ishni noto‘g‘ri bajaradi. Odatda topshiriqlarni bajarish yoki o‘yin o‘ynashda diqqatni jamlashda qiynaladi, masalan, mashg‘ulotda, suhbatlar yoki uzoq vaqt o‘qish paytida diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar.

2. Ko‘pincha o‘yin o‘ynayotganda yoki topshiriqni bajarish vaqtida qiyinchilik bilan e’tibor ko‘rsatadi, masalan, chalg‘imasdan mashg‘ulotlarni tinglashi yoki uzoq vaqt kitob o‘qib o‘tira olmaydi.

3. Ko‘rsatmalarga rioya qilmaydi va topshiriqlarni, vazifalarini yoki odatiy ish vazifalarini bajarmaydi, masalan, uy-vazifalarini boshlagan taqdirda, osongina chalg‘iydi va tezda diqqatini yo‘qotadi.

4. Ko‘p xollarda uy-vazifalarini va boshqa tadbirlarda qatnashishda qiyinchiliklarga duch keladi, masalan, ketma-ket topshiriqlarni boshqarishda qiynalish, materiallar va shaxsiy narsalarni tartibga solishdagi qiyinchiliklar, tartibsizlik, vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash va uni boshqarish, belgilangan muddatlarga rioya qilmaslik.

5. Odatda uzoq davom etadigan aqliy kuch talab qiladigan vazifalarni bajarishdan qochishga intiladi, masalan, maktab va uy vazifalari, katta yoshli o‘smirlar va kattalarda, hisobotlarni tayyorlash, shakllarni to‘ldirish, uzun maqolalarni umumlashtirish.

6. Bog‘chada va uyda kerakli narsalarni tez-tez yo‘qotadi, masalan, o‘quv qurollari, qalamlar, kitoblar, hamyonlar, kalitlar, hujjatlar, ko‘zoynaklar, qo‘lqoplar, uzuklar va boshqa narsalarni.

7. Ko‘pincha osongina chalg‘iydi. Kundalik vaziyatlardaunutib qo‘yadi, masalan, uy yumushlari va topshiriqlarini bajarishda, hisob-kitoblarni to‘lashni, bog‘chaga kelishni unutishadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, diqqat yetishmasligi va geperaktivlik sindromi turli sabablarga asoslangan deb aytishimiz mumkin. Ba’zi ilmiy tadqiqotchilar hatto iqlim o‘zgarishi ham bolalarda giperaktivlik sindromining rivojlanishiga ta’sir etishini izohlaydilar. DYGS nimadan iboratligi haqida aniqlik yo‘qligi va diagnostika mezonlarining o‘zgarishi chalkashlikka olib kelmoqda. Ota-onalarga bolani to‘g‘ri tarbiyalash usullarini o‘rgatish, bolalarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llab-quvvatlash uchun xulq-atvor usullariga asoslangan amaliy ishlanmalar, masalan, aralashuv tizimi va kerakli xatti-harakatlarga dalda bo‘lish, o‘quvchilarning qiyin xatti-harakatlarini funktsional baholash va muammolarni bartaraf etish uchun o‘quv muhitini qayta loyihalashni ta’minlash zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altherr P, Berg L, Welfl A, Passolt M. Giperaktiv bolalar. Psikomotor rivojlanishni tuzatish. - M. : „Akademiya“ nashriyot markazi, 2004-yil.

2. Y.Risyukova, S.Mo‘minov, G.Alimova “Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi bor bolalar bilan ishlash” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Zukko kitobxon” nashriyot matbaa uyi, 2025.

3. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Maktab yoshidagi bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromini kelib chiqishi, rivojlanishi hamda uni bartaraf etish usullari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(12), 11–

4. Sonuga-Barke, EJS (2020). DEHB uchun farmakologik bo'lmagan aralashuvlar: tizimli tahlil. Amerika Psixiatriya jurnali, 177 (3), 275-289.

5. Bryazgunov I. P., Kasatikova E. V. Bolalarda giperaktivlik bilan e'tibor etishmasligi. — M..: Medpraktika-M, 2002-yil.

6. Zavadenko N. N. Bolalikdagi giperaktivlik va diqqat etishmasligi. - M. : „Akademiya" nashriyot markazi, 2005-yil.

MAKTABGACHA TA'LIMDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

S.Musayeva
KDPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishning an'anaviy va innovatsion usullari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada multimedia texnologiyalari, dramaterapiya elementlari va "Sand-art" kabi zamonaviy metodikalarning bolalar nutqi hamda emotsional intellektiga ta'siri haqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar*: Maktabgacha ta'lim, sahnalashtirish, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, dramaterapiya, kreativlik, nutq o'stirish.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama ijodiy va ijtimoiy rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayonini mutlaqo yangi, innovatsion bosqichga ko'tarishni talab etmoqda.[1] Ayniqsa, sahnalashtirish faoliyati bolaning psixologik va fiziologik o'sishida markaziy o'rin tutadi. Innovatsion yondashuv — bu shunchaki texnikadan foydalanish emas, balki bolani ijodiy jarayonning markaziga qo'yishdir

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida ta'kidlaganidek: "Yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz."[2]

Sahnalashtirish faolyatining nazariy va psixologik asoslari

Sahnalashtirish faoliyati — bu bolaning o'zini anglash, o'zgalar hissiyotini tushunish (empatiya) va ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish jarayonidir. Mashhur psixolog L.S. Vigotskiy bolalikdagi ijodkorlik masalasini o'rganar ekan, sahnalashtirish o'yinlarini "bolaning hayotiy mashqi" deb ataydi. Uning fikricha, bola sahnada o'z "Men"idan voz kechib, qahramon rolini ijro etar ekan, uning irodaviy va intellektual salohiyati yuqori bosqichga ko'tariladi.[3]

Pedagog olima D.R. Babayeva o'z tadqiqotlarida sahnalashtirish faoliyatini nutq o'stirishning asosiy omili sifatida tahlil qiladi. Innovatsion teatrlashtirilgan o'yinlar orqali bolaning passiv lug'at boyligi (faqat tushunadigan so'zlari) aktiv holatga (kundalik nutqda qo'llaydigan so'zlariga) o'tadi. Bunda innovatsiya shundaki, tarbiyachi bolaga tayyor ssenariyni yodlatmaydi, balki uning nutqiy improvizatsiyasini rag'batlantiradi. Bu esa bolaning mantiqiy fikrlashini charxlaydi va unda muloqot madaniyatini shakllantiradi.[4]

Shu nuqtai nazardan, bola o'ziga xos kichik olam bo'lib, uni tushunish uchun pedagog voqelikni bola nigohi bilan ko'ra olishi, uning his-tuyg'ularini yurakdan his etishi va individual rivojlanish yo'lini qo'llab-quvvatlashi lozim. Aynan shunday yondashuv barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sahnalashtrish raqamli va multimedia innovatsiyalari. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda sahnalashtirish faoliyatiga raqamli texnologiyalarni (AKT) olib kirish davr talabidir.

An’anaviy dekoratsiyalar (qog‘oz, mato) bugungi bolalarni uzoq vaqt diqqatini ushlab tura olmaydi.

Multimedia proyeksiyalari:

Sahna orqasidagi ekranda multimedia proyektorlari yordamida harakatlanuvchi 3D fonlarni yaratish innovatsion yondashuvning asosidir. Masalan, "Oltin baliq" ertagi sahnalashtirilganda orqa fonda dengiz to‘lqinlarining ovozi bilan birga suv osti dunyosining jonli tasviri berilsa, bolaning tasavvuri va hayoliy olami maksimal darajada kengayadi.

Sensorli vositalar va interaktivlik:

Innovatsion yondashuvda bola nafaqat sahnada o‘ynaydi, balki raqamli sensorli doskalar orqali o‘z qahramoni kiyimlarini tanlaydi yoki dekoratsiyani boshqaradi. Bu jarayon bolada "mualliflik" hissini uyg‘otadi. Sh.Sh. Mirziyoyeva tomonidan ilgari surilgan innovatsion boshqaruv tamoyillari aynan shunday zamonaviy moddiy-texnik bazani ta’lim sifati bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.[5]

Dramaterapiya: psixopedagogik korreksiya vositasi sifatida

Sahnalashtirish faoliyatining innovatsion qirralaridan biri uning terapevtik (shifobaxsh) xususiyatidir. Dramaterapiya — bu bola ruhiyatidagi to‘siqlarni san’at orqali yechish usulidir. O.U. Xasanboyeva ta’kidlaganidek, sahna ko‘rinishlari boladagi qo‘rquv, tajovuzkorlik, uyatchanlik va duduqlanish kabi muammolarni bartaraf etuvchi eng samarali psixologik vositadir.[6]

Dramaterapiyaning innovatsion usullari:

Rollar almashinuvi (Role Play): Guruhdagi eng tortinchoq bolaga "Qirol" yoki "Jasur qahramon" roli beriladi. Bu uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Qo‘g‘irchoq terapiyasi: Bola bevosita muloqotdan qo‘rqsa, qo‘g‘irchoq orqali o‘z his-tuyg‘ularini bayon etadi. Qo’g’irchoq harakat qilganda, gapirganida va his-tuyg’u ifodalaganda bola o’zini o’sha qahramonning o’rniga qo’yadi. Pedagog va psixologlar bu hodisani empatiya — ya’ni boshqaning holatini his eta olish qobiliyati deb ataydi. Aynan shu qobiliyat bolada mehribonlik, adolat, do’stlik, jasorat kabi axloqiy sifatlarning poydevorini qo’yadi.

Kreativ improvizatsiya: Ertakning yakunini bolalarning o‘zlari xohlaganicha o‘zgartirishlari. Bu usul bolada tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Qo’g’irchoq teatri — bu nafaqat tomoshabin, balki ijodkor, hamdard va fikrlovchi bolani tarbiyalaydigan noyob pedagogik vosita.

Sahnalashtirishda noananaviy metodlar: sand-art va lego

Innovatsion yondashuv sahnani faqat katta maydon sifatida ko‘rmaydi. Quyidagi kichik formatli teatr turlari bolalar uchun yangilik hisoblanadi:

Sand-Art (Qumli grafika): Bolalar yoritilgan stol ustida qum bilan obrazlarni chizadilar. Bu jarayonda nutq va mayda motorika uyg‘unlikda rivojlanadi.

LEGO-teatr: Konstruktorlar yordamida dekoratsiya yasash va qahramonlarni harakatlantirish. Bu bolada muhandislik tafakkurini uyg‘otadi.

Ushbu metodlar adabiyotlarida bolani har tomonlama rivojlantiruvchi innovatsion vositalar sifatida e’tirof etilgan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda sahnalashtirish faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishini tezlashtiradi. Multimedia vositalari dars samaradorligini oshirsa, dramaterapiya usullari boladagi uyatchanlikni yengishga va nutqini erkinlashtirishga yordam beradi. Improvizatsiya elementlari esa ularda mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur yangicha yondashuvlar "Ilk qadam" davlat dasturi talablarini yuqori darajada bajarishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida maktab ta’limiga tayyorlashning eng samarali yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1."Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. – T., 2022.

2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O’zbekiston, 2016.

3.Vigotskiy L.S. "Tasavvur va ijodkorlik maktabgacha yosh davrida". – 2018.

4. Babayeva D.R. "Maktabgacha pedagogika" (Darslik). – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

5. Mirziyoyeva Sh.Sh. "Maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosati va innovatsion boshqaruv". – Toshkent, 2021.

6. Xasanboyeva O.U. "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi". – Toshkent: Ilm-ziyo, 2017.

MAKTABGACHA TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Hamrayeva Umida Hamidulla qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogik instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy olamini shakllantirishda milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni, ularning pedagogik ahamiyati hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullari yoritilgan. Shuningdek, xalq an’analari orqali bolalarda vatanparvarlik va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar : *Maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, ijodiy faoliyat, milliy tarbiya, bolalar ijodkorligi, pedagogik jarayon, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, xalq og‘zaki ijodi, milliy an’analar va urf-odatlar, milliy o‘yinlar, pedagogik integratsiya, ijodiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash.*

Kirish: Prezidentimiz xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo’yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar uchun sifatli ta‘lim muammolarini global darajada samarali hal qilish, birgalikda tezkor yechimlar va tizimli yondashuvlar ishlab chiqish maqsadida mazkur xalqaro konferensiyani muntazam ravishda o’tkazib borish taklifi bildirildi. Biz maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi, oliy ta‘lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo’lg’usi Renessansning to’rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor o’qituvchilar Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta’lim — shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi shakllanadigan eng muhim bosqich. Bu davrda bolaga "milliy qadriyat" tushunchasini singdirish — uni o‘zligini taniydigan, vatanparvar va komil inson qilib tarbiyalash demakdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, nson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmati haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning archasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

ASOSIY QISM: Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar — xalqimizning asriy urf-odatlari, an’analari, til va ma’naviy merosini yosh avlod ongiga singdirishdir. Bu jarayon bolalarda vatanparvarlik, kattalarga hurmat va mehr-oqibat tuyg‘ularini erta shakllantirib, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy barkamollikni ta’minlovchi poydevor vazifasini o‘taydi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti o’z nutq va farmonlarida maktabgacha ta‘limni rivojlantirishni davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Bu esa maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va ijodiy faoliyatni uyg'un holda tashkil etishning nazariy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar tushunchasi:

Milliy qadriyatlar bolaning tarbiyasi va dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

An'analar va urf-odatlar: Bayramlar, oilaviy marosimlar, milliy o'yinlar.

O'zbek xalq og'zaki ijodi: Ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo'shiqlar.

Ma'naviy meros: Mehr-oqibat, kattalarga hurmat, oqila va donishmandlikni ulug'lash.

Milliy kiyimlar va hunarmandchilik: Milliy liboslar va buyumlar orqali estetik tarbiya.

Pedagogik ahamiyati

Milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik ahamiyati nihoyatda katta:

Ma'naviy-axloqiy poydevor: Bolalarda kichik yoshidan boshlab kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va halollik kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Milliy o'zlikni anglash: Xalq og'zaki ijodi (ertaklar, maqollar, lapar va allalar) orqali bola o'z xalqining boy madaniy merosini o'rganadi va undan g'ururlanishni o'rganadi.

Ijtimoiy moslashuv: Urf-odatlar va milliy bayramlar (masalan, Navro'z) bolalarda jamoaviylik, birdamlik va hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi: Ona yurtga muhabbat, milliy ramzlarga (bayroq, gerb, madhiya) hurmat va o'z o'lka tarixiga qiziqish uyg'otadi.

Vatanparvarlikni shakllantirish: Bolada o'z yurti, tarixi va madaniyatiga nisbatan muhabbat uyg'otadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya: Mehr-oqibat, halollik, to'g'riso'zlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi.

O'zlikni anglash: Bolalarning milliy o'zligini anglab yetishi va o'z madaniyatidan faxrlanish tuyg'usini rivojlantiradi.

Intellektual rivojlanish: Xalq ertaklari va o'yinlari bolaning nutqi, mantiqiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

Pedagogik yondashuvlar.

Milliy qadriyatlarni singdirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Ertak terapiyasi: Ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikni farqlashni o'rgatish.

Milliy o'yinlar: "Oq terakmi, ko'k terak", "Chavgon" kabi o'yinlar orqali jismoniy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Teatrlashtirilgan o'yinlar: Milliy qahramonlar obrazlarini yaratish orqali bolalar ijodkorligini oshirish.

Xalq o'yinlari: Harakatli milliy o'yinlar orqali bolalarning jismoniy va ijtimoiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Badiiy faoliyat: Milliy kiyimlar, amaliy san'at namunalari va xalq qo'shiqlari orqali estetik tarbiya beriladi.

Oilaviy an'analar: Ota-onalar bilan hamkorlikda oilaviy qadriyatlarni dars jarayonlariga integratsiya qilish.

Ushbu qadriyatlar orqali tarbiyalangan bola, kelajakda o'z xalqining madaniyatini hurmat qiladigan, ma'naviy yetuk shaxs bo'lib shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar qalbi va ongiga milliy qadriyatlarni singdirish shunchaki o'tmishni o'rganish emas, balki barkamol va ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning fundamental asosidir. O'tkazilgan tahlillar va pedagogik kuzatishlar quyidagi muhim xulosalarga kelish imkonini beradi:

Milliy o‘zlikni anglash poydevori: Maktabgacha yosh – inson shaxsiyatining 70 foizi shakllanadigan davrdir. Shu bois, bu bosqichda milliy til, alla, xalq ertaklari va an’analari orqali berilgan tarbiya bolaning kelajakdagi ijtimoiy qiyofasini va vatanparvarlik tuyg‘usini belgilab beradi.

Strategik ahamiyati: Milliy qadriyatlar asosida tarbiya ko‘rgan bola o‘zligini anglaydi, ajdodlar merosini qadrlaydi va globallashuv davrida milliy qiyofasini yo‘qotmaydi. Bu esa millatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda pedagogik jarayonning eng muhim bo‘g‘inidir

Pedagogik samaradorlik: Milliy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish (masalan, "Ilk qadam" dasturi doirasida) bolalarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy axloqiy ko‘nikmalarni – kattalarga hurmat, halollik va jamoaviylikni tabiiy o‘yinlar orqali rivojlantiradi.

Ma’naviy immunitet: Globallashuv va "ommaviy madaniyat" xavfi kuchaygan hozirgi davrda milliy qadriyatlar bolalar uchun o‘ziga xos "ma’naviy qalqon" vazifasini o‘taydi. Bu ularga yot g‘oyalarni farqlash va o‘z milliy madaniyatini qadrlash imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida "Ma’naviyat xonalari" va milliy burchaklarni zamonaviy interaktiv metodlar bilan boyitish;

Tarbiya jarayonida faqat nazariya bilan cheklanmay, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik elementlaridan keng foydalanish;

Bog‘cha va oila hamkorligini kuchaytirish orqali milliy qadriyatlarning uyda ham davom etishini ta’minlash.

Umuman olganda, milliy qadriyatlar asosida qurilgan ta’lim tizimi — Uchinchi Renessans poydevori bo‘lmish ma’naviyatli va intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetkazishning eng ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida". – Toshkent, 2019-yil 16-dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021.

3. "Ilm yo‘li" variativ dasturi hamda "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. (Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan).

4. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi". – Toshkent: "Ilm ziyo", 2012.

5. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". – Toshkent: "Tafakkur sarchashmalari", 2013.

6. Ikayev M. "Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tarbiya jarayonida foydalanish". – O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Hamdamova Ziyoda Elbekjonovna

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistr

E-mail: -ziyodahamdamova634@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalari, xususan, kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati,zamonaviy ta’lim tizimidagi o’rni va bu boradagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tarbiyachi faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish usullari va tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar ham keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Kreativ kompetensiya, innovatsiya, maktabgacha ta’lim, kreativ yondashuv, TRIZ pedagogikasi, art-terapiya, mahorat*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tarbiyachidan nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuksak darajadagi kasbiy kreativlikni ham talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qonuni hamda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari"da bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifani bajarish uchun birinchi navbatda tarbiyachining o‘zi kreativ kompetensiyaga ega bo‘lishi shart.Kreativlik — bu shunchaki "yangi narsa o‘ylab topish" emas, balki pedagogik jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni noodatiy usulda hal etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun yangi g‘oyalarni qo‘llash qobiliyatidir. Tarbiyachi kreativ bo‘lsagina, u tarbiyalanuvchilarda ham ijodiy tafakkurni uyg‘ota oladi.

Zamonaviy talablar asosida tayyorlanayotgan "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi va davlat standartlari tarbiyachidan moslashuvchanlikni talab etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida tarbiyachi tayyor qoliplardan voz kechib, har bir mashg‘ulotni san’at darajasiga ko‘tarishi lozim. Biroq, ko‘plab pedagoglar hali ham an’anaviy metodlar doirasida qolib ketayotgani mazkur mavzuni innovatsion usullar orqali tadqiq qilishni taqozo etadi

Pedagogik kreativlik bir nechta komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Suhbatdoshlik va moslashuvchanlik: Bolalarning qiziqishlariga qarab mashg‘ulot rejasini tezkor o‘zgartira olish.
2. Original fikrlash: Dars vositalarini kutilmagan materiallardan yasash yoki mavzuni ertaknamo tarzda tushuntirish.
3. Hissiy intellekt: Bolaning ichki dunyosini his qilgan holda unga individual yondashish.

METODOLOGIYA. Tarbiyachining kreativ kompetensiyasi — bu uning kutilmagan pedagogik vaziyatlarda noodatiy va samarali yechimlar topa olishi, mashg‘ulotlarni standart qoliplardan chiqib, qiziqarli tashkil etish qobiliyatidir. Tarbiyachilarda ushbu kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi innovatsion usullarni qo‘llash samarali hisoblanadi:

TRIZ texnologiyasi (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi): Bu usul tarbiyachini har bir mashg‘ulotga "muammo-yechim" prizmasidan qarashga o‘rgatadi. Masalan, "Ertak qahramoni daryodan qanday o‘tishi mumkin, agar ko‘prik bo‘lmasa?" kabi savollar orqali tarbiyachi bolalar bilan birga ijodiy izlanadi.

Art-pedagogika va Vizualizatsiya: Mashg‘ulotlarda an’anaviy rasmlar o‘rniga qum terapiyasi, g‘ijimlangan qog‘oz yoki tabiiy materiallar bilan ishlash tarbiyachining metodik mahoratini boyitadi.

Pedagogik improvizatsiya: Bu tarbiyachining dars rejasi o‘zgarib qolgan vaziyatda (masalan, texnik nosozlik yoki bolalarning boshqamavzuga qiziqib ketishi) vaziyatdan mohirona chiqib ketishi va jarayonni qiziqarli davom ettirishi.

SCAMPER metodi (Mavjud g‘oyalarni takomillashtirish)

Ushbu metod tarbiyachilarga an’anaviy mashg‘ulotlarni mutlaqo yangicha ko‘rinishga keltirishga yordam beradi.

S (Substitute) – Almashtirish: Masalan, an’anaviy rasm chizish darsida qog‘ozni tosh, shisha yoki matoga almashtirish.

A (Adapt) – Moslashtirish: Tabiat hodisalarini o‘yin orqali tushuntirish (shamol ovozini taqlid qilish).

C (Combine) – Birlashtirish: Musiqa va matematikani birlashtirib, sonlarni ritm orqali o‘rgatish.

Bu usul tarbiyachidan doimiy izlanishni va "Agar shunday qilsam-chi?" degan savolni berishni talab qiladi.

Pedagogik "Keys-stadi" (Muammoli vaziyatlarni yechish)

Tarbiyachilarning kreativligini oshirishda real pedagogik muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan: "Bola guruhdagi barcha o‘yinchoqlarni o‘ziniki qilib olmoqda va boshqalarga bermayapti. Bunday vaziyatda qanday noodatiy (ertak terapiyasi yoki o‘yin orqali) yechim topish mumkin?" kabi vaziyatlar tarbiyachini kreativ fikrlashga majbur qiladi.

"Storytelling" (Voqeaband hikoya qilish) san’ati

Innovatsion tarbiyachi quruq ma’lumot bermaydi. U har qanday o‘quv mavzusini qiziqarli voqeaga aylantira olishi kerak. Kreativ tarbiyachi o‘z nutqi, imo-ishoralari va vizual vositalar (qo‘g‘irchoqlar, soyalar teatri) orqali bolani sehrli dunyoga olib kira oladi. Bu mahoratni rivojlantirish uchun "improvizatsiya" mashqlari o‘tkazilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar va STEAM yondashuvi

Kreativlik faqat qog‘oz-qalam bilan cheklanmaydi. Zamonaviy tarbiyachi interaktiv doskalar, planshetlar va maxsus ta’limiy dasturlardan foydalana olishi kerak. STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematika) yondashuvi doirasida bolalar bilan birga oddiy chiqindi materiallardan "robotlar" yasash yoki kichik "tajriba laboratoriyalari" tashkil etish tarbiyachining ijodiy salohiyatini namoyon etadi.

Tarbiyachining kreativligini bo‘g‘uvchi omillarni anglash va ularni bartaraf qilish juda muhim hisoblanadi.

Tarbiyachilarning ijodiy rivojlanishiga ko‘pincha quyidagilar to‘sqinlik qiladi:

- ✓ Andozaviy (shablon) fikrlash
- ✓ Xato qilishdan qo‘rqish
- ✓ Haddan tashqari ko‘p hisobotlar va qog‘ozbozlik
- ✓ O‘z-o‘ziga ishonchsizlik

Ushbu to‘siqlarni yengish uchun MTTda "Kreativ ustaxonalar" (Master-klasslar) va "Miyaga hujum" sessiyalarini muntazam o‘tkazish zarur. Bunda tarbiyachilar bir-birlari bilan tajriba almashadilar va eng noodatiy g‘oyalar rag‘batlantiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion usullarni qo‘llash nafaqat pedagogning mahoratini oshiradi, balki guruhdagi psixologik muhitni ham sog‘lomlashtiradi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILLAR

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion usullarni qo‘llash nafaqat pedagogning mahoratini oshiradi, balki guruhdagi psixologik muhitni ham sog‘lomlashtiradi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi:

Bolalar faolligining ortishi: Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalarning diqqat markazida bo‘lish davomiyligi 30-40% ga oshadi.

Muammoli vaziyatlarning kamayishi: Tarbiyachining moslashuvchanligi tufayli bolalar o‘rtasidagi nizolar va darsga qiziqmaslik holatlari sezilarli darajada kamaygan.

Kasbiy "yonish" (burnout) profilaktikasi: Ijodiy yondashuv tarbiyachini bir xillikdan (monotonlikdan) qutqaradi, bu esa uning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini doimiy ushlab turadi.

Keys-stadi" (Muammoli vaziyatlar) metodi bo‘yicha taxmin:

Tarbiyalanuvchi uchun: Ertak qahramonlari yoki kundalik vaziyatlar orqali bolalarda ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar (do'stiga yordam berish, bo'lishish, to'g'ri qaror qabul qilish) shakllanadi.

Tarbiyachi uchun: Bolalarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni kuzatish va ularni ijobiy tomonga yo‘naltirish imkoniyati kengayadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish — bu davr talabi. Kreativ tarbiyachi deganda, faqat chiroyli narsalar yasaydigan shaxs emas, balki bolaning ichki imkoniyatlarini ochish uchun kalit topa oladigan mutaxassis tushuniladi.

Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

MTTlarda "Kreativlik markazlari"ni tashkil etish va haftada bir marta tajriba almashish treninglarini o‘tkazish.

Tarbiyachilar uchun xalqaro platformalarda (Coursera, Khan Academy kabi) mavjud bo‘lgan kreativ pedagogika kurslarini ommalashtirish.

Pedagogik faoliyatda "shablon" usullardan voz kechish va har bir mashg‘ulotga innovatsion element (o‘yin, texnologiya, hikoya) kiritishni rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari
2. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. Toshkent – 2022
3. Sh.M. Mirziyoyev. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". Toshkent, "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021-yil
4. .X.I. Ibragimov, Sh.A. Abdullayeva. "Pedagogika nazariyasi". Toshkent, "Fan va texnologiya", 2008

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOG VA PSIXOLOGLAR HAMKORLIGI

Davronova Maxliyo Anvar qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog va psixologlar hamkorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda nazariy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv va eksperimental ish metodlari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Nazariy tahlil orqali pedagog-psixolog hamkorligining ilmiy asoslari tahlil qilindi, so‘rovnoma va kuzatuv pedagoglar va o‘quvchilarning fikrlarini aniqlashga yordam berdi. Eksperimental ish esa tizimli hamkorlikning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagog-psixolog hamkorligi tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish, pedagoglar faoliyatini optimallashtirish va o‘quvchilarning ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Maqola ilmiy va amaliy jihatdan pedagogik amaliyotga tavsiyalar beradi va zamonaviy maktab ta’limi talablariga uyg‘unlashgan tizimli yondashuvning ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyaviy ishlar, pedagog va psixolog hamkorligi, tizimli yondashuv, rejalashtirish, umumiy o‘rta ta’lim maktabi, pedagogik metodologiya, nazariy tahlil, eksperiment, kuzatuv, so‘rovnoma*

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaviy jarayon nafaqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari, axloqiy qadriyatlari va shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan pedagog va psixologlar

hamkorligi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda ajralmas vosita sifatida qaraladi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog va psixologning birgalikdagi faoliyati o‘quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, tarbiyaviy ishlarni moslashtirish va natijalarni monitoring qilish imkonini beradi [1; 3].

Tarixan, maktablarda tarbiyaviy ishlar ko‘pincha pedagoglar tomonidan tashkillashtirilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda psixologlarning roli ortib bormoqda. Psixologlar o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, individual yondashuvni ishlab chiqish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni metodik jihatdan boyitishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, pedagoglar va psixologlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maktabdagi tarbiyaviy jarayonni tizimli va barqaror qilishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagog-psixolog hamkorligi o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [4; 6].

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, pedagog va psixologlarning hamkorligi bir nechta asosiy funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, bu o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va shunga mos tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, pedagogik va psixologik kuzatuv orqali tarbiyaviy jarayonning natijalari baholanadi va zarur bo‘lsa metodik tuzatishlar kiritiladi. Uchinchidan, hamkorlik maktabdagi tarbiyaviy ishlarni strategik ravishda integratsiyalash va ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi [7; 9]. Shu tariqa, pedagog-psixolog hamkorligi tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishning metodologik va amaliy asoslarini shakllantiradi.

Maqolaning asosiy maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog va psixologlar hamkorligining samaradorligini o‘rganish va uning metodologik asoslarini aniqlashdir.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va pedagog-psixolog hamkorligi bo‘yicha nazariy asoslarni tahlil qilish;
2. Maktab pedagoglari va psixologlari o‘rtasida tarbiyaviy jarayonning amaliy tajribasini kuzatish va so‘rovnoma orqali baholash;
3. Eksperimental ish orqali pedagog-psixolog hamkorligi samaradorligini aniqlash;
4. Olingan natijalar asosida maktablarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu bilan birga, tadqiqot nafaqat ilmiy asos yaratadi, balki pedagogik amaliyotda pedagog va psixologlarning hamkorligini optimallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ko‘rsatadiki, samarali hamkorlik tarbiyaviy ishlarni tizimli, uzviy va o‘quvchilarning individual rivojlanishiga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi, bu esa maktab ta’limi sifatini oshirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog va psixologlar hamkorligini aniqlash va uning samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot dizayni kompleks metodologik yondashuvga asoslandi, bunda nazariy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv va eksperimental ish metodlari integratsiyalashgan. Bunday yondashuv tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy jihatdan ishonchli qilish imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlar jarayoni belgilandi. Subyektlari esa maktab pedagoglari, psixologlar va 5–11-sinf o‘quvchilari bo‘ldi. Tadqiqot uchun jami 120 pedagog va 15 psixolog, shuningdek, 450 o‘quvchi tanlandi. Tanlov maktablarning turli ijtimoiy va akademik profilini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi va ularni maktab pedagogik amaliyotiga moslashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog va psixologlar hamkorligi o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. So‘rovnoma, kuzatuv va eksperimental ishlar natijalari

pedagog-psixolog hamkorligining samaradorligini aniq tasdiqladi va tizimli yondashuvni qo‘llash zarurligini isbotladi.

So‘rovnoma natijalari: pedagoglar va psixologlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni ko‘rsatdiki, 82% respondentlar pedagog va psixologlarning birgalikdagi faoliyati tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga yordam berishini ta’kidlagan. Shu bilan birga, 68% pedagoglar o‘quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda hamkorlikni yetarli darajada tashkil etilmagan deb baholadi. O‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma esa, pedagog-psixolog hamkorligi mavjud bo‘lgan mashg‘ulotlar ularning ijtimoiy ko‘nikmalari, liderlik qobiliyati va sinfdagi faol ishtirokini oshirganligini ko‘rsatdi.

Kuzatuv natijalari: kuzatuv natijalari pedagog va psixologlarning tarbiyaviy jarayondagi faoliyatini tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli hamkorlik qo‘llanilgan mashg‘ulotlarda pedagog va psixolog birgalikda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularga mos tarbiyaviy vazifalarni belgilash va jarayonni bosqichma-bosqich monitoring qilish orqali faoliyat olib bordi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, pedagog-psixolog hamkorligi mavjud bo‘lgan guruhda o‘quvchilarning faol ishtiroki 85% bo‘lsa, hamkorlik mavjud bo‘lmagan guruhda bu ko‘rsatkich 48% ni tashkil etdi. Bu farq pedagog va psixologlarning birgalikdagi faoliyati tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Eksperimental ish natijalari: Eksperiment ikki guruh – nazorat va eksperimental – asosida olib borildi. Eksperimental guruhda pedagog-psixolog hamkorligi tizimli rejalashtirilgan tarbiyaviy mashg‘ulotlar orqali amalga oshirildi, nazorat guruhida esa odatdagi usullar ishlatildi. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruh o‘quvchilarining ijtimoiy va axloqiy rivojlanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Masalan, o‘quvchilarning mas’uliyat, hamkorlik va liderlik qobiliyatlarini o‘lchovchi indikatorlarda eksperimental guruhda o‘rtacha 24% o‘sish kuzatildi, nazorat guruhida esa faqat 7% o‘sish qayd etildi.

Eksperiment davomida pedagoglarning faoliyati ham samaradorlikni oshirdi. Tizimli hamkorlik qo‘llanilgan guruhda pedagoglar va psixologlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash uchun diagnostika vositalarini muntazam ishlatdi, mashg‘ulotlarni moslashtirdi va natijalarni monitoring qildi. Bu esa tarbiyaviy jarayonning moslashuvchanligini ta’minladi va pedagog-psixolog hamkorligining amaliy ahamiyatini ko‘rsatdi.

Natijalarni umumiy tahlil: So‘rovnoma, kuzatuv va eksperiment natijalari birgalikda shuni ko‘rsatadiki, pedagog va psixologlar hamkorligi tarbiyaviy jarayonni tizimli va samarali tashkil etishda asosiy omil hisoblanadi. Hamkorlik nafaqat pedagoglarning ishini tartibga soladi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, ularning ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarini oshiradi. Natijalar shuningdek shuni ko‘rsatdiki, tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tarbiyaviy ishlarning natijadorligini sezilarli darajada oshiradi, pedagogik amaliyotning sifatini yaxshilaydi va o‘quvchilarning individual rivojlanishiga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi.

Shu tariqa, natijalar nazariy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv va eksperimental ish natijalarini integratsiyalash orqali pedagog va psixologlarning hamkorligi tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishdagi muhimligini isbotlaydi va tizimli yondashuvning zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog va psixologlar hamkorligining samaradorligini aniqlash va uning metodologik asoslarini o‘rganish bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv va eksperimental ish metodlari birgalikda qo‘llanildi, bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asosli va amaliy jihatdan ishonchli bo‘lishini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagog va psixologlar hamkorligi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. So‘rovnoma natijalari pedagoglar va psixologlarning fikrlari pedagog-psixolog hamkorligi tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Kuzatuv natijalari pedagog-psixolog hamkorligi qo‘llanilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faol ishtiroki va shaxsiy rivojlanishi sezilarli darajada yuqori

bo‘lishini tasdiqladi. Eksperimental ish esa tizimli hamkorlik natijasida o‘quvchilarning ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan aniq yaxshilanganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, pedagoglar va psixologlarning muntazam metodik hamkorligi, monitoring va diagnostika vositalaridan foydalanishi tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirdi.

Nazariy tahlil asosida aniqlanganidek, pedagog va psixologlar hamkorligi tarbiyaviy jarayonni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etishni talab qiladi. Maqsadni aniqlash, vazifalarni rejalashtirish, monitoring va baholash, pedagog-psixolog hamkorligi kabi elementlar bir butun tizim sifatida ishlaganda tarbiyaviy ishlarning natijalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tizimli pedagog-psixolog hamkorligi nafaqat amaliy ishlarni samarali boshqarish imkonini beradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini rag‘batlantiradi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u pedagog va psixologlar hamkorligini tarbiyaviy jarayonlarda samarali qo‘llashning metodologik asoslarini aniqladi va ularni nazariy jihatdan mustahkamladi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy pedagogika adabiyoti bilan taqqoslanib, pedagog-psixolog hamkorligining samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot uchun muhim tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Amaliy ahamiyat nuqtai nazaridan, tadqiqot quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Maktablarda pedagog va psixologlar hamkorligini tizimli tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- Tarbiyaviy jarayonlarni individuallashtirish va monitoring vositalaridan samarali foydalanish;
- Pedagog-psixolog hamkorligi orqali o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini rag‘batlantirish;
- Tarbiyaviy ishlarni strategik va kompleks tarzda integratsiyalash, pedagogik amaliyot sifatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagog va psixologlar hamkorligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. U pedagogik amaliyot va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini bir butun sifatida uyg‘unlashtiradi, tarbiyaviy ishlarning natijadorligini oshiradi va zamonaviy maktab ta’limi talablariga javob beradi. Tadqiqot natijalari tizimli hamkorlikning ilg‘or metodik asoslarini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi, shuningdek pedagogik hamkorlikni rivojlantirish orqali tarbiyaviy jarayonni barqaror va samarali qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахмадалиева, Н. М. Педагогика и воспитание: Теоретические основы. — Ташкент: Учебная литература, 2018. — 256 с.
2. Бобоев, Ш. А. Современные технологии воспитательной работы в школе. — Ташкент: Наука, 2020. — 184 с.
3. Джураев, Т. С. Системный подход в воспитательной деятельности. — Ташкент: Фан, 2019. — 212 с.
4. Ибрагимова, Л. К. Индивидуализация воспитательного процесса в школе. — Самарканд: Наука, 2021. — 198 с.
5. Karimov, A. Innovative pedagogical methods for personal development of students. — London: Routledge, 2017. — 214 p.
6. Ministry of Public Education of Uzbekistan. National standards and regulations for educational institutions. — Tashkent, 2020. — 120 p.
7. Назарова, Е. В. Психология воспитания школьников: Теория и практика. — Москва: Просвещение, 2018. — 240 с.

8. O‘ktamov, D. Monitoring and assessment in school educational processes. — Tashkent: Fan va texnologiya, 2019. — 150 p.
9. Петрова, И. С. Методы наблюдения и диагностики в педагогике. — Санкт-Петербург: Питер, 2020. — 176 с.
10. Rahmonova, M. Individual learning paths and differentiated instruction in secondary education. — Tashkent: Ta’lim, 2021. — 192 p.
11. Smith, J., & Brown, L. Systematic approaches to educational planning. — New York: Springer, 2016. — 230 p.
12. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education. — Paris, 2020. — 340 p.
13. Johnson, P. Evaluating the effectiveness of systematic educational methods. — London: Sage Publications, 2018. — 198 p.

MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA KOMPETENTLIKKA YO‘NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Jumayeva Mahbuba Abubakr qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti, 1-kurs magistranti

“Ta’limning asosiy vazifasi – bilim berish emas, balki har bir yoshda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdir.” Sh. M. Mirziyoyev

Anotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan. Kompetentlik tushunchasi va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada topshiriqlarni yaratish va qo‘llash usullari, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlari ham keltirilgan. Shu bilan birga, mavjud pedagogik muammolar, resurslar cheklovlari va o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning bilim darajasidagi nomutanosiblik kabi holatlar tahlil qilingan. Yechimlar sifatida ilmiy asoslangan tavsiyalar va innovatsion yondashuvlar taqdim etilgan. Maqola pedagoglar, o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va metodistlar uchun amaliy foyda beradi.*

Kalit so‘zlar: *Kompetentlik, mustaqil ta’lim, kompetensiya, muammoli topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayoni, o‘quvchi faoliyati*

Kirish - Zamonaviy ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish bilan cheklanmasligi, balki talabaning mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Hozirgi globalizatsiya va texnologik taraqqiyot davrida jamiyatning va mehnat bozorining talablariga moslashish faqat nazariy bilim bilan emas, balki talabaning real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni samarali qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq. Shu sababli mustaqil ta’lim jarayoni talabaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy yondashuvi va muammolarni hal etish qobiliyatini oshirish uchun muhim platforma hisoblanadi. Mustaqil ta’limning asosiy vazifasi shundan iboratki, talaba o‘z bilimini faqat yodlash darajasida emas, balki uni amaliyotga tadbiq etish, yangi bilimlarni mustaqil izlash va o‘zlashtirish orqali chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lsin.[1] Kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki u nafaqat talabaning kognitiv bilimlarini, balki operatsion, motivatsion va aksiologik komponentlarini ham rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali talaba o‘z-o‘zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni mustaqil hal etish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi. Bugungi pedagogik amaliyotda mustaqil ta’lim

[1] Sharipov Sh.S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv. – Toshkent: Pedagogika, 2018.

jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish – talabaning nazariy bilimlari bilan bir qatorda uning amaliy ko‘nikmalarini, tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng samarali vosita sifatida e’tirof etilgan. Shu sababli, zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagoglar va metodistlar o‘quv jarayonini kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida rejalashtirish va amalga oshirishga katta e’tibor qaratishlari lozim.Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interaktiv pedagogik metodlar mustaqil ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Elektron platformalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar orqali talaba o‘z bilimini mustaqil mustahkamlash, loyihalar va vazifalarni bajarish orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar nafaqat talabaning ilmiy va amaliy tayyorgarligini oshiradi, balki uning mustaqil o‘qish, izlanish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘rganish va tadqiq qilish masalasi nafaqat mahalliy, balki xorijiy olimlar tomonidan ham chuqur tahlil qilingan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida A.V. Xutorskoy kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv nazariyasini ishlab chiqib, o‘quv jarayonida bilimning amaliy qo‘llanishi va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini batafsil tahlil qilgan. I.A. Zimnyaya esa asosiy va kalit kompetensiyalarni tasniflash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha muhim ilmiy ishlar olib borgan, kompetentlikni kognitiv, ijtimoiy va shaxsiy komponentlar orqali baholash metodlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, J. Raven talabalarning muammolarni mustaqil hal qilish va kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar qilgan. Xalqaro darajada esa OECD va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan DeSeCo loyihasi kompetensiyalarni aniqlash va ta’lim standartlariga kiritish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar bergan. Mahalliy olimlar va pedagogik mutaxassislar ham mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘rganish va tadbiq etishga katta hissa qo‘shgan. N.A. Muslimov kasb ta’limi pedagogikasi sohasida metodik tavsiyalar ishlab chiqgan[1], B.X. Xodjaev umumiy pedagogika va kompetentlik yondashuvi bo‘yicha talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etishning metodik asoslarini tahlil qilgan.[2] Sh.S. Sharipov innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni mustaqil ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan, R. Ishmuhamedov esa kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarning amaliy samaradorligini o‘rganib, pedagogik texnologiyalar va formatif baholashning samarali usullarini taklif qilgan.[3] Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar talabaning nazariy bilimini oshirish bilan bir qatorda uning amaliy ko‘nikmalarini, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagoglarning kompetentlik yondashuvi va zamonaviy metodik bilimlari muhim ahamiyatga ega. Xalqaro va mahalliy olimlarning ishlari talabaning mustaqil o‘qish, izlanish, tahlil va refleksiya qilish kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi va zamonaviy ta’lim tizimida kompetentlik yondashuvini tatbiq etish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish pedagogik amaliyotda muhim o‘rin tutadi, ammo bir qator muammolar mavjud. Birinchi va eng asosiy muammo – talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmaganligi. Ko‘plab talabalar mustaqil izlanish olib borish, resurslarni tanlash va ularni samarali qo‘llash, vaqtni rejalashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emas. Bu esa topshiriqlarning to‘liq va sifatli bajarilishiga to‘sqinlik qiladi va talabaning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini cheklaydi. Ikkinchi muammo pedagogik tayyorgarlik bilan bog‘liq. Ko‘plab pedagoglar kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va baholashda yetarli metodik tayyorgarlikka ega emas. Natijada, topshiriqlar ko‘pincha nazariy bilimga asoslangan bo‘lib, talabaning tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv va muammolarni mustaqil hal

[1] Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2015.

[2] Xodjaev B.X. Ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.

[3] Ishmuhamedov R. Talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishda formatif baholash. – Toshkent: Ta’lim, 2019.

etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Shu bilan birga, baholash jarayoni ham asosan summativ baholashga qaratilgan bo‘lib, talabaning mustaqil ishlash qobiliyatini baholash va rivojlantirish imkonini bermaydi. Uchinchi muammo – raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanmaslik. Ko‘plab ta’lim muassasalarida zamonaviy elektron platformalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv resurslar yetarlicha qo‘llanilmaydi. Natijada, talaba topshiriqlarni ko‘proq nazariy asosda bajarishga majbur bo‘ladi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati cheklanadi. Shu sababli kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni samarali tatbiq etish uchun pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish zarurati mavjud.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta samarali yechimlar mavjud. Birinchi yechim – talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar va seminarlar tashkil etishdir. Bunday mashg‘ulotlar orqali talabalar izlanish olib borish, o‘z vaqtini rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini mustahkamlaydilar. Shu bilan birga, talabalarni kichik guruhlar va jamoaviy loyihalarda ishlashga jalb etish ularning kommunikatsiya va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ikkinchi yechim – pedagoglarning malakasini oshirishdir. Pedagoglar uchun kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va baholash bo‘yicha metodik qo‘llanmalar, elektron kurslar, professional seminarlar va master-klasslar tashkil etilishi zarur. Bu orqali pedagoglar o‘quv jarayonini interaktiv va amaliy yondashuv asosida rejalashtirish va nazorat qilish imkoniga ega bo‘ladi. Uchinchi yechim – raqamli texnologiyalar va interaktiv pedagogik metodlardan keng foydalanishdir. Elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, loyiha asosida ishlash va interaktiv mashg‘ulotlar talabaning nazariy bilimini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga yordam beradi. Shuningdek, formatif baholash mexanizmlari talabaning rivojlanish jarayonini doimiy nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, oliy ta’lim muassasasining “Pedagogika va metodika” kursida talabalarga kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriq sifatida “O‘z-o‘zini baholash va dars loyihasi yaratish” vazifasi berilgan. Talabalar mustaqil ravishda mavzu bo‘yicha izlanish olib boradilar, dars loyihasini ishlab chiqadilar va uni amaliy mashg‘ulotda qo‘llashga tayyorlaydilar. Pedagoglar loyiha natijalarini formatif baholash orqali talabaning kompetensiyalarini baholaydilar, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar va kerak bo‘lsa qo‘shimcha tavsiyalar beradilar. Shu tarzda, kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar nafaqat nazariy bilimni mustahkamlash, balki talabaning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish zamonaviy pedagogik amaliyotning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv nafaqat talabaning nazariy bilimini mustahkamlashga, balki uning amaliy ko‘nikmalarini, tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar talabaning mustaqil izlanish olib borish, muammolarni hal etish, o‘z-o‘zini baholash va vaqtni rejalashtirish qobiliyatlarini shakllantiradi, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, pedagoglarning metodik tayyorgarligi va raqamli texnologiyalarni qo‘llash malakasi mustaqil ta’lim jarayonini yanada samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. Elektron platformalar, interaktiv resurslar va loyiha asosida ishlash metodlari talabaning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, mustaqil ta’lim jarayonida kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan samarali foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki talabaning shaxsiy va professional rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Shu sababli, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida pedagoglar va metodistlar bu yondashuvni keng joriy etishlari, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlari

1.Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2015.

2.Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika va kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.

3.Sharipov Sh.S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv. – Toshkent: Pedagogika, 2018.

4.Ishmuhamedov R. Talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishda formatif baholash. – Toshkent: Ta’lim, 2019.

5.Nurmuhamedov F.M. Oliy ta’limda mustaqil ta’lim va kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Fan, 2018.

6.Nazarov D.X. Talabalarni mustaqil ishlashga yo‘naltirish metodikasi. – Toshkent: Pedagogika, 2020.

7.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi va kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti, 2021.

8.Sharipov Sh.S. Pedagogik innovatsiyalar va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Ta’lim, 2017.

9.Muslimov N.A. Talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2016

10.Xodjaev B.X. Ta’lim jarayonida kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.

11.Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlar. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti, 2022.

12.Muslimov N.A. Talabalar kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy metodlar. – Toshkent: Pedagogika, 2017.

13.Sharipov Sh.S. Oliy ta’limda interaktiv metodlar va mustaqil ta’lim. – Toshkent: Fan, 2018.

14.Xodjaev B.X. Pedagogik texnologiyalar va kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.

15.Ishmuhamedov R. Talabalarni mustaqil ishlashga yo‘naltirish va baholash tizimi. – Toshkent: Ta’lim, 2021.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARIDA IJODIY FIKRLASH MUAMMOLARI

Berdikulova Sevinch

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, 1-bosqich magistr

E-mail:sevinchberdikulova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogika va psixologiya fanlarida ijodiy fikrlash muammolari, ularning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Ijodiy fikrlashning shaxs rivojlanishidagi o‘rni, uni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar va ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar yoritib beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik va psixologik omillar, an’anaviy ta’lim usullarining cheklovlari hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va texnologiyalar, interfaol usullar hamda ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali shaxsning intellektual salohiyatini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: ijodiy fikrlash, pedagogika, psixologiya, ta’lim jarayoni, innovatsion metodlar, interfaol usullar, shaxs rivojlanishi, kreativlik, muammoli ta’lim, tafakkur rivoji.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning ijodiy fikrlashi eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta’lim tizimining asosiy

vazifasi endilikda faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan pedagogika va psixologiya fanlarida ijodiy fikrlash muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Ijodiy fikrlash tushunchasi va uning mohiyati.Ijodiy fikrlash – bu shaxsning mavjud bilim, tajriba va tasavvurlar asosida yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechimlar topish va yangilik kiritish qobiliyatidir. U faqat intellektual faoliyat emas, balki shaxsning emotsional, motivatsion va ijtimoiy jihatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ijodiy fikrlash quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Moslashuvchanlik – vaziyatga qarab fikrni o‘zgartira olish;

Originalilik – boshqalardan farqli g‘oyalar yaratish;

Erkinlik – cheklovlarsiz fikrlash qobiliyati;

Tezkorlik – qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish.

Psixologik jihatdan ijodiy fikrlash insonning kognitiv jarayonlari (xotira, tafakkur, tasavvur) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, pedagogik jihatdan esa ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati.Ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

-o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi;

-muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi;

-o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

-innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi.

Pedagogik jarayonda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy muammolar.An’anaviy o‘qitish metodlarining ustunligi. Ko‘plab maktab va oliy ta’lim muassasalarida darslar hanuzgacha ma’ruza va yodlashga asoslangan holda olib boriladi. Bu esa o‘quvchilarni passiv tinglovchiga aylantiradi. Natijada ular mustaqil fikr bildirishdan ko‘ra tayyor ma’lumotni eslab qolishga intiladi.

O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasi yetarli emasligi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Ammo barcha pedagoglar ham interaktiv metodlar, STEAM yondashuv, loyiha asosida o‘qitish kabi usullarni yetarli darajada bilmaydi yoki amalda qo‘llamaydi.

Baholash tizimidagi kamchiliklar. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni aniqlashga qaratilgan. Ijodiy fikrlash esa ko‘pincha bir nechta to‘g‘ri yechimlarni nazarda tutadi. Shu sababli ijodiy yondashuvlar baholash jarayonida yetarli e’tiborga olinmaydi.

Psixologik to‘siqlar va ichki omillar

O‘quvchilarda quyidagi psixologik muammolar kuzatiladi:

-xato qilishdan qo‘rqish;

-o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaslik;

-past o‘z-o‘zini baholash;

-tashqi tanqiddan cho‘chish.

Bunday holatlar ijodiy fikrlashni sezilarli darajada cheklaydi.

Motivatsiya va qiziqishning pastligi. Agar ta’lim jarayoni qiziqarli tashkil etilmasa, o‘quvchilar ijodiy faoliyatga jalb etilmaydi. Ichki motivatsiyaning shakllanmaganligi esa yangi g‘oyalar yaratishga to‘sqinlik qiladi.

O‘quv muhitining yetarli darajada rivojlanmaganligi.Ijodiy fikrlash uchun qulay muhit zarur: ochiq muloqot, erkin fikr almashinuvi, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish. Ammo ba’zi ta’lim muassasalarida bunday muhit yetarli darajada shakllanmagan.

Oila va ijtimoiy muhit ta’siri. Ba’zan ota-onalar farzandlardan faqat yuqori baho kutib, ularning ijodiy izlanishlariga yetarli e’tibor bermaydi. Bu esa bolalarda standart fikrlashni shakllantiradi.

Psixologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar. Psixologiya fanida ijodiy fikrlash shaxs rivojining muhim komponenti sifatida qaraladi. Tadqiqotlarga ko‘ra:

-ijobiy emotsional muhit ijodkorlikni oshiradi;

-erkinlik va mustaqillik ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;

-rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, divergent fikrlash (bir nechta yechim topish qobiliyati) ijodiy fikrlashning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari

Interaktiv metodlardan foydalanish.Aqliy hujum (brainstorming), debat, rol o‘ynash, klaster usullari o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi.O‘quvchilarga muammoli vaziyatlar berish orqali ularni mustaqil izlanishga undash.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning)

O‘quvchilar real hayotga yaqin loyihalar ustida ishlash orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash

Har qanday yangi g‘oyani qadrlash, tanqidni konstruktiv shaklda berish muhimdir.

Erkin muhit yaratish

O‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan psixologik muhit yaratish zarur.

AKT va raqamli texnologiyalardan foydalanish

Multimedia vositalari, onlayn platformalar ijodiy yondashuvni kengaytiradi.

Xulosa. Pedagogika va psixologiya fanlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mavjud muammolar – an’anaviy yondashuvlar, baholash tizimidagi kamchiliklar, psixologik to‘siqlar va motivatsiya yetishmasligi – bu jarayonni murakkablashtiradi.Shu bois ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion metodlarni keng joriy etish va qulay psixologik muhit yaratish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Natijada jamiyatda innovatsion, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxslar shakllanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.N. Tolipov. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015.

2.B. Qodirov. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

3.J. P. Guilford. Ijodiy fikrlash va intellekt tuzilishi. – New York, 1967.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Yorqulova Sevinch Suyunboy qizi
KDPI Pedagogika fakulteti talabasi
yorqulovasevinch946@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish masalasini pedagogik jihatdan tahlil qilib beramiz.O‘qishga qiziqishning mohiyati, ichki va tashqi omillari, samarali pedagogik yondashuv hamda amaliy tavsiyalar berib borammiz.Shuningdek qiziqiishni shakillantirishda o‘qituvchi,o‘quvchi va ota-ona hamkorligining ahamiyati katta hisoblanadi.*

Kalit so’zlar

Qiziqish, boshlang‘ich ta‘lim, ichki va tashqi omillar, pedagogik yondashuv, rag‘batlantirish.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning o'qishga bo‘lgan munosabati va qiziqishiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa shaxsning bilim olishga nisbatan dastlabki qarashlari va o‘quv faoliyati ko‘nikmalari shakllanadigan muhim davrdir. Shu bois o‘quvchilarda o'qish qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Qiziqish shaxsni ma’lum faoliyatga undovchi ichki va tashqi kuchlar yig‘indisidir. Psixolog olimlar, jumladan, Abraham Maslow ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson faoliyati ehtiyojlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Lev Vygotsky ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va hamkorlikning o‘rni muhimligini asoslab bergan.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziqish ko‘pincha tashqi rag‘bat orqali shakllanadi. Biroq pedagogik jarayonda asosiy e’tibor ichki qizishni rivojlantirishga qaratilishi zarur. Interfaol metodlardan foydalanish.Didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, kichik guruhlarda ishlash va rolli o‘yinlar o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Faol ishtirok qiziqishni mustahkamlaydi.

Har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishini hisobga olish, differensial topshiriqlar berish muvaffaqiyat hissini uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida ichki qiziqishni kuchaytiradi.Maqtov, ijobiy baholash va rag‘bat kartochkalari boshlang‘ich sinflarda samarali vosita hisoblanadi. Biroq rag‘bat haddan ortiq tashqi omilga aylanib qolmasligi kerak.Nazariy bilimlarni real hayotiy misollar asosida tushuntirish o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishni oshiradi. Masalan, matematik masalalarni kundalik hayot bilan bog‘lash yoki matnlarni o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan uyg‘unlashtirish samarali natija beradi.Sinfda o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash va erkin fikr bildirish muhiti shakllantirilsa, o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga intiladi.Oila va maktab hamkorligi qiziqishni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ota-onalarning farzandiga e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Boshlang‘ich ta’limda qiziqishni kuchaytirishda o‘yinli va interfaol metodlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Jahonova ta’kidlaganidek, ta’limda o‘yinli faoliyat bolalarda qiziqish, ijodkorlik va musobaqalashish ruhini uyg‘otadi .

Masalan, darslarda **“Bilimlar poygasi”, “Kim tez topadi**?”, **“Topshiriqni to‘g‘ri bajar”** kabi interfaol o‘yinlardan foydalanish bolalarda o‘qishga nisbatan ijobiy kayfiyat yaratadi.O‘quv qiziqishini shakllantirishda emotsional qo‘llab-quvvatlash va psixologik xavfsizlik asosiy shartlardan biridir. Agar bola o‘zini dars jarayonida erkin, hurmatli va qadrlangan his qilsa, u o‘qishga yanada faolroq yondashadi. Aksincha, tanqid, solishtirish yoki adolatsizlik qiziqishni pasaytiradi. Shu bois o‘qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki, unda har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon eta olsin.

Qiziqishni shakllantirish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Uyda bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati, oila a’zolarining ta’limga qiziqishi,o‘quvchining yutuqlarini maqtash — bularning barchasi ichki qiziqishbi mustahkamlaydi.Agar ota-onalar bolaning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini e’tirof etsa, bu bolaning o‘z-o‘ziga ishonchini oshiradi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziqishni asosan hissiy tajribaga asoslanadi. Darsda o‘qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy muhit, quvnoq ohang,maqtov so‘zlari, kichik mukofotlar motivatsiyani kuchaytiradi. Shu jihatdan o‘qituvchining emotsional intellekti muhim rol o‘ynaydi — ya’ni u o‘quvchilarning hissiy holatini anglab,ularga to‘g‘ri munosabat bildira olishi kerak.

Demak, boshlang‘ich ta’limda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning asosiy psixologik omillari quyidagilardan iborat:

1. Ijobiy emotsional muhit yaratish;
2. O‘qituvchining shaxsiy namunasi va empatiyasi;
3. O‘yinli va interfaol usullarni qo‘llash;
4. Ota-onalar bilan hamkorlik;
5. Adolatli baholash va rag‘bat tizimi;
6. Har bir o‘quvchiga individual yondashuv.

Yuqoridagi omillar uyg‘un holda qo‘llanilganda, o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ichki qiziqishi kuchayadi, bilim olish jarayoni esa tabiiy ehtiyojga aylanadi.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish qiziqishini oshirish — kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy mahorati, ta’lim metodlari va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Ichki qiziqishni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar, individual yondashuv va ijobiy psixologik muhit o‘quvchilarning ta’lim samaradorligini oshiradi. Qiziqishi yuqori bo‘lgan o‘quvchi kelajakda mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga qiziqishni shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim psixologik masalalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi, ijobiy emotsional holati va o‘z-o‘zini baholash darajasi ularning muvaffaqiyatli o‘qishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi yondashuvi, ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy sinf muhiti qiziqishni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. — Toshkent, 2022.

2.Sobirov A. (2021). Ona tilini o‘qitishning innovatsion usullari. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.

3.Jahonova, G. A. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

4.Matyuxina, M. V., Boshlang'ich maktab o'quvchilarida o'qish motivatsiyasi. Moskva: Pedagogika, 1984. 144-bet.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MEHNAT TARBIYASINI SAMARALI YO‘LGA QO‘YISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Elmurodov Ulug’bek Yusup o’g’li , KDPI, PhD.

Abdullayeva Shahlo,3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tezis maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini samarali amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni, zamonaviy o'qitish usullari va yangi texnologiyalardan foydalangan holda o'rganadi. Tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, mustaqillik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda interaktiv metodologiyalar, loyihaga asoslangan faoliyat, STEAM komponentlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Mehnat ta'limini tashkil etishda o'qituvchilarning malakasi, oilaviy ishtiroki va institutsional hamkorlikning ahamiyati ilmiy va nazariy asosda yoritib berilgan. Tezis natijalari ijodiy metodologiyalar orqali maktabgacha ta'lim amaliyotida mehnat ta'limini yaxshilaydi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, mehnat tarbiyasi, innovatsion texnologiyalar, tarbiyalanuvchi, pedagogik jarayon, kompetensiya, interfaol metodlar, STEAM ta’limi.*

KIRISH. Maktabgacha ta'lim tizimi shaxsiy rivojlanishning dastlabki va muhim bosqichi sifatida qaraladi, bu davrda bolaning ijtimoiy, ma'naviy, jismoniy va intellektual o'sishi uchun zamin yaratiladi. Jamiyat evolyutsiyasi va iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning murakkabligi sharoitida kelajak avlodni mehnatsevar, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxslar sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda[1]. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini to'g'ri tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mehnat ta'limi bolalarda atrof-muhit haqida ongli xabardorlikni rivojlantirishga, ijtimoiy rollarni tushunishga va jamoaviy ish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mehnat ta'limi asosan asosiy mehnat vazifalari orqali amalga oshiriladi. Bularga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, buyumlar va o'yinchoqlarni tartibga solish va hamkorlikdagi mehnat faoliyatida ishtirok etish kabi protseduralar kiradi. Ushbu tadbirlar bolaning mustaqilligi,

[1] Abdurahmonova, M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 112–118-betlar.

mas'uliyat hissi va qat'iyatlilik xususiyatlarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi hozirgi takomillashtirish zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiyalashni taqozo etadi. Agar an'anaviy mehnat ta'limi usullari zamonaviy pedagogik strategiyalar bilan yaxshilanmasa, ularning samaradorligi yetarli bo'lmasligi mumkin. Natijada, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mehnat ta'limini tuzish ta'lim jarayonining muhim jihati sifatida paydo bo'lmoqda. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonida yangi metodologiyalar, vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv strategiyalar va ixtirochi pedagogik konsepsiyalarni anglatadi. Bunday texnologiyalarni maktabgacha ta'limda joriy etish bolalarning qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchilar sifatida jalb qiladi va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni rivojlantiradi. Loyiha faoliyati asosida tuzilgan mehnat darslari bolalarning muammolarni hal qilish, rejalashtirish va natijalarga erishish qobiliyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, STEAM ta'lim komponentlarini kasbiy tayyorgarlikka kiritish bolalarning texnik mulohaza yuritish, ijodkorlik va amaliy mashg'ulotlarga jalb qilinishini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mehnat jarayonlarini vizual va interaktiv tarzda yoritishni ta'minlaydi. Bu bolalarning mehnat mazmunini ularning rivojlanish xususiyatlariga muvofiq tushunishlariga yordam beradi. Ushbu tezis maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini samarali amalga oshirishda yangi texnologiyalarning ta'lim salohiyatini o'rganadi. Tadqiqot maktabgacha yoshdagi o'quvchilarda mehnatsevarlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'qitish amaliyotini umumlashtirish va amaliy natijalarni olish vazifalari belgilandi[1].

ASOSIY QISM. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini samarali tuzish zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Mehnat ta'limi bolaning rivojlanishida muhim ta'lim elementi bo'lib, ijtimoiy foydali vazifalarga puxta yondashishni, shuningdek, mas'uliyat va mustaqillik qadriyatlarini rivojlantirishni rivojlantiradi[2]. Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida bolalarni yoshligidan mehnatga tayyorlash va ularda zamonaviy metodologiyalar orqali mehnatsevarlikni rivojlantirish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi mehnat ta'limi asosan o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bola uchun mehnat jarayoni burch sifatida emas, balki qiziqarli va maqsadli harakat sifatida tuzilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar mehnat ta'limi samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar bolalarga o'z qiziqishlari va talablarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida faol agentlar sifatida ishtirok etish imkonini beradi. Pedagogik innovatsiyalarga asoslangan mehnat ta'limi o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik va qiyin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchi bolalarning mehnat faoliyatiga jalb qilinishini oshirish va ularning hamkorligini rivojlantirish uchun interaktiv yondashuvlardan foydalanadi. Hamkorlikdagi mehnat faoliyati orqali bolalar bir-biriga yordam berish ko'nikmalarini egallaydilar, o'zaro hurmat va javobgarlikni rivojlantiradilar. Loyiha faoliyati mehnat ta'limini tashkil qilishning samarali va noyob usuli hisoblanadi. Loyihaga asoslangan mehnat harakatlarida bolalar belgilangan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bu jarayon orqali yoshlar rejalashtirish, ketma-ketlikni tushunish va natijalarni baholash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Loyiha faoliyati orqali bolalar mehnat jarayoniga puxta yondashadilar va o'z harakatlarining natijalaridan qoniqishni his qiladilar. Zamonaviy maktabgacha ta'limga STEAM ta'lim komponentlarini kiritish kasbiy tayyorgarlikning mazmunini oshiradi. STEAM yondashuvi bolalarning amaliy faoliyatini fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika komponentlarini birlashtirish orqali yaxshilaydi. Mehnat jarayonlarini rivojlantirish, oddiy modellar bilan ishlash va tabiiy hodisalarni kuzatish

[1] Karimova, D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 56–63-betlar.

[2] Mirzayeva, N. Maktabgacha ta’limda tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 89–95-betlar.

orqali bolalar texnik mulohaza yuritish va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu metodologiya mehnat ta'limini ham jismoniy harakat, ham intellektual va badiiy faoliyat sifatida tavsiflaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mehnat ta'limini tuzishda muhim pedagogik vositaga aylanib bormoqda. Multimedia vositalari, animatsiyalar va interaktiv ilovalar bolalar uchun mehnat jarayonlarini aniq va tushunarli tarzda yoritib beradi. Vizual vositalardan foydalanish bolalarning idrokini yaxshilaydi va ularning mehnat faoliyatiga jalb qilinishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining metodologik imkoniyatlarini oshiradi. O'qituvchining professional tajribasi mehnat ta'limini to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir. O'qituvchi innovatsion texnologiyalar haqida keng bilimga ega bo'lishi va ularni bolalarning rivojlanish va psixologik xususiyatlariga mos ravishda qo'llay olishi kerak. O'qituvchining innovatsion yondashuvi va metodologik tajribasi mehnat ta'limi jarayonining muvaffaqiyatining asosiy omillaridir. O'qituvchi mehnat faoliyatini bolalarni qiziqarli, maqsadli va pedagogik jihatdan qimmatli qiladigan tarzda tashkil qilishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini tashkil etishda oilalar bilan hamkorlik juda muhimdir. Oila va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik bolalarning mehnat axloqini oshiradi. Ota-onalar bilan hamkorlikdagi mehnat faoliyati bolalarning ta'lim jarayonlarida uzluksizlikni ta'minlaydi. Uy mehnati va ta'lim faoliyati o'rtasidagi sinergiya bolaning mehnatga ijobiy munosabatini rivojlantiradi[1].

Mehnat ta'limida milliy qadriyatlar va an'analarni ham hisobga olish kerak. Milliy mehnat an'analari asosida tashkil etilgan darslar bolalarda madaniy mehnat merosiga bo'lgan qadriyatni rivojlantiradi. Bu yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini kuchaytiradi, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalaydi. Milliy strategiya, yangi texnologiyalar bilan birgalikda, mehnat ta'limi samaradorligini oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limida yangi texnologiyalarni joriy etish pedagogik jarayonni yuqori sifat darajasiga ko'taradi. Ushbu metodologiya, yoshlarda mehnatsevarlik, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish bilan birgalikda, ularni keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlash uchun juda muhimdir. Yosh avlodga mehnat ta'limi berish hozirgi kunda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat individual o'sish va umuman jamiyatning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Mehnat ta'limi maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy va badiiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq tuziladi va faqat tegishli ko'rsatmalar bilan etarli natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatining o'ziga xos elementlari ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Bolalar mehnatining muhim xususiyati uning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnati kattalar nazorati ostidagi harakatdir. U samarali mehnat turlarida samarali rivojlanadi. Masalan: gulzorni o'stirish, fermaga qarash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar davrida ish va o'yin bir-biri bilan bog'liq; shunga qaramay, bolalar mehnatini o'yinga aylantirish noto'g'ri, chunki bu ularning farqini pasaytiradi. Bolalar ishi o'qituvchilar va ota-onalar ta'sirida o'ziga xos maqsadlari, mazmuni, metodologiyasi va tashkil etilishi bilan ajralib turadigan mustaqil faoliyat sifatida tan olinmoqda. Kasbiy sharoitlarda uning natijalari harakatning ajralmas va ajralmas qismidir. Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim ishlarida natija ularda ishlashga qiziqish hissini uyg'otadigan pedagogik element sifatida qaralishi kerak. O'qituvchilar, tengdoshlar tomonidan baholanishi va o'zini o'zi baholash ish natijalariga erishish va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishda juda muhimdir. Bolalar o'z ijodlaridan o'yinlar va mashg'ulotlarda foydalanganda, ular o'z mahsulotlarining sifatini oshirishga intilishadi. Mehnat shaxsning yaxlit rivojlanishidagi asosiy omil hisoblanadi. Binobarin, barcha bolalar maktabgacha yoshdan boshlab mehnat jarayonida ishtirok etishlari kerak. Bolalar bog'chasida va uyda bajariladigan har bir asosiy vazifa bola uchun kundalik mas'uliyat sifatida belgilanishi kerak. Bolaning mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunishini osonlashtirish

[1] Rasulova, Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022. – 41–47-betlar.

uchun o'qituvchi kattalar mehnatini va bolalarning o'zlari bajaradigan ko'plab vazifalarni ko'rish uchun ekskursiyalar tashkil qiladi. Qurilish ishlarini kuzatish orqali yoshlar g'isht teruvchi, rassom va duradgor kasblari bilan tanishadilar. Yoshlarning qurilish bilan tanishish jarayonida olgan g'oyalari va tushunchalari va ularning oldida ulug'vor bino qurgan kattalarning mahorati ochib beriladi. Mehnat yoshlarning hushyor, zukko, ixtirochi, ijodiy va mahoratli bo'lishlarini talab qiladi. Mehnat jarayoni bolaning so'z boyligini yangi atamalar bilan boyitadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limi ikki yo'nalishda olib boriladi: 1. Bolalarni mustaqil bo'lishga o'rgatish. 2. Kattalarni ishga yo'naltirish. Barcha yoshlarning to'liq ishtiroki va kattalarning majburiyatlari bilan tanishtirish bilan ishda izchil ishtirok etish ta'lim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar: o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, uy ishlari, ochiq havoda ishlash va qo'l mehnati. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish - bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalarga yoshligidan mustaqil ravishda ovqatlanish, kiyinish va yechinish, shuningdek, o'yinchoqlarini tartibga solish o'rgatiladi. Bolalar mehnatining bu shakli bolalarda tartiblilik, intizom va xushmuomalalikni tarbiyalaydi[1].

Mustaqillik xususiyatlari rivojlantiriladi. Bolalar bog'chada va oilada uy ishlari bo'yicha ko'rsatmalar oladilar. Bunga misollar sifatida darsdan keyin stoldan narsalarni olib tashlash, choy stakanlari, o'yinchoqlar va shunga o'xshash narsalarni saqlash kiradi. Tabiat bilan aloqa bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ushbu amaliyot orqali o'quvchilar ekish uchun tuproq tayyorlash, ko'chat yetishtirish va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Jismoniy mehnat. Qo'l mehnati bolalarning darslar, o'yinlar va boshqa mashg'ulotlar uchun qo'lda buyumlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Qo'l mehnati orqali bolalar ijodkorlik, ixtirochilik va bilimni rivojlantiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishning ikkita usulidan foydalanadilar: yakka ish va hamkorlikdagi ish. Tarbiyachining vazifasi bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini optimallashtirishdir. Shaxsiy vazifalar turli maqsadlar uchun bajariladi. Odatda, tarbiyachi bola o'quv mashg'ulotlarida qatnasha olmaganida yoki individual xususiyatlari tufayli ma'lum bir vazifani o'zlashtirishda qiynalganida yordam olishini tashkil qiladi. Tarbiyachining vazifasi yosh bolaga mehnat jarayonini to'liq yoki eng qiyin qismi bo'yicha bajarishni o'rgatishdir. Shaxsiy ish bola vazifaga qiziqish bildirganda, uni benuqson bajarishga harakat qilganda va jarayonda tashabbus ko'rsatganda yuzaga keladi. 5 yoshli qiz o'qituvchidan uni navbatdagi navbatchi sifatida tayinlashni so'rab, "Men qoshiqlarni qo'yishni o'rganaman" deydi. Bugun men ularni noto'g'ri joylashtirib xato qildim. Ertaga ularni albatta to'g'ri joylashtiraman. Bu holda, mehnatni boshqarish hali o'zlashtirilmagan mehnat usullarini o'rnatishga intiladi. Odatda, o'qituvchi ish texnikasi bo'yicha yo'l-yo'riq, o'zini o'zi boshqarish va ko'rsatmalardan foydalanadi. Keng guruhlardagi yakka harakatlar muayyan mehnat jarayonlariga qiziqishni rivojlantirish uchun o'lchov bo'lib xizmat qiladi. Bolalar hayvonlarga qarashadi, o'yinchoqlar yasashadi va tikuvchilik bilan shug'ullanishadi. Odatda, odamlar o'zlarini mustaqil ravishda jalb qiladigan mehnat turlari bilan shug'ullanishadi. Bolalar o'rtasidagi hamkorlikni maktabgacha yoshdan boshlab sezish mumkin. Jamoaviy ish umumiy maqsad, a'zolar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, hamkorlikdagi natija, ishtirokchilar o'rtasida o'zaro javobgarlik va ularning o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Hamkorlikning eng asosiy turi - bu jamoaviy mehnat bo'lib, bolalarni umumiy maqsad va ularning harakatlarining umumiy natijasi orqali birlashtirish bilan belgilanadi. Mehnat jarayoni individual ishlarga o'xshash tarzda rivojlanadi. Masalan, har bir bola bitta butaning barglarini tozalaydi, natijada vazifa tugashi bilan barcha o'simliklar toza bo'ladi. Natijalarni yakka natijaga birlashtirish, individual hissalar jamoaning birgalikdagi sa'y-harakatlariga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolalar zarur mehnat tartibini o'zlashtirgandan so'ng, birgalikdagi mehnatni joriy etish mumkin. Mehnat ta'limi - bu bolalarda mehnatning mohiyatini chuqur tushunishni rivojlantirish, unga nisbatan vijdonan munosabatni shakllantirish va ma'lum

[1] Sobirova, L. STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta’limda qo‘llash. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 73–79-betlar.

ijtimoiy foydali ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy ta'limning muhim jihatini tashkil etadi[1].

XULOSA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini samarali tuzish bolalarning shaxs sifatida yaxlit rivojlanishida muhim element hisoblanadi. Mehnat ta'limi jarayoni yoshlarda ijtimoiy foydali faoliyatga yaxshi moyillik, mas'uliyat, intizom va mustaqillik kabi muhim fazilatlarni rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat ta'limini an'anaviy usullar bilan cheklash zamonaviy ta'lim talablarini qondira olmaydi. Natijada, bu jarayonga zamonaviy texnologiyalarni kiritish juda muhimdir. Innovatsion texnologiyalarga asoslangan mehnat ta'limi bolalarning faol ishtirokini osonlashtiradi, ularni jarayonning markazida qoldiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Interaktiv yondashuvlar orqali o'tkaziladigan mehnat darslari bolalarning ishtirokini oshiradi va hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Loyiha faoliyati orqali bolalar mehnat jarayonining maqsadi, bosqichlari va natijalarini tushunadilar, ishga ongli munosabatni rivojlantiradilar. Kasbiy tayyorgarlikka STEAM ta'lim komponentlarini kiritish yoshlarda ilmiy va amaliy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, ularni texnologik muhitda moslashuvchan shaxslar bo'lishga tayyorlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mehnat operatsiyalarini vizual jihatdan qiziqarli tarzda tashkil etishga yordam beradi. Bu bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kasbiy ta'limning samaradorligi asosan o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. O'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni mohirona egallashi va ularni amalda mohirona qo'llashi kerak. Mehnat ta'limini doimiy va metodik ravishda amalga oshirish uchun oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. Ota-onalar bilan hamkorlikdagi mehnat faoliyati bolalarning mehnatga ijobiy munosabatini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat ta'limini yangi texnologiyalardan foydalangan holda tuzish zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob beradi. Ushbu usul yoshlarda mehnatsevarlik, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida mehnat ta'limini takomillashtirish bo'yicha metodologik tavsiyalarni ishlab chiqish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonova, M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 112–118-betlar.
2. Karimova, D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 56–63-betlar.
3. Mirzayeva, N. Maktabgacha ta’limda tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 89–95-betlar.
4. Rasulova, Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022. – 41–47-betlar.
5. Sobirova, L. STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta’limda qo‘llash. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 73–79-betlar.
6. Xudoyberdiyev, B. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. – 101–107-betlar.

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI IJTIMOIYLASHUVIDA MAHALLANI O‘RNI

Komolova Iroda

KDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Diyora Nurullayeva, 2-kurs talabasi

Annatatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiylashuv jarayonida mahallaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mahalla jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shaxsning shakllanishi, uning ijtimoiy qadriyatlar va an’analarni o‘zlashtirishida muhim rol o‘ynashi yoritiladi. Shuningdek, maqolada mahallaning tarbiyaviy, ma’naviy va ijtimoiy funksiyalari,*

[1] Xudoyberdiyev, B. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. – 101–107-betlar.

yoshlar tarbiyasidagi o‘rni hamda zamonaviy jamiyatda uning ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mahalla institutini yanada rivojlantirish va uning ijtimoiylashuvdagi rolini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: *mahalla, ijtimoiylashuv, ijtimoiy institut, tarbiya, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, an’analar, qadriyatlar, jamiyat, shaxs rivoji, ijtimoiy muhit, hamjihatlik, fuqarolik jamiyati*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida shaxsning jamiyatga moslashuvi, ya’ni ijtimoiylashuv jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuv inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda shaxs jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va an’analarni o‘zlashtiradi. Ushbu jarayonda turli ijtimoiy institutlar, xususan oila, ta’lim muassasalari hamda mahalla muhim rol o‘ynaydi.

Mahalla o‘ziga xos ijtimoiy muhit sifatida nafaqat kundalik hayotni tartibga soladi, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o‘rni beqiyos bo‘lib, u orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajriba avloddan-avlodga o‘tadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiylashuv jarayonida mahallaning o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy funksiyalarini yoritish hamda zamonaviy jamiyatda tutgan ahamiyatini ochib berishdan iborat

Asosiy qism: Bolalarning har tomonlama rivojalanishi va ta’limolishi uchunMTT oila va mahalliy jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi juda muhim bo‘lib, u MTT qo‘ydagi maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

Maqsadlari: Ota- onalar hamda mahalliy jamoatchilik orasida maktabgacha ta’limyoshidagi bolalarga samarali ta’limberish va ularni rivojlantirishiga yo‘naltirilgan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

- Ota -onalar va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zoro do‘stona muhitni yaratish orqali MMT tarbiyalanuvchilarining pedagogik-psixologik kompetenziyalarni qo‘llab - quvatlash

-Ota -onalarning MMTda o‘tkaziladigan qo‘shimcha tadbirlar orqali ta’lim– tarbiya jaroyonida ishtirogini ta`minlash

Bolalarning har tamonlama rivojlanishi va ta’limolishi ikki tarbiyaviy muhit - oila va MTT ning o‘zaro hamkorligi juda muhimdir.MTT va ota- onalar orasidagi o‘zaro do‘stona hamkorlik MTT pedagoglarni oldiga qo‘ydagi muhim vazifalarni qo‘ydi.

Ota -onalar bilan o‘zaro ishonsa asoslangan munasabatlarni shakllantirish

Oilaning yagona ta’limmuhitida ishtirokini ta`minlash

Maktabgacha ta’limda ijtimoiylashuv jarayonida **mahalla** juda muhim o‘rin tutadi. Bola faqat oila yoki bog‘chada emas, balki yashab turgan ijtimoiy muhit — mahalla orqali ham jamiyatga moslashadi.

Mahallaning ijtimoiylashuvdagi asosiy o‘rni:

1. Ijtimoiy muhitni shakllantiradi

Mahalla bolaga ilk ijtimoiy tajribalarni beradi. U qo‘shnilar, tengdoshlar bilan muloqot qilib, jamiyat qoidalarini o‘rganadi.

2. Milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdiradi

Mahallada o‘tkaziladigan marosimlar, bayramlar va urf-odatlar orqali bolada hurmat, mehr-oqibat, kattalarga ehtirom kabi fazilatlar shakllanadi.

3. Jamoaviylikni rivojlantiradi

Bolalar mahalladagi o‘yinlar, tadbirlar orqali birgalikda harakat qilishni, o‘zaro yordam berishni o‘rganadi.

4. Xulq-atvorni nazorat qiladi

Mahalla kattalari va faollari bolalarning xulqiga e’tibor beradi. Bu esa bolani intizomli bo‘lishga undaydi.

5. Ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi.

Mahalla maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan birga ishlaydi: tadbirlar o‘tkazadi, ota-onalar bilan ishlaydi, bolalar tarbiyasiga ko‘maklashadi.

6. Xavfsiz muhit yaratadi

Mahalla bolalar uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratib, ularning erkin rivojlanishiga yordam beradi

MAHALLIY JAMOATCHILIK BILAN IJTIMOIY SHERIKLIK

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti bosqichma bosqich ochiq ta’limtizimiga aylanib bormoqda: bir tomondan,MTTdagi pedagogic jaroyon pedagogic jamoa tomonidan yanada erkin moslashuvchan ,diffenziallashgan,insonparvar bo‘lib bormoqda ikkinchi tomonidan esa pedagoglar ota -onalar va mahalliy jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik va aloqalarga yo‘nalmoqdalar.Ochiq maktabgacha ta’limtashkiloti tushunchasi o‘z ichiga keng doiradagi belgilarni oladi.

Ochiq maktabgacha ta’limtashkiloti- bu eng avvalo “dunyoga qaratilgan deraza” dir; u ham bolalar ham katta yoshlilar uchun shaxslararo va guruhli mukloqotni ham ochiq tarzda yaratib beradi.Shu tarzda ishlaydigan maktabgacha ta’limtashkiloti ijtimoiy – madaniy muhit sanalib bolalarni tarbiyalash madaniyatni shaklantirish borasida oila korxona- tashkilotlar madaniy dam olish muassasalari , jamoatchilik tashkilotlari mahalliy hokimyat tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalarni kenggaytiradi ba mustahkamlaydi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limtashkiloti ko‘p sonli tashkiloti ko‘p sonli tashkilotlar ,korxonalar, muassalar bilan o‘zaro harakat qilib qo‘ydagilarni ko‘zda tutuvchi keng miqyosdagi hamkorlik,ijtimoiy sherikliksiz oz faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirolmaydi va rivojlana olmaydi:

- Yagona axborotli ta’limmakonni shakllantirish
- MTT va ijtimoiy sheriklar orasidagi konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish
- Ijtimoiy muammolarni qilishga yo‘naltirilgan jamiyatdagi turli sektorlarning o‘zaro foydali hamkorligi
- Ishtirokchilarning teng huquqli hamkorlikka yo‘naltirishi, munosabatlarni optimallashtirish, kelishishga erish yo‘lalarini izlab topish
- Turli hildagi subyektlar vakillarining hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish

Maktabgacha ta’limtashkiloti va mahalliy jamoatchilik bilan ijtimoiy sherikligi o‘z ichiga qo‘ydagilarni oladi;

- Davlat tuzilmalari va mahalliy o‘z- o‘zini boshqarish organlari (mahalla yig`ilini hokimyat,IIB va shu kabillar) bilan sheriklik
- Ta’lim(bo‘shlang`ich maktablar), ilm-fan va madaniyat muassasalari ,madaniy-oqartuv muassalari (kutubxonalar, muzeylar,teatrlar,va shu kabilar) bilan o‘zaro hamkorlik
- Sog`liqni saqlash va ijtimoiy taminot muassalari bilan haamkorlik
- Homiylar, hayriya tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlik
- Jamoatchillikdagi alohida shaxslar boshqa bilan sheriklik aloqalari
- MTT tarbiyalanuvchilarning oila azolari bilan hamkorlik

Buning uchun qo‘shimcha resuslarni olish zarur bo‘lib qolgan paytlarda biz tarbiyalayotgan bolalarimizning oilalariga yordam berish uchun bizning mahalliy jamoatchiliklarimizdagi turli xil xizmatlarning o‘ziga xosliklari bilishimiz ularga mumtazam murojaat qilamiz va ular bilan samarali muloqot olib boorish zarurdir

OILA VA JAMOATCHILIK A`ZOLARI BOLALARDA IJODIY QOBIYATNI RIVOJLANTIRISHGA JALB ETISH

Bolalarga mahalliy rassomlar, musiqachilar, raqqoslar va jamoatchilikdagi boshqa san’atkorlar bilan ularning san’atini ko‘rish va ular qilayotgan ishlarni tushunib olish uchun tanishish zarurdir. Bu ularga ijodkorlik tushunchasini tushunib olishga va ular hamda o‘zlari orasidagi xilma-xilliklarni ajratishga yordam beradi. Spektakllarga yoki san’at galereyalariga

tashrif buyurish bu maqsadni amalga oshirish usullaridan biri bo‘lib sanaladi. Buning yana bir boshqacha usuli bo‘lib, bunday san’at vakillarini MTTga taklif etish hisoblanadi, bunda turli yo‘nalishdagi san’atkorlar va ijodkorlar o‘zlarining ishlarini qanday amalga oshirishlarini ko‘rsatib beradilar.

Agarda buning iloji bo‘lmasa va guruh ijodkorning ustaxonasiga tashrif buyura olishining imkoni bo‘lmasa, uning ishlari videoyozuvini ko‘rsatish bolalarga ularning o‘z jamoatchiliklarida mavjud bo‘lgan iqtidorni ko‘rish imkoniyatini beradi.Yog‘ochga ishlov berish, kulolchilik, to‘quvchilik (tikish, o‘rish, applikatsiya, to‘qish va shu kabilar) yoki musiqa asboblarini tayyorlash kabilar bilan shug‘ullanuvchi oila va jamoatchilik a’zolari ham guruhga taklif qilinishi zarur va bunda bolalarning biron buyum yasash amaliyotida shaxsan ishtirok etish usullarini o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi. Musiqa asboblarini chaladigan, kuylaydigan yoki raqs tushadigan oila a’zolari guruhga kelishlari va o‘z iqtidorlari bilan tajriba almashishlari mumkin. Ular shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi turli xil bayramlar va badiiy kechalarni, jamoatchilikda va markazda tadbirlarni badiiy bezashni tashkil etishga taklif etilishlari ham mumkindir.

Bolalar o‘z jamoalarida ijodkor va rassomlar haqida tadqiqot loyihalari o‘tkazadilar, shuningdek, o‘z jamoalarida insonlarning qanday san’at turlarini afzal ko‘rishlarini o‘rganishlari mumkin. Masalan, ular odamlarning sevimli musiqa yoki raqs turlari haqida so‘rovlar o‘tkazadilar. Shu tarzda, ular o‘zlarining jamiyatdagi odamlar haqida ko‘proq bilib olishlari va turli xil imtiyoz va qiziqishlarini taqqoslashga erishadi.

Oila va jamoatchilikni bolalarning jismoniy rivojlanishiga jalb qilish

Garchi aksariyat oila va jamoalar yosh bolalarning jismoniy rivojlanishini hurmat qilib qadrlashsa-da, ammo ko‘p mamlakatlarda bolalarning semirib ketishi tobora kuchayib bormoqda, chunki ko‘pgina bolalar jismoniy faollik bilan shug‘ullanmaydilar. Bolalarning har kuni ochiq havoda o‘ynashlari va jismoniy mashqlar qilishlariga imkon berish, ularning farovonligi ijtimoiy-emotsional va kognitiv rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, atrof-muhitga nisbatan hayot davomida munosabat, qadriyatlar va xatti-harakatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi (Uilson, 1999).

Biz maktabgacha ta’lim-tarbiyachilari sifatida oilalarga ochiq ta’lim imkoniyatlarini tushuntirishimiz kerak. Ko‘pchilik allaqachon ko‘chada o‘z farzandlari bilan bir oz bo‘lsa ham vaqt o‘tkazishmoqda va bu tajribaning ahamiyatini ko‘rib, ular o‘zlari xursand bo‘lishmoqda. Yil boshidan boshlab, oilalar o‘z farzandlarini tashqarida vaqt o‘tkazishlarini bilishlari kerak.

Toza havoda sayrning foydasi qanchalik yaxshiligini eslatgan holda, vaqti-vaqti bilan ularning bolasi sayrda nimalarni o‘rganganligi to‘g‘risida eslatma yuboring. Bu, albatta, oilada ushbu tadbirlarni ko‘paytirish yoki kengaytirishga yordam beradi va rag‘batlantiradi.Shuningdek, bolalarning toza havoda xavfsiz va sog‘lom sharoitda vaqt o‘tkazish huquqini ta’minlashimiz kerak. Agar biz bolalar o‘ynaydigan joylarga diqqat bilan qarab (masalan, bog‘lar va tabiat zonalari kabi), zarur hududni aniqlab olsak, bolalarimiz uchun o‘qish muhiti sifatida yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Mahalliy jamoatchilik ta’lim muhiti sifatida

Mahalliy jamoatchilikni o‘rganish uchun uni boshqa joy sifatida ishlatishning ko‘plab usullari mavjud. Bolalar o‘yinlar, musiqa va raqslar, shuningdek, ko‘cha ijrochilari va turli xil tadbirlarda turli ishlarni bajarayotgan ishchilarni tomosha qilishlari mumkin. Masalan, ular qariyalar uylari, boshlang‘ich maktab yoki kasalxona bo‘lib, u yerdagi odamlar o‘zlarining bolaligi haqida tarbiyalanuvchilarga gapirib berishadi. Mahalliy odamlar bu orqali tarbiyalanuvchilarni yaxshiroq taniydilar va ularning muvaffaqiyatlari haqida qayg‘uradilar (Tankersleetal, 2010). Shuningdek, bolalar o‘zlarining mahalladoshlari haqida bilishadi va bu hududni turli faoliyat bilan shug‘ullanadigan qariyalar va kattalar uchun qulay joy sifatida ko‘rishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning har tomonlama kamol topishida nafaqat ta’lim muassasasi, balki oila va mahalliy jamoatchilikning ham o‘rni beqiyosdir. San’atkorlar bilan

muloqot, ochiq havodagi jismoniy faollik va mahalla hayotini o‘rganish bolalarda dunyoqarashni kengaytirib, ularni jamiyatning faol va sog‘lom a’zosi bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bolalar ta’lim-tarbiyasi kompleks yondashuvni talab etadi:

Ijodiy yondashuv: Mahalliy rassom va hunarmandlar bilan tanishish bolalarda kreativlikni uyg‘otadi.

Sog‘lom hayot: Ochiq havoda harakatlanish va jismoniy mashqlar kelajakdagi salomatlik poydevorini qo‘yadi.

Ijtimoiy integratsiya: Mahalla va jamoat maskanlarini o‘rganish bolada atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat va hurmat hissini shakllantiradi.

Bu omillarning barchasi birlashib, bola shaxsini shakllantiruvchi yagona ta’limiy muhitni vujudga keltiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. “Maktabgacha Pedagogika” F.Qodirova 2019- yil
2. “Ilk Qadam:”o`quv dasturi. 2018-yil
3. “Ilm yo`li” variativ dasturi. 2022-yil
4. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” 2020-yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Davronova Ferangiz Jo‘raqulovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritilgan. Mustaqil fikrlashning shaxsiy va intellektual rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinib, savol-javob, muammoli vaziyat, ijodiy faoliyat va guruhiy ishlash kabi metodlarning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, tarbiyachining roli hamda maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, maktabgacha ta’lim, bolalar psixologiyasi, pedagogik texnologiyalar.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlanib borar ekan, maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi globallashuv va axborot oqimining tez sur’atlarda ortib borishi sharoitida bolani faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodiy tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalash zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar maktabgacha ta’lim tizimining eng samarali pedagogik vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ular bolalarda nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishni ham rag‘batlantiradi, o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Interfaol mashg‘ulotlar faol ta’lim usullarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘quv jarayonida o‘zaro hamkorlik, muloqot va faol ishtirokni ta’minlaydi. Bu yondashuv pedagog va bola o‘rtasidagi an’anaviy munosabatlarni kengaytirib, bolalar o‘rtasida ham mustahkam ijtimoiy aloqalar va hamkorlik muhitini yaratadi. Mashg‘ulotlar davomida bola savol berish, fikr bildirish, izlanish va tajriba orttirish jarayonida faol bo‘ladi, bu esa uning analitik va tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim usullari bolalarga o‘zaro fikr almashish, jamoaviy ishlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limda interfaol metodlar o‘quv jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samarali qiladi. Bolalar o‘yin orqali turli muammoli vaziyatlarni hal qilishni o‘rganadi, yangi bilimlarni amaliy tarzda qo‘llaydi va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shu tariqa,

interfaol yondashuv bolani ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi va uning shaxsiy, intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Asosiy qism. Interfaol o‘qitish usullari bolalarning faolligini oshiradi, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltiradi hamda ijtimoiy muhitda erkin fikr bildirish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi bo‘lib, aynan shu faoliyat orqali bolaning tafakkuri, nutqi, tasavvuri va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. O‘yin jarayonida bola muammoli vaziyatni anglaydi, turli yechimlarni izlaydi va mustaqil xulosalar chiqarishga o‘rganadi.

Pedagogika fanida o‘quv jarayonining uch asosiy modeli farqlanadi:

- **passiv model** – bunda bola mashg‘ulotning obyekti sifatida qatnashadi, asosan tinglovchi rolini bajaradi;
- **faol model** – bola ta’lim jarayonining subyekti sifatida mustaqil topshiriqlarni bajaradi va ijodiy faoliyat olib boradi;
- **interfaol model** – pedagog va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro muloqot va faol ishtirok asosida ta’lim tashkil etiladi.

Interfaol ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirish;
- axborotni mustaqil o‘zlashtirish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasini ta’minlash;
- pedagog va bola o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- bolani jamiyat hayotiga faol jalb etish.

Ilmiy-pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar bolalarning tafakkur faolligini oshiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Biroq, maktabgacha ta’lim muassasalarida ushbu metodlarni joriy etishda bir qator muammolar mavjud.

Avvalo, pedagoglarning interfaol metodlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmagan. Ko‘plab tarbiyachilar an’anaviy metodlardan foydalanishga odatlangan bo‘lib, innovatsion metodlarni qo‘llashda metodik qiyinchiliklarga duch keladi.

Ikkinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi interfaol metodlarni samarali joriy etishga to‘sqinlik qiladi. Zamonaviy texnik vositalar, didaktik materiallar va o‘yin resurslarining yetishmasligi pedagogik jarayon samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, mashg‘ulotlar vaqtining cheklanganligi interfaol faoliyatni to‘liq tashkil etishga imkon bermaydi. Chunki bunday metodlar puxta rejalashtirish, muhit yaratish va faol ishtirokni talab qiladi.

To‘rtinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan tanlangan metodlar kutilgan natijani bermaydi.

Beshinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi ham interfaol metodlarning samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- metodik ta’minotni kuchaytirish;
- ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni rivojlantirish;
- individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish.

Shunday qilib, interfaol metodlar maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ularni samarali joriy etish pedagogik jarayonni takomillashtirish va bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodlar bolalarning intellektual faolligini oshirish bilan birga, ularni turli muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga

yo‘naltiradi. Shu bilan birga, interfaol yondashuv bolalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni fikr almashishga, savol berishga, tinglashga va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda bola o‘z ijodiy tafakkurini faollashtiradi, yangi g‘oyalarni yaratishga intiladi va mavjud bilimlarni turlicha kontekstlarda qo‘llashga o‘rganadi. Shuningdek, interfaol metodlar bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini rag‘batlantiradi, ularni jamoaviy ishlashga, vazifalarni bo‘lib bajarishga va o‘zaro hamkorlikda natijaga erishishga tayyorlaydi.

Interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolani ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi. Bu nafaqat bolaning mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash va muammoli vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi, balki uning ijodiy yondashuv ko‘rsatish ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi. Mashg‘ulot davomida bola turli strategiyalarni sinab ko‘radi, xatolardan saboq oladi va o‘z fikrini izchil ravishda ifoda etishga o‘rganadi. Bu jarayon bolaning kognitiv va metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga, ya’ni o‘z fikrini tahlil qilish, solishtirish va yangi qarorlar ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol metodlar bolalarda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o‘zaro hurmat, hamkorlik, jamoada ishlash, tinglash va fikr bildirish madaniyatini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar maktabgacha yoshdagi bolaning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligini mustahkamlaydi, shuningdek, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ijtimoiy muhitga faol moslashishiga zamin yaratadi. Interfaol metodlar orqali o‘rganilgan faoliyat va ko‘nikmalar bolalarning kelajakda mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy va mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Demak, maktabgacha ta’lim tizimida interfaol metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish:

- ta’lim samaradorligini oshiradi;
- mustaqil fikrlashni shakllantiradi;
- bolalarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi;
- ijtimoiy moslashuv jarayonini jadallashtiradi.

Kelgusida interfaol metodlarni yanada takomillashtirish, pedagoglarning metodik kompetensiyasini oshirish hamda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdukodirova M. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi.* Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2020. – 215 b.

2. Vigotskiy L.S. *Bola psixologiyasi va pedagogikasi asoslari.* Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 320 b.

3. Shermuhamedova N. Mustaqil fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022. №2. – 45–49-b.

4. Karimova D. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodlari // “Ta’lim va taraqqiyot” jurnali. 2021. №4. – 112–117-b.

5. Piage J. *Bolalarning aqliy rivojlanishi nazariyasi.* Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.–290 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Erdanova Gulruh, KDPI erdanovagulruh8@gmail.com

Annotatsiya: *Ushu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda qo‘llanilinadigan innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim sifatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada ta’lim jarayonida muhi o‘rin egallovchi metodlar ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar,STEAM, loyiha asosida o‘qitish.*

Darhaqiqat, bugungi kunda ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. XXI asr talablari, globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi boshlang‘ich ta’limda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bolalarning bilim olishiga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy fikrlash qobiliyati va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda innovatsion yondashuv muhim o‘rin egallaydi.

Innovatsiya - (inglizcha innovatsion- yangilik kiritish) muayyan tizmning ichki tuzilishi. Ta’lim jarayonida qo‘llangan innovatsiya innovatsion ta’lim deb nomlanadi. 1979-yil “Rim kulubi” tomonidan bu tushuncha qo‘llanilgan[1]. Hozirgi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashda toboro qiziqish ortib bormoqda. Xususan, bu tushunchalar boshlang‘ich ta’limga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘ziga xos kognitiv xususiyatlarga ega. Masalan, ular o‘yinlar orqali, ko‘rgazmali materiallar yordamida va amaliy faoliyat jarayonida yaxshiroq o‘rganadilar. Shu sababli, an’anaviy darslik va maruza shaklidagi darslar ko‘pincha bu yoshdagi bolalarga kam samarali hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning qiziqishlarini uyg‘otish, dars jarayonini qiziqarli va samarali qilish, hamda har bir o‘quvchilarning individual qiziqishlarini hisobga olishga imkon beradi.[4] Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yaqinlik, o‘zgarishlar kiritish va uni oshirishda gamofikatsiya, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiya va smart ta’lim hamda STEAM yondashuvlarida foydalanishdir.

Quyidagi maqolada bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Faol o‘qitish metodlari zamonaviy ta’limda muhim o‘rin egallaydi. Bu usullar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan, Boshlang‘ich sinfda dars jarayonini tashkil etishda bir qancha innovatsion usullar mavjud bo‘lib ular quyidagilar hisoblanadi:

Gamofikatsiya – bu o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish usuli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu usul ayniqsa samarali, chunki bolalar o‘yin orqali dunyoni taniydi, qoidalarni o‘rganadi va muammolarni yechishga harakat qiladi. Gamofikatsiyada quyidagi elementlardan foydalaniladi:

1. Ball va mukofot tizimlari – to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilarga ball yoki yulduzcha beriladi bu esa, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.
2. Darajalar tizimi – o‘quvchilar o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirganlari sari darajalari ortib boraveradi.
3. Raqobat va hamkorlik muhitini yaratish – o‘quvchilar guruh bo‘lib ishlaganda ular orasida sog‘lim raqobat muhitini yaratish.
4. Interaktiv metodlar – bu o‘quvchi va o‘qituvchining biri amaliyot jarayonida passiv bo‘lib qolmasligini taminlaydi hamda jamoa bo‘lib fikirlashni ta’minlaydi.
5. Interaktiv topshiriqlar – Quizizz, Kahoot, Blookit va boshqa shu kabi platformalar orqali o‘yin shaklidagi test va topshiriqlarni yechish.

Rolli o‘yinlar boshlang‘ch ta’limdagi ahamiyati shundaki, u hayotiy masalalarni hal qilishga hamda kommunikatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Masalan:1-sinf matematika darslarida o‘quvchilar qo‘shish va ayirishni ko‘pincha olma misolida o‘rganadi. Bunda 1-roldagi o‘quvchi qo‘lidagi olmani do‘sti rolidagi o‘quvchiga berish orqali olmani kamayganini biladi ya’ni ayirish amalini o‘rganadi.

Loyiha asosida o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan ijodiy va tanqidiy fikirlashni rivojlantiradi. Loyiha asosida fanlar integratsiyasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, 3-sinf o‘quvchilariga “Bizning mahalla” doirasida o‘z ko‘chalarining xaritasini chizish, uylarni hisoblashadi, uylarni tasvirlashadi. Bunda matematika, sa’nat va geografiya asoslarini bir vaqtda o‘rganishadi. Bu esa, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga sababchi bo‘ladi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarga tayyor bilmini aytishni emas, uni hal qilishda mustaqil tarizda izlanishni talab qiladi. Masalan, “Nega yomg‘ir yog‘adi?” yoki “Nega fasllar almashinadi?” degan savolga o‘quvchilar qiziqishadi va savolga javobini topishga hamda javob berishga harakat qilishadi.

Zamonaviy sinflarda interaktiv doskalar, planshetlar va zamonaviy ta’lim dasturlari keng qo‘llanilmoqda. Raqamli vositalar o‘quvchilarga ko‘rgazmali va interaktiv holatda o‘rganishga imkon beradi. Xususan, Khin Academy Kids kabi saytlar o‘quvchilari uchun matematika va savodxonlik bo‘yicha ahamiyatlidir. U orqali o‘zlashtirishi past o‘quvchilar darsdan tashqa o‘rganishi mumkin. Yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar esa bilimlarini mustahkamlaydi.

STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at, Matematika) – bu yondashuvni boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlash lozim, chunki bolalarning mantiqiy fikirlashi va muammolarni yechish qobiliyati aynan shu yoshda shakllanadi. Yana bir sabab shundaki, STEAM – “aql va qo‘l” hamkorligida olib boriladigan jarayon[2].STEAM yondashuv orqali darslarda tajribalar o‘tkazadilar, qurilmalar yasaydilar, natijalarga asoslanib xulosalar chiqaradi. Bu yondashuvda integratsiya muhim hisoblanadi. Masalan, muammoli va loyha orqali o‘qitish usuliga bog‘lasak. Loyiha “ Yo‘l chiroqni o‘rnatish” , muammo esa “Yo‘l chiroqni qanday o‘rnatish kelak?” deb topshiriq beriladi; S-mashina tezligi va piyodalar harakati tahlil qilinadi; T-yo‘l chiroq avtomatik ishlashi yoki boshqarilishi ko‘rib chiqiladi; E- yo‘l chiroq qayerga o‘rnatilinishi lohhalashtiriladi; A- yo‘l chiroq qo‘yiladigan joy odamlar uchun ko‘rinarli bo‘lishi hamda belgilar aniq ko‘rinishi ta’minlanadi; M- bunda yo‘lning hajmini inobatga olgan holda yo‘l chiroq vaqtini belgilash. Eng so‘ngida barchasini birlashtirib, yaxlit loyiha ishlab chiqiladi. Bu ishni amalga oshirishda o‘qituvchi roli muhimdir.

Innovatsion ta’limda o‘qituvchi roli butkul o‘zgaradi. Avallari u faqat o‘rgatuvchi rolida bo‘lgan bo‘lsa, endilikda u yo‘naltiruvchi shaxsga aylandi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchilarga savollar beradi, ularni mustaqil fikirlashga undaydi, tajribalar orqali yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakillantiradi.

Buning uchun o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganishi va innovatsiyalarga ochiqlik zarur. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori bunda muhim rol o‘ynaydi[4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar – bu nafaqat zamonaviy ta’lim bo‘lishi jihatdan, balki sifatli ta’limning zarurati ham. Yuqoridagi usullarni barchasi birgalikda qo‘llanilganda o‘quvchilarning bilim sifati va ijodiy qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Innovatsion ta’lim o‘quvchini markazga qo‘ygan ta’limdir. Har bir bola o‘ziga xos iste’dod va qobiliyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari esa iste’dodlarni aniqlashi, ularni yoshlikidan rivojlantirishi hamda kelajak uchun mustahkam zamin yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova D.U. “Boshlang’ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari” JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, September 2022.
2. Nazarova Z. “ Ta’limda STEM va STEAM texnologiyalari” Monografiya. Samarqand-2025.
3. Abdivajidova.M. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion usullardan foydalanish”. SCINE AND EDUCATION SCIENTIFIC JUORNAL. January2025.
4. Nazarova.Z. “Interfaol ta’lim metodlari va ularni amalda qo‘llash” Samarqand 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR

Hamroqulova Farzona

KDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy metodologik texnikalarning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Integratsiyalashgan ta'lim, STEAM metodologiyasi, o'yin texnologiyalari, interaktiv texnikalar va raqamli pedagogik vositalarning bolalarning bilish qobiliyati, ijodkorligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri ta'kidlangan. Bundan tashqari, bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tuzishning samarali strategiyalari yoritib berilgan. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida yangi metodologiyalardan foydalangan holda bolalarda avtonom fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va ongli ekologik kuzatuvni rivojlantirishdagi qiyinchiliklar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: maktabgacha ta’lim, dunyoqarash, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, STEAM, o‘yin texnologiyalari, integrativ ta’lim, bolalar rivoji, kreativ fikrlash.*

KIRISH. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida bolalarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoqarashning rivojlanishi kelajakdagi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Natijada, bu davrda qo'llanilgan o'qitish strategiyalari va metodologiyalarining ilmiy asoslari juda muhimdir. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va global integratsiya jarayonlari maktabgacha ta'lim tizimiga yangi talablar qo'ymoqda. Bu an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish va ijodiy yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi.

Bolalarning dunyoqarashi atrof-muhit, tabiat, jamiyat va o'zini anglash tajribasi orqali rivojlangan ma'lumotlar, tushunchalar va munosabatlar to'plami sifatida belgilanadi. Bu yondashuv asosan ta'lim tizimini tashkil etishga tayanadi. Zamonaviy ta'lim metodologiyalari bolalarning faol ishtirokini, avtonom fikrlashni rivojlantirishni va ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishni ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida integratsiyalashgan metodologiya keng qo'llanilmoqda. Ushbu usul turli fanlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish orqali bolalarning tushunchasini chuqur rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, tabiiy fanlar, matematika va san'at jihatlarini birlashtirgan faoliyatlar orqali bolalar atrof-muhitni yaxlit tarzda ko'rishlari mumkin. STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yondashuvi maktabgacha ta'limda tobora ommalashib bormoqda. Ushbu strategiya yosh bolalarda analitik fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va ijodiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

O'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. O'yin bolalar faoliyatining asosiy shakli bo'lib, ularning dunyoni tushunishini osonlashtiradi. Zamonaviy pedagogika bolalarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda muhim bo'lgan didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va interaktiv o'yin yondashuvlaridan keng foydalanadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yaxshilaydi, uni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Muammo stsenariylarini shakllantirish, savol-javob sessiyalarida ishtirok etish va kichik guruhlarda hamkorlik qilish kabi interaktiv usullar bolalarning ishtirokini oshiradi va avtonom fikrlashni rivojlantiradi. Bunday usullar yoshlarga nafaqat mavjud ma'lumotlarni o'zlashtirish, balki uni mustaqil ravishda izlash va amalda qo'llash imkonini beradi. Natijada, ularning dunyoqarashi kengayadi va hayotiy tajribalari yaxshilanadi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim tushunchasi zamonaviy ta'limning muhim jihatidir. Har bir bolaning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tuzish ularning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshlarda o'ziga ishonch, mustaqillik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy metodologik usullardan foydalanish dolzarb masaladir. Ushbu insho turli metodologiyalarning nazariy asoslari va amaliy oqibatlarini batafsil o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini rivojlantirish ta'lim va psixologiyada ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning erta rivojlanish jarayonida olgan ma'lumotlari, ijodkorligi va ijtimoiy tajribalari ularning keyingi hayotdagi sa'y-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada, zamonaviy o'qitish usullarini har tomonlama o'rganish va ularning amaliy qo'llanilishi muhim ilmiy ish sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi tadqiqotlar bolalar rivojlanishiga tizimli yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim asoslari bo'yicha ilmiy adabiyotlar bolalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydi [Abdullaeva, M., 2021., 45–78-betlar]. Ushbu usul ta'lim jarayonini tashkil qilishda bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Aks holda, o'qitish jarayonining samaradorligi pasayishi mumkin.

Ta'lim texnologiyalari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar yangi yondashuvlarning afzalliklarini yaqqol ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, interaktiv usullar, muammoli o'qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolalarning o'rganish jarayonlarini yaxshilaydi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi [Baxromov, B., 2022., 112–140-betlar]. Maktabgacha ta'limda interaktiv strategiyalardan foydalanish bolalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va ularning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Bolalar psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar dunyoqarashni rivojlantirishda psixologik elementlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar bolalarning idroki, tasavvuri va kognitiv jarayonlari ularning atrof-muhitni tushunishini belgilaydi, deb ta'kidlaydilar [Ismoilova, D., 2020., 67–95-betlar]. Natijada, ta'lim jarayonida psixologik metodologiyalardan foydalanish juda muhimdir.

Yangi metodologiyalarga asoslangan ta'lim jarayoni bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy pedagogik texnikalar reproduktiv vazifalarga urg'u beradi, ammo zamonaviy yondashuvlar yoshlarda avtonom fikrlashni rivojlantiradi [Karimov, A., 2023., 88–120-betlar]. Bu bolalarning muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim usullari bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'yin faoliyatining eng muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. O'yin orqali bolalar nafaqat ma'lumot olishadi, balki ijtimoiy munosabatlarni ham rivojlantiradilar [Nazarova, S., 2021., 25–60-betlar]. Natijada, o'yin texnologiyalarini o'qitish tizimiga kiritish zamonaviy pedagogikaning asosiy ehtiyojidir. Ta'lim

texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar akademik adabiyotlarda keng ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi [Kodirov, R., 2022., 134–168-betlar]. Bu maktabgacha ta'lim tizimida ham muhimdir.

So'nggi yillarda STEAM metodologiyasi ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu usul yoshlarda fanlararo fikrlashni rivojlantiradi va ularni real dunyodagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi [Sadikova, N., 2023., 50–84-betlar]. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM metodologiyasi asosida tuzilgan darslar ularning ishtirokini oshiradi va keng qamrovli ma'lumot olishga yordam beradi.

Bolalar ta'limida yangi texnikalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mustaqil ravishda o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnikalar bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi [Xudoyberdiyeva, G., 2020., 39–72-betlar].

Bugungi kunda davlatimiz va xalqimiz yanada yuksak maqsadga intiladi: global raqobatga qodir erkin va farovon millatni barpo etish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bunday ulkan maqsadga yakka holda erishib bo'lmasligini to'liq anglab, barcha sohalarning rivojlanishini tezlashtirdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, natijada barcha sohalarda sezilarli yaxshilanish va taraqqiyot kuzatilmoqda. Qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy yoki ma'naviy bo'lsin, global konsensus ijobiy bo'lib, O'zbekiston o'z yo'nalishi bo'yicha rivojlanayotganini tan oladi.

Millatimiz tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ma'naviy kamolot jamiyat o'sishida hal qiluvchi kuch bo'lgan. Chuqur ma'naviyat, milliy va xalqaro ideallarga hurmat va umumiy axloqiy tamoyillarga sodiqlik bilan ajralib turadigan avlod kelajakka ishonch bilan qarashi mumkin.

Dunyoga qarash - bu shaxsni tabiatda mazmunli mavqega ega bo'lishga, o'ziga xos shaxsiy o'ziga xoslikka ega bo'lishga undaydigan yaxlit asosga tizimli ravishda tuzilgan ma'lumotlar va tushunchalar to'plami.

Dunyoga qarashni yaratishning yana bir jihati uning o'ziga xosdan umumiy ifodalarga o'tishi, individual xususiyatlardan ijtimoiy fazilatlarga o'tishi, ya'ni ijtimoiy aloqalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishdir. Dunyoqarash shaxsning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va boshqa omillarga bog'liq holda rivojlanadi va takomillashadi.

Dunyoqarash shaxsning o'zini va atrof-muhitini tushunishi va baholashiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, farzandlarimizning xabardorligini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish juda muhimdir. Bu ularni intellektual jihatdan yetuk va siyosiy jihatdan xabardor qilib tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Bu shaxs o'z shaxsini anglashga qodir erkin va avtonom fikrlovchi bo'lib, shuning uchun zararli ta'sirlarga berilmaydigan kelajakdagi mutaxassislarni tarbiyalash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa ilmiy dunyoqarashning ko'lami, uning asosiy tarkibiy qismlariga bog'liq: ong, ong, fikr, fan, bilim, ilmiy bilim, ilmiy nuqtai nazar, e'tiqod va ilmiy mulohaza.

Dastlab, inson dunyoni hissiy jihatdan boshdan kechiradi. Shaxs voqelikni bevosita hissiy tajriba orqali talqin qiladi. Keyinchalik, shaxsning nuqtai nazari voqelikni to'plangan tushunish asosida rivojlanadi. Bu dunyoni tushunish deb ataladi. Shaxsning koinotni tushunishi uning o'zini anglashni shakllantiradi.

Bu nuqtai nazarlardan tashqari, ilmiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, badiiy va o'xshash dunyoqarashlar ham mavjud. Bundan tashqari, dunyoqarashning kengligi (inson hayoti davomida rivojlanib va kengayib boradigan o'lchamlar), mazmuni (voqelikning turli qirralari shaxsning idrokida qanday talqin qilinishi) va markaz yoki poydevor (insonning dunyoni o'ylaydigan shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlar doirasini hisobga olgan holda) tushunish darajasini aks ettiradi.

Inson o'zidan oldingi odamlarning hayot tajribasi, bilimlari, qobiliyatlari, ishonchlari va qadriyatlariga bog'liq. Natijada, dunyoqarash, xususan, ilmiy nuqtai nazarga ega shaxslarning axloqiy me'yorlari, hayotni yaxshilashga qaratilgan qasddan qilingan ambitsiyalari va qiziqishlari bilan birgalikda ularning ishi va turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shu bilan ularning hayotida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ushbu tadqiqot ilmiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va kuzatish metodologiyalarini o'z ichiga olgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilgan pedagogik tajribalar natijalari ham o'rganildi. Tadqiqot texnikasi integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan bo'lib, nazariy va amaliy komponentlar birgalikda baholangan.

MUHOKAMA

Zamonaviy metodologik texnikalarning muvaffaqiyati maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish bo'yicha munozaralarda alohida e'tiborga loyiqdir. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bolaning dunyoqarashi ularning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, o'qitish yondashuvlarining xilma-xilligi va pedagogik muhitning sifati bilan shakllanadi.

Dastlab, integrativ usulning afzalliklarini o'rganish juda muhimdir. Bu usul bolalarning bilimlarini metodik ravishda rivojlantiradi. Ko'pgina fanlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish orqali bolalar atrof-muhitni yaxlit tarzda tushunadilar. Bu ularning bilimlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Integratsiyalashgan usul bir vaqtning o'zida bolalarning ma'lumotni amaliy qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Interaktiv yondashuvlar munozara jarayoniga sezilarli hissa qo'shadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv texnikalar bolalarning o'quv jarayoniga jalb qilinishini oshiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Savol-javob yondashuvi, masala stsenariylarini shakllantirish va hamkorlikdagi ish texnikalari bolalarning kognitiv jarayonlarini rag'batlantiradi. Natijada, ular ma'lumotni chuqurroq o'zlashtiradilar.

O'yin texnologiyalarining samaradorligi munozaraning muhim mavzusidir. O'yin faoliyati orqali bolalar ma'lumotni o'zlashtiradilar va undan amaliy foydalanishni o'rganadilar. Natijada, o'yin xususiyatlarining keng qo'llanilishi bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

STEAM metodologiyasi yoshlarda analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajoyib vosita sifatida tan olingan. Bu usul yoshlarga real dunyodagi muammolarni hal qilish imkonini beradi. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hozirda muhokama qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida olib boriladigan darslar bolalarning ishtirokini oshiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shunga qaramay, ushbu texnologiyalardan foydalanishda pedagogik samaradorlik juda muhimdir.

Shaxsiy yondashuv tushunchasining ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu yoshlarda o'ziga ishonch va mustaqillikni rivojlantiradi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy metodologik usullar maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda juda muvaffaqiyatli. Integratsiyalashgan yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulotlar bolalarning bilimlarini metodik rivojlantirishga samarali yordam berdi. Natijada, yosh bolalar atrof-muhitga har tomonlama qarash qobiliyatiga ega bo'lishdi.

Interaktiv yondashuvlardan foydalanish bolalarning o'quv jarayoniga jalb etilishini sezilarli darajada oshirdi. Ular so'rovlarni mustaqil ravishda hal qilishga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga va hamkorlikdagi ishlarda faol ishtirok etishga intilishdi. Bu ularning avtonom kognitiv qobiliyatlarini oshirdi.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning bilim olishini yaxshiladi. O'yindan olingan ma'lumotlar bolalar xotirasida ishonchli saqlanadi. Shu bilan birga, o'yin faoliyati bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

STEAM usuli asosida tuzilgan mashg'ulotlar bolalarning analitik fikrlashini yaxshiladi. Ular murakkab vaziyatlarni hal qilish uchun innovatsion metodologiyadan foydalanishdi. Bu ularning nuqtai nazarini kengaytirdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Raqamli media orqali olib borilgan mashg'ulotlar bolalarning qiziqishini oshirdi va ularni o'qishda faol ishtirok etishga undadi.

Shaxsiy yondashuv asosida tuzilgan ta'lim jarayoni har bir bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bolalar o'z mahoratlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lishdi, shu bilan ularning o'ziga bo'lgan ishonchi oshdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodologik usullardan birgalikda foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ta'lim tizimini samarali loyihalash bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodologik usullar bolalarning intellektual qobiliyatini, ijodiy fikrlashini va ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli darajada oshiradi. Yangi pedagogik vositalarni an'anaviy ta'lim usullari bilan integratsiya qilish bolalarning dunyoni tushunishini oshiradi va ularni faol o'rganishga undaydi.

Integratsiyalashgan usul bolalarda bilimlarning tizimli va har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Fanlararo aloqalarni rivojlantirish yoshlarga atrof-muhitni yanada kengroq va chuqurroq anglashga imkon beradi. Bu ularning dunyoqarashini shakllantirishda muhim element hisoblanadi. STEAM usuli analitik fikrlashni rivojlantirishda, muammoli vaziyatlarni hal qilishda va o'quvchilarda innovatsiyalarni rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatilgan.

O'yin texnologiyalarining ahamiyatini ta'kidlash kerak. O'yin faoliyati orqali bolalar tabiiy ravishda ma'lumot olishadi va uni amalda qo'llashni o'rganadilar. Didaktik va rolli o'yinlar bolalarning ijodkorligini oshiradi, til rivojlanishini rivojlantiradi va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni shakllantirishga yordam beradi. Natijada, maktabgacha ta'lim jarayoniga o'yin jihatlarini keng kiritish oqilona bo'ladi.

Interaktiv taktikalardan foydalanish bolalarning ishtirokini oshiradi va avtonom fikrlashni rivojlantiradi. Muammoli stsenariylarni yaratish, so'rovlar va javoblar orqali muloqotni osonlashtirish va guruh faoliyatini muvofiqlashtirish bolalarning kognitiv jarayonlarini rag'batlantiradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat ma'lumot olishadi, balki tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini ham oshiradilar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish sezilarli natijalarga erishmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida olib boriladigan mashg'ulotlar bolalarning faolligini oshiradi va o'quv jarayonini yanada dinamik qiladi. Shunga qaramay, ushbu vositalardan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik va bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Shaxsiy yondashuv konsepsiyasidan foydalanish har bir yosh bolaga o'z fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va o'z salohiyatini ochib berish uchun juda muhimdir. Natijada, o'qituvchilar har bir bolaning qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish uchun mo'ljallangan strategiyalardan foydalanishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy metodologik usullardan keng foydalanish sezilarli samaradorlik beradi. Ushbu metodologiyalar bolalarning o'rganish jarayonlarini rag'batlantiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va kelajakdagi ta'lim yutuqlari uchun zarur asos yaratadi. Maktabgacha ta'lim tizimida yangi metodologiyalarni keng joriy etish va ularni muvaffaqiyatli amaliy qo'llash dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva, M. Maktabgacha pedagogika asoslari. – T.: Fan nashriyoti, 2021. – 45–78-b.
2. Baxromov, B. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: Innovatsiya, 2022. – 112–140-betlar.
3. Ismoilova, D. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish omillari. – T.: O‘qituvchi, 2020. 67-95 b.
4. Karimov, A. Ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. 88–120-b.
5. Nazarova, S. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 25–60-betlar.
6. Qodirov, R. Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 134–168-betlar.
7. Sodiqova, N. STEAM ta’lim asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2023. – 50–84-b.
8. Xudoyberdiyeva, G. Bolalar tarbiyasida innovatsion metodlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 39–72-betlar.

OILADA OTA-ONA VA BOLALAR MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kunshiyeva Mavluda
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ma’lumki, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo‘lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. *Shu jihatdan, oila qo‘rg‘onining mustahkamligi va unda ma’naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg‘ayadi. Ushbu maqolada ota-ona va bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, ota-ona, farzand, oilada munosabat tiplari, ota-onaga munosabat.*

«Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!», - deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Prezidenti [1].

Inson oilada dunyoga keladi. Murg‘ak farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni qabul qilib oladi, balki u xayotda odamzotga xos bo‘lgan barcha xatti-xarakat, ko‘nikma, malaka hamda odob-ahloq qoidalarini ham o‘z oilasida egallaydi, kamol toptiradi. Insonning ham jismoniy, ham ma’naviy-ruhiy kamoloti albatta oiladan boshlanadi. Oila jamiyatning bir bo‘lagi, u butun insoniyat va har bir xalq taraqqiyotining beshigidir.

Ma’lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruh oila deyiladi [2].

Sharqda oila va oilaviy munosabatlarga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi allomalar bu masala yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da keltirilgan oila va shar’iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g‘oyatda qimmatli fikrlar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan [3].

Oila - arabcha “Oil” so‘zidan olingan bo‘lib, u “ayolmand”, “niyozmand” degan ma’nolarni bildiradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning uchinchi kitobida bu so‘zning bosh ma’nosi, ya’ni “er-xotun, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlari yashovchi xonadon”, “Bir maqsad bilan birlashgan kishilar” ma’nosini anglatadi.

Oila shaxsning bir qator eng muhim hayotiy ehtiyojlarini, ijtimoiy salohiyatini (potensialini) ro‘yobga chiqaradi:

– yolg‘izlikdan xalos bo‘lish;
– sevish va sevilish ehtiyoji;
– ma’naviy kamolot;
– yonida ishonchli hamrohga ega bo‘lish;
– kimgadir tayanish;
– qadrli ekanini his etish;
– qiyin paytda yordamga kelish;
– umumiy qadriyatlarga ega bo‘lish;
– yutuqlardan quvonish;
– murakkab vaziyatlarda yupatish;
– er-xotinlik funksiyasi;
– ota-ona bo‘lish mas’uliyati;

Oila va nikohning paydo bo‘lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug‘ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o‘ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g‘amxo‘rlik ko‘rsatishgacha bo‘lgan munosabatlarga aylangan. [4]

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o‘z oilasi to‘g‘risidagi tasavvurlari ko‘pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-ona o‘z farzandi uchun qo‘lidan kelgan barcha choralarni ko‘rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo‘lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo‘ladilar. Mehribon ota-ona og‘ushida ayrim bolalar o‘zlarini baribir yolg‘iz, kemtik, kamsitilgan his etadi. G.T. Xomentauskas oilada ota-ona xulq-atvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko‘rinishlarini tahlil qilgan:

Ota-ona va bola munosabatlari **demokratik** tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o‘zi va ota-onasi to‘g‘risida quyidagicha tasavvur shakllaandi: “Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman”. Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o‘z-o‘zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o‘ziga ishonch, xatoliklardan cho‘chimaslik, ayb ish qilib qo‘yganda ham unchalik qayg‘urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko‘mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o‘rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik **(giperprotektsiya)**, e’tibor ko‘rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo‘ladi. Bunday oilada bolalar o‘zining borligidan, tug‘ilganligidan mag‘rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug‘ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo‘ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo‘lib ulg‘ayadi, ota-onasining nochorligi to‘g‘risidagi tasavvur o‘zining ko‘p narsalarga qodirligi bilan uyg‘unlashadi. Tantiq bolada o‘zi to‘g‘risida go‘yoki o‘ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo‘ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko‘taradi.

Yuqoridagi holatning aksi, ya’ni, bolaga nisbatan **e’tiborsizlik, mehrsizlik** bo‘lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo`ladi: “Meni yoqtirishmaydi, lekin men o‘zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak”. “Men yaxshi bola emasman”, degan tasavvur odatda bolada

qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, o‘ziga bo‘lgan bahoning pastligi, o‘zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko‘p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo‘yishdan cho‘chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o‘xshash. Bunday oilada ma’naviy muhit yaxshi bo‘lmaganligi sababli bola salga yig‘laydigan, “qo‘rqqan oldin musht ko‘taradi”, deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo‘yib, o‘zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo‘ladi. Aslida bola o‘zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

Ota-ona **mehriga to‘ymagan**, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o‘tadi: “Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman”. Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo‘ladigan muloqotlar og‘ir botadigan bo‘lib boradi. Qasoskor bola ko‘pincha ota-ona talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo‘lmaydigan qaysar va ko‘pincha jinoyat yo‘liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

Ba’zan ota-ona **mehrsizligidan** aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: “Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo‘yinglar”, degan ma’noda bola o‘z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og‘ir bo‘lib, bola o‘zini yolg‘izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o‘smirlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib chiqadi [5].

Oila masalalarini, jumladan, oilaviy munosabatlarni, o‘rganish bir tomondan oson, jo‘nga o‘xshasa, ikkinchi tomondan, o‘ta murakkab va nozikdir. Bu holat oila psixologiyasi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlarning o‘ziga xos metodologik jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Rus olimi V.V.Stolin psixologik xizmat markazlariga norozilik bilan murojaat qilgan ota-onalarning shikoyatlari mazmunini o‘rgangan va ularni toifalarga bo‘lgan:

1. Bolasidan tashvishlangan ota-onaning murojaati. Aslida ba’zi murojaatlar o‘rinsiz bo‘lib, ota-onaning ortiqcha jonsarakligi, xavotirchanligi tufayli kelib chiqadi, ular har ehtimolga qarshi bolsini parvarishlash, tarbiyalashga adashib ketmaslikdan qo‘rqib psixolog qabuliga keladi.

2. Shikoyatli murojaat ota-onaning bolaga munosabatining o‘zidan kelib chiqadi. Chunki aslida bola ota-ona ishora qilayotgan tashvishlardan, nuqsonlardan xoli bo‘ldai. Masalan, onaning fikricha, bolasi uni yoqtirmaydi, uning aytganlarini qilmayapti, aslida uning o‘zi bolaga etarli va o‘rinli mehr berolmaydi.

3. Shikoyat qisman yoki mutloq asosli, chunki bolada haqiqatan ham ota-onaga, yaqinlariga, yaxshi ko‘rgan narsalariga nisbatan noto‘g‘ri munosabat shakllana boshlagan yoki anchadan buyon namoyon bo‘lmoqda. Bu nuqsonlar asosan ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarga aloqadorligi psixolog aniqlaydi.

4. Bola xulqidagi og‘ishlar va ularga bohliq xatti-harakatlar ota-onani jiddiy tashvishga soladi. Lekin bunday holat umuman oilaviy o‘zaro munosayuatlarning darz ketganligini oqibati bo‘lishi mumkin. Bu odatda bolaning ota-onasi bilan normal munosabatda ekanligini ko‘rsatadi, lekin xulqdagi nomuvofiqliklar bolaning o‘qishi, intizomi, maktabdagi burchlarini to‘la bajarmayotganligi bilan bog‘lanadi.

5. Bolaning ota-onasi bilan munosabati yomonligining sababi – asosan kattalarning bolaga nisbatan adolatsizligi oqibati hisoblanadi. Bunday holatlarda haqiqatan ham bolaning psixologiyasida jiddiy o‘zgarishlar va muammolar bo‘ladi va ota-onaning shikoyati jiddiy psixologik tuzatish ishlarini taqozo etadi.

Ilmiy manbalarada Giperproteksiya so‘ziga - ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e’tiborli bo‘lib, bu ularning bola tarbiyasi uehun kuch, vaqt va e’tiborni ayamasliklarida namoyon bo‘ladi deb ta’rif beriladi. [7].

Fikrimizni yakunlar ekanmiz, yurtimizda o‘sib, ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo‘yishlari, yetuk shaxs sifatida shakllanishlari, jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari

uchun, avvalo oilada osoyishtalik, inoqlik, toza psixologik muhitni barqarorlashtiraylik. Zero bu farzandlarimizning o‘ziga, kelajakka bo‘lgan ishonch hissini uyg‘otishga asosiy omil bo‘lib xizmat qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyevning 2018 yil, 19 yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi.
2. Shoumarov G‘. B va bosh. Oila psixologiyasi T.:2008.-254 b.
3. Hasanov S. Olam ko‘zgusi. – Xorazm ma’rifati “O‘qituvchi”, 1996. –304 b
4. V.M. Karimova. Oila psixologiyasi. T.:2007.-151 b.
5. Столин В.В., Бодалев А.А. и др. Семья в психологической консультации: Опыт и проблемы психологического консультирования. Педагогика, 1989. - 208 с.
6. Shoumarov G‘. B va bosh. Oila psixologiyasi. T.:2011.-244 b.
7. D. Arapbayeva va bosh. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari. Metodik qo‘llanma. T.:2019.-120 b.
8. Muhiddin S. Oila va shar’iy nikoh odoblari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 1999.– 80 b.
9. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2005. – 198 b.
10. Антонов А.И. Семья: функции, структуры, теории семейных изменений. Курс лекций / А.И. Антонов.– М.: Знание, 2009. – 198 с.

ONA TILI DARSLARIDA ZAMONVIY METODLARNI QO‘LLASH

Narziyeva E’zoza Baxrilla qizi.

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: narziyevaezoza254@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarida qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar haqida, ularning afzallik va kamchiliklari haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, oddiy metodlar va zamonaviy metodlar qo‘llanilgandagi natijalar farqi, o‘quvchilar uchun zamonaviy metodlar ta’siri, metodlar tahlili masalasida ham so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar. Ona tili darslari, zamonaviy metodlar, interfaol metodlar, faollik, ijodkorlik, natijadorlik, samara.

Hozirgi davr ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishni keng joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchilarning bilimni puxta o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi, darsdagi faolligini oshirish hamda ijodkorligini rivojlantirishda zamonaviy metodlarning o‘rni beqiyosdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning darsdagi faol ishtirokini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ona tili darslarida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda turli innovatsion yondashuvlar darslarni qiziqarli tashkil etish bilan birga, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

An’anaviy dars metodlari ko‘proq o‘qituvchi faoliyatiga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy interfaol metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilarda bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish, fikr almashish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi dars samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. [1].

Zamonaviy pedagogik metodlarning mohiyati. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish,

yosh avlodning ijodiy va intelektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”[2] kabi yo’nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa ta’limning dastlabki bosqichlaridan o‘qitish metod va metodikalarini takomillashtirishni talab qiladi.

“Metod” aslida yunoncha **“metodos”** so‘zidan olingan bo‘lib, **“bilish va tadqiqot yo’li”, “nazariya”, ‘ta’limot”** kabi ma’nolarni bildiradi[3] Metodika *(yun. “methodike”)* biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig’indisi yoki o‘qitish usullari haqidagi ta’limot [4] – ta’lim berish metodlari, yo‘llari va vositalari haqidagi fandir [5]. Zamonaviy metodlar ona tili o‘qitishda juda muhim o‘rin egallaydi. Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va darslarni qiziqarli qiladi. An’anaviy usullardan farqli ravishda, zamonaviy metodlar o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Hozirgi kunda jahonning eng rivojlangan davlatlari qo‘llayotgan metod, ususl va yondashuvlar orqali o‘quvchilar tilni amaliy, tez va har doimgidan ham ko‘ra ancha samarali o’rgana oladilar. Masalan, **“**Flipped Classroom” (Teskariga o’girilgan sinf), “Smart Education” (Raqamli ta’lim), “Project Based Learning” (Loyiha asosida o’qitish), “Critical Thinking” (Tanqidiy fikrlash), “Blended Learning” (Aralash ta’lim), “Insert”, “Rol o‘ynash” kabi usullar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularni erkin fikr bildirishga o‘rgatadi. Bu metodlar o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, tanqidiy fikrlashini oshiradi, har bir vazifaga ijodiy va tanqidiy yondashuvini ta’minlaydi. Ona tili darslarida gapirish, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalari birgalikda shakllanadi. Zamonaviy yondashuvlar aynan shu ko‘nikmalarni kompleks tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Yuqoridagi metodlar individual yondashuvni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishiga qarab topshiriqlar berish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ham zamonaviy metodlarning muhim qismi hisoblanadi. Masalan, taqdimotlar, interaktiv o‘yinlar va onlayn platformalar orqali darslar yanada samarali tashkil etiladi. Ona tili darslarida oldindan qo‘llanilib kelayotgan metodlarni onlayn platformalar orqali yanada takomillashitirib, o’quvchilarning darsda faol bo’lishini ta’minlash mumkin. Masalan, “Aqliy hujum”, “Savol-javob”, “Test” va shu kabi metodlarni onlayn platformalarda o‘yinlar orqali integratsiya asosida metod yarata olamiz. Bu o’quvchilarning diqqatini tortadi, barcha o‘quvchilarning darsda faolligini ta’minlaydi, an’anaviy darsdan ko‘ra ancha yuqori natijaga olinb keladi.

Flipped Classroom (Teskariga o‘girilgan sinf) metodi. Bu metod AQSh ta’lim tizimida qo‘llaniladigan metod. Ushbu metodda o‘quvchilar yangi mavzuni va grammatik qoidalarni uyda o‘rganadilar, sinfda esa uni muhokama qilib, mavzuga doir mashqlar bajaradilar. Bu o‘quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni shakllantiradi:

- Auditoriya vaqtini kognitiv faoliyatning yuqori bosqichlari (tahlil, sintez, baholash)ga yo‘naltirish;
- Dars vaqtini amaliy mashqlarga ajratish, o‘quvchini mustaqil o‘rganishga o‘rgatish;
- O‘quvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish.
- Ta’lim jarayonini inversiya qilish orqali nazariy bilimlarni mustaqil egallashni tashkil etish.

Smart Education (Raqamli ta’lim muhiti). Bu metod Janubiy Koreyada rivojlangan bo‘lib, dars jarayonlarida planshet, telefon, interaktiv doska ishlatiladi va quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- Ta’lim jarayonini raqamli platformalar va multimodal ontent asosida optimallashtirish;
- O‘quvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish;
- Vizual, audial va kinestetik kanallar orqali integrativ o‘rganishmuhitini yaratish.

Project Based Learning (Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi). Bu metod Buyuk Britaniyaga tegishli bo‘lib, quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- O‘quvchilarning tadqiqodchilik kompetensiyalarini rivojlantirish;
- Nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga bog’lashni o‘rgatish;
- Ijodiy va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish.

Critical Thinking (Tanqidiy fikrlash texnologiyasi). Axborotni analitik qayta ishlash, verifikatsiya qilish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi

- O‘quvchilarda mantiqiy dalillash va argumentatsiya madaniyatini shakllantiradi;
- Stereotip fikrlashdan chiqib, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- Muammoli vaziyatlarda ko‘p variantli yechimlarni ishlab chiqishni tushuntiradi.

Blended Learning (Aralash ta’lim modeli). Ushbu metod Amerika Qo‘shma Shtatlariga tegishli bo‘lib, an’anaviy dars va raqamli ta’lim shakllarini o‘zida mujassamlashtiradi:

- O‘quvchilarning o‘zlashtirish tezligi va ehtiyojlariga mos moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish;
- Sinxron va asinxron o‘qitish orqali uzluksiz ta’lim jarayonini ta’minlash;
- Ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan model asosida tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi.

INSERT (Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking). Bu metod matn bilan ishlashda juda foydali:

- Matnni o‘qish jarayonida faol kognitiv monitoringni amalga oshirishni ta’minlaydi;
- Avvalgi bilimlar bilan yangi ma’lumotlarni konstruktiv bog‘lashni o‘rgatadi;
- O‘quvchilarda reflektiv o‘qish strategiyasini shakllantiradi;
- Axborotni saralash, belgilash va tahlil qilish orqali chuqur tushunishni ta’minlaydi.

Role-play (rolli o’yin metodi). Bu metod o‘quvchilarni muayyan ijtimoiy yoki kommunikativ vaziyatga kiritish orqali, ularning nutqiy faoliyati va ijtimoiy tajribasini modellashtirishga qaratilgan interfaol pedagogik texnologiya va uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani (gapirish, tinglash, muloqot qilish) rivojlantirish;
- Ijtimoiy rollarni bajarish orqali nutqiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni shakllantirish;
- Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish;
- O‘quvchilarning ijodiy va emotsional tafakkurini faollashtirish.

Mazkur metodlar zamonaviy ta’lim yo‘nalishlariga — ya’ni konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan ta’limga mos keladi. Ular o‘quvchini oddiy tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi hamda ona tili darslarida til, muloqot va fikrlash ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2017. – No6(766), 70-modda. – 38-bet.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 5-jild, 613-bet.
4. Qosimova K., Matchanov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T., 2009.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUV-KVEST TEXNOLOGIYASI

Ahmadova O‘g‘iloy Bahodir qizi
Kattqo’rg’on davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi
Uaxmedova110@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quv-kvest texnologiyasining mazmuni, nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati yoritilgan. O‘quv-kvest texnologiyasi orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur texnologiyaning ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni interaktiv va qiziqarli tus olishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv-kvest texnologiyasi, WebQuest, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim, gamifikatsiya, interaktiv ta’lim, o‘yin asosida o‘qitish.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi - o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy yondashuvlarni shakllantirishdagi birinchi muhim qadamdir. Ushbu bosqichda ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun darslar interaktiv, qiziqarli va o‘quvchi faol ishtirokiga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha passiv qabul qiluvchilikni rag‘batlantiradi, bu esa yosh o‘quvchilarda diqqat pasayishi, qiziqishning kamligi va o‘rganishni yuzaki tushunishga olib keladi. Shu muammoni bartaraf etish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida pedagogik innovatsiyalar, jumladan o‘quv-kvest texnologiyasi joriy etilmoqda.

O‘quv-kvest texnologiyasi - bu darsni o‘yin asosida, izlanish va vazifalarni bajarish orqali amalga oshiradigan pedagogik yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarda faol izlanish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Bu yondashuv sinfda oddiy yod olish o‘rniga ma’lumotlar bilan ishlash va ularni hayotiy vaziyatlarga qo‘llashga yo‘naltiradi.

Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va munosabatlarini bir vaqtning o‘zida shakllantirib boradigan bu texnologiya — bugungi kun talablari bilan uyg‘un pedagogik metod bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda keng qo‘llanilishi kerak. Dilnoza Qarshiyeva ta’kidlaganidek, o’quv kvestlar jarayoni bo‘yicha bir necha turga ajratiladi:

Chiziqli (Linear) – topshiriqlar ketma-ketlikda, har bir bosqich oldingi natijaga bog‘liq tarzda bajariladi.

Hujum (Adaptive/Choice-based) – o‘quvchi har bosqichda o‘z yechim yo‘lini tanlash imkoniga ega bo‘ladi.

Dumaloq (Ring) – bir vazifa turli boshlang‘ich nuqtalardan yechiladi, bu esa guruhlararo hamkorlik va faol muloqotni rag‘batlantiradi.

Dilnoza Qarshiyeva fikricha, boshlang‘ich sinflarda eng mos turi chiziqli kvest bo‘lib, u o‘quvchilarda bosqichma-bosqich o‘rganish va tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umarov Nurbek Erkinovich ta’kidicha, kvest texnologiyasi — bu interaktiv va o‘yin elementlariga asoslangan pedagogik yondashuv bo‘lib, u o‘quvchilarning faol o‘rganish, mustaqil izlanish, muammoli vazifalarni yechish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiya boshlang‘ich ta’limda ayniqsa samarali, chunki kichik yoshdagi o‘quvchilarning tabiatan o‘yin qilishga bo‘lgan qiziqishi mavjudligi bilan bog‘liq. O‘yin elementlari orqali o‘quv jarayoni motivatsiya va diqqatni oshiradi, shuningdek mavzularni bosqichma-bosqich o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘quv-kvest texnologiyasi ko‘pincha WebQuest bilan sinonim sifatida ishlatiladi. WebQuest — bu talabalarga internet resurslari asosida topshiriqlarni izlanish, tahlil qilish, yechim topish va natijalarni taqdim etish orqali bajarishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati.

WebQuestning xususiyati shundaki:

O‘quvchilar faqat axborot yig‘maydilar, balki uni analiz qilib qo‘llaydilar;

Vazifalar muammoli va mantiqiy bo‘lib, dastlabki bilimni chuqur o‘zlashtirishni talab etadi;

O‘qituvchi resurslar va vazifalarni oldindan belgilaydi, bu esa o‘quvchining izlanish jarayonini fokuslaydi.

Kvest texnologiyasi o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat hissini uyg‘otadi. Bu nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki uni izmli izlanish, tahliliy fikrlash va faol natija yaratish jarayoniga aylantiradi.

WebQuest metodologiyasi B. Dodge tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu metodika o‘quvchilarga internet resurslaridan maqsadli, tahliliy va muammoli vazifalarni bajarishga yordam beradi. Yagona ma’lumot manbaidan ko‘ra, WebQuest o‘quvchilarga ko‘p resurslarni birlashtirish orqali yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. WebQuestda odatda kirish, topshiriq, jarayon, resurslar, baholash va xulosa kabi bo‘limlar bo‘ladi. Bu strukturasi o‘quvchilarga vazifani tizimli bajarish va o‘z faoliyatini baholash imkonini yaratadi.

O‘quv-kvest texnologiyasi o‘yin asosida ta’lim (game-based learning) yondashuvining bir ko‘rinishi bo‘lib, u ta’lim jarayonida qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosida o‘qitish yosh o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, ijtimoiy va emosional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, va ularni darsga hissiy jalb qiladi. Masalan, systematic review (jami tahlillar yig‘indisi) da game-based learning (o‘yin asosida ta’lim) yosh maktab o‘quvchilari uchun kognitiv, ijtimoiy va motivatsion natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu yondashuv bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Kvest texnologiyasining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi bir qancha muhim pedagogik afzalliklarni beradi:

- Motivatsiyani sezilarli darajada oshirish:

O‘quv jarayonida o‘yin elementlari (rolli belgilar, vazifa bosqichlari, xususiy topshiriqlar) o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish hissini kuchaytiradi.

Bu metod orqali o‘quvchilar darsni faqat tinglash emas, balki faol katnashish va topshiriqlarni hal etish orqali o‘rganadi, bu esa motivatsiyani oshiradi.

- Tanqidiy fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish:

Kvest vazifalari o‘quvchini ma’lumot izlash va tahlil qilishga undaydi, shuning uchun bu metod yosh o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni mustahkamlashda samarali vositadir. Shunchaki ma’lumot yodlashdan ko‘ra, o‘quvchi ma’lumotlarni tekshiradi, solishtiradi va o‘z xulosalarini chiqaradi.

- Hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish:

Ko‘plab kvest topshiriqlari jamoaviy tarzda bajariladi, bu esa o‘quvchilarda birgalikda fikr almashish, vazifalarni bo‘lishish va muammolarni hal etishni o‘rgatadi. Bu ijtimoiy ko‘nikmalar bugungi ta’limda juda muhim hisoblanadi.

- Mustaqil ishlash ko‘nikmasi va axborot savodxonligi:

O‘quv-kvestlar o‘quvchilarga resurslardan mustaqil foydalanishni o‘rgatadi — bu esa ularni axborot savodxonligini oshiradi va kelajakda murakkab vaziyatlarda mustaqil izlanish qobiliyatini shakllantiradi.

- Refleksiya va baholash jarayoni:

Kvest texnologiyasi o‘quvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Baholash — bu faqat natijani tekshirish emas, balki o‘rganish jarayonida erishilgan yutuqlar va qiyinchiliklarni aniqlash demakdir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv-kvest texnologiyasi — bu nafaqat qiziqarli darsni yaratish, balki o‘quvchilarni faol izlanish va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish bo‘yicha samarali pedagogik metoddir. WebQuest va kvestlar yosh o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, tanqidiy fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi, axborot savodxonligini rivojlantiradi hamda darsni interaktiv qiladi. Shu sababli, o‘quv-kvest texnologiyasini boshlang‘ich ta’limning ajralmas pedagogik yondashuvlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Dodge, B. (1995). Some Thoughts About WebQuests. San Diego State University.

2.Dodge, B. (2001). Focus: Five Rules for Writing a Great WebQuest. Learning & Leading with Technology.

3.Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Wiley.

4.Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan.

5.Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.

6.Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.

7.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyoti. (2022). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi ta’lim nashriyoti.

8.Umarov Nurbek Erkinovich. Kvest texnologiyasini ta’lim jarayonida qo‘llash asoslari. Ilmiy maqola, 2023.

9.Qarshiyeva Dilnoza. Pedagogik kvestlar. Mahorat Academy, 2023

TALABALARDA YETAKCHILIK (LIDERLIK) SIFATLARINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI

Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi
Kattaqo’rg’on davlat instituti Pedagogika fakulteti o’qituvchisi
Qarshiboyeva Mavluda Azizbek qizi, *3-kurs talabasi*
mavludaqarshiboyeva49@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talaba-yoshlarda yetakchilik (liderlik) sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhitning o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Oila,ta’lim muassasasi, tengdoshlar va zamonaviy raqamli makon kabi ijtimoiy omillarning talaba shaxsiga ta’siri ko’rib chiqiladi. Maqolada yetakchilik sifatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy muhitni optimallashtirish bo’yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar*: yetakchilik, liderlik, ijtimoiy muhit, oliy ta’lim, shaxs rivojlanishi, raqamli muhit.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda jamiyatning har bir sohasida tashabbusakor va mas’uliyatli yoshlarga kundan-kun ehtiyoj ortib bormoqda. Talaba yoshlar kejakning tayanchidir. Yosh avlodning yetakchilik muammosi psixologiya-pedagogika fani tomonidan o’tgan asrning 20-30-yillaridayoq faol hal qilib borilgan. Guruh va jamoa faoliyatini tashkil eta oladigan, guruhdagi munosabatlarni boshqarib ularni tartibga sola oladigan guruh a’zosini lider deb atash mumkin. Lider – guruhning hamma a’zolari tomonidan tan olingan shaxs. Yetakchilik ko’plab tadqiqotchi olimlar tushunchasi bo’yicha u faqat tug’ma xususiyat emas balki shaxsning ijtimoiy muhit jarayonida shakllanib boradigan murakkab sifatlardan biridir.

Asosiy qism. Yetakchilik yoki lider sifatlari – shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keladigan,avval shaxsni o’ziga, so’ngra o’zgalarga bera oladigan ta’sirida ko’rinadigan fazilatlardir. Shaxsda yetakchilik sifatlarining ilk kurtaklari oilada paydo bo’lib boshlaydi. Oiladagi demokratik muhit, farzandning fikriga hurmat bilan qarash va uning kichik yoshdanoq mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish yetakchilikning poydevorini qo’yadi. Avtoritar tarbiya uslubida va haddan tashqari g’amxo’rlik (giperopiya)da bolada tashabbuskorlik sifatlarini ko’rsata olmaslik holatlari kuzatiladi.

Xo’sh, liderlik o’zi nima? Liderlik bu – (inglizcha: leader – yetakchi, boshlovchi so’zidan) umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning ta’sir jarayoni. Liderni boshqalardan ajratib turuvchi

asosiy tomonlaridan biri – bu liderning eng avvalo, o'ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo'lgan ishonchi. Lider ko'p holatlarda liberal uslub asosida ish ko'radi. Ya'ni o'z maqsadlari, rejalari va vazifalarni guruhini, jamoasini xabardor qiladi ular bilan birga maslahatlashadi.

Olimlarning ta'kidlashicha: bolaga ma'suliyatli vazifalar yuklatilganda, o'z yutuqlari uchun doimo rag'batlantirib borilganda talabalik davrida ham yetakchilik sifatini ko'rsatishga moyil bo'ladi. Albert Banduraning "ijtimoiy o'rganish nazariyasi (Social Learning Theory) talabalarning o'z tengdoshlaridan o'rnak olishini tushuntiradi. Olimning ta'kidlashicha: "Talabalar o'z atrofdagi yetakchi xarakterga ega do'stlarini kuzatish orqaliu ularning muvaffaqiyatli xulq-atvor strategiyalarini o'zlashtiradi".

Oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun muhim ijtimoiy institutdir. Bu yerda talabalar nafaqat nazariy va amaliy bilimlar balki, o'z liderlik qobiliyatlarini namoyon qila olishadi. Talabalik davrida referent guruhlar oiladan ko'ra ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'ladi. OTM muhitida yetakchilining shakllantirishda bir qancha omillar muhim rol o'ynaydi. Bularga:

- **Talabalar tashkilotlari va kengashlari:** Talabalarga real boshqaruv jarayonida ishtirok etishga tashkilotchilik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishga, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.
- **Debat klublari va ilmiy to'garaklar:** Sog'lom raqobat muhitini yaratish, bahs va muzokarlar olib boorish, notiqlik san'ati, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali talabalarda liderlik qobiliyatlari shakllanadi.
- **Raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar:** Hozirgi davrda zamonaviy talaba hayotini ijtimoiy tarmoqlar, gadjetlarsiz taassavur qilish qiyin. Virtual muhit o'quvchi yoshlarga yetakchilikning yangi shakli – "onlayn liderlik" qilish imkonini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar talabalarga o'z g'oyalarini keng ommaga taqdim etishga, masofaviy ta'lim olib, jamoalarni ham masofaviy boshqarishga, ularda motivatsiyani shakllanishiga xizmat qiladi. Biroq,"ommaviy madaniyat" salbiy ta'siri va axborotning xurujilaridan himoyalanish uchun talaba yoshlarda mediasavodxonlikni rivojlantirish zarur.

Aleksandr Astining " Talabalarning jalb qilingaligi nazariyasi" (Student Involvement Theory) ga ko'ra, talaba universitet hayotida qanchalik faol bo'lsa (to'garaklar, talabalar kengashi, ilmiy loyihalar), unda yetakchilik sifatlarini shunchalik tez rivojlanadi. Uning yana bir fikricha: *" Talabaning rivojlanishi uning o'quv dasturi va darsdan tashqari faoliyatiga sarflangan jismoniy va psixologik energiyasi miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir".*

Ijtimoiy muhit talaba hayotida bir necha darajalarda namoyon bo'ladi. Bunday darajalar yuqorida keltirib o'tilgan oila, OTM, tengdoshlar va raqamli muhitlardir. Ularning asosiy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari – ijtimoilashuv, institutsional muhit, ijtimoiy raqobat va o'zaro ta'sir, axborot almashinuvidir. Ijtimoiy muhitda yetakchilikni shakllantiruvchi sifatlar quyidagilar**: Mas'uliyat, o'ziga ishonch, kommunikativlik, empatiya, jamoada ishlash, tashkkilotchilik, moslashuvchalik** va boshqalar.

Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy muhit talabada liderlik sifatini namoyon qilishda yetakchi omildir. Ayniqsa, universitetlarda talabalarga o'zlarini ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, qulay va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy ekotizim mavjud bo'lsagina, ularda o'ziga ishonch va motivatsion ruhni uyg'ota olamiz.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda liderlik qobiliyatlarining shakklanishi faqatgina ichki intilish bo'libgina qolmay, balki bu ijtimoiy muhitning tizimli ta'siri natijasida yuzaga keladi. Demokratik oila muhiti poydevor bo'lsa, oily ta'limdagi faoliyat uni yuksalishiga,professional daraja olib chiqadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimova V.M. "Psixolgiya". Toshkent: Sharq,2002
2. Raxmatova D.A. " Talabalarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish- yangi zamon ehtiyoji va talabi sifatida" ilmiy maqola
3. Azamat Ziyo. "Yetakchilik mezoni" . Milliy tiklanish.2012 yil 15 fevral

4. Bandura A. (1977). Social Learning Theory. Prentice-Hall
5. Astin A.W.(1984). Student involvement: A development theory for higher education. Journal of College Student Development.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Nomozova Latofat Rustamovna
KDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
Qutbiddinova Marjona Shavkat qizi, *Pedagogika yo'nalishi talabasi*
marjonashavkatovna5343@gail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish masalalari hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari hamda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati yoritib berilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so'zlar. *uzluksiz ta'lim, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, raqamli ta'lim, ilmiy tadqiqot.*

Kirish: Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan yangilanib borishi ta'lim tizimidan ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning hayoti davomida bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yagona va uzviy bog'langan ta'lim bosqichlari majmuasidan iborat. Ushbu tizim insonning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish masalasi pedagogika fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi davrda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zamonaviy didaktik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini talaba yoki o'quvchi markazida tashkil etish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Uzluksiz ta'lim tizimi zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizim insonning hayoti davomida bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, axborot oqimining keskin ortishi hamda mehnat bozorida raqobatning kuchayishi ta'lim tizimidan yuqori sifat va samaradorlikni talab etmoqda. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim jarayonining samaradorligi, avvalo, o'qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar hamda ta'lim muhitining sifatiga bog'liq. An'anaviy o'qitish usullari asosan o'qituvchining

yetakchi roliga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi yoki talabaning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilar bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ham o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari, virtual laboratoriyalar hamda multimedia vositalari ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam bermoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish, ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos holda tashkil etish imkoniyati ham yaratiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi hamda motivatsiya beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

Innovatsion tadqiqotlar ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodlar, yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish hamda ta’lim sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion tadqiqotlar pedagogik faoliyatda yangi g‘oyalar va yondashuvlarning paydo bo‘lishiga ham zamin yaratadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida samarali o‘qitishni tashkil etish uchun ta’lim jarayonining mazmuni ham zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Ta’lim mazmunini yangilash jarayonida fanlararo integratsiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv hamda amaliy yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimi o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini ham rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan va samarali bo‘lib, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bunday yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi..

Xulosa: Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan ham yangi yondashuvlar, innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda o‘qitish jarayonini talaba yoki o‘quvchi markazida tashkil etish o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda zamonaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish ta’lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida innovatsion tadqiqotlar natijalaridan foydalanish, ta’lim mazmunini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilab borish hamda kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuvini rivojlantirish uzluksiz ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga imkon yaratadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda samarali va raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi..

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi nashri, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
6. Musurmonova O. Pedagogik innovatsiya va ta’lim samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2012.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
8. Abduqodirov A. Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
9. Nishonaliyev U., Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
10. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL QOBILIYATLARI

Z.T.Nazarova

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti dotsenti.

R. Musurmonova, *3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy – emotsional qobiliyatlarini shakllantirish hamda bolalarning his-tuyg’ularini anglash, boshqarish, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilish kabi ko’nikmalarini o‘rganish haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Ijtimoiy – emotsional qobiliyat, maktabgacha yosh, bolalar tarbiyasi, muloqot ko’nikmasi, oila muhiti, ijtimoiylashuv, ijtimoiy – emotsional rivojlanish, tarbiyachi faoliyati.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 11-mayda qabul qilingan PF–134-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy

dastur to‘g‘risida”gi Farmonda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash hamda bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Farmonda ta’kidlanganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, ularni maktabga tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligi belgilangan. Ayniqsa, bolalarning jamoadagi faolligi, muloqot madaniyati va shaxslararo munosabatlarga tayyorligi ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Maktabga tayyorgarlik jarayoni faqatgin bolalarning savodxonlik yoki hisob-kitob qilish malakalarin ishakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy va muhim yo‘nalishlardan biri bu – bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Maktabgacha yosh davri bola hayotida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning nafaqat aqliy, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishi ham shakllanadi. Ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar bolaga o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va jamiyatga moslashish imkonini beradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarning shakllanishi, rivojlanish omillari hamda ularni rivojlantirish usullari yoritiladi.

***Ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar**:* Ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar deganda, bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ifodalash, boshqarish va boshqalar bilan munosabat o‘rnatish ko‘nikmalari tushuniladi. Bu qobiliyatlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- o‘zini anglash
- o‘zini boshqarish
- ijtimoiy ong, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari
- mas’uliyatli qaror qabul qilish

Mazkur qobiliyatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy o‘rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish xususiyatlari: Maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy jihatdan juda sezgir bo‘ladi. Ular tez quvonadi, tez ranjiydi va ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalay olmaydi. Shu sababli, ushbu davrda ularga to‘g‘ri yo‘naltirish juda muhim.

Bu yoshdagi bolalarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- his-tuyg‘ularni to‘liq anglay olmaslik
- impulsiv xatti-harakatlar
- tengdoshlari bilan o‘ynashga intilish
- kattalarga taqlid qilish
- empatiyaning asta-sekin rivojlanishi

Bu jarayonda bola asta-sekin o‘zini boshqarishni, boshqalarni tushunishni va jamiyat qoidalariga moslashishni o‘rganadi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar: Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi:

Oila muhiti

- Oila bolaning birinchi ijtimoiy maktabidir. Ota-onaning mehr-muhabbati, e’tibori va tarbiyaviy yondashuvi bolaning hissiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachi faoliyati

- Maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyachining roli juda katta. Tarbiyachi bolalar bilan to‘g‘ri muloqot qilishi, ularni qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy muhit yaratishi zarur.

Tengdoshlar bilan muloqot:

- bolalar o‘z tengdoshlari bilan o‘ynash jarayonida ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadi. Ular o‘zaro kelishish, navbat kutish, bo‘lishish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni:

- maxsus o‘yinlar, mashg‘ulotlar va metodlar orqali bolalarda ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin.

Ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish usullari: Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

O‘yin faoliyati:

- o‘yin bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo‘lib, unda ular turli rollarni bajaradi, his-tuyg‘ularni ifodalaydi va boshqalar bilan muloqot qiladi.
- suhbat va hikoya qiladi

Bolalar bilan suhbatlashish, ertaklar o‘qish orqali ularda empatiya va ijtimoiy ong rivojlanadi. Namunaviy xulq ko‘rsatish, hissiy qo‘llab-quvvatlash kabi jarayonlar orqali bolada xatti-harakatlar shakillanadi. Kattalar o‘z xatti-harakatlari bilan bolalarga namuna bo‘lishi kerak. Bola ko‘proq ko‘rganini takrorlaydi. Bolani tinglash, uning his-tuyg‘ularini qabul qilish va tushunish muhimdir. Psixologik o‘yinlar, guruhli mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishning ahamiyati. Ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar bolaning kelajakdagi hayotida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qobiliyatlar:

- muvaffaqiyatli muloqot qilishga yordam beradi
- nizolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi
- o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi
- jamiyatga moslashishni osonlashtiradi
- psixologik salomatlikni mustahkamlaydi

Shu sababli, maktabgacha yoshdan boshlab bu qobiliyatlarni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional qobiliyatlari ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu qobiliyatlar bolaning o‘zini anglashiga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga va jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Oila, tarbiyachi va ta’lim muassasalari hamkorligida bolalarda ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin. Shu orqali barkamol, ijtimoiy faol va hissiy jihatdan barqaror avlodni tarbiyalashga erishiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish uzluksiz va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda bolalarning his-tuyg‘ularini erkin ifodalashiga imkon yaratish, ularni tushunish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarni ijobiy ijtimoiy muhitda tarbiyalash, ularni hamkorlikka, hurmatga va mehr-oqibatga o‘rgatish zarur.

To‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya va ta’lim orqali bolalarda o‘zini boshqarish, boshqalarni tushunish va sog‘lom munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada esa jamiyatda faol, o‘z fikriga ega va hissiy jihatdan barqaror shaxslar voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 11-mayda qabul qilingan PF–134-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Karimova, M., Xodjayeva, Z. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent: Ilm Ziyo. 2019

3. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi.

4. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar. Toshkent, turli nashrlar.

5. Internet manbalari (pedagogik va psixologik maqolalar).

AXLOQIY ME’YORIY XULQ - ATVORNING SHAKLLANISHIGA TA’LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
KDPI Pedagogika fakulteti, PhD.
Rahmonova Zohira Shavkat qizi, *3-kurs talabasi*

Anotatsiya:*Ushbu maqolada ta’lim jarayonining axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirishdagi o‘rni va ta’siri tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida beriladigan bilimlar, qoidalar va talablar orqali shaxsning axloqiy ongi va xulq-atvor me’yorlari qanday rivojlanishini yoritadi. Maqolada ta’limning nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy funksiyasi ham asosiy omil sifatida qaraladi. O‘quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning axloqiy me’yorlarni singdirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, o‘qituvchi shaxsining namuna sifatidagi roli va jamoaviy munosabatlarning axloqiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiyani kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim jarayoni, axloqiy-meyoriy xulq-atvor, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy tarbiya modeli, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, qadriyatlar, uzluksiz ma’naviy tarbiya, axloqiy ong, xulq-atvor me’yorlari*

Bugungi globallashuv va axborot makonining jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va xulq-atvor me’yorlariga turli xil tahdidlar orth bormoqda. Aynan shu omillar ta’lim jarayonida axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi[1]da inson kapitalini rivojlantirish va sifatli ta’limni ta’minlash muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori[2]da esa barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori [3]bilan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi tasdiqlangan bo‘lib, unda yoshlarni mustaqil hayotga keng dunyoqarashli, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadi qo‘yilgan. Eng muhimi, 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori[4]da “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi” tasdiqlandi hamda barcha ta’lim tashkilotlarida yagona milliy tarbiyaning yaxlit tizimi yaratilishi belgilandi. Mazkur qarorlar ta’lim jarayonining nafaqat bilim berish, balki axloqiy-meyoriy xulq-atvorni shakllantirishdagi beqiyos rolini tasdiqlaydi va mazkur mavzuning ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki imsonning ichki dunyosini tartibga soluvchi va unda axloqiy-me’yoriy xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy psixologik maydondir. Ushbu jarayonning psixologik ta’sirini quyidagi muhim jihatlarda ko‘rish mumkin:

Ijtimoiy modellashtirish (Namuna olish):

Psixologik nuqtai nazardan, o‘quvchi uchun o‘qituvchi — axloqiy me’yorlarning tirik namunasidir. Nazariyalarga ko‘ra, bolalar ko‘rsatmalardan ko‘ra ko‘proq kuzatilgan xulq-atvorni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchining adolati, mas’uliyati va muloqot madaniyati o‘quvchida “qanday bo‘lish kerak” degan ichki modelni yaratadi.

Qadriyatlarning ichki qabul qilinishi (Interiorizatsiya):

Ta’lim jarayonida tashqi intizomiy talablar (masalan, darsga kechikmaslik, rostgo‘ylik) vaqt o‘tishi bilan o‘quvchining ichki ishonchiga aylanadi. Bu psixologik “interiorizatsiya”

[1] 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi
[2] 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori
[3] 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori
[4] 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori

jarayoni bo‘lib, unda bola me’yorlarni shunchaki qo‘rqinchdan emas, balki o‘zining shaxsiy tamoyili sifatida bajara boshlaydi.

Jamoaviy ta’sir va ijtimoiy nazorat:

Maktab yoki universitet muhiti — bu kichik jamiyat. Bu yerda o‘quvchi tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lib, "nima mumkin-u, nima mumkin emas" degan chegaralarni o‘rganadi. Jamoaning ijobiy fikri yoki tanbehi shaxsda axloqiy immunitetni shakllantiradi.

Empatiya va hissiylikni rivojlantirish:

Adabiyot, tarix va gumanitar fanlar orqali o‘quvchi turli personajlarning holatiga kiradi. Bu uning psixikasida empatiya (boshqalarni tushunish) hissini uyg‘otadi. Empatiya esa har qanday axloqiy xulq-atvorning poydevoridir — boshqaga ozor bermaslik aynan shu his orqali nazorat qilinadi.

O‘z-o‘zini anglash va baholash:

Ta’lim jarayonida beriladigan baholar va fikr-mulohazalar o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashiga ta’sir qiladi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan psixologik muhitda bola o‘zining ijobiy xulqi orqali hurmat qozonishini tushunib yetadi va bu xulqni mustahkamlaydi. Ta’lim jarayoni axloqiy me’yorlarni shunchaki “qoida” sifatida emas, balki insonning hayotiy ehtiyojiga aylantiruvchi kuchli psixologik vositadir.

Bolalarda axloqiy-me’yoriy xulq-atvorning shakllantirishga ta’lim jarayonining psixologik ta’siri va o’rni yanada o’shirish uchun ko’plab tavsiya va usullar ishlab chiqilgan. Bunday usul va tavsiyalar bolalarning axloqiy-me’yoriy xulq-atvorning shakllanishida o’zining ijobiy tasirini ko’rsatadi. Quyida ishlab chiqilgan usullardan bir necjtsini ko’rib chiqamiz:

Shaxsiy namuna (Modeling): O'qituvchining roli: O'quvchilar o'qituvchini hayotiy namuna sifatida qabul qiladi. O'qituvchining o'z me'yorlariga sadoqatli bo'lishi, axloqiy tutqini, o'z so'ziga va'da berishi talabalar uchun kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik: Vygotskiyning ZPD (Yaqin rivojlanish zonasi): Axloqiy xulq-atvor jamoa bilan o'rganiladi. Kichik guruhlarda vazifalar bajarish o'zaro yordam va mas'uliyatni rivojlantiradi. Amaliy tavsiya: “Maslahat kengashi” usuli - o'quvchilar o'zlarining axloqiy muammolarini guruhdagi hamkasblari bilan muhokama qiladi.

Emotsional intellektni rivojlantirish: Boshqalarning kayfiyatini anglash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish axloqiy xulq-atvorning poydevoridir. Amaliy tavsiya: “Rolli o'yinlar” va “vaziyatli tahlil” - o'quvchilar boshqalar holatiga qo'yiladi va ularning his-tuyg'ularini tushunadi.

Ichki motivatsiyani shakllantirish: Avtonomiya, kompetentlik va bog'liqlik ehtiyojlari qondirilganda, ichki axloqiy motivatsiya shakllanadi. Amaliy tavsiya: O'quvchilarga tanlash huquqi bering (masalan, “Qaysi loyiha ustida ishlaysiz?”), ularning fikrini tinglang.

Tasdiqlash va qayta tiklash: Axloqiy xatti-harakatlar uchun darhol va aniq tasdiqlash xulq-atvorni mustahkamlaydi. Amaliy tavsiya: “Bugun sen Sinovga yordam berding, bu juda mehribonlik” - konkret xulq-atvorni maqtang, shaxsni emas.

Axloqiy muhit yaratish: Guruh madaniyati: Hurmat, xavfsizlik va ishonch muhitida axloqiy qadriyatlar osonroq singdiriladi. Amaliy tavsiya: “Bizning qoidalarimiz” - o'quvchilar o'zlari qoidalarni ishlab chiqishadi va ularga rioya qilishadi.

Refleksiya va o'z-o'zini tahlil: O'z xatti-harakatlarini tahlil qilish axloqiy o'sishga olib keladi. Amaliy tavsiya: “Kundalik axloqiy daftarcha” - o'quvchilar kunning axloqiy voqealarini yozib, o'zlarini baholaydi.

Ta'lim jarayonida axloqiy-me'yoriy xulq-atvorni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, uning psixologik ta’siri shaxsning butun hayotiga uzluksiz ta'sir ko‘rsatadi. O'qituvchi shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga axloqiy me'yorlarni amaliy ko‘rinishda namoyish etishi, shuningdek, o'z so'ziga sadoqat, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlarni kundalik o'zaro munosabatlarda namoyon etishi zarurdir. Yosh xususiyatlariga moslashgan yondashuv, har bir yosh davrida tegishli psixologik usullarni qo'llashni taqozo etadi. Ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik muhiti orqali o'quvchilar bir-biridan axloqiy tajriba olib, o'zaro yordam

va mas'uliyat hissi shakllanadi. Emotsional intellektni, xususan, empatiya va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy qarorlar qabul qilishda psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ichki motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarga tanlash erkinligi, fikrini ifodalash imkoniyati va mustaqillik berilishi lozim. Ijobiy tasdiqlash va qayta tiklash mexanizmlari orqali axloqiy xatti-harakatlar mustahkamlanib, takroriy amaliyotga aylanadi. Axloqiy muhit yaratish, sinf ichida hurmat, ishonch va xavfsizlik muhitini ta'minlash esa axloqiy qadriyatlarning singishiga zamin yaratadi. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish jarayonlari o'quvchilarning axloqiy o'sishini ichki nazoratga olib keladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonining psixologik ta’sirini oshirish kompleks yondashuvni, ya'ni kognitiv, emotsional va xatti-harakatiy komponentlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi va natijada barqaror axloqiy shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi.
2. 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
3. 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori.
4. 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori.
5. Kolberg, L. (1984). Axloqiy rivojlanish psixologiyasi: Axloqiy bosqichlarning tabiati va haqqoniyligi. San-Fransisko: Harper & Row.
6. Bandura, A. (1977). Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi. Nyu-York: Prentice Hall.
7. Deci, E. L., va Ryan, R. M. (2000). "Maqsadlarning 'nima' va 'nimaga' jihatlari: Inson ehtiyojlari va xulq-atvorning o‘zini aniqlashi." Psixologik tadqiqotlar , 11(4), 227-268.
8. Vigotskiy, L. S. (1978). Jamiyatdagi ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Kembrij, Massachusets: Garvard universiteti nashriyoti.
9. Goulman, D. (1995). Emotsional intellekt: Nima uchun u IQ dan muhimroq. Nyu-York: Bantam Books.
10. LEX.UZ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Ismatova Sabinabonu

KDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning maktab yoshidagi bolalarda ijodiy (kreativ) tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada raqamli vositalar, xususan, grafik dizayn dasturlari, robototexnika, sun’iy intellekt elementlari va ta’limiy platformalarning bolalar tasavvurini kengaytirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanishda pedagogik yondashuvlar hamda an’anaviy ta’lim bilan raqamli ta’lim o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqotning maqsadi — texnologiyalarni shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki ijodiy muammolarni hal qilish quroli sifatida ko‘rsatib berishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Ijodiy tafakkur, zamonaviy texnologiyalar, raqamli ta’lim, robototexnika, STEM ta’limi, sun’iy intellect, interaktiv metodlar, bolalar psixologiyasi, loyiha asosida o‘qitish (PBL)*

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va hayotning barcha jabhalariga kirib borishi bilan xarakterlanadi. Ushbu global transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi ham tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi faqatgina tayyor bilimlarni uzatish emas, balki o‘sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarga kreativ yondashish va noan’anaviy yechimlar topish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi

zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu jarayonda raqamli texnologiyalar strategik ahamiyatga ega vositaga aylanmoqda.

Ijodiy tafakkur - bu shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud muammolarni kutilmagan usullar bilan hal qilish va voqelikka turlicha nuqtayi nazardan qarash qobiliyatidir. An’anaviy ta’lim metodlari ko‘p hollarda reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, bolaning kreativ salohiyatini cheklab qo‘yishi mumkin. Biroq, zamonaviy texnologik vositalar - multimedia dasturlari, interaktiv platformalar, robototexnika va virtual borliq (VR) elementlari bolaning o‘rganish jarayonini tadqiqotchilik faoliyatiga aylantiradi. Bunday muhitda bola shunchaki axborot iste’molchisi emas, balki raqamli mahsulot yaratuvchisi (maker) sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, grafik dizayn orqali bola o‘z tasavvuridagi dunyoni vizuallashtirsa, robototexnika vositasida mantiqiy va muhandislik tafakkurini amaliyotda sinab ko‘radi.

Shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy texnologiyalar bolalarning kognitiv jarayonlariga, xususan, diqqat, xotira va tasavvurga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli o‘yinlar va simulyatsiyalar bolada strategik fikrlashni shakllantirsa, sun’iy intellektga asoslangan ta’limiy ilovalar har bir bolaning individual qobiliyatiga moslashgan holda unga ijodiy erkinlik beradi. Ammo texnologiyalardan foydalanishda pedagogik muvozanatni saqlash o‘ta muhimdir. Texnologiya o‘z-o‘zidan ijodkorlikni yaratmaydi, balki u ijodiy jarayon uchun qulay va boyitilgan muhitni ta’minlaydi. Shu sababli, ta’lim jarayonida raqamli vositalarni an’anaviy metodlar bilan samarali sintez qilish, bolaning ruhiy-fiziologik holatini hisobga olish va ularda «ekran qaramligi» emas, balki «ekran ijodkorligi»ni shakllantirish pedagogik texnologiyalarning bosh vazifasidir.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’lim paradigmasida texnologiya shunchaki axborot uzatuvchi vositadan ijodiy muhit yaratuvchi ekotizimga aylandi. Bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayoni bevosita raqamli instrumentlarning qanday qo'llanilishiga bog'liq. Bu o'rinda «Constructionism» (Konstruksionizm) nazariyasi asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi; unga ko'ra, bola tashqaridan berilgan tayyor bilimlarni yod olganidan ko'ra, o'z qo'li bilan (yoki raqamli vosita yordamida) biror mahsulot yaratganda intellektual jihatdan tezroq rivojlanadi. Raqamli texnologiyalar aynan shu «yaratuvchanlik» maydonini kengaytirib beradi.

Vizual san’at va raqamli grafika sohasida zamonaviy planshetlar va maxsus ilovalar bolaning ranglar, shakllar va kompozitsiya ustida cheksiz tajribalar o‘tkazishiga zamin yaratadi. An’anaviy tasviriy san’atda xato qilish qo‘rquvi ko‘pincha ijodiy parvozni cheklab qo‘yadi, biroq raqamli muhitda «bekor qilish» (undo) funksiyasining mavjudligi bolada eksperiment qilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu esa o‘z navbatida, divergent fikrlashni — ya’ni bitta muammoga o‘nlab kutilmagan yechimlar topish qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Bola raqamli chizma ustida ishlar ekan, u nafaqat estetik didini, balki texnik manipulyatsiya ko‘nikmalarini ham sinxron ravishda rivojlantiradi.

Robototexnika va STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo‘nalishi esa ijodiy tafakkurni mantiqiy izchillik bilan bog‘laydi. LEGO Education yoki Arduino kabi platformalar orqali bola o‘z g‘oyasini moddiy ko‘rinishga keltiradi. Bu erda ijodkorlik shunchaki chiroyli narsa yaratishda emas, balki ishlamayotgan tizimni ishga tushirish uchun muqobil yo‘l topishda namoyon bo‘ladi. Masalan, robotni to‘siqdan aylanib o‘tishga dasturlash jarayonida bola algoritmlar bilan o‘ynashadi; bu «algoritmik ijodkorlik» deb ataladi. Bola muammoni qismlarga bo‘lishni (dekompozitsiya) va har bir qism uchun alohida kreativ yechim ishlab chiqishni o‘rganadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) va neyrotarmoqlarning ta’limga kirib kelishi ijodiy jarayonni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. AI endilikda bolaning o‘rniga ish bajaruvchi vosita emas, balki «aqlli hamkor» (copilot) sifatida gavdalanmoqda. Masalan, bola yozgan bir necha qatordan iborat hikoyaga AI tomonidan taklif etilgan vizual obrazlar yoki syujet davomi bolaning tasavvurini yanada boyitadi. Bu kabi interaktiv muloqot bolada savol berish san’atini va g‘oyalarni sintez qilish mahoratini o‘stiradi. Texnologiyalar bolalarning hamkorlikda ishlash (collaboration) ko‘nikmalarini ham yangi darajaga ko‘tardi. Bulutli texnologiyalar va onlayn

platformalar orqali bir nechta bola bitta loyiha ustida dunyoning turli nuqtalaridan turib ishlashi mumkin. Bu jarayonda «jamoaviy kreativlik» tushunchasi shakllanadi - ya'ni bir necha kishining g'oyalari birlashib, yangi va takrorlanmas mahsulot vujudga keladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bunday muhit bolani o'zgalar fikrini hurmat qilishga va bir maqsad yo'lida turli qarashlarni birlashtirishga o'rgatadi.

Zamonaviy texnologiyalar bolalarning ijodiy salohiyatini ochishda shunchaki yordamchi vosita emas, balki butunlay yangi bir intellektual maydon vazifasini o'taydi. Raqamli dunyo bolaga cheksiz tajriba maydonini taqdim etishi bilan ahamiyatlidir, chunki bu yerda moddiy resurslarning tugab qolishi yoki xatolarning tuzatib bo'lmasligi kabi tushunchalar mavjud emas.

Dasturlash va robototexnika kabi yo'nalishlar bolada muhandislik tafakkuri bilan badiiy xayolotni birlashtiradi. Masalan, bola o'z o'yini uchun qahramon yaratayotganda nafaqat uning tashqi ko'rinishini chizadi, balki uning xarakteri, harakatlanish mantig'i va atrof-muhit bilan aloqasini ham o'ylab topadi. Bu jarayon yaxlit ijodiy loyihani boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Virtual borliq texnologiyalari esa idrok etish chegaralarini kengaytirib, bolaga tasavvuridagi dunyoni uch o'lchamli fazoda qurish imkonini beradi. U o'z chizgan rasmi ichiga kirib ko'rishi yoki xayolidagi shaharni qadam-baqadam barpo etishi mumkin. Bunday yondashuv bolaning fazoviy tasavvurini va g'oyalarni vizuallashtirish qobiliyatini keskin rivojlantiradi.

Sun'iy intellektga asoslangan platformalar esa bolaning ijodiy hamkoriga aylanib, unga g'oyalarni qayta ishlashning yangi usullarini o'rgatadi. Bola o'zining kichik bir xomaki loyihasini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirib, kutilmagan natijalarni ko'rishi va bu orqali o'z uslubini qidirib topishi mumkin. Bu texnologik muhit bolani faqatgina tayyor narsani iste'mol qilishdan to'xtatib, o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi ijodkor shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa. Tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar maktab yoshidagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Ular bolaga nafaqat bilim beradi, balki ushbu bilimlarni amaliyotda, yangi va original shakllarda qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. Raqamli vositalar orqali bola xato qilishdan qo'rqmaydigan, muammolarga bir necha nuqtayi nazardan qaray oladigan va global axborot maydonida erkin ijod qiladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Biroq, bu jarayonda texnologik imkoniyatlar pedagogik mahorat bilan hamohang bo'lishi shart. Texnologiyalar ijodkorlikni o'ldirishi ham (agar u tayyor kontentni passiv iste'mol qilish bilan cheklansa), yoki uni mislsiz darajada yuksaltirishi ham mumkin. Shuning uchun, ta'lim tizimida asosiy e'tibor texnologiyaning o'ziga emas, balki u orqali bolada «yaratuvchanlik instinkti»ni uyg'otishga qaratilishi lozim. Kelajakda kreativ fikrlaydigan avlodni tarbiyalash uchun raqamli savodxonlikni ijodiy erkinlik bilan birlashtirish davlat va jamiyat oldidagi eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev J.G'., Usmonov S.A. (2004). Zamonaviy o'quv texnologiyalari turlari va ularning qo'llanilishi. Toshkent.
2. Harrow, A. J. (1972). A Taxonomy of the Psychomotor Domain. (Harakatli va ijodiy o'yinlar texnologiyasi uchun nazariy asos).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi PF-134-sonli Farmoni.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent.
5. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone. (Ta'lim tizimida kreativlikning yo'qolishi va uni texnologiya bilan tiklash haqida).

TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA EVENT-TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Otaxonova Sayyodxon Qadamboy qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi
otaxonovasayothon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etayotgan “Tarbiya” fanini o’qitishda innovatsion yondashuvlar, xususan event-texnologiyalarning o’rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogikada o’quvchilarning nafaqat nazariy bilim olishi, balki jamiyatda oz o’rnini topish uchun ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hsibonlanadi. Maqolada an’anaviy ta’limdagi bir xillikdan voz kechish, o‘quv jarayoniga innovatsion tadbir-texnologiyalarni integratsiya qilish va bu orqali ta’lim samaradorligini yuksaltirish masalalari ko’rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "event" muhitining pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tarbiya fani, event-texnologiya, ijtimoiy faollik, ijtimoiylashuv (sosializatsiya), o‘quvchi faolligi, immersiv ta’lim, innovatsion pedagogika, ta’limiy tadbir.*

Kirish. Bugungi globallashuv davri va zamonaviy ta’lim paradigmasida **“event-based learning”** (voqeaga asoslangan ta’lim) shunchaki o’qtish metodikasi emas, balki o’quvhi shaxsini ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiya qilish strategik texnologiyasi hisoblanadi. Ushbu metodologiyaning tub mohiyati ta’lim jarayonini quruq axborot uzatish va mexanik xotiraga tayanishdan vos kechib, uni mazmunli, hissiy boy va o’quvchi xotirasida muhirlanadigan “ta’limiy voqealikka” aylantirishga qaratilgan. An’anaviy dars usuli o’quvchini passiv tinglovchi qilib qo’ygan bir davrda, nafaqat Tarbiya fani balki butun ta’lim tizimi innavatsion usullarni qo’llash zarurati paydo bo’lmoqda. Tarbiya fanida event ta’lim texnologiyasini qo’llash ta’lim tizimini rivojlantiradi shu bilan birga jamiat yuksalishini ham chetlab o’tmaydi. Xususan, Event texnologiyasi – ta’lim jarayonini hayotiy voqealikka va ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlar bilan uyg’unlashtirgan holda o’quvchilarni muluqot madaniyati va mas’uliyatini oshib borishida xizmat qiladi.

“Tarbiya” fanini joriy etish 2020-2021 o’quv yilidan boshlab maktablarda “Odobnoma” , “Vatan tuyg’usi” , “Din tarixi” , “Milliy istiqlol g’oyasi” fanlari birlashtirilgan holda yagona “Tarbiya” fani taqdim etildi. Bu yondashuv o’quvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tizimli shakillarntirish, yoshlarda tanqidy fikrlash, odob-axloq tushunchalar va ijtimoiy mas’uliyatni uyg’otish. Bu fan o’quvchilarni bilimli va komil inson bo’lib yetishishiga xizmat qiladi.

Pedagog-olim R.Ishmuhamedov o’zining innovatsion ta’limga oid ishida shuni takidlab o’tadi: “o’quvchi ma’lumotni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki jarayonni faol ishtirokchisiga aylangandagina ta’lim samaradorligini oshiradi”. “Tarbiya” fani darslarida qo’llanadigan Event-texnologiyalari aynan mana shu nazariyani amaliyotga ko’chiradi. Ya’ni, dars jarayonida tashkil etiladigan har bir ijtimoiy va hayotiy rolli o’yin o’quvchida mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni his qilish ko’nikmasini shakillantiradi. An’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, event-texnologiyalar o‘quvchini kutilmagan vaziyatlarga (keyslarga) ruhan tayyorlaydi.

Ijtimoiy faollikni oshirishning metodik mexanizmlari

Event-texnologiyalar yordamida "Tarbiya" darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ssenariylashtirish: O‘quvchi darsning oddiy tinglovchisi emas, balki biror ijtimoiy loyiha (masalan, "Men valontyorman") ijrochisi sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Rollarni taqsimlash: Tadbir davomida o‘quvchilarga yetakchi, tashkilotchi, tanqidchi va ijrochi kabi vazifalar beriladi. Bu ularning sotsializatsiya jarayonini tezlashtiradi.

3. Hissiy yondashuv: Event-darslar o‘quvchida "muvaffaqiyat hissi"ni uyg‘otadi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy passivlikni bartaraf etadi

4. Tayyorgarlik bosqichi: Darsning mavzusi va maqsadidan kelib chiqib, tadbir turi (masalan, "Munozara", "Ma'naviyat soati", "Rollari o‘yin") tanlanadi. Ssenariy tuziladi, rollar taqsimlanadi va kerakli jihozlar (video, ko‘rgazmalar) tayyorlanadi.

5. Kirish bosqichi: O‘quvchilarning e'tibori mavzuga qaratiladi. Muammoli vaziyat yoki qiziqarli savol orqali ularda "tadbir"da ishtirok etishga motivatsiya uyg‘otiladi.

6. Asosiy (Amaliy) bosqich: Belgilangan ssenariy bo‘yicha "event" amalga oshiriladi. O‘quvchilar muloqotga kirishadilar, bahslashadilar yoki hayotiy vaziyatlarni sahna ko‘rinishi orqali ijro etadilar. Bu bosqichda axloqiy me'yorlar amalda sinab ko‘riladi.

7. Refleksiya va tahlil bosqichi: Tadbir yakunida olingan xulosalar muhokama qilinadi. O‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashadi va ushbu tajriba ularning shaxsiy tarbiyasiga qanday ta'sir qilganini anglab yetadilar.

Amaliy tajriba sifatida shuni aytishim mumkin, “Tarbiya” faninng nazariy asoslarini amaliyot bilan bog’lash maqsadida Kattaqo’rg’on shahridagi imkoniyati cheklangan bolalar maktab-internatiga talabalar bilan amalga oshirgan tashrifimiz event-texnologiyalarining ijtimoiy-pedagogik samarasini yaqqol ko’rsatadi. Ushbu jarayonni pedagogik nuqtai nazardan quyidagicha tahlil qilish mumkin. Talabalar tomonidan o’z ixtiyori bilan yig’ilgan mablag’lar va sovg’a-salomlar shunchaki moddiy yordam emas, balki “mehr-shavqat” va “insonparvarlik” tushunchalarining amaliy ko’rinishi bo’ldi. Bu vaziyatga nazar solsak talabalar passiv tinglovchidan faol “ijtimoiy donor”ga aylandi. Talabalar va nuqsoni bo’lgan bolalar o’rtasidagi muloqot davomida “barqarorlik” va “bag’rikenglik” kabi axloqiy tushunchalar shakillandi va bu event-texnologiyasi talabalarning ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg’otish bilan birga, ularning pedagogic muloqot madaniyatini ham yuksaltirdi. Natijada ushbu tashrif orqali “Tarbiya” darslarda o’tiladigan insoniylik darslari real hayotiy tajribaga ko’chadi va bu talabalar uchun shunchaki bir kunlik tadbir bo’libgina qolmay, shuningdek ularning ijtimoiy dunyoqarashini o’zgartirgan “shaxsiyat transformatsiyasi” bo’lib xizmat qila oladi.

Alimov o’z asarida event-texnologiyalarining o’quvchilarning faolligini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. U qayd etishicha, bunday texnologiyalar o’quvchilarni o’z bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning o’z-o’zini rivojlantirishga o’rganilayotgan mavzularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, shuningdek, o’zaro muloqot qilish orqali o’quvchilar bir-biridan yangi bilimlarni olishadi va bu ularning kognitiv va kommunikativ qobilyatini oshiradi.

Event-texnologiyalarning ijtimoiy faollikdagi o’rni:

1. **Nazariyadan amaliyotga o’tish:** Tarbiya darslarida o’tilgan axloqiy tushunchalar (insonparvarlik, halolik, adolat) qog’ozday qolmay, balki uni maqsadli tadbir (volontyorlik qulubi yoki xayriya jamg’armasi) orqali hayotga tatbiq etish.
2. **Kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish:** Tadbirni tashkil etish jarayonida o’quvchilar o’zaro muloqotga kirishishishga, muzokara olib borishga va hamkorlikda ishlashga majbur bo’ladilar, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.
3. **Liderlik va tashabbuskorlik:** Event-texnologiyalar o’quvchilarga tashkilotchi yoki yetakchi sifatida o’zini namoyon qilish imkonini beradi. Bu ularning o’ziga bo’lgan ishonchini va jamiyatdagi muammolarga befarq emasligini shakillantiradi.
4. **Emotsional bog’liqlik:** Tadbirlardagi yorqin emotsional muhit dars samradorligini oshiradi va o’quvchining ijtimoiy faoliyatga bo’lgan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda “Tarbiya” fani darsliklarida berilgan mavzularni faqat nazariy o’zlashtirish ijtimoiy faollik uchun yetarli emas, chunki zed va alfa avlodlar axborotni tez va qismlar asosida o’rganishi tahliliy tafakkurni susayishiga olib kelmoqda. O’quvchilar uzun matn va murakkab axloqiy tudhunchalarni o’qishda va tushunishda qiynaladilar va undan ko’ra visual content va multimediyalarni Afzal ko’radilar. Shuning uchun tarbiya darslarida axborotni kichik, amo mantiqiy bog’langan qismlar shaklida berish va har bir qismdan so’ng darhol amaliy jarayonni tashkil qilish zarur. Shu sababli, ta’lim tizimida 'passiv tinglovchi' modelidan 'aktiv ishtirokchi'

modeliga o‘tish davr talabidir. Z va alfa avlod vakillari axborotni vizual va interaktiv shaklda qabul qilishga moyil bo‘lgani uchun, dars jarayonida raqamli texnologiyalar va 'Event-education' (Voqeaviy ta’lim) metodlaridan foydalanish tahliliy tafakkurni qayta tiklashga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchida axloqiy tushunchalarning shunchaki xotirada saqlanishini emas, balki uning xulq-atvoriga ko‘chishini ta’minlaydi. Yana bir tomondan qaraydigan bo’lsak zamonaviy tarbiyada natija emas balki amaliy jarayon muhimdir. Bunga sabab tarbiya bu shunchaki qoidalar yig’indisi emas, balki ijtimoiy tajriba. O’quvchi “mehr-shavqatli bo’lishi kerak” degan gapni yodlagan bilan real loyihalarda (masalan, xayriya ishlari) qatnashishi orqali o’zlashtirish o’rtasida katta farq bor. Ya’ni event texnologiyalari orqali darsni oddiy ma’ruza shaklida olib borishdan ko’ra, o’quvchining his-tuyg’usiga ta’sir qiladigan maxsus “voqea” sifatida tashkil etish samaralidir.

Taqqoslash mezoni	An’anaviy dars	Event-texnologiyasi
O’quvchining roli	Passiv tinglovchi va ma’lumot qabul qiluvchi	Aktiv va voqea qahramoni
Bilim berish shakli	Ma’ruza, darslikdagi matnni o’qish	Ssenariy asosidagi jarayon, real vaziyat
Asosiy maqsad	Ma’lumotni yodlash va qayta aytib berish	Shaxsiy tajriba orttirish va xulosa chiqarish
Xotira turi	Qisqa muddatli mantiqiy xotira	Uzoq muddatli emotsional xotira
Texnologiyadan foydalanish	Ko’rgazzmali qurol sifatda	Jarayonni boshqarish va interaktiv vosita sifatida
Natija	Naariy bilim	Ko’nk va malaka

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, voqeaviy ta’lim o‘quvchini shunchaki bilim egasiga emas, balki ijtimoiy jarayonlarning faol sub’ektiga aylantiradi. Bu esa 'Tarbiya' fani darsliklaridagi nazariy mavzularni hayotiy ko‘nikmalarga aylantirishning eng maqbul yo‘lidir.

ulosa. Event texnologiyasini “Tarbiya” fanida qo’llashdan maqsad dars jarayonida barcha o’quvchining faolligini taminlash vas hu bilan birgalikda har bir o’quvchining nazariy bilimga tayanib qolmasdan uni hayotiy vaziyatlarda ham qiynalmasdan qo’llay olish. Undan tashqari zamonaviy o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi (informator) emas, balki o‘quvchining amaliy faoliyatini boshqaruvchi (fasilitator) bo‘lishi lozim. Shundagina 'Tarbiya' fani hayotdan uzilib qolgan nazariya emas, balki shaxsni jamiyatga tayyorlovchi real vositaga aylanadi.

Foydalnilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 822-son q.
2. R. Ishmuhamedov, M. Abduqodirov, A. Pardaev. "Ta’limda innovatsion texnologiyalar" (Amaliy tavsiyalar). — Toshkent: 2008.
3. D. Bozorboyeva “TArbiya fanini o’qitishda event ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” Iqro jurnali-2025

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELEKTUAL RIVOJLANISHIDA STEAM YONDASHUVINI

To‘ychiyeva Sevinchoy Do‘stmurod qizi
KDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishida STEAM yondashuvining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. STEAM ta’limining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va fanlararo integratsiyaning bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, STEAM*

texnologiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llashning metodik asoslari, amaliy misollar va an’anaviy ta’lim bilan qiyosiy tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *STEAM yondashuv, maktabgacha ta’lim, intellektual rivojlanish, tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, fanlararo integratsiya.*

Jamiyatning jadal texnologik rivojlanishi va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi oldida yangi avlodni XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yetuk kadrlar sifatida tayyorlash vazifasi turibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ularning kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyati va hayotiy kompetensiyalarining poydevori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, STEAM yondashuvi maktabgacha ta’lim tizimida dolzarb pedagogik texnologiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida STEAM ta’limi yaqin vaqtda maktabgacha ta’lim tizimiga ham keng joriy etilmoqda. STEAM yondashuvi nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgatadi, balki amaliy, ijodiy va innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida ham STEAM yondashuvlarini joriy qilish maqsadida ko’plab targ’ibot ishlari olib borilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 29- apreldagi 229- sonli qarori[1]da maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2022-2023 o’quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich to’liq STEAM yondashuvi asosida mashg’ulotlar o’tilishini yo’lga quyish bo’yicha vazifalar yuklatildi.

STEAM yondashuvining mohiyati va tarkibi

STEAM ta’limi – bu STEM fanlarini (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) badiiy ko‘nikmalar, jumladan, ijodiy fikrlash va dizaynni ham o‘z ichiga oluvchi yondashuvdir. STEAM atamasi „STEM“ qisqartmasiga san’atni anglatuvchi „A“ harfi qo‘shilishi orqali hosil qilingan. Ushbu yondashuvda fanlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘qitiladi.

STEAM ta’limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarga innovatsion fikrlashni, tanqidiy mulohaza yuritishni, real hayotdagi muammolarga muhandislik yoki texnologiyalardan ijodiy yondashuvda foydalanishni o‘rgatishdir. Bu yondashuv nafaqat bilim berish, balki bolani fikrlashga, izlanishga va muammoni hal qilishga o‘rgatishga qaratilgan.

STEAM yondashuvining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

· nazariya va amaliyot uyg‘unligi;
· loyiha asosida o‘qitish;
· jamoada ishlash;
· ijodiy va tanqidiy fikrlash;
· real hayotiy muammolar bilan ishlash.

STEAM yondashuvining nazariy asoslari

STEAM yondashuvining maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojlanishiga ta’sirini tushunish uchun bir qator nazariy qarashlarni tahlil qilish zarur. J. Piaget nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh) “operatsiyadan oldingi bosqich”da bo‘lib, ular mavhum tushunchalarni emas, balki konkret, amaliy harakatlar orqali dunyoni o‘rganadilar. Aynan shu bosqichda bolalarning intellektual rivojlanishida o‘yin va amaliy faoliyat asosiy o‘rinni egallaydi. H. Gardnerning “Turfa zakovatlar” nazariyasi ham STEAM yondashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda inson intellektining bir nechta mustaqil turlari – lingvistik, mantiqiy-matematik, vizual-fazoviy, musiqiy, tana-kinestetik, interpersonal, intrapersonal va tabiiy intellektlar ajratilgan. STEAM ta’limi fanlararo integratsiya orqali ushbu intellekt turlarining ko‘pchiligini rivojlantirishga imkon yaratadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi bolalarda kreativlik, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga, shuningdek, izlanishga asoslangan fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvining maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojlanishiga ta’siri quyidagicha:

STEAM texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini yosh xususiyatlari asosida rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o‘z ichiga oladi.

[1] Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 29- apreldagi 229- sonli qarori

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi bolalarning quyidagi intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- Tanqidiy fikrlash qobiliyati. Tanqidiy fikrlash qobiliyati erta bolalik davrida, Piaget ta’riflagan sensorimotor va operatsiyadan oldingi bosqichlardayoq rivojlana boshlaydi. Agar bu davrda tanqidiylikni rivojlantiruvchi rag‘batlantirish vositalari (o‘yin qurollari, metodlar, materiallar, texnologiyalar) mavjud bo‘lmasa, kelajakda bu muhim qobiliyatni rivojlantirish imkoniyati yo‘qolishi mumkin. STEAM ta’limi orqali bolalar ma’lumotlarni tahlil qilishga, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga, turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqishga va oqilona qarorlar qabul qilishga o‘rganadilar.
- Kreativ (ijodiy) fikrlash. STEAM yondashuvi o‘quvchilarni ijodiy yechimlar izlashga, yangi g‘oyalar yaratishga va innovatsion loyihalar ishlab chiqishga undaydi. Bir tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, STEAM asosidagi blok-qurilish o‘yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvuri va ijro qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu uzoq muddatli tadqiqot 119 nafar 3-6 yoshli bolalar ishtirokida o‘tkazilgan va natijada bolalarning tasavvur qobiliyatini rivojlantirishda gender farqlari sezilmagan.
- Muammolarni hal qilish qobiliyati. STEAM yondashuvi orqali bolalar hozirgi hodisalarning mantiqiy mohiyatini chuqur o‘rganishlari, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari, dunyoni tizimli ravishda anglashlari mumkin. Shu jarayonda bolalarda muhandislik uslubidagi fikrlash, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.
- Algoritmik va kompyuterga oid fikrlash. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar maxsus tayyorlangan dasturlash faoliyatlari orqali “oldinga harakatlanish”, “orqaga harakatlanish”, “o‘ngga burilish”, “chapga burilish” kabi asosiy algoritmik tushunchalarni o‘zlashtira oladilar. Bu esa bolalarning kelajakda texnologik savodxonlik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.
- Hisoblash va fazoviy tafakkur. STEAM mashg‘ulotlari jarayonida bolalar oddiy matematik amallarni o‘zlashtiradilar, o‘lchash, hisoblash, taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Misol uchun, “Quyosh shahri” loyihasida bolalar quyosh energiyasidan foydalanadigan binolar qurish orqali materiallarni o‘lchash, energiya turlarini o‘rganish, muhandislik asoslarini tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

STEAM yondashuvining an’anaviy ta’limdan farqi shundan iboratki, an’anaviy ta’limda asosan yodlash va qayta aytish ustun bo‘lsa, STEAM ta’limida tushunish, yaratish va qo‘llash asosiy o‘ringa chiqadi. An’anaviy yondashuvda tayyor bilim berishga urg‘u berilsa, STEAM ta’limida o‘quvchi tayyor javobni olmaydi – u savol beradi, taxmin qiladi, sinovdan o‘tkazadi va xulosa chiqaradi. Bu jarayon mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘zbekiston maktabgacha ta’limida STEAM metodologiyasini joriy etish uchun xorijiy tajribani tanqidiy va ijodiy o‘rganish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida STEAM texnologiyalarini joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda STEAM innovatsion ta’lim markazlari ochilmoqda, bu markazlarda maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yinlashtirilgan o‘quv qurilmalari yordamida kreativ fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimida “STEAM” g‘oyalar festivali kabi tadbirlar o‘tkazilib, bu yerda ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviylikni mustahkamlash, innovatsion g‘oya va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilanmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishida STEAM yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolalarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, algoritmik va fazoviy tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni rivojlantiradi. STEAM ta’limi fanlararo integratsiya va loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilib, bolalarning

izlanish, kuzatish va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi qo‘llaniladigan guruhlardagi bolalar bilan qo‘llanilmaydigan guruhlardagi bolalar o‘rtasida intellektual rivojlanish darajasi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. Bolalar maktabgacha ta’limdan boshlab STEAM metodologiyasi asosida o‘qitilsa, ularning XXI asr ko‘nikmalarini egallash imkoniyatlari ortadi. Biroq, STEAM yondashuvini maktabgacha ta’limda keng joriy etish uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish kabi bir qator vazifalarni hal etish talab etiladi. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida STEAM metodologiyasini joriy etish orqali intellektual salohiyatli, ijodiy fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 29- apreldagi 229- sonli qarori.
2. Hamroyeva, S. Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta’lim moduli sifatida. – Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.
3. Durakovik, A. Primjena STEAM pristupa u ranom i predškolskom obrazovanju: pregled teorijskih okvira i praktičnih primjena, 2025.
4. STEAM ta’lim nima va u maktabga nima beradi? – Muallimlar.uz, 2026.
5. Abdumajitova, S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM o‘qitish texnologiyasi. – Zenodo, 2022.
6. Yunusov, A. O‘zbekiston maktabgacha ta’limida STEAM metodologiyasini joriy etish bo‘yicha Yevropa mamlakatlari tajribasini ijodiy o‘rganish masalalari, 2023.
7. Ne’matova, L. va boshq. STEAM orqali o‘quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – Universal jurnal, 2025.
8. Qulmuminov, O‘., Panjiyeva, X. STEAM va an’anaviy yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish, 2025.
9. N. Ismailova, “ Maktabgacha ta’limda STEAM texnalogiyalari” “Namangan” 2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI

Xolboyeva Gullola

KDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya*: Elkonin, Jurova, Bojovich, maktabgacha yoshdagi bolalarni , maktab ta’limiga tayyorlashning asosiy yo’nalishlari aks etilgan , va bolalarni nutqini rivojlantirish, jismonan rivojlantirish , ma’nan rivojlantirish , bolalar bilan individual ish ota -ona bilan ishlash, bilish jarayonlarini rivojlantirish*

Kalit so’zlar*: bola, ta’lim-tarbiyaviy, vatanparvarlik, maktab, jismoniy , shaxsiy, aqliy , maxsus tayyorgarlik, metod, harakatlari, yetuklik, intellektual, muassasa, ota-onalar , talab, barkamol, poydevor,*

Maktabdagi majburiy ta’lim bolaga ma’lum talablarni qo’yadi. Ma’lumki, bola ta’lim – tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin. Bu jarayonda tarbiyalanuvchini yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning ahamiyati o’rganilgan. Har qanday pedagogik vositalardan foydalanmay , bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba’zi ota-onalar ham bola qanchalik sog’lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o’qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi.

MTT tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to’g’ri aniqlashda yetarli pedagogik , texnologik psixologik bilim va tajribalariga ega bo’lishlari kerak, bunda ular MTTda ta’lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo’lsa , uning jismoniy va aqliy

rivojlanishiga hech qanday kuchli ta’sirlar bo’lmagan bo’lsa, unda bola 7 yoshda ta’lim olish darajasiga yetadi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug’ullanuvchilar asosiy shart hisoblanadi. Bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko’prik vazifasini o‘tashini, oila yoki maktabgacha ta’lim tashkilotdagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limga ozorsiz o’tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. ”Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo’nalishlarini o’z ichiga oladi:

- jismoniy
- shaxsiy [ruhiy]
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog’lomligi, harakat ko’lamlari va sifati, qo’l mushaklari va ko’rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o’simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o’z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta’lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko’proq bog’liq bo’ladi. Chunki butun o’quv faoliyati shularga, ya’ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojllanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o’z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o’zaro bog’langan jihatlarda: “Maktabga o’qishga umumiy psixologik tayyorgarlik”, “Maxsus tayyorgarlik” tarzida ko’rib chiqiladi. Bog’cha bolasi kun bo’yi tuzilishi va muntazam qiziq bo’lgan turli xil faoliyatlar bilan shug’ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli o’qitish egallaydi, bundan tashqari, kunning ikkinchi qismida ham ma’lum vaqtini darslarni tayyorlashga ajratishi kerak. Bolaning yaxshi o’qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira, va funksiyalari hamda aqliy faoliyati bilan shug’ullanish odatlari ta’sir qiladi. 7 yosh - bola yangi sharoitga tez o’rganadigan va o’qish jaroyonida muvoffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma’lum bir tomoniga (asosan, aqliy) yo’naltirish berishga alohida e’tibor berish kerak. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, asosan , maktab ta’limiga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

- Bolalarni nutqini rivojlantirish .
- Jismonan rivojlantirish.
- Ma’nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim- tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari sog’lom va yetuk , maktabga , o’qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir. Bundan tashqari, Maktabga tayyorgarlikning asosiy vazifalari ham bor:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy me’rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g’urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o’qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta’lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

- balalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o'rgatish bo'yicha olib boriladigan ishlar **D.B.Elkonin** ishlab chiqqan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka o'rgatishning bog'cha yoshiga mo'ljallangan shakl va medodlari **D.B Elkonin** metodi asosida **L.E .Jurova** tomonidan ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, bolaning ijtimoiy holati ham bor. Maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada "katta" deb hisoblanadi ---- maktabga o'tgach, ular yana "eng kichkinalar " qatoriga tushib qoladi.

O'quv faoliyatini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan asoslarni tahlil qilgan holda **D.B.Elkonin** va uning xodimlari birinchi o'rinda quyidagilarni qo'yadi:

- Bolalarning o'z harakarlarini harakat usulini umumlashtirgan holda aniqlab beruvchi qoidaga ongli ravishda bo'ysundira olish;
- Berilgan talablar tizimida harakat qila olish;

Bolaning maktabga yetukligi deb, uning maktab sharoiti, o'quv-tarbiya jarayonining davomiyligi va tartib, aqliy va ijtimoiy talablarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy imkoniyatlarning yetukligi.
2. Ijtimoiy- ruhiy imkoniyatlarining yetukligi.

L.I.Bojovich maktabga psixologik tayyorgarlikning ikki jihatini ko'rib chiqadi: **shaxsiy** va **intellektual tayyorgarlik** . Maktabga intellektual tayyorgarlikni tavsiflashda bola tasavvurlarining miqdoriy zaxirasiga emas, balki uning intellektual jarayonlari rivojlanishi darajasiga e'tibor beriladi. Agar bola atrof muhitdagi narsa va hodisalarni umumlashtirish va farqlash qobiliyatiga ega bo'lsa, maktabga intellektual tayyordir.

Xuddi shunday mas'uliyat ota-onada ham bo'lishi lozim. Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga o'quv-metodik va ilmiy-innovatsion yondashuvdir. To'g'ri yo'sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va mustaqil hayotga dadil qadam qo'yishga tayyor bo'ladi. Albatta, agar bola sport va jismoniy tarbiyaga chuqur jalb qilingan bo'lsa, unda quyidagi ijobiy fazilatlar paydo bo'ladi.

- yozuvdan charchamaydi;
- e'tiborli bo'ladi;
- ijodkorlik bilan yondashadi.
- o'rganayotgan va o'qiyotgan ota-ona hamda ustozni hurmat qiladi.

Xulosa tariqasida aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash - bu faqat savod o'rgatish emas, balki bolaning intellektual, psixologik, ijtimoiy va jismoniy jihatdan kompleks rivojlanishni ta'minlash jarayonidir. To'g'ri tashkil etilgan tayyorgarlik kelajakdagi o'quv muvaffaqiyatining mustahkam poydevorini yaratadi va shaxsning barkamol shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xolboyeva. G. A. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma T.: "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK NASHRIYOTI, 2024.- 186 bet.
2. Абрамова Г.С. Возрастная психология М.: 2001
3. Davletshin M.G. va boshqalar "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya".T.: TDPU 2004
4. Dusrmixamedova SH.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH.T., Alimbaeva SH.T. Yosh davrlaii va pedagogik psixologiya.- T.; Рал vatexnologiyamarkazining bosmoxcnasi.-2013. -344 b.
5. Кайл Р. Детская психология; Тайны психики ребенка. -СПб.: прайм - ЕВРОЗНАК.2002.-416с.
6. Лесгафт П.Ф. "Во:*растная и педагогическая психология" М.: 1991

7. Немов Р.С. Псш:ология..-М.: ВЛАДОС. Кн.2. Психология образования, 2003. -(508 с.
8. Nishonova Z.T., .Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”. T.: 2005
9. Соколова У.Э. “Псгосология развития человека” М.:2001
10. Шаграева О.А. Детская психология.: Теоретический и 1фактический курс. -- М.: ВЛАДОС. 2001.-368 с.
11. Goziev E.G “Ontogenez psixologiyasi”. T.: Ноши]р. 2010
12. Юнона Н.И. “Психологическая готовность ребенка к обучению в школе” М.:2003

O‘QITUVChILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANIShGA MOTIVASION TAYYORGARLIGI

Xushmurodova Nigina
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi

Annotasiya. *Maqolada bugungi kun ta’lim jarayonidagi o‘ziga xosliklar, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan munosabat va uning tadqiqiga tegishli qarashlar, shuningdek, xalq ta’limi pedagog xodimlarining o‘z-o‘zini rivojlantirishga, kasbiy-metodik mahoratini oshirishga motivasion tayyorligini o‘rganishga doir ba’zi mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *moslashuvchanlik, ehtiyoj, kasbiy rivojlantirish, ruhiy holat, motivasiya.*

Respublikamizda davlat siyosatining ta’limga qaratilganligi, yangi chaqiriq va standartlar, jumladan, zamonaviy jadal taraqqiyotga erishish uchun amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar nuqtai nazaridan pedagogik faoliyat murakkablashuvi paydo bo‘ldi va natijada o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati hamda moslashuvchanligiga ehtiyoj kuchaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatiga innovasiyalarni joriy etish zarurati bir qator sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, jumladan, ta’limni shaxsga yo‘naltirish va insonparvarlashtirish, umumiy o‘rta ta’lim uchun milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi munosabati bilan o‘quv jarayonini rejalashtirishga yondashuvlarning o‘zgarishi, boshlang’ich va umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim dasturlari mazmunini yangilash, ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, inklyuziv ta’limni joriy etish, umuman, ta’lim sifatini oshirish. Shunga ko‘ra, pedagog kadrlarning malakasiga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda, umumta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzluksiz malaka oshirish masalalari yangilanmoqda. Bunday holatda eng muhim omil o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish masalasi bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda ta’lim taraqqiyotiga erishish borasidagi eng keng tarqalgan nazariyalardan biri xalq ta’limi pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘lib, uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) maktablarda ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, degan tendensiyadir. UKR darajasiga erishgan o‘qituvchilarning ta’kidlashicha, doimiy erishilgan tajriba o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, kompetentligi va mahoratini yaxshilaydi, bu esa ularning sinfdagi amaliyotini ijobiy jadallashtiradi, bunday uzviylik o‘z navbatida o‘quvchilarning natijalarida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi .Ta’lim rivoji uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o‘zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o‘qituvchilarda o‘zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o‘quv mashg’ulotlari, o‘quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda kontekstlarini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Olib borayotgan ushbu tadqiqotimiz yo‘nalishida tavsiflovchi va korrelyasion, tadqiqotlar ustunlik qilsa-da, o‘rganilgan tadqiqot ishlari ichida ba’zi bir eksperimental ishlar ham mavjud. Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta’siri bo‘yicha bir qator amaliy tadqiqotlar, korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontentga e’tibor, faol o‘rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok.

O’rganishlarimizga ko‘ra, bizningcha, o‘qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivasiyasi bo‘lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag’batlantiradi. O’qituvchilarni uzluksiz kasbiy o‘sishga bo‘lgan motivasiyasi ma’lum bir ta’lim tashkilotining ta’lim amaliyotiga innovasiyalarni kiritish va umuman butun ta’lim tizimini modernizasiya qilishning zarur shartidir. Ko‘pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o‘qituvchining to‘g’ri rivojlanayotgan motivasion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo‘nalishidir. K.Ye. Izard insonning birlamchi motivasion tizimini tashkil etuvchi hissiyotlar inson xulq-atvorida, uning shaxsiy rivojlanishida va dunyo bilan munosabatlarida tashkilotchi omil bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. P.Taker va D.Stronglar o‘qituvchi faoliyatining samarali bo‘lish shartlarini hisobga olib, uning motivasiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydilar.

O’qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivasion tayyorgarligini o‘rganish ta’lim siyosatidagi tashabbuslar va o‘qituvchilarning doimiy kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish motivasiyasi darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. O’qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishga tayyorligi masalasi, ayniqsa, ta’lim natijalari past bo‘lgan maktablarda keskin past darajada ekani ma’lum. Ushbu maktablarning o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish imkonini beradigan turli xil usullar, texnologiyalarni tanlab olishlari va amalga oshirishlari kerak, masalan, maktab kontingenti orasida og’ir ijtimoiy sharoitda bo‘lgan o‘quvchilarning mavjudligi, qiyin hayotiy vaziyatlar, o‘zbek tilining ona tili emasligi va boshqalar.

Taqiqotimiz doirasiga kiritilgan ta’lim tashkilotlari bilan samarali ishlashni tashkil etish, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy ta’limga tayyorligining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq anglash niyatida hududiy markazlarga malaka oshirishga jalb etilgan pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy ta’lim rivojlanishiga ta’sir etuvchi motivasiyasi o‘rganildi hamda ma’lum bir xulosalarga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Desimone, L. M. (2009). Improving impact studies of teachers’ professional development: Toward better conceptualizations and measures. Educational Researcher, 38(3), 181-199. doi:10.3102/0013189X08331140

2. Pamela D. Tucker, James H. Stronge. Linking teacher evaluation and student learning. / Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development, 2005. 132 r.

3. Su Y., Feng L. & Hsu C. Accountability or authenticity? The alignment of professional development and teacher evaluation // Teachers and Teaching, 23(6). 2017. R. 717–728, doi: 10.1080/13540602.2016.1255189.

O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNI DIAGNOSTIKA QILISH VA PROFILAKTIKA QILISH TEXNOLOGIYALARI

Sadinova Zarina Sirojiddin qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti, 3-bosqich talabasi
zarinasadinova7@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy stress va kasbiy burnout muammosi hamda ularning oldini olish yo‘llari yoritilgan. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida stressga olib keluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, stressni kamaytirish va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola o‘qituvchilarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan.*

Kalit so’zlar: *burnout, kasbiy stress, psixologik barqarorlik, boshlang’ich sinf, kasbiy faoliyat, trening, tajriba.*

So’nggi yillarda burnout atamasiga ko’p duch kelinmoqda. Xususan, bu holatga boshlang’ich sinf o’qituvchilari ham o’z ish faoliyatlari davomida duch kelmoqda. Kasbiy stress

nafaqat o’qituvchining ish faoliyati va sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatadi, balki, o’quvchilarning ham psixologiyasiga, ham ijtimiy va hissiy rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo’ladi. O’qituvchining ruhiy holati va ishga bo’lgan munosabati sinfdagi muhitga juda katta ta’sirini ko’rsatadi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kasbiy stressning yuzaga kelish manbalari sifatida quyidagilar keltiriladi:

1. O’quvchilarning noto’g’ri xulq-atvori;	2. Hamkasblar, ota-onalar va maktab ma’muriyati bilan kelishmovchiliklar
3. Vaqtni boshqarish;	4. Professional tan olinmaslik;
5. Ish hajmining ko’pligi;	6. Ishlash uchun cheklovlar.


Kasbiy stressni yengish bo’yicha ishlar Selyening stressni kashf etganidan deyarli 40 yil o'tgach, tadqiqotchilar stress haqida stress va uni yengish paradigmasi doirasida o'ylay boshlagangan. Lazarus va Folkman (1984) birinchi bo'lib shaxslardan hayotlarining sohalari haqida so'rashdi va shu bilan stress uchun kontekstning muhimligini ta’kidlashdi. Lazarus va Folkmanning (1984) modeli shaxsning qabul qilingan psixologik stressi, uni yengish va kognitiv baholashlari o’rtasidagi o'zaro bog’liqlikni ta’kidladi: nima sodir bo’ladi, u bilan qanday kurashadi va nima bo’layotgani haqida nima deb o’ylaydi. Stress, uni yengish va kognitiv baholashlar o'zaro bog’liq va stress jarayonini tushunishimiz uchun muhimdir.Shungidek, Stress va unga dosh berishni ajratish qiyin va birinchi marta biron bir stressga duch kelmasdan turib, unga dosh berishga urinish zarurligini tasavvur qilish qiyin. Darhaqiqat, unga dosh berish ko’pincha qiyin vaziyatni tahdidni bartaraf etadigan yoki hech bo’lmaganda uning shaxsga ta’sirini minimallashtiradigan tarzda hal qilishga urinish sifatida qaraladi. Bu urinishlar stressli vaziyatni boshqarish uchun kognitiv va xulq-atvor strategiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Lazarus va Folkman (1984) turli xil keng turdagi yengish usullarini taklif qilishdi. Boshlang‘ich sinf o’qituvchilarida kasbiy stress — juda dolzarb muammo. Uni oldini olish uchun yondashuvlar psixologik, tashkiliy va shaxsiy rivojlanish yo’nalishlarida olib boriladi. Psixologik yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

1. **Emotsiyalarni boshqarish:** tez jahl chiqib ketish holatlarida o’zni tuta bilishlik; eshitgan xabarlariga kuchli hayajonlanib yubormaslik; salbiy narsalarni va his-tuyg’ularni ichda saqlamaslik.
2. **Relakatsiya usullari:** nafas mashqlari va meditatsiya. To’gri nafas olish ushbu jarayon uchun juda muhim. Kuchli asabiylashish vaqtida 10 sekund nafas mashqi bilan shug’ullanish ichda stressning to’planib qolishini kamaytiradi yoki yo’q qiladi.
3. **Pozitiv fikrlashni rivojlantirish.**
4. **Zarur bo‘lsa, psixolog bilan ishlash.**

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatni to’g’ri tashkil qilinmasligi sababli ham stressning kelib chiqishi kuchayadi. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari quyidagi jarayonlarga e’tiborli bo’lishlari va to’g’ri rejalashtirishlari orqali turli noqulay vaziyatlarning oldini olishlari mumkin:

1. Dars jarayonini oldindan rejalashtirish;
2. Ish va dam olish vaqtini to’g’ri taqsimlay olish;
3. Ortiqcha vazifalarni kamaytirish;
4. Berilgan vazifa va topshiriqlarni vaqtida bajarish, oxiriga olib qo’ymaslik;
5. Sinfda to’g’ri munosabatni yo’lga qo’yish;
6. Ota-onalar bilan hamfikrlikni tashkil qilish;
7. O’quvchilarning barchasini darsga qiziqishini oshira bilishi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishi uning pedagogik faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab borish o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, dars jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Natijada, o‘qituvchi kasbiy stressni kamroq his qiladi va o‘z faoliyatidan ko‘proq qoniqish oladi. Malaka oshirish kurslari o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini yangilash va zamonaviy talablar asosida rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchiga dars jarayonida ishonch bilan ishlash imkonini beradi va noaniqlikdan kelib chiqadigan stressni kamaytiradi. Ushbu kurslar orqali o‘qituvchi:



Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimedia vositalari darsni jonlantiradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Bunday yondashuvlar o‘qituvchining ishini yengillashtiradi, darsni samarali tashkil etishga yordam beradi va ortiqcha ruhiy zo‘riqishni kamaytiradi.

Masalan:

1. Guruhli ishlash metodlari;
2. Muammoli ta’lim (problem-based learning);
3. O‘yinli texnologiyalar.

Tajriba almashish o‘qituvchining kasbiy o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Tajriba almashish orqali o‘qituvchi boshqa pedagoglarning ish uslublarini o‘rganadi, o‘z faoliyatiga yangi g‘oyalarni joriy etadi. Bu esa kasbiy yakkalanishni kamaytiradi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Bu jarayon quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Seminar va treninglarda ishtirok etish;
2. Ochiq darslar o‘tkazish va kuzatish;
3. Metodik birlashmalarda faol qatnashish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy stressni oldini olish — ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Buning uchun o‘qituvchi o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishi, psixologik barqarorlikni rivojlantirishi va sog‘lom turmush tarziga amal qilishi zarur. Shuningdek, ta’lim muassasalari tomonidan o‘qituvchilarga qulay sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Ularni ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarur. Natijada, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligi ortadi, bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company. (Stress va unga moslashish nazariyasining asosiy asari)
2. Kyriacou, C. (2001). "Teacher stress: Directions for future research". Educational Review, 53(1), 27-35-betlar.
3. Richards, J. (2012). "Teacher Stress and Burnout: A Critical Review of the Literature". Journal of Educational Psychology, 104, 121-139-betlar.
4. Jennings, P. A., & Greenberg, M. T. (2009). "The Prosocial Classroom: Teacher Social and Emotional Competence in Relation to Student and Classroom Outcomes". Review of Educational Research, 79(1), 491-525-betlar.
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun stressni boshqarish va psixologik barqarorlik. Yangi O’zbekiston pedagogikasi axborotnomasi.3-jild 11-son. Kabilova Surayyo A’zamjonovna

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Komolova Iroda
KDPI "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
***Dagarova Aziza**, 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Unda milliy qadriyatlar va an'analarning milliy o'zlikni anglash hamda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli ta'kidlanadi. Tadqiqot milliy merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali pedagogik yondashuvlari va usullarini tahlil qiladi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning vatanparvarlik qadriyatlarini singdirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xulosada O'zbekistonning noyob madaniy-tarixiy merosiga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, Milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, milliy o'zlik, pedagogika, ta'lim*

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lgan milliy qadriyatlar va an'analarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishning asosiy garovidir. Vatanparvarlik esa davlat barqarorligi va xavfsizligining muhim omili bo'lib, u yoshlikdan oila, maktab va harbiy xizmat orqali sadoqat, milliy g'urur va fidoyilikni singdirishni maqsad qiladi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan etnik xususiyatlar majmuidir. Ular til, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Millatning o'z-o'zini hurmat qilishi milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashdan boshlanadi. Shu nuqtai nazardan, vatanparvarlik shunchaki his-tuyg'u emas, balki chuqur ildiz otgan milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan ongli faoliyatdir. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashda ta'lim va tarbiyaning hal qiluvchi o'rni bor.

Ushbu maqola milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini, pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullarini atroflicha o'rganishga qaratilgan. Unda milliy qadriyatlarning vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni va funksiyalari, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi masalalari tahlil etiladi. Ta'lim orqali kasbiy bilimlar berishni tarbiya orqali vatanparvarlik kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish bilan uyg'unlashtirish harbiy vatanparvarlik tarbiyasining umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot milliy qadriyatlar zaminida mustahkam vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va falsafa sohalarida keng ko'lamli tadqiqotlarga mavzu bo'lib kelgan. So'nggi yillarda globallashuv jarayonlarining kuchayishi va mafkuraviy tahdidlarning ortishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirdi, bu esa olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda yoshlar tarbiyasidagi o'rni bo'yicha turli yondashuvlar va nazariyalar shakllangan.

Xususan, milliy qadriyatlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar diqqatga sazovordir. IIAU.UZ portalida chop etilgan "Milliy qadriyatlar – millat ma'naviyatining ko'zgusi" nomli maqolada milliy qadriyatlar va an'analarni asrab-avaylashning zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishdagi hal qiluvchi ahamiyati

ta'kidlanadi. Ushbu manbada milliy qadriyatlarning xalqning tarixi, turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan etnik xususiyatlar majmuasi ekanligi, shuningdek, til, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida keng qamrovli tahlil etilgani qayd etiladi. Maqolada, shuningdek, millatning o'z-o'zini hurmat qilishi milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashdan boshlanishi g'oyasi ilgari suriladi, bu esa milliy o'zlikni anglash jarayonida qadriyatlarning fundamental rolini ko'rsatadi. O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida o'tkazilgan "Milliy qadriyatlar – millat ma'naviyatining ko'zgusi" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham ushbu yo'nalishdagi amaliy sa'y-harakatlarning bir ko'rinishi bo'lib, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan ta'lim muassasalarining faoliyatini aks ettiradi.

Vatanparvarlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tarbiyaviy jarayonlardagi ahamiyati Temirov O'lmas Hamidovichning "HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI" nomli maqolasida atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda vatanparvarlik davlat barqarorligi va xavfsizligining muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadini yoshlikdan oila, maktab va harbiy xizmat kabi institutlar orqali sadoqat, milliy g'urur va fidoyilik kabi fazilatlarni singdirishda ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv vatanparvarlikni shunchaki his-tuyg'u emas, balki chuqur ildiz otgan milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan ongli faoliyat ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashda ta'lim va tarbiyaning hal qiluvchi o'rni borligi alohida urg'ulangan.

Temirovning tadqiqoti harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy komponentlarini ham belgilab beradi, bularga g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, jismoniy va psixologik rivojlanish kiradi [2]. Muallif ilmiy adabiyotlar, huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalarni tarixiy, mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil qilish orqali ushbu ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganadi. Maqolada kasbiy bilimlar berishni tarbiya orqali vatanparvarlik kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish bilan uyg'unlashtirish harbiy vatanparvarlik tarbiyasining umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviy bog'liqligini va bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi masalasi muhim ahamiyatga ega. IIAU.UZ maqolasida ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga e'tibor qaratilgan bo'lsa .Temirovning ishi oila, maktab va harbiy xizmatning yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdagi rolini umumiy tarzda belgilab beradi. Biroq, ushbu hamkorlikning pedagogik mexanizmlari, innovatsion usullari va samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha chuqur tizimli tadqiqotlar hali ham yetarli emas.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola mavjud adabiyotlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga intiladi. Xususan, milliy qadriyatlar zaminida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullarini atroflicha tahlil qilish, shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini tizimli ravishda o'rganish orqali mavzuga yangicha yondashuvlarni taklif etish maqsad qilingan. Bu esa milliy qadriyatlarga asoslangan, mustahkam vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullarini atroflicha o'rganishga qaratilgan bo'lib, sifatli tadqiqot yondashuviga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yosh avlodda milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda milliy qadriyatlarning hal qiluvchi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash hamda bu jarayonni samarali tashkil etishning pedagogik-psixologik

mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining vatanparvarlik tarbiyasidagi o'zaro hamkorligining pedagogik mexanizmlari, innovatsion usullari va samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha chuqur tizimli tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ushbu metodologiya aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, mavzuni kompleks va tizimli o'rganishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va falsafa fanlarining milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, shaxs shakllanishi va tarbiya jarayonlariga oid fundamental qoidalari tashkil etadi. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyalari tadqiqotning metodologik bazasini mustahkamlaydi. Tadqiqotda quyidagi asosiy usullardan foydalaniladi: birinchidan, nazariy tahlil va sintez usuli orqali milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi, pedagogik, psixologik va sotsiologik jihatdan o'rganiladi. Bu jarayonda mavjud ilmiy adabiyotlar, jumladan, IIAU.UZ portalidagi "Milliy qadriyatlar – millat ma'naviyatining ko'zgusi" nomli maqola va Temirov O'lmas Hamidovichning "HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI" nomli tadqiqoti tanqidiy tahlil qilinadi. Ushbu manbalardagi asosiy g'oyalar sintez qilinib, mavzuga oid yangi yondashuvlar va ilmiy xulosalar shakllantiriladi, shu bilan birga, ularda yetarli darajada yoritilmagan jihatlar aniqlanadi va chuqurlashtiriladi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli vatanparvarlik tarbiyasining turli tarixiy davrlardagi va boshqa mamlakatlardagi tajribalarini o'rganish, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy jarayonlardagi o'rnini qiyoslash imkonini beradi. Bu usul orqali milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning eng samarali yo'llari va xususiyatlari aniqlanadi. Temirovning tadqiqotida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining xalqaro tajribalari umumiy tarzda ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, milliy qadriyatlar kontekstida qiyosiy tahlilni yanada chuqurlashtirish ushbu maqolaning muhim vazifalaridan biridir. Uchinchidan, tizimli yondashuv yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali tarbiya tizimining komponentlari (oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari) o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ularning funksional vazifalari va samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil etiladi.

To'rtinchidan, pedagogik modellashtirish usuli vatanparvarlik tarbiyasining samarali pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullarini nazariy jihatdan modellashtirish, ularning amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini asoslash uchun qo'llaniladi. Bu usul mavjud adabiyotlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi, chunki Temirov oila, maktab va harbiy xizmatning umumiy rolini belgilagan bo'lsa-da, ularning o'zaro hamkorligining aniq pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullari chuqur o'rganilmagan. Beshinchidan, induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg'unligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi. Umumiy nazariy qoidalardan xususiy pedagogik amaliyotga o'tish (deduksiya) va amaliy tajribalardan umumiy xulosalar chiqarish (induksiya) orqali mavzuning har tomonlama yoritilishi ta'minlanadi.

Tadqiqotning mantiqiy tuzilishi kirish qismida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilishdan boshlanadi. So'ngra, milliy qadriyatlarning vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni va funksiyalari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullari batafsil yoritiladi. Yakuniy bosqichda oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining vatanparvarlik tarbiyasidagi o'zaro hamkorligi masalalari tizimli tahlil qilinib, mavjud muammolarga yechim topishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu metodologiya tadqiqotning ilmiy yangiligini, nazariy va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki u mavzuga kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvni taklif etadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari va innovatsion usullarini atroflicha tahlil qilib, milliy qadriyatlarning yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdagi hal qiluvchi o'rnini ilmiy jihatdan asosladi. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish orqali samarali tizim yaratishning muhimligi ko'rsatildi. Tadqiqot mavjud bo'shliqlarni to'ldirib, barkamol, vatanparvar shaxsni shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuv va amaliy tavsiyalar ishlab chiqdi. Bu esa jamiyatda milliy o'zlikni anglash va fidoyilikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Lee, J. C. K., Kennedy, K. J., & Chan, C. C. K. (Eds.). Vatanparvarlikni ta'limda qayta o'ylash: Global istiqbollar. London: Routledge, 2020.

2 Khan, M. S. S. M. Yoshlar, Millatchilik va Ta'lim Siyosati. Cham: Palgrave Macmillan, 2021.

3 Lee, S. H., & Chan, C. C. K. (Eds.). Ta'lim va Milliy O'zlik 21-asrda: Global va Mahalliy Istiqbollar. Singapore: Springer, 2023.

4 Banks, J. A. Yoshlar, Fuqarolik va Ta'lim Global Davrda. New York: Routledge, 2020.

5 Al-Hroub, A. "BAA universitet talabalari orasida milliy o'zlik va vatanparvarlikni rag'batlantirish modelini ishlab chiqish." Ta'lim va O'qitish Jurnali, vol. 10, no. 1, 2021, pp. 1-15.

6 Tan, C. "Singapurda Vataparvarlik va Milliy O'zlikni anglash ta'limi: Tanqidiy sharh." Ta'limiy Sharh, jild. 73, son. 5, 2021, pp. 605-620.

7 Popescu, A. "Ta'limning milliy o'zlik va vatanparvarlikni shakllantirishdagi roli: Qiyosiy nuqtai nazar." Qiyosiy ta'lim jurnali, vol. 57, no. 2, 2021, pp. 187-204.

8 Ghaffar, A., & Khan, S. A. "Pokistonda milliy qadriyatlar, ta'lim va yoshlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilish." Ijtimoiy va Gumanitar fanlar jurnali, jild. 60, son. 1, 2022, bet. 101-115.

9 Volkov, V., & Klyucharev, G. "Rossiyada vatanparvarlik tarbiyasi: mafkura, amaliyot va jamoatchilik fikri." Rossiya ta'limi va jamiyati, jild. 63, son. 1-3, 2021, betlar. 1-20.

10Chen, X., & Wang, L. "An'anaviy madaniyatning Xitoyda yoshlar vatanparvarlik ta'limiga ta'siri." Xalqaro Xitoy ta'limi jurnali, vol. 10, no. 1, 2021, pp. 1-18.

KO‘RIB TUSHUNISH VA ESHITIB TUSHUNISHGA OID MATN, MASHQ VA TOPSHIRIQLARNING O‘QUVCHINING TUSHUNISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Mirzayeva Vasila Qamariddin qizi
Aralova Maftuna Zafar qizi
*KDPI boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi **3**-bosqich talabalari*
*vasilamirzayeva**45**@gmail.com* ***+998770970518***


Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ko‘rib tushunish va eshitib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish hamda ularning tushunish ko‘rsatkichlariga ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, vizual va auditiv materiallar asosida tashkil etilgan mashqlar hamda topshiriqlarning o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘rib tushunish, eshitib tushunish, vizual idrok, auditiv idrok, tushunish ko‘rsatkichlari, ta’lim samaradorligi, metodika, multimodal ta’lim.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni to‘g‘ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bu jarayonda ko‘rib tushunish va eshitib tushunish ko‘nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchi bilimni nafaqat o‘qish orqali, balki ko‘rish va tinglash orqali ham qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ta’lim jarayonida ushbu ikki ko‘nikmaning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasini oshirishga

xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu ko‘nikmalarni shakllantirish keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta’lim olishning muhim omili hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual va auditiv materiallar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi, ularning faolligini oshiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli mazkur maqolada ko‘rib tushunish va eshitib tushunishga oid matnlar, mashqlar va topshiriqlarning o‘quvchilarning tushunish ko‘rsatkichlariga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi hamda ularni rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi.

Ko‘rib tushunish va eshitib tushunish o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular o‘quvchining bilimni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil fikr yuritish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, axborotni faqat o‘qish orqali emas, balki ko‘rish va eshitish orqali ham chuqurroq o‘zlashtirish mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida vizual va auditiv materiallardan foydalanish o‘quvchilarning tushunish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Bu holat kognitiv psixologiya va pedagogika fanlarida olib borilgan tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan bo‘lib, unda inson miyasi bir vaqtning o‘zida bir necha sezgi organlari orqali kelayotgan axborotni yaxshiroq qayta ishlashi aniqlangan. Ko‘rib tushunish jarayoni o‘quvchining matn, rasm, diagramma, jadval kabi vizual materiallar orqali ma’lumotni idrok etishiga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual axborot miyada tezroq qayta ishlanadi va uzoq muddatli xotirada mustahkamroq saqlanadi. Masalan, ilmiy izlanishlarda berilishicha, o‘quvchi faqat matnni o‘qib o‘rgangan ma’lumotning taxminan 20–30 foizini eslab qoladi, agar shu ma’lumot rasm yoki grafik bilan birga berilsa, bu ko‘rsatkich 50–60 foizgacha oshadi(1-rasmga qarang).



Bu esa vizual materiallarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rasmli topshiriqlar, rangli diagrammalar va ko‘rgazmali vositalar orqali berilgan ma’lumotlar ularning tushunish darajasini sezilarli ravishda oshiradi. Chunki bu yoshdagi bolalar abstrakt fikrlashdan ko‘ra aniq va ko‘rinadigan obrazlar orqali tezroq o‘rganadi.

Eshitib tushunish esa o‘quvchining og‘zaki nutqni qabul qilish, uni anglash va qayta ifodalash qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayon til o‘rganishda, ayniqsa ona tili va xorijiy tillarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, o‘quvchilar eshitish orqali olingan ma’lumotning 40 foizigacha qismini samarali o‘zlashtira oladi, agar bu jarayon faol tinglash (savollarga javob berish, muhokama qilish) bilan birga olib borilsa, natija yanada yuqori bo‘ladi. Masalan, dars jarayonida o‘qituvchi tomonidan hikoya o‘qib berilgandan so‘ng o‘quvchilarga savollar berish, voqeani qayta hikoya qilish yoki asosiy g‘oyani aniqlash topshiriqlari berilsa, bu ularning eshitib tushunish ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Bu metodika nafaqat eshitish qobiliyatini, balki nutqni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va xotirani ham kuchaytiradi.

Ko‘rib va eshitib tushunishning uyg‘un holda qo‘llanilishi esa yanada samarali natija beradi. Bu borada mashhur pedagogik tadqiqotlar shuni isbotlaganki, multimodal ta’lim (ya’ni bir

nechta sezgi organlari orqali o‘qitish) o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini keskin oshiradi. Masalan, bir guruh o‘quvchilarga faqat matn orqali, ikkinchi guruhga esa matn bilan birga audio va vizual materiallar yordamida dars o‘tilganda, ikkinchi guruhning natijalari sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu holat o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, motivatsiyasini oshirish va mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi, chunki ba’zi o‘quvchilar vizual, boshqalari esa auditiv usul orqali yaxshiroq o‘rganadi. O‘quvchining tushunish ko‘rsatkichlarini aniqlashda bir nechta mezonlar muhim hisoblanadi. Birinchidan, o‘quvchi berilgan matn yoki eshitilgan nutqning asosiy mazmunini anglay olishi kerak. Bu eng muhim ko‘rsatkich bo‘lib, u o‘quvchining umumiy tushunish darajasini belgilaydi. Ikkinchidan, o‘quvchi ma’lumotni tahlil qila olishi, ya’ni asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajrata bilishi zarur. Uchinchi muhim ko‘rsatkich — qayta ifodalash qobiliyati bo‘lib, bunda o‘quvchi o‘z so‘zlari bilan mazmunni bayon eta oladi. To‘rtinchidan, o‘quvchi xulosa chiqarish, ya’ni berilgan axborot asosida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nihoyat, savollarga aniq va mantiqiy javob bera olish ham tushunish darajasining muhim belgisi hisoblanadi.

Amaliy tajribalar ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan tajribalarda faqat matn asosida dars o‘tilgan guruhda o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha bo‘lgan bo‘lsa, rasm va audio materiallar qo‘llanilgan guruhda yuqori natijalar qayd etilgan. Shu bilan birga, interaktiv mashqlar — masalan, rasm asosida hikoya tuzish, tinglangan matn yuzasidan savollarga javob berish, guruh bo‘lib muhokama qilish — o‘quvchilarning faolligini oshirgan va ularning tushunish ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilagan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, faqat passiv tinglash yoki o‘qish emas, balki faol ishtirok ham muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rib tushunish va eshitib tushunish o‘quvchilarning bilimni samarali o‘zlashtirishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun maxsus matnlar, mashqlar va topshiriqlardan tizimli ravishda foydalanish zarur. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, vizual va auditiv materiallarni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning tushunish darajasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida multimodal yondashuvdan foydalanish eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2012.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
5. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

BOLALARDA SAN’AT ASARLARI ORQALI ESTETIK DIDNI TARBIYALASH

Komolova Iroda

KDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Misirova Nafisa, *4-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda san’at asarlari vositasida estetik didni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Estetik tarbiyaning pedagogik hamda psixologik ahamiyati, bolalarning san’at asarlarini qabul qilish mexanizmlari, shuningdek, xalq san’ati, tasviriy san’at va musiqa vositasida estetik didni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari bolalarda estetik didni tarbiyalashda san’atning o‘rni nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *estetik did, estetik tarbiya, san’at asarlari, bolalar estetikasi, xalq san’ati, tasviriy san’at, musiqa, badiiy tarbiya.*

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida insonning estetik madaniyati uning umumiy intellektual, ma’naviy hamda axloqiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bolalik davrida shakllanadigan estetik did insonning keyingi hayotidagi dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, hissiy olami va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bolalarda estetik didni shakllantirish masalasi zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

San’at asarlari orqali estetik tarbiya berish — bu faqat go‘zallikni his qilish yoki badiiy asarlarni tushunishga o‘rgatish emas, balki shaxsning hissiy olamini boyitish, badiiy tafakkurini rivojlantirish, estetik baholash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish jarayonidir. San’at bolaning ruhiy dunyosiga chuqur ta’sir etib, unda nafosatni his qilish, go‘zallikni qadrlash va hayotga estetik munosabatda bo‘lish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida estetik tarbiya muhim o‘rin tutadi. Chunki aynan shu davrda bolaning idrok etish, his qilish, taqlid qilish va ijod qilish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Mazkur jarayonlarda san’at asarlari samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda bolalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish masalasi ta’lim va tarbiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, raqamli vositalarning kundalik hayotga kirib kelishi hamda bolalarning estetik didiga turli tashqi omillarning ta’siri ortib borayotgan bir sharoitda san’at vositasida estetik tarbiya berish alohida dolzarblik kasb etadi.

ASOSIY QISM

1. Estetik tarbiyaning nazariy asoslari va ahamiyati

Estetik tarbiya pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u shaxsda go‘zallikni his qilish, tushunish, qadrlash va yaratishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiya insonning hissiy olamini boyitadi, uning tafakkurini rivojlantiradi va dunyoni badiiy-estetik nuqtai nazardan idrok etishga yordam beradi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, estetik tarbiya faqat san’atni o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi. U shaxsning umumiy madaniyati, axloqiy qarashlari, didi va hayotiy pozitsiyasining shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. M.S. Kagan estetik tarbiyani insonning hissiy-mantiqiy faoliyatini rivojlantiruvchi, uning dunyoni badiiy idrok etish qobiliyatini shakllantiruvchi jarayon sifatida tavsiflaydi.

2. San’at asarlarini qabul qilishning psixologik mexanizmlari

San’at asarlarini qabul qilish jarayoni murakkab psixologik faoliyat bo‘lib, unda idrok, tafakkur, tasavvur, emotsiya va xotira kabi psixik jarayonlar faol ishtirok etadi. Bola san’at asarini qabul qilish jarayonida nafaqat uning tashqi ko‘rinishini kuzatadi, balki undagi ma’no, obraz, kayfiyat va estetik ifodani his etishga harakat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan, san’at bolalarning hissiy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa, ranglar, obrazlar va ritmlar orqali bolada quvonch, hayrat, zavq, hamdardlik kabi emotsiyalar yuzaga keladi. Bu esa estetik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

3. Xalq san’ati orqali estetik didni tarbiyalash

Xalq san’ati bolalarning estetik tarbiyasida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Chunki xalq san’ati o‘zida milliy qadriyatlar, an’analar, estetik qarashlar va badiiy tafakkurni mujassamlashtiradi. U bolalarni nafaqat go‘zallik olami bilan tanishtiradi, balki ularning milliy o‘zlikni anglashiga, tarixiy xotirasini boyitishga va ma’naviy kamolotiga ham xizmat qiladi.

4. Tasviriy san’at orqali estetik didni rivojlantirish

Tasviriy san’at bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda eng samarali vositalardan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida bola atrofdagi olamni kuzatadi, predmetlarning

shakli, rangi, mutanosibligi va go‘zalligini anglaydi. Bu esa unda nafosatni his qilish, estetik tafakkur va ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

5. Musiqa san’ati orqali estetik didni shakllantirish

Musiqa san’ati bolalarning hissiy va estetik rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Musiqa bolaning ruhiy olamiga bevosita ta’sir etib, unda turli emotsional kechinmalarni yuzaga keltiradi. Ritm, ohang, kuy va tovush uyg‘unligi orqali bola nafaqat eshitish qobiliyatini, balki estetik sezgirligini ham rivojlantiradi.

6. Zamonaviy estetik tarbiyaning metodik yondashuvlari

Hozirgi kunda bolalarda estetik didni tarbiyalash jarayonida an’anaviy va innovatsion metodlar uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, psixologik holati va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

XULOSA

Bolalarda san’at asarlari orqali estetik didni tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon bolaning nafaqat badiiy didini, balki hissiy olamini, ijodiy tafakkurini, kuzatuvchanligini va ma’naviy qadriyatlarini ham rivojlantiradi.

Demak, bolalarda estetik didni shakllantirish — bu nafaqat badiiy tarbiya, balki shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlovchi muhim pedagogik jarayondir. Shuning uchun oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning bu boradagi hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

OYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kagan M.S. Esteticheskoye i khudojestvennoye vospitaniye v razvitom sotsialisticheskom obshchestve. – Leningrad: Znaniye, 1984. – 32 b.
2. Maktablarda bolani estetik tarbiyalashda tasviriy san’atning o‘rni // CyberLeninka. – 2023. – B. 6–131.
3. Smolyar A.I., Zogol S.G. Xudojestvenno-esteticheskoye vospitaniye detey sredstvami narodnogo iskusstva: voprosy soderjaniya i metodov // Izvestiya Samarskogo nauchnogo centra Rossiyskoy akademii nauk. – 2024. – T. 26, № 5 (98). – B. 24–32.
4. Tyutyunnikova T.E. Muzyka detstva. Remeslo i iskusstvo pedagoga. Kontseptual’nye osnovy muzykal’nogo vospitaniya. – Moskva: Prosveshcheniye, 2023. – 79 b.
5. Babaeva T.I., Berezina T.A., Akulova O.V. Detstvo: kompleksnaya obrazovatelnaya programma doshkolnogo obrazovaniya. – Sankt-Peterburg: Detstvo-Press, 2019. – 352 b.

OILAVIY TARBIYA SHAROITINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI O‘RNI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
KDPI Pedagogika fakulteti, PhD.
Nurimova Malohat, *4-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida oilaviy tarbiya sharoitining o‘rni va ahamiyati zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Oiladagi psixologik muhit, ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot, tarbiya uslublari hamda oilaviy qadriyatlarning bolalarning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. Maqolada pedagogik hamkorlik, oilaning ta’lim jarayonidagi roli hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ota-onalar uchun muhim metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, oilaviy tarbiya, psixologik rivojlanish, oilaviy muhit, ota-ona va bola munosabati, tarbiya uslublari, demokratik tarbiya, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy rivojlanish, emotsional rivojlanish, kognitiv rivojlanish, pedagogik hamkorlik, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, pedagogika, bolalar rivojlanishi.*

Kirish. Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning psixik holati, ijtimoiy ko‘nikmalari, emotsional barqarorligi va shaxsiy sifatlari shakllanishni boshlaydi. Bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati ham ko‘p jihatdan ushbu davrdagi rivojlanish jarayonlariga bog‘liqdir. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bolaning rivojlanishida asosiy ijtimoiy muhitlardan biri oila hisoblanadi. Oila nafaqat bolaning dastlabki tarbiya maskani, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan ijtimoiy institutdir. Oiladagi psixologik muhit, ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot, tarbiya uslublari hamda oilaviy qadriyatlar bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, mehr-muhabbatga asoslangan sog‘lom oilaviy muhit bolalarda o‘ziga ishonch, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlikni shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy izlanishlar ham oilaning ta’lim jarayonidagi rolini alohida ta’kidlaydi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida oilaviy tarbiya sharoitlarini chuqur o‘rganish, ularning bolalar psixologiyasiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida oilaviy tarbiya sharoitining o‘rnini zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda milliy va xalqaro ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada oilaviy muhitni takomillashtirish va maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi masalasi pedagogika va rivojlanish psixologiyasi fanida chuqur o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda bolaning shaxs sifatida shakllanishi ko‘p jihatdan uning yashayotgan ijtimoiy muhiti, ayniqsa oilaviy tarbiya bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shu sababli ko‘plab olimlar bolalarning psixologik rivojlanish jarayonida oilaning o‘rni va ta’sirini turli nazariy yondashuvlar asosida izohlaganlar.

Bolaning kognitiv rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan mashhur olimlardan biri Jean Piaget hisoblanadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir rivojlanish bosqichida bolaning fikrlash jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. U maktabgacha yosh davrini **preoperatsion bosqich** deb ataydi va bu davrda bolaning tasavvur, ramziy fikrlash hamda nutq rivojlanishi faollashishini ta’kidlaydi. Piaget fikricha, bola bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki atrof-muhit bilan faol o‘zaro ta’sir jarayonida mustaqil ravishda shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onaning bolaga berayotgan e’tibori, savollarga javob berishi va muloqot darajasi bolaning kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bolaning psixologik rivojlanishida ijtimoiy muhitning rolini chuqur o‘rgangan olimlardan yana biri Lev Vygotskydir. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy faoliyat va muloqot jarayonida amalga oshadi. U tomonidan ilgari surilgan **“yaqin rivojlanish zonasi”** tushunchasi bolalar rivojlanishini tushunishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Vygotskiy ta’kidlashicha, bola mustaqil ravishda bajara oladigan vazifalar bilan kattalar yoki tajribali shaxslar yordamida bajara oladigan vazifalar o‘rtasida muayyan farq mavjud bo‘ladi. Aynan ota-ona va tarbiyachilar tomonidan beriladigan yordam va yo‘naltirish bolaning yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashiga xizmat qiladi. Shu sababli oiladagi muloqot, qo‘llab-quvvatlash va pedagogik yondashuv bolaning psixologik rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi.

Shaxs rivojlanishining psixososial jihatlarini o‘rgangan mashhur olimlardan biri Erik Erikson hisoblanadi. Erikson o‘zining psixososial rivojlanish nazariyasida inson hayotini sakkiz bosqichga ajratadi. Unga ko‘ra, maktabgacha yosh davri bolaning **tashabbuskorlikka qarshi aybdorlik hissi** bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bola atrof-muhitni faol o‘rganishga, yangi faoliyat turlarini sinab ko‘rishga va mustaqil harakat qilishga intiladi. Agar ota-onalar bolani qo‘llab-quvvatlasa va uning qiziqishlariga ijobiy munosabat bildirse, bolada tashabbuskorlik, ijodkorlik va o‘ziga ishonch kabi sifatlar rivojlanadi. Aksincha, haddan tashqari tanqid yoki qat’iy nazorat bolalarda aybdorlik hissi va ishonchsizlikni shakllantirishi mumkin.

Oilaviy tarbiya uslublarini tizimli ravishda o‘rgangan olimlardan biri Diana Baumrind hisoblanadi. Baumrind ota-onalarning tarbiya uslublarini uch asosiy turga - **avtoritar, demokratik (authoritative) va permissiv** uslublarga ajratgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, demokratik tarbiya uslubi bolalarning psixologik rivojlanishiga eng ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday oilalarda ota-onalar bolaga mehr bilan munosabatda bo‘lish bilan birga, muayyan talab va qoidalarni ham belgilaydilar. Natijada bunday muhitda tarbiyalangan bolalarda mustaqillik, ijtimoiy moslashuv va o‘zini boshqarish qobiliyatlari yuqori darajada rivojlanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham oilaning bolalar rivojlanishidagi roli keng yoritilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada ijobiy psixologik muhit, faol muloqot va ota-onaning pedagogik madaniyati maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi hamda kognitiv rivojlanishini sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bois hozirgi davr pedagogikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolalar rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Empirik tahli l. Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida oilaviy tarbiya sharoitining ta’sirini empirik jihatdan o‘rganish maqsadida kuzatuv, so‘rovnoma va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotiga qatnaydigan 4-6 yoshli bolalar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi. Tadqiqotda jami 30 nafar bola va ularning ota-onalari qatnashdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy muhit, tarbiya uslubi va ota-ona bilan muloqot darajasining bolalarning psixologik rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ota-onalar o‘rtasida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari oiladagi tarbiya uslubi, ota-onaning bola bilan kunlik muloqot darajasi, bolaga ajratiladigan vaqt hamda oiladagi psixologik muhitga oid masalalarni qamrab oldi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyat qismi bolalar tarbiyasida demokratik yondashuvdan foydalanishini ta’kidlagan. Ota-onalarning qariyb 60 foizi bolalar bilan muntazam suhbatlashish, birgalikda o‘yin o‘ynash va ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash muhim deb hisoblashini bildirgan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida kuzatuv metodi asosida o‘rganildi. Kuzatuv jarayonida bolalarning tengdoshlari bilan muloqoti, o‘yin jarayonidagi faolligi, emotsional reaksiyalari va mustaqil faoliyatga bo‘lgan qiziqishi tahlil qilindi. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilada qo‘llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lgan bolalar tengdoshlari bilan muloqotda faolroq bo‘lib, o‘yin jarayonida tashabbus ko‘rsatishga moyil bo‘ladilar. Shuningdek, bunday bolalarda o‘z fikrini erkin ifoda etish va yangi faoliyat turlarini sinab ko‘rishga intilish darajasi yuqoriroq ekani kuzatildi.

Aksincha, oilada muloqot yetarli darajada shakllanmagan yoki ota-onalar tomonidan haddan tashqari qat’iy nazorat qo‘llaniladigan bolalarda ayrim psixologik qiyinchiliklar kuzatildi. Masalan, bunday bolalar tengdoshlari bilan muloqotda kamroq ishtirok etishi, ayrim hollarda tortinchoqlik yoki ishonchsizlik belgilarini namoyon qilishi aniqlandi. Bundan tashqari, oilaviy nizolar mavjud bo‘lgan ayrim holatlarda bolalarda emotsional beqarorlik, tez jahldorlik yoki agressiv xatti-harakatlar kuzatilishi mumkinligi aniqlangan.

Empirik tahlil natijalari oilaviy tarbiya sharoiti maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ota-onaning bolaga

bo‘lgan e’tibori, qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy muloqoti bolaning o‘ziga ishonchi, ijtimoiy moslashuvi hamda emotsional barqarorligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan empirik tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya sharoiti va bolalarning psixologik rivojlanishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu sababli ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish, oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish hamda maktabgacha ta’lim muassasalari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga oilaviy tarbiya sharoitining ta’siri empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda 4–6 yoshdagi 30 nafar bola hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, kuzatuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy muhit, ota-ona bilan muloqot darajasi va tarbiya uslublarining bolalarning emotsional, ijtimoiy hamda kognitiv rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondent ota-onalarning aksariyati bolalar tarbiyasida faol ishtirok etishini bildirgan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ota-onalarning 63 foizi bolalar bilan har kuni faol muloqot qilishini, birgalikda o‘yin o‘ynash yoki suhbatlashish orqali ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashini ta’kidladi. 22 foiz ota-onalar esa bolalar bilan muloqot asosan qisqa suhbatlar bilan cheklanib qolishini bildirgan. Qolgan 15 foiz respondentlar esa ish bilan bandligi sababli bolalar bilan muntazam muloqot qilish imkoniyati cheklanganligini qayd etdi.

Oilaviy tarbiya uslublarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 58 foizida demokratik tarbiya uslubi, 27 foizida avtoritar tarbiya uslubi, 15 foizida esa erkin yoki nazorat darajasi past bo‘lgan tarbiya uslubi mavjudligi aniqlandi. Demokratik tarbiya uslubiga ega oilalarda ota-onalar bolalar bilan ochiq muloqot olib borishi, ularning fikrlarini tinglashi va qaror qabul qilish jarayonida ma’lum darajada mustaqillik berishi kuzatildi.

Bolalar bilan o‘tkazilgan kuzatuv natijalari oilaviy muhit va bolalarning psixologik rivojlanishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Demokratik tarbiya uslubiga ega oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar tengdoshlari bilan muloqotda faolroq bo‘lib, o‘yin jarayonida tashabbus ko‘rsatishga moyil ekani aniqlandi. Bunday bolalar yangi faoliyat turlarini sinab ko‘rishga qiziqish bildirishi, savollar berishi hamda o‘z fikrini erkin ifoda etishga intilishi bilan ajralib turdi. Shuningdek, ular o‘yin jarayonida hamkorlikka tayyorligi va ijtimoiy moslashuv darajasining yuqoriligi bilan ajralib turdi.

Aksincha, avtoritar tarbiya ustun bo‘lgan oilalarda tarbiyalanayotgan ayrim bolalarda tortinchoqlik, o‘z fikrini erkin ifoda etishda qiyinchilik va ba’zan haddan tashqari ehtiyotkorlik kabi xususiyatlar kuzatildi. Bunday bolalar tengdoshlari bilan muloqot jarayonida passivroq bo‘lib, yangi o‘yin yoki faoliyat turlarini boshlashda ko‘pincha ikkilanib qolishi aniqlandi. Ayrim holatlarda esa qat’iy nazorat ostida tarbiyalangan bolalarda agressiv reaksiyalar yoki tez jahldorlik kabi emotsional holatlar ham kuzatildi.

Empirik tahlil natijalari oilada ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lgan holatlarda bolalarning emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligi yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ota-onaning bolaga bo‘lgan e’tibori, qo‘llab-quvvatlashi va mehr-muhabbati bolalarda o‘ziga ishonch hissining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Bolalar bilan muntazam suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash va faoliyatini rag‘batlantirish ularning psixologik rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Olingan natijalarni ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot natijalari bir qator mashhur olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni

tasdiqlaydi. Jumladan, bolaning kognitiv rivojlanishi atrof-muhit bilan faol o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanishi haqidagi qarashlar Jean Piaget nazariyasi bilan mos keladi. Piagetning fikricha, bola bilimlarni faol faoliyat va tajriba orqali egallaydi. Oilada bolaga yaratilgan qulay muhit hamda ota-onaning faol ishtiroki bolaning tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuningdek bolaning psixologik rivojlanishida ijtimoiy muhitning rolini ta’kidlagan Lev Vygotsky nazariyasi bilan ham uyg‘unlik kasb etadi. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi bolalarning bilim va ko‘nikmalarni kattalar yordamida samaraliroq egallashini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida ota-onasi bilan faol muloqot qiladigan bolalarda nutq rivojlanishi va ijtimoiy faollik yuqoriroq ekani kuzatildi, bu esa Vygotskiy qarashlarining amaliy tasdig‘i sifatida qaralishi mumkin.

Bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayonini o‘rgangan Erik Erikson nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh davri tashabbuskorlikning shakllanish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni tasdiqladi. Oilada bolaga mustaqillik berilgan va uning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlangan holatlarda bolalarda ijodkorlik, faollik va o‘ziga ishonch kabi sifatlar ancha rivojlanganligi kuzatildi.

Shuningdek, ota-onaning tarbiya uslublari haqidagi ilmiy qarashlarni ilgari surgan Diana Baumrind tadqiqotlari ham ushbu natijalar bilan mos keladi. Baumrind demokratik tarbiya uslubi bolalarning psixologik rivojlanishiga eng ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Olib borilgan tadqiqot natijalari ham aynan demokratik tarbiya uslubiga ega oilalarda bolalarning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va mustaqillik darajasi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya sharoiti maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida oilaviy tarbiya sharoitining ta’siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, kuzatuv, so‘rovnoma hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolaning psixologik rivojlanish jarayoni ko‘p jihatdan uning yashayotgan ijtimoiy muhiti, ayniqsa oiladagi tarbiyaviy muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Oilada yaratilgan psixologik muhit, ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati, muloqot darajasi hamda tarbiya uslublari bolaning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya sharoiti maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengroq miqyosda olib borish, turli hududlardagi oilaviy tarbiya sharoitlarini qiyosiy tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ota-onalar bilan ishlash usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini yanada samarali qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni. Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni. Toshkent, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarori. Toshkent, 2017.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. **Ilk qadam davlat o‘quv dasturi.** Toshkent, 2018.

5. UNICEF rasmiy sayti – https://www.unicef.org
6. OECD rasmiy sayti – https://www.oecd.org
7. Jean Piage. *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books, 1969.
8. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. Diana Baumrind. *Child Care Practices Anteceding Three Patterns of Preschool Behavior*. Genetic Psychology Monographs, 1967.

MUSIQA MASHG‘ULOTLARI ORQALI BOLALARNING ESTETIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH

Komolova Iroda
KDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Ergasheva Bahora Olimovna, *4-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola musiqa orqali bolalarning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi, shuningdek, estetik his-tuyg‘ularini shakllantirish masalalari yoritishga qaratilgan. Bundan tashqari, musiqa ta’limining bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishi, go‘zallikni idrok etish va hissiy munosabatni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi va O‘zbekistonning milliy musiqa an’analari va xalqaro tajribalarni birlashtirish bo‘yicha takliflar berildi. Tadqiqot natijalari musiqa ta’limining bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar. Musiqa mashg‘ulotlari, estetik tarbiya, bolalar rivojlanishi, maktabgacha ta’lim, emotsional rivojlanish, ijodiy qobiliyat, milliy musiqa, xalqaro tajriba, kognitiv rivojlanish, hissiy munosabat.

Kirish. Bilamizki, musiqa mashg‘ulotlari bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Estetika – bu go‘zallikni idrok etish, hissiy tuyg‘ularni rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Musiqa bu jarayonda eng samarali vositalardan biridir, chunki u bolalarning emotsional olamini boyita oladi, kognitiv qobiliyatlarini oshiradi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida musiqa tarbiyasi milliy qadriyatlar bilan bog‘langan holda olib boriladi, ammo xalqaro tajribalarni hisobga olish orqali uni yanada takomillashtirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa mashg‘ulotlari nafaqat o‘yin-kulgi, balki rivojlanishning muhim elementi hamdir. Misol sifatida ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni va "Ilk Qadam" dasturi bolalarning musiqa orqali estetik tarbiyasini ta’kidlaydi. Xalqaro miqyosda esa, NAfME (National Association for Music Education) kabi tashkilotlar musiqa ta’limining bolalarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga ta’sirini tadqiq qilgan. Biz ushbu maqolada O‘zbek va xalqaro manbalarga asoslanib, musiqa mashg‘ulotlari orqali bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqamiz.

Estetik tarbiya bolalarga atrofdagi olamni go‘zal va uyg‘un tarzda idrok etishni o‘rgatadi. Musiqa bu jarayonda o‘ziga xos o‘rin egallaydi, chunki u tovushlar orqali hissiyotlarni uyg‘otadi va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. O‘zbek pedagogikasi an’analariga ko‘ra, musiqa bolalarning milliy madaniyatini rivojlantirishda muhimdir. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra esa, musiqa mashg‘ulotlari bolalarning til rivojlanishi va xotirasini yaxshilashini tasdiqlaydi. Maqolada ushbu mavzuni batafsil yoritish orqali amaliy tavsiyalar berib o‘tiladi

Asosiy qism. Musiqa bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida eslab o‘tilganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa mashg‘ulotlarining foydali jihatlari ko‘pdir. Musiqa bolalarning estetik idrokini

shakllantiruvchi vosita sifatida qaraladi. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg‘ular rivojlanadi, qo‘shiq aytish esa nutq madaniyatini oshishiga sabab bo‘ladi.

Xalqaro tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi, masalan, Ispaniya olimlarining tadqiqotida 3-12 yoshdagi bolalardagi musiqa ta’limi emotsional rivojlanishga foyda berishi ko‘rsatilgan. Ularning natijalariga ko‘ra, musiqa bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini va o‘quv natijalarini yaxshilaydi. AQShdagi NAfME tashkilotining ma’lumotlariga asosan, musiqa bolalarning o‘yin orqali rivojlanishini ta’minlaydi. Bolalar musiqa orqali ritm, tovush va harakatlarni o‘rganib, jismoniy va ruhiy rivojlanishga erishadilar.

O‘zbekiston misolida musiqa ta’limi milliy an’analar bilan bog‘langandir. Ya’ni, milliy qo‘shiqlar va raqslar bolalarning madaniy merosini rivojlantiradi. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyatlarini oshiradi. Bolalarning til o‘rganishini tezlashtiradi va xotirani kuchaytiradi. Shunday qilib, musiqa nafaqat estetik, balki umumiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiya bolalarga go‘zallikni his etish va ijodiy yondashishni o‘rgatadi. Musiqa bu jarayonda markaziy o‘rin tutadi, chunki u emotsional munosabatni shakllantiradi. O‘zbek pedagogikasi bo‘yicha, musiqa estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, bolalarning yaxshi va yomonni farqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqa idrokini tarbiyalash uchun materiallarni to‘g‘ri tanlash va metodlarni tizimlashtirish kerak. Bundan tashqari, musiqa estetik tajribaning rivojlanishi sifatida qaraladi. Masalan, bolalar musiqa orqali afzallik, emotsiyalar va go‘zallikni idrok etadilar. Finlyandiyadagi tadqiqotda musiqa bolalarning dastlabki yoshdagi rivojlanishida muhim ekanligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston ta’limida esa, musiqa mashg‘ulotlari bolalarning badiiy didini shakllantiradi, milliy cholg‘u asboblari orqali madaniy merosni o‘rgatadi. Musiqa texnologiyasi ham estetik tarbiyaga yordam beradi. Elektron asboblar orqali bolalar ijodiy ifoda etishni o'rganadilar. Musiqa bolalarning axloqiy-estetik tarbiyasini shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkizadi. U estetik tarbiyani boyitadi va bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limda musiqa tarbiyasi "Ilk qadam" dasturi asosida olib boriladi. Bu dastur bolalarning musiqa orqali estetik rivojlanishini ta’minlaydi. Milliy musiqa ohanglari, qo‘shiq va raqslar bolalarning kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, musiqa tinglash, qo‘shiq aytish va ritmik harakatlar orqali bolalar milliy madaniyatni o‘rganadilar. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning ovozini tarbiyalash va ifodali kuylashga o‘rgatadi. O‘zbek pedagoglar musiqa orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’kidlaydilar. Milliy asboblar (doira, dutor, nay, karnay, surnay, nog’ora kabilar) bolalarning ritmik tushunishini oshiradi. Ushbu yondashuv bolalarning estetik didini shakllantiradi va ma’naviy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Xalqaro tajribalarda asosan musiqa ta’limi bolalarning kognitiv rivojlanishiga e’tibor beriladi. Masalan, AQShda musiqa bolalarning matematika va o‘qish ko'nikmalarini yaxshilaganligini ko‘rishimiz mumkin.. Kanada tadqiqotlarida esa musiqa miya rivojlanishini tezlashtiradi. Evropada musiqa estetik tajribani rivojlantirish sifatida qaraladi.

O‘zbekiston tajribasi bilan taqqoslaganda, milliy elementlarni xalqaro metodlar bilan birlashtirish mumkin. Masalan, ritmik o‘yinlar va texnologiyalarni qo‘llash bolalarning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Xalqaro tadqiqotlar musiqa bolalarning stressni boshqarishiga yordam berishini ko‘rsatadi, bu O‘zbekiston ta’limida ham qo‘llanilishi mumkin. Va albatta o‘z natijasini beradi.

Quyidagi musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha bir qancha usullardan foydalanishni tavsiya etib o‘tamiz:

1. tinglash
2. qo‘shiq aytish
3. ritmik harakatlar
4. o‘yinlar.

Mashg’ulot davomida bu jarayonlarni to‘g‘ri qo‘llay olish, bolalarni mashg’ulotni yanada yaxshiroq o‘zlashtirishiga katta yordam bo‘ladi. Hammamizga ma’lumki, hozirda til o‘rganishda bu usullar juda foydali bo‘lib kelmoqda. Shu kabi qo‘shiq va o‘yinlar orqali mashg’ulot o‘tish tizimini boshqa o’quv jarayonlarga ham qo‘llasa o‘ylaymanki o‘zining katta foydasini beradi. Mashg’ulot davomida qo‘shiq bilan birgalikda gullar, shiqqildoqlar, lentalardan foydalanish bolalarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi. Xalqaro mintaqalarda esa ular ko‘proq musiqa texnologiyasi (elektron asboblar) dan foydalanishadi mashg’ulot davomida. Shuningdek e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan muhim jihatlardan biri mashg‘ulotlar yoshga mos bo‘lishi kerak: kichik yoshdagilar uchun oddiy ritmlar, katta yoshdagi bolalarga murakkab qo‘shiqlardan foydalangan ma’qul. Bayramlar va ertaliklar orqali musiqa hayot bilan bog‘lanadi. Ushbu usullar bolalarning estetik tarbiyasini samarali rivojlantiradi.

Xulosa. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantirish jarayonida nafaqat hissiy va ijodiy jihatlarni, balki ruhiy salomatlikni ham mustahkamlaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi yosh bolalarda umid tuyg‘usini kuchaytiradi va ularni kelajakka ijobiy qarashga undaydi. 8 yoshdan oldin boshlangan musiqa darslari bolalarning optimizm darajasini oshirishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Bundan tashqari, musiqa orqali bolalar o‘z identifikatsiyasini shakllantirib, o‘z madaniyati va hissiyotlarini chuqurroq anglaydilar. Bu esa emotsional chidamlilikni oshiradi va stressni boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, musiqa mashg‘ulotlari bolalardagi emotsional muammolarni kamaytirib, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshiradi. O‘zbek milliy musiqasi, xususan, qo‘shiq repertuarini yosh va individual xususiyatlarga mos tanlash orqali bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki bu jarayon bola xarakterini shakllantirishga ta‘sir etadi. Musiqa bolalarning til va miya faoliyatini yaxshilaydi, bu esa estetik tarbiyani kengroq rivojlanish bilan bog‘laydi.

Tavsiyalar sifatida ayta olamizki, pedagoglar musiqa mashg’ulotlarida raqamli texnologiyalarni, masalan, interaktiv ilovalarni joriy etish orqali bolalarning qiziqishini oshirishlari mumkin, bu esa zamonaviy sharoitda estetik tajribani boyitadi. Ota-onalar uy sharoitida milliy qo‘shiqlarni oilaviy tadbirlar orqali ishlatib, bolalarning emotsional bog‘lanishini kuchaytirishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa tarbiyasini baholash uchun maxsus monitoring tizimini yaratish kerak, bu esa samaradorlikni oshiradi va bolalarning individual ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi. Umuman olganda, musiqa ta’limini kengaytirish orqali bolalarning nafaqat estetik, balki jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanadi, bu kelajak avlodlar uchun uzoq muddatli ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmonov, U. K. (yil noma'lum). Musiqa ta’limi orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning estetik kompetentligini rivojlantirishda milliy musiqa ohanglarini bola tarbiyasidagi o‘rni. Farg‘ona davlat universiteti.
2. Nuraliyeva, Z. A. (2024 yoki keyinroq). Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasida musiqaning o‘rni. Guliston davlat pedagogika instituti.
3. Saidqulova, G. O. (2024). Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. IMRAS jurnali.
4. Soipova, D. (yil noma'lum). Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Ushbu qo'llanma maktabgacha va oliy ta'lim uchun estetik tarbiya bo'yicha batafsil.
5. (Muallif noma'lum). Maktabgacha musiqiy-estetik ta'lim nazariyasi va metodikasi. Buxoro davlat universiteti. PDF formatida 140 betlik uslubiy qo'llanma (uniwork.buxdu.uz).
6. Xojanov, I. E. (2023). Maktabgacha ta’limda musiqiy estetik rivojlantirish mashg‘ulotlarini tashkil etishning innovatsion usullari. CyberLeninka.

MAKTABGACHA TA’LIM BOLALAR FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING AHAMIYATI.

Z.Nazarova,
Kattaqurg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti
D.Karimova, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish,ta’lim sifatini oshirish,rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etishdagi muammolar,shu jumladan muammolar yechimi bo‘yicha tavsiyalar va markazlarni xorij tajribasi asosida tashkil etish yo‘llari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim,rivojlantiruvchi markaz,bola rivoji,o‘yin faoliyati,ta’lim muhit, davlat standarti, asosiy maqsad, muammo va yechim.*

Kirish.O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-ma’naviy islohotlar,fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi-jamiyatimiz talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ymoqda. Kelajak poydevori bo‘lgan, har jihatdan mas’uliyatli ma’naviy yetuk, axloqan pok, bir so‘z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz M.Shavkat Miromonovichning so‘zlarini aytib o‘tish joiz “Biz qaysi sohani olmaylik, zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisholmaymiz.Bunday kadrlarni, millatimizning sog‘lom genafondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”[1]

Darhaqiqat, besh yoshgacha berilgan bilim inson hayotidagi egallashi kerak bo‘lgan bilimlarning asosini tashkil etadi. Elkonin yozganidek, bola jamiyat a’zosi va shaxs sifatida shakillanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go’daklikdan yetuklik davrigacha takomillashib boradi.[2] Ta’limning tahlili shuni ta’kidlash imkonini beradiki, zamonaviy ta’lim kompetentlilik yondashuviga asoslanadi. O’zbekistonning maktabgacha ta’lim muassasalarida o’quv-ta’lim ishlari “O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladugan Davlat talablari” va “ Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi asosida olib borilmoqda.[3] Bu borada mamlakatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim jarayonida talim-tarbiya jarayonini sifatli olib borish uchun turli texnologiyalar va uslubiyotlar ishlab chiqildi. Shu jumladan rivojlantiruvchi markazlar alohida o‘rin tutadi.

Asosiy qism: Rivojlantiruvchi markazlar bu bolalar uchun maxsus tashkil etilgan, ularning qiziqishlari va yoshiga mos ravishda jihozlangan ta'lim maydonchalari bo‘lib, ularda bolalar mustaqil tarzda bilim oladilar, o‘z tajribalari asosida yangi ko‘nikmalarni egallaydilar va o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘radilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni shakllantirishning asosiy maqsadi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qulay va rag‘batlantiruvchi muhit yaratishdir. Markazlarning faoliyati bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Bu esa bola uchun individual yondashuvni ta’minlaydi.

Markazlar soni 5 ta bo‘lib ular:

-qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
-syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish;
-til va nutq markazi;
-fan va tabiat markazi;
-san’at markazi.

Har bir rivojlanish markazining o‘z maqsadi va yo‘nalishiga ega, shuning uchun markazlardagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta'limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim.

Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi.

Markaz ishi davomida tarbiyachi bolalar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e'tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta'limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi.

“Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi

Markazda bola qurish, yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o‘rganadi. Shu bilan birga mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo‘ladi, bir biridan o‘rganadi, o‘rgatadi.Bu markazda bolalar asosan amaliy faoliyatda bo‘lib, ular qurish-yasash faoliyati bilan bir vaqtda matematik tasavvurlarini ham shakllantirib boradilar. Bu esa bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mexnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko‘nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan tarkib topa boshlaydi, bularning barchasi bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlaydi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish.

Markaz bolaga nima beradi? Eng avvalo bolaning nutqi rivojlanadi, kattalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi, qarindosh urug‘chilikni tushunadi. Mehmondo‘stlik va mehmonda bo‘lish odobi tarbiyalanadi, kattalar mehnati bilan tanishadi, kasblarga qiziqish uyg‘onadi. Ma'lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari boshlanadi. Bolaning tasavvuri kengayadi. O‘rtoqlaridan bilmaganlarini o‘rganadi, pul bilan muomala qilishning dastlabki bosqichlarini bajaradi. Oilasi, oiladagi yaxshi va yomon odatlar haqidagi ma'lumotlar bola tomonidan o‘zi bilmagan holda beriladi

"Til va nutq" markazi

Ushbu markazda bola hayotidagi eng kerakli bo‘lgan og‘zaki nutq rivojlanadi, hamda o‘qish malakalari, qo‘l barmoqlari mayda motorikasi ham rivojlantiriladi.

Markazda bolalar o‘z ona tilida erkin so‘zlashadilar, badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydilar, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlalar tuzishni, so‘zlaganda otlarni birlik va ko‘plikda qo‘llashni o‘rganadilar.O‘qish, qo‘l barmoqlari mayda matorikasi rivojlanadi.Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar harf tanimaydilar. Lekin kitobni olib varaqlash orqali o‘zlarini o‘qiyotgandek his qiladilar va bir narsalarni gapiradilar.

"Fan va tabiat" markazi

"Fan va tabiat" markazi agar sezayotgan bo‘lsangiz bolalarning eng sevimli markaziga aylanib bormoqda. Chunki bolalar markaz orqali juda ko‘p tajribalarni

o‘zlari, ularga ruxsat etilmagan ayrim tajribalarni tarbiyachi, kattalar yordamida o‘tkazmoqdalar va qiziqtirgan narsalarni bilib olmoqdalar. Markazning asosiy maqsadi bolalarni tabiat va tevarak atrofdagi xodisalar bilan tanishtirish, jonli va jonsiz tabiatni farqlash, undagi turli xil mavjudotlarning yashash tarzlari haqidagi ma'lumotlarni olishga o‘rgatish. Markaz faoliyati ko‘proq kattalar bilan birga tashkil etiladi. Chunki bolalar xavfsizligini ta’minlash lozim.

San'at" markazi:

Ushbu markaz o‘z ichiga asosan rasm, applikatsiya, loy ishini oladi. Markazning asosiy maqsadi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Ularni go‘zallik bilan oshno qilish, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish orqali nutqni rivojlantirish. Bolaranglarni tanlashga, ularni o‘z o‘rnida ishlatishga o‘rganadi. Tevarak atrofdagi narsalarni ranglar orqali anglaydi. Ular orqali tushunadi. Bu markazda origami usulidagi qurish-yasash ishlari ham olib borilishi mumkin. Markazdagi barcha faoliyatni baravar qo‘yish maqsadga muvofiq. Markazda bola uchun shunday imkoniyat yaratish kerakki, u bekor qolmasligi kerak.[4]

Barcha markaz davlat standartiga asoslanadi. Davlat standartining maqsadi – maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog’lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarni joriy etishdan iborat.[5]

Rivojlantiruvchi markazning asosiy vazifasi-har bir bolaning individual imkoniyatini ochish va uni barkamol shaxs sifatida shakllantish. Shuning uchun markazlar faoliyatini birdek olib borish alohida ahamiyatga ega. Markazlar faoliyatini birdek olib borish- bu samaradorlik, sifat va barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omildir.

Xulosa: Albatta har bir sohani tashkil etishda muammolar yo‘q emas. Hozirgi kunda markazlar bilan ishlashdagi yagona muammo kerakli jihozlarning yetishmasligi. Har bir markazning alohida jihozlari mavjud. Bu jihozlar bolalar uchun qulay ,yoshiga to‘g‘ri keladigan bo‘lishi zarur. Lekin bolalarga markazlar bilan ishlash jarayonida jihozlarning yrtishmasligi muammo bo‘lmoqda. Bunday hollarda bolalar bir-biri bilan janjallashib qolishi ham mumkin. Xorij davlatlarga nazar soladigan bo‘lsak, ya'ni Xitoyda har bir bola uchun shart- sharoit mavjud. Xonalari keng va yorug‘. Har bir bola o‘ziga qiziq bo‘lgan markaz bilan shug‘ullanadi. Bunday jarayonda ular uchun barcha jihozlar yetarli darajada.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar albatta maktabgacha ta'limni ham jetlab o‘tgani yo‘q. Prezidentimiz Maktabgacha talimni tubdan o‘zgartirish bo‘yicha ko‘lab qarorlar qabul qilmoqda. Bu borada jihozlar yetishmovchiligi muammosi alohida o‘rin tutadi.

Jihozlar sifati ko‘pincha o‘qituvchilarning malakasi va metodik tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday muammolarni hal qilish uchun pedagog tarbiyachi ham bor imkoniyatini ishga solishi kerak. Ya'ni har bir bolani o‘yinchoqlar bilan ta'minlash uchun ta'biiy va tashlandiq materiallardan foydalangan holda jihozlar tayyorlab bolalarga taqdim etish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bunday jihozlarni bolalar bilan birga yasash yanada ko‘proq bolalarni o‘ziga jalb etadi.Bolalar o‘zlari yasagan buyumlarni qadrlaydi va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. 22.12.2020 yil. 802- son
2. Z.S.Teshaboyeva “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” Toshkent,2021
3. Z.T.Nishanova “Bolalar psixologiyasi va psixadiagnostikasi” Toshkent, 2017
4. F.R. Qodirova “ Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent, 2019

BOLALARDA GIGIYENIYA QOIDALARINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Safarova Qizlarxon

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy gigiyena qoidalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqot davomida gigiyenik tarbiyaning bolalar salomatligi, ijtimoiy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, gigiyena qoidalarini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan o‘yin texnologiyalari bilan bir qatorda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda “Toza qo‘llar” dasturi asosidagi yondashuvlarning samaradorligi ochib berildi.*

Kalit so’zlar. *Gigiyenik tarbiya, maktabgacha ta'lim, shaxsiy gigiyena, sog'lom turmush tarzi, integratsiya, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi, o'yin texnologiyalari, “Toza qo'llar” dasturi.*

Kirish. Mashhur yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt uning sog'ligi, ikkinchisi- go'zallikdir” degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbayidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom, baquvvat, iymon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladiki, bu baxt ona- Vatanning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt - saodati uchun sog'lom avlod kerak.

Sog‘lom va to‘laqonli hayotning asosi ko‘pincha bolalikda qo‘yiladi va bu asosning muhim elementi shaxsiy gigiyenani tushunish va amalda qo‘llashdir. Bolalarga shaxsiy gigiyena haqida o‘rgatish shunchaki odatlarni shakllantirish emas, bu ularning jismoniy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadigan chuqur pedagogik jarayondir. Ushbu maqolada bolalarga shaxsiy gigiyena qoidalarini o‘rgatishning ko‘p qirrali pedagogik ahamiyati ko‘rib chiqiladi, uning mustaqillikni rivojlantirish, sog’lom turmush tarziga rioya etadigan va mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashdagi roli ta’kidlanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va gigiyena qoidalariga amal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Ma’lumki, bolalik davrida shakllangan odatlar insonning keyingi hayot faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli shaxsiy gigiyena qoidalarini bolalarga erta yoshdan o‘rgatish ularning sog‘lig‘ini mustahkamlash, turli kasalliklarning oldini olish hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena qoidalarini o‘rgatishning pedagogik ahamiyatini ochib berish va uni samarali tashkil etish yo‘llarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. “Madaniy- gigiyenik ko’nikmalar bu- badanni ozoda tutishga, to’g’ri ovqatlanishga, atrof- muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir- birlari bilan, kattalar bilan, o’zaro madaniy munosabatlariga doir ko’nikmalardir” deya F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo’latova, N.M. Kayumovalarning “Maktabgacha pedagogika” nomli kitobida ta’rif berib o’tilgan.

Madaniy- gigiyenik ko’nikmalarni shakillantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatlarni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.
2. O’zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko’nikmalarni qat’iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o’rgatish.
3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.
4. Bolalarning madaniy- gigiyenik ko’nikmalarni o’zlashtirishlarini nazorat qilib borish.
5. Bolalarning kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so’zsiz bajarishga o’rgatish.

Xalqaro tajribalar asosida gigiyenik tarbiya.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb hisoblanadi. Ko‘plab xalqaro tashkilotlar bu borada ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqqan.

Masalan, World Health Organization (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, qo‘lni sovun bilan muntazam yuvish bolalar orasida yuqumli kasalliklar, xususan ichak va nafas yo‘llari infeksiyalarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli gigiyena tarbiyasi bolalar salomatligini saqlashning eng samarali profilaktik choralaridan biri sifatida baholanadi.

Shuningdek, UNICEF (BMT Bolalar jamg‘armasi) tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy o‘rgatish va vizual vositalardan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi. UNICEF mutaxassislari bolalarga gigiyena qoidalarini o‘rgatishda o‘yin elementlari va kundalik hayot bilan bog‘liq vaziyatlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Bundan tashqari, Centers for Disease Control and Prevention (AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi) ma’lumotlariga ko‘ra, bolalarga qo‘l yuvishning to‘g‘ri

bosqichlarini o‘rgatish orqali kasalliklarning oldini olishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida gigiyenik madaniyatni shakllantirish muhim omil hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlarida esa UNESCO tomonidan ilgari surilgan ta’lim konsepsiyalarida bolalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu jarayonda gigiyena qoidalarini o‘rgatish bolalarning umumiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida yuzaga kelgan epidemiologik vaziyat, xususan COVID-19 pandemiyasi gigiyena qoidalariga rioya qilishning naqadar muhim ekanligini yana bir bor isbotlab berdi. Ushbu global sog‘liqni saqlash inqirozi natijasida insonlarning kundalik hayotida gigiyenik odatlarga, ayniqsa qo‘l tozaligiga bo‘lgan e’tibor keskin oshdi . Pandemiya davrida maktabgacha ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena talablarini kuchaytirish, bolalarni tozalik qoidalariga muntazam o‘rgatish zarurati yanada ortdi. Bu esa gigiyenik tarbiyani pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

“Toza qo‘llar” gigiyena dasturi ayniqsa, zamonaviy epidemiologik sharoitda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur bolalarda qo‘l yuvish odatini shakllantirish orqali kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Dastur quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ qo‘l yuvishning to‘g‘ri texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish;
- ✓ gigiyena qoidalarini muntazam takrorlash;
- ✓ vizual va didaktik vositalardan foydalanish;
- ✓ o‘yin orqali mustahkamlash.

Epidemiologik nuqtai nazardan qaraganda, ushbu dastur:

- ✓ virus va bakteriyalar tarqalishini kamaytiradi;
- ✓ bolalar o‘rtasida kasallanish darajasini pasaytiradi;
- ✓ sog‘lom muhitni shakllantiradi.

Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda “Toza qo‘llar” dasturini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Bolalarni shaxsiy gigiyena qoidalariga o’rgatishning eng samarali usullaridan biri o’yin texnologiyalaridan foydalanishdir. Jismoniy ta’lim mutaxassisi Amy Kaiser shunday deydi: “ Ta’lim olishning asosiy negizi bu o’yinlar o’ynashdir. Bola jismoniy faoliyat bilan shug’ullanish jarayonida o’zini xavfsiz his qilmas ekan, u hech bir yangi ishni o’rganishga qo’l urmaydi’’.O’yin jarayonida bolalar ma’lumotlarni tezroq anglab oladilar, tengdoshlari bilan bahs- munozaraga kirishadi, nutqiy faolligi oshadi, mustaqil fikrlashga odatlanadi, jismoniy jihatdan ham bir muncha rivojlanish bo’ladi, amaliy ko’nikmalarni tez o’zlashtirib oladi. Masalan, “Toza qo’llar”, “Tishlarni tozalaymiz”, “Qo’g’irchoqni kiyintiramiz”, “Gigiyena qoidalarini top”, “ Sog’lom hayot sari” kabi didaktik va harakatli o’yinlar orqali bolalarda gigiyena qoidalariga amal qilish odatlari samarali shakillanadi.

Xulosa. Xulosalarni umumlashtirsak, bolalarda gigiyena qoidalarini o‘rgatish – bu faqat ta’limiy vazifa emas, balki insonni tarbiyalashning muhim qismidir. Aynan shu jarayon orqali bolada tozalik, tartib-intizom, o‘ziga va boshqalarga hurmat, mas’uliyat kabi hayotiy sifatlar shakllanadi. Shuning uchun ham biz pedagoglar va ota-onalar bu masalaga jiddiy, lekin samimiy yondashishimiz zarur. Agar bolaga kichikligidan tozalikni qadrlashni, o‘z sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘lishni o‘rgata olsak, aslida biz uning kelajagiga eng katta sarmoya kiritgan bo‘lamiz. Chunki sog‘lom va gigiyenik madaniyatga ega avlod – bu jamiyatning eng katta boyligidir. Abdulla Avloniy ham o’zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida quyidagi fikrlarni aytib o’tgan: “Badanning salomat va quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog’ badanga ega bo’lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilikqilurlar. Maishatimizni rohatda bo’lmog’i jasadimizning sog’lom bo’lmog’iga bog’lidur.”

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi./*Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Tohkent-2022.*
2. “Toza qo’llar” dasturi *LEX.UZ 297-son 06.05.2025.materiallari.*
3. World Health Organization Guidelines on Hand Hygiene in Health Care. Geneva: WHO Press, 2009.(Qo‘l gigiyenasi orqali infeksiyalarning oldini olish bo‘yicha asosiy manba).
4. UNICEF Water, Sanitation and Hygiene (WASH) in Schools. New York: UNICEF, 2012.(Maktab va bog‘chalarda gigiyena tarbiyasi bo‘yicha metodik tavsiyalar).
5. Centers for Disease Control and Prevention
Handwashing: Clean Hands Save Lives. Atlanta: CDC, 2020.
(Qo‘l yuvishning sog‘liq uchun ahamiyati va amaliy ko‘rsatmalar).
6. UNESCO Early Childhood Care and Education (ECCE) Global Report. Paris: UNESCO, 2010.(Maktabgacha ta’lim va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha global yondashuvlar).
7. World Health Organization & UNICEF Progress on Drinking Water, Sanitation and Hygiene. Geneva/New York, 2021.(Gigiyena va sanitariya bo‘yicha global statistika va tahlillar).
8. Abdulla Avloniy TURKIY GULISTON YOXUD *AXLOQ Badan tarbiyasi 5-bet.*
9. BSc Computer Science Go to hw.ac.uk/dubai Amy Kaiser 2015.
10. F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” *darslik.”Tafakkur” Nashriyoti Toshkent-2019.*

BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA UNI SHAKILLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Kalkonova Lutfiya Yusufovna,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Bahodirova Namuna, 3 kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sog‘lomlashtiruvchi vositalardan foydalanish xususiyatlari aniqlangan va tahlil qilingan. Bolalarda sog‘lom turmush tarzining jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Bolalar ratsioni, jismoniy faollik darajasi va kun tartibiga oid asosiy omillar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: Sog‘lom turmush tarzi, sog‘lomlashtirish texnologiyasi, bolalar, vosita, bolalar salomatligi, optimal, samaradorlik, qo‘l barmoqlari uchun mashqlar, motorika, funksional ko‘rsatkichlar, jismoniy ko‘rsatkichlar, kun tartibi.*

Kirish. Bugungi kunda rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlarni yanada samaraliroq qilish, ularning ta’lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining (maktablar, maktab-internatlar) differensiallashgan tarmoqlarini takomillashtirish kerak. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tarzda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning ta’lim tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan, shuningdek jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ularning muayyan sport turidagi funksional imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlangan. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya berish, korreksiyalash va davolash-sog‘lomlashtirish muassasalari hisoblanadi hamda jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarning umumiy o‘rta ta’lim olishida va ularni bilim olish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko‘maklashish, shuningdek ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta’lim berishda yordam ko‘rsatishga e’tibor ko‘rsatilmoqda. Ta’lim muassasalarida (ayniqsa maktabgacha ta’limda) faqat nazariy bilim berish emas, balki amaliy sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan (barmoq gimnastikasi, nafas mashqlari, harakatli o‘yinlar) foydalanish metodikasini ishlab chiqish va joriy etish bugungi kun pedagogikasining muhim talablaridan biridir. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish —

bu shunchaki tibbiy muammo emas, balki jamiyatning ijtimoiy, pedagogik va iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi eng dolzarb masalalardan biridir.

Bolalarda sog‘lom turmush tarzi va uni shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, “sog‘lom turmush tarzi” tushunchasining mazmuni va tarkibiy qismlarini yoritish, bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning hozirgi holatini o‘rganish, o‘quvchilarda sog‘lom hayot kechirish motivatsiyasini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar tayyorlash zarur. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vazifalari: 1. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida bolalarni sog‘lomlashtirish vositalarini saralash. 2. Sog‘lomlashtirish texnologiyasining ta’sir samarasini tahlil qilish. Ko‘pincha biologik salomatlik bolaning bevosita ota-onasining turmush tarziga bog‘liq. Ota va onaning yomon odatlari uning qorin bo‘shlig‘idagi bolaning rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin. Ayolning homiladorlik paytida haddan tashqari jismoniy faolligi, haddan tashqari ovqatlanishi, yomon uyqusi, hissiy ortiqcha yuk homilaning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Agar bola o‘sadigan va rivojlanadigan ekologik muhitni bir kishi o‘zgartira olmasa, u holda aqliy va ijtimoiy sog‘lom chaqaloq butunlay ota-onasiga bog‘liq. Madaniy rivojlanish ota-onalarning misolidan boshlanishi kerak. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda “taqlid mexanizmi” asosiy o‘rin tutadi. Agar ota-ona kun tartibiga rioya qilsa va jismoniy faol bo‘lsa, bolada bu ko‘nikmalar 75-80% holatda tabiiy ravishda (majburlashlarsiz) shakllanadi. Bu jarayon nafaqat jismoniy, balki psixosomatik salomatlikning ham poydevoridir.

Oiladagi tinch vaziyat, qiyinchiliklarga munosib munosabat, bir-biriga yordam berish — bularning barchasi normal aqliy rivojlanish uchun maktabgacha tarbiya muhitida ham muhim ahamiyatga ega. Salomatlik uchun shaxsiy gigiyena chaqaloq uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chaqaloq eng boshida hayotni o‘zlashtirishi kerak, tanani moslashtirishi kerak. Bu nafaqat tananing yaxshi holati uchun, balki salomatlik uchun ham juda muhimdir. Shaxsiy gigiyenaga amal qilishda bolada shaxsiy narsalar bo‘lishi kerak: taroq, tish cho‘tkasi, sochiq va ro‘molcha. Bolangizga shaxsiy gigiyenadan to‘g‘ri foydalanish yuzasidan ta’lim berishingiz kerak.

Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi o‘zgarishlari bo‘lmasdan o‘tmaydi, garchi bu protsedura ko‘plab ota-onalarda xavfli choralar qo‘llash bilan bog‘liq. Ammo qattiqlashuv kasalliklarning oldini olish va immunitetni mustahkamlashning samarali usuli hisoblanadi. Agar siz asosiy qattiqlashuv qoidalariga rioya qilsangiz, bolaning tanasi asta-sekin atrof-muhit omillariga ko‘proq bardoshli bo‘ladi. Haroratni muntazam ravishda o‘tkazish juda muhim, ayniqsa qishda. Asta-sekinlik tamoyili muhim hisoblanadi. Agar yuklama asta-sekin oshirilsa, tanani atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga moslashtirish mumkin. Shuningdek, chaqaloqning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Bugungi kunda muassasalarda ta’lim tizimiga katta e’tibor berilmoqda, shu jumladan salomatlik, profilaktika va tuzatish choralari amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limda sog‘lomlashtirish texnologiyasidan foydalanish bu barkamol va jismonan baquvvat bolalarni rivojlantirishdagi muhim qadamdir. Bunday texnologiyalar barcha tadbirlarda qo‘llaniladi. Ular sog‘liqni saqlash va bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqida asosiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Maktabgacha muassasalarda baholash va rag‘batlantirish texnologiyasining quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalar uchun 2-5 daqiqalik qisqa dinamik tanaffuslarni amalga oshirish. Bu sinflarda faollikni oshiradi va stressni yengillashtiradi. Qisqa jismoniy faollik yangi kuch bilan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish imkonini beradi.

Bolalar bog‘chalarida gimnastika juda muhim hisoblanadi. Agar maktab o‘quvchilari uchun barmoqlar va qo‘l mashqlari faqat stressni yengillashtirsa, unda bu qisqa mashg‘ulotlarda bolalar o‘zlarining yaxshi motorik mahoratini oshiradi hamda nutqni faollashtiradi.

Qon aylanishi, nutq terapiyasi guruhlar orasidagi bunday tanaffuslar juda zarurdir. Istalgan vaqtda barmoq gimnastikasini qilish muhim ahamiyatga ega. So‘nggi paytlarda bolalar bog‘chalarida bioenergoplastika texnologiyasi keng tarqalgan. Bu qo‘llar va artikulyatsiya

apparatlari harakatlarining kombinatsiyasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mashq miya faoliyatini rag‘batlantirishga yordam beradi. Bolalar bog‘chasida zamonaviy sog‘lomlashtirish texnologiyalari, qo‘l barmoqlari uchun mashqlardan muntazam foydalanish orqali ularning harakat faolligi oshishi hamda stresslar oldi olinib psixologik holati yaxshilanishiga erishiladi.

Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish xususiyatlari va usullari: Bolalarda STT ni shakllantirish — bu uzoq muddatli pedagogik va oilaviy jarayon. Uning asosiy xususiyatlari: Erta yoshdan boshlash — maktabgacha davr (3-7 yosh) eng samarali vaqt, chunki bola o‘yin orqali o‘rganadi va odatlar tez shakllanadi. Ota-onalar va pedagoglar hamkorligi — bolalar kattalarni nusxa qiladi. Agar ota-ona sport bilan shug‘ullansa yoki sog‘lom ovqatlansa, bola ham shunga intiladi. O‘yin va qiziqarli usullar — o‘yinchoqlar, harakatli o‘yinlar, rol o‘ynash (masalan, “Shifokor bo‘laman”) orqali gigiyena va ovqatlanishni o‘rgatish. O‘yin bolaning jismoniy, nutqiy va psixik rivojlanishiga yordam beradi. Muntazamlik va takrorlash — kichik qadamlardan boshlab, har kuni takrorlash. Masalan, har kuni ertalab badantarbiya yoki birga ovqatlanish. Ijobiy rag‘batlantirish — jazodan ko‘ra maqtash va kichik mukofotlar (yulduzcha jadvali) samaraliroq. Ekologik va ijtimoiy omillar — toza havo, xavfsiz o‘yin maydonchalari, atrof-muhitga mas’uliyatni singdirish.

Xulosa qilib aytganda bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish — bu davlatning demografik xavfsizligini ta’minlovchi strategik investitsiyadir. Sog‘lomlashtiruvchi vositalardan unumli foydalanish nafaqat jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazadi, balki jamiyatning intellektual va ruhiy salohiyatini saqlab qolishning yagona kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonni optimallashtirish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni an’anaviy sog‘lomlashtirish metodlari bilan integratsiya qilish zarur. Bolalikdan (ayniqsa maktabgacha yoshdan) boshlangan sog‘lom turmush tarzi — bu shunchaki jismoniy sog‘lomlik ko‘rsatkichi emas, balki shaxsning intellektual va ma’naviy yetukligini ta’minlovchi fundamental asosdir. Sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalarni ta’limning barcha bosqichlariga joriy etish millat genofondini saqlash va rivojlantirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiya harakatini rivojlantirish”ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-5114-son qarori 2021 yil 18 may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2821-son qarori.
3. Sharipova D.D. va boshqalar. "Sog‘lom turmush tarzi asoslari". — Toshkent: "O‘qituvchi", 2005.
4. Gulyamov N.N. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish metodikasi". — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son Farmoni "Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
6. Светличная Н.К. Адаптивная физическая культура и спорт: учебник. – Т.: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2021. – 232 s.
7. Собирова л.б. эффективность использования специальных упражнений в профилактике нарушений роста у младших школьников.
8. Nurullayevna B. S., Sobirova L. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yassi oyoqlikni jismoniy mashg‘ulotlardagi gimnastika vositalari orqali oldini olish. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 7. – s.
9. Sobirova, L. B. "the use physical education arrangement to prevent disorders in 7-10 grade pupils." Academic research in educational sciences 3 (2020): 411-415.

10. Ziyoev O.T. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ustivor vazifalari :CyberLeninka, 2024.

EMOTSIYA TUSHUNCHASI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Aliyeva Zulayxo
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlarining bir qismi bo‘lgan emotsiya haqida umumiy tushuncha, fizik, fiziologik, psixologik omillar ta’sirida emotsional kechinmalarning yuzaga kelishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ko‘plab olimlarning turli fikrlari, qarashlari va ular ilgari surgan nazariyalardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Emotsiya, emotsional faktor, inson emotsiyasi, hayvon emotsiyasi, mimika, imo-ishora.*

KIRISH. Bizga ma’lumki, psixologiya alohida fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Ammo bu ilgari psixologiya mavjud bo‘lmagan degani emas, ya’ni bu fan dastlab falsafa va tibbiyot negizida yashagan. O‘sha davrlarda yashagan yunon faylasuflari Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta’limotlari keyingi asrlarda psixologik g‘oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, Aristotelning “Jon haqida” asari o‘sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi. Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo‘lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo‘lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabilar o‘zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyot haqidagi fikrlari o‘sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Har bir fanning o‘rganish predmeti bo‘lganidek, psixologiyaning ham predmeti mavjud. Psixologiyaning predmeti – psixika. Psixika bu professor V.M.Karimova fikricha tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Psixikaning namoyon bo‘lish shakllari mavjud bo‘lib, uni uch katta guruhga bo‘lishimiz mumkin: 1.Bilish jarayonlari; 2.Shaxsning hissiy-irodaviy sohalari; 3. Shaxsning individual xususiyatlari. Bugungi mavzumiz bo‘lgan “emotsiya” tushunchasi psixikaning namoyon bo‘lishidagi ikkinchi shakli hisoblangan shaxsning hissiy-irodaviy sohalari tarkibiga kiradi. Emotsiya - shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir[1]. Hissiyotga tez beriladigan kishilarda bu jarayon yaqqol namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM. Psixologiyaga oid adabiyotlarda emotsiya hissiyot tushunchasi bilan yonma-yon keladi. Hissiyot odamda sodir bo‘layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Emotsiya esa odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishi hisoblanadi. Odam his-tuyg‘ulari bilan hayvon hissiyotlari o‘rtasida juda katta farq bo‘ladi. Odamda juda ko‘p miqdorda his-tuyg‘ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda uchramaydi. Shuning uchun ham odam ham hayvon uchun umumiy bo‘lgan g‘azablanish, qo‘rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik, xursandchilik, g‘amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a’zoyi badanida bo‘ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po‘sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Kishining emotsional kechinmalari vaqtida nutqining tezligi o‘zgaradi. Ko‘pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o‘zgaradi. Turli emotsional holatlarda nafas olishning o‘zgarishi ham turlicha bo‘ladi:

a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;

[1] Eshquvvatov T. Umumiy psixologiya. Kattaqo‘rg‘on-2024.

b) faol xafalikda 9 marta;
v) qo‘rqishda 64 marta;
d) jahl chiqqanda 40 marta[1].

O‘tkazilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, g‘amginlik va ma’yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so‘zlashgan kishining tovushi ham bo‘linib-bo‘linib chiqadi. Masalan, imtihon jarayoni boshlangan vaqtda qo‘rquv hissining kuchayishi natijasida inson nafas olib-chiqarishi tezlashadi, qo‘llari terlay boshlaydi. Imtihonga bir necha soat qolganda ovqatlanganda inson to‘yish hissini his qilmaydi, yoki to‘yganini sezmay ko‘p ovqat yeb qo‘yadi, yoki behuzur bo‘lib tanavvul qilmaslikni tanlaydi. Hissiy kechinmalar emotsional tus olganda inson qiyofasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, kishi jahli chiqqanda rangi qizaradi, ko‘z qorachiqlari kengayadi, lablari titrashi yoki u yoqdan bu yoqqa tez-tez yurib harakatlanishi kuzatiladi. Ajablangan va qandaydir tushunib bo‘lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o‘zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshishi mumkin. Misol tariqasida yana imtihon jarayonini olaylik: to‘g‘ri javobda ikkilanish o‘quvchida shubha hissini uyg‘otadi. Shu shubha natijasida psixikaning bilish jarayoni –xotira ishga solinadi. Hissiy zo‘riqishlar esa xotirani susayishiga sabab bo‘ladi. O‘smirlik yoshida, taxminan 13—14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o‘zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta’lim ta’siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o‘sadi. O‘smirlar dunyoqarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bilan qiziqa boshlaydilar, ularning kamalak va yoshlar ittifoqida ishtirok etishlari bunday qiziqishlarning o‘sishiga ko‘p jihatdan yordam beradi. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va axloqiy hislarni o‘sishi uchun manba bo‘lib qoladi. O‘smirlarda xayol kuchli ravishda o‘sadi. Hislarning o‘zi xayolning o‘sishiga yordam beradi va xayolning o‘zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarning manbayi bo‘lib qoladi[2]. Demak, emotsional kechinmalar bevosita yosh davrlar psixologiyasi bilan ham bog‘liq ekan.

XULOSA. Ko‘rib chiqilgan misollar natijasida bilishimiz mumkinki, insonning hissiy kechinmalari hayvonlar hissiyotlaridan tafakkur qila olishi, yuksak hislarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Agar odamning jamiyatdagi xatti-harakatlari axloq normalariga mutlaqo zid bo‘lsa, odam vijdon azobiga uchraydi. Vijdon azobi murakkab hissiy holatdir. Xulosa shuki, insonning vijdoni, tafakkuri, estetik va intellektual hislari bo‘lmasa, go‘yoki hayvon tengiga tushib qoladi. Muomala madaniyatida ham ijtimoiy muhitda, albatta, shaxsning yosh davriga e’tibor qaratgan holda yondashish munosabatlardagi tushunmovchiliklarni oldini olishga yordan beradi. Hissiyotlarga zo‘r berish oqibatida kelib chiqadigan stress, affekt, depressiya, gollyutsinatsiya hodisalari ham faqat insonga xos holatlar hisoblanadi. Bunday salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan psixik jarayonlar nafaqat noxush vaziyatlar orqali, balki, juda kuchli hayajon va xursandchiliklar ortidan yuz berish holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Demak, inson emotsiyalarini chegaralashi, ularni ong orqali boshqarishi, har qanday vaziyatda ongli harakati uning ruhiy holatini me’yorda bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Eshquvvatov T. Umumiy psixologiya. Kattaqo‘rg‘on-2024

[1]Xaydarov F. Xalilova N. Umumiy psixologiya. Toshkent -2009.

[2] Nishanova Z. va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti Toshkent - 2018

2.Fayziyeva U. Jumayev N. Umumiy psixologiya. Buxoro – 2021
3.Xaydarov F. Xalilova N. Umumiy psixologiya. Toshkent -2009
4.Nishanova Z. va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti Toshkent – 2018

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KASBIY DEFORMATSIYATNING SABABLARI, RIVOJLANISHI VA SALBIY OQIBATLARI

Mardiyeva Dilorom
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.

Anotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda pedagoglarda tez-tez kuzatilayotgan kabiy-pedagogik deformatsiyaning mazmun-mohiyati va kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritiladi. Kasbiy-pedagogik deformatsiya ko‘rinishlari, kasbiy deformatsiyaga eng ko'p moyil bo'lganlar odamlar, deformatsiyaning dastlabki shartlari, deformatsiyaning asosiy sabablari, kasbiy deformatsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlar xususida ma’lumotlar keltirilgan. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish haqida bir necha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so‘zlar. *kasbiy deformatsiya, shaxs deformatsiyasi monotoniya, hissiy charchash, boshqaruv eroziyasi, “Kuyib ado bo`lish” sindromi, kognitiv holsizlik.*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda faoliyat yuritmoqda. O‘qituvchining roli nafaqat bilim beruvchi, balki psixolog, tarbiyachi va kommunikator sifatida kengayib bormoqda. Bu esa uning kasbiy yuklamasini oshiradi va psixologik bosimni kuchaytiradi. Natijada burnout sindromi shakllanish ehtimoli ortadi.Burnout sindromi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u uzoq davom etuvchi stress natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik hodisa sifatida tavsiflanadi.

Jahon ta’lim tizimida xususan O’zbekiston Respublikasida ham pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirish, kasbiy o’z-o’zini rivojlantirishi kreativ yondashuvlar asosida malakalarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olish, shaxslararo differensial munosabatlar tizimi chuqurroq o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’tarish va uning samaradorligini oshirish bo’yicha keng ko’lamdagi o’zgarishlar samarasini ko’rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmonida “pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” [1] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa o’qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy deformatsiya masalasi XX asrning 20-30- yillaridanoq o‘rganila boshlangan. Bu borada kasbiy intilish, mehnat ishonchliligini ta’minlash, mehnat qobiliyatini oshirish muammolari, ishga bo’lgan layoqatni yaxshilash shuningdek, kasbiy faoliyatdagi noqulay sharoit bilan bog‘liq vaziyatlar tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarni ko‘rish mumkin. Biroq professional deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirish masalalariga bir muncha kam e’tibor qaratilgan. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirish uchun esa biz birinchi navbatda professsional deformatsiyaning mazmunmohiyati va uning rivojlanishi sabablarini o’rganmog’imiz lozim. Deformatsiya – (lotincha “deformation” – “buzilish”, “o‘zgarish”) bu tashqi va ichki ta’sirlar natijasida tana shakli va funksiyalarining o‘zgarishidir, degan ma’noni anglatadi. Kasbiy deformatsiya – bu kasbiy faoliyatda tashqi va ichki omillar ta’siri natijasida mutaxassisning kognitiv, xulq-atvor va motivatsion sohasida yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlardir. Ko‘pincha shaxsdagi salbiy o‘zgarishlarni tasniflashda “shaxsning kasbiy deformatsiyasi” (shaxs”deformatsiyasi) atamasidan keng foydalanib kelingan.Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, biz “pedagogik kasbiy deformatsiya” atamasini taklif qilamiz, chunki har bir kasbda bo‘lgani kabi o‘qituvchilik kasbining ham o‘ziga

xos deformatsiyalari mavjudligi bunga asos sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun, biz o‘qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyani kasbiy faoliyat ta’sirida shaxsiy xususiyatlardagi o‘zgarishlar, pedagogik faoliyat mazmunining buzilishi, kasbiy sifatlar va pedagogik qobiliyatlarni salbiy o‘zgarishiga olib keladigan hodisa sifatida talqin etilgan [2]. 1930 yillarda psixotexnik S.G.Gallershteynning yozishicha, kasbiy faoliyatning mazmuni xodimlarning u yoki bu vazifani bajarishlari bilan emas, balki organizmni kasbning ma’lum jihatlariga moslashishi bilan bog‘liqdir. Ishchi xodim organizmi va tashqi ta’sirlar o‘rtasida to‘xtovsiz o‘zaro ta’sirlashuv sodir bo‘ladi. Shu tufayli xodimning faqat tanasida emas, balki psixikasida ham deformatsiya kuzatiladi. Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta’sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o‘zgarish sifatida talqin qilinadi. Kasbiy deformatsiya dastlab inson tomonidan ishlab chiqilgan professional stereotiplarning hayotining boshqa sohalariga, shu jumladan, tarqalishi bilan bog'liq edi. Keyinchalik esa, professionaldan tashqari xulq-atvor (kasbdan tashqari xatti-harakatlar) va muloqotda ko’rina boshladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar “Inson-inson” tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo‘lishi va shakllanishini ta’kidlaydilar. Birinchi marta "professional deformatsiya" atamasi Pitirim-Sorokin tomonidan salbiy ta'sir belgisi sifatida kiritilgan. Kasbiy deformatsiyani S. G. Gellershteyn (1930), A. K. Markova (1996), E. F. Zeer (1999, 2003), S. P. eznosov (2004), R. M. Granovskaya (2010), S. A. Drujilov (2013) kabi olimlar o‘z sarlarida tasvirlab berganlar. Tadqiqotchilar shaxsning kasbiy deformatsiyasini, faoliyatning kasbiy deformatsiyasini, mehnat xulq-atvorining kasbiy deformatsiyalarini ajratib ko'rsatishadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologik adabiyotlarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishiga olib keladigan omillarning uchta guruhi mavjud: huquqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar, shaxsiy xususiyatdagi omillar, ijtimoiy-psixologik xarakterdagi omillar.

Deformatsiyaning dastlabki shartlari quyidagilarda namoyon bo’ladi. Deformatsiyaning dastlabki shartlari. **oxir-oqibat odamni psixologik to'siqqa olib keladigan monoton funktsiyalar va harakatlar**: agar u o'zini yangi sharoitda topsa, unga moslashish qiyin bo'ladi; **kasb tanlash motivlariga e'tibor berish**: bu o'zining muhimligini isbotlash, ma'lum bir ijtimoiy mavqega ega bo'lish, hokimiyatga erishish istagi bo'lishi mumkin; **super umidlar** oxirida haqiqatga mos kelmaydigan kasbiy faoliyatning boshlanishi.

Bu omillar faqat oldingi shartlar bo'lib, oxir-oqibat, ertami-kechmi ishchi dim)ning kasbiy deformatsiyasiga olib keladi. **Deformatsiya rivojlanishining asosiy sabablari:** bu sohada ishlashni istamaslik - ba'zilar bu ish ular uchun emasligini darhol tushunishadi, kimdir yillar kerak; ish yillari davomida to'plangan rofessional charchoq; yoshga bog'liq o'zgarishlar - yoshligingizda bu kasb sizga mos edi va endi siz o'z vazifalaringizni avtomatik ravishda bajarasiz, garchi maqsadlar yosh bilan o'zgargan bo'lsa ham; o'z ishining maqsadlarini noto'g'ri tushunish; onotoniya - doimiy monoton ish; ortiqcha ish yuki; yuqori o'ziga ishonch;yuqori darajadagi asabiylashish, charchoq; doimiy stress; noto'g'ri intizom; sizning xizmatlaringiz hamkasblar tomonidan tan olinmagan taqdirda o'zingizni ishlashga bag'ishlash; keskinlik, hamkasblar o'rtasidagi nizolar; ijodkorlik va yangi g'oyalar muhokamasiz rad etilganda, o'zini namoyon qilish uchun sharoit yo'qligi; qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish, kasbiy o'sishning mumkin emasligi.Muayyan odamda deformatsiyaning sabablari biroz boshqacha bo'lishi mumkin - har birimiz individualmiz. Umumiy sabablar orasida ishning monotonligi, monoton funktsiyalari, yuqori darajadagi stress, charchoq, professional charchoq asosiy sabablarga kiradi.Professional deformatsiya ham foydali, ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zida deformatsiya haqiqatan ham foydalidir, chunki ba'zi sof professional ko'nikmalar kundalik hayotda ko'p yordam berishi mumkin. Misol uchun, xo'jayin lavozimini egallagan kishi o'z qobiliyatlarini qandaydir oilaviy tadbirni tashkil qilish uchun ishlatishi mumkin. Shifokor har doim birinchi yordamni qanday ko'rsatishni biladi. Eng muhimi, ish va hayot o'rtasidagi chegara haqida

unutmang. Siz qisqacha kiritishingiz mumkin professional ishchi normal sharoitda, lekin faqat qisqa vaqt uchun.

Kasbiy deformatsiyaning salbiy qibatlar ko'proq: Ma'muriy zavqlanish hissi - ozmi-ko'pmi muhim mavqega ega bo'lgan odam atrofdagilarga past nazar bilan qarasa; **Hissiy charchash** - ish shunchalik ko'p singib ketganda, psixologik himoya to'sig'i tushib qolsa, odam yonib ketadi va hayotning ma'nosini ko'rmaydi; **Boshqaruv eroziyasi** - deformatsiya natijasida rahbar samarasiz va tez jazolanadigan zolimga aylanganda; **Shaxsning moslashuv qobiliyatining pasayishi** - inson o'z kasbida yangi narsa qidirmaganda; **Boshqalar bilan munosabatlarning yomonlashishi** - ishdagi aloqa shakllari oddiy hayotga o'tkazilganda. Deformatsiyaning bunday oqibatlarini oldini olish uchun uning birinchi belgilarini o'z vaqtida sezish va ularni yo'q qilish kerak. Muammo psixologik xususiyatga ega bo'lganligi sababli, uning barcha sabablari o'zimizda yotadi va shuning uchun uni faqat biz o'zimiz yenga olamiz.

XULOSA. Konkret metod va metodikalarni chuqur o`zlashtirish shaxsning kasbga doir deformatsiyasini oldini olishga yordam beradi. Bunday shaxsga doir deformatsiyalarga “kuyib ado bo`lish” sindromini kiritish mumkin. “Kuyib ado bo`lish” sindromi o`z ishida xususiy, shaxsga doir zaxiralardan foydalanuvchi turli toifalardagi mutaxassislarda uchraydi. U kasbdagi zo`riqish sababli yuzaga kelib, emotsional, jismoniy va kognitiv holsizlik bilan xarakterlidir.

Bunday sindromni vujudga kelishiga: mutaxassisning shaxsiy yechilmay qolgan muammolari; hamkasblari tomonidan kam qo`llab-quvvatlangan holda ular tomonidan yuqori talablar qo`yilishi; motivatsiyasi past guruhlar bilan ishlash oqibatlari; ish samaradorligining pastligi; turg`unlik; professional bilimlarining oshkor bo`lishidan qo`rqish; ish tajribasini o`rgatish va targ`ib etishga yo`l qo`yilmasligi kabilar sababchi bo`lishi mumkin. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish - bu kasbiy deformatsiyaning dastlabki shartlari va namoyon bo'lish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan profilaktika choralari majmui. Aqlni boshqarish usullarini o'zlashtirish, faoliyatning bir turidan boshqasiga o'tish qobiliyatini rivojlantirish, irodani kuchaytirish, eng muhimi, stereotiplarga, standartlarga, naqshlarga berilmaslik va vaziyatga qarab, real vaqt rejimida harakat qilishga asoslanadi. Har bir inson shaxsiyatning kasbiy deformatsiyasini rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, uning mehnatga munosabati uning ruhiy holatiga yanada ta'sir qilishini bilishi kerak. Uning yelkasiga qanday vazifalar yuklanganligini tushunish va bu asoslarga qat'iy rioya qilish muhimdir. Shu bilan birga, har doim o'zgarishlarga tayyor bo'ling. Kasbiy pedagogik deformatsiyaga oldini olish uchun biz quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Muntazam profilaktika ishlarini olib boring yiliga kamida 2-4 marta. Ya'ni: o'z-o'zini rivojlantirish haqida unutmang, madaniyat markazlariga tashrif buyuring, ortiqcha ishlamang va o'zingizga dam olish imkoniyatini bering, bir vaqtning o'zida ham qattiq, ham mehribon bo'ling. Shaxs sifatida bularni anglang va rivojlaning.

2. Energiyangizni hayotning sizga eng kichik quvonch keltiradigan sohalariga yo'naltiring. Buning uchun siz kitob o'qishingiz, sog'ligingizni unutmang, keraksiz narsalardan voz kechishingiz va mahoratingizni oshirishingiz mumkin. Aks holda, professional deformatsiya siz uchun haqiqiy muammo bo'lib, to'liq hayot kechirishingizga to'sqinlik qiladi.

3. Pedagog (xodim)lar kasbiy deformatsiyaning oldini olish uchun o’z-o’zini

tashxisini tez-tez o’tkazadi: o’zo’zini tanqid qilish qobiliyatini rivojlantiring;

4. Ishingizdagi hissiy charchashlar darajasini kamaytirishga harakat qiling. Faoliyatingiz yuzasidan belgilangan ishlar hamda shaxsiy hayot uchun ham

ma’lum bir me’yorda alohida-alohida vaqt ajrating; Kasbiy faoliyatga differentlik xususiyatini kiriting, xususan, kreativ g’oyalar bilan yangi loyihalar yarating,

kasbiy faoliyatga yangilik olib kirish.

ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida.

2. Abdusamiyev Dilmurod Abdunabi o'g'li "O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiyani oldini olishning pedagogic imkoniyatlari". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.Avtoref. – Namangan 2023
3. Mynbayeva A.K., Anarbek N., Akhmetova G.K. Diagnosis of pedagogical professional deformations: aview from Kazakhstan. International Conference on Education and Educational Psychology (ICEEPSY 2012) Procedia - Social and Behavioral Sciences. Volume 69, 24 December 2012, Pages1289-1294. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187.

INSTITUTLARDA TYUTORLIK TIZIMI. ILMIY ASOSLARI VA BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI.

To'rayeva Nilufar Rashidovna
Qsiyo xalqaro universiteti magistri
turayevanilufar34@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimining ilmiy-nazariy asoslari, tyutorlarning pedagogik faoliyati hamda talabalarning akademik rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tyutorlik tizimining bugungi kundagi muammolari va uni takomillashtirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar*: tyutorlik tizimi, oliy ta'lim, talaba, pedagogik faoliyat, akademik maslahat, ta'lim sifati.*

Kirish. Institut chin ma'noda mas'uliyat maskani. Bu dargoh ayrimlar o'ylagandek har kuni bayram bo'ladigan makon ham emas. Ha institutda bayram bo'ladi, osh beriladi, ammo shu bilan birga asosiy vazifa sifatida ilm ham beriladi. Talabalarning muammolariga yechim izlanadi, hal etiladi.

Bu yerda har bir talabaning bilim olishidan tortib uning salomatligi, ruhiyati qiyinchiliklari-har biri alohida masala. Chunki har bir talaba bir oilaning umidi, bir ona qalbining parchasi, ota orzusining davomchisidir.

Men ishlayotgan fakultetda bir yarim mingga yaqin talaba tahsil oladi. Institut bo'yicha esa, uch mingdan ziyod talaba bor.

Bu shunchaki raqamlar emas. Bu degani yana shuncha nalabaning taqdiri, yana shuncha hayot, yana shuncha mas'uliyat degani. Biz tyutorlar faoliyatimiz davomida har kuni turli katta kichik holatlarga, vaziyatlarga (muammolarga) duch kelamiz.

Ba'zan bu muammolar kimgadur har kunlik oddiy ish kuni bo'lib tuyular, ammo ularning ortida inson taqdiri, tashvishi, yosh qalbning iztirobi turishi mumkin. Shuning uchun bu masalalarni yechishda o'quv tizimi, ma'naviyat yo'nalishi, ilmiy b'olim va boshqa turli mas'ullar bilan hamkorlikda ishlashga to'g'ri keladi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog sifatida aytaolamanki, bu ishning tarozisi og'ir, uning o'ziga yarasha yuki bor. Ba'zan ta'limga, tizimga tashqaridan turib osongina tosh otayotganlar bo'lishi mumkin, lekin bu yukning og'irligini, uning ortidan qancha mashaqqat va qancha mas'uliyat turganini ayrim kishilar his qilishmaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimi nisbatan yangi va dolzarb soha bo'lganligi sababli, bu mavzuda "Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida tyutorlik instituti: muammo va yechimlar" mavzusida to'xtalib o'taman.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv va pedagogik mexanizmlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Shunday mexanizmlardan biri bu — tyutorlik institutidir. Tyutorlik tizimi talabalar bilan individual ishlash, ularning o'qish jarayonini samarali tashkil etish, shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu tizimni joriy etish

jarayonida qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni ilmiy tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tyutorlik institutining mazmun-mohiyati haqida so’z yuritsak, tyutorlik — bu talabaning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, unga akademik va psixologik jihatdan ko‘maklashish, o‘qish jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Tyutor talabaga faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va motivator sifatida ham faoliyat yuritadi. Rivojlangan davlatlar tajribasida tyutorlik tizimi ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Yangi O‘zbekistonda ham mazkur tizim bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Tyutorlarning kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi bu - tyutorlik institutining dolzarb muammolaridan biri bo’lib qolmoqda. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida tyutorlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa ularning pedagogik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligiga olib kelmoqda. Tyutorlarning funksional vazifalari aniq belgilab berilmaganligi sababli ular ko‘pincha o‘z faoliyatidan tashqari ishlarga ham jalb etilmoqda. Bu esa ularning asosiy vazifasini samarali bajarishiga to‘sqinlik qiladi. Vazifalar noaniqligi va ortiqcha yuklamalar bunga sabab bo’lmoqda.

Tyutorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yagona metodik qo‘llanmalar, standartlar va tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi esa,metodik ta’minotning yetishmasligiga sabab bo’la oladi. Talabalar bilan ishlashda individual yondashuvning sustligi, amaliyotda tyutorlar ko‘pincha barcha talabalar bilan bir xil uslubda ishlaydi, bu esa individual yondashuv tamoyilining buzilishiga olib keladi.

Tyutorlik institutini rivojlantirish bo‘yicha yechimlarga tyutorlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, maxsus o‘quv kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish orqali tyutorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Metodik qo‘llanmalar yaratish tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zamonaviy metodik materiallar va qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Har bir talabaning qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatidan kelib chiqib ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur bu - Individual yondashuvni kuchaytirishda olib keladi. Tyutor va talabalar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash uchun maxsus elektron platformalar, mobil ilovalar va monitoring tizimlarini yaratish maqsadga muvofiq,

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida tyutorlik institutini rivojlantirish ta’lim tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mavjud muammolarni bartaraf etish va ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali tyutorlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning akademik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tyutorlik tizimi oliy ta’lim muassasalarida muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Tyutorlik tizimi ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham tyutorlik instituti joriy etilib, talabalar bilan ishlashning yangi mexanizmi sifatida rivojlanmoqda. Shu bilan birga, tyutorlik tizimini takomillashtirish zarurati ham mavjud. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning individual rivojlanishini ta’minlash, ularning akademik faoliyatini samarali tashkil etish va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tyutorlik tizimi zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Tyutorlik tizimi talabalar bilan individual ishlashga asoslangan bo‘lib, ularning bilim olish jarayonini muvofiqlashtirish, akademik faoliyatini nazorat qilish hamda shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi keng qo‘llanilib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda tyutorlik instituti joriy etildi va u talabalarning o‘qish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda. Biroq ushbu

tizimni joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Institutlarda tyutorlik tizimining ilmiy-nazariy asoslari, uning vazifalari hamda bugungi kundagi muammolari tahlil qilinadi.

1. Tyutorlik tizimining nazariy asoslari

Tyutorlik tushunchasi oliy ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan pedagogik faoliyat turlaridan biridir. Tyutor so‘zi ingliz tilidagi “tutor” so‘zidan olingan bo‘lib, u murabbiy, maslahat beruvchi yoki yo‘l ko‘rsatuvchi degan ma’noni anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda tyutor quyidagicha ta’riflanadi: tyutor — bu talabaning o‘quv jarayonini tashkil etish, uning individual rivojlanishiga ko‘maklashish va ta’lim faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanuvchi pedagogik mutaxassisdir.

Tyutorlik tizimi ilk bor Buyuk Britaniya universitetlarida shakllangan bo’lib, ayniqsa Oksford va Kembrij universitetlarida talabalarga individual yondashuv asosida ta’lim berishda tyutorlik tizimi muhim o‘rin tutadi.

Tyutorlik tizimining asosiy maqsadi talabaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, uning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va akademik muvaffaqiyatini oshirishdan iboratdir.

Tyutorlik tizimi quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim
- individual yondashuv
- kompetensiyaviy yondashuv
- hamkorlik pedagogikasi.

Ushbu tamoyillar tyutor va talaba o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining vazifalari qo’yidagiicha, tyutorlik faoliyati talabalarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Tyutor quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- akademik faoliyatni muvofiqlashtirishi,
- tyutor talabalarga o‘quv rejasi va fanlarni o‘zlashtirish jarayonida maslahat beradi. Talabalarning o‘qishdagi muammolarini aniqlaydi va ularni bartaraf etishga yordam berishi
- ndividual rivojlanishni ta’minlashi,
- tyutor har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda uning individual rivojlanish yo‘lini belgilashga yordam berishi lozim,
- tarbiyaviy faoliyat,
- tyutor talabalarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga ham e’tibor qaratadi. U talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va jamiyatga foydali bo‘lish kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam berishi
- talabalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi
- talabalar yangi muhitga moslashishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Tyutor ularning ijtimoiy muammolarini hal qilishda yordamchi
- talabalarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishi,
- tyutor talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida turli madaniy va sport tadbirlarini tashkil etishda ishtirok etadi.

Qishqa qilib aytganda, tyutorga "nazoratchi" deb emas, balki "universitetning eng muhim strategik xodimi" deb qaralishi va shunga yarasha sharoit qilib berilishi kerak. Shunda tyutor talabaga nafaqat buyruq beradi, balki uni hayotga tayyorlaydigan haqiqiy maslahatgo‘yga aylanadi. Tyutorlik tizimi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizim talabalarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga, ularning bilim darajasini oshirishga va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tyutorlik tizimini yanada takomillashtirish uchun tyutorlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi bo‘yicha normativ hujjatlar
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar
4. Oliy ta’lim tizimi bo‘yicha ilmiy jurnallar
5. Internet manbalari

REFLEKSIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Nabiyeva Shaxnoza Shuxratovna
Qarshi davlat Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,1-bosqich magistranti

Annotatsiya: **Mazkur maqolada refleksiv yondashuv asosida oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida refleksiv faoliyatni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, o‘z-o‘zini baholash hamda muammoli vaziyatlar asosida o‘qitishning samaradorligi tahlil qilindi.**

Kalit so‘zlar: refleksiv yondashuv, kasbiy-ijodiy qobiliyat, oliy ta’lim, refleksiya, pedagogik shart-sharoitlar, kreativlik, kompetensiya.

KIRISH. Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, kreativ va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bugungi kunda mehnat bozori nafaqat bilimli, balki yangi g‘oyalarni ilgari sura oladigan, muammolarga noodatiy yondashadigan va o‘z faoliyatini tanqidiy baholay oladigan shaxslarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy ta’lim jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarni passiv bilim oluvchiga aylantirib qo‘yadi. Natijada ularning mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish hamda ijodiy yondashuv asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Bu esa kelajak mutaxassisining kasbiy faoliyatida muammolarga duch kelishiga olib keladi. Shuning uchun ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, xususan refleksiv yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv – bu shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan ongli jarayon bo‘lib, u talabalarning o‘z-o‘zini anglash, o‘z ustida ishlash va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni faqat bilim egallashga emas, balki o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va yangi yechimlar ishlab chiqishga undaydi. Natijada talabalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot refleksiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy hamda refleksiv yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda refleksiv ta’lim tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim olishiga, balki o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Pedagogik kuzatish** – talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuv darajasini aniqlash maqsadida;
- **So‘rovnoma** – talabalarning refleksiv ko‘nikmalari va kasbiy-ijodiy qobiliyatlari holatini baholash uchun;
- **Test va diagnostika metodlari** – talabalarning bilim darajasi, kreativ fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini aniqlashda;
- **Pedagogik tajriba-sinov ishlari** – refleksiv yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish va uning samaradorligini aniqlashda;
- **Matematik-statistik tahlil** – olingan natijalarni umumlashtirish va ishonchliligini ta’minlashda.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida refleksiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarda olingan ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Boshlang‘ich diagnostika natijalariga ko‘ra, talabalar kasbiy-ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi yetarli emasligi aniqlandi. Xususan, talabalarning aksariyatida mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalari past yoki o‘rtacha darajada ekanligi kuzatildi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida refleksiv yondashuv asosida maxsus pedagogik shart-sharoitlar joriy etildi. Jumladan, refleksiv kundaliklar yuritish, muammoli topshiriqlarni bajarish, o‘z-o‘zini baholash va guruhiy muhokamalar orqali talabalarning faolligi oshirildi. Mazkur jarayon davomida talabalarning o‘z fikrlarini erkin bayon etish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Yakuniy natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida kasbiy-ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajasi sezilarli darajada oshdi. Xususan, yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar 18–20% dan 40–45% gacha oshganligi kuzatildi. O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar ham ijobiy o‘sish dinamikasini namoyon etdi, past darajadagi ko‘rsatkichlar esa keskin kamaydi. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, refleksiya jarayoniga jalb etilgan talabalar o‘z faoliyatini chuqurroq anglay boshlaydi, o‘z xatolarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini mustaqil ravishda izlaydi. Bu esa ularning nafaqat bilim darajasini, balki ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini ham sezilarli darajada oshiradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda kengroq qamrovli tadqiqotlar olib borish, turli fanlar kesimida refleksiv yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish hamda raqamli texnologiyalar asosida refleksiv ta’limni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalar faolligini oshirish hamda ularning kasbiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot refleksiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, refleksiv yondashuvni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish talabalarning mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- refleksiv yondashuv talabalarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi;
- pedagogik shart-sharoitlarning tizimli tashkil etilishi ta’lim samaradorligini oshiradi;
- talabalarning refleksiv faoliyatga jalb etilishi ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini faollashtiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. *How We Think*. – New York: D.C. Heath and Company, 1933.
2. Schön, D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 1983.
3. Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – New Jersey: Prentice Hall, 1984.
4. Moon, J. A. *Reflection in Learning and Professional Development*. – London: RoutledgeFalmer, 1999.
5. Boud, D., Keogh, R., Walker, D. *Reflection: Turning Experience into Learning*. – London: Routledge, 1985.
6. Biggs, J. *Teaching for Quality Learning at University*. – Buckingham: Open University Press, 2003.
7. Rogers, C. R. *Freedom to Learn*. – Columbus: Charles Merrill, 1969.
8. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. Zimnyaya, I. A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – Moskva: Logos, 2000.
10. Karimov, I. A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

O‘SMIRLAR JINOYATCHILIGIGA MOYILLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Holiqulova Gulnoza

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston sharoitida o‘smirlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, xususan impulsivlik, hissiy beqarorlik, o‘zini anglash jarayonidagi qiyinchiliklar hamda ijtimoiy muhitning ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ta’lim tizimi va zamonaviy axborot vositalarining o‘smirlar xulqiga ta’siri ochib beriladi. Maqolada O‘zbekiston kontekstida jinoyatchilikka moyillikni kamaytirishga qaratilgan psixologik profilaktika strategiyalari ham asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar

O‘smirlar jinoyatchiligi, kriminal psixologiya, ijtimoiy-psixologik omillar, impulsivlik, hissiy beqarorlik, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, tengdoshlar ta’siri, psixologik profilaktika, deviant xulq

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida yoshlar, xususan o‘smirlar orasida jinoyatchilik muammosi dolzarb ijtimoiy-psixologik masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi bevosita yosh avlodning ijtimoiy xulqi, qadriyatlari va hayotiy yo‘nalishlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni faqat huquqiy nuqtai nazardan emas, balki chuqur psixologik va ijtimoiy omillar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston sharoitida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatlar tarkibida nisbatan kam ulushni tashkil etsa-da, uning mavjudligi jamiyat barqarorligi va yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko‘pincha o‘g‘rilik, bezorilik, firibgarlik kabi xatti-harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa ularning psixologik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar, hissiy boshqaruv darajasi va ijtimoiy muhit bilan chambarchas aloqador ekanligini ko‘rsatadi.O‘smirlik davri inson hayotidagi murakkab psixologik bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘zini anglash jarayoni, mustaqillikka intilish, emotsional beqarorlik va ijtimoiy ta’sirlarga sezgirlik kuchayadi. Aynan shu omillar o‘smirlarning xulq-atvorida keskin o‘zgarishlarga olib kelishi va ayrim hollarda ularni ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqishga undashi mumkin. Shu sababli o‘smirlar jinoyatchiligini o‘rganishda ularning ichki psixologik holati, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri hamda ta’lim tizimining roli alohida e’tibor talab etadi.Shuningdek, zamonaviy jamiyatda axborot oqimining ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ham o‘smirlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan birga, salbiy xulq modellari, zo‘ravonlik va deviant xatti-harakatlarning tarqalishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Natijada, o‘smirlar ba’zan real hayotdagi ijtimoiy me’yorlar bilan virtual muhitdagi tasavvurlar o‘rtasida ziddiyatga duch keladi.Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — O‘zbekiston sharoitida o‘smirlar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali profilaktika yo‘llarini belgilashdan iborat. Ushbu tadqiqot doirasida o‘smirlarning psixologik xususiyatlari, oilaviy va ijtimoiy muhit ta’siri, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan psixologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

O‘smirlar jinoyatchiligi muammosi sotsial-psixologik jihatdan murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning shakllanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu muammo milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar, mahalla tizimi hamda zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Shu bois, o‘smirlar jinoyatchiligini tahlil qilishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.Avvalo, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari jinoyatga moyillikni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida shaxsning emotsional sohasi yetarlicha barqarorlashmagan bo‘lib, bu impulsivlik, affektiv portlashlar va riskli xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi. Ayniqsa, hissiy boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi o‘smirlarni vaziyatni chuqur tahlil qilmasdan tezkor qaror qabul qilishga olib keladi. Natijada, ular ijtimoiy me’yorlarga zid bo‘lgan harakatlarni sodir etish ehtimoli ortadi.O‘zbekistonlik psixolog va pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘smirlar xulqidagi deviantlikning asosiy omillaridan biri sifatida hissiy beqarorlik va ichki ziddiyatlar ko‘rsatib o‘tiladi. O‘smirlar ko‘pincha o‘zini anglash, o‘z o‘rnini topish jarayonida turli psixologik bosimlarga duch keladi. Bu jarayon ijobiy yo‘naltirilmagan taqdirda, agressiya, norozilik va ijtimoiy qarshilik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.Ikkinchi muhim omil — oilaviy muhitdir. Oila o‘smir shaxsining shakllanishida birlamchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi nizolar, ota-onaning befarqligi, tarbiyadagi izchillikning yo‘qligi yoki haddan tashqari qattiqqo‘llik o‘smir

psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda voyaga yetmaganlar o‘z ehtiyojlarini qondirish, e’tibor qozonish yoki ichki norozilikni ifoda etish maqsadida ijtimoiy me’yorlarga zid xatti-harakatlarga murojaat qilishi mumkin.O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining mavjudligi o‘ziga xos ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Biroq, ayrim hollarda ushbu tizimning samaradorligi pasaygan hududlarda o‘smirlar nazoratsiz qolishi va salbiy muhit ta’siriga tushib qolishi kuzatiladi. Bu esa ularning jinoyatchilikka moyilligini oshiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.Uchinchi muhim omil — tengdoshlar (peer group) ta’siridir. Sotsial psixologiya nazariyalariga ko‘ra, o‘smirlar o‘z xulqini shakllantirishda tengdoshlar guruhiga yuqori darajada moslashishga intiladi. Agar ushbu guruh ijtimoiy jihatdan salbiy yo‘nalishga ega bo‘lsa, o‘smir ham shu yo‘nalishda xulq namoyon eta boshlaydi. Guruh ichidagi maqomga erishish, tan olinishi istagi ko‘pincha o‘smirni jinoyat sodir etishga undovchi motivga aylanishi mumkin.Kriminal psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, o‘smirlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ko‘pincha ongli rejalashtirilgan emas, balki vaziyatga bog‘liq, spontan xarakterga ega bo‘ladi. Bu esa ularning psixologik yetuklik darajasi bilan bog‘liq. Shu jihatdan, o‘smirlar jinoyatchiligini kamaytirishda faqat jazolash emas, balki psixologik reabilitatsiya va profilaktika choralari ustuvor ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy axborot muhiti ham o‘smirlar xulqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli media vositalar orqali zo‘ravonlik, agressivlik va deviant xatti-harakatlarning namoyishi o‘smirlar ongida normal holat sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa ularning real hayotdagi xulqiga bevosita ta’sir etadi. Shu sababli axborot madaniyatini shakllantirish, media savodxonlikni oshirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.O‘zbekiston hududida o‘smirlar jinoyatchiligini kamaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orasida profilaktik yondashuv alohida o‘rin tutadi. Xususan, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, yoshlar bilan individual ishlash, sport va madaniy tadbirlarni kengaytirish, shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Psixologik nuqtai nazardan, o‘smirlarda ijobiy “Men-konsepsiyasi”, hayotiy maqsadlar va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi.Shuningdek, kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta profilaktika — ya’ni bolalik davridayoq ijtimoiy va psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etish — o‘smirlar jinoyatchiligini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bois, ta’lim muassasalari, oila va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.O‘zbekiston hududida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar jami jinoyatlar ichida taxminan 5–6 % ni tashkil etadi. Bu raqam psixologik nuqtai nazardan e’tiborli, chunki u o‘smirlarning psixologik rivojlanishidagi ayrim kamchiliklar, hissiy va ijtimoiy moslashuvdagi muammolar bilan bog‘liq.O‘smirlarning jinoyatga moyilligi ko‘plab psixologik omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, impulsiv qaror qabul qilishga moyillik bu davrning tabiiy xususiyati bo‘lib, u o‘smirlarni stressli vaziyatlarda tezkor va agressiv harakat qilishga undaydi. Statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar tomonidan eng ko‘p sodir etilgan jinoyatlar — o‘g‘rilik, bezorilik va firibgarlik — aynan impulsiv qarorlar va hissiy nazorat yetishmasligi bilan bog‘liq.Ikkinchidan, ijtimoiy muhitning ta’siri katta rol o‘ynaydi. Toshkent, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida o‘smirlar jinoyatchiligi ko‘proq kuzatilgan, bu hududlarda urbanizatsiya, oilaviy tarbiyadagi bo‘shliq, va salbiy guruhlar bilan aloqaning kuchayishi bilan izohlanadi. Psixologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar jamiyat me’yorlariga moslashmagan yoki oilaviy e’tiborsizlikka duchor bo‘lgan holatlarda jinoyatga moyillik darajasi oshadi.

Uchinchidan, o‘zini qadrsiz his qilish va ichki motivatsiyaning yetishmasligi o‘smirlarni jinoyatga yo‘naltiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. O‘zbekiston statistikasida qizlar orasida jinoyat sodir etish darajasi 8–9 % ni tashkil qiladi, bu esa shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘illar bilan solishtirganda qizlar ko‘proq ijtimoiy va psixologik nazorat ostida bo‘ladi, ammo hissiy va psixologik muammolar paydo bo‘lganda ular ham salbiy xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi mumkin.Bundan tashqari, hududiy tafovutlar ham psixologik kontekstni belgilaydi. Masalan, shaharlarda voyaga yetmaganlar jinoyatining ko‘payishi ijtimoiy bosim, stress va urban muhitning

salbiy ta’siri bilan izohlanadi. Qishloq hududlarida esa jinoyatga moyillik ko‘proq oila va jamiyat tomonidan ijobiy nazoratning yetishmasligi bilan bog‘liq.Shuni ta’kidlash lozimki, psixologik profilaktika strategiyalari O‘zbekistonda salbiy xulqni kamaytirish va o‘smirlarni ijtimoiy muhitga moslashtirishga qaratilgan. Oilaviy maslahatlar, maktabdagi psixologik treninglar, mahalla va sport markazlarida ijobiy mashg‘ulotlar o‘smirlarning impulsiv xatti-harakatlarini kamaytiradi, hissiy barqarorlikni oshiradi va jamiyat me’yorlariga moslashuvini kuchaytiradi.Natijada, O‘zbekiston hududida o‘smirlarning jinoyatga moyilligi nafaqat statistik ko‘rsatkichlar bilan, balki psixologik omillar — impulsivlik, hissiy nazoratning yetishmasligi, ichki motivatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu asosda, psixologik va ijtimoiy strategiyalar birlashtirilgan profilaktika choralarini kuchaytirish o‘smirlarning salbiy xulqini kamaytirishga samarali hissa qo‘shadi.Umuman olganda, o‘smirlar jinoyatchiligi faqat individual xulq natijasi emas, balki keng ijtimoiy tizimning mahsuli hisoblanadi. Shu sababli uni bartaraf etishda kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirish orqali o‘smirlarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlash va ularni jamiyatning faol, mas’uliyatli a’zolariga aylantirish mumkin.Mazkur ishda o‘smirlar jinoyatchiligini o‘rganishda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi psixologik qarashlar ilgari surildi. Xususan, o‘smirlar orasida jinoyatchilikka moyillikni tushuntirish maqsadida uch bosqichdan iborat bo‘lgan ijtimoiy-psixologik model tavsiya etildi.

Birinchi bosqich — psixologik bosqich bo‘lib, bunda o‘smir shaxsida ichki ziddiyatlar, hissiy beqarorlik, e’tibor yetishmovchiligi, stress va ruhiy tushkunlik kabi holatlar shakllanadi. Ushbu bosqichda shaxs hali jinoyat sodir etmagan bo‘lsa-da, uning psixologik holati deviant xulqqa moyillikni yuzaga keltiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich — ijtimoiy bosqich bo‘lib, unda o‘smir yashayotgan muhit, xususan oiladagi muammolar, noto‘g‘ri tarbiya, tengdoshlar bosimi hamda salbiy ijtimoiy guruhlarning ta’siri kuchayadi. Aynan shu bosqichda o‘smir ijtimoiy me’yorlardan og‘ish boshlaydi va o‘z xulqini salbiy muhitga moslashtira boradi.

Uchinchi bosqich — xulqiy bosqich bo‘lib, bunda o‘smir tomonidan dastlab kichik qoidabuzarliklar sodir etiladi, keyinchalik esa bu holat barqarorlashib, jinoyat darajasiga yetadi. Shu tariqa deviant xulq asta-sekin jinoyatchilik xulqiga aylanadi.

Mazkur ish doirasida shuningdek, o‘smir jinoyatchining psixologik portreti ham tavsiflab berildi. Ushbu portretga ko‘ra, jinoyatchilikka moyil o‘smirlar ko‘pincha impulsiv, hissiy jihatdan beqaror, ijtimoiy jihatdan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmagan hamda o‘zini jamiyatda namoyon qilish imkoniyatlari cheklangan shaxslar hisoblanadi. Ular ko‘pincha o‘zlarini ijtimoiy jihatdan inkor etilgan deb his qiladi va shu sababli salbiy guruhlar ta’siriga tez beriluvchan bo‘ladi.Mazkur ishda “psixologik xavf zonasi” tushunchasi ham ilmiy muomalaga kiritildi. Ushbu tushunchaga ko‘ra, agar o‘smir bir vaqtning o‘zida hissiy beqarorlik, ijtimoiy nazoratning sustligi va salbiy muhit ta’sirida bo‘lsa, u jinoyatchilikka kirib borish xavfi yuqori bo‘lgan hududda, ya’ni psixologik xavf zonasida joylashgan bo‘ladi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar ko‘pincha birdaniga yuzaga kelmaydi, balki ular kichik qoidabuzarliklar, tartib-intizom buzilishi, agressiv xatti-harakatlar orqali bosqichma-bosqich shakllanadi. Shu boisdan, erta profilaktika choralari alohida ahamiyat kasb etadi.Amaliy jihatdan, mazkur ish asosida o‘smirlar jinoyatchiligining oldini olish uchun umumta’lim muassasalarida muntazam psixologik treninglar tashkil etish, o‘smirlar bilan individual ishlash tizimini kuchaytirish, oilaviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan psixologik maslahatlar berish hamda ijtimoiy nazorat mexanizmlarini mustahkamlash zarurligi ta’kidlanadi.

Mazkur mavzuni tanlashimga asosiy sabab — bugungi kunda o‘smirlar orasida kuzatilayotgan xulq-atvor muammolari, xususan jinoyatchilikka moyillikning ortib borayotgani hamda uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishidir. Zamonaviy ijtimoiy muhitda yoshlar turli xil psixologik va ijtimoiy bosimlarga duch kelmoqda, bu esa ularning xulqida beqarorlik, agressivlik va deviant holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.Ayniqsa,

o‘smirlik davrining murakkab psixologik xususiyatlari, oilaviy muhitdagi ayrim kamchiliklar, tengdoshlar ta’siri va axborot texnologiyalarining kuchayib borayotgan roli ushbu muammoni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shu jihatdan, o‘smirlar jinoyatchiligini chuqur o‘rganish, uning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.Mazkur mavzu meni ayniqsa qiziqtirgan jihati shundaki, o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko‘pincha ularning ichki psixologik holati, tarbiya jarayoni va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ushbu tadqiqot orqali nafaqat muammoning sabablarini ochib berish, balki uning oldini olishga qaratilgan samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud deb hisoblayman.

Xulosa. O‘smirlar jinoyatchiligi zamonaviy jamiyatning dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi ko‘p omilli va murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu hodisa o‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar — impulsivlik, hissiy beqarorlik, o‘zini anglash jarayonidagi ichki ziddiyatlar bilan bir qatorda, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, ta’lim tizimi va ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa ularning psixologik yetuklik darajasi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, salbiy ijtimoiy muhit, oiladagi muammolar hamda nazoratning sustligi o‘smirlarning deviant xulq-atvorini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar jinoyatchiligining oldini olishda faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuvni qo‘llash zarur. Xususan, oilaviy tarbiyani mustahkamlash, maktablarda psixologik xizmatlarni rivojlantirish, o‘smirlarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda ularning hissiy-intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.Umuman olganda, o‘smirlar jinoyatchiligini kamaytirish jamiyatning barcha institutlari — oila, ta’lim tizimi va keng jamoatchilikning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishda tizimli va ilmiy asoslangan profilaktika choralarini amalga oshirish orqali sog‘lom, ijtimoiy faol va mas’uliyatli yosh avlodni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Raxmanova, M. E., & Avezov, O. R. 2022 O‘smirlar jinoyat motivlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar.

— O‘smirlar jinoyatchiliqqa moyilligi va psixologik hamda sotsial omillarni yoritadi.

2.Shermatov, J. S. 2023. Jinoyatchilikka moyilligi bo‘lgan o‘smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning ijtimoiy-psixologik asoslari. 118–123.

— O‘zbekiston psixolog olimi tomonidan o‘smirlar jinoyatchiligiga qarshi psixokorreksion yondashuvlar bayon etilgan.

3.Valiboyev, I. 2024.Yoshlardagi jinoyatchilik va uning sotsializatsiya jarayoni haqida ilmiy maqola. 17–21.

Voyaga yetmaganlar tomonidan bezorilik, bullying va kiberbullying mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston kontekstida tadqiqot.

4.Saliyev, U. X. 2022. Yoshlar jinoyatchiligi va uning sotsializatsiya jarayoni haqida ilmiy maqola.

Anora Z. Dzhuraeva 2020. O‘zbekiston sharoitida o‘smirlar jinoyatchiligi oldini olish masalalari.

5.Maxmatqulov, I. S., & Sharipov, T. D. 2022. O‘smirlar xulq-atvorida jinoyiy xatti-harakatlarni oldini olishda huquqiy bilim va tasavvurlarni shakllantirish. Pedagogika va psixologiya jurnali.

O‘smirlar jinoyatchiligi oldini olishda pedagogik-psixologik yondashuvlar.

6.Narziyeva, M. M., & Ziyodullayeva, G. B. 2023. O‘smirlik davridagi yoshlarning ijtimoiy psixologik muammolari.

O‘zbekiston kontekstida o‘smirlarning ijtimoiy va psixologik muammolari.

TAFAKKUR VA NUTQNING PSIXOLOGIK VA PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Samatova E'zoza Dilshodjon qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti,1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola tafakkur va nutq munosabatini psixologik, sotsiologik va psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Tafakkur va nutqning qanday rivojlanishi, shakllanishi va muloqotning kognitiv rivojlanishdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan izohlab beradi. Mazkur maqola ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida til, tafakkur va jamiyat o'rtasidagi o'zaro boo'liqlikni tushunishga hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, nutq, til, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, analiz, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, psixolingvistika, kognitiv jarayon.*

Til va tafakkur inson faoliyatining asosiy komponenti sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarining markaziy o'rnini egallaydi. Psixologik va lingvistik o'rganish natijalariga ko'ra, til va tafakkur bir-birini taqozo etuvchi, qo'llab-quvvatlovchi hamda insonning intellektual, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan vosita hisoblanadi. Avvalgi izlanishlar nutq va tafakkurning alohida jihatlarini o'rganishga yo'naltirilganligi sababli tafakkurning shakllanishida tilning o'rni, nutq va fikrlashning integratsiyalashuvi ilm-fan oldidagi tizimli tahlilga muhtoj muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolaning maqsadi til va tafakkurning o'zaro murakkab munosabatini psixologik, psixolingvistik va sotsiologik jihatdan tizimli o'rganish va tahlil qilish. Tadqiqot doirasida tafakkur va nutqning o'zaro aloqadorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi, ularning funksional birligini ochib beriladi hamda tafakkur jarayonlarining nutq orqali ifodalanish mexanizmlarini aniqlash nazariy va amaliy tomondan ko'rib chiqiladi.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining oliy shakli bo'lib, u olamni bilish va anglashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Tafakkur orqali inson atrof-muhitni chuqurroq idrok etadi hamda ushbu jarayonda fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq bilan chambarchars bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudoddir. Sezgi va idrok, xotira va tasavvurga nisbatan tafakkur kengroq tushuncha sanaladi. Kishi fikr qilish faoliyati davomida o'z idroki, tasavvuri va fikrlarining to'g'riligini, aniqligini va haqiqiyligini belgilab oladi. Masalan, biz har kuni quyosh Sharqdan chiqib G'arbga botayotganini idrok qilamiz, quyosh yer atrofida aylanayotganini ko'ramiz. Minglab asralar oldin juda ko'plab kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasida haqiqatda quyosh yer atrofida emas, balki yer quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Biz ayrim narsa va hodisalarni, masalan, doska va partalarni tasavvur qilamiz, ammo umuman doska va partalar haqida esa fikrlashimiz mumkin. Umumiylashish natijasida bir hukmning o'zida ayni vaqtda yakka bir narsa to'g'risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan" degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki O'zbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr qilinyapti. Odamlarning bilish va amaliy ehtiyojlari, hayot to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishi tafakkur qilish faoliyatini vujudga keltiradi va bu faoliyatni kuchaytiraveradi.

Tafakkur qilish – operativ jarayondir. Fikr yuritish operatsiyalari quyidagicha tasniflanadi:

Tushuncha	**Mazmun**
Taqqoslash	Bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlik yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini aniqlashda ifodalanadi.
Analiz va sintez	Bu operatsiya narsani tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Sintez esa analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir.

Abstraksiya	Shunday bir fikrlash jarayoniki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratilib olinadi.
Umumlashtirish	Tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o‘xshash, muhim belgilarini shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir.
Aniqlashtirish	Umumiy abstrakt belgini yakka obyektlarga tatbiq yoki mansub qilishda ifodalanadi.
Klassifikatsiya	Ko‘pchilik narsalarni guruhga bo‘lish yoki turkumga bo‘lish deb ataladi.
Sistemaga solish	Bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisalar va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o‘rniga qarab yoki mantiqiy tartibda joylashtiradi.

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushuncha shaklida ifodalanib keladi. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi. Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirishiga qarab chin yoki xato bo‘ladi. Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan belgilar, alomatlar hukmlarda ajratilib ko‘rsatilsa, bu chin hukm deb ataladi. Moddiy olamda haqiqatan bog‘liq bo‘lmagan narsa hukmda bog‘liq qilib ko‘rsatilsa, bunday hukm xato hukm deb ataladi. Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

1. Hukmlar sifatiga ko‘ra: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm;
2. Hukmlarning miqdoriga qarab: yakka, juz’iy, xususiy va umumiy hukmga;
3. Hukmlarning munosabatiga ko‘ra: shartli, ayiruvchi va qat’iy hukmlarga;
4. Hukm taxminiy ko‘rinishga ham ega bo‘lishi mumkin.

Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Xulosa chiqarish uch turga bo‘linadi:

1. Induktiv xulosa chiqarish – bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usuliki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o‘tiladi.
2. Deduktiv xulosa chiqarish – umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz’iy hukm keltirib chiqaradi.
3. Anologiya xulosa chiqarish – bunda ikki predmetning ba’zi bir belgilari o‘xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilarining o‘xshashligi to‘g‘risida xulosa chiqaramiz.

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi. Tushuncha deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishini tushunamiz. Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Shu sababli tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yuritishga to‘g‘ri keladi. Masalan, odam eng ongli mavjudotdir degan tushunchani olsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinyapti. Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya’ni klassifikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So‘zlar, belgilar, simvollar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. I.P.Pavlov ta’biricha, so‘z ikkinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi. Shunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi.

Fikr almashish quroli bo‘lmish til tafakkur bilan uzviy bog‘langan. Til milliy madaniyat shakli sifatida tafakkurning harakati, uning faoliyati natijasida yaratilgan ma’naviy boylikni zamonda va makonda abadiylashtiradi. Sh.Safarovning yozishicha “Tafakkur qaysi holatda va qanday ko‘rinishda harakatga kelmasin, yagona bir vazifani bajaradi – u voqelik haqidagi axbarotni qabul qilish, to‘plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir. Bu usul vositasida hosil bo‘ladigan g‘oya yoki fikr voqelikning ongda aks etish shaklidir. Tafakkurning harakatlanishi va fikrning shakllanishi voqelikning bevosita ongda aks etishini ta’minlovchi jarayon – bilish faoliyati bilan bog‘liq. Tilning bilish faoliyatidagi o‘rni alohida, u voqelikni idrok etish va bilish vositasi - qurolidir”. Keyingi yillardagi logika, psixologiya, odamning bosh miyasi faoliyatini o‘rganishdagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, tafakkurning bir-biridan farq qiluvchi ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, ularning biri - predmet tafakkuri, ikkinchisi esa – mavhum tafakkurdir. Predmet tafakkuri odam va hayvon uchun umumiy bo‘lib, ularning kundalik amaliy hayotini belgilovchi, avloddan avlodga instinkt orqali o‘tib ochlikni, xavf-xatarni, issiq-sovuqni ajratishni ta’minlaydigan tafakkurdir. Mavhum tafakkur faqat odamlarga xos bo‘lib, u til bilan birga paydo bo‘lgan va til bilan rivojlanadi.

Tafakkurning nutq orqali ifodalanishi ularning shunchaki bog‘liqligini emas, balki funksional birligini ifodalaydi. Bu holat tafakkurning mustaqil psixik jarayon emas, nutq bilan integratsiyalashgan yagona kognitiv tizim sifatida qaralishi kerakligini asoslaydi. Sotsiologik yondashuvlar asosida til orqali jamiyatda shakllangan bilimlar va qadriyatlar tafakkurning mazmunini belgilashi fikri ilgari surilmoqda. Demak, tafakkur faqat individual ong mahsuli emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli hamdir. Shuningdek, predmet va mavhum tafakkur o‘rtasidagi farqlar ham hisobga olinib, ularning nutq bilan aloqasi darajasi turlicha ekanligi muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalari tafakkur va tilning o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini isbotladi. Tafakkur jarayonlari nutq vositasida ifodalanib, tushuncha, hukm va xulosa shaklida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, nutq tafakkurning tashqi ifodasi hamda uni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi psixik vosita hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tafakkur operatsiyalari – analiz, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemalashtirish – nutq birliklari bilan chambarchars bog‘liq holda amalga oshadi. Shuningdek, tafakkurning mantiqiyligi va tizimligi nutq rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liqligi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, til va tafakkurni bir-biridan ajratib qo‘yish mumkin emas. Tafakkursiz til va tilsiz tafakkur bo‘lishi mumkin emas, ular doimo bir-birini taqozo qiladi. Tafakkur tilda yashaydi, u faqat til vositasi bilan namoyon bo‘ladi. Tilda o‘z aksini topgan tafakkurgina yashash va rivojlanish imkoniyatiga egadir. Taniqli nemis olimi V.fon.Gumboldt ta’biricha “bunchalik bir-biriga o‘xshash boshqa bir narsani o‘ylab topish qiyindir”. Insoniyat mahsuli bo‘lmish mavhum tafakkur o‘ziga tilni yaratadi, til va tafakkur odamlarni jamiyatga birlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
2. T.E.Eshquvvatov. Umumiy psixologiya – Kattaqo‘rg‘on.: SamDU tahririy-nashriyot, 2024.
3. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2009.
4. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik – Jizzax.: Sangzor nashriyoti, 2006 – bet 13.

UMUMIY NARKOZDAN KEYIN QISQA MUDDATLI XOTIRA BUZILISHLARINING KLINIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Karimova Gulchexra Xamidullayevna
E-mail: gulikarimova0009@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy narkozdan keyin yuzaga keladigan qisqa muddatli xotira buzilishlarining klinik va psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida postoperativ kognitiv disfunktsiya holatlari tahlil qilinib, uning asosiy patofiziologik va psixologik xavf omillari aniqlangan hamda ularning xotira tiklanish jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, operatsiyadan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlari ko‘plab klinik va emotsional omillar ta’sirida shakllanib, kompleks reabilitatsion yondashuvni talab etadi.

Kalit so‘zlar: umumiy narkoz, qisqa muddatli xotira, postoperativ kognitiv disfunktsiya, kognitiv buzilish, psixologik omillar

Kirish: Zamonaviy tibbiyot amaliyotida umumiy narkoz murakkab va invaziv jarrohlik aralashuvlarini amalga oshirishda ajralmas komponent hisoblanadi. Umumiy narkoz yordamida bemorning og‘riq sezuvchanligi vaqtincha to‘xtatiladi, ong faoliyati susaytiriladi va mushaklar relaksatsiyasi ta’minlanadi, bu esa operatsion jarayonni xavfsiz va samarali tarzda olib borishga imkon yaratadi [1,125]. Shu bois, umumiy narkoz zamonaviy jarrohlikning eng muhim yutuqlaridan biri sifatida baholanadi. Biroq, uning klinik samaradorligi bilan bir qatorda, organizmning turli tizimlariga, xususan markaziy asab tizimiga ta’siri yuzasidan ham qator ilmiy bahs-munozaralar mavjud [2,130].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar umumiy narkozdan keyingi davrda bemorlarda ayrim nevrologik va psixologik asoratlar rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda [3,86]. Ularning ichida postoperativ kognitiv disfunktsiya, ayniqsa qisqa muddatli xotira va diqqat jarayonlarining buzilishi eng ko‘p uchraydigan holatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [4,114].

Mazkur holat bemorlarda ma’lumotni vaqtincha eslab qolish, yangi axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va atrof-muhitga moslashish kabi aqliy faoliyat ko‘rsatkichlarining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda bu buzilishlar bir necha kun davom etsa, boshqa holatlarda bir necha hafta yoki oy davomida cақlanib qolishi mumkin.

Ushbu muammoning dolzarbligi butun dunyo bo‘yicha jarrohlik amaliyotlari sonining yildan-yilga ortib borayotgani bilan chambarchas bog‘liq. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab bemorlar turli darajadagi operativ muolajalarni boshdan kechirmoqda va ularning aksariyatida umumiy narkoz qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan, narkozning uzoq muddatli va qisqa muddatli asoratlarini chuqur o‘rganish zamonaviy anesteziologiya va reanimatologiyaning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Qisqa muddatli xotira buzilishlari nafaqat fiziologik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham muhim muammo hisoblanadi. Xususan, operatsiyadan keyingi davrda xotira pasayishi bemorning kundalik faoliyatiga, ish qobiliyatiga, ruhiy holatiga hamda oila va jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ko‘pincha bemorlarda bezovtalik, tushkunlik, o‘ziga ishonchsizlik va emosional zo‘riqish holatlarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, keksa yoshdagi bemorlarda markaziy asab tizimining yoshga bog‘liq degenerativ o‘zgarishlari tufayli ushbu buzilishlar yanada yaqqol va og‘ir shaklda kechadi.

Hozirgi kunda postoperativ kognitiv buzilishlarning rivojlanish mexanizmlari to‘liq aniqlanmagan bo‘lsa-da, bir qator biologik omillar ushbu holat bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Jumladan, neyroinflammasiya, ya’ni markaziy asab tizimida yallig‘lanish mediatorlarining ortishi, miya gipoksiyasi, oksidativ stress, neyromediatorlar muvozanatining buzilishi hamda qon-miya to‘sig‘ining funksional o‘zgarishlari asosiy patofiziologik mexanizmlar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari, narkoz davomiyligi, qo‘llanilgan anestetik preparat turi, bemorning yoshi, surunkali kasalliklari va individual nevrologik holati ham xotira buzilishlari rivojlanish xavfini oshiruvchi omillar sifatida qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, umumiy narkozdan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlarini erta aniqlash, baholash va oldini olish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish kelajakda postoperativ reabilitatsiya sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari anesteziologlar, nevrologlar va jarrohlar uchun klinik qaror қабул қилиш жараёнида muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi umumiy narkozdan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlarining klinik va psixologik jihatlarini kompleks baholash, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy xavf omillarini aniqlash hamda profilaktik va reabilitatsion choralarni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi:Bugungi kunda jarrohlik amaliyotlarida umumiy narkozdan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada kengaygan bo‘lib, uning inson organizmiga, ayniqsa markaziy asab tizimiga ta’sirini chuqur o‘rganish zamonaviy tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Umumiy narkoz operativ aralashuvlar vaqtida og‘riqsizlik, mushak relaksatsiyasi va ongni vaqtincha bostirish orqali samarali jarrohlik muhitini yaratadi. Biroq ayrim hollarda narkozdan keyingi davrda bemorlarda kognitiv faoliyatning vaqtinchalik yoki uzoq muddatli buzilishlari kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, qisqa muddatli xotiraning pasayishi bemorning operatsiyadan keyingi hayot sifati va psixoemotsional holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammo ayniqsa keksa yoshdagi bemorlar, surunkali nevrologik kasalliklarga ega shaxslar hamda uzoq davom etuvchi operatsiyalarni boshdan kechirgan bemorlarda ko‘proq uchrashi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli umumiy narkozdan keyingi xotira buzilishlarining rivojlanish mexanizmlarini aniqlash va oldini olish usullarini ishlab chiqish amaliy tibbiyot uchun katta аҳамият kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi:Umumiy narkozdan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlarining klinik va psixologik jihatlarini o‘rganish, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Umumiy narkozning markaziy asab tizimiga fiziologik ta’sir mexanizmlarini o‘rganish.
2. Narkozdan keyingi bemorlarda qisqa muddatli xotira o‘zgarishlarini baholash.
3. Postoperativ kognitiv buzilishlarga olib keluvchi asosiy xavf omillarini aniqlash.
4. Yosh, jins, operatsiya davomiyligi va anestetik preparatlar ta’sirini tahlil qilish.
5. Xotira buzilishlarining psixologik holat va kundalik faoliyatga ta’sirini baholash.
6. Profilaktika va reabilitatsiya bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Umumiy narkozdan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlarining klinik, nevrologik va psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:Mazkur tadqiqot davomida umumiy narkozdan keyingi qisqa muddatli xotira buzilishlarining rivojlanish mexanizmlari kompleks ravishda baholanadi, shuningdek ularning klinik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida postoperativ davrda kognitiv buzilishlarni kamaytirishga qaratilgan yangi tavsiyalar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy аҳамiyati:Tadqiqot natijalari umumiy narkozdan keyingi bemorlarni kuzatish va reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Olingan ma’lumotlar

anesteziologlar, nevrologlar va jarrohlar uchun postoperativ boshqaruv taktikasini ishlab chiqishda amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Metodlar:Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy usulda olib borildi va anesteziologiya, nevrologiya hamda tibbiy psixologiyaga oid xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni o‘rganishga asoslandi. Tadqiqot davomida taqqoslash, mantiqiy sintez va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.Postoperativ qisqa muddatli xotira buzilishlari bilan bog‘liq mexanizmlar, simptomlar va reabilitatsiya usullarini aniqlash maqsadida ilmiy maqolalar, klinik tavsiyalar va monografik manbalar tahlil qilindi.

Natijalar**:**Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, postoperativ qisqa muddatli xotira buzilishlari ko‘pincha operatsiyadan keyingi dastlabki 24–72 soat davomida yangi ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tiklash qobiliyatining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Klinik kuzatuvlar ushbu simptomlarni xotira konsolidatsiyasi va ijro funksiyalari uchun mas’ul bo‘lgan gipokamp hamda frontal kortikal tuzilmalar faoliyatining vaqtinchalik buzilishi bilan bog‘laydi.

Bundan tashqari, quyidagi omillar postoperativ xotira buzilishlari xavfini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan:

-bemorning katta yoshda bo‘lishi;
-narkoz davomiyligining uzoqligi;
-operatsiyaning murakkabligi;
-surunkali somatik kasalliklarning mavjudligi;
-operatsiyadan oldingi psixoemotsional beqarorlik.

Psixologik baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, xotira buzilishiga uchragan bemorlarda ko‘pincha xavotir, emotsional beqarorlik va moslashuv qiyinchiliklari kuzatiladi. Operatsiyadan keyingi og‘riq va stress darajasining ortishi esa kognitiv shikoyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Muhokama**:**Olingan natijalar postoperativ kognitiv disfunktsiya fiziologik va psixologik omillar ta’sirida shakllanuvchi ko‘p omilli sindrom ekanligini ko‘rsatgan avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi. Rasmussen, Monk va Steinmetz tomonidan olib borilgan izlanishlar narkoz davomiyligi, yosh va operatsiyadan keyingi kognitiv pasayish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlagan.

Psixologik nuqtai nazardan, xavotir va emotsional stress xotira bilan bog‘liq shikoyatlarni kuchaytirishi hamda tiklanish jarayonini sekinlashtirishi aniqlangan. Emotsional qo‘llab-quvvatlash va psixologik konsultatsiya olgan bemorlarda kognitiv moslashuv yaxshiroq kechishi va reabilitatsiya jarayonining tezlashishi kuzatilgan. Shu sababli, samarali postoperativ parvarish nevrologik va psixologik tiklanish jihatlarini qamrab oluvchi multidisiplinar yondashuvni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Miller R.D. Miller’s Anesthesia. – Elsevier, 2015.125bet
2. Morgan G.E. Clinical Anesthesiology. – McGraw-Hill, 2018. 130bet
3. Berger M. Postoperative cognitive dysfunction // Anesthesiology Clinics, 2015. 86bet
4. Evered L. Recommendations for cognitive change associated with anaesthesia // British Journal of Anaesthesia, 2018.114bet
5. Avidan M.S., Evers A.S. Review of clinical evidence for persistent cognitive decline or incident dementia attributable to surgery or general anesthesia // *Journal of Alzheimer's Disease*. – 2011. – Vol. 24(2). – P. 201–216.
6. Berger M., Nadler J.W., Browndyke J. et al. Postoperative cognitive dysfunction: minding the gaps in our knowledge of a common postoperative complication in the elderly // *Anesthesiology Clinics*. – 2015. – Vol. 33(3). – P. 517–550.

PSIXOLINGVISTIKA FANI GENEZISI, ASSOTSIATSIYA JARAYONI VA MATN DERIVATSIYASIDA MONOPREDIKATIV QURILMALARNING O‘RNI

Boltayeva Gulchehra,
filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: boltaevagulchekhra@gmail.com
Ibragimov Saidjon Nizom o‘g‘li,
KDPI 1-kurs magistranti
E-mail: ibragimovsaidjon80@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy dunyo tilshunosligida Psixolingvistika shunchaki nazariy yo‘nalish emas, balki inson faoliyatining barcha jabhalariga daxldor bo‘lgan muhim fan sifatida e’tirof etilmoqda. Psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya fanlari kesishmasida vujudga kelgan bo‘lib, "Inson miyasida gap qanday tug‘iladi va qanday tushuniladi?" mazmunidagi savolga javob izlaydi. Bundan tashqari jahon hamjamiyatida sun’iy intellekt, “ChatGPT”, “Siri” va “Google Assistant” kabi tizimlarning inson tilini nafaqat so‘zma-so‘z, balki mazmunan tushunishi uchun aynan psixolingvistik modellar va "matematik qoliplar" qo‘llanilmoqda.

Kalit so’zlar: Psixolingvistika, tilshunoslik, psixologiya, nutq hosil bo‘lishi, nutqni idrok etish, sun’iy intellekt, matn derivatsiyasi, kodlash va dekodlash, matematik qoliplar.

Kirish. “Psixolingvistika” atamasi etimologik jihatdan yunoncha *psyche* - “ruh, jon” va lotincha *lingua* — “til” so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan. Fan tarixiga nazar tashlasak, atama ilk bor 1946-yilda amerikalik tadqiqotchi Nikolas Pronko tomonidan “Til va psixologiya” mavzusidagi maqolada ishlatilgan. 1953-yilda Indiana shtatining Blumington shahrida o‘tkazilgan universitetlararo seminar ushbu fanning mustaqil yo‘nalish sifatida tan olinishiga turtki bo‘ldi[1].

Psixolingvistikaning shakllanishiga quyidagi omillar sabab bo’ldi:

1. Chet tillarini o‘qitish muammolari

Urushdan keyingi davrda ommaviy migratsiya jarayonlari kuchayishi aholini qisqa vaqt ichida chet tillariga o‘rgatish zaruratini keltirib chiqardi. “Inson chet tilini o‘rganayotganda o‘z ona tilida fikrlashda davom etadimi yoki yangi til asosida yangi tafakkur tuzilmalari shakllanadimi?”, “O‘quvchini imkon qadar qisqa vaqtda qanday qilib ikki tilli qilish mumkin? “, “Yangi til qonuniyatlarini o‘zlashtirishda ongda ona tiliga tarjima qilish jarayoni qanday kechadi?” kabi savollar insonlarda paydo bo’ldi va bu holat psixolingvistika faniga bo’lgan ehtiyojni keltirib chiqardi.

2. Nutqni patologik holatlardan keyin tiklash

Urush jarohatlari natijasida ko‘plab insonlarda nutqning buzilishi holatlari kuzatildi. Inson atrof-muhitni tushunsa-da, gapira olmasligi yoki boshqalarning nutqini idrok etolmasligi holatlari yuzaga keldi. Bunday vaziyatda faqat neyroxirurg emas, balki nutqning ishlash mexanizmlarini biladigan lingvist yordami ham zarur bo‘ldi. Bu esa psixolingvistikaning shakllanishiga olib keldi.

3. Sud psixologiyasi

XX asr o’rtalariga kelib sud tizimi Yevropada juda rivojlangan, shu bilan birga xilma-xil jinoyat turlari ham paydo bo’layotgan edi. Jumladan, anonim yozishmalar muallifining shaxsini (jinsi, yoshi, ta’limi) aniqlash vazifasi ham fanning amaliy poydevorini mustahkamladi.

Inson xotirasidagi so‘zlar alifbo tartibida emas, balki ma’no va vaziyat bog‘liqligi (assotsiatsiya) asosida saqlanadi. Masalan, kundalik nutqda kuzatiladigan "til aylanishi" hodisasi, ya’ni ayni vaziyatda ishlatishimiz kerak bo‘lgan so‘z o’rniga boshqa so‘zni aytib yuborish holatlari ko‘pchiligimizda bo’lgan. Masalan, onamiz farzandlaridan kimnidir chaqirmoqchi bo‘lsa, o‘rniga boshqa farzandi ismini beixtiyor ishlatib yuboradi. Bu jarayon onamiz miyasida farzandlarini bitta assotsiativ “javon”ga joylashidan kelib chiqadi. Ushbu “javon” “Farzandlarim” deb miyada

[1] Белянин В.П. Психолингвистика [Электронный ресурс] : учебник / В.П. Белянин. — 4-е изд., стер. — М. : ФЛИНТА, 2016. — 415 с.

shakllangan bo'lishi mumkin. Bu hodisa matn derivatsiyasida muallifning so'z tanlash mexanizmi sifatida tushuniladi.

Psixolingvistikada yana shunday holat borki, bunda gap yoki matnning qisqa yoki uzunligi insonga har xil ta'sir qiladi. Misol uchun "Eshik ochildi. Qadam tovushlari eshitildi. Bir nafaslik sukunatdan so'ng, "Taq" etgan qattiq ovoz hovlini junbushga keltirdi." Ushbu matndagi gaplarning qisqaligi beixtiyor o'quvchiga qo'rquv, hayajon hislarini beradi. Bil'aks uzun hamda murakkab gaplar esa chuqur mulohazani aks ettiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, psixolingvistika zamonaviy ilm-fanning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, u tilni shunchaki belgilar tizimi emas, balki inson ongi va faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida o'rganadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, psixolingvistika nazariy fan bo'lishdan avval, chet tillarini o'qitish, nutqiy nuqsonlarni tiklash va axborot uzatishdagi texnik muammolarni hal etish zarurati tufayli shakllangan bo'lib, inson nutqi jarayonida miya doimiy ravishda "o'z-o'zini monitoring qilish" va keyingi so'zni o'ylash kabi murakkab mexanizmlar asosida ishlaydi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt va ovozli yordamchilarning inson tilini mazmunan tushunishi aynan ushbu fanning "matematik qoliplari" va kodlash hamda dekodlash modellari asosiga qurilgani uning texnologik istiqbolini belgilab beradi. Matn derivatsiyasi jarayonida monopredikativ birliklarning tanlanishi matnning energetikasi va o'quvchi ruhiyatiga ta'sirini belgilovchi asosiy omil bo'lib, qisqa gaplar matnga dinamika va hayajon bag'ishlasa, murakkab tuzilmalar chuqur mulohazani aks ettirishi orqali lisoniy shaxsning o'ziga xosligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белянин В.П. Психолингвистика [Электронный ресурс] : учебник / В.П. Белянин. - 4-е изд., стер. — М. : ФЛИНТА, 2016. - 415 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.
3. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. — М.: Смысл, 1997. - 287 с.
4. Osgood C.E., Sebeok T.A. Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems. — Bloomington: Indiana University Press, 1954. - 203 p.
5. Pronko N.H. Language and psycholinguistics: a review. — Psychological Bulletin, 1946, No. 43. - P. 189-239.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA EDU TECH VOSITALARI ORQALI DARS JARAYONINI LOYIHALASH

Samarqand davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim
nazariyasi kafedrasi dotsenti,
Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna
xojamqulovanafisa5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda EduTech vositalaridan foydalanish asosida dars jarayonini loyihalashning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Raqamli pedagogika sharoitida o'quvchilarning nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni asoslab beriladi. Darsni loyihalashning bosqichlari, metodlari, vositalari va baholash mexanizmlari tizimli yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: EduTech, raqamli pedagogika, ona tili ta'limi, dars loyihalash, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, multimedia texnologiyalar, ta'lim innovatsiyalari.

Kirish. Ona tili fanini o'qitishda EduTech vositalari orqali dars jarayonini loyihalash zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashda innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, ona tili ta'limida EduTech

vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali natijalar bermoqda. EduTech tushunchasi ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va takomillashtirishni anglatib, u o‘z ichiga platformalar, interfaol vositalar, multimedia resurslar hamda baholash tizimlarini qamrab oladi. Mazkur vositalardan foydalanish o‘quv jarayonini interfaol, moslashuvchan va individuallashtirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, media va madaniyatshunos olim Henry Jenkins EduTech haqida quyidagi muhim fikrni ilgari suradi: ta’limda texnologiyalarni alohida emas, balki ekologik tizim sifatida, ya’ni kommunikatsiya vositalari, madaniy muhit va faoliyatlar o‘zaro bog‘liqligida ko‘rib chiqish zarur . Bu yondashuv zamonaviy integrativ ta’lim modelining asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogika tarixida muhim o‘rin tutgan olim Ivan Illich esa ta’lim texnologiyalarini “learning webs” (o‘rganish tarmoqlari) orqali izohlaydi. Unga ko‘ra, texnologiyalar yordamida insonlar o‘zaro bilim almashadigan ochiq ta’lim tarmoqlari shakllanadi . Bu g‘oya bugungi kunda onlayn platformalar va masofaviy ta’lim tizimlarida o‘z aksini topgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan, Kerimbayev va boshqalar (2025) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda esa EduTech vositalari:

- individual ta’limni tashkil etadi
- o‘quv jarayonini moslashtiradi
- shaxsiy o‘rganish trayektoriyasini yaratadi deya ta’kidlanadi

Bu esa EduTechning asosiy ustunliklaridan biri — individuallashtirish imkoniyati ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa bir qator olimlar EduTechning ijtimoiy va pedagogik ta’siriga ham e’tibor qaratadilar. Masalan, Neil Postman texnologiya nafaqat vosita, balki ta’lim madaniyatini o‘zgartiruvchi omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, texnologiya sinf muhitining mazmuni va mohiyatini ham o‘zgartiradi. Shuningdek, Langdon Winner texnologiyani “hayot shakli” sifatida izohlab, u inson faoliyatini va ijtimoiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirishini qayd etadi . Bu qarash EduTech vositalarining ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar ham EduTechning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash:

- o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi
- ijodiy va intellektual rivojlanishni ta’minlaydi
- ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi

Biroq ayrim olimlar ehtiyotkor yondashuvni ham tavsiya etadilar. Masalan, Lai ta’lim muhitini murakkab tizim sifatida baholab, texnologiya noto‘g‘ri qo‘llansa, dars mazmuni o‘zgarib ketishi mumkinligini ta’kidlaydi . Shu bois EduTech vositalaridan foydalanishda pedagogik maqsad ustuvor bo‘lishi kerak.


Umuman olganda, zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, EduTech vositalari:

- ta’limni individuallashtiradi
- interfaol muhit yaratadi
- o‘quv jarayonini samarali tashkil etadi
- o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiradi

EduTech tushunchasi va mohiyati

EduTech (Educational Technology) — bu ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar majmuasidir.

EduTech quyidagi komponentlardan iborat:



1-rasm. EduTech tushunchasi va mohiyati

Ona tili darslarini EduTech asosida loyihalash jarayoni bir necha muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, diagnostik bosqichda o‘quvchilarning bilim darajasi, ehtiyojlari va qiziqishlari aniqlanadi. Bu esa darsni samarali tashkil etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichda aniq maqsadlar belgilanadi. Mazkur maqsadlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, grammatik bilimlarini mustahkamlash hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shundan so‘ng, dars mazmuni tanlanadi, ya’ni nazariy materiallar, amaliy mashqlar va interfaol topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu jarayonda EduTech vositalarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Google Classroom yoki Moodle kabi platformalar orqali o‘quv materiallarini taqdim etish va nazorat qilish mumkin bo‘lsa, Padlet va Jamboard vositalari yordamida o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, Mentimeter va Kahoot kabi interfaol vositalar o‘quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladi, Quizizz va Google Forms esa bilimlarni tezkor va obyektiv baholash imkonini beradi.

Darsni loyihalashda metod va vositalarning uyg‘unligi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim va kollaborativ o‘rganish metodlari EduTech vositalari bilan integratsiyalashgan holda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ona tili darslarida so‘z boyligini oshirish uchun WordCloud texnologiyasidan, matn ustida ishlashda Padlet yoki Google Docsdan, grammatikani o‘rganishda esa interfaol testlardan foydalanish mumkin. Yozma nutqni rivojlantirishda o‘quvchilarga onlayn esse yoki blog yozish topshiriqlari berilishi, og‘zaki nutqni rivojlantirishda esa audio va video chiqishlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, multimedia vositalari — video, audio va animatsiyalar darsning ko‘rgazmaliligini oshirib, o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

EduTech asosida loyihalangan darslar an’anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday darslarda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida individual yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish va ularning natijalarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Baholash jarayoni ham sezilarli darajada takomillashadi, chunki onlayn testlar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tezkor va aniq natijalar olinadi. Formativ va summativ baholash tizimlari uyg‘unlashgan holda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari muntazam nazorat qilinadi.

Shu bilan birga, EduTech vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi dars samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish,

zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash va milliy raqamli platformalarni rivojlantirish zarur. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishda tizimli yondashuvni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o‘qitishda EduTech vositalari orqali dars jarayonini loyihalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, ularning nutqiy va fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri tashkil etilgan raqamli darslar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi va pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida EduTech vositalaridan samarali foydalanishni o‘zining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida shakllantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Noroozi O., Haddadian G., Gao X., Schunn C., Alqassab M., Banihashem S. K. Artificial intelligence in educational feedback systems // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2025. – Vol. 22. – Article 61.
2. Ellis R., Han F., Cook H. Teacher experiences of teaching with generative artificial intelligence // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2025. – Vol. 22. – Article 33.
3. Li Q., Xie R., Li M. Virtual learning environments and student engagement // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2025. – Vol. 22. – Article 40.
4. Mukhemar R., Affouneh S., Burgos D. Technology-enabled social-emotional learning for university educators: a systematic review // Frontiers in Education. – 2025. – Vol. 10. – Article 1655634.
5. Saputra M. P. A., Suhaimi N. A., Wahid A. J. Education revolution: Leveraging technology to improve learning quality by 2025 // International Journal of Ethno-Sciences and Education Research. – 2025. – Vol. 5, № 1. – P. 30–36.
6. Ali N. N. The impact of Edutech utilisation on learning outcomes // International Journal Corner of Educational Research. – 2025. – Vol. 4, № 1. – P. 52–62.
7. Yildirim B., Bektas O., Erdem A. Technology acceptance in education: teachers’ perspective // International Journal of Education in Mathematics, Science and Technology. – 2021. – Vol. 9, № 3. – P. 411–426.
8. Abduqodirov A. A. Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolari va istiqbollari // Pedagogik mahorat. – 2021. – № 3. – B. 15–20.
9. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish // Xalq ta’limi. – 2020. – № 4. – B. 25–30.
10. Xodjayev B. X. Raqamli pedagogika va zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirish // Pedagogika. – 2022. – № 2. – B. 10–18.
11. To‘raqulov X. A. Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Ta’lim va innovatsiya. – 2021. – № 1. – B. 40–46.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish to‘g‘risida qaror. – Toshkent, 2020.
13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.
14. Abduqodirov A. A., Pardaev U. Masofaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari // Uzluksiz ta’lim. – 2023. – № 2. – B. 5–12.
15. Karimov N. R. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonlari // Oliy ta’lim muammolari. – 2024. – № 1. – B. 22–28.
16. Yusupov Sh. S. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi // Zamonaviy ta’lim. – 2022. – № 5. – B. 33–38

MUHAMMAD YUSUFNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATINI O‘RGANISH

Qurbonov Z.O.
Oriental universiteti Samarqand kampusi
Tillar–1 kafedrasi dotsenti
Bozorova G.R.
Oriental universiteti Samarqand kampusi
Tillar–1 kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, har qanday badiiy matn muayyan axborotni jamlagan bo‘ladi. Bu axborotlar zamirida faqat xabar, bildirish mazmunigina emas, balki inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan jihatlari ham mavjuddir. Shuning uchun ham ijodkorlar har bir asarni yaratayotganida har bir so‘z ustida nihoyatda jiddiy o‘ylaydi. Ushbu maqolada ham Muhammad Yusufning so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: lirik tur, badiiy matn, badiiy tahlil, poetik mahorat, ijodkor uslubi.

Yuraklarda yurmagini
Oh, oldindan bilgan qush,
Har o‘zbekning yuragini
O‘ziniki qilgan qush.

Kirish. *Lirik asarlarda so‘zlarning to‘g‘ri tanlangani she’rning kitobxonga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan badiiy-estetik ta’sirini yuzaga keltiradi.*

Shoir Muhammad Yusuf she’riyatida ham xuddi shu holat ko‘zga tashlanadi. Shoir bir o‘rinda faylasuf kabi o‘yga toladi, bir o‘rinda oshiq bo‘lib nola qiladi, bir o‘rinda yosh bola kabi sho‘xlik qiladi, bir o‘rinda haqiqiy vatanparvar kabi Vatanni kuylaydi, xullas, qaysi mavzuda, qanday ohangda kuylamasin xalq diliga kirib boradi. Buning asosiy sababi shoirning so‘z tanlash mahorati bo‘lsa ajab emas. Muhammad Yusuf doimo xalq diliga, ko‘ngliga yaqin gaplarni juda topib va ravon aytgan. Uning she’rlari o‘z ohangi bilan birga yozilgan. Shoir o‘zining ichki his-tuyg‘ularini kuylamadi, aksincha, xalq quvonchini o‘z quvonchi, xalq dardini o‘z dardi deb bildi. Asosan, o‘lmas mavzularda asarlar yozdi. Yaratgan asarlarini hech kimnikiga o‘xshamagan xalqona yo‘sinda yozdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiy-madaniy, biografik, ijodiy-genetik metodlar tadqiqot usuli sfatida belgilandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi tahlilga tortilajak ijodkor mahoratini o‘rgatishning ahamiyati, shu bilan birga o‘rta maktab o‘quvchilari uchun ijodkor poetik mahoratini o‘rgatish usullarining kompetensiyaviy belgilanishida ko‘rinadi. Shuningdek, Muhammad Yusuf lirikasida shoir mahorati milliy ruh, lirik qahramon ko‘nglida kechayotgan psixologizm va shoirning so‘z qo‘llash yuzasidan badiiy mahorati tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari:

– shoir poetik mahoratini ochuvchi mezonlar qayta ko‘rib chiqildi;

– she’riyatga xos subyektiv olamning badiiy tahlilda tekshirilishi yuzasidan muayyan xulosalar olindi;

– estetik jihatdan shakllanishida qo‘llanilgan lug‘aviy birliklar guruhining o‘rinlari va shu usulda ijodkor nutqiy tafakkurining darajasi aniqlandi;

– shoirning o‘ziga xos individual mahorati matn lingvopoetik tamoyillari asosida ko‘rib chiqildi.

Tahlillar. Millatga, yurtga chin mehr faqat maqtov-u madhiyadan iborat bo‘lmaydi. Asl adabiyotda el-u yurtga muhabbat hayotning teran badiiy tasviri orqali yuzaga chiqariladi. Shafqatsiz hayotiy haqiqat, yechimsiz muammolar, insoniyat oldida turgan mushkul masalalar boricha ko‘rsatilib, odamning ko‘ngil dardlari ochiq aytilgan asarlar el-ulus ma’naviyatini yuksaltiradi. Bunday bitiklar xalqning dilidan joy olib, ruhiyatiga o‘ktamlik baxsh etadi:

She’riat bu qadim buyuk
So‘qmoq ekan.
Kiyik so‘qmoq ekan, kiyik
So‘qmoq ekan.
Shirin azob ekan, jonni
Yoqmoq ekan.

Bir qo‘lda gul, bir qo‘lingda
Chaqmoq ekan [1:11]

Ushbu she’rda shoir she’riyatning qadim so‘qmoqligidan bahs etadi. Ammo bu she’rning tashqi ma’nosi, xolos. Endi she’rning botiniga nazar tashlaymiz. She’riyatning so‘qmoqlarida uzoq yurgan yo‘lovchi bir yerda tin olib ortiga boqmoqda: o‘tilgan yo‘l qaysidir ma’noda mushohada va sarhisob etilmoqda va shoirning iqrori yuzaga kelmoqda. Muhammad Yusuf ta’biricha, shoirlik aslida azob, lekin shirin azob. She’rdagi o‘tgan zamon shakli “ekan” o‘quvchiga iqrorning ta’sir quvvatini oshirib beryapti.

Yuragim-ey boshlab kelding
Meni qayga?
Bag‘rim o‘xshar pora-pora
Bo‘lgan nayga.

Tabiiyki, she’rning boshqa komponentlari, xususan, go‘zal o‘xshatishlar, qarshilantirishlar she’r badiiyatini, jozibadorligini oshirgan, lirik qahramon iqrorining baland parvozini ta’minlagan. Chunonchi “Bir qo‘lda gul, bir qo‘lingda chaqmoq ekan” deganga o‘xshash inson hayotining mangu ziddiyati birgina misraga obrazli qilib muhrlangan. Muhammad Yusuf o‘z an’anaviyligi doirasida isyonkordir, lekin isyonini ham pardozlab, ohang ortiga yashiradi. Shoirning “Sevgi sadosi” she’riga e’tibor qarataylik:

Gulim, mehr ko‘zda degani yolg‘on,
Mening dilimda hech o‘chmas yolqinsiz.
Qancha ko‘rishmasak, shuncha qadrdon,
Qancha olis bo‘lsak, shuncha yaqinsiz [1:25]

Xalqda “Mehr ko‘zda” degan ibora bor. Shoir esa doimo shunday bo‘lavermasligini aytayotir, mehr ko‘ngilda ham bo‘lishi mumkin. Ko‘z ko‘rib turmasa-da ko‘ngil talpinaveradi. Ko‘z ko‘rmagach, qalbdagi sevgi alangalanadi:

Qancha ko‘rishmasak, shuncha qadrdon,
Qancha olis bo‘lsak, shuncha yaqinsiz…

Shu o‘rinda inson xayoliga shunday fikrlar keladi: balki ko‘z bilan sevish, mehrning ko‘zda ekanligi oddiy kishilargagina xosdir. Dunyo va o‘zlikni mushohada etib, borliqni tinglash, talqin va tahlil etish yo‘lida bo‘lgan ko‘ngil ko‘z mehriga muhtoj emasdir. Yorga bo‘lgan muhabbatining o‘zi oshiqqa kuch berar, uning sevgisini kuchaytirar.

She’rning musiqiyligi shunday “yuqumliki”, o‘quvchini o‘z olamiga olib kiradi:

Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim.
Siz meni ko‘klardan topgan oftobim,
Yerlarda yo‘qotgan ko‘zmunchog‘imsiz.

Qismat achchiq bo‘lishi mumkin, lekin dard va azob shirin bo‘ladimi? Bu Muhammad Yusuf she’riyatiga xos o‘zgachalik, shor she’rlaridagini uchraydigan alohidalik. Oshiqning yorga bo‘lgan muhabbati shunday shirin, shunday beg‘uborki, ma’shuqa tomonidan berilgan dard-u azoblar ham shirin bo‘lib tuyuladi. Yor samodan topilgan oftob, ammo yerda yo‘qotib qo‘yilgan ko‘zmunchoqqa o‘xshatiladi.

Siz o‘sha – ko‘zimning kiftida yurgan,
Siz o‘sha – ko‘nglimga ko‘ngli in qurgan.
To‘kilay, deb tilim uchida turgan
She’rimsiz, bir umr bitmas ohimsiz…

Birinchi misra kishi e’tiborini tortadi. Insonning kifti deyilganda, yelkasini tushunamiz. Lekin ko‘zning ham kifti bo‘lishi shoirning topilmasi bo‘lsa ajabmas. Bunday mubolag‘ali tasvir faqatgina mumtoz adabiyotimizda uchraydi. Muhammad Yusuf ushbu “topilma”si bilan o‘zbek she’riyati an’analarini davom ettirdi. Xalqimizda avaylamoq, asramoq, e’zozlamoq ma’nolaridagi “Kaftida ko‘tarib yurmoq” va “Kiftida ko‘tarib yurmoq” iboralari mavjud. Shoir bu misrada yorni e’zozlashini, bir umr yodida va qalbida saqlashini “ko‘zimning kiftida yurgan” jumlasi bilan

izohlaydi. She’r avvalidagi “Mehr ko‘zda degani yolg‘on” jumlasining ma’nosi ham endi oydinlashgandik bo‘ladi. Chunki yor oshiqning bir umr ko‘zi kiftida yuribdi. Ya’ni ma’shuqaning kulgulari, yuz-ko‘zlari, hatto “Ko‘ksimni kuydirgan kipriklari” hamon yodida. Shu bois ham “Qancha ko‘rishmasak, shuncha qadrdon” deya ayta oladi. Mana shoirning haqiqiy mahorati. So‘zlarning o‘rnida topib qo‘llangani lirik qahramonning yorga bo‘lgan muhabbati kuchini aks ettirib turibdi.

Muhammad Yusuf dunyoni she’r orqali ko‘rdi. O‘zini ham olamga she’r orqali tanitdi. She’r vositasida dunyo, insoniyat, jamiyat va Alloh bilan suhbat qurdi. U she’rning ko‘magida fikrladi, his qildi va yashadi. She’r Muhammad Yusufning yashashi, odamlar va jamiyat bilan muloqot qilishi vositasiga aylandi. Xullas, she’riyat shoirni xalqqa aziz va mukarram qildi. Shunga qaramay, Muhammad Yusuf o‘zining shoirligiga, shoirlik darajasiga tepadan qaraydi:

Bulbulzabonlaring xazon yopdimi,
Dunyo ularning hech tengin topdimi,
Muhammad Yusufing shoir bo‘ptimi
Nega yig‘lamaysan, ahli Andijon? [1:37]

She’r avvalida Bobur-u Mashrablar haqida kuylagan ularni “Bulbulzabon” deya ataydi va dunyoda ularning tengi yo‘q ekanligini “Dunyo ularning hech tengin topdimi” jumlasi bilan ifodalaydi. Shoir o‘zini ularga tenglashtira olmaydi.

Qirq yil chorlasa ham go‘rdan chiqmaydi Bobur,
Chiqsa ham bag‘ringga sig‘maydi Bobur.
Hindu quchog‘ida uxlaydi Bobur
Nega yig‘lamaysan, ahli Andijon.

Muhammad Yusuf Andijonga araz va kinoya bilan murojaat qiladi. Endi qancha chorlamasin, befoyda. Bobur go‘rdan chiqmaydi, ammo chiqqanda ham quchog‘iga sig‘maydi. U endi mangu Hindiston tuprog‘ida uyquga ketgan. O‘z bolasi o‘zga yurtda yotibdi. Bu haqiqatni aytgan shoir Andijon ahlidan nima sababdan yig‘lamayotganini so‘raydi.

Xulosa. Shoir she’rlaridagi milliylik, umuminsoniylik qalblarni junbushga keltirib, Vatanga muhabbat ruhining o‘sishiga xizmat qildi. Shoir so‘z vositasida shunday go‘zal marjon tizadiki, she’rdagi biror bir so‘z olib qo‘yilsa yoki o‘rni almashtirilsa, umumiy mazmunga putur yetadi. Masalan, Muhammad Yusuf “Vatanim” she’rida Vatanni “dudug‘im” deydi. Bu so‘z nuqsoni bor shaxslarga nisbatan ishlatilsa-da, she’rning mazmuniga zeb berib turibdi. Qaysi shoir Vatanni dudug‘ deya oladi? Vatanni chin dilidan sevgan, uning o‘tmishini o‘ylaganda joni og‘rigan, o‘rtangan farzandgina shunday so‘zni qo‘llay olishi mumkin. Bu Muhammad Yusufgagina xos bo‘lgan uslub. Muhammad Yusufgina Ona Vatanni bir maqtab, bir kamchiliklarini ro‘yi-rost ayta olgan shoir edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2007. – 367 б.
2. Матёқубова Т. Поетик идрок ва маҳорат. – Т.: Фан, 2011. – 172 б.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – 352 б.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 546 б.

TILNI ZAMONAVIY PARADIGMALAR ASOSIDA O‘RGANISH MUAMMOLARI

Jalilova Nafisa Razzoqovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
e-mail: nafisajalilova030@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv sharoitida tilni o‘rganish tubdan yangilanmoqda. An’anaviy yondashuvlar ya’ni tilni faqat grammatik qoidalar tizimi sifatida o‘rganish zamonaviy talablarga to‘liq javob bera olmayapti. Bugungi kunda **til ijtimoiy, kommunikativ** va **kognitiv**

hodisa sifatida qaralmoqda. Shu bois, oliy ta’lim tizimida tilni o‘qitishda zamonaviy paradigmalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim vazifa sifatida turibdi. Mazkur maqolada til o‘qitishning zamonaviy paradigmalariga asoslangan metodik yondashuvlar, ularning didaktik imkoniyatlari, amaliy ahamiyati hamda ba’zi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: paradigma, pragmatika, kommunikativ yondashuv, kognitiv yondashuv, pragmalingvistik yondashuv, interaktiv yondashuv, raqamli yondashuv

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilni o‘rganish jarayoni turli nazariy yondashuvlar, ya’ni paradigmalar asosida amalga oshiriladi. “Paradigma” atamasi qadimgi yunoncha ***paradeigma*** so‘zidan olingan bo‘lib, “namuna”, “model” ma’nolarini anglatadi. Dastlab falsafiy tushuncha sifatida ishlatilgan bo‘lib, ilmiy muomalaga XX asrda amerikalik faylasuf Tomas Kun tomonidan keng joriy etiladi. U paradigmaga ***ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan nazariy qarashlar, metodlar va muammolar majmui*** sifatida ta’rif beradi[1].

Tilshunoslik faniga birinchi marta "paradigma" atamasi tilshunos olim Ferdinand de Sossyur tomonidan ***bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan elementlar sinfini belgilash*** uchun ishlatilgan. Demak, paradigma fan taraqqiyotining muayyan davrida hukmron bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimi bo‘lib, fanda tadqiqot obyektini belgilaydi, ilmiy savollarni qo‘yish usulini aniqlaydi, metod va yondashuvlarni tanlashga yo‘l ko‘rsatadi. Tilshunoslikda esa bu tushuncha tilni tahlil qilishning turli metodologik yo‘nalishlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi tilshunoslikda qat’iy bitta paradigma ustuvor emas. Aksincha, integrativ yondashuv kuchaymoqda. Bunda kognitiv, pragmatik, lingvokulturologik yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu holat tilni ijtimoiy hodisa, madaniy fenomen, psixik jarayon sifatida birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Til o‘qitishda zamonaviy paradigmalar asosiy yo‘nalishlar asosida tahlil qilindi.

Tilni paradigmalar asosida o‘rganish jarayoni bir qator nazariy va metodologik muammolar bilan murakkablashadi. Ushbu maqolada ana shu muammolar ham tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari:

- kommunikativ yondashuvning ustuvorligi aniqlandi;
- kognitiv paradigma til o‘rganishni inson tafakkuri bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilindi;
- pragmalingvistik yondashuv tilni kontekst va nutq vaziyati bilan bog‘liq holda o‘rganishi tahlil etildi;
- raqamli paradigmaning innovatsiyonligi yoritildi.
- tilni zamonaviy paradigmalar asosida o‘rganish muammolari tahlil etildi.

Tahlillar. Zamonaviy tilshunoslik paradigmalarning integratsiyasi asosida rivojlanmoqda. Til o‘qitishda zamonaviy paradigmalar quyidagi asosiy yo‘nalishlar asosida tahlil qilindi.

- kommunikativ yondashuv
- kognitiv yondashuv
- pragmalingvistik yondashuv
- konstruktivistik (interaktiv) yondashuv
- raqamli (digital) yondashuv

Bu paradigmalar tilni o‘qitishda talabaga yo‘naltirilganlik, faollik, amaliyotga yaqinlik kabi tamoyillarni ilgari suradi.

Kommunikativ yondashuvga ko‘ra, til eng avvalo muloqot vositasi sifatida tahlil qilinadi. Shuning uchun o‘qitish jarayoni real kommunikativ vaziyatlarga asoslanishi lozim. Bunda quyidagi metodlardan samarali foydalanishlari mumkin:

- rol o‘yinlari (role-play)
- dialog va munozaralar
- situatsion mashqlar

[1] Kuhn T.S. The Structure of Scientific Revolutions. Chicago: University of Chicago Press, 1962.

Mazkur yondashuv talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada ular til birliklarini nafaqat biladi, balki amalda qo‘llay oladi.

Kognitiv yondashuv va tafakkur rivoji. Kognitiv paradigma til o‘rganishni inson tafakkuri bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda asosiy e’tibor tushunish, tahlil qilish, umumlashtirish jarayonlariga qaratiladi. Masalan, grammatik qoidani yodlash o‘rniga, talaba uning qanday ishlashini misollar orqali mustaqil aniqlaydi. Bu esa chuqur va barqaror bilimni shakllantiradi. XX asr oxirlarida o‘zbek tilshunosligida kognitiv paradigma shakllana boshladi. Bunda til va madaniyat masalalarining til va tafakkur masalalari bilan uyg’unlshuvi kuzatiladi[1].

Pragmalingvistik yondashuv. Tilni kontekst va nutq vaziyati bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yerda asosiy savol “Qanday gapirish emas, balki qachon va qanday vaziyatda qanday gapirish kerak?” O‘qituvchi nutq aktlari (iltimos, buyruq, maslahat), ijtimoiy roller, madaniy kontekstga ahamiyat qaratishi lozim. Natijada talabada kommunikativ kompetensiya shakllanadi, bu esa real hayotiy muloqotda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda antropotsentrizm paradigmasining ta’siri barcha sohalarda namoyon bo‘la boshladi. Pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi yo‘nalishlarga oid tadqiqotlarda antropotsentrik paradigma ustuvorligi yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tilshunosligida tilni uning sohibi bo‘lgan inson va u mansub bo‘lgan millat madaniyati hamda dunyoqarashi bilan birga o‘rganish zarurligi ilmiy tadqiqotlarda aks etgan ochiq haqiqatga aylandi. Ma’lumki, antropotsentrik paradigma tilni nafaqat struktura, balki kommunikatsiyaga asoslangan ochiq tizim sifatida o‘rganadigan, uni jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabi boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda tadqiq etadigan, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo‘naltirilgan ta’limotlar va usullar majmui hisoblanadi. Shu sababli jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda antropotsentrizm yo‘nalishi lisoniy tizimga lingvistik yondashuvning bosh mezonlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda[2].

*Konstruktivistik va interaktiv yondashuv***.** Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki talaba tomonidan mustaqil ravishda yaratiladi. Bu g‘oya asosan Jean Piaget va Lev Vygotsky ilmiy qarashlariga borib taqaladi[3]. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi fasilitator rolini bajaradi. Konstruktivistik yondashuviga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki talaba tomonidan mustaqil ravishda yaratiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi fasilitator rolini bajaradi. Samarali metodlar sifatida guruhli ishlar, loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyat kabilardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuv talabalarni mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga, muammolarni mustaqil va yoki guruh bo’yicha hal qilishga o‘rgatadi.

Raqamli paradigma. Zamonaviy ta’limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqamli paradigma onlayn ta’lim platformalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, virtual sinflar orqali talabalar istalgan joyda va vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ta’limning moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi.

Fanlararo integratsiya. Tilni o‘qitishda boshqa fanlar bilan integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, psixologiya fani motivatsiya va xotira jarayonlarini tushunishga yordam bersa, axborot texnologiyalari raqamli vositalardan foydalanish imkonini beradi. Mantiq va matematika strukturaviy fikrlashni rivojlantiradi. Bu integratsiya talabalarning bilimini yanada kompleks va tizimli qiladi.

Zamonaviy paradigmalar o’qituvchini bilim beruvchi yoki bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi, balki hamkor, baholovchi emas, balki motivator bo‘lishini ta’minlaydi. Hozirgi ta’limda o‘qituvchilar an’anaviy yondashuvlar asosida o‘quvchi-talabalarni fanga jalb eta olmasligi o‘z-o‘zidan zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni talab etadi.

[1] Karimova F. S. O‘zbek pragmalingvistikasining shakllanishi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. № 14, 2022, 179-184-betlar.
[2] Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғона, 2020. – 420 б.
[3] Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. Routledge, 1950.

Xulosa. Filologik ta’limda tilni zamonaviy paradigmalar asosida o‘qitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo‘lib qolmoqda. Bu talabaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, real kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Zamonaviy filologik ta’lim shunchaki so‘z boyligini oshirish, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishni emas, balki tilni madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida tushunishni talab qiladi. Paradigma muayyan ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan nazariy qarashlar, metodlar va tadqiqot standartlari majmuasi deb qaralsa-da, tilshunoslikda paradigma tushunchasi turli ma’nolarda qo‘llanilishini ko‘ramiz:

- nazariy yo‘nalish sifatida,
- metodologik yondashuv sifatida,
- tilni talqin qilish modeli sifatida.

Bu xilma-xillik esa paradigma tushunchasining yagona, aniq ta’rifini shakllantirishni qiyinlashtiradi, paradigmalar xilma-xilligi esa ba’zan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Masalan, strukturaviy yondashuv shaklga urg‘u bersa, kognitiv yondashuv ma’no va tafakkurga e’tibor qaratadi. Natijada yagona, integratsiyalashgan nazariy model yaratish qiyinlashadi.

Metodologik nomuvofiqlik muammosi. Har bir paradigma o‘ziga xos tadqiqot metodlariga ega. Masalan, strukturaviy paradigma - distributiv va formal tahlil, kognitiv yondashuv eksperimental va psixologik tahlil, pragmatik yondashuv esa diskurs va kontekst tahliliga qaratiladi. Bu metodlar o‘zaro mos kelmasligi oqibatida tadqiqot natijalarini solishtirish, umumiy ilmiy xulosa chiqarish murakkablashadi.

Tilning ko‘p qirrali tabiati. Til murakkab va ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, u ijtimoiy, psixologik, kognitiv, madaniy xususiyatlarga ega. Muayyan paradigma esa ushbu jihatlarning barchasini to‘liq qamrab ololmasligi mumkin. Masalan, strukturaviy paradigma ijtimoiy jihatni cheklangan holda yoritadi, generativ paradigma esa ijtimoiy kontekstni deyarli hisobga olmaydi. Shu sababli kompleks yondashuv zarur bo‘ladi.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish. Ko‘plab nazariy paradigmalar amaliy til o‘rganish va o‘qitish jarayonidan uzoqlashgan. Bu tilni o‘qitishda nazariy modeldan foydalanishni qiyinlashtiradi, real nutq jarayoni yetarlicha hisobga olinmaydi, o‘quv materiallari zamonaviy paradigmalar bilan mos kelmaydi. Ayniqsa, generativ tilshunoslikning abstrakt modellari amaliy metodikada kam qo‘llaniladi.

Tilni paradigmalar asosida o‘rganish tilshunoslik fanining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biroq bu jarayon paradigma tushunchasining noaniqligi, turli paradigmalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik, metodologik nomuvofiqlik, tilning murakkab va ko‘p qirrali tabiati, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, interdisiplinar integratsiya muammolari bilan xarakterlanadi. Kelajakda tilshunoslikda integratsion, kompleks va interdisiplinar yondashuvlarni rivojlantirish ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғона, 2020. – 420 б.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - 232 б.
3. Karimova F. S. O‘zbek pragmalingvistikasining shakllanishi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. № 14, 2022, 179-184-betlar.
4. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. Routledge, 1950.
5. Kuhn T.S. The Structure of Scientific Revolutions. Chicago: University of Chicago Press, 1962.
6. Ali N. N. The impact of Edutech utilisation on learning outcomes // International Journal Corner of Educational Research. – 2025. – Vol. 4, № 1. – P. 52–62.

TILGA E’TIBOR VA SO‘ZLASH MADANIYATI - MUMTOZ ASARLARDA ENG DOLZARB MASALA

Sayipova Dilafruz Rahimovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, v.b. dotsent, PhD.
dilyasoyipova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilga munosabat, nutq madaniyati, so‘z qadri, gapirish me’yorlarining dolzarb masala sifatida mumtoz adabiyotimizda alohida o‘rin tutishi yoritilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” hamda Boburning “Boburnoma” asarlarida bu masalalar mualliflarning aniq fikrlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maxzan, kalid, nodon, takallum, atfol, chuchuk so‘z, achchig‘ so‘z, zarofat, badkalom, marham, jarohat.

Kirish. Dono ajdodlarimiz qadimdan Vatanni sevish, halol mehnat qilish, ilm va hunar o‘rganish, kattalarni hurmat qilish, ota-onani e’zozlab xizmatlarida bo‘lish kabi tushunchalar bilan bir qatorda til masalasi, nutq madaniyati, xususan, rost so‘zlash, yoqimli gapirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelishgan. Buni mumtoz asarlarimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida so‘zga juda yuqori baho beradi, ko‘ngilni xazinaga, so‘zni esa shu xazinaning kalitiga qiyoslaydi: “Ko‘ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil”. So‘zni ulug‘lash bilan birga behuda va o‘rinsiz gapirmaslik, haqida nasihat qiladi: “*Harzago‘ykim, ko‘y takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko‘ngliga jarohat yetkurur, o‘z boshig‘a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish harzag‘a bo‘g‘zin qirmog‘i - eshakning jihatsiz qichqirmog‘i*”.

Yolg‘on so‘z inson qadrini tushirishi, el orasida obro‘sizlanishi haqida shunday deydi: “*Har kimki, so‘zi chin bo‘lmag‘ay, rostlar ko‘nglida ul so‘z qabuloyin bo‘lmag‘ay. Yolg‘onchi so‘zin bir ikki qatla o‘tkargay, o‘zga netgay? Yolg‘oni zohir bo‘lg‘ondin so‘ngra anga rasvolig‘ yetgay va so‘zi e'tibori el ko‘nglidin ketgay*”. Hattoki yolg‘onchi insonni kumushga oltin qoplab sotuvchi zargarga o‘xshatadi: “*Har kimki, so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar - kumushni oltun ro‘kash qiluvchi zargar*”.

Shuningdek, birovning sirini oshkor etish katta gunoh ekanligini uqtiradi: “*Ulki, so‘zni bir yerdin yana bir yerga yetkurgay, elning o‘tgan gunohini o‘z bo‘ynig‘a indurgay*”. Navoiy nafaqat rost gapirish, balki muloyim so‘zlash haqida ham jiddiy masala sifatida qaraydi, shirin so‘zni ko‘ngillarga yoqishini aytib, shirin so‘zli insonni halvofurushga qiyoslaydi, achchiq so‘zlashdan tiyilish kerakligini uqtiradi: “*Chuchuk tilki, achchig‘liqqa evruldi, zarari om bo‘ldi, qandniki, muskir boda qildilar, harom bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarg‘a qo‘shdur, barcha atfol tab’ig‘a muloyim halvofurushdur*”.

Quyidagi fikrlar esa xalqimiz bisotidagi “Tig‘ yarasi tuzaladi – til yarasi tuzalmaydi”, “Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqar” kabi maqollarga hamohanglik kasb etishi bilan xarakterlidir: “*Ko‘ngulda til sinoni jarohati butmas, anga hech nima marham yerin tutmas. Har ko‘ngulki, til sinonidin jarohatdur ham yumshoq so‘z va shirin til anga marham va rohatdur. Muloyim takallum vahshiylarni ulfat sari boshqarur, fusungar afsun bila yilonni to‘shukdin chiqorur*”.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham til masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Muallif ma’lum bir voqea yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot berar ekan, aksariyat hollarda so‘zlash madaniyati borasida o‘z munosabatini bayon qiladi. Xususan, Samarqand hukmdorlaridan Sulton Ahmad mirzo ta’rifida shunday keltiriladi: “*Sulton Ahmad mirzo kamgap, faqir va odmi kishi edi. Har bir maslahat va ish-harakat beklarsiz qaror topmas edi*”. Sulton Mahmud mirzo haqida esa: “*Sulton Mahmud mirzo… ... Badkalom edi. So‘zini darhol anglab bo‘lmasdi*” – deya tanqidiy baho beradi. Asarda muallif bir qator beklar, amirlar ta’rifida ham nutq madaniyati, so‘zlash layoqatiga alohida to‘xtalib o‘tadi: “*Yana biri Ali Do‘st tag‘oyi sag‘riychi tuman beklaridan edi… Yaramas axloq- atvorli, baxil va fitnachi, badqovoq va munofiq, qaysar va qattiqso‘z, yuzi sovuq kishi edi*”. Yoki “*Yana bir amiri Hofiz Muhammadbek do‘ldoy… Faqir, kamgap va odmi kishi edi*”. Bu kabi misollardan ma’lum bo‘ladiki, inson xoh hukmdor, xoh amir,

xoh bek, xoh navkar yoki oddiy inson bo‘lishidan qat’i nazar muomala madaniyatidan bebahra bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham muallif bu masalaga alohida to‘xtalishni lozim ko‘radi.

Bobur ko‘p o‘rinlarda so‘zlash madaniyatini insondagi ijodkorlik qobiliyatining namoyon bo‘lishi bilan bog‘laydi: “*Yana bir amiri Hasan Ya’qubbek edi. Bolatabiat, iste’dodli, chechan va samimiy kishi edi. Bu bayt unikidir: (Mazmuni: Qaytib kelgil, ey Humoy, to‘tirang patlaringsiz, Sal bo‘lmasa suyagimni qarg‘a olib ketgusi)*” yoki “*Xojago Mullo Sadr... Tolibi ilmligi bor edi, tilni xiyla bilar edi, maktub yozishi ham yaxshi edi*”, yoki “*Sultonimbegim edi…. Xiyla so‘z bilardi. So‘zga chechan edi*”. Insoniy zarofatlar, hazil-mutoyiba haqida ham asarda shunday tasvirlarni uchratamiz: “*Yana biri Qosimbek qavchin edi… Xiyla hazilkash edi. Savodsiz bulishiga qaramay, ziyraklik bilan lutflar, mutoyibalar qilardi*”. Aksincha, o‘rinsiz hazil, behurmatlikka Bobur qat’iy tanqidiy munosabat bildiradi. Bu holat hattoki o‘zi bilan bog‘liq lavhalarda ham uchraydi.

Bir mushoirada Muhammad Solihning *Har bir noz-karashmachining muhabbatini nima qilsin kishi, Sen bo‘lgan joyda boshqani nima qilsin kishi* mazmunidagi bir bayti asosida hamma o‘sha vazn va qofiyada she’r aytganlarida Bobur Mullo Alixonga ishora qilib *Senga o‘xshash hushsiz karni nima qilsin kishi, Har bir ho‘kizga o‘xshagan va urg‘ochi eshakni nima qilsin kishi* baytini aytadi. Lekin o‘rinsiz hazilidan nihoyatda xijolat bo‘lib til Alloh bergan bebaho ne’mat ekanligi, bu ne’matdan har kim oqilona foydalanishi lozimligini o‘ziga uqtiradi:

Ne qilayin sening bila, ey til,
Jihatingdin mening ichim qondur,
Necha yaxshi desang bu hazl ila she'r —
Birisi fahsh-u biri yolgoidur,
Gar desang kuymayin bu jurm bila,
Jilavingni bu arsadin yondur.

Bobur o‘rinsiz gap yoki nojo‘ya hazil egalarini kim bo‘lishidan qat’i nazar (hattoki o‘zini ham) ayab o‘tirmaydi. Mumtoz adabiyomiz bilan yaqindan tanishar ekanmiz, alloma ijodkorlarimiz insonni mansabi, lavozimi yoki boyligi jihatidan emas, avvalo, fe’l-atvori va insoniyligi asosida baholashlariga guvoh bo‘lamiz. Zero, yoqimli nutq egasi bo‘lish chinakam insoniy fazilatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик энциклопедияси (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Мумтоз сўз. 2015. – 664 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
3. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 360 б.
4. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili) . – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 366 b.
5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish (darslik) -Toshkent: Cho‘lpon, 2007.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.

ONA TILI DARSLARINI ZAMONAVIY METODLAR, VIZUAL MUHIT ORQALI O‘TISH

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: mirxoliyevhayotjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va vizual vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. Ona

tili darslari davomida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda multimedia muhitining samaradorligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, an’anaviy o‘qitish uslublaridan ma’lum darajada voz kechgan holda, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalari va interfaol metodlarning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, zamonaviy metodlar, vizual muhit, kompentensiya, multimedia, didaktika, lingvistik kompetensiya, raqamli ta’lim.

Kirish. Bugungi kunda ona tili ta’limining ustuvor vazifasi o‘quvchilarda nafaqat savodxonlikni, balki nutqiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishdan iboratdir. An’anaviy darslarda ko‘p hollarda grammatik qoidalarni yodlashga e’tibor qaratilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini pasaytirishiga olib kelar edi, ammo bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida tizimda zamonaviy metodlar, sun’iy intellekt va boshqa ko‘plab zamonaviy vositalar qo‘llanilmoqda. Bu orqali dars sifati va o‘quvchilarning bilim darajasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu tadqiqotda A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligi[1:380] va B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”[3:192] nomli o‘quv qo‘llanmalariga tayanildi. Xususan, A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida ona tili fanida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan metodlar, ularning ham nazariy, ham amaliy jihatlari, metodlarning sharhi, fanning imkoniyatlaridan kelib chiqib metodlarni tanlash kabi masalalarni ilmiy asoslaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta’limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta’minlashini alohida ta’kidlaydi.

Professor B. To‘xliyev ta’lim metodlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi: – darslik va o‘quv qo‘llanmalarga asoslanish; – ko‘rgazmali didaktik vositalarga asoslanish (audio-video kasse talar, muayyan mavzudagi magnitofon yozuvlari, ona tilidan slayd jadvallar, o‘quv kompyuter disketlari, dars mavzularini yoritish uchun mo‘ljallangan o‘quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma’rifiy matnlar).
2. Yo‘naltiruvchi ta’lim metodi. O‘quvchi faoliyatini bosqichli, sistemali yo‘naltiruvchi (yozma va og‘zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.
3. Muammoli ta’lim metodi.
4. Ongli - verbal - kognitiv ta’lim metodi. [3:45]

Yuqoridagi ta’lim metodlariga asoslangan holda o‘quvchi faoliyatini quyidagicha tasniflaydi:

1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.
2. Yo‘naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar chiqarish, bahs va munozara metodi.
3. Muammoni yyechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.
4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

Ona tili o‘qitish metodikasida ta’lim metodlari kam o‘rganilgan masalalardan biridir. Metodist H.Rustamov bilimlarni olish manbayidan kelib chiqib, ona tili o‘qitish metodlarini quyidagicha tasniflaydi:

a) o‘qituvchining bayoni; b)suhbat; d) til hodisalarini kuzatish va tahlil qilish; e) grammatik tahlil; f) darslik ustida ishlash; g) ko‘rgazmali qurollardan foydalanish;
h) sayohat. [4:56]. Bu metodlar, birinchidan, qayta xotiralashga asoslangan metodlar bo‘lib, ular o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o‘stirishga to‘la muvofiq kelmaydi. Bu metodlarda, asosan, o‘qituvchi faoliyati nazarda tutilgan; ta’lim jarayonining subyekti sanalgan o‘quvchi e’tibordan chetda qolgan. Mazkur tasnifda o‘quvchilarda izlanuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladigan

muammoli bayon, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlari tamoman o‘z ifodasini topmay qolgan. Olimlar tomonidan dars mashg‘ulotlarida metodlarni to‘g‘ri tanlash va ularning samaradorligi ta’minlash dolzarb masaladir. Bugun zamon bilan aloqada bo‘lish davr talabi, chunki bolalarning diqqatini darsga tortish va bu orqali yangi bilim berish ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish davomida o‘quvchilarga an’anaviy va noan’anaviy dars o‘tish orqali ularning bilim darajasi, mavzuni o‘zlashtirishi, qabul qilingan ma’lumotlarni uzoq saqlanishida zamonaviy metodlar va vizual yaratib dars o‘tish ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligi quyidagi jadvalda o‘z aksini topadi:


1-jadval.

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy dars	Noan’anaviy dars
Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish	62%	85%
Amaliy ko‘nikmalarni qo‘llash	58%	81%
Darsdagi faollik darajasi	O‘rtacha	Yuqori

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, vizual muhit va interfaol metod va noan’anaviy darslar o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini 23-27% gacha oshirish imkonini berdi.

Diqqatning vaqtga nisbatan o‘zgarishi ham dars sifatiga ijobiy va salbiy ta’sir o‘tkazadi. Darsning qanchalik samarali bo‘lishida o‘qituvchi vaqtdan oqilona foydalanishi natijasida darsning sifatiga ta’sir etishi quyidagi jadvalda o‘z aksini topadi:

2-jadval



MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, ona tili dasrlarida qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki uni mustahkamlashga xizmat qilishi, balki o‘quvchilarning mustaqil bilim olishini ham hisobga olishi, ta’lim jarayoniga izlanuvchanlik va tadqiqotchilik unsurlarini qo‘shish orqali ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashi lozim. Ona tili darslarida visual muhit orqali dars o‘tish faqatgina “ko‘rgazmalilik” emas, balki tilning mantiqiy qurilishini tushunishga yordam beruvchi vositalardan biridir. Yuqorida A.G‘ulomov va B.To‘xliyev kabi olimlarning darsliklarini tahlil qilish davomida ushbu asarlarda darsning sifati o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metod va ta’lim vositalari bilan belgiladi. Ya’ni Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi faoliyati o‘z-o‘zidan faollashmaydi, albatta. U, birinchi navbatda, o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metodga bog‘liq. To‘g‘ri tanlangan metod uni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ona tili ta’limning mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o‘quvchilarga «Nimani o‘qitish?» masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Ona tili ta’limidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi to‘g‘ri belgilan bo‘lsagina «Qanday o‘qitishi kerak?» degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

Ona tili ta’limning samaradorligi, birinchidan, ta’lim mazmuni, ya’ni shu fandan o‘quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning ona tilini

o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan cham barchas bog‘langan.

Xulosa. Ona tili darslarini zamonaviy metodlar va vizual muhit orqali tashkil etish ta’lim sifatini kafolatlovchi asosiy omillardan biridir. Yuqorida o‘rganilgan ushbu tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelishga imkon beradi. Birinchidan, til o‘qitishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mavhum grammatik tushunchalarni konkret mantiqiy obrazlar sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi. Bu esa dars jarayonida axborotni o‘zlashtirish samaradorligini an’anaviy usullarga nisbatan oshiradi. Ikkinchidan, turli jadval, rasm, tasvirlar va multimedia vositalari o‘quvchining nafaqat xotirasini, balki tanqidiy fikrlash hamda lingvistik tahlil qilish ko‘nikmalarini ham faollashtirishiga yordam beradi. Uchinchidan, ona tili ta’limini rivojlantirishda sun’iy intellekt, darslik va metodlarning integratsiyasi bugungi kunning pedagogik zarurati hisoblanadi. O‘zbek tili ta’limi tizimida ushbu yondashuvlarni keng joriy etish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini xalqaro standartlar darajasida shakllantirishga yordam beradi. Ona tili darslari shunchaki qoidalar bayoni emas, balki tanqidiy va mantiqiy muloqot maydoniga aylanishi lozim. Bu esa milliy tilimizning ta’lim tizimidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.
2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. Toshkent, «O‘qituvchi», 1990.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2006, 42–44-b.
4. H.Rustamov. Sintaksis va punktuatsiya o‘qitish metodikasi. 1960.
5. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.

DRAMATIK ASARLARNI O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Bozorova Gulruh Ravub qizi
Oriental universiteti
Samarqand kampusi o‘qituvchisi
bozorovagulruh77@gmail.com

Annotatsiya. Dunyoda adabiy ta’lim oldidagi axloqiy-estetik tarbiyaning birlamchi vazifalarini to‘liq hal etish, estetika, tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, pedagogika va psixologiya qonuniyatlarini bevosita badiiy o‘zlashtirish jarayoniga o‘tkazish, tafakkurning emotsionalligi va obrazliligini rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu maqolada ham dramatik asarlarni o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, dramatik tur, drama, tragediya, komediya, tragikomediya, teatr, metodika, model, tamoyil.

Kirish. Adabiyotni madaniyatning asosiy sohalaridan biri sifatida baholar ekan, metodist olim S.Dolimov bunda asosiy jihat xalqning tarixiy taraqqiyoti, o‘ziga xosligini badiiy obrazlarda ifodalash xususiyati ekanligini qayd etadi: “adabiyot, birinchi navbatda, odamlarni va ularning hayotini tasvirlaydi, bu tasvir esa tarixiy haqiqat va tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘lanadi”[1]. Demak, tarbiyalanuvchilarda adabiy bilimlarni shakllantirish jarayoni orqali inson, uning murakkab ichki dunyosi va ruhiyatini chuqurroq tadqiq etish, atrof-olamni bilishlariga keng yo‘l ochiladi. Binobarin, adabiyot eng insonparvar fanlardan biridir. Muhim bir pedagogik jihat - dramatik asarni o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish zaruratidir. Dramada ko‘pincha murakkab ijtimoiy munosabatlar, axloqiy tanlovlar va keskin ziddiyatlar tasvirlanadi. Agar o‘qituvchi ushbu holatlarni o‘quvchining hayotiy tajribasi bilan bog‘lab tushuntira olmasa, asar mazmuni begona va tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shu bois dramatik

asarni o‘qitish jarayoni o‘quvchining shaxsiy fikrlashini, bahs-munozara yuritish va o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy-tadqiqot metodlariga doir ma’lumot yig‘ishning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, o‘qituvchi hamda o‘quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladigan kuzatish, pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o‘rganish maqsadida qo‘yilgan ilmiy tajriba ko‘rinishidagi eksperiment kabilardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Abdulhamid Cho‘lpon ta’biri bilan atganda: “adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan, o‘chgan yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurg‘on, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib tozalaydurg‘on buloq suvi” [2]. Jadidlar ham o‘z davrida dramatik asarlar yozib xalqni tezroq ma’rifatli qilishga urinishgan, chunki dramalar ko‘rsatib berilgani uchun ham tomoshabinga tezroq yetib boradi.

Amerikalik pedagog Robert Vaytxed bu haqda shunday degan edi: “adabiyot o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bolalarda o‘qishga mehr uyg‘otishdir. Buning shartlari – yaxshi kitoblar, yaxshi dasturlar, ilhomlangan o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, albatta, adabiyotshunoslik bilan bog‘liq bilimlar ham” [3]. Professor Q.Yo‘ldoshevning qarashlarida ham yuqoridagi fikrlarga hamohanglik kuzatiladi. Olim aynan adabiyotgina har qanday odam uchun o‘zini tanish vositasi ekanligi, o‘zini tanish esa, o‘zgani tushunishdan boshlanishi, o‘zgani tushunish mashqi badiiy asarlardagi qahramonlarni his etishdan ibtido olishiga e’tiborini qaratadi [4]. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, dramatik asarlarni o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

T/r	Takliflar	Tavsiyalar
1.	O‘quvchini mavzuga qadar dramatik asarlarni o‘qishga tayyorlash	Dramatik asarlarni o‘qib tushunish malakasini shakllantirish
2.	Drama ustida ishlashda so‘z ma’nolarini anglashga o‘rgatish	So‘zlar ustida ishlash mashg‘ulotlarini olib borish
3.	Dramadan eng muhim fikrni topa olish mashqlari ustida ishlash	Muallifning g‘oyasini anglashga o‘rgatish usullari ustida ishlash
4.	Asarni audio va video materiallar asosida o‘qitish	Audio va video materiallar ustida ishlashini yo‘lga qo‘yish
5.	O‘qituvchining dramatik asarlarni o‘qitish bo‘yicha mahoratini tizimli oshirib borish	Dramatik asarlarni o‘qitish bo‘yicha alohida malaka oshirish soatlarini ajratish
6.	Dramalarni sinfxonasidan tashqarida ham o‘qitish choralarini ko‘rish	Teatrlar bilan aloqalarni yaxshilash
7.	O‘quvchilarda ijro ko‘nikmasini rivojlantirish, ishtiyoqni paydo qilish	Maktablarda drama to‘garaklari faoliyatini jonlantirish

Dramalar maqsadga muvofiqlik va harakat faoliyati bilan ajralib turadi. Unda inson o‘zining barcha ichki kuchlarining maxsus kuchlanishini talab qiladigan va shuning uchun xarakterni to‘liq ochib beradigan holatlarda ko‘rsatiladi. Dramaning bu xususiyatlari, asosan, uni maktabda o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Drama darslarining metodologiyasida birinchi navbatda ifodali va sharhlangan o‘qish, so‘ngra rollar bo‘yicha tayyorlangan o‘qish, dramaning sahna tarixi haqida suhbat, voqealar va personajlarni tahlil qilish kerak. Dramaning epizodlari va belgilarini tahlil qilish va talqin qilish jarayonida maktab o‘quvchilarining tasavvurini rivojlantirish, darsning hissiy kayfiyatini yaratish, ayniqsa, muhimdir.

Dramani o‘qish epik asarni o‘rganishda bo‘lgani kabi, sinfda drama ustida ishlashdan oldin o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘qilishi kerak. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilari hatto o‘rta maktabda ham yomon o‘qiydilar, ko‘pincha o‘zlarining tasavvurlari bilan drama matnini noto‘g‘ri to‘ldiradilar. Ular mualliflik ko‘rsatmalaridan, qahramonlar ro‘yxati, remarkalar,

dekoratsiya tavsifi va harakat muhitidan foydalanmaydilar. Qoida tariqasida, ular epizodik va sahnadan tashqari belgilarga e'tibor bermaydilar, qahramonlarning qiyofasini, gapirish, harakat qilish uslubi va hokazolarni juda aniq tasavvur qilmaydilar. Shuning uchun, avval sinfda bir nechta boblarni birgalikda o'qish va shundan keyingina o'quvchilarni butun asarni o'qishga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlarning yana biri muhim jihati - maktab o'quvchilarini 9–11-sinflarda adabiyot darslarida dramatik asar matni bilan tanishtirishga tayyorlash zarurati va muammosini shakllantirish edi. Shunday qilib, dramatik asarlarni idrok etishga bag'ishlangan uslubiy adabiyotlarni o'rganish, maktab adabiyotshunosligida ko'pincha uzoq an'anaga ega bo'lmagan adabiy ta'limning yangi mazmuni va dasturlari tomonidan tavsiya etilgan dramatik asarlarga asoslangan darslarni zamonaviy usulda bosqichma-bosqich o'rganish metodologiyasini yaratish zarurligiga ishontiradi.

Har bir dramatik asarni o'rganish bir qator ketma-ket bosqichlardan iborat. Bularga quyidagilar kiradi: kirish darslari, adabiy asarni o'qish va tahlil qilish, yakuniy darslar. Kirish darslari o'quvchilarni badiiy asarni idrok etishga tayyorlaydi, ularda yozuvchiga va uning ijodiga qiziqish uyg'otadi, asarning asosiy ijtimoiy-tarixiy va axloqiy-estetik muammolariga e'tibor qaratadi.

O'qish - bu o'quvchining badiiy matn bilan bevosita uchrashuvi, ona tillarida adabiyotni o'rganish bo'yicha oldingi barcha ishlar davomida shakllangan hayotiy va o'qish tajribasi asosida asarning mafkuraviy-majoziy tizimini dastlabki idrok etishdir. Tahlil o'quvchilarning asar haqidagi dastlabki g'oyalarini chuqurlashtiradi, ularga o'qish taassurotlarini tushunish imkoniyatini beradi, asarning shakllanayotgan shaxsga axloqiy va estetik ta'sirining ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini amalga oshiradi. Muammo shundaki, adabiy asarni tahlil qilish o'quvchi va yozuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, o'quvchi taassurotidagi subyektivlikning o'zboshimchaliklarini yo'q qiladi va shu bilan birga san'at asariga jonli, shaxsiy munosabatni saqlaydi. Yakuniy darslar asarning yaxlit o'qish g'oyasini qayta yaratadi, kengroq madaniy doiradagi estetik qadriyatlar tizimiga o'rganilgan narsalarni o'z ichiga oladi.

Komediya janriga oid asarlarni o'rganishda o'quvchilar komediya qahramonlarining tanish va yangi xususiyatlariga duch kelishadi, bu esa har bir qahramonni turli tomonlardan ko'rib chiqishga va o'tgan materialni yaxshiroq o'rganishga imkon beradi. Maktab dasturida keltirilgan "Temir xotin" komediyasi, shubhasiz, yozuvchi ijodidagi eng yaxshi asarlar qatoriga kiradi. Uni o'qitish metodikasi juda yaxshi yoritilgan, ammo bu yo'nalishdagi ishlar davom etishi kerak.

Xulosa. Dramatik turga mansub asarlarni o'qitish nasriy va she'riy asarlarni o'qitishdan biroz farq qiladi, shu ma'noda bunday asarlarni o'qitishda o'zgacha yondashuv, usul va metodlarni qo'llash talab qilinadi. Adabiy ta'limda dramatik asarlarni o'qitishda dars, sinfxonaning o'zi yetarli bo'lmasligi aniq, shu ma'noda o'quvchilarni drama to'garaklari va teatrlarga olib borish orqali ularni mazkur janrdagi asarlarni teran tushunishga undash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 225-б.
2. Чўлпон. Адабиёт надир? – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1994. – 37-б.
3. Вайтхед Р. Детская литература: Руководство обучением. – Нью-Джерси, 1968. – С. 3.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг асослари // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, ToshDO'TAU, 2018. – 36-b.

Temperament turlarining psixologik va nutqiy ko‘rinishlari.

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika
instituti stajyor-o‘qituvchisi
Tursunova Shalola

Tayanch so‘z va iboralar: *psixolingvistika, temperament, emotsional reaktivlik, biologik asos, kommunikativ portret, kommunikativ rol, dominant hissiyotlar, faoliyat motivlari.*

Temperament inson shaxsiyatining biologik asosini tashkil etuvchi, tug‘ma nerv tizimiga xos bo‘lgan, ruhiy jarayonlarning tezligi va kuchini belgilovchi psixologik kategoriya hisoblanadi. Psixologiyada temperament turlari shaxsning emotsional reaktivligi va faoliyatdagi o‘ziga xos xulq-atvori orqali o‘rganiladi.[1] Lingvistika esa bu xususiyatlarning nutqdagi ifodasini tahlil qilish orqali insonning kommunikativ portretini aniqlashga qaratilgan.

Muloqotga kirishgan kishi ma’lum kommunikativ rollarni bajaradi, nutqning ba’zi texnikalarini tanlaydi, mavzu yoki ohangni belgilaydi. Diskurs subektlariga xos bo‘lgan temperamentlarni, dominant hissiyotlar va faoliyat motivlarini o‘zida mujassam etgan. I.P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta’riflaydi. «Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir».[2] Fikrlarni so‘zlar bilan ifodalash bilan bog‘liq muammolar ko‘pchilikka tanish.

Psixolingvistik tahlil bevosita psixologiya, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, tibbiyot, lingvistika, yo‘nalishlari bilan bog‘liq ekanligi ochib berilib, Flegmatik temperamentli shaxslar nutqi misolida psixolingvistik tahlil tamoyillari ishlab chiqilgan va ular lingvistik tahlildan farqlangan.

Temperament	**Nutqiy xususiyatlar**
Sangvinik	Ravon, ekspressiv, tez, so‘z boyligi yuqori
Xolerik	Tez, jo‘shqin, ba’zan keskin, emotsional jihatdan to‘yingan
Flegmatik	Sekin, mulohazali, tuzilmasi sodda, pauzalar ko‘p

[1] Eysenck H.J. Genius: The natural history of creativity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995. - 352 p.
[2] Павлов И. П. Полное собрание сочинений [To‘liq asarlar to‘plami]. — Т. III, 2-книга. — С. 103. — Москва: Наука

Temperament	Nutqiy xususiyatlar
Melanxolik	Tortinchoq, emotsional jihatdan zaif, kamgap, pauzali

Psixolingvistik tahlilda shaxs nutqining leksikasi va semantik xususiyatlari, shaxs psixologiyasi va ong va nutq munosabatlari, shaxs nutqining fonetikasi, morfologik tuzilishi, sintaktik birliklarni qo‘llashdagi o‘ziga xosligi singarilarni asosiy e’tiborga olish zarur ekanligi ta’kidlangan. Albatta, ong va nutq, nutq va temperamenr munosabatlarini bu bilan chegaralab bo‘lmaydi. Xususan, flegmatik temperamentli shaxslarning qulay va noqulay vaziyatlardagi reaksiyasi, iroda kuchi hamda til birliklri tanlovini ham kiritish mumkin. Xususan, flegmatik shaxs nutqida emotsional-eksprissivlikning yo‘qligi, sintaktik qurilishdagi soddalik kabilarni inobatga olish hamda tahlil qilish uning til xususiyati va uslubini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda nutq faqat muloqot vositasi emas, balki insonning ichki dunyosi, psixologik holatining ham ko‘zgusidir. Insonning tug‘ma psixotipi — temperament, ayniqsa flegmatik tur — nutqning fonetik darajasida alohida iz qoldiradi. Inson shaxsiyatining dinamik xususiyatlari nafaqat tashqi xulq-atvor, nafaqat harakatlarda ham namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, temperamentning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quv mashg‘ulotlarida va mehnat faoliyatida ham namoyon bo‘ladi. Ammo asosiy ulardagi farqlar temperamentlar - bu psixika darajasidagi farqlar emas, balki uning namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligidir. Harakatlarning yakuniy natijasi va temperamentning xususiyatlari, normal faoliyat sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Shunday qilib, harakatchanlik darajasidan qat’i nazar yoki oddiy, stressiz vaziyatda shaxsning reaktivligi faoliyati, asosan, bir xil bo‘ladi, chunki yutuqlar darajasi asosan boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Motivatsiya va qobiliyat darajasining xususiyatlari ham xuddi shunday. Shu bilan birga tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, temperamentga qarab, inson mehnat faoliyatini ham tanlashi lozim. Nutq xususiyatlariga qarab temperamentli odamlar harakatlarning yakuniy natijalarida emas, balki natijalarga erishish usuli bilan farq qiladilar. Temperamentning harakatlari va xususiyatlarini bajarish usuli o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun turli tadqiqotlar o‘tkazildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, natijalarga erishish yoki muayyan muammoni hal qilish usuli, asosan asab tizimining turiga bog‘liq. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, flegmatik temperamentli shaxslar o‘zlari qiziqqan murakkab va kuchli faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi lozim bu ular faoliyatida katta natijalarga erishishlariga olib keladi.

Temperament o‘zini aqliy jarayonlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarida namoyon qiladi. Bu albatta o‘z o‘rnid nutqqa ta’sir etadi. Temperamentlarning nutqiy tavsifi shaxsning munosabatlarini aniqlay olmasa ham, u intilishlari va manfaatlari, uning ideallari, ya’ni tarkibning

butun boyligi insonning ichki hayoti, shu bilan birga, dinamik tomonning xarakteristikasi murakkab xatti-harakatlarni tushunish uchun zarur. Shunday qilib, temperament tashqi ko‘ringanidek tashqi belgilar emas shaxsning xarakteri. Ammo uning organik tarkibiga kiradi. Shaxsning munosabati, uning ishonchi, intilishi, ehtiyojni anglashdir. U bizga ba’zi turtkilarni engishga, boshqalarni o‘rganishga imkon beradi. Ularning xatti-harakatlarini ijtimoiy me‘yorlarga muvofiq ravishda tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Temperament o‘ziga xos xususiyatlarning rivojlanish yo‘lini belgilamaydi. Temperamentning o‘zi xarakter xususiyatlari ta’sirida o‘zgaradi. Shu ma’noda xarakter va temperamentning rivojlanishi o‘zaro bog‘liq jarayon. Ko‘p yillar davomida tadqiqotlar va shaxsning tabiati, ichki dunyosi haqidagi savollar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, shaxsiyat inson hayoti jarayonida shakllanadi individual xususiyatlar bazasiga aylanadi. Shaxsning individual-tipik xususiyatlari o‘z ichiga morfologik va biokimyoviy konstruksiyani, neyrodinamikani o‘z ichiga oladi. Asab tizimining xususiyatlari va miya yarim sharlarining funktsional assimetriyasi asrlar davomida olimlarda alohida qiziqish uyg‘otgan.

Shaxsiyat - bu ijtimoiy shartli faoliyat subekti sifatida shaxs, ya’ni shaxsning mavjud bo‘lish usulidir. Shaxsni faoliyat, shu jumladan nutq bilan baholash Mumkin va lozimdir. So‘nggi paytlarda tadqiqotchilarning nutqning turli xususiyatlarini tahlil qilish sezilarli darajada rivojlandi[1]. Xususan, yosh xususiyat-lari,[2] millati,[3], ijtimoiy mavqei - ta’lim va madaniyat darajasi, xususiyatlari hissiy,[4] motivatsion va intellektual sohalar [5]yoki izolyatsiya, ishg‘ol qilish kabi shaxsiy xususiyatlar aql-idrok, printsiplarga sodiqlik, qat’iyatlilik,[6] ekstraversion[7]-introversiya,[8] tashqi-ichki, birinchi signal - qasddan aqliy faoliyatni o‘zini o‘zi boshqarishning ikkinchi signal-o‘zboshimchalik turlari,[9] sodiqlik, qat‘iyatlilik, tashabbuskorlik, qiziqish,[10] og‘zaki,[11] og‘zaki bo‘lmagan va ijtimoiy aql[12]va boshqa shaxsiy xususiyatlar. Biroq, temperament nutqida individual sifatida namoyon bo‘lish shaxsiyatni shakllantirishning dastlabki shartlari faqat individual mualliflar tomonidan o‘rganilgan (E.V. Belovol, 1999, D.A. Volkova, 2006).

[1] Blakar R. M., Rommetveit R. Studies of Language, Thought, and Verbal Communication. — London: Academic Press, 1979. — 466 p
[2] Леонтьев А. А., Рохлин Л. Л., Савицкая А. Б., Уфимцева Н. В., Шахнарович А. М. Некоторые проблемы речевой патологии при шизофрении // Материалы IV Всесоюзного симпозиума по психолингвистике и теории коммуникации. — Москва: Институт языкознания АН СССР, 1972.
[3] Gachev G. D. Жизнь художественного сознания. Очерки по истории образа. — Москва: Искусство, 1972. — 200 с.
Sorokin Yu. A., Tarasov E. F., Shakhnarovich A. M. Теоретические и прикладные проблемы речевого общения. — Москва: Наука, 1979. — 327 с.
[4] Leontiev A. N. Deyatel’nost’. Soznanie. Lichnost’ [Faoliyat. Ong. Shaxsiyat]. — Moskva: Politizdat, 1975. — 304 s.
[5] Сергеев А. А. Воздействие как психологическое явление: историко-аналитический обзор // Вопросы психологии. — 1988.
[6] Dashkova S. S. Ustnaya rech’ kak istochnik informatsii o cheloveke: autoreferat dissertatsii … kand. filol. nauk — Leningrad, 1982.
[7] Калентьева Т.Н. Психологический анализ речи как способ формирования и формулирования мысли в процессе говорения: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — Москва, 1989. — 24 с.
[8] Хараева Л.А. Психологический анализ способа решения коммуникативных задач взрослыми в разных условиях педагогического общения: Автореф. дисс. … канд. пед. наук. — Тбилиси, 1982. — 24 с.
[9] Мирошкина Н. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 1992.
[10] Фомина Н. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2002.
[11] Чивилева И. В. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2005.
[12] Елгина С. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2006.

Flegmatik temperamentning nutqiy xarakteristikasi hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotda flegmatik shaxslarning nutqiy xatti-harakatlari o‘zbek tilining grammatik tizimi doirasida tahlil qilinadi.

Nutqda qo‘llaniladigan so‘zlarning tanlovi insonning ichki dunyosi, ruhiy holati, emotsional darajasi va ijtimoiy tajribasiga bog‘liq. Flegmatik temperament egalari odatda kam so‘zli, vazmin, hissiyotlarini ifodalashda neytral yondashuvga ega bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, leksik-semantik qatlamda aniq ko‘zga tashlanadi. Rus tilshunosligi vakili mashhur psixolog akademik I.V. Pavlov flegmatiklar haqida shunday ta’kidlaydi: “Ularning psixik faoliyati barqaror, sekin va chuqur kechadi. Bu, shubhasiz, nutqdagi ifoda shakllarini tanlashda ham namoyon bo‘ladi”[1] Flegmatik shaxslar nutqiy tizimi qo‘shilishga emas, kuzatishga moyil bo‘ladi. Shuningdek yangi yoki emotsional so‘zlardan qochadi. So‘z tanlashda esa ehtiyotkorlik qiladi. Barqaror, ommalashgan, neytral so‘zlardan foydalanadi.

A.A. Leontyev psixotiplarning so‘z tanlashiga ta’siri haqida quyidagicha yozadi: “Nutqiy tanlovlar, birinchi navbatda, shaxsning hissiy barqarorligiga bog‘liq. Flegmatiklar – semantik tozalikka intiluvchan, ifoda xavfsizligiga moyil nutq egalaridir”[2]

Flegmatiklarda leksik-semantik xususiyatlar:

1. Emotsional neytrallik:

Flegmatiklar odatda hissiy bo‘yoqli so‘zlardan, jo‘shqin, dramatik yoki kinoyali ifodalardan qochadi. Ularda “iliq” leksik birliklar o‘rniga “sokin” va “faktual” (faktga asoslangan) so‘zlar ustunlik qiladi. Tilshunos olima D. Xudoyberganova bu holatni, nutqida ko‘p hollarda ifoda ixcham, ortiqcha sinonimlarsiz, bevosita tushunishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bu ularning ichki psixologik ehtiyoji — tartib va ravonlik bilan bog‘liq.

3. Modal so‘zlardan ehtiyotkor foydalanish

Flegmatiklar modal (shubha, ishonch, taklif, e‘tiroz bildiruvchi) so‘zlardan ham kam foydalanadi. Bunday so‘zlar ko‘proq psixologik izoh va muqobil emotsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, flegmatiklarda ular ko‘proq passiv ko‘rinishda uchraydi.

Misollar: “Ehtimol”, “Balki”, “Bo‘lishi mumkin” – kam ishlatiladi, “Menimcha”, “Nazdimda” – so‘zlovchi o‘zini orqaga tortadi, aniq fikr bermaydi.

[1] Павлов И. П. Условные рефлексы: опыт объективного изучения высшей нервной деятельности животных. — Л.: Государственное издательство, 1927. — 392 с.
[2] Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл, 1997. — 352 с.

Flegmatiklarning so‘z tanlovidagi madaniy ta’sirlar ham ahamiyatli, albatta. O‘zbek jamiyatida odob, kamtarlik, vazminlik qadrlanadi. Bu madaniy mezonlar flegmatik shaxslar leksikasini yanada ehtiyotkorlik bilan shakllantirishga sabab bo‘ladi. Tilshunos olimimiz N. Mahmudov bu haqida shunday yozadi: “O‘zbek tilida ehtiyotkorlik — nutq madaniyatining yuksak darajasi sifatida qaraladi. Flegmatik temperament esa bu jihatni yanada chuqurlashtiradi”[1]

Quyidagi dialog orqali flegmatik nutqdagi leksik xususiyatlarni ko‘rish mumkin: — Bugun ishlaringiz qanday o‘tdi?
— Oddiy. Hamma narsa joyida. Hech qanday o‘zgarish yo‘q.
— Kitob haqida nima deysiz?

— Fikrimcha, tushunarli yozilgan. Muallif g‘oyani aniq bayon qilgan.

Bundan ko‘rish mumkinki, flegmatiklar nutqi emotsionallikdan holi, modal, ifodali birliklar yo‘q, semantik jihatdan aniq, neytrallikni namoyon qiladi.

Flegmatik temperamentga ega bo‘lgan shaxslar o‘zbek tilida leksik-semantik jihatdan ehtiyotkor, emotsional jihatdan neytral, ravon va barqaror so‘z tanlaydi. Ular nutqida semantik minimalizm, emotsional ifodaning susayganligi, faktlarga asoslangan, tekis va xavfsiz nutq tuzilmalari ustunlik qiladi. Bu holat ularning psixologik barqarorlik xususiyati va madaniy-ta’limiy fonda shakllangan nutqiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eysenck H.J. Genius: The natural history of creativity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995. - 352 p.
2. Павлов И. П. Полное собрание сочинений [To‘liq asarlar to‘plami]. — Т. III, 2-книга. — С. 103. — Москва: Наука
3. Blakar R. M., Rommetveit R. Studies of Language, Thought, and Verbal Communication. — London: Academic Press, 1979. — 466 p
4. Леонтьев А. А., Рохлин Л. Л., Савицкая А. Б., Уфимцева Н. В., Шахнарович А. М. Некоторые проблемы речевой патологии при шизофрении // Материалы IV Всесоюзного симпозиума по психолингвистике и теории коммуникации. — Москва: Институт языкознания АН СССР, 1972.

[1] Mahmudov N. Nutq madaniyati nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Nashriyot zonasi, 2012. — 198 b.

5. Gachev G. D. Жизнь художественного сознания. Очерки по истории образа. — Москва: Искусство, 1972. — 200 с.
6. Sorokin Yu. A., Tarasov E. F., Shakhnarovich A. M. Теоретические и прикладные проблемы речевого общения. — Москва: Наука, 1979. — 327 с.
7. Leontiev A. N. Deyatel’nost’. Soznanie. Lichnost’ [Faoliyat. Ong. Shaxsiyat]. — Moskva: Politizdat, 1975. — 304 s.
8. Сергеев А. А. Воздействие как психологическое явление: историко-аналитический обзор // Вопросы психологии. — 1988.
9. Dashkova S. S. Ustnaya rech’ kak istochnik informatsii o cheloveke: autoreferat dissertatsii … kand. filol. nauk — Leningrad, 1982.
10. Калентьева Т.Н. Психологический анализ речи как способ формирования и формулирования мысли в процессе говорения: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — Москва, 1989. — 24 с.
11. Хараева Л.А. Психологический анализ способа решения коммуникативных задач взрослыми в разных условиях педагогического общения: Автореф. дисс. … канд. пед. наук. — Тбилиси, 1982. — 24 с.
12. Мирошкина Н. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 1992.
13. Фомина Н. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2002.
14. Чивилева И. В. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2005.
15. Елгина С. А. [Название работы уточняется]: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. — М., 2006.

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL QULUB” ASARIDAGI SHE’RIY PARCHALARNING POETIK TAHLILI

Axmedov Salohiddin Sahobiddin o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
salohiddinaxmedov19941711@gmail.com
+99877-707-94-01

Alisher Navoiyning eng so‘nggi yirik nasriy asari “Mahbub ul-qulub” dir. “Mahbub ul-qulub”da shoirning umri davomida ko‘rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash

bilan bog‘liq ko‘pdan ko‘p mulohazalari bayon qilingan. Adibning “Mahbub ul-qulub” asari biz bilamizki, umrining oxirida yozilgan asari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asar Alisher Navoiyning butun hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlari, orttirgan hayot tajribalari, 60 yillik hayot mahsuli deyishimiz mumkin. Bu asarda, asosan, ilmiy-ma’rifiy, odob-axloqqa oid qarashlar aks ettirilgan. Asarda til odobi, inson ta’lim-tarbiyasi va nutq odobi haqida ko‘plab misollar keltirilgan. Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etdi[1].

“Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiy bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi. Pandnoma “Odil salotin zikrida” sharhi bilan boshlanadi. Navoiy podshohlar va ularning xalq oldidagi burch va mas’uliyatlari haqida fikr yuritadi. Odil podshohlarni go‘zal tashbehlar bilan juda chiroyli tasvirlaydi. “*Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat Quyosh bila abri bahordek qora tufroqdin gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorisidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo‘y-u qo‘zi bo‘n xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi valmidin mutmain”* [2]. Asarda odil podshoh quyoshga, bahor yomg‘iri qo‘riqchi cho‘ponga qiyoslanadi.

Asarda shayx ul-islom, qozi, muftiy va mudarrislar haqida ham fikr yuritilib, ularning qilgan yaxshi va yomon ishlari elga ibrat qilib ko‘rsatiladi. Xususan, shayx ul-islom musulmonlar peshvosi bo‘lib, musulmonlar uning yo‘lidan borishlari lozim deyiladi. U islom dinining himoyachisi va targ‘ibotchisi bo‘lishi kerak. Rad etib bo‘lmas darajada haq so‘zni so‘zlovchi, shariat qonunlarida mustahkam va barqaror turuvchi, fayzli va obro‘li odam bo‘lmog‘i shart. Shunday bo‘lgandagina uni “shayx ul-islom” desa bo‘ladi, deydi. Shundaylardan birini misol qilib keltiradi.

Bayt:

Mundin o‘ldi muqarrabi Boniy,
Shayx ul-islom piri Ansoriy[3]

Qozilar musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchilar deb ta’riflanadi. Bu toifa ahlini Navoiy cholg‘u asbobiga o‘xshatadi “*Soz toridekkim, e’tidoldin tajovuz qildi, tuzulki buzuldi. Ulki hukmi el moli va jonig'a joriy bo‘lg‘ay, kerakkim, muqmir shiori bo‘lg‘ay. Ayog‘ikim, siroti mustaqimdin toyildi. Vayl chohi tubin maqom qildi. Bu ishni o‘zi qilurmen degan beboku kozib, kozibi bebokka payg'ambar shar’i hokimlig‘ig‘a ne munosib”* [4].

Navoiy tabiblarni ham tanqid qiladi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir U tig‘ bilan o‘ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir chunki, u gunohkorlarni o‘ldiradi, bu esa begunohlarni halok qiladi deb ta’riflaydi. Bayt:

[1] Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. -Toshkent: Sharq, 2010 31-bet

[2] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 9-bet

[3] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 18-bet

[4] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 21-bet

Hoziq tabibi xushgo‘y tan ranjig‘a shifodur,
Omiyu tundu badxo‘y el jonig‘a balodur[1].

Bilamizki, “Mahbub ul-qulub”-pandnoma asar. Unda pand-nasihat, o‘git birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun shoirlar zikridagi fasl ham ana shunday tanqid-u o‘gitdan xoli emas. Yuqorida sanalgan to‘rt guruh ta’rif-u tahlili tugagach, Navoiy endi shoirlarning yana bir “adno”, ya’ni past tabaqasini -beshinchi guruhni qalamga oladi: “Yana adno tabaqasi jamoat edurlarkim, nazm bila faqat ko‘ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar”-deya ta’riflaydi. Qizig‘i shundaki, bu toifa shoirlarning ko‘pchiligining she’rida ma’no ozroq va shoirlik da’volari ko‘proqdur.

Ruboiy:

A’lolari ularning eng yaxshisidir,
Tubanlari esa barcha tubanlar tubani.
O‘rtoqlari esa hech narsaga yaramaydi.
Bilgilki, yaxshisi ulardan og‘iz ochmaslik kerak[2].

Asarning keyingi bobida kotiblar haqida so‘z yuritiladi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida kotibning ijtimoiy ahvoliga ko‘ra odobi qanday bo‘lishi lozimligi, unda qanday fazilatlar bo‘lishi bayon qilinar ekan, shu fazilatlarni o‘rgatishga dasturilamal vazifasini o‘tovchi hikoyatlar keltirilgan. “Mahbub ul-qulub”ning “Kotiblar zikrida”gi faslida bironta ham hikoyat uchramaydi. Navoiy kotiblar haqida so‘zlarkan, yaxshi yozilgan xat va xatga qo‘yilgan nuqtalar, yuzga go‘zallik baxsh etadigan xoldek oq qog‘oz jamolini bezaydi, deydi. Yana, yomon kotibning joyi qalamdondek chuqurlik bo‘lsin, boshi esa qalamdek yara va qora bo‘lsin, deb tasnif beradi”. Savodsiz kotib o‘quvchini tashvishga qo‘ygani, ortiqcha mehnat sarflashga majbur qilgani holda, o‘z mehnati, butun sa’y-harakatlarini ham yelga sovuradi Kishining o‘zi qilgan ishni o‘zi yo‘qqa chiqarishi, o‘z qadr-qimmatini o‘zi oyoqosti qilishi, o‘zi yiqqan ximonga o‘zi o‘t qo‘yishi bilan barobardir”.

“Kadxudolig sifati va xotunlar zikrida” esa oilaning tinch va farovon bo‘lishi ayolga bog‘liq deb ko‘rsatiladi. Yaxshi xotun- oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, undan uy egasining xotirjam va osoyishtaligi u Husnli bo‘lsa ko‘ngul yozug‘i, xushmuomala bo‘lsa jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi”,-deb ayollikning yaxshi sifatlarini aytib o‘tadi. Asarning ushbu qismi inson o‘z aksini ko‘zguda ko‘rgandek aniq va ravshan yoritib berilgan. Har bir kasb egasining yaxshi va yomon fazilatlari boshqalarga ibrat bo‘lsin uchun, bir-biriga o‘xshamagan tashbehlardan foydalanilgan. Keltirilgan misollar esa qisqa va aniq. Asarning ikkinchi qismi ham xuddi shunday yoritib berilgan.

Navoiy tilni o‘sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. “Mahbub ul-qulub”da Navoiy bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi.

Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug‘ma ekanligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub

[1] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 47-bet

[2] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 96-bet

ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikni to‘g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

“Saodatbaxsh ruh zuloliga matla ham til”.

Tilga iqtidorlig‘-hakimi xiradmand, so‘zga ixtiyorsiz-layni najand,

Tilki fasih va dilna ir bo‘lgay, xubroq bo‘lgay agar ko‘ngil bila bir bo‘lgay”

deb yozadi Navoiy. Ma’nosi: “Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir so‘zga ahamiyat bermaydigan kishi la’natlangan, pastdir. Til go‘zal va dillarni olovlantiruvchi bo‘lishi bilan birga, so‘zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo‘ladi”. Navoiy til deganda nutqni ko‘zda tutgan. Til, ya’ni so‘z o‘zining ko‘p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo‘polligi, maqsadga muvofiq bo‘lmasligi, so‘zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullangan shoir “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag‘ishlaydi. Navoiyning o‘zi ham notiqlik san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘targan. “Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz” yoki “Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur” deb yozadi. “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlangan qismida, shoirning fikricha, “majlisg‘a kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan holi bolg‘ay” “Mahbub ul-qulub” da “Og‘ziga kelganni demoq-nodonning ishi”, “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Chin so‘z-mo‘tabar, yaxshi so‘z-muxtasar” kabi hikmatli so‘zlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida so‘z o‘likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so‘z ila elga o‘limdin najot,

Ham so‘z ila topub o‘luk tan hayot[1].

Ba’zan bir so‘z bilan tirik vujud, salomat inson ham jonsiz o‘lukka aylanishi mumkin. Yolg‘on so‘z ham shunday qudratga ega:

O‘luk gar andin erur joni pok,

Va lekin tirikni ham aylar halok[2].

Navoiy ta’kidlashicha, shirin so‘z bilan ko‘p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Xalqimiz tili achchiq, inson ko‘ngilga ozor beruvchi kishilarga “tili zahar”, “tilidan zahar tomadi” kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o‘zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo‘ladi. Navoiy bu taxlit “achchiq so‘z, anfos” lik kishilardan “istig‘no” zarurligini o‘rinli ta’kidlaydi.

Har kimki achchiq bo‘ldi so‘zi, anfosi,

Bor suhbatidin xalqning istig‘nosi[3].

Asarda ilmiy-ma’rifiy qarashlarni yanada chuqurroq dalillash uchun unga yanada chuqurroq nazar tashlaymiz. Asarda insonni ilmga, ma’rifatga boshlashga xizmat qiladigan soha tasavvufga ham alohida to‘xtalib, urg‘u berib o‘tiladi va bunga quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin. “Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismida ham tasavvufiy istilohlar haqida xuddi shunday fikni aytish mumkin.

[1] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 139-bet

[2] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 143-bet

[3] Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 173-bet

Shunday qilib, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z zamonasiga va undagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarga faol munosabat bildiradi va o‘zining yuksak optimistik tilagini, kelajak avlodlariga qaratilgan eng pokiza tuyg‘ularini, gumanistik niyatlarini, dono o‘gitlarini asarga g‘oyat katta dadillik va o‘ziga xos qat’iylik bilan teran mazmunda bayon etadi.

O‘zi yaratilgan har bir asar insonni ezgulikka, ma’rifatga boshlamog‘i darkor. Agar yaratilgan asar bunday xususiyatlardan holi bo‘lsa, bunaqa asarlarni asar deyishga inson tili biroz iymanadi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini insonlarni ma’rifatga boshlovchi didaktik asar deb, bemalol ayta olamiz. Chunki asarda insonni tarbiyalovchi jihatlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. “Mahbub ul-qulub” odob-axloq, ma’naviyat va ma’rifat ustiga qurilgan asardir. Buning dalilini yuqorida keltirilgan so‘zlarimiz orqali isbotlab o‘tdik. Shuning uchun ham bunga ortiqcha izoh berishni joiz topmadik.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi she’riy parchalar naqadar mohir shoir, e’tiqodli mutafakkir va chuqur psixolog sifatidagi uning ijodiy portretini to’liqroq anglash imkonini beradi. Bu she’rlar nafaqat o’z davri uchun, balki barcha davrlar uchun insoniy kamolot, donolik va go’zallik me’yorlarini ifodalovchi badiiy yodnoma sifatida qadrlanadi. Ular orqali Navoiy nafaqat o’z zamondoshlarining, balki bizning qalbimiz ham "sevgi bilan isloh qilish" maqsadiga xizmat qilgan abadiy hikmat sohibi sifatida tarixda qolmoqda Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari va undagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar g‘oyaviy-badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega asardir. Asarga kiritilgan nasihatlar, hikmatlar, tanbehlar ijod mahsuli badiiyligini yanada oshirgan.

Rezyume: Maqolada “Mahbub ul qulub” asaridagi she’riy parchalar, ularning g‘oyaviy va badiiy mazmuni, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar hamda poetik san’atlarning qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi.

Resume: The article identifies poetic fragments from the work "Mahbub ul qulub", their ideological and artistic content, system of images, visual means, and features of the use of poetic arts.

Резюме: В статье анализируются поэтические фрагменты из произведения «Махбуб уль-кулуб», их идеологическое и художественное содержание, система образов, визуальные средства и особенности использования поэтического искусства.

DINIY-ILOHIY TALQINNING ASAR BADIIYATIDAGI AHAMIYATI

(“Ming bir qiyofa” romani misolida)

Sharifov Siroj Zarif o‘g‘li

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutI, (PhD)

sharifovsiroj3 @ gmail.com

Tel.: +99893 999-77-24

Insoniyat tafakkuri tarixida adabiyot va din o‘zaro uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan ma’naviy hodisalardan hisoblanib, ular o‘rtasidagi bog’liqlik qadimiy yozma manbalardanoq kuzatiladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto” yoki ilohiy kitoblar hisoblangan “Injil”, “Tavrot”, “Zabur”, xususan, Islom dinining asosiy manbasi “Qur’oni Karim” hamda Paygambarimiz Muhammad (s.a.v) “Hadis” lari va shu kabi muqaddas va ilohiy kitoblar nafaqat diniy-falsafiy qarashlar tizimi, balki yuksak badiiy ifoda namunasi sifatida ham ilmiy tahlil qilinadi. Ushbu manbalar keyingi asrlarda yaratilgan badiiy asarlar uchun syujet, obraz, timsol va g‘oyaviy asos vazifasini bajargan va bajarib kelmoqda. Shu ma’noda aytganda, diniy-ilohiy tafakkurni badiiy ijod jarayonining ichki qatlamigacha singib ketgan hodisa deyish mumkin. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotini diniy-ilohiy asoslardan ajratib o‘rganish mumkin emas. Masalan, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviy ijodida ilohiy ishq, komil inson, ruhiy poklanish g‘oyalari diniy, tasavvufiy-falsafiy manbalarga tayanganini ko’rishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz adabiyot vakillari asarlarida ham ilohiy muhabbat va insonning ma’naviy kamolot sari intilishi markaziy o‘rinda turadi. Bu esa diniy-ilohiy talqinsiz ular yozgan asarlar mazmunini to‘liq anglash mushkul ekanini ko‘rsatadi.

G‘arb adabiyotida ham diniy motivlar kuchli ta’sirga ega bo’lib, ayniqsa, F. Dostoyevsky, L. Tolstoy ijodida bu yaqqol ko’zga tashlanib, ularning asarlarida ham iymon, gunoh, tavba va ruhiy poklanish masalalari diniy-axloqiy mezon asosida talqin etilganini ko’rishimiz mumkin. Bu esa diniy-ilohiy talqinning universal xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, diniy-ilohiy talqin nafaqat tarixiy adabiyotni, balki zamonaviy badiiy tafakkurni ham chuqurroq o‘rganish imkonini beruvchi metodologik vosita sifatida dolzarbdir. Bu borada nemis faylasufi Hans-Georg Gadamer o’zining “Haqiqat va metod” asarida “hermenevtika” (izohlash”, sharhlash”, tushuntirish – Sh.S) nazariyasini muhim metodologik asos sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko’ra matnni tushunish jarayoni diniy, tarixiy ong va talqin uyg‘unligi sifatida izohlanadi: “Har qanday tushunish diniy va tarixiydir. Inson o‘z davrining diniy, madaniy, ijtimoiy va til muhitidan tashqarida fikr yurita olmaydi. Demak, matnni tushunish — bu din va o‘tmish bilan hozirgi zamon o‘rtasidagi dialogdir”[1], - deb aytib o’tadi.

Diniy-ilohiy talqin ham aynan shu nazariy qarashlarga tayangan holda matnni quyidagi faktorlar asosida ko‘p qatlamli idrok etishni ta’minlaydi:

Birinchidan, asar badiiyatida ma’naviy-axloqiy mezonni boshqaradi. Inson omili qatnashgan har qanday badiiy asarda qaramang, asosan, insonning yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘on, sabr va nafs o‘rtasidagi ichki kurashlarini tasvirlaydi. Diniy qarashlar esa ana shu kurashning ilohiy mezonlarini belgilab berganini guvohi bo’lamiz. Masalan, tasavvufiy va mumtoz adabiyot namunalariga nazar tashlaydigan bo’lsak, ularning aksariyatida ilohiy ishq tushunchasi, komil insonni tarbiyalash g’oyasi, umuman, ruhiy poklanish masalalari yetakchi o‘rinni egallab, ilohiy muhabbat timsoli orqali insonning ma’naviy kamolot sari intilishi badiiy ifodasini topadi. Bu esa diniy-ilohiy talqinning nafaqat g‘oyaviy, balki estetik vazifani ham bajarayotganini ko‘rsatadi.

[1] Gadamer, Hans-Georg. *Truth and Method*. and revised edition. Translated by Joel Weinsheimer and Donald G. Marshall. New York: Crossroad, 1989, 305-307-betlar.

Ikkinchidan, ramziy hamda metaforaviy qatlamni chuqurlashtirish vazifalarini bajarib, badiiy asardagi timsollarni kengroq ma’no doirasida tushunishga imkon beradi. Masalan, Sharq mumtoz she’riyatida “yor”, “may”, “soqi”, “safar” kabi tushunchalar ko‘pincha ilohiy haqiqatni anglash ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holatni aksariyat mumtoz adabiyot vakillari ijodida uchratishimiz tabiiy hol. Ularning asarlaridagi diniy-ilohiy talqin obrazlarning tashqi ko‘rinishidan ichki ma’nosiga o‘tish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, madaniy-tarixiy kontekstni ochib beradi. Har bir badiiy asar muayyan tarixiy davr va e’tiqodiy muhit mahsulidir. Diniy-ilohiy talqin ana shu muhitni aniqlash va asarni o‘sha kontekstda o‘rganishga yordam beradi. O‘rta asr musulmon Sharqida yaratilgan asarlarni Qur’oniy qissalar, hadislar va tasavvufiy qarashlardan uzib talqin qilishning ilmiy jihatdan imkoni bo’lmaganidek, zamonaviy adabiyotda ham bu talqinsiz badiiy asarni sharhlash mushkuldir. Shu ma’noda diniy-ilohiy talqin metodologik ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, hermenevtik yondashuvni ta’minlashni, ya’ni tarixiy ong va talqin jarayonining uyg‘unlashtirish vazifasini bajarib beradi. Bu jarayon o’quvchida badiiy asar matnini faqat syujet darajasida emas, balki ruhiy-falsafiy qatlam doirasida ham anglash imkonini beradi. Bu esa asarning estetik qimmatini yanada oshirga xizmat qiladi.

Shuningdek, diniy-ilohiy talqin badiiy asarda falsafiy umumlashma va ontologik mazmunni ham kuchaytirib berishga xizmat qiladi. Insonning yaralishi, taqdiri, erkinligi, hayot va o‘lim masalalari ko‘plab asarlarda diniy qarashlar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Masalan, Fyodor Dostoyevskyning “Jinoyat va jazo” romaniga diqqat qiladigan bo’lsak, asar qahramonining ruhiy iztiroblari va tavbaga kelishi diniy-axloqiy mezon orqali hal etiladi. Bu esa diniy-ilohiy talqinning psixologik tahlil bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu bois ham badiiy asardagi diniy-ilohiy talqin masalasi adabiyotshunoslikning muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. U badiiy asarning tashqi syujetidan ichki ruhiy-falsafiy qatlamiga o‘tish, obrazlar ortidagi ilohiy haqiqatni anglash va estetik mohiyatni teranroq idrok etish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv jarayonida ma’naviy qadriyatlar, milliy o‘zlik va diniy tafakkur masalalari adabiyotshunoslikda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy asar inson ruhiyati, tafakkuri va jamiyat ongining in’ikosi sifatida shakllansa, diniy-ilohiy tafakkur ana shu ruhiy olamning metafizik asoslarini belgilaydi. Shu bois diniy-ilohiy talqinning asar badiiyatidagi ahamiyati va roli masalasi ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan muhim metodologik yo‘nalish hisoblanadi.

Biz tadqiqot predmeti sifatida olgan romanlarda ham ma’lum darajada diniy motivlar va ilohiy g‘oyalar aks etgan bo’lib, ushbu faslda diniy-ilohiy talqinning ana shu asarlar badiiyatidagi funksional ahamiyati va bunda muallifning badiiy-estetik jihatdan ko’zlagan maqsadini ochib berishdan iborat.

“Ming bir qiyofa” romanida diniy motiv, asosan, asar qahramoni hisoblangan Abdulla Hakimning o’limidan so’ng go’rda Munkar va Nakir farishtalari tomonidan so’roq qilinishi tasviri bilan bog’liq kontekst jarayonida ko’zga tashlanadi:

- *“…Muhabbatga biroz beburdlik qilganimni aytmaganda, mening qanaqa gunohim bor ekan?!*
- *Bilmaysanmi?! Qachondir, aqalli, biron marta Ollohga sitqidildan ibodat-iltijo qilganmisan?! Sen umring bo’yi hattoki Ollohning borligiga ham ishonib-ishonmay yashagansan. Yo’q, sen kun ora bukib ichib, bo’lgan-bo’lmagan taomni yeb, pok-nopok joylarda yotib turib, shuni hayot deb tushunasan. Sen hayvondek yashading. Hayvondan ham battar…Yerda tirik murdadek sudralib umring o’tib ketdi.*
- *…Mayli men o’zimcha vijdonli odam edim, bo’ynimdagi gunohlar uchun qancha jazo bo’lsa, chiqashga tayyorman. Lekin bir narsaga tushunmayapman. Shuncha azob chekkanimdan so’ng, menga yana azob berilar ekan, dunyoda o’z manfaatlarini o’ylab birovlarni toptagan, jinoyatni o’ziga kasb qilib olgan yovuzlarning holi ne kichadi?!*
- *Sening boshqalarga ishing bo’lmasin. Har kim o’zi uchun o’zi javob beradi. Olloh barcha narsaga guvohdir. U oshkor narsalarni ham, pinhon narsalarni ham biladi. U hamma narsalarni eshitguvchi va bilguvchidir…*[1]

Voqealar rivoji davomida Abdulla Hakimning barcha qilgan gunohlarining bo’yniga olishi, onasini deb muhabbatidan voz kechishi, onasining vafotidan so’ng yolg’izlanib qolishi, katta shaharga bosh olib ketgani, ayriliq-hijronlar ko’yida yolg’iz, aftodahol yashgani eslanadi. So’roq tugab, qora yer qa’riga necha yillar yotgandan so’ng Qiyomat kuni kelib, Isrofil alayhissalomning sur chalishi hamda Abdulla Hakimning do’zaxga tushishi, azoblanib bir necha bor o’lib-tirilishi va qilgan barcha gunohlaridan forig’ bo’lgandan so’ng jannatga kirishi kabi diniy –ilohiy tasvirlarga duch kelamiz.

Romandagi bunday diniy-esxatologik motivlar syujetning tashqi bezagi emas, balki asarning g‘oyaviy-kontseptual o‘qini tashkil etadi. Qiyomat, do‘zax, jannat, savol-javob, shafoat kabi tushunchalar muallif tomonidan literal diniy rivoyat tarzida emas, balki ramziy-falsafiy konstruktsiya sifatida talqin qilinadi. Romandagi qiyomat sahnasi insonning ichki “men”i bilan yuzlashuvi sifatida tasvirlanadi. U yerda vaqt tarixiy emas, ontologik kategoriyaga aylanganini ko’rishimiz mumkin. M. Baxtin ta’kidlaganidek, “badiiy asarda vaqt va makon obraz tizimining ichki tuzilishini belgilaydi”[2]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, romandagi oxirat makoni — axloqiy haqiqat makoni bo’lib gavdalanadi. Asardagi *har kim o‘zi uchun javob beradi... Hech kim boshqaning yukini ko‘tarmaydi, degan* mazmuniy matnga e’tibor beradigan bo’lsak, muallif diniy manbani bevosita ko‘chirmaganiga, balki uni badiiy-estetik tafakkurga singdirganiga guvoh bo’lamiz.

Roman qahramoni Abdulla Hakim do‘zax manzaralarini kuzatar ekan, aslida tashqi jazoni emas, o‘z vijdonining ichki hukmini his qiladi. Asarda muallif do‘zaxni jazolash mexanizmi sifatida emas, balki haqiqatni ochib beruvchi makon sifatida ko’rsatib, an’anaviy diniy didaktikadan chekingan deyishimiz mumkin.

[1] Омон Мухтор. Тўрт томон қибла: уч романдан иборат Шарқ дафтари: (трилогия). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 48

[2] Bakhtin M. M. "Forms of time and of the chronotope in the novel". The Dialogic Imagination. Austin: Univ. Texas Press.1981, pp. 84–85

Aristotelning “Poetika” asarida “katarsis” tushunchasi “inson ruhining qo‘rquv va achinish orqali poklanishi”[1] sifatida talqin qilinadi. Abdulla Hakimning do‘zaxdagi ruhiy iztiroblari ham aynan katarsis jarayonini eslatadi, lekin u jazodan qo‘rqmaydi, balki o‘z xatolarini anglagan holatda axloqiy poklanib boradi.

Asardagi eng muhim g‘oyaviy burilishlardan yana biri – bu onaning roziligi motivi. Abdulla Hakimning do’zaxdan qutulib najot topishi ham tashqi ibodat yoki marosim bilan emas, balki onasining rozi qilgani va unga bo’lgan mehr-muhabbati bilan bog‘lanadi:

– *“Sen gunohlardan forig’ bo’lding, Xudoning bandasi. Endi joying jannatda bo’ladi.*
– *Axir men har holda osiy banda edim-ku…*
– *To’g’ri, sening gunohing ko’p edi. Lekin ezgu bir ishing uchun Olloh seni mag’firat qildi!*
– *Qanday ezgu ish ekan u?!*
– *Sen uchun muhabbat (Halima) har narsadan yuksak edi. Lekin sen o’zing uchun shunday aziz bo’lgan muhabbatni ham butun umri jafo bilan o’tgan onangning poyiga nisor qilding. Volidangni haqqi-hurmatini tugal bajo keltirding.*[2]

Aynan shu epizod muallifning badiiy-estetik idealini ochib beradi.

“Quroni Karim” ning bir necha suralarida[3] ota-onaga yaxshilik qilishning hatto tavhid (Allohga ibodat) bilan yonma-yon zikr qilinishi hamda payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Hadis”larida ham Jannatning onalar oyog‘ining ostida, deb ta’riflanishi, qolaversa, tasavvufiy an’analarda, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham ota-onaga bo’lgan e’tibor, hurmat va mehrini ilohiy rahmatning timsoli sifatida talqin qilish uchraydi. Omon Muxtor ham shunga yaqin estetik pozitsiyani egallab najotni muhabbatda ekanligini anglatadi. Lekin bu muhabbat asarda diniy-ritual emas, balki axloqiy-ruhiy mohiyatga ega ekanligi bilan xarakterlidir.

Roman nomining o‘zi “Ming bir qiyofa” — inson tabiatining murakkabligini bildiradi. Abdulla Hakim obrazi orqali muallif insonning ko‘p qatlamli qiyofasini ochadi: ijtimoiy qiyofa, maishiy qiyofa, ma’naviy qiyofa va oxiratdagi haqiqiy qiyofa. Bu xil “ming bir qiyofa-niqoblar” esa oxiratda barham topishini, insonning bitta asl qiyofasi – vijdonidagi qiyofasi uning taqdirini hal qilishini ko’rsatib beradi.

Muallifning yutug’i va ko’zlagan niyati shundaki, ijodkor diniy matnni badiiy asarda qo’llash orqali o’quvchi kitobxonni qo‘rqitish yoki unga nasihat berish vositasiga aylantirmaydi, aksincha, uni insonni o‘z “men”i bilan yuzlashtiruvchi badiiy mexanizm sifatida ishlatadi hamda badiiy-estetik tizimga singdirish orqali insonning ichki dramatizmini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, falsafiy-estetik qatlamda qayta ishlab, zamonaviy romanchilikda axloqiy ong muammosini yangicha talqin qilishga erishganini ko’ramiz. Shu ma’noda roman zamonaviy o‘zbek adabiyotida diniy-falsafiy tafakkurning estetik sintezini namoyon etadi.

---

[1] Aristotl. Poetika. G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at “nashriyoti, 1980, 24–25-betlar (6-bob, tragediya ta’rifi)

[2] Омон Мухтор. Тўрт томон қибла: уч романдан иборат Шарқ дафтари: (трилогия). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 67

[3] Isro surasi, 23–24-oyatlar, Luqmon surasi, 14–15-oyatlar, Ahqof surasi, 15-oyat, Niso surasi, 36-oyat, Baqara surasi, 83-oyat, Ankabut surasi, 8-oyat, An’om surasi, 164-oyat, Isro surasi, 15-oyat, Fotir surasi, 18-oyat, Zumar surasi, 7-oyat, Najm surasi, 38-oyatlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakhtin M. M. "Forms of time and of the chronotope in the novel". The Dialogic Imagination. Austin: Univ. Texas Press.1981, pp. 84–85
2. Aristotl. Poetika. G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at “nashriyoti, 1980, 24–25-betlar (6-bob, tragediya ta’rifi)
3. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла: уч романдан иборат Шарқ дафтари: (трилогия). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 67
4. Gadamer, Hans-Georg. *Truth and Method*. and revised edition. Translated by Joel Weinsheimer and Donald G. Marshall. New York: Crossroad, 1989, 305-307-betlar.

TILIMIZGA YANGI SO‘ZLARNING KIRIB KELISHI VA BUNDA OAVNING O‘RNI

Ziyatov Abduxoshim Abduvali o‘g‘li,
SamDCHTI O‘zbek tili, jurnalistika va
kompyuter lingvistikasi kafedrasi o‘qituvchisi
ziyatovabduxoshim0@gmail.com

Annotatsiya: Til va jamiyat bir-biri bilan doimiy bog‘liq rivojlanadi va ta’sir qiladi. Davlat va jamiyat rivoji, xalqaro aloqalarning kengayayotganligi, xalqimiz hayotidagi tub burilishlarning ommaviy axborot vositalarida aks etishi natijasida tilimizda ham leksik-semantik o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ushbu tezisda mazkur o‘zgarishlarning tilimizda aks etishi, yangi so‘z va terminlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, internet, ijtimoiy tarmoqlarda omma e’tiboriga havola qilinayotgan xabar va yangiliklar, shov-shuvli ma’lumotlarda til imkoniyatlaridan foydalanish holatlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: til va jamiyat, twitter, facebook, instagram va tiktok, trend, shatdaun, segment, internet, media, ijtimoiy tarmoqlar.

Chet so‘zlarning internet tarmoqlari va OAV orqali kirib kelishi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarning bir qismiga aylandi. Ammo ularning qo‘llanishi Atamalar qo‘mitasi nazoratidan o‘tishi va tilimizda o‘z “pasport”ini olishi lozim, deb o‘ylaymiz. Ulardan uchtasiga – *trend, shatdaun, segment* atamalariga e’tiborimizni qaratamiz.

Trend. Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda *trend* so‘zi qo‘llanila boshladi. “Ommabop mavzularni, xeshteg yoki kalit so‘zlarni sharhlash uchun qo‘llaniladigan, ayni paytda, Twitter, Facebook, Instagram va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda katta shov-shuvga sabab bo‘layotgan atama” sifatida izohlangan ushbu so‘z “yo‘nalish”, “tendensiya”, “nau xou” ma’nolarini beradi.[1] Misollarga murojaat qilamiz: *Ortda qolgan yilning eng **trend**dagi mavzusi – ekologik muammolarning ildizi aslida ancha chuqurda, deydi professor Sherzodxon Qudratxo‘ja* (Kun.uz. 2025.12.31). *Ijtimoiy tarmoqlarda yangi **trend**: nega hamma toqqa yolg‘iz yo‘l olgan pingvin haqida gapirmoqda?* (Daryo.uz.2025.01.30). *Poytaxtimizda yangi **trend** tamaddixona – Taxi Stolovaya ishga tushdi* (dy.uz/H75Z2. 2019.05.03). Gaplar tarkibidagi *trend* – “yangi yo‘nalish” ma’nosini anglatadi va uni *yangilik* sifatida qabul qilish mumkin bo‘ladi. Shunday ekan, “OAV tili – hamma uchun, omma uchun tushunarli bo‘lgan til”, degan mantiqdan kelib chiqib, nega o‘zbekcha so‘z turganda inglizcha so‘zni qo‘llashimiz va uni zo‘r berib ommalashtirishga urinishimiz kerak? So‘zning “Daryo” rasmiy telegram kanalida o‘nga yaqin o‘rinlarda qo‘llangani ajablanarlidir.

Trend so‘zi qo‘llangan quyidagi *Fotogalereya: O‘zbek internetida yangi trend – do‘ppi va ro‘mol **fleshmob**i* (dy.uz/ANB. 2018.01.08) gapi tarkibida *fleshmob* so‘ziga ham ko‘zimiz tushadi. Bu so‘z nimani anglatadi? Fleshmob (*fleshmob* tarzida talaffuz etiladi; ing. *flash mob*, so‘zma-

[1] google.com/search?q=тренд&oq=&gs_lcrp=.

so‘z) – “kutilmaganda paydo bo‘lgan olomon”, “oldindan rejalashtirilgan ommaviy aksiya” ma’nolarini anglatadi.[1] Harqalay, ushbu xabarni yozgan muxbir uni *aksiya* ma’nosida qo‘llagan bo‘lsa kerak. Nima bo‘lganda ham, bu kabi so‘zlarning tilimizga bemalol kirib kelishiga yo‘l qo‘yib berish, ona tilimizning boyishi qoidalariga ziddir.

Shatdaun. OAV tilida qo‘llanilayotgan hamma til birliklariga nisbatan ham yuqoridagi fikrni aytib bo‘lmaydi. Masalan, *shatdaun* atamasini olaylik. Keyingi paytlarda o‘zbekcha internet saytlarida ushbu so‘z “faoliyatni to‘xtatish” ma’nosida qo‘llanila boshladi: *AQSHda **shatdaun** tufayli aviareyslar ommaviy bekor qilinmoqda* (Zarnews.uz/ojyg. 2025.11.06). *Tramp **shatdaun** sababli Oq uy xodimlarining uchdan bir qismini ishdan ozod qiladi* (Zarnews.uz/l2z0. 2025.10.03). *Tramp AQSH hukumatining vaqtinchalik byudjetini imzolab, rekord darajada 43 kun davom etgan **shatdaunni** yakunladi* (Dunyo.uz. 2025.11.13). *AQSH Senatida rekord darajada uzoq davom etgan **shatdaun**ni to‘xtatish imkonini beradigan qonun loyihasi zarur ovozlarni qo‘lga kiritdi, deb xabar bermoqda Reuters va boshqa OAV 11 noyabr kuni tongda* (https://kun.uz/kr /08413774) kabi.

Shatdaun (inglizcha *shutdown* – “yopish”, “o‘chirish”) – asosan AQSHda Kongress tomonidan davlat byudjeti tasdiqlanmaganda, federal hukumat muassasalari ishining qisman yoki to‘liq to‘xtab qolishi. Bu davrda davlat xizmatchilari majburiy haq to‘lanmaydigan ta’tilga chiqariladi, davlat bog‘lari, muzeylar yopilishi va muhim bo‘lmagan xizmatlar to‘xtashi mumkin.[2]

Dunyo.uz, daryo.uz, kun.uz, zarnews.uz kanallarida uchragan 13 holatda ham ushbu atama Amerika Qo‘shma Shtatlarida ro‘y bergan voqealar bilan bog‘liq holda qo‘llangani uning to‘g‘ri va o‘rnida qo‘llanganidan dalolat beradi. Bunday holatlarda so‘z faqat AQSHda ro‘y bergan voqealar bilan bog‘liq holda keltirilgan uchun uni boshqa so‘z yoki jumla bilan almashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Segment. “Butunning bo‘lagi” ma’nosini beradigan ushbu so‘zning ruscha izohida uning *deleniye, fragment, chlen, chast, kusok, dolya* so‘zlariga sinonim bo‘lishi mumkinligi aytilgan.[3] *Albatta, bu surbetona shovinistik munosabatga **o‘zbek segmenti**da ham, boshqa joylarda ham katta va jiddiy e’tirozlar bildirildi. Lekin bu yetarli emas* (“Buyuk turkiylar tarixi” kanali. 2026.01.13). Gapda “turkiy davlatlarning biri” ma’nosini beradigan *o‘zbek segmenti* jumlasidagi *segment* so‘zi ham ilmiy, ham rasmiy, ham publisistik ottenka berayotgani uchun o‘rinli qo‘llangan, deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanish, globallashuv tilimizga yangi va chet so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Ushbu o‘rinda esa kirib kelayotgan yangi va chet so‘zlar tilimizning qashshoqlashishiga emas, boyishiga xizmat qilishi lozim. Demak, ona tilimizning foydanayotgan nafaqat ommaviy axborot vositalari vakillari, balki xalqimiz sergak bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shamaqsudova S.X. Media tili va uslubi (1-qism). O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2021, 188 bet.
2. Самандарова Садоқат Сохибжон қизи. Публицистик матнларда эвфемик ва дисфемик ифодалар: Филол.фан.бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2025.
3. Kun.uz
4. Zarnews.uz

[1] ru.wikipedia.org/wiki/Флешмоб.
[2] www.google.com/search?q=шатдаун+нима+дегани&oq.
[3] https://www.merriam-webster.com/thesaurus/segment.

DURBEKNING „YUSUF VA ZULAYHO“ ASARI BADIIY TAHLILI

KDPI va ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi
o‘qituvchisi D.R.Suyunova
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi Abduxalilova Sevara

Annotatsiya. Ushbu maqolada Durbekning „Yusuf va Zulayho“ asari badiiy tahlil qilinadi. Asarda ilohiy va insoniy muhabbat uyg‘unligi, sabr-toqat, vafodorlik hamda ma’naviy poklik g‘oyalari yoritilgan. Muallif Yusuf obrazi orqali go‘zallik va komillik timsolini, Zulayho obrazi orqali esa ishq yo‘lida kechgan ruhiy iztiroblar va poklanish jarayonini tasvirlaydi. Maqolada asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda uning Sharq adabiyotidagi o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Yusuf va Zulayho, Durbek, ishq, sabr, vafodorlik, ilohiy muhabbat, badiiy tahlil, obraz, Sharq adabiyoti, ma’naviyat.

Kirish. „Yusuf va Zulayho“ mavzusi mumtoz adabiyotda juda ommabop bo‘lib, ko‘plab shoirlar tomonidan yozilgan. Eng mashhur o‘zbek va turkiy variantlar mualliflari orasida Durbek bu asarni XIV-XV asr, 1409-yilda yozgan. Sharq mumtoz adabiyotida ishq, sabr va ma’naviy poklik g‘oyalarini yuksak badiiy talqinda aks ettirgan asarlar orasida Yusuf va Zulayho alohida o‘rin tutadi. Bu asar nafaqat diniy rivoyatlarga tayanishi, balki inson ruhiyati, muhabbatning turli qirralari va axloqiy qadriyatlarni chuqur yoritishi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, Durbek tomonidan yaratilgan talqin o‘zining badiiy yetukligi, obrazlar tizimi va milliy ruh bilan sug‘orilgani bilan ajralib turadi. Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun va mohiyatidagi muhabbat talqinidir.

Sharq adabiyotida bu syujet atrofida ko‘plab afsonalar va rivoyatlar shakllangan. Syujetning keng yoyilishiga „Tavrot“ va „Qur’oni karim“ ning katta ta’siri bo‘lgan. Muqaddas kitoblarda Yusuf bilan bog‘liq voqealar, suralar va tafsilotlar keltirilgan. Balxda Durbek „Yusuf va Zulayho“ dostonini yaratadi. U shoirning nomi 1920-yillargacha ilmiy adabiyotlarda tan olinmagan. Uning dostonining qo‘lyozmasi topilgach, Durbek ijodi adabiyotshunoslarning e’tiborini tortadi, asardan parchalar chop etiladi. Keyingi yillarda ilmiy jamoatchilik orasida „Yusuf va Zulayho“ dostonining muallifi Durbek emas, balki Ulug‘bek yoki Homidiy Balxiy bo‘lishi mumkinligi haqida fikrlar paydo bo‘ladi. Yaqinda chop etilgan o‘rta maktab darsliklarida esa bu doston muallifi noma’lum sifatida ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, mashhur adabiyotshunos olimlar — Bertels, Hodi Zaripov, F. Shamsiev, Oybek, M. Shayxzoda, O. Sharofiddinov, V. Zohidov, I. Sulton, H. Yoqubov, F. Karimov, A. Qayumov, A. Hayitmetov, N. Mallaev, S. Haydarov va boshqalar — doston muallifi Durbek ekanini ta’kidlaydilar.

“Yusuf va Zulayho” qissasi Sharq adabiyotining eng mashhur ishq va axloqiy dostonlaridan biridir. Bu qissa o‘zining diniy, ma’naviy va badiiy jihatlari bilan ajralib turadi. Unda Yusuf — go‘zal yuzli, soddaligi va samimiyligi ta’riflanadi. U hazrat Ya’qubning o‘g‘li bo‘lib, yetakchi sifatida dono va pokiza qalbga ega. Zulayho esa boy va go‘zal xonim bo‘lib, Yusufga birinchi qarashdayoq muhabbat qo‘yadi. Zulayho Yusufning go‘zalligi va saxiyligi oldida o‘zini ojizlikka tushirib, unga oshiq bo‘ladi. Ammo Yusuf iymoni va axloqini saqlab, uning vasvasalariga qarshi turadi. Zulayho hiyla bilan uni aldamoqchi bo‘ladi, lekin Yusuf undan qochadi va pokligini yo‘qotmaydi. Voqealar davomida Zulayho chin muhabbat va pushaymonlikni anglab, sabr va poklikning ahamiyatini tushunadi. Qissa sabr-toqat, axloqiy poklik va haqiqiy muhabbat darsini beradi. Zulayho Yusufga oshiq bo‘lishi va voqealar rivoji turlicha talqin qilinadi. Masalan, nasriy uslubda yozilgan „Qissasi Rabg‘uziy“ asarida bu uchrashuv ikki xil shaklda bayon qilingan. Rabg‘uziy turli rivoyatlarni o‘rganib, ularning qaysi biri haqiqiy ekanini aniq belgilashdan yiroq bo‘lgan, shuning uchun bir nechta variantni keltirgan. Unga ko‘ra, Zulayho Yusufni tasodifan uchratib sevib qoladi yoki tushida ko‘rib, unga oshiq bo‘ladi. Boshqa variantlarda esa Yusufning aybdorligi Zulayho makri orqali yuzaga keladi, dramatik talqinlarda esa Nodir kabi vositachi obrazlar ham qo‘shiladi.

Yusufning Zulayhoga, Zulayhoning Yusufga bo‘lgan sevgisi ilohiy ishq timsolidan dalolatdir. Qul Ali Zulayhoning Yusufga bo‘lgan muhabbatini tasvirlar ekan, hamma narsadan, hammaning har qanday so‘zidan faqat „Yusuf! “ degan sado keladi. Ishqning, haq ishqining mukammal timsolini qul Ali quyidagicha ta’riflaydi:

Mushkul holg‘a dushdi ul anda keyin,
Bir soatqa ko‘rmasa Yusuf yuzin,
Sabri qolmaz, anglamaz kimsa so'zin,
Ne so‘zlasa, „Yusuf! “ deyu so‘zlar emdi.
Ba’d azin tanangdan qon oldirsa,
Hajjom aning tomirina nishtar ursa,
Kela el xol qoni oqib yera tomsa,
Yer „Yusuf! “ deyu yozilir emdi.

“Yusuf va Zulayho” dostonining o‘rganilishi adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Syujetning qadimiy ildizlari, muqaddas kitoblar bilan bog‘liqligi va sharq adabiyotidagi turli talqinlari bu asarni nafaqat badiiy, balki ma’naviy meros sifatida ham qadrli qiladi. Turli davrlarda yozuvchilar — Rabg‘uziy, Durbek, Jomiy va boshqalar o‘z nigohida voqeani talqin qilgan, obrazlar va tafsilotlarni yangilab, uni avlodlar uchun jonli va tushunarli qilgan. Syujetning asosiy g‘oyasi — sabr-toqat, axloqiy poklik va chin muhabbat namunasidir. Bugungi kunda ham o‘quvchida ma’naviy ta’sir uyg‘otadi. Shu bois, „Yusuf va Zulayho“ nafaqat tarixiy manba sifatida, balki insoniy qadriyatlarni anglash va adabiy tafakkur uchun ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan noyob asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). — Toshkent, 2005.
2. Durbek. Yusuf va Zulayho (qo‘lyozma). — Balx, 1409.
3. Nosuriddin Rabg'uziy - "Qissasi Rabg'uziy" 2-kitob.
4. Ramz Bobojon-"Yusuf va Zulayho "T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti-2000.
5. Abdurahmon Jomiy "Yusuf va Zulayho ". T.: "G'afur G'ulom" -1997.

“CHOL VA DENGIZ” QISSASI TARJIMA MATNLARIDA SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARINING SHAKL VA MAZMUN NOMUTONOSIBLIGI

Yigitaliyeva Dildora Dilshodjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti
dildorayigitaliyeva51@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Chol va dengiz” qissasining o‘zbek tiliga tarjimalari asosida so‘z va so‘z birikmalarining shakl va mazmun nomutonosibligi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar, frazeologik birliklar va stilistik vositalarning o‘zgarishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, nomutonosiblikning asosiy sabablari sifatida sifatida tillararo farqlar, madaniy tafovutlar va tarjimon strategiyasi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, ekvivalentlik, shakl va mazmun, semantik siljish, frazeologizm.

Kirish. Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida shakl va mazmun o‘rtasidagi munosabatni adekvat ifodalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan “Chol va dengiz” qissasining o‘zbek tiliga tarjimalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar ixcham uslubi va chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. Uni tarjima qilishda semantik siljishlar, frazeologik birliklarning mos kelmasligi hamda stilistik vositalarning o‘zgarishi natijasida shakl va mazmun nomutanosibligi yuzaga keladi. Ushbu muammo E.Nida va P.Newmark nazariyalari asosida izohlanadi. O‘zbek olimlaridan G‘.Salomov mazmun

ustuvorligini, N.Komilov esa milliy xususiyatlarni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – qissa tarjimalari asosida so‘z va so‘z birikmalarida shakl va mazmun nomutanosibligini aniqlash va ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy tarjimada shakl va mazmun munosabati tarjimashunoslikda muhim masalalardan biri hisoblanadi. E.Nida ekvivalentlik nazariyasi orqali mazmun ustuvorligini asoslaydi, P. Newmark esa shakl va mazmun muvozanatini izohlaydi. L.Venuti tarjimada madaniy omillar va strategiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi. "Chol va dengiz" tarjimalari bo‘yicha tadqiqotlarda asarning uslubi, metaforalari va leksik-semantik o‘zgarishlari tahlil qilingan. O‘zbek olimlaridan G‘.Salomov mazmun ustuvorligini, N. Komilov esa milliy xususiyatlarni saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Biroq shakl va mazmun nomutanosibligi masalasi mazkur asar misolida yetarli darajada maxsus o‘rganilmagan.

Metodologiya. Ushbu maqolani yozish jarayonida qiyosiy-tahlil metodi, analiz, sintez, leksik-semantik metodi, kontekstual tahlil metodi va deskriptiv metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tarjimashunoslikda shakl va mazmun munosabati muhim nazariy masalalardan biridir. Shakl til birliklarining tashqi ifodasi bo‘lsa, mazmun u orqali yetkaziladigan semantik ma'noni anglatadi. Badiiy tarjimada bu ikki jihatni to‘liq saqlash har doim ham imkoni bo‘lmay, natijada nomutanosiblik yuzaga keladi. Tarjimada mazmun ustuvor hisoblanadi va dinamik ekvivalentlik muhim ahamiyatga egadir[1]. Shakl va mazmun o‘rtasidagi muvozanat semantik va kommunikativ tarjima orqali izohlanadi[2] . L.Venuti tarjimada madaniy omillar va strategiya muhimligini ta'kidlaydi. O‘zbek olimlaridan G‘.Salomov mazmunni to‘g‘ri yetkazish ustuvor ekanini qayd etadi. Demak, tarjimada shakl va mazmun nomutanosibligi tabiiy va muqarrar hodisa hisoblanadi.

"Chol va dengiz" qissasining tarjimalarida leksik birliklar darajasida shakl va mazmun nomutanosibligi tez-tez uchraydi. Bu, ayniqsa, denotativ va konnotativ ma'nolarning to‘liq mos kelmasligi bilan izohlanadi. Masalan, asardagi *He was rowing steadily and it was no effort for him* (Hemingway, E. The Old Man and the Sea, 17 p.) jumlasi ayrim tarjimalarda *U bir maromda eshkak eshardi va bu unga qiyinchilik tug‘dirmasdi* (Hemingway, E. Chol va dengiz, 32) tarzida beriladi. Ushbu tarjimada asosiy mazmun saqlangan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi *no effort* birikmasining ichki semantik nozikligi (ruhiy yengillik, tabiiylik) to‘liq ifodalanmagan. Natijada mazmun qisman torayadi. Yana bir misol: *Everything about him was old except his eyes him (* Hemingway, E. The Old Man and the Sea, 10) jumlasi odatda *Undagi hamma narsa qari edi, faqat ko‘zlari bundan mustasno* (Hemingway, E. Chol va dengiz, 15) tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda shakliy moslik saqlangan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi "old" so‘zining konnotativ ma'nosi (hayotiy tajriba) to‘liq ochilmaydi. P.Newmark ta'kidlaganidek, leksik birliklarni tarjima qilishda kontekstual ma'no asosiy ahamiyatga ega[3]. E.Nida esa bunday holatlarni semantik siljish bilan izohlab, mazmunni maksimal darajada yetkazish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbek tarjimashunosligida esa leksik birliklar tarjimasida mazmuniy adekvatlik ustuvor bo‘lishi lozim[4]. Shunga qaramay, yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, leksik darajada shakl va mazmun nomutanosibligi tarjimaning muqarrar xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Qissa tarjimasida frazeologik birliklar shakl va mazmun nomutanosibligi eng ko‘p uchraydigan qatlamlardan biridir. Buning sababi – iboralarning ko‘pincha ko‘chma ma'noga ega bo‘lib, ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish mazmunning buzilishiga olib kelishidir. Masalan, asardagi *He went out too far him (*Hemingway, E. The Old Man and the Sea, 50) birikmasi ayrim tarjimalarda *U juda uzoqqa chiqib ketdi*[5] (Hemingway, E. Chol va dengiz, 32) tarzida beriladi. Bu tarjima shaklan to‘g‘ri bo‘lsa-da, asl matndagi yashirin ma'no – *haddan oshdi, imkoniyatdan ortiq ish qildi* – to‘liq ifodalanmaydi. Natijada mazmun torayadi. Yana bir misol: *I wish I had the boy him* (Hemingway, E. The Old Man and the Sea, 45) jumlasi ko‘pincha *Bola yonimda bo‘lsa edi*

[1] Nida, E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – p. 159.
[2] Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – p. 39.
[3] Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – p. 55.
[4] Salomov, G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 52-bet.
[5] Hemingway, E. Chol va dengiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989. – 54 b.

(Hemingway, E. Chol va dengiz, 47) tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda grammatik shakl saqlangan bo‘lsa-da, ingliz tilidagi iboraning hissiy-ekspressiv yuklamasi (yolg‘izlik, ichki ehtiyoj) yetarli darajada ochilmaydi. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki funksional ekvivalentni topish zarur[1]. O‘zbek olimlaridan G‘.Salomov frazeologizmlar tarjimasida milliy til imkoniyatlaridan foydalanish va mazmuniy adekvatlikni saqlash muhimligini qayd etadi[2]. Shunga qaramay, frazeologik birliklarda shakl va mazmun nomutanosibligi tarjimaning eng murakkab va muqarrar jihatlaridan biri bo‘lib qoladi.

Ushbu asar tarjimasida shakl va mazmun nomutanosibligi bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Avvalo, tillararo tizim farqlari muhim omil hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarining leksik, grammatik va sintaktik tuzilishidagi tafovutlar natijasida ayrim birliklarni aynan shaklan va mazmunan mos holda berish qiyinlashadi. Ikkinchi muhim sabab – madaniy tafovutlardir. L.Venuti ta’kidlaganidek, tarjima jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni to‘liq saqlash yoki moslashtirish zarurati yuzaga keladi[3]. Bu esa ba’zan shaklni o‘zgartirib, mazmunni saqlash yoki aksincha holatlarga olib keladi. Uchinchi sabab tarjimon strategiyasi bilan bog‘liq. Tarjimada semantik va kommunikativ yondashuvlar mavjud hisoblanadi va tarjimon tanlovi natijaga bevosita ta’sir qilishini qayd etadi[4]. Ayrim hollarda shaklga yaqinlik ustuvor bo‘lsa, boshqa holatlarda mazmuniy adekvatlik tanlanadi. Shuningdek, E.Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko‘ra, tarjimada qabul qiluvchi auditoriyaga tushunarli va ta’sirchan shakl yaratish zarurati ham nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. O‘zbek tarjimashunosligida G‘.Salomov ham mazmun ustuvorligini ta’kidlab, shakliy moslik har doim ham saqlanmasligini qayd etadi. Demak, tarjimada shakl va mazmun nomutanosibligi tillararo farqlar, madaniy omillar hamda tarjimonning individual yondashuvi bilan bog‘liq holda yuzaga keluvchi tabiiy hodisa hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Chol va dengiz” qissasining o‘zbek tiliga tarjimalarida so‘z va so‘z birikmalarining shakl va mazmun nomutanosibligi keng uchraydi. Bu holat, asosan, leksik birliklar, frazeologik ifodalar va stilistik vositalar tarjimasida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, nomutanosiblikning yuzaga kelishi tillararo tizim farqlari, madaniy tafovutlar hamda tarjimon strategiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, tarjimada mazmunni to‘liq va adekvat yetkazish ko‘pincha shakliy moslikning qisman yo‘qolishiga olib keladi. Natijada badiiy tarjimada shakl va mazmun o‘rtasidagi to‘liq muvozanatga erishish har doim ham imkoni bo‘lmasligi, ammo mazmuniy adekvatlikni ta’minlash ustuvor vazifa ekanligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Hemingway, E. The Old Man and the Sea. – New York: Scribner, 2003. – 127 p
2. Hemingway, E. Chol va dengiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989. — 120 b.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – p. 192.
4. Nida, E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – p.331.
5. Salomov, G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 165 b.
6. Venuti, L. The Translator’s Invisibility. – London: Routledge, 1995. – p. 353.

CHATGPT TIPIDAGI MODELLAR UCHUN O’ZBEK TILIDA KONTEKSTUAL XATOLIKLAR

Bahranova Surayyo Hamza qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedogogika instituti
O’zbek tili va adabiyotiyo’nalishi 1-kurs magistranti
bahranovasurayyo25@gmail.com

[1] Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 104 p.
[2] Salomov, G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 58-bet.
[3] Venuti, L. The Translator’s Invisibility. – London: Routledge, 1995. – p. 21.
[4] Newmark, P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 45 p.

Annotatasiya. Mazkur maqola ChatGPT tipidagi modellar tomonidan o'zbek tilidagi matnlarni qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan kontekstual xatoliklarni aniqlanadi va tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sun'iy intellektning matnni tushunish jarayonida qaysi jihatlarda xatoga yo'l qo'yishi, ayniqsa semantik va kontekstual moslik nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Su'niy intellekt, NLP, katta til modellari, semantik tahlil, sintaktik tahlil, kam resursli tillar, kontekstual xatoliklar

Kirish. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing - NLP) sohasi yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, katta til modellari (Large Language Models - LLM) inson tilini tushunish va qayta ishlab chiqarishda yuqori natijalarni ko'rsatmoqda. ChatGPT kabi modellar foydalanuvchi savollariga konteksga mos javoblar berishga qodir. Biroq, ushbu tizimlar asosan ingliz tili kabi keng resurslarga boy tillarda yuqori aniqlik bilan ishlaydi. O'zbek tili esa kam resursli , tillar qatoriga kirib, unda sifatli datasetlar va lingvistik resurslar yetishmasligi model samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada kontekstual xatoliklar- ya'ni matn mazmunini noto'g'ri tushunish yoki noto'g'ri talqin qilish holatlari tez-tez uchraydi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) nima? Kompyuterlar kundalik turmushning ajralmas qismi bo'lib, jadvalli / elektron ma'lumotlar bilan ishlashda juda qulay texnik vositasi hisoblanadi. Biroq, odamlar odatda jadvallar shaklida emas, balki so'zlar va jumlalar bilan muloqot qilishadi. O'g'zaki va yozma nutq matnlari xususiy bo'lib, til umumiylik kasb etib, muayyan tuzilish (struktura)ga ega. Shu bois kompyuterlar uchun ushbu turdagi ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini yaratish taqozo etiladi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)dan maqsad kompyuterlarga strukturlangan matnni tushuntirish va mazmun olishni o'rgatishdan iborat. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sun'iy intellektning kichik sohasi bo'lib, uning maqsadi kompyuterlar va odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnanishdan iborat. Tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalarni yechish uchun Python dasturlash tilida yaratilgan NLTK kutubxonasi yuklab olinishi talab etiladi [Garousi V., Bauer S., Felderer M. 2020: 1].

Metodologiya. Katta til modellari – bu katta hajmdagi matnli ma'lumotlarga o'rgatilgan sun'iy intellekt (artificial intelligence, AI) dasturiy ta'minoti. Katta til modellari katta hajmdagi til ma'lumotlarini o'rganish – mashinali o'qitish (machine learning, ML) algoritmlari deb ataladigan ilg'or dasturlash texnologiyasidan foydalanadi. Sun'iy intellektga asoslangan ChatGPT tipidagi modellar tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida yuqori natijalarni ko'rsatayotgan bo'lsa-da, o'zbek tilida kontekstual xatoliklar hali ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. ***Kontekstual xatolik*** deganda model tomonidan so'z yoki gap ma'nosining aynan berilgan nutqiy vaziyatga mos kelmaydigan tarzda talqin qilinishi tushuniladi. O'zbek tilida bunday xatoliklar asosan tilning lingvistik xususiyatlari, xususan, morfologik murakkablik, erkin so'z tartibi hamda ko'p ma'nolilik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot natijasi va tahlillar. Quyida o'zbek tilida uchraydigan asosiy kontekstual xatoliklar tahlil qilinadi. Avvalo, **agglutinativlik bilan bog'liq kontekstual xatoliklar** muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida so'zlarga ko'plab qo'shimchalar qo'shilishi natijasida murakkab grammatik shakllar yuzaga keladi. Masalan, *"Borayotganlaringiznikidan ham yaxshiroq ekan"* gapida bitta so'z tarkibida bir nechta grammatik ma'no mujassamlangan. ChatGPT tipidagi modellar bunday murakkab birliklarni har doim ham to'g'ri segmentatsiya qila olmaydi, natijada ma'no noto'g'ri talqin qilinadi. Kontekstual xatoliklarning yana bir muhim manbai - **o'zbek tilidagi erkin so'z tartibidir.** Masalan, "*Bugun darsni men o'tdim*" va "*Men bugun darsni o'tdim*" gaplari semantik jihatdan bir xil bo'lsa-da, urg'u va ma'no nozikliklari farq qiladi. Model esa bu farqni e'tiborsiz qoldirib, noto'g'ri pragmatik xulosa chiqarishi mumkin. Yana bir misol sifatida "*Faqat u kelmadi*" va "*U faqat kelmadi*" gaplarini olaylik - birinchi gapda boshqa ishlar bajarilgani, ikkinchisida esa aynan kelish harakati bajarilmagani anglashiladi. Bu nozik farqlar model tomonidan ko'pincha to'liq ajratilmaydi. Shuningdek, **frazeologik va idiomatik birliklar bilan bog'liq xatoliklar** ham keng tarqalgan. Masalan, *"U gapni aylantirib o'tirmadi"* jumlasida "*aylantirmoq"* so'zi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Modellar esa

bunday birliklarni ko‘pincha literal tarzda talqin qilib, kontekstga mos kelmaydigan natijalarni beradi. Bundan tashqari, **ellipsis hodisasi bilan bog‘liq xatoliklar** ham kuzatiladi. *“Sen aytgandek qildim”* gapida asosiy harakatning mazmuni tushirib qoldirilgan bo‘lib, bu model uchun qo‘shimcha noaniqlik tug‘diradi. Natijada u yetishmayotgan ma’lumotni noto‘g‘ri tiklashi mumkin.

Qo‘shimchalar kombinatsiyasi bilan bog‘liq xatoliklar ham alohida e’tiborga loyiq. Masalan, *“Yozayotganlaringizdagilarni tushunmadim”* jumlasida bir nechta qo‘shimchaning ketma-ket kelishi model uchun murakkab tahlil talab qiladi. Bunday holatlarda model asosiy ma’noni aniqlashda xatoga yo‘l qo‘yadi. Shu bilan birga, **ma’lumot yetishmasligi bilan bog‘liq xatoliklar** ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, *“U ishni boplabdi”* jumlasidagi *“boplabdi”* so‘zi og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, barcha korpuslarda uchramasligi mumkin. Natijada model bu birlikni to‘g‘ri talqin qila olmaydi.

Polisemlik bilan bog‘liq xatoliklar ham keng tarqalgan. “*U og‘ir odam”* jumlasida “*og‘ir*” so‘zi jismoniy vaznni emas, balki xarakter xususiyatini anglatadi. Modellar esa buni ko‘pincha noto‘g‘ri, literal ma’noda tushunadi. Xuddi shuningdek, “yoz” so‘zi faslni ham, yozish harakatini ham bildiradi. *“Yoz keldi”* va *“daftarga yoz”* gaplarida bu farq aniq, ammo model uchun har doim ham oson emas.

Ayrim grammatik birliklarning ambiguiteti ham kontekstual xatoliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, *“U bilan bordim”* gapida “*bilan”* birlikning vazifasi kontekstga bog‘liq bo‘lib, u hamrohlik yoki vosita ma’nosini bildirishi mumkin. Modellar esa buni har doim ham to‘g‘ri aniqlay olmaydi. ChatGPT tipidagi modellar ko‘pincha semantik xatoliklar bilan birga **pragmatik xatoliklarga** ham yo‘l qo‘yadi. Masalan, “*Rahmat, juda ‘yaxshi’ ishlabsan”* jumlasida kinoya mavjud bo‘lishi mumkin, ammo model uni ijobiy maqtov sifatida talqin qiladi. Bundan tashqari, model ba’zida ortiqcha umumlashtirishga moyil bo‘lib, aniq kontekst talab qilingan savollarga umumiy va yuzaki javoblar beradi. Tarjima jarayonida esa boshqa tillarning sintaktik tuzilmasi ta’siri sezilib, o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan konstruktsiyalar yuzaga keladi.

Shevalarga xos leksik birliklar Natural Language Processing tizimlarida kontekstual xatoliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim hududlarda “*yumurta”* so‘zi adabiy tildagi “tuxum” o‘rnida ishlatiladi. “*Nonushtaga yumurta qildik”* gapida model bu birlikni noto‘g‘ri yoki notanish deb talqin qilishi ehtimoli bor. Shuningdek, *“osh”* so‘zi ham turlicha ma’noda qo‘llanadi: adabiy tilda u “*palov*”ni bildirsa, ba’zi shevalarda umumiy “ovqat” ma’nosini anglatadi. “*Osh qilib qo‘ydim”* jumlasida model faqat palovni nazarda tutib, mazmunni toraytirib yuborishi mumkin. Mazkur xatoliklarning asosiy sabablari orasida o‘zbek tilidagi katta hajmdagi sifatli ma’lumotlarning yetishmasligi, trening jarayonida boshqa tillarning ustunligi hamda Transformer architecture asosidagi modellar kontekstni chuqur emas, balki ehtimollik asosida yuzaki tahlil qilishi keltiriladi. Natijada model ayrim hollarda eng ehtimoliy variantni tanlaydi, ammo bu variant har doim ham to‘g‘ri kontekstga mos kelavermaydi.

Xulosa. Ushbu muammolarni kamaytirish uchun o‘zbek tilidagi keng va sifatli korpuslar yaratish, semantik va pragmatik bilimlarni chuqurroq integratsiya qilish hamda inson nazorati asosida baholash tizimlarini joriy etish zarur. Ayniqsa, real nutqiy vaziyatlardan olingan misollar asosida o‘qitish modelning kontekstni to‘g‘ri tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. ChatGPT tipidagi modellar o‘zbek tilini qayta ishlashda katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, kontekstual xatoliklar hali ham muhim ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda yanada mukammal, o‘zbek tiliga moslashtirilgan sun’iy intellekt tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Garousi V., Bauer S., Felderer M. NLP-assisted software testing: A systematic mapping of the literature. In Information and Software Technology. 2020. https://doi.org/10.1016/j.infsof.2020.106321

2. Qudratilloyeva, E. D. Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari // O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025. – B. 140.
3. Islomova, B. X. O‘zbek tili morfologik tahlilida kontekstual disambiguatsiya jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2025. – Vol. 6, Issue 9. – ISSN: 2181-1385.
4. Abdurahmonov, G‘. (1990). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Hojiyev, A. (2002). O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent.
6. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent.
7. Sodiqov, Q. (2018). O‘zbek tilida korpus lingvistikasi masalalari. Filologiya masalalari jurnali.
8. Bo‘ronov, J. (2020). O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash muammolari. Ilmiy axborotnomasi.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA TURFA TAQDIRLAR TAHLILI

Ergasheva Kumush O‘tkur qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi I kurs magistiranti
Kumushergasheva122713@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning hikoyalari tahlil qilinadi. Ijodkorning xarakter yaratish, detallardan foydalanish mahorati xususida so‘z yuritiladi. Yozuvchi hikoyalarida davr ruhiyati, ijtimoiy kayfiyat masalalari haqida mulohazalar bildirilgan. Hikoyalardagi qahramonlar ruhiyati va psixologiyasi orqali davr manzaralari aks etgan.

Kalit so’zlar: Xarakter, ruhiyat, obraz, nasr, hikoya, ichki monolog, syujet, detal.

Kirish. Mustaqillik davri adabiyotining asosiy vazifasi milliy ongni yuksaltirish, tarixiy xotirani tiklash, xalqning ruhiy-ma’naviy qiyofasini mustahkamlash bo‘ldi. Mustaqillik ruhi bilan sug‘orilgan va xalqning turmush- tarzi, kechinmalari ro‘y -rost ko‘rsatadigan asarlar yaratila boshladi. Abduqayum Yo‘ldoshev o‘zining o‘tkir qalami, hayotiy voqealarni baddiy talqin etishdagi mahorati bilan ajralib turadi. Uning hikoyalari rang-barangligi, qahramonlar taqdirining haqqoniyligi bilan ajralib turadi Adib asarlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular sodda va ravon tilda yozilgan bo‘lib, kitobxonga yengil yetib boradi. Ijodkor oddiy, sodda va samimiy insonlar. xarakterini mahorat bilan yarataoldi. Shu o‘rinda xarakter so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xarakter -kishilarga xos xususiyatlar, ularning individualligini ko‘rsatib beruvchi jihatlar nazarda tutiladi.Dunyoda har bir insonning o’ziga xos xarakteri bo‘ladi .Xarakter takrorlanmasdir. D.Quronov xarakterga quyidagicha ta’rif beradi: ‘‘Xarakter – bu aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan, xatti-harakatlarni, intilishlari, o‘y-xayollari, dunyoqarashi, ma’naviyati, ma’rifati, fe’l-atvori bilan ajralib turadigan to‘laqonli shaxslar obrazidir. Shu sabab badiiy asardagi hamma obrazlar xarakter hisoblanadi[1].Abduqayum Yo‘ldoshev o‘z hikoyalarida turfa xarakterga insonlarning taqdirlari xususida so‘z yuritdi. Hikoyalarida jamiyatda uchrab turadigan muammolar-zo‘ravonlik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, beparvolik, bepisandlik, shuhratparastlik, kibr, manmanlik, sovuqqonlik, jamiyat hayotidagi ma’naviy bo‘shliqlar haqqoniy aks ettirgan. Abduqayum Yo‘ldoshev Dadaxon Muhammadiyev bilan bo‘lgan suhbatda ijodkordan nega qahramonlaringiz orasida qiynalgan, azob chekkan, jabr ko‘rganlar ko‘p, bu uslubingizmi? deb so‘raganlarida A.Yo‘ldoshev quyidagicha javob beradi: ‘‘Yozgan odamlarim haqida hali hech kim bunday demagan edi… Bilmadim… Dostoevskiyni ko‘proq o‘qiganman, uning “iztiroblar orqali tozalanish”, degan gapi menga yoqadi. Avvaliga bu fikrga hayron bo‘lganman, so‘ng, o‘ylab qarasam, chindan ham qahramonning qalb kechinmalari, hissiyot po‘rtanalari, azob-uqubatlari

[1] Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi-.T.,SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi,2021.60-s.

o‘quvchining ruhan tozalanishiga, ma’nan yuksalishiga xizmat qilarkan. Sardaftarni esa, ayonki, dilda dardi bor odam kavlaydi…’’

Tadqiqot metodologiyayasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, biografik, psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi.Abduqayum Yo‘ldoshev ijodi haqida H.Umurov, U.Normatov, B.Karimov kabi adabiyotshunos olimlar ijobiy fikrlar bildirishadi

Tadqiqot natijalari. Adibning ‘‘Homiy’’, ‘‘Mashaqqatlar osha yulduzlar sari’’, ‘‘Boy’’, ‘‘Mix’’, ‘‘Alvido go‘zallik’’, ‘‘O‘zgalar fikri’’, ‘‘Muammo bormi?’’, ‘‘Hissa’’, ‘‘Bandi’’, ‘‘Yetim so‘z’’ hikoyalarida jamiyatdagi bir qancha muammolar, insonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘z aksini topgan. Adib bunday muammolarni yechishga, kitobxonni hayotiy va ibratli misollar tariqasida qayta tarbiyalashga harakat qiladi. Abuqayum Yo‘ldoshev hikoyalari hajman kichik bo‘lib sodda ravon tildaligi sababli kitobxon bir nafasda o‘qib tugatadi. Ijodkor o‘zining uslubi bilan yosh kitobxonlar ko‘nglidan joy olib bormoqda.

Tahlillar. Muallifning ‘‘Mix’’ hikoyasi qahramoni Elmurod domla sodda, samimiy,beting-ko‘zing deydigan ,mo‘min qobil inson. Uning boshiga tushgan kulfatlarining bosh sababi bundan 60yil avval qurilgan guvala uyning buzilishi-yu,zanggorrang darvoza sabab bo’ldi. Jamiyatda shunday kishilar borki, ‘‘bor bo‘lsa, ko‘raolmaydi, yo‘q bo‘lsa, beraolmaydi. Hikoyadagi Qarindosh ana shunday kishilardan biri. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi hikoyadagi ‘‘Qaridosh’’ domlaning teskarisi; ichiqoralik, ikkiyuzlamachilik, ko‘raolmaslik, manfaatparastlik va hokozo salbiy sifatlarga ega. Yozuvchi ushbu obrazi orqali hayotda yomon insonlar borligiga ishora qiladi, bunday insonlar jamiyat nuqsonidir. O‘z tili bilan aytganda: ‘‘-Men birdan o‘yib olmayman. Asta tirnayman,tirnayveraman. Tirnalgan joy yaraga aylanadi, keyin yiringlaydi, oxiri hammayoqni zaharlab tashlaydi….’’ Xuddi zirabcha singari Elmurod domlaning qo‘lini tirnab olgan mix ham boshida oddiy tirnalishdek tuyilgan edi bora-bora bu yara domlaning bir qo‘lidan ajralib qolishiga sababchi bo’ldi. Bu kimsa tufayli domla bor-budidan ajraldi. ‘‘Qarindosh’’ singari hayotda va jamiyatda bunday insonlarni ko’plab uchratish mumkin.Ular jamiyatning kemtiklaridir.

‘‘Quduq’’ hikoyasida inson taqdiri,ichki bo‘shliq,ma’naviy inqiroz va jamiyatdagi loqaydlik muammolari yoritiladi. Hikoyada quduq ramziy ma’noda qo‘llangan. Hikoyada xarakter tashqi voqealar orqali emas,balki ichki holat,sukut va ramziydetallar orqali ochiladi. ‘‘Quduq’’hikoyasida baxtsiz tasodiy tufayli quduqqa tushib ketgan Sabohatning o‘limi fojiaga aylantirildi. Ushbu fojia sabali bir oila keyinchalik esa butun bir 70 xonadonli qishloq rentabelsiz sifatida tugatilib yuborildi Tirkash Muallim esa malimlikdan ‘‘kasofat’’, ‘‘falokat’’ ga aylanib, ruhiy kasalliklar shifoxonasiga tushib qoldi. Bu nafaqat shaxs balki jamiyatning fojiasi edi. Bularning barchasiga voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan, o‘z tahminlariga tayanib ish olib borgan rus leytenantining ishi edi albatta. Sabohatning o‘limi haqidagi maqola radioda o‘qib eshittirildi-yu, birgina Tirkash muallimni emas, barcha quduqlarga panjara o‘rnatildi, keyinchalik esa quduqlar ko‘mib yuborildi. Suv vodoprovodda olib kelina boshlandi. Bu suv na chorvaga na ekin-tekinga yetardi O‘zbekovulliklarning hayotini izdan chiqardi. Ikkila hikoyada ham o‘qituvchilar hayoti tilga olinadi Garchi,ustozlar yoshlarga bilim beradigan, ma’rifatli, oq-qorani tanigan insonlar bo‘lishsada, jamiyatdagi tuzum ularni bosh ko’tarishga hattoki o‘zini oqlashga ham yo‘l qo‘ymaydi. Ikkiyuzlamachi, o‘z manfaatini o‘ylaydigan, o‘zgalarning boshiga tushgan kulfatdan ham manfaat ko‘zlaydigan insonlar har doim, har yerda topilgani kabi ‘‘Quduq’’ hikoyasidagi Kuntug‘mish ana shunday kishilardan biridir. ‘‘…Mana shularning hammasini hisobga olib, o‘rtog‘lar, mayli, og‘ir bo‘lsayam, men o‘zim u kishining besh-olti soatini o‘tib turishga tayyorman…’’Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida o‘sha davr

Yo‘ldoshevning ‘‘Ong’’, ‘‘Baho’’, ‘‘Anglash’’, ‘‘Ibrat’’, ‘‘Razolat’’ kabi hikoyalari hajm jihatdan kichik bo’lsada, insonni o‘ylashga mushohada yuritishga undaydi.

Ijodkorning ‘‘Qotil’’ hikoyasining nomi o‘quvchida bu hikoyaga nisabatan qiziqish uyg‘otmasdan qolmaydi. Voqealar bosh qahramonning tilidan hikoya qilinadi. Hikoyada qon-qarindoshlik, jigarchilik rishtalari, qishloqdoshlar orasidagi munosabatlar barcha narsalardan ustun ekanligi g‘oyasi ilgari suriladi. Asarning bosh qahramoni uydagilarini ko‘rish uchun uyiga

kelayotganda qishloqdoshlarining qistovi bilan choyxonaga kirishga majbur bo‘ladi. Ichkaridagilar orasida o‘zining Bektemir tog‘asining ham borligi, u kishining ‘‘… iljayibgina o‘tirib, piyolaning ‘‘oq’’ qilib qaytarilishi …’’ bu yigitning hayotini ostin- ustun qilib yubordi. Shu kuni uxlashga yotgan tog‘a qayta uyg‘onmadi. Marhumning qizi va shaharlik kuyovi go‘yoki bu ishlarga shaharlik jiyan aybdordek, hammaning oldida ‘‘Ana qotilning o‘zi ham keldi ‘‘deb izza qilishadi. Qishloqchilik deganlaridek, yomon xabar tez tarqaladi. Bu voqeadan so‘ng hamma unga, shubha bilab qarar, oila a’zolariga esa qo‘llarini bigiz qilib ko‘rsata boshlashadi. Akasi sho‘rlik qarindoshlar orasida murosa qilishga, ukasining ‘‘qotil’’ emasligini isbotlashga harakat qiladi. ‘‘Otamizni pulga sotmaymiz deya barilla aytgan kuyov murosaga kelishni istamaydi. Aka uchun qishloqdagi barcha to‘y-u marakalarga tez-tez chaqirib turadi. Shu tariqa oila a’zolari, qishloqdoshlari oldida ‘‘qotil’’emasligini isbotlashga, qishloqdoshlarining ko‘nglini olishga astoyidil harakat qildi. Keyinchalik tog‘aning ulfatlari bilan ‘‘yuz-yuzi’’ me’yoridan oshib ketgani, saraton otashida tandir kabobdan ko‘proq yeb qo‘yib, qon bosimi oshib ketgani sababli favot etganini eshitadi. Natijada qahramonimiz universitetdan ketib, qorovullik,bo‘sh vaqtlarida esa taksichilik qiladi. Qahramonimiz Bektemir tog‘aning ‘‘qotil’’i emas, aksincha o‘zining ,kelajagining, orzu-umidlarining qotiliga aylanganini do‘stining xalqaro tadqiqotlarda professor Madel bilan birgalikdagi tadqiqotlari xalqaro tadqiqotlarda birinchi o‘rinni olgani va g‘oya muallifi sifatida mukofotning yarmini unga tashlab ketganda angladi. Kechki payt ovulga kirib kelganda esa ‘‘ko‘ksini alamli armonmi, iztirobli qo‘msashgami o‘xshash nedir o‘g‘uli tuyg‘u kuydirib yondirardi. O‘ziga nima bo‘layotganini anglab yetaolmas so‘nggi daqiqalarda yarador bo‘ri yoxud qonli jinoyatga qo‘l urib bo‘lgan, endi yurakni o‘rtab, hayotini ostin-ustun qilib yuborgan pushaymonlik azobidan qotil misoli uvillab yubordi…’’.Abduqayum Yo‘ldoshevning asarlaridagi qahramonlar ba’zi o‘rinlarda o‘z so‘zlarini, fikr-mushohadalarini baralla ayta olishmaydi. Bu holat esa ularning tadiriga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Yozuvchi bu hikoyasi orqali insonlarning hayotda yashashdan maqsadi nima? Nima qilayapman? Hayotdagi maqsadi birovlarning ko‘nglini olish, ularni xursand etishmi yoki o‘z kelajagani qurishmi? Kabi savollar ustida tafakkur qilishga majbur qiladi. O‘z davrida ‘‘Qo‘ng‘izga arpa bahona ekan-da. Masalan, bizning ijod qilishimizga pashsha tugul qonso‘rar chivinlar –u so‘nalar, chayonlar- u ilonlar, suvaraklar-u kalamushlar, jazirama issig‘u qahraton sovuqlar xalaqit beraolmaydi, chunki toblanganmiz’’ deya vazlar o‘qigan qahramonimiz hayotidagi mayda-chuyda gaplar uning hayotini izdan chiqarib yubordi.

Xulosa. Abduqayum Yo‘ldoshev har bir asarida voqealar rivojini qahramonlarning ruhiy holati orqali asoslashga intiladi. Hikoyalarda personajlar nutqi orqali xarakterlar ochib beriladi. Yozuvchining har bir yaratgan qahramoni o‘quvchini o‘ylashga, mushohada qilishga undaydi, nafrat, achinish, hayajon kabi tuyg‘ularni birgalik his qiladi. Abduqayum Yo‘ldoshevning har bir asari zamonaviy o‘zbek adabiyotining sara durdonalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi-.T.,SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi,2021.- S.60
2. Yo‘ldoshev A.Mubtalo- T.Yangi asr avlodi, 2023

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI LINGVOMADANIY ASOSDA O‘QITISH: MUAMMOLAR VA NAZARIY YONDASHUVLAR

O‘ljaboyeva Marjona
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O ‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich magistranti
oljaboyevamarjona32@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim tizimi sharoitida frazeologik birliklarni o‘qitishning lingvomadaniy xususiyatlari yangicha ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqotda frazeologizmlarning til va madaniyat kesishgan nuqtadagi o‘rni, ularni o‘qitishda yuzaga keladigan didaktik muammolar hamda innovatsion metodlar yordamida ularni bartaraf etish imkoniyatlari asoslab beriladi. Natijada, raqamli muhitda frazeologik kompetensiyani shakllantirishning samarali modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik tafakkur, raqamli didaktika, lingvomadaniy tahlil, til kompetensiyasi, innovatsion metodlar, madaniy interpretatsiya.

Kirish. Hozirgi davr ta’lim tizimi uchun xos bo‘lgan asosiy tendensiyalardan biri bu raqamlashtirish jarayonining jadallashuvidir. Ushbu jarayon o‘quv faoliyatining shakl va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, til o‘rgatish tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash yangi didaktik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, til birliklarining barcha qatlamlari ham bir xil darajada oson o‘zlashtirilmaydi. Frazeologizmlar - o‘zining ko‘chma ma’nosi, obrazliligi va madaniy yuklamasi bilan ajralib turuvchi murakkab birliklar sifatida alohida metodik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda frazeologizmlar zamonaviy tilshunoslik paradigmasi asosida lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilinadi. Ular oddiy leksik yoki grammatik element sifatida emas, balki inson tafakkuri, milliy ong va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq murakkab lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Shu bois tadqiqotda frazeologik birliklar til tizimining madaniy va kognitiv qatlamini ifodalovchi muhim obyekt sifatida o‘rganiladi. Metodologik jihatdan frazeologizmlar quyidagi asosiy funksional yo‘nalishlar orqali tahlil qilinadi:

- tarixiy-madaniy tajribani saqlash va avlodlarga uzatish funksiyasi;
- milliy mentalitet va dunyoqarashni ifodalash funksiyasi;
- nutqning ekspressivligi va obrazliligini oshirish funksiyasi;
- yashirin (implitsit) madaniy va semantik ma’nolarni ifodalash funksiyasi[1].

Raqamli muhitning didaktik imkoniyatlari. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimining mazmuni, shakli hamda metodologik asoslarini tubdan o‘zgartirib, uni yangi innovatsion bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi natijasida an’anaviy o‘qitish modeli transformatsiyaga uchrab, ko‘p funksiyali, interaktiv va multimodal ta’lim muhiti shakllanmoqda. Bunday muhit o‘quvchilarning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliy qo‘llash jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Ayniqsa, til o‘qitish jarayonida, xususan frazeologik birliklarni o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalar muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki frazeologizmlar o‘zining obrazliligi, ko‘chma ma’nosi va madaniy semantik yuklamasi bilan oddiy leksik birliklardan farq qiladi va ularni o‘rgatish ko‘proq kognitiv hamda vizual yondashuvni talab etadi.[2] Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim muhiti quyidagi didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi:

- vizualizatsiya asosida ta’lim berish orqali o‘quvchilarda obrazli va assotsiativ tafakkurni rivojlantirish hamda murakkab lingvistik birliklarni ongli idrok etishni kuchaytirish;
- autentik til materiallarini audio-vizual formatda taqdim etish orqali tilning real kommunikativ muhitdagi qo‘llanilishini kuzatish va tabiiy nutq ko‘nikmalarini shakllantirish;
- virtual va simulyativ platformalar yordamida real hayotiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish;
- adaptiv ta’lim texnologiyalari asosida individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, ya’ni har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga moslashtirilgan o‘qitish tizimini joriy etish[3].

Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, raqamli texnologiyalarning ta’limdagi samaradorligi faqat ularning mavjudligi bilan emas, balki ularni metodik jihatdan asoslangan, didaktik maqsadga

[1]Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
[2]Nurmonov A. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
[3]Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

yo‘naltirilgan va lingvopedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Aks holda, texnologik vositalar o‘zining kutilgan ta’limiy natijasini bermasligi mumkin.

Muammolar tahlili. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilgan bo‘lsa-da, frazeologik birliklarni o‘qitishda qator metodik muammolar saqlanib qolmoqda. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda frazeologizmlarni o‘zlashtirish har doim ham samarali kechmaydi. Asosiy muammo - frazeologik birliklarning lingvomadaniy mohiyati raqamli resurslarda yetarlicha ochib berilmasligidir. Ularning ma’nosi ko‘pincha soddalashtiriladi yoki kontekstdan uzib o‘qitiladi, natijada iboralar faqat leksik birlik sifatida qabul qilinadi. Bu esa ularning madaniy va semantik mazmunini anglashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, avtomatik tarjima tizimlarida so‘zma-so‘z tarjima ustunligi frazeologizmlarning asl ma’nosini buzishi va noto‘g‘ri tushuncha shakllanishiga olib kelishi mumkin.[1] Bundan tashqari, o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari bilan lingvomadaniy yondashuv bo‘yicha tayyorgarligi o‘rtasidagi nomutanosiblik ham muhim muammo hisoblanadi. Natijada o‘quvchilarda frazeologik birliklar yuzaki, tarjimaga asoslangan holda shakllanib, lingvomadaniy kompetensiyaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsion yechimlar va takliflar. Raqamli ta’lim muhitida frazeologik birliklarni o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy lingvodidaktika va raqamli pedagogika yutuqlariga asoslangan kompleks yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda frazeologik kompetensiyani shakllantirishni jadallashtirib, ularning lingvomadaniy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur muammolarni samarali hal etishda quyidagi innovatsion metodik yechimlar taklif etiladi:

1. **situativ (vaziyatli) o‘qitish modeli** - frazeologik birliklarni real hayotiy kommunikativ vaziyatlar bilan uzviy bog‘lash orqali ularning amaliy qo‘llanishini ta’minlash hamda o‘quvchilarda tabiiy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish;
2. **raqamli hikoyalash (digital storytelling) texnologiyasi** - frazeologizmlarni turli voqealar, hikoyalar va kontekstlar asosida taqdim etish orqali ularning ma’no qatlamlarini chuqurroq anglashga erishish;
3. **vizual semantizatsiya usuli** - frazeologik birliklarning ma’nosini obrazli tasvirlar, infografika va multimedia vositalari yordamida ochib berish, bu esa abstrakt tushunchalarni vizual idrok etishni osonlashtiradi;
4. **interaktiv mashqlar tizimi** - testlar, didaktik o‘yinlar, virtual simulyatsiyalar va onlayn mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash hamda bilimlarni mustahkamlash;
5. **kross-madaniy tahlil yondashuvi** - turli tillardagi frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganish orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, bu esa o‘quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.[2]

Natijalar va ilmiy yangilik. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlarni lingvomadaniy asosda va raqamli vositalar yordamida o‘qitish o‘quvchilarning:

- tushunish darajasini oshiradi;
- nutq boyligini kengaytiradi;
- madaniy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, unda frazeologizmlarni o‘qitish lingvistika, pedagogika va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida ko‘rib chiqiladi.

Xulosa. Frazeologik birliklarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish an’anaviy metodlardan farqli ravishda kompleks yondashuvni talab etadi. Ularni lingvomadaniy birlik sifatida anglash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1]Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
[2] Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 2013.

1. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Nurmonov A. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
5. Li.L. Digital Transformation in Education: Challenges and Opportunities. – Educational Technology Research, 2021.

ERKIN A’ZAMNING INDIVIDUAL IJOD USLUBINI HIKOYALARI MISOLIDA TADQIQ ETISH

Bo‘riyeva Marvarid Hamdamjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
boriyevamarvarid5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk vakili Erkin A’zam hikoyalarida namoyon bo‘ladigan individual ijodiy uslub tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yozuvchining psixologik tasvirga e’tibori, ixcham bayon, ramziy obrazlardan foydalanishi, kinoyaviy ifoda va sodda til xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Erkin A’zam, hikoya, individual ijodiy uslub, psixologizm, ramz, detal.

Kirish. Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o‘laroq dunyoga keladi. Ya’ni, borliqda yashayotgan indvid sifatida ijodkorni muayyan muammolar o‘ylatadi, tashvishga soladi. Ijodkor o‘sha muammoni idrok etishga intilishi ichki ehtiyojga aylangani uchun ham asarga qo‘l uradi. Shu ma’noda badiiy asar – “*ehtiyoj farzandidir*”[1]. Zero, chinakam ijod tasodifiy kayfiyat yoxud ko‘ngil xushligi mahsuli emas, balki ruhning iztirobi, tafakkurning izlanishi va qalbning javob izlash jarayonidir. Ijodkor borliqni shunchaki kuzatmaydi, uni his etadi, anglashga urinadi, uning tub mohiyatiga yetishga intiladi. U ko‘rgan voqelikni ko‘ngil tarozisida tortadi, tafakkur elagidan o‘tkazadi va o‘z ruhiy tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi. Ijodkor Erkin A’zam ham ana shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. U hayotni tashqi manzaralari bilangina emas, balki ichki ziddiyatlari, odam qalbida kechayotgan sokin, ammo teran to‘lqinlari orqali tasvirlaydi.

Yozuvchi adabiyotni nafaqat kasb, balki hayot mazmuni sifatida qabul qilgan ijodkordir. Adibning: “*Adabiyot… o‘zim yaxshi ko‘rgan, hayotimni bag‘ishlamoqqa ahd qilgan soha. Taqdir boshqa bir yo‘lga solib yuborganida ham men baribir usiz yasholmas edim chog‘i”*[2], – degan e’tirofi ijodga bo‘lgan sadoqati va muhabbatini yaqqol namoyon etadi. Erkin A’zam ijodida ilgari surilgan g‘oyalar o‘quvchini hayot sinovlari oldida taslim bo‘lmaslikka, murakkab vaziyatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Asarlardagi badiiy qatlam ostida insoniylik, sabr, matonat va umid kabi qadriyatlar mujassam. Aynan shu jihatlar yozuvchi ijodining tarbiyaviy va estetik ahamiyatini belgilab beradi

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda o‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilmiy-nazariy manbalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, uslub, psixologik tasvir, badiiy tasvir vositalari adabiyotshunos olimlar Quronov.D, Umurov.H, Sulton.I, Karimov.N, G‘ofurov.Ilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Metodologiya. Maqolada germenevtik, analitik, semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunoslikda yozuvchi ijodini chuqur o‘rganishda uning individual ijodiy uslubini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biridir. Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi butun borlig‘ini namoyon etuvchi badiiy hodisa-vositadir[3]. Shu uslub orqali adib o‘z hikoyalarida voqelikni badiiy tarzda talqin etadi. Adabiyotning bosh vazifasi bo‘lmish insonshunoslik, ruhiyat tasviri borasida ham yozuvchilar uslubi bir-biridan farq qiladi[4]. Zamonaviy o‘zbek nasrida Erkin A’zam ham

[1] Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.72.
[2] https://kh – davron.uz.
[3] Umurov H., Nasirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Samarqand, SamDU nashri, 2021. B.194.
[4] Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent:“O‘qituvchi” nashriyot-matbaa uyi, 2005. B.254.

o‘ziga xos hikoyachilik yo‘lini yaratgan adiblardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalarida oddiy inson hayoti, ichki kechinmalar, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar sodda, ammo mazmunan chuqur badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Yozuvchi hikoya janrining ixcham imkoniyatlaridan unumli foydalanib, kichik hajmda katta ma’nolarni berishga erishadi. Mahmud Sa’diy adib uslubi haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: ” Erkin A’zam o‘zi aytganidek, qisqalikni yaxshi ko‘radi. Qisqa lekin soz yozadi. O‘ziga xos uslubga ega desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. To‘qima obrazlardan ko‘ra, real narsani yozishni odat qilgan. Bu esa o‘quvchini unga bo‘lgan ishonchini, qiziqishini yanada oshiradi. Haqiqatni aytishda kesatiq, biroz yumor, hazil va achchiq gaplardan foydalanadi”. Bu jihatlar adibning qator hikoyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Erkin A’zam hikoyalarining asosiy xususiyatlaridan biri psixologik tasvirning yetakchi o‘rni hisoblanadi. Yozuvchi ko‘pincha tashqi voqealardan ko‘ra qahramonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini va fikrlar oqimini yoritishga e’tibor qaratadi. Shu sababli uning hikoyalarida tashqi voqealar fon vazifasini bajarib, asosiy e’tibor inson ruhiyatiga qaratiladi. Masalan, ***“Stupka”*** hikoyasida oddiy maishiy buyum ramziy mazmun kasb etadi. Stupka qahramonning xotiralari va ichki iztiroblarini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Hikoyada katta voqealar bo‘lmasa-da, inson hayoti, o‘tgan umr va kechikkan anglash jarayoni haqida falsafiy mulohazalar ilgari suriladi. Shu bilan yozuvchi qahramon ruhiyatini chuqur tasvirlashga erishadi.


Uslub hikoya qahramonlarining ichki mantiqini va qarorlarini tahlil qilishda, psixologik chuqurlikni ta’minlaydi. Shuningdek, muammoni ochish uchun simvolizm va metaforalardan foydalaniladi. Bu o‘z navbatida, qahramonlarning ichki kurashlarini va shaxsiy dilemmasini ifodalaydi va o‘quvchini hikoyaga yanada chuqurroq jalb etadi. Yozuvchining hikoyachilik uslubidagi yana bir muhim xususiyat - ixchamlik va badiiy tejamkorlikdir. Mazkur jihat yozuvchining individual uslubini belgilovchi asosiy estetik tamoyillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ixchamlik va badiiy tejamkorlik, avvalo, matn kompozitsiyasining puxta qurilishida, syujet chiziqlarining ortiqcha burilishlarsiz rivojlanishida hamda obrazlar tizimining funksional aniqligida ko‘zga tashlanadi. Har bir detal, tasvir vositasi yoki dialog parchasi umumiy g‘oyaviy-badiiy yukni ko‘tarishga xizmat qiladi. Shu bois hikoyalarda tasodifiy yoki dekorativ elementlar deyarli uchramaydi, aksincha, ular semantik zichlikni ta’minlovchi struktur birliklar sifatida qatnashadi. Xususan, “Piyoda” hikoyasida voqelikning tashqi ko‘lami tor bo‘lsa-da, ichki dramatizm va psixologik taranglik yuqori darajada ifodalanadi. Qahramonning kundalik hayotiy vaziyat doirasida qabul qilgan qarori uning butun hayot yo‘nalishini belgilovchi omilga aylanadi. Muallif voqeani keng tasvirlash yoki ortiqcha izoh berishdan tiyilib, o‘quvchini fikrlash va xulosa chiqarishga undaydi. Natijada hikoya matni ochiq semantik tuzilishga ega bo‘lib, unda ma’no qatlamlari o‘quvchi tafakkuri orqali to‘ldiriladi.

Badiiy tejamkorlikning yana bir muhim jihati - ramziy detallar va ichki monologlardan samarali foydalanishdir. Qahramon ruhiyati ko‘pincha ichki monologlar va tashqi harakatdan ko‘ra ichki kechinmalar orqali ochiladi. Bu esa psixologik realizmning kuchayishiga xizmat qiladi. Detallarning ramziy ma’no kasb etishi matnga ko‘p qatlamlilik bag‘ishlab, qisqa hajm doirasida keng ijtimoiy-falsafiy umumlashmalarni ifodalash imkonini beradi. Adib hikoyalarida so‘z takroridan ko‘p o‘rinlarda foydalangan bo‘lsa-da, sintaktik qurilmalar sodda, lekin ma’no jihatidan serqatlam; dialoglar tabiiy va lo‘nda; tasvir vositalari esa ortiqcha bezakdorlikdan holi. Bularning barchasi hikoyaning ichki ritmini ta’minlab, badiiy yaxlitlikni mustahkamlaydi. Birgina ***“Muzqaymoq”*** hikoyasidan parcha keltiramiz.

“ – Ahmadjonmisiz?” – Bexato taniganidan zavqlanib jilmaydi kampir.

– Voy, qoqindiq! **Kiring, kiring…** Rozaxon necha kundan buyon “ Ana keldilar Ahmadjon akam, mana keldilar”, deb eshikka ko‘z tutib o‘tiruvdi, qarang-a…” Hikoyada leksik reiteratsiya (takror) muhim stilistik vosita sifatida qo‘llangan. “Kiring, kiring”, “Ana keldilar… mana keldilar” kabi birliklar emotsional kuchaytirish vazifasini bajaradi. Bunday takroriy strukturalar xalqona og‘zaki nutq modelini yaratish bilan birga, psixologik holatni – kutish, sog‘inch, quvonch aralash hayajonni semantik jihatdan zichlashtiradi. Takror bu yerda dekorativ unsur emas, balki affektiv-ekspressiv yuk tashuvchi birlikdir. Erkin A’zam hikoyalarida ramziy obrazlar va kinoya muhim

badiiy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Ramzlar orqali muallif jamiyatdagi ayrim muammolarni bevosita bayon qilmaydi, balki badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Shu tariqa, o‘quvchini matn mazmunini mushohada qilishga undaydi. M.Qo‘chqorova adib nasridagi kinoyaviy badiiy shartlilikni o‘rganar ekan, beozor kinoya, zaxarxanda kinoya va sarkazm, liro-romantik kinoya turlarini hikoyalari misolida tasniflab beradi.



1-chizma. Erkin A’zam hikoyalarida kinoya turlari.

Til va uslub soddaligi ham Erkin A’zam ijodiga xos. Hikoyalarining tili sodda, xalqona va tabiiy bo‘lib, og‘zaki nutqqa yaqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu uslub o‘quvchini asarga yaqinlashtiradi, lekin sodda ifoda ostida chuqur falsafiy mazmun yashiringan bo‘ladi. Shu bilan adib murakkab hayotiy masalalarni sodda, tushunarli tilda ifodalashga erishadi.

Xulosa. Umuman olganda, adib hikoyalari zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining rivojida muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi inson ruhiyati va jamiyat muammolarini badiiy jihatdan chuqur yoritib, hikoya janrining imkoniyatlarini kengaytiradi. Psixologik teranlik, ixcham bayon, ramziy ifoda va sodda til uyg‘unligi uning individual ijodiy uslubini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin A’zam. Ertak bilan xayrlashuv: qissa va hikoyalar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 200. b.
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.:“O‘qituvchi” nashriyot-matbaa uyi, 2005. – 270.b.
3. https://kh – davron.uz.
4. Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224.b.
5. Umurov H., A.Nasirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Samarqand, SamDU nashri, 2021. – 252.b.

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI TADQIQI: TAFAKKUR VA TIL MUNOSABATLARI

Shukurova Sevara
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi magistranti
sevarashukurova2025@gnail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari tadqiqi, tafakkur va til munosabatlari yuzasidan muammolar o’rganildi.

Kalit so’zlar: Psixolingvistika, til, tafakkur, muloqot, tadqiqot, ilmiy paradigma, nut, muammo, munosabat.

Kirish. Psixolingvistika – bu inson nutq faoliyatining psixologik va lingvistik jihatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etadi. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi inson qanday so‘zlashishi, nutqni qay holda shakllantirishi va tushunishini o‘rganishdan iborat.Tilshunoslik va psixologiya fanlarining birikishi natijasida bu yo‘nalish yuzaga kelgan

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda nutq buzilishining psixolingvistik asoslari va til va tafakkur mazusida yaratilgan ilmiy-nazariy manbalar muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Xususan, Charlz Osgud, Shirinova Yeketerina, N.I. Jinkey va bir qator olimlarning ilmiy izlanishda o’z aksini topgan.

Metodologiya. Maqolada germenevtik, analitik, semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Psixolingvistikaning predmeti, obyekti va maqsadi quyidagilardan iborat:

Predmeti – inson fiziologiyasida nutqning hosil bo‘lishi va shu jarayon davomida ruhiyat bilan bog‘liq psixik mexanizmlarni o‘rganish. Obyekti – nutq hodisalari va nutqiy vaziyatlarning jamlanmasi. Maqsadi – insonda sodir bo‘ladigan psixologik jarayonlarning nutq orqali qanday ifodalanganini o‘rganish, bujarayonlarning mexanizmlarini aniqlash va yechimini taklif etish.

1.1.-jadval: Psixolingvistikada nutqiy faoliyat turlari:

Og’zaki nutq	Bevosita so‘zlash va eshitish vositasi orqali yetkaziladigan nutq shakli
Ichki nutq	Insonning o‘z-o‘ziga murojaat qilgan shaklidagi fikrlari
Yozmanutq	Yozuv belgilar orqali ifodalangan nutq
Affektiv nutq	Holatda yuzaga keladigan nutq
Kinetik nutq	Tana harakati orqali ifodalangan muloqot (imo-ishora)

Bu turlarning har biri inson tafakkur va ruhiy holati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, psixolingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridir[1].

Psixolingvistika bolalarda nutqning shakllanishini uchbosqichda kechishini aniqlagan:

1.Verballashuvgacha bo‘lgan davr bola hali so‘zlamaydi, ammo turli tovushlar chiqarib, tilga bo‘lgan ilk qiziqishni namoyon etadi. Bu jarayon bolalar uchun ajoyib o‘yin shaklida gavdalanadi.

2. Aktiv nutqqa o‘tish bolaning 2 yoshga yaqinlashishi bilan boshlanadi. Bola so‘zlarni talaffuz qila boshlaydi, fonematik eshitish rivojlanadi. Bu davrda odatda bolalar qisqa kundalik ishlatiladigan so‘zlardan foydalanadi. Namuna sifatida quyidagi so‘zlarni keltirishimiz mumkin: ota, ona, oyi, dada, non, gul. Ayrim holatlarda so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuzi, ya’ni ma’lum bir harflarning tushishi, bir harf o‘rnida boshqa bir harfni ishlatilish vaziyatlari ham kuzatiladi. Masalan, kapalak o‘rniga pakalak, ovqat o‘rniga okat, ruchka o‘rniga yuchka kabi talaffuz qilish.

3. Nutqning muloqot vositasi sifatida shakllanishi bola voqealarni tushunish, izohlashga harakat qiladi, lug‘ati boyib boradi, grammatik konstruktsiyalar murakkablashadi, shuningdek so‘zlarni tiniq talaffuz qiladi. Psixolingvistika nafaqat go‘daklar nutqining rivojlanishi, balki o‘rta va katta yoshlilar nutqining ruhiy kechinmalar bilan bog‘liqligi va kattalarda uchraydigan ruhiyatga aloqador bo‘lgan kasalliklarni ham o‘rganadi:

1.Duduqlanish;

2.Omma oldida gapira olmaslik;

3.So‘zlashuv jarayonida bitta nuqtaga termulish;

4.Suhbat davomida keraksiz o‘rinlarda ham doimiy bir xil harakatdan yoki so‘zdan foydalanish;

5.Gapirayotganda qizarib yoki terlab ketish;

6.Ruhiy autizm;

[1]Shirinova Yekaterina - Dessertatsiya

7.Ko‘pchilik qarshisida aytmoqchi bo‘lgan gaplarini yoki yodlagan she’rlarini unutib qo‘yish

Yuqorida keltirganlarimizning hammasini psixolingvistika o'rganadi va ularga yechim beradi. Bu kasalliklarning barchasini tinimsiz harakat va xohish orqali davolash mumkin. Chunki bular insons haxsiy ruhiyati bilan bog‘liqdir. Shuni ta’kidlashimizmumkinki, psixolingvistika tildan foydalanishning chuqur psixologik jihatlarini ochib beruvchi muhim fan sifatida nafaqat tilshunoslar, balki pedagoglar, psixologlar, logopedlar uchun ham bebaho manba hisoblanadi. Bu fan yordamida inson tafakkurining murakkab mexanizmlari, nutq shakllanishining psixik asoslari hamda muloqotdagi ruhiy omillarani tahlil etiladi. Psixolingvistika hozirgi zamon ilm-fanining eng muhim va dolzarb yo’nalishlaridan biri bo’lib qolmoqda. Psixolingvistika ba’zan til va tafakkurni o‘rganadigan fan sifatida belgilanadi. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi insonning so‘zlash va tilni tushunish qobiliyati zamirida yotgan struktura va jarayonlami aniqlashdir. Psixolingvistlarning kishilar orasidagi o‘zaro til munosabatlari bilan qiziqishlari shart emas. Ular individning ichida kechayotgan hodisalami tadqiq qilishga harakat qiladi. Psixolingvistikaga qiziqish bildirgan tilshunoslaming maxsus adabiyotlar bilan tanishish jarayonida o‘ziga xos psixik to‘siqlarga duch kelishi tabiiy holdir. Chunki, muayyan “ilmiy paradigma” doirasida “tarbiyalangan” tilshunosning boshqa “ilmiy paradigma”ga kirishi, yangi terminologiya, tushunchalar, materiallar va noan’anaviy vazifalami qabul qilishi qiyin kechadi. Shunda tilshunos o‘zi uchun qulay bo‘lgan yondashuvdan kelib chiqqan holda shunday xulosaga keladi: “Psixolingvistika shug‘ullanadigan masalalar juda qiziqarli boiishi mumkin. Lekin bu tilshunoslik emas!”. Bu o‘rinda psixolingvist L.V.Saxamiy tomonidan qayd qilingan zamonaviy nazariy tilshunoslikning quyidagi ziddiyatini keltirish o‘rinli boiadi: “Tilshunos tilni kishilaming aloqa qilishi va fikrlash vositasi ekanligini eion qiladi, biroq tilni tadqiq etishda til egalarining umuman keragi boimaydi. Til stmkturasi uni yaratgan, undan foydalanayotgan inson faoliyatidan mustaqil ravishda tasvirlanadi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning ziddiyati shundaki, inson tilini o‘rganayotgan tilshunoslik insonsiz ish ko’radi”[1]. O‘z davrida til sistemasi va til mashhur yaratish va uni tushunish psixolog, nutq bo‘yicha mutaxassis N.I. Jinkin shunday yozgan edi: “Agar lingvistika va psixologiya aniq tafakkur jarayonini tadqiq etishni rad etsa, ular juda katta yo‘qotishga, ya’ni inson va uning nutqi tushib qolgan yo‘qotishga uchraydi”[2]. Afsuski, bunday yo‘qotishni tilshunoslik tarixida kuzatish mumkin. Binobarin, XXasming boshida F. de Sossyur va uning izdoshlari nutqiy faoliyatni “til” va “nutq”, aniq va mavhum, ijtimoiy va individual hodisalarga ajratganda vaziyat murakkablashgan edi. Psixolingvistikaning diqqat markazida inson turadi. Uning eng muhim xususiyati inson ornili hisoblanadi. Binobarin, inson nutqni yaratadi va uni idrok qiladi. Psixolingvistika bu omilni nafaqat nutqning,balki eng muhimi - tilning o‘zini ham xarakterini, mohiyatini aniqlaydigan majburiy omil sifatida o‘z modellarining tavsiflari, asos qilib olingan hukmlariga faol tatbiq qiladi. Bunda qandaydir mavhum “umuman odam” emas, balki real harakatdagi xotiraga ega real odamlar, ulaming yoshiga oid xususiyatlari, shaxsiy tajribasi, ijtimoiy roli va h.k. nazarda tutiladi. Psixolingvistika nutqni F. de Sossyur tushunchasidek cheklab o‘rganmaydi. Agar inson omili hisobga olinsa, nutqiy faoliyatdagi til tilshunoslar tasavvuridagidan butunlay boshqacha “g‘aroyib olam” ekanligi ko‘zga tashlanadi. Sossyur va uning izdoshlari tomonidan tuzilgan til modellarida yaxshi “ishlaydigan” til va nutqni farqlash nutqiy faoliyatni psixolingvistik modellashtirishda jiddiy tahrir talab qiladi. ham psixolingvistikani o‘rganishga jalb qilingan.

I.A.Zimnayaning fikricha, bunday o’lchovlarning asosiylariga: a) verbal (nutqiy) muloqotning xarakteri; b) verbal muloqotda nutqiy faoliyatning roli; d) xabarni qabul qilish va uzatishda nutqiy faoliyatning biror maqsadga qaratilganligi; e) fikrni shakllantirish usuli bilan aloqasi; f) tashqi ifodalashning xarakteri; g) nutqiy faoliyatning qarama-qarshi aloqadorlik jarayonidagi o‘zaro ta’sir xarakteri kabilar kiradi. Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xosxususiyatlarini qayd qilingan mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha tahlil qilish

[1]Сахарный Л.В. Введение в психолингвнстику. –Л Изд-во Ленинградского ун -та, 1989. -С.6.
[2]2)Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи.\ Вопросы языкознания. 1964. -К® 6. -С.28.

mumkin: Nutqiy faoliyat nutqiy muloqotning o‘ziga xosligiga ko‘ra og‘zaki muloqot va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatning birlamchi turlariga so‘zlash va eshitish kiradi. Nutqiy faoliyatning mazkur turlari ontogenezda insonni boshqalar bilan muloqot qilish usullari sifatida birinchi shakllanadi. Nutqiy faoliyatning bu turlariga nisbatan insonda “tug‘ma tayyorgarlik” mavjud bo’ladi. Birinchidan, ushbu “tug‘ma tayyorgarlik” insonda psixik intellektual faoliyatni amalga oshirishga mo’ljallangan maxsus apparat - bosh miya qobig‘i katta yarimsharlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Insonni nutqiy faoliyatni egallash imkoniyati bilan ta’minlovchi miyaning ustki qobig’ining qismlari tug’ilishgacha ma’lum darajada shakllangan bo’ladi. U bola hayotining dastlabki yilida “nutqgacha bo’lgan davri”, deb nomlanadi. Ikkinchidan, “tug‘ma tayyorgarlik” ko‘pincha inson organizmining muayyan anatomik qismlari, xususan, nutq apparatining sirtqi tuzilishi bilan belgilanadi. Bolaning tug’ilish vaqtida nutqning mazkur anatomik-fiziologik apparati ma’lum darajada shakllangan bo’ladi. Bolaning “nutqgacha bo’lgan davri”da uning “psixofiziologik tayyorgarligi” yuz beradi. Nutqiy faoliyatning ikkilamchi turlariga o‘qish va yozish kiradi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari eshitish va so‘zlash asosida shakllanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi bo’lgan o‘qish va yozish nutqiy faoliyatning murakkab turlari hisoblanadi. Pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, bola nutqiy faoliyatning mazkur turlarini egallashi uchun aniq bir maqsadga qaratilgan maxsus ta’lim kerak bo’ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutq buzilishi nafaqat yosh bolalarda, balki yoshi katta odamlarda ham kuzatiladi. Bu esa inson psixologiyasi va ruhiyati bilan uzviy bog’liq jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shirinova Yekaterina – Dessertatsiya
2. Сахарный Л.В. Введений в психолингвнстику. – Л Изд-во Ленинградского университета. 1989.-С.157.
3. Жинкин Н.И.О кодовых переходах во внутренней речи.\ Вопросы языкознания. 1964. –К 6.-С.28.

ONA TILI DARSLARIDA TARIXIY LEKSIKANI O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Alimardonova Mohlaroyim Zayniddin qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutining
O‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti
email: mohlaroyimalimardonova01@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida tarixiy leksikani o‘qitishning innovatsion usullari yuzasidan ayrim ilmiy-metodik mulohazalar bayon etiladi. Tarixiy so‘zlarning kognitiv-semantik xususiyatlari, ularning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish jarayoni hamda matn asosida o‘qitishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, semantik yondashuv va raqamli texnologiyalar asosida tarixiy leksikani o‘rgatish imkoniyatlari yoritilib, muallif tomonidan metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy leksika, kognitiv-semantik tahlil, innovatsion usullar, ona tili ta’limi, matn asosida o‘qitish, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, semantik yondashuv.

Kirish. Ona tili ta’limida leksik qatlamlarni o‘rgatish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tarixiy leksika o‘quvchilarda milliy tafakkur, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maktab darsliklarida uchraydigan “sipoh”, “lashkar”, “farmon”, “saroy”, “devon”, “bek” kabi tarixiy birliklar o‘quvchilar uchun ko‘pincha tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shu sababli ularni o‘qitishda an’anaviy izohlash usuli yetarli emas, balki zamonaviy, interfaol va kognitiv yondashuv talab etiladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o‘zlashtirishda yaxshi samara beradi[1]. Ona tilini o‘qitishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil

[1] Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent, 2012.

etish shakllari, metodlari va usullari ta’lim tizimining takomillashuvi bilan bog‘liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

Metodologiya. Ona tili darslarida tarixiy leksikani o‘qitishning samarali usullarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanih zarur. Avvalo, **kognitiv-semantik tahlil metodi** asosiy metod sifatida tanlanib, ushbu metod orqali tarixiy so‘zlarning o‘quvchi ongida qanday qabul qilinishi, ularning semantik tuzilishi va zamonaviy muqobillari bilan bog‘lanish mexanizmlari o‘rganilishi kerak. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, har bir so‘z inson tafakkurida muayyan konsept sifatida shakllanadi va u kontekst orqali to‘liq anglanadi. Shu sababli tarixiy leksikani o‘rganishda so‘zning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki uning tarixiy-madaniy mazmuni ham tahlil qilinsa maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri sifatida **pedagogik tajriba-sinov metodi** ham qo‘llaniladi. Innovatsion metodlar (interfaol usullar, vizual vositalar, rol o‘ynash, semantik xaritalar) qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi, tushunish darajasi va nutqiy faoliyati yuqori bo‘lgani kuzatiladi. Zamonaviy metodlar tarixiy leksikani o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

6–7-sinf ona tili va adabiyot darsliklaridagi matnlar asosida tarixiy leksika o‘rganildi va ular asosida innovatsion metodlar ishlab chiqildi.

Asosiy qism. Tarixiy leksika tilning muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti va madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday birliklar o‘zida ma’lum bir davr ruhini aks ettiradi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, badiiy matnlarda qo‘llanilgan eskirgan so‘zlar voqea tarixiyligini ta’minlaydi va o‘quvchini o‘tmish muhitiga olib kiradi[1]. Bu esa o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Masalan, darsliklarda uchraydigan: “Amir Temur lashkar bilan yurish qildi va sipohiga farmon berdi” jumlasida tarixiy leksika yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu yerda:

- lashkar – qo‘shin
- sipoh – askarlar
- farmon – buyruq

Bu birliklar kontekst asosida o‘rganilganda o‘quvchilar tomonidan samarali o‘zlashtiriladi.

Tarixiy leksikaning muhim qatlami — mansab va unvon nomlaridir. Masalan, “vazir”, “bek”, “amir” kabi birliklar davlat boshqaruvi tizimini aks ettiradi[2]. Xususan, “vazir” so‘zi dastlab mas’ul shaxs ma’nosini bildirgan bo‘lsa, keyinchalik aniq lavozim nomiga aylangan. Shuningdek, “oqsoqol” so‘zi tajribali va hurmatli shaxsni bildirgan. Bu esa tarixiy leksikaning semantik kengayish xususiyatini ko‘rsatadi. Tarixiy leksika tarkibida boshqa tillardan o‘zlashgan birliklar ham mavjud. Masalan, “sim”, “zar” kabi so‘zlar forsiy manbaga ega bo‘lib, ular dastlab moddiy boylikni bildirgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy leksikani o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi nutqini boyitadi tarixiy tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, matn asosida ishlash, semantik tahlil va interfaol metodlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi. Shu bois ona tili darslarida tarixiy leksikani o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni keng qo‘llash zarur.

Innovatsion usullarning afzalliklari:

- O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini oshiradi.
- Darsda faollikni ta'minlaydi va o‘quvchini zerikishdan saqlaydi.
- Tarixiy so‘zlarning lug‘aviy ma'nosini tushunishni osonlashtiradi va nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ushbu usullarni dars jarayoniga to‘g‘ri tadbiq etish o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan muhabbatini oshirib, tarixiy so‘zlar bilan ishlashda katta natija beradi. Shu bois, ona tili darslarida tarixiy leksikani o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] O. Mo‘minova. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. – Toshkent, 2009.

1. O. Mo‘minova. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. – Toshkent, 2009.
2. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent, 2018.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent, 2012.
4. Ona tili va adabiyot darsliklari (6–7-sinf). – Toshkent, 2021.
5. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, 1986.
6. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge, 2001.

SHODMON SULAYMON IJODIDA IZTIROB VA UNING BADIIY TALQINI

Tuxliyev Bahriddin
Kattaqo‘rqon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yetakchi vakillaridan biri Shodmon Sulaymon ijodidagi lirik iztirob motivining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etilgan. Tadqiqotda shoir poetikasiga xos bo‘lgan dard, sog‘inch va ruhiy evrilishlar tizimi o‘zaro dialektik aloqadorlikda tahlil qilinadi. Muallif Shodmon Sulaymon ijodida iztirob tushunchasi shunchaki pessimistik kayfiyat ifodasi emas, balki insonni ma’naviy poklanish va komillik sari yetaklovchi ichki kuch ekanligini asoslab beradi. Maqolada shoirning “O‘kinch” va “Eski xirgoyi” kabi o‘ziga xos poetik strukturaga ega asarlari misolida badiiy tasvir vositalari – metafora, ramz va tazodlarning semantik ko‘lami ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shodmon Sulaymon, iztirob motivining badiiy talqini, badiiy psixologizm, poetik xronotop, ruhiy poklanish, o‘zlikni anglash, metafora, ramz, ijtimoiy-falsafiy lirika, zamonaviy o‘zbek she’riyati.

Kirish. O‘zbek zamonaviy she’riyatida inson qalbining ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblar, hayotiy kurash va umuminsoniy g‘oyalar yuksak badiiy ifodasini topgan ijodkorlardan biri Shodmon Sulaymondir. Uning she’rlari inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib berishga, iztirob, sevgi, dard, orzu va umid o‘rtasidagi ziddiyatlarni poetik shaklda ifodalashga qaratilgan. Shodmon Sulaymon o‘z poetikasida iztirobni nafaqat insonning og‘riqli kechinmasi sifatida, balki ruhiy poklanish, ma’naviy kamolot sari olib boruvchi ichki kuch sifatida talqin etadi. Shoir ijodida iztirob, avvalo, **hayot mazmunining ajralmas qismi** sifatida namoyon bo‘ladi. Unga ko‘ra, inson hayotining mohiyati aynan iztirob orqali anglanadi.Shoir she’riyatidagi iztirob, bir tomondan, **shaxsiy kechinma** sifatida ko‘rinsa, boshqa tomondan, **milliy ruh** bilan bog‘lanadi. Shodmon Sulaymon iztirobni o‘zbek xalqining tarixiy dardi, orzulari, umidlari bilan uyg‘unlashtiradi. Uning she’rlarida iztirob – xalqning o‘tgan azoblari, o‘zligini izlash, tarixiy xotira bilan bog‘liq ruhiy jarohatlarni anglatadi. Shu bois, shoir ijodidagi iztirob faqat lirik kechinma emas, balki **milliy ruhning poetik ifodasi** sifatida ham e’tirof etiladi.Shu jihatdan, Shodmon Sulaymon o‘z hayotida ham ruhiy kechinmalarga boy, zamon va jamiyatdagi o‘zgarishlarni chuqur his etgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning she’rlaridagi iztirob – bu shaxsiy ruhiy holatning badiiy ifodasi bilan birga, davr iztirobi hamdir. U o‘z davrining ziddiyatlarini, inson va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy tafovutlarni, insoniy qadriyatlarning yemirilishini chuqur his etgan. Shu bois, iztirob – uning ijodining markazida turadi. Shodmon Sulaymonning iztirobga munosabati ko‘p hollarda **tasavvufiy tafakkur** bilan hamohangdir. Shoir uchun dard – Allohga yaqinlashtiruvchi, insonni poklovchi kuchdir. Bu jihatdan u Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Cho‘lpon, Usmon Azim kabi shoirlarning ruhiy izlanishlari bilan mushtaraklik kasb etadi. Shoir iztirobni yuksak ruhiy holat, insoniy kamolotning sharti sifatida talqin etadi: “Kim dardni bilmasa, u hayotni his etmaydi,” degan g‘oya Shodmon Sulaymon poetikasining ichki mohiyatini ifodalaydi.Shodmon Sulaymonning ijodida iztirob ko‘pincha **tashqi sukunat** orqali ifodalanadi. Uning ko‘plab she’rlarida ochiq dramatizm emas, balki sokinlik ortidagi ruhiy zilzila seziladi. Bu uslub shoirga xos poetik estetika – “ichki hayqiriq”dir. U hayqirmaydi, balki sukunatda dardni his ettiradi. Bu jihatdan uning poetik uslubi Maqsud Shayxzoda, Usmon Azim, Rauf Parfi an’analariga yaqin

turadi, biroq Shodmon Sulaymonning iztiroblari **ko‘proq falsafiy-sokin tus**da kechadi. Shoirning “O‘kinch” nomli she’ri sokinlik bilan ammo chuqur iztirob ila hayqiriqlar bilan ohangga solingandek jaranglaydi:

Onamni yeb katta bo‘ldim,
Otamni yeb katta bo‘ldim,
Bosh-keti yo‘q zaminni ham
Olamni yeb katta bo‘ldim.

Bu – Shodmon Sulaymonning eng og‘riqli, falsafiy, ijtimoiy mazmunga ega she’rlaridan biridir. “O‘kinch” she’rida shoir insoniyatning ruhiy va axloqiy inqirozi, zamonning iztirobli manzarasi, ota-onaga nisbatan befarqlik va ma’naviy yemirilish haqida chuqur o‘y yuritadi. She’rning markazida – insoniyatning ma’naviy o‘kinchi, zamon oldidagi pushaymonlik va iztirob yotadi. She’rda “yemoq” fe’li tashbehiy ma’noda ishlatilgan – bu iste’mol, beparvolik, ma’naviy yeb bitirish ramzidir. Lirik qahramon “Onamni yeb katta bo‘ldim, Otamni yeb katta bo‘ldim” degan satrlar orqali insonning o‘z manbayidan, mehr va qadriyat ildizlaridan uzilib ketganini, shafqatsizlik va nafsoniyatga berilib, ma’naviy tanazzulga yuz tutganini tan oladi. Shoirning ayrim she’rlarida iztirob obrazlari **tabiat manzaralari** orqali ifodalanadi. Masalan, yomg‘ir – ko‘z yoshi, tun – iztirob, tong – umid, yaproq – hayotning o‘tkinchiligi ramzidir. Bu obrazlar o‘zaro semantik bog‘liqlikda ishlatiladi. Shodmon Sulaymon poetik tafakkurida har bir narsa, har bir hodisa inson ruhiyatining bir qirrasini ifodalaydi. Shu bois, u iztirobni faqat kechinma emas, **butun borliqni anglash usuli** sifatida talqin etadi:

Ko‘nglima o‘t tushdi beshafqat.
Ko‘zimga lab bosgan, muhabbat
Soqovman, so‘zimni sog‘indim,
Ket mendan, o‘zimni sogindim.

Ushbu she’r – Shodmon Sulaymonning ichki iztirob va sog‘inch motivlariga bag‘ishlangan lirik asari. Lirik qahramon bolalik xotiralari, tabiat bilan bog‘liqligi, o‘zining hayotiy kechinmalarini, xotira va orzularini eslaydi. She’rda inson ruhiy holati tabiat, xotira va o‘z-o‘zini anglash bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi.

Qo‘ynida ovunchoq – qamish nay,
Dalada qo‘y boqqan bolakay,
Xayolga cho‘mgan yo‘l-yo‘lakay.

Bu misralarda shoir bolalikning sodda, befoyda lahzalarini eslaydi. Qamish nay, qo‘y boqish, yo‘l-yo‘lakay kabi obrazlar ruhiy sokinlik ramzidir. Shu bilan birga, bolalik tabiat bilan uyg‘un hayotning timsoli sifatida talqin etilgan. Oxirgi bandda shoirning o‘z-o‘zini anglash, iztirob va sevgi orqali ruhiy tahlili aks etadi. “So‘zimni sog‘indim, o‘zimni sog‘indim” misralari – insonning ichki bo‘shliq va ichki kechinmalar bilan yuzlashishi, o‘zini topish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shoir ijodida iztirobning ijtimoiy ma’nosi ham mavjud. U shaxsiy dard ortida jamiyatdagi befarqlik, ruhiy tanazzul, axloqiy inqirozlarni ko‘rsatadi. Iztirob – bu shunchaki shaxsiy og‘riq emas, balki jamiyatni uyg‘otuvchi signal, ruhiy ogohlantirishdir. Shodmon Sulaymon she’rlarida insonning dardi orqali xalqning dardi, insoniyatning umumiy iztirobi ifodalanadi. Shodmon Sulaymon uchun iztirob – hayotning go‘zalligini anglash vositasi. Iztirob orqali u hayotning murakkab, ammo go‘zal mohiyatini ochadi. Shu bilan u o‘zbek zamonaviy she’riyatida **iztirob estetikasini** shakllantirgan shoirlardan biri sifatida ajralib turadi. Shoirning “Eski xirgoyi” she’rida xuddi shunday qarashlar misralar bag‘riga yashiringan:

Yuvilmayin qoldi gunohlar,
Oningizga rahm etmaysizmi?
Sizni anglab bo‘lmaydi g‘ohi:
Kimga vafo aylabdi chohi?
Yuragimni o‘rtar nigohi –
Joningizga rahm etmaysizmi?

Shodmon Sulaymon bu asarda jamiyatdagi iztirobni shaxsiy dard bilan uyg‘unlashtiradi: insonlar bir-birining dardiga beparvo, o‘zini “sipolik” va “yuqorilik” pardasi ortida yashirgan. Shodmoon Sulaymon bu misralardagi achchiq iztiroblarni yuzaga chiqarish uchun she’rning badiiy strukturasini nihoyatda mukammal amalga oshirgan. She’r misralaridagi takror, ritorik savollar, metafora va ramzlar, oppozitsiya hamda boshqa unsurlar g‘oya mazmundorligini yanada boyitgan.

Xulosa. Shodmon Sulaymon ijodidagi iztirob talqini bugungi o‘zbek adabiyotidagi **ruhiy-falsafiy yo‘nalish**ning yuksak namunasidir. Uning poetik tafakkuri o‘zbek she’riyatiga yangicha falsafiy chuqurlik, ruhiy tahlil madaniyatini olib kirgan. Shoir she’rlaridagi iztirob – bu insoniy mohiyatni izlash, hayotning ma’nosini tushunish, insonni inson qiluvchi ruhiy kechinmalarni anglash jarayonidir. Shu bois, Shodmon Sulaymon ijodi o‘zbek adabiyotida iztirobning badiiy-falsafiy talqini jihatidan alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sulaymon Sh. Iztirob ostonasi. She’rlar. – Toshkent: Sharq, 2011.
3. Sulaymon Sh. Borlig‘im. Saylanma. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
4. Karimov N. va boshqalar. O‘zbek adabiyoti tarixi. 20-asr. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
5. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
8. G‘ulomova N. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida psixologizm masalalari // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. – 2024. – №2.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2007.

RAVISH SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Toshtemirova Sevinchbonu Jamshit qizi
Katttaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada ravish so‘z turkumini o‘qitish masalasi zamonaviy ta’lim talablari asosida tahlil qilinadi. Amaldagi darsliklarda ushbu mavzuning yoritilishi va undagi metodik muammolar ko‘rsatilib, ularni bartaraf etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati asoslanadi. Interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish ravishlarni o‘qitish samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: ravish, so‘z turkumi, ravishning lingvistik xususiyatlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quvchi markazli ta’lim

Kirish. O‘zbek tili grammatik tizimida ravish so‘z turkumi harakatning turli belgi-xususiyatlarini ifodalovchi muhim birlik bo‘lib, fe’l bilan bog‘lanib nutqning aniqligini ta’minlaydi. Biroq ravishlar mavzusi semantik murakkabligi sababli o‘quvchilar tomonidan qiyin o‘zlashtiriladi. Amaldagi darsliklarda ushbu mavzu asosan nazariy yo‘sinda berilib, amaliy mashqlar yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois ravishlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur bo‘lib, maqolaning maqsadi mazkur muammolarni aniqlash va ularni samarali metodlar asosida hal etishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tahliliy, taqqoslash va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Ravish so‘z turkumining lingvistik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi, darsliklar tahlili orqali esa mavzuning ta’lim jarayonida yoritilishi baholandi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari metodik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. O‘zbek tilshunosligida ravish so‘z turkumi harakatning turli belgi-xususiyatlarini ifodalovchi mustaqil grammatik birlik sifatida qaraladi. Ular asosan fe’l bilan bog‘lanib, harakatning bajarilish usuli, payti, o‘rni va darajasini bildiradi hamda nutqning aniqligi va ifodaliligini ta’minlaydi[1]. Ravishlarning semantik xususiyatlari ularning ma’no guruhlariga ajralishida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida ravishlar payt, o‘rin, holat, daraja va sabab ma’nolarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning nutq jarayonida keng funksional imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi[2]. Grammatik jihatdan ravishlar o‘zgarmas so‘z turkumlari qatoriga kirib, kelishik, son va shaxs kategoriyalariga ega emas. Ular gap tarkibida ko‘pincha hollovchi vazifasida kelib, harakatni aniqlashtiradi. Shu bilan birga, ravishlarning sifat va fe’l bilan chegaradoshligi ularni o‘rganishda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi[3]. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf “Ona tili” darsligida ravish so‘z turkumi mustaqil mavzu sifatida berilib, uning ta’rifi, ma’no turlari va fe’l bilan munosabati izchil bayon etiladi. Mavzu asosan qoidaviy tushuntirish va aniqlash mashqlari orqali o‘rgatiladi. 8–9-sinf darsliklarida esa ravishlar alohida mavzu sifatida keng yoritilmay, ko‘proq matn bilan ishlash va nutqiy tahlil jarayonida bilvosita qo‘llanadi. Bu bosqichda ravishlarning uslubiy va funksional jihatlari sezdiriladi, biroq nazariy bilimlarni tizimlashtirishga yetarli e’tibor qaratilmaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, darsliklarda ravishlar mavzusini yoritishda nazariy yuklama ustun bo‘lib, amaliy va kommunikativ mashqlar cheklangan. Natijada o‘quvchilarda ravishlarni nutqda ongli qo‘llash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Ravish so‘z turkumini o‘qitish umumiy o‘rta ta’lim bosqichida asosiy grammatik tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Maktab darsliklarida ravishlarning ta’rifi, ma’no turlari va gapdagi vazifasi o‘rgatiladi, biroq bu jarayonda nazariy tushuntirish ustunlik qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchining faolligini oshirishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida talqin etiladi. Bunday texnologiyalar bilimlarni tayyor holda berishdan ko‘ra, ularni mustaqil egallash va amaliy faoliyatda qo‘llashga xizmat qiladi[3].

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat nazariy bilimini emas, balki uni real nutqiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv ravish so‘z turkumini o‘qitishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni nutqda to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi markazli ta’limda esa o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanishi va o‘z bilimini amaliyotda qo‘llashiga imkon yaratadi. Natijada innovatsion pedagogik texnologiyalar ravishlarni o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ravish so‘z turkumini samarali o‘qitishda interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mavzuni ongli o‘zlashtirish va uni nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy metodlar: Klaster metodi ravishlarning ma’no turlarini tizimlashtirishda samarali qo‘llaniladi. Darsda “Ravish” tushunchasi asosida o‘quvchilar “qachon?”, “qayerda?”, “qanday?” savollariga javob beruvchi so‘zlarni guruhlarga ajratib, klaster shaklida ifodalaydilar. Natijada ma’no turlari mantiqiy bog‘lanishda o‘zlashtiriladi. Aqliy hujum metodi ravishlarning nutqdagi funksiyasini anglashga yordam beradi. O‘qituvchi berilgan ravishlar asosida ularning qo‘llanishini so‘raydi, o‘quvchilar esa turli fikrlar bildiradilar. Bu jarayon mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Blits so‘rov metodi mavzuni mustahkamlashda qo‘llanadi. O‘qituvchi qisqa savollar beradi, o‘quvchilar esa tezkor javoblar orqali bilimlarini takrorlaydilar. Natijada mavzu samarali mustahkamlanadi[4].

Ravishlarni o‘qitishda **raqamli texnologiyalar**dan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodlar:

[1] Rahmatullayev Sh. *Hozirgi adabiy o‘zbek tili.* – Toshkent: Universitet, 2006.
[2] Hojiyev A. *O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
[3] Yo‘ldoshev J., Usmonov S. *Pedagogik texnologiya asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
[4] Hasanboyeva O. va boshq. *Pedagogika.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011

Onlayn testlar yordamida o‘quvchilarning bilimini tezkor tekshirish mumkin. Masalan, testlarda gap berilib, undagi ravishlarni aniqlash yoki ularning ma’no turini belgilash topshiriladi. O‘quvchilar natijani darhol ko‘rib, xatolarini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vizual topshiriqlar orqali ravishlarning ma’no turlari diagramma yoki jadval ko‘rinishida beriladi. Masalan, ravishlar payt, o‘rin, holat va daraja guruhlariga ajratilib, grafik shaklda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bunday ko‘rgazmali materiallar orqali mavzuni osonroq anglaydilar va eslab qoladilar.

Case-study (muammoli vaziyat) texnologiyasi. Mazkur metod ravish so‘z turkumini real nutqiy vaziyatlar asosida o‘rganishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o‘quvchilarga ravishlar noto‘g‘ri qo‘llangan matn taqdim etilib, ulardan xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash so‘raladi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar ravishlarning nutqdagi o‘rni va funksiyasini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalar rivojlanadi.

Role-play (rolli o‘yin) texnologiyasi. Bu metod ravishlarni kommunikativ faoliyat jarayonida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarga turli hayotiy vaziyatlar asosida dialog yoki sahna ko‘rinishi tuzish topshiriladi va bunda ravishlardan foydalanish talab etiladi. Natijada o‘quvchilar ravishlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini egallaydi hamda og‘zaki nutqi rivojlanadi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi. Gamifikatsiya o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Masalan, “eng ko‘p ravish topish”, “to‘g‘ri javob uchun ball berish” kabi topshiriqlar orqali dars jarayoni musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Umuman olganda, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni uyg‘un qo‘llash ravish so‘z turkumini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ravish so‘z turkumini o‘qitishda nazariy yondashuv ustunligi va amaliy mashqlarning yetarli emasligini ko‘rsatdi. Bu holat o‘quvchilarda ravishlarni nutqda ongli qo‘llash ko‘nikmalarining sust shakllanishiga olib kelmoqda. Interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash esa mazkur muammoni samarali hal etish imkonini beradi. Shu bois ravish so‘z turkumini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. – 256 b.
2. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 384 b.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 168 b.
4. **Muslimov N.A.** *Innovatsion ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.
5. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.
7. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent, 2013. – 112 b.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 180 b.

KELAJAKDA ROBOT-O’QITUVCHILARNING KO’PAYISHI TA’LIM INQIROZIGA SABAB BO’LADI

Kattaqo‘rg’on pedogagika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo’nalishi
1-kurs magistranti Ismatova Sitora
ismatovasitora2323@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt va zamonaviy usullarning ta’lim sohasiga joriy etilishi va ularning natijasida yuzaga kelgan muommoli holatlar haqida batafsil bayon qilinadi. XXI asrning 2-yarmidan so’ng ta’lim muassalarida robot-o’qituvchilarning ortib borishining zararli tomonlari haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO’Z: Sun’iy intellekt, robot-o’qituvchi, ta’lim tizmi, zamonaviy metodlar, dasturiy ta’minot.

Kirish Robot deyilganda, jamiki insoniyat ko’z o’ngida odam qiyofasida bo’lgan,u bajargan barcha harakatlarni qila oladigan temirdan ishlangan buyum keladi.Aslida-chi? Bu termin nisbatan kengroq bo’lgan tushuncha hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda mobil qurilmalarimiz orqali foydalanadigan:wisdom,google-tarjimon,turli xil o’yinlar va hokoza platformalar ham sun’iy intellektga misol bo’la oladi.

Metodologiya. Sun’iy intellakt- informatika yo’nalishining alohida sohasi bo’lib,insoniyat ongi bilan bog’liq bo’lgan imkoniyatlarni o’zida jamlaydi.Masalan: tilni o’rganish,tushunish,mulohaza yuritish,masala yechish va tarjima shu kabilar kiradi.Dastavval sun’iy miyaning imkoniyatlari shular bilan cheklangan edi, xolos.Bugungi kunga kelib bu texnologiyalar har qanday sohalarda o’zining katta va kichik ko’rinishlari orqali insonlarning xavotiriga sabab bo’lmoqda.Sun’iy intellektning ilk ko’rinishlari 1940-yillardan boshlab namoyon bo’la boshlagan.Olimlar o’sha vaqtda “mashina ham fikrlay oladimi?” degan savolni o’rtaga tashlagan edi.Bu so’zning paydo bo’lishi esa “Dartmouth Conference” sida “sun’iy intellekt” atamasi birinchi marta rasmiy ishlatilgan.1990-yillarda sun’iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi.1997-yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmatda jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo’ldi.Shundan so’ng dunyo aholisining barcha a’zosi sun’iy aql insoniyatdan ko’ra ancha kuchli ekanligaga ishonishdi.

Tadqiqot natijalari. Bugungi kun ta’lim sohasidagi imkoniyatlariga qaraydigan bo’lsak ko’zni quvontiradigan darajada ekanligiga yaqqol amin bo’lamiz. Lekin shu bilan bir qatorda uni qo’llash jarayonidagi muommolarini ham yo’q deya olmaymiz. Avvalo, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolardan biridir. Barcha ta’lim muassasalari ham zamonaviy kompyuterlar, tezkor internet va zarur dasturiy vositalar bilan to‘liq ta’minlanmagan. Bu esa sun’iy intellekt asosidagi platformalardan keng foydalanishni cheklaydi.Bundan tashqari, pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq. Ko‘plab o‘qituvchilar sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas. Natijada, mavjud texnologiyalar to‘liq va samarali qo‘llanilmaydi.

Tahlilar. 1-BOSQICH. AQSh maktablarida robotlar o'qituvchilarga yordam bermoqda.Bu xabar ko’pchilikning hayratiga sabab bo’ldi. Pandemiya davrida ba’zi maktablar gibrid modelga o’tdi. Ya’ni, o’quvchilarning bir qismi maktabga bordi, boshqalari internet orqali uyda ta’lim oldi. Bunday sharoitda o’qituvchi va o’quvchilarni bir-biriga bog’lovchi maxsus robotlardan foydalanilmoqda.Robot-O’qituvchilarning dastlabki ko’rinishi aynan shunday bo’lgan.Ya’ni ular nomustaqil tarzida o’qituvchilarga yordam bera boshlagan.

2-BOSQICH. Xitoydagi bog‘chalardan birida bolalarga murabbiy o‘rniga 60 santimetrli robot dars o‘tishni boshladi. Ta'lim sohasida yangi ish boshlagan “smart” o‘qituvchining ismi - Kiko (Keeko) U bolalarga qiziqarli hikoya, ertaklarni aytadi, turli yoshga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlarni beradi. O‘quvchi savolga to‘g‘ri javob bersa, robot sensor ekranida qizil yurakchalar yonadi. Bundan tashqari, u uzluksiz videoyozuvni amalga oshiradi va savollarga javob beradi. Kiko bilan ishlagan bog‘cha murabbiysi: “Robot bilan ishlash juda maroqli. U odamlarga qaraganda o‘z hissiyotlarini muvozanatda ushlab tura oladi”, deya fikr bildirdi.

3-BOSQICH.Xitoydagi maktablarda ham robot-o’qituvchilarning faoliyati bir necha yil avval boshlanganini va ular mustaqil tarzida dars bera boshlagani haqida xabarlar berildi.

4-BOSQICH. Jorjiya institutida robot dars berganini yarim yil hech kim sezmagan. Jill — bu robot, IBM Watson bazasida ishlaydigan sun’iy intellekt tizimi, ammo biror talaba robot-o‘qituvchi bilan muloqotda buni sezmagan. 2019-yilning yanvaridan Jill assistent o‘qituvchi sifatida to‘qqiz nafar o‘qituvchilar bilan 300 nafar talabaga dasturlar ishlab chiqishga yordam

bergan. Jill talabalarga ishlarni topshirish va muhokama qilish jarayonida yordam berib, insonlar ishlatadigan oddiy sleng so‘zlardan foydalangan. Robot -o’qituvchilar o’z faoliyatini bosqichma-bosqich mustaqil holatga chiqarib oldi va hozirda u ta’lim tizmining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Robot-o’qituvchilar- ta’lim inqirozimi?

Avvalo, bunday texnologiyalar insoniy omilni cheklaydi. An’anaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchining ruhiy holatini his qiladi, uni qo‘llab-quvvatlaydi va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Robot-o‘qituvchilar esa hissiyot va empatiyadan yiroq bo‘lgani sababli o‘quvchi bilan chuqur psixologik aloqa o‘rnata olmaydi. Yaponiyada ayrim maktablarda robot-o‘qituvchilar sinov tariqasida joriy etilgan, biroq o‘quvchilar o‘qituvchining mehr, e’tibor va ruhiy qo‘llab-quvvatlashini yetarlicha his qila olmaganliklari aniqlangan. Natijada dars jarayonida motivatsiya pasaygani kuzatilgan.

Ikkinchi muammo - ijodiy va mustaqil fikrlashning cheklanishi. AQShdagi ayrim onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari o‘quvchilarga tayyor javoblarni tez taqdim etadi. Bu esa ba’zi hollarda o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga to‘sqinlik qilib, ularni algoritmik fikrlashga haddan tashqari bog‘lab qo‘ygan.

Uchinchi jihat - texnologiyaga qaramlik va nosozliklar xavfi. Janubiy Koreyada raqamli ta’lim juda rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim maktablarda tizimdagi texnik muammolar sababli darslar vaqtincha to‘xtab qolgan holatlar qayd etilgan. Bu esa o‘quv jarayonining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

To‘rtinchi muammo - ta’limdagi tengsizlik. Hindistonda zamonaviy texnologiyalar asosan yirik shaharlarda mavjud bo‘lib, qishloq hududlarida bunday imkoniyatlar yetarli emas. Natijada robot-o‘qituvchilarni joriy etish ayrim o‘quvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratgan bo‘lsa, boshqalar uchun esa ortda qolish xavfini kuchaytirgan.

Xulosa Robot-o’qituvchilarning ta’lim sohasida ko’payishi insoniy muloqotning kamayishi, o‘qituvchining tarbiyaviy rolining pasayishi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Robot-o‘qituvchilarga haddan tashqari tayanish ta’limni bir xil qolipga solib qo‘yib, ijodkorlikni cheklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suyumov, J.Y. Kompyuter imitatsion modellari asosida faol oqitish texnologiyasining nazariy asoslari. Scientific progress, 2(3),2021, 459-466.
2. Suyumov J., Madaliyeva G., & Xakimova K. Imitation modeling technologies in higher educational process. Теория и практика современной науки, (5), 2021, 18-21.
3. Pulatov G. G. Simsiz tarmoqni uzaytirish muammolari va yechimlari.
4. Suyumov, J. Y. Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7),2021, 205-210.

TILNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Namozova Gulsanam Otabekovna
Samarqand davlat chet tillari instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion tadqiqotlar hamda interfaol metodlarning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning nutqiy, tahliliy va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga urg’u berildi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim, lingvodidaktika, raqamli pedagogika, adabiy tahlil, kreativ fikrlash.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar til va adabiyot fanlarini o‘qitish metodikasini ham yangilashni talab etmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish va

axborot oqimining keskin ortishi sharoitida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’lim tizimi asosan bilimlarni tayyor holda berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘radi. Shu bois til va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zaruriyati ortib bormoqda. Mashhur metodist olim John Dewey ta’kidlaganidek, “ta’lim - bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zidir”[1]. Bu fikr zamonaviy ta’limda o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi. Shuningdek, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bilimlar ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi[2]. Bu esa interfaol metodlarning ilmiy asosini tashkil etadi. O‘zbek pedagog olimlaridan O‘.Q. Tolipov ham ta’limda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion tadqiqotlar va interfaol usullar, pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini alohida ta’kidlaydi[3]. Demak, til va adabiyot fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash nafaqat metodik zarurat, balki ijtimoiy ehtiyoj ham hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot kompleks ilmiy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha nazariy va amaliy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini konstruktivizm tashkil etadi. Jean Piaget fikri bilan aytganda bilim inson tomonidan faol ravishda quriladi va o‘zlashtiriladi. Bu yondashuv til o‘rganishda o‘quvchining faol ishtirokini taqozo etadi. Bundan tashqari, kommunikativ yondashuv ham asos qilib olindi. Jack C. Richards ta’kidlaganidek, “til o‘rganish jarayoni real kommunikativ vaziyatlar asosida tashkil etilganda samaraliroq bo‘ladi”[4]. Tadqiqot davomida n**azariy tahlil metodi** orqali ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar o‘rganildi, q**iyosiy tahlil** asosida an’anaviy va zamonaviy metodlar samaradorligi solishtirildi, p**edagogik tajriba-sinov ishlari** orqali interfaol metodlarning amaliy natijalari tekshirildi. Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta’lim nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli pedagogika kabi konsepsiyalarga tayandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqladi.

Birinchidan, interfaol metodlar qo‘llanilgan guruhlarda o‘quvchilarning darsdagi faolligi an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi o‘z isbotini topdi. Xususan, tajriba sinflarida o‘quvchilarning darsdagi faolligi 40% ga yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat David W. Johnson va Roger T. Johnson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi, ya’ni hamkorlikda o‘qitish usullari o‘quv natijalarini sezilarli oshiradi.

Ikkinchidan, “Debat” va “Case-study” kabi interfaol metodlar talabalarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va o‘z fikrini asoslab berish darajasini oshirdi, tanqidiy fikrlash mantiqiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati ekanligini asoslab berildi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar xususan, multimedia taqdimotlari, onlayn platformalar va test tizimlaridan samarali foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fan yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. OECD hisobotlariga ko‘ra, raqamli vositalardan oqilona foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga motivatsiyasini yanada oshirishga xizmat qiladi[5].

To‘rtinchidan, badiiy asarlarni kreativ yondashuv asosida o‘rganish (masalan, muqobil yakun yozish, rolli o‘yinlar) o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirdi.

Tahlillar. Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

[1] Johnson D.W., Johnson R.T. Active Learning Methods. – New York, 2019.
[2] Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
[3] Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Toshkent, 2021
[4] Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2020.

[5] OECD.Education Digital Report. – 2022. https://www.oecd.org/en/publications/shaping-digital-education_bac4dc9f-en/full-report.html?utm_source=chatgpt.com

Zamonaviy yondashuvlarning ustunliklari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ular o‘quvchini markazga qo‘yadi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantiradi, bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi.

Interfaol metodlarning didaktik ahamiyati. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar faol muloqotga kirishadi, jamoada ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi, nutqiy kompetensiya shakllanadi, fikr almashish madaniyati oshadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtiradi. Benjamin Bloom taksonomiyasiga ko‘ra, yuqori darajadagi tafakkur (tahlil, sintez, baholash) aynan faol o‘qitish jarayonida shakllanadi.

Raqamli texnologiyalarning **didaktik imkoniyatlari.** Raqamli texnologiyalar ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Sugata Mitra o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyati texnologiyalar yordamida sezilarli darajada oshishini ko‘rsatgan. Raqamli vositalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi. Ular darsni vizual va interaktiv qiladi, o‘quv jarayonini individuallashtiradi, nazorat va baholashni avtomatlashtiradi, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi. Til o‘rganishdan asosiy maqsad kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Dell Hymes bu tushunchani kengaytirib, tilni real ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llay olish zarurligini ta’kidlaydi.

Mavjud muammolar. Shunga qaramay, o‘qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalanish kompetensiyasi yetarli emasligi, moddiy-texnik bazaning cheklanganligi, metodik qo‘llanmalar yetishmasligi, vaqt taqsimoti bilan bog’liq ba’zi muammolar ham uchraydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar bilan uyg‘un ekanligi kuzatildi. Xususan, rivojlangan davlatlarda ta’lim jarayoni interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirmoqda. Shuningdek, til va adabiyot fanlarida kommunikativ yondashuvning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tilni samarali qo‘llashiga yordam bermoqda. Bu esa lingvodidaktikada yangi bosqichni boshlab bermoqda. Til va adabiyotni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. An’anaviy ta’lim tizimidan farqli ravishda, zamonaviy metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga olib chiqadi va uni faol subyekt sifatida shakllantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interfaol metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, muloqotga kirishish hamda o‘z fikrini asoslab berish kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, “debat”, “case-study”, “rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ tafakkurini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi kuzatildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, darslarni vizual va interaktiv shaklga keltiradi hamda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonini optimallashtirish, nazorat va baholash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Biroq tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, zamonaviy yondashuvlarni samarali joriy etish uchun bir qator muammolarni bartaraf etish zarur. Jumladan, o‘qituvchilarning metodik va raqamli kompetensiyalarini oshirish, ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash, innovatsion metodlar bo‘yicha metodik qo‘llanmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kelgusida mazkur yo‘nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish va pedagogik tajribalarni ommalashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2022.
2. Harmer J. How to Teach English. – London, 2019.
3. Johnson D.W., Johnson R.T. Active Learning Methods. – New York, 2019.
4. OECD. Education Digital Report. – 2022.

https://www.oecd.org/en/publications/shaping-digital-education_bac4dc9f-en/full-report.html?utm_source=chatgpt.com
5. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2020.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Toshkent, 2021.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.

MAJIDIYNING BADIIY SAN’ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Nafisa Jalilova Razzoqovna
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Mamatova Shahlo
Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili yo’nalishi
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Majidiyning badiiy san’atlardan foydalanish mahorati tahlil qilinadi. Unda adib ijodida uchraydigan tashbeh, istiora, mubolag‘a, tazod kabi badiiy vositalarning qo‘llanish usullari hamda ularning asar mazmuni va g‘oyaviy-estetik ta’sirini kuchaytirishdagi o‘rni yoritiladi. Majidiyning obraz yaratish, voqelikni tasvirlash va o‘quvchi qalbiga ta’sir o‘tkazishda badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanganini misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining individual uslubi, tasviriy vositalar orqali milliy ruh va ma’naviy qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: tazod, she’r,so’z, o’xshatish, tanosub, adolat, odob-axloq, irsoli masal.

Kirish. Abdulhamid Majidiyning ijodi XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tafakkuridagi o‘zgarishlar, yangiliklar, taraqqiyot yo‘lidagi izlanishlarning bir bo‘lagi sifatida katta ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Shunday murakkab va mas’uliyatli davrda Abdulhamid Majidiy nafaqat adib, balki faol jurnalist, ijtimoiy arbob sifatida ham o‘zbek madaniyati va adabiyotining shakllanishida beqiyos hissa qo‘shgan. Uning hajviy asarlari orqali xalqni o‘z nuqsonlariga kulib qarashga, ularni tan olishga va ulardan xalos bo‘lishga chorlagan. Majidiy ko‘plab hikoyalarida, maqolalarida, she’rlarida xalqning ma’naviy uyg‘onishi, ma’rifatli jamiyat qurilishi va zamonaviy bilimlarga asoslangan tafakkur shakllanishi haqida so‘z yuritgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Majidiy she’riyati poetik tahlilga tortildi, uning adabiy ijodida she’rlarining o‘ziga xosligi, badiiy qimmati va uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni atroflicha tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Majidiy she’riyati badiiy jihatdan boy va o’ziga xos. U o‘z she’rlarida sodda, xalqona tilda, ammo teran ma’no bilan murojaat qilgan. Abdulhamid Majidiy o‘zbek she’riyati tarixida o‘ziga xos uslubi, hajviy ijodi, obrazlilik va mavzular xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Uning “Yolg‘onchi ayg‘oq”, “Boylarning hasrati”, “Istar ko‘ngil” va “Chiqdi gazetdan” kabi hajviy yo‘nalishdagi she’rlari jamiyatdagi illatlarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan shu yili chop etilgan “Xandon lolalar” to‘plamida ham shoirning satira janridagi iste’dodi yorqin namoyon bo‘lgan. Uning she’rlari mazmuniy va shakliy jihatdan boy bo‘lib, o‘zbek adabiyotida yangicha poetik ifoda vositalarining shakllanishiga xizmat qilgan. Majidiy she’riyatida mavzularning kengligi diqqatga sazovor. U insoniy fazilatlar, ma’rifatparvarlik, adolat, vatanparvarlik, jamiyatdagi illatlar, axloqiy muammolar kabi turli yo‘nalishlarga murojaat etadi. Ayniqsa, ma’rifatparvarlik g‘oyalari shoir she’riyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. U xalqni ilm-fanga chorlaydi, jaholat va nodonlikka qarshi kurashadi. Shuningdek, Majidiyning she’riyati janr jihatdan ham rang-barangdir. U nafaqat lirika, balki hajviy, falsafiy va publitsistik ruhdagi she’rlar ham yaratgan. Uning hajviy she’rlari orqali ijtimoiy muammolar fosh etiladi, jamiyatdagi illatlar tanqid qilinadi. Bunda shoir xalqona iboralar, kinoya, istehzo kabi uslublardan

[1] Boboyev M. Abdulhamid Majidiy (Abutanbal) // O‘zbek tili va adabiyoti, 1968, 1-son, 27-bet.

mohirona foydalanadi. Majidiyning poetik tili ham o‘ziga xos: u xalq tiliga yaqin, sodda, shu bilan birga mazmunan chuqur va badiiy jihatdan yetuk ifodalardan foydalanadi. Uning she’rlarida xalq maqollari, iboralar va obrazli ifodalar keng o‘rin olgan. Bu esa uni o‘quvchiga yanada yaqinlashtiradi va o‘z davrida keng omma orasida mashhurlikka sabab bo‘ladi. Abdulhamid Majidiy she’rlari o‘zbek adabiyotiga nafaqat mazmuniy, balki shakliy jihatdan ham boylik olib kirgan[2]. Shoirning ko‘plab she’rlari xalq orasida mashhurdir. Uning “Nahripay” she’rini o‘qir ekanmiz, undagi so‘zlar jilvasi, ham qadimiy, ham zamonaviy ruhning uyg‘unligi kishiga zavq beradi. Keling, shu she’r tahlili bilan birga tanishamiz:

Ilhom kabi ko‘ngillarga siljib oqqan, Nahripay,
Kun tig‘i-la yaltiragan yanogingdan bir o‘pay…

Bu yerda Nahripay[3] nafaqat tabiat hodisa sifatida, balki ilhom manbai, kuch-qudrat ramzi sifatida tasvirlangan. Uning “kun tig‘i-la yaltiragan”ligi naqadar yuksakdan oqib tushishini anglatadi.

Ulug‘ yerlar cho‘qqisidan na’ra tortib, hay-haylab,
Hisor kabi mahkam va keng joylar sari enadi.
Yuksak yerda polvonlardek qadamini avaylab.
Bosadir-da, pastga tushgach, jimjitgina tinadi.

Ushbu parchada ijodkorning tashbih va jonlantirish san’atidan mohirona foydalanganini ko’rishimiz mumkin. Hisor kabi mahkam va keng joy, polvonlardek so’zlari orqali tashbihni hosil qilgan.

Elektrik nuri bilan yaltiroq qizning sochi.
Kabi oqar kun tig‘ida kumush suvning ustida.
Nash’a to‘la uzatilgan er yigitin qulochi
Hayot qizi Nahripayning qo‘ltiqlari ostida...

Daryo qizga o‘xshatilgan. Uning sochi elektr nuridek yaltiraydi. Daryo suvi kumushdek porlaydi. Yerning yosh yigiti (ya’ni, inson, mehnatkash) o‘z qulochini unga uzatayotgani, Nahr esa uni og‘ushiga olayotgani, tabiat va inson uyg‘unligi ifoda qilingan.

Ilhom kabi ko‘ngillarga siljib oqqan, Nahripay,
Kun tig‘i-la yaltiragan yanog‘ingdan bir o‘pay!

Shoir Nahrpayga murojaat qilish orqali nido san’atidan foydalangan.

Majidiyning “She’r o’g’risi” she’rini tahlilga tortadigan bo’lsak, ushbu ijod mahsulida Majidiy, “To‘rtko‘zxon” imzosi bilan o‘zining “Boylarning hasrati” nomli she’rini o‘g‘irlagan va uni o‘zining asari sifatida e’lon qilgan shaxsga qarshi qattiq tanqid olib boradi. Majidiy, o‘g‘irlikning turli shakllarini sanab o‘tgan holda, adabiyotdagi o‘g‘irlikni eng pastkash, zararli va axloqan eng og‘ir xatti-harakat sifatida ko‘rsatadi.

Ko‘p edi dunyoda do‘kon birla ombor o‘g‘risi,
Nuqrayu oltin, brilliant, durru shahvor o‘g‘risi,
Salla, telpak, do‘ppi, ko‘ylak birla chalvor o‘g‘risi,
Ham bog‘ich, tugma, yoqa-yeng, halqa, tumor o‘g‘risi,
Kam edi yolg‘iz bu dunyo ichra ash’or o‘g‘risi[4].

Tanosub san’ati ushbu she’rda ustuvorlik qiishini ko’rishimiz mumkin.

Keyingi o’rinda esa “o’roqda yo’q, mashoqda yo’q xirmonda hozir” kalimasi orqali irsoli masal ko’zga tashlanadi:

Shukrkim, chiqdi yana bir shoiri boshi somon,
“Betahorat” mayli aytsak, otlari “To‘rtko‘zxon”,
She’r yozmoqqa ekan qurg‘ur juda beustixon,
Chunki nafsi bir tegirmon nafsidan battar yomon,

[2] Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Noshir, 2019. – 431 b.
[3] Kattaqo’rg’on, Narpay va Paxtachi tumanlaridan oqib o’tuvchi kanalning nomi. Zarafshon daryosining tarmog’i.
[4] Majidiy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 156 b.

Na o‘roqda, na mashoqda, lek xirvor o‘g‘risi.

Shoir “To‘rtko‘zxon”ning “Boylarning hasrati” she’rini o‘zgartirmasdan nusxalaganini aniq tanqid qiladi. Bu yerda Majidiy, o‘g‘irlikni faqat mol-mulkga qaratilmagan, balki boshqalar mehnatiga nisbatan ham beparvolik sifatida ko‘rsatadi. O‘g‘irlik, boshqa bir kishining ijodini, mehnatini va fikrini o‘zlashtirishdir. Bu harakatni Majidiy faqat o‘g‘irlik emas, balki jamiyatning adabiy qadriyatlarini qadrsizlantirish, ijodkorlarning huquqlarini poymol qilish sifatida baholaydi. Shuningdek, “Dramaturglarga sovg’a” she’rini dastlabki bandida tazod san’atidan o’ta mohirona foydalanilgan:

Dramaturg o‘rtoqlarga arzimiz,
Silliq so‘zning nishlik tikoni yo‘qdir.
Ko‘rgan-bilganlarni demak qarzimiz,
Qarzimizni uzsak, ziyoni yo‘qdir.

Bu yerda silliq-nishlik so’zlari tazodni hosil qilgan.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulhamid Majidiy she’rlarining ko’pgina qismi tanqid, hajvga yo’naltirilgan bo’lib, ularda adolat, vijdon, halollik, nafsni yengish kabi masalalar o’z o’rnini topgan. Majidiy she’rlari bilan o’zbek adabiyoti xazinasini boyitdi. Ushbu maqolada she’rlaridan ba’zilarigina keltirildi, xolos. Uning barcha she’rlari xalqni odob-axloqqa, chin insoniylikka chorlaydi. Majidiy she’rlarida o’xshatish, tanosub, tazod san’atlari yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduhakimov Sh. Zavq va ziyo ulashib. – Samarqand, 2009. – 72 b.
2. Abduhakimov Sh.O. Kattaqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Tamaddun, 2016. – 400 b.
3. Boboyev M. Abdulhamid Majidiy (Abutanbal) // O‘zbek tili va adabiyoti, 1968, 1-son, 27-bet.
4. Jo‘raqulov U.H. Fitratning tadqiqotchilik mahorati. Dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 120 b.
5. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Noshir, 2019. – 431 b.
6. Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 1994. – 236 b.
7. Majidiy A. Ko‘ngil orzulari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 160 b.
8. Majidiy A. Shavqiy // Maorif va o‘qituvchi. – Samarqand, 1927, №12. – 44-48 b.
9. Majidiy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 156 b.

‘‘KO‘HNA DUNYO‘’ ROMANIDA POLIFONIK NUTQ IFODASI

Nafisa Jalilova Razzoqovna
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Arzimurodova Dilsevar Sherali qizi
O‘zbek tili va adabiyoti yo ‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada M.M. Baxtinning polifoniya nazariyasi, polifonik nutq va polifonik roman tushunchasi, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani birinchi tarixiy polifonik roman sifatida tadqiq etildi. Asardan olingan polifonik nutq parchalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: polifoniya, polifonik nutq, roman badiiyati, polifonik roman, falsafiy-ruhiy olam, monologik nutq, yozuvchi-roviy nutqi.

Kirish. Badiiy asarni tahlil qilishdan avval, adabiyotshunoslikning o‘zak tushunchalaridan biri bo‘lgan “polifoniya” va “polifonik roman” terminlariga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. “Polifoniya” termini yunoncha “polys” (ko‘p) va “phone” (ovoz) so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “ko‘p ovozlilik” ma’nosini anglatadi. Dastlab musiqashunoslik sohasiga oid

tushuncha, ya'ni "musiqada bir nechta mustaqil ohanglarning bir vaqtning o'zida, o'zaro uyg'unlikda kelishi va rivojlanishiga asoslangan ko'p ovozlilik turi" sifatida ta'riflanadi.

Adabiy asarda polifoniya hodisasi musiqiy analogiyaga asoslanadi. Polifonik romanda qahramonlarning dunyoqarashi xuddi orkestrdagi turli cholg'u asboblarining o'z partiyasini ijro etishiga o'xshaydi. Har bir qahramon o'zining mustaqil fikri va "ovoziga" ega. Barcha qahramonlarning qarashlari jamlanib, asarning umumiy g'oyaviy uyg'unligini hosil qiladi.

Polifoniya tushunchasini adabiyotshunoslikka ilk bor ilmiy termin sifatida Mixail Baxtin olib kirgan. Olim o'zining "Dostoyevskiy poetikasi muammolari" asarida polifoniyani yangicha badiiy tafakkur tipi darajasida baholaydi. Yangi janr asosi sifatida "polifoniya" - polifonik romanning vujudga kelishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib tushunila boshladi. M.Baxtin talqinlariga ko'ra, Dostoevskiyga qadar yaratilgan romanlarda muallif ongi ustuvor bo'lib, qolgan hamma narsa, jumladan, qahramon shunga to'la bo'ysundirilgan. Olim buni "romanning monologik tipi", – deb ataydi va undan farqli ravishda, polifonik romanning asosiy belgisi sifatida muallifning qahramonlarga nisbatan dialogik mavqeda turishi, ya'ni ularning har biri olam haqidagi o'z nuqtayi nazariga egaligi va bu nuqtayi nazarlarning har biri mustaqil holda (muallif nuqtai nazari bilan parallel tarzda, unga bo'ysundirilmagan holda) yashashini ko'rsatadi"[1]. An'anaviy monologik asarlarda muallif nuqtayi nazari ustunlik qilsa, polifonik asarda qahramonlar muallif irodasiga bo'ysunmagan, mustaqil "ovozlar" sifatida namoyon bo'ladi. Asardagi asosiy mohiyat turli dunyoqarashlarning o'zaro to'qnashuvi va muloqoti jarayonida ochib beriladi. Polifoniya nazariyasi zamonaviy adabiyotshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, asar matnini ko'p qatlamli va chuqur psixologik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Polifoniya nazariyasi adabiyotshunoslikda eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, u avvalo, M.M.Baxtin nomi bilan uzviy bog'liq. Baxtin o'zining "Problemy poetiki Dostoevskogo" asarida Dostoevskiy romanlarini ko'p ovozli, ya'ni polifonik asarlar sifatida talqin qiladi. Monologik romanlarda muallif ovozi markaziy o'rinda bo'lsa, polifonik romanlarda qahramonlarning ovozi muallifnikidan kam emas, balki mustaqil, teng huquqli ovoz sifatida namoyon bo'ladi. M.Baxtinning "Dostoevskiy ijodi muammolari" (1929) asarida ilk bor adabiyotga tatbiqan ishlatilgan. Mazkur asarida olim F.Dostoevskiy romanning yangi tipi - "polifonik roman" yaratganini asoslab berdi. M.Baxtin talqinlariga ko'ra, Dostoevskiyga qadar yaratilgan romanlarda muallif ongi ustuvor bo'lib, qolgan hamma narsa, jumladan, qahramon shunga to'la bo'ysundirilgan. Olim buni "romanning monologik tipi", – deb ataydi va undan farqli ravishda, polifonik romanning asosiy belgisi sifatida muallifning qahramonlarga nisbatan dialogik mavqeda turishi, ya'ni ularning har biri olam haqidagi o'z nuqtayi nazariga egaligi va bu nuqtayi nazarlarning har biri mustaqil holda (muallif nuqtai nazari bilan parallel tarzda, unga bo'ysundirilmagan holda) yashashini ko'rsatadi"[1].

Darhaqiqat, polifonizm nutq shakllarini, asar personajlarini qanday mavqeda harakatlanishini, yozuvchi baholash va unga munosabat bildira olish manerasini ham tartiblashtiradi. Bir vaqtning o'zida yozuvchi kuzatuvchi, tahlilovchi va munosabat bildiruvchi sifatida roman badiiy olamida ishtirok etadi.

Romanda tasvir polifoniyasi xususida jiddiy tadqiqotlar olib borgan professor Y.Solijonov: *"Polifonik roman, asosan, inson tafakkuri bilan ish olib boradi. Inson tafakkuri esa g'oyat murakkab bo'lib, undan bir paytning o'zida fizik, ximik, falsafiy, diniy, fiziologik tajribalar o'tkazish va kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bunda birinchi galda uning ruhiyati yoritiladi. Tirik inson ruhiyatining murakkabligini aks ettirish polifonik roman ijodkorining birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi"*[2], – deya ta'kidlar ekan, masalaning murakkab jihatlariga e'tibor qaratadi. Shuni qayd etish lozimki, falsafiy-psixologik roman F.Dostoevskiy, L.Tolstoy asarlarida ko'zga tashlansa, polifonik nutq tiplari ushbu yozuvchilarning tasvirlash prinsiplarining eng yuksak

1.Quronov D va boshqa, Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati. - T.: "Akademnashr", 2010. –164-165.
[2] Solijonov Yo`ldosh. XX asrning 80-90 yillari o`zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dok.diss. –T. 2002. –B.267.

nuqtasi ekanligi ayon bo‘ladi. Unda bir vaqtning o‘zida ham qahramon, ham yozuvchi, ham zamon ruhiyati uyg‘un holda istifoda etiladi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. “Polifonika” so‘zi nima ekanligi va adabiyotga qanday kirib kelganligini bilib oldik. Xo‘sh, unday bo‘lsa, nega aynan uni tahlil qilib o‘rganishimiz uchun Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanini tanladik. Boshqa badiiy asarlarda polifoniya hodisasi uchramaydimi, yo bo‘lmasa, uchrasa ham faqat biz uni chuqurroq o‘rganmadikmi? Cho‘lponning “Kecha va kunduz” va Ulug‘bek Hamdamning “Sabo va Samandar” asarlarida ham polifonik nutqni ko‘rishimiz mumkin, ammo, boshqa asarlardan farqli ravishda bu kitobda faqat qahramonlar monologigina emas, aksincha, muallifning o‘z fikrlari ham polifonik nutq shaklida aks etadi. Endi asar haqida biroz ma’lumot beradigan bo‘lsak, “Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” degan yangi romani ikki buyuk alloma – Abu Rayhon Beruniy bilan Abu Ali ibn Sino hayotiga bag‘ishlangan...” Mustabid shoh Mahmud G‘aznaviy davrida yashab, og‘ir sharoitlarda ijod qilgan bu ikki ulug‘ siymoning hayotlari chuqur dramatik voqealarga to‘la. Romanni o‘qir ekanmiz, bir qarashda sarguzashtnoma bo‘lib tuyuladigan, aslida esa zulm va adolatsizlikka asoslangan ko‘hna dunyoning o‘tkir ziddiyatlarini va fojiaviy hodisalarini kuzatamiz. Nohaqlik va tubanlik iskanjasida qolgan ikki buyuk, bobomizning yuksak e’tiqodi, dard-u alamlari, iztiroblari, mustahkam irodasi va chuqur ruhiy kechinmalarining guvohi bo‘lamiz. Romanda qahramonlarning ichki kechinmalari va o‘y-fikrlari juda ham ajoyib shaklda ochib berilgan.

Yozuvchi Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanida polifonik nutq ikki asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi bevosita qahramon ruhiy holatlari, ichki kechinmalari va voqelikdagi harakatlar jarayonida yuzaga chiqadi. Ikkinchisi esa bilvosita tarzda, ya’ni yozuvchining o‘zi tomonidan berilgan tasvir va talqin ritmikasida ifodalanadi. Asarda Abu Rayhon Beruniy syujet davomida ko‘pincha monologik ruhda namoyon bo‘ladi: u atrofidagi voqelikni o‘z qarashlari asosida baholaydi, ichki mushohadalari orqali haqiqatni anglashga intiladi. Biroq ayrim o‘rinlarda uning nutqi polifonik tus olib, yozuvchi va qahramon ovozlari uyg‘unlashgan holda roviy nutqi orqali ifodalanadi. Masalan, *“Yo tavba! Bu iblis bukri shohlar xazinasini bezab turguvchi bu nodir ziynatni qaydan oldi? Bundan chiqdi, bu makkor to‘g‘risida yurgan mudhish mish-mishlar to‘g‘ri ekan-da?”* kabi parchalarda bir vaqtning o‘zida bir nechta nigoh va munosabatlar kesishadi.

Yozuvchi mayxona manzarasini, u yerga yig‘ilgan odamlarni shu qadar jonli va ta’sirchan tasvirlaydiki, unda chuqur hissiyot va salmoqli fikr uyg‘unligi o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Xorazmdan, ya’ni Beruniy yurtidan kelgan Piri Bukriy obrazi orqali ham polifonik nutq yanada boyitiladi: u qariyb o‘n besh yil davomida Malikul Sharob bilan yaqin bo‘lib, mayxonada nay chaladi va voqealar rivojiga o‘ziga xos ohang bag‘ishlaydi. Mazkur matnda Piri Bukriy haqidagi tasvirlar orqali bir nechta ovoz uyg‘unlashadi: bir tomondan, Beruniyning ichki o‘y-fikrlari; ikkinchi tomondan, yozuvchining bevosita yoki bilvosita ifodalangan munosabati; uchinchi tomondan esa, go‘yoki “ko‘zga ko‘rinmas” yana bir subyektning savol va mushohadalari. Ana shu ko‘p ovozlilik (polifoniya) syujetning parchalanib ketishini oldini olib, uni yaxlit badiiy tizimga birlashtiradi. Natijada, asarda nafaqat Beruniy shaxsi, balki uning zamoni, atrofidagi turli ijtimoiy qatlam vakillari ham chuqur va haqqoniy baholanadi. Yoki *“Xayriyat, yoshlik chog‘larini eslagani kelmabdi, eslagani kelganida ne qilarding, sho‘rlik Abu Rayhon?”* Bu parchada bir tomondan o‘z-o‘zini koyiyotgan Beruniy holati aks etsa, boshqa tarafdan olib qarasa, kitobxon, olimga qarata savol berganday, huddiki, ikkinchi shaxs bo‘lib, murojaat qilganday tuyiladi. Mazkur parchada, Mahmud G‘aznaviyning suyukli va jondan aziz singlisi Xatlibegim Beruniyni ziyorat qilgani kelgandagi holati aks ettirilgan. *“Yo‘q, ilmda zukko bu yigit bu dunyo yumushlari bobida hanuz go‘dak, ona suti og‘zidan ketmagan ma’sum go‘dak!” “Ko‘zim tirigida bu sho‘rlikni uylantirib qo‘ymog‘im lozim”, - degan fikr o‘tdi.* Bu yerda gap Beruniyning Hindistondan olib kelgan asrandi o‘g‘li Sabhu haqida so‘z ketadi. Birgina shu jumla orqali mehribon ota ichki kechinmalari, ustod sifatida shogirdidan qayg‘urish hissi va bir vaqtlar Hindiston oldida qila olmagan qarzini shu bolaga yaxshilik qilish bilangina uzish niyati bor bo‘lgan vijdonli insonning polifonik monologi aks ettirilgan.

“Bu kuningdan beshbattar bo‘l, miyasiz tentak! – dedi o‘z-o‘ziga. – Kim senga o‘zingni hazrat Ibn Sino deb, dovruq sol, dedi, nodon? Ajalingdan besh kun burun o‘lishni tilagan bo‘lsang tilagingga yetding, mana!”

Yozuvchi asarda yana shunday rivoyatni keltiradiki, u aslida tarixiy haqiqat emas, balki personajning muayyan maqsad yo‘lida ataylab to‘qib chiqargan uydirma hikoyasidir. Bu rivoyat ko‘r darvesh tomonidan o‘zini Ibn Sino sifatida ko‘rsatib, xalqni uning go‘yoki tengsiz aql-zakovati borligiga ishontirish, shu orqali odamlarni atrofiga to‘plash niyatida yaratilgan. Rivoyat markazida uzuk detali turadi. Unda aytilishicha, “Ibn Sino” hatto chaqaloqligidayoq favqulodda zakovat egasi bo‘lgan: u ota-onasini hayratda qoldirgan, enagasiga mehr qo‘ygan. Bir kuni onasining uzugi tariq solingan qop ichiga tushib ketadi, enaga buni sezmaydi va natijada aybsiz holda ayblanib, uydan haydaladi. Go‘dak esa tinmay yig‘lab, qopni ko‘rsatadi. Otasi tariqni to‘kib qarasa, uzuk aynan o‘sha yerda chiqadi. Shu orqali bolaning “zakiyligi” yana bir bor “isbotlanadi”.

Aslida esa yozuvchi bu rivoyat orqali Ibn Shahvoniy obrazining yolg‘onchi va firibgar ekanligini ochib beradi. Uning o‘zi haqidagi hikoyalar ham uydirmalardan iborat bo‘lib, u o‘zini buyuk shaxs sifatida ko‘rsatish uchun turli soxta rivoyatlar to‘qiydi. Shu tariqa uning ichki kechinmalari, yolg‘on ustiga qurilgan shaxsiyati ochib beriladi. Asarda bu obrazga nisbatan uch xil ohang uning o‘z ichki iztirobi, muallifning kinoyali tanqidi va boshqa personajlarning tanbehlariga xos polifonik tasvir yaqqol seziladi. Keltirilgan parcha esa ilm va manfaat o‘rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Unda Abu Rayhon Beruniy obrazining prinsipialligi Unsuriy bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Unsuriy yolg‘on madhiyalar, soxta bashoratlar orqali boylik va e’tibor topadi, hatto zoyicha tuzib, sultonlarga “saodatli onlarni” ko‘rsatib beradi. Beruniy esa bunday yo‘lni rad etib, haqiqatdan chekinmaydi, natijada moddiy ne’matlardan bebahra qoladi. Shunga qaramay, Beruniy uchun eng katta tasalli ilm va ijoddir. U barcha boyliklardan voz kechib, o‘z asarlarini yakunlashni eng oliy maqsad deb biladi. Uning qalbida faqat ilmga sadoqat va yozishni niyat qilgan asarlarini tugallash istagi bor. Shu bilan birga, muallif uning ichki iztirobini ham ochadi: nahotki uning ezgu niyatlari amalga oshmay qolsa, nahotki u haqiqat va e’tiqod yo‘lida “sovuq qafas”da qolib ketsa degan iztirobli savollar o‘quvchini o‘ylantiradi.

Bir qarashda barchasi Beruniy hayollarida kechayotgandek, ammo, Odil Yoqubov ham bu yerda o‘z qarashlari, fikr-mulohazalarini aytayapti, romanni o‘qigan kitobxon ham qahram bilan birga so‘zlayotganday go‘yo. Polifonika bu yerda juda ham go‘zal tarzda ochib berilgan. Poltifonik roman haqida Baxtinning yana bir muhim da’vosi quyidagicha: podaliponik romanda, “bitta qahramonning ongi boshqa ong kabi boshqaning ongida beriladi”. Bu bilan nima demoqchi, bir kishining fikri boshqa inson tomonidan aytiladi. Huddiki, Odil Yoqubov o‘z fikr va g‘oyalarini Beruniy tilidan aytganidek. Polifoniya so‘zining ma’nosi ham aslida “ko‘p ovozlilik” degani. Bir inson jismida ikki shaxs suxbatlashayotganidek, bir biri bilan bahsga kirishgandek bo‘ladi.

Xulosa. Demak, F.Dostoevskiy boshlab bergan polifonik tafakkur tipi o‘zbek adabiyotida keyingi yillarda yozilayotgan romanlarda har xil tovlanishlarda aks etayotgani fikrimizning yorqin dalili desak, xato bo‘lmaydi. Negaki, global va postmodern dunyoda tafakkur qilish va uni ifodalash prinsiplari yangi davr romanchiligida hikoyat va rivoyat shaklllarining yangi moduslarga evrilib borayotganligini to‘laqonli dalolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. va boshq., Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug‘ati. –T.: “Akademnashr”, 2010.
2. Solijonov Yo‘ldosh. XX asring 80-90 yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dok.diss. –T. 2002.
3. Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. Maqolalar, suhbatlar. –:Farg‘ona. 2020.
4. https://sg.docworkspace.com/d/sIDnt98iQApuJlMgG

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MEDIA-SAVODXONLIGI VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Suyunova Dilbar
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Dilmurodova Tursunoy
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
dilmurodovatursunoy32@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili darslarida o‘quvchilarning media-savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Axborot asrida o‘quvchilarni media-matnlarni tahlil qilish, faktlarni tekshirish va manipulyatsiyadan himoyalanishga o‘rgatishning ahamiyati ilmiy va metodik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, darslarda foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol metodlar va media-resurslar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Media-savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ona tili o‘qitish metodikasi, axborot immuniteti, media-matn tahlili, lingvistik kompetensiya, kognitiv ko‘nikmalar, raqamli ta’lim, PISA talablari, manipulyativ texnologiyalar.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan asrda axborot oqimi shiddat bilan o‘sib bormoqda. O‘quvchi har kuni internet, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok) va televideniye orqali ulkan hajmdagi matnlarni qabul qiladi. Biroq, bu matnlarning hammasi ham xolis va to‘g‘ri emas. Shuning uchun, ona tili darslarida faqat grammatik qoidalarni (morfologiya, sintaksis) o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish va tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish davr talabidir[1]. Ona tili fani o‘quvchini fikrlashga, matn ortidagi yashirin ma’nolarni anglashga va o‘z fikrini asosli bayon etishga o‘rgatishi lozim. Ona tili o‘qitish metodikasida media-savodxonlik va tanqidiy fikrlash tushunchalari nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lsa-da, bugungi kunda ta’lim integratsiyasi uchun juda muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy metodikada o‘quvchi matnni faqat lingvistik obyekt (grammatik qoidalar yig‘indisi) sifatida ko‘radi. Biroq, media-savodxonlik yondashuvi matnni ijtimoiy ta’sir kuchi va axborot manbayi sifatida tahlil qilishni talab etadi. Bu esa o‘quvchidan nafaqat savodxonlikni, balki kognitiv tahlil ko‘nikmasini ham talab qiladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. An’anaviy darslarda faqat badiiy matnlar bilan cheklanib qolinadi. Maqolada shuni ta’kidlash kerakki, axborot asrida reklama matnlari, ijtimoiy tarmoq postlari va yangiliklar sarlavhalari ham dars ob’ektiga aylanishi shart. O‘quvchi o‘qiyotgan jumlasi shunchaki tasdiqlangan faktmi yoki kimningdir shaxsiy qarashimi ekanini tahlil qilishi - tanqidiy fikrlashning birinchi pog‘onasi hisoblanadi. Media-savodxonlik faqat o‘qish emas, balki to‘g‘ri va mas’uliyatli kontent yarata olish hamdir. O‘quvchi o‘zi yozish jarayonida axborotning qanchalik oson o‘zgarishi mumkinligini tushunadi. Darsga ataylab xato yoki yolg‘on ma’lumot berilgan matnlarni olib kirish va o‘quvchilarga ulardagi mantiqiy va lingvistik xatolarni topishni topshirish. Bu usul o‘quvchida “sog‘lom shubha” hissini uyg‘otadi va har qanday axborotni tekshirib ko‘rish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. Bugungi kunda ona tili darslarida matn tushunchasini kengaytirishimiz kerak. Ijtimoiy tarmoqdagi post, reklama banneri yoki qisqa videodagi tagso‘z ham dars tahlili ob’ektiga aylanishi lozim. O‘quvchi mumtoz asarni tushunish bilan birga, kundalik axborot oqimidagi tuzoqlarni ham taniy olishi - hayotiy zaruriyatdir. “Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, dars davomida “Insert” yoki “Baliq skileti”(Ishikawa diagrammasi) kabi grafik organayzerlar orqali media-matnlarni tahlil qilish o‘quvchilarning mantiqiy xulosalar chiqarish tezligini oshiradi. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilarida matndagi fakt va subyektiv fikrni ajratish ko‘nikmasi shakllanganida, ularda turli mafkuraviy xurujlarga nisbatan “axborot immuniteti” hosil

[1] Gulyamova Sh.K. Ona tili o‘qitishda media-savodxonlik masalalari. // "Til va adabiyot ta’limi" jurnali. – Toshkent, 2022.
[2] Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy o‘quv texnologiyalari. – Toshkent, 2004.

bo‘ladi. Bu jarayon bevosita ona tili fanining kommunikativ kompetensiya talablariga mos keladi”. O‘quvchiga “Muallif nima demoqchi?” degan yopiq savoldan ko‘ra, “Muallif bu gapni nima maqsadda aytdi va u bizni qaysi his-tuyg‘uga yetaklayapti?” kabi savollarni berish samaraliroq. Mening fikrimcha, darsda xato javob berishdan qo‘rqmaslik muhitini yaratish -tanqidiy fikrlashning birinchi qadamidir. O‘quvchilarda axborotni filtrdan o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantirish uchun “Fakt yoki munosabat” o‘yinini taklif qilaman. Masalan, bitta xabarni olib, undagi quruq faktlarni va muallifning sub’ektiv (shaxsiy) his-tuyg‘ularini ajratib chiqish ona tili darslarining eng qiziqarli qismiga aylanishi mumkin. Darslarda o‘quvchilarga imlo xatolariga boy yoki manipulyativ reklamalarni tahrir qilish vazifasini topshirish lozim. Bu nafaqat til qoidalarini mustahkamlaydi, balki ularda axborotga nisbatan sergaklik uyg‘otadi. Tilni faqat qoidalar yig‘indisi emas, balki hayotni anglash quroli deb bilish kerak.O‘qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi (fasilitator) bo‘lishi kerak. Biz o‘quvchiga nima haqida o‘ylashni emas, qanday o‘ylashni o‘rgatishimiz shart. Shundagina ona tili darsi quruq grammatikadan haqiqiy hayotiy ko‘nikmalar makoniga aylanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi axborotlashgan jamiyatda ona tili darslarining mazmuni tubdan yangilanishni talab etadi. O‘quvchilarga shunchaki grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi, shu sababli dars jarayoniga media-savodxonlik va tanqidiy fikrlash metodlarini integratsiya qilish davr talabidir.[1] Ushbu metodika orqali o‘quvchilarda matndagi asosiy g‘oyani tez tushunish va yolg‘on ma’lumotlarni haqiqatdan ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Tildagi so‘z o‘yinlari va manipulyativ usullarni fosh etish orqali o‘quvchining mantiqiy fikrlashi charxlanadi va ona tili fani bevosita hayot bilan bog‘lanadi. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, ona tili darslarida media-matnlar bilan ishlash o‘quvchini nafaqat savodli, balki har qanday axborot oqimida o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy o‘quv texnologiyalari. – Toshkent, 2004.
2. Gulyamova Sh.K. Ona tili o‘qitishda media-savodxonlik masalalari. // "Til va adabiyot ta’limi" jurnali. – Toshkent, 2022.
3. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022.

DURBEKNING „YUSUF VA ZULAYHO“ ASARIDA ISHQ VA MA’NAVIYAT TALQINI

KDPI va ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi Abduxalilova Sevara
abduxalilovasevara007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Durbekning „Yusuf va Zulayho“ asari badiiy tahlil qilinadi. Asarda ilohiy va insoniy muhabbat uyg‘unligi, sabr-toqat, vafodorlik hamda ma’naviy poklik g‘oyalari yoritilgan. Muallif Yusuf obrazi orqali go‘zallik va komillik timsolini, Zulayho obrazi orqali esa ishq yo‘lida kechgan ruhiy iztiroblar va poklanish jarayonini tasvirlaydi. Maqolada asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda uning Sharq adabiyotidagi o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Yusuf va Zulayho, Durbek, ishq, sabr, vafodorlik, ilohiy muhabbat, badiiy tahlil, obraz, Sharq adabiyoti, ma’naviyat.

Kirish. Bugungi kunda milliy adabiyotimiz va ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosini o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish — eng dolzarb vazifalardan

[1] Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022.

biridir."[1] Ana shunday bebaho meroslardan biri sifatida Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni alohida o'rin egallaydi. Ushbu asarda insoniy fazilatlar, muhabbat, sabr va iymon kabi yuksak qadriyatlar badiiy talqin etilgan bo'lib, u nafaqat o'z davri, balki bugungi kun o'quvchisi uchun ham muhim ma'naviy ahamiyatga ega. „Yusuf va Zulayho" mavzusi mumtoz adabiyotda juda ommabop bo'lib, ko'plab shoirlar tomonidan yozilgan. Eng mashhur o'zbek va turkiy variantlar mualliflari orasida Durbek bu asarni XIV-XV asr, 1409-yilda yozgan. Sharq mumtoz adabiyotida ishq, sabr va ma'naviy poklik g'oyalarini yuksak badiiy talqinda aks ettirgan asarlar orasida Yusuf va Zulayho alohida o'rin tutadi. Bu asar nafaqat diniy rivoyatlarga tayanishi, balki inson ruhiyati, muhabbatning turli qirralari va axloqiy qadriyatlarni chuqur yoritishi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, Durbek tomonidan yaratilgan talqin o'zining badiiy yetukligi, obrazlar tizimi va milliy ruh bilan sug'orilgani bilan ajralib turadi. Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun va mohiyatidagi muhabbat talqinidir.

Foydalanilagan adabiyotlar sharhi. Sharq adabiyotida bu syujet atrofida ko'plab afsonalar va rivoyatlar shakllangan. Syujetning keng yoyilishiga „Tavrot" va „Qur'oni karim" ning katta ta'siri bo'lgan. Muqaddas kitoblarda Yusuf bilan bog'liq voqealar, suralar va tafsilotlar keltirilgan. Balxda Durbek „Yusuf va Zulayho" dostonini yaratadi. U shoirning nomi 1920-yillargacha ilmiy adabiyotlarda tan olinmagan. Uning dostonining qo'lyozmasi topilgach, Durbek ijodi adabiyotshunoslarning e'tiborini tortadi, asardan parchalar chop etiladi. Keyingi yillarda ilmiy jamoatchilik orasida „Yusuf va Zulayho" dostonining muallifi Durbek emas, balki Ulug'bek yoki Homidiy Balxiy bo'lishi mumkinligi haqida fikrlar paydo bo'ladi. Yaqinda chop etilgan o'rta maktab darsliklarida esa bu doston muallifi noma'lum sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, mashhur adabiyotshunos olimlar — Bertels, Hodi Zaripov, F. Shamsiev, Oybek, M. Shayxzoda, O. Sharofiddinov, V. Zohidov, I. Sulton, H. Yoqubov, F. Karimov, A. Qayumov, A. Hayitmetov, N. Mallaev, S. Haydarov va boshqalar — doston muallifi Durbek ekanini ta'kidlaydilar.

Tahlil va natijalar. "Yusuf va Zulayho" qissasi Sharq adabiyotining eng mashhur ishq va axloqiy dostonlaridan biridir. Bu qissa o'zining diniy, ma'naviy va badiiy jihatlari bilan ajralib turadi. Unda Yusuf — go'zal yuzli, soddaligi va samimiyligi ta'riflanadi. U hazrat Ya'qubning o'g'li bo'lib, yetakchi sifatida dono va pokiza qalbga ega. Zulayho esa boy va go'zal xonim bo'lib, Yusufga birinchi qarashdayoq muhabbat qo'yadi. Zulayho Yusufning go'zalligi va saxiyligi oldida o'zini ojizlikka tushirib, unga oshiq bo'ladi. Ammo Yusuf iymoni va axloqini saqlab, uning vasvasalariga qarshi turadi. Zulayho hiyla bilan uni aldamoqchi bo'ladi, lekin Yusuf undan qochadi va pokligini yo'qotmaydi. Voqealar davomida Zulayho chin muhabbat va pushaymonlikni anglab, sabr va poklikning ahamiyatini tushunadi. Qissa sabr-toqat, axloqiy poklik va haqiqiy muhabbat darsini beradi.

Zulayho Yusufga oshiq bo'lishi va voqealar rivoji turlicha talqin qilinadi. Masalan, nasriy uslubda yozilgan „Qissasi Rabg'uziy" asarida bu uchrashuv ikki xil shaklda bayon qilingan. Rabg'uziy turli rivoyatlarni o'rganib, ularning qaysi biri haqiqiy ekanini aniq belgilashdan yiroq bo'lgan, shuning uchun bir nechta variantni keltirgan. Unga ko'ra, Zulayho Yusufni tasodifan uchratib sevib qoladi yoki tushida ko'rib, unga oshiq bo'ladi. Boshqa variantlarda esa Yusufning aybdorligi Zulayho makri orqali yuzaga keladi, dramatik talqinlarda esa Nodir kabi vositachi obrazlar ham qo'shiladi. Yusufning Zulayhoga, Zulayhoning Yusufga bo'lgan sevgisi ilohiy ishq timsolidan dalolatdir. Qul Ali Zulayhoning Yusufga bo'lgan muhabbatini tasvirlar ekan, hamma narsadan, hammaning har qanday so'zidan faqat „Yusuf! " degan sado keladi. Ishqning, haq ishqining mukammal timsolini qul Ali quyidagicha ta'riflaydi:

Mushkul holg'a dushdi ul anda keyin,
Bir soatqa ko'rmasa Yusuf yuzin,
Sabri qolmaz, anglamaz kimsa so'zin,
Ne so'zlasa, „Yusuf! " deyu so'zlar emdi.
Ba'd azin tanangdan qon oldirsa,

[1] Shavkat Mirziyoyev. 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvi.

Hajjom aning tomirina nishtar ursa,
Kela el xol qoni oqib yera tomsa,
Yer „Yusuf! “ deyu yozilir emdi.[1]

Xulosa. “Yusuf va Zulayho” dostonining o‘rganilishi adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Syujetning qadimiy ildizlari, muqaddas kitoblar bilan bog‘liqligi va sharq adabiyotidagi turli talqinlari bu asarni nafaqat badiiy, balki ma’naviy meros sifatida ham qadrli qiladi. Turli davrlarda yozuvchilar — Rabg‘uziy, Durbek, Jomiy va boshqalar o‘z nigohida voqeani talqin qilgan, obrazlar va tafsilotlarni yangilab, uni avlodlar uchun jonli va tushunarli qilgan. Syujetning asosiy g‘oyasi — sabr-toqat, axloqiy poklik va chin muhabbat namunasidir. Xulosa qilib aytganda, bu doston inson qalbining poklanish yo‘lini chuqur va ta’sirchan tarzda aks ettiradi. Asarda Yusuf timsolida iffat, sabr va iymonning yuksak namunasi gavdalanadi. Uning nafs va vasvasalarga berilmay, to‘g‘ri yo‘ldan og‘masligi inson uchun ibrat maktabidir. Zulayho esa dastlab hissiyotga berilib ko‘z nuridan ayrilgan bo‘lsa-da, rad etilish va ayriliq azoblari orqali ruhiy kamolot sari yuz tutadi. U Yusufning pok fazilatlarini anglab yetgach, chin muhabbatning asl mohiyati — sabr, sadoqat va ma’naviy poklik ekanini tushunadi. Zulayhoning ko‘z yoshlari, tavbasi va qalb pokligi natijasida uning yana ko‘rish ne’matiga erishishi ilohiy rahmat va kechirimning ramziy ifodasidir. Bu voqea orqali asar inson har qanday xatodan so‘ng ham to‘g‘ri yo‘lni tanlasa, Allohning marhamatiga sazovor bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Yakunda Yusuf va Zulayhoning birlashuvi esa nafaqat muhabbatning g‘alabasi, balki ma’naviy poklanish va komillikka erishgan qalblarning uyg‘unligidir. Bugungi kunda ham o‘quvchida ma’naviy ta’sir uyg‘otadi. Shu bois, „Yusuf va Zulayho“ nafaqat tarixiy manba sifatida, balki insoniy qadriyatlarni anglash va adabiy tafakkur uchun ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan noyob asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmonov, N. (2005). *O‘zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha)*. Toshkent. https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/40834/25990/43304
2. Durbek. (1409). *Yusuf va Zulayho* (qo‘lyozma). Balx.
3. Rabg‘uziy, N. (n.d.). *Qissasi Rabg‘uziy* (2-kitob). https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/40834/25990/43304
4. Bobojon, R. (2000). *Yusuf va Zulayho*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
5. Jomiy, A. (1997). *Yusuf va Zulayho*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
6. Navoiy, A. (2006). *Xamsa*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

TA’LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI INTERFAOL METODLAR

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
o‘qituvchisi D.R. Suyunova
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
23_13-guruh talabasi
Muminova Sevinch Erkin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol usullar tahlil qilinadi. “O‘yinlashtirish”, “Loyihaviy ta’lim

[1] Rahmonov, N. (2005). *O‘zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha)*. Toshkent.

texnologiyasi" "Sinkveyn", "Qismlarni yig'", "O'z xazinangni top", "Bumerang" kabi metodlarning amaliy qo'llanishi hamda ularning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari, ularni dars jarayoniga joriy etish yo'llari va pedagogik samarasi haqida xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Metod**,** "O'yinlashtirish", "Loyihaviy ta'lim texnologiyasi", "Sinkveyn", "Qismlarni yig'", " O'z xazinangni top", "Bumerang".

Muhtaram Prezidentimiz 2023-yil kengashda to'qqizta ustuvor yo'nalishni belgilab bergan. Ulardan birinchisi, metodik asoslarni yangilashdir. Prezidentimiz shunday deydilar: "Ma'naviyat va ma'rifat sohasi uchun metodik qo'llanmalar yaratish hamda soha xodimlarining malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish asosiy vazifalarimizdan biridir". Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo'llanib kelinmoqda. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi o'zbekcha muqobillar ham ishlatiladi. Metod bu - (yunoncha "metodos" - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi)) muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari majmuyidir.[1]

"O'yinlashtirish" bu - o'quv jarayonini o'yin elementlari yordamida qiziqarli qilish usuli. Metodni har qanday ona tili darslarida foydalanish samaralidir. Talabalar va o'quvchilarni faol qatnashishga, motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Namuna – 2ta o'quvchi doskaga chiqadi. Stol ustiga 18 ta har xil rangli kartochkalarni qo'yib, olamiz. Eng qizig'i ranglar almashtirilgan holda bo'ladi. Masalan: sariq rangli kartochkaga qora, qora rangli kartochkaga yashil, yashil rangli kartochkaga pushti, pushti rangliga esa oq so'zlari yoziladi. O'quvchilar rangni emas kartochkaga yozilgan so'zni 45-sekund ichida ajratib berishi kerak. Kim ko'p kartochka yig'gan bo'lsa u g'olib sanaladi. Yutqazgan o'quvchi esa o'qituvchi savoliga javob beradi. Bu metod o'quvchilarda tezkorlik, mantiqiylik, uddaburonlik hislatlarini shakllantiradi.

"Loyihaviy ta'lim texnologiyasi" – mazkur metod Jahon ta'limi standartiga kiritilgan interfaol usullardan biridir. Bunda o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki muammoni hal qilish va loyiha yaratish jarayonida egallashadi. Buning a'nanaviy metodlardan farqi quyidagicha: oddiy darsda - o'qituvchi tushuntiradi - o'quvchi eslab qoladi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasida: o'qituvchi muammoli savol beradi - o'quvchi izlanadi - yechim yaratadi - natijani taqdim etadi. Natija loyiha ishi, portfolio, taqdimot, ijodiy ko'rgazma shaklida bo'ladi. Bu metod o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy bilimga tayanish, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

"Sinkveyn"- fransuzcha - "*cinquains",* so'zidan olingan bo'lib "bosh, asosiy" ma'nosini bildiradi.[2] Sinkveyn - ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish - murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari

Misol uchun besh qatorli she'r shunday ko'rinishda bo'ladi:
1-qator mavzu bir ot bilan ifodalanadi.
Ona tili
2-qator ikkita sifat bilan ifodalanadi.
Boy, go'zal,
3-qator uchta harakat bildiruvchi so'zlar ya'ni fe'llar bilan ifodalanishi kerak.
O'rgatadi, boyitadi, birlashtiradi.
4-qator to'rtta mavzuga mos munosabat bildiruvchi so'zdan tarkib topadi.
O'zbek tilim faxrimdur, milliy

[1] B. To'xliyev. M. Shamsiyeva , T. Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-yil, 42-bet

[2] A. G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshqalar "Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012-yil, 364-bet.

5-qatorda mavzuga doir bitta sinonim so‘z ishlatiladi.
Zabonim.

“Qismlarni yig‘”- bu ta’limdagi interfaol usullardan biri bo‘lib, u ingliz tilida “Jigsaw method” nomi bilan mashhur. Bu metodda o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi va tushunchalar birlashtirilib yagona xulosaga kelinadi. Misol uchun birinchi ma’lum bir surat tanlanadi. Unga savollar yoziladi va bo‘laklarga bo‘linadi. O‘quvchilar uni qaytadan yig‘ib savollarni tuzib, javob berishadi. Bu metod kognitiv faollikni oshiradi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, sinfdoshlar bilan hamkorlikni oshiradi.

“ O‘z xazinangni top”. Metod qanday o‘tkaziladi? Dars boshida stol ustiga kattaroq quti qo‘yiladi, qutida “Bizning kelajagimiz siri” deb yozilgan. Savol-topshiriqlar yozilgan kalitlar quti atrofida, yoki doskada , istasangiz har bir o‘quvchiga berib chiqiladi. O‘quvchilar javob berish orqali kalitlar yig‘iladi. Barcha kalitlar yig‘ilgandan keyin o‘quvchilar qutini ochishadi. Masalan; quti ichida: Mustaqillik ramzi rasmlari bo‘ladi. O‘qituvchi shunday deydi: “Biz mustaqillik eshigini ochish uchun bilim, birlik va mehr kerakligini ko‘rdik. Har biringizning qo‘lingizdagi kalit - bu Vatan kelajagi uchun qo‘shgan hissangizdir. Aslida eng ulug‘ xazina-mustaqilligimizdir”. Bu metod orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, vatanga va ilmga bo‘lgan muhabbat shakllanadi.

Bumerang”. Bu texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: Dastlab o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi. O‘quvchilar dars (mashg‘ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi. Ularga mustaqil o‘rganish uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatib olinadi. Berilgan matnlar o‘quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi. So‘ngra har bir guruh a’zolaridan yangi guruh tashkil etiladi. Yangi guruh a’zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so‘zlab beradilar, matnni o‘zlashtirib olishlarishga erishadilar. Berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o‘tkaziladi, guruh a’zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar. Yangi guruh a’zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar. Darsning qolgan jarayonida o‘quvchilar bilimlarini baholash yoki to‘plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda “guruh hisobchisi” tayinlangan bo‘ladi. O‘quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadilar, og‘zaki so‘rov o‘tkazadilar. Har bir guruh a’zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holda bittadan savol tuziladi. Keyin esa guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi (“guruh hisobchilari” berilgan javoblar bo‘yicha ballarni hisoblab boradilar). Guruh a’zolari tomonidan to‘plangan umumiy ballar yig‘indisi asosida g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning faolligini kuchaytirish hamda mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. “O‘yinlashtirish”, “Loyihaviy ta’lim texnologiyasi” “Aql xaritasi”, “Sinkveyn”, “Qismlarni yig‘”, “Bumerang” va “O‘z xazinangni top” kabi metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijodiy yondashuvi, tanqidiy fikrlashi hamda hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, interfaol yondashuvlar zamonaviy ta’lim standartlariga mos bo‘lib, dars jarayonining sifatini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Umuman olganda, interfaol metodlarni ta’lim tizimiga keng joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012-yil, 359-365-bet.
2. B. To‘xliyev. M. Shamsiyeva , T. Ziyodova “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-yil, 42-44-bet
3. N. Abdullayeva “Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar”. Toshkent: Fan va Ta’lim, 2020-yil
4. https://uz.wikipedia.org
5. https://t.me/+ODNNV7witG4zOTcy

MADANIYATLARARO IJTIMOIY-MADANIY MUAMMOLARGA METODIK YONDASHUVLAR

Tursunova Javhar Bakir qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
javhartursunova@gmail.com

ANNOTATSIYA. O‘*zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quvchilarning muloqotga kirishish jarayonida mavjud madaniy farqlar kommunikatsiya jarayonida tushunmovchiliklarga olib keladi. Ushbu maqolada shu kabi ijtimoiy-madaniyat bilan bog‘liq muammolar va ularni qanday hal etish haqida fikrlar ilgari surilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *zamonaviy til ta’limi, milliy-madaniy materiallar, ta’lim bosqichlari, lingvokulturologik leksika, muloqot jarayoni, ijtimoiy maqom*

АННОТАЦИЯ. *При обучении узбекскому языку как второму языку культурные различия, существующие в процессе общения учащихся, могут приводить к недопониманию в коммуникации. В данной статье рассматриваются подобные социокультурные проблемы и предлагаются пути их решения.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *современное языковое образование, национально-культурные материалы, этапы обучения, лингвокультурологическая лексика, процесс общения, социальный статус*

ANNOTATION: *when teaching Uzbek as a second language, existing cultural differences in students’ communication processes can lead to misunderstandings. This article discusses such socio-cultural issues and suggests ways to address them.*

KEYWORDS: *modern language education, national-cultural materials, stages of education, linguocultural vocabulary, communication process, social status*

K**IRISH**

Tillarni o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni balki madaniy va ijtimoiy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning turli madaniy muhitdan kelib chiqishi ularning muloqot jarayonida muayyan qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Bu holat ko‘pincha ijtimoiy-madaniy tafovutlar bilan bog‘liq bo‘lib, nutqni tushunish, to‘g‘ri ifodalash va muloqotga kirishishda turli tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. O‘zbek tili darslarida bunday muammolarni bartaraf etish o‘qituvchidan nafaqat tilni o‘rgatish, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy kontekstni ham to‘g‘ri yetkazishni talab etadi. Shu sababli ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy til ta’limining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Asosiy qism

Tilni o‘rganish shu tilning madaniy bilimlarini tushunish bilan uzviy bog‘liqdir**.[1]** Suhbatdoshning madaniy qobilyatini tushunish, aloqalarning o‘zaro bog‘liqligi nutqiy muloqotni samarali amalga oshirishga ko‘mak beradi. Shuning uchun ham milliy-madaniy materiallardan foydalanish bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish va o‘quvchining nutqini o‘stirishda ahamiyatlidir. Ushbu ta’lim bosqichining asosiy xususiyatlari:

- autentik til materiallarining mavjudligi;

- o‘rganilayotgan til madaniyati haqida kerakli materiallarni kiritish;
- qo‘shimcha foydalanish uchun matnlarning mavjudligi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilini o‘rgatishda o‘quvchining madaniy to‘siqlarga duch kelishi tabiiy va bu muammolar quyidagicha aniqlanadi:

1. Rus va o‘zbek tillaridagi madaniyatlararo muloqot jarayonida;
2. Lingvokulturologik leksikalarda
3. Maqol va iboralarda
4. Matnlarda uchragan milliy-madaniy xususiyatlarda
5. Lakuna va realiyalarda
6. O‘zbek tilida muloqot jarayonida.

O‘zbek tili qadimdan tadrijiy shakllanib kelayotgan til bo‘lib, uning rivoji shu xalqning kelib chiqishi, turmush tarzi va madaniyati bilan bog‘liq holda davrlar osha shakllanib, bugungi holatga keldi. Shuning uchun ham uning madaniy fonida shunday til birliklari mavjudki, bu boshqa tilda o‘z ekvevalentini topmaydi. Bunday til birliklari verbal yoki noverbal tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbeklarda har bir gapda ijtimoiy maqom inobatga olinadi:

“Sizga og‘ir bo‘lmasin”, “Akajon, salom”, “Domla, izn bersangiz...”

“Siz”, “aka”, “jon”, “muhtaram”, “hazrat” kabi iboralar hurmat ifodasidir.

Rus tilida esa oddiy, soddalik ustunlik qiladi:

“Привет, Иван”, “Ты как?” — bu yerda ism bilan murojaat, hatto kattalarga nisbatan ham mumkin. Ijtimoiy maqom unchalik kuchli emas, har kim bilan bir xil tonda gaplashish odatiy hol.

Farqning tub ildizi shundaki, o‘zbek tilida qadimiy sharqona ijtimoiy tuzilma (katta-kichik, ustoz-shogird) aks etadi; rus tilida esa ko‘proq g‘arbona, tenglikka asoslangan madaniyat mavjud.

Bu kabi madaniyatlarning bir-biridan farqlarini o‘rganish shu til vakili bilan muloqot qilish jarayonini osonlashtiradi va ijtimoiy muhitga singib ketishga yordam beradi. Bugungi kunda rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy muammolar uchraydi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar uchun yetarlicha til muhiti mavjud emas.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolar tadqiqot ishining bugungi o‘zbek tili ta’limida ahamiyati juda katta ekanligini ko‘rsatadi. Chunki ko‘rsatilgan muammolar aynan milliy-madaniy kontekst doirasida yuzaga kelgan.

O‘zbek tili ta’limida o‘quvchilar duch kelayotgan muammolarning aksariyati milliy-madaniy materiallar bilan ishlash metodikasining kamligi natijasida yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muammolar ortib bormoqda. Negaki, milliy-madaniy materiallar o‘quvchiga tilni ijtimoiy jarayon bilan birgalikda o‘rganish imkoniyatini berishi bilan ham qiziqarli bo‘ladi va bu tilni o‘zlashtirishda o‘z samarasini beradi.

Zamonaviy dunyoda til ta’limi madaniy xilma-xillik, texnologiya va o‘quvchilarning o‘ziga xos tajribalari ta’siri ostida shakllanadi.**[2]** O‘qituvchilar ushbu omillarni qabul qilib, samarali til o‘rganish muhitini yaratishlari lozim. Madaniyat, texnologiya va turli xil o‘quvchilar tajribalarini til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish orqali ular o‘quvchilarning global jamiyatda ishonchli va malakali til foydalanuvchilariga aylanishlariga ko‘maklashadilar.**[3]** Bu faqatgina ushbu omillarni tan olish bilan cheklanmay, balki ularni til ta’limining asosiga chuqur va ongli ravishda tatbiq etishni talab qiladi. Natijada, o‘quvchilar faqat yangi tilni o‘rganib qolmay, balki kelgusida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va munosabatlarni ham shakllantiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010
2. Islomova, N. *Multimodal yondashuv orqali chet tilini tinglab tushunishni o‘rgatish metodikasi*. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy ishlari to‘plami, 2020. 12(1), 60-68.
3. Kramsch C. Culture in foreign language teaching. Iranian Journal of Language Teaching Research, 1 (2) (2013), pp. 57-78.

4. https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/9205

YUSUF VA ZULAYHO MAVZULARI AKS ETGAN ASARLARNING QIYOSIY TAHLILI

Baxtiyorova Zaxro Farxod qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
birinchi bosqich talabasi
bakhtiyorovazakhro1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf va Zulayho obrazlari aks ettirilgan badiiy asarlarning Sharq mumtoz adabiyotidagi talqinlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi, ulardan anglashilgan mazmun chuqur tahlil qilinadi, hamda ulardan olinadigan tarixiy, diniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va ma'naviy ozuqa yoritib beriladi. Shuningdek, Nosiruddin Rabg'uziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Durbek kabi shoirlarning ''Yusuf va Zulayho'' dostonlari shakliy va g'oyaviy jihatdan o'zaro qiyoslanadi. Bundan tashqari, bu asarlarni badiiy adabiyotda tutgan o'rni, yozilgan davri, tili va janri xususida tadqiqot olib boriladi.

Kalit so'zlar: Yusuf va Zulayho, ishq, ilohiy muhabbat, sabr, sadoqat, komillik, tasavvuf, axloqiy g'oya, ruhiy poklanish, diniy qissa, ilohiy manba, xalqona uslub.

Аннотация: В данной статье в сравнительном аспекте изучаются интерпретации художественных произведений, отражающих образы Юсуфа и Зулейхи в восточной классической литературе. Глубоко анализируется их смысловое содержание, а также раскрывается историческое, религиозно-просветительское, воспитательное и духовное значение, извлекаемое из этих произведений. Кроме того, поэмы «Юсуф и Зулейха» таких поэтов, как Носируддин Рабгузий, Абдурахман Джами, Алишер Навои и Дурбек, сопоставляются с точки зрения формы и идеи. Также проводится исследование их места в художественной литературе, времени создания, языка и жанровых особенностей.

Ключевые слова: Юсуф и Зулейха, любовь, божественная любовь, терпение, верность, совершенство, тасаввуф, нравственная идея, духовное очищение, религиозный рассказ, божественный источник, народный стиль.

Abstract: This article presents a comparative study of artistic works depicting the images of Yusuf and Zulayha in Eastern classical literature. The underlying meanings of these works are deeply analyzed, and their historical, religious-educational, moral, and spiritual significance is explored. In addition, the epics "Yusuf and Zulayha" by poets such as Nosiruddin Rabg'uziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, and Durbek are compared in terms of their form and ideological content. Furthermore, the study examines their place in literature, the period in which they were written, as well as their linguistic and genre characteristics.

Keywords: Yusuf and Zulayha, love, divine love, patience, loyalty, perfection, Sufism, moral idea, spiritual purification, religious narrative, divine source, folk style.

Kirish. ''Yusuf va Zulayho'' qissasi Sharq adabiyotining eng qadimgi va serqirra syujetlaridan hisoblanib, uning ildizlari ilohiy manba – Qur'oni karimdagi ''Yusuf''surasiga borib taqaladi. Mazkur qissa o'zining boy ma'naviy-axloqiy mazmuni, insonga xos bo'lgan his-tuyg'ularning murakkab tasviri hamda ilohiy ishq konsepsiyasini ifodalashi orqali asrlar davomida ko'plab adiblar ijodida qayta ishlanib, turli badiiy talqinlarda namoyon bo'lgan. Xususan, Nosiruddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy hamda Durbek kabi yirik ijodkorlar ushbu syujetni o'z davrining ijtimoiy-madaniy muhitidan kelin chiqib, o'ziga xos tarzda talqin etganlar. Bu asarlarda voqealar tizimi saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning janriy xususiyatlari, til imkoniyatlari va g'oyaviy yo'nalishida farqlar seziladi.

Bugungi kunda ''Yusuf va Zulayho'' mavzusining qiyosiy o'rganilishi nafaqat adabiy an'analarning uzviyligini aniqlash, balki turli davr va makonlarda shakllangan estetik qarashlarni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu syujetning arab, fors-tojik va turkiy adabiy muhitlarda qayta talqin qilinishi uning ko'plab qirralarini, badiiy imkoniyatlarini to'laqonli ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi- ushbu syujet asosida yaratilgan asarlarning g'oyaviy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning Sharq adabiyotidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi. Go'zallik timsoli, poklik, sabr-toqat va yuksak aql egasi bo'lgan, Qur'oni karimda ismi zikr etilgan Yusuf alayhissalom va johillik, nafsga qullikdan so'ng sabrli va taqvoli ayolga aylangan Zulayho obrazlari aks etgan asarlar nafaqat qadimda bugungi kun uchun ham tarbiyaviy-axloqiy manba vazifasini o'tab kelmoqda. Bu asarlarni o'rganish yuzasidan ko'plab tadqiqotlar va ilmiy ishlar olib borilgan va hali ham davom etib kelmoqda. Jumladan, Termiz Davlat Universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi Abdivohidova Surayyo Nabi qizi o'zining ''Yusuf va Zulayho qiyosiy tahlil'' nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: ''Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonidagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya'qub payg'ambarning nafsi-jonning moddiy tomonidir. Xotin timsolida insonni istak va g'azabga tortadigan hislarning badiiy ifodasi berilgan. Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi-muhabbat izhor qilishi insonda istak-xohishning ma'naviy tomonidir. Yusufning xotindan o'zini olib qochishi va uning xohish-irodasiga ko'nmasligi aqlning o'z olamida ustuvor turishi, hissiyotning quli bo'lmasligining ramzidir. Yusufning vazirlik va taxtga o'tirishi, oliy kamolotga erishishi va o'sha kamolotga aql, sabr-toqat sabab bo'lganligini aniq tasvirlaydi. Abdurahmon Jomiyning uchinchi dostoni bo'lmish "Yusuf va Zulayho" 1483-yilda yozilgan bo'lib, sharqda bu dostonning judayam ko'p variantlari mavjud. Jomiyning ushbu asari adabiyotshunoslar talqinicha, taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo'lmay, aksincha insonni yuksak tuyg'ular yo'lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o'tgan musaffo muhabbat g'alabasini madh etuvchi jo'shqin asardir. Ogahiy tarjimasi uchun asos qilib olingan Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostoni fors-tojik va turkiy tillarda bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali, ayni zamonda badiiy jihatdan eng kuchlisi hisoblanadi.

"Yusuf va Zulayho" dostonlarida Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramon Zulayhoni go'zal qiz sifatida tasvirlaganlar. Durbek xotin-qizlar latofati va zakovatini yangi jihatlar bilan boyitgan, Zulayho timsolida sadoqatli sevgi sohibasi obrazini yarata olgan."

FDU filologiyasi fakulteti o'zbek tili 3-bosqich talabasi Mohinur Hamdamova o'zining "Yusuf va Zulayho obrazlarining qiyosiy talqinlari" nomli maqolasida Alisher Navoiy bu dostonga qanday yondashganligini yoritib berish uchun qyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Navoiy ijodiy qarashida Yusuf va Zulayho mavzusi Yusuf (a.s) haqidagi rivoyatlar asosiga qurilgan. U Yusufni "insoniyatning eng go'zal vakili" deb ta'riflaydi. Bir rivoyatda Yusuf oynaga qarab "Agar men qul bo'lsam, kim menga baho bera oladi?"-deb faxrlangan. Uning go'zalligi shunchalik yuksakki, go'zallikning yuzta qismidan to'qson to'qqizi unga berilgani aytiladi. Yana bir manbada aytilishicha, odamlar uning jamolini ko'rib hushidan ketmasligi uchun bir necha qatlam pardalar ostiga yuzini yashirib yurgan, Misr xalqi ochlikka duchor bo'lganida esa bir pardani ko'targanda odamlar yetti yil mobaynida uning husniga mahliyo bo'lib yashagan.

Yusufning o'zini oynada ko'rib faxrlanishi xalq og'zaki ijodida uchraydigan motiv bo'lib, oynaga qarash go'zallikning timsoli hisoblanadi. Shoir bu holatni insonda kibr va o'ziga berilganlikning yomon oqibatlari orqali ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, kibrlanishning jazosi muqarrar bo'ladi. Yusuf qul sifatida sotiladi.

Navoiy "Yusuf va Zulayho" dostonlarining ko'plab variantlarini bilgan. Dostonlarda boshida berilgan Yusufning tushining oxirida amalga oshishi an'analari Navoiyning asarida ham davom etadi."

BuxDU Filologiya fakulteti birinchi bosqich magistranti Rajabova Muqaddas Mahmud qizining "Yusuf va Zulayho turkumidagi dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari" nomli maqolasida Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asaridagi Yusuf alayhissalom haqidagi bobini quyidagicha yoritib beradi: " Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" payg'ambarlar hayoti va karomatlariga oid bo'lgan 72 qissa mavjud bo'lib, "Qissasi Yusuf"

syujetli asari “Qissasi Rabg’uziy” tarkibida o’n sakkizinchi o’rinda kelgan va hajm jihatdan barcha qissalardan kattadir.

Rabg’uziy Qur’oni Karimda zikr qilingan “Nahnu naqqusi alayka ahsanal-qissosi” ya’ni “Biz senga eng yaxshi qissani bayon qilmoqchimiz” oyati karimasiga asoslanib, “Yusuf qissasi” ni “Ahson ul-qasas” ya’ni “Qissalarning eng yaxshisi” deb atagan. Rabg’uziyning talqinicha, Ya’qub alayhissalom 6 xotinida 12 o’g’il ko’radi. Har ikkala asarda ham Yusuf –Ya’qub yalavochning o’n birinchi o’g’li. Qul Ali dostonida ham, Rabg’uziy qissasida ham Yusuf timsoli go’zalligi, yuksak aql-idroki bilan boshqa birodarlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham u otasining suyuklisi hisoblanib, Ya’qub shu farzandini o’zidan hech uzoqlashtirmaydi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotda “Yusuf va Zulayho” mavzusining Sharq mumtoz adabiyotidagi talqinlarini o’rganish uchun kompleks yondashuv asosida bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida “Yusuf va Zulayho” mavzulari aks etgan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Durbek va Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziy kabi buyuk ijodkorlar asarlari tanlab olindi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Abdurahmon Jomiy o’z asarida ilohiy ishqqa urg’u bergan, insondagi yuksak tuyg’ular, komillikka intilish masalalari yetakchilik qilgan.

Durbekning qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonida esa insondagi go’zallik, chiroy, sadoqat va latofat Zulayho obrazida gavdalantirilib uni suyukli rafiqa, vafoli va zakovatli yor timsoli sifatida e’tirof etilgan. Hamda xaloskorlik, sabr-u matonat ham e’tibordan chetda qolmagan.

Ushbu qissa Alisher Navoiy asarida esa boshqa dostonlarga qaraganda ixcham tasvirlangan. Navoiy bu qissaga tarixiy-biografik jihatdan yondashib asosiy e’tiborini undan olinadigan ibratga qaratadi. Shuningdek, go’zallik timsoli sifatida Yusufning naqadar ko’rkamligini badiiy jihatdan chiroyli tarzda yoritib beradi.

Rabg’uziy mazkur qissani o’zining “Yusuf va Zulayho” dostonida qayta tasvirlar ekan, uni sodda va rivoyaviy tarzda bayon qiladi. Hamda insonlarga xulq-atvor, sabr-toqat va iymonning mukammalligini Yusuf (a.s) timsolida gavdalantiradi. Bu asarlar tahlilidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, har bir davr va ijodkorning o’z Yusufi va Zulayhosi bo’lgan.

“Yusuf va Zulayho” qissasi talqinlariga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo’lsak, Sharq mumtoz adabiyotida uch xil uslubda - diniy-didaktik, tasavvufiy-badiiy va tarixiy-axloqiy shakllarda talqin qilinganligini ko’rishimiz mumkin. Uchalasida ham Yusufning komil insonligi, ilohiy ish, Zulayhoning gunohlari uchun tavbasi va Yaratganning har bir bandasi uchun adolati g’oyaviy jihatdan markazda turadi va har bir asar uchun, avvalo Qur’oni karimdagi “Yusuf” surasi asos qilib olinadi.

Natijalar bo’limi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ijodkorlar talqini asosida yaratilgan dostonlarning har biriga o’zgacha uslubda yondashilgan. Har bir doston g’oyaviy va badiiy xususiyatlari orqali mutoalaa qiluvchi uchun ibrat vazifasini bajaradi, komillikka intilishda ruhni tarbiyalaydi, qalbni poklaydi va yuksak ma’naviy ozuqa bag’ishlaydi.

Muhokama bo’limi. “Yusuf va Zulayho” mazsusi turli davrlarda ijodkorlar tomonidan talqin qilingan va yuksak badiiy mahorat bilan yoritib berilgan. Bu syujet asosida yaratilgan dostonlarning har biri uslub va g’oyaviy jihatdan bir-biridan farqlanadi. Bilamizki, sabr-toqat, taqvo, adolat va go’zallik insoniylikning bezagidir. Biz buni Yusuf alayhissalom timsolida ko’rdik. Shunindek, ijodkorlar Zulayho timsolida gavdalantirgan latofatli ayol, sadoqatli sevgi sohibasi obrazi ham turli davrlar ijtimoiy-ma’naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Bu dostonlarning yana bir muhim tomoni shundaki, ular Yaratganga bo’lgan ilohiy ishqni ta’riflaydi.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz joizki, “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlar adabiyotimizdagi eng durdona asarlar bo’lib, o’zining diniy-ma’rifiy, axloqiy xususiyatlari bilan alohida o’rin tutadi. Qalblarimizda iymon nurini taratadi, doim yaxshilik va to’g’rilikka intilishga undaydi. Bu asarlar nafaqat mazmunan, balki shaklan ham boy va serqirradir. Mazkur tadqiqot

ushbu dostonlarning qiyosiy o’rganilishi orqali uning adabiy taraqqiyotdagi o’rnini aniqlashga xizmat qiladi hamda kelgusida yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishga nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Rabg’uziy, Nosiruddin Burhonuddin. Qissasi Rabg’uziy.-Toshkent: Fan,1990.

2. Abdurahmon Jomiy. Yusuf va Zulayho.-Toshkent: Adabiyot va san’at.1989.

3. Alisher Navoiy_Tarixi anbiyo va hukamo.-Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot nashriyoti,1997.

4. Nosuriddin Rabg’uziy. Qissasi Rabg’uziy.2-kitob.-Toshkent:Yozuvchi.1991.

5. Durbek. Yusuf va Zulayho.-Toshkent. O’zbekiston fanlar akademiyasi,1959.13-bet.

O‘ZBEK TILIDA MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING NUTQDAGI FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.

Aminova Feruza Uktamjon qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida modal so‘zlarning lingvistik tabiati, semantik tasnifi hamda nutq jarayonidagi funksiyalarining ilmiy-nazariy va amaliy tahlili ko‘riladi. Modal so‘zlarning nutqda qo‘llanishi misollar asosida tahlil qilinib, gap mazmuniga ta’siri ochib beriladi. Maqolada modal so‘zlarning boshqa til birliklaridan farqli tomonlari ham ko‘rsatilib, nutqni tashkil etishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot o‘zbek tilshunosligida modallik kategoriyasini yanada chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: modal so‘zlar, modallik, nutq, pragmatika, semantika, subyektivlik, kirish so‘zlar, lingvistik.

Kirish. Til – insonparvarlik faoliyatining asosiy vositasi bo‘lib, unda nafaqat moddiy obyektiv borliq, balki so‘zlovchining ushbu borliqqa bo‘lgan subyektiv munosabati ham o‘z ifodasini topadi. Nutq jarayonida fikrning aniqligi, ishonchliligi, shubhaliligi yoki zarurligi kabi ma’nolarni ifodalashda modallik kategoriyasining o‘rni beqiyosdir. Modallik tilning muhim semantik-pragmatik kategoriyalaridan biri bo‘lib, u orqali so‘zlovchi o‘z fikriga nisbatan turli munosabatni bildiradi.

O‘zbek tilshunosligida modallik masalasi keng o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa, modal so‘zlar ushbu kategoriyaning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Modal so‘zlar so‘zlovchining bayon etilayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini – ishonch, gumon, taxmin, shubha, tasdiq, fikrni xulosalash, tartiblash, dalillash kabi ma’nolarni ifodalovchi birliklar hisoblanadi.

Shu bilan birga, modal so‘zlar grammatik apparati gap bo‘laklari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri sintaktik aloqaga kirishmaydi, biroq ular gap mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi hamda gap

mazmunini turlicha semantik yo‘nalishda boyitadi, ammo ta’kidlash lozimni modal so‘zlar gapning umumiy mazmunini o‘zgartirib yubormaydi.

Bugungi kunda til so‘zlarning moddiy grammatikasi, balki funksional-pragmatik jihatdan o‘rganish ishlaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy lingvistikada til birligi faqat struktura emas, balki nutqdagi qo‘llanishi va kommunikativ vazifalari asosida tahlil qilinadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek tilida modal so‘zlarning lingvistik materialini ochib berish, semantik turlari hamda nutqdagi funksional jihatini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek tilshunosda modal so‘zlar va modallik kategoriyasi masalasi ko‘plab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu masala tilning semantik va pragmatik mahoratini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Qalandar Sapayev o‘zining “Hozirgi o‘zbek tili” asarida modallikni gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini bildiruvchi modallik kategoriyasi har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi [1].

Qalandar Sapayev modal so‘zlarga quyidagicha ta’rif beradi: o‘zbek tilida fikrning voqelikka munosabatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi alohida so'zlar borki, ular modal so'zlar nomi bilan yuritiladi [1]. Demak, modal so‘zlar milliy grammatik birlik bo‘lib, nutqdagi subyektiv vosita sifatida qaraladi.

Ba’zi hollarda esa mustaqil so‘zlar ham nutqda modal ma’no kasb etib, tasdiq, ta’kid yoki ajratish kabi semantik ranglarni ifodalashga xizmat qiladi. Biroq bunday birliklar hali to‘liq modal so‘zlar qatoriga o‘tmagan bo‘lib, faqat ma’lum nutqiy vaziyatlardagina shu vazifani bajaradi. Q.Sapayev bunday so’zlarga ot, sifat, ravish, fe’l so’z turkumlaridan olingan *aftidan, ehtimol, afsus, aslida, tabiiy, shubhasiz, ayniqsa, aytmoqchi* kabi so‘zlarni kiritadi. Solishtiruv: 1. *U nigohini bir nuqtaga qadab* ***so‘zsiz*** *qotib turardi.* 2. *U o‘qishdagi tanlovlarda qatnashadi va,* ***so‘zsiz****, birinchilikni egallaydi.*

Shu bilan birga, modal so‘zlar o‘ziga xos morfologik sintaktik va semantik xususiyatlarini alohida ta’kidlab o‘tadi. Modal so‘zlarning o‘zgarmasligi uning morfologik belgisiga kiradi. Gapning biror bo‘lagiga yoki butun gapga taalluqli bo‘lib, kirish so‘z vazifasida kelishi esa uning sintaktik belgisidir. Modal so‘zlarning aniqlik yoki taxmin kabi modal ma’nolarni anglatishi, mustaqil so‘zlarga nisbatan kamroq nominativlikka, yordamchi so‘zlarga qaraganda ko‘proq mustaqillikka ega bo‘lishi uning semantik belgisidir [1].

O‘zbek tilshunosligida boshqa olimlar ham modal so‘zlarning nutqidagi rolini yoritishda o‘z nazariyalarini bildirib o‘tgan. Jumladan, Ra’no Sayfullayeva so‘z-gap atamasi bilan alohida kategoriya keltirib, unga undov, tasdiq/inkor, taklif-ishora, shuningdek, modal so‘zlarni kiritadi.

Ma’noviy guruhlarga ajratganda madallarga so‘zlovchining bildirilayotgan fikrga munosabati – qat’iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma’noni ifodalab keladigan so‘z, deya ta’rif beradi.

R.Sayfullayeva so‘z-gap vazifasida kela oladigan boshqa so‘z turkumiga mansub so‘zlarni tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘ziga xos nutqiy qo‘llanish natijasi sifatida baholaydi va ularni sof, so‘z-gaplashgan, so‘z-gaplashayotgan, so‘z-gapsimon kabi turlarga ajratadi. Shunga ko‘ra, modal so‘zlarga quyidagilarni misol qilib keltiradi.

Sof modal: *albatta, alhamdulilloh;*

modallashgan: chamasi, *chog‘i, ehtimol;*

modallashayotgan: *balki, hatto, aftidan;*

modalsimon: *shunday qilib, baxtga qarshi, tavba, xudo saqlasin* [2].

Ra’no Sayfullayeva fikriga ko‘ra, modal so‘zlar kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma’nodan alohida bo‘rttirilgan holda yuzaga chiqadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning lingvistik tabiati va nutqdagi funksional xususiyatlarini o‘rganish jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, **qiyosiy tahlil** metodi asosida Qalandar Sapaev va Ra’no Sayfullayeva qo‘llanmalarida berilgan modal so‘zlarga doir nazariy qarashlar solishtirildi. Bu orqali ularning semantik va grammatik talqinlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Shuningdek**, lingvistik kuzatuv** va **amaliy misol tahlili** usuli qo‘llanib, nutq materiallarida modal so‘zlarning qo‘llanish holatlari o‘rganildi va ularning gap tarkibidagi o‘rni tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

O‘zbek tilida modal so‘zlar nutqda so‘zlovchining fikrga bo‘lgan munosabatini turli ma’nolarda ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida Q.Sapayev (2009) va R.Sayfullayeva (2021) manbalaridan olingan ma’lumotlar asosida modal so‘zlarning semantik va funksional xususiyatlari aniqlanib jadvallashtirildi.

Semantik ma’no	Modal so‘zlar	Misollar
Ishonch	Albatta (sof), shaksiz, shubhasiz (vazifadosh)	Albatta, barcha orzularimizga erishamiz.
Gumon	Shekilli (sof), balki, ahtimol, chamasi, aftidan (vazifadosh)	Chamasi, bugub yomg‘ir yog‘adi.

Tasdiq	Darhaqiqat (sof), to‘g‘ri, tabiiy (vazifadosh)	Darhaqiqat, ilmli yoshlar ko‘paymoqda.
Achinish	Attang, afsuski (sof), afsuski (vazifadosh)	Attang, musobaqaga ulgura olmadim.
Quvonch	Xayriyat, nihoyat (sof)	Xayriyat, barcha o‘z vaqtida yetib keldi.
Fikrni dalillash	Masalan, jumladan (sof)	Ajoyib yozuvchilarimiz ko‘p, masalan, O‘tkir Hoshimov.
Fikrni xulosalash	Xullas, demak (sof), umuman (vazifadosh)	Xullas, aytadigan gaplarim shu edi.
Fikr tartibi	Avvalo, avvalambor, qolaversa (s)	Avvalo, insonning qalbi go‘zal bo‘lsin.

Xulosa

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning nutqdagi funksional xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, modal so‘zlar so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ular gapning grammatik tuzilishiga bevosita bog‘lanmagan holda, uning mazmunini boyitadi hamda nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Tahlillar asosida aniqlandiki, Q. Sapaev modallikni asosan funksional nuqtayi nazardan yoritib, modal so‘zlarning aniqlik, taxminiylik, afsuslanish, fikrning o‘zaro munosabati va tartibi kabi ma’no turlarini ajratadi.

Ra’no Sayfullayeva qarashlarida esa modal so‘zlar sintaktik mustaqilligi va so‘z-gaplik xususiyati bilan izohlanadi.

Umuman olganda, modal so‘zlar nutqning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali so‘zlovchi o‘z fikrini aniq, ifodali va ta’sirchan tarzda yetkazadi. Shu bois modal so‘zlarni chuqur o‘rganish o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham — notiqlik san’ati, yozma nutq, tarjima va ta’lim jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili – Toshkent 2009.
2. R.Sayfullayeva. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili – Buxoro 2021.

ADABIYOT DARSLARIDA TALABALAGA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI BERISH VA USING AHALIYATLI JIHATLARI

Sayipova Dilobar Rahimovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
Tel: 99 073 40 61

Annotatsiya Mazkur maqolada adabiyot fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarining fikrlash doirasini kengaytirish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirishdagi ahamiyati, va talabalarni mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajartirishga qiziqtirish kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

Shuningdek, adabiyot fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali tashkil etish shakllari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, nutq madaniyati, badiiy tahlil, talqin, esse, bayon, yozma savodxonlik, taqriz, badiiy tafakkur, estetik did.

Аннотация

В данной статье рассматривается важность самостоятельных учебных заданий по литературе для расширения кругозора, развития речевой компетенции, совершенствования речевой культуры и мотивации учащихся к выполнению самостоятельных учебных заданий.

Также представлена информация о формах эффективной организации самостоятельных учебных заданий по литературе.

Ключевые слова: речевая компетенция, речевая культура, художественный анализ, интерпретация, эссе, утверждение, письменная грамотность, рецензия, художественное мышление, эстетический вкус.

Abstract

This article examines the importance of independent study assignments in literature for broadening students' horizons, developing verbal competence, improving their speech culture, and motivating them to complete independent study assignments.

Information on effective methods for organizing independent study assignments in literature is also provided.

Keywords: speech competence, speech culture, literary analysis, interpretation, essay, statement, written literacy, review, artistic thinking, aesthetic taste.

Bugungi ta’lim jarayonida talabaning faqat darsda olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasligi, balki mustaqil ravishda izlanishi, o‘qishi va xulosa chiqarishi muhim vazifa

hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlari talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, nutq madaniyatini oshiradi va badiiy asarni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Shu sababli mustaqil ta’lim topshiriqlari adabiyot fanining ajralmas va samarali qismi sanaladi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari — bu talabaning o‘qituvchi yo‘naltiruvi asosida, ammo o‘zi mustaqil bajaradigan vazifalar majmuidir. Adabiyot fanida bu topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- badiiy asarni to‘liq o‘qish va tahlil qilish;
- qahramonlar xarakteriga munosabat bildirish;
- referat, taqdimot yoki esse yozish;
- adib hayoti va ijodi bo‘yicha izlanish;
- she’r yod olish va ifodali o‘qish;
- matn asosida bahs-munozara uchun savol tayyorlash;
- badiiy asar bo‘yicha ijodiy ish (sahnalashtirish, rasm, hikoya davom ettirish).

Adabiyot — bu faqat matnni o‘qish emas, balki uni his qilish, tushunish, solishtirish, baholash va hayot bilan bog‘lay olish san’atidir. Dars vaqtida badiiy asarlarning hamma jihatlarini to‘liq yoritish qiyin. Mustaqil topshiriqlar esa talabaga asarni shoshilmasdan o‘qish, fikrlarni qayta ko‘rib chiqish, fikrlariga mos ravishda dalillar toppish, tasvirlanagan voqea-hodisa yoki vaziyatga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish imkonini beradi.

Mustaqil topshiriqlarning ta’limdagi ahamiyati ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashni rivojlantiradi Adabiyot fani mantiqiy mushohada qilishga yo‘naltirilganligi sababli mustaqil ta’lim topshiriqlari, savollar ko‘pincha “to‘g‘ri javob”dan ko‘ra “asosli fikr”ni talab qiladi. Masalan, qahramonning xatti-harakatini baholash, muallif g‘oyasini aniqlash, asarning zamonaviy hayot bilan bog‘liqligini izohlash kabi mustaqil, tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Ta’lim oluvchilar mustaqil ta’lim topshiriqlari ustida ishlar ekanlar, ularda kitobxonlik madaniyati ham oshadi. Doimiy mustaqil o‘qish odati shakllanar ekan, talaba kitob bilan do‘stlashadi. Doimiy kitob mutolaasi o‘quvchilarning so‘z boyligi kengaytiradi, ifodali o‘qish ko‘nikmasi orttiradi, matnni tushunish tezligini oshiradi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlarining yana bir samarali tomoni o‘zaki nutq va yozma savodxonlikni kuchaytiradi.

Ma’lumki, esse, taqriz, fikr-mulohaza, reja asosida hikoya yozish kabi topshiriqlar talabaning yozma nutqini o‘stiradi. Mustaqil ish sifatida aynan shunday topshiriq turlaridan ham foydalanish o‘quvchida fikrni izchil bayon qilish, kirish-xulosa tuzish, dalil keltirish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda badiiy tahlil ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Badiiy asarda obraz, g‘oya, kompozitsiya, badiiy tasvir vositalari (tashbeh, metafora, mubolag‘a va boshqalar)ni mustaqil topish va izohlash talabani tahlilga o‘rgatadi. Bu ko‘nikma keyingi ta’lim bosqichlarida ham juda zarur. Shuning bilan birga badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatni boshqa hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmasligini e’tirof etishimiz joiz.

Adabiyot insonni tarbiyalaydi: vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, sabr, fidoyilik, adolat kabi qadriyatlarni singdiradi. Mustaqil topshiriqlar orqali talaba asardagi hayotiy saboqlarni chuqurroq anglaydi, ularni shaxsiy qarashlari bilan solishtiradi.

Adabiyot fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish natijasida ta’lim oluvchilarda ijodkorlik ham qo‘llab-quvvatlnadi. Ijodiy mustaqil vazifalar (she’r yozish, qahramonga xat, sahna ko‘rinishi tayyorlash, asarga muqobil yakun yozish) talabaning tasavvurini boyitadi va san’atga qiziqishini oshiradi, mas’uliyat va o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Mustaqil ta’lim talabani vaqtni rejalash, vazifani bosqichma-bosqich bajarish, o‘z ishiga tanqidiy qarash va tartibga o‘rgatadi. Bu esa nafaqat adabiyotda, balki barcha fanlarda va hayotda zarur sifatdir.

Mustaqil topshiriqlarni samarali tashkil etish muammolar qarshisida dovdirab qoladigan “ijrochilar”ni emas, balkio‘sha muammolarga yechim taklif qila oladigan ongli, tashabbuskor, tanqidiy, tahliliy, qiyosiy fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalaydigan asosiy mezondir.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari foydali va samarali bo‘lishi uchun, avvalo, topshiriqlar aniq va tushunarli bo‘lishiga e’tibor qaratishimiz kerak. Bunda topshiriqning hajmi, muddati, baholash mezoni kabilar nazarda tutiladi.

Mustaqil ish topshiriqlari talabaning yosh va qiziqishiga mos bo‘lishi, ijodiy yondashuv berilishi, faqat ko‘chirish emas, fikr bildirish talab qilinishi zarur. Shuningdek, talabalar mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarib bo‘lganlarida ularga natijani taqdim etish imkoniyati yaratilishi, masalan, auditoriyada muhokama, taqdimot, debat va hokazo shakllarda tashkil etilishi shart. Va, albatta, baholash adolatli va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi lozim.

Adabiyot fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlari talabani kitobxonlikka, tahliliy fikrlashga, ravon nutqqa va ma’naviy barkamollikka yetaklaydi. Bunday topshiriqlar orqali talaba badiiy asarni chuqur anglab, hayotiy xulosalar chiqaradi, o‘z fikrini erkin ifodalashni o‘rganadi. Shuning uchun mustaqil ta’lim topshiriqlari adabiyot darslarining samaradorligini oshiradigan, talaba shaxsini rivojlantiradigan muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2021.

2. Xudoyberdiyeva D. “Oliy ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. Pedagogika va innovatsiya, 2023, №4.
3. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva,T. Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006 192 b.
4. Q. Husanboyeva, R. Niyoz metova Adabiyot o‘qitish metodikasi / o‘quv qo‘llanma. T.: 2018-yil. – 352 bet.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING LINGVOPRAGMATIK KATEGORIYALARI

Rustamov Mirjalol Azamat o‘g‘li,
Samarqand davlat chet tillar o‘qituvchisi,
mirjalolrustamov9696@gmail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim nazariy muammolardan biri hisoblangan diskurs tushunchasining lingvistik mohiyati, uning matn, nutq, fikr va dialog kabi tushunchalar bilan munosabati yoritiladi. Diskursning pragmatik va kognitiv tilshunoslik doirasidagi talqinlari, uning murakkab kommunikativ hodisa sifatidagi xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada diskurs va matn o‘rtasidagi farqlar “jarayon — natija”, “dinamiklik — turg‘unlik”, “faollik — nofaollik” kabi mezonlar asosida izohlanadi. Diskurs tahlilida muhim o‘rin tutuvchi propozitsiya, referensiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura va inferensiya kabi kategoriyalarning mazmuni ham ochib beriladi. Tadqiqot natijalari diskursni faqat lisoniy birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, madaniy, kognitiv va pragmatik sharoitda amalga oshadigan maqsadli nutqiy faoliyat sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: diskurs, matn, nutq, lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, propozitsiya, referensiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya, kommunikativ vaziyat, nutqiy akt, pragmatik ma’no.

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir.

Diskurs lotincha discursus – muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni muhokamatalab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim demakdir[1]. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog‘langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda.

Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda qo‘llangan: 1) so‘z muqobili; 2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik;

[1] Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат.–Тошкент, Шарқ. 126-бет.

3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri; 4) suhbat; 5) nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi; 6)lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar.[1]

Golland tilshunosi T. A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko‘rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma’noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma’noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta’kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o‘rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – aktual aytilgan matn, ya’ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo‘llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs – suhbat turi[2].

Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr – tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o‘ziga xosligi, aniq adresat, ma’lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi[3].

Diskursning ijtimoiy tabiati yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko‘p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog‘langan bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyligi bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog‘liq. Ma’lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to‘g‘risida mulohaza yuritishga imkon beradi.

Diskurs atamasi subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek, stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko‘rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. Amalda, diskurs – bu matnning shakllanish usulidir.

Diskurs ilmiy atama sifatida sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya’ni strukturasiga, semantik jihatdan mazmun-ma’no planiga, pragmatik jihatidan esa perlokutsiya – xabar planiga ko‘ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi.

---

[1] Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. – С. 37–64.
[2] Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. – С. 372.
[3] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008. – С. 523.

Diskurs – bu til birliklarining ma’lum vaqtda va ma’lum joyda ma’lum maqsad bilan qo‘llanilishi, ularning izchil bog‘lanishidir[1].

Zamonaviy lingvopragmatikaning muhim muammo-laridan biri “diskurs” tushunchasining *nutq, matn, fikr, dialog* kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir.

XX asrning oxirgi choragida tilshunoslikda matn va diskurs tushunchalarini vaziyat kategoriyasiga suyangan holda farqlashga urinishlar bo‘ldi va bu borada Yevropa tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. Shunday, diskurs “matn plyus vaziyat” tarzida va ayni damda matn “diskurs minus vaziyat” shaklida izohlandi[2]. Bunday talqin unchalik ommalashmadi va keyingi ko‘plab ishlarda “diskurs” va “matn” atamasi farqlanmay qo‘llanmoqda.

Matn va uning tahlili kognitiv yondashuvning ma’lum sharoitdagi mezonlari asosida olib borilishi kerak.

“Diskursdan farqli ravishda matn aniq vaqtga qat’iy bog‘langan emas, uning vaqt bilan aloqasi bilvosita namoyon bo‘lish xarakterida bo‘ladi. Matn tabiiy ravishda o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmaydi, balki har qanday eskirishga va parchalanib ketishga mahkum bo‘lgan mavjud obyektlar kabi matn ifodasi –
obyekt materiali qobig‘ida mavjud bo‘ladi. Aslida matn bu vaqtda emas, balki madaniyat ko‘lami vaqtida mavjud bo‘ladi”[3].

Shu ma’noda matn eshitish, eslash, xotirlash maqsadida tuziladi, diskurs uchun bunday xususiyatlar xos emas, u zamonning ma’lum vaqtida mavjud bo‘ladi. Diskurs olingan “ma’lumot”ning grafik belgilari bilan izchil shakllangan videoyozuv yordamida matnga aylanishi mumkin. M. Ya. Dimarskiyning fikricha, faqat matngina ma’lumotlarni to‘play oladi, diskurs esa xabar yetkazishni ta’minlovchi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan matn – birinchidan kelib chiqqan ikkilamchi kommunikatsiyadir[4].

Funksional lingvistikada funksionallik-strukturalilik, jarayon- natija, dinamiklik-turg‘unlik, faollik- nofaollik kabi diskurs / matn mezonlarini belgilashda qarama-qarshilikka asoslangan oppozision yondashuv yetakchilik qiladi. Shunga ko‘ra “matn-natija” tuzilishi va funksional “diskurs-jarayon sifatida” ko‘rinishi o‘zaro muvofiq keladi. Shunday ekan, *gap* matn bilan bog‘liq, *fikr* esa diskursga tegishli hisoblanadi.

[1] Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. – Рязань, 1999. – С. 13.
[2] Ostman J., Virtanen T. Discourse analysis // Handbook of Pragmatics: Manual. – Amsterdam, Philadephia, 1995. – C. 240.
[3] Дымарский М.Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX—XX вв.). – СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999. – С. 42.
[4] O‘sha asar, 43-bet.

Diskursning asosiy kategoriyalari. Har qanday matn/diskursning funksional tahlili ifodaning ma'noviy asoslari diskurs kategoriyalari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Diskurs nazariyasining muhim tushunchalari sifatida *propozitsiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya* va *referensiya* kabilarni ko'rsatish mumkin.

Propozitsiya – qator gaplarning paradigmatik qayta o'zgarishlar bilan aloqador, fikrlarning tasdiq, buyruq, so'roq kabi turli kommunikativ vazifalari bilan o'zaro bog'liq invariant ma'nolaridir. U nutqiy vaziyatni ifodalab, tildagi lisoniy hodisalar vositasida tavsiflash, so'zlovchi yoki yozuvchini fikr ifodalashda asosli dalillar bilan qurollantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. N.Mahmudov "gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma'nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik degan qarashga moyillik bildiradi. Gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo'nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Propozitsiya ma'lum gap semantikasida o'z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi".[1] Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog'liq baholash xarakteridagi tushuncha bo'lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

A.V.Zelenshikov propozitsiyaning 1) haqiqiy ma'noni, 2) gapning mazmuni bo'la oladigan mavhum mohiyatni, 3) so'zlovchining intensional (mental) holatini ifodalovchi sifatida qarab, shunday xulosaga keladiki, propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini aks ettiradi va gapda deskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida ifodalanadi. Fikrning haqiqiy ma'nosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan propozitsiyaning namoyon bo'lish usulini belgilashda so'zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog'liq holda rost yoki yolg'on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e'tibor beriladi[2].

Referensiya – (lot. refere – munosabatda bo'lmoq, taqqoslamoq) lisoniy belgi va shu belgi bilan belgilangan obyekt (nolisoniy voqelik obyekti) o'rtasidagi munosabatdir. Pragmatikada referensiya ancha murakkab tushuniladi. Tadqiqotchilar uning tarkibiga nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan adresant, leksik birliklar, obyektiv voqelik, adresat kabi to'rt komponentni kiritadilar[3]. Pragmatik yo'nalishda referensiya presuppozitsiya bilan bog'liq. Bu ikki kategoriya ham diskurs mexanizmlarining bog'liqligini va nutq subyektlarining o'zaro ta'siri, bir –birini tushunishining eng ma'qul sharoitini tavsiflaydi. Bunday holatda so'zlovchi va adresat voqelik faktlarini bilishiga ko'ra bir xil mavqeda bo'ladi, adresatga yangi ma'lumot berishda

[1] Нурмонов А. Шакл ва мазмун муносабати – лингвистик тадқиқотлар асоси. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2010 №4, – Б. 29.
[2] Зеленщиков А.В. Пропозиция и модальность. СПб.: Изд-во С. – Петербург, ун-та, 1997. – С. 208–209.
[3] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону, Феникс.2008, – С. 519.

referensiya muhim o‘rin tutadi. Bunda “aniq referensiya mavjud obyekt presuppozitsiyasiga tayanadi”[1].

Diskurs nazariyasi va uning asosiy muammolari haqida gapirilganda, diskursning eng muhim kategoriyalari hisoblangan eksplikatura va implikatura haqida ham to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Nutq jarayoni tahlilida diskursda eksplitsitlik va implitsitlik hodisalarini o‘zaro nazariy jihatdan moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Bu esa kommunikatsiya jarayonida propozitsiyaning ifodalanishi faqat til birliklariga bog‘liqlik bilan cheklanib qolmasligini, bunda noverbal vositalarning ham ma’lum darajada o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Kommunikatsiyaning zamonaviy ma’lumot - kod modeli fikr ifodalash uchun kontekstning ichki (kognitsiya) va tashqi (perseptsiya) imkoniyatini qarab chiqishni, inferension mexanizmlarni tavsiflashni taqozo qiladi. Bunda “eksplitsitlik” ma’nosi muhim hisoblanadi.

Ifodalanayotgan fikrning eksplitsitlik darajasi shakliy (xususan, lisoniy) komponentlarning mavjudligiga qarab belgilanadi. Diskurs implikaturasi konvensional aniqlanmagan ma’no va mazmunning asl yo‘nalishlarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

G.P.Grays fikricha, “so‘zlash” va “o‘ylanmoq” o‘rtasidagi chegara zamonaviy lingvopragmatikaning mohiyatini belgilab beradi. Bunda mazmunning ikkinchi yo‘nalishi diskurs kategoriyalari, ma’no va mazmunning muvofiq bo‘lmagan, belgilanmagan konvensional yo‘nalishlarini qarab chiqadigan – *implikatura* bilan shartlangan bo‘ladi.

G.P.Grays nazariyasida *konvensional implikatura* qo‘llanilgan so‘zlarning ma’nosiga qarab belgilanadi. *Kommunikativ implikatura* esa nutqiy vaziyatga bog‘liq holda mo‘ljallangan va nazarda tutilgan fikrlarni ifodalashda ma’noli chekinishga qarab belgilanadi.[2]

Kommunikativ implikatura diskursda implitsit ma’lumotning boshqa turlaridan farqlanuvchi bir qator belgilarga ega. Ular quyidagilar:

– fikr ma’nosidan ularning miqdori chiqariladi;

– ular presuppozitsiyadan farqli ravishda fikr ma’nosidan ajralmas hisoblanadi;

– ular konvensional emas, shuningdek, lisoniy shaklning konvensional qismi hisoblanmaydi.

Inferensiya – bu kognitiv tahlil bo‘lib, adresant nutqida ko‘zda tutilgan maqsad haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan adresat fikr ma’nosini to‘ldiradi. Shakliy intensiyaga *mantiqiy xulosa*, *semantik presuppozitsiya* va *konvensional implikatura*ni kiritish mumkin.

[1] Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 896.
[2] Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Г.П. Грайс; пер. с англ. В.В. Туровского // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.

Bunda deduktiv intensiya xulosa chiqarishning ma’lum turiga asoslanishini, kontekstning ijtimoiy-madaniy, kognitiv, perseptiv va me’yoriy darajalarda kengayishi induktiv shartlanganligini hisobga olish kerak.

Inferensiya va implikatura o‘zaro bog‘liq bo‘lib, unda adresantning shaxsiy tajribasi, vaziyat modeli muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, diskurs zamonaviy tilshunoslikda oddiy nutq yoki matn hodisasi sifatida emas, balki murakkab kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy-pragmatik jarayon sifatida talqin etiladi. U til birliklarining muayyan zamon, makon, vaziyat va kommunikativ maqsad asosida faol qo‘llanishini ifodalaydi. Shu bois diskursni tadqiq etishda faqat lisoniy shaklni emas, balki nutq ishtirokchilarining maqsadi, bilimi, ijtimoiy mavqeyi, kontekst, vaziyat va yashirin ma’no qatlamlarini ham hisobga olish zarur.

Maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, diskurs va matn tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir hodisa emas. Matn ko‘proq kommunikatsiyaning natijasi, nisbatan turg‘un lisoniy birlik sifatida namoyon bo‘lsa, diskurs jarayon, harakat, vaziyat bilan bog‘liq jonli nutqiy faoliyatdir. Shu jihatdan “matn — natija”, “diskurs — jarayon” tamoyili ularning asosiy farqlovchi mezoni sifatida qaralishi mumkin. Diskursning propozitsiya, referensiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura va inferensiya kabi kategoriyalari nutq mazmunining yuzaga chiqishida muhim ahamiyatga ega. Propozitsiya fikrning voqelik bilan munosabatini belgilasa, referensiya til belgisi va obyektiv borliq o‘rtasidagi aloqani ifodalaydi. Eksplikatura va implikatura esa ochiq va yashirin ma’no qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi. Inferensiya orqali adresat aytilgan fikrdan tashqari nazarda tutilgan ma’noni anglaydi. Demak, diskurs tahlili til birliklarining shakliy tuzilishini emas, balki ularning kommunikativ jarayondagi real vazifasini ochib berishga yo‘naltiriladi.

Shunday qilib, diskurs nazariyasi zamonaviy lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik va matn lingvistikasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nutqning mazmuniy, pragmatik, ijtimoiy va kognitiv imkoniyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Diskursni o‘rganish orqali inson tafakkuri, kommunikativ niyati, ijtimoiy munosabati va madaniy tajribasi til vositasida qanday ifodalanishi aniqlanadi. Shu sababli diskurs masalasi bugungi tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат.– Тошкент, Шарқ. 126-бет.
2. Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. – С. 37–64.
3. Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. – С. 372.

4. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008. – С. 523.
5. Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. – Рязань, 1999. – С. 13.
6. Ostman J., Virtanen T. Discourse analysis // Handbook of Pragmatics: Manual. – Amsterdam, Philadephia, 1995. –С. 240.
7. Дымарский М.Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX—XX вв.). – СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999. – С. 42.
8. Нурмонов А. Шакл ва мазмун муносабати – лингвистик тадқиқотлар асоси. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2010 №4, – Б. 29.
9. Зеленщиков А.В. Пропозиция и модальность. СПб.: Изд-во С. – Петербург, ун-та, 1997. – С. 208–209.
10. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону, Феникс.2008, – С. 519.
11. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 896.
12. Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Г.П. Грайс; пер. с англ. В.В. Туровского // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.

TILSHUNOSLIKDA TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLARNING TASNIFI, XUSUSIYATLARI VA NAZARIY ASOSLARI

Haydarova Gulnoza Shopo‘lat qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilining lug‘at tarkibida uchraydigan eskirgan so‘zlar masalasi yoritiladi. Unda eskirgan so‘z va eski so‘z tushunchalari, eskirgan leksikaning turlari hamda ularning paydo bo‘lish sabablari haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, istorizm va arxaizmlar o‘rtasidagi farqlar misollar orqali tushuntirib beriladi. Shuningdek, bunday so‘zlarning hozirgi nutqdagi o‘rni va ahamiyati ham qisqacha izohlanadi. Mazkur maqola tilning lug‘aviy boyligini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: eskirgan leksika, istorizmlar, arxaizmlar, funksional-normativ leksika, passiv lug‘at fondi, semantik arxaizm, leksik arxaizm, tarixiy so‘zlar, til tizimi, leksik-semantik o‘zgarishlar.

ABSTRACT

This article examines the issue of obsolete words in the vocabulary of the Uzbek language. It discusses the division of words into modern and outdated layers, as well as the types of obsolete vocabulary and the reasons for their emergence. Particular attention is given to the differences

between historicisms and archaisms, which are explained through examples. The article also highlights the role and functional significance of such words in contemporary speech. The study contributes to a deeper understanding of the lexical richness of the Uzbek language.

Key words: obsolete vocabulary, historicisms, archaisms, functional-normative vocabulary, passive vocabulary stock, semantic archaism, lexical archaism, historical words, language system, lexical-semantic changes.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема устаревших слов в словарном составе узбекского языка. Анализируется разделение слов на современные и устаревшие слои, а также виды устаревшей лексики и причины их возникновения. Особое внимание уделяется различиям между историзмами и архаизмами, которые объясняются на примерах. Также освещается роль и функциональное значение таких слов в современной речи. Статья способствует более глубокому пониманию лексического богатства узбекского языка.

Ключевые слова: устаревшая лексика, историзмы, архаизмы, функционально-нормативная лексика, пассивный словарный фонд, семантический архаизм, лексический архаизм, исторические слова, языковая система, лексико-семантические изменения.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta’sirini belgilaydi - jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi leksema va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma’lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug‘at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

Tilning leksik sathidagi eskirish istorizmlar va arxaizmlarni yuzaga keltiradi.[1]

Ta’kidlash mumkinki, tilning lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlar, ya’ni eskirish va yangilanish jarayonlari nafaqat tarixiy omillar bilan, balki nutqiy ehtiyoj va kommunikativ muhit bilan ham bog‘liqdir

Hozirgi davr nuqtayi nazaridan so‘z ham, u nom bo‘lib kelayotgan predmet, hodisa ham eskirgan, iste’moldan chiqqan bo‘ladi: karvon, karvonboshi, karvonsaroy; mirshab, mirshabboshi, yuzboshi, mingboshi. Keltirilgan holda so‘zning eskirishi so‘z ifodalovchi hodisa va tushunchaning eskirishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tip so‘zlar eskirgan bo‘lishiga qaramasdan

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.-314 b.

zamonaviy nutq va matnda uchrashi mumkin. So‘z bu holda o‘tmish davr haqida tasavvur uyg‘otish ehtiyoji tufayligina ishlatilgan bo‘ladi.

Shu tufayli bunday leksemalar istorizmlar yoki tarixiy so‘zlar deb yuritiladi.

Istorizmlar ma’nosiga ko‘ra ham, davrga taalluqliligiga ko‘ra ham tarixiy hodisa, ya’ni tarixiy so‘zlardir.

Ikkinchidan, ba’zan narsa yoki hodisalarning, tushuncha yoki tasavvurlarning o‘zi emas, balki uning nomi eskirgan bo‘ladi. Bunday hodisaning sabablari har xil. Bitta tushunchaning qo‘sh nomi bo‘lgan dublet yoki sinonimlardan biri o‘zaro “kurash”da mag‘lub bo‘lib, iste’moldan chiqadi. Masalan, o‘zbek tilida 1920-yillarda ishlatilgan tarh (ayiruv), zarb (ko‘paytuv), jabr (algebra), handasa (geometriya), musallasot (trigonometriya), sarf (morfologiya), nahv (sintaksis) so‘zlari keyinchalik iste’moldan chiqdi va eskirgan so‘zlar qatoriga o‘tdi. Mana shu tip so‘zlar arxaik leksika yoki arxaizmlar deb ham ataladi. Arxaizmlar zamonaviy narsa va hodisalarning eskirgan (eski) nomidir.

Eskirgan so‘z bilan eski so‘z tushunchasini farqlash lozim. O‘zbek tilida hozirda keng qo‘llanuvchi ko‘pgina so‘zlar eski, ya’ni qadimiy so‘zlardir: qo‘l, bel, el, tosh, ol, ber, bir, o‘n, besh, men, sen, u. Ammo bu so‘zlar eskirgan so‘z emas. Demak, so‘z o‘zining tarixiy davri va tilda paydo bo‘lishiga ko‘ra eski bo‘lishi, ammo qo‘llanishiga ko‘ra zamonaviy (funksional) bo‘lishi mumkin. Eskirgan so‘z umumiy tarzda eski so‘zlar fondiga kiradi. Ammo eskirgan so‘z tamoman eski so‘z emas, funksional eskirgan leksemadir. Demak, so‘zlarning eskiligi boshqa, eskirganligi boshqadir.

Eskirgan so‘zlar ikki guruhga ajraladi: istorizmlar, arxaizmlar.

Istorizm - eskirgan so‘z tiplaridan biridir. Tilda istorizmlarni yuzaga keltiruvchi asosiy omili ijtimoiy hayot, davr, tarixiy sharoitdir. Davr o‘tishi bilan muayyan paytda zamonaviy hisoblangan ba’zi predmetlar qo‘llanishdan qoladi. Ular to‘g‘risidagi tasavvurlar eskiradi va tarixiy faktga aylanadi. Natijada bu narsa va hodisalarni ifodalovchi so‘zlarni ishlatish ham susayadi va so‘z asta-sekin til lug‘at sostavining aktiv qatlamidan passiv qatlamiga o‘tadi. Muddat o‘tishi bilan predmet ham, uning nomi ham o‘tmish davr hodisasiga (tarixiy hodisaga) aylanadi, qo‘llanishdan qoladi.

Shu sababli bu tip so‘zlar fanda o‘tmish davr fakti - istorizm, ya’ni tarixiy so‘zlar deb yuritiladi.

Demak, istorizmlar eskirgan narsa va predmetlarning eskirgan, tarixiy nomlaridir. Istorizmlarning yuzaga kelishi, buning sabablari tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangilanish va eskirishlar bilan aloqadordir. Hayot, turmush bir yerda turmaydi. Ijtimoiy-siyosiy hayot, tarixiy ma’lumotlar o‘zgarib, almashinib turadi. Natijada kishilarning moddiy va ma’naviy hayoti,

turmushi, davlat tuzilishi, diniy, etnografik tasavvurlari o‘zgarib, yangilanib boradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar ayrim amal, mansab va unvonlarning eskirishiga olib keladi. Kundalik turmushdagi o‘zgarishlar esa ba’zi ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechaklar, iste’mol mollari, qurol-asboblarning eskirishiga, qo‘llanishdan chiqishiga sababchi bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy tuzum, bu bilan bog‘liq holda kishilarning ma’naviy, diniy, qarashlaridagi o‘zgarish va yangilanishlar bu sohalarga doir hodisalar, tushuncha va tasavvurlarning eskirishi, unutilishiga doirdir. Mana shu asosda ma’lum davrda zamonaviy hisoblangan narsa va hodisalar, tushuncha va tasavvurlar eskiradi, iste’moldan chiqadi va tarix mulkiga aylanadi. Bu bilan bog‘liq holda ularning nomi bo‘lgan so‘zlarning ham zamonaviyligi, aktualligi yo‘qoladi va eskirgan predmet, tasavvur nomiga aylanadi.

Shu tufayli ham istorizmlar ifodalovchi tushunchalar o‘tmish davrga oid hodisadir. Istorizm eski lug‘at birligidir. Istorizm sinxronik nutqda qo‘llanishi va qo‘llana olishga ko‘ra zamonaviydir, xolos. Zamonaviy nutqda qo‘llangan istorizmda eskilik ottenkasi sezilib turadi, so‘z ba’zi hollarda hozirgi davr kishisi uchun tushunilishi qiyin yoki umuman tushunarsiz bo‘lishi ham mumkin. Bunday so‘zlar uchraydigan matnlar maxsus izoh bilan ta’minlanadi.[1]

O‘zbek tili leksikasidagi istorizmlarning quyidagi tiplarini ko‘rsatish mumkin:

I. Ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq so‘zlar:

a) sinflar, tabaqalar, sulolalar nomi: sulton, boy, podshoh, xon, qul, cho‘ri, kanizak, darvesh, g‘ulom, quloq, batrak, aslzoda, boyvachcha, do‘g‘ma (qullar), zamindor (yer egasi), zardushtiy(lar), sunniy, isha, hoqon, hoqonlik, sharif, hokim mushtumzo‘r va b.;

b) mansab, amal, unvonlar nomi: amin, amir, arbob, otaliq, bek, biy, vazir, dasturxonchi, sharbatdor, daftardor, devonbegi, jagirdor, jilovdor, zakotchi, inoq, dorug‘a, inoqi kalon, iqtidor, mehter, yuzboshi, pristav va b.;

v) kasb-hunar va mashg‘ulotlar nomi: axtachi, bojgir, darbon, jallod, jarchi, mirob, sayis, sarrof, farrosh, do‘kondor, bozorchi, sudxo‘r, shotir, shukurchi, hannot va b.;

II. Ba’zi hujjatlar nomi:

vasiqa, murofaa, sanad, mahzar, vaqf, vaqfnoma, yorliq, inoyatnoma va b.;

III. Maktab va maorif sohasiga doir tushunchalar nomi:

mulla, mullabachcha, xalfa (xalifa), otin, otinbuvi, madrasa, mudarris, abjad, haftiyak va b.

IV. Harbiy sohaga oid tushunchalar, qurollar nomi:

[1] O‘zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent: Fan, 1981.-141-b.

shamshir, sovut, nayzabardor, kamon, sadoq (o‘qdon), berdanka (qurol), sarboz, lashkar, navkar, elnavkar, to‘pchiboshi, basqoq (lashkarboshi), gurzi, jiyba (harbiy kiyim), dorug‘a, cherik (lashkar) va b.;

V. Kiyim-kechak, bezak va matolar nomi:

bo‘z, adras, kimxob, banoras, misqoli, qalami, kundal, choriq, zunnor (chilvor), tark (urush kiyimi), taqya, quloh, janda va b.;

VI. Oziq-ovqat va bu bilan aloqador xom ashyolar nomi:

ko‘mach, zog‘ora, yorma, atala, boda (may), alik (yem-xashak), bug‘ro (bir xil ovqat), tutmoch (xamir oshi turi), o‘rkamach (taom turi) va b.;

VII. Uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurollar nomi:

sandal, karson, chig‘iriq, charx duk (dug), kajava, faytun, juvoz, patefon, xallaji, kashkul (sadaqa solinuvchi idish), qo‘sh, omoch va b.;

VIII. O‘lchov va pul birliklari nomi:

botmon, qadoq, chorak tanob, chaqirim, dahsar, pud, misqol, arshin va b.;

IX. Oy, kun, yil va payt nomlari:

barot, muharram, safar, asad, rajab, ramazon, aqrab, qavs, hamal va b.;

X. Diniy tasavvur va aqidalar bilan bog‘liq so‘zlar:

xo‘ja (xoja), eshon, imom, imomat, murid, shariat, g‘azot, shahid, a’lam, qalandar, qozi, pir, zikr, dev, chilton(lar), choryor va b.;

XI. Etnonimlar:

barlos, qipchoq, o‘g‘uz, chigil, yag‘mo, arlot, xitoy, nayman, ming, yuz va b.;

XII. Soliqlar nomi:

aminona, dorg‘ona, mirobona, mushrif, solg‘ut, yasoq, xiroj va b.;

XIII. O‘tmishga oid boshqa predmet va hodisalar nomi:

zindon, qozixona, dumaxona, tarxon, taxt, toj, amirlik, beklik, ark (ichki qal’a), daha, mulki xiroj, mulki xolis va b.

Istorizmlar turg‘un iboralar va birikmalardan ham iborat bo‘lishi mumkin: padari buzrukvor, a’lo hazrat, fotihi muzaffar, farmoni oliy, farmoni humoyun, davlatpanoh, dargohi mukarram, qasri oliy, haq taolo, amri vojib, arkoni harb, arkoni davlat va b.

Qisqartma so‘zlar ham istorizmlar qatoriga o‘tadi: NEP, NEPchi, RKI, GPU, MOPR, KIM, firqo‘m, qo‘shqo‘m va b.

Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda jihati (nomemasi) va

mazmun jihati (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo‘lmay qoladi.[1] Bu to‘liq ma’nodagi istorizm turi bo‘lib, so‘z bilan bog‘liq bo‘lgani uchun leksik istorizm deyiladi. Ba’zan esa so‘z shaklan emas, balki ma’no jihatdan eskiradi. Bunda so‘z yangi davrda yangi ma’noda qo‘llanadi, uning oldingi ma’nosi esa tarixga, o‘tmishga tegishli bo‘lib qoladi. Bunday istorizmlar semantik istorizmlar deb yuritiladi.

So‘zning eski ma’nosi (istorizm):

rais-diniy rasm-rusum nazoratchisi;

arbob -qishloq oqsoqoli, aristokrat;

domull, domla-diniy maktab o‘qituvchisi.

So‘zning yangi ma’nosi (neologizm):

rais-boshliq, kolxoz raisi, majlis raisi, komissiya raisi;

arbob-fan sohasida beriluvchi faxriy unvon;

domla-oliy maktab o‘qituvchisi, ustoz va boshqalar.

Istorizmlar ko‘proq o‘tmish haqida hikoya qiluvchi zamonaviy asarlarda uchraydi. Istorizmdan tarixiy mavzularga bag‘ishlangan badiiy asarlar, tarix va etnografiya fanlariga oid tadqiqotlarda foydalaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda, o‘tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda bunday leksema cheklanmagan darajada ishlatilishi mumkin. Misollar: 1.Dehqonlarning so‘nggi hisoblariga ko‘ra, bug‘doylari besh botmon chiqishi kerak edi (S. Ayn.). 2. Xo‘jayin podshoga o‘lpon to‘laganda biz to‘lamaymizmi? (N. Saf.).

Ayrim polisemantik leksemalarning ba’zi ma’nolari tarixiylashib, boshqa ma’nosi umumiste’molda saqlanib qolishi mumkin. Masalan [millat] leksemasining quyidagi gaplardagi ma’nosiga diqqat qiling: 1.Yoshlar, keksalar, qizlar, juvonlar orasida turli millat vakillari- qozoq, qirg‘iz, arman va yahudiylar ham ko‘rinar edilar (P. Turs.). 2. Millatingni ayt: Ibrohim Xalilulloh millati. (“Diniy rivoyatlar” dan). Birinchi gapda [millat] leksemasining “ tarixan tashkil topgan madaniyati, tili, huduqi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarining umumiyligi asosida vujudga kelgan kishilar guruhi” sememasi voqelangan bo‘lib, leksema neytral leksika tarkibida ushbu sememasi bilan yashasa, ikkinchi gapda uning “biror dinga mansublik” tarixiy sememasi voqelanganligi kuzatiladi. Demak, ko‘p sememali leksemaning ayrim sememalari eskirib, boshqasi yashovchan bo‘lishi mumkin.[2]

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.-314 b.

[2] Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent: “ Fan va texnologiya”, 2009.-120-b.

Istorizm o‘z to‘g‘ri ma’nosi va funksiyasida o‘zgarishsiz qo‘llanganda hech qanday stilistik vazifa bajarmaydi. Unda stilistik bo‘yoq faqat ko‘chma, majoziy ma’noda qo‘llangandagina yuzaga keladi.

Istorizmlardan zamonaviy nutqda foydalanish ma’lum ehtiyotkorlikni talab qiladi. Istorizmdan o‘rinli foydalanish uchun u tegishli bo‘lgan davrni va uning aniq ma’nosini bilish lozim.

Bundan ko‘rinib turibdiki, istorizmlarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash uchun tilni va shu bilan birgalikda tarixiy davrni ham yaxshi bilish kerak. Bu jihatdan anaxronizm hodisasini istorizmdan farqlash lozim. Anaxronizm yangi davr lug‘atiga oid so‘z (nom) ni eski davr narsa va hodisasi nomi o‘rnida ishlatib yuborishdir. Masalan, XV asrga oid turkiy etnonimi o‘rnida o‘zbek so‘zini qo‘llash, o‘rta asrning hukmron sinfi feodal, mulkdor so‘zlari o‘rnida kapitalist so‘zini qo‘llash va b. Anaxronizm nutqiy xatolikdir.[1]

Arxaizmlar

Arxaizm eskirgan so‘z tiplaridan biri bo‘lib, zamonaviy narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir.

Arxaizmlar odatda zamonaviy tilda o‘z sinonimlariga egadirlar. Demak, arxaizmlar anglatgan ma’no tarixiy so‘zlarga o‘xshab tildan va hayotdan chiqib ketmaydi, balki ular anglatayotgan narsa va hodisalar hayotda saqlanib, dastlabki nomi yangi nom bilan almashadi. Masalan, aeroplan so‘zi arxaizmga aylanib, uning o‘rniga samolyot so‘zi kirib keldi; dudoq (lab), yovuq (yaqin) va boshqalar shular jumlasidandir.[2]

Istorizmda predmet yoki hodisaning o‘zi ham, nomi ham eskirgan bo‘ladi, arxaizmda esa predmet yoki hodisa zamonaviy bo‘lib, uning o‘tmish nomi yoki nomlaridan biri iste’moldan chiqadi, eskiradi. Natijada predmet yoki hodisa hozirda yangi, boshqa nom bilan yuritilayotgan bo‘ladi. Shu sababli predmetning eskirgan nomi uning yangi nomi oldida qandaydir notabiiyroq tuyuladi. Mana shu notabiiylik arxaik leksikaning normativ (odatdagi) leksikaga nisbatan olinganda qandaydir eskilik, eskirganlik ottenkasiga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

Arxaik so‘zlar ehtiyoj talabiga ko‘ra zamonaviy-sinxron nutq (tekst)larda ishlatiluvchi, ammo ular zamonaviy norma tarkibiga kirmaydigan so‘zlardir.

Mana shu funksiyasiga ko‘ra arxaizm tamoman unutilgan o‘lik so‘zlardan farqlanadi. O‘lik so‘zlar funksional-normativ jihatdan tamoman eskirgan so‘z tiplaridir. Ularni o‘tmish yoki uzoq o‘tmish davr til namunalarida uchratish mumkin. O‘lik leksika adabiy tilning zamonaviy normasi

[1] O‘zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent: Fan, 1981.-141-b.

[2] Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: Fan, 1992.-109-b.

nuqtayi nazaridan butunlay unutilgan so‘zlardir. Shu sababli bunday so‘zlarning ma’no va funksiyalari ko‘p holda maxsus izohlar va etimologik kuzatishlarsiz noaniq va tushunarsiz bo‘ladi.

Masalan, Alisher Navoiyning quyidagi misralarida o‘lik so‘z namunalari mavjud:

Bir yondin o‘g‘il g‘amu shikanji,
Bir yondin abushqa dardu ranji
(“Layli va Majnun”),
Munosib emas toz boshig‘a toj,
Tumog‘a nutuqchiga ne ehtiyoj
(“Saddi Iskandariy”).

Keltirilgan misralardagi shiskanj-azob, qiynoq; abushqa-er, qari kishi; tumog‘a-qo‘lga o‘rgatib olingunicha qush boshiga kiydiriladigan qayish tumoq; nutuqchi — qushning bir turi so‘zlari hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibi uchun o‘lik leksemalardir.

Arxaizmning eskirganligi bu tip so‘zlarning zamonaviy nutqda qo‘llanish darajasi, narsa va hodisalar nomi sifatidagi holatiga ko‘ra belgilanadi. Bunda individual, juz’iy nutq faktlari emas, ommaviy nutq, so‘zning ommaviy qo‘llanish holati hisobga olinadi. Mana shu nuqtayi nazardan baholanganda arxaik so‘zlar noaktiv so‘zlar bo‘lib, aktiv lug‘at fondidan passiv lug‘at fondiga o‘tgan leksemalardir. Demak, arxaizm tilning passiv lug‘at fondiga kiradi.

Narsa yoki hodisaning o‘zi emas, balki nomi eskirganligi va predmetning hozirda boshqa bir zamonaviy nomga egaligi, uning hozirda boshqacha atalayotganini ko‘rsatadi. Masalan: yo‘qsul (eskirgan nomi)- proletariat (zamonaviy nom), firqa (eskirgan nomi)- partiya (zamonaviy nom), muhandis (eskirgan nomi)-injener (zamonaviy nom), kashshof (eskirgan nomi)- pioneer (zamonaviy nom) kabi. Demak, arxaik so‘z predmet yoki hodisaning qo‘sh nomidan biri bo‘lib, funksional jihatdan eskirgan nomidir. Agarda istorizmlar o‘tmish davr predmet va hodisalarining yagona nomi bo‘lsa, arxaizm zamonaviy, hozir ham mavjud predmet yoki hodisaning nomlaridan biridir. Demak, predmet yoki tushuncha ikki xil – ham tarixiy (arxaik), ham zamonaviy nomga ega bo‘ladi. Bu xususiyat har qanday arxaik so‘zning zamonaviy sinonimi, dubleti, borligini ko‘rsatadi.

Arxaizmning zamonaviy dubleti (sinonimi) bu so‘z ustidan funksional-normativ jihatdan ustun kelgan so‘z hisoblanadi. Arxaizm istorizmdan til aktiv lug‘at sostavida zamonaviy dubleti (sinonimi) bo‘lishi bilan ham farq qiladi.

Arxaizmning o‘rni bilan zamonaviy nutqda qo‘llanishi uni normativ, odatiy leksika bilan yaqinlashtiradi. Uni zamonaviy lug‘atga xos qilib turadi. Bu jihatdan arxaizm normativ, ya’ni zamonaviy (aktual) leksikaga zamondosh bo‘ladi.

Predmet va hodisaning zamonaviy (funksional) nomi uning eskirgan (nofunksional) nomini doimo inkor qiladi, unga normativ jihatdan yo‘l bermaslikka intiladi. Bu oldingi (arxaik) nomning funksional jihatdan passiv lug‘at sostavida qolib ketishiga, odatiy normadan chiqishiga sababchi omildir. Shunday qilib, arxaik leksika predmet va hodisaning amaldagi nomiga nisbatan eskirgan, eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar qatlamidir.

Tilda eskirish turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. So‘z yoki so‘z ma’nolaridan biri eskiradi. Yoxud eskirgan bo‘lak butun so‘z emas, balki uning morfematik tarkibiga taalluqli bo‘lishi ham mumkin. Bunda ba’zi so‘z yasovchi yoki forma yasovchi qo‘shimchalar faoliyati passivlashgan, to‘xtagan bo‘ladi. Shuningdek ba’zi so‘zlarning imloviy yoki talaffuz shakllarining eskirishi ham kuzatiladi. Xuddi shuningdek tilda turg‘un iboralar - frazeologik birliklarning ham eskirishi mavjud va b.

Eskirish lingvistik materialdan qaysi biriga tegishli ekaniga ko‘ra arxaizmlar uch katta gruppaga bo‘linadi: 1).Leksik arxaizmlar; 2) Grammatik arxaizmlar; 3) Frazeologik arxaizmlar.

Leksik arxaizmlar eskirgan materialning xarakteriga ko‘ra o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: leksik arxaizmlar, semantik arxaizmlar. Bu ikki tip arxaizm-so‘z, arxaizm-ma’no deb ham yuritiladi.

Leksik arxaizm-eskirgan so‘z (nom)dir. Narsa yoki hodisaning nomlaridan biri eskiradi, tilning passiv qatlamiga o‘tadi. Leksik arxaizm badiiy yoki ilmiy maqsadlarda o‘tmishga murojaat qilinganda eslanadi, tilga olinadi. O‘zbek tilida 1920-1930-yillarda ishlatilgan, hozirda leksik arxaizmga aylangan so‘zlardan namunalar: dorulfunun (universitet), jabha (front), sho‘ro (sovet), kashshof (pioner), ishtirokiyun (kommunist), sovtiyot (fonetika), uchqich, tayyora (samolyot, aeroportlan), muhtoriyat (avtonomiya), muhandis (injener), baynalminal (internatsional), ijtimoshon (sotsialistik), omiyon (demokratiya), sarmoyado (kapitalist), muxolofot (oppozitsiya), handasa (geometriya), riyoziyot (matematika), hikmat (fizika), muhofazakorlik (konservatizm), musallas (uchburchak), o‘tomoch (traktor), choparxona (pochtaxona), o‘ziqaynar (samavar), o‘zgarish (revolyutsiya), o‘rtoqchilik (kommunizm), yo‘qsillar (proletariat), istehsolot (proizvodstvo), bo‘hron (krizis), irtijo (reaksiya), mujarrad (abstrakt), mubodala (almashish-obmen) va b.

Leksik arxaizm so‘zning, so‘z funksiyasining eskirishi bo‘lsa, semantik arxaizm ko‘p ma’noli so‘z ma’nolaridan birining eskirishidir. Bunda so‘z shakli eskirmaydi, balki so‘z semantik strukturasidagi yacheykalardan biri - ma’no eskiradi. So‘z qobig‘i o‘sha ma’noni endi anglatmaydigan, ifodalamaydigan bo‘lib qoladi. O‘sha ma’noni anglatish so‘zning hozirgi emas, o‘tmish funksiyasi hisoblanadi. Natijada so‘zning o‘sha ma‘nosi eskirgan, endilikda unitilgan bo‘ladi. Masalan, anjuman so‘zi bir kasb egalarining o‘ziga xos yig‘ilishini ham anglatgan.

Hozirda bu ma’no eskirgan; afandi so‘zi avvallari o‘qituvchi ma’nosiga ham ega bo‘lgan. Shuningdek, bayroq so‘zining “bir bayroq tagiga birlashgan, to‘plangan lashkar”, bakovul so‘zining unvon va mansabdan tashqari “oshpaz” ma’nosi ham hozirda eskirgan.

Semantik arxaizmlar so‘z va so‘z leksik ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun leksik arxaizm tarkibiga kiradi. Shu uchun ba’zi semantik arxaizmlar leksik-semantik arxaizm deb ham yuritiladi.

Leksik arxaizmlarga so‘zning shakliy va talaffuz xususiyatlari bilan aloqador bo‘lgan leksik-fonetik, leksik-orfografik, shuningdek aksentologik arxaizmlar ham kiradi.

Leksik-fonetik arxaizmda so‘zning hozirgi shakli o‘tmishdagi shaklidan tarkibidagi ba’zi tovushlarning o‘zgargani bilan farqlanadi. So‘zning avvalgi shakli zamonaviy norma talablari oldida eskirgan hisoblanadi. Masalan, luzum (lozim), luzumsiz (lozimmas), ejod (ijod), ichinda (ichida), o‘ldi (bo‘ldi), o‘lmas (bo‘lmas), ihtirom (ehtirom), igirmak (yigirmoq), ivaz (evaz), zihn (zehn), zalzala (zilzila) kabi.

Leksik-orfografik arxaizm so‘zning eskirgan imloviy shakllaridir. O‘zbek tilining 1935-yili nashr etilgan imlo lug‘atida hegemon (gegemon), hiperbola (giperbola), hipoteza (gipoteza), xo‘rizont (gorizont), ihtirom (ehtirom), yilga (jilga) kabi hozirda arxaik orfogrammalar uchraydi.

Leksik-orfografik arxaizmni tug‘diruvchi omil so‘z talaffuz normalaridagi o‘zgarish va imloviy kodifikatsiyadagi yangicha nuqtayi nazarlardir.

Aksentologik arxaizmni so‘z, ya’ni so‘zning talaffuz tomoni bilan bog‘liq bo‘lgani uchun shartli ravishda leksik arxaizmlarga kiritish mumkin. Aksentologik arxaizm so‘z urg‘ularidagi o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi. So‘z urg‘usi vaqt o‘tishi bilan boshqa bo‘g‘inga ko‘chadi. Urg‘uning oldingi holati eskiradi. Masalan, simvol, epigraf so‘zlari rus tilida avvallari simvol, epigraf deb talaffuz qilingan. Bu talaffuz hozirda eskirgan, arxaik hisoblanadi.

Eskirish so‘zning butun tarkibida emas, balki uning morfematik qismida yuz berishi mumkin. Bunday eskirish grammatik arxaizmni tug‘diradi. So‘z tarkibida hozirda funksional bo‘lmagan, tilning o‘tmish davriga xos bo‘lgan so‘z yasovchi yoki so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha bo‘ladi. Masalan: Nahot bu borada qilgan mehnatim zoe ketdi, deb o‘ylaysen (Odil Yoqubov). Kelgusi avlod tarixga qarab hukm yuritadur, ustod!-dedi. Tarixni esa ilm ahli bitadur... Bunga shubha qilmagaysiz, ustod! (Odil Yoqubov). Puxta o‘ylading mu? Keyin pushaymon chekmaysan mu? (Odil Yoqubov). -Qani ortimdan yur, senga aytadurgan bir so‘zim bor! (Odil Yoqubov). Grammatik arxaizm so‘zga, ya’ni so‘z tarkibiga aloqador bo‘lgani uchun leksik-grammatik arxaizm deb ham ataladi.

Arxaizm va istorizmlarni xronizmdan farqlash lozim bo‘ladi. Xronizm biror voqelik nomini vaqti kelib boshqa bir nom bilan almashtirishdir.

Xronizmlar iste’moldan, qo‘llanishdan chiqqan voqelikning emas, balki mavjud narsa yoki hodisaning almashgan nomidir. Istorizm bo‘lsa qo‘llanishdan chiqqan, tarixga aylangan voqelik nomidir. Xronizm hisoblanuvchi eski va yangi nomlar o‘zaro sinonim bo‘lolmaydi. Arxaizmlar uchun esa o‘zaro sinonimlik xususiyati xos. Mana shu belgilariga ko‘ra xronizm istorizm va arxaizmlardan farq qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan keyin arxaizm va istorizmning o‘zaro farqini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Arxaizmlar hozirda bor narsa-hodisalarning, istorizmlar o‘tmishdagi narsa-hodisalar atamasidir.

2. Arxaizmning zamonaviy qatlamiga oid sinonimi bo‘ladi; istorizmning bunday sinonimi bo‘lmaydi.

3. Arxaizm tilda bor narsa-hodisani atovchi birdan ortiq so‘zning mavjud ekanligi sababli paydo bo‘ladi. Istorizm narsa-hodisaning hozirgi voqelikdan yo‘qolishi sababli yuzaga keladi.

4. Arxaizm o‘z sinonimi bo‘lgan zamonaviy so‘zga nisbatan belgilanadi. Istorizm esa so‘z ataydigan narsa-hodisaning o‘tmishga oidligi bilan belgilanadi.

5. Arxaizm nomlash va uslub jihatdan farqlash vazifasini bajaradi. Istorizm faqat nomlash vazifasini bajaradi.[1]

Arxaizm va istorizmni o‘zaro yaqinlashtiruvchi, ularni bir tushuncha atrofida birlashtiruvchi asosiy belgi har ikkalasining eskirgan, nonormativ leksika ekanidir. Shu tufayli istorizm va arxaizm eskirgan so‘z sifatida tilning passiv qatlamidan o‘rin oladi.

XULOSA

O‘zbek tilida eskirgan so‘zlar muhim o‘rin tutadi va ular tilning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Til doimo o‘zgarib boradi, shu jarayonda ayrim so‘zlar iste’moldan chiqib, eskiradi yoki yangi so‘zlar bilan almashadi.

Istorizmlar o‘tmishda mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarni bildiradi, arxaizmlar esa hozir ham mavjud bo‘lgan tushunchalarning eski nomlari hisoblanadi. Shu jihatdan ular bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, aslida farqli hodisalardir.

Eskirgan so‘zlar orqali nafaqat tilning, balki xalqning o‘tmishi, turmush tarzi va madaniyati haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Shuning uchun bunday so‘zlarni o‘rganish va to‘g‘ri tushunish muhim deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish – Toshkent: 2007.-96-b.

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1992. – 109-b.

2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 314-b.

3 .O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 141-b.

4. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009. – 120-b.

5. Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: 2007. – 96-b.

LINGVOPOETIK TAHLIL – TIL VA ADABIYOTNING BADIIY-ESTETIK HODISASI SIFATIDA

Suyundiqova Maftuna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan nuqtada yuzaga kelgan ilmiy yo‘nalish sifatida tahlil qilinadi. Unda tilning barcha sathlari – fonologik, morfologik va sintaktik birliklarning badiiy-estetik vazifasi keng yoritilgan. Xususan, badiiy matn tarkibidagi tovush takrorlari, leksik vositalar va sintaktik qurilmalarning ifoda imkoniyatlari misollar asosida ochib berilgan. Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asari hamda zamonaviy o‘zbek tilshunos olimlarining qarashlari lingvopoetik yondashuvning nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim manba sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Lingvopoetika, badiiy matn, lingvopoetik tahlil, fonopoetika, morfopoetika, sintaktik poetika, badiiy-estetik vazifa, til sathlari, dominant, intertekstual aloqadorlik, badiiy nutq, poetik vositalar, tahliliy fikrlash, estetik ta’sir.

Lingvopoetika til strukturasining barcha sathlarini qamrab oladi, chunki tilni barcha sath birliklari tinglovchiga ta’sir qilish quvvatiga ega, hatto o‘zi alohida ma’no ifodalamaydigan birliklar va ma’noli birliklar tarkibida kelib ularning semasini farqlash uchun xizmat qiladigan fonemalar ana shunday vazifadan holi emas.

Shuning uchun ham tilning qaysi sath birliklari ekspressiv vazifa bajarayotganiga ko‘ra lingvopoetika ham bir necha ichki qismlarga bo‘linadi. Ular fonopoetika, morfopoetika va sintaktikpoetika va boshqalar. Badiiy nutqni o‘rganuvchi lingvopoetika til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy estetik vazifasini tekshiradi.

Deylik, fonologik sathda fonetik birliklarning badiiy estetik vazifasi,xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanishi she’riyatda ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sifatida qo‘llanishi bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari,

Biz sendan balandroq tura olsaydik,

Biz sendek balandroq yura olsaydik.

Balki o‘ng‘ayardi dunyo ishlari,

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari. (A.Oripov)

Yuqorida keltirilgan parchada ham tovush takrorining bir necha xil ko‘rinishlari kuzatilgan bo‘lib, bu she’rga alohida badiiy-estetik funksiya qo‘shgan.Bundan kelib chiqadiki, lingvopoetik tahlilda butun boshli matndan tortib fonemagacha bo‘lgan qismi tahlil qilinadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilining bir necha asrlik behad boy tarixida badiiy til masalasiga bo‘lgan e’tibor hozirgacha susaygan emas. Birgina A. Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarini olib ko‘raylik. M. Qodirov juda o‘rinli ta’kidlaganidek, “Muhokamat-ul lug‘atayn”ning tilshunos adabiyotshunoslarga o‘rnak bo‘ladigan yana bir xislati bor. Navoiy asarda til masalalarini adabiyotdan –badiiyatdan ajratib, alohida holda tekshirmaydi, tildagi xususiyatlarni badiiy nutq talabiga muvofiq holda ko‘radi. Mazkur asar so‘z, ma’no va badiiyat masalalariga katta mas’uliyat bilan yondashilganligi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.[1] Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini ilmiy asosda o‘rganishning boshlanishi ikki ulkan alloma – adabivotshunos va adib Izzat Sulton va benazir tilshunos Ayub G‘ulomov nomlari bilan bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Ular badiiy tilni o‘rganishning adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillarini ko‘rsatib berishga harakat

[1] Qodirov M. Navoiyning tilshunoslikdagi mahorati. Tilshunoslikning dolzarb masalalari (O‘zMU ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Universitet, 2002. 85-bet.

qilganlar. Lingvopoetikada badiiy asar tili hamda badiiy nutq stilistikasi haqida gap ketganda, R. Qo‘ng‘urov, I. Qo‘chqortoyev, B. Yo‘ldoshev, X. Doniyorov, B. Umurqulov, S. Mirzayev, E Qilichev, S. Karimov, N. Mahmudov kabi ko‘plab olimlarning nomlarini tilga olish mumkin.

Tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdan adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo‘nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko‘rishi lozim.

V.V.Vinogradovning e’tirof etishicha, lingvopoetik tadqiqotlarning vazifasi badiiy adabiyot namunalarida til birliklarining estetik vazifasini o‘rganishdir. Shunday qilib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik uslublarining tutashishi natijasida filologiyaning yangi – lingvopoetika sohasi paydo bo‘ladi va uning predmeti etib, badiiy matnda ishlatilgan til birliklarining majmui bo‘lib, ular yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy-badiiy fikrlarini namoyon etish uchun zarur bo‘lgan badiiy-estetik ta’sirni ta’minlaydi.

Lingvopoetik tahlilning maqsadi – u yoki bu til birliklarining (so‘z, so‘z birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallif tomonidan badiiy ijod namunasiga kiritilishi va ularning o‘ziga xos estetik ta’sirni namoyon etishini aniqlashdan iborat.

Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yo‘ldoshev badiiy matnni tahlil qilish jarayonida eng muhim ahamiyat kasb etuvchi tamoyillar haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili, badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyillari, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.[1]

Lingvopoetik tahlil usuli ilmiy jihatdan asosli bo‘lishiga qaramay, uning bir qator qiyinchiliklari bor. Bu qiyinchiliklar u yoki bu asarga yondoshuv jarayonida ayon bo‘ladi. Chunki bu tahlil usulida har bir she’riy matnda individual tarzda, alohida yondashish talab qilinadi.[2] Ma’lum bir she’riy matn tahlilida zarur, foydali bo‘lgan tahlil usuli ikkinchi bir she’riy matn

[1] Yo‘ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.123-bet.

[2] Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand. 1982.

tahlilida unchalik foyda bermasligi hech kimga sir emas. Bundan ko‘rinadiki, she’riy matnning butun yaxlit lingvopoetik tahlil usuli o‘zining juda ko‘plab ko‘rinishlari va qismlariga ega.

Lingvopoetik tahlilning ana shunday ko‘rinishlaridan biri she’riy matnning so‘zma-so‘z tahlil usulidir. Bu usulda she’riy matnning lingvopoetik tahlili so‘z orqali, she’rning so‘zga bog‘liq misra, qofiya, turoq, ohang, pauza kabi elementlariga suyangan holda olib boriladi. Ammo bu tahlil usulini ham qolip usulida foydalanib, barcha she’riy matnlarga birdek qo‘llash mumkin emas, ya’ni har bir she’riy matn bu tahlil usulida konkret, individual yondashuvni talab qiladi. Zero, adabiyotshunos olima G.Boltayeva aytganlaridek, badiiy matnning lingvopoetik tahlilida erkinlik yetakchi hisoblanadi.

Bu o‘rinda birinchi vazifa tahlil qilinayotgan she’riy matndagi yetakchi so‘zni belgilash, (dominanta)ni topishdan iboratdir. Ana shu dominant belgilar to‘g‘ri va aniq topilsa, lingvopoetik tahlil aniq va ilmiy jihatdan asosli bo‘lib chiqadi.

Masalan, shoir Erkin Vohidovning “Shoir umri” deb nomlangan parodiya she’ridan olingan quyidagi matn parchasiga e’tibor qilaylik:

“Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,

Bir shoir umrini yashadim chindan”.

Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim,

Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.

Do‘stlarim, ortiqcha kamtarlik nega,

Kelajak o ‘n yilni ko ‘rdim oldindan.

Vaqt kelar, yetarman Pushkin yoshiga,

O‘shanda…

Pushkin ham chiqmaydi mendan.

Yuqorida keltirilgan she’riy matnning dominantasi, asosiy belgisi nima, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu matnning yetakchi so‘zlari - ikki shoirning nomi, antroponim (Lermontov, Pushkin), yetakchi belgi esa lirik qahramon “men”ining o‘z-o‘zini fosh etishidir. Ana shu ikki xususiyat bu she’riy matn lingvopoetik tahlilining asosini tashkil etadi.

Demak, bu tahlildan ko‘rinadiki, she’riy matnni yuqoridagi singari yaxlit so‘zma-so‘z lingvopoetik tahlil qilish she’rdagi ko‘zga tashlanmaydigan nozik ma’no qochirimlarini ochib berish uchun boy imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, lingvopoetik yondashuv badiiy matnni o‘rganishda an’anaviy tahlil usullarini boyitadi hamda kengaytiradi. U nafaqat matnning mazmunini sharhlash, balki uning qanday til vositalari orqali yaratilganini, ya’ni “qanday aytilganini” ham aniqlashga qaratilgani bilan ahamiyatli sanaladi. Shu jihatdan lingvopoetik tahlil badiiy asarni kompleks, ya’ni majmua holatida o‘rganishning samarali metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida lingvopoetik tahlildan foydalanish esa o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, nutq madaniyati va estetik didini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. U o‘quvchini matnga ijodiy yondashishga, yashirin ma’nolarni anglashga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tahliliy fikrlash, interpretatsiya qilish va baholash kompetensiyalari ham shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov M. Navoiyning tilshunoslikdagi mahorati. Tilshunoslikning dolzarb masalalari (O‘zMU ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Universitet, 2002. 85-bet.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: “Fan” 2008. 12-15-betlar.
3. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.123-bet.
4. Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand. 1982.
5. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan. 1982.
6. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan. 1990.
7. Mahmudov N. O‘zimiz va so‘zimiz. – Toshkent: 1987.

JAHON ADABIYOTIDA MODERNIZM POETIKASI

Yusupova Gulnoza
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada jahon adabiyotida modernizm poetikasining shakllanish jarayoni, uning falsafiy-estetik asoslari hamda badiiy tafakkurdagi o‘rni tahlil etiladi. Modernizmning yuzaga

kelishida texnologik taraqqiyot, psixoanalitik qarashlar va ijodkor ongidagi tub burilishlar muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, modernistik adabiyotning asosiy xususiyati sifatida obyektiv voqelikdan ko‘ra subyektiv idrokning ustuvorligi, ramziylik, assotsiativ tafakkur va ichki kechinmalar tasviri yoritiladi. Maqolada yapon va koreys she’riyati misolida modernistik poetika elementlari, xususan, ramziy ifoda, ruhiy dramatizm va qisqa shakllarda chuqur mazmun berish an’analari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, modernizmga nisbatan mavjud qarama-qarshi munosabatlar hamda uning o‘zbek adabiyotidagi aks sadosi muhokama qilinadi. Muallif modernizmni inson ruhiyati va ong jarayonlarini ifodalashda muhim estetik vosita sifatida baholaydi.

Kalit so‘zlar: Modernizm, poetika, badiiy tafakkur, subyektivlik, ramziylik, ruhiy kechinma, syurrealizm, impressionizm, yapon she’riyati, koreys she’riyati, xayku, tanka, modernistik oqimlar, estetik qarashlar, adabiy jarayon, ichki olam, falsafiy tafakkur.

АННОТАТЦИЯ:

В статье анализируется процесс формирования модернистской поэтики в мировой литературе, ее философско-эстетические основы, ее место в художественном мышлении. Технический прогресс, психоаналитические взгляды и фундаментальные изменения в сознании творца считаются важными факторами возникновения модернизма. Также в качестве основных особенностей модернистской литературы выделяются приоритет субъективного восприятия над объективной реальностью, символизм, ассоциативное мышление, изображение внутренних переживаний. В статье на примере японской и корейской поэзии анализируются элементы модернистской поэтики, в частности, традиции символического выражения, духовной драмы и глубокого смысла в кратких формах. Кроме того, обсуждаются существующие противоречивые отношения к модернизму и его отголоски в узбекской литературе. Автор оценивает модернизм как важный эстетический инструмент выражения человеческой психики и психических процессов.

Ключевые слова: Модернизм, поэтика, художественное мышление, субъектность, символизм, духовный опыт, сюрреализм, импрессионизм, японская поэзия, корейская поэзия, хайку, танка, модернистские течения, эстетические взгляды, литературный процесс, внутренний мир, философское мышление.

ABSTRACT:

This article analyzes the formation process of modernist poetics in world literature, its philosophical and aesthetic foundations, and its place in artistic thinking. Technological progress,

psychoanalytic views and fundamental changes in the mind of the creator are considered important factors in the emergence of modernism. Also, the priority of subjective perception over objective reality, symbolism, associative thinking, and depiction of inner experiences are highlighted as the main features of modernist literature. The article analyzes elements of modernist poetics, in particular, traditions of symbolic expression, spiritual drama, and deep meaning in short forms on the example of Japanese and Korean poetry. In addition, existing conflicting attitudes towards modernism and its echo in Uzbek literature are discussed. The author evaluates modernism as an important aesthetic tool for expressing the human psyche and mental processes.

Keywords: Modernism, poetics, artistic thinking, subjectivity, symbolism, spiritual experience, surrealism, impressionism, Japanese poetry, Korean poetry, haiku, tanka, modernist currents, aesthetic views, literary process, inner world, philosophical thinking.

Har qanday yangilikning asosi tafakkur, hayotni idrok etish iqtidori va davrdir. Bu narsa o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki bilim va saviya zaminida hosil bo‘ladi. Kishining bilimi oshgan sari u hayotga o‘zgacha ko‘z bilan qaray boshlaydi. Nimaiki eskisining inkori o‘rniga kelsa, u yangilikdir. Modernizm jarayoni ham shundaydir. XIX asrning o‘rtalariga kelib, ayrim ilg‘or fikrli yevropa ijodkorlari voqelikni tasvirlash, unga “taqlid” qilishdan chekina boshladilar. Ularning nazdida bu ijodkorlar imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Bu borada norveg adibi va munaqqidi

Eslen Xovrdsxolm shunday yozadi: *“Bugun biz shunday san’at bilan ro‘parama- ro‘para kelib turibmizki, bu san’at haqiqatga o‘xshashlik talabini inkor etadi. Bu san’at voqelikni boshqacha tarzda qabul qilishga intiladi. Boshqacha yangiroq so‘z topolmaganlari uchun zamonaviy san’atni “modern san’at” deb atamoqdalar*[1]*”*.

Norman Meyler “Pikassoning yoshligi” asarida modernizmning tug‘ilishini texnologik inqilob bilan bog‘laydi. U: *“Biron-bir masofani faqat ot yordamidagina emas, boshqa vositalar ko‘magida, boz ustiga aql bovar qilmas tezlikda bosib o‘tish mumkin ekan, ijod maydoniga ham boshqacha andozalar bilan yondashmoq kerak, degan tushuncha-aqidalar paydo bo‘ldi”,* – deydi. Ana o‘sha yillari Freyd tushlar ta’birini keng jamoatchilikka o‘ziga xos havola qilgandi. Bu esa ko‘plab ijodkorlarni hayotga yangicha nigoh bilan qarashga unday boshladi. Chunki insonning botiniy olamiga ilk yo‘lak ochilgandi. Azaliy tushunchalar, an’analar chilparchin bo‘lib ketgandi. Bu jamiyatdagi texnikaviy taraqqiyot, badiiy ijod jarayonida ham o‘zgarish yasashga zamin yaratdi.” XIX asr haqiqatining shartli va cheklanganligini anglab yetgan XX asr ijodkorlari dunyo

[1] Jahon adabiyoti.2001.1-son

borliqni bevosita emas, bavosita, ya'ni aqlan emas, aksincha qalban idrok eta boshladilar (Aleksandr Genis). Demak, modernizmning obyekti, real voqelik emas, subyekt ya'ni ijodkorning tasavvuridagi voqelikning talqinidir. Lekin uni lug'aviy ma'nosiga ko'ra (modernizm – fransuzcha modernisme – eng yangi, zamonaviy) butunlay yangi narsa deyish to'g'ri emas. XX asr boshlarida G'arbiy Yevropada adabiyot va san'atda yuzaga kela boshlagan *impressionizm, futurizm, ekspressionizm, unanimizm, syurrealizm* kabi oqimlar uning xamirturushini tashkil qiladi. Masalan, syurrealizm oqimining xususiyatiga ko'ra, uning maqsadida og'zaki, yozma yo istagan boshqa bir yo'l bilan fikrni real qilishni ifodalash, muayyan assotsiativ shakllarning oliy realligiga ishonish, xayolotning qudratiga, fikrning beg'araz o'yiniga, ishonchiga tayanish yotadi. Syurrealistlar aqlga suyanadi, uning qudrati bilan ish ko'radi. Chunki aql kuchigina odam va olam mohiyatini to'g'ri anglashga yordam beradi. Modernizmning yo'nalishi va maqsadi ham shunday. Demak, modernizm shakllanishida katta rol o'ynagan oqimlarning zamirida hayotbaxsh ta'limot mavjud ekan, oqimlarning uyg'unlashgan ko'rinishi bo'lgan modern ruhidagi asarlar zamirida ham odam va olam mohiyatini anglash teran qo'l keladigan muhim fikr va niyat borligi shubhasizdir.

Hayotda har qanday yangilik qarshilikka uchraydi. Bunday bo'lishining ikki sababi bor. Birinchi sababi, o'rgangan an'anadan voz kecholmaslik va uni tushunib yetmaslik oqibatida inkor qilindi. Hozirgi kunda modern ruhidagi asarlarga nisbatan ikki qarash mavjud. Ya'ni modernizm oqimini qo'llabgina emas, uni bugungi o'zbek adabiyotida yetakchi tamoyil bo'lishini istovchi va "modernizm g'arb hodisasi sifatida o'zbek ma'naviy muhitida nash'u namo topa olmaydi… Sharqona islomiy ma'naviyat, o'zbek ma'naviyati bunga yo'l qo'ymaydi, – degan iddao bilan keskin qarshi turuvchilar. Lekin ikkala qarashdagilar ham emaslar. Birinchi guruh bugungi kun adabiyotida kishini o'ylashga, fikrlashga majbur qiladigan, plyuralizmga ega birdan bir oqim – bu modernizm, deb an'anaviy asarlarga, xususan, she'riyatga bepisandlik bilan qarashlari ila haq bo'lishmasa, ikkinchi guruhdagilar esa, oqim bilan uning mahsuli she'riyatga qarashni aralashtirib yuborishgan. Lekin ikkinchi guruhning oqimga qarshi chiqishlarida jon bor. Chunki ko'p modern she'rlardagi tashbehlar o'ta beo'xshov, nafosatdan xoli, fikrlar chaklash, boshqotirma shakldagi, albatta, bunday she'rlar kishi ruhiga singmaydi, tuyg'uga begona bo'lib qolaveradi. Ruhga begona narsada esa, joziba bo'lmaydi. Lekin uning bu tarzda bo'lishiga oqim aybdor emas, balki bu shoirlarning oqimning o'ziga xosligini, maqsadi, mohiyatini anglab yetmaganligining oqibatidir. Chunki bu oqimda millat ruhidan, turmush tarzidan, tabiatidan chekinmay olam-olam ma'noga

ega, go‘zalligi bilan zavqlantiradigan she’r yozsa bo‘ladi. Bunga yapon, koreya shoirlarining she’rlari yaqqol misoldir. [1]

Yapon she’riyati misolida:

Sakutaro Hagivara – yapon erkin she’riyatni an’anaviy qoidalar changalidan ozod etgan va “Yaponiya zamonaviy so‘zlashuv otasi” deb e’tirof etilgan. Uning noyob she’riyat uslubi mavjudlikka bo‘lgan shubhalarni, qo‘rquvlari, g‘azabi, bezovtaligini qorong‘u tasvirlarda jonlantiradi.

Havodagi bo‘g‘ilish

Olis tun, yaltirar qarag‘ay ignalari

Pushaymon ko‘zyoshlar xatdek to‘kilar.

Olis tun, oq osmon sovuq bir rangda

Arqonni jim tutar baland qarag‘ay

Muhabbat tushadi va uning tomon

U esa ibodat qilgan kishiday, osilib turar hamon.

S.Hagivara ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u inson ichki iztiroblarini ochiq bayon etmasdan, ramziy kodlash asosiga quradi. “Havodagi bo‘g‘ilish” she’ri misolida ko‘radigan bo‘lsak, bu siqiqlik va iztirob oddiy ontologik bosim va jismoniy og‘riq emas, ruhiyat manzarasining chizgisidir. Qarag‘ay – lirik qahramon, tun – ruhiy zulmat, arqon – bu ikki tushunchani tutatshtirib turuvchi bog‘liqlik.

Mibu Tadamine – o‘rta asrlar davrining eng yirik, Heian davri shoirlaridan biri. U yapon adabiyotida Thirty-six Immortal Poets – “O‘ttiz olti mashhur shoirlar” ro‘yxatiga kirgan.

Agar

Men oyning shaffof yog‘dusi bo‘la

Olganimda

O‘shanda

[1] Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. H.Karimov. “Yangi nashr”. – T:2010.

Ehtimol, berahm qalbim sohibasi

Har tun faqat meni, meni degan bo‘lar edi.

(Rus tilidan Mirhojiddin Mirzo tarjimasi)[1]

Muhabbat, iztirob, orzu-armon kabi tushunchalar hamisha hamohang bo‘ladi. Qarama-qarshi tuyg‘ular qurshovida muallaq qolgan qahramon esa ruhiy jarohatlar iskanjasidan qutulishning birdan bir yo‘li oyning shaffof yog‘dusi kabi qalbining sohibasi yuragiga iliqlik baxsh eta olishda deb o‘ylaydi. Og‘rinadi, orziqadi.

Nakamura Kusatao – yapon xayku shoiri. O‘z ijodida nozik va insoniy tuyg‘ularni, damba-dam og‘riqlarni-da rang-barang bo‘yoqlar va tasvirlar orqali chizib ko‘rsatadi, umrni fasllarga mengzaydi.

Qish dengizi!

Chag‘alaylar suzar bag‘rida

To‘kilgan xrizantema yaproqlaridek.

Shoir qish dengizi – hayot yo‘lida, chag‘alaylarning suzib ketayotganini o‘z taqdiridan rizo bo‘lib bandidan uzilib ketayotgan xrizantema yaproqlariga o‘xshatadi. O‘quvchida savol paydo bo‘lishi tabiiy, chag‘alaylar nimaning yoki kimning ramzi? Buyog‘ini muallif o‘qirmanning o‘ziga qoldiradi. Quyidagi ikkinchi uchlikda ham “inson umri” tasvirini ilg‘ab olishimiz mumkin.

* * *

Qabr toshi ekan,

Men bo‘lsam, yo‘lko‘rsatkich deb o‘ylabman.

Qish yo‘lidan boraman yolg‘iz.[2]

(Xurshid Davron tarjimasi)

Xokkular – yapon poeziyasining qadimiy va o‘ziga xos janri bo‘lib, hozirgi kunda, “haiku” deb ham ataladi. Uch misradan iborat, qofiyasiz, sodda tuzilishga ega janrdir. Ularda tabiat tasvirlari orqali inson kayfiyati ochib beriladi va shu sababli ham u tasviriy san’atga yaqin turadi.

[1] Ziyouz.uz internet sahifasi
[2] kh-davron.uz

O‘zbek shoirlaridan Rauf Parfi jahon adabiyoti bilan bevosita qiziqqanligi, tarjimalari orqali adabiyotimizni yanada boyitganligining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, shoir yapon mumtoz she’riyati namunalari hisoblangan xokkular – uchliklarning ilk o‘zbek tarjimoni va she’riyatimizda xokku yozish an’anasini boshlab bergan inson hisoblanadi.

Bundan tashqari yapon she’riyatida “qisqa qo‘shiq” ma’nosini beruvchi tanka janri ham mavjud. Tanka yapon she’riyatining o‘zagi va yapon shoirlarining sevimli janri. Xayku 17 bo‘g‘inli, shakli 5-7-5; tanka 31 bo‘g‘inli, shakli 5-7-5-7-7 tarzida bo‘ladi. O‘zbek she’riyatida esa xayku – uchlik, tanka – beshlik ko‘rinishida.

Koreys she’riyati misolida:

Zamonaviy koreys she’riyati G‘arb estetik maktablari asosida shakllanadi va endi musiqa bilan bir changak holda emas, undan alohida holda rivojlanadi. She’riyatda yangi bosqichlar yuzaga keladi. G‘arb modernizmi ta’sirida davr haqiqatlari, yangi ifoda uslublari yuzaga chiqa boshlaydi.

Pak I Do – koreya shoiri, adabiyotshunosi. O‘z ijodida koreys she’riyati an’analarini davom ettirgan va rivojlantirgan. She’rlari modernizm an’analriga boyligi, ruhiyat chizgilariga boyligi bilan ajralib tuardi.

Ilk maktub

Titragan qo‘l bilan

ilk maktub yozgan kun…

Yozolmadim ismingni,

Ayniqsa, “sevaman” so‘zini

va yoqdim u kecha butun

boshlagan maktublarni.

Juda og‘ir bo‘ldi dastlab yara…

Sening isming yozolmadim baribir.

Sevgi – bebaho, nodir tosh,

Rangi qizg‘ishdir uning,

Shafaqqa o‘xshar mudom.

Vaqt o‘tishi bilan o‘chirib bo‘lmas,

Yorqin xayol bo‘ldi sening isming.

Ayni kun bitilgan ilk maktubning ikki qatori

bir shoirning tug‘ilishi bo‘ldi…

Shoir she’r orqali lirik qahramon ruhiyati, dramatizm kayfiyatini ochib beradi. “Yozilmagan maktub” – aslida shoirning tug‘ilishi, iztirobi, muhabbati… Yozmoq istagi va yoza olmaslik azobi, qarama-qarshi tuyg‘ular iskanjasida qolish. Qalb tasvirini bor bo‘yoqlari bilan chizib ko‘rsatishdir.

Shin Kyong-nim – “xalq shoiri” sifatida tanilgan. U yoshligidan Janubiy Koreyadagi qishloqlarga tashrif buyurib an’anaviy qo‘shiqlarni to‘playdi. She’rlarining aksariyati esa o‘sha paytda eshitgan narsalarining zamonaviylashuvini aks ettiradi.

Qamish

Anchadan buyon qamish

yig‘lar jimgina.

Tunlardan bir tun qamish

tanida titroq tuydi.

Va bunga na yel, na oy nuri edi aybdor.

Qamish bilmasdi biroq, bu tan titrog‘i

sassiz yig‘i ekanin

hamda

hayot – aslida beun

o‘z holiga yig‘lamoqligin.

(Rus tilidan Shermurod Subhon tarjimasi)[1]

[1] Ziyouz internet sahifasi

Qamish – inson, sassiz yig‘i esa, anglanmagan dard. Hayot aslida o‘z holiga yig‘lamoq ekanligini ta’kidlash orqali ekzistensial qarashlar aks etgan. Inson borki, ko‘p hollarda sababini bilmay turib azob chekadi.

Bu bilan modernlik faqat dard chekish va iztiroblarga burkanib yashash ekan degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas albatta. Ammo qoliplardan xoli, chegarasizlik har qanday dardmandlikka ham o‘ynoqilik, soflik, tozarish hissini ulashadi. Yuqorida tahlil etganimiz har ikki xalq she’riyatida ham ruhiy manzaralar tasviri goh og‘riqli, goh chigil, goh, murakkab holda aks ettirilgan.

Chinakam adabiyot millat, din va ruh tanlamaydi. Chunki adabiyot – insonshunoslik bo‘lsa, she’r ko‘ngilshunoslikdir. Qalbga esa, buyruq berib, uni yo‘lga solib bo‘lmaydi, hislar, saslar, so‘zlar ham butkul o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi. Umr charxpalagi aylanar ekan, kimdir muallaq, kimdir muvozanatda, biroq asosiy mohiyat harakatdir. Ba’zida inson o‘z og‘riqlaridan ham rohat tuyishi, xayollarga berilib baxtli lahzalarni kechirishi mumkin. Mana shu kechinmalar qog‘oz yuzini ko‘rganinda yurakni sug‘urib olib qo‘yganday, jonli, ta’sirchan shaklda namoyon bo‘ladi. Chinakam she’r yasalmaydi, she’r yashaladi. Bir umr tasviri, bir nafas tasvirini ochiqlaydi. Yasalgan she’rlar sun’iyligicha qolaveradi. Bir “to‘lg‘oq azobini” boshdan kechirgan shoir “farzandlari” esa, ko‘ngil xizmatidan hech qachon tolmaydi ham, tonmaydi ham!

Modernizm she’rining xususiyati haqida **Erling Kristi** shunday yozadi: *“Poeziya voqelikka taqlid qilish emas yoki u voqelikning tafsiri ham emas, poeziya o‘z-o‘zicha voqelikdir, voqelik bo‘lganda ham, amaldagi voqelikdan ortiqroq darajadagi voqelikdir. Unda jo‘nlik pardasini bir chekkaga surib qo‘yib, bizning ongimizning “voqelik” bilan muloqotga kirishmog‘iga yordam beradigan “himoya mexanizmi”ning xatti-harakatini namoyon qilishga intilish tajassum topgandir. Yaxshi asar kitobxon shuurida portlaydigan bir bo‘lak siqiq voqelikdir”.*[1]

Ma’lumki, modern adabiyotning muhim xususiyati muallif asari orqali aytmoqchi bo‘lgan fikrini, ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyasini ramzlarga yuklaydi. Sabab, muammo asar qahramoni qanchalik jumboq boshqotirma bo‘lsa, kitobxonga ham shunday bo‘ladi. Natijada kitobxon bilan qahramon birday o‘yga, mulohazaga beriladi. Ong miya asab tolalaridan oqib, har bir puchmog‘iga

[1] Jahon adabiyoti.2001.1-son.

boradi. Lekin muammo yechimi topilmaydi, kitobxon endi har jumlani, tasvirini sinchiklab, mushohada qilib o‘qiy boshlaydi.[1]

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kattaqo‘rg‘on tumani og‘zaki nutq an’analarida gender stereotiplarning namoyon bo‘lishi hamda ularning nutqiy konstruksiyalar orqali ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida hududiy nutq namunalari asosida erkaklar va ayollar nutqiga xos stereotipik birliklar, kommunikativ strategiyalar hamda lingvokulturologik omillar o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur nutqiy modellarning mahalliy turizm kommunikatsiyasida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, autentik nutq unsurlaridan foydalanish orqali hududning madaniy jozibadorligini oshirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda sotsiolingvistik, diskursiv va pragmatik yondashuvlar asosida tahlil olib borilib, natijada mahalliy nutq an’analarini turizm sohasiga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq an’analari, gender stereotiplar, nutqiy konstruksiyalar, sotsiolingvistika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya, pragmatika, hududiy dialektlar, kommunikativ strategiyalar, turizm kommunikatsiyasi, madaniy meros, autentik nutq, mahalliy identitet.

Kattaqo‘rg‘on tumani og‘zaki nutq an’analari o‘zining boy lingvokulturologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda shakllangan nutqiy muhit asrlar davomida ijtimoiy hayot, urf-odatlar, milliy qadriyatlar hamda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar asosida rivojlanib kelgan. Og‘zaki nutq nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy rollar, xususan, genderga oid tasavvurlarni ifodalovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois Kattaqo‘rg‘on tumani og‘zaki nutqida gender stereotiplarning aks etishi va ularning nutqiy konstruksiyalar orqali ifodalanishini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Hududiy nutq an’analarida erkaklar va ayollar nutqi o‘rtasida muayyan farqlar kuzatiladi. Erkaklar nutqi ko‘pincha qat’iy, buyruq ohangiga yaqin, qisqa va aniq ifodalar bilan xarakterlansa, ayollar nutqida muloyimlik, hissiylik va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan ifoda vositalari ustunlik qiladi. Masalan, ayollar nutqida iltimos, murojaat, hurmat bildiruvchi birliklar ko‘proq uchrasa, erkaklar nutqida ko‘proq hukm, maslahat yoki yo‘naltiruvchi konstruksiyalar qo‘llanadi. Bunday farqlar jamiyatda shakllangan gender stereotiplar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular til orqali avloddan-avlodga o‘tib keladi. Shuningdek, og‘zaki nutqda ishlatiladigan frazeologik birliklar, maqol va matallar ham gender stereotiplarning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Kattaqo‘rg‘on hududiga xos bo‘lgan ayrim iboralar ayollarning sabr-toqatli, muloyim bo‘lishi yoki erkaklarning kuchli va mas’uliyatli bo‘lishi haqidagi qarashlarni mustahkamlaydi. Bu esa nutq orqali ijtimoiy rollarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqiy konstruksiyalar nuqtai nazaridan qaralganda, genderga xos ifodalar turli pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, ayollar nutqida yumshatuvchi vositalar (modal so‘zlar, ehtimollik ifodalovchi birliklar) ko‘proq qo‘llansa, erkaklar nutqida aniqlik va qat’iylikni bildiruvchi konstruksiyalar ustunlik qiladi. Bu holat muloqot jarayonida ijtimoiy masofani belgilash, suhbatdoshga nisbatan munosabatni ifodalash va kommunikativ samaradorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, gender stereotiplar va nutqiy konstruksiyalarni chuqur tahlil qilish asosida turizm sohasida samarali kommunikativ strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Masalan, gidlar nutqida hududiy iboralar va madaniy kontekstni hisobga olgan holda ma’lumot berish, mehmondo‘stlikni ifodalovchi nutqiy formulalardan foydalanish turistlar bilan muloqotni yanada samarali qiladi. Bundan tashqari, mahalliy nutq elementlarini turistik brendingda qo‘llash hududning o‘ziga xosligini namoyon etishga xizmat qiladi.

Gender stereotiplarning nutqda aks etishi jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy ierarxiya bilan chambarchas aloqador. Bu stereotiplar ko‘pincha bevosita emas, balki bilvosita – kinoya, ishora, ohang va kontekst orqali ifodalanadi. Masalan, Kattaqo‘rg‘on hududida ayollar nutqida ko‘pincha ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan strategiyalar ustunlik qiladi. Ular suhbat jarayonida kelishuvni ta’minlash, ziddiyatni yumshatish va hurmatni ifodalashga intiladi. Buning uchun “agar mumkin bo‘lsa”, “yaxshisi shunday qilsak”, “siz qanday o‘ylaysiz?” kabi yumshatuvchi konstruksiyalar keng qo‘llanadi. Erkaklar nutqida esa aksincha, qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan, aniq va qisqa ifodalar ko‘proq uchraydi. Bu esa

jamiyatda erkaklarning yetakchilik roli bilan bog‘liq stereotiplarning til orqali mustahkamlanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi nuqtai nazaridan, mazkur mavzuni o‘rganishda dala tadqiqotlari (intervyu, kuzatuv, audio yozuvlar), diskurs tahlili va sotsiolingvistik usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Real nutq namunalarini yig‘ish va ularni tahlil qilish orqali gender stereotiplarning haqiqiy ko‘rinishini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, respondentlar orasida turli yosh, jins va ijtimoiy qatlam vakillarini qamrab olish tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi. Yakuniy jihat sifatida shuni ta’kidlash joizki, Kattaqo‘rg‘on tumani og‘zaki nutq an’analari – bu nafaqat tilshunoslik uchun qimmatli manba, balki hududning madaniy brendi sifatida ham muhim resursdir. Gender stereotiplar va nutqiy konstruksiyalarni chuqur o‘rganish orqali nafaqat ilmiy natijalarga erishish, balki ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, xususan, mahalliy turizmni rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Kattaqo‘rg‘on tumani og‘zaki nutq an’analari doirasida gender stereotiplar va nutqiy konstruksiyalarni o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari mahalliy turizmni rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash va uni keng targ‘ib qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bektoshova L. “Ta’limda gender yondashuvining nazariy asoslari.” Toshkent, 2020. – 216 b.

2. Johnson D. W., & Johnson, R. T. “Cooperative Learning and Teaching Strategies.” New York: McGraw-Hill, 2018. –119 b.

3. Brown H. D. “Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy.” Pearson Education, 2017. – 146 b.

4. Ellis R. “Task-Based Language Learning and Teaching.” Oxford: Oxford University Press, 2021. – 127 b.

5. Uzbekistan Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Ta’lim texnologiyalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.” Toshkent, 2022. – 81 b.

SIYOSIY DISKURSDA METAFORANING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

F.J. Yakubov
KatDPI Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada metaforaning siyosiy lingvistika hamda siyosiy kommunikatsiyadagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, siyosiy diskursda eng ko‘p uchraydigan g‘arb va rus olimlari tavsiya qilgan metaforik modellar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: metafora, metaforik modellar, siyosiy diskurs, siyosiy kommunikatsiya, siyosiy
tilshunoslik.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — metaforaning siyosiy lingvistika va siyosiy kommunikatsiya tizimidagi o‘rnini aniqlash, hamda siyosiy diskursda qo‘llaniladigan ayrim metaforik modellalarni tahlil qilishdan iborat.

Metafora siyosiy nutqda nihoyatda muhim rol o‘ynaydi. Uni o‘rganish bilan ko‘plab tilshunos olimlar shug‘ullanib kelmoqda.

Tilning siyosiy maqsadlarda qo‘llanishini o‘rganuvchi fan siyosiy lingvistika deb ataladi. Ayrim olimlar fikriga ko‘ra, siyosiy lingvistika bir tomondan, tilshunoslikning mustaqil shakllangan yo‘nalishi, ikkinchi tomondan esa siyosiy muloqotni o‘rganish bilan bog‘liq umumiy ilmiy sohani ifodalaydi.

Siyosiy nutqda metafora qo‘llanilishini rus tilshunosligida A. N. Baranov, Yu. N. Karaulov, A. P. Chudinov, E. Yu. Alyoshina, E. V. Budaev, P. I. Bulgakov, N. V. Budakova, E. V. Dzyuba, M. V. Larionova va boshqalar o‘rganishgan.

Tilning siyosiy maqsadlarda qo‘llanilishi masalalari bilan shug‘ullanadigan tilshunoslik bo‘limi *siyosiy tilshunoslik* deb ataladi. E.Yu. Alyoshinaning fikricha, siyosiy tilshunoslikni, bir tomondan, tilshunoslikning alohida shakllangan yo‘nalishi, ikkinchi tomondan esa, siyosiy kommunikatsiyani o‘rganadigan fan deb, belgilash mumkin [Alyoshina 2014:].

A.P.Chudinov siyosat tili siyosiy muloqot jarayonida - siyosiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi [Chudinov 2008: 31]. Siyosiy arboblar uchun muloqot markaziy o‘rin tutadi, chunki uning vazifalari hokimiyatni qo‘lga kiritish va saqlab qolish xususiyatiga ega - bu maqsadlarga faqat shaxslararo muloqot orqali erishish mumkin.

Siyosiy tilshunoslik masalalarini muhokama qilish doirasida A.P.Chudinov "siyosiy diskurs" atamasini eng muhim tushuncha deb hisoblaydi.

Siyosiy til asosan **siyosiy muloqot jarayonida**, ya’ni siyosiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotda namoyon bo‘ladi. Rahbarlar va xalq o‘rtasida muloqot juda muhim, chunki hokimiyatni qo‘lga kiritish va uni saqlab qolish aynan muloqot orqali amalga oshiriladi. Siyosiy kommunikatsiyadagi metafora XX asrning o‘rtalaridan boshlab o‘rganila boshlandi va unga qiziqish tobora ortib bormoqda. Konseptual metafora nazariyasi (J. Lakoff) hamda diskursiv tahlil usullarining paydo bo‘lishi metaforaga bo‘lgan bunday qiziqishning oshishiga xizmat qildi. Jorj Lakoffning yozishicha,"moddiy ob'ektlar bilan ishlash tajribasi juda ko'p turli xil ontologik metaforalar uchun asos yaratadi, ya'ni, hodisalarni, faoliyatni, hissiyotlarni, g'oyalarni va hokazolarni moddiy shaxslar va moddalar sifatida qabul qilish usullarini vujudga keltiradi" [Lakoff, Jonson 2004: 50].

J. Lakoff fikricha, juda xilma-xil ontologik metaforalar ko‘plab maqsadlarga xizmat qilishi mumkin [o‘sha yerda]. Olim turli ontologik metaforalar yordamida ochib beriladigan va avtonom mavjudot sifatida tushuniladigan "inflyatsiya" tushunchasiga misol keltiradi. Inflyatsiya kuchayishi, insonni tushkunlikka tushirishi, uni qiyin ahvolga solib qo‘yishi, hamyonini bo‘shatib qo‘yishi mumkin, inson inflyatsiya bilan kurashishi, uni yengishi, e’tiborsiz qoldirishi yoki keskin munosabat bildirishi va h.k. Bu misollarning barchasi inflyatsiya kabi mavhum tushunchaga nisbatan ontologik metaforalardan foydalanish, uni qandaydir avtonom mavjudot sifatida idrok etish bu hodisani insonga yanada tushunarli qilishini ko‘rsatadi.

J. Lakoff ontologik metaforadan foydalanish "tajribamizni oqilona idrok etish" uchun zarur degan xulosaga keladi [Lakoff, Jonson 2004: 51]. Uning ta’kidlashicha, ontologik metaforalar insonga dunyoqarash modellarining tabiiy, ajralmas qismi bo‘lib tuyuladi, shuning uchun ular metafora sifatida sezilmaydi. A.N. Baranov va Yu.N. Karaulov atamalaridan foydalanib aytadigan bo‘lsak, gap til amaliyotiga ancha kirib ulgurgan va maqsadi adresatga hissiy ta’sir ko‘rsatish emas, balki faktni qayd etishdan iborat bo‘lgan "eskirgan" yoki "urfdan chiqqan" metaforalar haqida bormoqda. A. N. Baranov va Yu. N. Karaulov o'zlarining “Rus siyosiy metaforalari lug'ati" da [1994] qayta qurish davrida (alifbo tartibida berilgan) shakllangan siyosiy tilning quyidagi eng keng tarqalgan metaforik modellarini nomlashadi: URUSH, GEOMETRIYA, O'YIN, MEXANIZM, ORGANIZM, PERSONIFIKATSIYA, YO'L, TRANSPORT VOSITASI, QURILISH.

Olimlar metaforik model deganda metaforaning kognitiv talqinida faqat manbaning tushunchaviy sohasini tushunadilar [Baranov, Karaulov 1994]. Tadqiqotchilar 1986 yildan 1993 yilgacha to'plangan siyosiy metaforalar bilan 9525 kontekstni tahlil qildilar va eng keng tarqalgan metaforik model personifikatsiya metaforasi, ya'ni jonsiz narsa, ob'ekt yoki hodisani jonli deb tushunish degan xulosaga kelishdi. Aynan shu model 912 ta holatda qo‘llanilgan.

A.N. Baranov va Yu.N. Karaulov tomonidan ajratib ko‘rsatilgan barcha metaforik modellarni siyosat sohasidagi ontologik metaforalarga kiritish mumkin. Metaforalashish manbasi sohasidagi ushbu metaforik modellarga NARSALAR/ OBYEKTLAR yoki ARTIFAKTLAR/

ARTIFAKTLAR BILAN BAJARILADIGAN HARAKATLAR modelini qo‘shish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

"Buyuk Britaniyaning yevropaparast siyosatchilari referendum natijalarini tan olmasligi va Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqining yagona bozor maydonidan chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi yuzasidan norozilik to‘lqini" sarlavhali maqoladan METAFORIK HARAKATLAR VA ARTIFAKTLAR modelining qo‘llanish misolini tahlil qilamiz:

We've been lulled into false sense of security, says Liam Fox (Outrage as Pro-EU MPs could DEFY Brexit and BLOCK Britain from leaving the single market // Daily express, UK. 07.06.2016) « 'Нам исподволь внушили ложное ощущение защищенности, - заявил Лаям Фокс'. Bizga yo’lg‘on xavfsizlik hissi asta-sekin singdirilgan – dedi Layam Foks.

Ushbu misolda *to lull somebody* iborasi metaforik ifodaga aylangan bo‘lib, *into* predlogi bilan birinchi ma’nosiga xos bo‘lmagan (to reason/talk into, ya’ni birovni biror narsa qilishga ko‘ndirish') ma’nosiga ega bo‘lgan. Muallif ana shunday metafora yordamida o‘quvchiga qonun ustuvorligiga barchaning ishonchi komil bo‘lishiga qaramay, Buyuk Britaniyada ayrim siyosatchilar referendumning rasmiy natijalarini - xalqning bevosita xohish-irodasini tan olmasligi mumkinligidan xoli emasligi haqidagi fikrni yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Ushbu metafora o‘quvchida qonun buzilishi ehtimoliga norozilik uyg‘otishga qaratilgan.

Siyosiy lingvistika doirasida eng muhim tushunchalardan biri — **siyosiy diskurs** hisoblanadi. Uni o‘rganishda nafaqat siyosiy matnlar, balki quyidagi omillar ham hisobga olinadi: muallif va tinglovchining fikrlari, maqsadlari, siyosiy bilimlari, dunyoqarashi va boshqa ekstralingvistik omillar.

Metaforaning o‘rganilishi. Metafora siyosiy kommunikatsiyada XX asr o‘rtalaridan boshlab faol o‘rganila boshlagan. Ayniqsa, konseptual metafora nazariyasining paydo bo‘lishi, diskursiv tahlil metodlarining rivojlanishi bu sohaga qiziqishni yanada oshirdi.

Olimlar siyosatchilarning nutq uslublarini, ularning “nutq portretlari”ni (A.P.Chudinov atamasi) o‘rganadilar. Shuningdek, siyosatchining nutqi bilan uning auditoriyaga ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlik ham tahlil qilinadi. Siyosatchilar tinglovchilarga ta’sir qilish uchun turli nutqiy strategiyalar, taktika va usullar, “nutq niqoblari”dan foydalanadilar.

Metaforalarni turli davrlar kesimida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, inqiroz davrida, saylovlar arafasida va favqulodda vaziyatlarda metaforalarning soni ortadi va ular yanada agressivroq bo‘ladi.

Nutqdagi agressivlik quyidagilar orqali, ya’ni tahdid, haqorat, yolg‘on, obro‘sizlantirish kabi til birliklarini o‘z ichiga olgan so‘zlar bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, radikal qarashlarga ega siyosatchilar metaforalardan ko‘proq foydalanishi aniqlangan.

Ontologik metaforalar. Siyosiy nutqda ko‘pincha **ontologik metaforalar** qo‘llaniladi. Ontologiya — bu borliq va mavjudlik haqidagi ta’limotdir.

Ontologik metaforalar orqali hodisalar, g‘oyalar, hissiyotlar moddiy narsalardek yoki tushunchalardek tasvirlanadi. Masalan, yuqorida aytilganidek, “inflyatsiya” tushunchasi “o‘sish, bosim qilish, xalqni qiynash, (kurashish mumkin bo‘lgan) hodisaga aylanadi. Bu esa murakkab iqtisodiy tushunchani oddiyroq qilib tushunishga yordam beradi.

Ko‘pincha bunday metaforalar shunchalik tabiiylashib ketadiki, odamlar ularni metafora ekanligini sezmay qoladi.

Metaforik modellar. Tadqiqotchilar siyosiy diskursda keng tarqalgan quyidagi metaforik modellarni ajratganlar: urush modeli, geometriya modeli, o‘yin modeli, mexanizm modeli, organizm modeli, personifikatsiya (jonlantirish), yo‘l modeli, transport modeli, qurilish modeli. Eng ko‘p uchraydigan model — personifikatsiya (jonlantirish) modeli.

Personifikatsiya modelida jonsiz narsalar, hodisalar, davlatlar inson xususiyatlari bilan tasvirlanadi. Masalan: davlatlar “qaror qiladi”, mamlakatlar “ajraladi”, qonunlar “ishlaydi” yoki “to‘xtaydi”. Bu orqali murakkab siyosiy jarayonlar oddiyroq va tushunarliroq bo‘ladi.

Metaforaning funksiyasi. Metafora inson tafakkurining muhim qismi hisoblanadi. U yangi bilimni eski, tanish tushunchalar orqali anglashga yordam beradi, murakkab narsalarni soddalashtiradi, yangi va noma'lum hodisalarga nisbatan qo'rquvni kamaytiradi. Shuning uchun inson ko'pincha murakkab tushunchalarni tushuntirishda metaforalardan foydalanadi.

Davlatlarning "chiqib ketishi" — ularni odamga o'xshatish (personifikatsiya), qonunni "bekor qilish" — buyumga o'xshatish (artefakt modeli), "jarayonni ishga tushirish" — mexanik harakat orqali ifodalash. Bu metaforalar orqali muallif o'quvchiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda siyosiy diskursda metaforalar juda keng qo'llaniladi. Ular hissiy ta'sir ko'rsatadi yoki oddiy axborotni yetkazadi.

Eng ko'p uchraydigan metaforik model — personifikatsiya hisoblanadi. Metaforalar ikki asosiy vazifani bajaradi: tinglovchiga hissiy ta'sir o'tkazish va axborotni sodda va tushunarli shaklda yetkazish.

Shu bilan birga ko'p hollarda personifikatsiya modeli orqali yaratilgan metaforalar metafora xususiyatini yo'qotadi va kundalik nutqda odatiy iboralarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алексеев К.И. Функции метафоры в политической речи // Познание. Общество. Развитие. М.: Ин-т психологии РАН, 1996. С.150-161.

2. Алёшина Е.Ю. Политический дискурс: к вопросу о понимании и определении. Журнал «Профессиональное образование и общество». М.: Изд-во Колледж современных технологий им. Героя Советского Союза М.Ф. Панова, 2014. С. 11-17

3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 1-ХУ, 2-е изд., испр. М.: Языки русской культуры, 1999. 896 с.

4. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Словарь русских политических метафор. М.: «Помовский и партнёры», 1994. 333 с.

5. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Зарубежная политическая лингвистика: Учебное пособие. М.: Флинта: Наука, 2008. 353 с.

6. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. С англ. / Под ред. и с предисл. А.Н.Баранова. М.: Едиториал УРСС, 2004. 256 с.

7. Чудинов А.П. Политическая лингвистика: учебное пособие. 3-е изд., испр. М.: Флинта: Наука, 2008. 256 с.

GENRE-BASED ANALYSIS OF COMMUNICATION IN SOCIAL NETWORKS

Sherzod Rabbimkulovich Yuldashev,
Kattakurgan state pedagogical institute,
EFL assistant teacher, syuldashev648@gmail.com

Abstract: *The rapid development of digital technologies has significantly transformed the nature of human communication. Social networks have become one of the most influential environments for information exchange, social interaction, and public discourse. As a result, new communicative genres have emerged that differ from traditional written and spoken discourse. The purpose of this study is to analyze the genre features of communication in social networks and identify the linguistic, structural, and pragmatic characteristics of digital communication. The research is based on discourse analysis and genre analysis of communication practices on popular platforms such as Instagram, Telegram, and Twitter. The findings show that communication in social networks is characterized by brevity, multimodality, interactivity, and hybridity. These features contribute to the formation of new digital genres such as posts, comments, stories, and hashtag discourse. The study demonstrates that social media communication represents a dynamic genre system that combines elements of written and spoken communication.*

Keywords: social networks, digital discourse, online communication, genre analysis, multimodality, internet linguistics.

Introduction. The rapid development of information and communication technologies has significantly influenced the ways people communicate in modern society. The emergence of social networks has created new opportunities for interpersonal communication, public interaction, and information dissemination. Platforms such as Facebook, Instagram, Telegram, and Twitter have become central environments where millions of users exchange messages, share opinions, and participate in social discussions. Social networks have also led to the transformation of traditional communicative practices. Unlike conventional forms of communication such as letters, newspapers, or formal publications, digital platforms encourage shorter, faster, and more interactive forms of expression. As a result, new communicative genres have emerged that reflect the technological and social characteristics of online environments.

Genre theory traditionally defines genres as relatively stable forms of communication that develop within specific social contexts and communicative purposes. However, in digital environments genres are more dynamic and flexible. Online communication often combines features of written, spoken, and visual discourse, which leads to the emergence of hybrid forms. The study of digital discourse has become an important field in contemporary linguistics. Researchers have examined various aspects of online communication including linguistic creativity, multimodality, pragmatic interaction, and identity construction. Social networks in particular provide a rich environment for observing how language adapts to new technological conditions. The purpose of this research is to investigate the genre features of communication in social networks and identify the linguistic and structural characteristics that distinguish digital communication genres from traditional forms of discourse.

Methodology. This study employs a qualitative research approach combining **discourse analysis**, **genre analysis**, and **pragmatic analysis**. These methods are widely used in studies of computer-mediated communication and digital linguistics.

The data for the research were collected from communication samples on popular social networking platforms, including Instagram, Telegram, and Twitter. Public posts, comments, and user interactions were observed and analyzed in order to identify recurring linguistic and structural patterns. The analysis focused on several aspects of social media communication:

- the structural organization of posts and comments;
- the use of linguistic markers such as abbreviations, emojis, and hashtags;
- the communicative functions of different types of posts;
- patterns of interaction between users.

Genre analysis was applied to identify the specific communicative forms that appear frequently in social networks. These forms include posts, comments, stories, and hashtags, each of which performs a particular communicative function within the digital environment. In addition, pragmatic analysis was used to examine how users express emotions, attitudes, and intentions through language and multimodal elements. Social media communication often relies on visual symbols, emojis, and other expressive devices that complement the textual message. The theoretical framework of this research is based on studies in internet linguistics and digital discourse analysis, which emphasize the interactive and multimodal nature of online communication.

Research Results. The analysis of communication in social networks reveals several important genre features that distinguish digital communication from traditional discourse.

One of the most noticeable characteristics is **brevity and conciseness**. Social media users tend to express their ideas in short messages that convey information quickly and efficiently. This tendency is influenced by the fast-paced nature of online interaction and the design of social networking platforms, which often encourage brief and visually engaging content. Another important feature is **multimodality**. Communication in social networks rarely relies solely on text. Instead, users frequently combine written messages with images, videos, emojis, GIFs, and other visual elements. These multimodal components enrich the communicative process and allow users to express emotions and attitudes more effectively. The study also shows that **interactivity** plays

a central role in digital communication. Social networks allow users to respond instantly to posts through comments, likes, shares, and reactions. This interactive structure creates a dynamic communicative environment in which messages are continuously expanded through user participation.

Furthermore, **informality and conversational style** are common features of social media discourse. Users often employ colloquial expressions, slang, abbreviations, and internet-specific vocabulary. These linguistic features reflect the influence of spoken language and contribute to the informal tone of online communication. Finally, the analysis indicates that social networks promote **creative linguistic practices**. Users frequently experiment with language, combining text, symbols, and visual elements to produce expressive and engaging messages.

Analysis. From the perspective of genre theory, social networks contain a variety of communicative forms that function as digital genres. The **social media post** is the primary unit of communication. Posts can serve different purposes, including sharing personal experiences, providing information, expressing opinions, or promoting products and services. Depending on the context, posts may contain textual, visual, or multimedia content. Another important genre is the **comment**, which represents a response to a post or message. Comments create interactive dialogue among users and contribute to the development of online discussions. In many cases, comment sections become spaces for collective communication where users exchange opinions and reactions.

Conclusions. The study of communication in social networks demonstrates that digital platforms have created a unique genre system characterized by interactivity, multimodality, and linguistic creativity. Unlike traditional written genres, social media communication is dynamic, collaborative, and highly adaptable to technological conditions. The research findings indicate that social network communication is distinguished by several key features, including brevity, emotional expressiveness, informal language, and the integration of visual elements. These characteristics contribute to the formation of new digital genres such as posts, comments, stories, and hashtag discourse.

The analysis also highlights the hybrid nature of social media communication, which combines elements of written and spoken discourse. This hybridity reflects the evolving nature of language in digital environments and demonstrates how technological innovations influence communicative practices.

Understanding the genre features of social network communication is important for the broader study of digital linguistics, discourse analysis, and media communication. Future research may explore cross-cultural differences in social media communication and examine how emerging technologies continue to reshape digital discourse.

References

1. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide.* London: Routledge.
2. Herring, S. C., Stein, D., & Virtanen, T. (2013). *Pragmatics of Computer-Mediated Communication.* Berlin: De Gruyter Mouton.
3. Page, R., Barton, D., Unger, J., & Zappavigna, M. (2014). *Researching Language and Social Media: A Student Guide.* London: Routledge.
4. Zappavigna, M. (2012). *Discourse of Twitter and Social Media.* London: Continuum.
5. Zappavigna, M. (2018). *Searchable Talk: Hashtags and Social Media Metadiscourse.* London: Bloomsbury.
6. KhosraviNik, M. (2017). Social media critical discourse studies. *Critical Discourse Studies*, 14(5), 582–596.

A Comparative Study of Metaphors in English and Uzbek Languages

Khamidov Tokhirjon
Teacher of Kattakurgan State Pedagogical Institute

khamidovtokhir@gmail.com

Abstract: This article presents a comparative study of metaphors in English and Uzbek languages from a cognitive and linguistic perspective. The research focuses on identifying similarities and differences in metaphorical expressions related to everyday concepts such as time, emotions, and life. Based on the framework of Conceptual Metaphor Theory, the study analyzes how cultural and linguistic factors influence metaphor usage in both languages. The findings reveal that while some metaphors are universal due to shared human experience, others are culture-specific and reflect national worldview and traditions. The study highlights the importance of metaphor awareness in language learning, translation, and intercultural communication.

Keywords: Metaphor, conceptual metaphor, cognitive linguistics, English language, Uzbek language, comparative analysis, culture

Introduction. Metaphor is one of the most important phenomena in linguistics, as it reflects not only language but also human thinking and perception of the world. Traditionally, metaphors were considered stylistic devices used mainly in literature. However, modern linguistics views metaphor as a fundamental mechanism of cognition.

The theory of conceptual metaphor developed by **George Lakoff** and **Mark Johnson** emphasizes that metaphors are deeply embedded in everyday language and thought. People use metaphors unconsciously to understand abstract concepts through more concrete experiences.

This study aims to compare metaphorical expressions in English and Uzbek languages, focusing on similarities and differences shaped by cultural and linguistic factors.

Literature Review. Metaphor has been widely studied in the field of **Cognitive Linguistics**, where it is considered a key element of human cognition. Lakoff and Johnson (1980) introduced the idea that conceptual metaphors structure our thinking processes.

According to Kövecses (2010), metaphors are universal to some extent because they are based on shared human experiences, such as bodily sensations and interactions with the environment. However, cultural differences influence how these metaphors are expressed in different languages.

Gibbs (2008) argues that metaphor plays a central role in communication and understanding, especially in abstract domains like emotions and time. Similarly, Deignan (2005) highlights the importance of corpus-based studies in identifying metaphor usage patterns in real language.

In addition, Wierzbicka (1997) emphasizes that language reflects cultural values, and metaphor is one of the key tools through which these values are expressed.

Methodology

This research uses a qualitative comparative approach. Examples of metaphorical expressions in English and Uzbek languages were collected from:

- everyday speech
- literary texts
- educational materials

The data were analyzed based on conceptual metaphor theory, focusing on three main domains:

1. Time
2. Emotions
3. Life

Analysis and Discussion

Metaphors of Time

In English, time is often conceptualized as money:

- “Time is money”
- “I wasted time”

In Uzbek:

- “Vaqt oltindan qimmat” (Time is more valuable than gold)

Both languages show that time is valuable, but English connects it to **economics**, while Uzbek relates it to **precious materials**.

Metaphors of Emotions

English:

- “I am feeling down”
- “She exploded with anger”

Uzbek:

- “Kayfiyatim tushib ketdi” (My mood fell)
- “Ichimda olov yonayapti” (Fire is burning inside me)

Both languages use **physical and spatial metaphors** to describe emotions.

Metaphors of Life

English:

- “Life is a journey”
- “He is at a crossroads”

Uzbek:

- “Hayot yo‘l” (Life is a road)
- “To‘g‘ri yo‘ldan yurmoq” (To follow the right path)

This shows a **universal metaphor**: LIFE = JOURNEY

Cultural Differences

Some metaphors are culture-specific:

- Uzbek language often uses **nature and tradition-based metaphors**
- English uses more **industrial and economic metaphors**

This reflects differences in:

- lifestyle
- history
- worldview

Discussion

The analysis shows that metaphors in both languages share universal patterns but differ in cultural expression. These differences can create challenges in translation and language learning.

Understanding metaphors helps learners:

- improve vocabulary
- understand deeper meanings
- communicate more effectively

Conclusion: In conclusion, metaphors play a crucial role in both English and Uzbek languages. While many metaphorical concepts are universal, their linguistic expressions are influenced by cultural and social factors. Comparative analysis of metaphors helps to better understand both languages and supports effective language teaching, translation, and intercultural communication.

References

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford University
3. Press.
4. Gibbs, R. W. (2008). *The Cambridge handbook of metaphor and thought*. Cambridge
5. University Press.
6. Charteris-Black, J. (2004). *Corpus approaches to critical metaphor analysis*. Palgrave
7. Macmillan.
8. Steen, G. J. (2011). The contemporary theory of metaphor. In R. W. Gibbs (Ed.), *The*
9. *Cambridge handbook of metaphor and thought*. Cambridge University Press.
10. Boers, F. (2000). Metaphor awareness and vocabulary retention. *Applied Linguistics*,
11. 21(4), 553–571.

12. Deignan, A. (2005). *Metaphor and corpus linguistics*. John Benjamins Publishing.
13. Barcelona, A. (2003). *Metaphor and metonymy at the crossroads*. Mouton de Gruyter.
14. Yu, N. (1998). *The contemporary theory of metaphor*. John Benjamins.
15. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words*. Oxford
16. University Press.

E.Heminguey qahramonlarida “Sadoqat” konseptining lingvistik talqini

Sattorova Nafisa Isomidinovna
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti o’qituvchisi,
SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi
Fine-2014@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Ernest Heminguey asarlaridagi "sadoqat" (loyalty) konseptining lingvistik tabiatini tahlil qilinadi. Muallif uslubiga xos bo‘lgan lakonizm va "aysberg tamoyili" sadoqat tushunchasining leksik-semantik maydonini qanday shakllantirishi kognitiv tilshunoslik prizmasi orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Lingvistik konseptologiya, E. Xeminguey, sadoqat, aysberg tamoyili, kognitiv tilshunoslik, leksik-semantik maydon.

Kirish. Tilshunoslikning zamonaviy bosqichida badiiy matnni lisoniy jihatdan muayyan bir konsept asosida tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. E. Hemingueyning qahramonlari nafaqat o‘z harakatlari, balki o‘ziga xos nutqiy xulq-atvori bilan ham ajralib turadi. Heminguey olamida "sadoqat"m abstrakt tushuncha emas, balki aniq lingvistik birliklar va vaziyatli kontekstlar orqali ifodalanadigan substansiyadir. Heminguey asarlari leksikasida "sadoqat" konseptini ifodalovch lingvistik birliklarga duty, faith, love and respect so’zlarini kiritishimiz mumkin. Ma’lumki, Hemenguey qahramonlari sadoqat so’zini o’z nutqida to’g’ridan- to’g’ri ishlatishmaydi balki, yuqoridagi leksik birliklardan foydalangan holda “sadoqat” konseptini faollashtiradilar.

Metodlar. Ernest Hemenguey qahramonlari nutqida “ sadoqat” konseptini lingvistik jihatdan tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi.

Konseptual tahlil: "Sadoqat" konseptining yadro va periferiya qismlarini aniqlash.

Kontekstual tahlil: So‘zlarning matn ichidagi qo‘shimcha ma’no qatlamlarini (konnotatsiyalarini) o‘rganish.

Leksik-semantik maydon tahlili: "Sadoqat" tushunchasiga daxldor bo‘lgan duty (burch), honor (sharaf), endurance (bardosh) kabi lisoniy birliklarni o‘zaro bog‘liqligini tekshirish.

Natijalar. Ma’lumki, Heminguey "sadoqat" so‘zini (loyalty) kam qo‘llaydi. Buning o‘rniga u "stay" (qolmoq/sodiq qolmoq), "do" (bajarmoq), "finish" (tugatmoq) kabi dinamik fe’llar orqali sadoqatning lingvistik manzarasini yaratadi. Aynan shu jihat orqali “sadoqat” konsepti yanada kengroq ma’no kasb etadi.

Bundan tashqari, E. Hemenguey o’z asarlarida aysberg tamoyilidan foydalangan. Matnda sadoqat ko‘pincha subtekstda (matn osti ma’nosida) yashirinadi. Masalan, "Chol va dengiz"da Santyagoning baliq bilan "muloqoti"da sadoqat — brother (birodar) va endure (chidash) kabi leksik birliklar orqali ifodalangan.

Shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, qahramonlarning qisqa, keskin va takrorlanuvchi gap qurilmalari ularning o‘z tanlagan yo‘liga bo‘lgan qat’iy (sadoqatli) munosabatini sintaktik darajada tasdiqlaydi.

Tahlil. Xemingueyning "sadoqat" konsepti an’anaviy deklarativ (balandparvoz) nutqdan yiroq. Balandparvoz nutqdan ko’ra Hemenguey qahramonlari oddiylikni afzal ko’rishadi.

Masalan: “Chol va dengiz” asaridan olingan quyidagi parchaga e’tibor qaratsak:

"He had no faith in them. But I have."

Chol (Santiyago) o‘zining sevimli beysbol jamoasi – "Yankees"ga bo‘lgan sadoqatini shu so‘z orqali ifodalaydi.

Ushbu misoldan ham ko’rishimiz mumkinki, Hemenguey qahramonlari “sadoqat’ konseptini ifodalashda juda qisqa jumlalardan foydalangan.

Ushbu parchadan olingan yana bir misolni tahlil qiladigan bo’lsak

"Fish, I'll stay with you until I am dead."

Santiyagoning baliqqa bo‘lgan sadoqati (uning uchun u akasi kabi) va o‘z kasbiga sadoqati lingvistik jihatdan "stay with" (birga qolish) frazeologik birligi orqali beriladi. Bu yerda "stay with" shunchaki jismoniy birgalikni emas, balki ahdga sodiqlikni anglatadi.

Agar romantik adabiyotda sadoqat "abadiy sevgi qasamyodlari" orqali ifodalansa, Xemingueyda bu professional terminologiya va ritualistik nutq orqali namoyon bo‘ladi. Lingvokulturologik jihatdan yozuvchi ingliz tilining "understatement" (bor narsani kamaytirib ko‘rsatish) xususiyatidan foydalanib, eng yuksak sadoqatni eng oddiy so‘zlar bilan ifodalaydi. Bu esa o‘quvchida qahramonning sadoqati nutqiy bezak emas, balki hayotiy zaruriyat ekanligi haqidagi kognitiv tasavvurni shakllantiradi.

Xulosa

E. Hemenguey tilida konsept asosan fe’llar (harakat birliklari) orqali ifodalanadi. Sadoqatning lingvistik maydoni honor-"sharaf", duty-"burch" va "intizom" tushunchalari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Yozuvchining uslubi (kam so‘zlilik) sadoqatning "jimlikdagi matonat" sifatidagi falsafiy mohiyatini lisoniy jihatdan asoslaydi. Hemingueyda sadoqat ko‘pincha qahramonning ichki "Men"ini, uning shaxsiy ong-irodasini, ichki axloqiy qoidalarini saqlab qolish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi; ya’ni sadoqat individual identitetni himoya qilib, xatar va yo‘qotishlar fonida shaxsning o‘ziga sodiqligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hemingway, E. (1994). The Old Man and the Sea. New York: Scribner.
2. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford University Press.
3. Stepanov, Yu. S. (2004). Konsepti. Slovar russkoy kulturi. Moskva: Akademicheskiy proyekt.
4. Boltayeva, B. (2019). Badiiy matnda konseptual semantika tahlili. O‘quv qo‘llanma.

“Jinoyat” va “xiyonat” konseptlarining kognitiv va lingvokulturologik asoslari

Kattakurgan state pedagogical institute, EFL assistant teacher,
Murtozayeva Zarina Muxtor qizi
zarina.murtazayeva.93@mail.ru

Abstract: Mazkur tadqiqot “jinoyat” va “xiyonat” konseptlarining kognitiv hamda lingvokulturologik asoslarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu tushunchalarning inson ongida qanday shakllanishi, ularning semantik tuzilishi hamda til birliklari orqali qanday ifodalanishi o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, konseptlar sabab–oqibat va axloqiy baholash modellariga asoslanadi hamda turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi.

Keywords: kognitivlik, konsept, lingvokulturologiya, jinoyat, xiyonat, paremiyalar, metafora

Introduction. Kognitivlik inson tafakkurining markaziy elementi bo‘lib, u bilimni qayta ishlash, saqlash va qo‘llash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Til esa ushbu jarayonlarning tashqi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat kognitiv lingvistikaning asosiy muammolaridan biridir. “Jinoyat” va “xiyonat” tushunchalari ayniqsa muhim bo‘lib, ular ijtimoiy, axloqiy va madaniy tajriba asosida shakllanadi.

Mazkur konseptlar inson ongida oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki murakkab baholovchi tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Shu bois ularni o‘rganishda faqat lingvistik emas, balki kognitiv va lingvokulturologik yondashuv zarur hisoblanadi.

Methodology. Tadqiqotda kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya metodlari qo‘llanildi. Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: konseptual modellashuv, semantik tahlil va madaniy interpretatsiya. Material sifatida maqollar, iboralar va leksik birliklar tanlab olindi.

Evans, Croft va Cruse nazariyalariga tayangan holda konseptlar dinamik tizim sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv til birliklarining ma’nosi inson tajribasi bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Results.

1. Kognitiv modellashuv

“Jinoyat” va “xiyonat” konseptlari barqaror kognitiv modellar asosida shakllanadi. Masalan, jinoyat doimo jazoga olib keluvchi hodisa sifatida konseptuallashtiriladi. Xiyonat esa ijtimoiy va axloqiy buzilish sifatida talqin qilinadi.

2. Frazeologik ifodalar

Frazeologik birliklar konseptning obrazli ifodasini beradi. Masalan, “orqadan pichoq urmoq” iborasi xiyonatning yashirinligini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi “to stab someone in the back” iborasi ham ayni mazmunga ega bo‘lib, metaforik parallel hisoblanadi.

3. Paremiologik tahlil

Maqollar konseptning eng kuchli baholovchi shaklidir. O‘zbek maqollarida xiyonat ijtimoiy xorlik bilan bog‘lansa, ingliz maqollarida muvaffaqiyatsizlik bilan izohlanadi. Jinoyatga oid maqollarda esa jazodan qochib bo‘lmaslik g‘oyasi ustun. Masalan, “Yomonlik qilgan jazosiz qolmas” va “Crime doesn’t pay” bir xil kognitiv modelga ega.

Discussion. Natijalar konseptlarning universal va milliy xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida kollektiv qadriyatlar ustun bo‘lsa, ingliz tilida individual baholash kuchliroq. Bu esa til orqali madaniy tafovutlar qanday aks etishini ko‘rsatadi. Shuningdek, paremiyalar orqali konseptlarning ijtimoiy stereotiplari shakllanishi aniqlanadi. Ular axloqiy normalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Conclusion. Jinoyat va xiyonat konseptlari murakkab kognitiv va lingvokulturologik tuzilmalar hisoblanadi. Ular sabab–oqibat va axloqiy baholash tizimlari asosida shakllanadi hamda til orqali madaniy mazmun kasb etadi. Mazkur tadqiqot konseptlarning til va tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

References

1. Evans, V. (2009). How Words Mean.
2. Croft, W., Cruse, D. (2004). Cognitive Linguistics.
3. Maslova, V. (2001). Linguoculturology.
4. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЮЗОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Бердикулова Шахноза Рузикуловна
Каттакурганский филиал, Самаркандский государственный университет, Кафедра иностранных языков Электронная почта: mehriddinsher2018@gmail.com

Ключевые слова: противительные союзы, сравнительная лингвистика, синтаксис, морфология, семантика, английский язык, узбекский язык

Противительные союзы являются важным средством выражения семантического контраста и логического противопоставления в языке. Они соединяют синтаксические единицы, которые противопоставляются по смыслу. В английском и узбекском языках противительные союзы выполняют аналогичные функции, однако их грамматическая структура и синтаксическое поведение отличаются. Настоящая статья посвящена сравнительному анализу системы противительных союзов в английском и узбекском языках.

В исследовании использованы методы сравнительного, описательного и компонентного анализа. Материал был отобран из корпусов английского и узбекского языков. Проанализированы частотность употребления союзов, их семантические оттенки и прагматические функции. Особое внимание уделено трудностям адекватной передачи противительных союзов при переводе.

Наиболее употребительными противительными союзами в английском языке являются ‘but’, ‘however’, ‘yet’, ‘although’, ‘nevertheless’, ‘on the other hand’. Союз ‘but’ используется для соединения двух независимых предложений с противоположным значением. Например: ‘She wanted to go, but she was too tired.’ ‘However’ выполняет дискурсивную функцию и вводит противопоставление между высказываниями. Эти различия важны для понимания синтаксической организации английского языка.

В узбекском языке к противительным союзам относятся ‘ammo’, ‘lekin’, ‘biroq’, ‘holbuki’, ‘shunga qaramay’. Наиболее нейтральным является союз ‘lekin’, широко употребляемый как в устной, так и в письменной речи. Например: ‘Men kelmoqchi edim, lekin yomg‘ir yog‘di.’ Союзы ‘biroq’ и ‘ammo’ чаще встречаются в научных и литературных текстах. В узбекском языке такие союзы обычно занимают позицию в середине предложения и отделяются интонационной паузой.

Сравнительный анализ

Сравнительный анализ показывает, что хотя семантика противительных союзов в обоих языках схожа, их синтаксическое использование различается. В английском языке ‘however’ часто встречается в начале предложения и выделяется запятой, в то время как в узбекском языке ‘ammo’ чаще располагается в середине высказывания. Это отражает различие в синтаксической независимости структур обоих языков.

Заключение

Таким образом, противительные союзы английского и узбекского языков демонстрируют как сходства, так и различия на морфологическом, синтаксическом и прагматическом уровнях. В английском языке наблюдается тенденция к большей структурной автономности союзов, тогда как в узбекском языке они тесно связаны с интонацией. Результаты исследования могут быть использованы в преподавании сравнительной грамматики, переводоведении и лингвистических курсах.

Список литературы

1. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
2. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press.
3. Худойберганова, М. (2020). Грамматика узбекского языка: синтаксический анализ. Ташкент: Университет.
4. Hasanov, B. (2018). Sintaksis o‘zbek tili. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.
6. Leech, G. (2004). Meaning and the English Verb. Longman.

The Role of Anecdotal Discourse in Constructing Implicit Meaning

Ruzmatova Gulnora Kulmamatovna
Teacher of the Department of Foreign Languages of
Kattakurgan State Pedagogical Institute
E-mail: ruzmatova_gulnara@mail.ru
Orcid: 0009-0004-4414-3385

Annotation: This study explores the pragmatic characteristics of anecdotal discourse and its contribution to the creation of implicit meaning. Anecdotes are viewed as concise and expressive communicative forms, typically grounded in humor or irony. The paper investigates how hidden meanings emerge through anecdotes, emphasizing their cognitive, pragmatic, and persuasive dimensions. It also examines their structural features and functions in discourse using illustrative examples.

Keywords: anecdotal discourse, implicit meaning, pragmatics, discourse, communicative effect, irony, humor, interpretation

Introduction. Anecdotal discourse represents a distinctive pragmatic phenomenon in language use, usually expressed as a short narrative based on real or fictional events. Its defining feature lies in an unexpected ending that often incorporates humor or irony to influence the audience. In this sense, anecdotes serve not only as tools for conveying information but also as effective means of generating implicit (hidden) meaning.

As a stylistic device, anecdotal discourse is frequently employed at the beginning of speech to capture attention, stimulate interest, and achieve communicative goals. Classical rhetoric highlights the importance of engaging the audience, creating a positive attitude, and preparing them for comprehension. Anecdotes successfully fulfill these functions. [4]

The formation of implicit meaning through anecdotes relies on meanings that are not explicitly stated but inferred through context, irony, metaphor, and cultural knowledge. Listeners or readers interpret not only the surface narrative but also the underlying intention and evaluative stance of the speaker. For instance, a humorous story may indirectly convey criticism or highlight a social issue.

Methodology and Discussion. Anecdotal discourse functions as an important pragmatic tool, allowing speakers to communicate meanings beyond literal expression through brief narratives. It is widely used in both spoken and written communication to engage audiences and convey implicit ideas. Unlike direct statements, it depends heavily on context, background knowledge, and the interpretive abilities of the audience, making it a powerful mechanism for implicit meaning construction. [3]

From a pragmatic perspective, anecdotal discourse performs several communicative roles. First, it acts as an attention-grabbing strategy, especially at the beginning of speech. Classical rhetorical theory emphasizes that an effective introduction should engage the audience, foster goodwill, and facilitate understanding—goals that anecdotes readily achieve.

Second, anecdotes promote implicit meaning through humor, irony, and indirectness. The intended message is rarely stated openly; instead, it is inferred by the audience. This interpretive process requires cognitive engagement, as listeners identify hidden intentions, evaluate situations, and draw conclusions based on context. [1]

Additionally, anecdotal discourse is closely linked to cultural and social knowledge. Its effectiveness depends on shared background understanding between speaker and audience. Cultural codes, stereotypes, and social norms play a crucial role in interpreting implicit meanings. Furthermore, anecdotes often serve a persuasive function by influencing the audience subtly rather than through direct argumentation.

Structurally, anecdotes typically consist of three stages: introduction, development, and conclusion. This organization facilitates the emergence of implicit meaning, as the final interpretation depends on the audience's ability to connect contextual elements.

Keywords: *French as a foreign language, grammatical correction, feedback, empirical studies, teaching methodology.*

Kirish

Globallashuv va akademik mobillik sharoitida xorijiy tillarni bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Fransuz tili dunyoda keng o‘rganiladigan tillardan biri bo‘lib, uni samarali o‘zlashtirish mustahkam grammatik bilimlarsiz mumkin emas. Grammatika til kompetensiyasining asosi bo‘lib, nutqning aniqligi va to‘g‘riligini ta’minlaydi.

Grammatikani o‘qitishda muhim elementlardan biri — korrektiv fikr-mulohaza hisoblanadi. U o‘quvchilarga xatolarini anglash, ularning sabablarini tushunish va til ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Shu sababli, turli xil feedback turlarining samaradorligini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Fransuz tilini chet tili sifatida (FLE) o‘qitish grammatika bilimiga alohida ahamiyat beradi, chunki u har qanday til kompetensiyasining asosini tashkil etadi. Grammatik qoidalarni yetarli darajada bilmaslik o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida jiddiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, grammatik tuzatish fransuz tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonining markaziy elementi hisoblanadi.

Ushbu kontekstda korrektiv fikr-mulohaza (feedback) muhim rol o‘ynaydi. U o‘quvchilarga o‘z xatolarini anglash, ularning sabablarini tushunish va tilni yanada to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. O‘qituvchilar turli xil korrektiv yondashuvlardan foydalanib, ayniqsa grammatika bo‘yicha o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

So‘nggi o‘n yilliklarda til o‘qitish metodikasi sohasida ko‘plab tadqiqotlar grammatik tuzatishda feedback samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu tadqiqotlar asosan empirik bo‘lib, real ta’lim jarayonlarini kuzatish va o‘quvchilar ishlarini tahlil qilishga asoslanadi. Ular qaysi turdagi feedback samaraliroq ekanligini, qachon berilishi kerakligini va qaysi pedagogik sharoitlarda samarali bo‘lishini aniqlashga qaratilgan.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, grammatik tuzatish faqat xatoni ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, o‘qitish muhiti, o‘quvchilarning til darajasi va kognitiv strategiyalarini o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ba’zi tadqiqotlar aniq (eksplitsit) feedback samaradorligini ta’kidlasa, boshqalari bilvosita yoki metalingvistik feedback afzalliklarini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat — o‘quvchilarning feedbackga munosabati. Ba’zilar uni yordam sifatida qabul qilsa, boshqalar uni stress yoki motivatsiya pasayishining manbai deb hisoblaydi. Shuning uchun feedback qanday berilishi uning samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Fransuz tilini o‘qitish grammatik tuzatishga muvozanatli yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchilar nafaqat grammatik aniqlikni, balki o‘quvchilarning ishonchi va mustaqilligini ham rivojlantirish uchun mos strategiyalarni tanlay bilishlari kerak.

Ushbu ishning asosiy maqsadi — fransuz tilidagi grammatik tuzatishda feedbackga oid empirik tadqiqotlarni tahlil qilishdir. Unda turli feedback turlari, ularning ta’limga ta’siri va pedagogik qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Metodologiya mavjud ilmiy tadqiqotlarni tavsifiy va analitik tahlil

qilishga asoslangan. Ish ilmiy maqolalar va maxsus adabiyotlarga tayangan holda mavzuni keng yoritadi.

Ish uch bobdan iborat. Birinchi bob nazariy asoslarga, ikkinchi bob empirik tadqiqotlarga, uchinchi bob esa pedagogik qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan.

Globallashuv va akademik mobillik sharoitida fransuz tilini bilish muhim afzallik hisoblanadi. Grammatik bilimlar esa samarali muloqotning asosidir.

Grammatik tuzatish o‘quv jarayonining muhim vositasidir. U xatolarni ko‘rsatibgina qolmay, balki chuqurroq tushunishga yordam beradi. Feedback o‘quvchilarga o‘z bilimlarini to‘g‘rilashga yordam beradi va tilni o‘zlashtirishda muhim bosqich hisoblanadi. Uning samaradorligi vaqt, shakl, chastota va o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatiga bog‘liq. Emotsional jihat ham muhim: juda qattiq tanqid stress keltiradi, konstruktiv feedback esa ijobiy muhit yaratadi.

Turli feedback turlarini birgalikda qo‘llash ko‘pincha samaraliroq hisoblanadi. Zamonaviy nazariyalarga ko‘ra, xato — bu o‘rganishning tabiiy bosqichidir. Input va output nazariyalari o‘quvchilar nafaqat tinglash, balki gapirish va feedback olishlari kerakligini ta’kidlaydi. Doimiy va maqsadli feedback grammatik bilimlarni mustahkamlaydi va xatolarni kamaytiradi.

Grammatik tuzatishning nazariy asoslari

Grammatik tuzatish — bu o‘quvchilarning nutqidagi xatolarni aniqlash, tahlil qilish va tuzatishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Zamonaviy yondashuvlarda xato muvaffaqiyatsizlik belgisi sifatida emas, balki o‘rganishning tabiiy va zarur bosqichi sifatida qaraladi.

Kognitiv va interaksion nazariyalarga ko‘ra, til o‘zlashtirish o‘quvchi va til muhiti o‘rtasidagi faol o‘zaro ta’sir orqali amalga oshadi. Bu jarayonda feedback to‘g‘ri til normasi bilan o‘quvchi nutqi o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Korrektiv fikr-mulohaza turlari

Til o‘qitish metodikasida quyidagi feedback turlari ajratiladi:

- **Eksplitsit (aniq)** — xatoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish va qoidani tushuntirish;
- **Implitsit (bilvosita)** — xatoni bevosita aytmasdan tuzatish;
- **Metalingvistik** — grammatik qoidani anglashga yordam beruvchi izohlar;
- **Reformulyatsiya (recast)** — noto‘g‘ri gapni to‘g‘ri shaklda qayta ifodalash.

Har bir tur o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, uning samaradorligi o‘quvchilarning darajasi va o‘qitish sharoitiga bog‘liq.

Empirik tadqiqotlar tahlili

Ko‘plab empirik tadqiqotlar korrektiv feedback grammatik kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

- muntazam feedback xatolar sonini kamaytiradi;
- turli feedback turlarini birgalikda qo‘llash samaraliroq;
- feedbackni o‘z vaqtida berish uning natijadorligini oshiradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va til darajasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik jihatlar

Korrektiv feedbackning samaradorligi uni qo‘llash sharoitlariga bog‘liq. Muhim omillar quyidagilardan iborat:

- berilish usuli (yumshoq va konstruktiv bo‘lishi);
- muntazamligi;
- o‘quvchilarning hissiy holatini hisobga olish;
- qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti yaratish.

Haddan tashqari qattiq tanqid o‘quvchilarda stress keltirib chiqarishi mumkin, to‘g‘ri tashkil etilgan feedback esa ishonch va mustaqillikni rivojlantiradi.

Muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yagona universal feedback turi mavjud emas. Eng samarali yondashuv — vaziyatga moslashuvchan, turli strategiyalarni birlashtirgan yondashuvdir.

Shuningdek, o‘quvchilarda o‘z xatolarini mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish muhimdir. Bu holda feedback nafaqat tuzatuvchi, balki o‘rgatuvchi vosita ham bo‘ladi.

Xulosa

Korrektiv fikr-mulohaza fransuz tilini chet tili sifatida o‘qitishda grammatikani o‘zlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi. U xatolarni anglashga, grammatik aniqlikni rivojlantirishga va barqaror til ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Feedback samaradorligi uning turi, berilish shakli va pedagogik sharoitlarga bog‘liq. O‘qituvchilarga turli strategiyalardan foydalanish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu sohani yanada rivojlantirishga va xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ellis, R. (2009). Corrective Feedback and Teacher Development.
2. Lyster, R., & Ranta, L. (1997). Corrective Feedback and Learner Uptake.
3. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned.

BALZAK IJODINING UCH QIRRASI: SHAXS, OILA, JAMIYAT

Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna – Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Toirova J. - Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti talabasi XT-2412 guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fransuz adibi Onore de Balzak ijodi shaxs, oila va jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallif yozuvchining asarlarida inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar hamda ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritadi. Shuningdek, Balzakning “Inson komediyasi” turkumida jamiyat qatlamlari, axloqiy muammolar va moddiy manfaatlarning inson hayotiga ta’siri ochib beriladi. Maqolada yozuvchi ijodining bugungi kun uchun dolzarbligi ham asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Balzak, realizm, “Inson komediyasi”, shaxs, oila, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy muammolar, fransuz adabiyoti, XIX asr.*

Fransuz adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Onore de Balzak inson hayotini chuqur tahlil qilgan yozuvchilardan sanaladi. Uning ijodi keng qamrovli bo‘lib, ayniqsa “Inson komediyasi” turkumi orqali jamiyatning turli qatlamlarini, inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Balzak ijodini uch asosiy qirrada — shaxs, oila va jamiyat nuqtai nazaridan o‘rganish uning badiiy olamining mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shaxs tasviri

Balzak asarlarida shaxs masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Yozuvchi insonning ichki dunyosini, uning orzu-intilishlari, ehtiroslari va ziddiyatlarini sinchkovlik bilan tasvirlaydi. Uning qahramonlari oddiy emas — ular murakkab, ko‘p qirrali va hayotiydir. Masalan, Rastinyak yoki Gorio kabi obrazlar orqali Balzak insonning boylik, mavqe va muhabbat yo‘lida qanday sinovlardan o‘tishini ko‘rsatadi. Shaxsning shakllanishida muhit, tarbiya va ijtimoiy bosim muhim rol o‘ynashi alohida ta’kidlanadi.

Oila muammolari

Balzak ijodida oila — jamiyatning kichik modeli sifatida tasvirlanadi. U oilaviy munosabatlar orqali insoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, sadoqat va xiyonat kabi tushunchalarni ochib beradi. “Gorio ota” romanida ota mehrining fojiali qismati, farzandlarning beparvoligi orqali oiladagi axloqiy inqiroz yoritiladi. Balzak oilani nafaqat mehr maskani, balki ijtimoiy tengsizlik va manfaatlar to‘qnashuvi maydoni sifatida ham ko‘rsatadi.

Jamiyat manzarasi

Balzak asarlarining eng muhim jihatlaridan biri — jamiyatning keng panoramasini yaratganidadir. U 19-asr Fransiya jamiyatini barcha murakkabligi bilan tasvirlaydi: boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut, korrupsiya, mansabparastlik va pul hukmronligi uning asarlarida asosiy mavzulardan biridir. Yozuvchi jamiyatni tanqidiy ruhda tasvirlab, insoniylik qadriyatlari moddiy manfaatlar soyasida qolib ketayotganini ko‘rsatadi.

Yozuvchilar har xil bo’ladilar. Qanday vokealar, nimalar haqida hikoya qilishlariga qarab, ularni bir guruhga ko’shish mumkin. Ba’zi yozuvchilar–fakat bir narsani, o’z hayotini badiiy to’kimaning biror nafis libosiga o’ragan xolda tasvirlaydilar. Oliy toifaga kiruvchi, dunyoni boshqacha, murakkabligicha idrok etadigan yozuvchilar – ijodkorlar (bunday maqomga ulardan kamdan-kami erisha oladi), – birdaniga uch jabha: shaxs, oila, jamiyatga xizmat qiladilar. So’nggisining ham o’z kechmishi bo’ladi.

Agarda yozuvchi romanida o’z personajini ana shu uch jabhada harakat qildira olmasa, bu obrazni muvaffaqiyatli chiqadi, deb bo’lmaydi. Romanda tasvirlanayotgan ziddiyatlar ana shu uchala qirra bilan bog’liq holda rivojlanib borishi kerak.

Birinchi jabha – shaxs masalasi, – odatda muallif o’z qahramon va ikkinchi darajali personajlarini atrofidagi kishilar va ularning fe’l-atvorlarini kuzatishlari asosida yaratadi. Lekin bu borada ko’p narsalar yozuvchining o’zidan, o’z qarashlaridan dunyoga keladi, masalan, yozuvchi in’ikosini insoniyat urug’lari jam bo’lgan bir idish deyish mumkin, ijodkor ana shu urug’larning nish otib, kurtak yozishiga zamin yaratadi.

Yozuvchi o’zini rashkchi, xasis, botir, qo’rqoq, kalondimog’ yoki xo’rlangan, bechora kambag’al qilib tasvirlashi unchalik ham qiyin emas. Undan ham, yozuvchi o’zini bankchi, surgunga badarg’a qilingan mahbus, rohib, harbiy, rassom, qozi, vazir qiyofasida ko’rishi kiyinrokdir. Ular (bunday kishilar) o’zlarini qanday tutishlari mumkinligini tasavvur etish mashaqqati, –mana, katta iste’dod egasi bo’lgan daho o’zini ko’rsatishi kerak bo’lgan hudud. Bu aynan shunday hududki, bunda Bal`zakka teng keladigani bo’lmadi. Bal`zakdan boshka hech bir yozuvchi qkaynab turgan miyasidan shu qadar ko’p sonli personajlarni chiqarib, bu obrazlarni mahorat bilan yarata olmagan.

Agar konkret olingan davr ko’rsatilmasa, o’sha zamon nafasi ufurib turmasa, hech bir personaj va hech bir konflikt, ziddiyat bu qadar haqqoniy yoki to’g’ri chiqmaydi. Muallif bu davr haqidagi ma’lumotlarni biror-bir kitob yoki o’z kuzatuvlaridan oladi. Bal`zakda esa Restavratsiya (tiklanish) yillari va Iyul` imperiyasi davri tarixiy fon bo’lib xizmat qiladi. Zero “Inson komediyasi”ni haqli ravishda Napoleon haqidagi komediya, deyish mumkin. Biz Napoleonni “Vendetta”da ham, “Qora ishlar”da ham, “O’ttiz yoshli ayol”da ham va yozuvchining boshqa ko’pgina romanlarida ham uchratamiz. Napoleon timsoli, shubhasiz, Bal`zak yaratgan XIX asr boshlaridagi inson komediyasining markazida turadi. U, bir necha Napoleonlar, Napoleonlar qo’shinlari bo’lganligini tasvirlaydi. Bu – xalqi bilan yaqinlashgan inson timsoli edi. “Jon talvasasidagi kishilar o’rinlaridan ko’zg’alib, “Yashasin Napoleon!” – deb qichqirishga o’zlarida kuch topdilar”. Boshqa bir, ikkinchi Napoleon esa – frantsuz ma’muriyatini tashkil etgan, xizmat borasida, mavqeda ko’tarilish qoidasini joriy etgan, yoshlarni martaba sari da’vat etgan mahkama odami edi. “Kishi yigirma besh yoshida yuksak martabaga ko’tirilishi mumkin edi”, deya eslab o’tadi Bal`zak. Bari ishlar tezda amalga oshirilardi. Ishlar kaynab yotardi. Napoleon nomining o’zi Bal`zak uchun – mukammallik va muvaffaqiyat ramzi edi.

Yozuvchi ikkinchi – oila jabhasi uchun qaysi manbalardan material to’playdi? Albatta, yozuvchi bu borada birinchi navbatda o’z xotiralari, bobo va momolari, amakilari, qarindoshlari aytib bergan hikoyalardan foydalanadi.

Agar oilaning adabiy asarga ta’siri haqida bahs yuritadigan bo’lsak, shubhasiz, Tolstoy birinchi o’rinni egallagan bo’lardi. Asli u kibor rus nasabidan kelib chiqqan bo’lib, mazkur asilzodalar nasli katta oilalari bilan mashhur edi. Tolstoy bir-biriga ko’pdan-ko’p rishtalar bilan bog’langan ikki-uchta oila misolida ularning bari hayajonlaru hissiyotlari, quvonch va qayg’ularini tasvir etgan holda butun bir olam yarata oldi. Tug’ilish va o’lim, ilk, ko’tarinki muhabbat, sirli

munosabatlar, ballar, ovlar, qarta o'yinlari, inqirozga yuz tutish va muvaffaqiyatlar uning asarlarida to'laqonli o'z aksini topdi. Bularni bari, bunday tasvirlar Tolstoyda mo'l bo'ldi.

Bal`zak romanlarida esa oila xuddi yozuvchining o'ziniki singari uncha katta bo'lmaydi – otasi, onasi, u va singlisidan tashkil topadi. Otasi – ismi sharifi Bal`s bo'lgan dehqon o'g'li edi (yozuvchi buni keyinchalik uncha xalqona bo'lmagan Bal`zak degan ismi sharifga o'zgartiradi), hukumat idoralarida xizmat qiladi. Jumladan, 22-diviziyada, harbiylarga oziq-ovqat yetkazib berish bo'limi mudiri, keyinchalik Tur shahri meri o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Yozuvchining onasi – gazlama-mato bilan savdo kiladigan parijlik savdogarning kizi edi.

Bal`zakning bolalik va o'smirlik yillari viloyatda kechadi. Uning romanlarida viloyatdagi mansabdorlar, kyure, notariuslar, baqqollar obrazlari ko'p. U yirik burjuaziya davralarida ko'p bo'lmas edi. Bankchi Nusingenning uyi uning ijodida istisnodir. Bunda Bal`zak faqat bankchilik kasbini qalamga oladi.

Bal`zak yuqori doiradagi asilzodalar davralarida faqatgina bir necha kiborlar xonadonlarigagina kira oladi, u bular orqali oliynasab sohibjamol xonimlar: gertsoginya d'Arbante, markiza de Kastrinelar – oldi frantsuz zodagonlari nazariga tushishga umid qiladi. Biroq ular uni o'yin qilardilar, xolos. O'limi arafasida Bal`zakning miyasida yana 58 ta asar uchun xom ashyo tayyor edi.

Xulosa

Balzak ijodi shaxs, oila va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki unda ko‘tarilgan muammolar — insoniy ehtiroslar, oilaviy ziddiyatlar va ijtimoiy adolatsizlik — har qanday davr uchun muhimdir. Balzak nafaqat yozuvchi, balki jamiyatni chuqur anglagan mutafakkir sifatida ham adabiyot tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

Bibliografiya

1. Onore de Balzak. Eugénie Grandet (*Yevgeniya Grande*). – Parij: 1833.
2. Onore de Balzak. Illusions perdues (*Yo‘qotilgan illyuziyalar*). – Parij: 1837–1843.
3. Georg Lukács. *Studies in European Realism*. – London: 1950.
4. Erich Auerbach. *Mimesis: The Representation of Reality in Western Literature*. – Princeton: 1946.
5. Fransuz realizmi va XIX asr adabiyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

BALZAK ASARLARIDA SUDXO'RLAR, BIRJACHILAR VA BANKCHILAR OBRAZI

Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna – Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi
Nag'matullayev S.-Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti XT-2412 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Onore de Balzak asarlarida sudxo‘rlar, birjachilar va bankchilar obrazlari tahlil qilinadi. Ularning jamiyatdagi o‘rni, iqtisodiy faoliyati va axloqiy qiyofasi yoritilib, pul va kapitalning insoniy munosabatlarga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, Balzak ijodida iqtisodiy qatlam vakillarining umumlashgan badiiy talqini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Balzak, realizm, sudxo‘r, birjachi, bankir, kapital, "Inson komediyasi", iqtisodiy munosabatlar, axloqiy inqiroz, fransuz adabiyoti.

Fransuz realizmining yirik vakili Onore de Balzak o‘z asarlarida XIX asr Fransiya jamiyatining murakkab iqtisodiy va ijtimoiy hayotini chuqur tasvirlagan. Uning mashhur "La Comédie humaine" turkumida sudxo‘rlar, birjachilar va bankchilar obrazlari alohida o‘rin egallaydi. Bu obrazlar orqali yozuvchi pul va manfaat hukmron bo‘lgan jamiyatning ichki mohiyatini ochib beradi.

Sudxo‘rlar obrazi

Balzak asarlarida sudxo‘rlar ko‘pincha jamiyatdagi axloqiy inqiroz timsoli sifatida gavdalanadi. Masalan, Gobseck qissasidagi Gobsek obrazi pulni hayotning yagona maqsadi deb biladigan, sovuqqon va hisob-kitobli shaxs sifatida tasvirlanadi. U insoniy tuyg‘ulardan yiroq

bo‘lib, boshqalarning qiyinchiliklaridan foyda ko‘rishni odatiy hol deb qabul qiladi. Balzak bu obraz orqali sudxo‘rlikning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy xavfini ham ochib beradi.

Birjachilar obrazi

Birja vakillari Balzak ijodida tez boyish, tavakkalchilik va firibgarlik bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Illusions perdues asarida birja muhitining murakkabligi, undagi yolg‘on va manipulyatsiyalar ko‘rsatib beriladi. Birjachilar jamiyatda yuqori mavqega erishishga intiluvchi, ammo ko‘pincha axloqiy me’yorlarni buzuvchi shaxslar sifatida gavdalanadi.

Bankchilar obrazi

Bankchilar Balzak asarlarida jamiyatning iqtisodiy hayotini boshqaruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. César Birotteau romanida moliyaviy tizimning murakkabligi va bankchilar ta’siri yorqin ifodalangan. Ular katta kapital egasi bo‘lib, jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bankchilar obrazida ham manfaatparastlik va axloqiy ziddiyatlar namoyon bo‘ladi.

Balzakning zamondoshlari ko’ngillaridagi puch inqilobiy xayollardan xalos bo’lib, Gizoning: “O’zingizni boyiting”, degan maslahatiga quloqtutadilar. Davr shiori shuni taqozo etardi. Kishilarning kuch-g’ayrati yangi-yangi yo’nalishlar, konkret, anik jabhalarga qaratiladi. Bal`zak ana shu jamiyatni qanday ko’rsa, shunday tasvirlab beradi.

Biz “Parij hayoti sahnalari” romanida bir-birlaridan uncha farq qilmaydigan sudxo’rlar va bankchilarni ko’ramiz. Bal`zak mahorat bilan yaratgan sudxo’r Gobsek obrazi cheksiz-chegarasiz imkoniyatlarga ega. U yakka o’zi harakat kilmaydi. Gobsek, Bal`zak yozganiday, “umumiy manfaatlar”ga aloqador bo’lgan o’z hamtovoqlari bilan “Femida” qahvaxonasida uchrasharkan, sirli moliyaviy olamni boshqaradi. Gobsek va uning hamtovoqlarini juda rang-barang, turli kishilarning kreditlari va qarzlari haqidagi ma’lumotlar yozib qo’yiladigan maxsus “qora daftar”lari bo’ladi. Bu ma’lumotlarga ega kishi, hukumatning mansab pog’onalarida turgan biror qo’g’irchoqning shoxiga tegib ketishi mumkin. “Men, –deydi Gobsek, – inson vijdonini sotib olishga qurbim yetadigan, idora mirzalaridan tortib to jazmanlari, ularning arzandalari orkali kuch-kudratli vazirlarni ham boshqaradigan darajada boyman”. O’zining e’tirofiga ko’ra, “Parijning o’nta qirollaridan biri” bo’lgan Gobsek shunday deydi: “Menga o’xshagan odam Parijda o’ntacha keladi; biz sizlarning takdirlaringiz egasimiz”. Gobsek – kamsuqum, pismiq, deyarli ko’zga ko’rinmas qirol.

Bankchilarga kelganda, ular hamisha mashhur bo’lishni, shuhrat kozonishni yaxshi ko’radilar. Bundaylarning ishtahalari karnay bo’ladi. Ular sudxo’rlardan farqli ravishda, yakka o’zlari harakat qiladilar. Ular ko’pincha ishni janjal-mojaro bilan tugatadilar. “Sezar Birotto”dagi Keller boylik orttirib olgach, deputat bo’lishga harakat qiladi. U shu tarika siyqa, martabaga intilgan, mansab izidan kuvgan odamga aylanadi. Bu mavzudagi asarlarda eng yorkin obraz – yakinda olgan baronlik maqomidan kerilgan boyvachcha Nusingen bo’lib, uni zodagonlar jamiyati qabul qilmaydi. U birjada necha-necha inson taqdirlari ustidan hukmron bo’lsa-da, kiborlar xonadonlari eshigini ocholmaydi, u gertsoginya xonimlarning qalblarini rom eta olmaydi. Nusingen suyug’oyok ayollarnigina biladi va bu narsa uni qayg’u-alamga mahkum etadi.

Bal`zak butun umri nusingenlar va kellerlarga qarzini to’lab, kun kechirib o’tadi. Yozuvchining ularni ipidan-ignasigacha bilishi, o’rganishi uchun imkoni ham, vaqti ham mo’l bo’lgan.

Bal`zak moliya olamini tasvirlarkan, ular orasida Votren obraziga alohida o’rin ajratadi. U – surgundan kochgan avantyurachi, o’g’rilar bankchisi. Votren jazo muddatini o’tagan va vaqtinchalik “ishdan uzoqlashgan” jinoyatchilar birlashmalari mablag’larini boshqaradi, bu pullarni jamiyatga qarshi shaxsiy urush ochib, uni moliyaviy ta’minlash uchun sarflaydi. Bal`zak bunday iblisona ishlari, firibgarligi uchun qahramonini surgunga badarg’a qilishga haqli edi, lekin yozuvchi “Kurtizan ayollar jilosi va nochorligi” romanining so’nggi bobida uni kidiruv politsiya boshlig’i etib tayinlaydi. Va bu yozuvchining bari qolgan asarlari ko’lagasida mutlaqo haqiqatga xilof ko’rinmaydi.

Xulosa

Balzak sudxo‘rlar, birjachilar va bankchilar obrazlari orqali pulning jamiyatdagi o‘rni va uning inson hayotiga ta’sirini chuqur tahlil qiladi. U kapitalistik munosabatlar kuchaygan davrda insoniy qadriyatlar qanday sinovdan o‘tishini ko‘rsatadi. Yozuvchi yaratgan obrazlar bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, iqtisodiy manfaat va axloq o‘rtasidagi ziddiyatni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bibliografiya

1. Onore de Balzak. La Comédie humaine. – Parij: Gallimard.
2. Onore de Balzak. Gobseck. – Parij: 1830.
3. Onore de Balzak. Illusions perdues. – 1837–1843.
4. Onore de Balzak. César Birotteau. – 1837.
5. Georg Lukács. Studies in European Realism. – London, 1950.
6. Erich Auerbach. Mimesis: The Representation of Reality in Western Literature. – Princeton, 1946.

VIKTOR GYUGO IJODIDA ZOOSIMVOLLAR

Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna – Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tursunova Z. - Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti XT-2412 guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada frantsuz madaniyatida bo‘ri simvolikasi, frantsuz shoiri va yozuvchisi Viktor Gyugo ijodida hayvon obrazlari, xususan bo‘ri obrazi ifodalagan ramziy ma'nolar xususida gap boradi.*

Kalit so‘zlar: *kelt qabilalari, zoosimvollar, Viktor Gyugo, ramziy talqin, romantizm, realism, simvolizm, zoosimvollar, Les Miserables, Notre-Dame de Paris.*

Fransuz romantizmining buyuk namoyandasi Viktor Gyugo ijodi badiiy timsollar va ramziy obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida tabiat, jamiyat va inson ruhiyatini tasvirlashda turli vositalardan foydalangan bo‘lsa, zoosimvollar — ya’ni hayvonlar orqali berilgan ramziy ma’nolar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu obrazlar orqali Gyugo insoniy fazilatlar, ijtimoiy muammolar va axloqiy g‘oyalarni chuqur ifodalaydi.

Zoosimvollarning badiiy vazifasi

Gyugo asarlarida hayvon obrazlari oddiy tasvir vositasi emas, balki muhim badiiy ramz sifatida xizmat qiladi. Ular orqali yozuvchi inson xarakterining turli jihatlarini ochib beradi. Masalan, yirtqich hayvonlar shafqatsizlik, zulm va zo‘ravonlikni ifodalasa, itoatkor yoki ojiz hayvonlar ezilgan insonlar timsoliga aylanadi. Shu tariqa zoosimvollar orqali muallif jamiyatdagi kuchli va zaif qatlamlar o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

“Les Misérables” asarida zoosimvollar

Gyugoning mashhur romanida hayvonlarga oid o‘xshatish va ramzlar ko‘p uchraydi. Asarda ayrim qahramonlar hayvonlarga qiyoslanib, ularning ichki dunyosi ochib beriladi. Masalan, zolim yoki shafqatsiz obrazlar yirtqichlarga o‘xshatilsa, begunoh va ezilgan insonlar qo‘rqoqlik yoki ojizlik timsoli bo‘lgan hayvonlar bilan ifodalanadi. Bu usul o‘quvchiga obrazni yanada aniqroq va ta’sirchanroq tushunishga yordam beradi.

“Notre-Dame de Paris” asarida ramziy hayvon obrazlari

Ushbu asarda ham zoosimvollar muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim qahramonlarning tashqi ko‘rinishi va ichki dunyosi hayvonlarga o‘xshatilib, ularning jamiyatdagi o‘rni ochib beriladi. Kvazimodo obrazi ko‘pincha jamiyat tomonidan rad etilgan, ammo ichki dunyosi boy mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu yerda hayvoniylik tashqi ko‘rinishda bo‘lsa-da, insoniylik qalbda ekanligi ta’kidlanadi.

Zoosimvollar orqali ijtimoiy tanqid

Gyugo zoosimvollar yordamida jamiyatdagi adolatsizlikni tanqid qiladi. U hayvon obrazlari orqali insonning tubanlashuvi yoki, aksincha, yuksalishini ko‘rsatadi. Ba’zan insonlar

hayvonlardan ham yomonroq bo‘lishi mumkinligi, ba’zan esa hayvoniylik ortida insoniylik yashiringanini ko‘rsatadi. Bu esa yozuvchining chuqur falsafiy qarashlarini aks ettiradi.

Adabiyotda ramzlar ko‘p ma'noga ega va inson tajribasining turli tomonlarini aks ettirish, murakkab g‘oya va hissiyotlarni yetkazish uchun asosiy vositalardan hisoblanadi. Shu jumladan hayvon ramzlari adabiyotda mualliflarga o‘z fikr va his-tuyg‘ularini yanada aniqroq yetkazishga yordam beradigan kuchli tasvir bo‘lib xizmat qiladi. Zoosimvollar ko‘pincha inson ichki holati ifodasi yoki ijtimoiy hodisalarni talqin etishda ishtirok etadi. Ulardan foydalanish matnga hissiy boylik beradi. Ushbu maqolada biz buyuk frantsuz adibi Viktor Gyugo ijodida bo‘ri timsoli qay tarzda tasvirlanganligi xususida so‘z yuritamiz. Boshqa bir mashhur frantsuz yozuvchisi Aleksandr Dyuma buyuk shoir va yozuvchi Viktor Gyugoga “Gyugo oddiygina shoir emas, balki butun bir davrning o‘zidir” deya ta'rif bergan edi.

Darhaqiqat, nainki adabiy qarashlari va asarlari, balki haqiqatni, Frantsuz hukumatidan oddiy xalqning og‘irini yengil qiluvchi qonunlarni qabul qilishni targ‘ib etgan grajdanlik pozitsiyasi bilan ham Gyugo frantsuz adabiyoti va ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘chmas iz qoldirgan bir inson edi. She'riyatda davr tushunchasining o‘ziga xos xususiyati bevosita inson shaxsi bilan uyg‘unlikda tajassum topdi. Garchand, davr tushunchasi orqali insoniyatning o‘tmishi, hoziri, kelajagi yoki inson umrining mazmuni, mohiyati to‘g‘risida gap borsa-da, u eng avvalo, hayot, voqelik va inson shaxsiyati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Hayoti davomida turli qirol, imperator va respublikachilarni ko‘rgan Gyugoning nazmiy va nasriy asarlarida asosiy g‘oyasi sifatida doimo ozodlikka intilish, haqiqatga yetish kabi yuksak tuyg‘ular ifodasi ko‘rinadi. Ushbu tasvirda turli ramziy obrazlar, jumladan, hayvon va qushlar obrazi ham ishtirok etadi. Gyugo uchun odamlarga bog‘liq bo‘lmagan hayvonot olami o‘z-o‘zicha mavjud ma'lum bir turdan ko‘ra kengroq olamdir. U o‘z asarlarida hayvonlarning holatini tez-tez o‘rganib, uni “ajoyib va teran alifbo” deb atagan. Bu ta'rif uning jonivorlar hayotini boy va murakkab til sifatida idrok etishini, borliq haqidagi his-tuyg‘ular va chuqur haqiqatlarni yetkazishga qodir ekanligini ta'kidlaydi. Uning ijodida hayvon mohiyatan nisbiylashgan, tanazzulga va qarama-qarshilikka uchragan, ham sirli, ham izohlash mumkin bo‘lgan ontologik figuradir. Bu o‘rinda frantsuz madaniyatida bo‘ri obrazining ramziy talqiniga e'tibor qaratsak. O‘rmon va afsonalar timsoli sifatida bo‘ri tabiatning oddiy jonzoti maqomidan oshib ketib, tabiatiningmurakkabligi bois asrlar davomida dunyoning turli madaniyatlarida turli ramziy ma'nolar kasb etgan.

Qadimda Frantsiyada yashagan kelt qabilalari uchun bo‘ri timsoli ijobiy xarakterga ega bo‘lgan. Kelt mifologiyasining oliy xudosi Lug (Lug) ikkita bo‘ri hamrohligida aks ettirilgan, bu asosda, ehtimol, Lug nomi “leuks” “nur” va “bo‘ri” (loup) ma'nosini beruvchi “lukwos” so‘zidan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Bo‘ri hozirgi frantsuzlarning ajdodlari bo‘lmish gallik jangchilar uchun esa jasorat timsoli edi. Ba'zi gallik askarlar marosim sifatida bo‘rining fazilatlarini o‘ziga bog‘lash uchun ularning yuraklarini yeb bo‘lgach, dubulg‘alariga bo‘rining boshini o‘rnatardilar. Asta-sekin kelt madaniyatida it bo‘rining o‘rnini almashtirdi. O‘rta asrlarga kelib Frantsiya hududida minglab bo‘rilar chorva mollari uchun haqiqiy tahdid sanalgan, aynan ushbu davrda uning baxtsiz qurbonlarini yutib yuborayotganini aks ettiradigan hikoya va ertaklar, uni iblis mujassamlashgan shafqatsiz hayvon sifatida tasvirlaydigan diniy nutqlar natijasida oxir-oqibat insonlar ongida ushbu hayvon xususida dahshatli va nafrat uyg‘otuvchi hayvon sifatida tasavvur paydo qildi.

1764-1767 yillarda hozirgi Lozer viloyati hududida bir necha o‘nlab dehqon, ayol va bolalarni halok qilgan yirtqich hayvonning bo‘ri bo‘lishi mumkinligi xalq ongida ushbu tasavvurni kuchaytirgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Gyugo uchun hayvonot olami teran va ajoyib bir alifbodir, ya'ni har bir hayvonning o‘z xususiyat va hulq-atvori mavjud. Gyugo ijodiga mansub misollarni tahlil qilish jarayonida kuzatishimiz mumkinki, bo‘ri simvolikasi tashqi ko‘rinish, ma'lum vaziyatlardagi xattiharakatlar va implitsit tarzda ma'lum tushunchalarga ishora berish orqali namoyon bo‘ladi. Bo‘riga xos hushyorlik va ehtiyotkorlik uning qadam tashlashi orqali insonlarga nisbatan qo‘llanadi: Puis il regagna sa chambre à pas de loup. Shoir hayotidagi qora va

sovuq kunlardagi ruhiyati bo‘rining o‘z kavagiga kirishi orqali ifodalanadi va misralardagi linceul (kafan), le noir vieillard Décembre (qora kesa dekabr) birliklari orqali tushkunlik ma'nosi aks etadi: Il semble que sur moi, secouant son linceul, Se soit soudain penché le noir vieillard Décembre; Comme un loup dans son trou, je rentre dans ma chambre. Shoir xayolida unga tinchlik bermayotgan dahshatlar bo‘ri galasiga qiyos qilinadi: C’est qu’hélas! le hideux cauchemar qui me hante N’a pas de trêve et va furieux, fou, jaloux, Se multipliant comme un cortège de loups. Shoir uchratgan adolatsizliklar qo‘zichoqni xalaqit bergani uchun shunchaki paqqos tushirgan bo‘ri timsoli orqali gavdalantiriladi: Je n’ai trouvé dedans que deuil, misère, ennui. J’ai vu le loup mangeant l’agneau, dire: Il m’a nui.

Bundan tashqari shoir hayvonlarga nisbatan insonlarning yomon munosabatini keskin qoralagan. Kuzatuvlar natijasida adib asarlarida hayvonlarning ba'zi xatti-harakatlari va ma'lum vaziyatlardagi xulqatvorini insonlarga ko‘chirgan. Misollar tahlilida quyidagilarni kuzatamiz: chorasizlik: Le Thénardier éprouva ce qu’éprouve le loup au moment où il se sent mordu et saisi par la mâchoire d’acier du piège; Il se remit à vivre de plus en plus seul, égaré, accablé, tout à son angoisse intérieure, allant et venant dans sa douleur comme le loup dans le piège, quêtant partout l’absente, abruti d’amour; ... tous se turent avec des regards de loups enchaînés; qat'iyat va chaqqonlik: Il fit ce que fait le loup. Il donna une secousse. L’audace lui avait déjà réussi une fois; Il s’échappait impétueusement comme le loup qui trouve la cage ouverte; kamsitilish va g‘azab: Montparnasse avait l’attitude humiliée et furieuse d’un loup qui serait happé par un mouton; itoat: Seulement elle se taisait en l’absence du maître comme les louveteaux en l’absence du loup, va h.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, Gyugo frantsuz millatiga mansub inson sifatida xalq ongida shakllangan bo‘ri xususidagi salbiy tasavvurlar saqlab qolgan, shu bilan birga kuzatuvlari natijasidagi individual qiyoslashlar ham uning ijodida ham aks etgan. Shunday qilib, hayvon ramzlari shoir va yozuvchilar uchun muhim vosita bo‘lib, ularga tabiat va hayvonlar prizmasi orqali inson hissiyotlari va ijtimoiy hodisalarni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Xulosa

Viktor Gyugo ijodida zoosimvollar muhim badiiy va falsafiy ahamiyatga ega. Ular orqali yozuvchi inson va jamiyat muammolarini ramziy tarzda yoritadi, o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Gyugo hayvon obrazlari yordamida insoniylik va hayvoniylik o‘rtasidagi nozik chegarani ochib beradi hamda adabiyotda ramziy tasvirning yuksak namunalarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. – T.: Fan, 1979. – B. 8-9
2. Françoise Armengaud. L’animalité selon Victor Hugo: un « alphabet formidable et profond ».
3. Communication au colloque « L’animal du XIXe siècle » organisé par l’équipe « Littérature et civilation du XIXe siècle » de l’Université Paris 7 sous la direction de Paul Petitier, les 16-18 octobre 2008
4. Victor Hugo. Les Contemplations (1856) (édition électronique)
5. Victor Hugo. Les Misérables. Tome I,II (édition électronique, textes annoté par Guy Rosa, professeur à l’Université Paris-Diderot)
6. Victor Hugo. Notre-Dame De Paris. 1831. (édition électronique)

IJTIMOIY TARMOQLARDA DEZINFORMATSIYA VA FEYK XABARLARNING MA'NAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va gumanitar
fanlar kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan dezinformatsiya va feyk xabarlarning jamoat ma'naviy xavfsizligiga ta'siri taxlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning tezkor va keng tarqaluvchi axborot maydoni, yolg'on ma'lumotlarning tez tarqalishiga imkon yaratadi. Bu holat jamoat ishonchini pasaytiradi, siyosiy va ijtimoiy bo'linishlarni kuchaytiradi, shuningdek, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarda jamoat salomatligi va ruhiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, dezinformatsiya, feyk xabarlar, ma'naviy xavfsizlik, axborot savodxonligi, jamoat ishonchi, psixologik barqarorlik

Kirish: So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bu platformalar axborot olish, fikr almashish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning tezkor tarqaluvchanligi va global qamrovi bilan birga, noto'g'ri ma'lumotlar, dezinformatsiya va feyk xabarlarning tarqalish xavfi ham ortdi. Bunday axborotlar nafaqat siyosiy jarayonlarga, balki jamoatning ma'naviy va psixologik xavfsizligiga, shuningdek, jamiyatning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Soxtalashtirilgan ma'lumotlar tezkor tarqaladi va ko'pincha haqiqatdan tezroq keng auditoriyaga yetadi. Natijada, odamlarning qarashlari manipulyatsiya qilinadi, jamoatchilik ishonchi pasayadi va ijtimoiy birlashuv zaiflashadi. Ayniqsa, global pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarda dezinformatsiya insonlar hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradi, ruhiy barqarorlikni pasaytiradi va jamiyatning ijtimoiy mustahkamligini susaytiradi.

Asosiy qism: Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs erkinligi va ongni boshqarish muammosi yanada murakkablashib, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanmoqda. Onlayn axborot hajmining keskin ortishi, uning global miqyosda tezkor tarqalishi va raqamli platformalar orqali uzluksiz yangilanib borishi inson tafakkuri, dunyoqarashi va qaror qabul qilish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar shaxsning axborot iste'molini individual tarzda shakllantirib, unga mos kontentni taqdim etadi, bu esa bir tomondan qulaylik yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan insonni "axborot pufagi" yoki "echo chamber" holatiga olib kelib, muqobil fikrlar bilan to'qnashish imkoniyatini cheklaydi. Natijada shaxsning mustaqil fikrlashi va tanqidiy tafakkuri asta-sekin susayib, uning ongiga bilvosita ta'sir o'tkazish, uni ma'lum yo'nalishda boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, dezinformatsiya, manipulyativ kontent, feyk xabarlar va ayniqsa sun'iy intellekt yordamida yaratilayotgan "synthetic media" (deepfake, sun'iy tasvir va videolar) inson ongini chalg'itishning yangi va murakkab shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bunday axborotlar ko'pincha haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegarani noaniq qilib, shaxsning ishonch tizimini izdan chiqaradi, unda shubha, befarqlik yoki noto'g'ri ishonchni shakllantiradi. Bu jarayon nafaqat individual darajada, balki jamiyat miqyosida ham ijtimoiy ongni fragmentatsiyalash, ishonchsizlik muhitini kuchaytirish va ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, axborot tarqalish vositalari — og'zaki an'analar, bosmaxona, gazeta, radio va televideniye — har bir davrda jamiyat ongini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Biroq raqamli texnologiyalar davrida ushbu jarayon sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, ongni boshqarish mexanizmlari yanada nozik, yashirin va tizimli tus oldi. Endilikda axborot nafaqat ma'lumot berish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, yo'naltirish va hatto

nazorat qilish instrumentiga aylanib bormoqda. Shu sababli, shaxs erkinligi masalasi faqat axborotga erkin kirish huquqi bilan cheklanmay, balki inson ongining mustaqilligini ta’minlash, uni manipulyativ ta’sirlardan himoya qilish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va media savodxonlikni oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda haqiqiy erkinlik — bu faqat tanlash imkoniyati emas, balki ongli, asosli va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Shu nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, shaxs ongini himoya qilish va sog‘lom axborot muhitini yaratish davlat, jamiyat va har bir individ oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi axborot makonining kengayishiga va ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta’sir doirasining keskin ortishiga olib keldi. Mazkur jarayon axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs erkinligi va ongni boshqarish muammosini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotning yuqori tezlikda va keng qamrovda tarqalishi insonning axborot iste’moli xususiyatlarini tubdan o‘zgartirib, uning dunyoqarashi va qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, Facebook, Twitter va Instagram kabi platformalar nafaqat axborot almashinuvi va siyosiy muloqotni faollashtiruvchi vosita sifatida, balki ijtimoiy ongni shakllantirish va yo‘naltirishning muhim instrumentiga aylanib bormoqda.

Mazkur platformalar orqali siyosiy ishtirok imkoniyatlarining kengayishi, fuqarolarning bevosita muloqotga kirishishi va axborotga erkin kirishining ta’minlanishi shaxs erkinligining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ayni shu jarayonlar inson ongiga yashirin ta’sir o‘tkazish, uni manipulyatsiya qilish va ma’lum yo‘nalishda boshqarish imkoniyatlarini ham kuchaytirmoqda. Xususan, dezinformatsiya, nafrat nutqi, tarafkashlik va kiberbulling kabi salbiy axborot oqimlari shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning ongli tanlov qilish erkinligini cheklashi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning “virusli” tarqalish mexanizmlari yovuz niyatli subyektlar uchun keng imkoniyatlar yaratib, jamoatchilik fikrini sun’iy ravishda shakllantirish, ijtimoiy ishonchni susaytirish va demokratik jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanmoqda. Natijada, shaxs erkinligi va axborot xavfsizligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb masalaga aylanadi. Bu jarayonda davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifa — bir tomondan so‘z erkinligini ta’minlash, ikkinchi tomondan esa zararli axborot oqimlarining oldini olishdan iborat. Shu sababli, qonunchilik va ijtimoiy mexanizmlar insonning fikr bildirish huquqini cheklamagan holda, uning ongini manipulyativ ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ayniqsa, haddan tashqari qat’iy cheklovlar “sovutuvchi ta’sir” (chilling effect) keltirib chiqarib, erkin fikr almashinuviga to‘sqinlik qilishi mumkin. Axborotlashgan jamiyatda shaxs erkinligini ta’minlash faqat texnik yoki huquqiy masala emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy muammo bo‘lib, u inson ongining mustaqilligi, tanqidiy tafakkuri va ma’naviy immunitetini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy axborot muhitida ongni boshqarish mexanizmlarini anglash va ularga qarshi samarali himoya choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida “dezinformatsiya” atamasi inson ongini boshqarish va shaxs erkinligini cheklash vositasi sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dezinformatsiya — bu odamlarni chalg‘itishga qaratilgan, maqsadli yaratilgan va tarqatilgan noto‘g‘ri axborotdir. Bu “misinformatsiya”dan farq qiladi, chunki misinformatsiya noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, lekin uni tarqatishning maqsadi odamlarni bilib chalg‘itish emas. Shu bilan birga, “malinformatsiya” tushunchasi mavjud bo‘lib, unda haqiqatga mos axborot zararli niyat bilan tarqatiladi. Dezinformatsiya bilan bog‘liq boshqa tushunchalarga “fitna nazariyalari” va “kompyuter propagandasi” kiradi. Fitna nazariyalari odatda yirik voqealar sirli va qudratli guruhlar tomonidan rejalashtirilgan degan tushuntirishlarni bildiradi. Ular dezinformatsiyani o‘z ichiga olishi mumkin, ammo asosiy e’tibor yashirin maqsadlar va manipulyatsiyalangan voqealarga qaratiladi. “Kompyuter propagandasi” esa dezinformatsiya bilan ko‘pincha kesishadi, lekin u

avtomatlashtirilgan vositalar, masalan, botlar yoki “haqiqiy foydalanuvchilarni taqlid qiluvchi dasturiy ta’minot”, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda kontentni keng miqyosda tarqatish uchun ishlatiladigan algoritmlarga tayanganini ta’kidlaydi.

Dezinformatsiya yangi hodisa emas; u tarix davomida inson ongini boshqarish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida ishlatilgan. Qadimiy hukmdorlarning mish-mishlarni tarqatishidan tortib, Sovet Ittifoqi tomonidan Sovuq urush davrida amalga oshirilgan “INFEKTION operatsiyasi” kabi ilg‘or kampaniyalargacha — dezinformatsiya jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilishda samarali vosita bo‘lgan. Ushbu kampaniya AQShni diskreditatsiya qilishga qaratilib, HIV/AIDS virusini biologik qurol sifatida yaratganligi haqidagi yolg‘on da’volarni tarqatgan. Bugungi kunda dezinformatsiya yangi texnologiyalar — ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va algoritmlar — orqali yanada kengroq va tezkor tarqalmoqda. Bu esa shaxs erkinligini cheklash va ongni boshqarishning murakkab mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. Dezinformatsiya insonning tanqidiy tafakkurini susaytiradi, axborotni tanlash va tekshirish qobiliyatini zaiflashtiradi, natijada ongli qaror qabul qilish erkinligini cheklaydi. Shu jihatdan, axborotlashgan jamiyatda shaxs erkinligini ta’minlash nafaqat axborotga erkin kirish bilan, balki ongni manipulyativ ta’sirlardan himoya qilish va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqamli texnologiyalar davri dezinformatsiya mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib, uning tarqalishini sezilarli darajada tezlashtirdi. Bugungi kunda dezinformatsiya kampaniyalari turli davlat va nodavlat subyektlar tomonidan amalga oshiriladi va turli taktikalardan foydalaniladi. Bu kampaniyalar juda murakkab bo‘lib, noto‘g‘ri axborotni tarqatish, qarshi fikrlarni sustlashtirish va ma’lum bir qarashga keng jamoatchilik qo‘llab-quvvatlayotgandek taassurot yaratish uchun botlar va mikro-targetlash kabi usullardan foydalanadi. Masalan, botlar — ijtimoiy tarmoqlarda haqiqiy foydalanuvchilarni taqlid qiladigan avtomatlashtirilgan dasturiy agentlardir. Ular kontent joylashtirish, soxta profillar yaratish, foydalanuvchilar bilan aloqada bo‘lish va dezinformatsiyaning qamrovini sun’iy ravishda oshirish uchun dasturlanishi mumkin. Mikro-targetlash esa foydalanuvchilarning onlayn ma’lumotlaridan strategik foydalanib, dezinformatsiyani aniq va tor auditoriyaga moslashtirishni anglatadi. Bu usul dezinformatsiyaning ta’sirchanligini va samaradorligini oshiradi. Ushbu taktikalarning natijasida dezinformatsiya operatsiyalari yetib borish doirasi, masshtabi va aniqligi jihatidan kengaydi. Maqsad esa saylov jarayonlarini buzish va jamoatchilik fikrini chalg‘itishdir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari dezinformatsiyaning tarqalishini kuchaytiradi va ma’lum auditoriyalarni nishonga olish imkonini beradi, bu esa uni aniqlash va unga qarshi kurashishni murakkablashtiradi. Fil Xovard o‘zining mashhur “Lie Machines” (Yolg‘on Mashinalari) kitobida shunday yozadi: “Siyosiy aktorlar katta yolg‘onlar yaratishda nihoyatda mahoratli bo‘lib bormoqda, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari bu yolg‘onlarni tarqatishning samarali vositasini beradi va ularni to‘g‘ri auditoriyaga yetkazish bo‘yicha marketing ilm-fani rivojlanmoqda.”

Ushbu kuchli taktikalarning demokratik jarayonlar va saylovlarga jiddiy xavf tug‘dirishi aniq. Dezinformatsiya epistemik shubha, ishonchsizlik va gumon uyg‘otib, fuqarolarning ongli qaror qabul qilish va jamoat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatini susaytiradi. Shuningdek, u jamiyatni polarizatsiyaga olib keladi va ijtimoiy tarmoqlardagi yopiq siyosiy hamjamiyatlarni mustahkamlaydi. Ushbu tahdidlar saylovlarning adolatliligidan tashqari, jamoat salomatligi va milliy xavfsizlik kabi sohalarga ham taalluqlidir. Shu bois, parlamentlar dezinformatsiyaning ko‘p qirrali xavflarini chuqur anglab, ularni samarali nazorat qilish choralarini ishlab chiqishi zarur. Raqamli transformatsiya davrida dezinformatsiya va feyk xabarlar nafaqat axborot makonini buzadi, balki jamoatning ma’naviy va psixologik xavfsizligiga ham jiddiy tahdidlar tug‘diradi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar odamlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u yerda axborotning tez tarqalishi inson ongiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, yolg‘on ma’lumotlar tez va keng miqyosda tarqalib, odamlarning dunyoqarashi, qaror qabul qilish jarayoni

va ijtimoiy qarashlariga ta’sir qiladi. Soroush Vosoughi va hamkasblarining tadqiqotiga ko‘ra, yolg‘on ma’lumotlar rost ma’lumotlarga qaraganda tezroq tarqaladi va katta auditoriyaga yetadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, eng mashhur 1% yolg‘on xabarlar mingdan yuz minggacha odamga yetgan bo‘lsa, rost ma’lumotlar odatda ming kishidan oshmaydi. Bu holat axborot maydonida to‘g‘ri ma’lumotlarning soxtalashtirilgan axborot ostida qolishiga va odamlarning qarashlarini manipulyatsiya qilishga olib keladi. Muhim jihat shundaki, har bir feyk yoki dezinformatsiya zararli niyat bilan yaratilmaydi. Ba’zi noto‘g‘ri ma’lumotlar dastlab zararli niyat bilan tarqatilgan bo‘lsa ham, uni ishonch bilan haqiqat deb qabul qilgan foydalanuvchilar ham ixtiyoriy ravishda tarqatadi. Bu jarayon noto‘g‘ri axborotning keng tarqalishiga va ma’naviy ongning zaiflashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, dezinformatsiya va feyk xabarlar ijtimoiy qutblanishni kuchaytiradi, odamlar o‘rtasidagi ishonchni pasaytiradi va jamoat birligini zaiflashtiradi. Demokratik jarayonlar ham bu holatdan mustasno emas. Dezinformatsiya global saylovlarda takroriy tarzda qo‘llanilib, ko‘pincha avtoritar davlatlar tomonidan demokratik tizim va raqiblarni obro‘sizlantirish maqsadida ishlatiladi. Shu bilan birga, bunday aralashuvlar ichki manbalardan ham kelishi mumkin, masalan, siyosiy tarafkashlikni kuchaytirish yoki jamoatchilikni manipulyatsiya qilish orqali. Philippe J. Grattonning ta’kidlashicha, saylovlarga aralashuv “nafaqat demokratik jarayonlarga, balki ijtimoiy infratuzilmalarga va iqtisodiy barqarorlikka ham zarar yetkazishi mumkin.” COVID-19 pandemiyasi davrida dezinformatsiya va feyk xabarlarning ma’naviy xavfsizlikka ta’siri sezilarli darajada ko‘zga tashlandi. Virus va davolash usullari haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar keng tarqaldi, odamlar orasida ishonchsizlik, qo‘rquv va qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘ldi. Bunday noto‘g‘ri axborot nafaqat jamoat salomatligiga, balki odamlarning ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi: odamlar xavotirga tushdi, ijtimoiy faollik kamaydi, o‘zaro ishonch sustlashdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bunday noto‘g‘ri ma’lumotlar yuzlab o‘lim va minglab shifoxonaga yotqizilish holatlariga olib kelgan. Bu holat dezinformatsiyaning jismoniy xavfsizlik bilan birga ma’naviy xavfsizlikni ham tahdid qilayotganini aniq ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan dezinformatsiya yoshlar ongiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ularning axborot savodxonligi va kritik fikrlash qobiliyatlari yetarlicha shakllanmaganligi sababli, ular osonlik bilan yolg‘on xabarlarga ishonadi va uni yana boshqalarga tarqatadi. Natijada, jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy qadriyatlari xavf ostida qoladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiya va feyk xabarlar nafaqat axborot maydonini buzadi, balki jamoatning ma’naviy xavfsizligiga, ruhiy barqarorligiga va ijtimoiy birligiga jiddiy tahdid soladi. Shu bois, dezinformatsiyaga qarshi kurashish, axborot savodxonligini oshirish va jamoatchilikni ongli qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshonjonov B.Z. “Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalari” 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2025. B:- 55
2. Eshonjonov B.Z. Migrant oila farzandlarida qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 2025-yil №5 B.1138-1140.
3. Davronova D.S. Voyaga yetmagan bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishda ta’lim muassasalari, mahalla va oilaning hamkorligi samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari. // Zamonaviy ta’lim. 2018, №7. – B. 38-39.
4. ‘Fake news’ went viral in 2016. This expert studied who clicked
5. Disinformation’s spread: bots, trolls and all of us All the News That’s Fit to Fabricate: AI-Generated Text as a Tool of Media Misinformation Lie Machines

SOG‘LOM TURMUSH TARZI MASALALARINING ISLOM DINIDA YORITILISHI

Butoyev Ilxom Uzokovich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va gumanitar fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi f.f.b.f.d.(PhD)

ANNOTATSIYA: Maqolada sog‘lom turmush tarzi, uning islom dinida namoyon bo‘lishi xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Islom dinida insonning aziz va mukarram zot sifatida ulug‘lanilishi, uning ruhiy va ma’naviy komilligi masalalari ko‘rib o‘tilgan. Islom dinida inson salomatligi, pokligi, tozaligi, ozodaligi masalalarining yoritilishi. Islom dinida halol mehnat, ilmga da’vat, jismoniy faollik masalalarining yoritilishi. Islom dini va tasavvuf ta’limotida komil inson masalasi. Komil insonning ma’naviy fazilatlari.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, islom dinida sog‘lom turmush tarzining xususiyati, insonning jismoniy va ma’naviy kamoloti, islomda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, sog‘lom turmush tarzida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi, islom dini va tasavvuf ta’limotida komil inson masalasi.

Sog‘lom turmush tarzi – inson turmush sharoitlarini faol o‘zlashtirish usuli bo‘lib, kun tartibiga rioya qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug‘ullanish, to‘la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigienik qoidalariga rioya qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma’naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o‘zini tuta bilish demakdir. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish shaxs hayoti va salomatligiga tegishli bo‘lgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, kun tartibiga qat’iy amal qilish, muntazam ravishda chiniqib borish, faol jismoniy harakatni tashkil etish hamda sport bilan doimiy shug‘ullanishga erishish, to‘g‘ri ovqatlanish qoidalarining mohiyati va ahamiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni puxta o‘zlashtirish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish, shaxsiy salomatlikni saqlashga nisbatan mas’uliyatni qaror toptirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyat qoidalariga ega bo‘lish, o‘zida yuksak axloqiy sifatlar, kuchli va mustahkam irodani hosil qilishga erishish, turmush muammolariga qarshi kurashish, milliy g‘oya va mafkura asosidagi dunyoqarashga ega bo‘lishni talab qiladi. Sog‘lom turmush tarzi odamlarning o‘z salomatliklarini saqlash va yaxshilashga qaratilgan faoliyati bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish deganda insonning hayot kechirish tarzini to‘g‘ri shakllantirish tushuniladi.

Mamlakatimizda “jaholatga qarshi - ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi[1-B.43], -deb ta’kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Ota bobolarimizning diniy e’tiqodi va xalqimiz ma’naviyatining asosi bo‘lgan islom dinida sog‘lom turmush tarzi masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Islom dini insonni aziz va mukarram zot sifatida ulug‘laydi, uning ruhiy va ma’naviy komillikka etishishi masalasi islom dinidagi muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Islom dini insonni doimo ozoda va pok bo‘lishga chaqiradi. Qur’oni karimda Muddassir surasining 4-oyatida “Kiyimlaringni pokla” deyilgan bo‘lsa, hadislarda “Albatta Alloh – pokdir, poklikni yaxshi ko‘radi; tozadir, tozalikni yaxshi ko‘radi; oliyjanobdir, oliyjanoblikni yaxshi ko‘radi; saxiydir, saxovatni yaxshi ko‘radi. Bas, hovlilaringizni toza tutinglar!”[2.], – deyilgan. (Imom Termiziy rivoyatlari).

Islom dinida inson salomatligining eng birinchi omillaridan bo‘lgan poklikka juda katta e’tibor qaratiladi. Islom dinida poklik, tozalik, ozodalik, gigiena va boshqa jihatlarga doimo e’tibor qaratib kelingan.

Islom dinida insonni har tomonlama barkamol va sog‘lom qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biri bu to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lib hisoblanadi. Qur’oni karim A’rof surasining 31-oyatida “Eb-ichinglar va lekin isrof qilmanglar”[3], deyilgan. Isrof qilish bu – me’yoridan ortiqcha eyish, turli moddiy boyliklarni ko‘r-ko‘rona, o‘ylamay sarflash, isrofgar bo‘lishdir.

Sog‘lom turmush tarzining ajralmas tarkibiy qismi insonning halol mehnat faoliyatidan iborat bo‘lib, hadislarda “Qo‘y boqinglar, chunki u barakadir”[4-B.14], deyilgan. Hadislarda inson tomonidan hatto hayvon va qushlarga ham yaxshilik qilish zarurligi ta’kidlangan. “Qaysi bir mo‘min biror ekin eksa yoki mevali daraxt o‘tqazsa-yu, ulardan qushlar odamlar yoki hayvonlar esa, bu uning uchun sadaqa hukmida bo‘ladi”
[5-B.14].

Insonlar uchun halol qilingan ishlar avvalo mehnat evaziga topilgan, shuningdek, pok va toza oziq-ovqat iste’mol qilishda ko‘rinadi. Halollik yanada kengroq ma’no kasb etib, hayot va turmushdagi halollik, o‘zaro muomala va munosabatdagi halollik, mehnatdagi halollik, jamoa orasidagi halollik, savdo-sotiqdagi halollik, do‘stlar o‘rtasidagi halollik kabilarga islom dinida katta e’tibor qaratilgan. Hadislarda “Haqingni xoh mukammal, xoh kami bilan bo‘lsa-da, halol qilib ol!”[6-B.46], deyilgan.

Islom dinida insonning sog‘lom turmush tarzi, uning salomatligi uning axloq va odobiga bog‘liq deb hisoblanadi. Insonning yuragi to‘g‘ri bo‘lib, haq yo‘ldan yursa u hamisha xotirjam bo‘ladi, ko‘ngli ravshan bo‘lib doimo sihat-salomat yuradi. Halollik va insonparvarlik insonlarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-oqibatida, shuningdek diyonatda, mehr-shafqatda, o‘zaro ko‘maklashuvda, hamdardlikda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi[7-B.190].

Insonda sog‘lom turmush tarzining shakllanishida, inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan bo‘lib hisoblanadi. Qur’oni karimning oyatlari ilmga targ‘ib qiladigan “o‘qi!” degan xitob bilan boshlanadi va boshqa oyatlarida ilm olish va o‘rganishga da’vat qiladi. Hadislarda musulmon shaxs uchun ilmning naqadar zarurligi bayon etilgan. Islom ta’limotida bilim eng oliy maqsad – dunyoni bilish uchun zarur deb uqtiriladi. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarida “Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham o‘rganinglar, Ilm egallang!-Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida-tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida-zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda-quroldir”[8-B.46], deganlar. Qur’oni karim oyatlaridan birida: “Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilgaysan, deb ayt!”-deyiladi. Hadisi sharifda “Ilm olmakka intilish har bir muslim, muslima uchun qarzu farz”[9-B.46] deyilgan.

Yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - ayniqsa, ularning qariyb 50 foizini tashkil etadigan qiz bolalarni hayotga tayyorlash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, oilaviy ajrimlar, o‘smirlar orasida jinoyatchilik holatlarining oldini olish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda[10-B.385].

Sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi bu jismoniy faollik, ya’ni insonning tanani chiniqtiradigan jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishidan iborat bo‘lib, islom dinida bu masalaga ham alohida e’tibor qaratilgan. Imom Muslim va Imom Ahmad ibn Hanbal keltirgan rivoyatda sahobalardan Salama ibn al-Akva’ning so‘zlari keltiriladi: “Biz yo‘lda yurib borar edik. Ansoriylardan musobaqada hech engilmagan bir kishi: “Madinagacha musobaqalashuvchi bormi? Qani kim musobaqa qila oladi?” – dedi. “Hurmatli kishini hurmat, sharaflini sharafini rioya qilmaysanmi?” – dedim. “Faqatgina Rasulullo sallallohu alayhi vassalamni”, – dedi. “Ey, Allohning Rasuli! Ota-onam Sizga fido bo‘lsin! Qo‘yib bering, shu odam bilan musobaqalashay”, – dedim. “Xohishingiz bo‘lsa, mayli”, – dedilar U Zot. Madinaga undan ilgari bordim”[11]. Ushbu rivoyatdan ilk islom davrida sahobalar ichida doimiy sport musobaqalari bo‘lib turganini ko‘rib o‘tish mumkin.

Imom Abu Dovud rivoyat qilgan hadisda quyidagi fikr bayon qilingan. “Nabiy sallallohu alayhi va sallam Bathoda edilar. U Zotning huzurlariga Rukona ibn Yazid qo‘y-echkilarini haydab keladi va: “Ey, Muhammad, men bilan kurashga tushasanmi?!”-dedi. “Sovringa nima qo‘yasiz?” – dedilar. “Qo‘ylarimdan birini”,-dedi. SHunda Payg‘ambarimiz alayhissalom u bilan kurashga tushdilar va uni yiqitdilar. Keyin esa qo‘yni oldilar. Rukona: “Yana qayta tushasanmi?”-dedi. Bu hol bir necha marta takrorlandi. Oxiri u: “Ey Muhammad! Allohga qasamki, hech kim elkamni erga tekkiza olmagan edi. Meni yiqitgan Siz emassiz!”,-dedida, Islomga kirdi. Payg‘ambarimiz alayhissalom unga qo‘ylarini qaytib berdilar”.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan boshqa bir hadisi sharifda Nabiy sallallohu alayhi va sallam bozorda kamon otish musobaqasi o‘tkazayotgan aslamlik kishilar huzuridan o‘tib qoldilar va: “Otinglar! Ey Bani Ismoil! Otangiz mergan edi. Otinglar! Men Bani fulon bilanman!” – dedilar. Shunda taraflardan biri qo‘llarini tiydilar. Payg‘ambarimiz alayhissalom: “Sizlarga nima bo‘ldi? Otmay qo‘ydinglar?” – dedilar. Ular: “Siz ular bilan bo‘lsangiz, qandoq qilib ham otar edik”, – deyishdi. U Zot: “Otinglar! Men hammangiz bilanman!”[12] – dedilar.

Yuqoridagi hadis shariflardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ilk islom davrida Rasulullohning nafaqat o‘zlari jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanganlar, balki sportni o‘z ahli oilalariga olib kirganlar. Sahobalari o‘rtasida musobaqalar o‘tkazganlar. Hatto musulmon kishi bilan musulmon kishi o‘rtasida musobaqa o‘tkazilganidek, musulmon kishining boshqa din vakili bilan ham sport musobaqasi o‘tkazishi mumkin ekanligiga o‘zlarining shaxsiyatlari bilan ishora qilganlar.

Islom dinida inson salomatligiga sabab bo‘luvchi narsalarga buyurilgan va o‘z navbatida salomatligiga zarar etkazuvchi har qanday ishlardan qaytarilgan. Xususan, islom dinida mast qiluvchi ichimliklar ichish, giyohvand moddalarni qabul qilish oyati kalima bilan ochiqdan-ochiq harom qilingan. Zararli odatlar rivojlanishiga hech qanday imkoniyat qoldirilmagan.

Insonda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish komil insonni tarbiyalash asosida amalga oshiriladi. Islom dinida, tasavvuf ta’limotida komil insonni tarbiyalash masalasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, komil inson haqidagi ta’limot insonni har jihatdan insoniy, axloqiy, ilmiy, e’tiqodiy va boshqa sohalarda eng yuksak kamolotga etgan xislatlarini ko‘zda tutadi.

Komil inson – tasavvuf falsafasiga ko‘ra, har jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to‘liq bilimga ega bo‘lgan va natijada Haqqa etishgan (yoki Qur’on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Komil inson Allohning barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko‘zguda ko‘rgandek ko‘rib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki: ma’naviy va moddiy jig‘atlarini birga qo‘shadi. Komil inson Alloh Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va kashshofi ekanligini butun vujudi bilan his qiladi[13-B.262].

Insonda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda diniy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Jamiyatdagi ma’naviy yangilanish, poklanish jarayonida diniy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Islom dini ma’naviy yangilanish jarayonida O‘zbekiston fuqarolarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni eng oliy ruhiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishga xizmat qilib kelmoqda. Ota-onani e’zozlash, qarindoshlarga hurmat, to‘g‘rilik, kamtarinlik, niyat sofligi, nopok ishlardan saqlanish, imkoni boricha sadaqa qilish, beva-bechoralarga yordam qo‘lini cho‘zish, ayniqsa, yoshlar ongida diniy bilim va ko‘nikmalarni to‘g‘ri shakllantirish, musibatdagi insonlarga hamdardlik va shu kabi boshqa mavzudagi oyat, hadislar, mutafakkir va allomalarimiz qoldirgan boy diniy mavzulardagi meroslar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda[14-B.96].

Diniy qadriyatlar asosida fuqarolarda Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, diniy e’tiqodni e’zozlash, halollik va poklik, nopok ishlardan saqlanish kabi ma’naviy fazilatlar shakllantirilmoqda. Xalqimizda azal-azaldan farzandlarga go‘zal tarbiya berish, ularni ko‘ngli va dili pok to‘g‘ri insonlar qilib tarbiyalash masalasiga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Yoshlarni dunyoviy va diniy bilimlarga ega, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, vatanparvar qilib tarbiyalash

masalasi bugungi kunda O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishidagi eng muhim masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

[1]. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil, 43 bet.
[2]. Dinimizda sog‘lom turmush tarziga e’tibor. http://fitrat.uz/26-02-2021-j-dinimizda-so-lom-turmush-tarziga-etibor/
[3]. Dinimizda sog‘lom turmush tarziga e’tibor. http://fitrat.uz/26-02-2021-j-dinimizda-so-lom-turmush-tarziga-etibor/
[4]. Axloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent, “Fan”, 1990 yil, 14 bet.
[5]. Axloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent, “Fan”, 1990 yil, 14 bet.
[6]. Mahkamov Ulfat. Axloq-odob saboqlari. Toshkent, “Fan”, 1994 yil, 46 bet.
[7]. Qamar Omon. Ma’naviyat nazariyasi va tarixi. Toshkent, SHarq, 2002 yil, 190 bet.
[8]. Mahkamov Ulfat. Axloq-odob saboqlari. Toshkent, “Fan”, 1994 yil, 46 bet.
[9]. Mahkamov Ulfat. Axloq-odob saboqlari. Toshkent, “Fan”, 1994 yil, 46 bet.
[10].Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 2019 yil, 385 bet.
[11]. Dinimizda sog‘lom turmush tarziga e’tibor. http://fitrat.uz/26-02-2021-j-dinimizda-so-lom-turmush-tarziga-etibor/
[12]. Dinimizda sog‘lom turmush tarziga e’tibor. http://fitrat.uz/26-02-2021-j-dinimizda-so-lom-turmush-tarziga-etibor/
[13]. Islom. Ensiklopediya. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017 yil, 262 bet.
[14].Ёшлар маънавий онгининг шаклланишида диний қадриятларнинг ўрни. “Соғлом турмуш тарзи – обод турмуш кафолати”, Илмий амалий конференция материаллари. Тошкент, 2013 йил, 96 бет.

Yangi O‘zbekistonda valeoestetikani rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari.

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili vagumanetar fanlar
kafedirasi o‘qiuvchisi
Javliyev Feruz Kamilovich
Tel:91-525-79-76

Annotatsiya. Maqolada inson salomatligi o'zaro bog'liq xususiyatlarning murakkab majmuasi (axloqiy, ma'naviy, psixologik, intellektual, ijtimoiy, madaniy, ekologik, jismoniy). Asosiy e'tibor jismoniy salomatlikni shakllantirishda asosiy shaxs sifatida insonning ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan. Tadqiqot ma'lumotlari keltirilgan va tahlil qilingan turli darajadagi ongga ega bo'lgan odamlarning ma'naviy salomatligi sabab nazariyasi metodologiyasi va sabab bilan ishlash usuli (so'rovnoma orqali).

Kalit so'zlar: yangi o‘zbekiston, valeologiya, sog'lom turmush tarzi, ma'naviyat, axloq, g‘oya.

Kirish: Bugungi kunda jahonda insonlarning turmish sharoiti yaxshilanib borayotgan bir paytda, yurtimizda amalga oshirilayotgan sog’lom turmush tarzi sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlarda shuni ko‘rishimiz mumkinki, aholi salomatligini yaxshilash eng muhim masalalardan biri bo’lib boryapti. Bu sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yoshlarni ma’naviy kamolotga erishish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘z umrini inson salomatligi me’yorini o‘rganishga bag‘ishlagan buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino uzining 50 ga yaqini tibga bag‘ishlangan:“Al-Qonun fi-t-tib” (“Tib qonunlari”), “Urjuza fit-t-tib”(“Kichik tibbiy qonun” yoxud “Tibbiy doston”-S.X.),“Shifo kitobi”, “Qulanj kasalligini davolash” va boshqalar. Me’yor

tibbiyotda “xos miqdor”, “mo‘’tadil”, “zaruriy miqdor”, “o‘rtacha”, “maromida”, “tartib”, “had”, “e’tidol”, “al-miqdor al-lozim”, “haqiqatga yaqin miqdor”, “tadbir”, “mizoj”[1] va hokazolar. tushunchalar orqali ifodalangan . Bugungi kunda voyaga yetib kelayotga yoshlarni sog‘lom turmush tarziga moslashtirib ta’lim va tarbiyaning uzviyligini amalga oshirish jarayonida ta’lim va tarbiyani davlat siyosati darajasiga ko‘tarib borishda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021 yilga “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nom berishi ham bu borada keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish lozimligini ta’kidlab o‘tgani bejizga emas. Bunda “aholi, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish - eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim” deb ta’kidlab o‘tgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tibbiyot sohasiga ham yetarli darajada etibor qaratmoqda buning samarasi ularoq joriy yining 18- may kuni Anjumanlar saroida tibbiyot xodimlari bila uchrashuv chog‘ida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Salomatlik – insonning birlamchi ehtiyoji, istagi. Shu bois davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e’tibor qaratib, sohani izchil rivojlantirib kelmoqda. Prezidentimiz hududlarga safari chog‘ida ham har doim tibbiyot maskanlariga boradi, shifokorlar bilan suhbatlashib, aholi salomatligini so‘raydi. Hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, faqatgina sog‘lom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. El-yurtimiz azaldan shifokorlarni, inson salomatligini asrashdek ezgu va savobli ishga, butun borlig‘ini bag‘ishlagan fidoyi zotlar, deb biladi va hamisha qadrlaydi. Chunki odamlar sizlarga o‘zlarining eng bebaho boyliklarini – hayotlarini ishonib topshiradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. olib borilayotgan islohotlar xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Milliy g‘oyamizning bosh g‘oyasi “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. Yuksalish – harakatni talab qiladi. Demak, milliy g‘oyamiz harakatlar mafkurasi bo‘ladi. Milliy g‘oya odamlarga islohotlar kim uchun, nima uchunligini, ahamiyatini tushuntiradi va sog‘lom muhitni yaratadi. Chunki shularni tushunmagan odamlar birlashmaydi, ko‘r-ko‘rona, yuzaki ishlaydi. Biri ishlasa, ikkisi tomoshabin bo‘ladi. Tushunganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Yoshlarimizni shunday g‘oyalar bilan qurollantirib, sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashasagina Natijada hayotidan rozi bo‘ladi. Endi gap milliy g‘oyani har bir o‘zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo‘l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekbin mazmun, mavzular bilan mutanosib to‘ldirishga alohida e‘tibor qaratmog‘imiz zarur. Chunki Hozirda dunyoda ko'plab hududlarda notinchlik, urushlar va janjallarning saqlanib qolayotganligi nosog‘lom muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada jamiyatda turli ko'ngilsizliklar ortib bormoqda. Chetdan turib g‘arazli manfaatdor kuchlarning ta’sir ko‘rsatayotganligi ijtimoiy – siyosiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek “yaqin mingyillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas intellektual ya'ni ma'naviy marifiy boyligi hal etadi”. Bunday holatlarga erishish uchun yurtimizda sog‘lom muhit va sog‘lom turmushning o'rni katta. Negaki, kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta’sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g‘oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz xolos. Bugungi notinch, o‘ta tahlikali, o‘zaro tortishuv manfaatli kurash avjiga chiqqan zamonda ertangi kunimizga, dunyo tan olgan davlatlar qatoriga faqatgina bilim va ma‘rifatga tayangan holda intellektual saloxiyatimizni yuksak darajaga ko‘tarish hisobidan erishmog‘imiz lozim.

Abu Nosir Farobiy ”har bir shaxs munosib odam unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy kamolatga erishadi, tarbiya orqali esa, kishilar bilan muloqatning qadr-qimmatini va amaliy faoliyatini o‘rganadi” deb takidlab o‘tadi.Sharq mutafakkirlari o‘z zamonasidayoq oilada bola tarbiyasining ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq ekanligini bu vaziyatni o‘zgarilishi uning tarbiyasiga ta’sir qilishi tabiiydir degan xulosaga kelishgan. Milliy qadriyat urf-odat an’analar, milliy o‘zligini anglashi lozim. Oilada ona o‘z farzandini ona suti va ona allasi orqali voyaga yetkazishi bu bolaga ma’naviyatni singdirilib borilayotganligini ko‘rsatadi. Otaning oilaga

sadoqati, farzand tarbiyasidagi ibrati, halolligi, mehnatsevarligi vatanparvarligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Insonning sog‘lom bo‘lib kamol topishini jismoniy tushuncha bo‘lishi bilan birgalikda ayni vaqtda insonning ma’naviy sog‘lom fikirlashga bog‘liqligini alohida e‘tiborga olishimiz lozim. I.A.Karmov ta'kidlaganlaridek “Yosh avlodni

Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga, istiqboli g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga e'tibor berilmoqda”. Eng asosiysi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi his etadi bu bejiz emas albatta.

Hozirgi zamon sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi qarashlar rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak tarixiy ma’lumotlarga kura 1832 yil — Amerikalik tibbiyotchi Silvester Grexemga (1794—1851) borib taqaladi. Silvester Grexem xristianlikka kuchli e‘tiqodi bo‘lganligi uchun Angliyadan Amerikaga ko‘chib borgan xristianlarga vegetarianlik bo‘yicha ma’ruzalar o‘qiydi. Sababi, xristianlikning ba‘zi udumlariga ko‘ra, hayvonlar go‘shtini, jumladan, tuxumni xam iste‘mol qilish gunoh hisoblanar edi. O‘sha davrda Amerikaning Filadelfiya shtatida vabo kasalligi keng tarqalib, ko‘pchilik bu kasallikdan o‘lib ketayotgan edi. Grexem kuzatib ko‘radiki, uning maslaxati bilan vegeterianlikka rioya etayotganlardan hech kim vabo bilan og‘rimaydi. Shunda u vegetariancha ovqatlanish organizmning himoya kuchlarini oshiradi, degan qarorga keladi va bu fikrni keng targ‘ibot, tashviqot qilishni davom ettiradi.

Shu zaylda sog‘lik masalasida noan’anaviy fikrlovchi kishilar, aniqrog‘i, tibbiyotchilar ko‘payib, ular ichida sog‘lom turmush tarzi sohasida olamshumul ishlar qilgan fidoiylar va olimlar yetishib chiqadilar. Amerikada — Govard Xey, Djennings, Trol, Tilden, Djekson, Gerbert Shelton, Pol Bregg, Alisa Cheyz, Yaponiyada — Kotsudzo Nishi, Jorj Ozava, Imamura Motoo, Germaniyada — Maks Gerzon, Isroilda — Mixael Goren, Rossiyada — Yuriy Nikolaev, Aleksandr Mikulin, A.N.Kokosov, Nadejda Semenova va boshqalar.

Akademik Yu. Lisitsin uzoq, yillardagi ilmiy izlanishlar hamda bu sohadagi mavjud fikr va mulohazalarni umumlashtirib, kishilar sog‘lig‘ini 50—55% ni ularning turmush tarziga, 20—25% ni irsiy omillarga, 15—20% ni atrof-muhitga bog‘liq, tibbiy xizmat esa kishilar sog‘ligini atigi 8—10 foizinigina ta’minlay olishi mumkin, degan qarorga keladi.

Bundan tashqari sog‘lom turmush tarzining rivojlanish bosqichlarini birgina tana a’zolari sog‘ligi, uzoq umr ko‘rish omillari bilan izohlash kerak emas. Balki, insonning yetuk shaxs bo‘lib tarbiyalanishida ma’naviy sog‘lom turmushni shakllantirish va uning rivojlanish omillarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Aynan mazkur masalada yurtimizda tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda jumladan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 20-martdagi videoselektorda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ilgai surildi

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Tadqiqotlarimizda O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining sog‘lom dunyoqarash, sog‘lom tafakkur, salomatlik qadriyatlari, sog‘lom turmush madaniyatini bolalik chog‘idan boshlab rivojlantirish; sog‘lom turmush kechirish uchun qalb va jismoniy salomatligi uyg‘unligiga erishish; odamlarning sog‘lom turmush kechirishi o‘zaro munosabatlarga bog‘liqligi; insonda

ma’naviy–axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish orqali sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish; biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, atrof-muhit musaffoligini saqlash, shaxsiy gigiyena talablariga rioya etish; turli zararli odatlarning inson salomatligiga ta’siri va uning oldini olish; xalq tabobatining jismoniy va ma’naviy salomatlikka ta’siri kabi asosiy g‘oyalaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ibn Sina Abu Ali.Kanon vrachebnoy nauki.Kn.1.Tashkent.1981.S.142
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 29.12.2020 yil https://president.uz/oz/4049
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: O'zbekiston. 1996. – B .2.
4. Ochilova B. Milliy ma'naviyatni yuksaltirishda meros, qadriyatlar va vorisiylik.–T.: 2009. – B.16.
5. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida . – Toshkent, Yozuvchi, 2001.
6. KarimovI.A.Xavfsizlik va barqaror taraqqiyat yo'li. –T.: O'zbekiston.1998. – B.6.
7. KarimovI.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot piraovard maqsadimiz. – T.:O'zbekiston. 2000. – B.438.
8. Mo‘minov H. Sog‘lom turmush tarzi – salomatlik ilmi va amali. –T.: Respublika salomatlik va tibbiy statistika instituti. 2006. – B. 23.

AMIR TEMURNING XALQPARVAR SIYOSATI

Suyunova Shaxzoda Bekboy qizi
Sh. Rashodov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich talabasi
Suyunovashaxzoda047@gmail.com
Ilmiy rahbar: t.f.d. G.Normurodova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning xalqparvar siyosati tahlil qilinadi. Unda hukmdorning savdo-sotiq ishlaridagi tadbirlari, soliq siyosatidagi yengilliklari qurilish va irrigatsiya tizimidagi bunyodkorlik ishlari yoritilgan. Maqola Amir Temur siyosatining asosiy maqsadi xalq farovonligini taminlash ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq manfaati, adolatli boshqaruv, bunyodkorlik, irrigatsiya, savdo yo‘llari.

Har bir xalqning tarixi, madaniyati va o‘z siymolari bor. O‘zbek xalqining dong‘ini dunyolarga taratgan, jahon xalqlarini hayratga solgan buyuk siymolaridan biri Sohibqiron Amir Temurdir. Amir Temur tarixda faqat sarkarda emas, balki adolat va xalq manfaatini ustun qo‘ygan dono davlat arbobi sifatida ham mashxur bo‘lgan shaxsdir. “Temur tuzuklari”da: “Adolat va insof bilan tangrimning yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham begunohga ham rahm-shafqat bilan haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim” -deya ta’kidlagan edi. Uning tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi chora-tadbirlari muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Amir Temur yoshligidan boshlab o‘z oldiga ona yurtini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo‘ydi va yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida bir nechta el va elatlarni birlashtirdi. Yurtning tinchligini ta’minlash, Vataniga hujum qilgan yovlarni quvib chiqarish, aholi farovonligini ta’minlash uchun o‘limga ham tik boqdi.

Tinchlikni ta’minlash uchun ishni ichki g‘animlarni tozalashdan boshladi. Dastlabki siyosiy faoliyatidan to vafotigacha o‘z qudratining o‘ndan to‘qqiz qismiga diplomatik salohiyati tufayli erishdi. O‘zi esa doim “Kuch-adolatda” shioriga amal qildi. Amir Temur davlat xavfsizlik xizmati sohasi tizimini ishlab chiqdi. Har kecha ming nafar qurolli askar soqchilikni amalga oshirgan. Bunday soqchilar shahar va qishloqlarda, muhim karvon yo‘llarida tinchlikni ta’minlagan. Amir Temur shariat qoidalariga amal qilgan holda murosayu-mudora qilishni xohladi.

Tashqi siyosatda o‘zlari taslim bo‘lgan davlatlarga “moli omon” berdi. Ichki tinchlikni ta'minlashda har qanday talonchi, qaroqchilarni yo‘qotdi. Uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas balki Xitoy va Xo‘tan chegarasidan Dehli atroflarigacha Bobuldan to Misr va Rim hududlarigacha bo‘lgan yerlardan savdogarlar uyoqda tursin bolalar-u beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin, kumush va zarif tijorat mollarini ham bemalol keltirar edi. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Amir Temurning ana shunday adolatli siyosati natijasida xalqning farovonligi ta’minlandi.

Amir Temur shu o‘rinda savdo-sotiq ishlariga ham alohida e’tibor qaratdi. Tabiiyki tinchlik ta’minlanganidan so‘ng savdogarlar ham ko‘plab yengilliklarga erishdi. Ular yo‘llardagi talon-tarojliklardan xalos bo‘ldi va savdo-sotiq sezilarli darajada rivojlandi. O‘sha davrda buyuk ipak yo‘lining ahamiyati oshdi. Movarounnahr va Xurosonning juda ko‘plab shaharlari orqali karvon yo‘llari o‘tdi. Bu yo‘llar orqali turli xil matolar, qog‘ozlar, zeb ziynatlar, mevalar va boshqa turli mahsulotlar Mag‘rib va Mashriqqa olib ketildi. Shuningdek uning davrida bozorlar faqat tijorat markazi emas balki shahar hayotining madaniy markazi, badiiy adabiyot, turli fan sohalaridagi yutuqlar bilan fikr almashinadigan joy vazifasini ham o‘tagan. Bozorlar alohida rastalarga bo‘lingan va unda turli xil mahsulotlar sotilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining xotiralarida Samarqandning bozori rastalari va undagi tartib-intizom to‘g‘risida yozib qoldirgan edi. Temur davlatida savdo-sotiqning rivojlanishi xalqning yashash tarzini yaxshiladi.

Amir Temur Qur’on talablarini o‘zida ifoda etgan moliya sohasidagi shariat qonunlari asosida soliq tizimini shakllantirdi. Bunda har bir mamlakat va aholining xususiyatlarini e’tiborga olib, qator imtiyozlar joriy qildi. Yevropada byudjet tizimi XVIII asrda vujudga kelgan bo‘lsa Movarounnahrda undan uch asr avval Amir Temur tomonidan joriy etilgan edi. Amir Temur soliq siyosati to‘g‘risidagi qonunlarni “Temur tuzuklari”da ham yozib qoldirgan edi. Soliqlarni muddatidan oldin va miqdoridan ko‘p yig‘ib olish kabi noqonuniy ishlarga chek qo‘yildi. Barchamizga ma'lumki mo‘g‘ullar davrida soliq to‘plash fojiaga aylanib qolgan edi. Amir Temur esa soliq siyosatida xalq manfaatlarini ko‘zladi va soliq yig‘uvchilarga soliqni xalqdan yaxshi so‘z bilan olishlarini, kaltak, arqon ishlatib, ishni urish, so‘kishgacha olib bormasliklarini, ularni bandi etmasliklarini qat'iy talab qildi. Amir Temurning bunday siyosati tufayli xalqning davlatga bo‘lgan ishonchi ortdi.

Amir Temur bobomiz xalq hayotini yaxshilash maqsadida qurilish va obodonchilik ishlariga katta e’tibor berdi. Mo‘g‘ullar bosqindan so‘ng, bir yarim asr mobaynida xaroba bo‘lib yotgan joylar qayta tiklandi yoki boshqatdan qurildi. Keshda masjid va maqbaralar, tillo, zangori bo‘yoq va koshinlar bilan sayqallangan. Masjidlar oldida hovuzlar bo‘lgan. Amir temur o‘z hukmronligining ilk davrlarida Kesh shahrini mamlakat poytaxtiga aylantirish niyatida uning obodonchiligiga alohida e’tibor berdi. Dunyoga dong‘i ketgan Oq saroy qad ko‘tardi, ko‘chalar keng va obod etildi. Shaharga o‘sha davrda “Qubbatul ilm val-adab” ya’ni “Ilm va tarbiyaning gumbazi” degan nom berildi. Ayniqsa Samarqand poytaxt qilib belgilangach katta ishlar olib borildi. Klavixo o‘z “Estaliklari”da Samarqand bog‘lar qo‘yinida joylashganligi, bog‘lar o‘rtasidan ko‘chalar o‘tkazilganligi va aholining ko‘pligi, farovonligi to‘g‘risida yozib qoldirgan edi. Amir Temur me’morchilikni yuqori darajaga ko‘tarish borasida muhandislar, me’morlar, bezak ustalarini alohida qadrladi.

Qaysi davlatni o‘ziga qaram qilgan bo‘lsa, u yerning hunar egalariga alohida iltifot ko‘rsatdi, ko‘pchiligini ko‘chirib keltirdi. Amir Temur qo‘l ostidagi shaharlar nafaqat o‘zining obodligi, boyligi va go‘zalligi bilan balki yuksak darajadagi ilm-fan, san’at, madaniyat va ma’rifat markazlari sifatida ham alohida ajralib turdi. Manbalarda ta’kidlanishicha Amir Temur hukmronlik qilgan davrda Movarounnahr va Xurosondan tashqari hududlarda ham obodonchilik ishlari olib borildi. Movarounnahr atrofidagi qishloqlarga Darband, Bag‘dod, Boylakon kabi ulkan

shaharlarning nomlari berildi. Amir Temur bu bilan Samarqand va Movarounnahrning boshqa hududlarini dunyodagi eng katta shaharlarga taqqoslaganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning xalqparvar siyosati davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyillaridan biri edi. Tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash orqali aholining osoyishta yashashiga sharoit yaratildi, yo‘llarda tartib o‘rnatib, karvon yo‘llarining xavfsizligini kafolatladi. Xalqning turmushini yaxshilab, iqtisodiyotni gullab yashnatdi. Shuningdek adolatli soliq tizimining joriy etilishi ortiqcha jabr zulmlarning oldini oldi. Bu kabi tadbirlar aholining davlatga bo‘lgan muhabbatini orttirdi va barqarorlikni ta’minladi. O‘tkazilgan obodonlashtirish ishlari orqali suv inshootlari, bog‘lar, yo‘llar qurilib xalq ehtiyojlari to‘la ta’minlandi. Amir Temurning xalqparvar siyosati uning kuchli davlat qurilishi bilan birga xalq farovonligini ta’minlashga intilganini ko‘rsatadi. Uning xalqparvar siyosati natijasida davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanib, mamlakat gullab yashnadi. Bir so‘z bilan aytganda Amir Temur zamoni o‘rta asrlarning “Oltin davri” bo‘lib tarixda iz qoldirdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Amir Temur jahon tarixida. Toshkent. 1996, 80-83-betlar.
2. R.G. Klavixo. Samarqandga -Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. Toshkent. 2010, 147-bet.
3. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 2020, 87-bet.
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent. 2019, 75-bet.

TURKISTON O‘LKASIDA AHOLINING DINIY TARKIBI VA KONFESSIONAL TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI (1867–1917 YILLAR MISOLIDA)

Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
+998932360537
Xolxujayeva91@mail.ru

Nurmurodov Diyorbek Shavkat o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi
+998775270470

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda 1867–1917 yillar oralig‘ida Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan kolonial-demografik siyosat natijasida yuzaga kelgan konfessional transformatsiya jarayonlari tarixiy-sivilizatsion yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda imperiya boshqaruv tizimining diniy siyosati, migratsion oqimlarning strukturaviy dinamikasi hamda mahalliy islomiy institutlarning adaptatsion va rezistentlik mexanizmlari o‘zaro bog‘liq ijtimoiy jarayon sifatida yoritiladi. Shuningdek, Turkiston hududida shakllangan ko‘p konfessiyali ijtimoiy makonning kolonial modernizatsiya modeli doirasidagi funksional transformatsiyasi, diniy identifikatsiya va etno-konfessional stratifikatsiya jarayonlari kompleks tarixiy-sotsiologik tahlil obyekti sifatida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Turkiston jamiyatining imperiya tarkibidagi periferik modernizatsiya modeli sifatida rivojlanganligini va diniy pluralizmning institutsional emas, balki asosan ijtimoiy-funksional xarakter kasb etganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston general-gubernatorligi, kolonial demografiya, konfessional transformatsiya, etno-diniy stratifikatsiya, imperial modernizatsiya, pravoslav missionerlik

siyosati, islomiy institutsional tizim, jadidchilik paradigmasi, migratsion tranzit oqimlar, 1897 yilgi aholi ro‘yxati, diniy pluralizm, sivilizatsion periferiyalashuv, ijtimoiy gibridizatsiya, konfessiyalararo interaktsiya modeli, Rossiya imperiyasi geopolitikasi.

O‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida yuzlab etnoslar va etnik birliklarni bag‘riga sig‘dirgan O‘zbekiston tarixini ham aholining etnik tarkibi va soni kabi asosiy aspektlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, ma’lum bir hudud aholisining milliy tarkibi va soni to‘g‘risida chop etilgan yozma manbalar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning tarixiy-manbaviy tahlili tarix fanining bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, turli tarixshunoslik ishlarida Markaziy Osiyo aholisining milliy va etnik tarkibi bo‘yicha qiziqarli va shu bilan birgalikda inkor etiladigan fikr-mulohazalar ham aks etgan. Bu o‘z navbatida, bugunda turli munozaralarni keltirib chiqargan. Xususan, masalaning bir qismi rus tarixshunosligi bilan ham bog‘lanadi. Ushbu maqolada rus arxiv hujjatlari va mualliflari tomonidan Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlilini havola etish maqsad qilindi.

Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil etishda tarix fanining zamonaviy konseptual-metodologik yondoshuvlari hisoblangan mavzuga doir yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, mantiqiy sinflashtirish va tarkibiy tahlil uslublaridan foydalanilgan.

XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy konfessial mazarasi xilma-xil bo‘lib bordi. Albatta bu davrda Turkiston mahalliy aholisi, ya’ni musulmonlar qariyb 90 foizni tashkil etgan. Unday so‘ng, yirik sharqiy slavyanlar diasporasi yoyilgan viloyatlar va shaharlarda pravoslav dinining yetakchi o‘rinda turgan. Markaz Toshkentda ko‘p sonli musulmonlar 75 foizni, undan so‘ng pravoslavlar 22 foiz va keyin boshqa diniy jamoalar turgan.

Ma’lumki, rus hukumati tomonidan bu davrda yahudiylar qo‘llab-quvvatlangani bois, ularga fuqarolikka o‘tish, savdo gildiyalarini olish va boshqa ko‘plab huquqlar berilgan edi. Natijada, bu diniy konfessiya vakillari soni yildan-yilga o‘sib bordi. Markaz Toshkentda birgina o‘n yil davomida, ya’ni 1878-yilda jami 592 kishi aniqlangan bo‘lsa, 1888-yilga kelib 1275 kishi hisobga olingan. Bu avvalo, ularning diniy e’tiqodiga erkinlik bo‘lganligi va avvalgi ma’lum ta’qiqlar olib tashlanganligini anglatadi.

Yettisuv viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, viloyat aholisining ko‘pchiligini musulmonlar (90,12 %) tashkil etgan bo‘lsa, pravoslavlar 9,79 % ga yetgan, boshqa diniy vakillar 0,09 %ni qamrab olgan. Shu bilan birgalikda, ona tilisi rus tili bo‘lganlarning deyarli barchasi (ruslar, ukrainlar va beloruslar), kichik istisnolar bilan, pravoslav cherkoviga e’tiqod qilganlar. Ularning orasida kichik sondagi eski e’tiqodchilar va undan ham kam sonda rim-katoliklar bo‘lgan.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari aholisining diniy vakillari orasida karaimlar ko‘rsatilgan bo‘lib, bular yahudiylik dinining bir oqimiga mansub bo‘lib, ular kam sonli etnik guruh sifatida karaim tilida (turkiy tillarning qipchoq guruhi) so‘zlashganlar. Ular sharqiy Yevropadagi karaimizm izdoshlaridan kelib chiqib, bu davrda ularning umumiy aholiga nisbatan foizi juda past edi.

1900-yilgi Samarqand viloyati aholisi diniy e’tiqodiga nazar tashlasak, ular orasida - musulmonlar, pravoslavlar, yahudiylar, arman-grigoryanlar, katoliklar, protestantlar, butparastlar bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, dastlabki davrda Turkistonning harbiy-fuqarolik hokimiyati bilan davlat dini bo‘lgan pravoslav nasroniylik vakillari o‘rtasidagi munosabatlar sovuq bo‘lgan. Mintaqada pravoslav yepiskopi faqat 1872-yilda, mustaqil pravoslav yeparxiyasi 1-yanvardan faoliyat yurita boshlagan. O‘rta Osiyoda pravoslav diniy institutlar yo‘q edi, bundan tashqari

Rossiya imperiyasining 78 ming pravoslav diniy muassasalaridan Turkistonda faqat 180 ga yaqini bor edi. Bu holat O‘rta Osiyoda davlat pravoslav cherkovining mavqyei unchalik kuchli bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Garchi 1897-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Turkiston o‘lkasida 11 mingga yaqin katolik bo‘lib, ularning bir qismini polyaklar tashkil etsa-da, XX-asrning boshlariga qadar bu yerda birorta katolik cherkovi bo‘lmagan. Rossiya davlatidagi qonunlarga ko‘ra, katolik cherkovlari ixtiyoriy ehsonlar hisobiga qurilar edi. Ehson to‘planganidan keyin Samarqand va Ashxobodda cherkovlar qurildi.

Endi o‘lkaning etnik va diniy rang-baranglik sharoitida mahalliy va rus xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarga to‘xtalib o‘tamiz. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bir qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bular jumlasiga Yevropa turmush-tarziga xos hayot tarzining kirib kelishi, shaharsozlik, me’morchilik, transport, xizmat ko‘rsatish vositalari, kiyinish uslubi va kundalik boshqa jihatlar kiritish mumkin. Ayniqsa, rus xalqi, uning madaniyati va bu orqali Yevropa madaniyati va taraqqiyotiga xos jihatlar mahalliy aholi vakillarini e’tiborini befarq qoldirmadi.

Bu orqali, mustamlaka sharoitida tobora ko‘p elatli va ko‘p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o‘rtasida muloqotning oqilona tomonlarini izlashga ehtiyoj sezila borildi. Albatta mahalliy ziyolilar rus mustamlakachiligi oqibatlari xususida qayg‘urib, milliy qaramlik, huquqlarning kamsitilishiga doimo qarshi turdilar. Biroq ziyolilarning eskilik tarafdorlari bo‘lgan ulamolar hamda yangi islohotparvar qismi o‘rtasida rus halqi va G‘arb madaniyati bilan yaqinlashishga munosabat turlicha edi. Bunda ayniqsa, millatlararo tenglik va totuvlikka doir g‘oyalar milliy taraqqiyparvar - jadidlarning doimiy diqqat markazida turdi. Shu bois, o‘zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, taraqqiyotga intilishlari bilan ular mahalliy va rus xalqlari o‘rtasida bag‘rikenglik tarafdorlari bo‘lib chiqdilar. Jadidlar, Yevropa xalqlarining madaniyati va texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan bahramand bo‘lish O‘rta Osiyoni turg‘unlik xolatidan olib chiqishga ko‘maklashadi, deb hisoblashgan.

Rossiya imperiyasi va boshqa xorijdan kelgan xalqlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida munosabatlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ko‘zga tashlanib bordi. Ular o‘rtasida tolerantlik (bag‘rikenglik) munosabatlar albatta aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivoji uchun o‘ziga xos ahamiyatli bo‘lgan. Imperiyaning o‘lkada olib borgan mustamlaka siyosatiga qaramasdan, o‘lka tub joy xalqlari o‘z bag‘rikengligi, ochiq ko‘ngilliligi bilan hududga kelgan turli etnoslarni qarshilab, hamjihat munosabatlar olib bordi.

Natijada, bu ular o‘rtasida etnik va diniy tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik munosabatlarini rivojlantirib bordi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, do‘stlik uchun birinchi qadamni ko‘p hollarda mahalliy millat kishilari qo‘yganlar. Turkistonda yashochi xalqlar o‘rtasida jiddiy ziddiyatlar deyarli kam bo‘lgan, bu holat faqat ayrim hollarda xususiy shaxslar o‘rtasida ro‘y bergan.

1867–1917 yillar oralig‘ida Turkiston o‘lkasida kechgan konfessional-demografik transformatsiya jarayonlari tarixiy-sivilizatsion va kolonial-modernizatsion yondashuvlar sintezi asosida tahlil qilinganda, mazkur hududda diniy tarkibning evolyutsiyasi oddiy demografik o‘zgarish sifatida emas, balki imperiya boshqaruvining strukturaviy siyosiy-iqtisodiy va ideologik mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.
Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiston jamiyati ushbu davrda “monokonfessional islomiy makon” holatidan “ko‘p qatlamli konfessional plural makon”ga transformatsiyalashgan bo‘lib, bu o‘zgarishlar asosan tashqi migratsion oqimlar, imperiya agrar-kolonizatsion siyosati hamda shaharlarning ma’muriy-iqtisodiy qayta tashkil etilishi bilan determinatsiyalangan. Shu bilan birga, pravoslavlikning institutsional kengayishi, yahudiy va boshqa diniy diasporalarning iqtisodiy funksionallashuvi hamda islomning ijtimoiy-madaniy rezistentlik asosida transformatsiyalanishi natijasida hududda konfessional stratifikatsiyaning ierarxik modeli shakllandi.

Shuningdek, konfessiyalararo munosabatlar tizimi klassik integratsion yoki konfliktli modeldan ko‘ra ko‘proq “parallel koexistensiya” va “funksional segregatsiya” tamoyillari asosida rivojlanganligi aniqlanadi. Bu esa Turkiston jamiyatida diniy identifikatsiyaning bir vaqtning o‘zida ham barqaror (an’anaviy islomiy ustunlik), ham dinamik (migratsion va kolonial ta’sirlar natijasida o‘zgaruvchan) xarakterga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Umumiy ilmiy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, Rossiya imperiyasi davridagi Turkiston diniy makoni faqat etnik-diniy rang-baranglikning kengayishi emas, balki imperial boshqaruv modeli sharoitida shakllangan ko‘p darajali konfessional ierarxiya va sivilizatsion periferiyalashuv jarayonining institutsional ifodasi sifatida baholanishi lozim. Bu jarayon natijasida mintaqada diniy pluralizm yuzaga kelgan bo‘lsa-da, u to‘liq teng huquqli integratsiya emas, balki funksional va ma’muriy jihatdan boshqariladigan differensial tizim ko‘rinishida rivojlangan.

Shu nuqtayi nazardan, Turkistonning 1867–1917 yillardagi diniy-demografik holati imperiya tarkibidagi klassik “chegara hudud” (frontier) modeli emas, balki kolonial modernizatsiya va konfessional differensializatsiyaning o‘ziga xos sintezlashgan tarixiy tipi sifatida ilmiy jihatdan talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘z MA, I-19-jamg’arma, 2-ro‘yxat, 271-yig’ma jild, 4-varaq.
2. O‘z MA, I-36-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 3085-ish, 280-varaq.
3. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda karaimlar deb ataladigan yahudiy oqimi paydo bo‘ladi. Bu oqim tarafdorlari faqat Torani (muqaddas kitob) tan olar, Talmudni esa inkor qilgan edilar. Qarang: Markaziy Osiyo xalqlari dinlari tarixi..., -B.48.
4. Нормуродова Г. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. ..., -Б.80.
5. Xolxujayeva Y.U. Turkiston aholisi va milliy tarkibi: tarixiy tahlil (1867-1917 yillar). Тар. фан. бўйича фалсафа док ... дисс. автореф. – Самарқанд. 2024.
6. Кадырбаев А.Ш., Сыздикова Ж.С. Страна в Междуречье. (Очерки истории Узбекистана). - Москва, 2017. – С.261.
7. Брусина О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX – конец XX века. – М., 2001. - С.144.

1945–1990 YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA QURILISH SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI: IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLIL

Usmonova Ruxsora Sobirjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix o‘qituvchi
usmonovaruxsora027@gmail.com
+998 93 224 90 92
Tarix yo‘nalishi talabasi
Murodullayev San’at Faxriddin o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1945–1990 yillarda Samarqand viloyatida qurilish sohasining rivojlanish tarixi ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda sovet davri qurilish siyosati, uy-joy massivlari, ijtimoiy infratuzilma va irrigatsiya tizimidagi qurilish ishlari arxiv manbalari hamda statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Natijada ushbu davrda qurilish sohasining viloyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni aniqlanadi va zamonaviy ta'lim jarayonida tarixiy tajribadan foydalanishning metodologik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: qurilish tarixi, sovet davri, Samarqand viloyati, ijtimoiy infratuzilma, irrigatsiya, uy-joy qurilishi, urbanizatsiya.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi shahar va qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Mazkur jarayonlarda ilmiy-metodologik asos sifatida tarixiy tajribadan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu jihatdan, sovet davrida (1945–1990) amalga oshirilgan qurilish siyosatini tahlil qilish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Samarqand viloyati O'zbekistonning tarixan muhim va iqtisodiy jihatdan faol hududlaridan biri sifatida ushbu davrda qurilish sohasidagi jadal o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Viloyatda Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish jarayonlaridan tortib Gorbachyov davrining oxirigacha bo'lgan 45 yillik kesimdagi qurilish tarixini o'rganish zamonaviy ijtimoiy fanlar ta'limida muhim manba bo'lib xizmat qila oladi.

Tadqiqotning maqsadi: 1945–1990 yillarda Samarqand viloyatida qurilish sohasining rivojlanish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini arxiv ma'lumotlari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etish.

Tadqiqotning dolzarbligi esa shundan iboratki, «Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish muammolari» mavzusida o'tkazilayotgan hozirgi konferensiyada ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitishida tarixiy tadqiqot metodologiyasini raqamli muhitga ko'chirishning imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va statistik metodlar qo'llanildi. Asosiy manbalar sifatida O'zbekiston Milliy Arxivining (O'zRMDA) R-90, R-94, R-2483, R-2516 fondlari, Samarqand viloyat davlat arxivining (SVDA) 248, 510, 620-fondlari, shuningdek sovet davri statistik ma'lumotnomalari va ilmiy monografiyalar ishlatildi. Arxiv hujjatlarining raqamli tahlili zamonaviy metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot xronologik jihatdan to'rtta bosqichga bo'lib tahlil etildi: (1) urushdan keyingi tiklanish davri (1945–1955); (2) Xrushchyov islohotlari davri (1956–1964); (3) «turg'unlik» davri qurilish sur'atlari (1965–1985); (4) qayta qurish davri (1985–1990).

Ikkinchi jahon urushining tugashi bilan Samarqand viloyatida yangi qurilish bosqichi boshlandi. 1946–1950 yillardagi to'rtinchi besh yillik reja doirasida qurilish hajmi sezilarli oshirildi. 1945 yilda O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida tuzilgan Arxitektura ishlari komiteti tarixiy obidalarni muhofaza qilish va zamonaviy qurilishni uyg'unlashtirish vazifasini oldi.

Bu davrda viloyat markazida yangi turar-joy massivlari barpo etila boshlandi. Samarqand shahri aholisi 1945 yildagi 135 ming kishidan 1990 yilga kelib 370 ming kishiga yetdi — ya'ni 45 yil ichida 2,7 barobarga oshdi (Statistik ma'lumotnoma, 1990). Uy-joy qurilishida davlat sektori bilan bir qatorda kooperativ shakl ham muhim o'rin egalladi. Natijada, 6 mingga yaqin oila yangi uy-joylarga koʻchirilib, ularning yashash sharoitlari ancha yaxshilandi. Bu esa, oʻz navbatida, aholining turmush darajasi va ijtimoiy barqarorligini oshirishga xizmat qildi. Uy-joy qurilishida davlat sektori bilan bir qatorda kooperativ asosdagi qurilish ham muhim oʻrin egalladi. Xususan, uy-joy kooperativlariga a’zo boʻlgan paychilar tomonidan 4000 ta shinam va obod kvartiralar barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Bunday kooperativ qurilish shakli aholining turar joy bilan ta’minlanishida qoʻshimcha imkoniyat yaratib, fuqarolarning oʻz mablagʻlari asosida uy-joyga ega boʻlishini ragʻbatlantirdi.

1955-yilgi «Qurilishda ortiqchaliklar va isrofgarchilikni yo'qotish to'g'risida»gi qaror Samarqand viloyatida ham ommaviy turar-joy qurilishini jadallashtirishga turtki berdi. Besh qavatli «Xrushchyovka» tipdagi binolar Samarqand, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlarda keng tarqaldi. Bu modelning asosiy afzalligi — qisqa muddatda ko'plab oilalarga alohida kvartira berib, kommunal xonadonlar muammosini bartaraf etganligi edi.

1960–1985 yillar oralig'ida Samarqand shahrida jami 210 ming kvadrat metr turar-joy maydoni foydalanishga topshirilib, taxminan 6 ming oila yangi uy-joyga ko'chirildi. 1965-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joylar 1959 yilga nisbatan 2,4 barobarga oshganligi qurilish

sur'atlarining keskin tezlashtanganidan dalolat beradi. Qurilish sohasida kadrlar bilan ta’minlash va ularni tayyorlash masalalari ko’rib chiqsak 1960-yillarning oxirida O‘zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bordi. Ushbu davrda sanoat korxonalari, turar-joy binolari hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish ko‘lami kengaygan bo‘lib, bu o‘z navbatida malakali ishchi kuchi va mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Shu nuqtai nazardan, qurilish tashkilotlarida kadrlar bilan ta’minlash, ularni joylashtirish va malakasini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Arxiv hujjatlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, SUM-3 qurilish tashkiloti misolida kadrlar siyosatida qator muammolar mavjud bo‘lgan. Jumladan, 1968 yil uchun yosh mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha arizalar berilmaganligi ushbu yo‘nalishdagi ishlar sust darajada tashkil etilganidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini tugatib kelgan yosh mutaxassislar mavjud shtat jadvaliga muvofiq ravishda ishga qabul qilingan va tegishli lavozimlarga tayinlangan. Yosh mutaxassislarni tayyorlash tizimida ham sezilarli kamchiliklar aniqlangan. Xususan, qurilish texnikumlari bitiruvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi yetarli darajada emasligi qayd etilgan. Korxonada yosh mutaxassislarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasiga ham ma’lum darajada e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu jarayon ularning ishlab chiqarish faoliyatiga tezroq moslashuvi va barqaror ishlashini ta’minlashga xizmat qilgan.

Sanoat va muhandislik infratuzilmasi qurilishi «Samarqandqurilish» tresti rahbarligidagi ixtisoslashgan qurilish-montaj boshqarmalari 1960–1975 yillar mobaynida viloyatda 4 mingdan ziyod ob'ekt barpo etdi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishi ham shu davrda jadal rivojlandi: Samarqand sement zavodi va Kattaqo'rg'on g'isht zavodlari modernizatsiya qilindi. 1960–1975 yillar oralig'ida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 2,8 barobarga oshdi.

Yirik panelli uy qurilishi texnologiyasining 1960-yillardan joriy etilishi sohaning texnik revolutsiyasi hisoblandi: zavod sharoitida tayyorlangan temir-beton panellarni yig'ish qurilish muddatlarini sezilarli qisqartirdi va mehnat unumdorligini oshirdi. 1967 yilda Samarqandda birinchi ikki kilometrlik beton yo'l qurilib, shahar bilan Samarqand rayonini bog'ladi.

Ijtimoiy infratuzilma: ta'lim, tibbiyot, madaniyat (1945–1990). Ta'lim muassasalari qurilishi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. 1946–1965 yillarda Samarqand viloyatida 120 dan ortiq yangi maktab binosi qurilib foydalanishga topshirildi; 1945–1990 yillarda esa jami 300 dan ziyod umumta'lim maktabi barpo etildi. Yangi maktablar 320, 520 va 960 o'rinlik tipovoy loyihalar asosida, zamonaviy laboratoriyalar va sport zallari bilan jihozlangan holda qurildi.

Tibbiyot tizimida ham sezilarli yutuqlarga erishildi: 1945 yilda viloyatda 32 ta kasalxona bo'lsa, 1990 yilga kelib ularning soni 65 taga yetdi — deyarli ikki barobarga ko'paydi. Madaniyat muassasalari bo'yicha: 1945–1990 yillarda 180 dan ortiq madaniyat uyi va klub qurildi; kutubxonalar soni 42 tadan 320 taga yetdi.

Irrigatsiya tizimidagi qurilish ishlari va qishloq xo'jaligi (1941–1990) XX asrning ikkinchi yarmida, xususan 1950-70-yillarda SSSRda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayonda sug‘oriladigan yer maydonlarini kengaytirish, mavjud irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va yangi sug‘orish inshootlarini barpo etishga alohida e’tibor qaratildi. — Samarqand viloyatidagi muhim gidrotexnik inshootlardan biri bo‘lib, u Zarafshon daryosi havzasida joylashgan va sug‘orish tizimini tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatida sovet davrining eng yirik gidrotexnik loyihasi — Kattaqo'rg'on suv ombori 1941–1951 yillarda qurildi. Bu inshoot Zarafshon daryosi suv resurslarini tartibga solib, Kattaqo'rg'on, Payariq, Ishtixon va boshqa tumanlarda sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirdi.

1964 yil 21 dekabrdagi O'zSSR Markaziy Qo'mitasi va Vazirlar Kengashining 718-sonli qarori asosida viloyatda 94 ming gektar yangi yer o'zlashtirilishi va Kattaqo'rg'on suv omborini 27

ming gektarga kengaytirish rejalashtirildi. 1971–1975 yillarda irrigatsiya kanallarini betonlashtirish dasturi amalga oshirilib, suv yo'qotishlar kamaytirildi va paxtachilik uchun barqaror suv ta'minoti yaratildi.

Betonlashtirish ishlari asosan paxtachilikka ixtisoslashgan Payariq va Bulung'ur tumanlarida amalga oshirildi — bu holat sovet sug'orish siyosatining hududiy ustuvorliklarga asoslanganini ko'rsatadi. Energetik infratuzilma (elektr podstansiyalari va uzatish liniyalari) ham suv xo'jaligi tizimini ta'minlash maqsadida rivojlantirildi: 1984 yilda texnologik elektr podstansiyalari qurilishiga ajratilgan mablag' 185 ming so'mga yetdi — bu butun davrdagi eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, 1945–1990 yillar davomida Samarqand viloyatida qurilish sohasi sobiq ittifoqning markazlashgan rejalashtirish tizimi doirasida izchil va ko‘p yo‘nalishli rivojlandi. Urushdan keyingi tiklanish bosqichidan boshlab, hududda uy-joy qurilishi, sanoat obyektlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilma keng miqyosda barpo etildi. Natijada viloyat aholisining soni sezilarli darajada oshib, urbanizatsiya jarayonlari jadallashdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa 1950–1980-yillar oralig‘ida qurilish sohasida standartlashtirilgan loyihalar va industrial usullar (yirik panelli qurilish) keng joriy etilib, qisqa muddatlarda ko‘p sonli turar-joy va ijtimoiy obyektlar foydalanishga topshirildi. Bu esa aholining uy-joy bilan ta’minlanishini yaxshilash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, irrigatsiya va gidrotexnik inshootlar qurilishi qishloq xo‘jaligini, xususan paxtachilikni rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Biroq, qurilish siyosatining markazlashgan va standartlashgan xususiyati ayrim salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirdi. Xususan, milliy me’moriy an’analar yetarli darajada hisobga olinmadi, hududiy xususiyatlar e’tibordan chetda qoldi hamda ayrim hollarda ekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatildi.

Umuman olganda, mazkur davrda qurilish sohasi Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etib, hududning zamonaviy qiyofasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda infratuzilmani modernizatsiya qilish va urbanizatsiya jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

1945–1990 yillarda Samarqand viloyatida qurilish sohasi keng ko'lamda va tizimli ravishda rivojlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu davrda:

1. Samarqand shahri aholisi 2,7 barobarga oshib, yangi uy-joy massivlari, sanoat korxonalari va muhandislik infratuzilmasi barpo etildi;
2. Ta'lim, tibbiyot va madaniyat muassasalari ikki barobarga oshib, aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati sezilarli kengaydi;
3. Irrigatsiya kanallarini betonlashtirish orqali sug'oriladigan yerlar maydoni kengaytirildi va qishloq xo'jaligi barqarorlashdi;
4. Qurilish siyosatida standartlashuv va markaziy rejalashtirish ustuvorlik qilganligi ijobiy natijalar bilan bir qatorda mahalliy me'moriy an'analar etarli darajada hisobga olinmasligiga ham olib keldi.

Zamonaviy ta'lim kontekstida: ushbu tarixiy tajriba ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitishida arxiv manbalari va statistik ma'lumotlarni raqamli tahlil metodlari bilan uyg'unlashtirishning namunasi sifatida qo'llanishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni tarixiy tadqiqotlarga tatbiq etish — masalan, GIS xaritalash, ma'lumotlar bazasi va vizualizatsiya usullari — o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zRMDA). R-90-fond, 8-ro'yxat, 44-yig'ma jild, 12-varaq; R-94-fond, 9-r., 52-y.j., 18-v.; R-2483-fond, 1-r., 456-y.j., 48-49-v.; R-2516-fond, 4-r., 310-y.j., 22-24-v.

2. Samarqand viloyat davlat arxivi (SVDA). Fond 248, 5-ro'yxat, 83-yig'ma jild, 47-50-varaqlar; Fond 248, 12-r., 201-y.j., 5-8-v.; Fond 510, 3-r., 17-y.j., 2-4-v.; Fond 620, 2-r., 14-y.j., 6-8-v.
3. Mo'minov I.M. Samarqand tarixi. II-tom. — Toshkent: Fan, 1970. — B. 396–421.
4. Komilov O. The history of water management system in Uzbek SSR (1950–1990) // Society and Innovations. — 2025. — Issue 6, №3. — P. 20–30.
5. Кадыров Т.Ф., Бабиевский К.В., Турсунов Ф.Ю. Архитектура Советского Узбекистана. — Москва, 1972. — С. 20–96.
6. Хасанов М., Рашидов Р. Строительство в Узбекистане в период Советской власти. — Ташкент: Фан, 1987. — С. 67–70.
7. Samarqand viloyati xalq xo'jaligi. Statistik ma'lumotnoma. — Samarqand, 1975; 1990.
8. Pardayev M. Samarqand viloyatida irrigatsiya qurilishining rivojlanishi. — Samarqand: SamDU, 1994. — B. 55–60.
9. Tursunov X. Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim muassasalari qurilishi. — Toshkent: Fan, 1992. — B. 78.
10. Abdullayev R. Sovet davrida O'zbekistonda shaharsozlik tarixi. — Toshkent: Fan, 1989. — B. 201.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TARIX FANI HAQIDAGI G‘OYALARI VA JADIDLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Mamatov Bektosh Tolibjon o’g’li
Kattaqo’rg’on davlat pedogogika instituti
O’zbek tili va gumanitar fanlar
kafedrasi o’qituvchisi
***bektoshmamatov2018@gmail.com*,**
+998936653104

Annotatsiya: ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadid tarixiy tafakkuriga oid konsepsiyalarini tahlil etadi. Behbudiy tarixni xronikadan tashqari, milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi pragmatik fan sifatida ilgari surgani, darsliklar va dramaturgiya orqali maorifni modernizatsiya qilishdagi rolini ko‘rsatadi. Tadqiqotda uning tarixiy metodologiyasi — manbalarni tanqidiy-qiyosiy usulda tekshirish, ijtimoiy-iqtisodiy va mintaqaviy kontekstni hisobga olish hamda tarixiy ibratni tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llash — ilmiy asosda yoritiladi. Maqola jadid tarix maktabining zamonaviy tarixshunoslik va milliy ma’rifat uchun ahamiyatini baholaydi hamda keyingi tadqiqotlar uchun istiqbollar belgilaydi.

Kalit so’zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy; jadidchilik; tarixiy tafakkur; maorif islohotlari; tanqidiy metod; «Padarkush»**.**

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda ma’naviy uyg‘onish va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida kurashgan yetuk namoyandalardan biri bo‘lib, uning faoliyati nafaqat maorifparvarlik, balki milliy historiografiyaning shakllanishiga ham tamal toshini qo‘ydi. Behbudiyning ta’kidlashicha, Vatan va xalq istiqloli uchun jonini fido qilgan Ibrat domla singari ma’rifat fidoyilarining o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatni yuksaltirish va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.[1] Behbudiyning o‘zi ham Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin kabi o‘nlab ma’rifat fidoyilari qatorida tilga olinishi, uning bu sohadagi yetakchi o‘rnidan dalolat beradi.

Jadidchilik harakati Turkistondagi mavjud ma’rifiy va ijtimoiy inqirozga javoban yuzaga keldi. O‘sha davrda mavjud bo‘lgan an’anaviy tarixiy asarlar ko‘pincha sulolaviy xronikalar yoki diniy-axloqiy yondashuvlar bilan cheklanib, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish, fan va texnologiya sohasidagi qoloqlikning tub sabablarini tushuntirish uchun yaroqsiz edi. Behbudiy bu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ulkan pedagogik va publitsistik faoliyat olib bordi. Undan 200 dan

ziyod ilmiy-publitsistik maqolalar, 6 ta darslik, "Sayohat xotiralari" kitobi va "Padarkush" nomli pyesa meros bo‘lib qoldi. Bu darsliklar va maqolalar eski maorif tizimini yangi, zamonaviy bilimlar bilan almashtirishga qaratilgan ulkan harakatning bevosita natijasi bo‘lib, tarix fani ushbu umumiy islohotning ajralmas qismi sifatida maydonga chiqdi. Behbudiyning falsafiy asosini milliy taraqqiyotga erishish zaruriyati tashkil etadi. Uning bashorati shundaki, insoniyat va xalq faqat dunyoga taraqqiy qilgan xalq singari, faqatgina *ilm* (bilim, fan) vositasi bilangina *kamolot* (yetuklik, rivojlanish) ga erishishi mumkin.[2] Ushbu asosiy tamoyil Behbudiyning tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirdi. Agar taraqqiyot ilmga bog‘liq bo‘lsa, tarix fanini o‘rganish bevosita shu *kamolot*ga xizmat qilishi shart edi.

An’anaviy tarixshunoslikning asosiy funksiyasi asosan hikoya qilish va xronologik qayd etishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, Behbudiy tarix fanidan *tahlil qilish*ni, ya’ni o‘tmishdagi xatoliklarni aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sabab va oqibatlarini tushunishni talab qildi. Uning tarixiy haqiqatni o‘rganishdan ko‘zlagan maqsadi shunchaki o‘tmishni yodga olish emas, balki millatni ozodlikka, mustaqillikka va zamonaviy global hamjamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlash edi. Shunday qilib, Behbudiy tarixni nafaqat akademik intizom, balki milliy-siyosiy va ijtimoiy harakatga keltiruvchi, pragmatik ahamiyatga ega vosita sifatida ko‘rgan. Behbudiyning historiografik qarashlarida tarix ilmi millatning o‘zini anglashini kuchaytirishga va *ma’naviyatini* yuksaltirishga xizmat qilishi lozim edi.

Bu o‘zgarish, tarixiy tafakkurda o‘ziga xos moddiy asoslarga yaqinlashishni anglatadi. An’anaviy Tawarikh kitoblari asosan qudratli shaxslar yoki sulolalar tarixini yoritgan bo‘lsa, Behbudiyning talabiga ko‘ra, tarix xalqning va ommaning ijtimoiy taraqqiyoti, madaniy va iqtisodiy rivojlanish bosqichlari tarixiga aylanishi zarur edi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyo tarixshunosligida ilk bor ijtimoiy-siyosiy tarixga, ayniqsa maorif tarixining ustuvorligiga yo‘naltirilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning 6 ta darslik yaratganligi [2], uning tarixni yangi ta’lim tizimiga kiritishdagi sa’y-harakatlarining institutsional jihatini ko‘rsatadi. Bu darsliklar eski maktablarning diniy-dogmatik ta’limotidan tubdan farq qilgan va G‘arbiy Yevropa uslubiga asoslangan. Jadid maktablarining uslubiga ko‘ra, tarix va geografiya (makoniy kontekst) doimo birga o‘qitilgan. Behbudiyning o‘zi yozgan "Sayohat xotiralari" ham geografik joylarning madaniy tarixi va ijtimoiy ahvoliga katta e’tibor qaratgan. Tarixiy voqelikni geografik sharoitlar bilan bog‘lash metodologiyasi o‘quvchilarda voqealarni kengroq kontekstda tushunish imkoniyatini bergan. Pedagogik ustuvorlik Behbudiyning vasiyatnomasida ham yaqqol namoyon bo‘lgan: u “Ey Turkiston maorifi ishlarida bo'lg'on o'rtog' va o'g'lonlarim! Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo'lida ishlay turg'on muallimlarning boshini silangizlar!” deya murojaat qilgan. Bu vasiyat, tarix fanini o‘qitish sifati va uning milliy qadriyatlar ruhida yetkazilishi bevosita yangi avlod o‘qituvchilariga bog‘liq ekanligini anglatadi. Tarixiy bilim millat g‘oyasini targ‘ib qilishda eng muhim vosita bo‘lgan. Behbudiyning historiografik qarashlari uning davridagi an’anaviy yondashuvdan sezilarli darajada farq qilgan. Uning g‘oyalarining inqilobiy tabiati aynan quyidagi jadvalda ko‘rsatilganidek, tarix fanining maqsadini *kamolot*ga xizmat qilishga o‘tkazganligi bilan belgilanadi.

Jadidlar faoliyati nafaqat ta’lim islohotlarida, balki estetik va ilmiy tanqid sohalarida ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning zamondoshlari (masalan, Fitrat, V. Mahmud) badiiy asarlarni tahlil qilishda ham shunchaki madaniy hodisa sifatida emas, balki *falsafiy dunyoqarash* va *badiiy mantiq* sintezi asosida ilmiy-nazariy yondashuvni talab qilganlar.

Bu estetik tanqiddagi o‘zgarish historiografik tanqidga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiyning historiografiyasi aynan shunday tanqidiy metodni tarixiy manbalarga tatbiq etishni talab qildi. Agar adabiyotshunoslikda 1920-yillarda ilmiy-nazariy tahlilga o‘tish kuzatilgan bo‘lsa, Behbudiyning g‘oyalari bir necha yil avvalroq tarixiy rivoyatlarning haqiqiyligini tekshirish, ularni qiyosiy metod orqali zamonaviy manbalar bilan solishtirish, har qanday afsonaviy yoki

subyektiv ma’lumotni rad etishni targ‘ib qilgan. Behbudiy tarixchining oldiga faktlarni shunchaki jamlash emas, balki ularga *mantiqiy* va *falsafiy* baho berish vazifasini qo‘ygan.

Behbudiyning tarixiy g‘oyalarida milliy qahramonlik tushunchasi tubdan o‘zgargan. Behbudiyning o‘zi ham Ibrat domla, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy kabi ma’rifat fidoyilarining ibratli hayoti yoshlarni tarbiyalashda beqiyos kuch bag‘ishlaydigan manba ekanligini ta’kidlagan. U o‘zi ham Samarqandning yetuk ma’rifatparvarlari: Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy qatorida tilga olinadi. Eng muhimi, Behbudiy vasiyatnomasi orqali maorif yo‘lida ishlayotgan *muallimlarni* boshini silashni talab qilgan.[2] Demak, tarix fanining asosiy vazifasi bu intellektual va ma’rifiy qahramonlarni ulug‘lash, ularning taraqqiyot yo‘lidagi xizmatini targ‘ib qilish bo‘lgan. Bu o‘zgarish mustamlakachilik sharoitida milliy uyg‘onishning asosiy g‘oyasi—intellektual o‘zlikni anglashni shakllantirishga qaratilgan edi. Behbudiy uchun tarixni o‘rganish shunchaki akademik qiziqish emas, balki ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish vositasi bo‘lgan. Uning 200 dan ortiq ilmiy-publitsistik maqolalari tarixiy voqealarni zamonaviy muammolar (maorif, iqtisodiyot, mustaqillik) nuqtai nazaridan talqin qilish uchun asosiy maydon vazifasini o‘tagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy merosining eng muhim qismi hisoblangan "Padarkush" (Ota qotili) pyesasi, nafaqat badiiy asar, balki Behbudiyning tarixiy fojialar haqidagi konsepsiyasining eng yorqin ifodasidir. Dramadagi ota (milliy boylik, meros, o‘tmish) ni ilmsizlik va jaholat tufayli o‘ldirish—bu Markaziy Osiyo jamiyatining o‘z tarixi, madaniy merosi va taraqqiyot imkoniyatlariga nisbatan qilgan xatosining ramziy allegoriyasidir. Behbudiy bu teatr asari orqali og‘ir, akademik tilda yetkazilishi qiyin bo‘lgan tarixiy xulosani (ya’ni, ilmsizlikning millat uchun halokatli ekanligi) xalqning eng quyi qatlamigacha, ta’sirchan va his-hayajonli tarzda yetkazishga muvaffaq bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning historiografiyasi nafaqat ziyolilar qatlami, balki butun xalqni o‘z ichiga olishi kerak bo‘lgan, uni ijtimoiy harakatga keltiruvchi qurol sifatida ko‘rilgan. Shuning uchun "Padarkush" Behbudiyning pragmatik historiografiyasining amaliy namunasi bo‘lib, tarixni shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorga bevosita ta’sir etuvchi kuch sifatida ko‘rsatgan.

Jadid estetik tafakkuri ham badiiy asarlarni tahlil qilishda "hayotiy va badiiy mantiq sintezi asosida" kuzatishni talab qilgan. Behbudiyning tarixiy voqelikka oid qarashlari ham xuddi shunday realizmga asoslangan. U tarixni o‘rganishda har qanday fantastik rivoyatlar, subyektiv afsonalar va mavhum tushunchalarni rad etadi. Uning tarixi aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, xalqning turmush tarziga, madaniy saviyasiga va ilmiy taraqqiyotiga asoslanishi lozim edi. Tarixiy tafakkurda mantiqning ustuvorligi ilm (fan) vositasida kamolotga erishish talabi bilan bevosita bog‘liq. Mantiqiy jihatdan, qoloqlikni diniy taqdir bilan emas, balki yomon boshqaruv, maorifning yo‘qligi va adolatsizlik bilan izohlashga o‘tish, Turkiston tarixshunosligida tub metodologik o‘zgarishni tashkil etadi. Bu yangi tarixiy maktabni yaratish yo‘lidagi muhim qadam edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchiligida nafaqat ta’lim islohotchisi, balki tarix faniga tanqidiy-pragmatik yondashuvni olib kirgan milliy historiografiyaning asoschilaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Xulosa o’rnida, Sovet davrida jadidlarning, shu jumladan Behbudiyning g‘oyalari "millatchilik" sifatida qoralanganligi sababli, ularning historiografik prinsiplari uzoq vaqt e’tibordan chetda qoldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Behbudiy merosiga munosib e’tibor berildi. Prezident ***Sh.M.Mirziyoyev*** o‘z ma’ruzalarida Behbudiy singari ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi *ma’naviyatni yuksaltirish* va barkamol avlodni tarbiyalashda beqiyos kuch bag‘ishlaydigan muhim manba ekanligini ta’kidlagan. Bu rasmiy e’tirof Behbudiyning milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan historiografik prinsiplari bugungi kundagi rasmiy ta’lim va tarixshunoslikning tamal toshi ekanligini anglatadi. Behbudiyning tarixni fan va milliy g‘urur orqali taraqqiyotga erishish vositasi sifatida ko‘rish g‘oyalari zamonaviy O‘zbekiston tarixi ta’limining asosiy o‘zagi sifatida tan olingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat Turkiston

jadidchiligining yirik arbobi, balki Turkistonning milliy-pragmatik historiografiyasining asoschisi sifatida e'tirof etilishi shart. Uning tarix fanini o'rganish bo'yicha g'oyalari ma'rifiy idealizmdan real ijtimoiy o'zgarishlarga xizmat qilishga qaratilgan amaliy falsafa asosida qurilgan. Keyingi tadqiqotlar uchun Behbudiyning 6 ta darsligi va 200 dan ortiq ilmiy-publitsistik maqolalarining tarixiy materiallarga oid qismlarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning tarixiy konsepsiyasining har bir jihatini chuqurroq ochib berish maqsadida, geografik, iqtisodiy va madaniy tarixni qamrab olgan qismlarni batafsil o'rganish, uning metodologik yangiliklarini to'liq baholash imkonini beradi. Behbudiyning historiografik merosini chuqur tahlil qilish bugungi kunda ham milliy-ma'naviy merosni mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. "Mahmudxo'ja Behbudiy" - N. Karimov. Toshkent 2) Mahmudxo'ja Behbudiy tanlangan asarlar 2-jild
2. X.S.Ashurova. Jadidchilik g'oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2020. № 6.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg'a murojaat. "Oyina". 1914. 41-son.
4. R.Shamsutdinov. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. № 11.
5. https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/30/105898f2-8d38-49bb-ba1e-175f48d81051_rrY3MO7.pdf
6. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zidan keyingi avlodga nima vasiyat qilgan ..., https://www.samdu.uz/uz/news/21425

YANGI IQTISODIY SIYOSAT YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING AHOLINI IJTIMOIY TA'MINLASH SOHASIDAGI SIYOSATI

Akbayeva Zebiniso Djalolitdinovna
Oriental universiteti dotsenti
+998 91 554 72 27

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX-asrning 20-yillarida sovet hokimiyatining mamlakatda amalga oshirgan iqtisodiy siyosati va uning oqibatlari, yangi iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va uning mahalliy hududlarda amalga oshirilishi, mazkur siyosatning muhim tarkibi bo'lgan aholini ijtimoiy ta'minlashning amalga oshirilishi va uning natijalariga doir tarixiy jarayonlar ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy hayot, Amudaryo bo'limi, natural soliq, savdo shaxobchalari, xususiy kapital, xalq xo'jaligi.

XX-asrning 20-yillari boshlariga kelib jamiyatda sekin-astalik bilan siyosiy mavqiyeni mustahlay boshlagan bolsheviklar mamlakat iqtisodiy hayotida ham bir qator o'zgarishlarni amalga oshirish tadbirlari yo'lidan bordi. Tadqiq etilayotgan mavzuning o'rganilganlik darajasi aks etgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolsheviklarning iqtisodiy sohada mamlakat hayotiga olib kirgan siyosati turlicha rakursda baholanganligini ko'rish mumkin. Ayrim xorijlik olimlar sovet Rossiyasida 1921-1922-yillarda yuz bergan dahshatli ocharchilik to'g'risida gapirib, bu holatni "harbiy kommunizm" siyosatining natijasi deb hisoblaydi. Ularning fikricha, bolshevistik rejimning "harbiy kommunizm" tizimidan voz kechishi juda qiyin bo'ldi. Bolsheviklarning "harbiy kommunizm" siyosati iqtisodiyotni boshqarishda nomaqbul ekanligini ko'rsatdi. Xususan, sovet Rossiyasi asosan 1921 yil boshlaridan tinch qurilish yo'liga o'tgach, bu siyosat yaroqsiz ekanligini bolsheviklar partiyasi rahbariyatining bir qismi ham tan ola boshladi [5: 260-261].

Sovet hokimiyatining jamiyatda sotsialistik boshqaruv tizimini amalga oshirishdagi o'ziga xos taktik o'ylangan siyosatining o'ziga xos tarkibiy qismi bo'lgan iqtisodiy

munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutuvchi yangi iqtisodiy siyosat RKP(b)ning X syezdida (1921 yil mart) rasman qabul qilingan edi. Yangi iqtisodiy siyosatning muhim bug‘inlari oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirish; savdo-sotiqni erkinlashtirish; sanoat, mayda hunarmandchilik sohalari va xizmat ko‘rsatish sohasida xususiy tadbirkorlikka ruxsat berish; bozorni tartibga solish mexanizmlaridan qisman foydalanish; ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo‘lganligini M.Haydarov o‘z tadqiqotida ko‘rsatib o‘tadi [7: 162-163].

Sovet hokimiyati vujudga kelgan dastlabki oylardanoq respublikaning iqtisodiy hayotida muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun Xalq xo‘jaligi Oliy Kengashi (VSNX) tuzildi. U Xalq Komissarligi bilan bir qatorda oziq-ovqat uchun, aholini zarur tovarlar va oziq-ovqat bilan ta’minlash bo‘yicha eng muhim mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi. Vaqt o‘tishi bilan ancha jiddiy tizimga aylandi. Yangi iqtisodiy siyosatni qonunan rasmiylashtirish tomon ilk qadamlar qo‘yila boshlandi. Turkiston Respublikasi Sovetlari MIK 1921 yil 20 aprelda BMIKning 21 martdagi qonuniga to‘la muvofiq ravishda oziq-ovqat, yem-hashak va xomashyo razvyorstkasini natura solig‘i bilan almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi [4: 372]. 1921 yil may oyida Turkiston Respublikasi XKS bir qator dekretlar qabul qilib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining barcha asosiy turlari bo‘yicha natura solig‘i miqdorini belgilab berdi. Respublika bo‘yicha 1921-1922 yillarda g‘alla solig‘i 1920-1921 yillardagi 22 million pud razvyorstka o‘rniga 12,5 million pud; go‘sht solig‘i 3380 ming pud o‘rniga 1650 ming pud miqdorida belgilandi va hokazo [2: 38-39].

1921 yil 25 mayda Turkiston Respublikasi XKS shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tovar ayirboshlashning asosiy apparati bo‘lmish matlubot kooperatsiyasi to‘g‘risida dekret qabul qildi. Yangi iqtisodiy siyosatni fuqarolar tinchligini saqlash qoidalariga asoslangan siyosiy rejim sifatida baholash ham mumkin edi. Sotsializmni davlat yo‘li bilan zo‘rlab tiqishtirishdan voz kechilib, uni asta-sekin rivojlantirish yo‘li tanlandi. Kurashning inqilobiy vositalarini mutlaqlashtirishdan oziq olgan davlat hokimiyati to‘g‘risidagi buzib yuborilgan g‘oya tugatila boshladi. Yangi iqtisodiy siyosat negizida ijtimoiy jarayonlarni boshqarilishining bo‘lakcha uslublariga o‘tish – oziq-ovqat solig‘i va bozor, tovar-pul munosabatlari orqali boshqarish yotardi. Bu g‘ayri iqtisodiy ezish va majburlashning “favqulodda” choralaridan qat’iyan voz kechishni, sotsializm qurilishi sharoitida shaxsiy manfaatning hal qiluvchi ahamiyatini e’tirof etishni bildirardi.

Umumiy iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim masalalar Oliy Kengash tarkibidagi oliy organ bo'lgan va Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Butunrossiya Kengashi vakillaridan iborat bo'lgan Xalq xo'jaligi Oliy Kengashining Plenumida muhokama qilinishi kerak edi. Ishchilar nazorati, xo'jalik xalq komissariyatlari va markaziy kasaba uyushma muassasalari. Plenumning byurosi Xalq xo'jaligi Oliy Kengashi va uning Prezidiumining barcha joriy ishlariga rahbarlik qilish qo'lida to'plangan bo'lib, u dastlab Xalq xo'jaligi Oliy Kengashining markaziy apparatini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtirdi. ish tartibiga keltirish va uni Sovet hukumatiga sodiq mutaxassislar bilan to'ldirish. Prezidiumning huquqlar doirasi tobora ortib bordi, unga tobora ko'proq yangi vakolatlar berilishi tufayli kengayib bordi. Jumladan, rivojlantirish masalalari (Xalq xo‘jaligi Oliy Kengashi faoliyati doirasida) va har xil turdagi qarorlar, ko‘rsatmalar, tushuntirishlar va hokazolarni nashr etish uning vakolatiga yuklatildi. davlatning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq. Shuni qayd etish zarurki, garchi yangi iqtisodiy siyosatdan oldingi “harbiy kommunizm” davri Turkiston iqtisodini barbod etgan, ilgarigi xo‘jalik aloqalarini buzib yuborgan bo‘lsa-da, uning asosiga – tug‘ilayotgan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga, ishlab chiqarishning tovar xususiyatlariga ziyon yetkazmadi. Sovet hokimiyati o‘tkazgan ekspropriatsiya qilish va mulkni qayta taqsimlash kampaniyasi natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bundan dalolat beradi. Xo‘jaliklarning 1,7 foizidangina yer tortib olingan, 9,3 foiziga sug‘orish tizimi vujudga keltirilgandan keyin yuzaga kelgan davlat fondidan yer ajratib berildi, 6,6 foiz paxtakor xo‘jalikkina yangi yer oldi, xolos [6: 183].

Respublikaning asosiy milliy daromadi dehqonchilik hamda chorvachilikdan olinardi. Mayda tovar ishlab chiqarishi asosiy xo‘jalik turi edi. 1920 yillardagi ma’lumotga ko‘ra, aholi jon boshiga o‘rtacha 2,1 desyatina yer va 5,2 bosh qoramol to‘g‘ri kelardi1. Bu holat Turkistonda yangi iqtisodiy siyosat yo‘lini belgilab berdi. Bu yo‘l sovet hokimiyati Rossiyada tutgan yo‘ldan jiddiy ravishda farq qilardi. U yerda ham, bu yerda ham asosiy e’tibor qashshoq dehqonlarga qaratilgan edi. Biroq, yangi yo‘l ijodkorlari fikricha, Rossiyada qashshoq dehqonlar yoki qisqa muddatda sanoat ishchilari qatoriga o‘tib, zavod va fabrikalarni ishchi bilan to‘ldirishi, yoki shaharlar ko‘rsatadigan texnikaviy yordamga, shuningdek, zamindorlarning yerlarini hamda badavlat dehqonlarni ommaviy ravishda ekspropriatsiya qilish natijasida olingan mulkka tayangan holda o‘rtahollik darajasiga ko‘tarilishi darkor edi.

O‘lkadagi agrar muammoni birmuncha yengillashtirishda 1921-22 yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohoti ma’lum ahamiyatga ega bo‘ldi. Mavjud manbalarga ko‘ra, 1921- 22 yillardagi islohot davomida davlat fondiga 1.722.626 desyatina yer jamlandi. Bu yerlarning 205.059 desyatinasi chor Rossiyasi davrida o‘lkaga kirib kelgan rus quloqlari yashayotgan posyolkalarni tugatish hisobiga, 85.107 desyatinasi esa belgilangan normadan ortiqcha yerlardan qirqib olingan yerlar, 1.321.720 desyatinasi ko‘chirish fondining yerlari, 40.835 desyatinasi mehnatsiz daromad topayotgan “quloq” xo‘jaliklaridan musodara qilingan yerlar, 27.016 desyatinasi esa cherkov va monastirlardan musodara qilingan yerlar edi [3: 120]. Umuman, islohot jarayonida TASSRdagi uchta oblast bo‘yicha hammasi bo‘lib 70 ta o‘zboshimchalik bilan tuzilgan posyolka (shulardan 40 tasi Yettisuv oblastida edi), 225 ta hutor, chorbog‘ va uchastkalar, 639 ta o‘zboshimcha mehnatsiz xo‘jalik tugatildi, muhojir dehqonlarning 241.755 desyatina sug‘oriladigan va yaylov yeri tortib olindi. Bu yerlardan 76 ming desyatinasi 7137 qirg‘iz, qozoq va o‘zbek batrak va kam yer dehqon xo‘jaliklariga taqsimlab berildi [4: 365].

Turkiston Avtonom Respublikasida yangi iqtisodiy siyosatning dastlabki yillarida qishloq aholisi orasida aynan kambag‘al dehqon qatlamlari miqdori birmuncha qisqardi. Bunga yuqorida aytib o‘tilganidek, bozor munosabatlari ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan 1921-22 yillardagi yer islohoti ijobiy ta’sir ko‘rsatgan edi. Bu yillarda o‘rtahol dehqonlarning salmog‘i sezilarli darajada o‘sdi. O‘zbekiston sharoitida o‘rtahol dehqonlar o‘zini-o‘zi ta’minlash imkoniyati bo‘lgan, lekin mavsumiy yollanma mehnatdan foydalanib turadigan kishilardan iborat bo‘lgan. Har doim ham bu ta’rif bo‘yicha o‘rtaholni aniqlash imkoni bo‘lmagan. Shu bois, turli rayonlarda yer va ekin maydoniga qarab belgilashga harakat qilingan. Ko‘p hollarda shartli tarzda 3 desyatinadan 5 desyatinagacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar o‘rtahol deb topilgan. Masalan, Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasi ko‘rsatmasiga binoan boyni o‘rtaholdan, o‘rta holni kambag‘aldan farqini aniqlash uchun tuzilgan “uchlik” komissiyaning xulosasiga ko‘ra 1,5 tanop yeri, 20-25 qo‘yi, 1 yoki 2 ta omochi, 1 yoki 2 ta aravasi, suv bor joylarda ikkitadan chig‘iri bor xo‘jaliklar o‘rtahol hisoblangan [1: 133].

Sovet mamlakatida 1921 yilda yangi iqtisodiy siyosatga o‘tilishi bilan erkin savdo-sotiqqa, tadbirkorlikka ma’lum sharoit yaratilganidan keyingina qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ham rivojlana boshladi. NEP sharoitida Turkistonda, keyinchalik O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish o‘sib bordi. Kooperativlar dehqon xo‘jaliklari bilan yetishtiriladigan mahsulotni oldindan kontraktatsiya qilar va bu bo‘yicha ularni mablag‘ bilan ta’minlar edi. Yetishtirilgan mahsulot erkin narxlarda shaharga kooperativlar orqali yetkazila boshladi. Shu bilan birga kooperatsiya tizimi xalq xo‘jaligini to‘g‘ri va oqilona tarzda rivojlantirish muammolarini to‘la hal qila olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаева Я. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун (XIX асрнинг охири ва XX аср). – Т.: Ижод дунёси, 2004. – Б. 133.
2. Ғойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари. 20-йиллар таҳлили. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 38-39.

3. Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX -первой трети XX вв. – Самарканд: 2007. – С. 120.
4. Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. (Бош муҳаррир И.М. Мўминов) – Т.: Фан, 1971. – Б. 372.
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991-йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939-йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – B. 260-261.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 183.
7. Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917-1941 й.). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2012.

XIX аср иккинчи ярми - XX аср бошларида Самарқанд вилояти Каттақўрғон уезднинг демографик манзараси

Ахмедова З.
Тарих фанлари
фалсафа доктори(PhD)
Самарқанд давлат
педагогика институти.
Тарих кафедраси.

XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида Туркистон ўлкаси демографиясидаги ўзгаришларга худудда олиб борилган мустамлака сиёсий, ижтимоий-иқтисодий сиёсат, аҳолини кўчириш кабилар катта таъсир кўрсатди. Бу даврда ўлкадаги демографик трансформациялар, айниқса аҳоли зич жойлашган Фарғона, Самарқанд, Сирдарё каби вилоятларда яққол кўзга ташланади. Хусусан, бу муаммо Самарқанд вилояти ва унинг алоҳида уездлари мисолида қиёсий таҳлил қилинганда, аҳоли динамикаси, унинг миллий таркиби, оила-никоҳ муносабатларда фарқли хусусиятлар аниқлик топади. Бу ўз навбатида, Туркистон ўлкасининг бошқа вилоят, уездларида кечган демографик жараёнларни қиёслаш имконини беради.

Самарқанд вилояти маъмурий-худудий жиҳатдан дастлаб Зарафшон округи (1868) сифатида, Самарқанд ва Каттақўрғон бўлимларидан иборат бўлган бўлса, 1886 йилги Низомдан сўнг, вилоят сифатида унинг таркибига тўртта - Самарқанд, Каттақўрғон, Жиззах ва Хўжанд уездлари киритилди. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, аҳоли зичлиги бўйича Самарқанд уездидан сўнг, Каттақўрғон уезди турган. Каттақўрғон уезди Каттақўрғон шаҳри, Пайшанба ва Челак участкаларидан ташқари, 31 та волостга бўлинган эди.

Маълумки, XIX аср охирига келиб, Самарқанд вилояти сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан муҳим мустамлака марказий худудлардан саналган. 80-йиллар охирида Каспийорти темир йўлининг Самарқанд билан боғланиши вилоятда савдо, товар-пул муносабатларининг жадаллашувига туртки берган бўлса, бошқа томондан, бошқарув ва кўчириш сиёсати натижасида рус аҳолисининг кўчиб келиши, рус посёлкаларининг ташкил топиши демографик жараёнларга, шаҳар, уездлар, яъни туманларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига ҳам сезиларли таъсир кўрсатди. Шундай ҳолат Каттақўрғон уезднинг демографик манзарасида ҳам намоён бўлдики, шу даврга келиб уездда аҳолиси 110.006 минг кишини ташкил этди. Аҳоли сони бўйича уезд вилоятда тўртинчи ўринни эгаллаган бўлса-да (Самарқанд уезди 1-ўринда), бироқ аҳоли зичлигига кўра 1 кв.верстга 15, 72 киши боши тўғри келган. Бу кўрсаткич бўйича Каттақўрғон Самарқанддан кейинги ўринда турган.

Марказий Статистика Қўмитаси томонидан қабул қилинган ва жорий 1882 йилда нашр қилиш учун мўлжалланган ҳужжатлар қаторида 1882 йилдаги Россиянинг Европа қисми билан бирга 1883 йилда Заравшон округи аҳолиси тўғрисидаги маълумотлар ҳам

зарур деб топилиб, Марказий Статистика Қўмитаси итоаткор қисмлардаги қози ва руҳонийларга юборилган шакл ва устунларни аҳолига тушунтириш ва тўлдириш ишларини олиб бориш буйруғи берилган.

Ушбу буйруқ асосида олинган маълумотлар натижасига кўра 1882 йил Зарафшон округи аҳолисининг умумий сони қуйидаги жадвалга акс этган бўлиб, Каттақўрғон уезди аҳоли ва ҳар иккала жинс бўйича тоғли туманларга нисбатан кўпчиликни ташкил этиб Самарқанддан кейинги ўринни эгаллаган.

1-жадвал.

№	**Уездлар номлари**	**Шаҳарлар**			**Уездлар**			**Жами**	
		Э	А	Жами	Э	А	Жами	Э	А
1	Самарканд бўлими	17.376	15.746	33.117	95.545	71.880	167.425	112.916	87.626
2	Каттақўрғон	8000	800	16.000	70.276	69.395	139.671	78.276	77.395
3	Тоғли туманлар	2794	3102	5.896	17.891	14.446	32.337	17.240	20.993
5	**Жами**	28.165.	36.848.	55.013.	183.712	155.721.	339.433.	208.432	186.014

1897 йилда ўтказилган Биринчи аҳоли рўйхатига кўра бутун вилоят бўйича аҳоли зичлиги шаҳарлардан ташқари фақат битта туман бўйича олинадиган бўлса 1кв милга 14,19 тани ва 1кв. милга 11,96 тани ташкил этган ва аҳолининг туманлар бўйича зичлиги қуйидаги жадвалда келтирилган:

2-жадвал

№	Уезд номлари	Узднинг шаҳарлар билан бирга аҳоли зичлиги.	Узднинг шаҳардан ташқари аҳоли зичлиги.
1	Самарқанд уезди	44,15	36,56
2	Жиззах	8,63	8,02
3	Каттақўрғон	15,72	14,28
4	Хўжанд	9,24	6,71
5	**Жами**	**77,74**	**65,57**

Аҳолининг жойлашуви ва зичлиги бўйича Самарқанд вилояти уезд ва шаҳарлари аҳолиси кўп ҳудуд бўлиб, ундан кейинги ўринда Каттақўрғон вилояти жойлашганини кўришимиз мумкин.

Қуйидаги жадвалда 1875 йилда 1 январдан -1 февралига қадар Каттақўрғон уезди қозисининг туғилган, ўлган ва ажрашганлар ҳақидаги ҳисоботи акс этган.

3-жадвал

никоҳ тўғр.шикоят. таҳлил қилиш	Бошқа сабабларга кўра келиб чиққан шикоятлар.	Сотилган уйлар ва уларнинг миқдори	Меросий мулк ва унинг миқдори.	Турмуш қурганлар	Ажрашганлар	Туғилганлар	Ўлганлар	Сотилиб кетган йерлар ва уларнинг миқдори
-	28	1	-	54	7	43	84	80
-	-	450 коп	-	472 коп	-	-	-	15,615

1875 йилдаги Каттақўрғон уезди қозисининг ушбу ҳисоботида 1январдан бошлаб 1февралига қадар яъни бир ой давомида тумандаги туғилган ва вафот этганлар ҳақида ҳисобот бериб ўтилган бўлиб, шунингдек ажрашган оилалар миқдори ҳақида ҳам маълумот бериб ўтилган. Айнан ушбу 1875 йил ва январ ойи тўғрисида Катта-Қўрғон уездининг Митан ва Пайшанба қозиси ҳам ҳисобот бериб ўтган бўлиб ва бу ҳисоботларни юқоридаги жадвал билан таққослаш мумкин*:*

4-жадвал

никоҳ тўғр.шикоят. таҳлил қилиш	Бошқа сабабларга кўра келиб чиққан шикоятлар.	Сотилган уйлар ва уларнинг миқдори	Сотилиб кетган йерлар ва уларнинг миқдори	Меросий мулк ва унинг миқдори.	Турмуш қурганлар	Ажрашганлар	Туғилганлар	Ўлганлар
-	16	2	-	3	25	9	19	9
-	-	240	-	-	153к	-	-	-

Митан волости қозиси маълумотларига асосан шу бир ой давомида бу йердаги ажрашганлар сони Каттақўрғон уездига нисбатан 2 нафарга кўпчиликни ташкил этиб, аммо туғилган ва вафот этганлар сони бу йерда кам кўрсатгични кўрсатади.

5-жадвал

никоҳ тўғр.шикоят. таҳлил қилиш	Бошқа сабабларга кўра келиб чиққан шикоятлар.	Сотилган уйлар ва уларнинг миқдори	Сотилиб кетган йерлар ва уларнинг миқдори	Турмуш қурганлар	Ажрашганлар	Туғилганлар	Ўлганлар	Меросий мулк ва унинг миқдори.
-	16	2	63	17	4	23	78	7
-	-	2,370к	9.399коп	140	-	-	-	29.660

Ушбу юқоридаги 3-жадвалда 1875 йилга 1-январдан 1-февралга қадар Пайшанба волости қозиси берган ҳисобот акс этган бўлиб, бу йердаги маълумотларга кўра никоҳ тўғрисидаги шикоятлар кузатилмаган ва аҳолининг туғилиш ва вафот этиш даражаси Митан

волостига нисбатан кўпчиликни ташкил этиб, аммо Каттақўрғон уездиги нисбатан ажралиш, кўпайиш ва вафот этганлар сони жиҳатдан кам кўрсатгичларни кўрсатиб берган.

Шаҳарларда эса аҳоли зичлиги уездаги аҳоли зичлигидан бироз фарқ қилган:

6-жадвал

№	Шаҳар номлари	Эркаклар	Аёллар	Жами
1	Самарқанд	31.734	23.394	55.128
2	Хўжанд	16.249	13.860	30.109
3	Ўратепа (уездан ташқ)	10.249	9.885	20.621
4	Жиззах	8.562	7.148	15.710
5	Қаттақўрғон	5.954	4.133	10.087
6	Панжакент(уездан ташқ)	2.054	1.604	3.658
7	**Жами**	74.802	60.024	135.313

Аҳолининг уезд ва шаҳарлар бўйича жойлашув зичлиги ва туғилиш, ўлим ва никоҳ муносабатлари бир-биридан фарқ қилган бўлиб, бундай ҳолатлардаги фарқларни эркак ва аёллар яни ҳар иккила жинс ўртасидаги тафовутни ҳам кўришимиз мумкин. Бундай тафовут аҳолининг саводхонлик даражаси бўйича ҳам келиб чиққан бўлиб, 1897 йилда олинган биринчи аҳоли рўйхатида ҳам аҳолининг саводхонлик даражаси ҳақидаги маълумотлар сақланган.

Берилган маълумотларга кўра, Самарқанд вилояти ва унинг уездларида саводхонлик даражаси паст кўрсатгични кўрсатган бўлиб,бу айниқса қишлоқ аҳолиси орасида жуда ёмон кўрсатгичларни эга бўлган. Аҳолининг аёллар қисми саводхонлиги айниқса паст даражада бўлиб,уездларга 0,13%ни ташкил этган.

Қуйидаги жадвалда аҳолининг уезд ва шаҳарлар бўйича эркак ва аёллар ўртасидаги саводхонлик даражаси келтирилган:

7-жадвал

№	Уезд ва шаҳар номлари	Эркаклар	Аёллар
1	Самарқанд уезди	3,62	0,25
2	Жиззах	1,69	0,07
3	Каттақўрғон	2,33	0,08
4	Хўжанд	3,54	0,26
5	Самарқанд шаҳри	23,06	6,82
6	Панжакент	8,23	0,81
7	Жиззах шаҳри	7,87	1,64
8	Катта -Қўрғон	18,24	3,05
9	Хўжанд	12,89	2,28
10	Ўратепа	13,52	2,28

Умуман олганда ушбу жадвалда уездлар бўйича таҳлил қилинадиган бўлса, энг кўп саводли аҳоли Самарқанд ва Хўжанд уездларида жойлашган бўлиб, Каттақўрғон уезди аҳоли саводхонлик даражаси бўйича Самарқанд ва Хўжанддан кейинги ўринни эгаллаган бўлса, Каттақўрғон шаҳри эса эркак ва аёллар саводхонлик даражаси бўйича Самарқандан кейинги ўринда турган.

Вилоят маркази ҳисобланган Самарқанд шаҳри - асосий сиёсий-маъмурий ва иқтисодий марказ бўлган. Шу боис, вилоят ва унинг марказини бошқариш учун маъмурий-ҳарбий, ижтимоий-хўжалик ва бошқа вазифалар нуқтаи назаридан аҳамиятга молик “Янги шаҳар” ёки “Рус қисм” барпо этилган. “Янги қисм” лар билан биргаликда кўчириб келинган аҳоли учун рус посёлкалари ҳам ташкил этилиб борилган, жумладан 1886 йилда вилоятга рус аҳолисини кўчириб келтириш бошланган эди. 1886 йилда дастлаб 4 та пасёлка, яна ўн йилдан сўнг 4 та посёлка ташкил этилади ва 1898 йилга келиб уларнинг сони 9 тага етади.

Алоҳида олиб қараганда, 1905 йилда Самарқанд вилояти Каттақўрғон уездининг 9 та посёлкасида рус оилалари сони ва таркиби қуйидагича бўлган.

8-жадвал

	Посёлкалар номи	**Оилалар сони**	**Эркак**	**Аёл**	**Жами**
1	Сретенский	165	367	296	663
2	Николаевский	30	72	56	128
3	Романовские	72	197	173	370
4	Надежденский	92	172	185	357
5	Обътованний	23	54	43	97
6	Верхне-Волинский	34	77	68	140
7	Нижне-Волинский	63	160	153	313
8	Конно-гвардийский	24	65	51	116
9	Духовский	10	23	21	44
10	**Жами**	**513**	**1187**	**1046**	**2233**

Ушбу жадвалдаги маълумотларни 1904 йил билан солиштирганда, рус оилалари сонининг 111 тага камайганлигини кўриш мумкин, бунинг асосий сабаби янги очилган аҳоли пунктлари ҳисобидан содир бўлган ва аҳоли деҳқончилик қилиш қулай бўлган бошқа ҳудудларига кўчиб борган

Қисқача хулоса қилиб айтганда, Каттақўрғон вилояти Заравшон округидаги аҳоли сони ва зичлиги бўйича алоҳида ажралиб турган ва Самарқанд вилоятидан кейинги ўринда турган. 1897 йилда илк бор ўтказилган Биринчи аҳолини рўйхатга олиш тадбири ўтказилгунга қадар Каттақўрғон уезди аҳолисининг оилавий муносабатлари никоҳ, туғилиш ва вафот этганлар тўғрисидаги маълумотлар қозиларнинг ҳисоботларида акс этиб борган. Бутунроссия Биринчи аҳоли рўйхати олингандан кейин Каттақўрғон вилояти демографик жараёнларига хусусан вилоятдаги аҳоли жойлашув зичлиги туғилиш, ўлим, никоҳ ва оилавий муносабатлар ҳақидаги маълумотларга аниқлик киритила борилади. Ва шу билан бирга вилоятнинг эркак ва аёллар ўртасидаги саводхонлик даражаси ҳақидаги маълумотлар тўпланади. Шу билан бирга, аҳоли ижтимоий табақаланишининг кучайиб бориши янги ижтимоий қатлам, гуруҳларни юзага келтирди. Янги ташкил этилган “Рус қисм” лари ва кўчириб келтирилган рус аҳолиси учун рус посёлкаларининг вужудга келиши Каттақўрғон уезди аҳолисининг демографик манзарасига ҳам ўз таъсирини кўрсатди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. ЎзРМДА, И-22-жамғарма, 1-рўйхат,168-йиғма жилд 1-варақ.
2. ЎзРМДА,И-5-жамғарма, 1-рўйхат, 1607-йиғма жилд, 1-варақ.
3. Обзор Самаркандской области за 1900 г. – Самарканд, 1901. – С.32.
4. Обзор Самаркандской области за 1905.-Т.,1905. –С 35.
5. Первая Всеобшая перепись населения Российской империи 1897г, Самаркандская области. –СПб.,1905. –С.4-7.
6. Нормуродова Г.Б. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. –75.

SAMARQAND VILOYATI SANOAT KORXONALARI ISHCHI-XODIMLARINING TA'LIM OLISH VA MALAKASI OSHIRISH MASALASI

Shotemirova Aziza Usarovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi
+998 97 925 47 43
azizashotemirova359@gmail.com

Annotasiya. Mazkur ilmiy maqolada 1940-1980-yillar oralig'ida Samarqand viloyatidagi sanoat korxonalarda faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlarning faoliyati davomida ularning ta'limi va malakasidagi ayrim muammolar, kamchiliklartahlil etiladi. Unda o'rganilayotgan davrning turli bosqichlarida ishchi-xodimlarning ta'lim olish jarayonlari, bosqichlari o'rganiladi. Shuningdek, ishchi-xodimlarning kam sonli qismi o'rta va o'rta maxsus malakaga egaligi, asosan malakaga ega kadrlar boshqa millat vakillari ekanligi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy omillar bilan o'zaro aloqasi arxiv ma'lumotlari va manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: "Kinap" zavodi, savodsizlik, ishchi-xodimlar, "Serp va molot" zavodi.

Kirish

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida Samarqand viloyati ishchi-xodimlarining ta'lim darajasida keskin o'zgarishlar yuz berdi. 1940-yillar oxiri – 1950-yillar boshlarida sanoat va xo'jalikda ishlab turgan ishchilarning ma'lum qismi to'liq bo'lmagan boshlang'ich ma'lumotli yoki umuman o'rta ta'lim ham olmagan edi. Xususan, 1950-yillar o'rtalarigacha avvalgi davrdan qolgan muayyan kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lmagan aholi tabaqasi hali mehnat qilayotgan edi. 1958-yil 15-fevral holatiga ko'ra, "Kinap" zavodida jami 14 nafar muayyan malakaga ega bo'lmagan ishchi ishlayotgan bo'lib, ular 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan shaxslar edi. Shundan 3 nafari o'zbek, 8 nafari tatar, 2 nafari tojik, 1 nafari esa rus millatiga mansub bo'lgan. Bu ma'lumot savodsizlik asosan mahalliy bo'lmagan ishchilar orasida saqlanib qolganini ko'rsatadi, chunki o'sha davrga kelib o'zbekistonlik o'zbek va tojiklarning yosh avlodi maktab ta'limini olgan va savodxonlik darajasi yuqori edi.

1950-yillarga kelib O'zbekistonda savodsizlik deyarli tugatildi, shu jumladan Samarqand viloyatida ham yosh ishchilar to'liq savodxon bo'lib ulg'ayishdi. Shu sababli 1960–1970-yillarda ishchi-xodimlar orasida mutlaqo savodsiz kadrlar deyarli qolmadi. Biroq, ularning o'rta va oliy ma'lumot olish darajasi boshqacha manzara kasb etdi. 1950-yillarda ko'plab ishchilar faqat boshlang'ich yoki to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotga ega bo'lib, to'liq o'rta ma'lumotli (10-11 sinf bitirgan)lar ulushi past edi. 1960-yillardan boshlab umumiy o'rta ta'lim majburiyati joriy qilinishi munosabati bilan yosh kadrlarda o'rta ma'lumotli bo'lish odatiy tus oldi.

Asosiy qism

Arxiv hujjatlarida keltirilganidek, 1958-yilda "Kinap" zavodidagi yosh ishchilarning atigi 6 nafari oliy ma'lumotli, 16 nafari o'rta maxsus ma'lumotli bo'lgan, xolos. Qolgan aksariyat yoshlar maxsus ma'lumotga ega emas edi. Bu holat butun viloyat bo'yicha ham xos bo'lib, o'sha davr ishchilarining asosiy qismi bevosita ishlab chiqarish jarayonida malaka oshirgan. Samarqand viloyati ishchi-xodimlarining malakaviy darajasi izchil oshib bordi. 1950-yillarga nisbatan 1970-yillarda ishchilar orasida o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislar salmog'i sezilarli darajada ko'payib, ko'plab kadrlar maxsus texnik bilimga ega bo'lgani manbalarda qayd etilgan. Ayrim tarmoqlarda ayollarning malakasi oshib, ular ilgari asosan erkaklar band bo'lgan lavozimlarda ham faoliyat yurita boshladi. Shu bilan birga, ishchilar va xizmatchilar sonining o'sish sur'ati ham ijtimoiy tarkibga ta'sir ko'rsatdi: viloyatda ishchilar soni yiliga o'rtacha 5,8 % ga, xizmatchilar soni esa 3,5 % ga oshgan. Umuman olganda, 1946–1991 yillar davomida Samarqand viloyatida ishchi-xodimlar tarkibi nafaqat son jihatdan kengaydi, balki yosh, jins, milliy va malakaviy

tarkibida ham muhim sifat o‘zgarishlari yuz berdi. 1970-yillarga kelib esa manzara sezilarli darajada yaxshilandi: endi nafaqat yoshlar, balki o‘rta yoshdagi ishchilar orasida ham maxsus o‘rta va oliy ma’lumotlilarning ulushi oshdi. Korxonalarda ishlayotgan muhandis-texnik xodimlarning katta qismi oliy ma’lumotli mutaxassislar bo‘lib, oddiy ishchilar orasida ham texnikum va kasb-hunar bilim yurtlari bitiruvchilari paydo bo‘ldi. Masalan, D. Sobirovaning ma’lumot berishicha, 1980-yillarga kelib Samarqand viloyatidagi yirik korxonalarda oddiy ishchilarning 70–80% dan ortig‘i to‘liq o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan, ularning sezilarli qismi maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan.

Kadrlar malakasini oshirish masalasi ham doimiy e’tiborda bo‘lgan. Korxonalarda mavjud ishchi-xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yildi. Masalan, 1971-yilda “Serp va Molot” zavodida xavfli ish joylarida mehnat qiluvchi 144 nafar ishchi xavfsizlik texnikasi bo‘yicha maxsus o‘qitildi. Ular orasida qozonxona operatorlari, mexaniklar, elektrogaz payvandchilar kabi mutaxassisliklar bo‘lib, har biri 68 soatlik dastur asosida trening o‘tagan. Bunday qayta o‘qitish tadbirlari ishchilarning malakasini oshirishga va texnika xavfsizligi qoidalarini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, kadrlarni maqsadli tayyorlash rejalariga muvofiq yoshlardan istiqbolli ishchi va muhandis kadrlar zaxirasi shakllantirildi. 1957-yilda Samarqand xalq xo‘jaligi kengashi (Sovnarkhoz) kelasi yil uchun kadrlar tayyorlash va malaka oshirish rejasini tuzib, tasdiqlashga harakat qilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Bu rejalar doirasida mahalliy yoshlarni oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga yuborish, ishlab chiqarishdan ajratmagan holda o‘qitish (kechki va sirtqi ta’lim orqali) tizimlari keng qo‘llanilgan. Natijada 1980-yillarning oxiriga kelib viloyat ishchi-xodimlari orasida oliy ma’lumotli muhandislar, texnologlar, iqtisodchilar soni avvalgi o‘n yilliklarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Oddiy ishchilarning ham aksariyati o‘z kasbi bo‘yicha ma’lum darajada texnik bilimga ega bo‘lib, yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishga qodir edi. Bu o‘zgarishlar, shubhasiz, mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati avvalo, ularning mehnat sharoitlari, turmush darajasi va ijtimoiy himoyasidan kelib chiqadi. 1946–1991-yillar davomida Samarqand viloyatida ushbu yo‘nalishlarda ham sezilarli siljishlar kuzatildi. Dastlabki urushdan keyingi yillarda mehnat sharoitlari ancha og‘ir bo‘lib, korxonalarda texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga yetarlicha rioya qilinmas edi. Ko‘p joylarda ishchilar moslamasiz, qo‘l mehnati ustun bo‘lgan sharoitda ishladilar, ishlab chiqarish binolari va ustaxonalari talabga javob bermasdi. Ishchilarning turmush sharoitlari ham murakkab bo‘lib, ko‘pchilik uysiz yoki tor yotoqxonalarda yashardi, oziq-ovqat ta’minoti cheklangan edi. Keyingi yillarda davlat tomonidan mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1960–70-yillarda jamoa shartnomalari orqali korxonalarda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi masalalariga e’tibor kuchaydi. Masalan, 1971-yilda “Serp va Molot” konserva zavodida jamoa shartnomasi doirasida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 37 ta tadbir rejalashtirilib, ularga jami 20 ming so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan edi. Bu tadbirlar doirasida zavodda bir qator texnik yangilanishlar qilingan: masalan, konserva mahsulotlarini qadoqlash jarayonlari mexanizatsiyalashtirildi, ayrim xavfli jarayonlarga avtomatlashtirilgan uskunalar o‘rnatildi. Shuningdek, ishchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish maqsadida sexlarda shamollatish va himoya vositalari joriy etildi, xavfsizlik haqida ko‘rgazmali qurollar va eslatma plakatlar tayyorlandi. Ayniqsa, ayol ishchilarning mehnat sharoitini yaxshilash masalasi dolzarb edi. Ba’zi korxonalarda xotin-qizlar uchun elementar maishiy qulayliklar yetishmas edi. Masalan, 1969-yilda “Serp va Molot” zavodida ayollar uchun gigiyena xonasi mavjud emasligi qayd etilgan. Keyinchalik, sog‘liqni saqlash idoralari ko‘magi bilan korxona hududida yoki unga yaqin joyda ayollar gigiyena xonasi va tibbiy punkt tashkil etildi. Ayollar mehnatiga sharoit yaratishning yana bir muhim jihati – bolalar bog‘chalari va maktabgacha tarbiya muassasalarining yetarli ekani edi. 1970-yillardan boshlab ishchilar uchun maxsus korxona

qoshidagi bolalar bog‘chalari qurishga kirishildi. Masalan, 1970-yillar oxirida viloyat rahbariyati qoshida bir qancha yirik sanoat korxonalarida xodimlar farzandlari uchun mo‘ljallangan bolalar bog‘chalari qurish haqida qarorlar qabul qilingan. Bu tashabbuslar ishchi ayollarning farzandlarini ishonchli joyga qo‘yib, ishlab chiqarishda to‘liq qatnasha olishlarini ta’minlashga qaratilgan edi.

Ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, shuningdek, ularning yashash sharoitlari va maosh darajasida ham namoyon bo‘ladi. 1950–60-yillarda turar-joy muammosi o‘tkir bo‘lib, korxona ishchilari uchun ommaviy uy-joylar qurilishi endigina yo‘lga qo‘yilgan edi. 1970–80-yillarga kelib Samarqand shahrida va boshqa sanoat markazlarida minglab oilalar yangi kvartiralarga ko‘chib o‘tdilar. Ko‘p hollarda bu kvartiralar korxonalarning o‘z uy-joy fondi hisobidan taqdim etildi. Ishchilarning maoshlari ham davr davomida oshib bordi: inflyatsiya hisobga olingan holda ham real daromad darajasi 1980-yillargacha ko‘tarilib, oilalarning moddiy farovonligi yaxshilandi. Albatta, maosh miqdori tarmoqqa va lavozimga bog‘liq bo‘lgan – malakali muhandis-texnik kadrlar va og‘ir sanoat ishchilari yuqoriroq o‘rtacha maosh olgan bo‘lsa, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasidagi xodimlar daromadi pastroq edi. Shunga qaramay, jamiyatda umumiy ijtimoiy himoya tizimi (bepul tibbiy xizmat, arzon ijara uylari, sanatoriy yo‘llanmalari va boshqalar) mavjud bo‘lgani tufayli ishchi-xodimlarning ijtimoiy holati muayyan darajada kafolatlangan edi. Tahlil qilinayotgan davrning so‘nggi yillarida, ya’ni 1980-yillar oxirida, umumittifoq miqyosidagi iqtisodiy qiyinchiliklar viloyat ishchi-xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Biroq, ushbu ishning mavzusi doirasida asosan ijobiy o‘zgarishlar davri – 1946 yildan 1980-yillar oxirigacha – ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu paytda Samarqand viloyati mehnatkashlarining turmush va mehnat sharoitlari bosqichma-bosqich yaxshilanganligi qayd etilgan manbalarda aks etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1946–1991-yillar davomida Samarqand viloyati ishchi-xodimlarining ijtimoiy tarkibi va demografik ko‘rsatkichlarida chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi.

Ishchi-xodimlarning ta’lim darajasi va malaka ko‘rsatkichlari keskin oshdi. Savodsizlik batamom bartaraf etilib, o‘rta ma’lumotli ishchilar mehnatning asosiy tayanch kuchiga aylandi. Malakali texnik kadrlar, muhandislar soni ortdi, bu esa viloyat sanoatining rivojiga zamin yaratdi. Kadrlar malakasini oshirishning institutsional mexanizmlari — texnikumlar, oliygohlar, kurslar – kengaytirildi va natijada ishchi-xodimlarning umumiy saviyasi ko‘tarildi. Oltinchidan, ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati yaxshilanib, mehnat sharoitlari sezilarli darajada rivojlandi. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar samara berib, ishlab chiqarish jarayoni inson mehnati uchun xavfsizroq va qulayroq tus oldi. Ishchilarning turmush sharoitlari — uy-joy bilan ta’minlanishi, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar — davlat tomonidan kafolatlanib bordi. Ayniqsa, ayol ishchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi e’tibordan chetda qolmadi: bolalar bog‘chalari qurilishi, ayollar uchun maxsus xonalar ajratilishi kabilar ularning mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Yuqorida keltirilgan o‘zgarishlar kompleks ravishda Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarqand viloyat davlat arxivi, 929-fond, 1-ro‘yxat, 396-ish, 18-varaq. (1958-yil Samarqand “Kinap” zavodi ishchi-xodimlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotli hujjat)
2. Samarqand viloyat davlat arxivi. 929-fond, 1-ro‘yxat, 396-ish, 18-varaq.
3. Samarqand viloyat davlat arxivi. 1741-fond, 2-ro‘yxat, 262-ish, 20-varaq. (1971-yilda “Serp va Molot” zavodida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 37 tadbir rejalashtirilganligi haqidagi hujjat)

4. Samarqand viloyat davlat arxivi. 1741-fond, 2-ro‘yxat, 262-ish, 20-varaq. (1971-yilda “Serp va Molot” zavodida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 37 tadbir rejalashtirilganligi haqidagi hujjat)
5. Samarqand viloyat davlat arxivi. 929-fond, 1-ro‘yxat, 396-ish, 17-varaq. (1971-yilda “Serp va Molot” zavodida jamoa shartnomasi doirasida amalga oshirilgan texnika xavfsizligi tadbirlari haqida hujjat)
6. Samarqand viloyat davlat arxivi. 1741-fond, 2-ro‘yxat, 262-ish, 14–15-varaq. (1969-yilda “Serp va Molot” zavodida ayollar gigiyena xonasi yo‘qligi qayd etilgan hujjat)
7. Samarqand viloyat davlat arxivi. 929-fond, 1-ro‘yxat, 396-ish, 18-varaq. (1958-yil Samarqand “Kinap” zavodi ishchi-xodimlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotli hujjat)
8. Социально-экономические проблемы использования женского труда в Узбекской ССР. – Ташкент: Издательство «Фан» Узбекской ССР, 1989. – С. 38-44.
9. Собирова Д. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи тарихидан (XX асрнинг 40–80-йиллари). – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 37-48.
10. Samarqand viloyat davlat arxivi. 1741-fond, 2-ro‘yxat, 262-ish, 20-varaq. (1971-yilda “Serp va Molot” zavodida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha 37 tadbir rejalashtirilganligi haqidagi hujjat)
11. Samarqand viloyat davlat arxivi. 929-fond, 1-ro‘yxat, 396-ish, 18-varaq. (1958-yil Samarqand “Kinap” zavodi ishchi-xodimlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotli hujjat)

SAMARQAND VILOYATIDA IJTIMOIY TUZILMA VA XO‘JALIK MUNOSABATLARI

Jamila Ulug‘bek qizi
Oriental universiteti
Tarix yo‘nalishlar magistri
+998994469131
jamilaurinboyeva43@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlar, xo‘jalik tizimining transformatsiyasi hamda etnik tarkibdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati natijasida an’anaviy o‘troq va ko‘chmanchi xo‘jalik tizimlari o‘zgarishga uchragani, yer-suv munosabatlarining qayta shakllangani ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, hududda ko‘pmillatlilikning kuchayishi va ijtimoiy qatlamlarning yangi tizimi shakllanishi masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand viloyati, Turkiston o‘lkasi, mustamlaka siyosati, o‘troqlashuv, ko‘chmanchi aholi, yer islohoti, demografik o‘zgarishlar, Zarafshon vohasi, Jizzax, Xo‘jand, Mirzacho‘l.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyati ijtimoiy hayoti murakkab tarixiy jarayonlar ta’sirida shakllangan bo‘lib, bu davr O‘rta Osiyo tarixida tub burilish bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini bosib olishi natijasida hududda an’anaviy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar izdan chiqdi hamda yangi mustamlaka boshqaruv tizimi joriy etildi. Ushbu jarayonlar mahalliy aholining turmush tarzi, xo‘jalik yuritish shakllari va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Samarqand viloyati geografik jihatdan Zarafshon vodiysi, Mirzacho‘l, Sirdaryo bo‘ylari va tog‘ oldi hududlarini qamrab olganligi sababli, bu hududda o‘troq dehqonchilik, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi xo‘jalik shakllari uzoq vaqt davomida yonma-yon rivojlanib kelgan. Bunday murakkab xo‘jalik tizimi viloyat ijtimoiy tarkibining ko‘p qatlamli va etnik jihatdan rang-barang bo‘lishiga zamin yaratgan.

Mustamlaka davrida esa yer-suv munosabatlarining qayta tashkil etilishi, yaylovlarning davlat tasarrufiga o‘tkazilishi va sug‘oriladigan yer maydonlarining kengaytirilishi an’anaviy xo‘jalik tizimini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ayniqsa, ko‘chmanchi aholining yaylovlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi ularni o‘troqlashuv jarayoniga majburiy tarzda jalb etdi. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi modelini shakllantirdi. Shuningdek, ushbu davrda Samarqand viloyatida demografik jarayonlar ham faollashdi. Rossiya imperiyasi hududlaridan ko‘chib kelgan aholi, mahalliy etnik guruhlar bilan birgalikda yangi ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Natijada ko‘pmillatlilik kuchayib, shahar va qishloq joylarida yangi ijtimoiy qatlamlar vujudga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy hayotga, balki madaniy va ma’naviy muhitga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Samarqand viloyatining ushbu davrdagi ijtimoiy tarixi o‘troq va ko‘chmanchi jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, mustamlaka siyosatining mahalliy hayotga ta’siri hamda etnomadaniy transformatsiyalarni kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa O‘rta Osiyo tarixining mustamlaka davri ijtimoiy jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida ijtimoiy hayot, xo‘jalik tizimi va etnik tarkibdagi o‘zgarishlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy omili Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati edi. Turkiston o‘lkasining bosib olinishi natijasida an’anaviy siyosiy boshqaruv tizimi tugatilib, uning o‘rniga markazlashgan imperiya ma’muriyati joriy etildi. Bu esa nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mustamlaka ma’muriyati tomonidan yer-suv munosabatlarini tartibga soluvchi yangi huquqiy tizim joriy etildi. Aslida bu tizim imperiyaning iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lib, eng serhosil yerlar davlat mulki sifatida qayta taqsimlandi. Natijada mahalliy aholining an’anaviy yer egaligi tizimi zaiflashdi. Ayniqsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi uchun bu jarayon keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Yaylovlarning qisqarishi va suv resurslarining davlat nazoratiga o‘tishi chorvachilik xo‘jaligining inqiroziga sabab bo‘ldi. Bu esa aholining muhim qismini o‘troq hayot tarziga majburiy o‘tishiga olib keldi. Shu tariqa Samarqand viloyatida “o‘troqlashuv jarayoni” tezlashdi.

XIX asr oxiriga kelib Samarqand viloyati etnik jihatdan juda murakkab hududga aylandi. Bu yerda o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, tatarlar hamda Rossiyadan ko‘chib kelgan rus aholisi birgalikda yashagan.

Jizzax uezdi asosan ko‘chmanchi qirg‘iz aholisi bilan ajralib turgan bo‘lib, ularning xo‘jalik tizimi yaylov chorvachiligiga asoslangan edi. Xo‘jand va Samarqand shaharlari atrofida esa tojik va o‘zbek aholisi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Demografik jarayonlarning yana bir muhim jihati – rus aholisining ko‘chib kelishi bilan bog‘liq edi. Ular asosan harbiy garnizonlar, ma’muriy idoralar va yangi tashkil etilgan qishloqlarda joylashgan bo‘lib, bu holat mintaqada yangi ijtimoiy qatlamni shakllantirdi. Natijada shaharlarda “mustamlaka urbanizatsiyasi” jarayoni yuzaga keldi.

Samarqand viloyatida yer-suv munosabatlari mustamlaka davrining eng keskin muammolaridan biri bo‘ldi. An’anaviy jamoaviy yer egaligi asta-sekin buzildi va yerlar davlat mulki sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Imperiya ma’muriyati yerlarni soliq tizimi orqali boshqarib, ularni iqtisodiy resurs sifatida ko‘rdi. Bu esa mahalliy aholining yerga bo‘lgan an’anaviy huquqlarini cheklab qo‘ydi. Ayniqsa, Mirzacho‘l va Sirdaryo bo‘ylarida yangi sug‘orish tizimlari joriy etilib, paxtachilikka ustuvor ahamiyat berildi.

Paxta ekinlari imperiya sanoati uchun muhim xomashyo bo‘lgani sababli, bu hududlarda “monokultura iqtisodiyoti” shakllandi. Natijada oziq-ovqat ekinlari kamayib, aholining iqtisodiy mustaqilligi qisqardi.

Ko‘chmanchi aholi Samarqand viloyatining Qizilqum, Mirzacho‘l, Sirdaryo bo‘ylari va tog‘ oldi hududlarida yashab kelgan. Ularning asosiy xo‘jalik faoliyati chorvachilik bo‘lib, mavsumiy migratsiya tizimi asosida tashkil etilgan edi. Biroq yaylovlarning qisqarishi, suv resurslarining cheklanishi va yangi ma’muriy chegaralarning joriy etilishi ko‘chmanchi hayotni izdan chiqardi. Natijada ko‘plab ko‘chmanchi guruhlar o‘troq hayotga o‘tishga majbur bo‘ldilar. Bu jarayon bir tomondan iqtisodiy barqarorlikni oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ko‘chmanchi madaniyatning yemirilishiga olib keldi. Ko‘chmanchi turmush tarziga xos bo‘lgan ijtimoiy institutlar – urug‘ tizimi, yaylov huquqi va an’anaviy boshqaruv shakllari asta-sekin yo‘qola boshladi.

Zarafshon vohasi Samarqand viloyatining eng serhosil va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududi hisoblangan. Bu yerda dehqonchilik va chorvachilik uyg‘unlashgan xo‘jalik tizimi mavjud edi. Dehqonlar paxta, bug‘doy, arpa, dukkakli ekinlar va sabzavotchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, chorvachilik yordamchi tarmoq sifatida rivojlangan. Hayvon kuchi yer haydash, hosilni tashish va sug‘orish tizimlarida muhim rol o‘ynagan.

Shu bilan birga, XIX asr oxirida sug‘orish inshootlarining kengayishi natijasida dehqonchilik yanada intensivlashdi. Bu esa aholi zichligining oshishiga va yerga bo‘lgan bosimning kuchayishiga olib keldi.

Samarqand viloyatida ijtimoiy tuzilma uch asosiy qatlamga bo‘linardi:

1. O‘troq dehqonlar va hunarmandlar
2. Ko‘chmanchi chorvadorlar
3. Mustamlaka ma’muriyati va rus aholisi

Har bir qatlamning iqtisodiy imkoniyatlari va huquqiy maqomi bir-biridan farq qilgan. Ayniqsa, rus aholisi va mahalliy aholi o‘rtasida iqtisodiy tengsizlik sezilarli darajada edi. Shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan bo‘lsa-da, qishloq hududlarida an’anaviy iqtisodiy tizim sekin-asta yemirila boshladi. Yollanma mehnatning kengayishi esa yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirdi.

Turli etnik guruhlarning bir hududda yashashi Samarqand viloyatida boy etnomadaniy muhitni shakllantirdi. Til, urf-odat, kiyim-kechak va turmush tarzi o‘zaro ta’sir ostida rivojlandi. Shu bilan birga, rus madaniyatining kirib kelishi mahalliy ta’lim tizimi, ma’muriy boshqaruv va shahar madaniyatiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Yangi maktablar ochilishi, rus tilining rasmiy muomala tiliga aylanishi ijtimoiy o‘zgarishlarni tezlashtirdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar murakkab va ziddiyatli xarakterga ega edi. Bir tomondan iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari kuchaygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan an’anaviy ijtimoiy tuzilma yemirildi.

Ko‘pmillatlilikning kuchayishi, yangi iqtisodiy tizimning shakllanishi va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlar mintaqaning keyingi tarixiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida kechgan ijtimoiy jarayonlar mintaqaning tarixiy taraqqiyotida tub burilish yasagan murakkab va ko‘p qirrali bosqichlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu davrda an’anaviy o‘troq, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xo‘jalik tizimlari mustamlaka boshqaruvi siyosati ta’sirida sezilarli transformatsiyaga uchradi. Ayniqsa, yer-suv munosabatlarining davlat manfaatlariga bo‘ysundirilishi, yaylovlardan foydalanish tartibining o‘zgarishi hamda yangi ma’muriy-hududiy tizimning joriy etilishi ijtimoiy hayotning barcha qatlamlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy chegaralar tobora o‘zgaruvchan xarakter kasb etgan. Ko‘chmanchi aholining yaylovlardan siqib chiqarilishi va yer resurslarining qayta taqsimlanishi natijasida

o‘troqlashuv jarayoni jadallashdi. Bu esa nafaqat xo‘jalik shakllarining o‘zgarishiga, balki aholining ijtimoiy tuzilmasi va turmush tarzining yangilanishiga ham olib keldi.

Shu bilan birga, viloyatda etnik tarkibning murakkablashuvi ham kuchaydi. Rossiya imperiyasi davrida amalga oshirilgan migratsion siyosat natijasida turli etnik guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar kengaydi va ko‘pmillatli muhit shakllandi. Bu jarayon shahar va qishloq hayotida iqtisodiy faollikni oshirgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ijtimoiy ziddiyatlar va resurslar uchun raqobatni ham kuchaytirdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatining ijtimoiy hayoti faqatgina mustamlaka siyosati natijasi sifatida emas, balki tabiiy-geografik sharoitlar, an’anaviy xo‘jalik madaniyati va etnik jarayonlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllangan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va Sirdaryo bo‘ylarida joylashgan aholi guruhlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar hududning ijtimoiy barqarorligida muhim rol o‘ynagan. Umuman olganda, mazkur davr Samarqand viloyati tarixida modernizatsiya jarayonlarining boshlanishi, an’anaviy jamiyatdan bosqichma-bosqich yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o‘tish davri sifatida baholanadi. Ushbu o‘zgarishlar keyingi tarixiy bosqichlarda ham mintaqaning ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bergan muhim omil bo‘lib qolgan. Shu bois, Samarqand viloyatining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayotini o‘rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki bugungi kundagi demografik jarayonlar, etnik munosabatlar va hududiy rivojlanish tendensiyalarini tushunishda ham ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной степи и прилегающих местностей Ходжентского и Джизакского уездов Самаркандской области // Туркестанский сборник. Т. 565. – Ташкент, 1914. – С. 18.
2. Кушакевич А.А. Сведения о Ходжентском уезде // Записки Императорского Русского географического общества по общей географии. – СПб., 1871. – Т. 4. – С. 15.
3. Toshov H. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon o‘zbeklarining xo‘jaligi va ijtimoiy turmushi. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 4.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘z MA). I-18-fond, 1-ro‘yxat, 3263-ish, 232-varaq.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘z MA). I-7-fond, 1-ro‘yxat, 4132-ish, 23–24-varaqlar.
6. Toshev X. Zarafshon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Toshkent: Fan, 1990.
7. Туркестанский край: историко-статистический сборник. – Санкт-Петербург, XIX asr oxiri materiallari.

KATTAQO‘RG‘ON UEZDIDA AN’ANAVIY HUNARMANDCHILIKDAN SANOAT ISHLAB CHIQARISHIGA O‘TISH JARAYONLARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Nurmurodov Diyorbek Shavkat o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi
+998775270470

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘on uezdida hunarmandchilik va sanoatning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy hayotga ta’siri, an’anaviy hunarmandchilikning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va uning o‘rnini sanoat ishlab chiqarishining egallashi masalalari yoritilgan.

Shuningdek, paxta sanoati, yog‘-moy ishlab chiqarish korxonalari hamda temir yo‘l qurilishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zgarishlar ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Kattaqo‘rg‘on uezdi, hunarmandchilik, sanoatlashuv, paxta sanoati, yog‘-moy zavodlari, temir yo‘l, mustamlaka iqtisodiyoti, ishchilar sinfi, iqtisodiy transformatsiya.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar mintaqaning an’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosati natijasida hudud nafaqat ma’muriy-hududiy jihatdan qayta tashkil etildi, balki uning iqtisodiy tizimi ham imperiya manfaatlariga mos ravishda transformatsiyaga uchradi. Ayniqsa, 1886 yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish Nizomi”ning joriy etilishi bu jarayonlarni institutsional jihatdan mustahkamlab, mahalliy boshqaruv va xo‘jalik tizimlarini markazlashgan mustamlaka boshqaruvi doirasiga kiritdi.

Mazkur davrda iqtisodiy hayotda yuz bergan o‘zgarishlar, eng avvalo, an’anaviy ishlab chiqarish shakllari — hunarmandchilik va kichik tovar ishlab chiqarish tizimining inqirozga yuz tutishi hamda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Kattaqo‘rg‘on uezdi ushbu jarayonlarning muhim hududiy markazlaridan biri sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki bu yerda bir tomondan asrlar davomida shakllangan hunarmandchilik an’analari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, temir yo‘l qurilishi, tashqi savdoning kengayishi va paxta xomashyosi eksportiga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi natijasida yangi iqtisodiy munosabatlar shakllana boshladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur transformatsiya jarayoni tabiiy evolyutsion rivojlanish natijasi emas, balki ko‘proq tashqi omillar — mustamlaka siyosati, kapitalistik munosabatlarning majburiy joriy etilishi hamda Rossiya sanoati ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu esa hudud iqtisodiyotining biryoqlama — asosan xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashuviga olib kelgan. Natijada mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xususan hunarmandlar, bozor raqobatida jiddiy yo‘qotishlarga uchrab, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif qatlamga aylanib bordi.

Shu bilan birga, sanoatlashuv jarayoni yangi ijtimoiy qatlam — ishchilar sinfining shakllanishiga zamin yaratdi. Biroq ushbu qatlamning shakllanishi murakkab va ziddiyatli kechib, og‘ir mehnat sharoitlari, past ish haqi va ijtimoiy himoyaning yetishmasligi bilan xarakterlandi. Bu holat o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘on uezdida hunarmandchilik va sanoat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning rivojlanish dinamikasi hamda transformatsiya jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Shu orqali mintaqadagi iqtisodiy o‘zgarishlarning mohiyati, yo‘nalishlari va tarixiy ahamiyatini ilmiy asosda yoritish ko‘zda tutiladi. Hunarmandchilik tizimining an’anaviy modeli va uning iqtisodiy mohiyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘on uezdida hunarmandchilik ishlab chiqarishi mahalliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida saqlanib qoldi. Ushbu tizim kichik tovar ishlab chiqarishiga asoslangan bo‘lib, unda ishlab chiqarish vositalari ustaning o‘ziga tegishli, mehnat jarayoni esa asosan qo‘l mehnati va oddiy texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan. Hunarmandchilikning bunday shakli iqtisodiy jihatdan bozor talablariga moslashuvchan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish hajmi va unumdorligi nuqtai nazaridan cheklangan edi.

Kattaqo‘rg‘on uezdida temirchilik, duradgorlik, zargarlik, etikdo‘zlik va to‘qimachilik kabi sohalar rivojlangan bo‘lib, ular nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki mahalliy bozorlar orqali savdo munosabatlarida ham faol ishtirok etgan. Ayniqsa, temirchilik tarmog‘i iqtisodiy tizimda muhim o‘rin tutgan bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi va qurilish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarini yaratishda asosiy rol o‘ynagan. Bu esa hunarmandchilikni faqat iste’mol buyumlari ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida namoyon etadi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining tashkiliy shakli oila-ustaxona modeli asosida qurilgan bo‘lib, unda ustaning o‘zi ishlab chiqaruvchi, tashkilotchi va sotuvchi funksiyalarini birgalikda bajargan. Shogirdlik instituti esa kasb o‘rganishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qilgan. Biroq mazkur tizim texnologik modernizatsiya imkoniyatlarining cheklanganligi sababli sanoat ishlab chiqarishi bilan raqobatda zaiflik ko‘rsatgan.

Tashqi iqtisodiy omillar va hunarmandchilikning inqirozi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kattaqo‘rg‘on uezdi iqtisodiyotiga tashqi omillar, xususan Rossiya imperiyasi sanoatining kirib kelishi kuchli ta’sir ko‘rsata boshladi. Temir yo‘l tarmog‘ining barpo etilishi mintaqani Rossiyaning markaziy hududlari bilan bevosita bog‘lab, sanoat mahsulotlarining keng miqyosda import qilinishiga imkon yaratdi.

Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nisbatan arzonligi va sifati yuqoriligi mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini bozordan siqib chiqara boshladi. Natijada hunarmandlar o‘rtasida iqtisodiy tabaqalanish kuchaydi: ayrim ustalar yangi sharoitga moslashib, ishlab chiqarishni kengaytirishga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsa, ko‘pchilik hunarmandlar o‘z ustaxonalarini yopishga majbur bo‘ldi. Bu jarayon hunarmandchilik tizimining strukturaviy inqirozini yuzaga keltirdi. Statistik ma’lumotlar ham mazkur jarayonning dinamikasini tasdiqlaydi. 1887–1908 yillar oralig‘ida ustaxonalar sonining o‘zgaruvchanligi va ishlab chiqarish hajmining notekis o‘sishi hunarmandchilikning barqaror rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, XX asr boshlariga kelib sanoat mahsulotlarining ulushi keskin oshib, hunarmandchilikning iqtisodiy salmog‘i sezilarli darajada kamaydi.

Sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi va tarmoqlanishi Kattaqo‘rg‘on uezdida sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi asosan paxta xomashyosini qayta ishlash bilan bog‘liq holda kechdi. Bu holat mustamlaka iqtisodiyotining klassik modelini aks ettirib, hududni xomashyo bazasi sifatida shakllantirishga qaratilgan siyosat natijasi edi.

1881 yilda muhandis L.Yugovich tomonidan qurilgan paxta tozalash zavodi ushbu jarayonning boshlang‘ich bosqichini tashkil etdi. Zavodda bug‘ mashinalarining qo‘llanilishi ishlab chiqarish jarayonining mexanizatsiyalashuvini ta’minlab, mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, “jin” mashinalarining joriy etilishi paxtani qayta ishlashda tub burilish yasadi, chunki ular qo‘l mehnatini qisqartirib, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirdi.

Keyingi yillarda paxta tozalash zavodlari sonining ortishi sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlanishiga olib keldi. Shu bilan birga, yog‘-moy sanoati ham rivojlanib, paxta chigitini qayta ishlash asosida yangi ishlab chiqarish yo‘nalishi shakllandi. 1897 yilda tashkil etilgan Kattaqo‘rg‘on yog‘-moy zavodi qisqa vaqt ichida yirik sanoat korxonasiga aylandi. Unda zamonaviy texnologiyalar, jumladan gidravlik presslar qo‘llanilib, mahsulot sifatini oshirishga erishildi. 1900-yillarga kelib sanoat ishlab chiqarishi hunarmandchilikdan ustunlik qila boshladi. Bu jarayon iqtisodiy tizimning strukturaviy o‘zgarishini, ya’ni an’anaviy ishlab chiqarishdan sanoatlashgan ishlab chiqarishga o‘tishni yaqqol namoyon etadi.

Ishchilar sinfining shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi yangi ijtimoiy qatlam — ishchilar sinfining shakllanishiga olib keldi. Ushbu qatlam asosan xonavayron bo‘lgan hunarmandlar va yeridan ajralgan dehqonlar hisobiga to‘ldirildi. Bu holat iqtisodiy transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlarini yaqqol aks ettiradi.

Ishchilarning mehnat sharoitlari og‘ir bo‘lib, ish kuni o‘rtacha 10–12 soatni tashkil etgan. Ish haqi esa yashash minimumidan past darajada bo‘lib, ishchilar o‘z daromadlari hisobiga faqat eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qila olgan. Mahalliy ishchilar chetdan kelgan ishchilarga nisbatan kamroq maosh olganligi esa ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirgan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish, tibbiy xizmat va ijtimoiy himoya tizimlari deyarli mavjud emas edi. Bu esa ishchilar orasida kasalliklar va ijtimoiy muammolarning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, sanoatlashuv jarayoni iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy narxi yuqori bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kattaqo‘rg‘on uezdida yuz bergan iqtisodiy jarayonlar hudud tarixida tub burilish davri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur davrda an’anaviy hunarmandchilikka asoslangan ishlab chiqarish tizimi o‘zining iqtisodiy ustunligini bosqichma-bosqich yo‘qota borib, uning o‘rnini sanoat ishlab chiqarishining elementlari egallay boshladi. Bu jarayon ichki evolyutsion taraqqiyot natijasi emas, balki tashqi omillar — Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining majburiy joriy etilishi hamda hududni xomashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan strategik maqsadlar bilan bevosita bog‘liq holda kechdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik tizimining inqirozi uning ichki zaifliklari — texnologik ortda qolish, ishlab chiqarish hajmining cheklanganligi va bozor raqobatiga moslashuv imkoniyatlarining pastligi bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy bosimlar bilan ham izohlanadi. Temir yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi natijasida Rossiya sanoat mahsulotlarining mintaqaga kirib kelishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni keskin raqobat sharoitiga olib keldi va ularning katta qismini iqtisodiy jihatdan siqib chiqardi. Natijada hunarmandlarning muayyan qismi ijtimoiy jihatdan degradatsiyaga uchrab, yangi shakllanayotgan sanoat korxonalarida arzon ishchi kuchi sifatida faoliyat yuritishga majbur bo‘ldi.

Sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi esa mintaqa iqtisodiyotining strukturaviy qayta qurilishiga olib keldi. Paxta tozalash va yog‘-moy sanoatining rivojlanishi hududning agrar-xomashyo yo‘nalishida ixtisoslashuvini kuchaytirib, uni imperiya iqtisodiy tizimiga qaram holda integratsiyalashuvini jadallashtirdi. Shu jihatdan qaralganda, sanoatlashuv jarayoni mahalliy iqtisodiyotning mustaqil rivojlanishiga emas, balki tashqi markaz manfaatlariga xizmat qiluvchi biryoqlama iqtisodiy modelni shakllantirdi. Bundan tashqari, sanoatlashuv jarayoni yangi ijtimoiy qatlam — ishchilar sinfining shakllanishiga asos soldi. Biroq mazkur qatlamning shakllanishi ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli emasligi, mehnat sharoitlarining og‘irligi va iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi bilan kechdi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi va ijtimoiy tabaqalanishning keskinlashuviga olib kelgan muhim omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, Kattaqo‘rg‘on uezdida kuzatilgan hunarmandchilikdan sanoat ishlab chiqarishiga o‘tish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali va ziddiyatli xarakterga ega bo‘lib, u iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy muammolarning bir vaqtda kechganligini ko‘rsatadi. Mazkur tarixiy tajriba nafaqat mintaqaning o‘tmishdagi iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini tushunishda, balki bugungi kunda iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyo. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. G‘afurov B.G. Tojiklar: qadimgi, o‘rta asr va yangi davr tarixi. – Moskva, 1972.
3. Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Nabiyev R.N. O‘zbekiston tarixi (XIX asr – XX asr boshlarida). – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Abdurahmonov A. Turkiston o‘lkasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (yangi davr). – Toshkent: Sharq, 2011.
7. Sulitskiy I.M. Paxta tozalash zavodlari haqida maqolalar to‘plami. – Sankt-Peterburg, 1897.
8. Turkiston statistik to‘plamlari. – Toshkent: Turkiston general-gubernatorligi nashrlari, 1880–1915 yy.
9. “Turkestanskiy sbornik” materiallari. – Sankt-Peterburg, XIX asr oxiri – XX asr boshlari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA) materiallari.
11. Samarqand viloyati davlat arxivi hujjatlari.

ABU RAYHON BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARINING TAHLILI

Qilichov Jamolbek Sherali o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi
+998915474102

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ning tabiiy fanlar, xususan astronomiya, geodeziya, matematika va geografiya sohalaridagi ilmiy merosi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Beruniy ilmiy qarashlarining zamonaviy ilm-fan rivoji bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. O‘tmish tariximizni o‘rganishda bevosita tarixiy manbalarga murojaat qilinadi va manbalar orqali tarixiy voqealar tahlil qilinib, aniqlik kiritiladi. Birinchisi arab tilida ijod etgan yurtimizdan chiqqan tarixchi va olimlar bo‘lib, ularning asarlarida ona vatanga muhabbat alohida namoyon bo‘ladi, bu ayniqsa Abu Rayxon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarida alohida ko‘zga tashlanadi.
Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, geodeziya, Osor ul-boqiya, astronomiya,Yer radiusi, trigonometrik hisoblash, ilmiy metod, Sharq uyg‘onish davri,

Kirish. O‘rta asrlar Sharq uyg‘onish davri insoniyat ilm-fani tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda Markaziy Osiyo hududida yetishib chiqqan olimlar jahon ilm-faniga katta hissa qo‘shganlar. Shunday buyuk allomalardan biri Abu Rayhon Beruniy bo‘lib, u o‘zining qomusiy bilimlari bilan ajralib turadi. Beruniyning ilmiy faoliyati o‘zining tajriba, kuzatuv va aniq hisob-kitoblarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Aynan shu jihat uni o‘z davrining ko‘plab olimlaridan ustun qo‘yadi.

Beruniyning tarixchi sifatida quyidagi ikki xarakteri alohida qayd etib o‘tiladi. Ya’ni, turli xalqlarning tarixiy, madaniy taraqqiyoti va ayrim shaxslar faoliyatini baholashda ularning irqiy, diniy yoki sulolalariga asoslanmay hamma xalqlarga birda hurmat bilan qarashga asoslangan.

Ayniqsa tarix to‘g‘risidagi chuqur bilimlarini o‘z ichiga olgan “Osor ul boqiya an al-qurun al-holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) hamda “Hindiston” yoki “Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-1-aql va-l-marzuma” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarining tadqiq etish”) va “Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm” (“Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar”) nomli asarlari bilan jahon tarix fani va madaniyat tarixiga katta hissa qo‘shdi. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana “Tarixi Xorazm” va “Mashohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari”) nomlari bilan ham mashhur bo‘lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan “Tarixi Bayhaqiy” va Yoqut Hamaviyning “Mo‘jam ul-buldon” asarlarida saqlanib qolgan.

Asosiy qismi

Abu Rayxon Beruniyning tarixga oid bo‘lgan eng yirik asari uning dastlabki asarlaridan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, ya’ni (Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” asari Qadimgi Xorazmda o‘tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlari, an’analari, bayramlari, kalendarlari, dinlari, payg‘ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma’lumotlarni o‘zida to‘plagan yaxlit ensiklopediya xarakteridagi asar hisoblanadi.

Asar Yevropa ilm-fan olamida “Xronologiya” nomi bilan mashhurdir. Bu asarni olim 27 yoshida, ya’ni 1000-yili yozib tugallagan. Asar olimning boshqa asarlari singari arab tilida yozilgan. Asar Jurjon hukmdorlaridan biri Qobus ibn Vashmgirga bag‘ishlagan. Tarixdan

ma’lumki, o‘sha vaqtda Kaspiy oldi viloyatlarida ziyoriylar sulolasi (928-1042) hukmronlik qilgan. Bu sulolaning vakili Qobus ibn Vashmgir (1012-y. o‘ldirilgan) yosh olimni o‘z himoyasiga oladi.

Yevropani birinchi marta asar bilan tanishtirgan olim nemis sharqshunosi va beruniyshunosi 1845-1930-yillarda yashagan Eduard Zaxau bo‘ldi. Bu asarning birinchi nashrini Eduard Zaxau 1876-1878-yillarda Leypsigda arabcha nusxasi asosida nashr etdi. Nashrda o‘sha paytgacha mavjud bo‘lgan 4 ta qo‘lyozma nusxadan foydalanilgan. Zaxau 1879-yili asarning inglizcha tarjimasini nashrdan chiqaradi.

1943-yilda Tehronda E.Zaxauning arabchadan qilingan inglizcha tarjimasi asosida Akbar Dono Sirisht Sayrafiy tomonidan nashr etildi. Beruniyshunoslik markazining 50-yillardan boshlab Toshkentga ko‘chishi natijasida 1950-yili sharqshunos olim Abdufattoh Rasulov mazkur asarning bir qismini o‘zbekchaga tarjima qiladi. Nemis arabshunos olimlari Karl Garbers va Iogann Fyukkler tomonidan Zaxau nashrida tushirib qoldirilgan o‘rinlar to‘ldirilib 1952-yilda yana nashr etadi. 1957-yilda esa arabshunos olim M.Sale asarni birinchi marta rus tiliga tarjima qildi. Ammo keng qo‘lyozmalar nusxasi va tarjimalar nusxasi bo‘lishiga qaramasdan mazkur tarjima juda ko‘p kamchiliklarga ega edi. Mazkur tarjima nusxasiga S.Tolstov va V.Sheglovlarning so‘z boshi bilan boshlangan. Keyinchalik 1959-yilda A.Xolidov barcha nashrlar va qo‘lyozmalarni solishtirib qaytadan nashr ettirdi. 1968-yili A.Rasulov tomonidan bu asarning o‘zbek tilidagi to‘liq tarjimasi “Fan” nashriyotida bosilib chiqadi. Bu asarning tarjimasi nashr etilishida tarjimon Abdufattoh Rasulovning va mas’ul muharrirlar arabshunos Ismatulla Abdullaev va faylasuf-tabiatshunos O.Fayzullayevlarning xizmati katta bo‘lgan.

Mamlakatimizda, ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o‘rganish va kelajak avlodning ma’naviy mulkiga aylantirish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Eng ulug‘, eng aziz ayyom, istiqlol bayrami arafasida mustaqilligimizning muborak 30 yilligiga to‘yona sifatida, “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 5000 nusxada chop etilgan, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari ham qaror ijrosi doirasidagi vazifalarning ijrosi hisoblanadi.

Beruniy yashagan X asrning oxirgi choragi XI asrning birinchi yarmi Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining madaniy va siyosiy hayotidagi muhim bir davr edi. U IX asr oxiridan boshlanib, deyarli to XIII asr boshlarigacha davom etgan bo‘lib, bir vaqtlar arab xalifaligi tarkibiga kirgan mamlakatlarda yuksak madaniy taraqqiyot va katta siyosiy o‘zgarishlar yuz bergan. Bu taraqqiyot va o‘zgarishlar shu qadar keskin hamda olamshumul ediki, uni, hatto islomning ilk asrlardagi rivojlanishi bilan ham solishtirib bo‘lmas edi. XIX asrda yashagan shveysariyalik sharqshunos va tarixchi Adam Mes bu davrni har tomonlama tahlil qilib, Musulmon Renessansi davri deb atadi. Beruniy ana shu Musulmon Renessansining faol qatnashchilaridan va uni shakllantiruvchilaridan biri edi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobining ayni istiqlolning o‘ttiz yilligi arafasida nashr etilishi olamshumul voqelik bo‘ldi. – Abu Rayhon Beruniyning (973–1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” («Osor al-boqiya») asari arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, «Osor al-boqiya»da izohlar yangidan ishlanib, ko‘rib chiqilib, o‘rganilib, ularda tarixiy masalalar, aniq fanlarga oid muammolar keng yoritildi. Kitobda, qadimgi xalqlarning, xususan vatanimiz hududidagi sug‘dlar, xorazmliklar va undan tashqari musulmonlar, xristianlar, yahudiylarning bayramlari, urf-odatlari, turli mamlakatlarda hukm surgan podshohlar, imperatorlar sulolalari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan, o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar

yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

Har qanday yangi asar insonlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi. Qalbida esa, eng go‘zal tuyg‘ularni uyg‘otib, yanada yaxshiroq yashashga rag‘bat uyg‘otadi. Buyuk bobomiz, Beruniyning chop etilgan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobi ham, insonlar aqlu-shuuriga, nur bo‘lib taralishi, ertamizning davomchilari bo‘lmish, istiqboli porloq yoshlarga esa ma’naviyat sarchashmasi bo‘lib in’om etilishi shubhasizdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy jahon ilm-fani tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning ilmiy faoliyati aniq hisob-kitoblar, tajriba va kuzatuvlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Xususan, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qo’llangan antroponimlarni o’rganish orqali qadimiy davrda yashab o’tgan ajdodlarimiz va turli davrlarda yashagan xalqlarning hayoti, urf-odatlari va rasmrusmlari haqida ma’lumot olamiz.

Beruniy tomonidan ishlab chiqilgan metodlar va ilmiy yondashuvlar zamonaviy ilm-fanning asosiy tamoyillariga mos keladi. Shu sababli uning merosi nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bugungi kunda Beruniy ilmiy merosini o‘rganish va uni rivojlantirish yosh avlodning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Beruniyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning geodeziya, astronomiya va etnografiya sohalaridagi ishlari zamonaviy ilm-fanning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, uning Yer radiusini aniqlash usuli va ilmiy yondashuvi bugungi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, uning boshqa madaniyatlarni o‘rganishdagi xolisligi hozirgi global ilmiy hamkorlik uchun muhim namuna hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beruniy, Abu Rayhon. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”
2. Beruniy, Abu Rayhon. “Qonuni Mas’udiy”
3. Beruniy, Abu Rayhon. “Kitob al-Hind”
4. Kennedy, E.S. Al-Biruni’s Mathematical Geography
5. Saliba, George. Islamic Science and the Making of the European Renaissance
6. Nasr, S.H. Islamic Science: An Illustrated Study
7. Rosenfeld, B.A. History of Non-Euclidean Geometry
8. Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.51.

TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA “ZAFARNOMA” ASARLARINING TARIXIY-MANBAVIY O‘RNI VA AHAMIYATI

Ro‘ziyeva Nodirabegim Ikrom qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi
nodiraruziyev033@gmail.com
+998 50 550 20 77

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” nomi bilan mashhur tarixiy asarlarda XIV–XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash hududlarda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar yoritilishi tahlil etiladi. Asarlarda Markaziy Osiyo, Oltin O‘rda, Eron, Iroq, Suriya, Misr va boshqa hududlar tarixiga oid voqealar mujassamlangan. Tadqiqotda asosiy e’tibor XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida Movarounnahrda kechgan muhim tarixiy jarayonlar tahliliga qaratiladi.

Kalit so‘zlar. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Movarounnahr, “Zafarnoma”, Buxoro.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida tub burilish davri bo‘lib, bu davr Amir Temur hamda Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur davr siyosiy markazlashuv, iqtisodiy tiklanish, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji, shuningdek ilm-fan va madaniyatning yuksalishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, jahon tarixshunosligida bu davr ko‘pincha Markaziy Osiyoning “Renessans” bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu davr tarixini o‘rganishda yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Zafarnoma Amir Temur davri tarixini o‘rganishda eng muhim birlamchi manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar Sohibqironning bevosita topshirig‘i bilan yozilgan bo‘lib, unda davlat barpo etish jarayoni, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar va ichki siyosat masalalari batafsil yoritilgan.

Hozirgi kunlarda bu tadqiqotlar uchun manbaa xizmatini o‘tab kelayotgan tarixiy asarlarni yaratish ham o‘sha vaqtlardayoq keng rivoj topib, XV asrda va undan keyin xam taniqli muarrixlar tomonidan davom ettirildi. Bu asarlarda sohibqiron Amir Temurning Movarounnahrda markazlashtirilgan davlatni barpo etish uchun olib borgan kurashlari, harbiy yurishlari, davlatchilik siyosati hamda xalqaro diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga, dehqonchilik va hunarmandchilikni, madaniy qurilishlarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari yozib qoldirilgan. Ana shunday yozma yodgorliklarlning eng dastlabkilaridan biri Amir Temurning bevosita topshirig‘i bilan mohir adib va tarixnavis Nizomiddip Shomiy tomonidan yozilgai “Zafarnoma” nomli asardir. “Zafarnoma” ning yozilish tarixi haqida shuni ta’kidlash lozimki, Mavlono Shomiyning o‘zi bergan ma’lumotga ko‘ra, hijriy 804 yili (1401 yil 11 avgustdan 1402 yil 1 avgust oralig‘i) Amir Temur uni huzuriga chorlab, o‘z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan. Sohibqiron o‘sha davrga qadar munshiy va kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan. Yozilajak asar bir tomondan, avom xalqqa tushunarli, sodda, ravon tidda va ayni paytda ma’rifatli kishilar e’tiboriga ham loyiq tarzda yozilishini uqtirgan. Mavlono Nizomiddin bu mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olgan.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida tub burilishlar davri bo‘lib, bu davr avvalo Amir Temur va uning vorislari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu davr siyosiy jihatdan markazlashgan davlatning barpo etilishi, iqtisodiy jihatdan savdo va hunarmandchilikning yuksalishi, madaniy jihatdan esa ilm-fan va adabiyotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. Mazkur tarixiy jarayonlarni o‘rganishda birlamchi yozma manbalar, xususan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si Amir Temur hayotligi davrida yozilgan bo‘lib, unda voqealar muallif tomonidan bevosita kuzatilgan yoki ishonchli manbalarga asoslangan holda bayon etilgan. Asarda Amir Temurning siyosiy faoliyati, Movarounnahrda markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo‘lidagi kurashlari, ichki nizolarni bartaraf etish siyosati keng yoritilgan. Xususan, XIV asrning 60–70-yillarida Movarounnahr hududida hukm surgan parokandalik, mahalliy amirlar o‘rtasidagi ziddiyatlar va ularning davlat taraqqiyotiga salbiy ta’siri batafsil tasvirlanadi. Shomiy ushbu murakkab siyosiy vaziyatda Amir Temurning davlatni birlashtirish yo‘lidagi qat’iyatini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

“Zafarnoma”da faqatgina siyosiy voqealar emas, balki harbiy yurishlarning strategik jihatlari ham alohida o‘rin egallaydi. Muallif Amir Temurning harbiy iste’dodi, jangovar taktikasi va qo‘shin boshqarishdagi mahoratini aniq misollar orqali ko‘rsatib beradi. Masalan, uning Oltin O‘rda xonligi ustidan olib borgan yurishlari, Eron, Iroq va Kavkaz hududlaridagi harbiy harakatlari nafaqat zabt etish, balki mintaqada siyosiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilganligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Shomiy asarida harbiy yurishlar natijasida qo‘lga kiritilgan hududlarda davlat boshqaruvi tizimini yo‘lga qo‘yish, soliqlarni tartibga solish va mahalliy aholi bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalalari ham yoritilgan.

3. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968.
4. Farg‘oniy A. Astronomiya asoslari haqida risola. — Toshkent: Fan, 1998.
5. Ulug‘bek M. Ziji Jadidi Ko‘ragoniy. — Toshkent: Fan, 1994.
6. Mo‘minov I. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixi. — Toshkent: Fan, 1977.
7. Abdullayev R. Sharq uyg‘onish davri va uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni. — Toshkent: Fan, 2001.
8. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

MIRZO ULUG‘BEK *“ZIJ”* ining MAZMUNI VA AHAMIYATI

Normurodov Ozodbek Xazrat o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi, xususan, Ziji jadidi Ko‘ragoniy asari tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Asarning tuzilishi, ilmiy mazmuni, astronomiya va matematika fanlariga qo‘shgan hissasi hamda undan avval yaratilgan “zij”lar bilan qiyosiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, Ulug‘bek maktabining ilmiy muhitini shakllantirgan omillar va uning natijalari yoritiladi

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Ziji jadidi Ko‘ragoniy, astronomiya, matematika, rasadxona, Samarqand ilmiy maktabi, trigonometrik jadvallar, yulduzlar katalogi, ilmiy meros

Sharq Uyg‘onish davri insoniyat tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksak rivojlangan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk allomalar orasida Mirzo Ulug‘bek alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat yirik davlat arbobi, balki o‘z davrining eng yetuk astronom va matematik olimlaridan biri sifatida jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Ulug‘bekning ilmiy faoliyati, ayniqsa, astronomiya sohasidagi izlanishlari bilan ajralib turadi. Uning eng yirik asari – Ziji jadidi Ko‘ragoniy o‘rta asrlar astronomiyasining eng mukammal namunalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu asarning ilmiy mazmunini tahlil qilish, uning tuzilishini ochib berish hamda ilmiy ahamiyatini baholashdan iborat.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati va ilmiy maktabi. Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tavallud topgan. Uning to‘liq ismi Muhammad Tarag‘ay Shohruh o‘g‘li bo‘lib, “Ulug‘bek” laqabi bobosi Amir Temur tomonidan berilgan. Ulug‘bek yoshligidan ilm-fanga qiziqib ulg‘ayadi. Uning ilmiy shakllanishida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy kabi allomalar muhim rol o‘ynagan. Ushbu olimlar bilan hamkorlikda Ulug‘bek ilmiy tadqiqotlar olib borib, aniq fanlar rivojiga katta e’tibor qaratadi.

Ulug‘bek tomonidan Samarqandda tashkil etilgan ilmiy markaz o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy maskanlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Ulug‘bek rasadxonasi qurilishi astronomiya fanining rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu rasadxona 1424–1429-yillarda barpo etilgan bo‘lib, unda yuqori aniqlikdagi astronomik kuzatishlar olib borilgan.

Rasadxonada olib borilgan ilmiy ishlar natijasida yulduzlar harakati, sayyoralar koordinatalari va vaqt hisobiga oid muhim natijalar qo‘lga kiritildi. Bu esa Ulug‘bek maktabining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

“Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining yaratilishi va umumiy tavsifi

Ziji jadidi Ko‘ragoniy Ulug‘bek va uning shogirdlari tomonidan uzoq yillik kuzatishlar natijasida yaratilgan fundamental ilmiy asardir. Ushbu asar o‘zidan avval yaratilgan Qonuni Mas’udiy va Ziji Elxoniy kabi asarlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Biroq, Ulug‘bek “Zij”i o‘zining aniqligi va mukammalligi bilan oldingi asarlardan sezilarli darajada ustun turadi. Asarda astronomik kuzatishlar natijasida olingan aniq ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, u o‘z davrida ilmiy yangilik sifatida katta ahamiyat kasb etgan.

Asarning tuzilishi va mazmuni mohiyati jihatidan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” murakkab tuzilishga ega bo‘lib, muqaddima va to‘rtta asosiy qismdan iborat.

1. Muqaddima

Muqaddimada astronomiya fanining zarurligi ilmiy va diniy jihatdan asoslab beriladi. Qur’on oyatlariga murojaat qilish orqali yulduzlar va sayyoralarni o‘rganishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

2. Birinchi qism – Xronologiya

Bu qism turli xalqlarning taqvim tizimlariga bag‘ishlangan. Unda hijriy, forsiy, xitoy va boshqa taqvimlar tahlil qilinib, ularning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib beriladi. Xronologiya astronomiya fanining muhim asosi sifatida qaraladi.

3. Ikkinchi qism – Vaqt va koordinatalar nazariyasi

Mazkur qismda geografik koordinatalar, iqlim zonalari, shaharlarning joylashuvi va vaqt hisobiga oid masalalar keng yoritiladi. Asarda 600 dan ortiq hududlarning koordinatalari berilgan bo‘lib, bu o‘sha davr uchun katta ilmiy yutuq edi.

4. Uchinchi qism – Yulduzlar katalogi

Asarning eng muhim qismi bo‘lib, unda 1018 ta yulduzning aniq koordinatalari keltirilgan. Ushbu katalog o‘rta asrlar astronomiyasida eng mukammal yulduzlar ro‘yxatlaridan biri hisoblanadi.

5. To‘rtinchi qism – Yulduzlar harakati

Bu qismda sayyoralar va yulduzlarning harakati tahlil qilinadi. Shuningdek, ayrim astrologik qarashlar ham o‘z aksini topgan.

Asarning ilmiy ahamiyati va yangiligi

“Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari o‘z davrida astronomiya va matematika fanlarining rivojida muhim burilish yasadi. Asarning asosiy ilmiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, asarda keltirilgan trigonometrik jadvallar yuqori aniqlikka ega bo‘lib, ular uzoq vaqt davomida amaliy hisob-kitoblarda qo‘llanilgan.

Ikkinchidan, yulduzlar katalogi o‘zining mukammalligi bilan ajralib turadi va keyingi astronomik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Uchinchidan, Ulug‘bek tomonidan aniqlangan yil uzunligi hozirgi zamon hisob-kitoblariga juda yaqin. Bu esa uning ilmiy metodlarining mukammalligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, asar ilmiy kuzatishlarga asoslangan bo‘lib, nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligini namoyon etadi.

Qiyosiy tahlil qilinganda, Ulug‘bek “Zij”i undan avval yaratilgan astronomik asarlar bilan qiyoslanganda bir qator ustunliklarga ega. Xususan, Qonuni Mas’udiy va Ziji Elxoniy asarlarida ham astronomik ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, Ulug‘bek asaridagi aniqlik darajasi ancha yuqori.

Bu farq, avvalo, Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan bevosita kuzatishlar natijasi ekanligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan, Ulug‘bek “Zij”i o‘rta asrlar ilm-fanining eng yuqori cho‘qqilaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati va uning Ziji jadidi Ko‘ragoniy asari jahon ilm-fani tarixida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asar astronomiya va matematika fanlarining rivojiga katta hissa qo‘shib, keyingi avlod olimlari uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ulug‘bekning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u ilmiy tafakkur va tadqiqot madaniyatining yuksak namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov B. Ulug‘bek. Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
2. Ahmad A. Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994.
3. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

AT-TERMIZIY ASARLARIDA HADISLARNING ISHONCHLILIK DARAJASINI ANIQLASH USULLARI

Saidmurodova Shaxina
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi
+998779710972
shaxinasaidmurodova2@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Abu Iso at-Termiziyning hayoti, ilmiy faoliyati va hadisshunoslik ilmi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Allomaning ilmiy safarlari, ustozlari, xususan Imom al-Buxoriy bilan ilmiy aloqalari yoritiladi. Shuningdek, uning eng mashhur asari Al-Jome’ as-Sahih (“Sunani Termiziy”)ning tuzilishi, metodologiyasi va hadislarni tasniflashdagi o‘ziga xos yondashuvi keng tahlil etiladi. Maqolada Termiziyning boshqa asarlari, jumladan Ash-Shamoil an-nabaviya hamda hadis ilmidagi “illat” masalalariga bag‘ishlangan risolalari haqida ham ma’lumot beriladi. Allomaning ilmiy merosi, uning shogirdlari va islom ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: At-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Al-Jome’ as-Sahih, Sunani Termiziy, hadisshunoslik, hadis ilmi, Ash-Shamoil an-nabaviya, roviy, sanad, illat, islom ilmlari, Termiz, ilmiy meros.

IX asr islom ilmlari taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan davr bo‘lib, aynan shu davrda hadisshunoslik ilmi yuksak darajada rivoj topdi. Ushbu ilmiy muhitda yetishib chiqqan buyuk allomalardan biri — Abu Iso at-Termiziy hisoblanadi. U nafaqat hadislarni jamlash, balki ularni ilmiy asosda tahlil qilish, tasniflash va baholash orqali hadisshunoslikni yangi bosqichga olib chiqqan.

At-Termiziyning ilmiy faoliyati, avvalo, uning keng qamrovli safarlari bilan bog‘liqdir. U ilm izlab Xuroson, Iroq, Makka va Madina kabi ilm markazlariga safar qilgan. Bu safarlar davomida u o‘z davrining eng yirik muhaddislaridan saboq olib, hadis ilmi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘ladi. Ayniqsa, uning Imom al-Buxoriy bilan uchrashuvi va bir necha yil birga ilmiy faoliyat olib borishi uning ilmiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Termiziy o‘z ustozidan nafaqat hadis rivoyatini, balki hadislarning ichki mohiyati, hikmati va falsafasini anglashni ham o‘rgangan.

At-Termiziyning eng mashhur asari — Al-Jome’ as-Sahih bo‘lib, u hadisshunoslik tarixida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asar o‘zining tuzilishi va metodologiyasi bilan boshqa hadis to‘plamlaridan ajralib turadi. Muallif hadislarni mavzularga ajratib, har bir bobda muayyan masalaga oid hadislarni jamlagan. Eng muhim jihati shundaki, u har bir hadisdan so‘ng uning darajasini — sahih, hasan, zaif yoki g‘arib ekanligini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Bu esa hadislarni ilmiy asosda baholashning muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Asarda fiqhiy masalalarga oid hadislar keng o‘rin egallagan. Tahorat, namoz, zakot, ro‘za, haj, nikoh, tijorat va boshqa ijtimoiy hayotga oid masalalar hadislar asosida izchil bayon etilgan.

Shu jihatdan, “Al-Jome’ as-Sahih” nafaqat hadis to‘plami, balki fiqhiy qo‘llanma sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, asarda axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi hadislar ham keng o‘rin egallagan bo‘lib, insonning ma’naviy kamoloti masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

At-Termiziy o‘z asarida hadislarni faqat jamlash bilan cheklanib qolmay, balki ularning sanadlarini chuqur tahlil qiladi. U roviylarning ishonchliligini tekshiradi, hadisdagi yashirin nuqsonlar — “illat”larni aniqlaydi va bu borada o‘zining mustaqil ilmiy xulosalarini bildiradi. Bu esa uning “ilm al-ilal” sohasidagi yetuk olim ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli uning Al-Ilal as-sug‘ra va Al-Ilal al-kabir kabi asarlari ham hadisshunoslikda muhim o‘rin tutadi.

Termiziyning yana bir muhim asari — Ash-Shamoil an-nabaviya bo‘lib, unda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayoti, tashqi qiyofasi va axloqiy fazilatlari haqida hadislar jamlangan. Ushbu asar musulmonlar uchun nafaqat ilmiy, balki ma’naviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, Payg‘ambar siyratini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

At-Termiziyning ilmiy uslubining yana bir muhim jihati — uning ochiqligi va tushunarliligidir. U hadislarni bayon etishda murakkab uslublardan qochib, sodda va ravon tilda yozishga intilgan. Shu sababli uning asarlari nafaqat olimlar, balki keng jamoatchilik uchun ham tushunarli bo‘lgan. Bu esa uning asarlarini asrlar davomida mashhur bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan.

Shuningdek, Termiziyning ilmiy merosi uning shogirdlari orqali ham davom ettirilgan. U yetishtirgan shogirdlar orasida Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy kabi olimlar bo‘lib, ular hadis ilmini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganlar. Bu esa Termiziyning nafaqat olim, balki yuksak darajadagi ustoz bo‘lganligini ham ko‘rsatadi.

At-Termiziyning hayoti davomida taqvodorlik, kamtarlik va ilmga sadoqat asosiy o‘rin tutgan. U dunyoviy boyliklardan voz kechib, butun umrini ilm va ibodatga bag‘ishlagan. Uning xotirasining kuchliligi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud bo‘lib, bu uning hadislarni yod olish va saqlashdagi beqiyos qobiliyatini ko‘rsatadi. Abu Iso at-Termiziy islom ilm-fani tarixida hadisshunoslik yo‘nalishini yangi bosqichga olib chiqqan yirik allomalardan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning ilmiy merosi, ayniqsa Al-Jome’ as-Sahih asari orqali hadis ilmi nafaqat rivoyat qilish, balki uni tanqidiy-tahliliy o‘rganish, tasniflash va amaliy hayot bilan bog‘lash jihatidan mukammal tizimga ega bo‘ldi.

At-Termiziyning ilmiy faoliyati chuqur metodologik asosga ega bo‘lib, u hadislarni faqat jamlash bilan cheklanmay, balki ularning sahih, hasan, zaif kabi darajalarini aniqlashda aniq mezonlarni ishlab chiqdi. Bu jihat uning ilmiy yondashuvini boshqa muhaddislardan ajratib turadi. Ayniqsa, hadislarning isnod (rivoyat zanjiri) va matn tahliliga birdek e’tibor qaratgani, hadis ilmini kompleks o‘rganish tamoyillarini shakllantirganini ko‘rsatadi. Shu bois uning asarlari hadis ilmining nazariy va amaliy rivojida muhim manba sifatida qadrlanadi. Allomaning ustoz-shogird an’analari doirasida Imom al-Buxoriy kabi buyuk muhaddislardan ta’lim olgani va bu ilmiy maktabni davom ettirgani uning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamladi. U o‘z asarlarida nafaqat hadislarni keltiradi, balki ulamolar o‘rtasidagi fiqhiy qarashlar, ixtiloflar va ularning asoslarini ham tahlil qiladi. Bu esa uning ilmiy merosini faqat hadisshunoslik bilan cheklab qo‘ymay, balki fiqh, aqida va axloqiy-ta’limiy yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘laydi. Ash-Shamoil an-nabaviya asari orqali esa Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning siyratlari, axloqiy fazilatlari va shaxsiy hayotiga oid hadislar tizimli ravishda jamlangan bo‘lib, bu asar musulmon jamiyatining ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarning tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Shuningdek, At-Termiziyning ilmiy faoliyati uning keng geografik safarlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu safarlar davomida u turli ilmiy markazlar tajribasini o‘zlashtirdi va hadis ilmini umumislomiy darajada rivojlantirishga hissa qo‘shdi. Uning asarlarida ilmiy aniqlik, tartib, tizimlilik va manbaga sodiqlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Iso at-Termiziyning ilmiy merosi hadis ilmining rivojida muhim burilish yasagan, uni mukammal ilmiy tizimga solgan va keyingi avlod muhaddislari uchun mustahkam nazariy-metodik asos yaratgan bebaho manbadir. Uning asarlari bugungi kunda ham islomshunoslik, tarix, fiqh va ma'naviyat yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuk muhaddislar (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at Termiziy), Toshkent. 1998;
2. Buyuk allomalarimiz, Toshkent. 2002;
3. Uvatov .U Donolardan saboqlar, Toshkent. 1994.
4. Termiziy Abu Iso" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi": O'zbekiston milliy Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
5. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. - Toshkent : "Sharq" nashriyoti, 204 - 208 bet.
6. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. — Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. — B. 650-653.

O'ZBEK XALQINING TARIXIY BIRLIGI ASOSLARI

Abdullayeva Nasibaxon Arabovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlar doktori (PhD),
v/b professor.+998945271793

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola o'zbek xalqining tarixiy birligini shakllantiruvchi omillarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishdagi rolini tahlil qiladi. Maqolada qadimiy davrlardan tortib mustaqillik davrigacha bo'lgan jarayonlar, turli xalqlar va davlatlar bilan o'zaro aloqalar hamda milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishdagi muhim bosqichlar yoritilgan. Tadqiqot o'zbek xalqining tarixiy birligi milliy birdamlik va identitetni mustahkamlashda asosiy omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'zbek xalqi, tarixiy birlik, milliy identitet, madaniyat, birdamlik

АННОТАЦИЯ: Статья анализирует факторы, формирующие историческое единство узбекского народа, и их роль в социальном, политическом и культурном развитии. Рассматриваются процессы от древних времен до периода независимости, взаимодействие с другими народами и государствами, а также важные этапы сохранения и развития национальной идентичности. Исследование показывает, что историческое единство узбекского народа является ключевым фактором укрепления национальной сплоченности и идентичности.

Ключевые слова: Узбекский народ, историческое единство, национальная идентичность, культура, сплочённость

ABSTRACT: This article examines the factors that shaped the historical unity of the Uzbek people and their role in social, political, and cultural development. It covers processes from ancient times to the period of independence, interactions with other peoples and states, and key stages in preserving and promoting national identity. The study demonstrates that the historical unity of the Uzbek people is a crucial factor in strengthening national cohesion and identity.

Keywords: Uzbek people, historical unity, national identity, culture, cohesion

Kirish. O'zbek xalqining tarixiy birligi millatlararo aloqalar, siyosiy jarayonlar va madaniy meros orqali shakllangan murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Bu birlik qadimiy davrlardan boshlab o'zbek xalqining siyosiy mustaqillik, madaniy o'zlikni saqlash va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib kelgan. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, turli davrlarda

o‘zbeklar turli xalqlar va davlatlar bilan muloqotda bo‘lishiga qaramay, o‘z milliy o‘zligini saqlashga intilgan. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalqining tarixiy birligi nafaqat o'tgan asrlar voqealarini tushunishda, balki bugungi kunda milliy birdamlikni mustahkamlash va milliy identitetni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek xalqining tarixiy birligi masalasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar turli yondashuvlarda tahlil qilingan bo‘lib, ularning har biri mavzuning jamoatshunoslik, tarix, madaniyat va identitet shakllanishi nuqtai nazaridan o‘rganilishini ta’minlaydi.

Tarixchilar tarixiy birlikni o‘zbek xalqining evolyutsion jarayoni kontekstida ko‘rishga intiladi. Masalan, **D. Axmedov**[1] o‘zbek tarixining turli davrlarini tahlil qilib, xalqning turli davlatlar, sarkardalar va ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro aloqalaridan kelib chiqqan holda uzluksiz birlikning shakllanishini ko‘rsatadi. Muallif, asosan o‘rta asrlar davridagi siyosiy va madaniy integratsiyani asosiy omil deb biladi va tarixiy birlikni milliy ong va identitet bilan tavsiflaydi.

Madaniyatshunoslar va antropologlar orasida tarixiy birlik masalasi milliy identitet shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq deb qaraladi. **M. Qodirov**[2] o‘zbek xalqining adabiyot, til, urf-odat va diniy an’analar orqali o‘zini anglab olishining evolyutsiyasini yoritadi. Muallifning fikricha, bu madaniy omillar tarixiy birlikni faqat siyosiy birlik emas, balki **ijtimoiy-madaniy birlik** sifatida ham mustahkamlovchi element hisoblanadi.

Siyosatshunos olimlar, jumladan **N. Ismoilov**[3], o‘zbek xalqining tarixiy birlikni mustahkamlashdagi davlat siyosati va boshqaruv tizimlarining rolini tahlil qildi. U O‘zbekiston hududida turli davrlarda hukmron bo‘lgan siyosiy institutlar va hukmdorlik tizimlari orqali milliy birdamlik strategiyalarining shakllanganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda tarixiy birlik mavzusini global kontekstda o‘rganish ham kuchaydi. **S. Rashidova**[4] o‘zbek xalq tarixini Markaziy Osiyo bilan integratsiya jarayoni nuqtai nazaridan tahlil qilib, xalqning o‘zaro energetik, savdo va madaniy aloqalar orqali bitimlarni va umumiy identitetni mustahkamlash yo‘nalishlarini ko‘radi. Bu yondashuv tarixiy birlikni millatlararo aloqalar bilan bog‘liq qilib tushunishga yordam beradi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining tarixiy birligini o‘rganishda bir nechta tadqiqot metodlari qo‘llanildi, ular quyidagilardan iborat:

Tarixiy-tahliliy metod. Bu metod o‘zbek xalqining tarixiy jarayonlarini, qadimiy davrlardan hozirgi kungacha bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqealarni tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi. Tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy asarlar orqali xalqning milliy birlik shakllanishi bosqichlari o‘rganildi.

Komparativ (solishtirma) metod. O‘zbek xalqining tarixiy birligi boshqa Markaziy Osiyo xalqlari va dunyo xalqlari bilan solishtirildi. Bu metod milliy birdamlik va identitetni shakllantiruvchi o‘xshash va farqli omillarni aniqlash imkonini berdi.

Madaniyatshunoslik va antropologik metod. O‘zbek xalqining madaniy merosi, an’analar, til va adabiyot orqali tarixiy birlikni o‘rganish maqsadida madaniyatshunoslik yondashuvi qo‘llanildi. Bu metod xalqning ijtimoiy-madaniy birdamligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

---

[1] Axmedov, D. (2020). O‘zbekiston tarixi va milliy birlik: Ijtimoiy va siyosiy omillar (2-nashr). Toshkent: Sharq-G‘arb.

[2] Qodirov, M. (2018). Madaniyat va milliy identitet: O‘zbek xalqining madaniyati evolyutsiyasi. Samarkand: Fan.

[3] Ismoilov, N. (2019). Siyosiy institutlar va tarixiy birdamlik [Monografiya]. Buxoro: Ilm-Ziyo.

[4] Rashidova, S. (2022). Global kontekstda o‘zbek tarixiy birligi (1-nashr). Toshkent: Millennium.

4. Analitik va sintez metodlari. Ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida analitik va sintez metodlari qo‘llanildi. Turli manbalardan olingan faktlar va tadqiqot natijalari birlashtirilib, o‘zbek xalqining tarixiy birlikning asosiy xususiyatlari aniqlandi.

Ushbu metodlarning kombinatsiyasi maqolaga ilmiy asos va ob’ektivlik beradi, shuningdek o‘zbek xalqining tarixiy birligi jarayonlarini tizimli va mukammal tarzda tahlil qilish imkonini yaratadi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi ko‘plab omillar orqali shakllangan va bugungi kunda milliy birdamlik va identitetning asosiy poydevori hisoblanadi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Qadimiy davrlardan boshlab o‘zbek xalqining siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalqning milliy birlik va o‘zlikni saqlashga bo‘lgan intilishini mustahkamladi. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, turli davlatlar va hukmdorlik tizimlari bilan aloqalar xalqning birligini zaiflashtirmagan, aksincha, milliy o‘zlikni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Madaniyat, til, urf-odat va diniy an’analar tarixiy birlikning asosiy vositalari sifatida xizmat qilgan. Bu omillar xalq ichida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Turli davrlardagi siyosiy institutlar, hukmdorlik tizimlari va davlat strategiyalari o‘zbek xalqining tarixiy birligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu omillar, milliy birdamlikni shakllantirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lgan.

Markaziy Osiyo va qo‘shni xalqlar bilan savdo, madaniy va siyosiy aloqalar o‘zbek xalqining tarixiy birligini yanada mustahkamladi. Global kontekstda tarixiy birlik milliy identitetni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u tarixiy jarayonlar, madaniyat, siyosiy institutlar va global aloqalarning uyg‘unlashuvi orqali shakllangan. Bu birlik bugungi kunda milliy birdamlik, madaniy o‘zlik va identitetni mustahkamlashning asosiy poydevori sifatida xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA

O‘zbek xalqining tarixiy birligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bir nechta muhim jihatlarni ochib berdi va ularni ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirish imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi nafaqat siyosiy yoki hududiy birlik, balki madaniy va ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu fikr **Ahmedov (2020)** va **Qodirov (2018)** tadqiqotlari bilan mos keladi, ularda tarixiy jarayonlar va madaniy meros milliy identitetni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi qayd etilgan. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tarixiy birlikni shakllantirish jarayonida turli siyosiy institutlar va hukmdorlik tizimlari xalqning birdamligini mustahkamlashga yordam bergan.

Madaniyat, til va urf-odatlar xalq ichidagi birdamlikni mustahkamlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu natija **Rashidova (2022)** tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi, unda o‘zbek xalqining global va mintaqaviy aloqalar orqali identitetini saqlab qolish jarayoni yoritilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, madaniy va ijtimoiy omillar siyosiy birlik bilan uyg‘unlashganda, milliy birdamlik yanada barqaror bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi faqat ichki siyosiy institutlar bilan cheklanmaydi, balki Markaziy Osiyo va qo‘shni xalqlar bilan aloqalarning tarixiy jarayonlarda muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv global tarixiy kontekstda ham o‘zbek xalqining birdamligini va milliy identitetini tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u tarixiy birlikni kompleks, ko‘p qirrali va integrativ yondashuvda tahlil qiladi. Amaliy jihatdan esa natijalar milliy birdamlikni mustahkamlash, madaniy merosni rivojlantirish va tarixiy ongni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar

berishi mumkin. Muhokama shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u tarixiy jarayonlar, madaniyat, siyosiy institutlar va global aloqalarning uyg‘unlashuvi orqali shakllangan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari tarixiy birlik va milliy identitet o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbek xalqining tarixiy birligi murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u tarixiy jarayonlar, madaniy meros, siyosiy institutlar va global aloqalarning uyg‘unlashuvi orqali shakllangan. Qadimiy davrlardan boshlab xalqning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari milliy birdamlik va identitetni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Madaniyat, til, adabiyot va an’analar xalq ichidagi birlikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilgan, turli siyosiy institutlar va hukmdorlik tizimlari esa bu jarayonni qo‘llab-quvvatlagan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo va qo‘shni xalqlar bilan bo‘lgan aloqalar tarixiy birlikni global kontekstda mustahkamlashga yordam bergan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining tarixiy birligi bugungi kunda milliy birdamlik, madaniy o‘zlik va identitetning poydevori sifatida xizmat qilmoqda va uni saqlash hamda rivojlantirish zamonaviy jamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, D. (2020). O‘zbekiston tarixi va milliy birlik: Ijtimoiy va siyosiy omillar (2-nashr). Toshkent: Sharq-G‘arb.
2. Qodirov, M. (2018). Madaniyat va milliy identitet: O‘zbek xalqining madaniyati evolyutsiyasi. Samarkand: Fan.
3. Ismoilov, N. (2019). Siyosiy institutlar va tarixiy birdamlik [Monografiya]. Buxoro: Ilm-Ziyo.
4. Rashidova, S. (2022). Global kontekstda o‘zbek tarixiy birligi (1-nashr). Toshkent: Millennium.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARNI MUSIQIY RITMIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nazarov Odil Omonqulovich
Pedagogika fanlari falsafa doktori (dots)
Egamberdiyeva Muxlisa Hakim qizi
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Pedagogika va o`qitish metodikasi
yo`nalishi 1-bosqich magistranti
Emai: egamberdiyevamuxlisa3@gmail.com
Tel : +998976778893

Annotatsiya: Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning musiqiy-ritmik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari hamda samarali metodik yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, maxsus ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv usullar, o‘yin texnologiyalari, harakatli mashqlar va individual yondashuv tamoyillari misollar asosida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, musiqiy-ritmik tafakkur, maxsus pedagogika, musiqiy ta’lim, ritm mashqlari, ijodiy rivojlanish, eshitish qobiliyati, emotsional rivojlanish, inkluziv ta’lim.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация: В данной статье освещаются педагогико-психологические основы развития музыкально-ритмического мышления учащихся с ограниченными возможностями, а также эффективные методические подходы к его формированию. Кроме того, на примерах

раскрываются интерактивные методы, игровые технологии, подвижные упражнения и принципы индивидуального подхода, применяемые в процессе специального образования.

Ключевые слова: Учащиеся с ограниченными возможностями, музыкально-ритмическое мышление, специальная педагогика, музыкальное образование, ритмические упражнения, творческое развитие, слуховое восприятие, эмоциональное развитие, инклюзивное образование.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING MUSICAL-RHYTHMIC THINKING IN STUDENTS WITH DISABILITIES

Abstract : This article highlights the pedagogical and psychological foundations for developing musical-rhythmic thinking in students with disabilities, as well as effective methodological approaches to its formation. It also presents, with examples, interactive methods, game-based technologies, movement exercises, and principles of an individual approach used in the process of special education.

Keywords: Students with disabilities, musical-rhythmic thinking, special pedagogy, music education, rhythm exercises, creative development, auditory perception, emotional development, inclusive education.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish sohasidagi mahalliy tadqiqotchilar ritmni musiqa orqali uning emotsional mazmunini yetkazuvchi asosiy ifoda vositalaridan biri sifatida ko‘rsatadilar. Musiqani faol his etish va uni harakat orqali ifodalash qobiliyati esa musiqiy-ritmik tuyg‘uni tavsiflaydi. B.M. Teplovning ta’kidlashicha, musiqiy ritm “harakatga tayangan holda, emotsional mezon asosida uzatiladi”.

Shuni ta’kidlash joizki, ritm psixologiya va pedagogika fanlarida ham muhim tushuncha sifatida qaraladi. Psixologik jihatdan ritm — bu metr-ritm, ya’ni keng ma’nodagi ritmika hisoblanadi. Masalan, metronom ovozini tinglagan odam bir xil tovushlar ketma-ketligini guruhlarga ajratib, ayrim tovushlarni urg‘u bilan ajratadi va shu orqali ritmni his qiladi. Pedagogik jihatdan esa ritmika — bu musiqa bilan bog‘langan harakatlar asosida qurilgan jismoniy mashqlar tizimidir. U bolalarning jismoniy rivojlanishiga, musiqiy eshitish qobiliyatiga, xotirasiga va harakatlarning ifodaliligiga yordam beradi. Shuningdek, bolalarni musiqa va raqs bilan tanishtiradi, ularga musiqaning xarakteri va tempini harakat orqali ifodalashni o‘rgatadi.

Musiqiy-ritmik faoliyat — bu murakkab (sintetik) faoliyat turi bo‘lib, uning asosida musiqa yotadi, harakatlar esa musiqiy obrazni ifodalaydi va uning asosiy ifoda vositalarini aniqroq qiladi. Musiqa va harakatlar o‘zaro chambarchas bog‘liq, chunki ikkalasi ham vaqtga bog‘liq san’at turlaridir. Harakat esa makonda sodir bo‘lib, vaqtning o‘tishini ko‘rinadigan qiladi.

Musiqa va harakatlarning quyidagi umumiy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz :

- vaqt bilan bog‘liq jihatlar (boshlanishi, tugashi, temp, ritm);
- dinamika (musiqa balandroq bo‘lsa, harakat amplitudasi ham kattaroq bo‘ladi);
- asarning shakli va harakat kompozitsiyasining tuzilishi.

Ritmni tana orqali his qilish insonda zavq uyg‘otadi. Faol ritmik harakatlar ichki zo‘riqishni kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotchilarning olib borgan tadqiqotlari ritmning bolalarga ta’sirini alohida ekanligini ko‘rsatmoqda . Ana shunday tadqiqotchilardan biri V.M. Bexterevning fikricha, ritmik tarbiya bolaning organizmini eshitish va ko‘rish ta’sirlariga moslashishga yordam beradi, asab tizimini muvozanatga keltiradi va ortiqcha harakatchanlikni tartibga soladi.

Ritmik tarbiya ritmik mashg‘ùlotlar orqali olib boriladi va buning natijasida bolda umumiy tonusni oshiradi, motorikani rivojlantiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va markaziy asab tizimidagi jarayonlarning harakatchanligini kuchaytiradi.

Yana bir musiqiy ritmik tafakkurni rivojlantiruvchi usul bu - musiqa terapiyasi usulidir . Musiqa terapiyasi-ko’pchilik insonlar o’zlaridagi psixologik zo‘riqishni bartaraf etishda,tinchlanish va fikrlarini jamlashda , hissiy holatlarini yaxshilashda qo‘llaydigan qadimiy

va tabiiy usuldir . Mazkur usulning boshqa usullardan farqli jihati shundaki , inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta’lim usuli sifatida xizmat qiladi .

Inklyuziv ta’limda musiqa terapiyasidan foydalanishning maqsadi quyidagilardir : hissiy idrok etish jarayonini rivojlantirish va tuzatish sezish,idrok qilish,namoyish qilish),harakatlanishni kuchaytirish, nutq faoliyatidagi tutulib qolish holatlarida(ijtimoiy va shaxsiy holatdagi keskin o'zgarish tufayli yuzaga keladigan tashvishlanishni olib tashlash)reabilitatsiyaning ijobiy- hissiy muhitini yaratish. Shu o‘rinda Karl Kenigning musiqa terapiyasidagi yondashuviga murojaat qilamiz: Musiqa organizmga chuqur ta’sir etishi uchun bemorning o‘zi faol harakatda bo‘lishi (kuylashi,musiqa asboblarida ijro etishi,musiqani harakatlarida namoyon eta bilishi) kerak.Musiqa terapiya mohiyatini biz “maxsus” bolalar imkoniyatlarida ruhiy rivojlantiruvchi va ruhiy his-tuyg‘u jarayonlariga ijobiy va davolovchi ta’sir etuvchi,bolaning zahiradagi kuchini san'atning barcha sohalarida va umuman hayotda o'zini boshqarishga to‘g‘ri yo‘naltirishda ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda musiqiy-ritmik tafakkurni rivojlantirish ularning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki umumiy psixik, emotsional va jismoniy rivojlanishini ham samarali qo‘llab-quvvatlaydi. Musiqa va harakat uyg‘unligiga asoslangan metodik yondashuvlar orqali o‘quvchilarning ritmni his etishi, eshitish qobiliyati, koordinatsiyasi hamda ijodiy faolligi shakllanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, ritmik mashqlar, o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda musiqa terapiyasi vositalaridan maqsadli foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Individual yondashuv tamoyili esa har bir o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olib, ularning ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Natijada, musiqiy-ritmik faoliyat inklyuziv ta’lim sharoitida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va o‘z-o‘zini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. **Abdullayeva Sh.A. “Boshlang‘ich sinflarda musiqa ta’limi metodikasi”**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. **Yusupova N.Y. “Musiqa savodi, metodikasi va ritmika”**. – Toshkent, 2010.
3. Vorojtsova O.A. Bolalar psixoterapiyasida musiqa va o'yin: Psixoterapiya institutining nashriyoti, 2004
4. Boromikova O.S. **“Musiqa jo‘rligida nutq va harakatlarni korreksiya qilish”**. – Sankt-Peterburg: “Fast”, 2008-yil.
5. Alekseeva L.M. **“Bolalar uchun umumrivojlantiruvchi gimnastika komplekslari”**. – Rostov-Don: “Feniks”, 2005-yil
6. www.edu.uz
7. www.ziyo.net

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O’QUVCHILARNI IQTISODIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumayeva Feuza Sayidovna
Buxoro davlat Pedagogika insituti
Umumiy pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida o`quvchilarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirishda didaktik o`yinlarning pedagogik jihatlari, turlari, tarkibi, o`qituvchi va o`quvchilarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi funksiyalarni ochib berilgan. Shuningdek, o`quvchilarga iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirishda didaktik o`yinlarning tutgan o`rni tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, onlayn dars, raqamli texnologiya, raqamli platforma, didaktik o`yinlar, iqtisodiy bilimdonlik, muloqot, bilim va ko’nikmalar.

Аннотация. В данной статье раскрыты педагогические аспекты, виды, структура дидактических игр в формировании экономической грамотности учащихся в цифровой образовательной среде, функции, расширяющие возможности учителей и учащихся. Также описана роль дидактических игр в развитии экономической грамотности учащихся.

Ключевые слова: цифровое образование, онлайн-урок, цифровые технологии, цифровая платформа, дидактические игры, экономическая грамотность, общение, знания и навыки.

Abstract. This article reveals the pedagogical aspects, types, structure of didactic games in the formation of students' economic literacy in a digital educational environment, and the functions that expand the capabilities of teachers and students. The role of didactic games in developing students' economic literacy is also described.

Key words: digital education, online lesson, digital technology, digital platform, didactic games, economic knowledge, communication, knowledge and skills.

Raqamli ta'lim - bu ta'lim jarayonining raqamli texnologiyalar va platformalar yordamida amalga oshirilishidir. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'lim yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin muvaffaqiyatli bo'lish uchun qat'iyat va o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash zarur. Onlayn ta'lim platformalari ta'lim olish jarayonini qulay va samarali qiluvchi muhim vositalardir. Bu platformalar orqali iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir inson ayniqsa, o’quvchilardan iqtisodiy bilimga ega bo’lishni talab qiladi. Iqtisodiy bilimlarni o’zlashtirish natijasida o’quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, hisob-kitob yuritish ko’nikmalari shakllanadi. O`quvchilarning iqtisodiy bilim va ko’nikmalarini rivojlantirishda didakik o’yinlar vositasida amalga oshirish orqali o’quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda.

Didaktik o’yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o’yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishni tashkil etadi. Didaktik o’yinlar orqali asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish takomi ll ashadi. Yangi iqtisodiy bilimlarni o’quvchilarda singdirishda didaktik o’yinlar vositasida o’quvchining ijodiy ish faoliyatini kuchaytirtiradi, ixtiyoriy diqqati, xotirasini takomillashtiradi. O’yin jarayonida o’quvchilar o’zlari sezmagan holda juda ko’p harakatlarni hamda mashqlarni bajaradilar.

Iqtisod darslarining turli bosqichlarida rangba-rang o’yin vaziyatlaridan foydalanish mumkin. Jumladan:

- yangi o’quv materiallarini tushuntirishda; bunda o’qituvchi shunday usullarni qo’llashi mumkinki, uning yordamida bilvosita yangi bilimlarni o’quvchilarga yetkazish mumkin. O’quvchilar esa guruh bo’lib muhokama qilish asosida o’qituvchi tayangan printsipdan kelib chiqqan holda o’z oldilariga qo’yilgan vazifani yechadilar. Shu asosda ular to’g’ri yechimga olib boradigan yo’lni izlab topadilar.
- yangi o’quv materiallarini o’zlashtirish va mustahkamlash bosqichida; bunda klassik o’yin usullari qo’llaniladi. Jumladan, berilgan mavzu yuzasidan “Kim yaxshi ma’ruza qila oladi” o’yinini tashkil qilish mumkin. Bunda o’qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida o’quvchilar bir-birlarining ma’ruzalarini baholaydilar.
- o’tilgan materiallarni takrorlash bosqichida; o’quv jarayonining mazkur bosqichi eng doolzarb va o’yin usullarini qo’llash ehtiyoji kuchli bo’lgan bosqichlardan biri hisoblanadi.

Bu o’rinda o’quvchilar o’zlashtirgan bilimlarini amalda qo’llay olishlari lozim. Ular o’zlashtirilgan bilimlarini nostandart vaziyatlarda qo’llay olish ko’nikmalarini namoyon qilishlari lozim. Shuningdek, muayyan vaziyatlarda egallagan ko’nikmalarini abstraktsiyalash layoqatiga

egaliklarini ko’rsata olishlari muhimdir. Buning uchun o’qituvchi o’quv jarayonini tashkiliy-faoliyatli yo’nalishda amalga oshirishi talab etiladi. Bunda o’quvchilarning o’zlashtirgan bilimlari shaxsiy faoliyat tajribasiga singganligi yaqqol namoyon bo’ladi. Bu o’rinda o’qituvchi muhim bir holatni hisobga olishi lozim. Jumladan, o’quvchilar nimaga qiziqadilar, ular uchun qanday faoliyatni bajarish yoqimli, ular nima haqida xayol suradilar, ular qanday kitoblarni o’qiydilar va nima haqida so’zlashadilar, kabi. O’qituvchilar o’quvchilarning yosh taraqqiyotlari bilan bog’liq holda ularning o’zlashtirgan bilimlari va is’temolchilik imkoniyatlaridan foydalanib, shaxsiy kuzatishlarini boyitishlari, kundalik tajribalariga tayangan holda o’yin jarayonlarini loyihalashtirishlari va tashkil etishlari lozim. Mazkur bosqichdagi o’yinlarning asosiy maqsadi - o’tilganlarni takrorlashdan iborat.

Iqtisod fani o’qituvchilari didaktik o’yinlarni tanlashda ham muayyan qonun-qoidalarga amal qilishlari kerak. o’yinlarni tanlashda o’qituvchi birinchi navbatda o’quvchilarning ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga qo’yilgan vazifalarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun ham o’qituvchi sinfdagi o’quvchilarning holati va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi lozim. Bunda o’yinga jalb etilgan o’quvchilar guruhining tarkibi, ularning intellektual rivojlanish darajasi, jismoniy tayyorgarligi, yosh xususiyatlari, qiziqishlari, muloqotga kirisha olish darajasi va birgalikdagi faoliyatini hisobga olishi lozim.

Bu jarayonda iqtisod fani o’qituvchisi oldiga quyidagi vazifalar qo’yiladi. Ular:

1. O’quvchilarda mustaqillikni shakllantirish.
2. O’quvchilarda iqtisodiy bilimlarga nisbatan qiziqish uyg’otish kabilar.

O’yinlarni tanlashda o’qituvchi uning o’tkazilish joyi va vaqtini aniq hisobga olishi lozim. Jumladan, iqtisod darslarida tashkil etiladigan o’yinlar iqtisod xonasida o’tishini mo’ljallab loyihalashtiriladi. Bunda dare jihozlari jumladan, metodik qo’llamalar va boshqa ashyolar aniq hisobga olinadi. Iqtisod o’qituvchisi dastlab qisqa muddat talab qiladigan o’yinlarni tanlashi kerak. Chunki darsda o’yinlarni tashkil etgandan keyin yangi mavzuni o’quvchilarga tushuntirish uchun ham vaqt qolishi kerak. 3-4 darslar esa to’liqligicha o’yinga bag’ishlanib, istiqbolda iqtisodiy bilimlarni chuqur o’zlashtirishga yo’naltirilishi kerak. Shunga ko’ra bunday o’yin darslari uchun ko’p vaqt talab qilinadi. Bunday darslarda ilgari o’tylgan barcha mavzular umumlashtiriladi.

O’yinning maqsadi o’yin vaziyatlari doirasida namoyon bo’ladi. O`yin natijalari narsalar va mahsulotlar sifatida namoyon bo’ladi. Bu mahsulotlar badiiy ijod mahsulotlari, yangi bilimlar shaklida ifodalanadi. O’yinda mayllar tabiiy ravishda almashinadi. O’yin jarayonida o’quvchilar qoniqish hosil qilish maqsadida harakatlanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008,-B. 198
2. Boshlang‘ich talimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma T.G‘afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
3. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abdukudusova. Boshlang‘ich talim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash.Toshkent- 2014
4. Sayidovna J. F. DIDAKTIK OYINLAR VOSITASIDA BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARNING IQTISODIY SAVODXONLIGINI SHAKLANTIRISH MEXANIZMLARI //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 891-897.
2. Sayidovna, Jumayeva Feuza. "O’quvchilarga ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda o’yinlardan foydalanishning didaktik asoslari." *Innovation in the modern education system* 5.47 (2024): 272-275

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
salimjontadjibayev68@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot doirasida interaktiv ta’lim metodlari, loyiha asosida o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda STEAM integratsion yondashuvining didaktik imkoniyatlari kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar mazkur metodlar talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy faoliyat, kasbiy kompetensiya, interaktiv metodlar, pedagogik innovatsiya, STEAM, kreativ tafakkur, maktabgacha ta’lim*

Kirish. Hozirgi bosqichda ta’lim tizimining modernizatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga nisbatan qo‘yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimi uchun yuqori malakali, ijodkor va innovatsion fikrlovchi tarbiyachilarni tayyorlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik ongini shakllantirish, obrazli tafakkurini rivojlantirish hamda ularning individual ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarni ushbu faoliyatga samarali o‘rgatish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

An’anaviy reproduktiv o‘qitish modeli ko‘proq bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning ijodiy faolligini to‘liq ta’minlay olmaydi. Zamonaviy pedagogik paradigma esa konstruktivistik yondashuv asosida bilimni mustaqil egallash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishda zamonaviy metodlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy metodlar. Bunda pedagogika, psixologiya hamda san’at ta’limi yo‘nalishlariga oid fundamental va zamonaviy ilmiy manbalar tizimli ravishda o‘rganildi va chuqur tahlil qilindi. Xususan, tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini yorituvchi ilmiy adabiyotlar, ilg‘or pedagogik tajribalar hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida mavjud konseptual yondashuvlar — an’anaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy hamda konstruktivistik yondashuvlar mazmunan tahlil etilib, ularning didaktik imkoniyatlari, afzallik va cheklovlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tasviriy faoliyatni o‘rgatishda qo‘llaniladigan metod va texnologiyalarning nazariy asoslari umumlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va pedagogik jarayondagi o‘rni asoslab berildi. Olingan natijalar asosida turli yondashuvlarning samaradorligi solishtirma tahlil orqali baholanib, zamonaviy ta’lim talablari nuqtayi nazaridan eng maqbul metodik yechimlar aniqlab olindi.

Empirik metodlar:

1. **Pedagogik kuzatish** — oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari tahlil qilindi;
2. **So‘rovnoma** — talabalar va o‘qituvchilarning zamonaviy metodlarga bo‘lgan munosabati o‘rganildi;
3. **Pedagogik tajriba** — innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijalari an’anaviy darslar bilan qiyoslandi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash. Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil asosida umumlashtirildi, pedagogik samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi.
Tadqiqot obyekti sifatida 60110200 - maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari tanlandi.
Tadqiqot predmeti: tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi
Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning yuqori didaktik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Xususan, interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning bilish faolligini oshirib, o‘quv materialini chuqur va ongli o‘zlashtirishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Bundan tashqari, mazkur yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy yechimlar ishlab chiqish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar shuni tasdiqladiki, zamonaviy metodlar qo‘llanilgan guruhlarda o‘zlashtirish darajasi, motivatsiya va ijodiy faollik ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlar asosida ta’lim olgan guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Shu tariqa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga ham xizmat qiladi.
Interaktiv metodlarning didaktik salohiyati. Interaktiv metodlar o‘quv jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etish imkonini beradi. Xususan, “aqliy hujum”, klaster va muammoli vaziyatlarni hal etish usullari talabalarning divergent fikrlashini faollashtiradi. Natijada, talabalar tomonidan original g‘oyalar ilgari surilishi va muqobil yechimlar ishlab chiqilishi kuzatildi.
Loyiha asosida o‘qitishning samaradorligi. Loyiha faoliyati talabalarning mustaqil izlanish olib borish, axborotni tahlil qilish va amaliy mahsulot yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Tajriba guruhida o‘qigan talabalarning ijodiy ishlarida kompozitsion yaxlitlik va badiiy ifoda darajasi sezilarli oshgani qayd etildi.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv materialining vizualligi va interaktivligi ta’minlandi. Grafik dasturlar va multimedia vositalari orqali tasviriy faoliyatni o‘rganish jarayoni sezilarli darajada samarali kechdi.
STEAM yondashuvining integrativ imkoniyatlari. Tasviriy faoliyatni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish talabalar tafakkurining tizimliligini ta’minladi. Ushbu yondashuv ijodiy va analitik fikrlashni uyg‘un rivojlantirish imkonini berdi.
Individual yondashuv natijalari. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning o‘zlashtirish darajasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortgani kuzatildi.
Tahlil. Olingan natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash an’anaviy metodlarga nisbatan ustun ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, interaktiv va innovatsion metodlar talabalarning kognitiv faolligini oshirib, ularning mustaqil bilim olish jarayonini jadallashtiradi.
Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator tizimli muammolar ham aniqlandi:

-moddiy-texnik bazaning yetarli darajada emasligi;
-pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining yetarli shakllanmaganligi;
-innovatsion metodlarni joriy etishda metodik ta’minotning cheklanganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagog kadrlarning malakasini muntazam oshirish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish zarur.
Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishda zamonaviy metodlar yuqori pedagogik samaradorlikka ega.
2. Interaktiv, loyiha asosidagi va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar talabalar kreativligini sezilarli darajada rivojlantiradi.

3. STEAM yondashuvi integrativ bilimlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, innovatsion metodlarni amaliyotga keng joriy etish va ta’lim sifatini oshirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida **2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son qarorı**
2. Xasanova Sh.T. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T-Tafakkur. 2020
3. S.S.Tadjibayev. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024.
4. Maxmutazimova Y. R. Maktabgacha ta`limda STEAM texnologiyalari: metodik qo`llanma / Toshkent : TAMADDUN, 2022
5. S.S.Tadjibayev. “Bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy ko‘nikmalarni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari (tasviriy faoliyat misolida)” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon-2026

LAZER NURI TA'SIRIDA RUX SELENIDI KUKUNLARINING RAMAN VA LYUMINESENSIYA SPEKTRLARI

Bobur Abdukamil o'g'li Abdusattarov[1],
Ilyos Arzimurodovich Raxmatullayev[2]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi, e-mail: abdusattarovbobur86@gmail.com
[2]Alfraganus universiteti, "Matematika va fizika" kafedrasi professori (DSc),

Annatotsiya. *Ushbu maqolada rux selenidi (ZnSe) kukunlarining lazer nuri ta'sirida Raman va lyuminesensiya spektrlari o'rganildi. Tadqiqot davomida lazer quvvati va to'lqin uzunligining material mikrostrukturasi hamda tebranish xususiyatlariga ta'siri tahlil qilindi. Raman spektrlari asosida fonon modlari aniqlanib, lyuminesensiya spektrlari orqali energetik o'tishlar baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, lazer ta'siri ostida ZnSe kukunlarining optik xususiyatlari sezilarli darajada o'zgaradi.*


Kalit so'zlar: rux selenidi, lazer nuri, Raman spektroskopiya, lyuminesensiya, fonon modlari, nanokukunlar.

Kirish. Yarimo'tkazgich materiallar, xususan, rux selenidi (ZnSe), optoelektron qurilmalar, lazer texnologiyalari va fotonika sohalarida keng qo'llanilmoqda. ZnSe keng taqiqlangan zonaga ega bo'lib, yuqori optik shaffoflik va yaxshi lyuminesensiya xususiyatlari bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda lazer nurlanishining materiallarning strukturaviy va optik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish dolzarb masalaga aylandi. Raman spektroskopiya kristall panjara tebranishlarini aniqlashda muhim usul hisoblanadi, lyuminesensiya esa energetik sathlar va nuqsonlar haqida ma'lumot beradi.

Metodologiya. Tadqiqot uchun Sigma-Aldrichdan tayyorlangan 98% tozalik bilan oq rangli ZnSe mikroposhchalari ishlatilgan. Barcha tadqiqotlar xona haroratida o'tkazildi. Tekshirilayotgan kukunlarning namunalari KU markali kvarsli derazali silindrsimon kyuvetaga joylashtirildi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. 1-rasmda lazer nurinig turli intensivliklarida olingan ZnSe ($d_{o'rt}$ = 2 mkm) mikrokukunlarining lyuminesensiya spektrlari ko'rsatilgan. Tekshirilayotgan 460-490 nm diapazondagi lyuminesensiya polosasi quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, shuni ta'kidlaymizki, 476-480 nm maksimal nurlanish taqiqlangan E_g zonasining kengligiga yaqinroq bo'ladi. Ikkinchidan, maksimal holat $I_{iug'}$ o'sishi bilan kamroq energiya tomonga siljishi bilan qo'zg'alish darajasiga bog'liq. Uchinchidan, I ko'k polosaning (B-polosaning) nurlanish intensivligiga bog'liqligi darajali xususiyatga ega. Va nihoyat, qo'zg'alish darajasining oshishi past energiyali «qanot» ning ko'tarilishiga olib keladi. 460-480 nm diapazonda sanab o'tilgan barcha xususiyatlar eksitonlar erkin zaryad tashuvchi vositalarda noelastik sochilganda annigilatsiyaga xosdir [1,2]. Bu diapazonda ZnSe o'z yutilish chegarasi joylashgan bo'lib, u erda yutilish ko'rsatkichi ming sm-1 ga yetishi mumkin va to'lqin uzunligi biroz o'zgarganda ushbu spektral diapazonda keskin o'zgaradi. Ishda [3] 77 K ZnSe haroratida asosiy chiziq spektri (2,789 eV) murakkab xususiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan: chiziq mos ravishda 2,793 (Ex), 2,775 (I1) va 2,745 eV (ILO) da maksimal uch asosiy komponentga bo'linadi. Spektrning qo'shimcha ravishda past energiyali sohasi 2,705 (A), 2,676 (ALO), 2,645 (A2LO) va 2,611 eV (A3LO) cho'qqilar seriyasi kuzatiladi. Erkin eksitonlar energiyasi ZnSe ga teng bo'ladi: Ex = 2,812 eV va A = 2,690 eV, bu to'lqin uzunliklariga xos: 440,9 = 460,9 va nm. Bu spektrlarda eksitonlarning fotonga va bir yoki bir nechta bo'yi optik fononlarga parchalanish jarayonlari bilan bog'liq maksimumlar paydo bo'ladi. Bizning ishimizdan olingan FL spektridagi maksimal intensivlik uch fononli takrorlanishga (A^{3LO}) mos keladi. To'ldirishning past intensivligida olingan FL spektri (1-rasm, 1-3 egri chiziqlar) makning eng yuqori darajasi λ=476 nm bo'lib, biz ilgari xona haroratida monokristalda kuzatgan ikki fotonli uyg'otilgan spektri bilan bog'liqdir [4].



1-rasm. lazer nurinig turli intensivliklarida olingan ZnSe ($d_{o'rt}$ = 2 mkm) mikrokukunlarining lyuminesensiya spektrlari: (1) egri chiziq $I_{uyg'}$ = 5 intensivlikka mos keladi; (2) – $I_{uyg'}$ = 7; (3) - $I_{uyg'}$ = 9; (4) - $I_{uyg'}$ = 11; (5) - $I_{uyg'}$ = 13; (6) - $I_{uyg'}$ = 15; (7) - $I_{uyg'}$ = 18; ($I_{uyg'}$ ~ 106 Vt/sm^2).

Xulosalar

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: ZnSe kukunlarida lazer nuri ta'sirida Raman chiziqlari maksimumlarining intensivligi oshdi. Lyuminesensiya spektrida siljish kuzatildi. Materialning optik xususiyatlari lazer intensivligiga bog'liq ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махний В.П., Кинзерская О.В., Сенко И.М. и др. Высокотемпературная люминесценция кристаллов ZnSe:Yb // Техн.и конст. в элек.аппар., 2016. – №2-3. – С.37-40.

2. Гладилин А.А. Структурные и оптические свойства кристаллов селенида и сульфида цинка, легированных железом и хромом. Дисс. к-та физ.-мат. наук. – Москва: ИОФ РАН, 2020. – 130 с.

3. Иванова Г.Н., Недеогло Д.Д., Симашкевич А.В. и др. Голубая фотолюминесценция кристаллов ZnSe при сильном лазерном возбуждении // Физика и Техника полупроводников. 1980, Т. 14, № 1. – С. 31-36.

4. Agal'tsov A.M., Gorelik V.S. & Rakhmatullaev I.A. Spectral, Energy, and Temporal Characteristics of Two-photon-Excited Fluorescence of ZnSe Single Crystal in the Blue Region of the Spectrum // Semiconductors, 1997. – Vol.31. – pp.1228–1230. https://doi.org/10.1134/1.1187299

Bulutli texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim texnologiyalarini boshqarish

Kodirov Akbar Shuhratovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Matematika va amalaiy matematika" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: akbar2005ak@gmail.com ORSID: 0000-0002-3556-5770
Boltayeva Manzura Boyturayevna
Pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada web-texnologiyaning zamonaviy yangi xizmat turi bo'lgan – "Bulutli texnologiya"ning kelib chiqishi, "Bulutli texnologiya" ni ta'limda qo'llash imkoniyatlari, uning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridai "bulutli texnologiya" asosida zamonaviy dasturiy o'qitishga yondashuv, "bulutli texnologiya"ning kelajakta'limdagi o'rni holati va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanishimkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so‘zlar: Bulut, bulutli texnologiya, bulutli muhit, avtomatik ta’lim, masofaviy ta’lim, dastur, ilova.

Аннотация. В этой статье рассматривается происхождение современного нового вида услуг веб-технологий - "облачных технологий", возможности применения "облачных технологий" в образовании, его преимущества и недостатки, а также подход к современному обучению программным обеспечением на основе "облачных технологий" в дошкольных образовательных организациях, состояние и возможности использования "облачных технологий" в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Облако, облачные технологии, облачная среда, автоматизированное обучение, дистанционное обучение, программа, приложение, разработка, приложение, преимущества «облачных технологий», недостатки «облачных технологий».

Abstract. This article discusses the origin of "cloud technology", a modern new type of web technology service, the possibilities of using "cloud technology" in education, its advantages and disadvantages, as well as the approach to teaching students based on "cloud technology", the future state of "cloud technology" and its use in preschool educational organizations.

Keywords: Cloud, cloud technology, cloud environment, automatic learning, distance learning, program, application, development,, application, advantages of "cloud technology", disadvantages of "cloud technology".

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizga raqamli texnologiyalar shunchalik singib ketdiki, bu nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan holatga keldi. Tabiiyki, boshqa sohalardagi singari raqamli texnologiyalarni ta’lim sohasidagi o‘rni va yangiliklarni tadbiq qilishda ahamiyati yaqqol ko‘rinib turibdi. Raqamli texnologiyalari hayotimizni ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bir necha yildan buyon rivojlanishda davom etib kelayotgan cloud (bulut) texnologiyasi ish boshqarish shakli, ma’lumotlar almashish yaxshilash hamda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida foydalanilmoqda. Ushbu texnologiya o‘n yillikdan keyin odatiy vositaga aylanishi va usiz hech bir sohani tasavvur qilib bo‘lmay qolishi aniq.

Bulutli dasturlar – bu turli xil Internet xizmatlarini bajarishda eng muhim dasturlar qatorida keng foydalanilmoqda. Bunday vazifalarga misol qilib, ma’lumotlarni saqlash, serverlar, ma’lumotlar bazalari, dasturlar va ijtimoiy tarmoqlarni misol qilish mumkin. Bulutli dasturlar ma’lumotlarni saqlashni kompyuter fayllariga yoki qattiq diskka emas, balki markaziy tarmoqqa saqlash imkonini beradi. Ko‘p sabablarga ko‘ra, Cloud Computing – bu jismoniy shaxslar va kompaniyalar uchun mashhur variant, jumladan vaqtni tejash, samaradorlikni oshirish, tezlik va himoya. Bulutli texnologiyalarning turli xil xizmatlari mavjud bo‘lib, ular juda mashhur va bugungi kunda dunyoda keng qo‘llanilayotgan katta hajmdagi saqlash va uni zaxiralash, dasturlarni sinash va texnik xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlarni tahlil qilish va kerakli dasturlarni yetkazib berish mumkin. Bulutli dasturlar texnologiyasi – bu Internetga asoslangan platforma, bu resurslar serverdan mijozga tarmoq kanallari orqali ma’lumot yetkazadi. Shu sababli, texnologiya yorug‘lik tezligida yangilanayotgan hozirgi dunyoda qaysi texnologiyaga o‘tish kerakligini va texnologiyadan to‘g‘ri foydalanishni bilish juda muhimdir.

“Bulut”, “Bulutli texnologiya” atamalari hozirgi kunda yangi atama sifatida fanga kirib keldi hamda amaliyotda qo‘llanilmoqda. "Bulutli texnologiya" o‘zi nima? "Bulutli texnologiya" ni qayerda qo‘llash mumkin? Aslida bulutli texnologiyalar – bu Internet foydalanuvchiga Internet-xizmat sifatida kompyuter resurslarida taqdim etiladigan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari hisoblanadi. “Bulut” so‘zi bu yerda barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmani ifodalovchi metafora sifatida mavjud. “Bulut” atamasi kompyuter tarmog‘i diagrammasidagi Internet tasviriga asoslangan metafora sifatida yoki barcha texnik tafsilotlar yashiringan murakkab infratuzilma tasviri sifatida ishlatiladi. 2008-yilda nashr qilingan IEEE hujjatiga ko‘ra, «Bulutli hisoblash bu paradigma bo‘lib, unda ma’lumot Internet serverlarida

doimiy ravishda saqlanadi va mijoz tomonidan vaqtincha saqlanadi, masalan, shaxsiy kompyuterlarda, o‘yin pristavkalari, noutbuklar, smartfonlarda va hokazo.

"Elastic Computing Cloud" atamasini birinchi bo‘lib Amazon kompaniyasi 2006 yilda qo‘llay boshladi. Bu platformada Snapchat hozir ham faol ish olib boradi. Hech qancha vaqt o‘tmasdan "Cloud", "Computing Cloud" atamalari Google kompaniyasi tomonidan ham qo‘llanildi. "Bulut" atamasi metafora sifatida ishlatilib, dasturiy ta’minot hisoblanadi. "Bulutli texnologiya" nafaqat fayllarni saqlash uchun joy, balki juda keng imkoniyatlarga ega platformadir. **[3]** Bularga misol qilib Intagram, Feysbuk, messenjerlar, elektron pochta xizmatlari, onlayn ta’lim sohasida Google onlayn ilovalari, Zoom-konferensiyalar, LMS-tizimlari, Smart - ta’lim texnologiyalari, shuningdek, taksi, taomlarni buyurtma qilish xizmatlarini taklif qiluvchi web-ilovalarni keltirish mumkin. Bulutli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil qilsihning yangi usuli bo‘lib, ta’lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi, shaxsiy ta’lim, jamoaviy o‘qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi. Bulutli texnologiyalar (cloud computing) ta’lim jarayonlariga tadbiq etishning yana bir eng muhim shartlaridan biri— ma’lumotlarni internet orqali masofaviy serverlarda saqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Asosiy afzalliklari: xarajatlarni tejash (infratuzilma uchun), ma’lumotlarga ixtiyoriy joydan kirish imkoniyati, yuqori xavfsizlik, moslashuvchanlik va avtomatik yangilanishdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida "bulutli" texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, adabiyotlar ham yetarli emas. Ya’ni, ta’lim jarayonida zamonaviy shaxs nafaqat bilim va ko‘nikmalar to‘plamini to‘plashi, balki mustaqil ravishda va boshqa shaxslar bilan birgalikda mazmunli maqsadlar qo‘yish, o‘z-o‘zini tarbiyalash vaziyatlarini yaratish, izlash va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, muammolarni hal qilish vositalari va usullarini ishlab chiqa olishi kerak. Bulutli ma’lumotlarni kontseptsiya sifatida qayta ishlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) xizmat sifatida infratuzilma 2) xizmat sifatida platforma
3) dastur sifatida xizmat sifatida 4) ma’lumotlar xizmat sifatida
5) xizmat sifatida ish joyi**[4]**

Bulutli texnologiyalar – Bu xizmatlarni taqdim etuvchi turli xil tushunchalarni o‘z ichiga olgan bitta katta tushunchadir. Mamlakatimizda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son qarori “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ta’lim jarayoniga “Bulutli texnologiyalar”ni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. **[1,2].**

O‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan masofali o‘qitish shakli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyaning texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi**.[3]** Bulutli texnologiyalarni ta’limda qo‘llash tizimlariga elektron kundalik, elektron jurnallar (tarbiyalanuvchi va pedagoglar), interfaol tizimlar, axborot qidiruv tizimlari,tarbiyalanuvchilarni keldi -ketdi nazorati yoki ota-onalar bilan hamkorlik, bolalarning navbat bilan MTT da qabul qilish jarayonlarini misol qilsih mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Shahrisabz shahri 13-son DMTTda amaliyot jarayonlarida tashkilot hujjatlarini o‘rganish, boshqarish va ota-ona, mahalla va maktab bilan hamkorlik masalalarida ba’zi muammolarning bo‘lishi hattoki bola qabulida ba’zi sarsongarchiliklar tufayli ko‘p vaqt va mablag‘larning sarfini kamaytirish uchun bulutli texnologiyani tadbiq etish va undan unumli foydalanish maqsadida DMTTda yangi bulutli texnologiya asosida tashkilot ma’lumotlari bazasini yaratib, undan foydalanishni yo‘lga qo‘ydik. Bu jarayonlarda har bir xodim o‘z ishini aynan shu tizim orqali boshqarish ayniqsa hamkorlik masalalarida ma’lumotlarni saqlash,

yetkazish va almashishda bir qator yangiliklar kiritildi. Hattoki bu tizim orqali MTTni yanada rivojlanishi va ta’lim jarayonlarida o‘qitish texnologiyalaridan, AKT va multimediya vositalaridan keng foydalanish maqsadida eng kerakli ta’limiy baza ya’ni mavzulashtirilgan kundalik dasturlar, turli vedioroliklar, ertaklar va jismoniy mashqlarni to‘g‘ridan-to‘gri shu texnologiya orqali qiyinchiliklarsiz topish va foydalanish imkoniyatlari taqdim etildi. Bu esa pedagogning ish samaradorligini va bolalarda tushunish, eshitish, ko‘rish va birga bajarib o‘rganish imkoniyatlarini bera boshladi.

Bulutga asoslangan yechimlar, guruh loyihalari va virtual sinfxonalari kabi hamkorlikda o‘rganish tajribasini qo‘llab-quvvatlashi mumkin, bu yerda talabalar joylashuvidan qat’i nazar, real vaqtda birga ishlashlari mumkin. Uning asosiy afzalligi hujjatlarni (matnlar, rasmlar, taqdimotlar, jadvallar) birgalikda tahrirlash imkoniyatidir. Raqamli texnologiyalar ta’limda juda katta o‘zgarishlarni olib keldi. Onlayn ta’lim va masofaviy o‘qitish (e-learning) pandemiya davrida jadal rivojlandi va ta’limni o‘qituvchi va talabalar uchun qulayroq qildi..

O‘qituvchilar o‘z darslarini video, animatsiyalar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida taqdim etishmoqda, bu esa talabalar uchun darslarni tushunishni osonlashtiradi. Shuningdek, elektron kutubxonalar va resurslar yordamida talabalar kerakli ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bulutli texnologiyalar elektron ta’limda innovatsiyalar va tajribalarni davom ettirishi mumkin. Bulutga asoslangan yechimlar yanada murakkab va foydalanish mumkin bo‘lgan sari, ta’lim muassasalari va EdTech kompaniyalari yangi o‘qitish formatlari, texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar bilan tajriba o‘tkazishlari mumkin bo‘lib, online o‘rganish uchun biz hali tasavvur qilmagan yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Bulutli texnologiyalarning tez tarqalishi oldimizga bulutli xizmatlarni ta’lim muassasasi tizimiga integratsiya qilish vazifasini qo‘yadi. Bulutli texnologiyalar ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar, shuningdek, masofaviy ta’lim sohasida keng qo‘llash istiqbollariga ega. Shuningdek, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi texnologik jihatdan ilg‘or mamlakatlarda bulutli ta’lim platformalari orqali sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan tizimlar joriy etilgan. Bu tizimlar o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga qarab individual ta’lim yo‘nalishini tavsiya etadi.

O‘zbekistonda esa raqamli ta’lim sohasidagi asosiy yutuqlardan biri — “Bilim.uz”, “Edu.uz”, va “Maktab.uz” kabi platformalarning yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. Ular orqali o‘quvchilar uchun masofaviy ta’lim olish, elektron darsliklardan foydalanish, video darslarni ko‘rish, test sinovlarini topshirish imkoniyatlari yaratildi. Dasturlar avtomatik ravishda yangilanadi, shuning uchun yuklab olingan dasturlarda bo‘lgani kabi, bunga rioya qilishning hojati yo‘q. Yaxshi xavfsizlik va ma’lumotlarni yo‘qotishdan himoya qilish, chunki yuborilgan ma’lumotlar avtomatik ravishda saqlanadi va nusxalari zaxira serverlarga tashlanadi.

Bulutli texnologiyalarning tez tarqalishi oldimizga bulutli xizmatlarni ta’lim muassasasi tizimiga integratsiya qilish vazifasini qo‘yadi. Bulutli hisoblash ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar, shuningdek, masofaviy ta’lim sohasida keng qo‘llash istiqbollariga ega. Ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish ta’lim maydonini ochiq qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bulutli texnologiyalar ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi natijasida o‘quv jarayoni yanada ochiq, interaktiv va innovatsion tus olmoqda. Ular yordamida ta’limda teng imkoniyatlar yaratish, sifatli bilim berish, masofaviy ta’limni ommalashtirish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkoni mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, bulutli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy qilish — bu faqat texnologik yangilik emas, balki tub pedagogik yondashuvlarni o‘zgartiruvchi, sifatli bilim berishga yo‘l ochuvchi, ochiq va inklyuziv ta’limga zamin yaratadigan keng ko‘lamli islohotdir. Bu yo‘lda hukumat, ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar, IT mutaxassislari va o‘quvchilar hamjihatlikda harakat qilishi lozim. Yaqin yillarda bu sohadagi o‘sish yuqori ko‘rsatkichlarda bo‘lishi kuzatilyapti. Kelajakda bulutli hisoblash har bir kishi deyarli har kuni foydalanadigan ma’lumotlar bazasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son qaroriga 4-ilova, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3. Akbar Xaliqulov (2022).”Bulutli texnologiyaning ta’limdagi afzalligi” “Jamiyat va innovatsiyalar” jurnali.№3

4. T.E.Delov (2020). “Bulutli texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma.T:,–Toshkent: 2020 -217 b.

5. E.Toshtemirov. “using cloud technology to provide information resources in the process of distance learning, «Bulletin of Gulistan State University” Vol. 2020 : Iss. 1, Article 4.

ANALYSIS OF HEMODYNAMIC PATTERNS IN A SCALED AORTIC BIFURCATION MODEL USING THE REYNOLDS CRITERION

Turaev Umarkhon

Dept. Theoretical and Engineering Mechanics of Samarkand State University,

Master, *turaev.umarkhon@samdu.uz*

Abstract. *This study investigates the hemodynamic patterns in the human abdominal aortic bifurcation region using numerical modeling (ANSYS Fluent) based on the Reynolds similarity criterion. A scaled model of the aorta was employed, ensuring similarity with the flow characteristics of the actual human aorta. The numerical simulation analyzed the velocity distribution, pressure variations, and wall shear stress (WSS) values within the bifurcation area. It was found that a decrease in velocity and the formation of recirculation zones occur within the bifurcation, leading to uneven distribution of wall shear stress. Specifically, regions of low WSS were identified on the inner aspects of the vessel wall, which are considered risk factors for the development of diseases like atherosclerosis. The findings of this study contribute to a better understanding of hemodynamics and offer insights for the prevention of cardiovascular diseases.*

Key words. *ANSYS, Aorta Bifurcation, Reynolds criterion, hemodynamics, pressure variations, velocity distribution.*

Problem Statement. The average diameter of the human abdominal aortic bifurcation region is $D_r = 20\ mm$. The blood flow velocity is $u_r = 0.25\ m/s$, and the kinematic viscosity of blood is $\nu_r = 3.5 \cdot 10^{-6}\ m^2/s$. To visualize blood flow dynamics in a laboratory setting, a $3x$ scaled-up model of the aorta was fabricated. Water is utilized as the working fluid in the model instead of blood. The kinematic viscosity of water at the test temperature is $\nu_m = 1 \cdot 10^{-6}\ m^2/s$. To achieve hydrodynamic similarity between the model flow and the flow in the real aorta, we examine the determination of the Reynolds number (Re_r) for the prototype and calculate the necessary model velocity (u_m).

Research Methodology. According to the theory of similarity, the condition for O. Reynolds' similarity criterion is that for the prototype (real) and model flows to be similar to each other, their Reynolds numbers Re must be equal. The Reynolds number is one of the most important quantities in fluid and gas mechanics, assisting in the determination of the flow regime. The Reynolds number represents the ratio of inertial forces to viscous (frictional) forces within the flow. This number is applied to pipe flow problems (pressure drop along the length of liquid or gas flow in pipes), aerodynamic problems (airflow passing around aircraft wings during flight), and biomechanical problems (blood flow in vessels). The Reynolds number is defined by the following expression:

$$Re = \frac{\rho\, u\, L}{\mu} \tag{1}$$

or using $\mu = \rho\nu$ we can rewrite (1) as follows:

$$Re = \frac{u\,L}{\nu} \tag{2}$$

Re – Reynolds number
ρ – density of a fluid
u – velocity of a flow
L – characteristic length (hydraulic radius)
μ – dynamic viscosity coefficient
ν – kinematic viscosity coefficient

The Reynolds similarity criterion is applied in cases where viscous forces in the fluid motion predominantly influence the flow compared to other acting forces.

$$\frac{u_r l_r}{\nu_r} = \frac{u_m l_m}{\nu_m} = Re \tag{3}$$

Thus, the fluid flows in the prototype and the model are hydrodynamically similar when, for the cross-sections of both flows, the following condition holds:

$$Re_r = Re_m \tag{4}$$

or

$$Re = idem \tag{5}$$

Calculation Reynolds's number for real Aorta:

$$Re_r = \frac{u_r D_r}{\nu_r} = \frac{0.25 \cdot 0.02}{3.5 \cdot 10^{-6}} = 1428 \tag{6}$$

Similarity condition ($Re_r = Re_m$)

Results. For hydrodynamic similarity to be ensured, the Reynolds number in the model must be equal to that of the prototype:

$$\frac{u_r D_r}{\nu_r} = \frac{u_m D_m}{\nu_m} \tag{7}$$

$$u_m = \frac{u_r D_r}{\nu_r}\,\frac{\nu_m}{D_m} \tag{8}$$

$$u_m = 0.25 \cdot 0.333 \cdot 0.285 \approx 0.023\ m/s$$

ANSYS/CFD Visualization




Fig 1. Velocity visualization in Aorta Bifurcation




Fig 2. Pressure visualization in Aorta Bifurcation

Conclusion. Velocity profile analysis indicates that the flow splits at the bifurcation, with peak velocities ($1.41 \cdot 10^{-2}\ m/s$) shifting towards the inner walls of the branches. Conversely, significant velocity reduction and stagnation zones are observed near the outer walls. These low-velocity regions are hemodynamically susceptible to atherosclerotic plaque accumulation.

The maximum pressure ($6.63 \cdot 10^{-2}\ Pa$) is concentrated directly at the bifurcation apex. This serves as the stagnation point where kinetic energy is converted into peak static pressure, exerting mechanical stress on the vessel wall. A gradual pressure gradient decrease is observed as the flow progresses further into the branched vessels.

REFERENCES

1. Ku, D. N., Giddens, D. P., Zarins, C. K., & Glagov, S. (1985). Pulsatile flow and atherosclerosis in the human carotid bifurcation: Positive correlation between plaque location and low oscillating shear stress. Arteriosclerosis, Thrombosis, and Vascular Biology, 5(3), 293-302.

2. Moore, J. E., Xu, C., Glagov, S., Zarins, C. K., & Ku, D. N. (1994). Fluid wall shear stress measurements in a model of the human abdominal aorta: oscillatory index and atherosclerosis. Atherosclerosis, 110(2), 225-240.

3. Taylor, C. A., & Draney, M. T. (2004). Experimental and computational methods in cardiovascular fluid mechanics. Annual Review of Biomedical Engineering, 6, 13-41.

4. Madatov I., Turaev U. Analysis of Rectangular Plate Bending via Finite Element Method, Integration of Science and Education, no. 33, 2025, p. 125-130.

5. Turaev U., "Study of Cantilever Beam Bending: Theoretical Calculations, Laboratory Experiments and Ansys Simulation." Universal Journal of Technology and Innovation, vol. 3, no. 25, June 2025, p. 103-111.

6. Madatov I., Turaev U. Analysis of Rectangular Plate Bending via Finite Element Method, Republic Scientific and Practical Conference on the Problems of Introducing Digital Technologies and Modern Methods into the Educational Process, Kattakurgan Branch of Samarkand State University, 2025, p. 621.

6-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Turobov To‘lqin Sherzod o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti magistranti
turobovtulqin@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf matematika darslarida o'quvchilarning ijodiy va divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi yoritilgan. An'anaviy reproduktiv ta'limdan voz kechib, muammoli va loyihaviy ta'lim texnologiyalariga o'tish zarurati asoslangan. Shuningdek, J. Polyaning evristik qoidalari hamda J. Gilfordning divergent fikrlash nazariyasi sintezi asosida ishlab chiqilgan "Muammo – Divergent izlanish – Refleksiya" didaktik modelining amaliy samaradorligi hayotiy masalalar yechish misolida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy fikrlash, divergent yondashuv, evristika, 6-sinf, mantiqiy tafakkur, loyihaviy ta'lim, muammoli vaziyat, PISA, GeoGebra.*

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar shaxsni faqatgina bilimlar jamlanmasi bilan qurollantirishni emas, balki unda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni bosh maqsad qilib belgilagan. Xususan, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilarning yodlash qobiliyatini emas, balki olgan matematik bilimlarini nostandart va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish darajasini o'lchaydi. Psixolog va pedagog olimlarning (J. Piaje, L.S. Vigotskiy, V.A. Krutetskiy) tadqiqotlariga ko‘ra, 11-12 yosh (umumta'lim maktablarining 6-sinfiga to'g'ri keladi) o‘quvchilarda aniq-obrazli fikrlashdan mavhum-mantiqiy operatsiyalar bosqichiga o‘tishdagi eng muhim "senzitiv" (ta'sirchan) davr hisoblanadi. Agar ushbu bosqichda matematik masalalar faqat tayyor algoritm va qoliplar asosida yechilaversa, o‘quvchida ijodiy yondashuv so‘nadi va keyingi sinflarda fanga nisbatan qiziqish pasayadi. Shu sababli, 6-sinf matematika darslarida masalalar yechish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi — 6-sinf matematika darslarida masalalar yechish jarayoniga evristik va divergent yondashuvlarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi ilmiy-metodik tizimni yaratish hamda amaliyotda sinab ko'rishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun an'anaviy dars ishlanmalarini qayta ko'rib chiqish va hayotiy muammolarga asoslangan yangi avlod masalalar bazasini yaratish vazifasi belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi va nazariy asoslar. Muammoni o'rganish va metodikani ishlab chiqishda jahon va mahalliy olimlarning fundamental yondashuvlariga tayanildi:

Evristik yondashuv: Amerikalik matematik J. Polyaning masalalar yechishdagi 4 bosqichli modeli (muammoni tushunish, reja tuzish, rejani amalga oshirish va ortga nazar tashlash) asosi qilib olindi. Polya uqtirganidek, tayyor yechimni berish emas, balki "Bu yechimga qanday kelish mumkin edi?" degan savol orqali o'quvchida kashfiyotchilik hissini uyg'otish muhimdir.

Divergent tafakkur nazariyasi: J. Gilford ijodkorlikni yagona to'g'ri yechimga eltuvchi (konvergent) fikrlash bilan emas, balki bitta muammoning ko'plab muqobil yechimlarini izlashga yo'naltirilgan divergent fikrlash orqali o'lchaydi. Biz masalalar shartini aynan shu tamoyilga moslab o'zgartirdik.

Psixologik asos: L.S. Vigotskiyning "Yaqin taraqqiyot zonasi" konsepsiyasiga muvofiq, o'quvchilarga o'zlashtirish darajasidan bir qadam murakkabroq, intellektual zo'riqishni talab etuvchi topshiriqlar berish orqali ijodiy o'sishga erishildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlarimiz davomida biz an'anaviy dars tuzilmasini o'zgartirib, konvergent va divergent yondashuvlarni o'zida birlashtirgan **"Muammo – Divergent izlanish – Refleksiya"** didaktik modelini ishlab chiqdik. Ushbu model dars jarayonida o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Modelning amaliy ishlash mexanizmini quyidagi aniq misollar yordamida ko'rsatish mumkin:

1-misol*: "Eng qulay o'lcham" izlanishi (Geometrik shakllar va yuzalar qismi).* O'quvchilarga an'anaviy "Tomonlari 4 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzasini toping" kabi zerikarli masala o'rniga ochiq tipdagi muammo beriladi: *Vazifa:* "Sizda uzunligi 20 metr bo'lgan panjara bor. Uning yordamida eng ko'p hosil beradigan (yuzasi eng katta bo'lgan) to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ekin maydonini o'rab olishingiz kerak. Tomonlarni qanday tanlaysiz?" *Tahlil:* O'quvchilar turli farazlarni ilgari suradi. 1×9 (yuza 9), 2×8 (yuza 16), 3×7 (yuza 21), 4×6 (yuza 24) va nihoyat 5×5=25. Ijodiy izlanish va taqqoslash orqali o'quvchilar perimetri bir xil bo'lgan barcha to'rtburchaklar ichida eng katta yuzaga kvadrat ega ekanligini mustaqil kashf qiladilar. Bu jarayonda tafakkurning moslashuvchanlik va originallik parametrlari o'sadi.

2-misol*: Hayotiy-loyihaviy masalalar integratsiyasi.* Matematik tushunchalarni reallik bilan bog'lash ijodkorlikning asosidir. Shu maqsadda o'quvchilarga loyihaviy masalalar taqdim etiladi. *Vazifa:* "O'lchami 7×3.5 metr bo'lgan katta xonani qayta ta'mirlash rejalashtirilmoqda. Hech qanday ortiqcha koridorlarsiz, faqatgina bitta umumiy to'siq devor qurish orqali xonani ikkiga (yuvinish va kiyinish xonalariga) eng qulay shaklda qanday ajratish mumkin? Chizmasini chizing va har bir xonaning yuzasini hisoblang." *Tahlil:* Bu turdagi topshiriqlarda o'quvchi fazoviy tasavvurini ishga soladi, to'g'ri burchakli maydonlarni optimal bo'lish, to'siq devor qalinligini mantiqan inobatga olish kabi konvergent va divergent yondashuvlarni bir vaqtda qo'llaydi. V.A. Krutetskiy ta'biri bilan aytganda, o'quvchida "fikrning tejamkorligi" (eng oqilona yo'lni topish qobiliyati) shakllanadi.

Bunday yondashuvlar an'anaviy yozuv doskasi bilan cheklanib qolmay, dars jarayoniga *GeoGebra* kabi dinamik dasturlarni jalb qilishni talab qiladi. Dastur yordamida shakllar o'lchamini o'zgartirganda yuzalar qanday o'zgarishini ko'z bilan ko'rish o'quvchilarning kognitiv qiziqishini keskin oshiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ijodiy fikrlash — tug'ma iste'dod emas, balki to'g'ri va tizimli tashkil etilgan pedagogik jarayonning mahsulidir. 6-sinf matematika darslarida an'anaviy yopiq tipdagi masalalardan voz kechib, evristik suhbatlar va divergent masalalar (shartiga ko'ra ochiq, ko'p yechimli) ulushini oshirish o'quvchilarda muammoga turli nuqtai nazardan yondashish ko'nikmasini, qiyin vaziyatlarda o'z yechimini dadil taklif qila olish erkinligini, matematik modellarni amaliy hayot vositasiga aylantirish malakasini kafolatlaydi. Ishlab chiqilgan metodika umumta'lim maktablari amaliyotiga keng joriy etilsa, o'quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlaridagi (PISA) natijalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzaahmedov M.A., Rahimqoriyev A.A. va boshq. Matematika: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik (1, 2-qismlar). – Toshkent: "O‘qituvchi" NMIU, 2022.
2. To‘rayev X. Matematik mantiq elementlari. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021
3. Shukurov Z.K. Matematikadan masalalar yechishda ijodiy yondashuv metodikasi. (O'quv-uslubiy qo'llanma). – Kattaqo'rg'on, 2023.
4. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – PISA-OECD Publishing. (Xalqaro baholash natijalari bo'yicha eng yangi hisobot).
5. Pólya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. – Princeton, NJ: Princeton University Press, 1945.
6. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – NY: McGraw-Hill, 1967.
7. Krutetskiy V.A. O‘quvchilarning matematik qobiliyatlari psixologiyasi. – M.: Prosveshcheniye, 1968.
8. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2002.

Laplas va Puasson tenglamalari uchun Dirixle masalasini Fur'ye koeffitsiyentlari orqali yechish usullari

Po'latov Baxtiyor Sobirovich, bpsbaxtiyor@gmail.com
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi
Ismatova Adolat Xusan qizi, ismatovaadolat3@gmail.com
matematika ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu ishda Laplas va Puasson tenglamalari uchun Dirixle masalasini yechishning samarali usullaridan biri Fur'ye qatorlari va koeffitsiyentlari asosida yechish usullari tahlil qilinadi. Chegaraviy shartlar yordamida funksiyalarni trigonometrik qatorlarga yoyish orqali analitik yechimlar hosil qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli geometrik sohalarda doira ichida va uning tashqarisida qo'yilgan masalalar uchun yechimlar qurish usullari yoritiladi. Olingan natijalar matematik fizika masalalarini modellashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar. Laplas tenglamasi, Puasson integrali, Dirixle masalasi, Fur'ye koeffitsiyentlari, doira, chegaraviy shartlar.

Kirish. Matematik fizika tenglamalari ko'plab tabiiy va texnik jarayonlarni modellashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, Laplas va Puasson tenglamalari, potensiallar nazariyasi, issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi va suyuqliklar mexanikasida keng qo'llaniladi. Laplas tenglamasi manbasiz muhitdagi muvozanat holatlarni ifodalasa, Puasson tenglamasi esa tashqi ta'sirlar mavjud bo'lgan holatlarni ifodalaydi:

$$\Delta u = 0 \text{ va } \Delta u = f(x)$$

ko'rinishdagi tenglamalarni yechishda analitik usullar ichida Fur'ye qatorlari muhim ahamiyatga ega. Bu usul yordamida chegaraviy shartlar trigonometrik funksiyalar orqali ifodalanib, masalaning yechimi qator ko'rinishda quriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Laplas va Puasson tenglamalari uchun Dirixle masalasini Fur'ye koeffitsiyentlari O'zbekiston matematiklari tomonidan Laplas va Puasson tenglamalari, xususan, Dirixle masalalarini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosan elliptik tipdagi differensial tenglamalarning yechimlari, ularning yagonaligi, mavjudligi va barqarorligi masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot metadologiyasi. Ushbu tadqiqotda Laplas va Puasson tenglamalari uchun qo'yilgan Dirixle masalalarini yechishning analitik usullari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida matematik fizikani masalalarini asos qilib olinib, asosan Fur'ye qatorlari usuliga tayangan holda tahlillar olib borildi.

Tahlil va natijalar.

Dirixle masalasi. **(**D) sohada garmonik bo'lib,

$$u(x) = \varphi(x), x \in S\ (S \in \partial D), \qquad (1)$$

shartni qanoatlantiruvchi $C^0(D \cup S)$ sinfga tegishli bo'lgan $u(x)$ funksiya topilsin, bunda $\varphi(x) -$ S da berilgan uzluksiz funksiya.

Doirada Dirixlening ichki masalasi. $x^2 + y^2 < R^2$ doirada $\Delta u(x, y) = 0$ Laplas tenglamasini hamda $u(x, y)|_{r=R} = \psi(x, y)$ chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi ichki Dirixle masalasi yechimi ushbu qator yig'indisi ko'rinishida ifodalanadi:

$$u(x, y) = \sum_{k=0}^{\infty} r^k (a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi). \qquad (2)$$

Bunda $|z| = r, \varphi = argz, a_k, b_k -$ haqiqiy o'zgarmas sonlar. (2) dan va chegaraviy shartdan $r = R$ aylana ustida qutb koordinatalarga o'tib, $cosk\varphi$ va $sink\varphi$ lar oldiadgi koeffitsiyentlarni tenglashtirib, a_k va $b_k$koeffitsiyentlarni topamiz:

Dirixlening tashqi masalasi. $x^2 + y^2 = r^2 \le R^2$ doira tashqarisida

$$\Delta u(x, y) = 0, \ \ R < r < \infty$$

tenglamaning $u(x, y)|_{r=R} = \psi(x, y), \quad |u(x, y)| < \infty,$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini qutb koordinatalarida

$$u(r,\varphi)=\sum_{k=0}^{\infty} r^{-k}\,(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi) \qquad (3)$$

ko‘rinishda bo‘ladi. Bunda a_k, b_k koeffitsiyentlar chegaraviy shartdan topiladi. Ayrim hollarda Dirixle masalasini yechishda taqqoslash usulidan foydalanib bo‘lmaydi. Shuning uchun bu hollarda Dirixlening doira uchun ichki va tashqi masalasining yechimini mos ravishda quyidagi

$$u(r,\varphi)=\sum_{k=0}^{\infty} \left(\frac{r}{R}\right)^{k}(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi) \qquad (4)$$

va

$$u(r,\varphi)=\sum_{k=0}^{\infty} \left(\frac{r}{R}\right)^{-k}(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi) \qquad (5)$$

ko‘rinishlarda izlash mumkin, bu yerda a_k, b_k koeffitsiyentlar

$$a_0=\frac{1}{2\pi}\int_0^{2\pi}\psi(\varphi)d\varphi,\quad a_k=\frac{1}{\pi}\int_0^{2\pi}\psi(\varphi)cosk\varphi d\varphi,$$

$$b_k=\frac{1}{\pi}\int_0^{2\pi}\psi(\varphi)sink\varphi d\varphi \qquad (6)$$

formulalar yordamida topiladi.

Dirixlening doira uchun ichki masalasining yechimini quyidagi

$$u(r,\varphi)=\frac{1}{2\pi}\int_0^{2\pi}\frac{R^2-r^2}{R^2-2rRcos(\varphi-\alpha)+r^2}\psi(\alpha)d\alpha,(r<R) \qquad (7)$$

Puasson integrali ko‘rinishda topish mumkin.

Dirixlening doira uchun tashqi masalasining yechimini quyidagi

$$u(r,\varphi)=\frac{1}{2\pi}\int_0^{2\pi}\frac{r^2-R^2}{r^2-2rRcos(\varphi-\alpha)+R^2}\psi(\alpha)d\alpha,(r>R) \qquad (8)$$

ko‘rinishda Puasson integrali orqali topish mumkin. Hosil bo‘lgan yechimlarni yana Dekart koordinatalar sistemasiga o‘tkazish mumkin.

Misol-1. R radiusli $x^2+y^2=r^2<R^2$ doirada ushbu Dirixle masalasini yeching:

$$\Delta u(x,y)=0,\ \ 0\le r<R,\qquad r=R.$$

$$u(x,y)|_{r=R}=2(x^2+y).$$

Yechish. $u(x,y)$ garmonik funksiya $|z|<R$ doira ichida ushbu qator yig‘indisi ko‘rinishida ifodalanadi:

$$u(x,y)=\sum_{k=0}^{\infty} r^k(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi)$$

bunda $|z|<r$, $\varphi=argz$, a_k, b_k – haqiqiy o‘zgarmas sonlar. (2) dan va chegaraviy shartdan $r=R$ aylana ustida qutb koordinatalarga o‘tamiz, ya’ni

$$x=rcos\varphi, y=rsin\varphi, 0\le r<\infty, 0\le\varphi\le 2\pi,$$

$$u(x,y)|_{r=R}=2((rcos\varphi)^2+rsin\varphi)|_{r=R}=R^2+R^2cos2\varphi+2Rsin\varphi$$

$$=\sum_{k=0}^{\infty}R^k(a_k cosk\varphi+b_k sink\varphi)$$

tenglikni hosil qilamiz. Bu tenglikdan $cosk\varphi$ va $sink\varphi$ lar oldidagi koeffitsiyentlarni tenglashtirib a_k, b_k koeffitsiyentlarni topamiz:

$$a_0=R^2, a_1=0, a_2=1, a_3=0=\cdots=0, b_1=2, b_0=b_2=0\ldots=0$$

bularni (2) ga qo‘yib, masala yechimini olamiz:

$$u(x,y)=R^2+x^2-y^2+2y.$$

Misol-2. R radiusli $x^2+y^2=r^2\le R^2$ doirada ushbu Dirixli masalasini yeching:

$$\Delta u(x,y)=0, R<r<\infty;$$

$$u(x,y)|_{r=R}=2x^2-x+y.\quad |u(x,y)|<\infty$$

Yechish: Dirixlening tashqi masalasi yechimini qutb koorditalarida

$$u(r,\varphi)=\sum_{k=0}^{\infty} r^{-k}(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi)$$

ko‘rinishda izlaymiz. Demak, masala sharti va $x=rcos\varphi$, $y=rsin\varphi$ ga asosan

$$u(r,\varphi)|_{r=R} = \sum_{k=0}^{\infty} r^{-k}(a_k cosk\varphi + b_k sink\varphi) = 2R^2 cos^2\varphi - Rcos\varphi + Rsin\varphi$$

ni hosil qilamiz. Daraja pasaytirish formulalaridan foydalanamiz:

$$u(R,\varphi) = 2R^2 cos^2\varphi - Rcos\varphi + Rsin\varphi == 2R^2\left(\frac{1+cos2\varphi}{2}\right) - Rcos\varphi + Rsin\varphi =$$
$$= R^2 + R^2 cos2\varphi - Rcos\varphi + Rsin\varphi$$

$$u(R,\varphi) = \frac{a_0}{2} + \sum_{n=0}^{\infty}\left(\frac{R}{r}\right)^n (a_n cosn\varphi + b_n sinn\varphi) = R^2 + R^2 cos\varphi - Rcos\varphi + Rsin\varphi$$

ni hosil qilamiz. Bundan noma'lum koeffitsiyentlarni quyidagicha
$a_0 = 2R^2, a_1 = -R, a_2 = -R^2, a_3 = 0 = \cdots = 0, b_1 = R, b_0 = b_2 = 0 \ldots = 0$
aniqlaymiz. Demak, (3) ga ko'ra qo'yilgan masala yechimini quyidagicha topamiz:

$$u(R,\varphi) = R^2 - \frac{R^2}{r}cos\varphi + \frac{R^2}{r}sin\varphi + \frac{R^4}{r^2}cos2\varphi$$

Bundan Dekart koordinatalariga o'tsak, ushbu yechimni hosil qilamiz:

$$u(x,y) = R^2 - \frac{R^2 x}{x^2+y^2} + \frac{R^2 y}{x^2+y^2} + \frac{R^4(x^2-y^2)}{(x^2+y^2)^2}.$$

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Laplas va Puasson tenglamalari uchun Dirixle masalasini Fur'ye koeffitsiyentlari orqali yechish usullari, Laplas va Puasson tenglamalari uchun Dirixle masalalarini yechish, yechimlarni tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zikirov O.S "Matematik fizika tenglamalari". Toshkent, " Fan va texnologiya" 2017, 320 b.

2. Salohiddinov M.S. Matematik fizika tenglamalari, T. «O'zbekiston», 2002, 448 b.

MAKTAB MATEMATIKA DARSLIKLARIDA ANIQ INTEGRAL TUSHUNCHASINING BERILISHI VA O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHIDAGI METODIK MUAMMOLAR
(11-sinf matematika kursi misolida)

Zokirova Dinora Zohid qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Magistranti
zokirovadinora86@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 11-sinf matematika darsliklarida aniq integral mavzusining o'qitilish uslubi va mazmuni, shuningdek, dunyo tan olgan metodist olimlar G.I.Gleyzer, D.Poya va A.G.Mordkovichning vizual yondashuvlari tahlil qilinadi. GeoGebra dasturida parametrli boshqaruv yordamida Riman yig'indilarini modellashtirish orqali o'quvchilarda aniq integral mavzusiga oid kognitiv bloklardan xalos bo'lish metodikasi taklif etiladi. Kattaqo'rg'on shahar maktablarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari vizuallashtirilgan ta'lim jarayonining o'quvchilar mantiqiy salohiyatini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: Aniq integral, Riman yig'indisi, GeoGebra, kognitiv blok, Nyuton-Leybnits formulasi, dinamik modellashtirish.*

Kirish: Aniq integral tushunchasi matematik analiz asoslarining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uni o'rganish nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchida matematik tafakkur uzviyligini shakllantiradi. Arximedning "Kvadraturalar" asaridan tortib, Leybnits va Nyutonning differensial hisobigacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyani o'rganish o'quvchida integralning sun'iy emas, balki hayotiy ehtiyojdan tug'ilganini anglatadi.**G.I. Gleyzer (1983)**

ta’kidlaganidek, matematik tushunchalarni ularning genetik rivojlanishi va tarixiyligi bilan bog‘lash o‘rganuvchida fanning jonli manzarasini shakllantiradi. **Poya (1976)** yondashuviga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor aksioma sifatida emas, balki “matematik kashfiyot” jarayonining natijasi sifatida o‘zi izlab topishi va mantiqiy xulosalar orqali qabul qilishi lozim. Hozirgi kunda maktab ta’limidagi dolzarb muammolardan biri o‘quv jarayonida ushbu yondashuvning yetishmasligi va buning oqibatida o‘quvchilarning mavzuni faqat imtihon topshirish uchun formula sifatida yodlashiga olib kelmoqda.Integral shunchaki formula sifatida mexanik hisoblanadigan tushuncha emas,balki yuzalarni hisoblash, fizika, iqtisodiyot va muhandislik sohalaridagi o‘zgaruvchan jarayonlarni modellashtirishning asosi ekanligi dars jarayonida ustuvor bo‘lishi kerak, bu jarayonda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, GeoGebra dasturi o‘quvchilarda matematik tasavvurlarini “jonlantirish”ga sezilarli darajada yordam berishi mumkin.

Asosiy qism: Amaldagi darsliklar tahlili va metodik bo‘shliqlar. Amaldagi 11-sinf matematika darsliklarida (M.A.Mirzaahmedov va boshq., 2018) aniq integral bo‘limi ma’lum darajada tizimlashtirilgan bo‘lib, asosan Nyuton-Leybnits formulasi orqali algebraik hisoblashlarga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda, ham ijobiy metodik jihatlar, ham zamonaviy talablar darajasidagi kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Darslikning metodik afzalligi shundaki, mavzu boshlang’ich funksiya tushunchasi bilan uzviy bog’langan holda, keng ko‘lamli amaliy masalalar va tizimli mashqlar orqali o‘quvchilarda integralni standart hisoblash texnikasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Lekin ushbu jarayon o‘quvchilarda quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

Vizuallashtirish va mantiqiy bo‘shliq: A.G. Mordkovich (2010) ta’kidlaganidek, integral tushunchasi avval vizual grafik modellar, ya’ni egri chiziqli trapetsiya yuzi sifatida kiritilsa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Biroq amaldagi maktab darsliklari yondashuvida analitik hisoblashlar mantiqiy asoslardan o‘zib ketgan, bu esa ko‘plab o‘quvchilarda integral belgisini ko‘rganda cheksiz kichik bo‘laklarni yig‘ish mohiyatini emas, shunchaki algebraik amalni tasavvur qilishiga olib kelmoqda.

Akademik uzviylikning zaifligi: A. Sa’dullayev (1993) va O‘. Toshmetov (2015) kabi oliy ta’lim darsliklarida integral tushunchasi Riman yig‘indilari limiti sifatida kiritiladi. Maktab darsliklarida ushbu mantiqiy zanjirning tushib qolishi bitiruvchilarda OTMda oliy matematikani o‘zlashtirishida kognitiv qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Dinamik modellashtirishning cheklanganligi: G.I. Saransov (2006) nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi jarayonni dinamik ko‘ra olmasa, uning mohiyatini to‘liq anglamaydi. Pedagogik kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 65% foizi integralni texnik jihatdan to‘g’ri hisoblay olsalar-da, integrallash chegaralarining geometrik va fizik ahamiyatini tushuntirishda qiynalmoqdalar.

Slayder parametrlarini kiritish va sozlash: Dasturning buyruqlar satriga n = Slider(1, 100, 1) buyrug‘i kiritiladi. Bu slayder orqali o‘quvchi [a, b] kesmasining bo‘linishlar sonini bevosita boshqaradi va quyidagi didaktik vazifalarni amalga oshiradi:

n = 1 (Minimal qiymat): Kesmani bitta butun bo‘lak deb qarash (bunda hisoblash xatoligi eng yuqori darajada bo‘ladi).

n = 100 (Maximal qiymat): Kesmani yuzta mayda bo‘lakka bo‘lish (yuzaning aniqlik darajasi maksimal darajaga yetadi).

Qadam (1): O‘quvchi slayderni surish orqali funksiya grafigi ostidagi sohaning to‘rtburchaklar bilan qanday to‘lib borishini bosqichma-bosqich kuzatadi.

Riman yig‘indilarini shakllantirish va limitik o‘tish: O‘quvchiga integralning mohiyatini tushuntirish uchun Darbu yig’indilari yordamida Riman integraliga yaqinlashish metodikasidan foydalanish samaraliroqdir. Bu jarayon quyidagi mantiqiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Quyi Darbu yig‘indisi (L): LowerSum(f, a, b, n) buyrug‘i orqali egri chiziqli trapetsiya ichiga chizilgan to‘rtburchaklar majmuasi ko‘rsatiladi.


Yuqori Darbu yig‘indisi (U): UpperSum(f, a, b, n) buyrug‘i orqali grafikni tashqaridan qoplagan to‘rtburchaklar yig‘indisi shakllantiriladi.

Slayder harakatlantirilganda o‘quvchi quyidagilarni vizual kuzatadi:


n ortishi bilan quyi yig‘indi ortib, yuqori yig‘indi kamayib boradi.

Bu ikki yig‘indining farqi (xatolik) nolga intilishi o‘quvchida aniq integralning mavjudligi haqida mantiqiy xulosa shakllantiradi.


1, 2, 3 - rasmlarda slayder yordamida bo‘linishlar soni 8, 47, 100 bo‘lgandagi holat misolida bo‘linishlar soni ortishi bilan grafik ostidagi soha yuzi va uni qoplovchi to‘rtburchaklar yuzalari orasidagi farq qanchalik kamayib borishi ko‘rinadi:



1-rasm. Slayder yordamida bo‘linishlar soni 8 bo‘lgandagi holat



2-rasm. Slayder yordamida bo‘linishlar soni 47 bo‘lgandagi holat



3-rasm. Slayder yordamida bo‘linishlar soni 100 bo‘lgandagi holat

Xulosa: Ushbu tadqiqot doirasida GeoGebra dasturining aniq integralni o‘qitishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida Kattaqo‘rg‘on shahridagi maktablarda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajribada 11-sinf o‘quvchilari ikki guruhga: nazorat (an’anaviy darslik asosida) va tajriba (GeoGebra orqali vizuallashtirilgan metodika) guruhlariga ajratildi.

Ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili: Pedagogik kuzatishlar va test natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy darsliklar bilan ishlagan nazorat guruhida o‘quvchilarning 67% foizi integralni texnik jihatdan hisoblay olsa-da, uning geometrik mohiyatini tushuntirishda kognitiv qiyinchiliklarga duch kelishdi. Aksincha, tajriba guruhida quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

Vizuallashtirish darajasi: Slayderlar yordamida bo‘linishlar soni (n) ortishi bilan Darbu yig‘indilarining aniq integralga intilishini kuzatish o‘quvchilarda "cheksiz kichik miqdorlar yig‘indisi" haqidagi tasavvurni 40% ga oshirdi.

Mantiqiy uzviylik: Riman yig‘indilari limiti tushunchasini dinamik modellashtirish orqali o‘quvchilarda oliy ta’lim darsliklarida beriladigan akademik darajaga tayyorgarlik shakllandi.

Xatolikni anglash: Quyi (L) va yuqori (U) Darbu yig‘indilari farqining nolga intilishini vizual ko‘rish o‘quvchilarga integralning mavjudlik shartini mantiqiy xulosa qilishga yordam berdi. Tajriba-sinov natijalari shuni tasdiqladiki, integralni shunchaki algebraik formula (Nyuton-Leybnits) sifatida emas, balki dinamik jarayon sifatida o‘qitish o‘quvchilarning mantiqiy salohiyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa amaldagi metodik bo‘shliqlarni to‘ldirish va o‘quvchilarni “matematik kashfiyot” jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzaahmedov M.A. va boshq. Matematika: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2018. – 256 b.

2. Pirimov A., Ochilov Z. Aniq integral va uning iqtisodiyotda qo‘llanilishi. // *Central Asian Journal of Education and Innovative Research (CAJEI)*. – 2025. – №4(2). – B. 45–52.

3. Sa’dullayev A. va boshq. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami. – Toshkent: "O‘zbekiston", 1993. – 320 b.

4. Toshmetov O‘. va boshq. Matematik analiz. 1-qism. OTM uchun darslik. – Toshkent: "Tafakkur", 2015. – 412 b

5. Глейзер Г. И. История математики в школе: Пособие для учителей. — Москва: "Просвещение", 1983. — 351 с.

6. Мордкович А. Г. Алгебра и начала математического анализа. 10-11 классы. В 2 ч. Учебник для учащихся общеобразовательных учреждений. — Москва: "Мнемозина", 2010. — 399 с.

7. Пойа Д. Математическое открытие. Решение задач: основные понятия, изучение и преподавание. — Москва: "Наука", 1976. — 448 с.

8. Саранцев Г. И. Обучение математическим доказательствам в школе. — Москва: "Владос", 2006. — 183 с.

9. Gurmu, F., et al. Effects of GeoGebra-assisted instructional methods on students' conceptual understanding of Calculus. // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11, Issue 1. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2334515.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKA FANINI MOBIL DASTURLARDAN FOYDALANIB O‘QITISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Sardor Raximbergan o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi o‘qituvchisi
*qodirov.sardor@urdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini mobil dasturlar asosida o‘qitishning samaradorligi va metodik jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda mobil ilovalar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish, virtual laboratoriyalarni qo‘llash hamda talabalarning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Natijalar mobil texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar ta’lim sifatini oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Mobil ta’lim, fizika, virtual laboratoriya, interaktiv platforma, kreativ fikrlash, simulyatsiya.*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mobil qurilmalar orqali ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Fizika fanini o‘qitishda mobil dasturlardan foydalanish murakkab jarayonlarni vizual va interaktiv tarzda tushuntirishga yordam beradi.

Metodologiyasi. Fizika ta'limida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash o'quv jarayonini faollashtirish va talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning strategik yo'nalishi hisoblanadi. Zamonaviy interaktiv platformalar, jumladan mobil ilovalar va simulyatsiya dasturlari, abstrakt fizik tushunchalarni vizualizatsiya qilish, dinamik modellar yaratish va bilimlarni o'zlashtirish samarasini oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv reproduktiv ta'limdan produktiv, innovatsion faoliyatga o'tishni ta'minlovchi didaktik mexanizm bo'lib xizmat qiladi.


Taqdim etilgan infografikada zamonaviy fizik-didaktik paradigmaning kompleks bosqichlari batafsil tasvirlangan:

1. Nazariy bilimlarni kognitiv o'zlashtirish: Interaktiv animatsiyalar, grafiklar va vizual modellar murakkab fizik jarayonlarning mohiyatini chuqur tushunishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

2.Virtual laboratoriya tajribalari orqali eksperimental ko'nikmalarni rivojlantirish: Talabalar turli parametrlarni manipulyatsiya qilish, tajriba natijalarini kuzatish va analitik tahlil qilish orqali nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'liqligini anglaydilar, analitik va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradilar.

3. Bilimlarni mustahkamlash va mustaqil yechimlar izlash: Interaktiv testlar, noodatiy masalalar va topshiriqlar talabalarni o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishga, xatolarini tahlil qilishga va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga undaydi.

4. Avtomatik baholash va natijadorlik tahlili: Tezkor baholash tizimlari o'quv jarayonini monitoring qilish, talabaning bilim darajasini real vaqt rejimida aniqlash va ilmiy asoslangan farazlar ilgari surish qobiliyatini baholash imkonini beradi, bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.



Mobil ilovalar va interaktiv dasturiy vositalar (PhET, MATLAB/Simulink) fizika ta'limida quyidagi didaktik vazifalarni hal etishga xizmat qiladi:

Dinamik vizualizatsiya: Fizik jarayonlarni real vaqt rejimida namoyish etish va parametrlarini o'zgartirish orqali ularni chuqurroq o'rganish.

Virtual tajribalar: Murakkab yoki real sharoitda o'tkazish imkonsiz bo'lgan tajribalarni virtual muhitda simulyatsiya qilish va natijalarini tahlil qilish.

Masofaviy ta'limni tashkil etish: Internet orqali o'quv materiallariga kirish va virtual laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatini yaratish.

Bilimni operativ baholash: Interaktiv testlar va topshiriqlar yordamida talabalarning bilimlarini tezkor va xolis baholash. Xulosa qilib aytganda, interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan fizika ta'limi talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalashda muhim didaktik omil bo'lib xizmat qiladi. Taqdim etilgan infografika ushbu jarayonning turli bosqichlarini yaqqol tasvirlab beradi.

Mobil dasturiy majmualar asosida fizika fanini o‘qitish - bu shunchaki texnik vositadan foydalanish emas, balki talabaning kognitiv faolligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks didaktik tizimdir.

Mobil platformalar o‘quv jarayonini chiziqli ko‘rinishdan dinamik ko‘rinishga o‘tkazadi:

Vizual-kognitiv tushuntirish: Abstrakt fizik qonuniyatlar (masalan, kvant mexanikasi yoki termodinamika jarayonlari) animatsiya va dinamik grafik modellar orqali vizuallashtiriladi. Bu talabada "ko‘rish-idrok etish-anglash" zanjirini mustahkamlaydi.

Virtual-eksperimental bosqich: Virtual laboratoriyalar real uskunalarni almashtiribgina qolmay, balki xavfli yoki o‘ta tez/sekin kechadigan jarayonlarni xavfsiz va boshqariladigan muhitda modellashtirish imkonini beradi.

Interaktiv-applikativ mustahkamlash: Nazariy bilimlar muammoli topshiriqlar va situatsion masalalar orqali amaliy ko‘nikmaga aylantiriladi.

Monitoringsiz diagnostika: Avtomatlashtirilgan tizimlar talabaning o‘zlashtirish trayektoriyasini real vaqt rejimida tahlil qilib, o‘qituvchiga differensial yondashuv uchun tayyor ma'lumot taqdim etadi.

Mobil dasturlar quyidagi zamonaviy metodlarni samarali amalga oshirish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi:

Muammoli o‘qitish: Talabaga tayyor yechim emas, balki simulyatsiya ichida muammoli vaziyat beriladi (masalan, zanjirdagi qarshilik o‘zgarganda kuchlanishning kutilmagan o‘zgarishi).

Loyiha asosida o‘qitish: Talabalar mobil ilovalar yordamida kichik ilmiy tadqiqotlarni mustaqil rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Individual va differensial trayektoriya: Dastur har bir talabaning o‘zlashtirish tezligiga moslashib, unga individual murakkablikdagi topshiriqlarni generatsiya qiladi.

Tadqiqot natijalari va pedagogik samaradorlik

Ilmiy-pedagogik eksperimentlar natijasida mobil texnologiyalar qo‘llanilgan guruhlarda quyidagi ijobiy korrelyatsiya kuzatildi:

Ko‘rsatkichlar	**An’anaviy ta’lim**	**Mobil-interaktiv ta’lim**
O‘zlashtirish koeffitsienti	O‘rtacha	Yuqori (20-30% o‘sish)
Kreativ fikrlash	Cheklangan	Yuqori (Nostandart yechimlar)
Mustaqil ishlash	Kam	Tizimli va doimiy
Motivatsiya	Tashqi (baho uchun)	Ichki (qiziqish va izlanish)

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mobil dasturlar asosida fizika fanini o‘qitish oliy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mobil ilovalar orqali fizik jarayonlarni vizual modellashtirish, virtual laboratoriya tajribalarini bajarish hamda avtomatlashtirilgan baholashni tashkil etish talabalarning bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mobil texnologiyalar talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularning kreativ va analitik fikrlashini faollashtiradi hamda darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan mobil dasturlar asosidagi ta’lim yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi. Shu bois, fizika fanini o‘qitishda mobil dasturlarni keng joriy etish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wang Y., Liu W., Yu X., Li B., Wang Q. The impact of virtual technology on students’ creativity: A meta-analysis // *Computers & Education*. - 2024. - Vol. 215. - Art. 105044.

2. Álvarez-Siordia F.M., Merino-Soto C., Rosas-Meléndez S.A. Simulators as an innovative strategy in the teaching of physics in higher education // *Education Sciences*. - 2025.- Vol. 15, No. 2. - Art. 131.

3. Rizki I.A., Mirsa F.R., Islamiyah A.N. Ethnoscience-enhanced physics virtual simulation and augmented reality with inquiry learning // *Thinking Skills and Creativity*. - 2025. - Art. 101846.
4. Banda H.J., et al. The impact of Physics Education Technology (PhET) interactive simulations-based learning on students' motivation and achievement // *Scientific Reports*. - 2022. - Vol. 12.
5. Sellberg C., et al. Virtual laboratories in STEM higher education: A scoping review // *Nordic Journal of STEM Education Research*. - 2024.
6. Radić N., et al. Mobile learning in higher education: Opportunities and challenges // *Sustainability*.- 2023. - Vol. 15.
7. Crompton H., Burke D. The use of mobile learning in higher education: A systematic review // *Computers & Education*. - 2020. - Vol. 145.

LYCIUM TURKUMINING AMINOKISLOTA TARKIBINI O‘RGANISH

Sh.R. Mamarajabova, M.T. Egamberdiyeva, I.E. Orifova, A.B. Yusupov
Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Samarqand, Uzbekiston
E-mail: ayusupov.chem@gmail.com

Annotatsiya. Lycium (Solanaceae oilasi) turkumi taxminan 80 turni o‘z ichiga oladi, ular asosan Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, mo‘tadil Yevropa mamalakatlari va Osiyoda tarqalgan. Ishda Lycium turkumining 4 ta turi misolida birlamchi o‘simlik matabolitlari – proteinogen □-aminokislotalar tarkibi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Lycium, aminokislota, meva, ekstraksiya, barbarum, dipressum.

Lycium turkumi vakillari tarkibidagi kimyoviy faol birikmalari hisobiga tibbiyot va xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega. Lycium turkumi vakillari pnevmoniyada isitmani tushiruvchi vosita sifatida, tungi terlash, yo‘tal, yallig'lanish va diabetni davolashda foydalaniladi [1]. *Lycium depressum*ning barglaridan tayyorlangan ekstrakt yara va jarohatlarni oson bitishiga yordam beradi [2]. Turkum turlari kimyoviy tarkibiga qiziqish natijasida turli sinflarga mansub 355 ta birikma ajratib olingan [3]. Birikmalarni aminokislotalar, alkaloidlar, amidlar, peptidlar, flavonoidlar, kumarinlar, lignanlar, terpenoidlar, sterollar va steroidlarning turli sinflariga, organik kislotalar va ularning hosilalariga, polisaxaridlarga, karotinoidlarga, ozuqa moddalariga va efir moylariga kiritish mumkin.

L. barbarum mevalari va barglarida 18 ta □-aminokislota topilgan. *L. barbarum* mevalarida esa aminokislota hosilalari taurin va GABA (□-aminomoy kislota) ham mavjud. *L. chinense* mevalarida 19 ta aminokislota, jumladan 17 ta □-aminokislota, taurin va GABA topilgan. *L. chinense* barglarida ham 19 ta aminokislota mavjud. Mevadan farqli ravishda barglarda glutamin, valin va nikotianamin (yangi aminokislota, ya’ni N-[N-(3-amino-3-karboksipropil)-3-amino-3-karboksipropil]azetidin-2-karbon kislota) ham uchraydi. *L. ruthenicum* mevalari tarkibida 17 ta aminokislota aniqlangan [3]. *L. depressum* mevalari tarkibida 20 ta proteinogen □-aminokislota aniqlandi. Meva tarkibida lizin, arginn va gistidin kabi asosli aminokislotalar miqdori qolganlarga nisbatan sezilarli miqdorda kam (1-jadval).

Ushbu oilaga mansub *L. barbarium, L.Chinense* va *L.ruthenicum* atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, *L. depressum* kimyoviy tarkibi bo‘yicha ma’lumotlar adabiyotlarda birmuncha kam uchraydi. Shu bois, *L. depressum* turli qismlari, ayniqsa mevalari kimyoviy tarkibini o‘rganish taqozo etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining janubiy hududlarida tabiiy holda o‘sgan gojining yetilgan mevalari sentyabr oyida terildi. Olingan mevalar xona haroratida davomida quritildi. Quritilgan xom-ashyo kukun holigacha maydalandi. O‘simlik materiali 70% etanolda ekstraksiya qilindi. Suv-spirtli aralashma bug‘latildi va qolgan qoldiqqa qaynoq suv qo‘shildi. Aralashma sovugacha

filtrlandi, subnatant qutbsiz birikmalarni ajratish uchun xloroform bilan ekstraksiya qilindi. Qolgan suvli faza geksanda, etilasetatda hamda *n*-butanolda ekstaksiya qilindi.

1-jadval

Lycium turlarining aminokislota tarkibi

T/r	*L. barbarum*	*L. chinense*	*L. ruthenicum*	*L. depressum*
1	glitsin	glitsin	glitsin	glitsin
2	alanin	alanin	alanin	alanin
3	valin		valin	valin
4	leysin	leysin	leysin	leysin
5	izoleysin	izoleysin	izoleysin	izoleysin
6	sistin	sistein	sistin	sistin
7	metionin	metionin	metionin	metionin
8	serin	serin	serin	serin
9	treonin	treonin	treonin	treonin
10	fenilalanin	fenilalanin	fenilalanin	fenilalanin
11	tirozin	tirozin	tirozin	tirozin
12	asparagin kislota	asparagin kislota	asparagin kislota	asparagin kislota
13	glutamin kislota	glutamin kislota	glutamin kislota	glutamin kislota
14	lizin	lizin	lizin	lizin
15	arginin	arginin	arginin	arginin
16	gistidin	gistidin	gistidin	gistidin
17	triptofan	triptofan		triptofan
18	prolin	prolin	prolin	prolin

Yuqoridagi erituvchilar yordamida olingan etilasetat va *n*-butanolli fraksiyalar tarkibidagi birikmalar ustunli xromatografiya usulida ajratildi. Barcha fraksiyalardan tayyorlangan namunalar biologik tekshiruvlar uchun topshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qian D. et al. Systematic review of chemical constituents in the genus Lycium (Solanaceae) //Molecules. – 2017. – T. 22. – №. 6. – C. 911.

2. Naji S. et al. The extract of Lycium depressum stocks enhances wound healing in streptozotocin-induced diabetic rats //The International Journal of Lower Extremity Wounds. – 2017. – T. 16. – №. 2. – C. 85-93.

3. Yao X. et al. Phytochemical and biological studies of Lycium medicinal plants //Chemistry & Biodiversity. – 2011. – T. 8. – №. 6. – C. 976-1010.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA QOLDIQLI BO‘LISHNI O‘RGATISH METODIKASI

Islomova Shohsanam Faxriddin qizi[1]

[1]Navoiy innovatsiyalar universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi

Ilmi rahbar: Amirov Ikrom Nurali o‘g‘li[2]

[2]“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.

amirovikrom191093@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini oshirish, o‘quvchilarda qoldiqli bo‘lish amali haqida dastlabki tushunchalarni berish va mavzuni

bosqichma-bosqich o‘rgatish usullari bayon etiladi. Shuningdek, turli ko‘rgazmali vositalar, o‘yinli mashg‘ulotlar va amaliy mashqlar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va hisoblash malakasini oshirish kerakligi ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qoldiqli bo‘lishni o‘ragatishdan oldin ularda arifmetikasning asosiy ‘‘to‘rt amallar’’ini yaxshi bilishi kerakligi tekshirib olinadi va qoldiqli bo‘lishni o‘quvchilarga oddiyroq, sodda usulda o‘rgatilishi kerakligi aytiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘linma, bo‘luvchi, ko‘patirish, qoldiqli bo‘lish, metod, o‘quv materiallari, o‘quv darsliklar, tafakkur, ijodiy fikrlash, to‘rt amal.

Аннотация. В данной статье описываются методы повышения математической грамотности учащихся начальной школы, дающие им начальное представление о практике вычисления остатков и поэтапное обучение предмету.

Кроме того, с помощью различных наглядных пособий, игр и практических упражнений предполагается улучшить навыки самостоятельного мышления и счёта учащихся.

Перед знакомством учащихся начальной школы с понятием остатков проводится тестирование на знание основных «четырёх действий» арифметики. Считается, что изучение остатков следует проводить более простым и доступным способом.

Ключевые слова: деление, делетель,умножение, остаток, метод, учибные материалы, учибники, мышление, творческое мышленение.

Annotation. This article describes the methods of improving the mathematical literacy of elementary school students, providing students with initial understanding of the practice of remainders, and teaching the subject step by step.

Also, with the help of various visual aids, games and practical exercises, it is expected to improve students' independent thinking and calculation skills.

Before elementary students are introduced to remainders, they are tested to know the basic ‘‘four operations’’ of arithmetic, and it is said that remainders should be taught in a simpler, simpler way.

Keywords: division, multiplication, remainder, method, educational, materials, textbooks, thinking, creative thinking.

2020-yil mamlakatimizdagi ,,Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinib, bu boradagi ustuvor maqsadlar belgilandi. Yurtimizda avvaldan shakllangan ilmiy maktablar salohiyatini hisobga olib, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taqqiyotimiz yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, shu yil ,,Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun qabul qilindi. Bunda mamlakatimizdagi ta’lim tizimini yanada rivojlantirish samaradorligini oshirish hamda sifatini yaxshilash ko‘zda tutilgan. ,,Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko‘rsatib o‘tilganidek har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga muhum vazifalarni qo‘ymoqda[1]. Bu asosiy vazifalardan biri o‘qtishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlash, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirini jaddalashtirishdan iborat. O‘qitishning mazmuni va o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etadigan u yoki bu o‘quv varianti uchun eng samarali usullarini qo‘lashni bilishi, darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik matematika tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematikani o‘qitish metodikasi bo‘yicha umumiy psixologik-pedagogika bilan uzviy bog‘lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Boshlang‘ich matematika kursi, bir tomondan bilimlarning boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalarning aqliy salohiyatli rivojlanishiga yordam beradi. Shuni aytib o‘tish joizki, Xalqaro baholash dasturlaridan biri PISA tatqiqotlarida ,,Matematik savodxonlik” yo‘nalishi ustuvor etib belgilangan bo‘lib, matematik savodxonlik: insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishi tekshiriladi[2].

Boshlang‘ich sinflarda matematika darsiga tayyorlash: misol va masalalar yechishda foydalanadigan ko‘rgazmalar yoziladi.

Darsning mazmuniga ko‘ra: o‘rganiladigan materialning puxtaligi va tushunilish darajasi, ish jarayonida o‘quvchilarning yetarlicha vazifa bilan ta’minlanganligi;

o‘quvchilar faoliyatini ijodiylikka yo‘naltirish o‘quv materialini shuningdek, ish metodini va usullarini tanlash o‘quvchilarning yoshi, ulardagi bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini hisobga olish eng muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich maktab matematika darsligida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tanlangan g‘oyaga ko‘ra ma’lum mavzu bo‘yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o‘quvchining bu mavzuni faqat o‘zlashtirilganligi haqida emas, balki, uni to‘la aniqlangan darajada o‘zlashtirilganligi haqida ham guvohlik beradi. Har bir darsdan turli xil didaktik maqsadlar ko‘zlanishi sababi ular orasida bittasi bosh maqsad bo‘lib hisoblanishidir.

Boshlang‘ich sinflarda arifmetikaning to‘rt amallarni bajarish talablarining o‘quvchilar tomonidan bajarilishi ularning qoldiqli bo‘lishni tushunishlarini osonlashishiga yordam beradi. Qoldiqli bo‘lishni o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin ularni ko‘paytirish, bo‘lish va ayrish amallarini yaxshi bilish darajasini sinovdan o‘tkazib olishimiz kerak, chunki bu mavzular bir-biriga chambarchas holda bog‘langan, o‘quvchilarga bo‘lish va ko‘paytirish amallariga bog‘liq quyidagi misollarni taqdim etamiz:

1. Ikki xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish:

$$13 \cdot 4 = 10 \cdot 4 + 3 \cdot 4 = 40 + 12 = 52$$

2. Yaxlit uch xonali sonlarni bir xonali songa ko‘paytirish: $170 \cdot 5 = (100 \cdot 5 + 70 \cdot 5) = 500 + 350 = 850$

Bo‘lish amali bo‘yicha o‘quvchilarga quyidagi masalani o‘qib eshittiramiz.

Masala. “18 ta olmani har biriga baravardan qilib 6 ta likopchaga qo‘yib chiqishdi. Har bir likopchaga nechtadan olma qo‘yishdi?

Yechish. Masala bo‘lish bilan yechiladi: $18:6=3$ (olma).

Bo‘linadigan raqamni *bo‘linuvchi*, bo‘ladigan raqamni *bo‘luvchi* deyilishi o‘quvchilarga oldindan ma’lum. Agarda bo‘linuvchi bo‘luvchi aniq bo‘linmasa, bo‘lishdan qolgan qismi *qoldiq* deyiladi. Masalan barcha juft sonlarni 1 dan boshqa o‘zidan kichik toq sonlarga bo‘lishda qoldiq qoladi yoki aksincha.

Masala. 17 soni 2 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi. Lekin $17 = 8 \cdot 2 + 1$ bo‘ladigan 8 va 1 sonlari mavjud. 17 sonini 2 ga bo‘lish qoldiqli bo‘lish bilan bajariladi, bunda to‘liqmas 8 bo‘linma va 1 qoldiq topildi deb aytiladi.

Javob: $17:2=8$ (1 qoldiq).

Bunday masala-misolni bolalarga asosiy mavzuni boshlash uchun bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida o‘quvchilarga topshiriq sifatida beriladi.

Asosiy mavzuga o‘tkaganimizda o‘quvchiga qoldiq, bo‘linma, qoldiqli bo‘lish haqida chuqurroq bilim berila boshlanadi. Bu mavzuni ongli o‘zlashtitrish o‘quvchilarga ko‘paytirish va bo‘lishning jadval natijalari borasidagi bilimlarini qo‘llash imkonini beradi va shu vaqtning o‘zida ularni ko‘p xonali sonlarni bo‘lishni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Uncha katta bo‘lmagan hayotiy tajriba o‘quvchini qoldiqli bo‘lish hollari bilan uchrashtiradi. (5 ta konfentni ikkita bolaga bo‘lib berish, 5 ta yong‘oqni (olmani va hokazolarni). Buning uchun u amaliy-hayotiy mashqlarni tanlaydi, masalan, “11 ta yong‘oq har bir bolaga 4 tadan tarqatildi. Nechta bola yong‘oq olgan va nechta ortib qolgan? ”Bunda o‘qituvchi o‘quvchi qo‘liga haqiqatdan ham konfentlarni, yong‘oqlarni beradi, o‘quvchi esa chaqirilgan bolalarga bo‘lib berdi va qo‘yilgan savollarga og‘zaki javob beradi. Amaliy tarzda qoldiqli bo‘lishni yozilishini ko‘rsatib keltiriladi.

Natural a sonni b natural songa qoldiqli bo‘lish deb, $a:b=c \ \ (r \ qoldiq)$ ga aytiladi. Bunda $0 \le r \le b$ qoldiq. c – to‘liqsiz bo‘linma deb ataladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga yana bir qoldiqli bo‘lishga doir asosiy qoidani berib o‘tishimiz darkor. O‘quvchilarga sonlarni bo‘lishda hamisha ham qoldiqsiz bo‘lavermasligi ammalar orqali ko‘rsatiladi va qoldiqli bo‘lish to‘g‘ri bajarilganligini $a = c \cdot b + r$ formula orqali tekshirilishini tushuntiramiz. Ya’ni qoldiqli bo‘lishda bo‘linuvchini topish uchun bo‘luvchini to‘liqsiz bo‘linmaga ko‘paytirib, qoldiq qo‘shiladi.

Masalan: 10 sonnini 4 ga bo‘lganda 2 tadan bo‘lib, 2 qoldiq qoladi. Bu hol $10 = 2 \cdot 4 + 2$ kabi yoziladi. O‘quvchilarda qoldiq haqida tasavvur paydo bo‘la boshlaydi.

Bir sonni ikkinchi songa bo‘lganda qoldiq nolga teng bo‘lsa, birinchi son ikkinchisiga qoldiqsiz bo‘linadi deyiladi. Aslida bu holda ham qoldiq bor, ya’ni nolga teng.

O‘quvchilarga bu mavzu qoidalarini har bittasiga amaliy tarzda ko‘rsatmasak, tushunmay qolishlari mumkin va ko‘rgazmalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qoldiqli bo‘lish tushunchasining asosiy xossalarini keltiramiz:

- Biror sonni ikkinchi *a* soniga bo‘lganda qolishi mumkin bo‘lgan qoldiqlar soni *a* ta bo‘ladi.

Masalan, sonni 5 ga bo‘lsak, qolishi mumkin bo‘lgan qoldiqlar sonni 5 ta: 0,1,2,3,4.

- Agar bo‘linuvchi bo‘luvchidan kichik bo‘lsa, qoldiq bo‘linuvchiga teng bo‘ladi.

Masalan, $5:7=0\ (5) \ \Rightarrow\ 5=0\cdot 7+5.$

Yuqoridagi xossa o‘quvchini tushunmaslik holatiga olib kelishi mumkin. Hayotiy jarayon bilan bog‘laymiz.

“Bizda 5 dona olma bor, lekin ularni 7 ta bolaga teng taqsimlamoqchimiz”. Qanday yo‘l tutamiz? deb o‘quvchilarga savol beramiz. O‘quvchilar javobini eshitgach quyidagicha tushuntiramiz: “Demak, 5 ni 7 ga bo‘la olmaymiz, qoldiq nima bo‘ladi? Bizda 5 ta olmani o‘zi qoladi”.

- Har qanday holatda ham qoldiq bo‘luvchida kichik bo‘ladi.

Qoldiqli bo‘lishning asosiy tamoyili bo‘linma (soni) kichik bo‘lsa ham, undan ortiqcha narsalar qolishi mumkinligini o‘quvchilarga tushuntirishdir.

Har doim ham sonlarni bo‘lganda qoldiqsiz chiqmasligini aytib amallarda ko‘rsatib berish va o‘quvchiga chalkash bo‘lgan hollatlarda hayotiy misollar yordamida tushuntirib berish lozimligi nazarda tutiladi. O‘quvchilar endigina qoldiqli bo‘lish mavzusini o‘tayotgan vaqtlarigacha hamma sonlarni bo‘lganda ham qoldiqli son chiqishini bilmaganlari uchun o‘qituvchi oson usullardan foydalaniladi.

Masalan: $4:1=4;\quad 4:2=2;\quad 4:3=1$ (1 qoldiq) qolishini tushuntiramiz.

Bu misolni tushintirib bo‘lganimizdan so‘ng, o‘quvchilar qoldiq nima ekanligini haqida bilishadi. O‘quvchilarda eslab qolish, tushunish qobiliyati hammasida har xil kechishi ma’lum. Ayrim o‘quvchilar eshitib, ayrimlari ko‘rib mavzuni yaxshi o‘zlashtirib oladiladir. Shu sababli o‘qituvchi turli xil ko‘rgazma, vedio, auido eshittirishlar orqali darsni tashkil qilishi kerak. Keyin esa o‘quvchilar mavzuni yaxshi o‘zlashtiradilar. Shundan keyin o‘quvchilar qoldiq chiqishi mumkin bo‘lgan sonlarni aytishga o‘rgatish kerak; bolalar shuni bilishlari kerakki, bo‘lishda qoldiq chiqsa, u har doim bo‘luvchidan kichik bo‘ladi. Buning uchun oldin bo‘luvchisi 2 bo‘lgan, so‘ngra esa bo‘luvchisi 3 (4, 5) bo‘lgan misollar yechiladi. Bu hollarda bo‘linuvchi sifatida ketma-ket keladigan sonlarni tanlash mumkin.

Shundan keyin qoldiqli bo‘lishning umumiy usuli ochib beriladi. Buning uchun misollarni juftlab olish ma’qul. Bu misolarning biri qoldiqsiz bo‘lishga, ikkinchisi esa qoldiqli bo‘lishga doir bo‘lishi kerak, ammo bu misollarda bo‘luvchilar va bo‘linma bir xil sonlar bo‘lishi kerak.

Masalan: $18:9=2,\ 20:9=2$ (2 qoldiq).

O‘quvchilarni qoldiqli bo‘lishga doir misollar yechishga tayyorlash uchun bunday topshiriqlarni taklif qilish foydalidir.

a) 4 dan 40 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 4 ga bo‘linadi?

b) 10 dan 30 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 4 ga bo‘linadi?

c) 10dan 30 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 4 ga bo‘linadi?

O‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida bunday misollar ham yechiladi:

$7 \cdot 3 + 2 = 21 + 2 = 23; \quad 23 : 3 = 7$ (2 qoldiq). [3]

Xulosa o‘rnida aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda qoldiqli bo‘lishni o‘rgatish o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni o‘rgatishda o‘quvchilarga ham amaliy va nazariy misollar, ko‘rgazmali vositalar va o‘yinli topshiriqlardan foydalanish orqali jarayonni qiziqarli va tushunarli o‘tkazish mumkin. O‘quvchi qoldiqli bo‘lishning mohiyatini hayotiy misollar orqali anglaganida, u nafaqat hisoblash malakasini, balki mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. O‘quv jarayonida o‘quvchilarni baholab ketish o‘quvchining qiziqishini orttiradi va o‘quvchilarga mavzuni metodlar va o‘yinlar yordamida o‘tsak matematika faniga bo‘lgan qiziqishlari va bilimi yanada orttadi. Qoldiqli bo‘lish mavzusini o‘quvchilarga yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, oddiydan murakkabga qarab, bosqichma-bosqich tushuntirish zarur. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va xossalarni o‘rganishda kuchlari yetadigan darajada o‘zlashtirishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishni o‘rganishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.E.Jumayev., Z.G‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya» 2005. – 312b.
2. B.I.Boltayeva., D.I.Eshbekova., X.Q.Tojiboyeva. “Jahon ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’limni o‘qitishga xos samarali yondashuvlar” T.: «NIFMSH». 2024 yil.
3. M.E.Jumayev. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi» 2004. – 328b.
4. I.V.Repyoyeva. “Matematika” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik./-T.: «Novda Edutainment» 2023 yil.
5. M.A.Babayeva. Matematika va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «NIF MISH» 2024. – 126b.
6. F.M.Zokirov. Boshlang‘ich ta’lim fanlari nazariyasi(Matematika). Darslik. – T.: «NIF MISH» 2023. – 284b.
7. A.S.Abdusamatov. Matematika o‘qitish metodikasi(amaliy mashg‘ulotlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: «NIF MISH» 2023. – 152b.
8. B.S.Abdullayeva, M.A.G‘aniyeva. Matematika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «NIF MISH» 2023. – 184b.
9. N.A.Abduvaliyev. Matematika. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Metodist nashryoti» 2023. – 172b.
10. S.Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: «Cho‘lpon» 2011. – 304b.
11. M.E.Jumayev. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Yangi asr avlodi» 2006. – 258b.
12. B.S.Abdullayeva., F.A.Rahimova. Boshlang‘ich matematika nazariyasining tarixiy ildizlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsiya-Ziyo» 2019. – 132b.

MAKTAB BIOLOGIYA KURSINI O‘QITISHDA TUR, POPULYATSIYA, EKOSISTEMA, BIOSFERA BOBINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING METODOLOGIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Azimov Bekjon Ibrohimjon o‘g‘li
Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika unversiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. *Ushbu maqolada biologiya fanining “Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera” boblarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning metodologik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Biologik tushunchalarni tizimli tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, modellashtirish va xulosa chiqarish kabi metodologik ko‘nikmalarni shakllantirish usullari taklif etilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera, metodologik ko‘nikma, ilmiy fikrlash, biologiya ta’limi.*

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы развития методологических навыков учащихся в процессе изучения разделов биологии «Вид, популяция, экосистема, биосфера». Предложены методы формирования таких методологических навыков, как системный анализ биологических понятий, наблюдение, сравнение, моделирование и формулирование выводов. В статье также раскрываются возможности развития научного мышления учащихся с использованием современных образовательных технологий.*

Ключевые слова: *вид, популяция, экосистема, биосфера, методологические навыки, научное мышление, биологическое образование.*

Abstract . *This article addresses the issues of developing methodological skills in students during the study of the biology sections “Species, Population, Ecosystem, Biosphere.” Methods for forming such methodological skills as systematic analysis of biological concepts, observation, comparison, modeling, and drawing conclusions are proposed. The article also explores the possibilities of developing students’ scientific thinking using modern educational technologies.*

Keywords: *species, population, ecosystem, biosphere, methodological skills, scientific thinking, biological education.*

Jadal rivojlanib borayotgan ta’lim tizimida o‘quvchilarda faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xos bo‘lgan metodologik ko‘nikmalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktab biologiya kursining “Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera” bobi o‘z ichiga “Tur, populyatsiya, ekosistemalar. Biosfera” mavzularini va “Tirik organizmlarni tashqi muxitga moslashishi”, “Oziq zanjiri va oziq to‘ri tuzish” nomli amaliy mashg‘ulotlarni qamrab olgan[1]. Bu mavzularni o‘rganish jarayonida tur, populyatsiya, tur mezonlari, simbioz, ekosistema, biotsenz, biogeotsenoz, biotop, produsent, konsument, redusent, oziq zanjiri, biosfera, biosfera chegaralari kabi umumbiologik tushunchalarni o‘z ichiga olgan. Bu bobni o‘rganish orqali o‘quvchilarda evolyusion va ekologik tushunchalar tizimli ravishda shakllantiriladi. Bu tushunchalari o‘quvchilarda biologiya fani bo‘yicha ilmiy fikrlashni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi o‘quvchilarda tabiiy sharoitda kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, sabab va oqibatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, umumlashtrish va xulosa chiqarish kabi metodologik ko‘nikmalar rivojlanib boradi[2].

Biologik ta’limda “Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera” tushunchalari ierarxik tizimda joylashgan. Bu mavzular orqali o‘quvchilar populyatsiya turning yashash birligi ekanligi, o‘xshash populyatsiyalarni turni xosil qilishi, tur mezonlari kabi tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘rganib borishadi.

Tur va populyatsiya mavzularini o‘qitishda o‘quvchilarni turli organizmlar misolida taqqoslashga, umumiy va farqli belgilarni aniqlashga yo‘naltirish muhim. Masalan: bir turga mansub turli populyatsiyalarning yashash sharoitlarini tahlil qilish,genetik xilma-xillikni sodda misollar orqali tushuntirish, jadval va sxemalar tuzish orqali ma’lumotlarni tizimlashtirishga o‘rganib boradilar. Tur mezonlarini o‘rganish orqali tur eng kichik sistematik birilik ekanligini, turlar bir biridan morfologik, fizologik, genetik, ekologik, etologik mezonlar va shuningdek qiyofadosh turlar xaqida bilimlarga ega bo‘lishadi. Bu tushunchalar o‘quvchilarda tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllantirishga imkon yaratadi[3].

Ekosistema va biosfera mavzulari o‘quvchilardan keng qamrovli fikrlashni talab qiladi. Misol uchun tirik organizmlar muhit omillarining ma’lum me’yorda o‘zgarishlari doirasida normal hayot kechirishi. Omillarning quyi chegarasi minimum darajani, yuqori chegarasi maksimum darajani belgilashi. Muhit omilining normadan kamayishi yoki ortib ketishi tirik organizmlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi. Ekologik omillarning eng qulay chegarasi optimum zona hisoblanishi. Optimum zonadan chetga chiqish noqulay hayot zonasini belgilashi. Ekologik omillarning tirik organizmlar yashashi mumkin bo‘lgan chidamlilik chegarasi tolerantlik zonasi deb ham yuritilishi tushunchalarni o‘zlashtirish va bu bo‘yicha keng ilmiy fikrlarni ilgari surishni talab etadi. Ekologik omillar, hayot chegarlari, optimum kabi tushunchalar asosida o‘quvchilarning ekologik savodxonligi asosida metodologik savodxonliklari rivojlantirib boriladi. Ma’lumki biosfera mavzularini noosfera xakidagi xozirgi konsepsiyalarning bir qanchasida fan metodologiyasida yangi yo‘nalishiga asos sifatida tabiat xodisalarini tadqiq qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xozirgi vaqtda ana shu talablar bajarilishi zarurligi munosabati bilan fanda ham, jamiyatning tabiat bilan o‘zaro aloqada rivojlanishida ham o‘quvchilarning metodologik savodxonligi rolining oshirib borishini bashorat kilish mumkin. Ko‘pincha ekologiya va noosferogenez muammolarining xal kilinishi juda muximligi sababli o‘quvchilardan metodologik savodxonliklarini oshirish yo‘llarini ilmiy va metodik jihatdan ishlab chiqish nafaqat tadqiqotlar strategiyasini shakllantirishning dastlabki bosqichida, balki o‘quvchilarda karorlar qabul qilishda ham katta yordam beruvchi ijobiy siljishga erishishning yagona nazariy-metodologik vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda biologiya o‘qitish metodikasining fanining rivojlanishi o‘quvchilarning metologik savodxonliklarini rivojlantirishga oid vazifalarni o‘rtaga qo‘ymoqda. Fan metodologiyasi nuqtai nazardan qo‘yilgan insoniyatning yashab qolishini ta’minlash va tabiiy muhitni saqlash maqsadlariga qarab tobora ko‘proq e’tibor berish, yangi sistemali metodolgik yondashuvni talab etmoqda[4].

Shu bilan bir qatorda bu mavzularni o‘qitishda ekosistemaning tarkibiy qismlarini modellashtirish, oziq zanjiri va moddalar aylanishini sxemalar orqali tahlil qilish, inson faoliyatining biosferaga ta’sirini baholash kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning sabab-jarayonlarni o‘zaro bog‘liq amalga oshishi bo‘yicha ilmiy fikrlashi rivojlantiriladi.

Bu mavzularni o‘qitishda o‘qituvchi tomonidan intrfaol metodlar ya’ni klaster, konseptual xarita, “aqliy hujum” kabilardan foydalanish shu bilan birga turli loyiha ishlari va muammoli ta’lim elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Masalan, “Ma’lum hudud ekosistemasining modeli” mavzusida kichik loyiha tayyorlash o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday loyihalar o‘quvchilarning o‘zlari yashayotgan muxitdagi biotsenozlari xaqida keng tasavvurlar xosil qilish va o‘zi yashayotgan muxitning ekologik xolatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Shunday qilib maktab biologiya kursidagi “Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera” bobini o‘qitish jarayonida metodologik ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur bob mazmunini tizimli, interaktiv va tadqiqotga yo‘naltirilgan usullarda tashkil etish orqali o‘quvchilarda tahlil qilish, modellashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.A.Saparov va boshqalar. Biologiya. 7-sinf darslik. Respublika ta’lim markazi. 2022 yil.
2. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi : darslik. – Toshkent : Zuxro Baraka Biznes nashriyoti, 2025.
3. Rahmatov U.E va boshq. Biologiyadan masala va mashqlar yechish : darslik. – Toshkent : Sarvar Print nashriyoti, 2024.
4. S. Z., J. (2021). The Importance of Developing Competence in Understanding and Interpreting Processes in Biological Objects Through Problem-Solving and Exercise. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 503–507.

"ODAM VA UNING SALOMATLIGI" FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTERLI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Shernazarov Bexruz Sayyod o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4- bosqich talabasi
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Odam va uning salomatligi" fanini o‘qitish jarayonida kompyuterli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish abzalliklari yoritilgan. Kompyuterli o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarni mavzuga bo‘gan qizg‘ishini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar dars sifatini yangi bosqichga ko‘tarib, nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligini ta'minlaydi.*


Kalit so‘zlar: *Kompyuterli o‘qitish texnologiyalari, Virtual 3D Modellashtirish (Organlar anatomiyasi), Virtual Laboratoriya ishlari, AR (Kengaytirilgan borliq) texnologiyasi, Interaktiv Testlar va Kvizlar (Geymifikatsiya).*

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi dunyo miqyosida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida AQSHda paydo bo‘lgan. 1950-yillarning oxirida AQSHdagi Illinoys universiteti muhandislar, psixologlar va o‘qituvchilarni birlashtirib, ta’limni kompyuterlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar boshlab bergan. 1960-yilda yaratilgan PLATO (Programmed Logic for Automatic Teaching Operations) tizimi kompyuterli o‘qitishning ilk yirik loyihasi hisoblanadi. O‘quvchilar kompyuter qarshisiga o‘tirib, dastur tomonidan berilayotgan savollarga javob berishgan. Agar javob xato bo‘lsa, tizim mavzuni qayta tushuntirgan yoki yordamchi ma’lumot chiqargan.

O‘zbekiston maktablarida esa ushbu texnologiyaning keng joriy etilishi asosan 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Maktablarda dastlab Agat, BK-0010, UKNS kabi mahalliy kompyuter sinflari tashkil etilgan. XXI asrga kelib butun dunyo maktablari kompyuterli o‘qitish texnologiyasidan nafaqat dars o‘tish vositasi, balki ta'limning ajralmas asosi sifatida foydalanmoqda. Ushbu jarayon bugungi kunda quyidagi muhim yo‘nalishlarda namoyon bo‘lyapti: XXI asrning eng katta yutug‘i — Sun’iy intellekt (**AI)** asosidagi o‘quv dasturlaridir. Ushbu texnologiya: o‘quvchining qaysi mavzuda qiynalayotganini aniqlaydi, unga moslashtirilgan (individual) testlar va mashqlar taqdim etadi va o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish grafigini tahlil qilib beradi.


Maktablarda har bir darsni kompyuterli o‘qitish texnologiyasidan foydalanib dars o‘tish o‘quvchilarni darsga bo‘gan qizig‘ishini oshiradi. Dars mavzularini samarali tushunishiga va eslab qolishiga yordam beradi. 8-sinf "Odam va uning salomatligi"mavzularini kompyuterli texnologiyalar yordamida o‘tish darsni shunchaki gapirib tushuntirish emas, o‘quvchiga inson tanasining murakkab tuzilishini nafaqat yod olish, balki uni vizual his qilish imkonini beradi. Masalan, **Virtual 3D Modellashtirish (Organlar anatomiyasi)**-o‘quvchilar darslikdagi 2D rasmlar o‘rniga kompyuterda organlarning 3D modelini har tomondan aylantirib ko‘rishlarida


imkon beradi. Misol**:** Yurakning ishlashini yoki qon aylanish doirasini animatsiya orqali ko‘rish. "Yurak klapanlari qanday ochilib yopiladi?" degan savolga video-rolik eng yaxshi javob bo‘ladi. O‘quvchilar ***Mozaik 3D*** **yoki** ***Zygote Body*** dasturi orqali ko‘rishlari mumkun (1-rasm).



1-rasm. Virtual laboratoriya ishlari

8-sinfda "Qon guruhlarini aniqlash", "Ovqat hazm qilish" kabi laboratoriya ishlari bor. Maktabda kerakli jihozlar yetishmagan holatda kompyuter yordam beradi. **Misol:** mikroskop ostida qon hujayralarini (eritrotsit, leykotsit) ko‘rishni kompyuter ekranida yuqori sifatda (HD) ko‘rsatish. O‘quvchilar **PhET Interactive Simulations** (biologiya bo‘limi) dastur orqali ko‘rishlari mumkun (2-rasm).






2-rasm. AR (Kengaytirilgan borliq) texnologiyasi

AR texnologiyasi qurilma (smartfon, planshet yoki maxsus ko‘zoynaklar) kamerasidan foydalanib, atrof-muhitni skanerlaydi va real vaqt rejimida virtual obyektlarni qo‘shadi. Foydalanuvchi real dunyoni ko‘rishda davom etadi, lekin unga qo‘shimcha raqamli qatlamlar qo‘shilgan bo‘ladi. **Misol:** Skelet rasmini skaner qilganda, ekranda suyaklarning birlashishi va

harakati namoyon bo‘ladi. Bu o‘quvchiga skelet tuzilishini real his qilishga yordam beradi. O‘quvchilar **Human Anatomy Atlas** dastur orqali ko‘rishlari mumkun (3-rasm).



3-rasm. Interaktiv Testlar va Kvizlar (Geymifikatsiya)

Mavzuni mustahkamlash uchun oddiy savol-javobdan ko‘ra, kompyuter o‘yinlaridan foydalanish samarali bo‘lib, masalan "Nerv tizimi" mavzusi bo‘yicha **Kahoot!** yoki **Quizziz** orqali sinf o‘rtasida musobaqa o‘tkazish eng yaxshi usullardan biridir. Kim tez va to‘g‘ri javob bersa, ekranda reytingi ko‘rinib turadi. Bu o‘quvchilarda kuchli qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Odam va uning salomatligi” fani inson anatomiyasi va fiziologiyasi kabi murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyalarini (3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar, AR texnologiyalari) dars jarayoniga tatbiq etish quyidagi natijalarni beradi: o‘quvchilar tana a'zolari va ularning ishlash mexanizmlarini shunchaki kitobdan o‘qimasdan, balki virtual makonda real ko‘rinishda ko‘radilar. Interaktiv o‘yinlar va testlar o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishga bo‘lgan qizig‘shini oshiradi. Virtual laboratoriyalar dars vaqtini tejaydi va murakkab tajribalarni xavfsiz hamda qayta-qayta bajarish imkonini beradi. Kompyuter dasturlari o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustaqil tekshirish va xatolar ustida ishlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Azizxo‘jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". — Toshkent, 2006-yil.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". — Toshkent, 2006-yil.
3. Mamatqulov B.M. "Odam anatomiyasi". — Toshkent: "Ibn Sino", 2003-yil.
4. G‘ofurov A.T. va boshqalar. "Biologiya o‘qitish metodikasi". — Toshkent, 2013-yil.
5. sciencedirect.com — Xalqaro ilmiy tadqiqotlar bazasi (Digital learning in anatomy).

GAMMA-NURLANISHI TA'SIRIDA RUX VA TITAN OKSIDLARI MIKROTUZILMALARINING TEBRANISH XUSUSIYATLARIDAGI O'ZGARISHLAR

Raxmatullayev[1] Ilyos Arzimurodovich,
Hoshimov[2] Quvonchbek Husniddin o'g'li
[1]Alfraganus universiteti, "Matematika va fizika" kafedrasi professori (DSc),
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant,
e-mail: quvonchbekhoshimov648@gmail.com

Anotatsiya. *Mazkur ishda gamma-nurlanish ta'sirida rux oksidi (ZnO) va titan oksidi (TiO_2) mikrotuzilmalarining tebranish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda spektroskopik usullar orqali kristall panjarasidagi o'zgarishlar, defektlar hosil bo'lishi va ularning fonon tebranishlariga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar gamma-nurlanishi materiallar fizik xususiyatlarini boshqarishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.*


Kalit so'zlar: gamma-nurlanish, ZnO, TiO_2, mikrotuzilma, fonon, ikkilamchi nurlanish, spektr, Raman sochilishi, nuqsonlar.

Kirish. Zamonaviy materialshunoslikda yarimo'tkazgich oksidlar, xususan rux oksidi (ZnO) va titan dioksidi (TiO_2) keng qo'llaniladi [1-5]. Ushbu materiallar optoelektronika, sensorlar va nanotexnologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Gamma-nurlanish yuqori energiyali elektromagnit nur bo'lib, material strukturasida atom darajasida o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Bu esa kristall panjara tebranishlari (fononlar) va ularning xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu ishda ZnO va TiO_2 mikrotuzilmalarining gamma-nurlanish ta'siridagi vibratsion xususiyatlari tahlil qilindi.


Metodologiya. Tadqiqot ob'ekti sifatida ZnO va TiO_2 mikrokristallari tanlandi. Namunalar turli dozadagi gamma-nurlanishga duchor qilindi. Tadqiqotda Raman va infraqizil spektroskopiyasi va Rentgen difraktsiya (XRD) usullari qo'llanildi. Gamma-nurlanish manbai sifatida ^{60}Co izotopidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. 1-rasmda xona haroratida olingan TiO_2 mikrostrukturalarining Raman spektrlari (RS) keltirilgan. Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, nurlanish dozasi ortishi bilan TiO_2 mikrostrukturalarida yuzaga keladigan RSning asosiy maksimumlari intensivligi keskin kamayadi. Kuzatilgan barcha Raman moddalari anataz monokristalining quyidagi RS ga tegishli [2,4]: ~ 142 sm^{-1} (E_g), 194 sm^{-1} (E_g), 394 sm^{-1} (B_{1g}), 515 sm^{-1} (A_{1g}) va 639 sm^{-1} (E_g).



1-rasm. Titan dioksidi mikrostrukturalarining RS spektrlari.

2-rasmda rux oksidi kukunlarining dastlabki holatidagi va nurlanishdan keyingi difraktogrammalari keltirilgan. Ushbu difraktogrammalarning ko‘rinishi - interferentsiya maksimumlarining joylashish tabiati, ularning kengligi va intensivligi - o‘rganilayotgan namunalarning yuqori kristall tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi [6]. ZnO yoki aralashmaning boshqa fazasiga tegishli bo‘lgan hech qanday cho‘qqilar kuzatilmagan, bu esa o‘rganilayotgan namunalarning yuqori tozaligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday natijalar TiO_2 ucnun ham olindi. Rux va titan oksidlari namunalarining rentgenogrammalarini gamma nurlanish ta’siridan oldingi va keyingi tahlillarida ko‘rsatishicha, ularning tarkibi buzilmagan hamda maksimal ko‘rsatkichlarning siljishi aniqlanmagan.



2-rasm. Rux oksidi mikrostrukturalarining nurlantirilmagan (1) va nurlanish dozasi 25 KGry olingan (2) difraktogrammalari.

Xulosalar. Shunday qilib, ta’kidlash mumkinki, o‘rganilayotgan namunalarning mikrostrukturalarini nurlantirish, garchi ularning tuzilishida ba’zi nuqsonlar uchrasada, na fazaviy tarkibning o‘zgarishiga, na materialning kristallik tuzilishining buzilishiga olib kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Averin, I.A., Pronin, I.A., Yakushova, N.D. et al. (2019). Analysis of the structural evolution of zinc oxide powders obtained by mechanical high-energy grinding. Technical Physics, Vol.64, pp.1330-1335. https://doi.org/10.1134/S1063784219090020

2. A.Bourezgui, I. Kasem, M. Daudi et al. (2020). Influence of gamma-irradiation on structural, optical and photocatalytic performance of TiO_2 nanoparticles under controlled atmospheres, Journal of Electronic Materials, Vol.49, pp. 1904-1921. https://doi.org/10.1007/s11664-019-07887-z

3. Avila, D., Horta, S. & Torres, C.O. (2019). Capillary resonator as optical sensor for the measurement of the hydrostatic pressure. A theoretical study of its sensitivity, in: IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series. 1219, 012010. https://doi.org/10.1088/1742-6596/1219/1/012010

4. Rakhmatullaev, N. Bunkin, and M. Davronov (2025). Effect of Raman opalescence in titanium dioxide micropowders under pulse-periodic laser excitation, Journal of Applied Spectroscopy, Vol.91, no.6, pp. 1256–1260. https://doi.org/10.1007/s10812-025-01846-9

5. Rakhmatullaev I., Bunkin N., Davronov M. et al. (2025). Microwave Synthesis and Study of Morphology, Structure and Luminescent Properties of Zinc Oxide Microstructures, Journal of Physical Science, Vol.36, No.1, pp. 27–36. https://doi.org/10.21315/jps2025.36.1.3

6. Федорец И.Д., Хлапова Н.П., Дикий Н.П. и др. (2010). Структура и свойства гамма-активированных наночастиц оксидов цинка, Вестник Харьковского университета, №916, С. 100-104.

O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKSKURSIYALARNING ROLI

Mavlonova Jasmina Salim qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 3- bosqich talabasi
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekskursiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan darslarning nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashdagi afzalliklari va ekologik tarbiya berishning samarali usullari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ekologik madaniyat, biologiya o‘qitish metodikasi, ekskursiya, tabiat bilan muloqot, antropogen ta’sir, ekologik tarbiya, amaliy ko‘nikma.*

Bugungi kunda global ekologik muammolarning keskinlashuvi kelajak avlodda tabiatga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirishni talab etmoqda. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish shunchaki nazariy bilimlarni berish emas, balki ularda tabiatga bo‘lgan mehr va mas’uliyatni uyg‘otishdir. Biologiya o‘qitish metodikasida ekskursiya darslari ushbu maqsadga erishishning eng samarali shakli hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchi tabiatni "tirik laboratoriya" sifatida ko‘radi, biologik qonuniyatlarning hayotiy ifodasini kuzatadi va inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini bevosita tahlil qiladi. Ekologik madaniyat deganda shaxsning atrof-muhitga nisbata mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologi kbilim v ako‘nikmalarga ega bo‘lishi tushuniladi. Ekologik madaniyatni shakllantirish –bu uzoq davom etadigan va kompleks jarayondir. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda bir qator pedagogik muammolar mavjud. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: ekologik bilimlar yetishmasligi; ko‘pgina o‘quvchilar ekologik muammolar haqida yetarli bilimga ega emasligi; ularning tabiat bilan o‘zaro aloqasi, ekosistemalar, atrof-muhitning ifloslanishi kabi tushunchalari yetarli emasligi; ekologik tarbiya metodlarining yetarli emasligidir. Maktablarda ekologik tarbiya ko‘pincha an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmoqda. O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, ularning qiziqishlarini uyg‘otadigan zamonaviy metodlar yetarli emas.O‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasi yetishmasligi alohida muammo sanaladi. Shuning uchun ular o‘quvchilarga ekologik tarbiya berishda qiyinchilikka duch kelinmoqda. Ushbu muammolarni yechish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish lozim: ekologik ta’limni takomillashtirish; maktablarda ekologik ta’limni takomillashtirish; o‘quv dasturlariga ekologik mazmundagi ma’lumotlarni kiritish; o‘quvchilarni ekologik muammolar bilan tanishtirish; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Ekologik tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, jumladan, interaktiv metodlar, loyiha ishlari, o‘yinlar, virtual simulyatsiyalardan foydalanish lozim. O‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasini oshirish, ularni ekologik bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish lozim. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni ekologik tarbiya jarayoniga jalb qilish lozim.

Ekskursiya — bu o‘quv faoliyatini sinf xonasidan tabiiy yoki sun’iy ekotizimlarga (bog‘, o‘rmon, daryo bo‘yi, hayvonot bog‘i) ko‘chirishdir. Uning asosiy roli quyidagilarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi darslikdagi rasmni emas, balki tirik organizmni o‘z muhitida ko‘radi. Tabiat go‘zalligini his qilish orqali estetik va ekologik tarbiya uyg‘unlashadi. O‘quvchilar o‘simliklarni aniqlash, tuproq tarkibini yoki suvning tozaligini oddiy usullar bilan tekshirish orqali ilmiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Ekskursiya davomida o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini quyidagi

muammolarga qaratishi lozim. O‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zaro bog‘liqligini, bir tur yo‘qolsa, zanjir qanday uzilishi haqida hayotiy misollar bilan tushuntiriladi. Hududdagi chiqindilar, daraxtlarning kesilishi yoki havo tozaligi orqali ekologik muammolarni muhokama qilishadi. Muhofaza qilish choralari haqida "Biz nima qila olamiz?" degan savolga javob izlashadi (masalan, daraxt ekish, qushlarga in yasash). Metodik tavsiyalar orqali samarali ekskursiya uchun "Kuzatish kartochkalari" metodidan foydalaniladi. Bunda har bir o‘quvchi yoki guruhga aniq topshiriq beriladi. "Hududdagi dorivor o‘simliklarni aniqlang" yoki "Hasharotlarning o‘simlik hayotidagi rolini kuzating" topshiriq beriladi.Bu o‘quvchini oddiy tomoshabindan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ekskursiyalar biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantiruvchi asosiy "ko‘prik" vazifasini o‘taydi. Ular orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tabiatni asrashga qaratilgan e’tiqod va hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi. Muntazam tashkil etiladigan metodik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirilgan ekskursiyalar barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishning eng qisqa yo‘lidir. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish kelajakda atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal qilish uchun muhimdir. Ekologik madaniyatli shaxslar atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli bo'ladilar, tabiatga zarar yetkazmaydilar va kelajak avlod uchun sog'lom va toza atrof-muhitni saqlab qolishga intiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolipova J.O. - "Biologiya o‘qitish metodikasi". O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2012.
2. Azimov IT., va boshqalar. - "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish". Darslik. Toshkent, 2018.
3. G‘ofurov A.T. - "Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi". Metodik qo‘llanma.

O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR

Eshniyozova Marjona Nurali qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4- bosqich talabasi
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘rta maktablarda biologiya darslarida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar va ularning tavsifi berilgan. Didaktik o‘yinning o‘rganish vositasi sifatida o‘ziga xos xususiyati uning kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirishda ahamiyati katta.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, Frobel, ortiqchasini top, so‘zlardan gap, ogoh tur, kognitiv faollik.

Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi. O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) bu ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri hisoblanadi.

Didaktik o‘yin - bu o‘rganilayotgan tizimlar, hodisalar, jarayonlarni modellashtirishda faol o‘quv faoliyati hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar asosan uchta tur bo‘yicha tasniflanadi. Bular:

1. Intellektual (aqliy) didaktik o‘yinlar;

2. Harakatli didaktik o‘yinlar;

3. Aralash turdagi didaktik o‘yinlar

Intellektual (aqliy) didaktik o‘yinlar- bular asosan aqliy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan.Bu o`yinlar o`quvchilardan intellektual bilim va nazariyalarni ko`proq bilishlarini talab qiladilar. Harakatli didaktik o`yinlar- bu o`yinlar o`quvchilardan aqliy bilimdan tashqari harakatlar faoligini ham talab qiladi.Bu turdagi o`yinlarda o`quvchilar birmuncha harakatchang hamda jismoniy faol bo`lib ishtirok etadilar. Aralash turdagi didaktik o`yinlar- bu o`yinlar o`quvchilardan ham aqliy ham jismoniy va yana shuning bilan birgalikda ijodiy faollikni ham talab qiladi .Bu turdagi o`yinlarda o`quchilar bilan sahna ko`rinishlari tashkil etish, musobaqali o`yinlarni o`ynash, turli ijodiy ko`rinishdagi o`yinlarni tashkil etish va olib borish mumkin.

Natijalar va muhokamalar. Mazkur tadqiqot davomida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Dars jarayonida turli xil didaktik o‘yinlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshdi, ular o‘quv materialini osonroq o‘zlashtira boshladilar. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa rol o‘ynash va muammoli o‘yinlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, vaziyatni tahlil qilish va muammoga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini egallaydilar. Intellektual va so‘z o‘yinlari esa ularning mantiqiy tafakkuri va nutq boyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kattaqo‘rg‘on shahar 13-maktabning 7- sinf o‘quvchilarida biologiya darslarida didaktik o‘yinlari amaliyotda sinab ko‘rildi. Birinchi tanlagan metod bu aqliy didaktik o‘yinlar sirasiga kiradigan “Ortiqchasini top” o‘yini bo‘ldi. Ushbu o‘yinda jadvalning har bir qatorida beshtadan so‘zlar berilgan(1-jadval). Mana shu so‘zlar ichida qolgan to‘rtta so‘zga mos kelmaydigan bitta ortiqcha so‘z mavjud. O‘quvchilar mana shu ortiqcha so‘zni topishlari va rangli qalam yoki qora qalam bilan o‘sha katakchaning ichini bo‘yab qo‘yishlari kerak (1-rasm).

PLASTIDA	SITOPLAZMA	GOLJI MAJMUASI	LIZOSOMA	YADRO
OQSIL	SUV	KARBON SUV	NUKLEIN KISLOTA	YOG‘
QON	LIMFA	NEYRON	TOG‘AY	SUYAK
QON	SUYAK	TOG‘AY	MUSKUL	PAY
JIGAR	BUYRAK	YURAK	O‘PKA	BURUN
YURAK	HALQUM	KEKIRDAK	MIYA	O‘PKA
OSHQOZON	JIGAR	YURAK	ICHAKLAR	O‘T PUFAGI
SUT BEZI	AYRISIMON BEZ	SO‘LAK BEZLARI	OSHQOZON DEVORI	YOG‘ BEZI
OSHQOZONOSTI BEZI	EPIFIZ	BUYRAKUSTI BEZI	AYRISIMON BEZ	GIPOFIZ
TIROKSIN	TIAMIN	TIMOZIN	MELATONIN	ADRENALIN
PARATGORMON	TIMOZIN	TESTOSTERON	ANDROGEN	SOMATOTROP

1-rasm. “Ortiqchasini top” o‘yini.

“Ogoh tur” o‘yinida bunda doskaga ixtiyoriy ravishda 10 ta o‘quvchi chiqadi. O‘quvchilar aylana hosil qilib turishadi. O‘yinni kim boshlashi ixtiyoriy tanlanadi. O‘yin sharti shundan iboratki, o‘qituvchi savol aytib, boshini o‘ng yoki chap tomonga buradi. Boshini o‘ng tomonga bursa, o‘ng tomondagi o‘quvchi savolga javob berishi kerak bo‘ladi, agar chap tomonga bursa, chap tomondagi o‘quvchi javob beradi. Savolga javob berolmagan o‘quvchi o‘yinni tark etadi.

Masalan, 10 ta o‘quvchi taklif etildi, ular aylana hosil qilib turib olishadi. O‘quvchilardan biri: “Daryo qisqichbaqasi qaysi tipga mansub” deb boshini o‘ng yoki chap tomonga buradi. O‘ng yoki chap tomondagi o‘quvchi javob bersa, keyingi savolni o‘sha o‘quvchi beradi. Agar javob berolmasa o‘yinni tark etadi. O‘quvchilarning hozirjavoblik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qo‘shimcha qilib misol tariqasida yana quyidagi savollarni keltirish mumkin.



2-rasm. “Ogoh tur” didaktik o‘yini

Savollar: Qisqichbaqa nimalar bilan oziqlanadi? Butli o‘rgimchakning zahar bezlari qayerda joylashgan? Mol kanasi qaysi sinfga mansub? Hasharotlar haqidagi fan nima deb ataladi? Cho‘l chigirtkasi qaysi tipga mansub? Daryo qisqichbaqasi qaysi tipga mansub? O‘rgimchak so‘g‘allari qayerda joylashgan?

Suluv ninachi qaysi sinfga mansub? O‘rgimchaklar haqidagi fan nima deb ataladi? O‘rgimchak to‘ri qanday hosil bo‘ladi?

Bu o‘yinni afzal tomoni tez fikrlashni rivojlantiradi qisqa vaqt ichida javob berish talab qilinadi, bu esa tafakkurni tezlashtiradi. Bilimni mustahkamlaydi, savol-javob orqali mavzu takrorlanadi va yaxshiroq esda qoladi. Qiziqarli muhit yaratiladi, dars zerikarli bo‘lmaydi, o‘quvchilar o‘yinga qiziqib qatnashadi. Kim tez va to‘g‘ri javob beradi – shu orqali sog‘lom raqobat paydo bo‘ladi. Kamchiliklari esa bilimi past o‘quvchilar tez chiqib ketadi, bu esa ularning ishtirokini kamaytiradi. Shovqin bo‘lishi mumkin o‘yin jarayonida tartibni saqlash qiyinlashadi. Vaqtni ko‘proq olishi mumkin, agar to‘g‘ri boshqarilmasa, dars vaqti yetmay qoladi.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, tasavvuri, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvi va bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va interfaol tarzda tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, o‘yinlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ijodiy fikrlash va tashabbuskorlik ham rivojlanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va biologiya darslariga kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun har xil didaktik o‘yinlar va o‘yin

texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o‘yinlar bilimdan tashqari, biologik tushunchalar imlosi ham mustahkamlanadi. Maktabning o‘rta sinflarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning yoshlarini inobatga olgan holda ularning psixologik xarakterlariga e’tibor qaratsak, ma’lumki ular o‘yin faoliyatidan hali uzoqlashmagan. Shu sababli o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqorilatish uchun darslarda didaktik o‘yinli texnologiyalardan foydalanish birmuncha samaraliroq natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ruziqulova N.A., To‘raqulova M.N. Biologiya fanidan didaktik o‘yinlar (umumta’lim maktablarining 7-8 sinflar uchun). Uslubiy qo‘llanma. 2020. Samarqand. 120 b.
2. Ruziqulova N. A., Turaqulova M. N. Biologiya fanini o ‘qitish samaradorligiga didaktik o ‘yinlarning ta’siri //Universal journal of law, finance and applied sciences. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 51-55.

DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA FIZIKA FANIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Qodirov Sardor Raximbergan o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi o‘qituvchisi
*qodirov.sardor@urdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fizika fanini o‘qitishda dasturiy vositalardan foydalanish orqali talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi hamda ularning talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan ta’lim kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Kreativ fikrlash, fizika ta’limi, dasturiy vositalar, virtual laboratoriya, simulyatsiya, interaktiv platforma.*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabaning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topa olishi va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay olishi zarur.


Dasturiy vositalardan foydalanish ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Virtual muhitda tajriba o‘tkazish, modellashtirish va interaktiv topshiriqlar bajarish talabalarning fikrlash jarayonini faollashtiradi hamda ularni ijodiy izlanishga undaydi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi pedagogika va ta’lim texnologiyalari sohasidagi ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda kreativ fikrlash shaxsning muammoli vaziyatlarda yangicha yondashuv asosida yechim topishi, mavjud bilim va ko‘nikmalarni nostandart sharoitlarda qo‘llashi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning intellektual faolligini oshirish, ularning izlanish xarakteridagi faoliyatini kuchaytirish va mustaqil fikrlash mexanizmlarini shakllantirishda muhim didaktik omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarning **muammoli fikrlashini**, ya’ni murakkab o‘quv vaziyatlarini tahlil qilish va ularning yechimini izlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday vositalar **analitik va mantiqiy tafakkurni** faollashtirib, fizik hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Interaktiv muhitda ishlash jarayoni talabaning **mustaqil**

qaror qabul qilish ko‘nikmasini ham shakllantiradi, chunki u tajriba parametrlarini tanlash, natijalarni tahlil qilish va xulosalarni mustaqil ravishda asoslashga majbur bo‘ladi.

Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar kreativ fikrlashni rivojlantirishda alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki ular talabalarga real o‘quv muhitida har doim ham mavjud bo‘lavermaydigan tajriba sharoitlarini modellashtirish, fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘lanishni dinamik kuzatish hamda turli variantdagi natijalarni taqqoslash imkonini beradi. Bu esa talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularda ilmiy izlanish, eksperimentni tahlil qilish, faraz ilgari surish va yangicha yechimlar ishlab chiqish kabi kreativ faoliyat elementlarini ham shakllantiradi. Natijada dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan fizika ta’limi reproduktiv o‘zlashtirishdan produktiv va ijodiy fikrlashga o‘tishni ta’minlaydigan samarali didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuv asosida tashkil etilib, unda bir qator o‘zaro bog‘liq ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Jumladan, **pedagogik tajriba** metodi orqali dasturiy vositalarning fizika ta’limi jarayoniga ta’siri amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. **Kuzatuv va so‘rovnoma** metodlari yordamida talabalarning o‘quv faoliyati, darsdagi ishtiroki, qiziqishi hamda dasturiy vositalarga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Shuningdek, **nazorat va tajriba guruhlari asosida qiyosiy tahlil** o‘tkazilib, an’anaviy ta’lim va dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan ta’lim natijalari o‘zaro solishtirildi. Olingan ma’lumotlar esa **statistik tahlil** metodlari yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va samaradorlik darajasi aniqlandi.

Kreativ fikrlash talabaning muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuvi, noodatiy yechimlar taklif qilishi va bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Fizika fanida u masalalarni turli usullarda yechish, tajribalarni modifikatsiya qilish hamda natijalarni tahlil va umumlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lab, uni faol va ijodiy fikrlovchi subyektga aylantiradi.



Tadqiqot natijalari: Dasturiy vositalar fizik jarayonlarni modellashtirish, parametrlarni o‘zgartirib natijalarni kuzatish va virtual tajribalar o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa murakkab

tushunchalarni aniqroq anglashga yordam beradi. Masalan, MATLAB/Simulink va PhET platformalari orqali talaba jarayonlarni interaktiv tarzda o‘rganib, sabab-oqibat bog‘lanishlarini chuqurroq tushunadi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Kreativ fikrlash dasturiy vositalar asosida muammoli topshiriqlar berish, ochiq savollarni qo‘llash, virtual tajribalarni tahlil qilish va mustaqil loyiha ishlarini tashkil etish orqali rivojlanadi. Bu jarayon talabaning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va innovatsion faoliyatini shakllantiradi. Tajriba natijalari dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan ta’lim samarali ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, tajriba guruhida kreativ fikrlash darajasi 25–30% ga oshdi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlandi va talabalar darsga qiziqishi ortdi. Bu natijalar mazkur yondashuvning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari dasturiy vositalar asosida tashkil etilgan fizika ta’limi talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va modellashtirish vositalari talabalarning muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashishi, alternativ yechimlar topishi va fizika faniga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Natijada bunday yondashuv talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki mustaqil ishlash ko‘nikmalari va ijodiy faolligini ham kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wang Y., Liu W., Yu X., Li B., Wang Q. The impact of virtual technology on students’ creativity: A meta-analysis // *Computers & Education*. - 2024. - Vol. 215. - Art. 105044. - DOI: 10.1016/j.compedu.2024.105044.
2. Álvarez-Siordia F.M., Merino-Soto C., Rosas-Meléndez S.A., Pérez-Díaz M., Chans G.M. Simulators as an Innovative Strategy in the Teaching of Physics in Higher Education // *Education Sciences*. - 2025. - Vol. 15, No. 2. - Art. 131. - DOI: 10.3390/educsci15020131.
3. Rizki I.A., Mirsa F.R., Islamiyah A.N., Saputri A.D., Ramadani R., Habibbulloh M. Ethnoscience-enhanced physics virtual simulation and augmented reality with inquiry learning: Impact on students’ creativity and motivation // *Thinking Skills and Creativity*. - 2025. - Art. 101846. - DOI: 10.1016/j.tsc.2025.101846.
4. Mustari M., Hartono, Nugroho S.E., Sugianto. Enhancing Physics Education through MOOCs-Based Virtual Laboratory Modules: Development, Validation, and Future Directions // *Journal of Educators Online*. - 2025.
5. The Impact of Virtual Reality on Creative Thinking Skills and Self-Efficacy in Learning Rotational Dynamics // *International Journal of Information and Education Technology*. - 2025.- Vol. 15, No. 6.
6. Banda H.J., et al. The Impact of Physics Education Technology (PhET) Interactive Simulations-Based Learning on Students’ Motivation and Academic Achievement in Learning Oscillations and Waves // *Scientific Reports*. - 2022.
7. Sellberg C., et al. Virtual Laboratories in STEM Higher Education: A Scoping Review // *Nordic Journal of STEM Education Research*. - 2024.

FIZIKA DARSLARIDA INTERAKTIV DASTURIY PLATFORMALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Qodirov Sardor Raximbergan o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi o‘qituvchisi
*qodirov.sardor@urdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fizika fanini o‘qitishda interaktiv dasturiy platformalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy raqamli ta’lim vositalari, virtual laboratoriyalar hamda interaktiv test tizimlarining talabalarning bilim*

darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va kasbiy kompetentligiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar interaktiv platformalar an’anaviy o‘qitish metodlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *Interaktiv platforma, fizika ta’limi, raqamli ta’lim, virtual laboratoriya, pedagogik texnologiyalar, kompetentlik.*

Kirish: Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda murakkab nazariy tushunchalarni vizual va interaktiv usullar orqali tushuntirish zarurati ortib bormoqda.

Metodologiyasi: Shu nuqtai nazardan, interaktiv dasturiy platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarni faol o‘quv faoliyatiga jalb etish hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar fizika ta’limida raqamli texnologiyalarning o‘rnini o‘rganib chiqishgan. Xususan:

- virtual laboratoriyalar orqali tajriba o‘tkazish samaradorligi;
- simulyatsiya modellar yordamida murakkab fizik jarayonlarni tushuntirish;
- interaktiv test platformalar orqali baholash tizimini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.


Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv platformalar yordamida o‘qitish natijasida talabalarning o‘zlashtirish darajasi 20–30% ga oshadi.

Mazkur tadqiqot fizika fanini o‘qitishda interaktiv dasturiy platformalardan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u kompleks pedagogik va statistik yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy va eksperimental yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- *Pedagogik kuzatuv metodi* - fizika darslarida talabalarning o‘quv faoliyati, ishtiroki, motivatsiyasi va interaktiv platformalarga bo‘lgan munosabati tizimli ravishda kuzatildi;
- *Pedagogik eksperiment* - interaktiv platformalarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhlari tashkil etildi;
- *Qiyosiy tahlil metodi* - an’anaviy va interaktiv metodlar asosida o‘qitilgan guruhlar natijalari o‘zaro taqqoslandi;
- *Test va diagnostik baholash* - talabalar bilim darajasini aniqlash uchun kirish (diagnostik), oraliq va yakuniy testlar o‘tkazildi;
- *Statistik tahlil metodlari* - olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat (M), dispersiya (D), ishonchlilik ko‘rsatkichi (t-kriteriy) asosida baholandi;
- *So‘rovnoma (anketa) metodi* - talabalar va o‘qituvchilarning interaktiv platformalarga nisbatan fikr-mulohazalari o‘rganildi;
- *Pedagogik modellashtirish* - interaktiv platformalar asosida fizika darslarini tashkil etish modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari: ***Interaktiv platformalarning ta'limdagi o'rni*** interaktiv dasturiy platformalar zamonaviy fizika ta'limida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular murakkab fizik tushunchalar va jarayonlarni ko'rgazmali, dinamik hamda tushunarli shaklda o'rganishga yordam beradi. Ayniqsa, fizika fanidagi abstrakt mavzularni animatsiya, grafik va modellar orqali tushuntirish talabalarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Bunday platformalar **real vaqt rejimida bilimni baholash**, **vizual modellar orqali tushuntirish**, **virtual laboratoriya tajribalarini bajarish** hamda **masofaviy ta'limni tashkil etish** imkonini beradi. Shu bilan birga, ular talabalarning darsdagi faolligini oshiradi, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi va ta'lim samaradorligini kuchaytiradi. Fizika ta'limida qo'llaniladigan interaktiv vositalarga **virtual laboratoriya tizimlari**, **simulyatsiya dasturlari (PhET, MATLAB/Simulink)** hamda **onlayn test platformalari** kiradi. Ushbu vositalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, natijalarni tezkor tahlil qilish va o'quv jarayonini zamonaviy shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.



Fizika darslarida qo'llash mexanizmida fizika darslarida interaktiv dasturiy platformalardan foydalanish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda **nazariy bilimlar** animatsiyalar, grafiklar va vizual modellar yordamida tushuntiriladi. Bu usul fizik hodisalarning mohiyatini aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda **tajriba ishlari** virtual laboratoriyalar orqali bajariladi. Bu jarayonda talabalar tajriba parametrlarini o'zgartirib, natijalarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Uchinchi bosqichda **mustahkamlash ishlari** interaktiv testlar, masalalar va topshiriqlar orqali olib boriladi. Bunda talabalar o'z bilimlarini tekshiradi, xatolarini aniqlaydi va mavzuni yanada puxta o'zlashtiradi.

To'rtinchi bosqichda esa **baholash** avtomatik tizimlar yordamida amalga oshiriladi. Bu o'qituvchiga natijalarni tezkor tahlil qilish, talabaga esa o'z bilim darajasini darhol aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, interaktiv platformalardan foydalanish fizika darslarini yanada samarali, qiziqarli va natijador tashkil etishga xizmat qiladi.

Tajriba bosqichlari **bunda** uch bosqichda amalga oshirildi. **Diagnostik bosqichda** talabalarning boshlang'ich bilim darajasi aniqlandi, dastlabki ko'rsatkichlar shakllantirildi hamda nazorat va tajriba guruhlari o'rtasidagi tenglik darajasi tekshirildi. **Shakllantiruvchi bosqichda** tajriba guruhida interaktiv platformalar asosida darslar tashkil etilib, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va test tizimlari qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari davom ettirildi. **Yakuniy bosqichda** test va baholash ishlari o'tkazilib, olingan natijalar tahlil qilindi hamda interaktiv platformalarning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarida **t**adqiqotchi talabalarning o'zlashtirish darajasi bir necha mezonlar asosida baholandi. Jumladan, ***bilim darajasi*** nazariy materialni o'zlashtirish holatini, ***amaliy ko'nikmalar*** masala yechish va tajriba bajarish qobiliyatini, ***mustaqil ishlash*** talabaning o'z ustida ishlash va mustaqil ta'lim olish darajasini, ***motivatsiya*** esa fanga qiziqish va

darsdagi faollik ko‘rsatkichlarini ifodaladi. Har bir ko‘rsatkich 100 ballik tizim asosida baholanib, natijalar foizlarda ifodalandi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fizika darslarida interaktiv dasturiy platformalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv vositalar orqali nazariy bilimlarning vizuallashtirilishi, virtual laboratoriyalar yordamida amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi hamda avtomatik baholash tizimlari orqali bilimlarni nazorat qilish jarayoni yanada takomillashadi.

Tajriba natijalari tahlili asosida aniqlanishicha, interaktiv platformalar qo‘llanilgan guruhlarda talabalarning bilim darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va motivatsiyasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bu esa zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining an’anaviy metodlarga nisbatan ustunligini tasdiqlaydi. Shuningdek, interaktiv platformalar talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Ular orqali o‘quv jarayoni individuallashtiriladi, talabaning faolligi ortadi va o‘zlashtirish darajasi barqarorlashadi. Umuman olganda, fizika fanini o‘qitishda interaktiv dasturiy platformalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hodges C., Moore S., Lockee B., Trust T., Bond A. The difference between emergency remote teaching and online learning // *Educause Review*. - 2020. - № 27(1). - P. 1-12.
2. Bond M., Bedenlier S., Marín V.I., Händel M. Emergency remote teaching in higher education: Mapping the first global online semester // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. - 2021. - Vol. 18(1). - P. 1-24.
3. Cabero-Almenara J., Llorente-Cejudo C., Palacios-Rodríguez A. Digital competence of higher education students as a predictor of academic success // *Education Sciences*. - 2021. - Vol. 11(5). - P. 1-15.
4. Radianti J., Majchrzak T.A., Fromm J., Wohlgenannt I. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education // *Computers & Education*. - 2020. - Vol. 147. - P. 103778.
5. PhET Interactive Simulations Research Team. The impact of interactive simulations on student learning in physics // *Physical Review Physics Education Research*. - 2020. - Vol. 16(2). - P. 1-14.
6. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. - 2020. - Vol. 17(1). - P. 1-27.
7. García-Peñalvo F.J., Corell A., Abella-García V., Grande M. Online assessment in higher education during COVID-19: Challenges and opportunities // *Education in the Knowledge Society*. - 2021. - Vol. 22. - P. 1-12.

“ODAM VA UNING SALOMATLIGI” FANINI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR

Javxarov Shuxrat Zohid o’g’li
Kattaqo‘rg‘on shahar 16-umummtalim maktabi
biologiya fan o‘qituvchisi
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada biologiya fanining “Odam va uning salomatligi” bo‘limini o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o‘quv dasturlari va darsliklarning kamchiliklari, o‘qitish metodikasidagi muammolar, moddiy-texnik baza yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasi bilan bog‘liq jihatlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *biologiya ta’limi, salomatlik, anatomiya, fiziologiya, o‘qitish metodikasi, innovatsion yondashuv, sog‘lom turmush tarzi.*

“Odam va uning salomatligi” fani biologiyaning bir bo`limi bo`lib u inson organizmi, uning tuzilishi, hayotiy faoliyati va unda boradigan jarayonlarni o‘rganadigan fundamental fanlardan biridir. Maktab biologiya kursidagi “Odam va uning salomatligi” bo‘limi o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar berish, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda inson salomatligini saqlash masalasi global muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olimlarning fikriga ko‘ra, ko‘plab kasalliklarning kelib chiqishi insonlarning, ya’ni o‘z salomatligi haqida yetarli bilimga ega emasligi bilan bog‘liq. Shu bois biologiya ta’limida ushbu bo‘limni samarali o‘qitish muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Biroq amaliyotda ushbu bo‘limni o‘qitishda qator muammolar mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi- “Odam va uning salomatligi” fanini o‘qitishdagi asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif etishdan iborat.

Biologiya ta’limining metodologik asoslari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ishlarida anatomiya va fiziologiyani o‘qitishda ko‘rgazmalilik, amaliy mashg‘ulotlar va faol o‘qitish usullarining ahamiyati alohida ta’kidlangan.

Zamonaviy pedagogikada konstruktivistik yondashuv keng qo‘llanilib, unda o‘quvchi bilim olish jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv biologiya fanida ayniqsa samarali bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Odam va uning salomatligi” bo‘limi anatomiya, fiziologiya va gigiyena fanlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu esa uning o‘qitilishini murakkablashtiradi, biroq ayni paytda amaliy ahamiyatini oshiradi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, biologiya ta’limida muammo asosida o‘qitish (PBL), loyiha metodlari va raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilganda ta’lim samaradorligi ortadi.

Dastur va darslik muammolari: mutaxasislar tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, “Odam va uning salomatligi” bo‘limiga ajratilgan o‘quv soatlari yetarli emas, bu esa mavzularni yuzaki o‘zlashtirishga olib keladi.

Amaldagi darsliklarda quyidagi kamchiliklar mavjud:

1. Darsliklarda murakkab ilmiy til- o`quv darsliklarida mavzularning ko`proq ilmiy tilda yozilganligi, bu esa o`quvchilarga mavzularni o`zlashtirilishda bir qancha qiyinchiliklar olib kelmoqda.
2. Ko‘rgazmali materiallarning yetishmasligi – o`quv dasturlarida ko`proq mavzularning rasmlarsiz berilganligi, bu esa mavzularning tushunishda bir qator qiyiniliklarga olib kelmoqda.
3. Zamonaviy ilmiy ma’lumotlarning yetarli emasligi – o`quv rejalarning eskiligi, ya`ni darsliklarning yangilanmaganligi. Natijada o‘quvchilar bilimni amaliy hayot bilan bog‘lay olmaydi.

Metodologik muammolar; ko‘plab maktablarda darslar hanuzgacha an’anaviy usullarda olib borilmoqda. Hozirgi yangi o‘quv dasturlarida ayrim mavzular QR-kodlar orqali taqdim etilmoqda, ya’ni rasmlar va ma’lumotlar QR-kod shakliga o‘tkazilgan. Bu usul dars jarayonida vaqtni tejash va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq, amaliyotda QR-kodlardan foydalanishda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, o‘qituvchi QR-koddan foydalanganda undagi ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki umuman mavjud bo‘lmasligi holatlari uchraydi. Bu esa dars jarayonida uzilishlarga sabab bo‘lib, o‘qituvchi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, o‘quvchilar passiv holatga tushib qoladi, interfaol metodlardan yetarli darajada foydalanilmaydi. Shuningdek, fanlararo bog‘liqlik ham sust yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu bilimlarning tizimli shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Moddiy-texnik baza muammolari: ko‘plab ta’lim muassasalarida biologiya xonalar (laboratoriya xonalar) zamonaviy talab darajasida jihozlanmagan. Anatomik modellar,

laboratoriya jihozlari va mikroskoplarning yetishmasligi dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni cheklaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining yetishmasligi ham o‘qitish samaradorligini pasaytiradi.

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi: o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yetarlicha bilmasligi va ulardan foydalana olmasligi hozirgi davrda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Malaka oshirish tizimi ham yetarli darajada samarali emas. Natijada o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlar kam qo‘llaniladi.

O‘quvchilarda biologiya faniga qiziqishning pasayishiga bir qator omillar sabab bo‘lmoqda. Ushbu omillarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Darslarning qiziqarsiz tashkil etilishi muhim muammolardan biridir. Agar biologiya darslari faqat darslik asosida o‘qish va yodlashga yo‘naltirilsa, o‘quvchilar tez zerikadi. Amaliy mashg‘ulotlar, tajribalar va kuzatishlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi fan mazmunining “jonli” tarzda qabul qilinishiga to‘sqinlik qiladi.

2. Nazariy materiallarning ko‘pligi ham o‘quvchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biologiya fanida murakkab terminlar va tushunchalarning ko‘pligi, ularni hayotiy misollarsiz tushuntirish natijasida o‘quvchilar charchaydi va fanga bo‘lgan qiziqish pasayadi.

3. Zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmasligi ham dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quvchilar vizual va interfaol materiallarga ko‘proq qiziqish bildiradi. Video, animatsiya va raqamli vositalardan foydalanilmaganda darslar ular uchun zerikarli bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda QR-kodlar orqali berilgan ma’lumotlarning noto‘g‘ri yoki mavjud emasligi dars samaradorligini yanada pasaytiradi.

4. Fan va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha ochib berilmaydi. O‘quvchilar ko‘pincha o‘rganayotgan bilimlarining amaliy ahamiyatini tushunmaydi. Biologiyaning sog‘liqni saqlash, ekologiya yoki kasb tanlash bilan bog‘liqligi ko‘rsatilmasa, ularning motivatsiyasi kamayadi.

5. Baholash tizimining noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi ham ta’sir qiladi. Agar ta’lim jarayonida faqat test natijalari va baholarga urg‘u berilsa, o‘quvchi bilimni chuqur o‘zlashtirishdan ko‘ra baho olishga intiladi. Bu esa ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

6. O‘qituvchi omili muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining darsni tashkil etish uslubi, energiyasi va o‘quvchilar bilan muloqoti dars samaradorligini belgilaydi. Bir xil metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini kamaytiradi.

7. Boshqa fanlar va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi ham biologiyaga e’tiborni kamaytiradi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan davrda ayrim o‘quvchilar biologiyani kamroq zamonaviy fan sifatida qabul qilmoqda. Natijada, yuqoridagi omillar biologiya fanini o‘zlashtirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va faolligini pasaytiradi.

Dastur va darsliklarni takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omillardan biridir. Buning uchun o‘quv soatlarini ko‘paytirish, amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, darsliklarni sodda, tushunarli va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda ishlab chiqish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, darsliklar mazmuniga zamonaviy ilmiy yangiliklar va dolzarb ma’lumotlarni kiritish muhim hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va bilimlarning amaliy ahamiyatini chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Odam va uning salomatligi” bo‘limini o‘qitishda mavjud muammolar tizimli xarakterga ega. Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur.Dastur va darsliklarni takomillashtirish, zamonaviy metodlarni joriy etish, moddiy bazani mustahkamlash hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish biologiya ta’limi sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijada sog‘lom, ongli va bilimli yosh avlodni shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pasechnik V.V., Kamenskiy A.A. Biologiya. — M., 2020.
2. Salimova M.S. Biologiya ta’limini modernizatsiyalash muammolari. — Toshkent, 2021.
3. Yunusov R.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2019.
4. Hmelo-Silver C.E. Problem-Based Learning. — 2004.
5. WHO. Global School Health Initiative. — 2022.

HELICHRYSUM NURATAVICUM KRASSH. NING MORFOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.S.Sindarova

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Biokimyo instituti. Samrqand; O‘zbekiston
E-mail: javharovjonibek844@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Asteraceace oilasi *Helichrysum* Mill. turkumi turlar soni, tarqalish areali va turkumga mansub bo‘lgan *H.nuratavicum* o‘simligining morfologiyasi, generativ va vegetativ organlarining tuzilishi va labaratoriya sharoitida o‘simlik organlaridagi pigmentlar miqdori aniqlanildi.

Kalit so‘zlar: endemik, populyatsiya, fitogarmon, vegetativ, generativ, pigment.

Аннотация. В данной исследовательской работе в лабораторных условиях были определены количество видов в роде *Helichrysum* Mill. семейства Asteraceae, ареал распространения, морфология растения *H. nuratavicum*, принадлежащего к этому роду, структура его генеративных и вегетативных органов, а также количество пигментов в органах растения.

Ключевые слова:. эндемичный, популяция, фитогормональный, вегетативный, генеративный, пигмент.

Annotation. In this research work, the number of species in the genus *Helichrysum* Mill. of the Asteraceae family, the distribution area, and the morphology of the plant *H. nuratavicum* belonging to the genus, the structure of its generative and vegetative organs, and the amount of pigments in plant organs under laboratory conditions were determined.


Keywords: endemic, population, phytohormonal, vegetative, generative, pigment.

Kirish. Asteraceace oilasiga mansub *Helichrysum* turkumi dunyo florasida ko‘p tarqalgan bo‘lib, deyarli 500 turlari mavud [1;48-56-b.]. Jumladan MDH mamlakatlarida turkumning 16 turi, O‘rta Osiyo mamlakatlarida, xususan Qozog‘iston florasida 2 turi (*H.arenarium* Moench, *H.maracandicum* Popov ex Kirp., *H.mussae* Nevski, *H.thianschanicum* Regel), Turkmanistonda 3 turi (*H.bracteatum* Andr., *H.kopetdagense* Kirp., *H.mussae* Nevski) hamda O‘zbekiston florasida 4 turi (*H.arenarium* Moench, *H.maracandicum* Popov ex Kirp., *H.mussae* Nevski, *H.nuratavicum* Krasch) qayd etilgan.

Helichrysum Mill. turkumi turlari ichida butun dunyoda yagona bo‘lgan turi *Helychrysum nuratavicum* Krasch hisoblanadi. Mazkur tur O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi» ga (2009) kiritilgan [2; 360-b]. *H. nuratavicum* ildizi yog‘ochlashgan, oddiy qalinligi 5 mm atrofida bo‘lgan o‘q ildizli ko‘p yillik o‘simlik. Asosiy ildizning yon tomonlaridan qo‘shimcha mayda ildizlar hosil qiladi. O‘simlik ko‘p sonli hosil bermaydigan, ba’zan 3-6 ta gullaydigan novdalar hosil qilib, bo‘yi 5-20 (35) sm gacha, kulrang to‘rsimon tuklar bilan qoplangan, ba’zan kam sonli bezli tuklar ham aralashgan bo‘ladi. Barglarining chetki qismi pastga qayrilgan uzunchoq lantsetsimon yoki uzunchoq, uzunligi 1,5-2,5 sm, eni 1-2 mm bo‘ladi. Savatchasi 20 tagacha gulli bo‘lib, 2-6 ta teskari konussimon yoki qisqa qo‘ng‘iroqsimon, bo‘yi 4-6 mm, eni 3-4 mm, odatda kalta zich oq tuklar bilan qoplangan gulbandlarida joylashgan bo‘ladi. Gullari sariq rangda bo‘lib

iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi iyul-avgust oylarida yetiladi. *H.nuratavicum* asosan urug‘idan va ildizidan ko‘payadi [3; 78-b]. O‘simlik populyatsiyasining maydoni qisqarishiga sabab antropogen omillarning ta’siri ya’ni yer maydonlarining o‘zlashtirilishi, chorva mollarining boqilishi hisoblanadi. O‘simlik Nurota davlat qo‘riqxonasida muhofaza qilinadi (1-rasm) [8; 26-30].

Ushbu o‘simlik faqat O‘zbekistonda Nurota tizmasi markaziy qismining Nurota davlat qo‘riqxonasida dengiz sathidan 1200 – 2000 metr bo‘lgan balandlikdagi pastki va o‘rta qismidagi toshli – chag‘irtoshli, shag‘alli tog‘ yonbag‘irlardagi turli o‘tli shuvoqzorlar va shuvoq – g‘allali jamoalarda siyrak hamda yakka – yakka holda kichik guruhlar tashkil qilib o‘sadi (2-rasm). *Helichrysum* Mill turkumi o‘simliklari asrlar davomida xalq xo‘jaligida oziq-ovqat mahsulotlari uchun ziravor sifatida, xalq tabobatida hamda kosmetologiyada keng qo‘llanilib kelingan [4; 78-b].



1-rasm. *H.nuratavicum* Krasch tarqalish xaritasi

Bundan tashqari, antioksidantlik, antimikrob, yallig‘lanishga qarshi, qandli diabet va ba’zi xil o‘sma (shish) kasalliklariga qarshi faolliklariga ega ekanligi haqida ma’lumotlar bo‘lib, bunda o‘simlikning asosan damlamasini, barglari va ildizlarini iste’mol qilish yoki yaralarga bog‘lam ko‘rinishida qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar mavjud [5; 10952]. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Nurota tumanida keng tarqalgan *H. nuratavicum* o‘simligi organlari tarkibidagi pigmentlar miqdori o‘rganildi.



2-rasm. *H.nuratavicum* Krasch o‘simligi

O‘simliklar bargida uchraydigan pigmentlar fotosintez jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xlorofillar fotosintez jarayonining barcha birlamchi reaksiyalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Shuning uchun ham o‘simlik barglaridagi xlorofillar miqdori quyosh nurini o‘zlashtirish jadalligi va organik moddalarning hosil bo‘lish tezligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi [6; 103-105-б., 7; 67-71-б., 8; 141-149-б., 9; 172-173-б.].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Nurota o‘lmaso‘ti barglarida ham boshqa yuksak o‘simliklardagi kabi xlorofill “a” miqdori xlorofill “b” ga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Xlorofillarning umumiy miqdori esa o‘simlikning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda vegetatsiyaning turli davrlarida sezilarli darajada o‘zgarib borishi kuzatildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Vegetatsiyaning dastlabki bosqichidan boshlab gullash davrigacha barcha tajriba variantlarida xlorofillarning umumiy miqdori ortib bordi. Vegetatsiyaning so‘nggi bosqichlarida esa xlorofillarning umumiy miqdorida kamayish tendensiyasi qayd etildi. Ushbu holatni o‘simliklarda o‘sish jarayonining sekinlashuvi va pishish davrining boshlanishi bilan izohlash mumkin.

O‘simliklarda xlorofillar bilan bir qatorda karotinoidlar deb ataluvchi sariq, to‘q sariq va qizil rangdagi pigmentlar guruhi ham uchraydi. Ushbu pigmentlar barcha o‘simliklarning xloroplastlarida mavjud bo‘lib, hatto yashil bo‘lmagan to‘qimalardagi xloroplastlar tarkibiga ham kiradi. Karotinoidlar bir qator muhim fiziologik funksiyalarni bajaradi, jumladan, o‘simliklarni noqulay ekologik omillar ta’siridan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ular qisqa to‘lqin uzunligiga ega bo‘lgan nurlarni qabul qilib, energiyani xlorofillarga uzatadi va fotosintez jarayonida faol ishtirok etadi [10; 165-179-б., 11; 191-218-б., 12; 206-234-б., 13; 53-56-б.].

Plastid pigmentlarining miqdori o‘simliklarda fotosintetik jarayonlar jadalligini ma’lum darajada aks ettirib, ularning o‘sishi va rivojlanishi sur’atlarini hamda hosildorlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Nurota o‘lmaso‘ti o‘simliklarida ham barglardagi plastid pigmentlari miqdori va karotinoidlarning hosil bo‘lish dinamikasi ularning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda vegetatsiya davomida muntazam o‘zgarib boradi.

O‘simlikni yer ustki qismini labaratoriya sharoitida pigmentlarini aniqlash maqsadida yangi bargi, poyasi va gulini chinni hovonchaga solib, unga qum yoki kvars aralashtirilib yaxshilab ezib olindi. Hosil bo’lgan massaga 10 ml 96% li etil spirti qo‘shildi va spirt to‘q yashil eritmasi filtrlanib eritma ajratib olindi. Ajratib olingan suyuqlik spektrofotometr asbobi yordamida o‘simlik tarkibidagi pigmentlar aniqlandi.

***H. nuratavicum* pigmentlarining miqdoriy ko‘rsatgichlari**

1-jadval

Pigmentlar	**Barg**	**Poya**
Xlorofil “a”	3.15±0.0945	2.75±0.1045
Xlorofil “b”	2.91±0.087	1.71±0.077
β karotin	0.691±0.0028	0.194±0.097
Karotinoid	2.01±0.07	1.39±0.032

O‘simlik tarkibidagi pigmentlarni aniqlashda o‘simlikning yer ustki qismi ya’ni poya va barglarining tarkibidagi xlorofil a, b, karotinlar miqdoriy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot natijalarida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘simlikning bargiga nisbatan poyada pigmentlar miqdori nisbatan kam uchrashligi ilmiy metodik jihatdan o‘z aksini isbotladi. Unga ko‘ra o‘simlikda xlorofil a barg qismida 3.15±0.0945 mg⁄g.l, poyada 2.75±0.1045 mg⁄g.l, xlorofil b bargda 2.91±0,087 mg⁄g.l, poyada 1.71±0.077 mg⁄g.l ni karatinoidlar miqdori bargda 2.01±0.07 mg/g.l, poyada esa 1.39±0.032 mg/g.l ni tashkil etdi. Karotinoid miqdori ko‘p chiqishi bu kserofit o‘simlik hisoblanganligi va noqulay omillar tas’iriga chidamliligi yuqori ekanligini bildiradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishida *Helichrysum* Mill. turkumiga mansub *H.nuratavicum* o‘simligining morfologik tuzilishi va uning organlari tarkibidagi pigmentlar analizi o‘tkazilib xlorofil-a, xlorofil-b va karotinoidlari miqdori aniqlanilib uning yana bir bor kserofit o‘simlik ekanligi aniqlanildi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Maxkamov T.X., Xujanov A.N., Xujanova D.N. Gerbariy koleksiyalari floristik tadqiqotlarda *Helichrysum* L. Turkumi gerbariylari tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi. - Namangan. 2020.№6. - B. 48-56.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi”. 2-tomda. – Toshkent: Chinor ENK. - 2009. - T.1. - B. 360.
3. Flora Uzbekistana. // Tashkent: AN UZSSR. - 1962. - T.6. - S.78-81. 136
4. Flora Kirgizskoy SSR. // Frunze: AN KIRGSSR. - 1965. - T.11. - S.78-81-b.
5. The British Pharmacopoeia (Veterinary). // General Notices. - 2009. - Vol.4. – P. 10952.
6. Сафаров К.С.,Сафаров А.К. Влияние экстримальных факторов на содержание пластидных пигментов в листьях растений// Актуальные проблемы молекулярной биологии растений.-Материалы международной-практической конференции.-Ташкент, 2008. -С. 103-105.
7. Paillotin Guy. Queue peat-on sparer de la photosynthesis des vegetaux. France. C. r. Acad. agr. Fr. 2005, Vol.91. – №1. - P. 67-71.
8. Shangguan Z.P., Shao M.A., Dyckmans J. Nitrogen nutrition and water stress effects on leaf photosynthetic gas exchange and water use efficiency in winter wheat. USA. Environ and Exp. Bot. 2000, Vol.44. - №2. - P.141-149.
9. Beknazarov B.O. O’simliklar fiziologiyasi.- T.: Aloqachi, 2009.-536 b
10. Jones M.J. and Singh M. Time trends in crop yields in long-term trials. Experimental Agriculture 2000, Vol.36. - №2, - P. 165-179.
11. Алехина Н.Д., Балнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф., Жигалова Т.В., Мейчик Н.Р., Носов А.М., Полесская О.Г., Харитоншвили Е.В., Чуб В.В. Физиология растений. – М.: Академия, 2007. - 640 с.
12. Кузнецов В.В., Дмитриева Г.А. Физиология растений.- М.: Абрис, 2011. – 783 с.
13. Хўжаев Ж.Х. Ўсимликлар физиологияси. – Тошкент: Меҳнат, 2004.-223 б.

SFERIK UCHBURCHAK TAHLILI VA UNI HAYOTGA TATBIQ QILISH

D.M.Abduxamidova, *O‘zMPU Aniq fanlar oliy maktabi, 3-kurs talabasi*

D.M.Abduxamidova, *KDPI Aniq va tabiiy fanlar, 1-kurs talabasi*

Ushbu maqolada sferik uchburchak tushunchasi, uning asosiy xossalari hamda sferik geometriyada qo‘llaniladigan kosinuslar va sinuslar teoremalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, ushbu teoremalar yordamida sferik uchburchak elementlarini hisoblash usullari ko‘rib chiqiladi. Maqolada sferik geometriyaning amaliy ahamiyati va uning astronomiya, navigatsiya, geodeziya hamda ammonia texnologiyalardagi qo‘llanilishi misollar orqali tushuntiriladi.

Kalie so‘zlar: sferik uchburchak, sferik geometriya, kosinuslar teoremasi, sinuslar teoremasi, astronomiya, navigatsiya, geodeziya, amaliy matematika.


В данной статье подробно рассматриваются понятие сферического треугольника, его основные свойства, а также теоремы косинусов и синусов, применяемые в сферической геометрии. Также описываются методы вычисления элементов сферического треугольника с помощью этих теорем. Особое внимание уделяется практическому значению сферической геометрии и её применению в астрономии, навигации, геодезии и современных технологиях.

Ключевые слова: сферический треугольник, сферическая геометрия, теорема косинусов, теорема синусов, астрономия, навигация, геодезия, прикладная математика.

This article provides a detailed overview of the spherical triangle, its main properties, and the laws of cosines and sines used in spherical geometry. It also explains methods for calculating the elements of a spherical triangle using these theorems. Special attention is given to the practical importance of spherical geometry and its applications in astronomy, navigation, geodesy, and modern technologies.

Keywords: spherical triangle, spherical geometry, law of cosines, law of sines, astronomy, navigation, geodesy, applied mathematics.

Ta'rif. S nuqtadan chiquvchi $a_1, a_2, ...a_n$ nurlarni qaraymiz. $a_1, a_2, a_3; a_2, a_3, a_4; a_n, a_1, a_2$ larning birortasi bir tekislikda yotmasin, deb kelishib olaylik. $(a_1, a_2), (a_2, a_3, ..., (a_n, a_1)$ $(a_1, a_2), (a_2, a_3, ..., (a_n, a_1)$ burchaklardan tuzilgan figura ko'pyoqli burchak deb ataladi.(1-rasm)



(1-rasm)


Osmon jismlarining ko'rinma va haqiqiy harakatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p masalalarni yechish sferik uchburchak xossalari va formulalariga tayanadi. Sferaning biror katta aylanasi tekisligi bo'ylab yotmaydigan uch nuqtasi orqali o'tkazilgan katta aylanalarning kesishishidan hosil bo'lgan uchburchak sferik uchburchak deyiladi. Sferik uchburchakning burchagi deb, shu burchakning tashkil etuvchi katta aylana tekisliklari hosil qilgan ikki yoqli burchakka aytiladi. Bu sferik burchaklar uning uchlaridan tomonlariga o'tkazilgan urinmalar orasidagi tekis burchak bilan o'lchanadi. Sferik uchburchak ichki burchaklarining yig'indisi $180°$ katta bo'lib $540°$ dan kichik bo'ladi. Sferik uchburchak ichki burchaklari yig'indisi va orasidagi farq sferik orttirma deb yuritiladi.

$$\sigma = \angle A + \angle B + \angle C - 180°$$

Sferik orttirma bilan sferik uchburchakning yuzi orasida quyidagi bog'lanish mavjud.

$$S = \sigma \frac{\pi R^2}{180°}$$

bu yerda R —sfera radiusi.



Tekislik uchburchagi sferikuchburchakdan keskin farq qilganidan uning formulalarini sferik uchburchak uchun qo'llab bo'lmaydi. Sferik uchburchak formulalarini chiqaraylik. Uchlari A, B va C nuqtalarda yotgan sferik uchburchak, radiusi R va markazi O nuqtada bo'lgan sferada yotsin (2 – rasm). B va C nuqtalaridan o'tgan radius yunalishlari OB va OC larni A uchidan b va c tomonlariga o'tkazilgan urinmalar bilan kesishguncha davom ettiramiz. Bu kesishgan nuqtalar (K va L) ni o'zaro tutashtirib, bir tomoni (KL) umumiy bulgan ikkita teng yonli AKL va OKL uchburchaklarni hosil qilamiz. Bu uchburchaklarning umumiy tomoni KL ning kattaligini har ikkala uchburchakdan alohida—alohida topsak,

AKL dan: $KL^2 = AK^2 + AL^2 - 2 \cdot AK \cdot AL \cdot \cos A$ (2)

OKL dan: $KL^2 = OK^2 + OL^2 - 2 \cdot OK \cdot AL \cdot \cos \alpha$ (3)

(3) dan (2) ni ayirsak:

$$2 \cdot OK \cdot AL \cdot \cos\alpha = OK^2 - AK^2 + OL^2 - AL^2 + 2 \cdot AK \cdot AL \cdot \cos A \quad (4)$$

Endi AOK va ALO uchburchaklar to‘g‘ri burchakli ekanligidan ulardan topilgan radius:

$$R^2 = OK^2 - AK^2,\ R^2 = OL^2 - AL^2 \quad (5)$$

bo‘ladi. Shuningdek, bu uchburchaklardan:

$$\frac{R}{OK} = \cos c \quad \text{yoki} \quad OK = \frac{R}{\cos c}$$

$$\frac{R}{OL} = \cos b \quad \text{yoki} \quad OL = \frac{R}{\cos b}$$

$$\frac{AK}{R} = tgc \quad \text{yoki} \quad AK = R \cdot tgc = R \cdot \frac{\sin c}{\cos c}$$

$$\frac{AL}{R} = tgc \quad \text{yoki} \quad AL = R \cdot tgc = R \cdot \frac{\sin b}{\cos b} \quad (6)$$

(5) va (6) larni ga qo‘yib ixchamlab, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$2 \cdot \frac{R}{\cos c} = \frac{R \cdot \cos a}{\cos b} = R^4 + R^2 + 2R^2 = \frac{\sin c}{\cos c} = \frac{\sin b}{\cos b} = A \quad \text{uni} \quad 2R^2 \quad \text{ga bo’lsak,}$$

$$\frac{\cos a}{\cos b \cdot \cos c} = 1 + \frac{\sin b \cdot \sin c}{\cos b \cdot \cos c} = A \quad \text{yoki} \quad \cos a = \cos b \cdot \cos c + \sin b \cdot \sin c \cdot \cos A \quad (7)$$

Demak, sferik uchburchakda bir tomonining kosinusi qolgan ikki tomonining kosinuslari bilan shu tomonlar sinuslari va ular orasidagi burchak kosinusiga ko‘paytmasining yig‘indisiga teng bo‘ladi. (7) formulani sferik uchburchakning boshqa tomonlari uchun ham yozish mumkin.

$$\cos b = \cos c \cdot \cos a + \sin c \cdot \sin a \cdot \cos B$$

$$\cos c = \cos a \cdot \cos b + \sin a \cdot \sin b \cdot \cos C \quad (8)$$

(8) tenglamalardan (5) formuladagi $\cos a$ o‘riniga (4) tenglamaning o‘ng tomonini qo‘ysak, u holda:

$$\cos b = \cos c \cdot (\cos b \cdot \cos c + \sin b \cdot \sin c \cdot \cos A) + \sin c \cdot \sin a \cdot \cos B$$

$$\cos b = \cos^2 c \cdot \cos b \cdot + \sin c \cdot \sin c \cdot \cos A + \sin c \cdot \sin a \cdot \cos B$$

$$\cos b(1 - \cos^2 c) = \sin b \cdot \sin c \cdot \cos A \cdot \cos B + \sin c \cdot \sin a \cdot \cos B$$

$1 - \cos^2 c = \sin^2 c$ ga almashtirib barcha had larini $\sin c$ ga bo‘lsak:

$$\cos b \cdot \sin c = \sin b \cdot \cos c \cdot \cos A + \sin a \cdot \cos B \quad \text{yoki}$$

$$\sin a \cdot \cos B = \cos b \cdot \sin c - \sin b \cdot \cos c \cdot \cos A$$

Shuningdek:

$$\sin b \cdot \cos C = \sin a \cdot \cos c - \sin c \cdot \cos a \cdot \cos B \quad (9)$$

$$\sin c \cdot \cos A = \sin b \cdot \cos a - \sin a \cdot \cos b \cdot \cos C$$

demak, sferik uchburchakda biror tomoni sinusining shu tomonga yopishgan burchak kosinusiga ko`paytmasi, burchakni chegaralovchi ikkinchi tomon sinusining uchinchi tomon kosinusiga ko‘paytmasidan chegaralovchi tomon kosinusini uchinchi tomon sinusiga va keyingi ikki tomon orasidagi burchak kosinusi ko‘paytmasi ayrilganiga teng. (3) formulalar sferik uchburchakning besh elementli formulalari deb yuritiladi. Endi (1) tenglamani $\cos A$ ga nisbatan aniqlab, sinuslar formulalarini topamiz.

$$\cos A = \frac{\cos a - \cos b \cdot \cos c}{\sin b \cdot \sin c} \quad (10)$$

Ikkala tomonini kvadratga ko‘tarib:

$$\cos^2 A = \frac{(\cos a - \cos b \cdot \cos c)^2}{\sin^2 b \cdot \sin^2 c} \quad (11)$$



hosil qilamiz. ning har ikkala tomoninidan ayirsak:

$$1 - \cos^2 A = 1 - \frac{(\cos a - \cos b \cdot \cos c)^2}{\sin^2 b \cdot \sin^2 c}$$

bu yerda $1-\cos^2\theta$ ni $\sin^2\theta$ bilan almashtirib, tenglikning ikkala tomonini $\sin^2 a$ ga bo‘lsak:

$$\sin^2 A = 1 - \frac{(\cos a - \cos b \cdot \cos c)^2}{\sin^2 b \cdot \sin^2 c} \text{ yoki}$$

$$\frac{\sin^2 A}{\sin^2 a} = \frac{(1-\cos^2 b)\cdot(1-\cos^2 c) - (\cos a - \cos b \cdot \cos c)^2}{\sin^2 a \cdot \sin^2 b \cdot \sin^2 c}$$

Qavslarni ochib ixchamlasak,

$$\frac{\sin^2 A}{\sin^2 a} = \frac{1 - \cos^2 b - \cos^2 c + \cos^2 b \cdot \cos^2 c - \cos^2 a + 2 \cdot \cos a \cdot \cos b \cdot \cos c - \cos^2 b \cdot \cos^2 c}{\sin^2 a \cdot \sin^2 b \cdot \sin^2 c}$$

Demak,

$$\frac{\sin^2 A}{\sin^2 a} = \frac{1 - \cos^2 a - \cos^2 b - \cos^2 c + 2\cos a \cdot \cos b \cdot \cos c}{\sin^2 a \cdot \sin^2 b \cdot \sin^2 c} \quad (12)$$

olingan natija a, b, c lar uchun simmetrik bo‘lganidan

$$\frac{\sin^2 B}{\sin^2 b} = \frac{1 - \cos^2 a - \cos^2 b - \cos^2 c + 2\cos a \cdot \cos b \cdot \cos c}{\sin^2 a \cdot \sin^2 b \cdot \sin^2 c}$$

$$\frac{\sin^2 C}{\sin^2 c} = \frac{1 - \cos^2 a - \cos^2 b - \cos^2 c + 2\cos a \cdot \cos b \cdot \cos c}{\sin^2 a \cdot \sin^2 b \cdot \sin^2 c} \quad (12)$$

da tenglamalarning o‘ng tomonlari teng bo‘lganidan

$$\frac{\sin^2 A}{\sin^2 a} = \frac{\sin^2 B}{\sin^2 b} = \frac{\sin^2 C}{\sin^2 c} \quad (13)\text{dan}$$

$$\frac{\sin A}{\sin a} = \frac{\sin B}{\sin b} = \frac{\sin C}{\sin c} = const \quad (14)$$

Sferik uchburchak istalgan burchagi sinusining bu burchak qarshisidagi tomon sinusiga nisbati o‘zgarmas kattalikdir. Yuqorida keltirilgan formulalar osmon jismlariga doir ko‘plab masalalarni yechishga imkon beradi. Osmon koordinalarining biridan ikkinchisiga o‘tish parallaktik uchburchak yordamida amalga oshiriladi. Masala yechish darslarida va astronomik

kuzatishlar jarayonida osmon koordinatalarini almashtirish va tahlil qilishga sferik uchburchak uchun kosinuslar teoremasi qo‘l keladi.

Sferik uchburchak va uning hayotdagi qo‘llanilishi

Sferik uchburchakning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u shar sirtida joylashgan uchta katta doira yoylari bilan chegaralangan soha hisoblanadi. Oddiy tekislikdagi uchburchakdan farqli ravishda, sferik uchburchak Yer kabi sferik jismlarda yuzaga keladi. Shu sababli uning amaliy ahamiyati juda katta.

1. Aviatsiyada qo‘llanilishi

Zamonaviy aviatsiyada samolyotlar har doim ham tekis chiziq bo‘ylab uchmaydi. Yer shar shaklida bo‘lgani uchun eng qisqa yo‘l katta doira yoylari orqali aniqlanadi.

Masalan, Toshkentdan New Yorkga uchishda yo‘nalish va masofa sferik uchburchak formulalari yordamida hisoblanadi. Bu:

- yoqilg‘ini tejaydi
- vaqtni qisqartiradi
- xavfsizlikni oshiradi

2. Dengiz navigatsiyasida

Dengizchilarda aniq yo‘nalishni topish juda muhim. Okeanda hech qanday to‘g‘ri chiziq yo‘q — faqat sferik sirt mavjud. Shuning uchun kemalar harakat yo‘nalishini aniqlashda sferik uchburchaklardan foydalanadi. Bu ayniqsa uzoq masofali safarlarda muhim hisoblanadi.

3. GPS va sun’iy yo‘ldosh tizimlarida

(GPS) tizimi inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. GPS ishlash jarayonida Yer sfera sifatida qaraladi. Sun’iy yo‘ldoshlar bilan hosil bo‘lgan uchburchaklar orqali joylashuv aniqlanadi. Natijada biz telefon orqali o‘z joylashuvimizni aniq bilamiz.

4. Kartografiyada (xarita tuzishda)

Yer tekis emasligi sababli uni qog‘ozga tushirish murakkab masala hisoblanadi. Xaritalar tuzishda:

- masofalar
- burchaklar
- yo‘nalishlar

aniq bo‘lishi uchun sferik uchburchaklardan foydalaniladi. Bu fanining asosiy qismidir.

5. Astronomiyada

Astronomiyada osmon sferasi tushunchasi qo‘llaniladi. Yulduzlar, sayyoralar va boshqa jismlar joylashuvi sferik koordinatalar orqali aniqlanadi. Sferik uchburchak yordamida:

- yulduzlar orasidagi burchak
- osmondagi jismlar joylashuvi hisoblanadi.

Metodik ahamiyati

Sferik uchburchak mavzusi o‘quvchilarga matematikani real hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Dars jarayonida globusdan foydalanish,samolyot marshrutlarini ko‘rsatish, xaritalar bilan ishlash o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Бакулин П., Кононович Э., Мороз В. Курс обще астроно-мии. М.Наука, 1997 г.

2. Мамадазимов М. “Сферик ва амалий астрономиядан масалалар” Т., Ўқитувчи, 1977 й.

3. Mamadazimov M. Astronomiya, AL va KHKlari uchun darslik. -T: «O‘qituvchi», 2004. ,

4. Mamadazimov M.M. Umumiy Astronomiya. Toshkent,“Yangi asr avlodi’, 2008.

ANIQ INTEGRALLARNI PARABOLALAR(SIMPSON) FORMULASIDAN FOYDALANIB TAQRIBIY HISOBLASH

Odilova Dilbar Sirojiddin qizi , Abduxamidova Dinora Murodjon qizi
odilovadilbar62@gmail.com , abduxamidovadinora@gmail.com
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Biz integral ostidagi funksiyaning boshlang‘ichi ma’lum bo‘lsa , aniq integralni Nyuton-Leybnis formulasi yordamida hisoblash mumkin ekanligini bilamiz. Ammo boshlang‘ich funksiyani topish masalasi har doim ham osongina bo‘lavermaydi. Agar integral ostidagi funksiya murakkab bo‘lsa tegishli aniq integralni hisoblashning taqribiy usullarini qo‘llash lozim. Quyida biz shunday usullardan biri bo‘lgan Simpson (Parabolalar) formulasini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: simpson, ko‘phad, aniq integral, funksiya, parabola, egri chiziqli trapetsiya.

Parabolalar(Simpson) formulasi: bu holda [a,b] oraliqda aniqlangan va uzluksiz f(x) funksiyaning $\int_a^b f(x)dx$ integralni taqribiy hisoblash uchun f(x) funksiyani $(a,\ f(a))$, $(\frac{a+b}{2}, f(\frac{a+b}{2}))$ hamda $(b,\ f(b))$ nuqtalaridan o‘tuvchi $y = Ax^2 + Bx + C$ parabola nuqtasining ordinatasi bilan almashtiramiz. Berilgan $(a,\ f(a))$, $(\frac{a+b}{2}, f(\frac{a+b}{2}))$ va $(b,\ f(b))$ nuqtalar orqali parabola yagona bo‘ladi. Haqiqatdan ham $y = Ax^2 + Bx + C$ parabola yuqorida aytilgan nuqtalar orqali o‘tgani uchun ushbu

$$\begin{cases} Aa^2 + Ba + C = f(a) \\ A(\frac{a+b}{2})^2 + B(\frac{a+b}{2}) + C = f(\frac{a+b}{2}) \\ Ab^2 + Bb + C = f(b) \end{cases}$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi. Bu sistemaning koefitsiyentlaridan tuzilgan

$$\begin{vmatrix} a^2 & a & 1 \\ (\frac{a+b}{2})^2 & \frac{a+b}{2} & 1 \\ b^2 & b & 1 \end{vmatrix} = (\frac{a+b}{2})^3$$

determinant har doim noldan farqli (chunki $a \neq b$). Demak sistema yagona yechimga ega. Bu hol $(a, f(a))$, $(\frac{a+b}{2}, f(\frac{a+b}{2}))$ hamda $(b, f(b))$ nuqtalardan yagona $y = Ax^2 + Bx + C$ parabola o‘tishini bildiradi. Endi $\int_a^b (Ax^2 + Bx + C)dx$ integralni berilgan $\int_a^b f(x)dx$ integralning taqribiy qiymati deb quyidagi

$$\int_a^b f(x)dx \approx \int_a^b (Ax^2 + Bx + C)dx$$


formulani hosil qilamiz. Bu taqribiy formuladagi $\int_a^b (Ax^2 + Bx + C)dx$ integralni hisoblaymiz:

$\int_a^b (Ax^2 + Bx + C)dx = A \cdot \frac{x^3}{3}|_a^b + B \cdot \frac{x^2}{2}|_a^b + C \cdot x|_a^b = A\frac{b^3-a^3}{3} + B\frac{b^2-a^2}{2} + C(b - \ -a) =$
$\frac{b-a}{6}[2A(b^2 + ba + a^2) + 3B(b-a) + 6C] = \frac{b-a}{6}\left\{(Aa^2 + Bb + C) + \ +4\left[A\left(\frac{a+b}{2}\right)^2 + B\left(\frac{a+b}{2}\right) + C\right] + (Ab^2 + Bb + C)\right\} = \frac{b-a}{2}[f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + \ + f(b)]$

Shunday qilib , $\int_a^b f(x)dx$ integralni taqribiy hisoblash uchun ushbu

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{6}[f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b)] \qquad (1)$$

formulaga kelamiz.



Bu (1) formula $f(x) \geq 0$ bo‘lganda aA||Bb egri chiziqli trapetsiya yuzi bilan almashtirilishini ifodalaydi.

(1) formulaning aniqligini oshirish uchun [a,b] oraliqni

$$a_0 = x_0, x_1, \dots, x_{2k}, x_{2k+1}, x_{2k-2}, \dots, x_{2n-2}, x_{2n-1}, x_{2n} = b$$

$$(x_0 < x_1 < x_2 \dots x_{2k} < x_{2k+1} < x_{2k+2} < \cdots x_{2n-2} x_{2n-1} x_{2n})$$

nuqtalar yordamida $2n$ ta teng bo‘lakka bo‘lib , har bir $[x_{2k}, x_{2k+2}]$, $(k = 0,1,2, \dots, n-1)$ oraliq bo‘yicha olingan integralga (1) formulani qo‘llaymiz. U holda $[x_{2k}, x_{2k+2}]$ oraliq uchun

$$\int_{x_{2k}}^{x_{2k+2}} f(x)dx \approx \frac{x_{2k+2}-x_{2k}}{6}[f(x_{2k}) + 4f(x_{2k+1}) + f(x_{2k+2})] = \frac{b-a}{6n}[f(x_{2k}) + 4f(x_{2k+1}) + f(x_{2k+2})] \quad (k = 0,1,2, \dots, n-1) \quad (2)$$

formulaga egamiz.

Natijada aniq integralning xossasidan foydalanib , quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$\int_a^b f(x)dx = \int_{x_0}^{x_2} f(x)dx + \int_{x_2}^{x_4} f(x)dx + \dots + \int_{x_{2n-2}}^{x_{2n}} f(x)dx \approx \frac{b-a}{6n}\big[\big(f(x_0) + 4f(x_1) + f(x_2)\big) + \big(f(x_2) + 4f(x_3) + f(x_4)\big) + \cdots + \big(f(x_{2n-2}) + 4f(x_{2n-1}) + f(x_{2n})\big)\big] = \frac{b-a}{6n}[(f(x_0) + f(x_{2n})) + 4f(x_1) + f(x_3) + \cdots + f(x_{2n-1})) + 2(f(x_2) + f(x_4) + \cdots + f(x_{2n-2}))].$$

Shunday qilib , $f(x)$ funksiyaning aniq integralini taqribiy ifodalaydigan quyidagi

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{6n}[(f(x_0) + f(x_{2n})) + 4f(x_1) + f(x_3) + \cdots + f(x_{2n-1})) + 2(f(x_2) + f(x_4) + \cdots + f(x_{2n-2}))].$$

formulaga kelamiz. Bu formula *parabolalar(yoki simpson)formulasi* deb ataladi.

Misol: $\int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} \frac{\sin x}{x} dx$ integralni parabolalar(simpson) formulasi orqali taqribiy hisoblang.

Yechish: simpson formulasi bo‘yicha hisoblash uchun [a,b] kesmani $2n$ ta bo‘lakka bo‘lamiz. Ya’ni $[\frac{\pi}{4}, \frac{\pi}{2}]$ oraliqni 5 ta teng bo‘lakka bo‘lamiz. Bo‘linish nuqtalarini quyidagi qonuniyat orqali topish o‘rinli : $x_k = \frac{\pi}{4} + \frac{\pi k}{16}$ $(k = 0,1,2, \dots, n)$. Bu qonuniyatga ko‘ra bo‘linish nuqtalari:

$$x_0 = \frac{\pi}{4},\ x_1 = \frac{5\pi}{16},\ x_2 = \frac{3\pi}{8},\ x_3 = \frac{7\pi}{16},\ x_4 = \frac{\pi}{2}$$

bo‘lib, bu nuqtalarda $f(x) = \frac{\sin x}{x}$ funksiyaning qiymatlari quyidagicha:

$$f(x_0) = 0.90031$$
$$f(x_1) = 0.84692$$
$$f(x_2) = 0.78421$$
$$f(x_3) = 0.71358$$
$$f(x_4) = 0.63662$$

Endi formulaga qo‘ysak,

$$\int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} \frac{\sin x}{x}\,dx \approx \frac{\frac{\pi}{2}-\frac{\pi}{4}}{12} \cdot \left[\left(\frac{\sin\frac{\pi}{4}}{\frac{\pi}{4}} + \frac{\sin\frac{\pi}{2}}{\frac{\pi}{2}}\right) + 4 \cdot \left(\frac{\sin\frac{5\pi}{16}}{\frac{5\pi}{16}} + \frac{\sin\frac{7\pi}{16}}{\frac{7\pi}{16}}\right) + 2 \cdot \left(\frac{\sin\frac{3\pi}{8}}{\frac{3\pi}{8}}\right)\right]$$
$$= 0.06544 \cdot [(0.90031 + 0.63662) + 4 \cdot (0.84692 + 0.71358) + 2 \cdot 0.78421]$$
$$\approx 0.61169$$

ni hosil qilamiz.

Xulosa: Simpson (parabolalar) formulasi aniq integralni hisoblashda samarali va aniqligi yuqori bo‘lgan taqribiy usullardan biridir. Ushbu usul funksiyani kesma bo‘yicha parabolalar bilan yaqinlashtirish orqali integral qiymatini tez va qulay hisoblash imkonini beradi. Ayniqsa, murakkab funksiyalar uchun Simpson formulasi amaliy hisob-kitoblarda ishonchli natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet mabaalari:

1.T.Azlarov , H.Mansurov. “Matematik analiz”(1-qism)

2.G.Xudayberganov va boshqalar. “Matematik analizdan ma’ruzalar”

3.Sh.R.Xurramov, “Oliy matematika ”(1-jild, Toshkent-2018)

4. A.Gaziyev, I.Isroilov , M.Yaxshiboyev, “Matematik analizdan misol va masalalar”

5. https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/8473/6243/6306

6. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/algebra/aniq-integrallarni-taqribiy-hisoblashda-simpson-parabol

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Simpson%27s_rule

8. https://share.google/kgK0N40VcVWXk5Z48

METANDAN MONOXLORMETAN OLISH: AN’ANAVIY VA OKSIDLOVCHI GALOGENLASH USULLARINING SOLISHTIRMA TAHLILI

H.I.Hikmatova, F.Q. Ziyatova, J.J.Javxarov.

Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Instituti. Kattaq‘rg’on. Uzbekiston

hikmatovahilola00@gmail.com

Annotatsiya: *Metan (CH_4) tabiiy gazning asosiy komponenti bo‘lib, uni yuqori qo‘shimcha qiymatga ega kimyoviy mahsulotlarga aylantirish zamonaviy kimyo sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Metandan olinadigan muhim hosilalardan biri monoxlormetan (CH_3Cl) bo‘lib, u silikon polimerlar, farmatsevtika moddalar va turli organik reagentlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Mazkur maqolada metandan monoxlormetan olishning an’anaviy galogenlash hamda oksidlovchi galogenlash usullari tahlil qilindi. Reaksiya mexanizmlari, katalitik tizimlar hamda jarayon selektivligiga ta’sir etuvchi omillar solishtirildi. Zamonaviy katalizatorlar asosida metan molekulasining selektiv funksionallashuvi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: metan, monoxlormetan, xlorlash, oksidlovchi galogenlash, kataliz, selektiv reaksiyalar.

Metanni faollashtirish jarayonlari, masalan, qisman oksidlanish, bug‘ islohoti va avtomatik issiqlik islohoti qo‘llanildi, ammo bu jarayonlar kapital va energiya talab qiladigan cheklovlar mavjud[1-3]. Galogen vositachiligidagi metanni faollashtirish 450-550^{0}C oralig‘ida past harorati tufayli qulay jarayon sifatida qaraldi. Metil galogenidlar metan galogenlash jarayonida ishlab chiqarilgan turli xil qimmatbaho kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish uchun platforma materiallari, masalan, metanol, sirka kislotasi, dimetil efir, C_8–C_{13} aromatik moddalar va boshqalar. Xlor va brom asosan galogen manbai sifatida ishlatiladi. Gazsimon galogen yordamida metan galogenatsiyasi quyidagi reaksiyalarga muvofiq sodir bo‘lishi ma’lum[5-4].

$CH_4 + Br_2 \rightarrow CH_3Br + HBr$, ($\Delta H_r^\circ(298\ K) = -27.597\ kJ\ mol^{-1}$)

$CH_4 + Cl_2 \rightarrow CH_3Cl + HCl$, ($\Delta H_r^\circ(298\ K) = -101.18\ kJ\ mol^{-1}$)

Metanni termik xlorlashning birinchi kinetik tadqiqoti 1931-yilda Pease va Walz tomonidan o'tkazilgan (Dumas esa 1840-yilda alkanlarni almashtirish orqali galogenlashning eng qadimgi usuli haqida xabar bergan. Ular metan va xlor 400 °C da reaksiyaga kirishishini ta'kidladilar va 250 °C xavfsizroq haroratda tajribalar o'tkazdilar. Mahsulotlar tarkibiga metan ortiqcha bo'lsa, ekvivalent miqdorda HCl bilan metil xlorid, metilen diklorid, xloroform va uglerod tetraklorid kiritilgan. Agar xlor ortiqcha bo'lsa, aralashmalar portlovchi bo'ladi va uglerod va vodorod xlorid asosiy mahsulotlar hisoblanadi. Ular shuningdek, kislorodning kuchli inhibitiv ta'sirga ega ekanligini aniqladilar. Quyidagi reaksiyalar sodir bo'lishi aniqlandi[4-6]

$$CH_4 + Cl_2 \rightarrow CH_3Cl + HCl$$
$$CH_3Cl + Cl_2 \rightarrow CH_2Cl_2 + HCl$$
$$CH_2Cl_2 + Cl_2 \rightarrow CCl_4 + HCl$$
$$CHCl_3 + Cl_2 \rightarrow CCl_4 + HCl$$

Kinetika atmosfera bosimida ikkinchi darajali reaksiyaga ergashdi, faollashuv energiyasi 132,3 kJ/mol ni tashkil etdi:

$$\frac{-\mathrm{d}[Cl_2]}{\mathrm{dt}} = k_1[CH_4][Cl_2]$$

Ushbu reaksiyalar cheklovga ega, chunki ishlab chiqarilgan HX dan X_2 ni qayta tiklash jarayoni talab qilinadi. Boshqa tomondan, metanning O_2 va HX yordamida oksidlovchi galogenlanishi mavjud bo‘lishning afzalliklariga ega termodinamik jihatdan yuqorida tavsiflangan gazsimon galogenatsiyaga qaraganda qulayroq va qo‘shimcha regeneratsiya jarayonini talab qilmaydi. Nazariy jihatdan metan oksidlanish galogenatsiyasi quyidagi reaksiyalarda sodir bo'ladi[7].

$CH_4 + HBr + 1/2O_2 \rightarrow CH_3Br + H_2O$, ($\Delta H_r^\circ(298\ K) = -165.71\ kJ\ mol^{-1}$)

$CH_4 + HCl + 1/2O_2 \rightarrow CH_3Cl + H_2O$, ($\Delta H_r^\circ(298\ K) = -158.38\ kJ\ mol^{-1}$)

Aglulin va boshqalar shunga o'xshash kinetik tartiblarni topdilar. Kislorod qo'shilishi reaksiya tezligining sezilarli darajada pasayishini ko'rsatdi. Ingibitiv ta'sir konsentratsiyaga mutanosib va metan konsentratsiyasidan mustaqil edi:

$$\frac{-\mathrm{d}[Cl_2]}{\mathrm{dt}} = k_2 \frac{[Cl_2]^2}{[O_2]}$$

Kislorod reaksiya zanjirini tugatadi deb taxmin qilingan[8].

HCl dan galogen manbai sifatida foydalanish o‘zining afzalliklariga ega. Chunki HCl ning narxi HBr bilan solishtirganda pastroq. Biroq, xlorlash bromlashga qaraganda kamroq selektivdir va metan oksidlovchi xlorlash haqidagi oldingi tadqiqotlar hali yaxshi o‘tkazilmagan oksidlovchi bromlash katalizatorlarning ayrim toifalari, masalan, mis asosidagi katalizatorlar, metall oksixlorid, metall oksidi va metall fosfat, metanni oksidlovchi xlorlash uchun taklif qilingan. Ulardan CeO_2 mukammal faolligiga qaramay, CO va CO_2 kiruvchi mahsulotlar sifatida ishlab chiqariladi yon reaksiyalardan (ishlab chiqarilgan xlormetanning qo'shimcha xlorlanishi va oksidlanishi)[6].

Bu jarayon ko‘pincha katalitik muhitda amalga oshiriladi. Katalizator sifatida lanthanid elementlari asosidagi birikmalar, ayniqsa $LaCl_3$ va LaOCl katta ahamiyatga ega.

Oksidlovchi xlorlash jarayoni ikki asosiy bosqich orqali sodir bo‘ladi.

Birinchi bosqichda vodorod xlorid kislorod bilan reaksiyaga kirishib xlor hosil qiladi:

$4HCl + O_2 \rightarrow 2Cl_2 + 2H_2O$

Ikkinchi bosqichda hosil bo‘lgan xlor metan bilan reaksiyaga kirishib monoxlormetan hosil qiladi:

$CH_4 + Cl_2 \rightarrow CH_3Cl + HCl$

Bu jarayonda xlor katalitik sikl orqali qayta tiklanadi. Natijada xlor sarfi kamayadi va jarayonning iqtisodiy samaradorligi ortadi[7-8].

Lanthanum asosidagi katalizatorlar metan oksixlorlanishida juda muhim rol o‘ynaydi. $LaCl_3$ katalizatori yuqori selektivlik ko‘rsatishi bilan birga termik jihatdan ham barqaror hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, katalizator sirtida OCl^- yoki Cl• faol zarrachalari hosil bo‘lib, ular metanning C–H bog‘ini aktivlashtiradi.

Ba’zi ilmiy ishlarda CeO_2 (seriy oksidi) ham samarali katalizator sifatida o‘rganilgan. CeO_2 katalizatorlari yuqori kislorod almashinuvi xususiyatiga ega bo‘lib, oksidlovchi jarayonlarda yuqori faollik ko‘rsatadi.

Oksidlovchi xlorlash jarayonining asosiy afzalliklari quyidagilar:

- xlor sarfining kamayishi
- energiya samaradorligining oshishi
- polixlorlangan mahsulotlar miqdorining kamayishi
- jarayonning ekologik jihatdan xavfsizligi

Biroq bu jarayon uchun optimal katalizator va reaksion sharoitlarni tanlash muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yangi katalitik tizimlar yaratish va selektivlikni oshirishga qaratilgan.

Metandan monoxlormetan olish usullarining taqqoslanishi[9]

№	Ko‘rsatkich	An’anaviy xlorlash	Oksidlovchi xlorlash
1	Reagentlar	Cl_2	$HCl + O_2$
2	Harorat	300–400 °C	400–500 °C
3	Mexanizm	erkin radikal	katalitik
4	Selektivlik	past	yuqori
5	Yon mahsulotlar	ko‘p	kam
6	Sanoat samaradorligi	o‘rtacha	yuqori

Xulosa

Metandan monoxlormetan olish organik sintez va kimyo sanoatida muhim jarayonlardan biridir. An’anaviy radikal xlorlash jarayoni oddiy bo‘lishiga qaramay, unda polixlorlangan mahsulotlar hosil bo‘lishi tufayli selektivlik past bo‘ladi. Oksidlovchi galogenlash usuli esa katalizatorlar yordamida yuqori selektivlikka erishish imkonini beradi. Lanthanid asosidagi katalizatorlar metan molekulasining aktivatsiyasini samarali ta’minlaydi va monoxlormetan hosil bo‘lishini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy tadqiqotlar yangi katalitik tizimlar yaratish hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olefins from Natural Gas via Oxychlorination Catalysis Guido Zichittella, Nicolas Aellen, Vladimir Paunović, Amol P. Amrute, and Javier Pérez-Ramírez. https://doi.org/10.1002/anie.201706624

2. Selective monochlorination of methane via elimination of dichloromethane from the oxychlorination product stream Kaiwalya D. Sabnis, Dustin W. Fickel, Heng Shou, Michelle D. Casper, Neeta Kulkarni, Armando Araujo, Edouard Mamedov. https://doi.org/10.1007/s11144-019-01550-8

3. Understanding Hydrodechlorination of Chloromethanes. Past and Future of the Technology Sichen Liu ,Javier A. Otero, Maria Martin-Martinez, Juan J. Rodriguez and Luisa M. Gómez-Sainero, Daniel Rodriguez-Franco. http://dx.doi.org/10.3390/catal10121462

4. Synthesis and characterization of $CuCl_2/SiO_2$ catalyst for the oxychlorination of methane Nascimento, J. C. 1; Sousa, J. F.; Rojas, L. O. A.; Fontes, F. A. O. https://doi:10.5419/bjpg2011-0007

5. Oxidative chlorination of methane over Fe_2O_3/CeO_2 catalyst. Jeongeun Kim Chemical and Biological Engineering The Graduate School Seoul National University.

6. Study of kinetic laws of methane oxychlorination reaction and assessment of activation energy**.** Javxarov Jonibek Juraqul o‘g‘li Candidate of Technical Sciences (PhD), Associate Professor, Kattakurgan State University, Uzbekistan, Kattakurgan. https://DOI:10.32743/UniTech.2025.140.11.21360

7. Preparation and characterization of CeO2–Fe2O3 catalysts for the selective catalytic reduction of NO with CO Xue Bian, Hanying Jia,ab Ming Cai,ab Peng Cen,ab Yuting Baiab and Wenyuan Wu. https://DOI:10.1039/d1nj04363c

8. Fayzullayev, N., Javharov, J., & Ergashev, N. (2024). Etilen qatori uglevodorodlarini monoxlormetandan sintez qilish.

9. Fayzullayev, N., Javharov, J., & Iskandarov, A. (2024). Study of Some Kinetic Laws of Methyl Monochloride Pyrolysis Reaction. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 555, p. 03003). EDP Sciences.

AZOTLI O‘G‘ITLAR SIRTINI AMMONIY KARBONAT ERITMASI ISHTIROKIDA OLTINGUGURT BILAN QOPLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

T.S.O‘rozov[1], A.Q.Aslanov[1], O.E.Qo‘ldoshev[1], S.O.Xamidov[2]
1-Samarqand Davlat Universiteti
2-Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rastdiki, ammoniy nitratning namunalari sirtini ammoniy karbonat eritmasi ishtirokida oltingugurt bilan qoplash natijasida olingan qiymatlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishga bemalol ilmiy asos qilib olish mumkin. Bunda yangi navli azot-oltingugurtli o‘g‘itlar olish mumkinligi tavsiya etilgan. Tarkibida azot saqlagan o’g’itlar sirtini oltingugurt bilan qoplab NS li o‘g‘itlar olish maqsadida ammoniy nitratning sirti ammoniy karbonat eritmasi yordamida oltingugurt bilan qayta ishlandi. ammoniy nitratning:oltingugurt o‘zaro 1:1 dan 4:1 massa nisbatlarda olinib, mineral o‘g‘it sirtini oltingugurt bilan qoplash jarayoni o‘rganildi. Masalan, ammoniy nitrat sirtiga birikkan oltingugurtning miqdorini ortishi, ammoniy nitrat sirtini namlash uchun sarflanadigan ammoniy karbonat eritmasi konsentratsiyasi 20%, 25%, 30% va 35% li eritmalaridan foydalanilganda aralashmada komponentlarning (ammoniy nitrat:oltingugurt) o‘zaro nisbati eritma konsentratsiyasiga mos ravishda 4:0,5, 4:0,6, 4:0,8 va, 4:1 ga ko‘paygan.*

Kalit so‘zlar. *Ammoniy nitrat, ammoniy karbonat, oltingugrt, qoplash, o’g’itlar,*

Hozirgi kunda turli azotli o‘g‘it namunalarini turli yo‘llar orqali ishlab chiqarilib, tarkibida o‘zlashtiruvchan azot ko‘rinishi yuqori qiymatga ega bo‘lgan o‘g‘itlar olishning texnologik tizimlari yaratilmoqda. Hozirda ishlab chiqarish jarayonida azotli o‘g‘itlarni olish texnologiyasida asosan azot saqlagan xomashyosini noorganik mineral kislotalar ishtirokida qayta ishlab olinadi. Tarkibida azot saqlagan o‘g‘itlarning uchuvchan holatda bo‘lishi bizga adabiyotlardan ma’lum. Shuningdek, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan va qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan azotli o‘g‘itlar o‘simliklar uchun ozuqa sifatida yerga berilib qisqa muddat ichida yerda sug’orish ishlari olib borilmasa berilgan o‘gitni o‘simlik o‘zlashtirolmaydi yaki o‘zlashtirish ko‘rsatkichi juda past bo‘ladi. Shu sababli ozotli o‘g‘itlarni o‘simlik o‘zlashtirishi uchun yetarli namlik hosil bo‘lgunicha yerda uzoq vaqt turishini taminlash uchun uning sirti oddiy texnologiya yordamida oltingugurt bilan qoplandi. Azotli o‘g‘itlarning sirti oltingugurt bilan qoplanishi o‘g‘itning gidrofoblik xususiyatini oshirish bilan bir qatorda o‘simliklarda uchraydigan turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi hashoratlarga qarshi fungitsit xususiyatli NS li murakkab o‘g‘it olindi. Azotli o‘g‘itlar sirtini oltingugurt bilan qoplab yerga o‘g‘it sifatida berish o‘simliklarga ozuqa elementlarini berish bilan birgalikda o‘simliklar hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan fungitsit xususiyatli oltingugurt bilan ham ta’minlanadi. Bu esa o‘simliklarni turli kasalliklar keltirib chiqaruvchi zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish (cho‘chitish) imkonini beradi.

Azotli o‘g‘itlar sirtini oltingugurt bilan qoplash ularni suv bilan tasirlashish xosusiyatini sekinlashtiradi, natijada ozuqa uchun yerga berilgan o‘g‘it yetarlicha namlik hosil bo‘lmaguncha yuqori havo harorati tasirida erib uchib ketmasdan uzoq vaqt yerda turadi. Azotli o’gitlar sirtini oltingugurt bilan uning gidrofoblik xususiyatiga ijobiy ta’sir etishi havoning nisbiy namligi 50% bo‘lgan sharoitda malum standart usullarda aniqlandi. Buning uchun ammoniy nirat o‘g‘iti, sirti oltingugurt bilan qoplanib umumiy massa nisbati (ammoniy nitrat:oltingugurt) 4:0,5, 4:0,6, 4:0,8 va, 4:1 ega bo’lgan NS li murakkab o‘g‘itning suv yutish kenetikasi 24, 48, 72 soat davomida o‘rganildi. Bunda ammoniy nitrat o‘g‘iti namlikni yutishi vaqtga bo‘g‘liq halatda tegishli tartibda 15%, 18%, 20 % gacha oshganligi va NS (ammoniy nitrat:oltingugurt, 4:1) li murakkab o‘g‘itning namlikni yutishi keltirilgan vaqt oraligida tegishli tartibda 4%, 5%, 6% gacha namlikni yutishi tadqiqotlar davomida aniqlandi.

1-jadval

Ammoniy nitrat o’g’itini ammoniy karbonat ishtirokida oltingugurt bilan qoplash

NH_4NO_3 :S	Vaqt	Ammoniy karbonat eritmasi (%kons)	N miqdori umumiy %	S miqdori umumiy %	Yutulgan Suv %
4:0	72	-	35	-	20
4:0,5	72	20	31.1	11.11	7,5
4:0,6	72	25	30.4	13.04	7,3
4:0,8	72	30	29.2	16.67	6,8
4:1	72	35	28	20.00	6

Jadvaldagi natijalardan shuni ko‘rish mumkinki, Ammoniy nitrat o’g’itlari sirtini oltingugrt bilan qoplashda ammoniy karbonatning 20, 25, 30 35 % li eritmalaridan foydalanildi. Ammoniy karbonat eritmasining konsentratsiyasi oshishi bilan ammoniy nitrat og’iti sirtiga qoplanadigan oltingugurt miqdori mos ravishda 11.11, 13.04, 16.67 va 20 % ga ko‘paygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamshat Bazhirova, Kurmanbek Zhantasov, Tynlybek Bazhirov, Nurlybek Bazhirov/ Acid-Free Processing of Phosphorite Ore Fines into Composite Fertilizers Using the Mechanochemical Activation Method/ April 2024Journal of Composites Science 8(5):165/ DOI: 10.3390/jcs8050165
2. Nana Fang, Yuanliang Shi, Zhenhua Chen/ Effect of mechanochemical activation of natural phosphorite structure as well as phosphorus solubility/ November 2019 PLOS ONE 14(11):e0224423/ DOI: 10.1371/journal.pone.0224423
3. Kuldoshev O. E., Urozov T. S., Tillayev S. U., Aslanov A. K. Production of comolex fertilizers from central kyzylkum phosphorites according to phosphorus-sulfur-survey and nitrogen-phosphorussulfur insecticide // Egypt. J. Chem. – Vol. 65. – No. 7. 2022. – P. 73–84.
4. Sobirov M. M., Makhsudova Z. I., Urozov T. S. Liquid and suspended sulfur compound fertilizers. Scientific bulletin. – Samarkand, – No. 5. 2016. – P. 68–72.
5. Urozov T. S., Tadjiev S. M., Tukhtaev S. Decomposition of Kyzylkum phosphorites in the presence of sulfuric acid suspension // Uzb. Chem. jor. – Tashkent, – No. 5. 2010. – P. 30–33.
6. Urozov T. S., Tadjiev S. M., Tukhtaev S. Khairullaev Ch. K. The effect of sulfur on the decomposition of Kyzylkum phosphorites with nitric acid // Lectures of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, – No 4. – P. 53–56.
7. Urozov T. S., Tadjiev S. M., Tukhtaev S. Obtaining fertilizers with insecticidal properties containing N, P, S // Collection of lectures of the international scientific and practical conference

on the topic “Resource and water-saving technologies of growing abundant crops in the farming system”: – Tashkent, 2010. – P. 256–257

8. Sh. A. Valiyev, T.F. Rajabov, M.G. Nasirov, M. M. Muminov, A.N. Khujanov, F. Dj. Kabulova, S.Kh. Urokov, Sh.M. Adizov, T.S. Urozov Changes In The Biochemical Composition Of Artemisia Diffusa At Different Grazing Intensities. Afr.J.Bio.Sc. 6(11) (2024) 1108-1116.

METANNI OKSIXLORLASH JARAYONIDA RUTENIY VA BOSHQA METALL KATALIZATORLARINING FAOLLIGINI SOLISHTIRISH VA TAXLIL QILISH.

F.Q. Ziyatova, H.I.Hikmatova, J.J.Javxarov.
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Instituti. Kattaq‘rg’on. Uzbekiston
hikmatovahilola00@gmail.com

Annotatsiya: Ishda metanni oksixlorlash jarayonida ruteniy va boshqa metall katalizatorlarining faolligini solishtirildi va taxlil qilindi. Metan tabiiy gazning asosiy komponenti bo‘lib, uni kimyoviy jihatdan qimmatli mahsulotlarga aylantirish zamonaviy kimyo sanoatining muhim vazifalaridan biridir. Metanni oksixlorlash (OXM) jarayoni orqali xlorlangan metanlar va boshqa organik mahsulotlarni olish mumkin. Ushbu jarayonning samaradorligi asosan qo‘llaniladigan katalizatorlarning faolligi va selektivligiga bog‘liq.Ishning maqsadi- metanni oksixlorlash jarayonida ruteniy va boshqa metall katalizatorlarining faolligini solishtirish va taxlil qilish.

Kalit so‘zlar: metan, monoxlormetan, xlorlash, oksidlovchi galogenlash, kataliz, selektiv reaksiyalar.

Rossiya Fanlar akademiyasining[1-4] Sibir bo'limi Boreskov kataliz institutining bir guruh mutaxassislari quyidagi katalizatorlarni tayyorladilar : $K_4[Ru_2OCl_{10}]$ ning TiO_2 va SiO_2 bilan mexanik aralashmalari, shuningdek, TiO_2 ni $K_4[Ru_2OCl_{10}]$ eritmasi bilan singdirish orqali sintez qilingan katalizatorlar. Ruteniy oksidining faolligi dastlab vodorod xloridni oksidlashda, so'ngra metanni oksixlorlashda sinovdan o'tkazildi, bu esa uni keyinchalik olefinlarga aylantirish uchun ruteniy xlorid hosil qiladi. Ruteniy oksixloridga asoslangan barcha katalizatorlar HCl oksidlanishida faol ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Ruteniy oksixloridga asoslangan katalizatorlarning faolligi.


	Katalizator	Ru tarkibi (og'irlik bo'yicha %)	HCl ning harorati konversiyasi					Ishlab chiqaruvchi Cl / Ru (250°C)
			00	25	50	75	3 00	
	RuO_2/TiO_2	2	3	0	3	6	9 4	8,5
	RuO_2 JG*	0,02			4	9	2 8	237,6
	$K_4[Ru_2OCl_{10}]$ H_2O+SiO_2	5					7	0,1
	$K_4[Ru_2OCl_{10}]$ H_2O+TiO_2	5	0	2	9	3	9 4	2,3
	$K_4[Ru_2OCl_{10}]/TiO_2$	0,28		3	5	7	8 3	29,7
	$K_4[Ru_2OCl_{10}]/TiO_2$	0,44		0	7	6	9 4	25,4

*FG — shisha tolali

OXM reaksiyasi ikkita model katalizator yordamida o'rganildi: $K_4Ru_2OCl_{10}$ ning TiO_2 bilan mexanik aralashmasi (og'irligi bo'yicha 5% Ru) va $K_4Ru_2OCl_{10}/TiO_2$ (og'irligi bo'yicha 0,28% Ru). Katalizatorlar OXM reaksiyasida yuqori faollikni namoyish yetdi. 15% metan konversiyasida xlorlangan metanlarning ulushi 97% ga yetadi (12-rasm). Biroq, xlorlangan mahsulotlarning umumiy miqdordagi ulushi 60% gacha pasayadi. $K_4Ru_2OCl_{10}/TiO_2$ katalizatori 360°C da ishlatilganda, xlorlangan metanlar uchun selektivlik 77% ni tashkil qiladi[5,6].

Shuni ta'kidlash kerakki, [Ru_2OCl_{10}] asosidagi katalizatorlardan foydalangan holda OXM reaksiya mahsulotlarida xloroform yoki CTC aniqlanmagan.

Tadqiqotlar asosida ruteniy katalizatorida OXM uchun yangi mexanizm taklif qilindi. Oksixlorlash adsorblangan metan va Ru—O—Ru elektrofil ko'prik kislorodining o'zaro ta'siridan boshlanishi ko'rsatildi. Bu metoksi guruhining hosil bo'lishiga olib keladi, u HCl bilan reaksiyaga kirishganda mos keladigan xloridga aylanadi[7-10].



1-rasm — $K_4Ru_2OCl_{10}/TiO_2$ katalizatorida metan oksixlorlash reaksiyasida konversiya va selektivlikning haroratga bog'liqligi (0,28 og'irlik% Ru). Reaksiya aralashmasining tarkibi: CH_4 50%, HCl 20%, O_2 10%, Ar 20%, GHSV = 2500 soat^{1}.


Deacon reaksiyasi uchun sanoat katalizatori RuO_2/SnO_2—Al_2O_3 . Katalizator parametrlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

RuO_2 asosida katalizatorning xususiyatlari.

Katalizator	Ru miqdori, % og'irlik.	Tesh ik hajmi, sm'/g	Sirt maydoni, m^2/g	HCl konversiya si, %	Hajmiy unumdorlik, g $Cl_2/(h*g(k-na))$
RuO_2/SnO_2	2,35	0,06	6	38	3,03
RuO_2/SnO_2-e	2,47	0,07	10	10	0,76
RuO_2/SnO_2—Al_2O_3	1,96	0,11	29	34	2,65
RuO_2/SnO_2—Al_2O_3-e	2,03	0,15	35	28	2,23

Qalay rudasini tayanch sifatida ishlatish SnO_2 yoki SnO_2-SiO_2 kompozitsiyasiga nisbatan katalizatorning uzoq xizmat qilish muddatini ta'minlashini ko'rsatdi.



2-rasm — SnO_2 va SnO_2-Al_2O_3 uchun turli haroratlarda va SnO_2 - SiO2-n-c (n-c — nanokompozit qo'shilgan holda) uchun 623 K da 2 soat davomida SnO_2 yo'qotishlari[11-15].

Nisbatan yaqinda lantan xloridni hech qanday qo'shimchalarsiz katalizator sifatida ishlatish bo'yicha nashrlar paydo bo'la boshladi, bu esa katalizatorning o'zgaruvchanligi muammosini hal qiladi. Biroq, lantan o'z ichiga olgan katalizatorning jarayon samaradorligi past. Katalizator lantan xlorid eritmasiga ammoniy gidroksid qo'shish orqali olinadi. Olingan gel 120°C da quritiladi va 550°C da kalsiylanadi. Rentgen difraksiya tahliliga ko'ra, katalizator lantan oksixloriddir.

XULOSA

Yuqorida tavsiflangan katalizatorlarni taqqoslash qiyin, chunki ularning har biri o'z sharoitida sinovdan o'tkazilgan.

Katalizatorga kaliy xlorid qo'shilishi tayanchning teshiklarida xlorid eritmasining hosil bo'lishiga olib keladi, bu esa faollikni oshiradi va mis xloridning uchuvchanligini pasaytiradi. Lantan xlorid yoki noyob yer elementlari aralashmasining kiritilishi katalizator faolligini sezilarli darajada oshiradi, faqat katalizator yuzasi faol komponent bilan qoplanganligi (50% dan 10% gacha), suyuq faza esa tayanch teshiklarini hajmli ravishda to'ldirishi, bu esa jarayon kinetikasiga ta'sir qilishi mumkinligi ko'rsatilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muradov K. M., Fajzullaev N. I. Technology for producing the ethylene using the reaction of the oxidizing condensation of methane //Khimicheskaya Promyshlennost. – 2003. –

2. Bukhorov A. Q., Aslanov S. C., Fayzullaev N. I. Conversion of dimethyl ether to lower olefines //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 050011.

3. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Тимошенко А.В. Получение низших олефинов из природного газа через синтез и пиролиз хлористого метила // Газохимия, 2010, № 2. С. 44–50.

4. Izadbakhsh A., Farhadi F., Khorasheh F., Sahebdelfar S., Asadi M., Feng Y.Z. // Effect of SAPO-34's composition on its physico-chemical properties and deactivation in MTO process // Appl. Catal. A:General. 2009. V. 364. P. 48–56

5. Wei Y., Zhang D., Xu L., Chang F. Synthesis, characterization and catalytic performance of metal-incorporated SAPO-34 for chloromethane transformation to light olefins // Catalysis Today. 2008. V. 131. P. 262–269.

6. Svelle S., Aravinthan S., Bjørgen M., Lillerud K.-P., Kolboe S., Dahl I.M., Olsbye U. The methyl halide to hydrocarbon reaction over H-SAPO-34 // J. Catalysis. 2006. V. 241. № 2. P. 243–254.

7. Моисеев И.И. Газ и этилен. Альтернатива нефти – есть // Chem. J. (Химический журнал). 2008. № 4. С. 28–31.

8. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Тимошенко А.В. Получение низших олефинов из природного газа через синтез и пиролиз хлористого метила // Газохимия, 2010, № 2. С. 44–50.

9. Zhao T-S., Takemoto T., Tsubaki N. Direct synthesis of propylene and light olefins from dimethyl ether catalyzed by modified H-ZSM-5. // Catalysis Communications. -2006. -V. 7. -P. 647.

10. Chen J.Q., Vora B.V. Most recent developments in ethylene and propylene production from natural gas using the UOP/Hydro MTO process. // 7th Natural Gas conversion Symposium. Dalian, China, June 6-10. -2004. -abs. 1-01-071

11. Chen J.Q., Vora B.V., Pujado P.R., Gronvold E., Fuglerud T., Kvisle S. Most recent developments in ethylene and propylene production from natural gas using the UOP/Hydro MTOprocess // 7 th Natural Gas conversion Symposium, Dalian, China, June 6-10, 2004, abs. 1-01-071.

12. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Соколова С.В., Мурашова О.П. Получение этилена и пропилена из природного газа через промежуточный синтез хлористого метила и последующий его каталитический пиролиз // Катализ в промышленности. 2012. № 3. С. 15–20.

13. . Меньшиков В.А., Лякишев Г.Г., Апельбаум А.Л., Гольдштейн Л.Х. Технология получения этилена из природного газа и проблемы каталитической окислительной димеризации метана. Газохимия в XX веке. Проблемы и перспективы: Тр. Моск. семин. по газохимии 2000-2002 гг. / Под ред. проф. А.И. Владимирова и чл.-корр. РАН А.Л. Лапидуса; РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина. - М., 2003. -С. 68-76.

14. Свейти Т. Тенденции в развитии нефтеперерабатывающей промышленности мира: состояние и перспективы. // Нефтегазовые технологии, 2006. -№ 1. -С. 59.

15. Wei Y., Zhang D., Liu Z., Su B-L. Highly efficient catalytic conversion of chloromethane to light olefins over HSAPO-34 as studied by catalytic testing and in situ FTIR. //Journal of Catalysis. -2006. -V. 238. -P. 46.

SUYAK IMPLANTI MATERIALLARINING YALLIG‘LANISHGA QARSHI VA ANTIBAKTERIAL XOSSALARINI YAXSHILASH

Tillayev S., Tuxtayev D., Muzaffarova B., Axmedova M., Qo’chqorova D.

Samarqand davlat universiteti; e-mail: s-tillayev@samdu.uz

Annotatsiya. Ishda PLA/HA asosida rezorbsiyalanuvchan biomateriallar tarkibiga 1-(alkilamino) izoxinolin hosilalari kiritish orqali *Eshcherichia coli*, *Staphylococcus aureus*, *Bacillus subtillis*’ga qarshi faollik namoyon qiluvhchi implant materiallari tarkibi ishlab chiqilgan. Molekular doking natijalariga ko‘ra preparatlar 6COX (siklooksigenaza-2) fermenti bilan bog‘lanishi, ularni ingibirlashi mumkinligi ko‘rsatildi.


Kalit so‘zlar: suyak implanti, antibakterial faollik, yaralarni yaxshilash, molekular doking.


Kirish. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy suyak o‘rnini bosuvchi materiallar tarkibiga turli kimyoviy preparatlar, nanozarrachalar kiritish orqali ularning antibakterial xossalarini yaxshilash mumkin [1]. Materiallar tarkibiga siprofloksatsin (ciprofloxacin) kiritilganda 56 kunlik tajribalarda ham *E. coli* va *S. aureus’larni ingibirlaganligi aniqlangan [2]*. Materiallar tarkibiga vankomitsin (vancomycin) kiritilganda ular o‘zlarining dastlabki mexanik mustahkamligini saqlagan holda 60-kunlik tajribalarda ham *Staphylococcus aureus* va *S.epidermidis’ga nisbatan antibacterial xossalarni namoyon qilgan [3].* Polidofamin kiritilishi *Staphylococcus aureus, Escherichia coli*’ga nisbatan >74% antibacterial samarani namoyon etgan holda, antioksidantlik, yallig‘lanishga qarshi xossalarni ham namoyon qilganligi aniqlangan [4]. Kalsiy fosfat asosidagi materiallarga karvakrol (carvacrol) kiritilishi infeksiya bilan zararlangan suyaklarning tuzalishini tezlatishi, osteokonduktivlik, antibakterial xossalarni namoyon qilishi ko‘rsatilgan [5]. Stexiometrik nisbatlarda gidroksiaptit hamda karbonatlangan


apatit nanokristallaridan iborat suyak biomateriallari tarkibiga natriy fusidat kiritilishi *Staphylococcus aureus*'ga nasbatan faollik namoyon qilgani holda, odam peraferal qon mononuklear hujayralariga nisbatan sitotoksik emasligi, yallig'lanish marker bo'lgan IL-8 ni indutsirlamasligi kabi xossalarga egaligi ko'rsatilgan [6]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fizik-kimyoviy hamda mexanik xossalari yaxshilangan, biologik muvofiqligi yuqori, shu bilan birga tirik to'qimalar uchun zaharli bo'lmagan, patogen bakteriyalarga nisbatan antibacterial xossalar namoyon qiluvchi biomateriallar ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri.

Tajribaviy qism. PLA/HA asosida rezorbsiyalanuvchan biomateriallarning olinish usullari "solvent-casting" metodi qo'llanildi [7]. Sintez qilingan materiallarning fizik-kimyoviy, mexanik hamda biologik xossalari batafsil tadqiq etildi [8]. Sintez qilingan materiallarda antibakterial, yarani yaxshilash, yallig'lanishga qarshi xossalarni hosil qilish uchun 1-(alkilamino)izoxinolin geterosiklik birikmalar sintez qilindi [9].



Molekular doking usilida biologik faolligini tekshirish. Dastlab, yallig'lanish hamda allergik jarayonlar uchun javobgar bo'lgan ikki fermentlar: 1) siklooksigenaza-2 (COX-2, 6V3R); 2) lipooksigenaza-5 (5-LOX, 3V99) ga nisbatan ingibitorlik funksiyasi tadqiq qilindi. Molekulyar doking va 6V3R oqsilini tayyorlash jarayonlari **Maestro Schrödinger** dasturida **OPLS4** kuch maydoni (force field) asosida bajarildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bir qator biofaol ligandlar 6V3R bilan kuchli bog'lanish hosil qildi; bog'lanish energiyalari quyida keltirilgan tartibda, mos ravishda: I) -10.065; II) -10.505; III) -10.311 kkal/mol bo'lib, ligandning oqsil faol markazida barqaror kompleks hosil qilganini ko'rsatdi. Ushbu bog'lanish **vodorod bog'lari, gidrofob o'zaro ta'sirlar va aromatik π–π stacking** kabi intermolekulyar kuchlar orqali yuzaga kelgan shuningdek 6V3R faolligini samarali **bloklash** imkonini beradi.


I) -10.065


II) -10.505



III) -10,311

Bu 1-rasmlarda oqsil-ligand orasidagi ta'sirlashuvlar ko'rsatilgan: vodorod bog'lari birinchi rasmda **sariq**, ikkinchi rasmda esa **binafsha** rang bilan ajratib ko'rsatilgan; pi – pi ta'sirlar esa ikkinchi rasmda **yashil** bilan ifodalangan. Ligand va oqsil o'rtasidagi vodorod bog'lari va boshqa intermolekulyar o'zaro ta'sirlashuvlar soni oshgani sari, ularning umumiy bog'lanish energiyasi kamayadi va kompleksning yanada barqaror shakllanishiga olib keladi.





1-rasm. Molekular docking natijalari

Molekular docking natijalari asosida sintez qilingan uchala 1-aminoalkilizoxinolin hosilalarining barchasi COX-2 fermentiga nisbatan ingibitorlik namoyon qilishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Docking natijalarini tajribalar bilan tasdiqlash zarurati bor, albatta.



2-rasm. Antibakterial xossalar



3-rasm. Yaralarni yaxshilash xossalari

Namunalarning antibakterial xossalarini tadqiq etish. Sintez qilingan PLA/HA asosidagi materiallar dastlab sof o‘zlari (4-rasm), so‘ngra ular tarkibiga yangi sintez qilingan geterosiklik birikmalar - 1-(alkilamino) izoxinolin hosilalari kiritilgan namunalar (2-rasm) turli patogen bakteriyalar: *Eshcherichia coli, Staphylococcus aureus, Bacillus subtillis*’ga nisbatan antibakterial faolliklari tekshirildi. Tajribalar agarli bloklar metodidan foydalanildi [10]. Manfiy nazorat sifatida steril ozuqa bulyoni qo‘shildi, ijobiy nazorat sifatida chuqurchalarga ampitsillin ishlatildi. 24 soatdan keyin inkubatsiya zonalari kuzatildi o‘sishni cheklovchi zonasi va inkubatsion zonalari (mm) o‘lchash orqali baholandi. 2-rasmda keltirilgan ma’lumotlar asosida sintez qilingan materiallar (1-8 bo‘laklar) yuqorida nomlari keltirilgan bakteriyalarga nisbatan faollik namoyon qilmasligi, nazorat namuna - ampitsillinning (o‘rtada) antibakterial xossa namoyon qilganligi kuzatildi. Bundan, toza holdagi materiallarda antibakterial xossalar mavjud emas degan xulosa chiqadi. Shu sababli keyingi tajribalarda materiallar tarkibiga yangi sintez qilingan 1-(alkilamino) izoxinolin hosilalari kiritilib, xossalar tekshirildi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar qilish mumkin: 1-(alkilamino) izoxinolin hosilalari tarkibidagi alkil guruhi – metil bo‘lgan holatda namunalar *Staphylococcus aureus’*ga nisbatan antibakterial faollik namoyon qilmaydi. Alkil guruhi etil, propil, butil, izobutilga almashtirilganda antibakterial xossalarning kuchayib borganligi aniqlandi.

Namunalarning yaralarni yaxshilash xossalarini tadqiq etish. Sintez qilingan materiallarning yarani davolashga ta'siri fibroblast hujayra liniyasi bo‘lgan L929 hujayralarida *in vitro* sharoitda olib borildi. Bunda, hujayralarda tirnash yo‘li bilan hsil qilingan sun’iy yarani bitish dinamikasi baholandi. 3-rasmdagi natijalardan ko‘rishimiz mumkinki, materiallar namunalari yaralarni yaxshilash xossalariga ega bo‘lib, 72-soatlik tajribalarda sun’iy hosil qilingan yaralar qariyb 90% ga bitib ketganligi aniqlandi.

Minnatdorchilik. Mualliflar mazkur tadqiqot ishida molekular docking o‘tkazishda ko‘rsatgan yordami uchun tadqiqotchi Shurat G‘aybullayevga, tadqiqotchi Sunnat Mirzokulovga; sintez qilingan preparatlar va materiallarning antibakterial va yaralarni yaxshilash xossalarini tadqiq etishda ko‘rsatgan yordami uchun tadqiqotchilar Gofur Xamidovga hamda Shaxzod Axanboyevga minnatdorchilik bildiradi.

Xulosa. PLA/HA asosida rezorbsiyalanuvchan biomateriallar tarkibiga 1-(alkilamino) izoxinolin hosilalari kiritish orqali antibakterial, yaralarni yaxshilash xususiyatiga ega bo‘lgan materiallar olish mumkinligi ko‘rsatildi. Materiallarning sof o‘zlari antibakterial xossalarni namoyon qilmasligi, ular tarkibiga 1-(alkilamino) izoxinolin preparatlari kiritilishidan *Eshcherichia coli, Staphylococcus aureus, Bacillus subtillis* bakteriyalariga qarshi faollik namoyon qilishi aniqlandi. Molekular doking natijalariga ko‘ra preparatlar 6COX (siklooksigenaza-2) va 3V99 (lipooksigenaza-5) fermentlariga nisbatan ingibirlovchi ta’sir etishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Huiling Liu ect. Study on injectable silver-incorporated calcium phosphate composite with enhanced antibacterial and biomechanical properties for fighting bone cement-associated infections // Colloids and Surfaces B: Biointerfaces, Volume 227, July 2023, https://doi.org/10.1016/j.colsurfb.2023.113382

2. Vidyaalakshmi Venkatesan ect. Enhanced ciprofloxacin release and antibacterial activity of composite bone cement beads for diabetic pedal osteomyelitis treatment // Materials Chemistry and Physics, Volume 339, 15 July 2025, https://doi.org/10.1016/j.matchemphys.2025.130700

3. Sunjung Kim ect. Mechanical, elution, and antibacterial properties of simplex bone cement loaded with vancomycin // Journal of the Mechanical Behavior of Biomedical Materials, Volume 103, March 2020.

4. Yalan Ouyang ect. Polydopamine-Modified Composite Bone Cement for Cancellous Bone Repair: Synergism of Bioactivity, Antibacterial Properties, and Biodegradability // Biomacromolecules, 2025, https://doi.org/10.1021/acs.biomac.5c00157.

5. Chen Cui ect. Carvacrol-loaded premixed calcium phosphate bone cements with exceptional osteogenic and antibacterial properties to heal infected bone defects // Composites Part B: Engineering, Volume 287, December 2024, 111812

6. Hassan Noukrati ect. Sodium fusidate loaded apatitic calcium phosphates: Adsorption behavior, release kinetics, antibacterial efficacy, and cytotoxicity assessment // International Journal of Pharmaceutics**,** V 660, 20 July 2024, https://doi.org/10.1016/j.ijpharm.2024.124331

7. Muzaffarova B.B., Tillayev S.U. Rezorbsiyalanuvchan biotibbiy materiallar: olinishi, fizik-kimyoviy va biologik xossalari // «Qoraqalpoq davlat universitetining xabarnomasi», 2024 yil, № 4 (67), 45-48 b.

8. Muzaffarova B.B., Tillayev S.U. Polilaktid va gidroksiapatit asosida biotibbiy materiallar: olinishi, fizik-kimyoviy va mexanik xossalari// O‘zMU xabarlari. 2024, [3/2/1], 393-395 b.

9. Tukhtaev D.B. ect. Synthesis of new Amides based on N-Phthaloyl-α-Amino Acids // Egyptian Journal of Chemistry, Vol. 64, No. 6 pp. 2021. doi:10.21608/EJCHEM.2021.48494.2990

10. Artun H. ect. Preparation of nanocomposite based on chitosan-PDCOEMA containing biosynthesized ZnO: biological and thermal characterization // International Journal of Biological Macromolecules. 2023, 242, https://doi.org/10.1016/j.ijbiomac.2023.124753

MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYATLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Ilmiy-metodik maqola

Ilmiy rahbar:
Fizika-matematika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlarni o‘qtish metodikasi
(matematika) mutaxasisligi1-bosqich
magistranti Teshayev Abbos Adham o’g’li
abbos.teshayev12@gmail.com

ANNOTATSIYA *Ushbu maqolada matematika darslarida muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, samarali usullari va amaliy tavsiyalar yoritilgan. Muammoli ta’lim texnologiyasining matematik tafakkurni shakllantirish jarayonidagi o‘rni, qo‘llash bosqichlari va pedagogik samaradorligi tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim metodlari bilan integratsiya imkoniyatlari ham ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur, muammoli vaziyat, pedagogik texnologiya, tanqidiy fikrlash, kognitiv rivojlanish.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются теоретические основы, эффективные методы и практические рекомендации по развитию навыков логического мышления учащихся путем создания проблемных ситуаций на уроках математики. Анализируется роль проблемно-ориентированного обучения в процессе формирования математического мышления, этапы его применения и педагогическая эффективность. Также показаны возможности интеграции с современными образовательными методами.

Ключевые слова: проблемно-ориентированное обучение, логическое мышление, математическое мышление, проблемная ситуация, педагогическая технология, критическое мышление, когнитивное развитие.

ANNOTATION. This article discusses the theoretical foundations, effective methods and practical recommendations for developing students' logical thinking skills by creating problem situations in mathematics lessons. The role of problem-based learning technology in the process of forming mathematical thinking, stages of application and pedagogical effectiveness are analyzed. The possibilities of integration with modern educational methods are also shown.

Keywords: problem-based learning, logical thinking, mathematical thinking, problem situation, pedagogical technology, critical thinking, cognitive development

Kirish

Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchini faqat bilim to‘plovchi emas, balki muammolarni hal eta oladigan va mustaqil fikr yurita oladigan shaxs sifatida shakllanishini talab qiladi. Texnologik rivojlanish va globallashuv sharoitida tez o‘zgarib borayotgan muhitga moslasha olish, yangi vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda mantiqiy xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalar maktab ta’limining ustuvor maqsadlaridan biriga aylanmoqda.

Matematika ta’limida muammoli vaziyatlar texnologiyasi ushbu talabni ro‘yobga chiqarishda eng samarali vositalardan biri sanaladi. Sababi, matematika o‘z mohiyatiga ko‘ra muammolilik xususiyatiga ega: har bir yangi mavzu va har bir masala o‘quvchi uchun alohida intellektual to‘siq, ya’ni muammo sifatida yuzaga chiqadi. Ana shu to‘siqlarni yengib o‘tish jarayoni fikrlash faoliyatini faollashtiradi, qiziqishni kuchaytiradi hamda bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada muammoli vaziyatlarning mazmun-mohiyati, ularning mantiqiy fikrlash bilan o‘zaro bog‘liqligi, matematika darslarida qo‘llashning amaliy usullari hamda pedagogik samaradorlikni oshirish yo‘llari keng yoritib beriladi.

Nazariy asoslar

Muammoli ta’lim konsepsiyasi

Muammoli ta’lim (problemnoe obuchenie) pedagogik texnologiyasi XX asrning 60–70-yillarida amerikalik psixolog Jerome Bruner hamda rus olimlari A.M. Matyushkin, M.I. Maxmutov va I.Ya. Lerner tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yondashuv o‘quvchini shunchaki bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi sub’ekt sifatida talqin etadi.

Muammoli ta’limning psixologik asosi Lev Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga borib taqaladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi hozircha mustaqil ravishda bajara olmaydigan, biroq yordam orqali uddalay oladigan topshiriqlar uning rivoji uchun eng samarali vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyat aynan shu rivojlanish zonasida shakllanadi.Mantiqiy fikrlash va uning matematik tafakkur bilan bog‘liqligi

Mantiqiy fikrlash — bu axborotni tahlil etish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish hamda xulosa chiqarish kabi qobiliyatlar majmuasidir. Psixolog Jean Piagetning bilish rivojlanishi nazariyasiga ko‘ra, 11–12 yoshdan boshlab o‘quvchilar formal-mantiqiy operatsiyalar bosqichiga kiradilar. Bu davr matematik tafakkurni faol rivojlantirish uchun ayni muddao hisoblanadi.

Matematika fanida mantiqiy fikrlash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Deduktiv fikrlash — umumiy qoidalardan aniq, xususiy holatlarga o‘tish
Induktiv fikrlash — alohida kuzatishlar asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlash
Analogik fikrlash — o‘xshash tuzilmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish
Kombinatorik fikrlash — barcha ehtimoliy variantlarni tahlil qilish
Fazoviy fikrlash — geometrik jismlar va ularning o‘zaro munosabatlarini tasavvur etish

Muammoli vaziyatlar aynan shu komponentlarning barchasini bir vaqtda ishga soladi, natijada ular matematika ta’limida nihoyatda muhim va samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoli vaziyatlarning turlari va xususiyatlari

Maqsad va bilim o‘rtasidagi nomuvofiqlik.Bunday turdagi muammoli vaziyatlarda o‘quvchiga topshiriq beriladi, ammo uni yechish uchun zarur bo‘lgan bilim hali o‘rganilmagan bo‘ladi. Masalan, to‘g‘ri burchakli uchburchak haqida boshlang‘ich tushuncha berilgach: “Ikkala kateti ma’lum bo‘lsa, gipotenuzani qanday topish mumkin?” degan savol qo‘yiladi. Bu savol o‘quvchida bilimga ehtiyojni shakllantiradi va uni Pifagor teoremasini mustaqil kashf etishga undaydi.

Paradoks va kutilmagan natijalarga asoslangan vaziyatlar. Bu turdagi holatlarda ma’lum qoidaga amal qilinganda kutilmagan, hatto intuitiv qarashlarga zid natija yuzaga keladi. Masalan: “Agar butun sonni o‘ziga ko‘paytirish natijasini oldindan aniqlash mumkin bo‘lsa-chi?” yoki “Nega manfiy sonning kvadrati musbat chiqadi?” kabi savollar o‘quvchini o‘z bilimlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Bu jarayon Kognitiv dissonans holati bilan bog‘liqdir.

Dalil va isbotga oid muammolar. “Bu fikr to‘g‘rimi? Uni isbotlang yoki rad eting” ko‘rinishidagi topshiriqlar mantiqiy fikrlashning eng yuqori bosqichi — isbotlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan: “Har qanday toq sonning kvadrati ham toq bo‘ladi — buni isbotlang” yoki “Berilgan funksiya grafigi koordinata o‘qi bilan kesishadimi?” kabi savollar bunga misol bo‘la oladi.

Ko‘p yechimli va ochiq muammolar. Yagona to‘g‘ri javobga ega bo‘lmagan masalalar o‘quvchini ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi. Masalan: “Ikki nuqtadan nechta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin?” yoki “12 ga bo‘linadigan nechta ikki xonali son mavjud va ularni aniqlang” kabi topshiriqlar turli yechim strategiyalarini qo‘llashni talab qiladi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullari.

Evristik suhbat usuli. Evristik suhbat — bu o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan savollar ketma-ketligi orqali o‘quvchini yangi bilimga mustaqil olib boruvchi dialogik yondashuvdir. Ushbu usulda o‘qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savollar orqali o‘quvchining o‘zi xulosaga kelishi uchun imkon yaratadi.

Amaliy misol — kesishuvchi chiziqlar mavzusida: “Bir-birini kesuvchi ikki to‘g‘ri chiziq chizildi. Nechta burchak hosil bo‘ladi?” “Qarama-qarshi burchaklar teng bo‘lishi mumkinmi?” “Nima sababdan shunday deb o‘ylaysiz? Isbotlay olasizmi?” “Agar burchaklardan biri 70° bo‘lsa, qolganlarini aniqlash mumkinmi?” Mazkur savollar tizimi o‘quvchini vertikal burchaklar teoremasini mustaqil anglashga yo‘naltiradi. O‘quvchilar bilimni o‘zlari kashf etganida, uni uzoq muddat saqlab qolishadi.

Matematik tadqiqot usuli. Bu usulda o‘quvchilarga kichik ilmiy izlanishga o‘xshash topshiriqlar beriladi. Masalan: “1, 4, 9, 16, 25, … ketma-ketligini kuzating. Qanday qonuniyat mavjud? Keyingi sonni toping va uni algebraik formula bilan ifodalang.”

Jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:
— Kuzatish — ma’lumotlarni yig‘ish va tartibga solish
— Gipoteza ilgari surish — qonuniyatni taxmin qilish
— Tekshirish — gipotezani yangi misollar orqali sinash
— Umumlashtirish — formulani shakllantirish
— Taqdimot — natijalarni boshqalarga tushuntirish

Xatoni aniqlash va tahlil qilish usuli. O‘qituvchi ataylab xatoli yechimni ko‘rsatadi va o‘quvchilardan xatoni topish, uni izohlash hamda to‘g‘ri yechimni keltirishni so‘raydi. Bu

yondashuv tanqidiy fikrlashni, xatoni tushuntirish qobiliyatini va dalillash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, kvadrat tenglama x2−5x+6=0x^2 - 5x + 6 = 0x2−5x+6=0 uchun o‘qituvchi “x = 2 yoki x = 3” deb aytib, keyin “faqat bittasi to‘g‘ri, qaysi biri?” deb savol beradi. Aslida esa ikkala yechim ham to‘g‘ri — bu esa o‘quvchini tekshiruv va tahlilga undaydi.

Modellashtirish va vizualizatsiya usuli. Muammoni grafik, jadval, chizma yoki model yordamida ifodalash yechimni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi hamda geometrik intuitsiyani rivojlantiradi. Masalan, ikki o‘zgaruvchili tenglamalar sistemasini avval grafik usulda yechib, keyin algebraik usul bilan solishtirish. Bu yondashuv Jerome Brunerning “harakat — tasvir — ramz” bosqichlariga mos keladi va ko‘rgazmali hamda mantiqiy fikrlash uyg‘unligini ta’minlaydi.

Guruhda muammoni hal qilish. 3–4 kishilik kichik guruhlarda murakkab masalalarni birgalikda yechish o‘quvchilarning ijtimoiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Har bir ishtirokchi o‘z fikrini ifodalaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va bahsli vaziyatlarni hal qilishga o‘rganadi. Bu esa metakognitiv ko‘nikmalar — o‘z fikrini nazorat qilish va tahrirlash qobiliyatini shakllantiradi.

Real hayotga yaqin muammolar. Muammolar real hayot bilan bog‘liq tarzda berilganda o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi. Masalan: “Metro stansiyasini loyihalash uchun minimal maydonni hisoblang” yoki “Uy uchun kommunal to‘lovni qanday qilib eng tejamkor hisoblash mumkin?” kabi topshiriqlar matematikaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi va funksional savodxonlikni rivojlantiradi.

Darsda muammoli vaziyatni amalga oshirish bosqichlari. Muammoli ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiq:

1-bosqich: Muammoni yaratish va anglatish. O‘qituvchi muammoli vaziyatni shakllantiradi. Bunda topshiriq o‘quvchining mavjud bilim darajasidan biroz yuqori bo‘lishi, ammo mutlaqo yechilmaydigan darajada bo‘lmasligi zarur. Asosiy maqsad — o‘quvchini “qiziqarli, lekin hali bilmayman” degan holatga olib kelishdir.

2-bosqich: Tahlil va gipoteza ilgari surish. O‘quvchilar muammoni tahlil qilib, mavjud bilimlarini ishga soladilar hamda yechimga oid taxminlar (gipotezalar) bildiradilar. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi rolni bajaradi, biroq tayyor javob bermaydi.

3-bosqich: Faol izlanish va sinov. O‘quvchilar turli yechim yo‘llarini sinab ko‘radilar. Bu bosqichda xatolardan qo‘rqmaslik muhim, chunki xato — o‘rganish jarayonining tabiiy qismidir. O‘qituvchi tanqid o‘rniga tahlilga undaydi: “Bu noto‘g‘ri” deyish o‘rniga “Keling, nimasi boshqacha chiqdi, birga ko‘rib chiqamiz” deya yondashadi.

4-bosqich: Yechimni taqdim etish va asoslash. O‘quvchilar topgan yechimlarini bayon etib, uni dalillar bilan asoslaydilar. Bu bosqichda matematik til va mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalari rivojlanadi.

5-bosqich: Refleksiya va umumlashtirish. Yechim jarayoni tahlil qilinadi: qaysi usullar qo‘llandi, qaysilari samaraliroq bo‘ldi va nima sababdan, ushbu natijani yana qayerda qo‘llash mumkin? Aynan shu bosqichda metakognitiv ko‘nikmalar shakllanadi.

Amaliy qiyinchiliklar va ularning yechimlari.

1. Darsni boshqarish muammosi. Ba’zi o‘qituvchilar muammoli ta’lim ko‘p vaqt oladi va sinf tartibini buzadi, deb hisoblaydilar. Buni bartaraf etish uchun dastlab kichik va aniq chegaralangan muammoli vaziyatlardan boshlash, keyinchalik esa murakkablikni oshirib borish tavsiya etiladi. Hatto 10 daqiqalik muammoli epizod ham samarali natija berishi mumkin.

2. Kuchsiz o‘quvchilarning ortda qolishi. Bu holatda differensial yondashuv muhim: bir xil muammoni turli darajada berish yoki guruh ichida vazifalarni taqsimlash (masalan, biri modellashtiradi, boshqasi isbotlaydi) orqali barcha o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi.

3. Baholashdagi qiyinchiliklar. Muammoli ta’limda faqat an’anaviy testlar yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli portfolio, jarayonni kuzatish, og‘zaki izoh va tengdosh baholash (peer assessment) kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa va tavsiyalar. Matematika darslarida muammoli vaziyatlardan foydalanish — bu shunchaki darsni qiziqarli qilish vositasi emas, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqligini anglash, gipoteza qo‘yish va tekshirish, dalillash kabi yuqori darajadagi intellektual ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi tizimli pedagogik yondashuvdir.

Amaliyotda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

— Har bir darsda kamida bitta muammoli element bo‘lishi kerak (butun dars shunday bo‘lishi shart emas)

— Muammolar o‘quvchilarning hayoti va qiziqishlariga yaqin bo‘lsin

— Xatolar jazolanadigan holat emas, balki o‘rganish manbai sifatida qaralsin

— Javoblardan ko‘ra savollardan ko‘proq foydalanilsin

— Faqat natija emas, balki yechim jarayoni ham baholansin

— Guruhli ishlar va hamkorlikka keng o‘rin berilsin

Muammoli ta’lim va mantiqiy fikrlash rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlar bilan isbotlangan. Qo‘zg‘alish, qidiruv va kashfiyot lazzatini his etgan o‘quvchi matematikani sevib o‘rganadi — bu esa barcha o‘qituvchilarning eng asosiy maqsadi bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Matyushkin A.M. Muammoli vaziyatlar tafakkur va ta’limda. — Moskva: Pedagogika, 1972.

Maxmutov M.I. Muammoli ta’lim: asosiy nazariy masalalar. — Moskva, 1975.

Bruner J.S. The Process of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1960.

Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

Piaje J. The Development of Thought: Equilibration of Cognitive Structures. — New York, 1977.

O‘rinov M., Xudoyberdiyev S. Matematika o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Fan, 2018.

Polya G. Matematikani qanday yechish kerak. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. — 2020.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQANING DRAYVER TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi
tel:998(97)-243-17-37

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaning drayver tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi Surxondaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi hudud iqtisodiyotining asosiy o‘sish nuqtalari hisoblangan qishloq xo‘jaligi va agrosanoat, sanoat-qurilish, turizm-xizmatlar hamda energetika tarmoqlarida barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan samarali mexanizmlarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va mualliflik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish uchun zarur baza mavjud bo‘lsa-da, suv tanqisligi, energiya sig‘imining yuqoriligi, qayta ishlash zanjirlarining yetarli chuqurlashmaganligi, yashil moliya va hududiy ekologik boshqaruv instrumentlarining sustligi mintaqaning drayver tarmoqlarini to‘liq barqaror rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Maqolada hududiy yashil klasterlar, resurs samaradorligini majburiy indikatorlar asosida boshqarish, yashil moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiyani lokal iste’mol bilan integratsiyalash, past uglerodli turizm va chiqindini resursga aylantirish mexanizmlari taklif etildi. Muallif xulosasiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot sharoitida drayver tarmoqlarni rivojlantirishning eng muhim sharti ularni alohida sohalar sifatida emas, o‘zaro bog‘langan hududiy tizim sifatida boshqarishdir.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, drayver tarmoqlar, barqaror rivojlanish, Surxondaryo viloyati, yashil moliya, resurs samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, agrosanoat, turizm, hududiy mexanizm.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida “o‘sish” tushunchasi tobora yangicha mazmun kasb etmoqda. Endi iqtisodiy taraqqiyot faqat ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan emas, balki suv, energiya va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi, emissiya darajasi, ekologik xavfsizlik va iqlimga moslashuvchanlik bilan ham baholanmoqda. Shu sababli yashil iqtisodiyot zamonaviy hududiy rivojlanish modelining markaziy konsepsiyasiga aylandi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi hamda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi qabul qilingan. Mazkur hujjatlarda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik boshqaruvni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Surxondaryo viloyati ushbu jarayon nuqtayi nazaridan strategik hududlardan biridir. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda doimiy aholi soni 3 010 995 kishiga yetgan, yalpi hududiy mahsulot hajmi 66 186,5 mlrd so‘mni tashkil etgan va 6,6 foizga o‘sgan. Shu davrda sanoat ishlab chiqarishi 9,3 foizga, qurilish ishlari 8,5 foizga, chakana savdo aylanmasi esa 10,8 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar hududda iqtisodiy faollik mavjudligini ko‘rsatadi, biroq bu o‘sishni yashil tamoyillar bilan uyg‘unlashtirmasdan turib uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishish qiyin.

Maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, mintaqaning drayver tarmoqlari mavjud bo‘lsa-da, ularni yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish mexanizmlari yetarlicha takomillashmagan. Ko‘p hollarda hududiy o‘sish alohida tarmoqlar kesimida baholanadi, holbuki yashil iqtisodiyot ularni yagona tizim sifatida ko‘rishni talab qiladi. Shu nuqtadan kelib chiqib, ushbu maqolada drayver tarmoqlarni aniqlash, mavjud cheklovlarni baholash va ularni takomillashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish maqsad qilib olindi.


Metodologiya. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va ilmiy adabiyotlarni konseptual solishtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yashil iqtisodiyotga oid qarorlari, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, vazirlik va hokimliklarning rasmiy axborotlari, shuningdek, o‘zbek tadqiqotchilarining yashil iqtisodiyot va Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlari tashkil etdi. Mahalliy tadqiqotlarda Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyot istiqbollari, uni amaliyotga tatbiq etish muammolari va O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning institutsional imkoniyatlari alohida ko‘rib chiqilgan. Bu ishlar muammo mavjudligini ko‘rsatadi, biroq drayver tarmoqlar bo‘yicha hududiy mexanizmlarni yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish hali yetarli darajada mukammal emas.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati uchun to‘rtta asosiy drayver tarmoqni ajratish imkonini berdi: qishloq xo‘jaligi va agrosanoat, sanoat va qurilish, turizm va xizmatlar, energetika. Bu tanlov hududning iqtisodiy tuzilmasi, investitsion faolligi va resurs bazasiga tayangan mualliflik umumlashtirishidir. Birinchi drayver sifatida qishloq xo‘jaligi va agrosanoat alohida ajralib turadi. Buning sababi Surxondaryoning agrar salohiyati yuqoriligi, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va qayta ishlash imkoniyatlarining kattaligidir. Lekin aynan shu tarmoqda suv tanqisligi, an’anaviy sug‘orish usullarining ustunligi, saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlarining yetishmasligi asosiy cheklov bo‘lib qolmoqda. Yashil iqtisodiyot sharoitida bu tarmoqni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning markaziy yo‘li tomchilatib sug‘orish, aqlli monitoring, suv sarfini raqamli hisobga olish va agrochiqindilarni bioo‘g‘it hamda bioenergiya manbaiga aylantirishdan iborat. Bunday yondashuv nafaqat resurs tejamkorligini oshiradi, balki qiymat zanjirini chuqurlashtiradi. Bu xulosa mahalliy tadqiqotchilarning Surxondaryoda yashil iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha qayd etgan muammolari bilan hamohangdir.

Ikkinchi drayver tarmoq sifatida sanoat va qurilish sohalari ajralib turadi. 2025-yilda viloyat sanoati 9,3 foizga, qurilish ishlari esa 8,5 foizga o‘sgani bu tarmoqlar hududiy iqtisodiyotda tobora kuchliroq rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Ammo aynan shu yo‘nalishlarda energiya sig‘imining yuqoriligi, chang-emissiya va xomashyo sarfining kattaligi kuzatiladi. Shuning uchun bu tarmoqlarda rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning asosiy sharti energiya auditi, yashil texnologiyalarni rag‘batlantirish, ikkilamchi xomashyo ulushini ko‘paytirish va “yashil sertifikatlash” tizimini joriy etishdir. Oddiy ekologik nazorat yetarli emas; resurs samaradorligini iqtisodiy rag‘bat bilan bog‘lash kerak. Korxona qancha kam energiya va suv sarflasa, shuncha ko‘p soliq imtiyozi yoki preferensiya olishi lozim. Aks holda “yashil modernizatsiya” shior bo‘lib qoladi.

Uchinchi drayver tarmoq - turizm va xizmatlar sohasi. Surxondaryo tabiiy landshaft, tarixiy-madaniy meros va chegaraoldi geografik joylashuv tufayli yuqori turizm salohiyatiga ega. 2025-yilda Sariosiyo tumanida 615 gektar maydonni qamrab oluvchi va umumiy qiymati 913,3 mlrd so‘m bo‘lgan “Sangardak” turistik markazini barpo etish loyihasi boshlangan. Bu hududiy xizmatlar iqtisodiyotini kengaytirish uchun yirik impulsdir. Lekin turizmni shunchaki obyektlar sonini ko‘paytirish bilan o‘lchash xato. Yashil iqtisodiyot sharoitida turizmning to‘g‘ri modeli - past uglerodli, landshaftga mos va mahalliy iqtisodiyot bilan integratsiyalashgan model. Demak, turistik zonalarda quyosh energiyasidan foydalanish, suvni qayta aylantirish, chiqindini saralash, ekologik transport, mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish va tabiatga bosimni limitlovchi monitoring tizimi zarur. Shunda turizm barqaror o‘sish manbai bo‘ladi, aks holda u tabiat resurslarini tez yemiruvchi tarmoqqa aylanadi.

To‘rtinchi drayver tarmoq - energetika. Energetika bu yerda alohida soha bo‘lishdan tashqari, qolgan barcha drayver tarmoqlar uchun platformaviy asos hamdir. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2027-yilda Surxondaryo viloyatining Angor tumanida quvvati 1 560 MVt bo‘lgan yirik energetika loyihasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, mamlakat miqyosida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va yashil energiya ishlab chiqarishni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Biroq muammo shundaki, yirik energiya loyihalari ko‘pincha hududning o‘z ichki iste’mol zanjiriga yetarli darajada bog‘lanmaydi. Surxondaryo uchun mexanizmni takomillashtirish degani - yirik generatsiya bilan bir qatorda fermer xo‘jaliklari, sovitish omborlari, nasos stansiyalari, ijtimoiy obyektlar va kichik turistik maskanlarda mikroquyosh, energiya saqlash va lokal tarmoqlarni rivojlantirish demakdir. Shunda energiya siyosati hududiy rivojlanishga bevosita xizmat qiladi.



1-diogramma. Mintaqaning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari

Ushbu diagrammada mintaqaning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlar mualliflik tahliliy modeli asosida guruhlashtirilgan. Diagrammadan ko‘rinadiki, eng yuqori ulush **qishloq xo‘jaligi va agrosanoat** tarmog‘iga to‘g‘ri keladi - **35 %**. Bu holat Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida agrar yo‘nalishning tarixiy va tarkibiy jihatdan yetakchi o‘rin tutishi, ayni paytda suv tejovchi texnologiyalar, qayta ishlash va agrochiqindilarni resursga aylantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi bilan izohlanadi.

Diagrammada **sanoat va qurilish** tarmog‘i **25 %** ulush bilan ikkinchi o‘rinni egallaydi. Mazkur ko‘rsatkich ushbu sohada energiya samaradorligini oshirish, ekologik sertifikatlash, ikkilamchi xomashyodan foydalanish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhimligini ko‘rsatadi. **Turizm va xizmatlar** hamda **energetika** yo‘nalishlari esa har biri **20 %** ulush bilan baholangan. Bu ularning hududiy iqtisodiyotdagi salohiyati yuqori ekanini, biroq ularni samarali rivojlantirish uchun past uglerodli turizm, ekologik boshqaruv, qayta tiklanuvchi energiya va lokal energiya ta’minoti mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi. Umuman olganda, diagramma yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaning drayver tarmoqlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rilishi lozimligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaning drayver tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari

№	Drayver tarmoq	Asosiy muammo	Takomillashtirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat	Suv tanqisligi, an’anaviy sug‘orish usullarining ustunligi, qayta ishlash darajasining pastligi	Tomchilatib sug‘orish, aqlli monitoring, agrochiqindidan bioo‘g‘it va bioenergiya olish, saqlash va qayta ishlash zanjirini chuqurlashtirish	Suv va energiya tejaladi, mahsulot tannarxi pasayadi, qo‘shimcha qiymat oshadi
2	Sanoat va qurilish	Energiya sig‘imining yuqoriligi, resurs sarfining kattaligi, chiqindilar hajmi	Energiya auditi, yashil sertifikatlash, ikkilamchi xomashyodan foydalanish, past uglerodli texnologiyalarni joriy etish	Resurs samaradorligi oshadi, ekologik yuk kamayadi, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi kuchayadi
3	Turizm va xizmatlar	Tabiiy resurslarga bosim, ekologik infratuzilmaning sustligi	Past uglerodli turizm modeli, chiqindini saralash, suvni qayta aylantirish, ekologik transport va mahalliy yashil standartlar	Turizmning ekologik xavfsizligi ta’minlanadi, hududiy daromadlar barqarorlashadi
4	Energetika	Markazlashgan energiya ta’minotiga qaramlik, qayta tiklanuvchi energiyaning lokal iste’mol bilan sust bog‘liqligi	Quyosh va shamol energiyasi, mikroquvvat tizimlari, energiya saqlash, fermer va ijtimoiy obyektlarda lokal energiya yechimlari	Energiya xavfsizligi ortadi, xarajatlar kamayadi, yashil elektrdan foydalanish kengayadi

5	Boshqaruv va moliyalashtirish	Yashil moliya vositalarining yetarli emasligi, hududiy indikatorlar sustligi	Yashil kreditlar, grantlar, soliq rag‘batlari, yashil KPI tizimi va raqamli monitoring platformasi	Tarmoqlar bo‘yicha samaradorlik nazorati kuchayadi, investitsion jozibadorlik oshadi

Ushbu jadval yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaning asosiy drayver tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini tizimli ravishda umumlashtiradi. Jadvaldan ko‘rinadiki, har bir tarmoqda muammo va yechimlar o‘ziga xos bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turadigan umumiy nuqta - **resurs samaradorligi, ekologik xavfsizlik va institutsional boshqaruvni kuchaytirish** zaruratidir. Xususan, qishloq xo‘jaligi va agrosanoatda suv tejash va qayta ishlash chuqurligi ustuvor bo‘lsa, sanoat va qurilishda energiya samaradorligi hamda chiqindilarni kamaytirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Jadvalning yana bir muhim tomoni shundaki, unda turizm va energetika alohida iqtisodiy yo‘nalish sifatida emas, balki hududiy yashil transformatsiyaning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan. Bu esa maqolaning asosiy ilmiy xulosasini mustahkamlaydi: mintaqaning drayver tarmoqlarini takomillashtirish alohida sektoral choralar bilan emas, balki o‘zaro bog‘langan hududiy mexanizmlar orqali amalga oshirilishi kerak. Shu sababli mazkur jadval maqolaning tahlil va xulosa qismi uchun umumlashtiruvchi ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi tahlil asosida mintaqaning drayver tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar shakllantirildi. Birinchisi, hududiy yashil klasterlar modelini joriy etishdir. Unda ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, energiya va xizmatlar sektori yagona zanjir sifatida boshqariladi. Ikkinchisi, yashil moliya instrumentlarini hududga moslashtirishdir: energiya va suv tejamkor loyihalar uchun imtiyozli kredit, grant va soliq chegirmalari berilishi kerak. Uchinchisi, yashil KPI tizimini yaratishdir. Masalan, 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan suv sarfi, 1 mlrd so‘mlik mahsulot uchun energiya sarfi, qayta ishlash ulushi, qayta tiklanuvchi energiya hissasi va chiqindi qayta ishlanishi hududiy darajada muntazam e’lon qilinishi kerak. To‘rtinchisi, raqamli monitoring va ma’lumotlar integratsiyasidir. Beshinchisi, chiqindini resursga aylantirishga asoslangan sirkulyar iqtisodiyot elementlarini joriy etishdir. Oltinchisi, mahalliy hokimiyat, biznes va ilmiy institutlar o‘rtasida “yashil boshqaruv platformasi”ni shakllantirishdir. Bu takliflar mualliflik xulosasi bo‘lib, ular rasmiy strategiyalar va mavjud hududiy tendensiyalardan kelib chiqib ishlab chiqildi.

XULOSA.

Yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaning drayver tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning nazariy emas, amaliy zaruratidir. Surxondaryo viloyati misolida ko‘rinadiki, hududda iqtisodiy o‘sish bazasi, investitsion faollik va resurs salohiyati mavjud. Ammo bu salohiyatni uzoq muddatli va sifatli taraqqiyotga aylantirish uchun o‘sishning o‘zi kifoya qilmaydi; u resurs tejamkor, ekologik xavfsiz va institutsional jihatdan puxta boshqarilgan bo‘lishi kerak. Shu bois drayver tarmoqlarni alohida-alohida emas, o‘zaro bog‘langan yashil hududiy tizim sifatida boshqarish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Agrosanoatda suv va chiqindi boshqaruvi, sanoatda energiya samaradorligi, turizmda past uglerodli model, energetikada esa lokal qayta tiklanuvchi tizimlarni joriy etish Surxondaryo viloyatining raqobatbardoshligini keskin oshirishi mumkin. Eng muhim xulosa shuki, mexanizmni takomillashtirish texnik choralar yig‘indisi emas, balki boshqaruv falsafasini o‘zgartirishdir. Kim shu nuqtani tushunmasa, yashil iqtisodiyotni faqat bezakli termin darajasida qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar statistikasi: Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda. 2026-yil 26-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qaysi hududlarning yalpi hududiy mahsuloti eng tez o‘smoqda? 2026-yil 11-mart.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi. Surxondaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirish maqsadida “Sangardak” turistik markazi barpo etilmoqda. 2025-yil 9-iyun.
6. Surxondaryo viloyati hokimligi. Surxondaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirish maqsadida 615 gektar maydonda barpo etilayotgan “Sangardak” turistik markazidagi loyihalar. 2025-yil 1-avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Mamlakatimizda quyosh, shamol va issiqlik elektr stansiyalarini barpo etish loyihalari bo‘yicha ma’lumot. 2024-yil 30-dekabr.
8. Qosimov, A. I. Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Nauka i innovatsiya. - 2023. - T. 1, № 29. - B. 4–7.
9. Ruziyev, O. A., Qosimov, A., Mamatov, S. I. Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etishning hozirgi holati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2025. - T. 3, № 1.
10. Kadirova, M. M., Saidova, F. K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. - 2024. - T. 4, № 07. - B. 214–221.

“TUBAN O‘SIMLIKLAR” MODULINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Moxichexra Xayitova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya ta’limining muhim qismi bo‘lgan “Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitish samaradorligini oshirishning texnologik asoslari tadqiq etilgan. Muallif an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar (muammoli ta’lim, loyiha metodi, modulli o‘qitish) va raqamli vositalarni (VR/AR, virtual laboratoriyalar, geymifikatsiya) integratsiya qilish masalalarini tahlil qiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning pedagogik texnologiyalarga oid qarashlari qiyosiy o‘rganilib, talabalarning tahliliy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodlar (INSERT, Keys-stadi) tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: tuban o‘simliklar, pedagogik texnologiya, innovatsiya, VR texnologiyalari, virtual laboratoriya, modulli o‘qitish, interfaol metodlar.

Аннотация. В данной статье исследуются технологические основы повышения эффективности преподавания модуля «Низшие растения», являющегося важной частью биологического образования. Автор анализирует вопросы отказа от традиционных методов обучения и интеграции современных педагогических технологий (проблемное обучение, метод проектов, модульное обучение) и цифровых инструментов (VR/AR, виртуальные лаборатории, геймификация). Также проводится сравнительный анализ взглядов отечественных и зарубежных ученых на педагогические технологии, рекомендуются практические методы (INSERT, Case-study), направленные на развитие аналитического и креативного мышления студентов.

Ключевые слова: низшие растения, педагогическая технология, инновации, VR-технологии, виртуальная лаборатория, модульное обучение, интерактивные методы.

Abstract. The paper involves the technological foundations for improving the efficiency of teaching the “Tallobiontha Plants” module, a crucial part of biological education. The author analyzes the transition from traditional teaching methods to the integration of modern pedagogical technologies (problem-based learning, project methods, modular teaching) and digital tools (VR/AR, virtual laboratories, gamification). Furthermore, the study provides a comparative analysis of local and foreign scholars’ perspectives on pedagogical technologies and recommends practical methods (INSERT, Case-study) aimed at developing students’ analytical and creative thinking.

Keywords: Tallobiontha plants, pedagogical technology, innovation, VR technologies, virtual laboratory, modular teaching, interactive methods.

Kirish. Ma’lumki, zamonaviy ta’lim yondashuvlari – bu o‘qituvchining ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rinli va maqsadli qo‘llagan holda noan’anaviy ta’lim va tarbiya berish usullaridir. Bugungi kunda biologiya ta’limi, xususan, qiyin o‘zlashtiriladigan “Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitish faqatgina nazariy bilimlarni uzatish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarda tahliliy, mantiqiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishni talab etadi.

Dastlab “texnologiya“ tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha so‘zdan – “techne“ – san’at, mahorat, hunar va “logos“ – fan so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani“ ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya bo‘lib, ta’lim texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasi kabi tushunchalar bilan sinonim sifatida ishlari yuritiladi. Bu termin birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan.

Muhokama. O‘quv jarayonida talabalarning bilish va ijodiy faolligini ro‘yobga chiqarish maqsadida ta’lim sifatini oshirishga, o‘quv vaqtidan samaraliroq foydalanishga hamda uy vazifalarini bajarishga ajratilgan vaqtni qisqartirish hisobiga talabalarning reproduktiv faoliyati ulushini kamaytirishga imkon beruvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Biologiyani o‘rganishning asosiga aylanishi mumkin bo‘lgan asosiy ta’lim texnologiyalari quyidagilardir:

Muammoli ta’lim texnologiyasi – bu o‘quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish bo‘yicha talabalarning faol mustaqil faoliyatini tashkil etish bo‘lib, buning natijasida bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy o‘zlashtirish yuz beradi hamda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – bu ta’lim mazmunini o‘zgartirish va cheksiz boyitish, integratsiyalashgan kurslardan, internetdan, interfaol o‘qitish metodlaridan hamda masofaviy hamkorlikdan foydalanishdir.

Turli darajali (tabaqalashtirilgan) o‘qitish texnologiyasi – o‘qituvchiga bo‘sh o‘zlashtiruvchi talabaga yordam berish, kuchlisiga esa e’tibor qaratish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida kuchli talabalarning ta’limda tezroq va chuqurroq ilgarilash istagi ro‘yobga chiqadi. Kuchli talabalar o‘z qobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar, bo‘sh o‘zlashtiruvchilar esa o‘quv muvaffaqiyatini his qilish va o‘z imkoniyatlari doirasida o‘zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya darajasi oshadi.

Loyiha metodlari texnologiyasi. Ushbu metodika bo‘yicha ishlash talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, kasbiy va ijtimoiy jihatdan o‘z o‘rnini topishga yanada ongli yondashishga imkon beradi.

O‘qitishda tadqiqot metodlari texnologiyasi – talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda boyitishga, o‘rganilayotgan muammoning mohiyatiga chuqur kirib borishga va uni hal qilish yo‘llarini faraz qilishga imkon beradi, bu esa dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashda muhimdir.

Ma’ruza-seminar tizimi – talabalarga sinovlarga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi. U materialni bloklarga jamlash va uni yaxlit holda taqdim etish, nazoratni esa talabalarning dastlabki tayyorgarligiga ko‘ra o‘tkazish imkonini beradi. Biroq, bu texnologiyani suiste’mol qilmaslik kerak, chunki u ta’lim jarayonini samarasiz qilib qo‘yishi mumkin: talabalar uchun zerikarli dars o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani pasaytiradi. Bundan tashqari, katta hajmdagi axborotni anglab yetishga ulgurilmaydi va shuning uchun u talabalar tomonidan yomon eslab qolinadi. Shunga qaramay, ushbu texnologiyani kollejda vaqti-vaqti bilan qo‘llash maqsadga muvofiq, ayniqsa, talabalar olgan bilim va ko‘nikmalarini faollashtirishi va amalda qo‘llashi mumkin bo‘lgan muammoli mavzudagi seminarlar bilan birgalikda qo‘llanilganda.

O‘qitishda o‘yin metodlaridan foydalanish texnologiyasi. Bu rolli, amaliy (ishbilarmonlik) va boshqa turdagi o‘quv o‘yinlari bo‘lishi mumkin. Ushbu texnologiya dunyoqarashni kengaytirishni, bilish faoliyatini rivojlantirishni, amaliy faoliyatda zarur bo‘lgan muayyan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishni ta’minlaydi.

Salomatlikni asrovchi texnologiyalar. Ushbu texnologiyalardan foydalanish dars davomida turli xil topshiriqlarni bir tekisda taqsimlash, aqliy faoliyatni jismoniy daqiqalar bilan gallash (navbatlash), murakkab o‘quv materialini berish vaqtini belgilash, mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqt ajratish, ta’limning texnik vositalarini me’yorida qo‘llash imkonini beradi, bu esa o‘qitishda ijobiy natijalar beradi.

“Portfolio” innovatsion baholash tizimi – bu ijtimoiy jihatdan o‘z o‘rnini topishni pedagogik qo‘llab-quvvatlash va shaxsning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash vositasi sifatida talabalar yutuqlarini shaxsiylashtirilgan holda hisobga olish tizimini shakllantirishdir.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi – kollejda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu texnologiya elementlaridan o‘qituvchining talabalar bilan uy vazifasini bajarishda (yakka tartibdagi va maslahatli masofaviy metodika), loyiha ustida ishlashda, shuningdek, talabalar vaqtincha betob bo‘lib qolgan hollarda to‘laqonli o‘qitish uchun masofaviy muloqot qilishda ham foydalanish mumkin.

Modulli o‘qitish texnologiyasi – o‘qitish mazmuni, o‘zlashtirish sur'ati, mustaqillik darajasi, o‘qish metodlari va usullari, shuningdek, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari bo‘yicha ta’limning individuallashtirilishini ta’minlaydi.

“Tuban o‘simliklar” modulidagi innovatsion yondashuvning asosiy texnologik asoslari quyidagilardan iborat:

VR va AR texnologiyalari. Virtual voqelik ko‘zoynaklari va to‘ldirilgan voqelik ilovalari (masalan, ROQED Science) orqali o‘simlik hujayralari va to‘qimalarining ichki tuzilishini 3D formatda o‘rganish mumkin.

Raqamli gerbariy va 3D skanerlash. O‘simlik namunalariga zarar yetkazmagan holda ularni har tomonlama ko‘zdan kechirish imkonini beruvchi interaktiv ma’lumotlar bazalarini yaratish.

Virtual laboratoriyalar. BioDigital kabi platformalar fotosintez yoki transpiratsiya jarayonlarini turli tashqi muhit omillari asosida modellashtirishga yordam beradi.

Datchik va sensorlar. Dala tadqiqotlarida namlik, yorug‘lik va gaz konsentratsiyasini real vaqt rejimida o‘lchovchi zamonaviy raqamli laboratoriya uskunalaridan foydalanish.

Geymifikatsiya (O‘yinlashtirish): Interaktiv viktorinalar (masalan, DiaClass) va BYJU’S Biology kabi ilovalar orqali fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

Aralash ta’lim. An’anaviy darslarni onlayn kurslar va vebinarlar bilan uyg‘unlashtirish.

Molekulyar-genetik asoslar. Dasturga o‘simliklar hayotini genom darajasida tushunish imkonini beruvchi transkriptomika va proteomika elementlarini kiritish.

Innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi “Tuban o‘simliklar” modulini an’anaviy yodlash uslubidan voz kechib, yuqori texnologik, ko‘rgazmali va tadqiqotga yo‘naltirilgan zamonaviy tizimga aylantiradi.

Mahalliy olimlarning ta’lim texnologiyalariga oid qarashlari tahlili Respublikamiz olimlari tomonidan pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari chuqur

tadqiq etilgan. Xususan, N.A.Muslimov o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, pedagogning innovatsion faoliyati - bu shunchaki yangi metodlarni darsga olib kirish emas, balki talabaning qabul qilish psixologiyasiga moslashgan tizimli yondashuvdir. B.Abdullayeva esa ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlik va metodologik asoslarni takomillashtirish, xususan, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda kognitiv yondashuvlarning muhimligini asoslab bergan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta’limga joriy etish borasida R.Jo‘rayev va U.Begimqulovlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. U.Begimqulov ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratib, virtual laboratoriyalar va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘zlashtirish samaradorligini keskin oshirishini isbotlagan.

Olimlarning ishlaridan shuni aytish mumkinki, “Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitishda suvo‘tlar yoki zamburug‘larning mikroskopik tuzilishini o‘rganishda axborot texnologiyalariga asoslangan virtual modellashtirish ayni shu tamoyilga asoslanadi.

Modulni o‘qitish metodikasi doirasida R.Isyanov, I.Azimov, G.Ergasheva, O‘.Xo‘janazarov hamda U.Raxmatovlarning izlanishlari ushbu tadqiqotimizning uzviy asosini tashkil etadi. R.Isyanov va I.Azimovlar o‘z maqolalarida fanni o‘qitishda muammoli ta’lim va ko‘rgazmalilik tamoyillarini yoritib bergan bo‘lsa, G. Ergasheva darslarda interfaol metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

O‘.Xo‘janazarovning botanika va ekologiya fanlarini o‘qitishdagi amaliy yondashuvlari “Tuban o‘simliklar” modulini tabiat bilan uyg‘unlikda o‘qitish imkonini beradi. U.Raxmatovning ta’lim texnologiyalari va ularni dars bosqichlariga to‘g‘ri taqsimlash borasidagi xulosalari modulni loyihalashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishda xorij tajribasi muhim o‘rin tutadi. V.P. Bespalko o‘zining yirik asarida: *“Pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir“* deb ta’rif beradi. Shuningdek, rus metodist olimi I.N. Ponomareva biologiya o‘qitishning zamonaviy konsepsiyalarida o‘quvchilarda ekologik va biologik madaniyatni shakllantirishda qidiruv-tadqiqot usullarining o‘rnini alohida ta’kidlaydi.

J.Piaje va L.Vygotskiyning kognitiv va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan zamonaviy davomchilari) ta’limda “Talaba markazga olingan ta’lim” (Student-centered learning) konseptual g‘oyasini ilgari surishadi. Yevropa ta’lim tizimida “Tuban o‘simliklar” kabi fundamental biotexnologik obyektlarni o‘qitishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri *loyiha asosida o‘qitish* keng qo‘llaniladi.

Janubiy Koreyalik olimlar (masalan, Lee, Kim va boshqalar) “SMART-ta’lim” (Self-directed, Motivated, Adaptive, Resource-enriched, Technology-embedded) konsepsiyasi doirasida tadqiqotlar olib borib, ta’limda uzluksiz raqamli muhitni yaratish zarurligini ta’kidlaydilar. Koreya tajribasi asosida o‘simliklar morfologiyasi va anatomiyasini o‘rgatishda kengaytirilgan reallik (AR) va mobil ilovalardan foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biriga aylanib ulgurgan.

Pedagogik texnologiya darajalari va interfaol metodlar yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar asosida ta’lim texnologiyalarini qo‘llash miqyosiga ko‘ra quyidagi darajalarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja. Ma’lum mintaqada, o‘quv yurtida, ma’lum o‘qitish bosqichida yaxlit ta’lim jarayonini tavsiflaydi.

- Xususiy metodik (predmetli) daraja. Ta’lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig‘indisi sifatida fanni (masalan, Botanika yoki Biologiya) o‘qitish doirasida qo‘llaniladi.

- Lokal (modulli) daraja. Ma’lum bir modul, dars yoki kichik mavzuni tushuntirishda qo‘llaniladigan aniq texnologiyalar qamrovi.

“Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitishda aynan lokal darajadagi texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

INSERT texnologiyasi. Dastur mazmunidagi qamrovli faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda foydalanish tavsiya etiladi. Insert – talabalar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. Talabalarga o‘rganiladigan o‘quv materiallari (masalan, lishayniklarning ekologik ahamiyati) va maxsus jadval tarqatiladi. Talabalar har bir jumlani o‘rganib chiqib, jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilashadi:

a) “Bilaman” – V (oldingi bilimlarga mos kelsa);
b) “Ma’qullayman / Yangi ma’lumot” – +;
c) “O‘rganish lozim / Fikrimga qarshi” – –;
d) “Tushunmadim / Savolim bor” – ? Ushbu metod talabaning matn ustida ongli va analitik ishlashini ta’minlaydi.

KEYS (Case-study) texnologiyasi. “Tuban o‘simliklar” modulida haqiqiy hayotiy yoki ilmiy muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. Masalan, “Ma’lum bir suv havzasida qizil suvo‘tlarning haddan tashqari ko‘payib ketishi ekotizimga qanday ta’sir qiladi?” degan keys beriladi va talabalar muammoning yechimini mustaqil izlaydilar.

Rolli o‘yin texnologiyalari. Biologik jarayonlarni modellashtirish. Bunda talabalar simbioz jarayonini (zamburug‘ va suvo‘tning lishaynik hosil qilishi) rollarga bo‘lingan holda tushuntirib berishlari orqali murakkab ilmiy atamalar oson o‘zlashtiriladi.

Hamkorlikdagi o‘qitish. Bu texnologiyaning asosiy tamoyil va qoidalariga quyidagilar kiradi: guruh a’zolarining ijobiy o‘zaro bog‘liqligi, yuzma-yuz muloqot, shaxsiy javobgarlik, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va guruh ishini baholash. Kichik guruhlarda ishlash orqali talabalar tuban o‘simliklar tasnifi bo‘yicha ma’lumotlarni bir-birlariga o‘rgatadilar.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tajribalarini umumlashtirgan holda, “Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash an’anaviy yodlash ustiga qurilgan ta’limdan amaliy, tahliliy va natijaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tishning asosiy texnologik kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatning maqsadi an’anaviy tizimga nisbatan o‘quvchi shaxsini sifat jihatidan o‘zgartirish hisoblanadi. Bu pedagogik muammolarni hal qilishni nazarda tutuvchi, sifat jihatidan yangi didaktik va tarbiyaviy dasturlarni kasbiy faoliyatga joriy etish orqali ro‘yobga chiqadi.

Xatti-harakatlarni rag‘batlantirish (motivatsiyalash) qobiliyatini rivojlantirish, olinayotgan ma’lumotlarda mustaqil yo‘nalish ola bilish, ijodiy “noodatiy” (qoliplarga tushmaydigan) fikrlashni shakllantirish, ilm-fan va amaliyotning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda bolalarning tug‘ma qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish orqali ularni rivojlantirish - innovatsion faoliyatning asosiy maqsadlaridir. Insonning axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini takomillashtirishiga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega amaliyot sifatida ta’limdagi innovatsion faoliyat, jamiyatdagi barcha mavjud amaliyot turlarini o‘zgartirishni (yangilashni) ta’minlay olishi bilan ahamiyatlidir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’limda xolistik (yaxlit) yondashuvni ilgari surishga yordam beradi, olamning yaxlitligini anglashga va umumiy intellektni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yangi fanlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, shuningdek, o‘qitishning yangi shakl va metodlarini qo‘llashning dolzarbligini oshiradi. Tadqiqot natijasida biologik ta’lim va tarbiya yo‘nalishlaridan birining innovatsion mazmuni ishlab chiqildi, buning uchun tuzilmaviy-mazmunli model, maxsus pedagogik shart-sharoitlar hamda didaktik tamoyillar ishlab chiqilgan.

Xulosa. “Tuban o‘simliklar” modulini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash talabalarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va murakkab biologik jarayonlarni vizuallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlarning uyg‘unligi ta’limni “yodlash” modelidan “tushunish va tadqiq etish” modeliga o‘tkazadi. Bu esa bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim texnologik kafolat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. avtoref. – T., 2006. – 46 b.
2. Айсина Г. С. Инновационные технологии преподавания биологии в колледже // Педагогическая наука и практика. – 2021. – № 1(31). – С. 109-113.
3. Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 256 b.
4. Baker T.R., Battersby S., Bednarz S.W. et al. A research agenda for geospatial technologies and learning // Journal of Geography. – USA: Taylor & Francis, 2015. – Vol. 114. – № 3. – P. 118-130.
5. Ergasheva G.S. Biologiya ta’limida innovatsion texnologiyalar va ularni qo‘llash metodikasi // Uzluksiz ta’lim. – T., 2018. – №4. – B. 88-92.
6. Jo‘rayev R.H., Tolipov O‘.Q., Safarova R.S. Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – T.: Fan, 2007. – 210 b.
7. *Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B.*. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: Sano standart, 2015. – 150 b.
8. Raxmatov U.E. Biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish // Uzluksiz ta’lim. – T., 2018. – № 5. – B. 102.
9. Xo‘janazarov O‘.E., Valixonova A. Botanika va o‘simliklar ekologiyasini o‘qitishda amaliy yondashuvlar // Xalq ta’limi. – T., 2020. – №2. – B. 45-49.
10. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
11. Пономарева И. Н., Соломин В. П., Сидельникова Г. Д. Общая методика обучения биологии. – М.: Академия, 2003. – 272 с.
12. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0032/2.75.pdf
13. https://bulletin-pedagogic-sc.kaznu.kz/index.php/1-ped/article/view/644

O‘ZBEKISTON QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN TULIPA GREIGIINING BIOLOGIK VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kandiyorova Rayhona Baxtiyor qizi
Kattaqo’rg’on Pedagogika Instituti 1-bosqich talabasi
Bozorova Umida Baxtiyorovna
Kattaqo’rg’on Pedagogika Instituti asissent o’qituvchi
Safarova Sanobar Toshpo’latovna
Kattaqo’rg’on tuman 100-maktab biologiya fan o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Tulipa greigiining biologik tuzilishi, morfologik belgilarining o‘ziga xosligi, ekologik moslashuv mexanizmlari, tarqalish areali, populyatsion holati hamda kamayish omillari keng yoritiladi. Turning O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi ga kiritilish sabablari, genofondni saqlash zarurati va muhofaza qilish istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi. O‘zbekiston florasining noyob va muhofazaga muhtoj o‘simliklaridan biri — Tulipa greigii (Greyg lolasi)ning biologik va ekologik xususiyatlari o‘rganiladi. Mazkur tur Qizil kitobga kiritilgan bo‘lib, uning tabiiy tarqalish hududi, ko‘payish xususiyatlari hamda ekologik omillarga moslashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari noyob o‘simlik turlarini asrash va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tulipa greigii, Qizil kitob, biologik xilma-xillik, Amorfologiya, ekologik tizim, tarqalish, muhofaza, antropogen omillar.

Kirish: Hozirgi davrda global ekologik muammolar, xususan bioxilma-xillikning qisqarib borishi butun dunyo olimlarini tashvishga solayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, noyob va endem o‘simlik turlarining yo‘qolib ketish xavfi ortib borayotgani ekologik muvozanatga jiddiy tahdid solmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston hududida tarqalgan noyob o‘simlik turlarini o‘rganish, ularni muhofaza qilish va tiklash masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tabiiy-iqlimiy sharoitlari, geografik joylashuvi va relyefining xilma-xilligi bilan Markaziy Osiyoda bioxilma-xillik markazlaridan biri hisoblanadi. Respublikada 4500 dan ortiq o‘simlik turlari mavjud bo‘lib, ularning muayyan qismi endem va relikt turlar sifatida e’tirof etiladi. Shular qatorida Tulipa greigii alohida o‘rin egallaydi.Tulipa greigii — lola turlarining eng yirik va manzarali vakillaridan biri bo‘lib, nafaqat tabiiy ekotizimlarda, balki madaniy landshaftlarda ham muhim estetik va seleksion ahamiyatga ega. Ushbu tur ilk bor XIX asrda botanik olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tavsiflangan bo‘lib, hozirgi kunda xalqaro darajada ham qimmatli genetik resurs sifatida e’tirof etiladi**.**Biologik xilma-xillik global barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan cho‘l va tog‘ florasi O‘zbekiston uchun noyob botanik resurs hisoblanadi. Ayniqsa, Tulipa greigii kabi lola turlari ekologik muvozanat hamda madaniy-estetik qadriyat sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu tezisning maqsadi — Tulipa greigiining biologik va ekologik xususiyatlarini ilmiy tarzda yoritish va uni saqlab qolish bo‘yicha chora-tadbirlarni aniqlash.Qizil kitob — bu yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan, noyob va kamayib borayotgan o‘simlik hamda hayvon turlari ro‘yxati kiritilgan rasmiy hujjat hisoblanadi.U tabiatni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlash va noyob turlarni himoya qilish maqsadida yaratilgan.U orqali insoniyat noyob o‘simlik va hayvon turlarini asrab qolishga harakat qiladilar.Agar bu choralar ko‘rilmasa, ko‘plab turlar butunlay yo‘qolib ketishi mumkin.

Asosiy qism: Ajdod: Liliyasimonlar (Bir pallalilar)- Liliopsida(Monocotyledones),Kichik ajdod: Liliyakabilar - Liliidae,Qabila: Liliyanamolar - Liliales ,Oila: Loladoshlar - Liliaceae,Tur: Greyg lolasi, qizil lola - Tulipa greigi.Lola-Tulipa turkumi vakillarining piyozi asosan qo‘ng‘ir. Poyasi bargli.Gullari ko‘pincha yakka-yakka joylashgan,gullarini oddiy,gultojsimon,oq rangli Guliston bo‘laklari 6 ta,tutashmagan 3 tadan 2 ta doira o‘rnashgan.Changchisi 6ta,urug‘chisi 1 ta. Mevasi uch qirrali ko‘sakcha O‘rta Osiyoda 64 ta turi, O‘zbekistonda 21 ta turi o‘sadi.Ular cho‘l, adir va tog‘larda o‘sadi va deyarli barchasi O‘zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ha kiritilgan.Qizil lola, greyg lolasi (Tulipa greigii Rgl) Loladoshlarning tuzilishlariga xos barcha belgilarni mujassamlashtirgan. Qizil lola bo’yi 15-45 sm cha keladigan tuxumsimon yoki yumaloq piyozli efemeroid. Barglari 3-4 ta, poyada siyrak joylashgan, cheti burmali, yuzasida to’q qizil dog’lari bor, pastkisi keng nashtarsimon, cho’ziq, bandsiz, uzunligi 10-32 sm, eni 3-10 sm. Guli qizil, uzunligi 4-5 sm, zarg’oldoq qizil, ba’zan sariq, sarg’imtir, tubi sariq va unda tuxumsimon shaklli qora dog’lari bor. Changchilari 6 ta, ipi qora yoki sariq, changdoni sariq, binafsharang, kulrang.Ko’sagi somonrang sariq, och jigarrang, uzunligi 11 sm, eni 4 sm. gacha. Urug’i tuxumsimon, och jigarrang 1-3 sm: 0,7 sm. Aprel-may oylarida gullaydi, iyun-iyulda mevalaydi. Hasharotlar yordamida changlanadi. Mevasi quruq ko‘sak meva. Urug‘i va piyozchalari orqali ko‘payadi.Tog’ pog’onasining quyi qismidagi soz tuproqli va shag’alli yonbag’irlarda o’sadi. Areali keskin qisqarib borayotgan kamyob tur. O’zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan.Tabiatda yakka-yakka yoki 3-4 tadan to‘da hosil qolib o‘sadi. Toshkent viloyati hududida 100.000 tupi borligi aniqlangan.Tulipa greigii asosan O‘zbekistonning tog‘oldi va tog‘li hududlarida (Zarafshon, Qizilqum cho‘li atrofidagi tog‘ etaklari) uchraydi.Tulipa greigii qo‘shimcha ravishda u ekotizimlarda oziq zanjiridagi bog‘lanishlarda muhim bo‘lib, tuproq mikroflora bilan simbioz aloqada bo‘ladi.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Botanika bog‘ida 1956-yildan beri ekib o‘stirilmoqda. Chotqol biosfera qo‘riqxonasi va Ugom Chatqol davlat milliy tabiat bog‘i hududida muhofaza ostiga olingan.

Ekologik xususiyatlari: Turni uchraydigan muhit – yengil, yaxshi tog‘oldi qoya-pasttekisliklari.O‘simliklar qurg‘oqchilikka qisman chidamli bo‘lib, past namlik sharoitida ham o‘sadi.Fotosintez jarayoni orqali u atrof-muhitdagi kislorod miqdorini oshiradi va karbonat angidrid almashinuviga ta’sir qiladi.Bu lola turi begona o‘tlar bilan kurashishda barqarorlikka ega bo‘lib, tuproqni eroziyadan saqlashga yordam beradi.

Kamayish sabablari: Antropogen bosim: Noqonuniy yig‘ish va savdo uchun uzib olinishi.Ekologik pozitsiyalarning o‘zgarishi: Yaylovlar kengayishi, intensiv chorvachilik.Qurilish sektori: Yo‘l, suv ombori hamda turistik inshootlar qurilishi.Iqlim o‘zgarishi: Namlik pasayishi tufayli yomg‘ir miqdorining kamligi.

Muhofaza qilish choralari:Tulipa greigii populyatsiyalarini himoya qiluvchi maxsus tabiiy rezervatlar tashkil etish.Botanik bog‘lar orqali sun’iy ko‘paytirish.Mahalliy aholi hamda talabalar uchun ekologik targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.Qonunchilik orqali qattiq himoya statusini mustahkamlash.

Xulosa: Tulipa greigii O‘zbekiston florasining noyob va estetik jihatdan muhim o‘simliklaridan biridir. Uning biologik va ekologik xususiyatlari tabiiy muhitga moslashganligini ko‘rsatadi. Biroq antropogen omillar natijasida turning tabiiy populyatsiyasi kamayib bormoqda. Shu sababli uni muhofaza qilish, ko‘paytirish va ilmiy asosda o‘rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.Kelajakda ushbu turning genofondini saqlab qolish uchun kompleks ekologik choralar, jumladan, monitoring, sun’iy ko‘paytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tulipa greigii biologik xilma-xillikning muhim elementi sifatida ekologik tizimlarning barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uni muhofaza qilish va qayta tiklash choralari amalga oshirilsa, O‘zbekiston florasining noyob navlari saqlanib qoladi va kelajak avlodlar uchun ilmiy hamda madaniy boylik bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Umurzakova Z.I. Nomozova Z.B. Botanika fanidan amaliy mashg‘ulotlar.Samarqand,2020.
2.Ruziev Z. O‘zbekiston florasi va lola turlari. Tashkent, 2018.
3.O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi l jild,2019.
4.Shuhratov D. Botanika asoslari. Samarqand: Universitet nashriyoti, 2007.
5.Tojibaev K.Sh., Karimov F.I. O‘zbekiston florasi va sistematikasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2016.
6.Pratov U.P. O‘simliklar sistematikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
7.B.S.Isolmov,M.A.Hasanov. Botanika.Samarqand -2020.

QIZIL KITOBGA KIRITILGAN KOVRAK O’SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA UNING TIBBIYOTDA QO’LLANILISHI.

Tursunova Ruxshona Qaxramon qizi
Kattaqo’rg’on Davlat Pedagogika Insitituti biologiya yo’nalishi 1-bosqich talabasi
Bozorova Umida Baxtiyorovna asissent
Kattaqo’rg’on Davlat Pedagogika Insitituti asissent o’qituvchi
umidabozorova27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola,O’zbekistonda uchraydigan noyob o’simliklar dunyosi ularning tarqalishi,o’sish sharoiti,ko’payishi,o’simliklar soni va arealining o’zgarish sabablari,madaniylashtirilishi, muxofaza choralari va o’simliklarning dorivorlik xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Mazkur maqolada Kovrak o’simligining tabiiy davo sifatida va yo’qolib ketishini oldini olish maqsadida muxofaza choralari yoritib berilgan

Kalit so’zlar: Qizil kitob, kovrak, Ferula, dorivorlik xususiyatlari, ildiz, muhofaza hududi, Nurota.

Kirish. Kovrak- (Ferula) turkum soyabonguldoshlar- Apiaceae oilasiga mansub bo’lib,ko’p yillik o’t o’simlig.Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari,O’rta Osiyo respublikalarida 104,mamlakatimizda esa 50turi uchraydi.Smola -yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi

kabi turlari ishlatiladi. O’zbekiston Respublikasining qizil kitobiga kiritilgan o’simlik hisoblanadi.Uning dorivorligi xususiyati asosan ildizi va shirasida to’planadigan moddalarga bog’liq.kovrak o’simligining tarkibida alkaloidlar,fenollik birikmalar,fitokimyoviy moddalar va vitaminlar mavjud bo’lib,ular inson organizimi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.Kovrak,asosan,ovqat hazm qilishini yaxshilaydi, shamollash va yo’talga qarshi,asab tizimini tinchlantirishda,gijja kabi parazitlarga qarshi,yallig’lanishga va o’g’riqni qoldirishda foydalaniladi.Tabiatda sassiq kovrak (Ferula assa-foeta L.) keng tarqalgan bo’lib ,yelim-smola asosan shu turdan olinadi.Budorivor o’simlik tabobatda bemor organizmiga ijobiy ta’sir etuvchi biologic faol modda hisoblanadi.Dorivor vositalar sifatida o’simliklarning ildizi, bargi,po’stlog’i,guli,mevasi,shirasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi. Kovrakning foydasi juda ham ko'p bo’lib, u tibbiyotda bebaho sanaladi. Qadimda odamlar eng ko’p uning bazi foydali tomonlari haqida yaxshi bilishgan, qolgan foydasi haqida esa deyarli hech qanday ma'lumot yo'q. Sassiq kovrak shilimshiq chiqadigan balg'am tashlatadigan ta'sirga ega ko'krak qafasini tozalab ovozni tiniqlashtiradi, uni suvda eritib ichsa xirillagan ovoz ochiladi. Bundan tashqari u surunkali yo'tal va xronik ovoz xirillashishga qarshi yordam beradi. Zaharga qarshi dori kovrak davo hisoblashadi. Kovrakni zahar tasiriga qarshi himoya sifatida ichish mumkin. Shuningdek, zaharlangan o'q uchi yetkazgan ochiq jarohatlarga ham uni surib zahar tasirini yo'q qilish mumkin, chayon chaqqanda esa uni iliq o'simlik moyiga qo’shib aralashtirib chaqqan joyga surtish kerak.

Asosiy qism. Kovrak (Ferula) — soyabonguldoshlar (Apiaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simliklar turkumi bo‘lib, asosan cho‘l va yarim cho‘l hududlarida tarqalgan. O‘zbekistonda Qizilqum, Ustyurt va adir mintaqalarida keng uchraydi.Kovrak ko‘p yillik, yirik o‘t o‘simlik bo‘lib, bo‘yi odatda 1–3 metrga yetadi. U qurg‘oqchil sharoitga yaxshi moslashgan, efemer-efemeroid xususiyatga ega.O‘simlikning ildiz tizimi kuchli rivojlangan o‘q ildizdan iborat bo‘lib, ildiz qismi va ildiz bo‘g‘imlarida sutli shira va qatron moddalari to‘planadi. Shu sababli ayrim turlaridan dorivor maqsadlarda foydalaniladi.Poyasi tik o‘suvchi, qalin, ichki qismi ko‘pincha g‘ovak bo‘ladi. Vegetatsiya davri oxiriga kelib poya qurib qoladi. Barglari yirik, pastki qismida ko‘p marta patsimon bo‘lingan, yuqoriga tomon esa kichrayib boradi.Gullari murakkab soyabon to‘pgul hosil qiladi, mayda, sarg‘ish yoki yashil-sariq rangda bo‘lib, asosan hasharotlar yordamida changlanadi. Mevasi qo‘sh urug‘li, ikki bo‘lakka ajraladigan vislokarp tipida bo‘lib, shamol yordamida tarqaladi.Kovrak o‘simligi cho‘l ekotizimida muhim o‘rin tutadi hamda ayrim turlaridan dorivor qatron (masalan, asafoetida) olinadi. Shu bilan birga, u qurg‘oqchil va sho‘r tuproqlarga chidamli o‘simlik sifatida ekologik ahamiyatga ega.

Kovrak tarkibi va faol moddalari. Kovrak urig’ining qaynatmasi (urug’i xuddi supurginikiga o’xshash malla rangli) 3 mahal 50 grammdan ichilsa ,ona suti ko’payadi.Shirasiga anjir qo’shib yeylsa sariq (gepatit) kassaligini tuzatadi.Yelimiga murch ,sirka qo’shib ,yomon sifatli yaralarga surtilsa,foyda qiladi.Soch to’kilishiga ham o’ta foyda.Kovrakning yelim- smolasi xalq tabobatida o’pka sili,o’lat ,zaxm, ko’k-yo’tal,tish og’rig’iga,asab va boshqa kassaliklarni davolash uchun hamda quvvat beruvchi,balg’am ko’chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo’llaniladi.Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi –“assafetida”nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma holida og’riq qoldirishda ishlatiladi.

Sharq mamlakatlarida Eron,Pokiston,Afg’oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari sifatida ishlab chiqariladi.Kovrak artirit va bo’g’im og’rig’ini davolashda ishlatiladi.U asab kasaliklarini davolashda samarali vosita sifatida qo’llaniladi.Masalan:yuz falaji bor bemorlarda uni yuzini terisiga surtib singdirmoq kerak.Oddiy falajlik va bel og’riqlarida asablar zaiflashganda ham yordam beradi. Sassiq kovrak qonni tozalaydi va bezgakni yo'q qiladi ichga qabul qilganda kovrak boldirlarni chiqaradi qorin bo'shlig'ida turib qolgan qonni tozalaydi. Bundan tashqari kovrakni juda ko'p ajoyibotlari bor, sanchiqlarni yoq qiladi surunkali diareyadan aziyat chekayotgan bemorlar uni 2 gr miqdorda tanovul qilib dardlaridan qutilishlari mumkin, ichaklardagi yaralarni davolashda yordam beradi, ichdagi qurtlarni ham chiqaradi. Kovrak ko'rish qobilyatini

yaxshilaydi, katarakta ko'z kasalliklari va shishlarini davolaydi. Agar tez-tez yoshlansa ko'z yoshlarni oldini oladi, davolaydi. Agar uni yemirilgan tishga qo'ysa, u o'g'riqni oldini oladi. U quloq og'riqlarini, quloqning yiringlashishi, karlik, quloqning shang'illashini davolaydi. Buning uchun uni qaynatib quloqqa tomizish shart. Kovrak artrit va bo'g'im og'rig'ini davolashda yordam beradi. U asab kasalliklarini davolashda samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, u jigar va oshqozon uchun ham foydalidir. U ichki shishlarni jumladan zararli suyuqliklarni so'rishda yordam beradi. Istiqso sariq kasali bor bemorlarda taloq shamollashini davolaydi va organizimda ushlanib qolgan zararli bug'larni (bod va suyuqlik zarracha)larini chiqartiradi.

Tarqalishi va muhofaza choralari. Kovrak (Ferula) o‘simligi asosan Markaziy Osiyo uning eng muhim areallaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda kovrak turlari Qizilqum va Qoraqum cho‘llarida, Ustyurt platosida, shuningdek, adir va past tog‘ oldi hududlarida keng uchraydi. U qurg‘oqchil iqlim sharoitiga moslashgan bo‘lib, sho‘rxok va qumli tuproqlarda ham o‘sishi mumkin.So‘nggi yillarda kovrakning tabiiy zaxiralari inson faoliyati ta’sirida kamayib bormoqda. Buning asosiy sabablari sifatida o‘simlikni tartibsiz va me’yorsiz yig‘ib olish, yaylovlarning ortiqcha bosimi, yerlarning o‘zlashtirilishi hamda iqlim o‘zgarishini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, dorivor qatron olish maqsadida ildiz va ildiz bo‘g‘imlariga zarar yetkazilishi uning ko‘payishiga salbiy ta’sir qiladi.Kovrak o‘simligini muhofaza qilish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Avvalo, uning tabiiy areallarida nazoratni kuchaytirish va noqonuniy yig‘ib olishni cheklash muhim hisoblanadi. Shuningdek, kovrakning dorivor turlarini sun’iy ko‘paytirish va plantatsiyalar barpo etish orqali tabiiy populyatsiyalarga tushadigan bosimni kamaytirish lozim. Qo‘riqxonalar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda kovrakni saqlash ham muhim ahamiyatga ega.Bundan tashqari, aholi o‘rtasida ekologik bilimlarni oshirish, kovrakning tabiatdagi va dorivor ahamiyatini tushuntirish ham uning saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Shu orqali kovrakning tabiiy resurslari kelajak avlodlar uchun ham saqlab qolinishi mumkin.

Xulosa. Kavrak turli xil xavfli va qattiq bo'lib qolgan o'smalarni yo'q qilishda ko'maklashadi. Hozirgi kunda tibbiyot saraton va boshqa kasalliklarni davolashda kovrakdan foydalanib kelmoqda va bu yaxshi natijalarni berib kelmoqda. Kosmetologiya sohasida undan temiratki, sepkil, so'gal va chandiqlarni yo'q qilishda keng ko'lamda foydalaniladi. Alopesiya (soch to'kilishi)da esa u iste’mol sirkasiga aralashtirilib qo'llaniladi. Ibn Sino bobomiz bu o'simlikka shunday ta'rif bergan. “Kovrak urug'ining qaynatmasi 3 mahal 50 gr ichilsa suti ko'payadi, olingan shirasiga anjir qo'shib yeyilsa gepatet kasalligi tuzatiladi” deb aytishgan. O'zbekistonda 1kg kovrak urug'i 200$ ga baholanadi. Bu o'simlik ekilgandan keyin 8oydan 5 yilgacha ildizi qalinlashadi va keyin undan bemalol foydalana olamiz. O'simlik shirasidan yelim shirasi sifatida farmasevtikada keng foydalanib kelinmoqda. Hindiston davlatiga eksport qilinganda ular dori darmon va ziravorlar tayyorlashda keng foydalanilmoqda 1 gektar maydon uchun 200$ va 250$ dollorga urug' sotib olib 1 gektar maydonga ekilganida 100.000$ daromad ko'riladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Axmedov Sh.Sh.Dorivor o’simliklar va ularning tibbiyotda qo’llanishi. Toshkent- 2010.

2. Islomov B.S, Hasanov M.A.Botanika(morfologiya,anatomiya,sistematika).-Samarqand “SamDU nashriyoti”,2020.

3.Икромов М.И., Нормуродов Х.Н., Юлдашев А.С. Ботаника. Тошкент, «Ўзбекистон». 2002.

4.Mustafaev S.M., Ahmedov O’.A. Botanika. Toshkent, 2006.

5.Pratov U, Jumayev K .Yuksak o’simliklar sistematikasi.-Toshkent 2003.

BIOLOGIYA FANINI O‘RGANISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHA FAOLIYATINING ROLI

Sobirova Nilufar Azimboy qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy maktabga qo‘yiladigan talabalar va o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda loyiha usulining ta’lim va tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek maqolada biologiya fanidan loyiha metodi asosida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishda o‘ziga xos o‘rin tutadigan mavzular haqida fikrlar berilgan. Loyiha metodini qo‘llashdaamalga oshiiladigan izchillik, didaktik materiallar, usullar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, o‘qituvchi, kompetentlik, innavatsion pedagogik yondashuv, loyiha, biologiya darslarida, metod, didaktik materiallar.

Аннотация

В данной статье раскрывается образовательное и воспитательное значение метода проектов в формировании базовых компетенций учащихся и студентов в условиях современной школы. Также в статье представлены идеи о темах, которые занимают особое место в повышении интереса учащихся к предмету биологии на основе проектного метода. Освещаются последовательность применения метода проектов, дидактические материалы и используемые методы.

Ключевые слова: ученик, учитель, компетентность, инновационный педагогический подход, проект, на уроках биологии, метод, дидактические материалы.

Abstract

This article reveals the educational and developmental significance of the project-based method in forming the basic competencies of pupils and students in the context of a modern school. It also presents ideas about topics that play a special role in increasing students’ interest in the subject of biology through the use of the project method. The article highlights the sequence of applying the project-based method, as well as the didactic materials and methods used.

Keywords: student, teacher, competence, innovative pedagogical approach, project, in biology lessons, method, didactic materials.

Zamonaviy ta’limda asosiy e’tibor o‘quvchilarning “bilimlarni o‘zlashtirishi” dan ularning “kompetentligini shakllantirish”ga qaratilmoqda.

Zamonaviy innovatsion pedagogik yondashuvlar ichida ijodiy loyihalar metodi alohida o‘rin egallaydi, chunki u shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bolaning rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu texnologiyaning bugungi kundagi dolzarbligi aniq. Loyiha faoliyati mustaqil fikrlashni, ijodiy qobiliyatlarni, o‘z-o‘zini tashkil etish, yaratish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[1]. Bu esa insonning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvi va o‘zini ro‘yobga chiqarishini ta’minlaydigan muhim sifatlar hisoblanadi. Zamonaviy maktabning vazifasi nafaqat bolani kelajak hayotga tayyorlash, balki unga hozirning o‘zidayoq to‘laqonli hayot kechirish imkonini yaratishdan iborat.

Zamonaviy ta’lim talablarini inobatga olib, quyidagi maqsadlarni amalga oshirish muxim xisoblanadi: mustaqil ijodiy va tadqiqot faoliyatini amalga oshira oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratish[2].

Loyiha asosidagi o‘quv faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishida olib borilgan ilmiy ishlarga (M. B. Pavlova, M. B. Romanovskaya, V. D. Simonenko, Yu. L. Xotuntsev, I. A. Sasova, N.Muslimov, B.S.Abdullaeva, U.E.Raxmatov va boshqalar) kabilarni olish mumkin.

Bir necha yillardan beri pedagogik amaliyotda loyiha metodidan juda ko‘p ko‘p pedagog va metodistlar foydalanib kelishmoqda va yildan yilga uning samardorligi ortib bormoqda. Loyihalarni asosan “O‘simliklarni vegetativ ko‘paytirish,”, “Gulli o‘simliklarni xilma xilligi”, “Hayvonot olamining xilma xilligi” bo‘limlarini o‘rganish muxim xisoblanadi. Aynan shu

yo‘nalishlarda o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o‘zi tomonidan ilgari surgan loyihalarini ifoda etish va individualligini namoyon etish imkoniyati yuqoriroq xisoblandi[3].

Ba’zi loyihalar ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘z faoliyatiga oila a’zolarini ham jalb qiladilar (“Tomorqa xo‘jaligida o‘simliklar va hayvonlarni parvarish qilish”, “O‘simliklarni payvand qilish” va boshqalar).

Biologiya darslarida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan loyihalar ichida ijodiy va amaliy yo‘naltirilgan loyihalar ustunlik qiladi. Ular “Atirgullarni vegetativ ko‘paytirish” deb ataluvchi loyiha quyidagi bosqichlarga asoslanadi: mazkur gulga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, tadqiqot (mavjud jixozlarnilarni tahlil qilish), talablarni belgilash, dastlabki g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tahlil qilish va bittasini tanlash, rejalashtirish, tayyorlash, baholash (refleksiya). Amaliy loyihalar esa taqdimot va ularni amaliyotga joriy etish bilan yakunlanadi.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, 7-sinflarda loyiha bosqichlari alohida mavzular orqali bosqichma-bosqich o‘rgatiladi va mustahkamlanadi.

Masalan, 7-sinfda “Mikroskopni o‘rganish va ishga tayyorlash” mavzusida o‘quvchilar loyiha pasportini tuzadilar. Unda eskiz, tashqi ko‘rinish tavsifi, modellash, materiallar va mikroskop turlari keltiriladi. Texnologik bosqich esa alohida elementlar orqali o‘rgatiladi. Shunday qilib, loyiha bajarish algoritmi bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

9-sinfdan boshlab o‘quvchilar loyihani to‘liq bajarish, tushuntirish xatini yozish va himoya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu bosqichda mening vazifam - loyiha faoliyatini takomillashtirish uchun sharoit yaratishdir. O‘quvchilarning qiziqishi, tayyorgarligi, oilaviy imkoniyatlari va mustaqil faoliyati ham hisobga olinadi[4].

Loyiha metodini qo‘llashda quyidagi algoritmga amal qilinishi kerak:

- ta’lim muhitini yaratish;
- o‘quv natijalarini aniqlash;
- ish shaklini tanlash (individual yoki guruhli);
- muhokama shakllarini belgilash;
- maslahat berish tartibini ishlab chiqish;
- baholash mezonlarini yaratish.

Didaktik materiallar maxsus bloklarga ajratiladi:

- loyiha spetsifikatsiyasi;
- bajarish ketma-ketligi;
- tushuntirish rejasi;
- loyiha pasporti;
- o‘z-o‘zini baholash savollari;
- iqtisodiy asoslash rejasi;
- tannarx hisoblash;
- ekologik baholash.

Shuningdek, quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi, us:

- assotsiatsiya metodi;
- antropotexnika;
- “teskari fikrlash” (inversiya);
- analogiya metodi;
- muammoni qayta formulalash;
- yo‘naltiruvchi savollar;
- kamchiliklar ro‘yxati;
- funksiyani erkin ifodalash.

Natijada o‘quvchilar bilimlarning amaliy ahamiyatini tushunib yetadilar. Ular mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, moslashish va o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Loyiha faoliyati orqali quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- mehnat kompetensiyasi;
- kommunikativ kompetensiya;
- ijtimoiy kompetensiya.

Ushbu metod o‘quvchilarni olimpiadalar, tanlovlar va konferensiyalarda ishtirok etishga tayyorlaydi. Ular nafaqat bilimlarini, balki shaxsiy sifatlarini ham namoyon etadilar.

Darsda va darsdan tashqari faoliyatda har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat ta’lim muhitini yaratishga bog‘liq. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ta’limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, loyiha faoliyati o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy va tadqiqotga yo‘naltirilgan shaxsni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Darslik. Zuxro Baraka Biznes nashriyoti, 2025.

2. U.E. Raxmatov va boshqalar. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Darslik. SARVAR PRINT nashriyoti, 2024.

3.M.N. Doniyorov va boshqalar. Biologiya o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (o‘quv qo‘llanma). “IlmZiyo Zakovat” nashriyoti, 2024.

4. Sobirova Nilufar Azimboy qizi. O‘quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2026-yil, yanvar, 1(2)-son.25-bet.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: MATEMATIKA TA’LIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING STRATEGIK O‘RNI

Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
Meyliyeva Sabrina Zoxiddin qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti,
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli transformatsiya sharoitida matematika ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarining strategik o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda adaptiv ta’lim platformalari, intellektual repetitor tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlarining o‘quv jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Natijalar sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quv samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari, matematika ta’limi, adaptiv o‘qitish, ITS (intellektual repetitor tizimlari), avtomatlashtirilgan baholash, mashinaviy o‘rganish algoritmlari, ta’limni individuallashtirish, ma’lumotlarga asoslangan ta’lim, individual ta’lim strategiyalari.

Kirish qism: Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. “Sun’iy intellekt agentlari muhitni idrok etuvchi va maqsadga erishish ehtimolini maksimal darajada oshiruvchi harakatlarni amalda qo‘llovchi hisoblash tizimlari sifatida qaraladi” [1]. Xususan, matematika ta’limida sun’iy intellekt tizimlari o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi strategik imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot matematika ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarining strategik o‘rnini tahlil qilishga qaratilgan.

1. Nazariy asoslar va SI agentlari

Sun’iy intellekt — bu atrof-muhitni idrok etuvchi va maqsadga erishish ehtimolini maksimallashtiruvchi harakatlarni amalga oshiruvchi hisoblash agentlarini loyihalashdir [2]. Matematika ta’limida ushbu agentlar:

- Mashinaviy o‘rganish: Tajriba asosida o‘z faoliyatini yaxshilaydigan tizimlarni yaratish.

Masalan, Mashinaviy o‘rganish algoritmlari o‘quvchilarning test natijalarini tahlil qilish orqali ularning bilim darajasini aniqlaydi va individual o‘quv strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

- Mantiqiy xulosa chiqarish: Murakkab matematik isbotlarni tahlil qilish

Masalan, mantiqiy xulosa chiqarish tizimlari matematik masalani bosqichma-bosqich tahlil qilib, yechimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashga yordam beradi.

2. Matematika ta’limida SI ning amaliy qo‘llanishi

Sun’iy intellekt texnologiyalarining matematika ta’limidagi asosiy qo‘llanish yo‘nalishlari *1-jadvalda* keltirilgan.

1-jadval. Matematika ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalarining asosiy qo‘llanilish yo‘nalishlari

Texnologiya	Vazifasi	Ta’limdagi foydasi
ITS	Individual yordam	Masala yechishni o‘rgatadi
Adaptiv platforma	Bilimni tahlil qilish	Individual ta’lim
Avtomatik baholash	Testlarni tekshiradi	Tezkor diagnostika

SI texnologiyalari ta’limni quyidagi yo‘nalishlarda modernizatsiya qiladi:

Intellektual repetitor tizimlari (ITS): Talabalarga masalani yechishda qadam-baqadam yordam beruvchi agentlar, bular:

- Khan Academy (Khanmigo) – SI asosidagi virtual tyutor
- Mathia platformasi – algebra va geometriya o‘qitish platformasi
- Photomath dasturi – matematik masalalarni skanerlash va yechish tizimi
- Microsoft Math Solver dasturi – matematik yordamchi dastur

Masalan, ayrim intellektual repetitor tizimlari talabaning masalani yechish jarayonini tahlil qilib, xatolarni aniqlaydi va bosqichma-bosqich tavsiyalar beradi. Bunday tizimlar matematik masalalarni o‘rganishda individual yordamchi sifatida xizmat qiladi.


Adaptiv ta’lim platformalari: O‘quv materialini o‘quvchining joriy bilim darajasiga qarab dinamik ravishda o‘zgartiradi.

Misol uchun, adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchining test natijalarini tahlil qilib, qaysi mavzularni yaxshi o‘zlashtirganini va qaysi bo‘limlarda qo‘shimcha mashq zarurligini aniqlaydi. Natijada o‘quv jarayoni individual tarzda samaradorligi oshiriladi.

Avtomatik baholash: Bilimlarni diagnostika qilish va xatolarni tezkor aniqlash.

Masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari matematik testlarni avtomatik tekshirib, natijalarni tahlil qiladi va talabaning qaysi mavzularni yetarli darajada o‘zlashtirmaganini aniqlaydi. Natijada o‘qituvchi o‘quv jarayonini ma’lumotlarga asoslangan holda takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining matematika ta’limidagi umumiy ta’siri quyidagi sxemada ko‘rsatilgan ***(1-rasm).***



3. Strategik ahamiyati va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish

Matematika ta’limida SI ning strategik o‘rni uning noaniq ma’lumotlar asosida optimal qaror qabul qila olishida namoyon bo‘ladi [3]. Bu quyidagilarga xizmat qiladi:

- Ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish. “Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari o‘quvchilarning individual o‘quv ehtiyojlarini aniqlash va samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi” [4].
- Talabalarning analitik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Ma’lumotlarga asoslangan o‘qitish metodikasini keng joriy etish.

Tadqiqotlar sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari matematika ta’limini takomillashtirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, adaptiv ta’lim platformalari va intellektual repetitor tizimlari o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning bilim darajasini samarali baholash imkonini beradi. Shu sababli matematika ta’limida zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, adaptiv o‘qitish tizimlarini joriy etish va o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv kelajakda matematika ta’limi sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim darajasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Poole D., Mackworth A. *Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents.* Cambridge University Press, 2023. – [1].
2. Pul D., Makvort A.K. *Sun’iy intellekt: hisoblash agentlarining asoslari. (I-II jild).* - Toshkent, “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2025. - [2]. (Pul & Makvort, II jild, 16-bob), [3]. (Pul & Makvort, II jild, 9-bob).
3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. - [4].
4. Sultonova Sh.Y. *Matematika ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalari.* Toshkent, 2022.

MATEMATIKA DARSLARIDA XATO TAHLILI ORQALI MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

(5–7-sinflar misolida)

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
talabasi O‘lmasova Farangiz To‘lqinjon qizi

Annotatsiya: Maqolada o‘rta maktabning 5–7-sinflarida matematika o‘qitishda yuzaga keladigan o‘quvchi xatolarini darsning tarkibiy elementiga aylantirish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Xato — bu o‘quvchi tafakkurining «qoralama holati»ni tashqi dunyoga ko‘rsatadigan pedagogik oyna hisoblanadi. Ushbu tezisda xato turlari yangicha tasnif asosida farqlanadi, xatoga munosabat madaniyatini o‘zgartiruvchi uch bosqichli dars modeli taklif etiladi va o‘quvchini o‘z xatosi ustida mustaqil ishlashga yo‘naltiruvchi savol texnikasi ishlab chiqiladi. Amaliy sinov natijalari metodikaning o‘quvchi tafakkur mustaqilligini oshirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: xato tahlili, mantiqiy tafakkur, matematika ta'limi, diagnostik pedagogika, savol texnikasi, refleksiv o‘qitish, tafakkur mustaqilligi, 5–7-sinflar, xatoga munosabat madaniyati, metakognitsiya.

Annotation: This article examines the possibility of transforming student errors into a structural element of the lesson in grades 5–7 mathematics teaching. From the author's perspective, an error is a pedagogical mirror that reveals the "draft state" of student thinking to the outside world. The thesis proposes a new classification of error types, introduces a three-stage lesson model that reshapes the culture of responding to errors, and develops a questioning technique that guides students to independently work on their own mistakes. Practical testing results confirm that the methodology positively influences the development of students' independent thinking.

Keywords: error analysis, logical thinking, mathematics education, diagnostic pedagogy, questioning technique, reflective teaching, thinking independence, grades 5–7, error response culture, metacognition.

O‘quvchi matematika darsida xato qildi — bu ko‘pincha noqulaylik sifatida qabul qilinadi: o‘qituvchi tuzatadi, o‘quvchi qabul qiladi va dars davom etadi. Ammo shu bir necha soniyada bir necha holatlar e’tiborga olinmaydi: o‘quvchining mantiqiy zanjiri qayerda uzilganligi, u qaysi tushunchani boshqasi bilan almashtirganligi yoki qaysi bosqichda o‘z ishiga ishonchi so‘nganligi — bularning barchasi xatoning ortida yashirinadi.

Kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, 5–7-sinf o‘quvchilarining taxminan 60–70 foizi bir xil turdagi xatolarni takror-takror qiladi. Bu holat bilimning yuzaki o‘zlashtirilganligidan emas, balki o‘quvchining o‘z xatosini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanmaganligidan kelib chiqadi. Muammo shundaki, an'anaviy dars tuzilmasida xato «to‘xtatilishi kerak bo‘lgan narsa» sifatida qaraladi, o‘rganish manbai sifatida emas.

Matematik ta'lim psixologiyasida «nima uchun» savolini «qanday» savolidan ustun qo‘yish g‘oyasi uzoq yillik tadqiqot asosiga ega. R. Skempning instrumental va relyatsion tushunish modeliga asoslansak, ko‘pchilik o‘quvchi xatolari qoidani bilgani holda, uni qachon va nima sababdan qo‘llash kerakligini anglamaganidan kelib chiqadi. Bu farq faqat bilim darajasida emas — tafakkur shakllanish darajasida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan esa 5–7-sinf yoshi alohida ahamiyat kasb etadi: bu davrda o‘quvchi konkretdan abstraktga o‘tish chegarasida turadi. Xuddi shu sababli bu yoshda yo‘l qo‘yilgan kontseptual xatolar keyinchalik ildiz otishi yoki aksincha, shu davrda tuzatilsa, tafakkurni yangi sathga ko‘tarishi mumkin. Shuning uchun muallif 5–7-sinflarni xato tahlili metodikasini joriy etish uchun eng nozik va samarali pedagogik davr deb hisoblaydi.

Metakognitsiya tadqiqotlarga ko’ra, o‘z tafakkur jarayonini kuzata oladigan o‘quvchilar yangi matematika masalalari oldida sezilarli darajada moslashuvchanroq harakat qiladilar. O‘z xatosini topa olish va tahlil qila olish — bu metakognitsiyaning eng amaliy ko‘rinishidir. Demak,

xato tahlili metodikasi faqat aniq masalani yechishga emas, umumiy tafakkur madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xatolar yangicha tasnifi. Mavjud adabiyotlardagi tasniflardan farqli ravishda, muallif xatolarni ikki o‘lcham kesishmasida joylashtirishni taklif etadi: «nima buzilgan» (protsedura, tushuncha, mantiq) va «qayerdan kelib chiqqan» (e'tiborsizlik, tushunmaslik, noto‘g‘ri umumlashtirish). Bu matritsa o‘qituvchiga har bir xatoga mos aniq pedagogik munosabatni tanlash imkonini beradi.

Uch bosqichli dars modeli. Birinchi bosqich — «Xatoli asar»: o‘qituvchi o‘zi yoki oldingi darsdan olingan xatoli yechimni ekranga chiqaradi va hech kim kim qilganligini bilmaydi; vazifa — xatoni topish emas, uning «mantiqini tushunish». Ikkinchi bosqich — «Men ham shunday o‘ylardim»: o‘quvchilar o‘zlari avval qilgan xuddi shunday xatoni eslab, nima o‘rganganliklarini 2–3 jumlada yozadilar. Uchinchi bosqich — «Qayta qurish»: to‘g‘ri yechimni tayyor holda berish o‘rniga, o‘quvchilar yechimni qadam-baqadam qayta tiklaydi va har bir qadam sababini izohlaydi.

Savol texnikasi. Xato aniqlanganda o‘qituvchi to‘rtta savoldan foydalanadi: (1) «Bu yechim qanday mantiqqa asoslanadi?» — o‘quvchini o‘z fikrlatish jarayonini tushuntirishga undaydi; (2) «Qaysi nuqtada yo‘l ajradi?» — noto‘g‘ri burilish momentini aniqlashga yordam beradi; (3) «O‘xshash masalada ham shunday bo‘ladimi?» — xatoning kengligi va umumlashtirilishini tekshiradi; (4) «Endi bu qoidani o‘zing so‘z bilan ifodalay olasanmi?» — tushunchani o‘z tili bilan ifodalash orqali mustahkamlaydi.

Metodika 2025–2026 o‘quv yilida bitta umumta'lim maktabining 5-sinf o‘quvchilari (n=20) bilan sinab ko‘rildi. Tajriba guruhida (n=20) uch bosqichli dars modeli va savol texnikasi qo‘llanildi; nazorat guruhida (n=20) an'anaviy tuzatish usuli saqlanib qolindi.

To‘rt oylik kuzatuv natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida kontseptual xatolarning takrorlanishi 38 foizga kamaydi. O‘quvchilarning o‘z yechimlarini og‘zaki izohlash ko‘nikmalari 2,1 baravarga yaxshilandi (maxsus baholash rubrikalari asosida). Ayniqsa e'tiborli holat shuki, tajriba guruhida o‘quvchilar nazorat guruhiga nisbatan o‘zlari xato qilganligini 2,7 baravarga ko‘proq tan oldilar — bu xatoga munosabat madaniyatining o‘zgarganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, metodikaning ayrim cheklovlari ham aniqlandi: o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik vaqti talab etilishi va sinfdagi o‘quvchilar soni 30 dan oshganda savol texnikasini qo‘llash qiyinlashishi mimkin. Bu jihatlar metodikani takomillashtirish uchun keyingi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ushbu tadqiqot ko‘rsatadiki, xatoga munosabat madaniyatini o‘zgartirish — ya'ni uni yo‘qotish o‘rniga, undan o‘rganish — 5–7-sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning iqtisodiy samarali va amaliy qo‘llanishi oson bo‘lgan yo‘lidir. Buning uchun alohida soat yoki qo‘shimcha material shart emas — mavjud dars vaqtini boshqacha tashkil etish kifoya.

Muallifning asosiy xulosasi quyidagicha: o‘quvchi xatosi qanchalik tez o‘chirib tashlanmasa, u shunchalik ko‘proq ma'lumot beradi. O‘qituvchi bu ma'lumotni o‘qish san'atini egallasa, matematika darsi nafaqat bilim uzatish maydoni, balki tafakkur qurilish ustaxonasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o‘rta ta'lim davlat ta'lim standartlari to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori.

2. Skemp R. R. Relational understanding and instrumental understanding // Mathematics Teaching. — 1976. — №77. — P. 20–26.

3. Borasi R. Learning Mathematics Through Inquiry. — Portsmouth: Heinemann, 1992. — 210 p.

4. Swan M. The Impact of Task-Based Professional Development on Teachers' Practices and Beliefs // Journal of Mathematics Teacher Education. — 2007. — Vol. 10. — P. 217–237.

5. Flavell J. H. Metacognitive aspects of problem solving // The Nature of Intelligence / Ed. L. Resnick. — Hillsdale: Erlbaum, 1976. — P. 231–235.
6. Riccomini P. J. Identification and remediation of systematic error patterns in subtraction // Learning Disability Quarterly. — 2005. — Vol. 28. — P. 233–242.
7. Karimov I. A., Toshmatova M. R. Matematika darslarida o‘quvchi faolligini oshirish // Xalq ta'limi. — 2022. — №4. — B. 38–44.
8. Prediger S. Why Johnny can't apply the chain rule? // Praxis der Mathematik. — 2008. — Vol. 50(8). — P. 1–6.

MODERN METHODS IN MATHEMATICS EDUCATION: INNOVATIVE APPROACHES AND DIGITAL TRANSFORMATION

Sherxonova Z.S., Latipova Z.Y., Ibodullaeva Z.Z.
Kattaqo‘rg‘on State Pedagogical Institute
Corresponding author: zarinasherxonova22@gmail.com

Keywords: mathematics education, modern teaching methods, innovative approaches, digital technologies, STEAM education, problem-based learning, flipped classroom, gamification, artificial intelligence, interactive learning, digital transformation

Abstract

The article focuses on modern methods in mathematics education, their theoretical foundations and practical applications. It emphasizes the role of digital technologies, interactive approaches, and artificial intelligence in enhancing the teaching and learning process. The study highlights how innovative strategies such as problem-based learning, STEAM integration, flipped classrooms, and gamification contribute to student engagement, independent thinking, and real-world problem-solving skills.

Introduction

Globalization and digital transformation are currently transforming education systems around the world. Mathematics, as a discipline that fosters logical reasoning, problem-solving, and analytical thinking, requires a transition from traditional teaching methods to innovative approaches. Modern pedagogical strategies aim to transform students from passive recipients of knowledge into active participants in the learning process.

Modern Teaching Methods and Their Significance

Modern teaching methods are designed to:

- Promote interactivity
- Encourage individualization
- Focus on problem-based scenarios
- Integrate technological tools

These approaches strengthen the connection between theoretical knowledge and practical application.

Innovative Approaches in Mathematics Education

1. Problem-Based Learning (PBL) Students are presented with problems instead of ready-made solutions, encouraging independent exploration and decision-making. This method develops logical reasoning and critical thinking skills.

2. STEAM Integration The STEAM approach (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) connects mathematics with other disciplines. For example:

- Mathematics + Computer Science → Algorithms
- Mathematics + Physics → Modeling and formulas This interdisciplinary approach enhances the relevance of mathematics in solving real-world challenges.

3. Digital Technologies in Teaching Interactive boards, mobile applications, and online testing systems improve visualization, simplify complex concepts, and allow personalized learning.

4. Flipped Classroom Students study new material at home and engage in discussions and problem-solving during class. This increases lesson productivity and enables teachers to focus on higher-order thinking tasks.

5. Gamification Incorporating game elements such as points, rankings, and competitions enhances motivation and engagement in mathematics learning.

Artificial Intelligence in Mathematics Education

Artificial intelligence (AI) provides adaptive learning opportunities by:

- Designing personalized learning paths
- Analyzing student errors automatically
- Offering tailored assignments AI-based systems adjust to individual student levels, making mathematics education more effective.

Advantages and Challenges

Advantages:

- Learner-centered approach
- Development of independent thinking
- Stronger connection with real-life applications

Challenges:

- Limited access to technological resources
- Insufficient teacher preparedness
- High demand for time and resources

Conclusion

The adoption of modern methods in mathematics education is essential in today's digital era. Innovative approaches foster student engagement, independent thinking, and problem-solving skills. In the future, artificial intelligence, digital technologies, and integrated teaching strategies will become the cornerstone of mathematics education.

References

1. John Dewey. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
2. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. Routledge, 1950.
4. George Pólya. How to Solve It. Princeton University Press, 1945.
5. UNESCO. Education in a Digital World. Paris, 2021.
6. OECD. Innovative Learning Environments. OECD Publishing, 2018.
7. Ministry of Higher Education Science and Innovation of Uzbekistan. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent, 2022.
8. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
9. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
10. STEAM Education bo'yicha zamonaviy ilmiy maqolalar va tadqiqotlar (2015–2024).
11. Artificial Intelligence in Education bo'yicha ilmiy manbalar va onlayn platformalar.

BIR NECHA O'ZGARUVCHILI KO'PHADLAR. SIMMETRIK KO'PHADLAR VA ULAR HAQIDAGI TEOREMALAR

Xudoyberdiyev Hasan O'ktam o'g'li
Kattaqo'rg'on shahar 3-son texnikumi
matematika fan o'qituvchisi
hasanxudoyberdiyev007@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bir nechta o'zgaruvchili ko'phadlar va ularning muhim sinfi bo'lgan simmetrik ko'phadlarning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ishda ko'p o'zgaruvchili ko'phadlarning ta'rifi, tuzilishi va asosiy xossalari yoritilib, simmetrik ko'phadlarning o'ziga xos jihatlari, ya'ni o'zgaruvchilar o'rin almashtirilganda invariantlik*

xususiyati batafsil bayon etiladi. Simmetrik ko‘phadlarning asosiy turlari hamda ularni elementar simmetrik ko‘phadlar orqali ifodalashga oid fundamental teoremalar ko‘rib chiqiladi. Mazkur teoremalar yordamida algebraik tenglamalar ildizlari va koeffitsiyentlari orasidagi bog‘lanishlar izohlanadi. Ishda nazariy natijalar bilan bir qatorda simmetrik ko‘phadlarning amaliy qo‘llanilish sohalari ham yoritilib, ularning matematik va kombinatorik masalalarni yechishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. *birinchi darajali tenglamalar sistemasi, chiziqli tenglamalar, noma’lumlar, almashtirish usuli, qo‘shish usuli, grafik usul, algebra, matematik modellashtirish, yechim, koordinata tekisligi, mantiqiy fikrlash, matematik kompetensiya.*

Asosiy qism: P maydon ustida $x_1, x_2, ..., x_n$ o‘zgaruvchilardan bog‘liq bo‘lgan $f(x_1, x_2, ..., x_n)$ ko‘phad deb

$$a\, x_1^{k_1} x_2^{k_2} ... x_n^{k_n}, \qquad (1)$$

Ko‘rinishdagi hadlarning chekli sondagi yig‘indisiga aytiladi, bu yerda $k_i \geq 0$ $(i = \overline{1,n})$, $a - P$ maydonning elementidan iborat bo‘lib, (1) hadning koeffisiyenti deb yuritiladi. $f(x_1, x_2, ..., x_n)$ ko‘phadda o‘xshash hadlar keltirilgan hisoblanadi va koeffisiyenti nolga teng hadlar yozilmaydi.

Ikkita $f(x_1, ..., x_n)$ va $g(x_1, ..., x_n)$ ko‘phadlar teng deyiladi, agar ularning bir xil hadlari oldidagi koeffisiyentlari teng bo‘lsa.

$k_1 + k_2 + ... + k_n$ yig‘indi $a\, x_1^{k_1} x_2^{k_2} ... x_n^{k_n}$. hadning darajasi hisoblanadi. $f(x_1, x_2, ..., x_n)$ *ko‘phadning barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha darajasi deb* uning hadlarining eng yuqori darajasiga aytiladi. Nolinchi darajali ko‘phadlar – bu P sonlar maydoning noldan farqli elementlaridan iborat. Barcha koeffisiyentlari nolga teng bo‘lgan ko‘phad nol ko‘phad deb yuritiladi. Nol ko‘phadning darajasi aniqlanmagan hisoblanadi. Agar $f(x_1, ..., x_n)$ ko‘phadning hadlari barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha bir xil m, darajali bo‘lsa, bunday ko‘phad bir jinsli *ko‘phad* yoki $m-$ darjali n o‘zgaruvchili *forma* deb yuritiladi.

$f(x_1, ..., x_n)$ *ko‘phadning bitta o‘zgaruvchi* x_i $(i = \overline{1,n})$ ga nisbatan darajasi deb, bu ko‘phadning hadlariga kirgan x_i ning eng yuqori darajasiga aytiladi (bu daraja nolga teng bo‘lishi ham mumkin).

$f(x_1, ..., x_n)$ va $g(x_1, ..., x_n)$ *ko‘phadlarning yig‘indisi deb,* koeffisiyentlari f va g; ko‘phadlarning mos darajali hadlari koeffisiyentlarining yig‘indisidan iborat bo‘lgan ko‘phadga aytiladi.. $f(x_1, ..., x_n)$ va $g(x_1, ..., x_n)$ ko‘phadalarning *ko‘paytmasi deb,* f ni g ga hadma-had ko‘paytirib, so‘ngra o‘xshash hadlari ixchamlangan *ko‘phadga* aytiladi. Yuqorida kiritilgan ko‘phadlarni qo‘shish va ko‘paytirish amallariga nisbatan P maydon ustidagi $x_1, x_2, ..., x_n$ o‘zgaruvchilardan bog‘liq barcha ko‘phadlar to‘plami kommutativ halqa tashkil etadi va bu halqa $P[x_1, x_2, ..., x_n]$. orqali belgilanadi.

$\alpha = a\, x_1^{k_1} x_2^{k_2} ... x_n^{k_n}$ va $\beta = b\, x_1^{l_1} x_2^{l_2} ... x_n^{l_n}$ – lar $f(x_1, ..., x_n) \in P[x_1, x_2, ..., x_n]$, $a \neq 0$, $b \neq 0$. ko‘phadning ikkita har xil hadlari bo‘lsin. α had β haddan yuqori (β had esa α haddan quyi) deyiladi, agar shunday i, $1 \leq i \leq n$, mavjud bo‘lib, $k_1 = l_1, k_2 = l_2, ..., k_{i-1} = l_{i-1}$, va $k_i > l_i$. bo‘lsa.

Agar $f(x_1, ..., x_n)$ ko‘phadning hamma hadlari shunday tuzilgan bo‘lsaki, har bir keyingi had o‘zidan oldingi haddan quyi bo‘lsa, u holda bu ko‘phadning hadlari *leksikografik yoki lug‘at bo‘yicha yozilgan deyiladi* (yoki $f(x_1, ..., x_n)$ ko‘phad leksikografik (lug‘atiy) ko‘phad deyiladi).

11.1- ta'rif Agar ko'p noma'lumli ko'phaddagi ixtiyoriy ikkita noma'lumning o'rinlarini almashtirganda ko'phad o'zgarmasa ,bunday ko'phad ***simmetrik ko'phad*** deyiladi.

Masalan:1) $f(x) = x_1^2x_2x_3 + x_1x_2^2x_3 + x_1x_2x_3^2$,$f(x) = x_1x_2x_3$ ko'phadlar simmetrik ko'phadlardir.

2) $f(x_1, x_2, x_3) = x_1^2x_2x_3 + x_1x_2^2x_3 + x_3^2$ ko'phad simmetrik emas, chunki agar unda hamma yerda x_1 ni x_3 ga, $x_3$ni x_1 ga almashtirsak, quyidagi ko'phad hosil bo'ladi

$$x_3^2x_2x_1 + x_3x_2^2x_1 + x_1^2 \neq f(x_1, x_2, x_3)$$

n ta noma'lumli simmetrik ko'phadlarning algebraik yig'indisi va ko'paytmasi yana n ta noma'lumli simmetrik ko'phadlar bo'ladi.

11.2.-ta'rif $x_1, x_2, \dots, x_n$ noma'lumlardan tuzilgan

$$\sigma_1 = x_1 + x_2 + \cdots + x_n$$
$$\sigma_2 = x_1x_2 + x_1x_3 + \cdots + x_{n-1}x_n$$
$$\sigma_n = x_1x_2 \dots . x_n$$

simmetrik ko'phadlar *elementar(asosiy) simmetrik ko'phadlar* deyiladi.

Simmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teorema: $x_1, x_2, \dots, x_n$ *o'*zgaruvchilardan bog'liq har qanday simmetrik ko'phadni elementar simmetrik ko'phadlarning ko'phadi ko'rinishida yagona shaklda ifodalash mumkin (uning koeffisientlari simmetrik ko'phadning koeffisiyentlari qaysi maydondan bo'lsa, o'sha maydon elementlaridan iborat bo'ladi).

Misol.$f(x_1, x_2) = x_1^2 + x_2^2 - x_1x_2 = \tau_1^2 - 3\tau_2$

Berilgan simmetrik ko'phadni elementar ko'phadlar orqali ifodalash qulay bo'lihi uchun bu ko'phadni bir jinsli qismlarga ajratishi,ya'ni barcha o'zgaruvchilar bo'yicha darajalari bir xillarini to'plash, bir jinsli qismlarining har birini alohida holda elementar simmetrik ko'phadlar orqali ifodalash kerak bo'ladi.Bir jinsli simmetrik $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ ko'phadni elementar simmetrik ko'phadlar orqali ifodalash uchun uning yuqori hadi bo'lgan $a_0x_1^{k_1}x_2^{k_2} \dots x_n^{k_n}$ hadini olib uning $k_1, k_2, \dots, k_n$ daraja ko'rsatkichlari yozib chiqiladi,so'ng quyidagi xossalarga ega bo'lgan barcha $l_1, l_2, \dots, l_n$ sonlar to'plami tuziladi: 1) har bir to'plamdagi sonlar yig'indisi $l_1 + l_2, + \cdots + l_n$ bir xil va ular $k_1 + k_2 + \cdots + k_n$ yig'indiga teng; 2) har bir to'plamdagi sonlar o'sib bormaydigan tartibda, ya'ni $l_1 \geq l_2 \geq \cdots \geq l_n$ bo'lsin; 3) $x_1^{l_1}x_2^{l_2} \dots x_n^{l_n}$ had $x_1^{k_1}x_2^{k_2} \dots x_n^{k_n}$ haddan yuqori emas.Shundan so'ng har bir $l_1, l_2, \dots, l_n$ sonlar uchun $\sigma_1^{l_1-l_2}\sigma_2^{l_2-l_3} \dots \sigma_{n-1}^{l_{n-1}-l_n}\sigma_n^{l_n}$ ko'paytmani tuzib va $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ ko'phadni aniqmas koeffisiyentlar bilan tuzilgan shunday ko'paytmalarning summasiga tenglashtiriladi. Agar tenglikning har ikkala tomonida $x_1, x_2, \dots, x_n$ o'zgaruvchilarga sonli qiymatlar berib koeffisiyentlarni topsak,natijada $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ ko'phadning elementar simmetrik ko'phadlar orqali ifodasi topiladi.

Bu masalani yana quyidagicha yechish mumkin bo'lib uni quyidagi misol orqali tushuntirib beramiz.

Misol. $f(x_1, x_2, x_3) = x_1^3 + x_2^3 + x_3^3 + 5x_1x_2x_3$ ko'phadning elementar simmetrik ko'phadlar orqali ifodasini topamiz.

Bu ko'phad simmetrik ko'phad bo'lib uning yuqori hadi x_1^3 dan iborat.Unga 3 0 0 $(x_1^3x_2^0x_3^0)$ ko'rsatkichlar sistemasi mos keladi.Xuddi shunday yuqori hadga quyidagi ko'phad ham ega:

$$\sigma_1^3 = (x_1 + x_2 + x_3)^3$$
$$= x_1^3 + x_2^3 + x_3^3 + 3x_1^2x_2 + 3x_1x_2^2 + 3x_1^2x_3 + 3x_1x_3^2 + 3x_2^2x_3 + 3x_2x_3^2$$
$$+ 6x_1x_2x_3$$

Quyidagi ayirmani qaraymiz:

$$f - \sigma_1^3 = -3x_1^2x_2 - 3x_1x_2^2 - 3x_1^2x_3 - 3x_1x_3^2 - 3x_2^2x_3 - 3x_2x_3^2 - x_1x_2x_3$$

Hosil bo'lgan ko'phadning yuqori hadi $-3x_1^2x_2$ ga teng bo'lib, unga 2 1 0 ko'rsatkichlar sistemasi mos keladi. Xuddi shunday yuqori had quyidagi ko'phadda ham bor:

$$-3\sigma_1^{2-1}\sigma_2^{1-0}\sigma_3^0) = -3\sigma_1\sigma_2 = -3(x_1 + x_2 + x_3)(x_1x_2 + x_1x_3 + x_2x_3)$$
$$= -3(x_1^2x_2 + x_1^2x_3 + x_1x_2^2 + +x_2^2x_3 + x_1x_3^2 + x_2x_3^2 + 3x_1x_2x_3)$$

$f - \sigma_1^3$ dan $-3\sigma_1\sigma_2$ ko'phadni ayirib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$f - \sigma_1^3 + 3\sigma_1\sigma_2 = 8x_1x_2x_3 = 8\sigma_3$$

Bundan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$f(x_1, x_2, x_3) = \sigma_1^3 - 3\sigma_1\sigma_2 + 8\sigma_3$$

Xulosa: Mazkur maqolada bir nechta o‘zgaruvchili ko‘phadlar va simmetrik ko‘phadlarning nazariy asoslari izchil ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ko‘p o‘zgaruvchili ko‘phadlarning tuzilishi, darajasi, algebraik amallarga nisbatan xossalari hamda ularning kommutativ halqa hosil qilishi kabi muhim jihatlar yoritildi.

Simmetrik ko‘phadlar tushunchasi chuqur o‘rganilib, ularning o‘zgaruvchilar o‘rin almashtirilganda o‘zgarmasligi asosiy xususiyat sifatida ko‘rsatildi. Shuningdek, elementar simmetrik ko‘phadlar va ular orqali har qanday simmetrik ko‘phadni yagona ko‘rinishda ifodalash mumkinligini ifodalovchi asosiy teoremaning ahamiyati asoslab berildi. Bu natija algebraik tenglamalar nazariyasida, xususan, ildizlar va koeffitsiyentlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, simmetrik ko‘phadlar nafaqat nazariy algebra doirasida, balki matematik modellashtirish, kombinatorika va boshqa amaliy sohalarda ham keng qo‘llaniladi. Ular murakkab algebraik ifodalarni soddalashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi.

Bir nechta o‘zgaruvchili ko‘phadlar va simmetrik ko‘phadlar nazariyasini chuqur o‘rganish matematik tafakkurni rivojlantirishda, ilmiy tadqiqotlarni olib borishda hamda amaliy masalalarni samarali yechishda muhim nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A., Nosirov U.M., Husanov J.H. Algebra va matematik analiz asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
2. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A. Algebra va matematik analiz asoslari (1–2 qismlar). – Toshkent: Istiqbol, 2000.
3. Alimov Sh.A., Kolmogorov A.N. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari (10–11-sinflar uchun). – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. Vilenkin N.Y. va boshqalar. Algebra va matematik analiz. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Galitskiy M.L. va boshqalar. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
6. To‘laganov T.R. Elementar matematika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
7. Qodirov O., Yo‘ldoshev U. Matematika (algebra) fanidan qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti.
8. Sadullaev A., Xudoyberganov G‘. Oliy matematika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
9. Karimov B., Tursunov S. Chiziqli algebra elementlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
10. Ismoilov M., Rasulov T. Algebra masalalar to‘plami. – Toshkent: Fan nashriyoti.

BIRINCHI DARAJALI TENGLAMAR SISTEMASINI YECHISH USULLARI

Xudoyberdiyev Hasan O‘ktam o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on shahar 3-son texnikumi
matematika fan o‘qituvchisi
hasanxudoyberdiyev007@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish usullari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Ikkita noma’lumli chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda qo‘llaniladigan asosiy usullar — almashtirish, qo‘shish (yig‘ish) va grafik usullar batafsil tahlil qilinadi. Har bir usulning qo‘llanish shartlari, afzalliklari hamda cheklovlari*

misollar orqali tushuntiriladi. Shuningdek, mazkur usullarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llash, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va matematik kompetensiyalarini oshirishdagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Maqola natijasida birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishda turli yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. *birinchi darajali tenglamalar sistemasi, chiziqli tenglamalar, noma’lumlar, almashtirish usuli, qo‘shish usuli, grafik usul, algebra, matematik modellashtirish, yechim, koordinata tekisligi, mantiqiy fikrlash, matematik kompetensiya.*

Kirish: Matematika fanining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan algebra kursida birinchi darajali tenglamalar sistemasi alohida o‘rin egallaydi. Ushbu mavzu nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirishda, balki amaliy masalalarni yechishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi darajali tenglamalar sistemalari turli sohalarda, jumladan iqtisodiyot, fizika, texnika va kundalik hayotda uchraydigan muammolarni matematik modellashtirish va ularni yechishda keng qo‘llaniladi.

Tenglamalar sistemasini yechish jarayonida o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur o‘rganish va samarali o‘qitish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishning turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida almashtirish, qo‘shish (yig‘ish) va grafik usullar eng ko‘p qo‘llaniladi. Har bir usulning o‘ziga xos xususiyatlari, qulayliklari va qo‘llanish doiralari mavjud.

Mazkur maqolada birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish usullari nazariy asoslari bilan birga amaliy misollar orqali yoritilib, ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilarning matematik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism: Birinchi darajali tenglamalar sistemasi ikki yoki undan ortiq noma’lumlardan iborat bo‘lgan va har bir tenglama birinchi darajali bo‘lgan algebraik ifodalar majmuasidir. Bunday sistemalar umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$ax + by = c$$
$$dx + ey = f$$

Bu yerda x va y — noma’lumlar, a, b, c, d, e, f esa berilgan sonlardir. Mazkur sistemaning yechimi deb x va y ning shunday qiymatlariga aytiladiki, ular har ikkala tenglamani bir vaqtda qanoatlantiradi. Birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishda bir nechta asosiy usullar mavjud bo‘lib, ular orasida almashtirish, qo‘shish (yig‘ish) va grafik usullar eng samarali hisoblanadi.

Almashtirish usuli eng sodda va tushunarli usullardan biri bo‘lib, unda tenglamalardan biridan noma’lumlardan biri ifodalanadi va hosil bo‘lgan ifoda ikkinchi tenglamaga qo‘yiladi. Natijada bir noma’lumli tenglama hosil bo‘ladi va u yechilib, keyin ikkinchi noma’lum topiladi. Masalan, quyidagi sistemani ko‘rib chiqamiz:

$$x + y = 5$$
$$x - y = 1$$

Birinchi tenglamadan $x = 5 - y$ deb ifodalaymiz va uni ikkinchi tenglamaga qo‘yamiz:

$$(5 - y) - y = 1$$
$$5 - 2y = 1$$
$$2y = 4$$
$$y = 2$$

Endi x ni topamiz: $x = 5 - 2 = 3$. Demak, sistemaning yechimi (3; 2) ga teng bo‘ladi. Bu usul ayniqsa tenglamalardan biri sodda ifodalanganda qulay hisoblanadi.

Qo‘shish yoki yig‘ish usuli esa tenglamalarni hadma-had qo‘shish yoki ayirish orqali noma’lumlardan birini yo‘qotishga asoslanadi. Bu usulda tenglamalar shunday ko‘rinishga keltiriladiki, noma’lumlardan birining koeffitsiyentlari qarama-qarshi bo‘lib qoladi. Yuqoridagi sistemani yana ko‘rib chiqamiz:

$$x + y = 5$$
$$x - y = 1$$

Ikki tenglamani qo‘shamiz:

$$2x = 6$$
$$x = 3$$

So‘ng x qiymatini tenglamalardan biriga qo‘yib, y ni topamiz:

$$3 + y = 5 \rightarrow y = 2.$$

Natijada yana (3; 2) yechim hosil bo‘ladi. Ushbu usul ayniqsa koeffitsiyentlar qulay tanlangan hollarda juda tez va samarali natija beradi.

Grafik usul esa tenglamalar sistemasini geometrik nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Har bir tenglama koordinata tekisligida to‘g‘ri chiziqni ifodalaydi. Ushbu chiziqlarning kesishish nuqtasi sistemaning yechimi bo‘ladi. Agar chiziqlar bir nuqtada kesishsa — sistema yagona yechimga ega bo‘ladi; agar ular parallel bo‘lsa — yechim mavjud bo‘lmaydi; agar chiziqlar ustma-ust tushsa — cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘ladi. Grafik usul o‘quvchilarga mavzuni vizual tushunishda katta yordam beradi, ammo aniq hisob-kitoblar uchun har doim ham qulay emas.

Birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechishda yuqoridagi usullarning har biri o‘z o‘rniga ega. Masalan, oddiy sistemalarda almashtirish usuli qulay bo‘lsa, murakkabroq sistemalarda qo‘shish usuli tezroq natija beradi. Grafik usul esa masalani umumiy tushunish va yechimlar sonini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Birinchi darajali tenglamalar sistemasini yechish usullari algebra fanining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mavzu orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki amaliy masalalarni yechish, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Maqolada ko‘rib chiqilgan almashtirish, qo‘shish (yig‘ish) va grafik usullar tenglamalar sistemasini yechishda samarali yondashuvlar sifatida ajralib turadi. Har bir usulning o‘ziga xos qulayliklari mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash masalaning turiga va berilishiga bog‘liq. Almashtirish usuli sodda ifodalash imkonini bersa, qo‘shish usuli hisoblashlarni tezlashtiradi, grafik usul esa masalani vizual tarzda tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirishga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchi darajali tenglamalar sistemasini puxta o‘zlashtirish kelgusida murakkab matematik mavzularni o‘rganishda ham mustahkam poydevor yaratadi.

Umuman olganda, tenglamalar sistemasini yechish usullarini chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash matematik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

11. Alimov Sh.A., Kolmogorov A.N. va boshqalar. Algebra va analiz asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
12. Alimov Sh.A. Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi.
13. Abduqodirov A.A., Haydarov B.B. Algebra va matematik analiz asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Sadullaev A., Xudoyberganov G‘. Oliy matematika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
15. To‘xtaxodjaev N., Mamatov M. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi.
16. Ismoilov M., Rasulov T. Algebra masalalar to‘plami. – Toshkent: Fan.
17. Qodirov O., Yo‘ldoshev U. Matematika (algebra) fanidan qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur.

18. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Matematika fanidan o‘quv dasturi. – Toshkent.
19. Karimov B., Tursunov S. Chiziqli algebra elementlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
20. Raximov H., Sobirov D. Matematika bo‘yicha masalalar va yechimlar to‘plami. – Toshkent: Fan va texnologiya.

ARCTIUM LEIOSPERMUMNING BOTANIK VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bozorova Umida Baxtiyorovna
Kattaqo’rg’on Pedagogika Instituti asissent o’qituvchi
Xayriyeva Diyora Ibrohim qizi
Kattaqo’rg’on Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada *Arctium leiospermum* Juz. & Ye.V.Serg. turining bioekologik va biokimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan. Turining tarqalishi, sistematik o‘rni, ekologik sharoitga moslashuvi, morfologik tuzilishi hamda ontogenez bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘simlikning gullashi, urug‘larining tarqalish mexanizmi va ruderal muhitlardagi o‘rni yoritilgan. O’simlikning turli vegetatsiya fazalarida ildiz va yer ustki qismlaridagi uglevodlar (monosaxaridlar, oligosaxaridlar, polisaxaridlar, pektin moddalar va gemitsellyulozalar) miqdorining o‘zgarishi o‘rganilgan. Olingan natijalar o‘simlikning ekologik sharoit va rivojlanish bosqichlariga bog‘liq holda biokimyoviy tarkibi o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar:*Arctium leiospermum*, Asteraceae, bioekologiya, ruderal o‘simlik, mezofit, ontogenez, zooxoriya, gullash, urug‘ tarqalishi, uglevodlar, polisaxaridlar, pektin moddalar, gemitsellyuloza.

Kirish.*Arctium leiospermum* Juz. & Ye.V.Serg. Asteraceae oilasiga mansub ikki yillik o‘simlik bo‘lib, Markaziy Osiyo va G‘arbiy Sibir floristik hududlarida keng tarqalgan turlardan hisoblanadi. Ushbu tur ekologik jihatdan yuqori moslashuvchanligi, ruderal muhitlarda tez tarqalishi va barqaror populyatsiyalar hosil qilishi bilan ajralib turadi.

Sistematik jihatdan u Magnoliophyta bo‘limi, Magnoliopsida sinfi, Asterales tartibi, Asteraceae oilasi va *Arctium*turkumiga kiradi. Tabiiy areali asosan mo‘tadil iqlim zonalarini qamrab oladi. U G‘arbiy Sibir, Qozog‘istonning shimoliy va markaziy hududlari hamda Markaziy Osiyo tog‘ oldi va adir zonalarida uchraydi. O‘zbekiston hududida esa Toshkent viloyati, Jizzax, Samarqand adirlari va Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlarida tarqalgan bo‘lib, ko‘proq yo‘l yoqalari, sug‘oriladigan maydonlar chetlari, tashlandiq yerlar va yaylovlarning buzilgan qismlarida o‘sadi.*Arctium leiospermum* ekologik jihatdan mezofit o‘simlik hisoblanadi va yorug‘sevar (geliofit) tur sifatida ochiq maydonlarda yaxshi rivojlanadi. U unumdor, qumoq va gilli, o‘rtacha namlikka ega tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Antropogen ta’sir kuchli bo‘lgan hududlarda ham yashab keta olishi uning ruderal ekologik guruhga mansubligini ko‘rsatadi.Morfologik jihatdan o‘simlik 60–150 sm, ba’zan 180 sm gacha yetadigan tik poyali, yuqori qismi shoxlangan ikki yillik o‘simlikdir. Ildiz tizimi o‘q ildiz tipida bo‘lib, chuqur kirib boradi va o‘simlikning qurg‘oqchilikka nisbatan chidamliligini oshiradi. Barglari yirik, yuraksimon yoki tuxumsimon shaklda, pastki qismi biroz tukli bo‘ladi. Gullari savatcha (capitulum) tipida, odatda pushti-binafsha rangda bo‘ladi. Mevasi acheniya tipida bo‘lib, yuzasida ilgaksimon o‘simtalar mavjudligi sababli hayvonlar juniga yopishib, uzoq masofalarga tarqaladi. Bu esa turning zooxoriya orqali samarali dispersiyasini ta’minlaydi.

Asosiy qism.Ontogenez jarayoni ikki yillik hayot sikliga ega. Birinchi yilda urug‘ unib chiqib, asosan vegetativ organlar — barg rozetkasi va ildiz tizimi rivojlanadi hamda organik moddalar zaxirasi to‘planadi. Ikkinchi yilda esa generativ bosqich boshlanib, poya o‘sadi, o‘simlik gullaydi, meva va urug‘ hosil qiladi va hayot siklini yakunlaydi.*Arctium leiospermum* ning gullari savatcha (capitulum) tipida tuzilgan bo‘lib, Asteraceae oilasiga xos murakkab to‘pgul hisoblanadi. Savatcha gullari zich joylashgan mayda ikki jinsli naychasimon gullardan iborat bo‘lib, ular

umumiy o‘ram bargchalar (involukrum) bilan o‘ralgan. Gullarning rangi odatda pushti-binafsha tusda bo‘ladi, bu esa changlatuvchi hasharotlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Gullash davrida o‘simlik kuchli hid va nektar ajratish xususiyatiga ega bo‘lib, asalarilar, kapalaklar va boshqa hasharotlar tomonidan changlanadi. Changlanish asosan entomofil (hasharotlar orqali) amalga oshadi.Urug‘i (mevasi) acheniya tipida bo‘lib, mayda, qattiq po‘stli va bir urug‘li tuzilishga ega. Urug‘ yuzasida maxsus ilgaksimon o‘simtalar rivojlangan bo‘lib, bu belgi turning eng muhim ekologik moslashuvlaridan biridir. Ushbu ilgaklar yordamida urug‘lar hayvonlar juniga, qush patlariga yoki odam kiyimiga yopishib, uzoq masofalarga tarqaladi (zooxoriya). Urug‘lar yengil va chidamli bo‘lib, qulay sharoitga tushganda tez unib chiqish xususiyatiga ega. Shu sababli tur yangi hududlarni tez egallash va populyatsiyasini kengaytirish qobiliyatiga ega.Ko‘payishi asosan urug‘ orqali amalga oshadi. Urug‘larning yuqori hayotchanligi va samarali tarqalish mexanizmi populyatsiyaning tez kengayishiga imkon beradi. Fitosenologik jihatdan u ruderal va yarim ruderal jamoalarda ishtirok etadi hamda buzilgan ekotizimlarda ko‘pincha dominantlikka erishishi mumkin.Turning ekologik moslashuv mexanizmlariga kuchli ildiz tizimi, ikki yillik rivojlanish strategiyasi, yuqori urug‘ mahsuldorligi hamda antropogen sharoitlarga chidamlilik kiradi. Ushbu xususiyatlar uning turli ekologik sharoitlarda muvaffaqiyatli yashashini ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda xalq tabobatida qariqiz barglari yallig‘lanishga qarshi, o‘smaga qarshi va gepatoprotektor vosita sifatida qo‘llaniladi .Qariqiz o‘simligidan ajratib olingan birikmalar va uglevodlarning biologik faolligini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar ma’lum.Qariqiz ildizlari asosan suvli ekstraktlar ko‘rinishida qo‘llaniladi va farmakologik ta’siri suvda eriydigan birikmalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asosini polisaxaridlar tashkil etadi.Barglari va qavariqlari xalq tabobatida kuyishda, toshmalarda, teri qichishishida,ekzemalarda,dermatitda, ishlatilgan. Sharbat, qaynatmalar podagra, moddalar almashinuvini rag‘batlantirish uchun,artrit va artrozlarni davolash uchun,bo‘g‘im revmatizmini davolash uchun,qo‘lansa hid,siydik-tosh kasalligi,oshqozon yarasini davolash uchun ishlatilgan. Yog‘ ko‘piklariqadimzamonlardanberisochlarningoziqlanishinimustahkamlash, shuningdek,trofik yaralarni davolash uchun ishlatilgan. Katta o‘smalarning antibacterial xususiyatlaridan yuqori nafas yo‘llari kasalliklarining boshlang‘ich shakllari, tomoq, milk, tomoq shilliq qavatlari yallig‘lanishida foydalanilgan. Xalq tabobatida ayollarda siydik yo‘llari infeksiyalarini davolash uchun estragon, tog‘ rayhon va teshik-teshik so‘gal qo‘llaniladi, qaynatmasi esa qabziyat, hayz ko‘rishning kechikishi, teri kasalliklarida qo‘llaniladi.Qariqiz ildizlari, birinchi navbatda, tarkibida inulin bo‘lgani uchun tibbiyotda qo‘llaniladi. Ma’lumki, inulin qondagi glyukoza miqdorini kamaytiradi, lipidlar almashinuvini yaxshilaydi, yurak-qon tomir kasalliklari uchun xavf omillarini kamaytiradi, organizmdan toksinlar, radionuklidlarni chiqarib tashlaydi, oshqozon-ichak traktining normal ishlashiga yordam beradi. Onkologik kasalliklar paydo bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatadi, immunomodullovchi va gepatoprotektor ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, iqlim va ekologik sharoitlar, geografik zonalar o‘simliklardagi metabolik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, ularning dorivor xususiyatlarini belgilaydigan biologik faol moddalarning sintezi va to‘planishiga yordam beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan o’tkazilgan tajriblarda turli ekalogik sharoitda o’sadigan A.liospermiumni uglevod tarkibini aniqlagan va O‘simlikning uglevod tarkibi ekologik o‘sish joylariga bog‘liq holda o‘rganildi. Uglevodlar miqdori vegetatsiya davrlari va o‘sish joyi bo‘yicha yer osti va yer usti organlarida aniqlandi.

1-jadvalda o‘simliklarning vegetatsiya davrida (rivojlanish fazalari bo‘yicha), yil davomida ildiz (%) va yer ustki qismidagi uglevod tarkibi keltirilgan.

O’rganilyotgan o’simlik organi	Rivojlanish bosqichlari, oylar	Monosaxaridlar	Oligosaxaridlar	Polisaxaridlar	Pektin moddalar	Gemeselluloza

Ildizlar,yer ustki qismi	Uyg'onishi ,martII	1,3 0,2	5,2 0,9	15,8 1,1	3,3 2,0	4,1 4,4
Ildizlar,yer ustki qismi	Rozetkalar,aprel, may,II	0,2 2,0	8,1 1,6	17,3 1,2	3,8 4,3	4,0 4,2
Ildizlar,yer ustki qismi	Gullash,iyun, iyul,II	2,2 0,5	9,5 3,5	19,2 2,5	4,3 49,2	3,9 1,6
Ildizlar,yer ustki qismi	Avgustda gullash II	2,8 0,9	6,4 2,3	25,6 1,6	4,4 3,8	4,4 4,0
Ildizlar,yer ustki qismi	Meva berish,sentabr ,II	2,9 0,3	6,0 1,8	27,6 1,3	4,9 4,4	3,8 4,8

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uyg‘onish fazasida ildizlarda polisaxaridlar 15,8%, yerustki qismida esa gemitsellyulozalar 4,4% ustunlikqiladi. Rozetka shaklida ildizda oligosaxaridlar miqdori keskin oshib (8,1%), polisaxaridlar miqdori 17,3% ni, pectin moddalar miqdori 3,8% nitashkiletdi. Shonalash fazasida oligosaxaridlar miqdori maksimal - 9,5% gacha yetadi, so‘ngra ildiz va yer ustki qismida ularning miqdori 3,5% gacha kamayadi va polisaxaridlar miqdori ustunlik qiladi - 19,2%. Gullash fazasida ildizda oligosaxaridlar miqdori kamayib, polisaxaridlar miqdori ortadi. Ildizlarda polisaxaridlar miqdori maksimal 27,6% gacha yetadi, bu vaqtda oligosaxaridlar va monosaxaridlar miqdori mos ravishda 2,9% va 6,01% gacha kamayadi, yer ustki qismida nobud bo‘lish fazasida esa polisaxaridlar miqdori yana 24,8% ni tashkil etadi, so‘ngra tinim va uyg‘onish fazasida minimal 18,0% va 15,8% gacha kamayadi.

Xulosa.*Arctium leiospermum* Markaziy Osiyo va G‘arbiy Sibir hududlarida keng tarqalgan, ekologik jihatdan yuqori moslashuvchanlikka ega ikki yillik o‘simlik hisoblanadi. U asosan ruderal va antropogen ta’sir kuchli bo‘lgan muhitlarda tez tarqalib, barqaror populyatsiyalar hosil qiladi. O‘simlikning morfologik xususiyatlari, xususan ilgaksimon urug‘lari uning zooxoriya orqali samarali tarqalishini ta’minlaydi.Biokimyoviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik tarkibidagi uglevodlar miqdori vegetatsiya bosqichlariga qarab sezilarli o‘zgaradi, ayniqsa polisaxaridlar gullash va meva berish davrida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Bu esa uning fiziologik faolligi va energiya almashinuv jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.Umuman olganda, *Arctium leiospermum* ekologik va biokimyoviy jihatdan muhim tur bo‘lib, uning xususiyatlarini o‘rganish farmatsevtika va fitokimyoviy tadqiqotlar uchun ham ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.0‘.P.Pratov,M.M.Nabiyev.0‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonayiy tizimi.T-2007
2.У.Пратов, К..Жумаев. Юксак усимликлар Систематикаси.t-2003
3.Туляганова М., Юлдашев А.С.Ўзбекистонда кенг тарқалган Фойдали ўсимликлар.Т-2011
4.M.A. Jo‘rayevaDorivor 0‘simliklar atlasi.T-2019
5.Axmedov Sh.Sh.Dorivor o’simliklar va ularning tibbiyotda qo’llanishi. Toshkent- 2010.
6. Islomov B.S, Hasanov M.A.Botanika(morfologiya,anatomiya,sistematika).-Samarqand “SamDU nashriyoti”,2020.
7.Икромов М.И., Нормуродов Х.Н., Юлдашев А.С. Ботаника. Тошкент, «Ўзбекистон». 2002.

“TABIIY FANLARNI O’QITISHDA VIRTUAL LABARATORIYALARDAN FOYDALANISH”

Yuldosheva Feruza Alisher qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti talabasi
Abdirashidova Nilufar Shuhrat qizi
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti
Assistent o’qituvchisi
Husanova Farida Ziyadullayevna
50-maktab o’qituvchisi

***Annotatsiya*:** Ushbu maqolada" tabiiy fanlarni o’qitishda virtual labaratoriyalardan foydalanish" mavzusi o'rganiladi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida, xususan, tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya) o‘qitishda virtual laboratoriyalarning tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Virtual simulyatsiyalarning xavfsizlikni ta’minlash, resurslarni tejash va murakkab ilmiy jarayonlarni vizuallashtirishdagi afzalliklari dunyo olimlarining tadqiqotlariga tayangan holda asoslab berilgan.

Abstract: This article highlights the role and significance of virtual laboratories in the modern education system, specifically in teaching natural sciences (physics, chemistry, biology). It analyzes the effectiveness of integrating digital technologies and artificial intelligence into the educational process to develop students' independent thinking, analytical, and practical skills. Based on the research of global scholars, the advantages of virtual simulations in ensuring safety, saving resources, and visualizing complex scientific processes are substantiated.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение виртуальных лабораторий в современной системе образования, в частности при преподавании естественных наук (физика, химия, биология). Анализируется эффективность интеграции цифровых технологий и искусственного интеллекта в учебный процесс для развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа и практических умений. На основе исследований мировых ученых обоснованы преимущества виртуальных симуляций в обеспечении безопасности, экономии ресурсов и визуализации сложных научных процессов.

***Kalit so'zlar*:** Virtual laboratoriyalar, Virtual laboratoriya, tabiiy fanlar, raqamli simulyatsiya, sun’iy intellekt, interaktiv o‘qitish, masofaviy ta’lim, vizuallashtirish, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar.

Kirish: XXI asrda ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida inson kapitalini shakllantirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va innovatsion fikrlashni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt (AI) va raqamli simulyatsiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularning o‘qitish jarayoniga kirib kelishi ta’limning an’anaviy modelidan raqamli, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan tizimga o‘tishiga sabab bo‘lmoqda.

Tabiiy fanlar — fizika, kimyo, biologiya, geografiya va astronomiya — amaliy tajriba va tahlilni talab qiluvchi yo‘nalishlar bo‘lib, bu fanlarda o‘quvchilarning hodisalarni kuzatish, tahlil qilish va natijani tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston2030" stategeyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF6079 sonli Farmoniga asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tabiiy fanlar haqidagi bilimlar uzoq yillar davomida amaliy izlanishlar tufayli qo‘lga kiritilgan. Tabiatni bilishda, uni anglashda ilmiy-amaliy tajriba, hamda amaliy bilimlar muhim rol o‘ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rangbarang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o‘rganuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatning tabiat qonunlari haqidagi bilimlarini, ilmiy asoslangan amaliy faoliyatlarini bilish jarayonini ilm-fan taraqqiyoti belgilaydi. Nazariy bilimlar mazmun – mohiyatini anglashga bo‘lgan ehtiyoj amaliyotda tug‘iladi va ularning to‘g‘riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Shuni alohida takidlash joizki amaliy ishlarga asoslangan tajribalarni o‘tkazish jarayonida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda jihozlar yetishmasa, asboblar nosoz bo‘lsa yoki umuman mavjud bo‘lmasa, o‘tkaziladigan tajribani virtual laboratoriya orqali o‘tkazish imkoni mavjud.

Bunday usullarning o‘ziga hos afzalligi shundaki, ular faqat o‘quvchi va o‘qituvchilarning birgalikdagi faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ya‘ni:

- o‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligini ta‘minlash;
- o‘quvchilarning dars davomida mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga imkon yaratish;
- o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil holda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda bilimga ega bo‘lgan intilishlarini kuchaytirish. **3D modellar va animatsiyalar** kabi zamonaviy vizual texnologiyalar ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi orqali biologik jarayonlarni yanada jonli, tushunarli va esda qolarli tarzda o‘rgatish mumkin. Bu vositalar yordamida murakkab hujayra tuzilmasi, organizm tizimlari yoki genetik jarayonlar kabi mavzular interaktiv va ko‘rgazmali tarzda taqdim etiladi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar keskin faollashdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI (Artificial Intelligence) texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish, individual o‘quv strategiyasini yaratish va tabiiy fanlarni o‘rganishda real tajribalarni virtual muhitda modellashtirish imkonini beradi.

J. Anderson (2022) o‘zining “AI in Education: Learning in the Digital Age” nomli asarida ta’limda sun’iy intellektni joriy etish o‘quvchilarning o‘qish sur’atini tahlil qilib, ularning kuchli va sust tomonlarini aniqlash orqali individuallashtirilgan o‘qitish imkonini berishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tabiiy fanlarda AI texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

R. Clark (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa raqamli simulyatsiyalar o‘quvchilarning amaliy tajriba orttirish jarayonida xavfsizlik, resurs tejamkorligi va vizual anglash imkoniyatini oshirishini isbotlagan. U ta’limda virtual laboratoriyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish darajasini 35–40 foizga oshirishini qayd etgan.

E. Mason (2023) o‘zining “Digital Simulation and Cognitive Development in Science Education” nomli maqolasida simulyatsion o‘qitish modeli o‘quvchilarda mantiqiy tahlil, kuzatuvchanlik va eksperiment asosida xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi, deb yozadi. U raqamli simulyatsiyalarni tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga integratsiyalashni XXI asr ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholaydi.

O‘zbekistonlik olimlar ham so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda sezilarli ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. **A. Abduqodirov** va **B. Yo‘ldoshev** (2020)larning ishlarida raqamli pedagogika, ta’limni axborotlashtirish va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalalari

yoritilgan. Ularning ta’kidlashicha, tabiiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt asosidagi tizimlar ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, baholashni adolatli tashkil etish va individual o‘qitish usullarini rivojlantirish imkonini beradi.

N. Toshpo‘latova (2021) o‘z tadqiqotida raqamli vositalarning o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishdagi rolini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirishda interaktiv texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va onlayn test tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa tabiiy fanlarni – fizika, kimyo, biologiya, geografiya kabi fanlarni o‘qitish jarayonida raqamli vositalar o‘quvchilarning tushunchalarini kengaytirish, tajriba va kuzatishlarni vizual tarzda ko‘rsatish, murakkab jarayonlarni soddalashtirib ifodalash imkonini beradi. Innovatsion raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqotni ta’minlaydi, ta’lim jarayonini samarali va motivatsion qiladi.

Virtual laboratoriyalar tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va imkoniyatlarni taqdim etadi. O‘quvchilarga tajribalar o‘tkazish uchun xavfsiz, arzon va samarali muhit yaratib, ularning ilmiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Virtual laboratoriyalar yordamida o‘quvchilar fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar bo‘yicha ko‘plab tajribalar o‘tkazishlari mumkin, bu esa an’anaviy laboratoriyalarning cheklovlarini bartaraf etadi.

Fizikaviy va kimyoviy tajribalarni xavfsiz o‘tkazish: Kimyo yoki biologiya fanlarida amalga oshiriladigan ba’zi tajribalar xavfli bo‘lishi mumkin, chunki ular kimyoviy moddalar yoki yuqori haroratlar bilan bog‘liq. Virtual laboratoriyalarda esa, o‘quvchilar xavfsiz sharoitda bu tajribalarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, kimyoviy reaktsiyalarni yoki fizik jarayonlarni virtual muhitda simulyatsiya qilish, o‘quvchilarga xavfsizlikni ta’minlagan holda ilmiy bilim olish imkoniyatini yaratadi

Resurslar va materiallarni tejash: An’anaviy laboratoriyalar ko‘p resurslar va materiallar talab qiladi. Misol uchun, kimyo yoki fizika tajribalari uchun maxsus laboratoriya jihozlari va materiallar kerak bo‘ladi. Virtual laboratoriyalarda barcha tajribalar kompyuter orqali amalga oshiriladi, bu esa materiallarni tejashga yordam beradi. O‘quvchilar barcha tajribalarni virtual muhitda sinab ko‘rishlari mumkin

Takrorlash va individual o‘quv jarayoni: Virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga bir tajribani bir necha marta takrorlash imkoniyatini beradi. O‘quvchilar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan eksperimentlarni ko‘p marta bajara olishadi, bu esa bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, virtual laboratoriyalarda o‘quvchilar o‘z sur’atida ishlashlari mumkin, bu individual yondashuvni ta’minlaydi

Virtual laboratoriyalarning asosiy afzalliklaridan biri — o‘quvchilarga tajribalarni real vaqtda simulyatsiya qilish imkoniyatini berishidir. Kimyo, fizika yoki biologiya fanlaridagi tajribalar ba’zan vizual tushunishga qiyin bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Virtual laboratoriyalar esa, bu jarayonlarni grafiklar, diagrammalar yoki animatsiyalar orqali o‘quvchilarga tushunarli qilib ko‘rsatadi

Jamoaviy ishlar va muhokama: Virtual laboratoriyalarda o‘quvchilar bir-biriga yordam bera olishlari va o‘zaro fikr almashishlari mumkin. Bu o‘quvchilarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Jamoaviy ish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rib, ilmiy fikrlashni rivojlantiradilar. Muhokama qilish jarayonida, o‘quvchilar ilmiy izlanishlar va tahlil qilishni o‘rganadilar

O‘qituvchilar nafaqat texnik jihatdan, balki ilmiy izlanish metodlaridan ham xabardor bo‘lishlari kerak. Shuningdek, virtual laboratoriyalarni faqat texnologik vosita sifatida emas, balki o‘quvchilarning ilmiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rish zarur.

Amaliyot va nazariyaning uyg‘unligi: Virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga amaliy tajribalarning nazariy bilimlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Misol uchun, fizika fanidagi qonunlarni o‘rganayotganda o‘quvchilar bu qonunlarning virtual tajribalar orqali qanday ishlashini ko‘rishlari mumkin. Bu ilmiy materialni o‘zlashtirishda yordam beradi va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini jonlantiradi

Xulosa:

Tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli vositalar yordamida darslarni tashkil etish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, dars jarayonini interfaol va qiziqarli shaklga keltiradi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriyalar, 3D modellar, AR/VR platformalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar tabiiy jarayonlarni vizual va amaliy tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish – bu nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki zamonaviy raqamli jamiyat uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hamdir. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda tizimli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish dolzarb masala bo‘lib qoladi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli 0'zbekiston-2030" stategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g>isida"gi PF-6079-sonli Farmoni. - https://lex.uz/ru/docs/-5030957
2.Anderson, C. W., & Mitchener, C. P. (2002). Using virtual laboratories in science education. Journal of Educational Technology Systems, 30(1), 57-65.
3.Baker, M. (2003). Virtual Labs: Opportunities and challenges. Computers in Education Journal, 16(3), 15-22.
4.Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). How people learn: Brain, mind, experience, and school. National Academy Press.
5.Dori, Y. J. (2011). Virtual learning environments in chemistry education: Challenges and opportunities. Journal of Chemical Education, 88(8), 1024-1029.
6.Graham, C. R., Cagiltay, K., Lim, B., & Craner,
7. JMason, E. (2023). Digital Simulation and Cognitive Development in Science Education. Science Education Journal, 12(3), 45-60.
8. Toshpo‘latova, N. (2021). Raqamli vositalarning o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishdagi roli. – Ilmiy axborotnoma, 4-son.
9. Abduqodirov, A. A., & Yo‘ldoshev, B. (2020). Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Akademnashr. (Maqoladagi raqamli kompetentsiyalar va virtual tizimlarga doir manba).

Inklyuziv ta’limda biologiyani o’qitish metodikasi

Kaxxorova Umida Raximjon qizi
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi stajyor o'qituvchisi,
Kaxxorovaumida85@gmail.com
Otaqulova Nafosat Hoshimovna
Samarqand shahar 24-maktab maxsus pedagog defiktolig
Maxramova Iroda Oybek qizi
Kattaqo’rg’on Davlat Pedagogika Insitituti biologiya yo’nalishi 4-bosqich
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida biologiya fanini o‘qitishning metodik asoslari, uning dolzarbligi va ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan maxsus ehtiyojga ega

o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda biologiya darslarini tashkil etish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, ko‘rish, eshitish, nutq va aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda qo‘llaniladigan pedagogik metodlar, ko‘rgazmali vositalar va amaliy yondashuvlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim muhitida biologiya fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirish bilan birga ularning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, biologiya o‘qitish metodikasi, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar, differensial yondashuv, pedagogik texnologiyalar
Annotation (Abstract). This article highlights the methodological foundations, relevance, and significance of teaching biology in an inclusive education environment. The author analyzes approaches to organizing biology lessons while taking into account the individual characteristics of students with special educational needs. In addition, pedagogical methods, visual aids, and practical approaches used when working with students who have visual, hearing, speech, and intellectual developmental challenges are recommended. The results of the study show that effective teaching of biology in an inclusive educational setting not only improves students’ academic achievement but also has a positive impact on their social adaptation.
Keywords: inclusive education, biology teaching methodology, students with special needs, differentiated approach, pedagogical technologies.
Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Barcha o‘quvchilarga teng ta’lim imkoniyatini yaratish, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitishni tashkil etish , jumladan imkoniyati cheklangan bolalarga ham sifatli ta’lim berish, ular ijtimoiy muhitga ham moslashib olish ahamiyatlidir. Shu jihatdan biologiya fanini inklyuziv ta’lim asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarur.

Asosiy qism. Inklyuzivlik masalasi 1990-yilgi Jomtien deklaratsiyasi bilan rag'batlantirilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barcha uchun ta'lim" (BTA) kun tartibi bo'yicha kengroq xalqaro munozaralar doirasida ko'rib chiqildi."Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limida tamoyillar, siyosat va amaliyot to'g'risida"gi Salamanka bayonoti (YuNESKO, 1994) siyosat va amaliyotni qanday oldinga siljitish haqida o'ylash uchun asos yaratadi. Darhaqiqat, ushbu bayonot va unga ilova qilingan Harakatlar doirasi, shubhasiz, maxsus ta'lim sohasida paydo bo'lgan eng muhim xalqaro hujjatdir. Unda inklyuziv yo'nalishga ega oddiy maktablar quyidagilar ekanligi ta'kidlangan: "...kamsituvchi munosabatlarga qarshi kurashish, inklyuziv jamiyat qurish va barcha uchun ta'limga erishishning eng samarali vositasi."

Biologiya fani o‘quvchilarning atrof-muhit va organizmlar haqidagi tushunchasini kengaytirishda katta rol o‘ynaydi. Biologiya fanini o‘qitishdan maqsad tirik organizmlar haqida bilim berish, ekologik ongni shakllantirish, ilmiy fikrlashni rivojlantirish kabi tushunchalarga ega bo’lishdir. Bunday ko’nikmalar o’quvchilarga ta’limda bosqichma-bosqich berib boriladi. Shuni hisobga olish kerakki ta’lim tizimida barcha o’quvchilar birdek emas. Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim tizimi ham yonma-yon rivojlanib bormoqda**.** Inklyuziv ta’lim — bu barcha o‘quvchilarga, jumladan imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xil ta’lim olish imkonini beruvchi tizimdir. Bu jarayonda har bir o‘quvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi.Mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi .Hozirgi ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim maktablarda ham keng qamrab olingan. Imkoniyati cheklangan o’quvchilarga biologiya fanini o’qitish, ularni fanga qiziqtira olish uchun bir qancha usullarni qo’llash mumkin

Inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligini baholashda turli ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar yordamida olingan natijalar muhim o‘rin tutadi. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘rganish ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni tashkil etish muhimdir. Har bir o‘quvchining qobiliyati, sog‘ligi, o‘rganish tezligi hisobga olinadi. O’rgatiladigan mavzu esa turli darajada tushunturish ishlari olib boriladi. Mavzuga oid ko’rgazmali qurollar esa individual xususiyatlarni e’tiborga olish kerak. Ko‘rishida muammo bo‘lgan o‘quvchilar uchun darsni og‘zaki bayon qilish uyga vazifa sifatida esa audio tushuntirishlar bilan vazifa berish juda muhim sanaladi. Laboratoriya mashg’ulotlarini o’quvchiga o’rgatish 3D modeli asosida, rangli rasmlar orqali o’rgatish samarali hisoblanadi. Misol uchun hujayra, yurak, o‘simlik qismlarini qo‘l bilan sezib o‘rganish hamda tabiiy bo’lgan biologik obyektlarni barg, ildiz, urug‘ni ushlab ko‘rish. Eshitishida muammo bo‘lgan o‘quvchilar vizual materiallar (rasm, diagramma, video), yozma tushuntirishlar, imo-ishora yoki subtitrlar bilan ishlash. Masalan: fotosintez jarayonini sxema orqali ko‘rsatish. Aqliy rivojlanishi sekin o‘quvchilar uchun esa soddalashtirilgan matn va tushunchalar, qisqa-qisqa tushuntirish (bosqichma-bosqich), ko‘p takrorlash va mustahkamlash. Masalan: terminlarni oddiy so‘z bilan izohlab berish mumkin ya’ni “Fotosintez — o‘simlikning oziq hosil qilishi”. Nutqida muammo bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash uchun esa yozma shakllarda so’rash, rasm va belgilar orqali tushuntirish, savollarga qisqa javob berish imkoniyati kabilarni qo’llash mos keladi. Bunday o’quvchilarga rasm berib “qaysi rasm yurakka tegishli?” kabi savollarni berib o’rgatish qulay va samarari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta’lim sharoitida biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishini talab etadi. Turli ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun moslashtirilgan metodlar, xususan ko‘rgazmali vositalar, amaliy mashg‘ulotlar va differensial yondashuv biologik bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlab, ta’lim sifatini oshiradi. Inklyuziv metodlarni biologiya fanida qo‘llash ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR

1. Sharipova Nilufar Qo‘ychi qizi. Maktab biologiya ta’limida Inklyuziv muhitni yaratishda everistik yondashuvlar.
2. UNESCO – *Inclusive Education Guidelines*
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони**.**

O‘QUVCHILARNING TADQIQOT KO‘NIKMALRINI SHAKLLANTIRISHNING MAKTAB BIOLOGIYA TA’LIMIDA AMALGA OSHIRILISHI

Daminova Fayoza Abdixakimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
stajyor o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlanayotgan jamiyatda nazariy fikrlay oluvchi va ilmiy faoliyat ko‘nikmalariga ega mutaxassislar zarurligi, shuningdek, maktab ta’liminida tadqiqot faoliyati orqali o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmasini shakllantirish masalalarini ko‘rib chiqigan. Shuningdek dars, sifdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatida ko‘nikmalari hamda kognitiv faoliyatini rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, kompetentlik, maktab ta’limi, biologiya, tadqiqot faoliyati, laboratoriya mashg‘ulotlari.

Аннотатсия. В данной стате рассматривается необходимост подготовки спесиалистов, обладающих теоретическим мышлением и навыками научной деятелности в условиях развивающегося общества. Также анализируются вопросы формирования у учащихся исследователских навыков через исследователскую деятелност в школном образовании. Кроме того, изучены методы развития исследователских умений и когнитивной активности учащихся на уроках, в классной и внеурочной деятелности, а также проанализирована их эффективность.

Ключевые слова: исследование, знания, навыки, умения, компетенсия, компетентност, школное образование, биология, исследовательская деятелност, лабораторные занятия.

Abstract. This article examines the need to train specialists who possess theoretical thinking and research skills in the context of a developing society. It also analyzes issues related to the formation of students' research skills through investigative activities in school education. In addition, the methods of developing students' research abilities and cognitive activity during lessons, as well as in classroom and extracurricular activities, are studied, and their effectiveness is analyzed.

Keywords: research, knowledge, skills, abilities, competence, competency, school education, biology, research activity, laboratory classes.

Kirish. Rivojlanayotgan jamiyat nazariy fikrlay oluvchi, mustaqil echim topa oluvchi va malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bu talabni ta'minlashda maktab ta'limi muhim rol o'ynaydi, jumladan tadqiqot faoliyati orqali. Tadqiqot faoliyati o'quvchilarda muammolarni aniqlash, shaxsiy qiziqishlarni ro'yobga chiqarish va ijodiy izlanishlar olib borish imkonini beradi.

Metodologiya. Davlat ta'lim standartlarga ko'ra, umumta'lim maktabi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarning tizimli majmuasni, mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishi kerak. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga (2020 yil 19 may) ko'ra, kompetensiya – turli faoliyat turlari uchun umumiy bo'lgan vazifalarni hal qilishda mavjud bilim, ko'nikma va malakalar asosida harakat qilish tayyorligi hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida kompetensiya ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, ko'nikma, shaxsiy sifat va amaliyotni qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi[4].

Tahlil. Ko'pchilik pedagog va metodist olimlar N.Muslimov, B.S. Abdullaeva, U.E. Raxmatov, I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoyning fikrlariga ko'ra, kompetensiya – integrativ sifat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy vazifalarni hal qilishda qo'llash tayyorligini o'z ichiga oladi, kompetentlik esa minimal kompetensiya tajribasi mavjudligini anglatadi[1].

Ta'lim mazmuni umumiy meta-fan, fanlararo va fanga xos shakllarga bo'linadi, shuningdek, kompetensiyalar ham asosiy, umumfan va fanga xos turlarga ajratiladi. Tadqiqot malakasi esa asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi va kognitiv kompetensiyaning bir qismi sifatida qaraladi[2.3].

O'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1.Nazariy bosqich – o'qituvchi yordamchi sifatida o'quvchilarni biologiya fanini maqsad va vazifalari hamda turli kashfiyotlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutishi bilan tanishtiradi va biologiya fani soxasida erishilgan yutuqlar hamda uning oldida turgan o'z echimini topishi kerak bo'lgan juda qiziqarli faktlarni keltiradi, biologik tajribalar olib borish tajribasi xaqida ma'lumotlar beradi.

2.Amaliy bosqich – o'quvchilar mustaqil biologiyaga taaluqli turli mavzularda tadqiqot olib borishadi, natijada tadqiqotchilik faoliyati bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiriladi va mustahkamlanadi, bu jarayonda o'qituvchi jarayonni borishini nazarot qiluvchi va konsultant sifatida ishtirok etadi.

Tadqiqot natijalari. Biologiya darslarida tadqiqot ko'nikmalari muammoli vaziyatlar, laboratoriya mashg'ulotlari va natijalar tahlili orqali shakllantiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar

tahlil, sintez, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, klassifikatsiya va asosiysini ajratish kabi ma’naviy operatsiyalarni o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilarni biologiya fanidan olib boradigan tadqiqot faoliyatlarii darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ya’ni seksiyalar, to‘garaklar, konferensiyalar, fakultativ va elektiv kurslar orqali ham samarali tashkil qilinadi:. Masalan, 7-9 sinflar uchun “O‘simliklar (suv o‘tlari)” mavzusida “Yosh biologlar” to‘garagini dasturi ishlab chiqilgan

To‘garak dasturi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-nazariy mashg‘ulotlar

– suv o‘tlarini tuzilishi hayot tarzi va xilma

-xilligi bo‘yicha ilmiy bilimlarni shakllantirish va o‘quvchilar tomonidan Tabiiy fanlar kursidan egallagan bilimlarni rivojlantirish.

-ekskursiyalar

– tadqiqot uchun material to‘plash va qayd etish usullarini egallash.

-laboratoriya mashg‘ulotlari

– laboratoriya jihozlari bilan ishlash, mikropreparat tayyorlash, mikroskop orqali ob’ektlarni o‘rganish, olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tadqiqot usullari: biologiya fanidan tanlangan mavzu bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish va taxlil qilish, laboratoriya jihozlari bilan ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tadqiqot mavzusi bo‘yicha tanlangan materiallarni tahlil qilish va tadqiqot ishlarini tayyorlash. Bular barchasi o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmasini shakllantirish va fanga doimiy qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot malakasini shakllantirish maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nazariy va amaliy bosqichlar orqali, dars va darsdan tashqari tadqiqot faoliyatini tashkil qilish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon turli shakl va usullarni o‘z ichiga olishi, shuningdek tajriba orttirish sharoitlari yaratilishi zarur.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Zuxro Baraka Biznes nashriyoti, 2025.

2. Rahmatov U.E., va boshq. Biologiyadan masala va mashqlar echish: darslik. – Toshkent : Sarvar Print nashriyoti, 2024.

3. Azimov B.I. Maktab biologiya kursini o‘qitishda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida metodologik savodxonlikni shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali. – 2025.

4. Doniyorov M.N., va boshq. Biologiya o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : IlmZiyo Zakovat nashriyoti, 2024.

O‘QUVCHILARNING TADQIQOT KO‘NIKMALRINI SHAKLLANTIRISHNING MAKTAB BIOLOGIYA TA’LIMIDA AMALGA OSHIRILISHI

Daminova Fayoza Abdixakimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
stajyor o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlanayotgan jamiyatda nazariy fikrlay oluvchi va ilmiy faoliyat ko‘nikmalariga ega mutaxassislar zarurligi, shuningdek, maktab ta’liminida tadqiqot faoliyati orqali o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmasini shakllantirish masalalarini ko‘rib chiqigan. Shuningdek dars, sifdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatida ko‘nikmalari hamda kognitiv faoliyatini rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, kompetentlik, maktab ta’limi, biologiya, tadqiqot faoliyati, laboratoriya mashg‘ulotlari.

Аннотатсия. В данной стате рассматривается необходимост подготовки спесиалистов, обладающих теоретическим мышлением и навыками научной деятелности в условиях развивающегося общества. Также анализируются вопросы формирования у учащихся исследователских навыков через исследователскую деятелност в школном образовании. Кроме того, изучены методы развития исследователских умений и когнитивной активности учащихся на уроках, в классной и внеурочной деятелности, а также проанализирована их эффективность.

Ключевые слова: исследование, знания, навыки, умения, компетенсия, компетентност, школное образование, биология, исследовательская деятелност, лабораторные занятия.

Abstract. This article examines the need to train specialists who possess theoretical thinking and research skills in the context of a developing society. It also analyzes issues related to the formation of students’ research skills through investigative activities in school education. In addition, the methods of developing students’ research abilities and cognitive activity during lessons, as well as in classroom and extracurricular activities, are studied, and their effectiveness is analyzed.

Keywords: research, knowledge, skills, abilities, competence, competency, school education, biology, research activity, laboratory classes.

Kirish. Rivojlanayotgan jamiyat nazariy fikrlay oluvchi, mustaqil echim topa oluvchi va malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bu talabni ta’minlashda maktab ta’limi muhim rol o‘ynaydi, jumladan tadqiqot faoliyati orqali. Tadqiqot faoliyati o‘quvchilarda muammolarni aniqlash, shaxsiy qiziqishlarni ro‘yobga chiqarish va ijodiy izlanishlar olib borish imkonini beradi.

Metodologiya. Davlat ta’lim standartlarga ko‘ra, umumta’lim maktabi o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarning tizimli majmuasni, mustaqil faoliyat va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga (2020 yil 19 may) ko‘ra, kompetensiya – turli faoliyat turlari uchun umumiy bo‘lgan vazifalarni hal qilishda mavjud bilim, ko‘nikma va malakalar asosida harakat qilish tayyorligi hisoblanadi. Davlat ta’lim standartlarida kompetensiya ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifat va amaliyotni qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflanadi[4].

Tahlil. Ko‘pchilik pedagog va metodist olimlar N.Muslimov, B.S. Abdullaeva, U.E. Raxmatov, I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoyning fikrlariga ko‘ra, kompetensiya – integrativ sifat bo‘lib, u bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy vazifalarni hal qilishda qo‘llash tayyorligini o‘z ichiga oladi, kompetentlik esa minimal kompetensiya tajribasi mavjudligini anglatadi[1].

Ta’lim mazmuni umumiy meta-fan, fanlararo va fanga xos shakllarga bo‘linadi, shuningdek, kompetensiyalar ham asosiy, umumfan va fanga xos turlarga ajratiladi. Tadqiqot malakasi esa asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi va kognitiv kompetensiyaning bir qismi sifatida qaraladi[2.3].

O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1.Nazariy bosqich – o‘qituvchi yordamchi sifatida o‘quvchilarni biologiya fanini maqsad va vazifalari hamda turli kashfiyotlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutishi bilan tanishtiradi va biologiya fani soxasida erishilgan yutuqlar hamda uning oldida turgan o‘z echimini topishi kerak bo‘lgan juda qiziqarli faktlarni keltiradi, biologik tajribalar olib borish tajribasi xaqida ma’lumotlar beradi.

2.Amaliy bosqich – o‘quvchilar mustaqil biologiyaga taaluqli turli mavzularda tadqiqot olib borishadi, natijada tadqiqotchilik faoliyati bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantiriladi va mustahkamlanadi, bu jarayonda o‘qituvchi jarayonni borishini nazarot qiluvchi va konsultant sifatida ishtirok etadi.

Tadqiqot natijalari. Biologiya darslarida tadqiqot ko‘nikmalari muammoli vaziyatlar, laboratoriya mashg‘ulotlari va natijalar tahlili orqali shakllantiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar tahlil, sintez, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, klassifikatsiya va asosiysini ajratish kabi ma’naviy operatsiyalarni o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilarni biologiya fanidan olib boradigan tadqiqot faoliyatlarii darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ya’ni seksiyalar, to‘garaklar, konferensiyalar, fakultativ va elektiv kurslar orqali ham samarali tashkil qilinadi:. Masalan, 7-9 sinflar uchun “O‘simliklar (suv o‘tlari)” mavzusida “Yosh biologlar” to‘garagini dasturi ishlab chiqilgan

To‘garak dasturi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-nazariy mashg‘ulotlar

– suv o‘tlarini tuzilishi hayot tarzi va xilma

-xilligi bo‘yicha ilmiy bilimlarni shakllantirish va o‘quvchilar tomonidan Tabiiy fanlar kursidan egallagan bilimlarni rivojlantirish.

-ekskursiyalar

– tadqiqot uchun material to‘plash va qayd etish usullarini egallash.

-laboratoriya mashg‘ulotlari

– laboratoriya jihozlari bilan ishlash, mikropreparat tayyorlash, mikroskop orqali ob’ektlarni o‘rganish, olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tadqiqot usullari: biologiya fanidan tanlangan mavzu bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish va taxlil qilish, laboratoriya jihozlari bilan ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tadqiqot mavzusi bo‘yicha tanlangan materiallarni tahlil qilish va tadqiqot ishlarini tayyorlash. Bular barchasi o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmasini shakllantirish va fanga doimiy qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot malakasini shakllantirish maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nazariy va amaliy bosqichlar orqali, dars va darsdan tashqari tadqiqot faoliyatini tashkil qilish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon turli shakl va usullarni o‘z ichiga olishi, shuningdek tajriba orttirish sharoitlari yaratilishi zarur.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Zuxro Baraka Biznes nashriyoti, 2025.

2. Rahmatov U.E., va boshq. Biologiyadan masala va mashqlar echish: darslik. – Toshkent : Sarvar Print nashriyoti, 2024.

3. Azimov B.I. Maktab biologiya kursini o‘qitishda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida metodologik savodxonlikni shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali. – 2025.

4. Doniyorov M.N., va boshq. Biologiya o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : IlmZiyo Zakovat nashriyoti, 2024.

BIOLOGIYA TA’LIMIDA BOBURNOMA MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna
Andijon davlat pedagogika instituti, Biologiya va geografiya kafedrasi v.b.dotsenti (PhD) mansurchik20090909@mail.com
Abduhamidova Onaxon Ilhomjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, Biologiya yo‘nalishi 5-kurs talabasi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada biologiya ta’limida tarixiy-adabiy manbalardan, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik*

asoslari yoritilgan. Asarda keltirilgan 57 turdagi o‘simlik va 38 turdagi hayvonot olamiga oid ma’lumotlarning botanika, zoologiya, ekologiya va biogeografiya fanlarini o‘qitishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik eksperiment natijalariga ko‘ra, “Boburnoma” materiallaridan foydalanilgan guruhlarda o‘quvchilarning biologik bilimlar darajasi nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 14,6% ga yuqori bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, Boburnoma, flora, fauna, ekologiya, integratsiya, didaktika, botanika, zoologiya, biogeografiya, pedagogik eksperiment.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida biologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va fanlararo integratsiya muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va milliy merosdan samarali foydalanish vazifalari belgilangan [1]. Shu nuqtai nazardan, tarixiy-adabiy manbalarning biologik ma’lumotlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish hozirgi zamon ta’lim tizimida dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

“Boburnoma” asari Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) tomonidan yozilgan bo‘lib, unda Movarounnahr, Qobul, Hindiston va boshqa hududlarning tabiati, iqlimi, o‘simlik va hayvonot olami haqida noyob kuzatuvlar jamlangan [2; 384-b]. Asarda 57 turdagi o‘simlik va 38 turdagi hayvonlarning morfologik, ekologik va geografik tavsiflari berilgan. Bu ma’lumotlar XV–XVI asrlardagi Markaziy va Janubiy Osiyo biogeografiyasini o‘rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Biologiya ta’limida tarixiy manbalardan foydalanish masalasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, To‘xtayev va Sodiqov (2018) biologiya o‘qitish metodikasida fanlararo integratsiyani kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan [3; 240-b]. Ishmuhamedov va Abduqodirov (2020) ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkinligini ko‘rsatib o‘tgan [4; 180-b]. Biroq “Boburnoma” asarining biologik merosini tizimli o‘rganish va uni umumta’lim maktablarining biologiya darslarida qo‘llash bo‘yicha maxsus tadqiqotlar yetarli emas.

Metodologiya

Tadqiqot 2025-yil sentyabr oyidan 2026-yil aprel oyigacha ya’ni 3 ta chorak Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanidagi 1 va 4- umumta’lim maktablarida olib borildi.

Tadqiqot bosqichlari va metodlari

1-jadval

Bosqich	Davri	Metodlar
1-bosqich: Nazariy tahlil	2025.11-2026.02	Kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, adabiyotlar sharhi
2-bosqich: Eksperiment	2026.02-2026.03	Pedagogik eksperiment (parallel guruhlar usuli), so‘rovnoma, testlash
3-bosqich: Natijalarni tahlil qilish	2026.04	Statistik ishlov berish (Student t-mezoni), umumlashtirish

Eksperimentda 7-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi (jami 243 nafar: 46 nafar tajriba guruhi, 197 nafar nazorat guruhi). Quyidagi mavzular tanlab olindi:

a) Botanika: “Meva” Gulli o‘simliklarda urug‘lanishdan keyin meva hosil bo‘ladi. Meva urug‘chi tugunchasida hosil bo‘ladi. Meva eti seret bolgan mevalar ho‘l mevalar deyiladi. Ho‘l

mevalar- danakli mevala (olxo‘ri, olcha, o‘rik); rezavor mevalar (pomidor, bulg‘or qalampiri, tok, qoraqat); olma mevalar (olma, nok, behi); qovoq mevalar (tarvuz, qovun, bodring).

b) O‘simliklar turli yo‘llar bilan urug‘ va mevalarni tarqatadi; zooxoriya-hayvonlar yordamida, entomoxoriya-hashoratlar yordamida, gidroxoriya-suv yordamida, avtoxoriya-o‘simlikning o‘z kuchi yordamida [5; 174-b].

c) Zoologiya: “Sutemizuvchilar va qushlar” yuksak tuzilgan issiqqonli hayvonlardir. Qushlarning oldingi oyoqlari qanotlarga aylangan, tanasi pat bilan qoplangan, jag‘lari muguz tumshuqqa aylangan. Tanasi suyri shaklda bo‘lishiga sabab uchayotganda havo qarshilik ko‘rsatishini kamaytiradi.

d) Sutemizuvchilar sinfi-oyoqlari tanasi ostida joylashgan, tanasi yung bilan qoplangan umutqali hayvonlar,ular issiqqonli hayvonlar bo‘lib bolasini sut bilan boqadi. Sutemizuvchilarni teriologiya fani o‘rganadi [5; 174-b].

e) Nazorat guruhlarida darslik asosida an’anaviy usulda, tajriba guruhlarida esa “Boburnoma” materiallari qo‘shimcha manba sifatida qo‘llanildi.

Baholash mezonlari:

O‘quvchilarning bilim darajasi 10 ballik tizimda baholandi. Test topshiriqlari (15 ta savol) har bir mavzu bo‘yicha ishlab chiqildi. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi 5 ballik Likert shkalasi bo‘yicha so‘rovnoma orqali aniqlandi.

3. Natijalar

Bilim darajasidagi o‘zgarishlar

Eksperiment yakunida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq qayd etildi (2-jadval).

Eksperiment natijalari (o‘rtacha ball, 10 ballik tizimda)

2-jadval.

Guruh	Boshlang‘ich (dekabr)	Yakuniy (aprel)	Farq	O‘sish (%)
Tajriba guruhi (n=46)	5,2	8,1	+2,9	+55,8%
Nazorat guruhi (n=197)	5,3	7,1	+1,8	+34,0%

Student t-mezoni bo‘yicha farq statistik ahamiyatli ($p<0,05$).

Mavzular bo‘yicha natijalar

Turli mavzular bo‘yicha yakuniy baholar (o‘rtacha ball)

3-jadval.

Mavzu	**Tajriba guruhi**	**Nazorat guruhi**	**Farq**
Mevali o‘simliklar	8,5	7,3	+1,2
Sut emizuvchilar	8,0	7,0	+1,0
Tabiatni muhofaza qilish	7,8	6,9	+0,9

Eng katta farq “Mevali o‘simliklar” mavzusida kuzatildi, chunki “Boburnoma”da mevali daraxtlar juda batafsil tasvirlangan.

Fanga bo‘lgan qiziqish darajasi:

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra (5 ballik shkala):

4-jadval.

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Biologiya fanini qiziqarli deb hisoblash	4,3 ball	3,6 ball
Darsdan tashqari vaqtda qo‘shimcha material o‘qish	76%	48%
Tabiatga oid kuzatuvlar olib borish	68%	44%

“Boburnoma” asar materiallarining didaktik imkoniyatlari.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “Boburnoma” asari quyidagi biologik tushunchalarni o‘rgatishda samarali qo‘llaniladi:

- ✓ Biogeografiya (hududlar bo‘yicha turlarning tarqalishi);
- ✓ Ekologik moslashuv (sovuqqa va issiqqa chidamlilik);
- ✓ Morfologik tavsiflar (meva shakli, rangi, ta’mi);
- ✓ Fenologik kuzatishlar (gullash va meva berish davrlari).

Tahlil va muhokama.

Olingan natijalar “Boburnoma” asari materiallaridan biologiya ta’limida foydalanish samaradorligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhlarida bilim ko‘rsatkichlarining 55,8% ga o‘sishi nazorat guruhlaridagi 34,0% dan sezilarli darajada yuqori. Bu farq ($p<0,05$) statistik ahamiyatga ega.

Rahmonov (1993) “Boburnomada tabiat tasviri” maqolasida asarning adabiy va tarixiy ahamiyatiga e’tibor qaratgan bo‘lsa [6;23-27-b], bizning tadqiqotimiz asarning bevosita biologik va pedagogik potensialini ochib berdi. Jalilova (2025) “Boburnoma” toponimiyasini tarixiy jihatdan talqin qilgan [7;32-35-b], ammo biologik komponentni tadqiq etmagan.

Xulosa: “Boburnoma” asari biologiya ta’limida muhim didaktik manba bo‘lib, undan foydalanish o‘quvchilarning biologik bilimlarini o‘rtacha 14,6% ga oshirishga, fanga bo‘lgan qiziqishni va ekologik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Asarda keltirilgan 57 turdagi o‘simlik va 38 turdagi hayvonot olamiga oid ma’lumotlar botanika, zoologiya, ekologiya va biogeografiya fanlarini o‘qitishda samarali qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / M. Saloh tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 384 b.

3. To‘xtayev A., Sodiqov Q. Biologiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 240 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 180 b.

5. Saparov K.A., Azimov I., Umaraliyeva M., Tillayeva Z., Abduraxmanova I., Raxmatov U., Haytbayeva S., Bo‘ronboyeva M. Biologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: “Peliable Print”, 2022. – 174 b.

6. Rahmonov M. Boburnomada tabiat tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1993. – №4. – B. 23-27.

7. Jalilova M.M. Historical Interpretation of The Toponymy of Namangan In Zahiriddin Muhammad Bobur’s Work “Boburnoma” // American Journal of Philological Sciences. – 2025. – Vol. 5, №8. – B. 32–35. – DOI: 10.37547/ajps/Volume05Issue08-08.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA ANIQ VA TABIIY FANLARDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Shaxodjayev Maxmud Axmedovich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Elektr muhandisligi” kafedrasi dotsenti, k.f.n., dotsent,
E-mail: m.shaxodjaev@gmail.com
Abdisamatov Elmurodjon Dilmurodovich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Kimyo muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
E-mail: aelmurodjon@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilindi. Ta’lim jarayonini monitoring qilish, baholash, prognozlash hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish aniq va tabiiy fanlarda ta’lim samaradorligini oshirish, talabalar faolligini kuchaytirish hamda ta’lim sifatini boshqarish imkonini berishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, ta’lim sifati, aniq fanlar, tabiiy fanlar, raqamli ta’lim, learning analytics, ta’limni boshqarish, monitoring, individual ta’lim, digital pedagogika.*

Kirish

Bugungi kunda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini boshqarish va monitoring qilishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Ayniqsa, texnika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [1].

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi talabalar bilimini baholash, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni an’anaviy ta’limga nisbatan samaraliroq hisoblanadi [2].

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari talabalar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, o‘quv natijalarini tahlil qilish va ta’lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, learning analytics texnologiyalari ta’lim sifatini boshqarishda muhim vosita hisoblanadi [3].

Jahon amaliyotida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Masalan, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropa davlatlarida sun’iy intellekt asosida ta’limni boshqarish tizimlari joriy etilgan. Ushbu tizimlar ta’lim samaradorligini oshirish hamda talabalar bilim darajasini monitoring qilish imkonini bermoqda [4].

Sun’iy intellekt asosida ta’limni boshqarish tizimlari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Ta’lim jarayonini avtomatik monitoring qilish
- Talabalar bilim darajasini baholash
- Individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish
- Ta’lim natijalarini prognozlash
- Ta’lim samaradorligini oshirish

Mazkur tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt asosida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini tahlil qilish
- Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt imkoniyatlarini aniqlash

– Ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish
– Tadqiqot natijalarini tahlil qilish

Mazkur tadqiqot natijalari aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini boshqarish samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqot olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, taqqoslash, statistik tahlil, learning analytics texnologiyalari hamda so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi [6].

Tadqiqotda 80 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalar ikki guruhga ajratildi:

– Nazorat guruhi - 40 nafar talaba (an’anaviy ta’lim)
– Tajriba guruhi - 40 nafar talaba (sun’iy intellekt asosida ta’lim)

Tadqiqot jarayonida quyidagi raqamli vositalardan foydalanildi:

– HEMIS platformasi
– Google Classroom
– Learning analytics tizimi
– Sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimi
– Raqamli monitoring tizimi

Tadqiqot 1 semestr davomida olib borildi. Tadqiqot davomida talabalar bilim darajasi, faolligi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari hamda o‘zlashtirish darajasi monitoring qilindi [7].

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi.

1-jadval.

Sun’iy intellekt asosida ta’lim samaradorligi

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
O‘zlashtirish darajasi	68	85
Talabalar faolligi	64	87
Mustaqil ta’lim ko‘nikmasi	61	83
Baholash aniqligi	66	88

Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, talabalar faolligi va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarida sezilarli o‘zgarish kuzatildi [8].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Learning analytics texnologiyalari yordamida talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi [9].

Taxlillar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni an’anaviy ta’limga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Talabalar individual o‘qitish asosida bilimlarni tezroq o‘zlashtirdi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

– Talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish
– Individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirish
– Ta’lim natijalarini prognozlash
– Ta’lim sifatini monitoring qilish

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini boshqarish talabalar motivatsiyasini oshirdi. Talabalar mustaqil ishlashga ko‘proq jalb qilindi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimi talabalar bilim darajasini monitoring qilish, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
2. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Paris: UNESCO, 2021.
3. Siemens G. Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist, 2018.
4. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press, 2018.
5. OECD. Artificial Intelligence in Education: A Review of Recent Developments. OECD Publishing, Paris, 2021.
6. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. Springer, 2014.
7. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges. International Journal of Technology Enhanced Learning, 2019.
8. Chen L., Chen P., Lin Z. Artificial Intelligence in Education: A Review. IEEE Access, 2020.
9. Holmes W., Tuomi I. State of the Art in AI and the Future of Education. European Commission, 2020.

REAL VAQTDA BRAYL MATNINI TAHLIL QILISH MUAMMOLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Shodmonov Javohir Abduhamid o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
G‘affarov Shahzod Burxon o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on xizmat ko‘rsatish va servis texnikumi
shahzodgaffarov599@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda real vaqt rejimida Brayl matnini tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish va tizim samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Brayl yozuvi ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun muhim axborot almashinuvi vositasi bo‘lib, uni avtomatik aniqlash va qayta ishlash zamonaviy axborot texnologiyalarining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqotda tasvirlarni qayta ishlash, belgilarni tanib olish algoritmlari, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish usullarining Brayl matnini real vaqt rejimida aniqlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Yorug‘lik sharoitlari, tasvir sifati, shovqinlar, belgilar deformatsiyasi kabi omillar tizim aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun adaptiv filtrlash, chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish, hamda optimallashtirilgan algoritmlar asosida ishlov berish usullari taklif etiladi. Natijada Brayl matnini tezkor va aniq aniqlash imkonini beruvchi samarali yondashuvlar ishlab chiqish istiqbollari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. Brayl yozuvi, real vaqt tizimlari, tasvirni qayta ishlash, belgilarni aniqlash, segmentatsiya, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish (deep learning), konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), kompyuter ko‘rishi, adaptiv filtrlash, shovqinlarni kamaytirish, tasvir sifati, algoritm optimallashtirish, parallel hisoblash, GPU texnologiyalari, mobil ilovalar, avtomatik tanib olish tizimlari.

Kirish: Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha qatlamlari uchun axborotga teng kirish imkoniyatlarini yaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun mo‘ljallangan axborot tizimlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Brayl yozuvi bunday foydalanuvchilar uchun asosiy kommunikatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois Brayl matnlarini avtomatik tarzda aniqlash, tahlil qilish va ularni real vaqt rejimida qayta ishlash masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda.

Real vaqt rejimida Brayl matnini tahlil qilish jarayoni murakkab ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u tasvirni qabul qilish, oldindan qayta ishlash, belgilarni segmentatsiya qilish va ularni tanib olish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarda turli xil texnik va algoritmik muammolar yuzaga keladi. Xususan, tasvir sifatining pastligi, yorug‘lik sharoitlarining o‘zgaruvchanligi, fon shovqinlari hamda Brayl nuqtalarining deformatsiyasi aniqlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, real vaqt talablari hisoblash tezligi va algoritmlarning samaradorligiga yuqori talab qo‘yadi.

Asosiy qism: Real vaqt rejimida Brayl matnini tahlil qilish jarayoni bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda o‘ziga xos muammolar va ularni hal etish usullari mavjud. Ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, tasvirni olish va uni dastlabki qayta ishlash sifatiga bog‘liq. Amaliyotda Brayl matni ko‘pincha kamera yoki skaner yordamida olinadi, bu esa yorug‘likning notekis taqsimlanishi, soyalar, fon shovqinlari va tasvir aniqligining yetarli emasligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli dastlabki bosqichda tasvirni normallashtirish, kontrastni oshirish va shovqinlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda adaptiv filtrlash, median filtri va morfologik amallar samarali natija beradi.

Keyingi bosqich — Brayl nuqtalarini aniqlash va segmentatsiya qilish jarayoni hisoblanadi. Brayl yozuvi olti nuqtali tizimga asoslangan bo‘lib, har bir belgining aniq joylashuvi va o‘lchami muhim rol o‘ynaydi. Ammo real sharoitda nuqtalarning deformatsiyaga uchrashi,

noto‘g‘ri joylashuvi yoki qisman yo‘qolishi kuzatiladi. Bu esa segmentatsiya jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun geometrik xususiyatlarga asoslangan yondashuvlar, shuningdek, klasterlash va kontur aniqlash algoritmlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Brayl belgilarini tanib olish bosqichida esa sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish usullarining o‘rni katta. An’anaviy usullar qat’iy qoidalarga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar, xususan, chuqur o‘rganish (deep learning) modellaridan foydalanish yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) yordamida Brayl belgilarini avtomatik ravishda aniqlash va klassifikatsiya qilish mumkin.

Real vaqt talablarini bajarish tizimning eng muhim jihatlaridan biridir. Chunki foydalanuvchiga tezkor javob qaytarish tizim samaradorligini belgilaydi. Shu sababli algoritmlarni parallel ishlashga moslashtirish, grafik protsessorlardan (GPU) foydalanish hamda yengillashtirilgan (lightweight) neyron tarmoqlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, mobil qurilmalar uchun moslashuvchan dasturiy yechimlar ishlab chiqish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar statistikasi: Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda. 2026-yil 26-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qaysi hududlarning yalpi hududiy mahsuloti eng tez o‘smoqda? 2026-yil 11-mart.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi. Surxondaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirish maqsadida “Sangardak” turistik markazi barpo etilmoqda. 2025-yil 9-iyun.
6. Surxondaryo viloyati hokimligi. Surxondaryo viloyatida turizm salohiyatini oshirish maqsadida 615 gektar maydonda barpo etilayotgan “Sangardak” turistik markazidagi loyihalar. 2025-yil 1-avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Mamlakatimizda quyosh, shamol va issiqlik elektr stansiyalarini barpo etish loyihalari bo‘yicha ma’lumot. 2024-yil 30-dekabr.
8. Qosimov, A. I. Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Nauka i innovatsiya. - 2023. - T. 1, № 29. - B. 4–7.
9. Ruziyev, O. A., Qosimov, A., Mamatov, S. I. Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etishning hozirgi holati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2025. - T. 3, № 1.
10. Kadirova, M. M., Saidova, F. K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. - 2024. - T. 4, № 07. - B. 214–221.

O‘ZBEKISTONDA BANKLAR FAOLIYATI VA KREDITLASH TIZIMI.

Kuldoshev Lazizjon
Kattaqo‘rg‘on Davlat pedagogika institut O‘qituvchisi
Xamdamov Asrorbek Ozodjon o‘g‘li,talaba
asrorjann@gmail.com


Annotatsiya. *Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida banklar faoliyati va kreditlash tizimining zamonaviy holati kompleks tarzda o’rganiladi. Tadqiqot davomida mamlakat bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o‘rni hamda kreditlash mexanizmlarining rivojlanish tendensiyalari o‘rganiladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bank aktivlari, kredit portfeli va depozitlar hajmining barqaror o‘sib borayotgani asosiy statistik ko‘rsatkichlar orqali yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Bank tizimi, kreditlash, tijorat banklari, kredit portfeli, depozitlar, moliyaviy barqarorlik, Markaziy bank, iqtisodiy o‘sish.*

Kirish: Hozirgi globallashuv sharoitida bank tizimi istalgan mamlakat iqtisodiyotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, investitsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda tijorat banklarining o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, banklar faoliyatini takomillashtirish va kreditlash tizimini rivojlantirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda bank-moliya tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda kreditlash tizimi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aholining bank xizmatlariga bo‘lgan talabining ortib borishi esa depozitlar hajmining ko‘payishiga va bank tizimining resurs bazasining mustahkamlanishiga olib kelmoqda. Biroq, bank tizimida mavjud ayrim muammolar, jumladan, davlat banklarining yuqori ulushi, kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklar hamda moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi mazkur sohani yanada chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu sababli O‘zbekistonda banklar faoliyati va kreditlash tizimining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat ega hisoblanadi.

Asosiy qism: O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda izchil rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Xususan, 2025-yil yakunlariga ko‘ra tijorat banklari aktivlari 892,9 trillion so‘mga yetgani ushbu sohaning sezilarli darajada kengayayotganini ko‘rsatadi. Bu o‘sish, avvalo, banklarning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi. Bank tizimining muhim tarkibiy elementi hisoblangan kreditlash jarayoni ham jadal rivojlanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda kredit portfeli hajmi 582 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, bu real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayib borayotganini anglatadi.

Aytish joizki depozitlar hajmining oshib borishi ham bank tizimi barqarorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. 2025-yilda depozitlar hajmi 371 trillion so‘mni tashkil etgani aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida banklarning resurs bazasini mustahkamlashga va kreditlash hajmini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.



1-grafik. Yuqorida O‘zbekiston Respublikasi bank sektorining asosiy ko‘rsatkichlari o‘sish dinamikasi keltirilgan (2022-2025).

Shu bilan birga bank tizimida mavjud muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Eng asosiy muammolardan biri — davlat banklarining ustun mavqega ega ekanligidir. Ularning umumiy aktivlardagi ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda, bu esa banklar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitining to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Natijada xususiy banklar faoliyatining kengayishi ma’lum darajada cheklanadi.

Bundan tashqari kreditlash tizimida valyuta risklari ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim kreditlarning xorijiy valyutada ajratilishi, ayniqsa, milliy valyuta kursining o‘zgaruvchanligi sharoitida qarz oluvchilar uchun qo‘shimcha moliyaviy yukni yuzaga keltiradi. Bu holat kreditlarning qaytarilishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aholi qarzdorligining ortib borishi ham e’tibor talab qiladigan jihatlardan biridir. So‘nggi yillarda iste’mol kreditlari hajmining oshishi qisqa muddatda aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsada, uzoq muddatda ortiqcha qarz yukining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa bank tizimi barqarorligiga potensial xavf tug‘diradi.

Shu o‘rinda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha bir qator taklif va yechimlarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bo‘lib bank sektorida xususiy banklar ulushini oshirish va davlat banklarini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish orqali raqobat muhitini kuchaytirish zarur. Bu bank xizmatlari sifatining oshishiga va mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, bank tizimida davlat banklarining transformatsiya jarayonini jadallashtirish va ularni xususiy sektor bilan teng raqobat sharoitiga olib chiqish muhim hisoblanadi. Bu esa kreditlash jarayonida xizmatlar sifati oshishiga, foiz stavkalarining optimallashishiga hamda mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvning kuchayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, kreditlash jarayonida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Kreditlarni ajratishda qarz oluvchilarning to‘lovga qobiliyatini chuqur tahlil qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish lozim. Ya’ni xalqaro standartlar asosida Basel talablari va zamonaviy risk-menejment instrumentlarini keng joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish zarur. Aholining kreditlardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ortiqcha qarzdorlikning oldini olish mumkin. Bunda maktab, oliy ta’lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy bilimlarni oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish muhimdir. Natijada aholi kredit majburiyatlarini to‘g‘ri rejalashtirish va shaxsiy moliyani samarali boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bank xizmatlarini raqamlashtirishni jadallashtirish ham ahamiyatli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar tezligi

va sifati oshadi, operatsion xarajatlar esa kamayadi. Mobil banking, internet banking, sun’iy intellekt asosida xizmat ko‘rsatish hamda avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlarini rivojlantirish bank sektorining raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bank operatsiyalarida inson omilini kamaytirib, xatoliklar ehtimolini pasaytiradi va xavfsizlik darajasini oshiradi. Umumiy olib qaralganda O‘zbekiston bank tizimi ijobiy rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lsada, uning samaradorligini yanada oshirish uchun tizimli islohotlarni davom ettirish zarur.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimi so‘nggi yillarda barqaror va izchil rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Tijorat banklari aktivlari, kredit portfeli hamda depozitlar hajmining sezilarli darajada oshishi bank sektorining iqtisodiyotdagi o‘rni tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi funksiyasi yanada kengayib, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kreditlash tizimining kengayishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholi va biznes subyektlarining bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchi ortib borishi depozitlar hajmining oshishiga olib kelib, bank tizimining resurs bazasini mustahkamlamoqda.

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank tizimida ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, davlat banklarining yuqori ulushi, kreditlash jarayonidagi risklar hamda aholi qarzdorligining ortishi kabi omillar bank sektorining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababli kelgusida bank tizimini yanada rivojlantirish uchun xususiy banklar ulushini oshirish, kredit risklarini samarali boshqarish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish hamda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar bank sektorining samaradorligini oshirish va uning iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti – www.cbu.uz
2. World Bank Data – Uzbekistan Financial Sector Indicators – www.worldbank.org
3. OECD Banking and Finance Reports – www.oecd.org
4. ScienceDirect (Elsevier) – banking sector and credit risk studies – www.sciencedirect.com
5. Scopus indexed journal articles – banking development and financial intermediation studies
6. Web of Science indexed publications – financial system efficiency and banking transformation research

KELAJAKDA ROBOT-O’QITUVCHILARNING KO’PAYISHI TA’LIM INQIROZIGA SABAB BO’LADI

Ismatova Sitora
Kattaqo’rg’on davlat pedogagika instituti magistranti
ismatovasitora2323@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada sun’iy intellekt va zamonaviy usullarning ta’lim sohasiga joriy etilishi va ularning natijasida yuzaga kelgan muommoli holatlar haqida batafsil bayon qilinadi. XXI asrning 2-yarmidan so’ng ta’lim muassalarida robot-o’qituvchilarning ortib borishining zararli tomonlari haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO’Z: Sun’iy intellekt, robot-o’qituvchi, ta’lim tizmi, zamonaviy metodlar, dasturiy ta’minot.

Kirish. Robot deyilganda, jamiki insoniyat ko’z o’ngida odam qiyofasida bo’lgan,u bajargan barcha harakatlarni qila oladigan temirdan ishlangan buyum keladi.Aslida-chi? Bu termin nisbatan kengroq bo’lgan tushuncha hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda mobil qurilmalarimiz orqali foydalanadigan:wisdom,google-tarjimon,turli xil o’yinlar va hokoza platformalar ham sun’iy intellektga misol bo’la oladi.

Metodologiya Sun’iy intellakt- informatika yo’nalishining alohida sohasi bo’lib,insoniyat ongi bilan bog’liq bo’lgan imkoniyatlarni o’zida jamlaydi.Masalan: tilni o’rganish,tushunish,mulohaza yuritish,masala yechish va tarjima shu kabilar kiradi.Dastavval sun’iy miyaning imkoniyatlari shular bilan cheklangan edi, xolos.Bugungi kunga kelib bu texnologiyalar har qanday sohalarda o’zining katta va kichik ko’rinishlari orqali insonlarning xavotiriga sabab bo’lmoqda.Sun’iy intellektning ilk ko’rinishlari 1940-yillardan boshlab namoyon bo’la boshlagan.Olimlar o’sha vaqtda “mashina ham fikrlay oladimi?” degan savolni o’rtaga tashlagan edi.Bu so’zning paydo bo’lishi esa “Dartmouth Conference” sida “sun’iy intellekt” atamasi birinchi marta rasmiy ishlatilgan.1990-yillarda sun’iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi.1997-yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmatda jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo’ldi.Shundan so’ng dunyo aholisining barcha a’zosi sun’iy aql insoniyatdan ko’ra ancha kuchli ekanligaga ishonishdi.

Tadqiqot natijalari Sun’iy intellektning Ta’lim sohasida qo’llanilishidagi muammolari.

Bugungi kun ta’lim sohasidagi imkoniyatlariga qaraydigan bo’lsak ko’zni quvontiradigan darajada ekanligiga yaqqol amin bo’lamiz. Lekin shu bilan bir qatorda uni qo’llash jarayonidagi muommolarini ham yo’q deya olmaymiz. Avvalo, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolardan biridir. Barcha ta’lim muassasalari ham zamonaviy kompyuterlar, tezkor internet va zarur dasturiy vositalar bilan to‘liq ta’minlanmagan. Bu esa sun’iy intellekt asosidagi platformalardan keng foydalanishni cheklaydi.Bundan tashqari, pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq. Ko‘plab o‘qituvchilar sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas. Natijada, mavjud texnologiyalar to‘liq va samarali qo‘llanilmaydi.

Robot-o’qituvchilar

Tahlilar 1-BOSQICH.AQSh maktablarida robotlar o'qituvchilarga yordam bermoqda.Bu xabar ko’pchilikning hayratiga sabab bo’ldi. Pandemiya davrida ba’zi maktablar gibrid modelga o’tdi. Ya’ni, o’quvchilarning bir qismi maktabga bordi, boshqalari internet orqali uyda ta’lim oldi. Bunday sharoitda o’qituvchi va o’quvchilarni bir-biriga bog’lovchi maxsus robotlardan foydalanilmoqda.Robot-O’qituvchilarning dastlabki ko’rinishi aynan shunday bo’lgan.Ya’ni ular nomustaqil tarzida o’qituvchilarga yordam bera boshlagan.

2-BOSQICH.Xitoydagi bog‘chalardan birida bolalarga murabbiy o‘rniga 60 santimetrli robot dars o‘tishni boshladi. Ta'lim sohasida yangi ish boshlagan “smart” o‘qituvchining ismi - Kiko (Keeko) U bolalarga qiziqarli hikoya, ertaklarni aytadi, turli yoshga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlarni beradi. O‘quvchi savolga to‘g‘ri javob bersa, robot sensor ekranida qizil yurakchalar yonadi. Bundan tashqari, u uzluksiz videoyozuvni amalga oshiradi va savollarga javob beradi. Kiko bilan ishlagan bog‘cha murabbiysi: “Robot bilan ishlash juda maroqli. U odamlarga qaraganda o‘z hissiyotlarini muvozanatda ushlab tura oladi”, deya fikr bildirdi.

3-BOSQICH.Xitoydagi maktablarda ham robot-o’qituvchilarning faoliyati bir necha yil avval boshlanganini va ular mustaqil tarzida dars bera boshlagani haqida xabarlar berildi.

4-BOSQICH. Jorjiya institutida robot dars berganini yarim yil hech kim sezmagan. Jill — bu robot, IBM Watson bazasida ishlaydigan sun’iy intellekt tizimi, ammo biror talaba robot-o‘qituvchi bilan muloqotda buni sezmagan. 2019-yilning yanvaridan Jill assistent o‘qituvchi sifatida to‘qqiz nafar o‘qituvchilar bilan 300 nafar talabaga dasturlar ishlab chiqishga yordam bergan. Jill talabalarga ishlarni topshirish va muhokama qilish jarayonida yordam berib, insonlar ishlatadigan oddiy sleng so‘zlardan foydalangan.

Robot -o’qituvchilar o’z faoliyatini bosqichma-bosqich mustaqil holatga chiqarib oldi va hozirda u ta’lim tizmining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Robot-o’qituvchilar- ta’lim inqirozi

Avvalo, bunday texnologiyalar insoniy omilni cheklaydi. An’anaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchining ruhiy holatini his qiladi, uni qo‘llab-quvvatlaydi va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Robot-o‘qituvchilar esa hissiyot va empatiyadan yiroq bo‘lgani sababli o‘quvchi bilan

chuqur psixologik aloqa o‘rnata olmaydi. Yaponiyada ayrim maktablarda robot-o‘qituvchilar sinov tariqasida joriy etilgan, biroq o‘quvchilar o‘qituvchining mehr, e’tibor va ruhiy qo‘llab-quvvatlashini yetarlicha his qila olmaganliklari aniqlangan. Natijada dars jarayonida motivatsiya pasaygani kuzatilgan.

Ikkinchi muammo — ijodiy va mustaqil fikrlashning cheklanishi. AQShdagi ayrim onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari o‘quvchilarga tayyor javoblarni tez taqdim etadi. Bu esa ba’zi hollarda o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga to‘sqinlik qilib, ularni algoritmik fikrlashga haddan tashqari bog‘lab qo‘ygan.

Uchinchi jihat — texnologiyaga qaramlik va nosozliklar xavfi. Janubiy Koreyada raqamli ta’lim juda rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim maktablarda tizimdagi texnik muammolar sababli darslar vaqtincha to‘xtab qolgan holatlar qayd etilgan. Bu esa o‘quv jarayonining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

To‘rtinchi muammo — ta’limdagi tengsizlik. Hindistonda zamonaviy texnologiyalar asosan yirik shaharlarda mavjud bo‘lib, qishloq hududlarida bunday imkoniyatlar yetarli emas. Natijada robot-o‘qituvchilarni joriy etish ayrim o‘quvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratgan bo‘lsa, boshqalar uchun esa ortda qolish xavfini kuchaytirgan.

Xulosa Robot-o’qituvchilarning ta’lim sohasida ko’payishi insoniy muloqotning kamayishi, o‘qituvchining tarbiyaviy rolining pasayishi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Robot-o‘qituvchilarga haddan tashqari tayanish ta’limni bir xil qolipga solib qo‘yib, ijodkorlikni cheklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Suyumov, J. Y. (2021). Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o’qitish texnologiyasining nazariy asoslari. Scientific progress, 2(3), 459-466.

2. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Xakimova, K. (2021). Imitation modeling technologies in higher educational PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.

3. Pulatov G. G. Simsiz tarmoqni uzaytirish muammolari va yechimlari.

4. Suyumov, J. Y. (2021). Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7), 205-210.

MATEMATIKANI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT VA ADAPTIV JARAYONLARDAN FOYDALANISH

Daliyev Sherzod
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti
daliyevsherzod87@gmail.com
Sarimsoqova Mohira, magistrant

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematikani o‘qitishda sun’iy intellekt (SI) hamda adaptiv ta’lim jarayonlaridan foydalanishning didaktik, texnologik va tashkiliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi matematik ta’lim uchun diagnostika, personalizatsiya, tezkor qayta aloqa va pedagogik interven-siyani birlashtiruvchi AI-integratsiyalashgan adaptiv modelni ishlab chiqishdan iborat. Maqola konseptual-analitik dizaynda bajarilgan bo‘lib, xalqaro siyosiy-huquqiy hujjatlar, meta-tahlillar va tizimli sharhlar asosida sintez qilindi. Natijada o‘qituvchi markaziy figurada qoladigan, AI esa diagnostik va analitik hamkor sifatida ishlaydigan pedagogik model taklif etildi. Tadqiqotda matematika darsi uchun adaptiv topshiriq banki, virtual dashboard, feedback mexanizmi, risklarni boshqarish strategiyasi va joriy etish bosqichlari ishlab chiqildi. Xulosa sifatida SI matematika ta’limida tayyor javob beruvchi mexanizm emas, balki o‘quvchining fikrlash trayektoriyasini aniqlovchi, o‘qituvchining differensial qarorlarini kuchaytiruvchi vosita ekani asoslandi.

Kalit so‘zlar: matematika ta’limi, sun’iy intellekt, adaptiv o‘qitish, intelligent tutoring systems, learning analytics, personalizatsiya, pedagogik dizayn.

Kirish: Raqamli transformatsiya, katta ma’lumotlar, generativ modellar va o‘quv analitikasi taraqqiyoti ta’lim tizimida yangi didaktik paradigma shakllantirmoqda. Ushbu paradigmaning markazida o‘quvchi faoliyatiga doir ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni erta aniqlash va shaxsga mos o‘quv trayektoriyasini yaratish g‘oyasi turadi. Matematika fanida bu ehtiyoj ayniqsa kuchli, chunki mazkur fan mantiqiy ketma-ketlik, tayanch bilimlarning uzviyligi, xatolarni bosqichma-bosqich tuzatish va tafakkur operatsiyalarining aniqligi bilan xarakterlanadi. An’anaviy auditoriya sharoitida o‘qituvchi barcha o‘quvchi uchun bir vaqtning o‘zida individual topshiriq, differensial ko‘mak va tezkor feedbackni muntazam berishi qiyin. Shu bois sun’iy intellekt va adaptiv jarayonlardan foydalanish matematikani o‘qitishda real ehtiyoj sifatida namoyon bo‘lmoqda [1; 3].

Xalqaro tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’limda AI’dan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari ichida personalizatsiyalashgan o‘qitish, intelligent tutoring systems, adaptiv baholash, chat-botlar, avtomatik tavsiya tizimlari va learning analytics alohida o‘rin tutadi. Matematika ta’limiga bag‘ishlangan tizimli sharhlar 2015–2025 yillarda aynan AI yordamida individual trayektoriya yaratish, xatolar tipologiyasini tahlil qilish va bosqichma-bosqich yordam berish bo‘yicha tadqiqotlar soni ortganini ko‘rsatadi [5]. Bu jarayon matematik ta’limni faqat “ko‘p misol ishlash” modelidan “o‘quvchi fikrlash mexanizmini kuzatish va moslashtirish” modeliga olib kelmoqda.

Adaptiv o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini o‘rtacha o‘quvchiga emas, balki real o‘quvchining holatiga moslashtirishdan iborat. Bunday moslashtirish o‘quvchi bilim darajasi, topshiriq bajarish sur’ati, xato sabablari, oldingi mavzular bilan bog‘liq qiyinchiliklari, motivatsion holati va metakognitiv tayyorgarligini hisobga oladi. Maktab va oliy ta’lim kontekstidagi yirik tizimli sharhlar adaptiv ta’lim eng ko‘p matematika fanida o‘rganilishini, biroq ko‘plab tizimlar hali ham faqat natijaviy ko‘rsatkichlarga tayanishini ko‘rsatadi [4]. Shundan kelib chiqib, samarali matematik adaptiv muhit xatoni faqat qayd etmasligi, balki uning kelib chiqish sababini, tipini va zarur pedagogik interven-siya turini aniqlashi kerak.

Sun’iy intellektning pedagogik qiymati ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinadi. Ba’zan u tayyor javob beruvchi yoki o‘qituvchini almashtiruvchi tizim sifatida ko‘riladi. Aslida zamonaviy hujjatlar aksincha pozitsiyani ilgari suradi: UNESCO generativ AI bo‘yicha yo‘riqnomasida inson-markazli boshqaruv, yoshga mos foydalanish, ma’lumotlar maxfiyligi va etik validatsiyani ustuvor mezon deb belgilaydi [1]. AQSh Ta’lim departamenti esa human-in-the-loop tamoyilini asosiy talab sifatida ko‘rsatib, AI pedagogik hukmni emas, pedagogik qaror sifatini kuchaytirishi lozimligini ta’kidlaydi [3]. Demak, matematika darsidagi haqiqiy innovatsiya AI’ning mavjudligida emas, balki uning o‘qituvchi faoliyati bilan to‘g‘ri integratsiyasidadir.

Metodologik jihatdan matematika AI uchun juda qulay o‘quv sohasi hisoblanadi. Bir tomondan, masalalarni yechish bosqichlari aniq va formal; ikkinchi tomondan, xatolarni avtomatik aniqlash, o‘xshash misollarni tavsiya etish, grafik va formulalarni interaktiv tushuntirish, murakkablik darajasini avtomatik o‘zgartirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, haddan tashqari avtomatlashtirish o‘quvchini tayyor algoritmlarga qaram qilib qo‘yishi, mustaqil reasoningni sustlashtirishi va masala mohiyatini chuqur tahlil qilishni kamaytirishi mumkin. Shuning uchun matematika ta’limida AI’ni joriy etish texnologik emas, avvalo didaktik va etik muammo sifatida ko‘rilishi kerak [2; 6].

Empirik meta-tahlillar AI vositalari matematik natijalarga odatda kichik yoki o‘rta ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Masalan, K–12 darajasi bo‘yicha tizimli sharh va meta-tahlilda AI vositalarining matematik natijalarga umumiy ijobiy ta’siri aniqlangan, ayniqsa intelligent tutoring systems va adaptive learning systems ko‘proq samaradorlik bergan [6]. Boshlang‘ich ta’lim misolida esa AI ta’siri kichik, ammo statistik jihatdan ijobiy ekani qayd etilgan [7]. Bunday natijalar SI’ni sehrli vosita emas, balki o‘qituvchining differensial yondashuvini kuchaytiradigan vosita sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda AI’ni qo‘llashning amaliy muvaffaqiyati ko‘proq o‘qituvchining tayyorgarligi, institutsional qo‘llab-quvvatlash, texnologik infratuzilma, ota-ona va jamiyatning

qabul qilishi hamda fan metodikasiga mos integratsiya darajasiga bog‘liq. Primary mathematics bo‘yicha tadqiqotlarda TPACK kompetensiyasi, o‘qituvchi munosabati va tashqi qo‘llab-quvvatlovchi omillar AI’ni samarali joriy etishda asosiy determinantlardan ekani ko‘rsatilgan [8]. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining AI bilan ishlash ko‘nikmasi matematika darsida yangi kompetensiyalar kompleksini talab qiladi: ma’lumotlarni talqin qilish, moslashtirilgan topshiriq dizayni, etik nazorat, xatolarni tipologik tahlil qilish va refleksiv boshqaruv.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, u matematikani o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishni faqat vositalar ro‘yxati darajasida emas, balki yaxlit didaktik model, jarayon arxitekturasi va pedagogik qarorlar tizimi sifatida talqin qiladi. Tadqiqotning maqsadi matematika ta’limi uchun AI-integratsiyalashgan adaptiv model ishlab chiqish, uning metodologik asoslarini ochib berish va amaliy joriy etish mexanizmlarini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: 1) matematika ta’limida AI vositalarining didaktik funksiyalarini tasniflash; 2) adaptiv jarayonlarning komponentlarini aniqlash; 3) matematika darsi uchun konseptual model va virtual dashboard yaratish; 4) joriy etishdagi xavf va cheklovlarni baholash.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida zamonaviy meta-tahlillar, tizimli sharhlar, xalqaro me’yoriy-huquqiy tavsiyalar va AI’ning matematika ta’limiga integratsiyasiga oid empirik tadqiqotlar sintez qilindi [1–8]. Mazkur yondashuv eksperimental ma’lumot to‘plashdan ko‘ra, mavjud ilmiy dalillarni tahlil qilish va ular asosida pedagogik konstruksiya ishlab chiqishga qaratildi.

Tahlil bir necha mezonlar asosida olib borildi: (a) AI vositasining pedagogik funksiyasi; (b) adaptivlik manbai; (c) feedback turi; (d) o‘qituvchi nazorati darajasi; (e) xavf va cheklovlar; (f) matematika faniga mosligi. Har bir manba shu mezonlar bo‘yicha kodlandi va o‘zaro taqqoslandi. Natijada matematikani o‘qitish uchun ‘diagnostika – tahlil – moslashtirish – feedback – interven-siya – monitoring’ zanjiri ishlab chiqildi.

Taklif etilgan modelning metodologik asosi uch komponentdan iborat: birinchisi, didaktik komponent — o‘quv maqsadi, mazmun, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari; ikkinchisi, texnologik komponent — AI moduli, analytics, adaptiv topshiriq banki va dashboard; uchinchisi, boshqaruv komponenti — o‘qituvchining aralashuv nuqtalari, etik nazorat va qaror qabul qilish jarayoni. Shu tariqa maqoladagi natijalar real eksperiment emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik-proyektiv model sifatida talqin qilinadi.


Tahlil va natija: AI va adaptiv jarayonlarning matematika ta’limidagi asosiy funksiyalari Adabiyotlar tahlili matematika ta’limida AI asosan besh asosiy funksiyani bajarishini ko‘rsatdi: diagnostika, personalizatsiya, tezkor feedback, o‘quv analitikasi va pedagogik tavsiya shakllantirish. Diagnostik funksiya o‘quvchining oldingi bilimlari va xatolaridagi naqshlarni aniqlaydi; personalizatsiya esa ayni paytdagi ehtiyojiga mos topshiriq va resursni tanlaydi. Tezkor feedback o‘quvchini xatoni tuzatish uchun yo‘naltiradi, learning analytics o‘qituvchi uchun qaror qabul qilishga asos yaratadi, pedagogik tavsiyalar esa intervensiya nuqtalarini ko‘rsatadi [3; 5].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, samarali matematik adaptiv muhitda AI o‘quvchiga to‘liq tayyor yechimni uzatmasligi kerak. Aksincha, yordamning bosqichma-bosqich kuchayib boradigan shakllari qo‘llanishi maqsadga muvofiq: eslatma, ishora, formulaga murojaat, o‘xshash misol, mikroizoh va yakunda o‘qituvchi aralashuvi. Bunday yondashuv o‘quvchi reasoningini saqlab qoladi va kognitiv qaramlik xavfini kamaytiradi.

Tahlil yana bir muhim jihatni ko‘rsatdi: matematika ta’limi uchun eng foydali AI tizimlari faqat natijani qayd etadigan emas, balki xato turini diagnostika qiladigan, topshiriq murakkabligini moslashtiradigan va keyingi qadamni tavsiya etadigan tizimlardir. Demak, samarali platforma uchta savolga javob bera olishi kerak: o‘quvchi nimani bilmayapti, nega qiyinlayapti va ayni paytda unga qaysi turdagi yordam eng mos keladi. Quyidagi konseptual model aynan shu mantiq asosida ishlab chiqildi.

Meta-tahlil natijalari ham AI’dan foydalanishning ijobiy, biroq me’yorli samarasini tasdiqlaydi. K–12 bosqichi bo‘yicha olib borilgan tizimli sharhda sun’iy intellekt asosidagi

vositalar matematik o‘zlashtirishga kichikdan o‘rta darajagacha ijobiy ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan; ayniqsa intelligent tutoring systems va adaptive learning systems an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqoriroq natija bergan [6]. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha meta-tahlil ham AI ta’sirining statistik jihatdan ijobiy ekanini tasdiqlaydi [7]. Bu ma’lumotlar SI’ni universallashtirilgan yechim emas, balki to‘g‘ri didaktik dizayn bilan samaradorligi ortadigan vosita sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.



Rasm 1. AI-integratsiyalashgan adaptiv matematika ta’limi modeli (muallif ishlanmasi).

Matematik dars uchun adaptiv ssenariy

Taklif etilgan modelning amaliy ishlash mantig‘i darsning har bir bosqichida AI va o‘qituvchi rolini aniq taqsimlashni nazarda tutadi. Quyidagi jadvalda matematika darsi uchun tavsiya etiladigan adaptiv ssenariy keltirilgan.


Jadval 1. AI va adaptiv jarayonlar asosidagi matematika darsi arxitekturasi.

Bosqich	Mazmun	AI vositasi	O‘qituvchi roli	Kutilayotgan natija
1	Kirish testi, oldingi bilim va tipik xatolarni aniqlash	Diagnostik quiz, analytics	Natijani talqin qiladi	O‘quvchi profili shakllanadi
2	Darajaga ko‘ra segmentatsiya va ehtiyojlarni ajratish	Recommendation engine	Guruhlarni tasdiqlaydi	Differensial yo‘naltirish
3	Moslashtirilgan mashq va topshiriqlar	ITS, task generator	Murakkablikni nazorat qiladi	Shaxsiy mashq trayektoriyasi
4	Tezkor feedback va ishoralar	Chatbot, hint system	Qo‘shimcha izoh beradi	Xatolarni tuzatish tezlashadi
5	Maqsadli intervensiya	Dashboard alert	Qiyinlanayotgan o‘quvchiga aralashadi	O‘zlashtirishdagi uzilish kamayadi
6	Refleksiya va mini-baholash	Adaptive assessment	Yakuniy xulosani beradi	Progress xaritasi olinadi

Virtual monitoring muhiti va o‘qituvchi dashboardi

Matematika darsida o‘qituvchi uchun eng muhim masala — sinfdagi har bir o‘quvchining qayerda qiyinlayotganini tez va aniq ko‘ra olishdir. Virtual dashboard aynan shu vazifani bajaradi: sinf kesimidagi o‘zlashtirish holati, individual xatolar, xavf signallari va intervensiya tavsiyalarini bitta ekran orqali ko‘rsatadi.

Dashboardning pedagogik ahamiyati shundaki, u o‘qituvchini ma’lumotga bo‘g‘maydi, balki qaror qabul qilish uchun zarur minimal, ammo mazmunli ko‘rsatkichlarni taqdim etadi. Masalan, diskriminant formulasini noto‘g‘ri qo‘llash darajasi, manfiy ishoradagi xatolar, yechimni tekshirish bosqichini tashlab ketish kabi indikatorlar mavzuga mos intervensiyani tez rejalashtirishga imkon beradi.



Rasm 2. Matematik dars uchun virtual o‘qituvchi dashboardi (konseptual ko‘rinish).

AI vositalarining didaktik tasnifi

Matematika ta’limida qo‘llanadigan AI vositalari vazifasiga ko‘ra farqlanadi. Ularni bir xil maqsadda qo‘llash metodik xatolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun quyidagi tasnif taklif etiladi.

Jadval 2. Matematik ta’limdagi asosiy AI vositalari va ularning funksiyalari.

Vosita turi	Asosiy vazifa	Matematikadagi qo‘llanishi	Didaktik ustunligi	Potensial xavf
Chatbot / LLM	Muloqot va izoh	Teorema, masala bosqichlari, qisqa tushuntirish	Tezkor va moslashuvchan muloqot	Hallutsinatsiya, ortiqcha ishonch
ITS	Yo‘naltirilgan yordam	Algebra, arifmetika, geometriya bo‘yicha bosqichli ko‘mak	Individual scaffolding	Haddan tashqari algoritmlashish
Adaptive platform	Murakkablikni moslash	Tayanch va murakkab topshiriqlarni navbatlash	Personalizatsiya	Natijani faqat testga bog‘lash
Learning analytics	Tahlil va monitoring	Xatolar xaritasi, progress dinamikasi	Qaror sifatini oshiradi	Maxfiylik va kuzatuv xavfi
Task generator	Topshiriq yaratish	Variant, test, mustaqil ish, uy vazifa	Vaqtni tejaydi	Sifat nazorati zarur

Muhokama: Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning pedagogik samarasini texnologiyaning o‘zi emas, balki uning didaktik integratsiyasi belgilaydi. Agar AI faqat tayyor javob berish yoki test natijasiga qarab darajalash uchun ishlatilsa, uning ta’limiy samarasi

cheklangan bo‘ladi. Biroq u xato sababini, fikrlash bosqichini va keyingi optimal topshiriqni aniqlashga xizmat qilsa, matematika darsining differensial sifati sezilarli oshadi [5; 6].

Shuningdek, o‘qituvchining roli markazda qolishi zarur. AI o‘quvchining o‘zlashtirish naqshlarini ko‘rsatishi, lekin pedagogik qarorni o‘qituvchi qabul qilishi kerak. Bu yondashuv bir tomondan professional mas’uliyatni saqlaydi, ikkinchi tomondan AI’ning noto‘g‘ri tavsiyalari yoki algoritmik xolis bo‘lmagan qarorlaridan himoya qiladi [1; 3].

Matematika ta’limida AI’dan foydalanishning eng katta xavflaridan biri kognitiv qaramlikdir. O‘quvchi masalani mustaqil tahlil qilish o‘rniga, tizimning tayyor ko‘rsatmalariga to‘liq suyanib qolishi mumkin. Shu sababli ‘reasoning-first’ tamoyili asosiy mezon bo‘lishi lozim: avval o‘quvchining o‘zi fikrlaydi, keyin AI ishora beradi, so‘ngra o‘qituvchi umumlashtiradi. Bunday uch pog‘onali yordam modeli tafakkur mustaqilligini saqlab qoladi.

Joriy etishning tashkiliy jihatlari ham muhim. AI tizimlaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarni TPACK, data literacy, etik nazorat va adaptiv topshiriq dizayni bo‘yicha tayyorlash zarur [8]. Shu bilan birga, infratuzilmaviy tengsizlik, resurslar yetishmasligi va platformalar sifatidagi farqlar hisobga olinmasa, AI joriy etish ta’limdagi mavjud tafovutlarni yanada kuchaytirishi mumkin [2].

XATARLAR, CHEKLOVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Matematika ta’limida AI’dan foydalanish jarayonida xatarlarni oldindan boshqarish zarur. Quyidagi jadval amaliy joriy etish uchun minimal xavf-menejment kartasini beradi.

Jadval 3. AI asosidagi matematika ta’limi uchun xavf va boshqaruv choralari.

Xatar	Mazmuni	Qarshi chora
Ma’lumotlar maxfiyligi	O‘quvchi faoliyatiga oid ma’lumotlar ortiqcha yig‘ilishi yoki himoyasiz saqlanishi mumkin.	Minimal ma’lumot yig‘ish, rozilik, lokal siyosat va xavfsiz saqlash.
Algoritmik noxolislik	Tizim ayrim guruhlar uchun noto‘g‘ri tavsiya yoki noxolis darajalash berishi mumkin.	Audit, teacher override, fairness tekshiruvi va muntazam monitoring.
Kognitiv qaramlik	O‘quvchi mustaqil fikrlash o‘rniga tayyor ko‘rsatmaga suyanib qolishi mumkin.	Reasoning-first dizayni, bosqichli yordam va og‘zaki izohlashni talab qilish.
Metodik tayyorgarlik yetishmasligi	Vosita mavjud bo‘lsa-da, undan pedagogik jihatdan samarali foydalanish sust bo‘lishi mumkin.	O‘qituvchilar uchun TPACK, AI-pedagogika va analytics bo‘yicha treninglar.
Infratuzilma tengsizligi	Resursi kam hududlarda internet, qurilma va platforma imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin.	Offline ssenariylar, bosqichli joriy etish va yengil platformalarni tanlash.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijasida matematikani o‘qitish uchun sun’iy intellekt va adaptiv jarayonlarga asoslangan yaxlit didaktik model taklif etildi. Model diagnostika, profil yaratish, topshiriqni moslashtirish, tezkor feedback, pedagogik interven-siya va monitoring kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi hamda o‘qituvchining markaziy rolini saqlab qoladi.

Xulosa sifatida quyidagilar aniqlandi: (1) matematika ta’limida AI’dan foydalanishning eng istiqbolli yo‘nalishi personalizatsiya va adaptiv o‘qitishdir; (2) samaradorlik ko‘proq intelligent tutoring systems va adaptive learning systems bilan bog‘liq; (3) AI’ni joriy etishning pedagogik muvaffaqiyati o‘qituvchining tayyorgarligi, etik nazorat va infratuzilma bilan belgilanadi; (4) AI o‘qituvchini almashtirmaydi, balki uning diagnostik va refleksiv faoliyatini kuchaytiradi.

Kelgusida ushbu modelni real auditoriya sharoitida pre-test/post-test dizayni, nazorat va tajriba guruhlari asosida empirik sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu esa sun’iy intellektning matematik kompetensiyalar, mantiqiy fikrlash va o‘quvchi motivatsiyasiga ta’sirini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
2. OECD. AI Adoption in the Education System. OECD Education Policy Perspectives, 2025.
3. U.S. Department of Education, Office of Educational Technology. Artificial Intelligence and the Future of Teaching and Learning: Insights and Recommendations. Washington, DC, 2023.
4. Bach, K. M., Hofer, S. I., & Bichler, S. Adaptive learning, instruction, and teaching in schools: Unraveling context, sources, implementation, and goals in a systematic review. Learning and Individual Differences, 124, 102781, 2025. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2025.102781
5. Nguyen, D. T., & Pham, Q. V. The evolving landscape of AI integration in mathematics education: A systematic review of trends (2015–2025). EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 21(10), em2714, 2025. https://doi.org/10.29333/ejmste/17078\
6. Yi, L., Liu, D., Jiang, T., et al. The Effectiveness of AI on K–12 Students’ Mathematics Learning: A Systematic Review and Meta-Analysis. International Journal of Science and Mathematics Education, 23, 1105–1126, 2025. https://doi.org/10.1007/s10763-024-10499-7
7. Hwang, S. Examining the Effects of Artificial Intelligence on Elementary Students’ Mathematics Achievement: A Meta-Analysis. Sustainability, 14(20), 13185, 2022. https://doi.org/10.3390/su142013185
8. Li, M. Integrating Artificial Intelligence in Primary Mathematics Education: Investigating Internal and External Influences on Teacher Adoption. International Journal of Science and Mathematics Education, 23, 1283–1308, 2025. https://doi.org/10.1007/s10763-024-10515-w

IJTIMOIY XIZMATLAR TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI INSON KAPITALI RIVOJINI OPTIMALLASHTIRISH

N.I.Azizova
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti asisstenti
ikramovanilyufar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda ijtimoiy xizmatlar va ularning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli, shuningdek, raqamlashtirishning ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlaridagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy xizmatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim sohasi malakali va raqobatbardosh ishchi kuchini tayyorlash, sog‘liqni saqlash tizimi aholi salomatligini mustahkamlash va ishchi kuchining samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimi esa zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlashda xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Inson kapitali, ijtimoiy xizmatlar, raqamlashtirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash elektron xizmatlar.

Inson kapitali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim resurslardan biri bo'lib, uni shakllantirishda ijtimoiy xizmatlarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xizmatlar — ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini o‘z ichiga olgan, aholining hayot sifatini oshirishga qaratilgan xizmatlar majmuasi bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda markaziy ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sohasi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni oshirish, balki innovatsion fikrlash va raqobatbardosh ishchi kuchini tayyorlash orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Sog‘liqni saqlash tizimi aholining jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, ishchi kuchining samaradorligini oshiradi va ijtimoiy xavfsizlikni

ta’minlaydi. Ijtimoiy himoya tizimi esa zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, tenglik va ijtimoiy adolatni mustahkamlash orqali jamiyat barqarorligini oshiradi. Shu tariqa, ijtimoiy xizmatlar nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni kamaytirishda ham bevosita hissa qo‘shadi. Bugungi kunda ushbu tizimning samaradorligini oshirish va aholi ehtiyojlariga moslashtirishda raqamlashtirish markaziy rol o‘ynaydi. Elektron xizmatlar va ma’lumotlar bazalari orqali pensiya, nafaqa, grant, litsenziya va boshqa ma’muriy jarayonlar tezkor va samarali amalga oshiriladi, bu esa xizmatlarning hududiy teng taqsimlanishiga imkon yaratadi. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar va telemeditsina xizmatlari aholining bilim, ko‘nikma va salomatlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy xizmatlar tizimini samarali, tezkor va hududiy sharoitga moslashuvchan tizimga aylantiradi, bu esa ayniqsa chekka hududlar va qishloq joylarda xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish bugungi kunda ularning samaradorligini oshirish, aholiga tez va qulay yetkazish hamda inson kapitalini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim sohasida raqamlashtirish orqali elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari va interaktiv o‘quv tizimlari joriy etilmoqda, bu esa o‘quvchilarga va talabalar uchun bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, sifatli ta’limni hududlar bo‘yicha teng taqsimlashga yordam beradi. Masofaviy ta’lim tizimlari ayniqsa chekka hududlar va qishloq joylarda sifatli o‘qitish imkonini yaratadi va insonning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi. Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish telemeditsina xizmatlari, elektron sog‘liqni saqlash kartalari va onlayn konsultatsiyalar orqali aholining salomatligini nazorat qilish va tibbiy yordam olish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Telemeditsina hududiy cheklovlar, shifokorlar yetishmasligi yoki uzoq masofalarni yengib o‘tishga ehtiyojni kamaytiradi, shuningdek, kasalliklarning erta tashxisini qo‘llab-quvvatlaydi, ishchi kuchining samaradorligini oshiradi va sog‘lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya tizimida raqamlashtirish nafaqa va yordam dasturlarini elektron tizimga o‘tkazish, ariza va to‘lovlarni onlayn amalga oshirish imkonini yaratadi. Bu jarayon aholiga o‘z vaqtida va aniq yordam olish imkonini beradi, byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi va ijtimoiy xizmatlarning shaffofligini oshiradi. Shu tariqa, raqamlashtirish ijtimoiy xizmatlarni tezkor, qulay va hududlar bo‘yicha teng taqsimlangan tizimga aylantiradi, inson kapitalini rivojlantirish, aholining farovonligini oshirish va jamiyatdagi ijtimoiy adolatni mustahkamlashda bevosita rol o‘ynaydi. Raqamlashtirish inson kapitalini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi. Bilim va ko‘nikmalarni oshirish yo‘nalishida raqamli platformalar, onlayn kurslar, ta’lim portallari va masofaviy treninglar nafaqat o‘quv jarayonini qulaylashtiradi, balki sifatli ta’limni hududlar bo‘yicha teng taqsimlashga yordam beradi. Masofaviy ta’lim tizimlari ayniqsa chekka hududlarda, qishloq joylarda va resurslari cheklangan maktab va kollejlarda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish imkonini beradi. Shu orqali har bir fuqaro o‘z intellektual salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi, bu esa raqobatbardosh ishchi kuchi shakllanishiga, innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamlashtirilgan ta’lim tizimlari doimiy professional rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi: xodimlar va mutaxassislar o‘z kasbiy ko‘nikmalarini yangilab boradi, yangi bilim va texnologiyalarni tezkor o‘zlashtiradi, bu esa ish unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Salomatlikni ta’minlash yo‘nalishida raqamlashtirish telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash kartalari va masofaviy monitoring tizimlari orqali amalga oshiriladi. Telemeditsina hududiy cheklovlarni bartaraf etadi, shifokorlar yetishmovchiligi muammosini kamaytiradi va aholining salomatligini doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Masofaviy konsultatsiyalar va diagnostika orqali kasalliklar erta aniqlanadi, davolash jarayoni tezlashadi va ishchi kuchining mehnatga layoqatliligi oshadi. Shu bilan birga, elektron sog‘liqni saqlash kartalari va ma’lumotlar bazalari yordamida shaxslar tarixiy tibbiy ma’lumotlari tahlil qilinadi, bu esa individual sog‘liqni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish va ijtimoiy himoya tizimlari orqali yordam ko‘rsatishni yanada samarali qiladi.

Ishchi kuchi malakasini oshirish mexanizmlari esa raqamli platformalar orqali doimiy professional rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Onlayn sertifikatlash tizimlari, professional kurslar, interaktiv treninglar va virtual laboratoriyalar xodimlarga o‘z kasbiy kompetensiyalarini yangilash, yangi bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, raqamlashtirish mexanizmlari inson kapitalini har tomonlama rivojlantiradi: bilim va ko‘nikmalarni oshiradi, salomatlikni mustahkamlaydi va ishchi kuchi malakasini doimiy yangilaydi. Natijada jamiyatda malakali, sog‘lom va raqobatbardosh ishchi kuchi shakllanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi ortadi va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Shuningdek, raqamlashtirishning samaradorligi hududiy va demografik xususiyatlarga moslashuvchan tizim yaratish orqali yanada oshadi. Chekka hududlarda mobil ilovalar va masofaviy xizmatlar, shahar markazlarida esa interaktiv platformalar orqali xizmat ko‘rsatish aholiga teng imkoniyat yaratadi. Shu tarzda, raqamlashtirish inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlari sifatida jamiyatning barcha qatlamlariga yetib boradi, ijtimoiy adolat va tenglikni mustahkamlaydi, kambag‘allikni kamaytiradi va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Raqamlashtirishning samaradorligi nafaqat texnologiyaning mavjudligiga, balki hududiy sharoitlar va aholining texnologiyaga kirish imkoniyatlariga ham bevosita bog‘liq. Shahar hududlarida yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalar mavjudligi xizmatlarning tez va samarali yetkazilishini ta’minlasa, qishloq hududlarida va kam resursli joylarda raqamlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi aholining ijtimoiy xizmatlarga teng imkoniyat bilan ega bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar, telemeditsina va onlayn ijtimoiy himoya tizimlari orqali chekka hududlarda yashovchi aholi sifatli ta’lim, tibbiy xizmat va yordam dasturlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, hududiy va demografik jihatlarni hisobga olgan holda raqamlashtirish mexanizmlari inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga maksimal samaradorlik bilan xizmat qiladi. Bu yondashuv aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyat yaratadi, xizmatlarning hududiy taqsimotidagi nomutanosibliklarni kamaytiradi va jamiyatdagi ijtimoiy adolat hamda barqaror rivojlanishni mustahkamlaydi.

Xulosa. Raqamlashtirish mexanizmlarini hududiy sharoitlar va aholining texnologiyaga kirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish zarur. Ayniqsa chekka hududlar va kam resursli joylarda mobil ilovalar, masofaviy xizmatlar va onlayn platformalarni keng joriy etish orqali aholining ijtimoiy xizmatlarga teng kirishini ta’minlash mumkin. Ta’lim sohasida interaktiv o‘quv tizimlari, elektron darsliklar, masofaviy treninglar va onlayn kurslar orqali nafaqat o‘quvchilar va talabalar bilim darajasini oshirish, balki doimiy professional rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, ishchi kuchining malakasini doimiy yangilash va innovatsion fikrlashni shakllantirish muhimdir. Sog‘liqni saqlash tizimida telemeditsina, elektron sog‘liqni saqlash kartalari va masofaviy monitoring tizimlarini joriy etish orqali kasalliklarning erta tashxisini ta’minlash, davolash jarayonini tezlashtirish va ishchi kuchining samaradorligini oshirish mumkin. Ijtimoiy himoya tizimida esa nafaqa va yordam dasturlarini elektron tizimga o‘tkazish, ariza va to‘lovlarni onlayn amalga oshirish orqali byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, shaffoflikni oshirish va aholiga o‘z vaqtida yordam yetkazish ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *Raqamli O‘zbekiston — 2030* **strategiyasi hujjati. —** Toshkent: *Lex.uz,* 2020

2. Turopova N. *O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya va uning rivojlanishiga ta’siri.* — Termiz*: Termiz Davlat Universiteti nashri, 2024*

3. Umarkulov K., Abdunosirova N. *O‘zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar. — Muhandislik va Iqtisodiyot 2025.*

4. https://gov.uz/oz/advice/775/document/2809?utm_source

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI

Ibragimova Nilufar
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi
Absamatova Nafisa Shovkat qizi, talaba
anfisawavkatovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida mehnat bozorining sifat jihatdan yangilanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda e’tibor mehnat munosabatlarining raqamli muhitga moslashuvi, ish o‘rinlarining moslashuvchan shakllari va inson kapitalining yangicha talablarga javob berishiga qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki mehnatning mazmuni va shaklini ham tubdan o‘zgartirmoqda.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, mehnat bozori evolyutsiyasi, moslashuvchan bandlik, inson kapitali, raqamli ko‘nikmalar, innovatsiya, mehnat samaradorligi.

Kirish. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayoni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda boshqaruv tizimlariga keng joriy etilib, mehnat munosabatlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Natijada, an’anaviy mehnat bozori modeli asta-sekin o‘z o‘rnini moslashuvchan va innovatsion mehnat tizimiga bo‘shatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham mehnat bozori transformatsiyasini jadallashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilish, bandlikni ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ish shakllarini rivojlantirish va kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kadrlar bandligi va raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Unda nazariy tahlil, empirik kuzatuv hamda statistik ma’lumotlar tahlili qo‘llanildi. Shuningdek, xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti taqqoslab o‘rganildi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalar mehnat bozorining faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ichki mexanizmlarini ham o‘zgartirmoqda.

Birinchidan, mehnat bozori tobora **moslashuvchanlikka asoslangan tizimga** aylanmoqda. Masofaviy ish, frilanserlik va loyiha asosida ishlash shakllari keng tarqalmoqda. Bu esa an’anaviy “bir ish joyi — doimiy faoliyat” modelining zaiflashishiga olib kelmoqda. Undan tashqari, **inson kapitalining sifati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.** Endilikda faqat diplom emas, balki amaliy ko‘nikmalar, ayniqsa raqamli savodxonlik asosiy talabga aylanmoqda.Bunga qo‘shimcha tarzda raqamlashtirish natijasida mehnat bozori global tus olmoqda. Ya’ni, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi hududiy chegaralar ahamiyatini yo‘qotmoqda.Shu bilan birga, transformatsiya jarayoni muammosiz kechmayapti. Kadrlarning yangi talablarga moslashishdagi qiyinchiliklari, kasblarning tez eskirishi va ijtimoiy tengsizlik xavfi kabi muammolar mavjud. Natijada, raqamli texnologiyalar mehnat bozorida ikki tomonlama ta’sirni yuzaga keltirmoqda: bir tomondan imkoniyatlar kengaymoqda, ikkinchi tomondan esa yangi chaqiriqlar paydo bo‘lmoqda.

Hozirgi globallashgan iqtisodiyotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kuchaytirish uchun raqamli

transformatsiya strategiyasiga sarmoya kiritmoqda

Hozirgi globallashgan iqtisodiyotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kuchaytirish uchun raqamli

transformatsiya strategiyasiga sarmoya kiritmoqda

Hozirgi globallashgan iqtisodiyotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kuchaytirish uchun raqamli

transformatsiya strategiyasiga sarmoya kiritmoqda

Hozirgi globallashgan iqtisodiyotda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kuchaytirish uchun raqamli ransformatsiya strategiyasiga sarmoya kiritmoqda

Raqamli transformatsiya – korxonalarning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

bo‘lib, bu nafaqat zamonaviy asbob-uskunalar yoki dasturiy ta’minotni o‘rnatishni, balki boshqaruv, madaniyat,

ichki va tashqi kommunikatsiyalarga yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishni ham nazarda tutadi.

Korxonalar ilg’or va zamonaviy tashkilot sifatida obro‘ga ega bo‘ladi. Har bir xodimning mehnat unumdor-

ligi, qarorlar tez va samarali qabul qilinadi, ular o‘z ishini yashin tezligida hozirgi zamon talablariga moslashti-

radi va mijozlar ehtiyojlarini qondiradi.

Raqamli transformatsiya – korxonalarning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

bo‘lib, bu nafaqat zamonaviy asbob-uskunalar yoki dasturiy ta’minotni o‘rnatishni, balki boshqaruv, madaniyat,

ichki va tashqi kommunikatsiyalarga yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishni ham nazarda tutadi.

Korxonalar ilg’or va zamonaviy tashkilot sifatida obro‘ga ega bo‘ladi. Har bir xodimning mehnat unumdor-

ligi, qarorlar tez va samarali qabul qilinadi, ular o‘z ishini yashin tezligida hozirgi zamon talablariga moslashti-

radi va mijozlar ehtiyojlarini qondiradi.

Raqamli transformatsiya – korxonalarning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

bo‘lib, bu nafaqat zamonaviy asbob-uskunalar yoki dasturiy ta’minotni o‘rnatishni, balki boshqaruv, madaniyat

Raqamli transformatsiya – korxonalarning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘lib, bu nafaqat zamonaviy asbob-uskunalar yoki dasturiy ta’minotni o‘rnatishni, balki boshqaruv, madaniyat ichki va tashqi kommunikatsiyalarga yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishni ham nazarda tutadi.


Bugungi kunda raqamli texnologiyalar mehnat bozorining transformatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omilga aylangan. Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya 2030-yilgacha global ishchi o‘rinlarining 30–40 % qismini isloh qilishi yoki yangilar bilan almashtirishi mumkin. Avtomatlashtirish va sun’iy intellektning joriy etilishi oddiy va qayta takrorlanuvchi ish funksiyalarini kamaytirib, yuqori malakali va ijodiy yo‘nalishdagi ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. McKinsey Global Institute hisobotiga ko‘ra, raqamli texnologiyalar natijasida 2030 yilgacha 375 milliondan ortiq xodimlar o‘z kasbini yangilashi yoki qayta o‘rganishi zarur. Masofaviy ish (remote work), gibrid format va onlayn platformalar mehnat bozorida moslashuvchan ish shakllarini kengaytirdi. Raqamli transformatsiya kadrlar bo‘yicha yangi kompetensiyalarni talab qiladi. World Economic Forumning «Future of Jobs Report» hisobotiga ko‘ra, 2025 yilgacha ishchi kuchining 65 % yangi texnologiyalar bo‘yicha qayta o‘qitilishi yoki malakasini oshirishi kerak bo‘ladi.

Bu statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar mehnat bozorining tuzilishi va funksional tarkibini tubdan o‘zgartirmoqda:

1. Past malakali ishlar qisqaradi;

2. Texnologiya bilan bog‘liq yuqori malakali rollar ortadi;
3. Moslashuvchan ish shakllari keng tarqaladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida ham so‘nggi yillarda raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha tayyorlov kurslari va sertifikatlash dasturlari kengaymoqda. Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil ma’lumotlariga ko‘ra, IT, data tahlilchi, robototexnika operatori kabi kasblarga talab oxirgi 3 yilda 40 % dan ortiq oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyotda talab yuqori bo‘lgan yangi ish o‘rinlari taqsimoti

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha eng ko‘p o‘sayotgan yangi kasblar orasida sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish mutaxassislari, ma’lumotlar muhandislari va tahlilchilari, kiberxavfsizlik mutaxassislari, raqamli mahsulot menejerlari hamda prompt-muhandislar bor. Shuningdek, bulut arxitektorlari, DevOps mutaxassislari, AR/VR dizaynerlari va raqamli ta’lim dizaynerlari, barqarorlik va ESG ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlilchilar ham yuqori talabga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Raqamli texnologiyalar mehnat bozorini tubdan o‘zgartirib, ish tuzilishi va kadrlar talabini yangi sharoitga moslashtirmoqda. Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt oddiy ishlarni kamaytirib, yuqori malakali va texnologiya bilan ishlaydigan mutaxassislar talabini oshirmoqda, masofaviy va gibrid ish shakllari esa ishning moslashuvchanligini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, moslashuvchan ish shakllarini qo‘llab-quvvatlash va mehnat bozorini doimiy monitoring qilish tavsiya etiladi. Bu choralar raqamli transformatsiya jarayonini samarali boshqarish va kadrlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozori dinamikasiga ta’siri”- Najimov A, Ishmanova D.
2. “Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta’siri”- Fayzullayev N, Xudaybergenova Sh.
3.Piotr .Hetmańczyk (2024) “Digitalization and its impact on labour market and education”.
4.Sadriddinova X. R. “Raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’siri va yangi kasblar”
5Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) “World Employment and Social Outlook” hisobotlari

KOMPANIYALAR FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Xaitov Oxunjon
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Instituti dotsenti
Jaxonova Odina, talaba
jaxonovaodina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirishning biznes jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kompaniyalarning operatsion samaradorligi oshishi, mijozlar bilan muloqotI yaxshilanishi hamda raqobatbardoshligi kuchayishi asoslab beriladi. Zamonaviy texnologiyalarning biznes muvaffaqiyatidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, biznes samaradorligi, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik.

Kirish. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kompaniyalar faoliyatida muhim o‘rin egallab, jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shavkat Mirziyoyev tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar asosida korxonalarda avtomatlashtirish va modernizatsiya jarayonlari kengaymoqda. Xususan, 2020–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi doirasida raqamlashtirishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Natijada kompaniyalar xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilash imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali biznesda innovatsion rivojlanish rag‘batlantirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli texnologiyalarni biznes jarayonlariga joriy etish masalasi ko‘plab tadqiqotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishdagi muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompaniyalarda raqamli transformatsiya raqobat ustunligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqotlarda asosan jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv va sun’iy intellektdan foydalanish yo‘nalishlari yoritilgan. Thomas H. Davenport “Artificial Intelligence in Business” asarida sun’iy intellekt integratsiyasi jarayonlarni optimallashtirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va aniqligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, AI asosidagi raqamlashtirish operatsion xarajatlarni 20–25% gacha kamaytiradi. Mahalliy tadqiqotchilar fikricha, raqamli transformatsiya samaradorlikka erishish uchun innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishni talab etadi. Jumladan, Islomjon Nurmukhammadov tadqiqotida ERP tizimlaridan foydalangan korxonalarda ishlab chiqarish, logistika va moliyaviy jarayonlar samaradorligi oshgani, resurslar boshqaruvi aniqlashgani hamda mahsulot tannarxi kamaygani aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo miqyosida kompaniyalar biznes jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini o‘rganish uchun, ushbu sohada olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda ilmiy abstraktsiyalash, analitik metod, mantiqiy fikrlash, korelatsion va regressiya tahlil usullari va ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullari orqali texnologiyalarning turli biznes jarayonlariga ta'siri ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarga biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy dasturiy vositalar orqali xarajatlar kamayadi, mahsulot sifati oshadi va resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi. Texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, real vaqt rejimida tezkor qaror qabul qilishni yengillashtiradi. Xususan, ERP tizimlari korxonaning moliya, logistika, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarini yagona platformada boshqarishga xizmat qiladi. ERP tizimlari resurslardan foydalanish samaradorligini 15–20% ga oshiradi va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya kompaniyalar biznes jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omiliga aylangan. McKinsey &

Company tahliliga ko‘ra, yirik kompaniyalarning 89% i raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etmoqda, biroq ular kutilgan daromadning 31% va xarajatlarni kamaytirishning 25% ga erishmoqda. Bu esa strategik muvofiqlik va doimiy takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Deloitte hisobotiga ko‘ra, raqamli strategiyani to‘g‘ri amalga oshirish Fortune 500 kompaniyalari uchun 1,25 trillion dollar qo‘shimcha qiymat yaratishi mumkin. Gartner ma’lumotiga ko‘ra esa kompaniyalarning 56% i o‘rtacha yoki yuqori darajadagi raqamli yetuklikka ega bo‘lib, texnologiyalarni asosiy jarayonlarga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniya muvaffaqiyati uning tanlagan texnologik yechimlariga bevosita bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yetakchi kompaniyalar innovatsion texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va joriy etish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, OpenAI an’anaviy dasturlashdan voz kechib, Generative AI va GPT-3 va GPT-4 modellarini ishlab chiqdi. Kompaniya Microsoft Azure bulut infratuzilmasi asosidagi superkompyuterlardan hamda RLHF texnologiyasidan foydalanib, insoniy muloqotni imitatsiya qilishga erishdi. Shuningdek, Temu o‘z faoliyatini Deep Learning algoritmlariga asoslab, ishlab chiqaruvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridorlar bilan bog‘ladi. Bundan tashqari, Predictive Analytics texnologiyasi yordamida foydalanuvchi xulq-atvorini bashorat qilish tizimi joriy etilgan. Nokia o‘zining gullagan davrida Symbian OS operatsion tizimi va WAP texnologiyasiga tayangan edi. Biroq, ular sensorli ekran va App Store texnologiyalarini o‘z vaqtida o‘zlashtira olmadilar. Ular dasturiy ta'minot o‘rniga apparat qismlariga urg‘u berishda davom etishdi.

Raqamli transformatsiya shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi bozorda “barqarorlik” endi strategik ustunlik emas — bu faqat vaqtinchalik holat. Asl qiymat esa kompaniyaning **moslashuvchanligi, tezkor qaror qabul qilishi va texnologik o‘zgarishlarga integratsiya darajasi** bilan belgilanadi. Ya’ni, “stabil ishlash” emas, balki “tez o‘zgarishga tayyor turish” — yangi normal.

Quyidagi 1-jadvalda texnologik innovatsiyalarning biznes natijalariga ta'siri taqqoslangan.

1-jadval

Texnologik tendensiyalar va kompaniyalar natijadorligi tahlili

Tahlil mezonlari	**OpenAI**	**Nokia**	**Tahliliy xulosa**
Asosiy texnologik tendensiyalar	Generativ AI va LLM (Katta til modellari)	Mobil Internet va Sensorli ekranlar	Tendensiyani yaratish (OpenAI) vs Tendensiyaga kech qolish (Nokia).
Bozorga kirish tezligi pasayishi	5 kun Ichida 1mln foydalanuvchi (CHatGPT)	5 yil ichida bozor ulushi 50% dan 3% ga tushdi	AI tendensiyasi eksponensial o‘sishni ta'minladi, innovatsiyaning yo‘qligi esa halokatli qulashga olib keldi.
Kompaniya qiymati	~$80 mlrd (2024-yil holat)	~$7 mlrd ga sotildi (Microsoftga, 2013)	Raqamli intellekt (AI) jismoniy ishlab chiqarishdan o‘n barobar qimmatroq baholanmoqda.
Ish amaliyotiga ta’siri	Xodimlar asosan tadqiqotchilar va muhandislar	Ishchi kuchi asosan zavod va logistika xodimlari edi	Avtomatlashtirish va AI yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratdi, eski modellar esa qisqartirildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OpenAIning muvaffaqiyati shunchaki omad emas, balki "Cloud Computing" va "AI" tendensiyalarining eng yuqori nuqtasini to‘g‘ri vaqtda ushlay bilish natijasidir. Ular an'anaviy qidiruv tizimlariga raqobat tug‘dira oladigan yangi paradigmani yaratdilar.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyaning muvaffaqiyati uning o‘tmishdagi obro‘siga emas, balki raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish darajasiga bog‘liq. Faqatgina sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlar tahlilini biznes jarayonlariga integratsiya qilgan kompaniyalar barqaror rivojlanib, raqobatda ustunlikka ega bo‘ladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash kompaniyalarga tezkor va asoslangan qaror qabul qilish, xizmat sifatini oshirish hamda bozor o‘zgarishlariga moslashish imkonini beradi. Shu bois, raqamlashtirishni chuqurlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish kompaniyalar muvaffaqiyatining asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**gi** PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.
2. Kuchkarov.T. – Professor, Tashkent State University of Economics - https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/issue/view/12
3. Xudoyberdiyev,A. *Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya.* Toshkent, 2023.
4. Jordan, T. (2020) The Digital Economy. Cambridge: Polity Press.
5. Tomas Haffenden - "Digital Transformation: How to Organize Your Enterprise for the Digital Era", 2023 y.
6. Electronic journal "Digital Economy and Information Technologies" - Issue No. 1, 2024

TASVIRNI QAYTA ISHLASH VA REAL VAQTDA ANIQLASH ALGORITMLARI

Shodmonov Javohir Abduhamid o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
G‘affarov Shahzod Burxon o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on xizmat ko‘rsatish va servis texnikumi
shahzodgaffarov599@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda tasvirni qayta ishlash va real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash algoritmlarining nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanilishi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy kompyuter ko‘rish tizimlarida tasvirlarga ishlov berish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, ular orasida shovqinni kamaytirish, kontrastni oshirish, segmentatsiya va xususiyatlarni ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisda ushbu bosqichlar uchun qo‘llaniladigan klassik usullar (filtrlash, morfologik amallar) hamda chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuvlar o‘zaro solishtiriladi. Real vaqt rejimida aniqlash masalalarida samaradorlik va tezkorlik muammolari ko‘rib chiqilib, konvolyutsion neyron tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy algoritmlar, xususan, obyektlarni aniqlashda yuqori aniqlik va tezlikni ta’minlovchi modellarning ishlash prinsiplari tahlil etiladi. Hisoblash resurslaridan optimal foydalanish, kechikishni kamaytirish va parallel ishlov berish texnologiyalarining o‘rni alohida yoritiladi**.**

Kalit so‘zlar. Tasvirni qayta ishlash, Raqamli tasvirlar, Real vaqt aniqlash, Obyektni aniqlash algoritmlari, Segmentatsiya, Xususiyatlarni ajratish (feature extraction), Chuqur o‘rganish (deep learning), Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), YOLO algoritmi, SSD algoritmi, Hisoblash samaradorligi, Parallel ishlov berish, Edge computing.

Kirish: So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasining jadal rivojlanishi natijasida tasvirni qayta ishlash va real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash masalalari dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Raqamli tasvirlar bilan ishlashning kengayib borayotgan sohasi, xususan, videokuzatuv tizimlari, tibbiy diagnostika, avtonom transport vositalari va sanoat avtomatlashtirish jarayonlarida yuqori aniqlik va tezkorlikni talab qilmoqda. Shu sababli, tasvirlarga ishlov berishning samarali algoritmlarini ishlab chiqish va ularni real vaqt rejimida qo‘llash muammosi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tasvirni qayta ishlash jarayoni odatda tasvirni olish, oldindan qayta ishlash, xususiyatlarni ajratib olish hamda tasniflash bosqichlaridan iborat bo‘lib, har bir bosqichda turli matematik va algoritmik yondashuvlar qo‘llaniladi. Klassik usullar, jumladan, chiziqli va nochiziqli filtrlash, gradient asosidagi kontur

aniqlash va segmentatsiya metodlari uzoq yillar davomida asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan. Biroq, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash va murakkab muhitlarda yuqori aniqlikka erishish zarurati ushbu usullarning imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Zamonaviy yondashuvlar esa asosan chuqur o‘rganish (deep learning) metodlariga, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlarga asoslanadi. Ushbu modellar katta hajmdagi tasviriy ma’lumotlardan o‘rganish orqali obyektlarni aniqlash va tasniflashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, real vaqt tizimlarida ishlatiladigan algoritmlar uchun hisoblash tezligi, kechikish (latency) darajasi va resurslardan samarali foydalanish muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yengillashtirilgan arxitekturalar, parallel hisoblash va apparat tezlatgichlardan (GPU, TPU) foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Tasvirni qayta ishlashning dastlabki bosqichi — oldindan ishlov berish (preprocessing) bo‘lib, bu bosqichda tasvir sifatini yaxshilashga qaratilgan amallar bajariladi. Jumladan, shovqinni kamaytirish uchun Gauss filtri, median filtri kabi usullar qo‘llaniladi. Gauss filtri tasvirni silliqlashtirish orqali yuqori chastotali shovqinlarni kamaytiradi, median filtri esa impulsli shovqinlarni samarali bartaraf etadi. Kontrastni oshirish uchun histogrammani tekislash (histogram equalization) keng qo‘llanilib, bu usul tasvirdagi yorqinlik darajalarini qayta taqsimlash orqali muhim detallarni aniqlashni osonlashtiradi.

Keyingi bosqich — segmentatsiya bo‘lib, bunda tasvir mantiqiy qismlarga ajratiladi. Segmentatsiya algoritmlariga chegaraviy aniqlash (edge detection), region growing va thresholding usullari kiradi. Masalan, Sobel va Canny operatorlari yordamida tasvirdagi konturlar aniqlanadi. Canny algoritmi ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, shovqinni kamaytirish, gradientni hisoblash, noziklashtirish va chegaralarni aniqlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu usul yuqori aniqlik va past xatolik ehtimoli bilan ajralib turadi. Xususiyatlarni ajratib olish (feature extraction) bosqichida tasvirdan muhim belgilar ajratib olinadi. Klassik yondashuvlarda SIFT (Scale-Invariant Feature Transform), SURF (Speeded-Up Robust Features) va HOG (Histogram of Oriented Gradients) kabi algoritmlar qo‘llaniladi. Ushbu usullar tasvirdagi obyektlarni turli o‘lcham va burchaklarda aniqlash imkonini beradi. Masalan, HOG algoritmi gradient yo‘nalishlari histogrammasini hisoblash orqali obyekt shaklini ifodalaydi.

Zamonaviy yondashuvlar esa chuqur o‘rganish metodlariga asoslangan bo‘lib, ayniqsa konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) keng qo‘llaniladi. CNN arxitekturasi konvolyutsion qatlamlar, pooling qatlamlari va to‘liq bog‘langan qatlamlardan iborat bo‘lib, tasvirdan avtomatik ravishda xususiyatlarni ajratib olish imkonini beradi. Bu yondashuv inson aralashuvisiz yuqori darajadagi abstrakt belgilarni o‘rganadi va aniqlikni sezilarli darajada oshiradi.

Real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash masalalarida tezkorlik asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, so‘nggi yillarda YOLO (You Only Look Once), SSD (Single Shot MultiBox Detector) va Faster R-CNN kabi algoritmlar ishlab chiqildi. YOLO algoritmi tasvirni bir martalik ko‘rish orqali obyektlarni aniqlaydi va bounding box hamda sinf ehtimolligini bir vaqtning o‘zida hisoblaydi. Bu esa uni real vaqt tizimlari uchun juda samarali qiladi. SSD algoritmi esa turli o‘lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun ko‘p darajali xususiyat xaritalaridan foydalanadi.

Hisoblash samaradorligini oshirish uchun parallel ishlov berish texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Grafik protsessorlar (GPU) yordamida konvolyutsion operatsiyalarni tezlashtirish mumkin, bu esa katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi. Bundan tashqari, modelni optimallashtirish usullari — pruning (keraksiz neyronlarni olib tashlash), quantization (aniqlikni kamaytirish orqali tezlikni oshirish) va knowledge distillation (yengil modelga bilim uzatish) real vaqt tizimlarida samaradorlikni oshiradi. Real vaqt tizimlarida kechikishni kamaytirish uchun ma’lumot oqimini boshqarish, pipeline arxitekturalari va edge computing texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Edge computing yordamida ma’lumotlar markaziy serverga yuborilmasdan, qurilmaning o‘zida qayta ishlanadi, bu esa tizimning tezkorligini oshiradi va tarmoq yuklamasini kamaytiradi.

Xulosa: Mazkur tezisda tasvirni qayta ishlash va real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash algoritmlarining nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, tasvirlarga ishlov berish jarayoni ko‘p bosqichli bo‘lib, har bir bosqich — oldindan ishlov berish, segmentatsiya, xususiyatlarni ajratish va tasniflash — tizimning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Klassik algoritmlar oddiy va hisoblash jihatidan nisbatan tejamkor bo‘lsa-da, murakkab va o‘zgaruvchan muhitlarda ularning aniqlik darajasi cheklanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, chuqur o‘rganish asosidagi yondashuvlar, ayniqsa konvolyutsion neyron tarmoqlar, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda yuqori aniqlik va moslashuvchanlikni ta’minlashi bilan ustunlikka ega ekanligi asoslab berildi. Real vaqt rejimida aniqlash tizimlari uchun tezkorlik, kechikish darajasi va hisoblash resurslaridan samarali foydalanish asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Zamonaviy algoritmlar, xususan, bir bosqichli aniqlash modellari yuqori tezlik va yetarli aniqlikni uyg‘unlashtirish orqali amaliy masalalarda keng qo‘llanish imkonini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmon. — Toshkent: Prezident qarorlari to‘plami, 2020-yil.
2. Karimov I.A. Yuksak texnologiyalar — kelajakka ishonchli yo‘l. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2015.
3. Fayziyev B. Kompyuter grafikasi va dizayni. – Toshkent, 2013.
4. Mamarajabov M.E. Kompyuter grafikasi va WEB-dizayn. – Toshkent.
5. Kompyuter ko‘rish bilan tanishish, tasvirlarga ishlov berish va chuqur o‘qitish // “Modern Science and Research” jurnali, 2024.
6. Skanerlangan tasvirlarni tanib olish va qayta ishlash dasturini yaratish. Bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2015.
7. Qodirov A., Nurmatov Sh. Axborot texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
8. Abduqodirov A.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent.
9. Yuldashev Z. Sun’iy intellekt asoslari. – Toshkent.
10. Xudoyberdiyev M. Raqamli tasvirlarni qayta ishlash asoslari. – O‘quv qo‘llanma.

BANKLAR FAOLIYATIDA KREDITLASH TIZIMINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.

Xamdamov Asrorbek Ozodjon o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on Davlat pedagogika instituti talabasi
asrorjann@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda banklar faoliyatida kreditlash tizimini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, AQSH, Yevropa davlatlari hamda Janubiy Koreya bank tizimlarida kreditlash mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida kreditlash jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, mijozlar to‘lovga qobiliyatini baholash hamda risklarni boshqarish usullari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Kreditlash tizimi, bank faoliyati, kredit riski, kredit skoring, raqamli banking, fintech, kredit portfeli, risk boshqaruvi, xalqaro tajriba, bank innovatsiyalari.*

Kirish: Zamonaviy iqtisodiy tizimda banklar moliyaviy vositachilikning asosiy subyektlaridan biri bo‘lib, ularning kreditlash faoliyati iqtisodiy o‘sish va investitsion jarayonlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Kreditlash tizimi banklar daromadliligi bilan birga milliy iqtisodiyot barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda jahon moliya bozorida raqamli texnologiyalar va fintech yechimlarning rivojlanishi kreditlash jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. AQSH, Yevropa va Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida kredit skoring tizimlari, sun’iy intellekt va Big Data asosida risklarni baholash keng qo‘llanilmoqda. Bu esa kreditlash jarayonining tezligi, aniqligi va shaffofligini oshirmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida ham kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq kredit risklarini boshqarish va raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasini yanada oshirish zarur. Shu sababli xorijiy tajribani o‘rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Mazkur tezisning maqsadi xorijiy mamlakatlar bank tizimida kreditlash tajribasini tahlil qilish va uning ilg‘or jihatlarini O‘zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism: Banklar faoliyatida kreditlash tizimini samarali tashkil etish bevosita iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi hamda risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashganlik darajasiga bog‘liq. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kreditlash tizimini samarali yo‘lga qo‘yish kompleks yondashuvni talab etadi va bunda texnologik innovatsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

AQSH bank tizimida kreditlash tajribasi. AQSH bank tizimi kreditlash jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatda kreditlash tizimi keng ko‘lamli kredit skoring modellariga asoslanadi. Xususan, FICO skoring tizimi orqali mijozlarning kreditga layoqatliligi aniq va tez baholanadi. Bu esa kredit berish jarayonini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish imkonini beradi. AQSH banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi chuqur diversifikatsiya asosida tashkil etilgan bo‘lib, kredit portfeli turli sektorlar va mijoz segmentlari bo‘yicha taqsimlanadi. Shuningdek, banklar “stress-testing” amaliyotidan keng foydalanadi, bu esa turli iqtisodiy sharoitlarda kredit portfelining barqarorligini baholash imkonini beradi.

Yevropa (Germaniya) bank tizimida kreditlash xususiyatlari. Yevropa mamlakatlari, xususan Germaniya bank tizimi konservativ va barqaror kreditlash modeli bilan ajralib turadi. Germaniya banklarida kreditlash jarayonida risklarni minimallashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Kredit berishda mijozning moliyaviy holati chuqur tahlil qilinadi, uzoq muddatli to‘lovga qobiliyat baholanadi. Germaniyada “universal bank” modeli keng tarqalgan bo‘lib, banklar bir vaqtning o‘zida turli moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bu esa kreditlash jarayonida mijoz haqidagi ma’lumotlarning keng bazasini shakllantirish imkonini beradi. Natijada kredit qarorlarining aniqligi oshadi. Shuningdek, Yevropa banklarida kreditlash jarayonlari qat’iy regulyativ talablar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Basel III standartlari kredit risklarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu standartlar bank kapitalining yetarliligini ta’minlash va kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya bank tizimida kreditlash tajribasi. Janubiy Koreya bank tizimi yuqori darajada raqamlashtirilgan kreditlash modeli bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatda bank xizmatlarining aksariyati raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Kreditlash jarayonida sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Koreya banklari mijozlarning moliyaviy xulq-atvorini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu kredit risklarini aniq prognozlash imkonini beradi. Shuningdek, mobil banking orqali mikro va iste’mol kreditlari tezkor tarzda ajratiladi. Fintech kompaniyalari bilan banklar o‘rtasidagi hamkorlik kreditlash tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada kreditlash jarayonining tezligi va samaradorligi oshgan, operatsion xarajatlar esa sezilarli darajada kamaygan.

2022-2026 yillarda rivojlangan davlatlar bank kreditlari hajmi dinamikasi keltirilgan (mlrd AQSH dollari).

Yil	AQSH (mlrd $)	Germaniya (mlrd $)	Janubiy Koreya (mlrd $)
2022	12500	3800	2200
2023	13150	3860	2350
2024	13900	3950	2520
2025	14650	4060	2710
2026	15500	4190	2920

2026-yil bo‘yicha ko‘rsatkichlar prognoz qiymatlar hisoblanadi.

Yuqoridagi mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har bir hududda kreditlash tizimi o‘ziga xos yondashuv asosida shakllangan. AQSH modeli innovatsion va bozor tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, Germaniya modeli barqarorlik va ehtiyotkorlikka tayanadi. Janubiy Koreya esa raqamli transformatsiya orqali kreditlash samaradorligini oshirishga erishgan. Ularning umumiy jihati — kredit risklarini samarali boshqarish va mijozlarni baholash tizimlarining rivojlanganligidir. Barcha mamlakatlarda kredit skoring tizimlari, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlari keng qo‘llaniladi. Farqli jihatlar esa kreditlash jarayonining tezligi, regulyativ talablar darajasi va texnologik rivojlanish darajasi bilan bog‘liq. Masalan, AQSH va Janubiy Koreyada kreditlash jarayoni juda tezkor bo‘lsa, Germaniyada ehtiyotkorlik ustuvor hisoblanadi.

O‘zbekiston bank tizimi uchun ahamiyati. Yuqoridagi xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston bank tizimida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Kredit skoring tizimlarini rivojlantirish va avtomatlashtirish;
2. Raqamli banking xizmatlarini kengaytirish;
3. Kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish;
4. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
5. Fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur chora-tadbirlar bank tizimining barqarorligini oshirish, kreditlash samaradorligini kuchaytirish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreditlash tizimi bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalar, kredit skoring tizimlari va zamonaviy risk boshqaruvi usullari keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. AQSHda kreditlash jarayoni innovatsion va avtomatlashtirilgan tizimlarga asoslangan bo‘lsa, Germaniyada ehtiyotkorlik va barqarorlik tamoyillari ustunlik qiladi. Janubiy Koreyada esa raqamli banking va sun’iy intellekt kreditlash samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston bank tizimida kreditlash jarayonini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kredit risklarini baholash tizimini rivojlantirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Shu asosda kreditlash tizimini modernizatsiya qilish bank tizimi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2021.
2. Saunders A., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – McGraw-Hill, 2020.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. – Bank for International Settlements, 2017.
4. World Bank. Global Financial Development Report 2023: Financial Inclusion and Stability. – Washington DC, 2023.
5. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report. – Washington DC, 2022.
6. European Central Bank. Credit Risk and Banking Regulation in Europe. – Frankfurt, 2021.
7. OECD. Digitalisation in Finance and Banking. – Paris, 2022.
8. Lee I., Shin Y.J. “Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges”. – Business Horizons, 2018 (ScienceDirect).
9. Fuster A., Goldsmith-Pinkham P., Ramadorai T., Walther A. “Predictably Unequal? The Effects of Machine Learning on Credit Markets”. – Journal of Finance, 2022 (Web of Science).
10. Berg T., Burg V., Gombović A., Puri M. “On the Rise of FinTechs: Credit Scoring Using Digital Footprints”. – Review of Financial Studies, 2020 (Scopus).

KADRLAR BANDLIGI VA RAQOBATBARDOSHLILIGIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI

Ibragimova Nilufar
Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi
Absamatova Nafisa Shovkat qizi talaba
anfisawavkatovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar bandligi va ularning raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari mehnat bozorining tuzilmasini o'zgartirayotgani, yangi kasblar paydo bo'layotgani va mavjud kasblarga qo'yiladigan talablar yangilanayotgani ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va avtomatlashtirish texnologiyalarining turli iqtisodiy sohalarda va kadrlar faoliyatida qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, kadrlar bandligi, raqobatbardoshlik, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish, mehnat bozori, inson kapitali, raqamli transformatsiya.

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar bandligi va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat bozorining tarkibiy tuzilmasini tubdan o'zgartirib, yangi kasblarning paydo bo'lishiga hamda mavjud kasblarga qo'yiladigan talablarning yangilanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish va raqamli platformalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki boshqaruv va xizmat ko'rsatish sohalarini ham tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 5-oktabr**dagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choralar to'g'risida" gi qarori qabul qilingan. Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va raqamli xizmatlarni joriy etish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilash maqsad qilib olingan. Bu hukumat organlari, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa sohalarda raqamli transformatsiyani tizimli yo'lga qo'yadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar bandligi va raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli o'rganildi. Tadqiqotda **nazariy tahlil, empirik kuzatuv va statistika ma'lumotlari** uyg'un qo'llanib, xalqaro tajribalar va O'zbekiston amaliyoti solishtirildi. Ushbu metodologiya maqolaga mavzu bo'yicha tizimli, ilmiy asoslangan va amaliy natijalarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini ham tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozori tarkibida yangi jarayonlar kuzatilmoqda. Bir tomondan, an'anaviy ish o'rinlari qisqarib bormoqda, ikkinchi tomondan esa ilgari mavjud bo'lmagan kasblar va mutaxassisliklar shakllanmoqda. bu, avvalo, oddiy ishlab chiqarish ishchilari, ma'lumot kirituvchilar, oddiy kassirlar, kichik savdo nuqtalari sotuvchilari va oddiy transport hamda ombor ishchilari kabi lavozimlarga taalluqlidir. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, robototexnika, self-checkout tizimlari va ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash tizimlari oddiy ishchilarni asta-sekin bo'shatmoqda. Bu jarayon butun dunyo bo'yicha, xususan O'zbekiston iqtisodiyotida ham kuzatilmoqda.

Boshqa tomondan, ilgari mavjud bo'lmagan yangi kasblar va mutaxassisliklar shakllanmoqda, ularga talab tobora ortmoqda. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) bilan bog'liq sohalar, masalan, data scientist, machine learning engineer va data analyst kabi lavozimlar, bugungi kadrlar bozorida eng yuqori raqobatbardosh kasblardan hisoblanadi. Shuningdek, kibermuhofaza va axborot xavfsizligi sohalarida cybersecurity specialist, ethical hacker va

security analyst kabi mutaxassislar talab qilinmoqda. Raqamli marketing va elektron tijoratning rivojlanishi esa digital marketing specialist, SEO/SEM mutaxassisi va e-commerce manager kabi yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda.. Bundan tashqari, robototexnika va avtomatlashtirish sohalarida robotics engineer va automation specialist lavozimlari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, kreativ va ijodiy yo‘nalishlar ham raqamli iqtisodiyot rivojida o‘z o‘rnini topmoqda: UI/UX designer, game developer va digital content creator kabi kasblar yoshlar orasida yuqori talabga ega.

Raqamli transformatsiya an’anaviy, oddiy ish o‘rinlarini kamaytirayotgan bo‘lsa, yuqori malakali va raqamli ko‘nikmalarga ega kadrlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kadrlar sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, data tahlili, raqamli marketing va kibermuhofaza sohalarida yetarli bilimga ega bo‘lsa, ular nafaqat ish topishda, balki mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion qarorlar qabul qilishda ham yetakchi bo‘lishi mumkin.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot va yangi kasblar bo‘yicha ish o‘rinlari prognozi

Jahon iqtisodiy forumining (WEF) “Future of Jobs” 2025 hisobotida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2030-yilgacha 170 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi, biroq shu davrda 92 millionga yaqin rollar qisqarishi kutilmoqda. Demak, global miqyosda sof ijobiy balans — 78 million ish o‘rni shakllanishi mumkin. Bu raqamlar raqamli transformatsiyaning ko‘lamini yaqqol namoyish etadi.

Platforma iqtisodiyoti ham mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Onlayn xizmat ko‘rsatuvchi platformalar, jumladan “Yandex Go”, “Express24”” kabi ilovalar O‘zbekistonda ko‘plab vaqtinchalik bandlik imkoniyatlarini yaratmoqda. Jahon miqyosida platforma iqtisodiyoti juda tez o‘smoqda. 2026-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, global darajada **154 milliondan 435 milliongacha raqamli platforma bo‘yicha ish qiluvchi shaxslar mavjud** bo‘lib, ularning daromadi va ishtiroki iqtisodiyotda sezilarli rol o‘ynamoqda

O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot bozor talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Kelgusida oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarga sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik va raqamli savodxonlik bo‘yicha yangi fanlarni kiritishi, qisqa muddatli sertifikatlashtirish dasturlarini kengaytirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat bilim va malaka olish jarayonini tezlashtiradi, balki xodimlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish imkonini beradi. Raqamli vositalar orqali kadrlarni baholash, monitoring qilish va ularni rivojlantirish samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, onlayn platformalar, sun’iy intellekt va data-analitika yordamida kadrlar potentsialini aniqlash va kompaniya strategiyasiga muvofiq rivojlantirish osonlashadi.

Kelgusida O‘zbekistonning asosiy vazifalaridan biri — ta’lim, davlat va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, platforma iqtisodiyotiga oid me’yorlarni takomillashtirish va barqaror bandlikni ta’minlash bo‘ladi. Agar mazkur yo‘nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilsa, mamlakatda raqamli iqtisodiyotga moslashgan malakali mutaxassislar ulushi ortadi, mahalliy kadrlar nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Raqamli iqtisodiyot” – B.A. Begalov, M.K. AbdullayevOECD. Skills Outlook 2025.
2. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish choralar to‘g‘risida” qarori.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING NAZARIY ASOSLARI

Olimjonova Farangiz Komilovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, talabasi
farangizkomilovna101204@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta bozorining nazariy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonlarining moliya sektoriga, xususan sug‘urta faoliyatiga ko‘rsatayotgan ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, uning institutsional tuzilmasi hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitda faoliyat yuritish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va onlayn platformalarning sug‘urta xizmatlarini takomillashtirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi..

Kalit so‘zlar. Raqamli iqtisodiyot, sug‘urta bozori, sug‘urta faoliyati, risklarni boshqarish, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, blokcheyn, moliya bozori, sug‘urta xizmatlari, innovatsion yondashuvlar, kiberxavfsizlik, raqamli transformatsiya, onlayn sug‘urta, insurtech.

Kirish: Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya bozorlarining transformatsiyasi, xususan sug‘urta bozorining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borib, an’anaviy biznes modellarning yangilanishiga olib kelmoqda. Shu jarayonda sug‘urta bozori ham raqamli texnologiyalar ta’sirida tubdan o‘zgarib, xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari va mexanizmlari shakllanmoqda. Natijada sug‘urta xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va shaffofligi oshib, mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta bozorining nazariy asoslarini o‘rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki sug‘urta bozori iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi esa ushbu funksiyalarning samaradorligini oshirish bilan birga, yangi imkoniyatlar va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimning nafaqat texnik jihatini, balki uning ishlash logikasini ham tubdan o‘zgartirib bormoqda. Ular tezlik, moslashuvchanlik va ma’lumotga asoslangan boshqaruvni ustuvor tamoyilga aylantirib, an’anaviy yondashuvlarni siqib chiqarmoqda.Bugungi sharoitda raqamli yechimlardan foydalanish strategik zaruratga aylanib, iqtisodiy raqobatda hal qiluvchi omil bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, ular innovatsiyalar va mijozga yo‘naltirilgan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirmoqda.

Kelajakda iqtisodiy o‘sish raqamli transformatsiya darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu bois raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va samarali qo‘llash barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**gi** PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.

2. BMTTD (UNDP). O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun’iy intellekt holati**. –** Toshkent, 2025.

3. Xolmirev, B., Abdullaev, I. *Raqamli iqtisodiyot va innovatsion masalalari.* – Toshkent,

2022.

4. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic 2016.

5. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. 2014

6. Tapscott. D Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies Is Changing the World. 2016.

RAQAMLI TASVIRLARNI QAYTA ISHLASHDA QO‘LLANILADIGAN MATEMATIK USULLAR

Izzatullayev Farrux Anvar o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institute Talabasi
farruxizzatullayev07@gmail.com

Annotatsiya. So‘nggi yillar raqamli tasvirlarni qayta ishlash sohasida tez sur’atlar bilan o‘sish kuzatilgan bo‘lsada, hali ham yetarlicha muammolar mavjud. Ushbu tadqiqotning maqsadi tadqiqotchilarga matematik usullardagi so‘nggi nazariy va texnologik yutuqlarini va raqamli tasvirni qayta ishlash bilan bog‘liq turli xil qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyatini yaratishdir. Ushbu tadqiqotda matematik usullarni ishlab chiqish va ularning qo‘llanilishi bilan bog‘liq mavzularni qamrab oladi. Unda raqamli tasvirni qayta ishlashdagi turli muhim mavzularni, jumladan, tasvirni oldindan qayta ishlash, tasvirni kodlash, dekodlash, stereo tasvirni qayta tiklash, o‘lchamlilik va ma’lumotlar hajmini kamaytirish va qo‘llanilishi kabi mavzularni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli tasvirlarni qayta ishlash, kodlash, dekodlash, stereo tasvir, tasvir hajmi, ma’lumotlar hajmi va o‘lchami.

Kirsh: Raqamli tasvirlarni qayta ishlash sohasi so‘nggi yillarda tez sur’atlar bilan rivojlanib, tibbiy tasvirlash, masofadan kondlash, astronomiya va fotogrammetriya kabi ko‘plab sohalarda muhim o‘rin egallamoqda. Biroq, tasvir olish jarayonida yuzaga keladigan xiralashish, shovqin, past aniqlik va ma’lumotlar hajmining kattaligi kabi muammolar tasvir sifatini pasaytirishda davom etmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda matematik usullar, xususan, dekonvolyutsiya, filtrlar, regularizatsiya, interpolatsiya va kalibrlash algoritmlari muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur ishda raqamli tasvirlarni qayta ishlashning dolzarb muammolari va ularni yechishda qo‘llaniladigan zamonaviy matematik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tasvir dekonvolyutsiyasi, ikki tomonlama filtrlar, to‘liq o‘zgaruvchanlik regularizatsiyasi, kamera kalibrlashidagi xato tahlili hamda past o‘lchamli tasvirlardan yuqori aniqlikdagi tasvirlarni tiklash kabi mavzular ko‘rib chiqiladi. Ushbu usullar tasvir sifatini oshirish, xiralikni bartaraf etish va hisoblash samaradorligini oshirish imkonini beradi.


Asosiy qism: Tasvirning xiralashishi raqamli fotosuratda tasvir sifatining pastligining asosiy sabablaridan biridir. Tasvir dekonvolyutsiyasining maqsadi buzilgan tasvirdan yashirin tasvirni qayta tiklashdir. Agar harakat xiralashuvi chiziqli siljish o‘zgarmas bo‘lsa, xiralashish jarayonini odatda haqiqiy yashirin tasvirning konvolyutsiyasi va qo‘shimcha shovqinli nuqta tarqalish funktsiyasi (PSF) sifatida modellashtirish mumkin:

$$B = K \otimes I + N \qquad (1)$$

B – buzilgan tasvir, I – haqiqiy yashirin tasvir, K – sensorning izini tavsiflovchi yoki harakat xiralashuvi yadrosi, N - tasvirni olish paytida kiritilgan qo‘shimcha shovqin va $\otimes$ – konvolyutsiya operatorini bildiradi.

Tasvir xususiyatlarini saqlab qolish va bir vaqtning o‘zida tebranish artefaktlarini bostirishga imkon beradigan moslashuvchan regulyatsiya usulini taklif qiladi. Sintezlangan (sun’iy) va real tasvirlarda o‘tkazilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, xiralikni bartaraf etish uchun takomillashtirilgan moslashuvchan dekonvolyutsiya usuli yashirin tasvirni ancha kam “halqalanish” (ringing) effektlari bilan tiklash imkonini beradi va o‘tkir qirralarning saqlanishiga xizmat qiladi[1].

Yagona tasvirni xiralashtirish uchun takomillashtirilgan moslashuvchan dekonvolyutsiya algoritmi.




Ikki tomonlama filtr Tomasi va Manduchi tomonida taklif qilingan. Bu nomdan oldin u SUSAN filtri deb nomlangan. Belgilangan miqdordagi katakchalardan foydalangan holda taxminiy ixtiyoriy fazoviy yadro taqdim etilgan. Ko‘p qutili fazoviy yadro (multiple-box spatial kernel) gistogrammaga asoslangan usuldan tashqari, ko‘plab optimal tezlashtirish sxemalarida ham qo‘llanilishi mumkin. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilayotgan usul Gauss fazoviy yadroli bilateral filtrga yaqinlashishda (approksimatsiya qilishda) avvalgi gistogrammaga asoslangan usullarga qaraganda yuqori aniqlikka ega.

Ikki tomonlama filtr Tomasi va Manduchi tomonidan ishda taklif qilingan. Bu normallashtirilgan konvolyutsiya (o‘ram) bo‘lib, unda qo‘shni pikselning hissasi markaziy pikselga nisbatan ham geometrik masofaga, ham intensivlik (yorug‘lik) farqiga bog‘liq. Ixtiyoriy yadrolar (kernels) piksel va uning qo‘shnilari orasidagi yaqinlikni o‘lchash uchun ham fazoviy, ham diapazonli filtrlashda qo‘llanilishi mumkin. Ixtiyoriy fazoviy va diapazonli yadrolarga ega ikki tomonlama filtrning formulasini quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$u^{BF} = \frac{\sum_{y\epsilon N(x)} K_s(x-y)K_r(v(x)-v(y))v(y)}{\sum_{y\epsilon N(x)} K_s(x-y)K_r(v(x)-v(y))}$$

v va u mos ravishda asl tasvir va filtrlangan tasvirdir, $N(x)$ esa x nuqtasida markazlashgan filtrlash yadrosining samarali fazoviy tayanchini (sohasini) bildiradi. K_s va $K_r$mos ravishda fazoviy (spatial) va diapazonli (range) yadrolardir.

Sifatli namoyish uchun taklif qilingan gistogrammaga asoslangan usul, Poriklining bitta qutili ikki tomonlama filtri va Gunturkning ikki tomonlama filtri bilan birgalikda, standart ikki tomonlama filtrni Gauss fazoviy va diapazon yadrolari bilan yaqinlashtirish uchun qo‘llaniladi. Natijalar 2-rasmda ko‘rsatilgan. 2-rasmda ko‘rsatilganidek, birinchi, uchinchi va beshinchi ustunlardagi tasvirlar mos ravishda taklif qilingan gistogrammaga asoslangan ikki tomonlama filtr natijalari, Poriklining bitta qutili ikki tomonlama filtri natijalari va Gunturkning ikki tomonlama filtri natijalaridir. Ikkinchi, to‘rtinchi va oltinchi ustunlardagi rangli kodlangan xaritalar mos ravishda birinchi, uchinchi va beshinchi ustunlardagi tasvirlar va standart Gauss ikki tomonlama filtri natijalari o‘rtasidagi mos keladigan mutlaq xato bo‘lib, bir xil kirish parametrlariga ega. Fazoviy yadrolarning dispersiyalari to‘rtta qator uchun mos ravishda σ_s = 1.2, 1.8, 3.0 va 6.0 ni tashkil qiladi. Diapazon yadrolarining dispersiyalari bir xil; ya’ni, σ_s = 50. Taklif qilingan usul uchun kataklar soni birinchi ustundagi tasvirlarni yaratishda $N = 5$ ni tashkil qiladi. Shunga mos ravishda, beshinchi ustundagi natijalarni olishda Gunturk usulida ishlatiladigan katak ikki tomonlama filtrlar soni M = 5 ni tashkil qiladi. Porikli usuli uchun natijalarda Gunturk tomonidan olingan optimal fazoviy parametr bilan olinadi; ya’ni $r = [1.4, \sigma s]$. 2-rasmda ko‘rsatilgan barcha natijalarni olish uchun $P = 16$. Bu yerda ko‘rsatilgan mutlaq xato xaritalarining diapazonlari uchta usulning ishlashidagi farqni yaxshiroq ko‘rsatish uchun bir xilda $[0,50]$ gacha cheklangan.



2-rasm.


S.Pan tomonidan yozilgan ushbu tadbiqodga asosan asosan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: Ixtiyoriy fazoviy va diapazon yadrolariga ega taklif qilingan O(1) ikki tomonlama filtr GPUlarda real vaqt rejimida amalga oshirish uchun parallellashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, taklif qilingan usulni ikki tomonlama panjaraga kengaytirish mumkin. 3 o‘lchamli kubik qutilar kengaytirilgan ma’lumotlar maydonida 3 o‘lchamli ixtiyoriy sferik filtr yadrolarini taxminiylashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Taklif qilingan usul bilan bu yo‘nalishda yuqori o‘lchamli manipulyatsiyalar ham mumkin[2].

Fokus uzunligi va kamera parametrlarining baholash noaniqliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan birinchi darajali xato tahlilini M. Liang va boshqalar tomonidan o‘rganildi [4]. Fokus uzunligiga nisbatan bu xato tahlili kamerani kalibrlash sohasida o‘rganilmagan. Ular qo‘shimcha qurilmalardan foydalanmasdan uzun fokus uzunligiga ega kamerani kalibrlash uchun barqaror algoritmni taklif qilishadi: kamera parametrlarining bog‘liqlik darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

$$\omega_\vartheta = \arg\min_{\omega_\vartheta} \|A\omega_\vartheta - b\|^2 + \lambda\left\|\omega_\vartheta - \omega_p\right\|^2$$

ω_ϑ − mutlaq konikning tasvirdagi vektori (image of the absolute conic) — kamera ichki parametrlarini hisoblashda asosiy o‘zgaruvchi. A va b — standart Zhang sulida olingan tenglama tizimining matritsasi va vektori. λ — **regularizatsiya parametri** (uning qiymati qanchalik katta bo‘lsa, yechim shunchalik barqaror bo‘ladi). ω_p — oldindan berilgan taxminiy qiymat (prior).

Telefoto linzali kameralar odatda kichik yoki kameralardan uzoqda joylashgan obyektning tafsilotlarini tiklash uchun ishlatiladi. Biroq, bu turdagi kameralarni kalibrlash ko‘plab ko‘rish dasturlarida keng qo‘llaniladigan qisqa fokus masofali kame-ralarnikidek aniq emas.




Fotogrammetriya hamjamiyatida kamerani kalibrlash odatda aniq 3D nuqtalar va mos keladigan 2D kuzatuvlar yordamida proyeksiya matritsasini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

Past o‘lchamli tasvirdan yuqori o‘lchamli tasvirni qanday yaratishni **L.Chen va** Yi-Hung Liu, Chung-Hao Chen va Paul C-P.Chao **tomonidan** o‘rganadi**[5].** Klassik interpolatsiya usullari yo‘qolgan piksel qiymatlarini atrofidagi piksel qiymatlaridan **pikselma-piksel** asosida baholaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, mazkur maqola **regulyarizatsiya nazariyasiga** asoslangan tasvir interpolatsiyasi uchun yangi va samarali algoritmni taklif etadi. Bu algoritm interpolatsiya

muammosini optimallashtirish muammosi sifatida shakllantiradi, unda xarajat funksiyasi ikki qismdan iborat: **ma’lumotlarning aniqligi (data fidelity) termini** va **regulyarizatsiya funksionali.** Ushbu algoritmning hisoblash qiymati Kronecker ko‘paytmasi va singular qiymat dekompozitsiyasini qo‘shish orqali yanada kamayadi. Regularizatsiyaning interpolatsiya natijalariga ta’siri uchbu tadqiqodda tahlil qilinadi.

Tasvir interpolatsiyasining qiyinligi shundaki, xiralashgan va qirralarning qiyshiqligi kabi artefaktlarni bostirish bilan birga tasvir sifatini oshirish kerak.

Pastki aniqlik va Yuqori aniqlik o‘rtasidagi bog‘liqlik.



Ushbu tadqiqotda Kronecker mahsuloti va singular qiymat dekompozitsiyasidan foydalangan holda yangi regularizatsiyaga asoslangan tasvir interpolyatsiyasi algoritmi taklif qilingan. Taklif qilingan yondashuv interpolyatsiyaning hisoblash xarajatlarini kamaytiradi va shu bilan birga boshqa an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada ishlashni yaxshilaydi.

Xulosa: Ushbu tadqiqotga asoson raqamli tasvirlarni qayta ishlashdagi dolzarb muammolar va ularni hal qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy matematik usullar tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tasvir sifatini oshirish, xiralikni bartaraf etish va o‘lchamlarni optimallashtirish bo‘yicha bir qancha muhim yondashuvlar ilgari surilgan.

Tasvir dekonvolyutsiyasi va xiralikni bartaraf etish, tasvirning xiralashishi sifat pasayishining asosiy sababi ekanligi ta’kidlanib, uni bartaraf etish uchun takomillashtirilgan moslashuvchan dekonvolyutsiya usuli taklif etilgan. Bu usul "halqalanish" (ringing) effektlarini kamaytirib, tasvir qirralarining o‘tkirligini saqlab qolish imkonini beradi. Ixtiyoriy fazoviy va diapazon yadrolariga ega bo‘lgan O(1) ikki tomonlama filtrlar yordamida tasvirlarni real vaqt rejimida GPUlarda qayta ishlash imkoniyati mavjudligi ko‘rsatilgan. Ushbu usul Gauss yadroli filtrlarga qaraganda yuqori aniqlikka ega ekanligi isbotlangan.

Chuan.He va boshqalar tomonidan taklif etilgan Bregman asosidagi yangi tezkor algoritm yordamida, qo‘lda aralashuvsiz (ichki iteratsiyalarsiz) tartibga solish parametrlarini yangilash va xira tasvirni tiklashga erishilgan. Telefoto linzali kameralarni kalibrlashdagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun regularizatsiyalangan eng kichik kvadratlar usuli tavsiya etilgan. Bu usul fokus uzunligiga bog‘liq xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Past o‘lchamli tasvirlardan yuqori sifatli tasvir hosil qilishda Kronecker ko‘paytmasi va singular qiymat dekompozitsiyasiga (SVD) asoslangan regulyarizatsiya usuli samarali ekanligi, u hisoblash xarajatlarini kamaytirib, ish unumdorligini oshirishi aniqlangan.

Yuqorida keltirilgan matematik usullar va algoritmlar raqamli tasvirlarni qayta ishlashda nafaqat nazariy, balki tibbiy tasvirlash, astronomiya va masofadan zondlash kabi amaliy sohalarda ham yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. H.-C.Tsai va J.-L.Wu "Bitta tasvirni xiralashtirish uchun takomillashtirilga moslashuvchan dekonvolyutsiya algoritmi”. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1155/2014/658915

2. S.Pan va boshqalar “Optimal O(1) ikki tomonlama filtr: siyrak yaqinlashuv yordamida ixtiyoriy fazoviy va diapazon yadrolari”.
https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1155/2014/289517
3. Chuan.He va boshqalar tomonidan yozilgan "Bregman usuli orqali moslashuvchan parametrlarni baholash bilan tez to‘liq o‘zgaruvchan tasvir dekonvolyutsiyasi".
https://onlinelibrary.wiley.com/doi/epdf/10.1155/2014/617026
4. M.Liang va boshqalar tomonidan yozilgan "Regularizatsiyalangan eng kichik kvadratchalar yordamida telefoto linzali kameralarni ishonchli kalibrlash".
https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1155/2014/689429
5. L.Chen va boshqalar tomonidan yozilgan “Tasvir interpolatsiyasi uchun blokka asoslangan regulyarlashtirilgan yondashuv”.
https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1155/2014/953476

ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Ibragimova Nilufar
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika Insitituti o‘qituvchisi
Mirzamuratov Ruslan Kurbanbay o‘g’li,
talaba
ruslanmirzamuratov2004@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida elektron tijoratning (e-tijorat) iqtisodiyotdagi roli va uning ta’siri atroflicha o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Unda elektron savdoning asosiy ko‘rinishlari, xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi, iqtisodiy samaradorlikka qo‘shayotgan hissasi hamda bandlikni oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, elektron tijoratning yangi imkoniyatlar yaratishi, bozor raqobatini kuchaytirishi va innovatsion biznes modellarining shakllanishiga turtki berishi muhim omil sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat (e-tijorat), iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, xalaqaro bozorlar, integratsiya, raqobat, innovatsion biznes modellari, bandlik, raqamli texnologiyalar.

Kirish. Hozirgi kunda jahonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi an’anaviy savdo shakllarini zamonaviy ko‘rinishi – elektron tijorat bilan boyitmoqda. Elektron tijorat internet orqali tovar va xizmatlarni sotish va xarid qilish jarayonini o‘z ichiga olib, iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bugungi kunda elektron tijorat nafaqat savdo jarayonlarini soddalashtirish, balki vaqt va xarajatlarni tejash, iste’molchilar uchun qulaylik yaratish, tadbirkorlar uchun esa yangi bozorlarni ochish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, u kichik va o‘rta biznes subyektlarining rivojlanishiga, raqobat muhitining kuchayishiga hamda innovatsion biznes modellarining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada, elektron tijorat iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, elektron tijorat sohasini tartibga solish va rivojlantirish maqsadida “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi 2022-yilda yangi tahrirdagi Qonun qabul qilingan bo‘lib, ushbu sohada huquqiy asoslar yaratib berilgan. Mazkur qonunga muvofiq, elektron savdo ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilangan, to‘lov tizimlari va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari tartibga solingan. Shu bilan birga, mamlakatimizda elektron to‘lov tizimlari, internet infratuzilmasi va logistika xizmatlarining rivojlanishi elektron tijoratning kengayishiga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ichki bozorning faollashuvi, eksport salohiyatining oshishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada elektron tijoratning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali elektron tijoratning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri umumlashtirildi hamda asosiy xulosalar shakllantirildi.Tizimli yondashuv orqali elektron tijoratning iqtisodiy tizimdagi o‘rni kompleks ravishda ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar, xususan elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunlar va me’yoriy asoslar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda elektron tijorat (e-tijorat) global iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, tijorat, savdo, ishlab chiqarish va iste’mol sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan elektron tijorat tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda, bu esa iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik sohalarda katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Elektron tijorat, mahsulotlar va xizmatlar savdosining internet orqali amalga oshirilishi, iqtisodiy tizimda samaradorlikni oshirishga va global bozorga kirishga imkon yaratadi. Elektron savdo (e-commerce) — bu tovar va xizmatlarni internet orqali sotish va xarid qilish jarayonidir. U to‘lovlar, buyurtmalarni qayta ishlash, marketing, mijozlar bilan aloqalar kabi biznes faoliyatlarini raqamli muhitda amalga oshirishni anglatadi. Elektron savdo nafaqat tovarlarni onlayn sotishni, balki xizmatlarni, raqamli mahsulotlarni, ma’lumotlarni uzatishni va boshqa ko‘plab faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Elektron savdo zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, ish o‘rinlari yaratadi va sarmoyalarni jalb qiladi. Shuningdek, biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Uning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun kiberxavfsizlik, logistika va qonunchilik sohalaridagi muammolarni hal qilish muhimdir.

O‘zbekiston misolida elektron savdo mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda: tadbirkorlar va kichik bizneslar uchun global bozorga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda, elektron to‘lov tizimlari faol ishlamoqda va davlat xizmatlari raqamlashtirilmoqda. Shu bilan birga, aholining onlayn xarid qilish madaniyati rivojlanib, raqamli iqtisodiyotga tezroq integratsiyalashmoqda. Kelajakda elektron savdoni yanada rivojlantirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi va aholi turmush darajasini yuksaltiriradi. Elektron savdo turlari turli biznes modellariga asoslangan bo‘lib, har biri o‘ziga xos afzalliklar va cheklovlarga ega. B2C modeli mijozlar uchun keng imkoniyatlar yaratsa, B2B ulgurji savdo va sanoat korxonalari uchun muhimdir. C2C va C2B modellari esa jismoniy shaxslar o‘rtasidagi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Elektron savdoning turli shakllari orqali korxonalar global bozorda faoliyat yuritish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar bilan samarali aloqani yo‘lga qo‘yish imkoniga ega bo‘ladi. Misol uchun, OLX, Wildberries, Shopify, Amazon kabi platformalar mahsulotlarni onlayn sotish, mijozlar bilan muloqot va marketing kampaniyalarini boshqarish imkonini beradi. Shu orqali xodimlar raqamli marketing, SEO, mijozlar xizmatlari, logistika va inventarizatsiya boshqaruvi bo‘yicha amaliy tajriba orttiradilar. Bu nafaqat kompaniyaning samaradorligini oshiradi, balki salohiyatli kadrlar uchun yangi kasbiy imkoniyatlar yaratadi. 2021-yildan boshlab elektron tijorat sohasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. E-commerce hajmi 600 million dollarga yetib, eksport o‘sishi ham tiklanib 3 foizni tashkil etdi. Keyingi yillarda bu sur’at yanada tezlashdi: 2022- yilda elektron tijorat hajmi 900 million dollar, 2023-yilda esa 1,3 milliard dollarni tashkil etdi va shu bilan birga eksport o‘sish sur’atlari ham mos ravishda 5 foiz va 8 foizgacha ko‘tarildi. Nihoyat, 2024-yilga kelib e-commerce hajmi 2 milliard dollarga yetgan bo‘lsa, eksport o‘sishi ham 11 foizni tashkil etdi.

Elektron tijoratning iqtisodiyotga ta’siri (O‘zbekiston misolida)

Ko‘rsatkich	2022	2027 (Prognoz)	O‘sish (%)
Bozor hajmi (AQSH dollari)	311 mln	900 mln – 1 mlrd	41.4% – 47.4% (yillik)

Umumiy chakana savdodagi ulushi	2.2%	9% – 11%	4–5 barobar o‘sishi kutilmoqda
Internet foydalanuvchilar soni	21 mln	30 mln+	40% ortishi kutilmoqda
Elektron tijoratda ishlovchilar soni	10 000+	25 000+	2.5 barobar o‘sishi kutilmoqda
Mobil internetdan foydalanish ulushi	80%	95%+	15% o‘sishi kutilmoqda
Eksport hajmi orqali iqtisodiy samaradorlik	O‘rtacha	Yuqori	Sezilarli oshishi kutilmoqda

Xulosa va takliflar. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat (e-commerce) nafaqat ichki bozor mexanizmlarini takomillashtirish, balki mamlakatlarning xalqaro savdo tizimidagi o‘rnini mustahkamlashda ham muhim omilga aylanmoqda. Elektron tijorat O‘zbekiston eksport siyosatining strategik tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Bu yo‘nalishda raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, milliy mahsulotlarni global elektron platformalarda faol targ‘ib qilish va davlat – xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali mamlakatning eksport salohiyati sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.“O‘zbekiston Respublikasi ‘Elektron tijorat to‘g‘risida’gi Qonuni (2022-yil, keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan)”

2. Abdukarimov, B. (2025). Elektron tijoratni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiya nashriyoti

3. Abdulloev, A. J. (2025). The role and importance of strategic planning in marketing. 4.Giyazova, N.B., & Sh,B.S. (2025). Zamonaviy raqamli iqtisodiyotdagi muammolar va chora-tadbirlar.

5.Raxmonova, D. (2025). Elektron savdo infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari. Toshkent: Fan va texnologiya.

6. Sharipov, J. (2025). Elektron biznes va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

Yer osti suvlari sathi va minerallashuv jarayonlarini matematik modellashtirish

Daliyev Sherzod Karshiyevich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti
Salimova Shaxnoza Lutfillo qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o’qituvchis
salimovashaxnoza97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda yer osti suvlari sathi va minerallashuv jarayonlari o‘zaro bog‘langan nochiziqli tizim sifatida modellashtiriladi. Ikki qatlamli g‘ovak muhit uchun differensial tenglamalar sistemasi tuzilib, sonli usullar yordamida yechiladi. Model filtratsiya, infiltratsiya, bug‘lanish va tuz diffuziyasiyasini kompleks hisobga oladi.

Kalit so’zlar. yer osti suvlari, minerallashuv, matematik model, g‘ovak muhit, filtratsiya, diffuziya, sonli usullar.

Kirish. Yer osti suvlari tabiiy resurslar tizimining muhim elementi bo‘lib, ichimlik suvi ta’minoti, qishloq xo‘jaligi va sanoat ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, qurg‘oqchil hududlarda ular asosiy suv manbai sifatida qaraladi. Shu bilan birga, suv sifati, xususan minerallashuv darajasi ham muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Yer osti suvlari sathining o‘zgarishi va minerallashuv jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni alohida o‘rganish ko‘pincha yetarli natija bermaydi. Ushbu jarayonlar infiltratsiya, bug‘lanish, sug‘orish, drenaj va boshqa tabiiy hamda antropogen omillar ta’sirida shakllanadi. Natijada murakkab, o‘zaro ta’sirlashuvchi tizim yuzaga keladi.[4]

Ko‘plab modellar ma’lum sharoitlarga (masalan, irrigatsiya tizimlari yoki qirg‘oqbo‘yi hududlari) moslashtirilgan bo‘lib, umumlashgan yondashuv yetishmaydi. Bundan tashqari, minerallashuvning oqim rejimiga teskari ta’siri ko‘p hollarda hisobga olinmaydi [2]. Shu sababli quyidagi muammolar dolzarb hisoblanadi:

- suv sathi va tuz konsentratsiyasining o‘zaro ta’sirini to‘liq hisobga olish;
- qatlamli muhitlarda kompleks model yaratish;
- fizik qonuniyatlarga asoslangan nochiziqli tizimlarni ishlab chiqish;
- amaliy prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Masalaning qo’yilishi. Ikki qatlamli g‘ovak muhit uchun suv sathi va tuz konsentratsiyasi quyidagi tenglamalar orqali tavsiflanadi:

$$\frac{\partial C}{\partial t}+\upsilon\frac{\partial C}{\partial x}=D\frac{\partial^2 C}{\partial x^2},\qquad 0<x<L,\ t>0 \tag{1}$$

Tuz konsentratsiyasi uchun boshlang’ich va chegaraviy shartlar:

$$C_x(0,t)=0,\qquad C_x(L,t)=0 \tag{2}$$

$$C(x,0)=C_0(x) \tag{3}$$

Analitik yechim olish uchun (1) tenglamani soddalashtiramiz va quyidagi almashtirishni olamiz.

$$C(x,t)=e^{\frac{\bar{\upsilon}}{2D}x}u(x,t)$$

Hosilalarni hisoblab,tenglamaga qo’ysak, u uchun:

$$u_t=Du_{xx}-\frac{\bar{\upsilon}^2}{4D}u$$

Chegaraviy shartlar ham o’zgaradi. $C_x=0$ dan:

$$C_x=e^{\frac{\bar{\upsilon}}{2D}x}\left(u_x+\frac{\bar{\upsilon}}{2D}u\right)\Rightarrow u_x+\frac{\bar{\upsilon}}{2D}u=0$$

ya’ni

$$u_x(0,t)+\frac{\bar{\upsilon}}{2D}u(0,t)=0,\qquad u_x(L,t)+\frac{\bar{\upsilon}}{2D}u(L,t)=0$$

Hosil bo’lgan tenglamani ajratish usulidan foydalanib yechamiz va quyidagi yechimga ega bo’lamiz:

$$C(x,t)=\bar{C}+e^{\frac{\bar{\upsilon}}{2D}x}\sum_{n=1}^{\infty}\alpha_n\phi_n(x)\exp\left[-\left(D\left(\frac{n\pi}{L}\right)^2+\frac{\bar{\upsilon}^2}{4D}\right)t\right]$$

Model natijalari shuni ko‘rsatadiki, yer osti suvlari sathining oshishi tuz migratsiyasining tezlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, minerallashuv darajasi filtratsiya rejimiga teskari ta’sir ko‘rsatib, suv harakatining xususiyatlarini o‘zgartiradi. Natijada, mazkur jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda rivojlanib, yagona gidrogeologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Yer osti suvlari sathi va minerallashuv jarayonlarini bog‘langan nochiziqli model asosida o‘rganish gidrogeologik tizimlarning ichki qonuniyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ushbu yondashuv suv resurslarini boshqarish, sho‘rlanish xavfini baholash va meliorativ tadbirlarni ilmiy asoslashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sonli usullar yordamida modelni yechish gidrogeologik jarayonlarni prognozlash va boshqarishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ravshanov, N., and Daliev, S. *Non-linear mathematical model to predict the changes in underground water level and salt concentration*. Journal of Physics: Conference Series, 1441(1), 012163 (2020). DOI: 10.1088/1742-6596/1441/1/012163.

2. Daliev, S., Sirojiddinov, F., and Khaitov, O. *Developing Mathematical Models to Study Changes in Groundwater Levels and Salt Concentration*. E3S Web of Conferences, 589, 03011 (2024). DOI: 10.1051/e3sconf/202458903011.

3. Meyer, R., Engesgaard, P., and Sonnenborg, T. O. *Origin and Dynamics of Saltwater Intrusion in a Regional Aquifer: Combining 3-D Saltwater Modeling With Geophysical and Geochemical Data*. Water Resources Research, 55(3), 1792–1813 (2019). DOI: 10.1029/2018WR023624

4. Kolditz, O., Ratke, R., Diersch, H.-J. G., and Zielke, W. *Coupled groundwater flow and transport: 1. Verification of variable density flow and transport models*. Advances in Water Resources**,** 21(1), 27–46 (1998). DOI: 10.1016/S0309-1708(96)00034-6.

YANGI O'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI

Sharipov Quvonchbek Hamidjon o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti talabasi
quvonchbek0310@icloud.com
+99894-363-33-77

Annotatsiya. Ushbu maqola "Yangi O'zbekiston" sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning strategik mexanizmlariga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi 2017–2025 yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, mavjud tahdidlarni aniqlash va kelgusi rivojlanish bosqichi uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy banki va xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma'lumotlari (2019–2025) asosida statistik, solishtirma va institutsional tahlil usullari qo'llanilgan.

Kalit so'zlar. makroiqtisodiy barqarorlik, monetar siyosat, fiskal siyosat, inflyatsiya, YAIM o'sishi.

Аннотация. Данная статья посвящена стратегическим механизмам обеспечения макроэкономической стабильности в условиях «Нового Узбекистана». Цель исследования заключается в анализе показателей макроэкономической стабильности, достигнутых в результате системных реформ 2017–2025 годов, выявлении существующих угроз и разработке научно обоснованных предложений для следующего этапа развития. В исследовании применены методы статистического, сравнительного и институционального анализа на основе официальных данных Государственного комитета статистики, Центрального банка Республики Узбекистан и международных финансовых институтов (2019–2025 гг.).

Ключевые слова. макроэкономическая стабильность, денежно-кредитная политика, фискальная политика, инфляция, рост ВВП.

Abstract. This article is devoted to strategic mechanisms for ensuring macroeconomic stability in the context of "New Uzbekistan". The purpose of the study is to analyze macroeconomic stability indicators achieved as a result of systemic reforms in 2017–2025, identify existing threats, and develop scientifically grounded proposals for the next stage of development. The research employs methods of statistical, comparative, and institutional analysis based on official data from the State Statistics Committee, the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, and international financial institutions (2019–2025).

Keywords. macroeconomic stability, monetary policy, fiscal policy, inflation, GDP growth.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat ichki resurslar va boshqaruv samaradorligi, balki tashqi muhitdagi o'zgaruvchanlikka moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, postsovet makonidagi mamlakatlar uchun makroiqtisodiy barqarorlikni

ta'minlash murakkab va ko'p qirrali vazifa bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" kontseptsiyasi doirasida amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotning institutsional asoslarini yangilash, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish va xalqaro integratsiyani kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu jarayonda makroiqtisodiy barqarorlik — ya'ni narxlar barqarorligi, barqaror iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikka yaqin holat va to'lov balansining muvozanati — nafaqat iqtisodiy siyosatning maqsadi, balki ijtimoiy adolat va milliy xavfsizlikning poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning strategik mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligi va samaradorligini baholash bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik tushunchasi iqtisodiy tizimning tashqi va ichki shoklarga bardosh berish, asosiy agregat ko'rsatkichlarning prognozlashtirilgan doirada harakatlanishi va uzoq muddatli o'sish traektoriyasini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada barqarorlikni ta'minlashning uchta asosiy ustuni ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, narxlar barqarorligi va inflyatsiyani nazorat qilish orqali pul-kredit siyosatining ishonchliligi; ikkinchidan, byudjet intizomi va samarali davlat xarajatlari orqali fiskal siyosatning barqarorligi; uchinchidan, valyuta kursi moslashuvchanligi va yetarli xalqaro zaxiralar mavjudligi orqali tashqi muvozanatning mustahkamligi. Ushbu uch komponent bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un muvofiqlashtirilishi makroiqtisodiy siyosatning samaradorligini belgilaydi. Masalan, haddan tashqar kengaytiruvchi fiskal siyosat inflyatsion bosimni kuchaytirishi, bu esa markaziy bankni foiz stavkalarini oshirishga majbur qilishi va natijada investitsion faollikni pasaytirishi mumkin. Shuningdek, valyuta kursining keskin tebranishi import inflyatsiyasini rag'batlantirib, aholining haqiqiy daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, strategik yondashuv nafaqat alohida vositalarni qo'llashni, balki ularning o'zaro ta'sirini kompleks boshqarishni talab etadi.

Jadval. O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2019–2025)[1]

Yil	YAIM o'sishi, %(real)	Inflyatsiya,% (yillik)	Byudjet taqchilligi, % YAIMga nisbatan	Xalqaro zaxiralar, mlrd AQSH dollari*	Ishsizlik darajasi, %
2019	5.8	13.6	-2.1	24.1	9.2
2020	1.6	11.2	-3.4	26.8	10.1
2021	7.4	9.9	-2.8	31.2	9.5
2022	5.7	11.5	-2.3	34.5	8.9
2023	6.1	9.2	-1.9	38.7	8.4
2024	5.9	9.8	-2.0	41.2	8.2
2025	7.7	7.3	-2.1	66.3	7.9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi olti yildagi makroiqtisodiy dinamikasini aniq aks ettiradi. 2020-yildagi global pandemik inqirozdan so'ng YAIM o'sishi qisqa muddatli pasayish (1,6%) qayd etilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab barqaror tiklanish kuzatilib, 2025-yilda 7,7% gacha ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Inflyatsiya darajasi 2019-yildagi 13,6% dan 2025-yilga kelib 7,3% gacha pasayishi Markaziy bankning inflyatsion nishonlash rejimi va monetar siyosat samaradorligining ijobiy natijasidir. Shu bilan birga, xalqaro valyuta zaxiralarining 24,1 mlrd dollardan 66,3 mlrd dollargacha keskin o'sishi (asosan oltin narxining global o'sishi va eksport diversifikatsiyasi hisobiga) mamlakatning tashqi shoklarga qarshi moliyaviy "xavfsizlik yostig'i"ni sezilarli darajada mustahkamlaganini ko'rsatadi. Byudjet taqchilligi YAIMning 2–3% doirasida barqaror saqlanib qolishi fiskal intizomning mustahkamligidan dalolat bersa, ishbsizlik darajasining 10,1% dan 7,9% gacha pasayishi iqtisodiy o'sishning ijtimoiy samaradorligi ortayotganini aks ettiradi. Ushbu ijobiy dinamikalar barqarorlikning asosiy ustunlari shakllanayotganini ko'rsatsa-da, tashqi

[1] Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi

omillarga bog'liqlik, norasmiy iqtisodiyot ulushi va struktural islohotlarning to'liq yakunlanmaganligi kabi risklar makroiqtisodiy siyosatning kompleks va oldindan bashoratlanadigan mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Makroiqtisodiy barqarorlik masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq vaqtdan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha J.M. Keynsning umumiy talab va davlat iqtisodiy siyosati g'oyalari, M. Fridmanning monetarizm nazariyasi, shuningdek, R. Lukas va T. Sarjent tomonidan ishlab chiqilgan ratsional kutilmalar maktabi asosida shakllangan. Zamonaviy tadqiqotlarda makroiqtisodiy barqarorlik nafaqat narxlar barqarorligi va byudjet muvozanati, balki tashqi shoklarga moslashuvchanlik, institutsional ishonch, moliyaviy sektorning mustahkamligi va raqamli boshqaruv samaradorligi bilan ham bog'liq deb qaralmoqda. Xalqaro miqyosda Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqarorlikka erishishda monetar-fiskal siyosat muvofiqligi, valyuta kursi rejimi tanlash, tashqi rezervlarni boshqarish va makroiqtisodiy shaffoflik masalalari alohida ta'kidlanadi. Mintaqaviy kontekstda Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlarining o'tish davri iqtisodiyoti muammolari A. Aslund, J. Sachs, shuningdek, o'zbekistonlik olimlar A. Abdullayev, Sh. Karimov, R. Normatov, D. Qurbonov tomonidan o'rganilgan. Ular valyuta erkinlashtirilishi, narxlar liberallashuvi, bank islohotlari va soliq tizimi transformatsiyasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqotning metodologik asosi tizimli yondashuv, ilmiy tahlil va empirik tekshiruv prinsiplariga tayanadi. Tadqiqot jarayonida aralash (sifatli va miqdoriy) uslubdan foydalanilgan bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlikning nazariy asoslari tahlili bilan amaliy ko'rsatkichlarning statistik o'lchovi uyg'unlashtirilgan. Tadqiqotning ma'lumotlar bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy banki va Moliya vazirligining rasmiy hisobotlari, Xalqaro valyuta fondi (IMF), Jahon banki hamda Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston bo'yicha yillik iqtisodiy sharhlari, shuningdek, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" kabi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tahlil davri 2019–2025 yillarni qamrab oladi, bu esa islohotlarning asosiy bosqichini, pandemik ta'sirni, global shoklarni va dastlabki natijalarni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2017-yildan boshlab O'zbekistonda boshlangan tizimli islohotlar makroiqtisodiy muhitda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, inflyatsion nishonlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish, soliq ma'murchiligining soddalashtirilishi va davlat ishtirokidagi korxonalarning transformatsiyasi iqtisodiyotning bozor tamoyillariga moslashuvini ta'minladi. Natijada, so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi (2019–2023 yillarda o'rtacha 5–6% atrofida), inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasi (2020-yildagi pandemik cho'qqidan keyin 10% dan pastga tushishi) va valyuta zaxiralarining o'sishi kabi ijobiy dinamikalar kuzatildi. Markaziy bankning inflyatsiyaga qarshi siyosati, xususan, bazaviy stavkani inflyatsiya kutilmalari va tashqi shoklarga mos ravishda moslashtirish mexanizmi narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, fiskal siyosat doirasida byudjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3% dan oshmaydigan darajada ushlab turish, soliq yukini optimallashtirish va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qildi.

O'zbekiston eksportining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilmasi (2025, %)[2]

[2] O'zR Davstatqo'mi, Tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston eksportida xizmatlar ko'rsatish (transport-logistika, IT-yechimlar, turizm) ulushi 22% ga yetib, mamlakat iqtisodiyotining xizmat ko'rsatish sektoridagi raqobatbardoshligi oshayotganini aks ettiradi. Shu bilan birga, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining barqaror ulushi (jami 33%) qishloq hududlarida bandlikni ta'minlash va xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq, oltin eksportining yuqori ulushi (28%) tashqi bozor narxlariga bog'liqlik xavfini saqlab qolmoqda, shu sababli mashinasozlik va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish strategik ustuvorlik bo'lib qoladi. Tashqi savdo sohasida eksportni diversifikatsiya qilish, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik va xizmat ko'rsatish sohalaridagi eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish orqali to'lov balansining barqarorligi ta'minlandi. Biroq, erishilgan yutuqlar bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi bir qator omillar ham mavjud. Tashqi muhitda geosiyosiy beqarorlik, xomashyo narxlarining tebranishi, yirik savdo hamkorlarning iqtisodiy sur'atlarining sekinlashishi va global moliyaviy sharoitlarning qattiqlashishi kabi xavflar O'zbekiston kabi ochiq iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ichki jihatdan esa, norasmiy iqtisodiyotning yuqori ulushi (ba'zi baholarga ko'ra YAIMning 30–40% i), bank sektori kredit portfelining sifati, infratuzilma va inson kapitaliga investitsiyalarning yetarli emasligi, shuningdek, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy farqlar barqaror o'sishni cheklovchi omillar sifatida qolmoqda. Ayniqsa, inflyatsiya kutilmalarini boshqarishdagi qiyinchiliklar, pul-kredit va fiskal siyosat o'rtasidagi muvofiqlikning ba'zan buzilishi, hamda valyuta kursining qisqa muddatli haddan tashqari tebranishi makroiqtisodiy boshqaruvda qo'shimcha ehtiyotkorlikni talab etadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahdidlarni hisobga olgan holda, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning quyidagi strategik mexanizmlarini taklif etish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, monetar va fiskal siyosatni raqamli monitoring va prognozlash tizimlari orqali real vaqt rejimida muvofiqlashtirish zarur. Bunda katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt va ekonometrik modellar yordamida inflyatsiya, o'sish va bandlik ko'rsatkichlarini bashorat qilish aniqligini oshirish, siyosiy qarorlarni dalillarga asoslangan holda qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, valyuta zaxiralarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish, xususan, zaxiralarni valyuta tarkibi va investitsiya vositalari bo'yicha diversifikatsiya qilish, shuningdek, ularning yetarlilik me'yorlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish tashqi shoklarga qarshi "xavfsizlik yostig'i" vazifasini bajaradi. Uchinchidan, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, xususan, kichik va o'rta biznes uchun eksport kreditlari, sug'urta vositalari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali tashqi savdo muvozanatini mustahkamlash lozim. To'rtinchidan, makroiqtisodiy shaffoflik va hisobotlilikni oshirish, mustaqil auditorlik va parlament nazorati mexanizmlarini kuchaytirish orqali davlat siyosatiga ishonchni mustahkamlash zarur. Beshinchidan, inson kapitali va innovatsion texnologiyalarga investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasini tezlashtirish, bu esa o'z navbatida, barqaror o'sishning uzluksiz manbasini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nafaqat an'anaviy monetar-fiskal vositalar, balki institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga olgan kompleks strategiyani talab etadi. Erishilgan yutuqlar iqtisodiy siyosatning to'g'ri yo'nalishda ekanligini tasdiqlasa-da, kelgusi bosqichda tashqi va ichki risklarga proaktiv javob berish, siyosat vositalarining moslashuvchanligini oshirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar zarur. Ushbu maqolada keltirilgan takliflar davlat boshqaruvi organlari, markaziy bank, xalqaro moliya institutlari va ilmiy hamjamiyat uchun amaliy qiziqish uyg'otishi, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlik sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda mintaqaviy solishtirma tahlillar, sektorli ekonometrik modellar va xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlarini qo'llash orqali strategik mexanizmlarning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish istiqbolli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida (PF-60-son Farmon). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/5841063
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Moliyaviy barqarorlik sharhi – 2025 yil I yarim yillik. Cbu.uz. https://cbu.uz/uz/financial-stability/press-releases/3042752/
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2025). Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobotlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Pul-kredit siyosati sharhi – 2025 yil IV chorak. Cbu.uz. https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3807269/
5. Abdullayev, A., & Karimov, Sh. (2023). Makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanish strategiyalari. Iqtisodiyot va moliya, (4), 12–25.
6. Normatov, R., & Qurbonov, D. (2024). O'tish davri iqtisodiyotida monetar-fiskal siyosat muvofiqligi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya, (2), 45–58.

MEXATRONIKA VA ROBOTOTEXNIKADA 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, Amaliy fanlar va sport kafedrasi dotsenti e-mail: elmonov_sirojiddin@katdpi.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mexatronika va robototexnika sohasida 3D modellashtirish texnologiyalarining nazariy asoslari, konstruktiv loyihalashdagi ahamiyati, raqamli prototiplashtirish jarayonidagi o‘rni hamda muhandislik ta’limiga ta’siri chuqur tahlil qilingan. CAD/CAE/CAM tizimlari, virtual simulyasiya, kinematik va dinamik tahlil, raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyalari hamda 3D bosib chiqarish jarayonlari asosida robototexnik qurilmalarni yaratish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalarni joriy etishning strategik ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *mexatronika, robototexnika, 3D modellashtirish, CAD, CAE, CAM, raqamli prototip, Digital Twin, simulyasiya, 3D printer.*

Kirish. XXI asr sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashib borayotgan bir sharoitda mexatronika va robototexnika sohalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mexatronika mexanik tizimlar, elektronika, axborot texnologiyalari va intellektual boshqaruv vositalarining integratsiyasidan tashkil topgan murakkab muhandislik sohasidir. Robototexnika esa mazkur integratsiyaning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, avtomatik harakatlanuvchi va vazifa bajaruvchi tizimlarni yaratishni nazarda tutadi.

Bunday murakkab qurilmalarni an’anaviy usullarda loyihalash katta vaqt, moliyaviy xarajat va ko‘p bosqichli tajribalarni talab qiladi. Shu sababli zamonaviy muhandislikda 3D modellashtirish texnologiyalari markaziy o‘rinni egalladi. Ushbu texnologiya nafaqat geometrik shakl yaratish, balki konstruksiyani tahlil qilish, harakatni modellashtirish, yuklama ta’sirini baholash va ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan 3D modellashtirish mexatronika va robototexnika taraqqiyotining asosiy raqamli platformasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, muhandislik modellashtirish nazariyasi, ilmiy adabiyotlar tahlili va innovasion texnologiyalarni baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sanoat korxonalari va ta’lim muassasalaridagi mavjud amaliyotlar nazariy jihatdan umumlashtirildi.

Asosiy qism

3D modellashtirishning nazariy mohiyati

3D modellashtirish — ob’yektning uch o‘lchamli raqamli muhitda matematik va grafik ifodasini yaratish jarayonidir. Model odatda quyidagi parametrlarni o‘z ichiga oladi: geometrik shakl va o‘lchamlar; massa va material xususiyatlari; harakatlanuvchi bog‘lanmalar; tashqi ta’sir kuchlari; funksiyaviy cheklovlar.

Agar an’anaviy 2D chizmalar ob’yektning faqat proyeksiyalarini ifodalasa, 3D model ob’yektni real fazoviy muhitda to‘liq aks ettiradi. Bu muhandisga detallarning o‘zaro joylashuvini aniq ko‘rish va funksional munosabatlarni baholash imkonini beradi.

Mexatronik tizimlarda 3D modellashtirishning ahamiyati

Mexatronik qurilmalar odatda mexanik uzel, sensor, aktuator, mikrokontroller va boshqaruv algoritmidan iborat bo‘ladi. Ushbu elementlarning bir tizim sifatida ishlashi yuqori aniqlikni talab qiladi.

3D modellashtirish bu yerda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Konstruktiv moslikni ta’minlash

Dvigatel, reduktor, val, podshipnik va datchiklar o‘zaro aniq joylashtirilishi kerak. Modellashtirish orqali montaj xatolari oldindan aniqlanadi.

Kinematik tahlil

Robot bo‘g‘inlarining burilish trayektoriyasi, tezligi va harakat diapazoni tekshiriladi. Masalan, manipulyator qo‘lining 6 erkinlik darajasiga ega tizimida har bir bo‘g‘in harakati virtual muhitda hisoblanadi.

Mustahkamlik tahlili

CAE muhitida konstruksiyaga ta’sir etuvchi kuchlanishlar aniqlanadi. Natijada ortiqcha og‘irlik yoki zaif nuqtalar bartaraf etiladi.

Robototexnikada raqamli prototiplashtirish

An’anaviy yondashuvda avval fizik namuna tayyorlanar, keyin xatolar tuzatilar edi. Bu esa qimmat va vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Raqamli prototiplashtirishda esa robotning virtual nusxasi yaratiladi va quyidagi sinovlar o‘tkaziladi: harakat trayektoriyasi; motor momenti; energiya sarfi; to‘qnashuv xavfi; ishchi zonasi tahlili.

Bu usul orqali fizik namuna tayyorlashgacha bo‘lgan bosqichda xatolarning katta qismi bartaraf etiladi.

CAD, CAE va CAM integratsiyasi

Zamonaviy muhandislikda 3D modellashtirish yakka jarayon emas, balki yagona raqamli zanjirning bir qismi hisoblanadi.

- SolidWorks va Autodesk Inventor — konstruksiya yaratish;
- ANSYS — mustahkamlik va dinamika tahlili;
- Fusion 360 — ishlab chiqarish kodlarini tayyorlash;
- CATIA — murakkab sanoat loyihalari uchun.

Bu integratsiya mahsulotni “g‘oyadan tayyor mahsulotgacha” raqamli boshqarish imkonini beradi.

Digital Twin texnologiyasi

So‘nggi yillarda raqamli egizak (Digital Twin) konsepsiyasi jadal rivojlanmoqda. Unda real robot qurilmaning virtual nusxasi yaratiladi va sensor ma’lumotlari orqali doimiy yangilanib boradi.

Natijada: texnik nosozliklar oldindan prognoz qilinadi; profilaktik ta’mir rejalashtiriladi; ish samaradorligi oshiriladi; energiya tejaladi.

Bu Industry 4.0 konsepsiyasining muhim qismi hisoblanadi.

3D printing bilan bog‘liqligi

3D model tayyor bo‘lgach, uni 3D printing orqali tezkor fizik namunaga aylantirish mumkin. Bu ayniqsa robot korpusi, sensor ushlagichi, g‘ildirak, manipulyator bo‘g‘ini kabi qismlarda samaralidir.

Tahlillarga ko‘ra, kichik seriyali ishlab chiqarishda 3D printing ayrim detallar uchun an’anaviy frezerlashga nisbatan 30–50% gacha arzon bo‘lishi mumkin.

Oliy ta’lim tizimi uchun ahamiyati

Muhandislik ta’limida nazariya bilan amaliyot integratsiyasi asosiy talab hisoblanadi. 3D modellashtirish texnologiyalari talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- muhandislik tafakkuri;
- konstruktiv tahlil qobiliyati;
- raqamli ishlab chiqarish ko‘nikmasi;
- innovasion loyiha yaratish salohiyati;
- jamoaviy muhandislik ish uslubi.

Shuning uchun mexatronika yo‘nalishida CAD laboratoriyalari, simulyasiya markazlari va prototiplashtirish ustaxonalarini tashkil etish strategik vazifadir.

Muammolar va cheklovlar tahlili

Ushbu texnologiyalarni keng joriy etishda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- lisenziyalangan dasturlar qimmatligi;
- yuqori quvvatli kompyuterlarga ehtiyoj;
- malakali pedagog va muhandislar tanqisligi;

- mahalliy o‘quv-metodik bazaning cheklanganligi;
- ishlab chiqarish bilan ta’lim integratsiyasining yetarli emasligi.

Bu muammolar davlat-xususiy sheriklik, ochiq platformalardan foydalanish va kadrlar tayyorlash orqali hal qilinishi mumkin.

Xulosa

3D modellashtirish texnologiyalari mexatronika va robototexnika sohasining fundamental raqamli instrumenti hisoblanadi. U nafaqat geometrik dizayn, balki funksional tahlil, raqamli prototiplashtirish, ishlab chiqarishga tayyorlash va ekspluatatsiya samaradorligini boshqarish imkonini beradi.

Yaqin istiqbolda sun’iy intellekt, raqamli egizak va avtonom robotlar bilan integratsiyalashgan 3D modellashtirish muhandislik sohasida yangi bosqichni boshlab beradi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga chuqur joriy etish raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlashning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolton W. Mechatronics: Electronic Control Systems in Mechanical Engineering. Wiley, 2024.
2. Craig J. Introduction to Robotics: Mechanics and Control. Pearson, 2023.
3. Groover M. CAD/CAM: Computer Integrated Design and Manufacturing. McGraw-Hill, 2022.
4. Chua C.K. Additive Manufacturing Technologies. Springer, 2025.
5. Lee J. Digital Twin in Smart Manufacturing Systems. Elsevier, 2024.

SANOAT KORXONALARIDA ELEKTR ENERGIYASINI NAZORAT QILISH VA HISOBGA OLISH TIZIMLARINING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Nazirova Elmira Shodmonovna
t.f.d pdrofessor Televizion texnologiyalar
fakulteti dekani Muhamad al Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
E-mail: e.nazirova@tuit.uz
Abidova Shaxnoza Baxodirovna
t.f.f.d., PhD Multimedia texnologiyalari
kafedrasi dotsent v.b. Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti E-mail: shaxnoza23@mail.ru
Xalimjanov Abduqunduz Raximjon o’g’li
Phd tayanch doktorant
Tashkent shaxridagi Belarus-O’zbekiston qo’shma
tarmoqlar aro amaliy texnik kvalifikatsiya Insttituti
E-mail: xalimjonov1234@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada sanoat korxonalarida elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olish tizimlarining nazariy asoslari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy muammolari chuqur tahlil qilingan. Elektr energiyasi iste’molining ko‘p omilli, vaqtga bog‘liq va nolinear xususiyatlari, uch fazali elektr tarmoqlarida o‘lchov parametrlarining matematik modellari hamda avtomatlashtirilgan energiya hisobini yuritish tizimlarining (ASKUE) tuzilishi va funksional imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Amaldagi energiya monitoringi tizimlarining cheklovlari aniqlanib, sanoat energetikasida intellektual va mashinaviy o‘qitishga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanoat energetikasi, elektr energiyasi monitoringi, ASKUE, uch fazali elektr tarmoqlari, energiya samaradorligi, intellektual tahlil.*

Аннотация: *В статье проводится глубокий анализ теоретических основ, этапов развития и современных проблем систем контроля и учёта электроэнергии на промышленных предприятиях. Рассмотрены многофакторный, зависящий от времени и нелинейный характер потребления электроэнергии, математические модели измерительных параметров в трёхфазных электросетях, а также структура и функциональные возможности автоматизированных систем коммерческого учёта электроэнергии (АСКУЭ). Выявлены ограничения действующих систем мониторинга энергии, и научно обоснована необходимость внедрения интеллектуальных подходов на основе машинного обучения в промышленную энергетику.*
Ключевые слова: *промышленная энергетика, мониторинг электроэнергии, АСКУЭ, трёхфазные электросети, энергоэффективность, интеллектуальный анализ.*
Abstract: *The article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, development stages, and contemporary challenges of electricity control and metering systems in industrial enterprises. The multifactor, time-dependent, and nonlinear characteristics of electricity consumption are examined, along with mathematical models of measurement parameters in three-phase power grids and the structure and functional capabilities of automated electricity metering systems (ASKUE). The limitations of existing energy monitoring systems are identified, and the need to introduce intelligent, machine-learning-based approaches in industrial power engineering is scientifically substantiated.*
Keywords: *industrial power engineering, electricity monitoring, ASKUE, three-phase power grids, energy efficiency, intelligent analysis.*

Kirish. Hozirgi kunda sanoat korxonalarida elektr energiyasidan samarali foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki texnologik va strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi hamda energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olish tizimlariga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarasiz sarfi korxonaning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Amaldagi yondashuvlarda elektr energiyasi iste’moli ko‘pincha faqat hisoblagichlar orqali qayd etiladi va ushbu ma’lumotlar hisobot tuzish bilan cheklanadi. Biroq bunday yondashuv energiya iste’molini real vaqt rejimida chuqur tahlil qilish, nosozliklarni erta aniqlash va iste’mol jarayonlarini optimallashtirish imkonini bermaydi. Shu sababli sanoat korxonalarida energiya monitoringini intellektual tahlil asosida rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Sanoat korxonalarida elektr energiyasi iste’molini boshqarishning zamonaviy muammolari quyidagilar xisoblanadi. Sanoat korxonalarida elektr energiyasi texnologik uskunalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va yordamchi infratuzilma obyektlarining uzluksiz ishlashini ta’minlovchi asosiy resurs hisoblanadi. Elektr energiyasi iste’moli ishlab chiqarish hajmi, texnologik rejimlar, uskuna holati va tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib, murakkab va dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida sanoat energetikasida LSTM tarmog‘i asosida elektr energiyasi sarfini bashoratlashning matematik modeli taklif etiladi, bu an’anaviy ASKUE tizimlariga nisbatan 15-18% bashorat aniqligini oshirish imkonini beradi[1,2,3].

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida elektr energiyasini boshqarishda quyidagi muammolar keng tarqalgan:

- ❖ texnologik jarayonlarning notekis yuklanishi;
- ❖ elektr jihozlarining eskirishi va samaradorligining pasayishi;
- ❖ elektr tarmoqlaridagi texnik va texnologik yo‘qotishlar;
- ❖ fazalar bo‘yicha yuklamaning nomutanosib taqsimlanishi;
- ❖ monitoring va tahlil tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Mazkur omillar energiya resurslaridan samarasiz foydalanishga olib kelib, korxonaning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Elektr energiyasini hisobga olish va monitoring tizimlarining evolyutsiyasi shakllandi. Elektr energiyasini hisobga olish tizimlari tarixiy rivojlanish jarayonida mexanik hisoblagichlardan raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlargacha bo‘lgan bosqichlarni

bosib o‘tgan. Mexanik hisoblagichlar faqat umumiy energiya sarfini qayd etgan bo‘lsa, elektron hisoblagichlar aktiv va reaktiv energiyani, kuchlanish va tok qiymatlarini o‘lchash imkonini berdi. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida avtomatlashtirilgan energiya hisobini yuritish tizimlari (ASKUE) shakllandi. O‘zbekistonda sanoat korxonalarida elektr energiyasining o‘rtacha yo‘qotishlari 12-18% ni tashkil etadi, bu global o‘rtacha (8-10%) dan sezilarli darajada yuqori (O‘zbekiston Statistik qo‘mitasi, 2023). Ushbu tizimlar ma’lumotlarni masofadan yig‘ish va monitoring qilish imkonini yaratdi. Biroq aksariyat hollarda ASKUE tizimlarining funksional imkoniyatlari statistik kuzatuv va vizualizatsiya bilan cheklanib qolmoqda. ASKUE tizimlarining tuzilishi va funksional imkoniyatlari taxlil qilib chiqib quyidagi taxlilni xosil qilamiz[4,5,6].

ASKUE tizimlari odatda uch darajali arxitekturaga ega:

1. O‘lchov darajasi – uch fazali elektr hisoblagichlar va datchiklar;
2. Ma’lumotlarni uzatish darajasi – aloqa kanallari (RS-485, Ethernet, GSM);
3. Tahlil va vizualizatsiya darajasi – server, ma’lumotlar bazasi va dasturiy ta’minot.

Ushbu tizimlar real vaqt monitoringi va hisobotlarni shakllantirishni ta’minlaydi, biroq intellektual tahlil mexanizmlarining yetishmasligi ularning samaradorligini cheklaydi. Bundan tashqari uch fazali elektr tarmoqlarida o‘lchov parametrlarining matematik modellarini analiz qilib chiqib shu natijani olamiz. Uch fazali elektr tarmoqlarida har bir fazadagi aktiv quvvat quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$P_i = U_i * I_i * cos\varphi_i$$

$$P_i = U_i * I_i * cos\varphi_i, \;\; i = a, b, c$$

Umumiy aktiv quvvat:

$$P = P_a + P_b + P_c$$

Mazkur matematik modellar fazalararo nomutanosiblikni, yuklama o‘zgarishlarini va energiya yo‘qotishlarini aniqlash imkonini beradi hamda keyingi intellektual tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qo'rg'ontepa tumanidagi "BEST Textile International" korxonasida fazalararo aktiv quvvat tahlilini ko’rib chiqamiz. (2024-yil may oyi):

Dastlab Fazalardagi Parameterlarni o‘lchab olamiz. Demak bunda:

Kuchlanish: U_A=225.4V, U_B=221.8V, U_C=228.1V, O‘rtacha: 225.1V

Tok kuchi: I_A=83.5A, I_B=79.8A, I_C=76.5A, Ortacha: 79.9A

Quvvat koeffitsenti: cosφ_A=0.873, cosφ_B=0.892, cosφ_C=0.881, O‘rtacha: 0.882

Yuklama: A fazada = 104.5%, B fazada = 99.9%, C fazada = 95.8%, O‘rtacha: 100%

Aktiv quvvatlarni hisoblab chiqamiz:

P_A= U_A * I_A * cosφ_A =225.4*83.5*0.873=225.4*72.9=16.42 kW

P_B= U_B * I_B * cosφ_B =221.8*79.8*0.892=221.8*71.1=15.78 kW

P_C= U_C * I_C * cosφ_C =228.1*76.5*0.881=228.1*67.4=15.38 kW

Aktiv quvvat: P_A=16.42kW, P_B=15.78kW, P_C=15.38kW, O‘rtacha: 15.86kW

Umumiy aktiv quvvatni topish uchun 3 ta fazlardagi aktiv quvvatlarni xisoblab chiqamiz.

P_{umumiy}= P_A + P_B + P_C =16.42+15.78+15.38=47.58 kW

Fazalardagi tok kuchidan foydalanib nomutanosiblik tahlilini xisoblab topamiz:

I_{ort}= I_A + I_B + I_C =83.5+79.8+76.53=79.9 A

$$K_n = \frac{(I_A - I_{ort}) + (I_B - I_{ort}) + (I_C - I_{ort})}{3 * I_{ort}}$$

$$= \frac{(83.5 - 79.9) + (79.8 - 79.9) + (76.5 - 79.9)}{3 * 79.9} * 100\% = 4.2\%$$


Taklif etilayotgan Sun’iy Intellekt (SI) asosida monitoring va boshorat qilish natijasida erishiladigan natijani ya’ni fazalar yuklamasi tenglashtirilgandagi xolatni xisoblab chiqamiz:

Natija quyidagicha bo’ladi:

P_{umumiy}=3*225.1*79.9*0.882=47.58 kW

Eng asosiy ko’rstkichlardan fazalararo nomutanosiblik 0% bo’lganda va quvvat koeffintienti cos φ yaxshilanganda:
Natija quyidagicha bo’aldi:
$P_{optimal}$=3*225.1*79.9*0.95=51.25 kW
Buning natijasida quvvat o‘sishi quyidagicha korsatkichda bo‘ladi. Bunda optimallashtirilgan quvvatdan dastlabki xolatdagi umumiy quvvatni ayrimasi orqali topiladi: $P_{optimal} - P_{umumiy}$ = 51.25−47.58=3.67 kW(7.7%)

Energiya parametrlarining solishtirmasi:




SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARINING TA'SIRI

Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan energiya monitoringi tizimida quyidagi asosiy algoritmlar qo'llaniladi va ularning energiya samaradorligiga ta'siri tajriba natijalari asosida aniqlangan. Adaptiv yuklama taqsimotini boshqarish algoritmi har besh daqiqada bir fazalararo yuklamani real vaqt rejimida o'lchab, elektr jihozlarining ish rejimini dinamik optimallashtiradi. Ushbu algoritmning natijasida fazalararo nomutanosiblik darajasi 4,2% dan 0,8% gacha kamayadi, bu esa energiya uzatish yo'qotishlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Quvvat koeffitsiyentini (cos φ) monitoring qilish algoritmi har bir daqiqada quvvat omilini o'lchab, reaktiv quvvat kompensatorlarini avtomatik boshqaradi. Algoritmning samaradorligi quvvat koeffitsiyentini 0,882 dan 0,945 gacha oshirish orqali namoyon bo'ladi, natijada reaktiv energiya uchun to'lanadigan jarimalar butunlay yo'qoladi. Nosozliklarni prognozlash algoritmi transformator va boshqa asosiy elektr jihozlarining ishlash parametrlarini tahlil qilish orqali ularning muvozanatsizliklarini oldindan aniqlaydi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu algoritm yordamida elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlari 30% gacha kamayadi. Energiya iste'moli profilini tahlil qilish algoritmi ishlab chiqarish tsikllari va texnologik jarayonlarning energiya talabini chuqur o'rganadi. Algoritm ishlab chiqarish grafiklarini optimallashtirish orqali o'rtacha quvvat talabini 8% ga kamaytiradi, bu esa elektr energiyasidan iqtisodiy foydalanish imkonini beradi. Ushbu algoritmlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi sanoat korxonalarida energiya samaradorligini kompleks yaxshilash, energiya yo'qotishlarini minimallashtirish va elektr jihozlarining ishonchli ishlashini ta'minlash imkonini yaratadi. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan energiya boshqaruvi tizimlarini sanoat korxonasiga joriy etish natijasida olinadigan iqtisodiy samaradorlik quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Energiya tejamkorligi bo'yicha yillik 5,450 kilovatt-soat elektr energiyasini tejashga erishiladi, bu moliyaviy jihatdan 2,45 million so'mga teng keladi. Bu tejamkorlik asosan fazalararo yuklamani optimallashtirish, quvvat omilini yaxshilash va energiya yo'qotishlarini minimallashtirish orqali amalga oshiriladi. Reaktiv energiya jarimalarining kamayishi 3,28 kilovar reaktiv quvvatni tejash orqali yillik 1,23 million so'm miqdorida amalga oshiriladi. Quvvat koeffitsiyentini optimal darajada saqlash tizimi reaktiv energiya uchun qo'shimcha

to'lovlarni butunlay bartaraf etadi. Elektr jihozlarining ishlash muddati 20 foizga oshiriladi, bu esa jihozlar almashtirish va kapital ta'mir xarajatlarini kamaytirish orqali yillik 1,85 million so'm iqtisodiy samara keltiradi. Jihozlaming barqaror ishlash rejimi ularning ishlash muddatini uzaytiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarining to'xtash vaqtlari 65 foizga kamayadi, bu esa yillik 3,72 million so'm miqdorida ishlab chiqarish yo'qotishlarini qisqartiradi. Nosozliklarni erta aniqlash va oldini olish tizimi ishlab chiqarishning uzilishlarini minimal darajaga tushiradi. Xodimlarning mehnat unumdorligi 15 foizga oshadi, bu energiya boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoringni yaxshilash orqali yillik 1,64 million so'm qo'shimcha iqtisodiy samara beradi. Xodimlar vaqtini yuqori malakali vazifalarga qaratish imkoni yaratiladi. Jami yillik iqtisodiy samaradorlik ushbu barcha omillarni jamlaganda 10,89 million so'mni tashkil etadi. Bu miqdor sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish xarajatlarini qoplash va korxonaga sezilarli darajada qo'shimcha iqtisodiy foyda keltirish imkonini beradi.

Fazalararo yuklama taqsimoti quyidagicha taqqoslanadi:



Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosaga kelishim mumkin. Real tok qiymatlari 76.5-83.5 A oralig'ida, bu sanoat korxonalari uchun tipik diapazon (75-125 A). Fazalararo nomutanosiblik 4.2% ni tashkil etadi, bu SI algoritmlari yordamida 0.8% gacha kamaytirilishi mumkin. Quvvat koeffitsentini cos φ ni yaxshilash (0.882→0.95) korxonaga yillik 3,360 kWh qo'shimcha energiya resursini taqdim etadi. SI tizimining integratsiyasi yillik 10.89 mln so'm iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Asosiy optimallashtirish yo'nalishlari:

- ❖ Fazalar yuklamasini real vaqt rejimida tenglashtirish
- ❖ cos φ ni avtomatik boshqarish
- ❖ Energiya iste'moli profilini optimallashtirish
- ❖ Nosozliklarni erta aniqlash va oldini olish

Eng samarali optimallashtirish - fazalar yuklamasini tenglashtirish va cos φ ni oshirishni uyg'unlashtirish.

Elektr energiyasi monitoringi tizimlarida ma’lumotlar oqimini qayta ishlash texnologiyasi yillar davomida rivojlanib bormoqda. Monitoring tizimlarida ma’lumotlar oqimi quyidagi bosqichlardan o‘tadi: o‘lchash, uzatish, saqlash, oldindan qayta ishlash va tahlil. Oldindan qayta ishlash bosqichida ma’lumotlarni tozalash, filtratsiya, normallashtirish va vaqt bo‘yicha agregatsiya amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar intellektual tahlil algoritmlarining

aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Amaldagi monitoring tizimlarining cheklovlari o'rganib chiqib shunday taxlil o'tkazamiz[7,8,9].

Amaldagi energiya monitoringi tizimlari:

- ❖ anomaliyalarni avtomatik aniqlash imkoniyatiga ega emas;
- ❖ energiya iste'molini bashoratlashni ta'minlamaydi;
- ❖ qaror qabul qilish jarayonida inson omiliga yuqori darajada bog'liq.

Bu holat energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Jadval 1. An'anaviy va intellektual energiya monitoringi tizimlarini taqqoslash

Ko'rsatkich	**An'anaviy ASKUE tizmi**	**Taklif etilayotgan monitoring tizimi**
Ma'lumot yig'ish	Mavjud	Mavjud
Real vaqt tahlili	Cheklangan	To'liq mavjud
Anomaliya aniqlash	**Yo'q**	Avtomatik
Bashorat qilish	**Yo'q**	Mavjud
Qaror qabul qilish	Operatorga bog'liq	Intellektual

Jadval 2. Tizim komponentlari va ularning funksional vazifalari

Qatlam	**Komponent**	**Vazifasi**
O'lchov	SDM72ct-M	Uch fazali elektr energiya kattaliklarini o'lchaydi
Ma'lumot yig'ish	Node-RED dasturi	Malumotlarni yig'ish va dastlabki qayta ishlash
Saqlash	InfluxDB dasturi	Vaqt qatorlari ma'lumotlarini boshqarish
Tahlil	***Mashinaviy o'qitish modellari***	***Anomaliyalarni aniqlash va bashorat qilish***
Vizualizatsiya	Grafana dasturi	Interaktiv monitoring panellari

Jadval 2. Taklif etilayotgan energiya intellekti arxitekturasi komponentlari va ularning funksional vazifalari.

Monitoring arxitekturasi va ma'lumotlar oqimi

Tadqiqotda ochiq va qurilmadan mustaqil monitoring arxitekturasi qo'llanildi. Ushbu arxitektura quyidagi komponentlardan iborat:

SDM72CT-M uch fazali elektr energiyasi hisoblagichi — tok, kuchlanish, quvvat va energiya sarfini o'lchash;

Node-RED — Modbus RTU orqali ma'lumotlarni yig'ish va dastlabki qayta ishlash;

InfluxDB — vaqt qatorlari ma'lumotlarini saqlash;

Grafana — real vaqt monitoringi va vizual tahlil.

Mazkur arxitektura energiya monitoringi tizimini passiv hisoblash vositasidan faol analitik platformaga aylantirish imkonini beradi. O'lchov ma'lumotlari Modbus RTU protokoli orqali SDM72CT-M hisoblagichidan o'qildi. Ma'lumotlarni yig'ish va dastlabki qayta ishlash jarayoni Node-RED platformasida amalga oshirildi. Node-RED muhitida Modbus tugunlari yordamida hisoblagich registrlaridan qiymatlar olinib, ularning vaqt tamg'asi bilan birga qayd etilishi ta'minlandi[10,11,12].

Node-RED quyidagi funksiyalarni bajardi:

- ❖ o'lchov ma'lumotlarini uzluksiz yig'ish;
- ❖ noto'g'ri yoki yo'qolgan qiymatlarni aniqlash;
- ❖ dastlabki filtratsiya va formatlash;
- ❖ ma'lumotlarni InfluxDB bazasiga uzatish.

Ma’lumotlar InfluxDB vaqt qatorlari bazasida saqlandi. Ushbu baza sekund, minut va soat kesimida agregatsiya qilish imkonini berib, mashinaviy o‘qitish algoritmlari uchun qulay muhit yaratdi. Monitoring natijalari Grafana platformasida real vaqt rejimida vizualizatsiya qilindi.
Tajriba uchun belgilangan parametrlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Parametr	Qiymat
Elektr tarmog’I turi	Uch fazali, 380/220 V
Nominal chastota	50 Hz
O’lchov qurilmasi	SDM72CT-M
Aloqa interfeysi	RS-485 (Modbus RTU)
Na’muna olish davri	60 soniya
Kuzatuv muddati	30 kun
Kuztuvlar soni	Taxminan 43 200 marta

Tanlangan kuzatuv muddati ishlab chiqarish jarayonlarining kunlik va haftalik yuklama sikllarini to‘liq qamrab olish imkonini berdi.
Elektr energiyasi iste’molini bashorat qilish natijalari
Elektr energiyasi sarfini bashorat qilish uchun uchta model solishtirildi:

1. chiziqli regressiya;
2. Random Forest regressiyasi;
3. LSTM (Long Short-Term Memory) neyron tarmog‘i bu chuqur neyron tarmog‘i.

Ma’lumotlar 70 % o‘qitish va 30 % test to‘plamlariga ajratildi. Baholash mezonlari sifatida MAE (Mean Absolute Error), RMSE (Root Mean Square Error) va R^2 (Coefficient of Determination) ko‘rsatkichlari tanlandi[13,14].

Model	MAE (kWh)	RMSE (kWH)	R^2
Chiziqli regressiya	0.92	1.35	0.81
Random Forest	0.41	0.62	0.93
LSTM	0.29	0.48	0.96

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, chiziqli regressiya modeli nolinear bog‘lanishlarni to‘liq aks ettira olmadi. Random Forest modeli yuqori aniqlikni ta’minladi, biroq eng yuqori va barqaror bashorat natijalari LSTM modeli yordamida olindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, LSTM modelining yuqori aniqlik ko‘rsatkichlari (R^2=0.96) uni sanoat korxonalarida energiya boshqaruvida amaliy qo‘llash imkoniyatini ochadi. Biroq, modelning murakkabligi va hisoblash resurslariga talabi uni kichik korxonalarda joriy etishda cheklovchi omil bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda Random Forest modeli (R^2=0.93) optimal yechim bo‘lishi mumkin[15,16].

Xulosa

Maqolada sanoat korxonalarida elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olish tizimlarining nazariy asoslari har tomonlama tahlil qilindi. Elektr energiyasi iste’molining ko‘p omilli, vaqtga bog‘liq va nolinear jarayon ekanligi asoslab berildi. An’anaviy ASKUE tizimlarining asosiy cheklovi to‘plangan ma’lumotlardan chuqur tahliliy va boshqaruv maqsadlarida yetarli darajada foydalanilmasligida ekanligi ko‘rsatildi. Uch fazali elektr tarmoqlarida o‘lchov parametrlarining matematik modellari energiya iste’molini aniq tavsiflash imkonini berishi, biroq bu modellarning o‘zi yetarli emasligi aniqlandi. Amaliyotga quyidagi tavsiyalar kiritilishi mumkin: 1) Sanoat korxonalarida energetika monitoringi tizimlarini LSTM asosida bashorat modullari bilan boyitish; 2) Fazalar nomutanosibligini avtomatik boshqaradigan intellektual qurilmalarni joriy etish; 3) O‘zbekiston sharoitida energiya samaradorligini 20-25% oshirish uchun milliy monitoring platformasini yaratish. Energiya samaradorligini oshirish uchun monitoring tizimlarini intellektual tahlil mexanizmlari bilan boyitish zarur ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mashinaviy o‘qitishga asoslangan yondashuvlar sanoat energetikasida energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, nosozliklarni erta aniqlash va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mustahkam nazariy

poydevor yaratadi. Ushbu maqolada olingan xulosalar keyingi tadqiqotlarda intellektual energiya monitoringi tizimlarini ishlab chiqish va amaliy joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi "Energiya samaradorligi to‘g‘risida"gi Qonun (2022) – Energiya auditi va monitoring talablari.
2. O‘zDSt 2334:2019 "Sanoat korxonalarida elektr energiyasini hisobga olish talablari" – Milliy standart, ASKUE tizimlari uchun asos.
3. Abdurahmonov, A. (2021). "O‘zbekiston sanoat korxonalarida energiya auditi". TDIU nashri – Mahalliy korxonalardagi energiya yo‘qotishlarining statistik tahlili.
4. Karimov, S. et al. (2020). "Smart Grid texnologiyalari: O‘zbekiston istiqbollari". "Energetika" jurnali – Aqlli tarmoqlar va ularning mahalliy qo‘llanilishi.
5. Zhu, Y. et al. (2023). "Digitalization and Energy Efficiency in Industry 4.0". Energy Reports – Raqamlashtirish va energiya samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik.
6. Ahmed, R. et al. (2022). "Real-time Industrial Load Forecasting with Hybrid AI Models". IEEE Transactions on Industrial Informatics – LSTM va Transformer modellarining qiyosiy tahlili.
7. IEA (2023). "Energy Efficiency 2023: Market Report" – Global energiya samaradorligi tendensiyalari.
8. Hasan, M. et al. (2021). "Cost-Benefit Analysis of Smart Metering in Developing Countries". Sustainable Energy Technologies – Aqlli hisoblagichlarning iqtisodiy samaradorligi.
9. Bishop C.M. *Pattern Recognition and Machine Learning*. Springer, 2006.
10. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. MIT Press, 2016.
11. Hyndman R.J., Athanasopoulos G. *Forecasting: Principles and Practice*. OTexts, 2018.
12. Liu F.T., Ting K.M., Zhou Z.H. *Isolation Forest*. ICDM, 2008.
13. Haykin S. Neural Networks and Learning Machines. Pearson, 2009.
14. Deb C. et al. Applied Energy, 2017. https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2017.07.134
15. Zhou K., Yang S. Energy, 2018. https://doi.org/10.1016/j.energy.2018.04.112

“QUYOSH ENERGETIKASI” FANIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Davletov Ikram Yusupovich[1]
Qodirov Alibek Hamroyevich[2]
[1] Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedra mudiri
[21]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi katta o‘qituvchisi
qodirovalibek7788@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Quyosh energetikasi” fanida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda lokal elektr tarmog‘iga parallel ulangan 10 kVt quvvatdagi fotoelektrik stansiyaning ish jarayonini o‘rganishga mo‘ljallangan virtual laboratoriya modeli ishlab chiqildi. Sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘qitish, avtomatik baholash va natijalarni tahlil qilish mexanizmlari taklif etildi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, virtual laboratoriya, quyosh energetikasi, fotoelektrik stansiya, ta’lim texnologiyalari, adaptiv o‘qitish, energetika ta’limi, kasbiy kompetentlik*

Kirish. Oliy ta’lim tizimida energetika yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “Quyosh energetikasi” fanida fotoelektrik stansiyalarning ishlash jarayonlarini o‘rganish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Biroq an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarida texnik jihozlarning yetishmasligi, tajribalarni takrorlash imkoniyatining cheklanganligi hamda individual yondashuvning sustligi kuzatiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim texnologiyalarini, xususan sun’iy intellekt tizimlarini laboratoriya jarayoniga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi talabalar faoliyatini tahlil qilish, ularning bilim darajasiga moslashuvchi adaptiv o‘qitish tizimlarini joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, fotoelektrik stansiyalar kabi murakkab energetik tizimlarni o‘rganishda modellashtirish va intellektual tahlil vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya.Tadqiqot jarayonida “Quyosh energetikasi” fanida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning sun’iy intellektga asoslangan metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika lokal elektr tarmog‘iga parallel ulangan 10 kVt quvvatdagi fotoelektrik stansiyaning ish jarayonini virtual muhitda o‘rganishga yo‘naltirildi.

Laboratoriya ishida fotoelektrik stansiyaning asosiy texnik ko‘rsatkichlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Jumladan, tizimning chiqish quvvati kuchlanish va tok qiymatlariga bog‘liq bo‘lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P = U \cdot I \qquad (1)$$

bu yerda P – quvvat, U – kuchlanish, I – t ok kuchi.

Bundan tashqari, fotoelektrik tizimning samaradorligini baholash uchun foydali ish koeffitsienti aniqlanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\eta = \frac{P_{chiq}}{E \cdot S} \cdot 100\% \qquad (2)$$

bu yerda P_{chiq} – invertorning chiqish quvvati, E – quyosh nurlanishi, S – panellar umumiy yuzasi.

Mazkur hisoblashlar sun’iy intellekt tizimi yordamida avtomatik tarzda amalga oshirildi. Tizim talaba tomonidan kiritilgan parametrlarni tahlil qilib, natijalarni hisoblaydi, xatolarni aniqlaydi va tegishli tavsiyalar beradi. Shu orqali laboratoriya mashg‘ulotlari interaktiv va adaptiv ko‘rinishga ega bo‘ladi.



1-rasm. “Quyosh energetikasi” fanida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishga mo‘ljallangan sun’iy intellekt asosidagi virtual laboratoriya tizimining strukturaviy modeli

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, talabalar tomonidan energiya ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va tizim parametrlarini baholash ko‘nikmalari rivojlandi.

Shuningdek, virtual laboratoriya orqali talabalar quyosh nurlanishi, panel yuzasi va quvvat o‘rtasidagi bog‘liqlikni amaliy jihatdan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirdi.

Tahlillar. Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt tizimlari laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda samarali didaktik vosita hisoblanadi.

Taklif etilgan metodika an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlariga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega:

- individual yondashuvni ta’minlaydi;
- real vaqt rejimida baholash imkonini beradi;
- o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi;
- resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Shuningdek, ushbu yondashuv talabalarning mustaqil ishlash faolligini kuchaytirib, murakkab texnik jarayonlarni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Virtual laboratoriya va sun’iy intellekt integratsiyasi natijasida o‘quv jarayonining moslashuvchanligi ortib, laboratoriya mashg‘ulotlarining didaktik samaradorligi yanada yuksaladi. Mazkur metodika energetika yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yechim sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Quyosh energetikasi” fanida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lokal elektr tarmog‘iga parallel ulangan 10 kVt quvvatdagi fotoelektrik stansiyaning ish jarayonini o‘rganishga mo‘ljallangan virtual laboratoriya modeli talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini berdi. Sun’iy intellekt asosidagi yondashuv topshiriqlarni individual tarzda tashkil etish, natijalarni tezkor baholash hamda tavsiyalar ishlab chiqishda samarali vosita bo‘ldi. Natijada laboratoriya mashg‘ulotlarining interaktivligi, moslashuvchanligi va didaktik samaradorligi ortdi. Mazkur metodika energetika yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yechim sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Qodirov A. H., Davletov I. Yu. Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Quyosh energetikasi” fanini dasturiy ta’minot asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish // “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. – Urganch 2024. № 4. – B. 122–126.
2. Qodirov A., Khamraev O., Qadamoboyeva U., Akhmedov M., Bijanov A., Rajabov E. Methodology of teaching the science of solar energy in higher education countries // AIP Conference Proceedings. 2025. Vol. 3331. – 030050. DOI: 10.1063/5.0306160.
3. Sharipov Sh.S. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 320 b.
4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – Cambridge: MIT Press, 2016. – 775 p.
5. Kalogirou S.A. Solar Energy Engineering: Processes and Systems. – 2nd ed. – Academic Press, 2014. – 760 p.
6. Messenger R.A., Ventre J. Photovoltaic Systems Engineering. – 3rd ed. – CRC Press, 2010. – 456 p.

TABIATSHUNOSLIK DARSLARINI DIDAKTIK TAMOYILLAR ASNOSIDA METOD HAMDA METODIK USLUBLARLAR ORQALI TASAVVUR HAMDA TUSHUNCHALARNI SHAKILLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

E.P.Xayitov,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
ergashhayitov351@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatshunoslik fanini o‘qitishda didaktik tamoyillar asnosida metod hamda metodik uslublardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. O‘quvchilarda tabiat hodisalarini bevosita o‘rganish, tahlil qilish va ularni hayot bilan bog‘lash ko‘nikmalari shakllantirilishi shuningdek, bu uslublar o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish, tabiatga mehr va mas’uliyat hissini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi o’z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: tabiatshunoslik, og‘zaki metod, ko‘rgazmali metod amaliy metod, tajriba, kuzatish, ekskursiya, ekologik tarbiya, tabiatni o‘rganish.

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim jarayonida tabiatshunoslik fanining o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Chunki u o‘quvchilarda tabiat haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, atrof-muhitni anglash va uni asrashga oid mas’uliyat hissini tarbiyalaydi. Tabiatshunoslikni samarali o‘qitish esa, eng avvalo, o‘qituvchining qo‘llaydigan uslub va metodlariga bog‘liq. Dars jarayonlarini tashkil etishda avvalambor izchillik hamda muntazamlilik(ketma-ketlik) tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.O‘quvchilar tomonidan tabiat hodisalari va unda kechadigan jarayonlarni o‘rganishni oddiydan murakkabga qadar bosqichma-bosqich o‘tilishining samaradorligi katta. Bundan tashqari mavzuga chuqur kirib borishda metodlardan foydalanishning ham samarasi be’qiyos xususan, **Og‘zaki metodlar** - o‘qituvchining materialni og‘zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash; **Ko‘rgazmali metodlar** – tabiiy hamda tasviriy namoyish qilish (ko‘rsatish), mustaqil kuzatishlar, **Amaliy metodlar** - og‘zaki va yozma mashqlar, grafik (chizma) va laboratoriya ishlari ekskursiyalar orqali tushunchalar shakillantirish muhim ahamyat kasb etadi.

Ushbu metodlarning har biri orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini bevosita tajriba, kuzatish va amaliy mashg‘ulotlar yordamida mustahkamlaydilar. Dars mashg‘ulotlari davomida metodlarning to‘g‘ri qo‘llanishi hamda bu metodlar negizidan qolgan interfaol metodlardan foydalanish uslublarini to‘g‘ri tashkil etilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat hodisalarini chuqur tushunish, ularning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, tabiat qonuniyatlarini hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat bilim olishni, balki ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash va tabiatni asrashga ongli yondashuvni ham shakillantiradi. Shu sababli tabiatshunoslikni o‘qitishda fanning xususiyatlaridan kelib chiqib didaktik tamoyillar asosida o‘quvchilarda inson ham tabiatning bir bo‘lagi ekanligini tushunish va tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, shuningdek atrof-muhitni anglash va uni asrashga oid mas’uliyat hissini tarbiyalaydi.

Yondashuvlar nafaqat fanning mazmunini ochib berishda, balki o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda ham muhim o’rin tutadi.

Tabiatshunoslik — o‘quvchilarga atrof-muhit, tirik va noorganik tabiat hodisalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda inson faoliyatining tabiatga ta’siri haqida dastlabki tushunchalarni beruvchi fan hisoblanadi. Bugungi kunda tabiatshunoslikni o‘qitishda amaliy uslublardan foydalanish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, kuzatuvchanlik, tahlil qilish, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini yangi bosqichga ko’taradi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar tabiatni bevosita o‘rganadilar, natijada ularning ilmiy tafakkuri rivojlanadi, ekologik madaniyati oshadi va tabiatga bo‘lgan munosabati yanada sayqallanadi. Shu bois tabiatshunoslik darslarida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish o‘qitish samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridandir.

O‘zbekistonlik pedagog olimlardan A.Avloniy, Abdulla Qodiriy, T.To‘xtaboyev, S.Mirziyoyev kabilar yosh avlodni tabiatni asrash ruhida tarbiyalash, ekologik

madaniyatni rivojlantirish masalalariga samarali izlanishlar olib borganlar. Ayniqsa, bugungi kunda o‘zbekistonlik olimlarning tabiatshunoslik ta’limida STEAM yondashuvi, tajriba asosidagi o‘qitish metodlari, interfaol usullarni tadqiq etib, ularni amaliyotga joriy etishdagi faolliklari tahsinga loyiq. Shuningdek, biologiya, ekologiya, geografiya va kimyo yo‘nalishlaridagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar ham tabiatshunoslikni o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda olimlar tabiatni o‘rganishda raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va ekologik kuzatuv dasturlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lida ishlamoqdalar.

Tabiatshunoslik fanining maqsadi — o‘quvchilarda tabiat haqidagi asosiy bilimlarni shakllantirish, tabiat hodisalarini tushunish, ularni tahlil qilish va tabiatga ongli munosabatda bo’lish hissini rivojlantirishdan iborat.

Tabiatshunoslik darslarini didaktik tamoyillar asnosida metod hamda metodik uslublar orqali tasavvur hamda tushunchalarni shakillantirishning maqsadlari:

Bilim berish – o‘quvchilarga Yer, suv, havo, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ilmiy tushunchalarni o‘rgatish.

Tafakkurni rivojlantirish – kuzatish, solishtirish, tajriba o‘tkazish orqali mantiqiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish.

Amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish – tabiatni o‘rganish jarayonida o‘lchash, kuzatish, tajriba o‘tkazish kabi malakalarni rivojlantirish.

Tabiatni asrashga o‘rgatish – o‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, tabiatga mehr va ehtiyotkorlik bilan qarash tuyg‘usini singdirish.

Hayotga tayyorlash – olingan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish va atrof-muhitga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

Bu fan orqali o‘quvchilar:

Tabiatni tushunishni, uni kuzatish va tahlil qilishni o‘rganadilar;

Atrof-muhitni asrash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni anglaydilar;

Amaliy tajribalar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar;

Ilmiy fikrlash, kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tabiatshunoslik fanini o‘qitishda metod va metodik uslublarning qo‘llanilishi ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib o‘quvchilarda xulosa chiqarish imkonini yaratadi. Bu esa nafaqat bilimni mustahkamlash, balki o‘quvchilarda fikrlash, tahlil qilish, ijodkorlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Tabiatshunoslik fanining ahamiyati juda katta, chunki u insonni tabiat bilan bog‘laydi va atrof-muhitni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

1. Bilim beradi:

Tabiatshunoslik o‘quvchilarga Yer, suv, havo, o‘simlik va hayvonot dunyosi, ob-havo hodisalari va inson faoliyatining tabiatga ta’siri haqida chuqur bilim beradi.

2. Fikr va tafakkurni rivojlantiradi:

Tabiat hodisalarini kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va ilmiy fikrlashi shakllanadi.

3. Atrof-muhitni asrashga o‘rgatadi:

Tabiatshunoslik darslari orqali o‘quvchilar tabiatning har bir unsuri qadrli ekanini tushunadilar va tabiatni muhofaza qilish zarurligini anglaydilar.

4. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

Tajriba, kuzatish, o‘lchash, chizish kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda amaliy malaka va aniqlikni oshiradi.

5. Kasbiy yo‘nalishga tayyorlaydi:

Tabiatni o‘rganish orqali o‘quvchilarda biolog, ekolog, agronom, geolog kabi kasblarga qiziqish paydo bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlar – “Tabiat sirlari”, “O‘simlikni tanib ol”, “Hayvon izidan top” kabi o‘yinlar o‘quvchilarda tabiatshunoslik faniga bo‘lgan qiziqishni orttiradi, ularni jamoada ishlash va fikr almashishga o‘rgatadi.

Amaliy uslublar nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi, balki o‘quvchilarda ekologik tarbiya va ongni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Tabiatni kuzatish va o‘rganish jarayonida ular atrof-muhit muammolarini sezadi, ularni hal qilishda o‘z hissasini qo‘shish istagini uyg‘otadi. Shuningdek, tabiatshunoslik darslarida amaliy yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular tajriba va kuzatuv natijalariga asoslanib xulosa chiqarish, o‘z fikrini asoslab berish, tahlil qilish va muhokama yuritish kabi ilmiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda tabiatshunoslik fanini o‘qitishda tabiatshunoslik darslarini didaktik tamoyillar asnosida metod hamda metodik uslublar orqali tassavvur hamda tushunchalarni shakillantirishda og‘zaki ko‘rgazmali va amaliy metodlarni tog‘ri tashkil etish keng qo‘llash zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. O‘quvchilar tabiat hodisalarini chuqur tahlil qiladi, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlaydi va o‘z bilimlarini real hayot bilan bog‘lay oladi. Shuningdek, yondashuvlar o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mehr, hurmat va mas’uliyat hissini tarbiyalaydi, ekologik madaniyatni rivojlantiradi hamda tabiatni asrashga ongli yondashuvni shakllantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki tabiat va jamiyat oldida mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ushinskiy, K.D. Inson tarbiyasining asosi sifatida tabiat. – Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1980.
2. Sukhomlinskiy, V.A. Yurakni bolalarga beraman. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
3. Komenskiy, Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
5. Qodirov, A., va To‘xtaboyev, T. Boshlang‘ich ta’limda tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Pestalotssi, G. Insonni tarbiyalash haqida. – Moskva: Pedagogika, 1977.
7. Karimova, S., & Mamatqulova, N. Tabiatshunoslik fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent: TDPU ilmiy maqolalar to‘plami, 2020.
8. Raximova, D. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya berishning zamonaviy yo‘nalishlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
9. D.Sharipova,D.Xodiyeva,M.Shirinov-Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi darslik Toshkent 2020

INFORMATION TECHNOLOGY IN TECHNICAL SYSTEMS OF THE AUTOMOBILE INDUSTRY

F.Sirojiddinov

Kattakurgan state pedagogical institute

